TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

CHINGIZ AYTMATOV

85

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

CHINGIZ AYTMATOV

85

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.154-3
KBK 84(5Qir)
Ch 60

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Zuhriddin Isomiddinov, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Ahmadjon Meliboyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, salvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8571-2-4
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

ADIB HAQIQATI

Badiiy adabiyot xazinasini durdona asarlari bilan boyitgan Chingiz Aytmatov ijodidan bahramand bo'lmagan kitobxonni topish qiyin. Har bir millat vakili ulug' adibning qissa va romanlarini mutolaa qilar ekan, o'zi, millati va vatani uchun dahldor ko'p narsalarni topa oladi. Mahorat bobida Aytmatov ko'tarilgan beqiyos cho'qqi Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Aytmatovning ijodi O'zbekistonda keng tarqalgan va o'rganilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bunda Asil Rashidov, Ibrohim G'afurov, Suyun Qorayev, Mahkam Mahmudov, Abduraim Otametov kabi mahoratli tarjimonlar, G'aybulla Salomov, Akmal Saidov, Saydi Umirov, Pariza Muhammadjonova kabi taniqli olimlarning xizmatlari katta. Adibning tog' va dasht qissalari o'quvchini buyuk iste'dod egasining uyg'oq badiiy olamiga olib kirdi, falsafiy-estetik qarashlari bilan tanishtirdi. Ikki yondosh, qondosh xalq orasidagi azaliy do'stlik rishtalari, adabiy, madaniy aloqalar adibning mahoratli qalami, jur'atli so'zi, beg'ubor qalbi, jo'shqin fikrlari, shuningdek, Chingiz og'aning o'zbek xalqiga bo'lgan samimiy mehr-muhabbati bois yanada rivoj topdi.

"Aytmatov ijodi bizga ko'p jihatdan saboq bergulik maktabdir, — deb yozgan edi O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov. — Mening uchun Aytmatov saboqlaridan biri quyidagicha: Chingiz og'a o'zining benihoya jasur iste'dodi bilan har qanday mahdud, qiyin sharoitda ham haqiqatni qiyomiga yetkazib, o'rinlatib ayta bilishini isbotladi. Adibning "Alvido, Gulsari" asarini eslang. Asar qahramoni Tanaboyning ham, uning sodiq yo'ldoshi Gulsari laqabli otning ham navqiron chog'lari jamiyat xizmatiga sarf bo'ldi. Biroq, ular qartaygach nazardan, e'tibordan qola boshladilar. Yozuvchi mana shu fikrni murakkab sharoitda katta mahorat bilan badiiy asarga aylantirdi. Bu gap bugungi kunda ham o'z aktualli-

gini, hayotiy qimmatini yo‘qotgan emas. Albatta, har qanday buyuk adibning ham o‘z uslubi, ohangi bo‘ladi. Tolstoyni Dostoyevskiydan farqlashda dohiyona belgilarni ilg‘ash mumkin bo‘lganidek, Aytmatov ijodini kuzatganda faqat unga xos bo‘lgan fazilatlarni darhol topa olamiz. Bular — chuqur insoniy falsafa hamda g‘oyat go‘zal poetik ruhdir”.

“Ezgulik ozroq chekinsa bas, uning o‘rnini darhol yovuzlik egallab oladi, — deydi adib. — Afsuski, biz uzoq muddat bunga e’tibor bermadik. Inson tirik ekan, u yaratuvchilik va buzg‘unchilik, o‘ylab va o‘ylamasdan qilinadigan son-sanoqsiz harakatlar manbai bo‘lib qolaveradi. Uning ichki olami, ruhiy dunyosi murakkab va xavfli yo‘l-yo‘laklardan ham iborat. Lekin, nima bo‘lganda ham, qonxo‘rdan qonxo‘r tug‘ilishini, yovuz kimsadan yovuz kimsa dunyoga kelishini, manqurtlik, zombichilik vabosini bartaraf etish kerak. Bu — insoniyatning muqaddas burchi”.

Ushbu so‘zlar Chingiz Aytmatovga tegishli. Uning fikricha, hamma zamonlarda ham hukmdorlar o‘zlariga tobe, qaram bo‘lgan xalqlarning o‘tmish tarixi, madaniyati, urf-odati, ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga bepisand qarab, ularni har jihatdan tahqirlab kelganlar. Tarixidan ayrilgan xalq esa ota-onasiz yetim bolaga, qarovsiz novdaga o‘xshaydi, uni qaysi tarafga egsang bas, o‘sha tarafga qarab o‘saveradi. Afsuski, totalitar tartiblar hukm surgan davrda biz o‘z ixtiyorimiz bilan qaramlikni bo‘ynimizga oldik, yaralarimizdan qon tomib turgan bo‘lsa-da, unga e’tibor bermadik, tariximizni sinchiklab o‘rganmadik, aksincha, o‘zga mamlakatlar tarixini o‘rgandik va o‘zgalar tarixini o‘zimiznikiga nisbatan yaxshiroq bilib oldik. Sobiq tuzum mafkurasi bois shunday bo‘ldi. Tarix fani o‘zimiznikiga va o‘zgalarnikiga ajratildi: o‘z uyimizda yetim bo‘lib qoldik, aynan o‘zgalarning tarixi bizniki bo‘ldi. Axir, qadim zamonlardan boshlangan tabarruk tariximiz qo‘liga qalam ushlab olgan olim-qassoblar tomonidan buzib yozilmadimi?! Vaqt o‘tishi bilan, nahotki, bundaylarning dunyoqarashi o‘zgarib qolgan bo‘lsa? Axir, ular hamon tarafkashlik qilayotir-ku!.. Yaxshimi, yomonmi, har bir xalqning o‘z tarixi, o‘tmishi bor. Shu bois insoniyatdan yomon tomonlarni yashirib, faqat yaxshi tomonlarni ko‘z-ko‘zlab, o‘z tarixini har xil bo‘yoq-bezaklar bilan jimjimador

qilib, uni bir-biriga mos kelmaydigan matahlar bilan yamab-yasqab o'tirish kechirib bo'lmaydigan bir holdir".

Aytmatov zamonga, katta adabiyotga, asarlari qahramonlariga nisbatan samimiy munosabatini fikr-mushohadalarida, e'tirof yoki raddiyalarida ham saqlab qoladi. "Bizning avlod sovet zamonida tug'ilib, shu zamonning mafkurasi ta'sirida voyaga yetdi, — deydi u suhbatlaridan birida. — Shu zamonning maktablarida o'qidik, kitoblaridan ta'lim oldik. Bugun bizni tanqid qilayotgan, o'sha yillari yozgan ayrim so'zlarimizni bugun yuzimizga solayotgan ayrim sinchilar (tanqidchilar) o'ttizinchi, elliginchi yillarning dahshatli so'ronlari ortda qolganidan keyin tug'ilishgan. Bu — ularning baxti. Siyosat odamning qon-qoniga singib ketgan edi. Partiyaning har bir so'zi butun el uchun, jamiyat uchun o'zgarmas qoida bo'lgan. Boshqacha yashash mumkinligini juda oz kishi o'ylagan. Shunga qaramay, endilikda o'zlarini qahramon qilib ko'rsatayotganlar oz emas. Mayli, bu ularning vijdoniga havola. Menga kelsak, sizlar publitsistika deb ataydigan ko'plab maqolalarim Moskva gazetalarida bosilgan. Bitta men emas, el-yurtning ko'z o'ngida bo'lganlarning hammasi shunday qilishgan. Buni inkor etib bo'lmaydi. Bugun men o'zimga nisbatan aytilayotgan kinoyalarga javoban: "Qalp (yolg'on) so'ylab qo'ygan ekanman, buning uchun kechirib qo'yasizlar, og'aynilar", desam, kulgili ahvolga tushib qolishim mumkin, bu bilan obro'yim oshib qolmaydi, biror nima o'zgarmaydi ham. Sovet davri men bilan tengdosh avlod yozuvchilar hayotining bir qismi, uni istasang ham, istamasang ham umring sahifasidan o'chirib tashlay olmaysan. Tarixda sodir bo'lgan hech bir voqea orqasiga qaytmaydi. Biz bo'lsak odam bolasimiz. Odam bolasi bo'lganingdan keyin yanglishasan, ba'zan his-hayajonga berilasan. Siyosat — parhez taom emas, juda chigal narsa. Mening o'yimcha, buni alohida urg'ulab aytmoqchiman: yanglishib, so'rab-surishtirib, ong-sezim bilan ham haqiqatga yetib borsa bo'ladi. Gap odamning ko'z qarashlari bir joyda qotib turibdimi yo atrofida, jamiyatda, dunyo kengliklarida sodir bo'layotgan voqea-hodisalar ta'sirida o'ziga ayon bo'lmagan narsalarni, yangi bilimlarni egallashga harakat qilmoqdami — mana shunda! Bizning bu soxta zamondan, soxta ittifoqdan, uning g'oyaviy tushovlaridan

insoniy qadr-qimmatimizni yo‘qotmay, imonimizdan ayrilmay, el-yurt nazaridan qolmay chiqib olganimiz cho‘ng g‘alaba, juda cho‘ng iygilik (yutuq). Buni tushunish kerak, qadriga yetish kerak. Mana, mustaqil bo‘ldik, dunyoga chiqa boshladik. Endi shu ulug‘ yo‘lni mahkam ushlaylik, shu ulug‘ niyat yo‘lidan og‘ishmaylik. Buning uchun bir-birimizni qo‘llab-quvvatlab, bir-birimizga yo‘lchiyo‘ldosh bo‘lib, oldinga qarab intilishimiz, mayda-chuyda narsalar bilan o‘ralashib qolmasligimiz kerak. O‘zimni donishmand qilib ko‘rsatmoqchi emasman, ammo men ayrim sinchilar bugun tilga olayotgan maqolalarimda ham dilimdagi ko‘p gaplarni, ich-ichimdan rozi bo‘lmagan, qabul qilmagan narsalarni aytishga harakat qilganman. Buni hisobga olish kerak...

To‘g‘ri, mening ko‘plab publitsistik maqolalarim avvalgi zamonning ehtiyojlaridan kelib chiqib yozilgan va buni mutlaqo inkor qilib bo‘lmaydi. Ammo ularning hammasini bir xilda baholash mumkin emas. Aytishim joizki, o‘shanda ham mavjud imkoniyat va imkoniyatim darajasida ko‘nglimda bor gapni aytishga harakat qilganman, uzoqroqni ko‘rishga intilganman. Bugun endi ayni shu masalada ancha-muncha nordon gaplar bo‘layotibdi. Xabarim bor va men buni to‘g‘ri tushunaman. Har kim o‘zi to‘g‘risidagi haqiqatni o‘zi aytishi kerak...”.

Aytmatov xalqimiz tarixi va madaniyatini, boy ma’naviy merosimizni yaxshi bilar, chuqur his etar, buyuk allomalarimiz bilan o‘zbek xalqi kabi faxrlanardi. Uning kuyunchaklik bilan yozilgan publitsistik maqolalari, dolzarb ma’ruzalarida ajdodlarimizning olamshumul kashfiyotlari, dunyo tamaddunini bezagan allomalar, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi moziyga shohid shaharlarni bunyod etgan arxitektorlar bilan faxrlanish, Orol ko‘lining taqdiriga kuyunish, o‘zi oq, ammo ishi, mashaqqati qora, xarid narxi past paxta, o‘zbek dehqonining zahmatli mehnati haqidagi jiddiy mushohadalarga duch kelamiz. Sobiq ittifoqning bosh nashrida e’lon qilingan birgina “Paxtaning oydin yo‘li” maqolasi fikrimizga salmoqli dalil bo‘la oladi.

“Asrni qaritgan kun” romani qahramonlaridan biri Qazangap taqdir taqozosi bilan olti yil Mirzacho‘lga kelib yashaydi. Shu yerda xivalik Bo‘key ismli qoraqalpoq qizga uylanadi. Umri ni-

hoyasiga yetayotganida Orol dengiziga borib, bu bahri ummon bilan vidolashadi. Qurib-qaqshab jon talashayotgan dengizning qum bosgan sohillariga tikilar ekan: "Orol dunyo turguncha turar edi, mana endi, shu dengiz ham quriyapti, odam umrini gapirmasa ham bo'ladi", deydi va Edigeydan vafot etganida Ona Bayitga dafn etishini iltimos qiladi.

"Jamila"dagi Doniyor ham bizga yot emas. "Turmush bu mushtdek bolani ne kuylarga solmagan, tirikchilik dardida u qayerlarga bosh urmagan. Doniyor ko'p vaqt Chaqmoq dashtida qo'y boqib yurib, voyaga yetgach, jazirama cho'llarda kanal qazigan, yangi tuzilgan xo'jaliklarda paxta ekib, ekin sug'orib, oxiri Toshkent yaqinidagi Ohangaron shaxtalarida ishlab, o'sha yerdan armiyaga ketgan edi". "Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori"da Chingiz Aytmatov Sohibqiron Amir Temurning Sheroz shahrida hofiz Sheroziy bilan bo'lgan uchrashuvini yodga olib, ulug' hukmdorning quyidagi so'zlarini keltiradi: "O'z shoirini izlab yurgan podshoning qo'l ostidagi xalq baxtli bo'ladi. Biroq, o'z hukmdorini izlab yurgan shoirning xalqi baxtsizdir".

Ustoz Mirtemir domla "Manas" eposining dastlabki qismlarini o'zbek tiliga o'girib, muhokama qilish uchun Qirg'izistonga yuborganida, Chingiz og'a "Hech qanday e'tirozim yo'q, juda yaxshi o'girilgan. Cho'ng shoir Mirtemir shunday ish qildiki, biz endi undan qarzdor bo'lib qoldik", deya tarjimaga yuqori baho beradi. "Mirtemirni O'zbekistonda qanday sevsalar, hurmat qilsalar, qadrlasalar, bizda, Qirg'izistonda ham she'riyat muxlislari va, umuman, "Manas"ni milliy tarixiy boyligimiz sifatida, aqliy epik ijodning cho'qqisi sifatida sevib, e'zozlaydigan, qadrlaydigan har bir kishi, "Manas" haqida qayg'urib, uni respublikamizga qo'shni boshqa viloyatlardagi odamlar ham iloji boricha ko'proq o'qishini o'ylagan har bir kishi, u kim bo'lishidan qat'i nazar, Mirtemirni yodga olmasligi mumkin emas, uni minnatdorlik bilan eslamasligi mumkin emas, binobarin, biz zo'r e'tibor bilan o'rganayotgan va o'rganishimiz lozim bo'lgan juda qadimiy va boy an'analarga ega bo'lgan o'zbek xalqi adabiyotini, madaniyatini ehtirom bilan yodga olmasligi mumkin emas va men o'ylaymanki, biz ham o'z navbatida, o'zbek adabiyoti va madaniyati boyliklarini o'z ijodiy

iste'molimizga qo'shish uchun harakat qilishimiz kerak, albatta shunday qilamiz", deydi adib mamnuniyat bilan.

Chingiz Aytmatov o'zbeklar diyorini o'z yurtiday, odamlarini tug'ishgan og'a-inilariday qadrlaydi. Mirtemir, Zulfiya, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Shukrullo, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Maqsud Qoriyev, Ziyod Yesenboyev, Botir Zokirov, Asil Rashidov, Anvar Jo'raboyev, Suyun Qorayev, Pariza Muhammadjonova, Nurali Qobul va boshqa ko'plab ijodkorlarni og'a-inidek bilib, ular bilan umrining oxirigacha samimiy muloqotda bo'ldi. Adib O'zbekistonda ijodiga zo'r qiziqish bilan qaralayotgani, ba'zi asarlari qirg'iz tilida chop etilayotgan asarlaridan ko'ra ham ko'p nusxada bosilayotgani, o'quvchilar ularni sevib mutolaa qilishayotgani, "Sarvqomat dilbarim", "Momo Yer", "Oq kema", "Alvido, Gulsari", "Sohil bo'ylab chopayotgan olapar" o'zbek sahnalarida namoyish etilayotgani, tarjimonlar, rejissor va aktyorlar bor mahoratlarini ishga solib, uning o'y-fikrini kitobxonga, tomoshabinga to'g'ri yetkazishayotgani, respublika oliy o'quv yurtlarida hayoti va ijodiga bag'ishlangan anjumanlar doimiy ravishda o'tkazilayotganidan benihoya xursand edi. "Menga ixlos qilib, kitoblarimni o'zbek tiliga tarjima qilgan do'stlarimga, ayniqsa, adabiyotshunos, tarjimon Asil Rashidovga tashakkur aytmoqchiman, — degan edi Chingiz og'a. — Chunki mening "Oq kema", "Jamila", "Alvido, Gulsari" kabi bir qancha povestlarimni Asiljon o'zbekchaga xuddi men ularni qirg'iz tilida yozganday jarangdor qilib tarjima qila olgan".

Aytmatovshunos olim A. Aqmataliyev quyidagilarni ta'kidlaydi: "Bir vaqtlar qirg'iz shoiri Joomart Bokonboyev she'rlarining birida: "Shunday vaqt keladiki, qirg'iz adabiyoti yurt hududidan chiqib, Yevropa bo'ylab, dunyo bo'ylab mag'rur qadam tashlaydi, dunyo adabiyotining kichik bo'lsa ham munosib bir tarkibiy qismi bo'lib qoladi", deb bashorat qilgan edi, shunga ishongan edi. Ko'rib turibmizki, u haq bo'lib chiqdi. Lekin o'sha paytlari bu she'r muallifining orzu-umidlarini kitobxonlar shoirning shunchaki shirin hayoti deb o'ylaganlari aniq. Oradan bor-yo'g'i bir necha yil o'tdi, bu orzu-umidlar Aytmatov misolida ro'yobga chiqdi. Qirg'iz adabiyoti adabiy Olimp sari shiddat bilan ko'tarilmoqda.

Haqqoniy, achchiq va, ayni paytda, nekbin badiiy so‘z turli mamlakatlar va qit’alar osha kitobxonlar yuragida aks-sado topmoqda. Aytmatovdek iste’dod egasini tarbiyalab voyaga yetkazgan xalq baxtiyordir”.

Ustoz olim Najmiddin Komilovning quyidagi fikrlariga e’tibor beraylik: “Oq kema” kabi “Sohil bo‘ylab chopayotgan olapar” qissasida ham afsona va real hayot tasviri o‘zaro qo‘shilib ketadi. Umuman, Aytmatov ijodida asotir va tush, tabiat kuchlari haqidagi ibtidoiy tasavvurlar patriarxal jamoa kishilarining xarakterlarini yaratish, o‘zlarini tabiatning bir bo‘lagi deb bilib, unga sig‘ingan, undan madad olgan va tabiat bilan doimo kurashib kelgan odamlarning turmush tarzini aks ettirishga ko‘maklashishdan tashqari, tabiat va inson orasidagi munosabatlarni yangicha talqin qilish mavjud. Shunday usul tufayli qissa-istiora darajasiga ko‘tarilgan bu asar ayni vaqtda qissa-doston hamdir. Doston bo‘lganda ham dramatik doston, nasriy tilda yozilgan muntazam va mustahkam ichki ritmga bo‘ysunadigan, botiniy lirik-publitsistik intonatsiyaga ega doston. Bu ritm asarga alohida ruh bag‘ishlagan. Serehtiros musiqa avvaliga vazmin, salobat bilan yangraydi, keyin bora-bora kuchayib, shiddat kasb etadi, ruhiy qiynoq va iztiroblar po‘rtanasini alangalatadigan avjli, quyuq ohanglar bosib kela boshlaydi, so‘ngra oxirida yana yorug‘lik, nurni qalbga indiradigan farahli kuy yangragandek bo‘ladi”. Darhaqiqat, e’tiborli o‘quvchi Aytmatov asarlarini mutolaa qilar ekan, ko‘z o‘ngida hayotning kutilgan-kutilmagan iztirobli po‘rtanalari, voqea-hodisalar, keskin burilishlar, ayriliq va yo‘qotishlar, fidoyilik va sotqinlik, soddalik va makkorlik, vafo va sadoqat, isyon va ko‘nikish kabi tushuncha-tuyg‘ular fikr-manzara, fikr-xulosa, fikr-ibrat yanglig‘ namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotchi S. Maqsimxonov turkiy adabiyotning ikki buyuk vakili — Alisher Navoiy va Chingiz Aytmatov asarlarida (“Layli va Majnun”, “Qiyomat”) insonning ona-tabiatga, til-zabonsiz maxluqotlarga munosabati va shu bilan bog‘liq xatti-harakatlarida o‘zaro yaqinlik, o‘xshashlik borligini ta’kidlaydi: “Layli va Majnun”ni varaqlaymiz... Ishq dardiga mubtalo bo‘lgan Qays “Majnun” nomini oladi. Uning Layliga bo‘lgan pokiza va ehtirosli ishq tug‘yonlari atrofidagi olomonga — zamondoshlariga jinnilik, tel-

balik bo'lib ko'rinadi. Qavmdoshlari orasida Qaysga dardkash, hasratdosh topilmaydi. Oqibat u "vahshatlig' eldin ulfat rishtasin uzib", "biyobon vahshiylari" orasidan panoh topadi. Uning dardini biyobon, dasht ohulari, yirtqichlari tushunadi. Ohular o'rtasidagi Majnun go'yo cho'pon, yirtqich bo'rilar esa uning sodiq itlari kabi...

"Qiyomat" romanida Avdiy adashgan, insoniy qiyofasini yo'qotib borayotgan, pul, mol-dunyo to'plash uchun har qanday jinoyatdan, yovuzlikdan qaytmaydigan kimsalarni insofga chaqiradi, ezgulikka da'vat qiladi, Allohni yod etishga undaydi. Go'sht planini bajarish uchun Mo'yinqumdagi sayg'oqlarni qirg'in qilayotgan yollanma ovchilar to'dasiga qo'shilib qolgan Avdiy ko'z o'ngida sodir bo'layotgan qiyomatni ko'rib dahshatga tushadi: "Mo'yinqum kiyiklariga uyushtirilgan qirg'in Avdiyga shunchalar og'ir ta'sir qildiki, u bu xunrezlikni darhol to'xtatishni talab qildi, vahshiylashib ketgan ovchilarni tavbaga chaqirdi, Xudodan kechirim so'raylik, dedi. Bu lavhadagi Avdiy Majnunga o'xshab ketadi. Biroq muammoning, voqealarning yechimi tamoman boshqacha. "Qiyomat" romani qahramoni yovuz shaxs ober-Kandalov va uning hamtovoqlari — diyonatli Navfal va uning sheriklari emas. Allohdan qo'rqish, imon, tavba, ezgulik ular uchun begona. Tavbaga, Allohdan mag'firat so'rashga da'vati uchun ko'zi qonga to'lgan olomon — ovchilar Avdiyni vahshiylarcha kaltaklab, saksovul daraxtiga "chormix" qilib qatl etadilar".

Yana bir haqiqat shuki, ulug' bobomiz Alisher Navoiyning komil inson, hamjihatlik, o'zaro hurmat-ehtirom, bag'rikenglik haqida bundan besh yarim asr avval aytgan mo'tabar so'zlari dunyo ahlining shu maqsadga erishish yo'lini bugun ham nurafshon qilib turgan bo'lsa, Chingiz Aytmatovning ma'naviy merosi, uning butun insoniyatga qarata "Yer talashmanglar, boylik talashmanglar, tog'larni qulatmanglar, tabiatni asranglar, insonning insonligini saqlab qolinglar, sha'niga dog' tushirmanglar", degan vasiyati ham asrlar osha ayni shu maqsadga xizmat qilishi shubhasiz.

Aytmatov dahosidan bahramand bo'lgan har bir kishi buni qalban his etadi.

Ahmadjon Meliboyev,

Chingiz Aytmatov nomidagi xalqaro akademiya a'zosi

ERTA QAYTGAN TURNALAR

O‘g‘lim Asqarga

Oqsoy, Ko‘ksoy, Sariqsoy — kezmagan yer qolmadi,
Lekin hech bir o‘lkadan o‘xshashing topilmadi...

Qirg‘iz xalq qo‘shig‘i

* * *

Iovga eltdi chopar shumxabar:
“O‘g‘lonlar ko‘ksiga sanchilmish xanjar...”

“Iov” kitobidan

* * *

Qayta-qayta dalasini shudgor qilar qo‘shchilar,
Qayta-qayta sepadilar yerlariga urug‘, don,
Qayta-qayta yomg‘ir bilan siylar ularni osmon...
.....

Umid bilan yer haydaydi odamlar,
Umid bilan urug‘ sochar odamlar,
Umid bilan dengiz ketar odamlar...

“Theragatha”, 527–536-betlar.
Qadimgi Hindiston adabiyoti yodgorliklaridan

BIRINCHI BOB

Sovqotib, dag‘al shol ro‘molga o‘ranib olgan muallima Inkamol opa geografiya darsida Seylon haqida, okeanning Hindistonga yaqin qirg‘oqlarida joylashgan o‘sha afsonaviy orol haqida hikoya qilar edi. Seylon maktab xaritasida bepoyon yerga nisbatan bir nuqtaday ko‘rinar edi. Yaxshilab tinglasang, nimalar yo‘q u yerda, maymunlar-u fillar ham, bananlar ham (qandaydir mevalar), dunyoda eng yaxshi choy ham va turli-tuman yovvoyi mevalar, notanish o‘simliklar ham bor. Hammasidan hamma yoq doim shunday issiq bo‘ladiki, yil bo‘yi bemalol yuraverasan: etik ham, qalpoq ham, paytava-yu po‘stin ham kerak emas. O‘tinni-ku, umuman, keragi yo‘q. Shunday bo‘lgach, ko‘ray terib kelish uchun dalaga borishning, burning yerga tegay-tegay deb shox-shabba, o‘tin

orqalab kelishning keragi ham yo‘q. Mana yashash deb shuni aytadi-da. Maza qilib yuraver, xohlasang oftobda isin, xohlamasang soyada yot. Seylonda kecha-yu kunduz havo issiq, shunday rohatki, yozning nihoyasi ko‘rinmaydi. Qancha xohlasang shuncha cho‘milaver, xohla ertalabdan kechgacha. Zeriksang tuyaqushlarni quvla, tuyaqushlarmi, albatta bor u yerda. Uyoqda bo‘lmay qayerda bo‘lsin yana bu kattakon ovsar qushlar. Seylonda aqlli qushlar ham bor, masalan, to‘ti. Agar xohlasang uni tutib olasanda, sayrashga, kulishga, hatto raqs tushishga ham o‘rgatasan. To‘ti shunday qushki, hamma narsa qo‘lidan keladi. Aytishlaricha, shunday to‘tilar ham bor ekanki, hatto o‘qishni ham bilarmish. Ovuldagilardan kimdir o‘qishni biladigan to‘tini Jambul bozorida ko‘rgan ekan. Tumshug‘iga gazeta tutsang sharillatib o‘qib tashlayverarmish...

Ehe, nimasini aytasan, ajoyibotlarning hammasi Seylonda. Hech narsani xayolingga keltirmay bemalol yashayverasan. Muhimi, plantatsiya egasining ko‘ziga ko‘rinmasang bo‘lgani. Qo‘lida qamchisi bilan yuradi. Xuddi qullariday seylonliklarning yelkalariga qamchi bilan tushirib qoladi. Zolim! Quloq-chakkasiga qarsillatib tushirsang-da, ko‘zlaridan olov chiqib ketsa. Qamchisini tortib olib, o‘zini ishlashga majbur qilsang. Ekspluatatorlar-u kapitalistlar erkaligini yig‘ishtirib qo‘ysin, boshqa gap yo‘q: o‘zing uchun o‘zing ishla, o‘z chorig‘ingni o‘zing sudra, vassalom! Axir o‘shalardan fashistlar kelib chiqadi-da... Urush ham o‘shalarning ishi... Ovullaridan qancha kishi halok bo‘ldi-yu, onasi har kuni yig‘laydi, hech narsa demaydi-yu, yig‘laydi, otasini o‘ldirib qo‘yishlaridan qo‘rqadi. Qo‘shni xotinga esa, bir falokat bo‘lsa, qayerga boraman to‘rt bolam bilan, deydi...

Sovuq sinf xonasida junjikkan, bolalar yo‘talining to‘xtashini toqat bilan kutib turgan Inkamol opa Seylon, dengizlar va issiq mamlakatlar haqidagi hikoyasini yana davom ettirdi. Eshitayotganlariga goh ishonib, goh ishonmay (juda ajoyib ta’riflanar edida o‘sha o‘lkalar) Sultonmurot Seylonda yashamayotganiga ichichidan afsus qila boshladi. “Ana yashash-u, ana senga hayot!” — o‘ylar edi u ko‘z qiri bilan deraza tomonga qarab-qarab qo‘yarkan. U buni qoyillatardi. Go‘yo muallimaning so‘zini tinglayotganday

bo‘lardi-yu, o‘zi esa derazadan ko‘z uzmasdi. Ammo tashqarida o‘zgarish yo‘q edi. Tashqarida yog‘ingarchilik. Bo‘ralab qor yog‘ardi. Qor uchqunlari derazaga urilib shitirlardi. Oynalar muz bilan qoplangan. Deraza oynalari xira. Derazalarning zamaskalari har joy-har joyidan ko‘chib, siyohga belangan deraza tokchasiga tushib yotardi. “Seylonda zamaskaning keragi yo‘q, — o‘ylardi u. — Kimga ham kerak? Deraza u yoqda tursin, uylarning nima keragi bor. Chayla qurib olib, tepasini yaproqlar bilan yopib olgin-da, yashayver...”

Derazadan hamisha shamol urib turar, hatto romlarning tirqishlaridan hushtak chalib o‘tayotgani eshitilardi. Derazaning o‘ng yonboshi ayniqsa sovuq edi. Chidashga to‘g‘ri keladi. Deraza yoniga uni Inkamol opaning o‘zi o‘tqazib qo‘ygan. “Sen Sultonmurot, — degan edi u, — sinfda eng baquvvatsan. Sovuqqa chiday olasan”. Avvallari sovuq tushgunga qadar, bu joyda Mirzagul degan qiz o‘tirardi, uni Sultonmurotning joyiga ko‘chirdilar. U yer unchalik sovuq emas. Shunday bo‘lsa ham uni shu yerda, mana shu partada qoldirganlari yaxshi edi. Baribir sovuqni Sultonmurot to‘sib turardi. O‘tirishardi-da yonma-yon. Endi bo‘lsa tanaffus payti yoniga borsang qizarib ketadi. Boshqalar bilan gaplashib turaveradi-yu, Sultonmurot kelishi bilanoq qizarib qochib qoladi. Orqasidan quvib yurishi noqulay. Kulgiga qoladi. Bu qizlar har xil uydirmalar to‘qishga juda usta. Darrov yozuvlar paydo bo‘ladi: “Sultonmurot — Mirzagul — oshiq-ma’shuq”. Bir partada o‘tirishganida-ku, hech narsa bo‘lmasdi...

Tashqarida gupillab qor yog‘ardi. Havo ochiq kunlari sinf xonasidan turib qarasang shundoq ko‘z oldingda tog‘lar turadi. Maktabning o‘zi ham tepalikda, ovuldan ancha balandlikda joylashgan. Ovul pastda, maktab tepada. Shuning uchun bu yerdan, maktabdan turib atrofni kuzatish oson. Uzoqdagi qorli tog‘lar xuddi rasmdagiday ko‘rinadi. Hozir esa qorong‘ida ularning g‘amnok turishi zo‘rg‘a ko‘zga chalinadi.

Qo‘l ham, oyoq ham uvushib qoladi. Hatto belinggacha sovqotadi. Eh, sinf shunday sovuqki. Avvallari, urushdan oldin maktab quritilgan qo‘y qiyi bilan isitilardi. Xuddi ko‘mirning o‘zi edi: zo‘r yonardi. Endi bo‘lsa poxol olib kelishadi. Poxol pechkada gur etib

yonadi-yu, hech qanday issiq bermaydi. Bir-ikki kun o'tgach, poxol ham tugaydi. Poxoldan faqat kul qoladi.

Afsuski, Talas tog'lari tabiati issiq o'lkalarnikiday emas. Tabiati boshqacha bo'lganida, yashash ham boshqacharoq bo'larmidi. O'z fillari bo'lardi. Xuddi buqalarni minib yurganday fillarni minib yurishardi. Nima bo'pti, qo'rqib o'tirmasdi. Birinchi bo'lib o'zi qoq kallasiga, ikkala quloqlari orasiga minib olardi-da, xuddi darslikdagi rasmdagiday ovul bo'ylab aylanib yurardi. Odamlar har tomondan: "Qaranglar, yuguringlar, Bekboyning o'g'li Sultonmurot fil minib yuribdi!" — deyishardi. Ana o'shanda Mirzagul ko'rardi-yu, havasi kelib afsuslanardi balki... O'ziga zeb berganini qarayu! Yaqiniga yo'lab bo'lmaydi. Achchig'i chiqsa maymun bilan gazeta o'qiydigan to'ti topadi. Ularni fil ustiga, orqasiga o'tirg'izib qo'yadi. Joy yetadi, filning ustiga butun sinf bolalari bilan o'tirsa ham bo'ladi. Rost! Buni u birov aytmasa ham biladi.

Tirik filni u o'z ko'zi bilan ko'rgan, buni hamma biladi, tirik maymunni va boshqa xil yirtqichlarni ham ko'rgan. Bu haqda ovulda hamma biladi, o'zi necha marta aytib bergan. Ha, o'shanda omadi kelib, ularni ko'rgan edi...

Urushgacha, naq urushdan bir yil oldin bo'lib o'tgan edi uning hayotidagi bu unutilmas voqea. O'shanda ham yoz edi. Pichan o'rishayotgan edi. Otasi Bekboy o'sha yili Jambuldan shu yerdagi MTSning neft omboriga yonilg'i tashirdi. Har bir kolxoz yonilg'i tashib kelishga transport ajratishi kerak edi. Otasi hazillashib o'zini o'zi maqtab qo'yardi: men, der edi, oddiy aravakash emasman, bahosi yo'q aravakashman, men uchun, otlarim va aravam uchun kolxoz hukumatdan haq oladi. Men, deydi, kolxoz hamyoniga daromad keltiraman. Shuning uchun buxgalter ko'rgan joyida otdan tushib salom beradi...

Otasining aravasi faqat kerosin tashishga jihozlangan edi. Kuzovsiz, shundoq to'rt g'ildirak ustida temir qisqichlarga o'rnatilgan ikkita temir bochka-yu old tarafda, eng oldinda, aravakash o'tiradigan joy. Aravaning bor-yo'g'i shu. Aravakashning joyiga ikki kishi o'tirsa bo'ladi, ammo uch kishiga torlik qiladi. Lekin otlar shunday zo'rki, ulardan yaxshisini topolmaysan. Otasining otlari ajoyib, baquvvat edi.

Burul axta Chopdor bilan to‘riq axta Chontor. Ularga urilgan jabduq ham pishiq, o‘zi ham lop-loyiq. Bo‘yinturuqlari boyvachchalarnikiday noyob, ko‘pdan qilingan abzallari arava moyi bilan moylangan. Ming tortsang ham uzolmaysan. Bunday uzoq yo‘lda shunday bo‘lishi ham kerak-da. Otasi pishiq, tartibli ish qilishga o‘rgangan. Doim otlarni bir maromda yo‘rttirardi. Chopdor bilan Chontor ba’zan yollarini silkitib, bir maromda chopib, xuddi ikkita baliq baravar suzayotganday soyalanib kelardiki, ularni tomosha qilish gashtli edi. Odamlar g‘ildirak tovushlarini uzoqdan eshitiboq: “Bekboy yana Jambulga ketyapti”, — deyishardi. Borish-kelish uchun ikki kun ketardi. Bekboy ortiga qaytar ekan, yuzlab kilometr yo‘l bosganga sira o‘xshamas, odamlar hayron qolishardi. “Bekboyning aravasi xuddi relslarda yuradigan poezdning o‘zginasi-ya!” Ular bekorga hayratlanmasdilar. Toliqqan yoki so‘lig‘i o‘ynagan ulovni arava g‘ildiraklarining ovozidan ham payqasa bo‘ladi. Yoningdan o‘tguncha joningni sug‘urib oladi. Bekboyning otlari esa doim yengil yo‘rg‘alaydi. Balki shuning uchun ham eng qiyin safarlarni uning zimmasiga yuklashgandir.

Shunday qilib, o‘tgan yili endi o‘qish tugab, ta’til boshlanganida otasi shunday deb qoldi:

— Shaharga birga olib boraymi?

Sultonmurot azbaroyi quvonganidan nafasi bo‘g‘ziga tiqilay dedi. Bo‘lmasa-chi. Otasi uning shaharni ko‘rishni ko‘pdan beri orzu qilib yurganini qayerdan bildiykin? Axir hali shaharda biror marta ham bo‘lmagan. Qoyil ish bo‘ldi-da!

— Yana bu haqda maqtana ko‘rma, — jo‘rttaga qo‘rqitib qo‘ydi otasi. — Bo‘lmasa ukalaring shunday janjal ko‘tarishadiki, keyin biror joyga borib bo‘psan.

To‘g‘ri gap. Ajimurot, undan uch yosh kichkina-yu, hech nimada, hech qachon akasiga yon bergisi kelmaydi. Eshakday qaysar. Goho otasi uydaligida Ajimurotning dastidan uning oldiga ham borolmaysan. Otasining yelkasidan tushmaydi. Go‘yo yolg‘iz uning o‘zi-yu, boshqalar hisobda yo‘q. Ikkita singillari, ular hali kichkina edilar o‘sha paytlar, hatto o‘shalar ham yig‘i-sig‘i bilan arang ota mehriga muyassar bo‘lishardi. Namuncha bu kichigi otasiga yopishmasa, deb qo‘shnilar ham hayron edilar. Oruvxon

momodan, — badjahl, cho‘pday, qaltiroq tovushli ayoldan hamma qo‘rqardi. Shu kampir bir emas, necha marta qoqshol qo‘llari bilan Ajimurotning qulog‘ini burab ogohlantirgan edi:

— Sen shumtakaning otangga yopishib olganing yaxshilik alomati emas! Yer yuzida bir falokat ro‘y beradiganga o‘xshaydi! Bu qanday gapki, o‘g‘il bola tip-tirik otasiga to‘ymay yursa! Bu qanaqa bola, o‘zi! Hoy, odamlar, mana meni aytdi dersiz, bu bola bizlarning boshimizga bir baloni yog‘diradi!

Onasi g‘udranib, tuflab qo‘yib, Ajimurotning tanglayini ko‘tarib qo‘yardi-yu, ammo Oruvxon kampirga botinib bir so‘z deyolmasdi. Kampirdan hamma hayiqardi. Oruvxon momo bejiz aytmagan ekan.

Shunday bo‘ldi ham. Ajimurotga qiyin bo‘ldi. U endi kap-katta, uchinchi sinfda o‘qiydi, birovga bildirmaydi, ayniqsa, onasi oldida o‘zini tutadi-yu, ammo o‘zi hamon yo‘l poylaydi, otasining bugunmi-ertami frontdan qaytishiga ilhaq bo‘ladi. Yotish oldidan pichirlab, xuddi kattalarday, kechki duosini o‘qiydi: “Ey Xudo, ey Xudo, ishqilib, ertaga otam qaytib kelsin”. Har kuni shu ahvol. Qiziq, o‘zicha, uxlab tursa hamma narsa o‘zgaradi-yu, mo‘jiza yuz beradi, deb o‘ylaydimi.

Agar otasi urushdan eson-omon qaytib kelsa, mayli, uniki, faqat Ajimurotniki bo‘la qolsin. Mayli, u Ajimurotni qo‘llaridan, yelkasidan tushirmasin. Faqat kelsa bo‘ldi. Ishqilib, nima bo‘lsa ham u bilan eson-omon yuz ko‘rishsin. Unga, Sultonmurotga ana shu baxtning o‘zi yetarli. Otasi qaytsa bo‘lgani.

Otasi Chuy kanalidan qaytib kelganida uylarida sodir bo‘lgan o‘sha voqeaning yana takrorlanishini u shunday xohlardiki. U qurilishga burnog‘i yili yozda ketgan edi, o‘shanda ham aravakash bo‘lib besh oyga ketgan edi. Yoz bo‘yi va kuzi bilan o‘sha yerda tuproq tashigandi. Staxanovchi bo‘lgan edi.

Uyga u namozshomda kirib keldi. To‘satdan hovlida g‘ildirak tovushlari eshitildi, otlar pishqirib qoldi. Bolalarning hammasi hovliga otilishdi. Otasi! Qorayib xuddi lo‘liga o‘xshab qolgan, ozib-to‘zib, soch-soqoli o‘sib ketgandi. Usti-boshi ham, onasi keyin ta’riflaganicha, daydilarnikiga o‘xshardi. Faqat etiklari yap-yangi xromdan ekan. Ajimurot birinchi bo‘lib yugurib borib otasining

bo'yniga osiladi, yopishib olib mahkam quchoqlab oladi-yu, sira qo'yib yubormaydi, shu ko'yi nuqul yig'lab bir so'zni takrorlaydi:

— Otajon, otajonim, otajon...

Otasi uni bag'riga bosarkan, o'zining ham ko'zlariga yosh qalqiydi. Qo'shnilar chiqishadi. Ikkoviga qarab ular ham yig'lashadi. Onasi bo'lsa birdan dovdirab qolganidan aylanib-o'rgilib yurar, Ajimurotni otasining bag'ridan tortib olmoqchi bo'lardi:

— Otangni qo'yib yubor endi! Yetar, sen bir o'zing emassanku. Boshqalar ham ko'rishsin. Qanday aqlsizsan-a, Xudoyim-ey, qara, odamlar ko'rishmoqchi...

Uning bo'lsa parvoyi falak...

Sultonmurotning ichidan nimadir uzilib, tomog'iga to'pday qadalib qolganday tuyuldi. Og'zi sho'r bo'lib ketdi. Tag'in hech qachon va hech nimaga yig'lamayman, deydi. U shu zahotiyoq o'zini qo'lga oldi. Tetiklandi. Dars hamon davom etardi. Inkamol opa endi Yava, Borneo, Avstraliya haqida hikoya qilardi. Yana ajoyib o'lkalar, mangu yoz. Timsohlar, maymunlar, palmalar hamda har xil notanish narsalar. Kenguru bo'lsa g'aroyibotlar qaroyibi! Bolasini qornidagi xaltasiga solib olib, yugurib yuraveradi. O'ylaganini qarang kenguruning, aniqrog'i, tabiatning...

U kenguruni ko'rmagan. Ko'rmaganmi, ko'rmagan. Afsus. Lekin filni, maymunni va boshqa hayvonlarni yaqindan tomosha qilgan. Qo'l cho'zsang yetadigan yerdan..

O'sha kuni, otasi uni o'zi bilan shaharga olib ketishini aytganida, u yer-u ko'kka sig'may yurdi. Toqatsizlanganidan, quvonganidan tars yorilib ketguday bo'ldi, ammo gap shundaki, u bu haqda birovga aytishga jur'at qilolmasdi. Agar Ajimurot bilib qolsa, katta to'polon chiqardi: nega Sultonmurotga mumkin-u, menga mumkin emas, nega otam uni o'zi bilan olib ketadi-yu, meni olib ketmaydi? Shuning uchun ham behad quvonch va ertangi sayohatni kutish tuyg'ulari ukasi oldida qandaydir aybdorlik hislari bilan qo'shilib ketganday edi. Nima bo'lsa-da, bo'lajak voqea haqida ukalari va singillariga aytib yuborishiga ozgina qoldi. Judayam aytgisi kelardi. Ammo otasi va ayniqsa onasi bunday qilmaslikni qayta-qayta uqtirardi. Mayli, kichkinalar u yo'ldaligida bilishsin. Shunday bo'lgani yaxshi. U ana shu sirni saqlash uchun o'zini bazo'r

tutib qoldi. O'lib qolay dedi sir tutaman deb. Ammo o'sha kuni u shunday serharakat, hammaga shunday sertakalluf, shunday jonkuyar bo'lib qoldiki, hech qachon bunday qilmagandi. Hamma ishni qilar, hammasiga ulgurar edi. Buzoqni ham joyiga eltib arqonlab keldi, tomorqadagi kartoshkani ham chopdi, kir yuvayotgan onasiga ham yordamlashdi, eng kenja singlisi Almatoy loyga yiqilib tushganida uni yuvintirdi va yana boshqa ishlarni ham o'rinlatdi. Qisqasi, o'sha kuni u shunday sidqidildan ishladiki, hatto onasi o'zini tutib turolmay boshini chayqagancha piqillab kulib yubordi.

— Munchalik o'zgarib qolding? — dedi tabassumini arang yashirib. — Qani endi doim shunday bo'lsang, qaniydi-a! Ko'z tegmasin, ishqilib! Balki seni shaharga yubormaslik kerakdir? Sen ajoyib yordamchim bo'lib qolibsan-ku.

Lekin buni onasi shunchaki aytgan edi, xolos. O'zi esa xamir qorib yo'lga non yopar va har xil yegulik hozirlardi. Yog'ni eritib, uni ham yo'lga hozirlab shishaga solib qo'ydi.

Kechqurun butun oila jam bo'lishib samovar atrofida issiq non va qaymoq bilan choy ichishdi. Joyni esa hovliga, ariq bo'yidagi olma daraxtining ostiga solishgan edi. Otasi kichkintoylar qurshovida o'tirardi — bir yonboshida Ajimurot, boshqa yonida qizaloqlari. Onasi choy quyar, Sultonmurot esa piyolalarni uzatib, samovarga ko'mir tashlab turardi. U bularning hammasini ishtiyoq bilan bajarardi. O'zi esa mudom ertaga shaharda bo'lishni o'ylardi. Otasi bir-ikki marta u tarafga ko'z qisib, imo ham qilib qo'ydi. Ukasi oldida ozmuncha mug'ambirlik qilyaptimi axir.

— Xo'sh, Ajike, — choy ho'plab turib kichik o'g'liga yuzlandi, — Qorayolingni hali ham minishga o'rgatmadingmi?

— Yo'q, ota, — shikoyat boshladi Ajimurot. — U juda asov chiqib qoldi. Orqamdan xuddi kuchukday ergashib yuradi. Men unga ovqat beraman, sug'oraman, bir marta hatto maktabimizga ham ergashib bordi. Deraza tagida turib tanaffusga chiqishimni kutganini butun sinfimiz ko'rdi. Ammo hech mindirmaydi ustiga, darrov otib yuboradi, shataloq otadi...

— Uni minishga o'rgatish uchun senga hech kim yordam qilmayaptimi? — maslahat solganday bo'ldi otasi go'yo o'zini ish bilan band qilib ko'rsatganday.

— Men uni o‘rgatib beraman, Ajike, — shaylanib turganday javob qildi Sultonmurot. — Albatta, o‘zim o‘rgatib beraman...

— Urey! — degancha o‘rnidan irg‘ib turdi ukasi. — Ketdik!

— Qani, joyingga o‘tir-chi! — Shashtini qaytardi onasi. — Tek o‘tir. Odamlarga o‘xshab choy ichib olinglar, keyin ulgurarsizlar.

Gap Ajimurotning ikki yoshli yoqimtoy xo‘tigi ustida borardi. O‘sha yili bahorda uni bolalarga tog‘asi Nurg‘ozi in’om qilgandi. Yozgacha xo‘tik ajabtovur o‘sdi, kuchga to‘ldi. Uzunquloqni egarga, ishga o‘rgatish uchun minishga ko‘niktirish vaqti kelgan edi. Axir xo‘jalikda eshak doimo, hali tegirmonga, hali o‘tin-cho‘pga, hali mayda-chuyda narsalarga deganday kerak bo‘lib turadi-da. Shuning uchun ham Nurg‘ozi tog‘asi unga sovg‘a qilgandi. Ammo birinchi kundanoq Ajimurot eshakni o‘ziniki qilib oldi. O‘jar, to‘polonchi bola eshakka shunday g‘amxo‘rlik qila boshladiki, biror kishini uning yaqiniga ham yo‘latmas edi. Sal narsaga, xo‘tigimga tegmanglar! Men uni o‘zim boqaman, o‘zim sug‘oraman, derdi. Bir marta ana shu xususda aka-uka urishib qolishdi. Onasi kattasini jazoladi, chunki kichigi undan musht yegan edi-da. O‘shandan buyon Sultonmurotning alami ichida edi. Xo‘tikni minishga o‘rgatish payti kelganda u o‘zini chetga oldi: modomiki seniki ekan, o‘zing o‘rgat minishga, meni tinch qo‘y, ishim yo‘q. Xuddi shunday ishlarda ustasi farang bo‘lganiga qaramay, chap berdi. Bolaligidan uning ko‘zi pishib, epchil bo‘lib qolgandi. Asovlarni itoat qildirishni yaxshi ko‘rar edi. Bu ham xuddi kurash — kim-kimni bo‘ysundirishday gap. Qo‘shnilarning barcha toychoqlarini, buqalari-yu xo‘tiklarini hamisha u o‘rgatardi. Yosh hayvonlarni odatda epchil bolalardan biri o‘rgatadi minishga. Kattalarning vazni, og‘irligi, yo‘l qo‘ymaydi bunga. Odamlar Sultonmurotga odatda hurmat bilan shunday iltimoslar qilib kelishardi: “Sultonmurotjon, vaqting bo‘lsa, bizning buqani o‘rgatib bersang”. Yoki: “Sultake, azizim, bizning hangining bir aqlini kiritib qo‘y. Yelkasiga pashshani qo‘ndirmaydi, tishlab o‘zini har yoqqa otgani otgan”.

Bu ishda u ana shunday taniqli bo‘lib qolgan edi, ammo o‘z ukasiga yo‘q derdi, buning ustiga, bir-ikki marta ukasi ardoqli eshagidan yiqilib peshonasi g‘urra bo‘lganida kulib, mazax qilib, uning jig‘iga tegdi:

— U orqangdan xuddi itday chopib yuradi! Sen hali kuningni ko‘rasan undan!

Eh, ukasini ranjitib qanday noma’qulchilik qilgan ekan-a. Faqat otasi ishora qilgandan keyingina tushunib yetdi. U mana shunaqa tentaknamo edi, ukalari oldida yarashmagan qiliqlarni qilib yurardi. Mana endi, shaharga boradigan bo‘lganida, ukasi buni bilmaydi, vijdoni shunday qiynaldiki, hatto shu zahoti uning oldiga borib kechirim so‘rashga, nima desa shuni bajarishga tayyor edi.

Choy ichib bo‘lishgach, otasi bilan tomorqalari ortidagi o‘tloqqa yo‘l olishdi. Avval atrofdagi hamma toshlarni terib olib narigi yoqqa tashladi. Keyin Qorayolni — Ajimurot o‘z eshagini tantanavor qilib shunday atardi — jilovlashga olib kelishdi. Otasi Qorayolni quloqlaridan ushlab turganida Sultonmurot epchillik bilan unga no‘xta urdi.

Keyin ishtonini yaxshilab ko‘tarib oldi. Axir oson ishga bel bog‘lamagan edi-da. Shu yerning o‘zidayoq sirk tomoshalari boshlandi. Ajimurotning qo‘li ostida erkin yurgan Qorayol yomon qiliq chiqarib olishga ulgurgan ekan. Darrov shataloq otib, orqa oyoqlarini ko‘tarib, o‘zini har yoqqa ota boshladi. Uzunquloq chavandozni egardan uloqtirish havosini olgan edi. Ammo hech narsa qilolmadi. Sultonmurot yiqilar, ammo dam o‘tmay yana o‘rnidan turib olar, qorni bilan Qorayolni ustiga yotib olib, keyin yana bir harakat bilan uning beliga minib olardi. Eshak bo‘lsa yana bo‘ysunmas, yana yiqilish, yana minish davom etaverardi.

Bularning hammasini Sultonmurot chapdastlik va hatto quvonch bilan bajararardi. Hamma gap yiqilishni bilishda! Nima uchun odamlar otdan yoki tuyadan ko‘ra eshakdan yomon yiqilasan, deyishadi? Aksincha emasmi axir. Sir shundaki, yiqilayotib qo‘l bilan tushishga ulgurish kerak. Otning balandligi, tuyaning undan ham balandligi yiqilayotgan kishining mo‘ljal olib ulgurishiga imkon beradi. Eshakdan tajribasiz chavandoz qopdek “gup” etib qulaganini o‘zi ham bilmay qoladi...

Buni Sultonmurot o‘z tajribasidan bilardi. Buning uchun tashvish qilishning hojati yo‘q edi. Shovqin solishib, xursandchilik qilishib, qiychuv ko‘tarishdi. Otasi qornini ushlab, ichagi uzilguday kulardi. Shovqin-suronni eshitib bolalar kelib qolishdi. Ularning

ichida kimningdir kuchugi ham bor ekan. U ham to‘s-to‘polonni ko‘rib, o‘zini ishtirok etishi kerak deb hisoblaganday vovullab, Qorayolning ketidan quva ketdi. Eshak bo‘lsa qo‘rqqanidan shataloq otdi, Sultonmurot esa hammaning havasini keltirib xuddi Osoaviaxim ovchilarga o‘xshab chavandozligini ko‘rsata ketdi. U chopib borayotgan Qorayolning ustidan sakrab tushib yana minib olar edi.

Urushdan oldin Osoaviaxim ovchi-otliq askarlari qishloq Soveti oldidagi o‘tloqda mana shunday mashq qilishar edi. Ovullaridagi yigitlarning bari esa ishdan keyin mashq qilishardi. Ot ustida chopib borayotib novdalarni kesib tashlashardi. Ot ustidan yo‘l-yo‘lakay o‘zlarini pastga otib yana minib olishardi. Ularni znachoklar bilan taqdirlashardi.

Bu zanjirli, vint bilan burab qo‘yiladigan juda chiroyli znachoklar edi. Bolalarning rosa havasi kelardi-da. Ular Osoaviaxim ovchilari mashqini tomosha qilgani doimo chopqillab kelishardi. O‘sha yigitlar hozir qayerda yurgan ekanlar-a? Otlardami yoki okoplar ichidamikanlar? Otliq armiya hozirgi urushda kerak bo‘lmaydi, deyishyapti...

Sultonmurot deraza tashqarisiga qaradi-yu, otlar qishda sovqotishadi, tanklarga esa sovuq ham pisand emas, deya o‘yladi. Lekin baribir otdan yaxshisi yo‘q!

... Rosa tomosha bo‘lgan edi-da o‘shanda. Tez fursatda Qorayol tinchib qoldi. O‘zidan nima talab qilishayotganini tushundi: odimlab, yo‘rg‘alab, davrani aylanib yura boshladi...

— Endi minib ol, — ukasini chaqirdi Sultonmurot,— chu, de, hammasi joyida!

Yuzlari faxrdan yongan Ajimurot, tovoni bilan Qorayolni tepib u yoq bu yoqqa choptira boshladi — uning qanday abjir akasi borligini hamma ko‘rib tursa-yu, maqtanmay bo‘ladimi!

Kecha yorug‘ bo‘lib, uzoq vaqt qorong‘ilashmay turdi. Ular uyga horib-charchab, ammo mamnun bo‘lib qaytishdi. Ajimurot onasiga ko‘rsatish uchun Qorayolni minib, hovliga kirib bordi. Shundan keyin u hech nimadan shubhalanmay darrov uxlab qoldi. Sultonmurot esa sira uxlayolmasdi. Ertaga shaharda bo‘lishini, u yerda nimalar ko‘rishini-yu, o‘zini nimalar kutayotganini o‘ylardi.

Ko‘zi uyquga ketayotib, otasining onasi bilan past tovushda suhbatlashayotganini eshitib qoldi.

— O‘zimga qolsa unisini ham olib ketardim, ikkalovi bo‘lsa yana qiziqroq bo‘lardi, — dedi otasi, — faqat joy yo‘q-da, bu shayton aravada. Eng oldinda, bochkalarning ustida o‘tirasan. Yo‘l bo‘lsa uzoq, bolakay mudrab g‘ildirak ostiga tushib ketishi mumkin.

— Nimalar deyapsan! — qo‘rqib ketdi onasi, — xudo ko‘rsatmasin, bu haqda o‘ylab o‘tirma, keragi yo‘q. Keyinroq bir kun olib borarsan. Sal katta bo‘lsin. Sen avval unisiga ehtiyot bo‘l. Katta bo‘lib qoldi deysan, qayoqda hali...

Sultonmurotni shirin uyqu eltgan edi, ota-onasining past ovozdagi suhbatini tinglash ham maroqli, ertaga ertalab, sahar turib otasi bilan yo‘lga tushishini o‘ylash undan maroqli edi... Ko‘zi ilinayotganda esa yuragi orziqib, uchish shunday zavqli ekanligini his qilardi. Qiziq, u uchishni qayerdan o‘rgandi? Yurmoq, chopmoq va suzmoq odamlarga xos-ku. U bo‘lsa uchib yuribdi. Qushga ham o‘xshab emas. Qushlar qanotlarini silkitishadi. U bo‘lsa qo‘llarini yozdi-yu, barmoqlari uchini qimirlatdi, xolos. Uchganda ham bir tekis, erkin uchdi, qayerdan va qayerga borishi noma’lum, sokin va “kulib” turgan bo‘shliqda uchib yurardi... Uning yo ruhi uchardi, yoki tush ko‘rardi.

— Tur, Sultonmurot, yo‘lga tushamiz, — deya otasi yelkasiga qoqib sekingina qulog‘iga shivirlaganida u qo‘qqisdan uyg‘onib ketdi.

O‘rnidan sakrab turarkan, bir lahza otasining qulog‘iga tegib turgan dag‘al mo‘ylovi, o‘ziga qarata aytgan so‘zlari padari buzrukvoriga nisbatan qat-qat mehr, minnatdorlik tuyg‘ularini jo‘sh urdirib yuborganligini his etdi. U o‘shanday bir kun kelib otasining soqollari yuziga tegishini, xuddi o‘shanday “tur, Sultonmurot, yo‘lga tushamiz”, — degan so‘zlarini qo‘msashini hali bilmas edi.

Allaqachon o‘rnidan turgan onasi o‘g‘liga yuvilgan ko‘ylak berib, otasi o‘tgan yili Chuy kanalidan olib kelgan kattaroq ko‘k, xuddi boshliqlarnikiday furajkani boshiga kiygizib qo‘ydi. Asrab qo‘yilgan botinkalarni ham otasi kanaldan olib kelgandi.

— Qani, kiyib ko‘r-chi, qismaydimi? — dedi onasi botinkalarni tutib.

— Yo‘q, qismayapti, — dedi Sultonmurot oyog‘ini sal-pal qisayotganiga qaramay. — Hechqisi yo‘q, kengayib ketadi hali.

Ular onasi bilan xayrlashib hovlidan chiqishganlarida, kerosin arava shaqirlab katta toshloq ariqdan o‘tganida Sultonmurotning yuragi quvonchdan hapriqib, otlarning tuyog‘idan sachrayotgan muzdek suv zarrasidan etlari jimirlab ketdi va tushida emas, o‘ngida, rostakamiga shaharga ketayotganini his etdi.

Yozgi subhidam xuddi shaffof sharbatday quyula boshladi. Quyosh hali uzoq-uzoqlarda, oppoq qorli tog‘lar ortida edi. Biroq u asta-sekin yaqinlashib, ko‘tarilib, nogoh tog‘lar ortidan yarqirab chiqishga hozirlanar edi. Hozircha esa tuni bilan salqinlashib qolgan yo‘lda sukunat va sof havo hokim. Afsus, ularni ovuldan chiqib ketayotganini bolalardan hech kim ko‘rmadi-da. Faqat chekka-chekkadan itlargina g‘ildirak tovushini eshitib, mudroq aralash hurib qo‘yishardi...

Yo‘l adir bo‘yiab borar, uzoqdan binafsharang ko‘rinishdagi uncha baland bo‘lmagan tizma tog‘lar qo‘yniga kirib borardi. O‘sha yoqda, o‘sha uzoq tog‘lar ortida Jambul joylashgan. Ular o‘sha yoqqa ketishyapti. To‘ygan otlar bir tekisda dadil yo‘rtib borar, go‘yo egar-jabduqning ham, bo‘yinturuqning ham ularga aloqasi yo‘qday, odatdagicha kishnashib va ko‘zlari ustiga tushib turgan yollarini selkillatgancha yo‘rg‘alab borishardi. Yo‘l yaxshi tanish, bu yo‘llardan ular necha martalab o‘tishgan; xo‘jayinlari o‘z o‘rnida, jilov qo‘lida, yonidagi bolakay ham begona emas, qadrdonlari, og‘irligi ham tushayotgani yo‘q...

Ular shu maromda anchagina yo‘l bosib, dunyodagi barcha aravalar singari shaqir-shuqur, g‘ichir-g‘ichir ovoz chiqarib borishardi. Quyosh shu topda yon tomondan, tog‘lar orasidagi bo‘shliqdan mo‘ralay boshladi. Nur, harorat, terga botgan otlar yag‘riniga havo to‘lqiniday sokin va mayin taraldi: nur qo‘ynida Chopdor bedana tuxumiday burul tusga kirdi. Chontor esa tag‘in ham tiniqlashib, oq-to‘riq rangga bo‘yaldi; nur, harorat otaning bug‘doyrang yonog‘iga ham qo‘nib, qisiq ko‘zlari atrofidagi qalin ajinlarni chuqurlashtirganidan, jilov tutgan qo‘llari esa yana ham yirik va chayir ko‘rinardi; nur va harorat otlarning tuyoqlari ostiga yugurgan oqimday, yo‘lga to‘shalib, tan va ko‘zlarga ko‘chdi; nur,

harorat jumlayi jahonga hayot ato eta boshladi... Shu safar tongida Sultonmurot qalbida iliq, quvonchli va ezgu hislar hukmron edi.

— Qalay, uyg'ondingmi? — hazillashdi otasi.

— Allaqachon, — dedi o'g'il.

— Unday bo'lsa, ushla buni, — deya jilovni unga tutqazdi.

Sultonmurot minnatdorlik bilan jilmayib qo'ydi, axir u buni sabrsizlik bilan kutayotgan edi-da. O'zi so'rasa ham bo'lar edi-ku-ya, ammo yaxshisi otasining o'zi qachon ma'qul ko'rsa shunda bergani yaxshi — unaqa-bunaqa ish emas, bu katta yo'lda yurish degani. Otlar tizginni boshqa qo'lga o'tganini sezib, norozi bo'lgandek quloqlarini chimirib yo'rtib borayotib — xuddi hukmronlik zaiflashgan ayni paytda g'alayon ko'tarishga va urishishga qaror qilishganday bir-birlarini tishlay boshlashdi. Ammo Sultonmurot darhol o'zini ko'rsatib qo'ydi — jilovni siltab tortgancha qichqirdi:

— Chu, jonivorlar!

Agar baxt odamga bir marta nasib qilsa, buni Sultonmurot safarda to'la his qildi. Uning kayfiyati biror daqiqaga ham buzilmadi. Otasi yonida o'tirarkan, u o'zini har narsaga qodir deb hisoblardi. Bu kayfiyat yo'l bo'yi uni tark etmadi. Shaqir-shuqur kerosin arava boshqa birovni hatto aqldan ozdirib qo'yishi mumkin edi, ammo uning uchun esa bu baxt-shodlik qo'ng'irog'i edi. Arava ostidan ko'tarilayotgan chang ham, g'ildiraklar g'ildirab borayotgan yo'l ham, bir maromda tuyoq tashlab borayotgan otlar ham, qoramoy va ter hidi anqib turgan abzal ham, bosh ustida suzib yurgan oppoq parqu bulutlar ham, atrofdagi shabnamga cho'milgan sarg'ish, ko'm-ko'k, binafsharang dala chechaklari ham, yo'llardagi kechib o'tiladigan soylar-u ariqchalar, duch kelgan otliqlar-u aravalar ham goh oldinga, goh orqaga yengil uchib, ba'zida esa shundaygina otlarning tumshug'i tagidan uchib o'tayotgan qaldirg'ochlar ham — hamma-hammasi baxt va go'zallik ramzi edi. Biroq Sultonmurot bular haqida o'ylamasdi, zotan baxt bor joyda u haqda o'ylamaydilar. Sultonmurot dunyoning xuddi shunday tuzilganini, bundan yaxshiroq bo'lishi mumkin emasligini his qildi. Uning otasi ham shunday yaxshiki, bundan yaxshiroq bo'lishi ham mumkin emas edi.

Hatto sariq to'sh, qora bosh dala qushlarining yo'l bo'yidagi tikan va butalar shoxiga qo'nib olib, o'sha bir ohangda sayrashi

ham bejiz emas edi. Kim uchun sayrayotganini o'zlari bilishadi. Sultonmurot ularni qanchalik yaxshi ko'rishini ham bilishadi. Bu qushlarni sarayg'irlar deb atashadi. Shunday deb atalishiga sabab ular bir umr o'zlarining sayroq ovozi bilan allaqanday saman ayg'irni shoshirar emish: "Chu, chu, sarayg'ir! Chu, chu, sarayg'ir!" G'alati qushlar-da, sarayg'irlar. Biroq ular har tilda har xil sayrar ekan. Bir kuni ovulga kinomexanik, xushchaqchaq rus yigit kelib qoldi. Sultonmurot unga parvona bo'lib qutilarga solingan lentalarni tashishdi, kechqurun esa buning uchun u birinchi bo'lib dinamomashinasini aylantirish baxtiga muyassar bo'ldi. Dinamomashinada elektr toki hosil qilinadi, tokdan esa lampochkalar yonadi, lampochkadagi nur esa oppoq ekranga tushadi, ekranda esa jonli tasvirlar aks etadi.

Shunda o'sha kinomexanik uning sayrashini eshitib, so'rab qoldi:

— Devor ortida sayrayotgan qushning nomi nima?

— Bu sarayg'ir, — tushuntirdi unga Sultonmurot.

— U nima deb sayrayapti?

— Chu, chu, sarayg'ir!

— Bu nima degani?

— Bilmadim. Ruschasiga: "Noo, noo, jyoltiy jerebes!" — degani bo'lsa kerak.

— Birinchidan, ayg'ir sariq bo'lmaydi. Ha, mayli, ammo nima uchun tinmay: "Chu, chu, sarayg'ir!" — deydi.

Chunki bu qushning xayolida xuddi sariq ayg'irga minib to'yga ketayotganday tuyular ekan, yurib-yurib hech manziliga yetolmayotganday bo'larkan-da, u hadeb: "Chu, chu, sarayg'ir!" — deb qichqirar ekan.

— Men bo'lsam boshqacha eshitgan edim. Aytishlaricha, sarayg'ir bozorda qarta o'ynagan va uch so'm yutib olishiga sal qolgan. Shuning uchun ham: "Chut, chut tri rublya ne viigral!" — deb sayrar ekan. Endi o'sha uch so'mni yutib olmagunicha sayrashini qo'ymas ekan.

— Qachon u o'sha pulni yutib oladi?

— Hech qachon. Xuddi, to'yga etib borolmaganiday pulni ham hech qachon yutolmaydi.

— Ana xolos...

Haqiqatan, ko‘rinishdan oddiygina qushcha-yu, ammo juda mashhur ekan.

Yo‘l bo‘yi sarayg‘irlar sayrab turishardi, Sultonmurot ularga jilmayib:

— Ketdik birga, bozorga borib uch so‘mni yutib olamiz! — derdi.

Ular esa tinmay sayrashardi. “Chu, chu, sarayg‘ir!” Boshqa gal esa: “Chut, chut, tri rublya ne viigral!” — deb jig‘ibiyron bo‘lib sayrashardi.

Sultonmurot shaharga juda tez yetishga oshiqardi. Quyosh endi shundoq tog‘lar ustiga kelib qolgan edi. Sultonmurot otlarni tezlatdi:

— Chu, chu, sarayg‘ir! — bu so‘zlarni u Chopdorga aytdi. — Chu, chu, to‘rayg‘ir! — bunisini esa Chontorga qarata aytdi.

Otasi uni sal qaytardi:

— Qichab haydama. Otlar o‘z maromini biladi. Keragida chopadi, keragida o‘zini asraydi ham.

— Ularning qaysi biri yaxshi, ota, Chopdormi yo Chontormi?

— Ikkalasi ham yaxshi otlar. Yo‘rg‘alashi ham, kuchi ham baravar. Xuddi mashinaday ishlaydi. Faqat parvarish qilib, o‘z vaqtida yem-xashak berib tursang bo‘ldi — hech qachon dog‘da qoldirmaydi. Ishonchli otlar. O‘tgan yili Chuy kanalida botqoqlikda ishladik. Aravalar yuki bilan gupchagigacha botib qolar edi. Goho shunday o‘tirib qolardiki, ba’zilarini hech qayoqqa siljitib bo‘lmasdi. Dod deb yuborging kelardi. Qutqar, deb darrov chopib kelishardi. Iltimos qilishardi. Yo‘q, deb bo‘larmidi? Chontor bilan Chopdorimni olib kelib aravaga qo‘shardim. Biz hayvon deymiz-u ular aqlli, ularni bekorga boshqa aravaga qo‘shmasliklarini, yordam qilishlari kerakligini tushunadi. Qamchini ko‘p ishlatmayman, faqat ovoz chiqarib qo‘yaman — ular bo‘lsa, ishqilib abzallari chidasa bo‘ldi, tizzalab bo‘lsa ham aravani tortib chiqaradi chuqurdan. U yerda, Chuy kanalida, bularni hamma bilardi: omading bor ekan seni, Bekboy, deb havas qilishardi. Balki shundaydir, faqat otlarga yaxshi qarash kerak, ana shunda omad ham kelaveradi.

Chopdor va Chontor ishbilarmonlarday, o‘sha bir maromdagi yo‘rg‘asida borar, go‘yo gap ular haqda emasday edi. Otlar qorinbog‘lari-yu quloqlarigacha terlab-pishib, hamon avvalgiday yolla-

rini selkillatishganlaricha yo'l pashshalarini qo'nishiga imkon bermay borishardi.

— Ota, qaysi biri katta, Chontormi yo Chopdormi?— otasidan so'raydi Sultonmurot.

— Chontor uch yosh katta. Chontorning keksaygani asta-sekin bilinib qolyapti. Chopdor esa ayni kuchga to'lgan vaqti. Baquvvat, chopqir ot. U bilan uloqda ham ko'plarni dog'da qoldirish mumkin. Oldinlari bunaqa otni yigitning qanoti, deyishardi.

Sultonmurot Chopdor unga ko'proq yog'gani uchun suyunib ketdi. Ajoyib tusli — burul, mayda xolli. O'zi ham badfe'l emas, chiroyli, baquvvat.

— Menga Chopdor ko'proq yoqadi, — dedi u otasiga.— Chontor badjahl. Ko'zini olaytirgani olaytirgan.

— Badjahl emas, aqlli-ku, — kulimsirab qo'ydi otasi.— U ishsiz qolib zeriktirishlarini yoqtirmaydi. — Biroz turib yana qo'shib qo'ydi: — Ikkalasi ham yaxshi.

O'g'li ham ma'qulladi.

— Ikkoviyam yaxshi, — takrorladi u otlarni qistarkan.

Birozdan so'ng otasi dedi:

— Qani, jinday to'xtatib tur-chi, to'xtat aravani.— O'zi esa qulay fursat kutib hushtak chaldi. — Otlarning siygisi qistadi, ammo ayta olishmaydi. Buni sezish kerak.

Haqiqatan ikkala axta ham yo'lda shovqin solib, oppoq ko'pik sachratib siya boshladilar, qalin, mayda, upaday chang bo'lsa ko'pik bo'lib ko'pchib loyga botdi. Keyin ular yana yo'lga tushishdi. Yo'l borgan sari ilgarilar, tog'lar esa ortda qolardi.

Tez orada shahar chetidagi bog'lar ko'rinib qoldi. Ko'chalarga jon kirdi. Endi jilovni otasi oldi. To'g'ri qildi. Endi Sultonmurotga otlarning ham, jilovning ham qizig'i qolmagandi. Shahar boshlangan edi. Shahar har xil bo'yoq va hidlar anqigan, shovqin-suronga to'liq edi. Go'yo to'polon oqimiga tashlab yuboradi-yu, u oqim bo'lsa uni aylantirib-aylantirib to'lqinlar domiga tortib ketganday edi.

Ana o'shanda, o'sha baxtiyor kunda hech kimga nasib qilmagan omad nasib qildi unga: otchoparda, Jambulning kattakon mol bozorida sayyor hayvonot bog'i ochilgan ekan. Tasodifni qarang:

odam umrida birinchi bor shaharda bo'lsa-yu, umrida ko'rmagan har xil hayvonlari bor hayvonotxonaga, buning ustiga, karusel va yana qiyshiq-qing'ir qilib ko'rsatadigan oynalar attraktsioniga duch kelsa-ya.

IKKINCHI BOB

Kulgi xonasiga u uch marta kirdi. Miriqib kulib, o'zini to'xtatib olgach, yana qiyshiq va mo'jizakor oynalar oldiga borardi. Ana bashara, ana senga nayrang! Bir umr o'ylab, ming qil, yuz qil, baribir o'ylab topolmaysan!

Tanish choyxonachiga ko'z-quloq bo'lib turishni tayinlab aravasini qoldirgach, otasi uni bozor aylantirgani olib ketdi. Avvaliga otasining shu yerlik o'zbek oshnalari bilan salom-alik qilishdi. "Assalomu alaykum! Mana bu mening katta o'g'lim!" — tanishtirdi Bekboy uni. O'zbeklar o'rnidan turishib va qo'llarini ko'ksiga qo'yib, Sultonmurotga yuzlanishdi. "Dilkash xalq! — dedi otasi unga. — O'zbeklar sening katta-kichikligingga qarashmaydi, doim izzat qilishadi..."

Keyin savdo rastalariga, magazinlarga, eng muhimi, hayvonotxonaga borishdi. Odamlar orasida turtinib-surtinib yurib hamma qafaslarni va xonalarni ko'rib chiqishdi. Fil, ayiqlar, maymunlar — nimalar yo'q edi deysiz...

Hammasidan ko'ra Sultonmurot kulrang, maysalari sarg'ayib qolgan tepalikka o'xshagan bahaybat, goh u oyog'iga, goh bu oyog'iga og'irligini tashlab, xartumini o'ynatib turgan filni yodida saqlab qoldi. Voybo'! Odamlar to'planishib filga termilishib turar va har xil gaplarni aytishardi. U sichqondan qo'rqar emish. Jig'iga tegmaslik kerak emish, xudo ko'rsatmasin, zanjirlarini uzib yuborsa, butun shaharni mayda-mayda qilib yuborar emish. Hammasidan ham Sultonmurotga bir o'zbek cholning hikoyasi yoqib tushdi, u filni dunyoda eng aqlli hayvon, dedi. Xartumi bilan o'rmon ishlarida bahaybat yog'ochlarni ko'tarish bilan birga atrofda kattaroq kishilar bo'lmasa, yana o'sha xartumi bilan yosh bolaga ilon yoki boshqa biron-bir xavf tahdid qilguday bo'lsa, uni yerdan dast ko'tarib olarmish.

Bunaqangi hikoya otasiga ham ma'qul bo'ldi. U hayratlanib tilini takillatib qo'yar va har safar o'g'liga derdi: "Eshitdingmi? Dunyoda qanday mo'jizalar bor-a!".

Albatta, kulgi xonasi ham esida qoldi. U yerda o'z ustingdan xohlaganingcha kulaverasan...

Sultonmurot bir necha qator narigi partada o'tirgan Mirzagulga nazar solib oldi. "Seni o'sha kulgi xonasiga olib borsamidi! — deb o'yladi zavq bilan.— Darrov boshqacha bo'lib qolarding, sohibjamol! O'zingni o'sha oynada ko'rarding-u takabburligingdan nishon qolmasdi". Ammo u shu zahotiyoq o'z fikrlaridan uyalib ketdi. Nega u hadeb qizga osilaveradi, nima yomonlik qildi unga? Qiz desa qizday, sohibjamol, sinfdagi hamma qizlardan chiroyli. Nima qipti, bu gunohmi? "Yomon" olgan kunlari ham bor.

Muallima dars paytida bir kuni uning oynasini olib qo'ydi. Hali sevishishga erta, dedi. Mirzagul uyalganidan qip-qizarib ketdi, yig'lab yuborishiga sal qoldi. U bo'lsa qizni o'ylab, nimagadir xafa bo'lib ketdi. Nima bo'pti, oyna, ehtimol bexosdan uning qo'liga tushib qolgandir...

Qiz tarafga yana bir qarab, Sultonmurotning unga rahmi kelib ketdi. Mirzagul ko'karib, sovuqdan g'ujanak bo'lib o'tirar, ko'zlari namli yaltirardi, balki u yig'layotgandir. Axir uning otasi ham, akasi ham frontda... Sultonmurot bo'lsa uning haqida yomon o'ylarga borib yuribdi. Eh, tentak, chindan ham tentak.

Sinfdagilarning ko'pchiligi shamollaganlaridan yo'talishyapti. Balki u ham yo'talib ko'rar? U titrab, egilib-bukilib atayin yo'tala boshladi. Nima qipti, hamma yo'talyapti-ku, uning qayeri kam ulardan? Inkamol opa unga ma'noli qarab qo'ydi-da, yana tushuntira ketdi.

UCHINCHI BOB

Hayvonot bog'i va kulgi xonasidan chiqib, ular chayqov bozori tomon yo'l olishdi. U yerdan sovg'alar xarid qilishdi. Ajimurotga yangi, chiroyli, yaltiroq po'kak to'pponcha olishdi. Tomosha qilib to'ymaysan, xuddi rostakam naganning o'zi. Qizchalarga esa allaqanday rangli, yumshoq rezina koptoklar olishdi. Rezinkasiga

turtib qo‘ysang bo‘ldi, koptok goh tepaga, goh pastga sapchiydi. Onasiga ro‘mol oldilar va yana qand-qurs deganday...

Butun bozorni aylanib, hamma narsani ko‘rdilar-u, lekin karuselda uchmadilar, otasi ham tusha qol, deb aytmadi. Bu kichkina bolalar o‘yini, sen bo‘lsang yigit bo‘lib qolding, bir-ikki yildan keyin uylantirib qo‘ysak ham bo‘laveradi, deya hazillashdi. Karuselning oldida biroz turishib, tomosha qilishdi. Neft bazasiga borish kerak, stantsiyaga ulgurish, bochkalarni to‘lg‘izib yo‘lga tushish kerak. Kech esa kirib qoldi, deya uni otasi shoshiltirdi. Haqiqatan ular neft bazasiga etib kelishganida quyosh shahar ortiga og‘ib qolgan edi. Shu yerdan, shahar cheti bo‘ylab yurib, yo‘ldagi choyxonadan palov yeb qorinlarini to‘yg‘azib olishgach, uyga qaytishdi.

Qosh qoraya boshlaganida shahar chetidagi bog‘larni ortda qoldirib, yana o‘sha o‘zlari kunduzi shaharga kirib kelgan yo‘lga chiqib olishdi. Yozgi chechaklar hidi anqigan oqshom iliq edi. Yo‘l bo‘yidagi ariqchada baqalar vaqillashar, otlar esa bir maromda qadam tashlardilar, axir to‘la bochkalar bilan chopib bo‘larmidi. Sultonmurotni asta-sekin uyqu elita boshladi. Charchadi. Charchamay bo‘ladimi axir — bugun shunday ajoyib kun bo‘ldiki, asti qo‘yaver. Afsuski, aravada cho‘zilishga joy yo‘q. Uning bo‘lsa juda uxlagisi kelardi. Otasining yelkasiga boshini qo‘ydi-yu, qattiq uyquga ketdi. Har zamon-har zamon o‘nqir-cho‘nqir joylarda ko‘zini ochardi-yu, yana yumardi. Har gal uxlashdan oldin, dunyoda otalar borligi qanday yaxshi, deb o‘ylardi. Otasining baquvvat yelkasiga boshini qo‘yib uxlash bexavotir va osoyishta edi. Arava hamon taraqlab, g‘ijirlab borar, otlar tuyog‘i dukurlar edi.

Qancha yo‘l bosganlarini Sultonmurot bilmay qoldi, bexosdan arava to‘xtadi. Atrof jimib qoldi. Otasi uni qo‘liga ko‘tarib oldi-yu, qayergadir olib bordi.

— Katta bo‘lib qolibdi-ya, ko‘tarib bo‘lmaydi. Og‘ir bo‘lib qopti, — shivirladi o‘g‘lini bag‘riga bosib. Keyin uni pichanlar ustiga yotqizib, ustini fufayka bilan o‘rarkan, dedi:

— Sen uxlayver, men otlarni chiqarib o‘tga qo‘yvoraman.

Sultonmurot shunday maza qilib uxlayotganidan ko‘zini ochmadi ham. Faqat yana, dunyoda otalarning bo‘lishi qanday yaxshi, deya o‘yladi.

Otasi oyog‘idan botinkasining bog‘ichini yechib olganida u yana uyg‘onib ketdi. Botinkalar kun bo‘yi oyog‘ini rosa qisgan edi. Otasi botinka oyog‘ini qisganini qayerdan bila qoldi ekan?

U qaytadan uyquga ketarkan, go‘yo o‘zini oqim bag‘riga tashlab suzib ketayotganday erkin his qildi. Nazarida shamol to‘lqinlari maysazor bo‘ylab yayrab, o‘ynoqlab esayotganday tuyuldi. Go‘yo u o‘sha maysazor uzra yugurar, sho‘ng‘ir va o‘sha mavjlanayotgan maysazorga ko‘kdan unsizgina yulduzlar yog‘ilardi... U yer bu yerga jimgina yonayotgan yulduzlar to‘kilar, ammo u yetib kelgunicha yulduzlar so‘nib qolardi. U tush ko‘rayotganini his qilardi. Goh-goh uyg‘onib tushovlangan otlar ko‘m-ko‘k o‘tlarni ildizi bilan sug‘urib kavshayotganini va bo‘shatib qo‘yilgan suvlig‘ini shildiratib g‘aram yonidan o‘tayotganini eshitar edi. Otasi yonida yotganini, dalada tunab qolishganini bilar va ko‘zini ochsa, chindan ham osmondan to‘kilayotgan yulduzlarni ko‘rishiga ishonar edi.

Ammo ko‘zini ochgisi kelmas, maza qilib uxlayotgan edi. Tun yarmida sovuq tusha boshladi. Otasi sari surila-surila uning biqiniga kirib oldi va shunda otasi uyqu aralash uni quchoqlab mahkam bag‘riga bosdi. Ular yo‘l bo‘yida, yaydoq dalada, ochiq havoda uxlashardi. Bu senga uyda, yumshoq bolishda uxlash emas...

Keyin u tez-tez yulduzli tushini eslab yurdi...

Shundoqqina ikki qadam narida bir bedana tong otguncha tinmay sayrab turdi... Dunyodagi barcha bedanalar baxtli bo‘lsalar kerak.

TO‘RTINCHI BOB

— Sultonmurot, senga nima bo‘ldi? — Sultonmurot Inkamol opani shundoqqina partasi oldiga kelgandagina payqadi.

— O‘zim. Hech nima, — go‘yo o‘zini oqlamoqchiday o‘rnidan turdi.

Sinf hamon sovuq va jimjit edi. Bolalarning odatdagi yo‘tallari aralash hiring-hiring kulgani eshitildi.

— Goh behudadan behudaga yo‘taling tutadi, goh berilgan savolni eshitmay qolasan, — deb qo‘ydi norozilik bilan Inkamol opa sovuqdan yelkalari qunishib. — Bor, yaxshisi, poxol olib kelib, pechkaga o‘t yoq.

Sultonmurot shuni kutib turgandek, darhol ishga kirishdi. Axir bunaqa topshiriq dars paytida doim bo'lavermaydi-da. Navbatchilar tanaffus payti poxol olib kelib pechkani yoqib qo'yishadi-yu, ammo dars vaqtida bunaqasi kamdan kam bo'ladi.

U otilib tashqariga chiqdi. Yuziga qor aralash shamol urildi. Eh, Seylon emas-da bu yer! Hovli etagidagi poxol saqlanadigan ombor tomon chopib ketayotib, otdan tushayotgan kolxoz raisi Tinaliyevni ko'rib qoldi. U frontdan yarador bo'lib qaytgan. Yosh bo'lishiga qaramay, bir tomonga qiyshayib yuradi. Bir necha qovurg'asi yo'qmish. Parashyutdan tashlaydigan desantchilardan ekan. Urushgacha agronom bo'lgan, deyishadi. Ammo buni Sultonmurot negadir eslolmaydi. Urushdan oldin hamma narsa xuddi bir dunyoga o'xshaydi, shuning uchunmi, urushdan burungi hayotning bo'lganligiga ishonmaysan ham...

Sultonmurot bir quchoq poxol ko'tarib, eshikni oyog'i bilan turtib ochgancha sinfga kirib keldi. Bolalar birdan jonlanib, shivir-shivir boshlashdi.

— Tinchlaning, alahsimanglar! — ulardan talab qildi Inkamol opa. — Sultonmurot, shovqin ko'tarmay ishingni qilaver.

Pechka ichida poxol kuli uchqunlab turardi. O'sha uchqunga bir tutam poxol solib tutatdi. Yana qayta-qayta poxol tutamidan tashlarkan, pechka guvillab yonib ketdi. Poxol tashlab turishga ulgursang bo'lgani. Sinf xonasi jonlanib qoldi.

U orqasiga o'girilib qaragisi, kimgadir aftini bujmaytirib kuldirgisi va, ayniqsa, orqa partada o'tirgan Onatoyga musht o'qtalib po'pisa qilgisi kelardi. Ko'ryapsizmi, u sinfda eng kattasi, o'n besh yarim yoshda, urishqoq, buning ustiga, Mirzagulga tegajaklik ham qiladi. Qani endi, unga tilini ko'rsata olsa edi. Ma senga, ma, deb! Ammo bunday qilish mumkin emas, muallimalari qattiqqo'l. Ha, uni ortiqcha xafa qilishni xohlamaydi. Nimagadir keyingi paytlarda uning yolg'iz o'g'lidan xat yo'q. O'g'li komandir, artilleriyachi. U bilan juda faxrlanadi. Qandaydir xunuk voqea sodir bo'lib, eri urushdan oldin qaygadir g'oyib bo'lgan. Odamlar ham bu haqda hech narsa gapirishmaydi. Shuning uchun ham u ovulga kelib o'qituvchilik qilyapti-da. O'g'li Jambuldagi pedagogika bilim yurtida o'qib yurib, o'sha yerdan frontga ketdi. Derazadan otliq

pochtalyonni ko'rishi bilan Inkamol opa bolalardan birini to'g'ri darsdan chiqarib xatga choptirardi. U esa yugurib hovliga chiqadi-yu, agar xat bo'lsa, o'zida yo'q shod qaytadi. Hatto kelgusi safar muallimaning xatini olib kelish uchun navbat belgilangan.

Xat kelgan kunlari bayram bo'lib ketadi! Inkamol opa turgan joyidayoq xatga tezgina ko'z yugurtirib chiqib, qog'ozdan bosh ko'targanida sinfda go'yo boshqa muallima paydo bo'lib qolganday bo'ladi. Tutam-tutam oq aralashgan sochlarini ro'moli ostiga chiroyli qilib bostirib olgan muallimaning shunday quvonchga to'lganida xotirjam turish, uning ko'zlarida yosh ko'ringanida yuraging achishmasligi mumkin emas.

— Hammalaringga salom, bolalar, kattakon salom! Og'alaring sog'-salomat ekan. Jang qilyapti, — deydi u suyunayotganini butun sinfdan yashirolmasdan qaltiroq ovozini bosib. Barcha unga talpinib, go'yo bu quvonchni baham ko'radiganday chehralariga tabassum yoyiladi. Biroq birozginadan so'ng o'zi shunday deydi:— Endi, bolalar, mashg'ulotimizni davom ettiramiz.

Ana shundagina darsning eng ajoyib, eng yaxshi onlari boshlanadi: uning so'zlari ta'sir kuchini oshiradi, fikrlari fikr tug'diradi, u nima haqda gapirsa, tushuntirsa, isbot qilsa, hammasi o'quvchilarning aql-u yuragiga jo bo'laveradi. Uning ilhomi jo'shadi-yu, butun sinf sehrlangandek jim o'tiradi...

Keyingi kunlarda unga nimadir tinchlik bermasdi, bezovta qilardi... Shuning uchun bo'lsa kerak, sinfga ilmiy mudir hamrohligida kolxoz raisi Tinaliyev kirib kelganda Inkamol opa astagina doska tomon chekindi. So'ng bolalarga yuzlanib istar-istamas dedi:

— O'rinlaringdan turinglar, bolalar. Sultonmurot, sen joyingga bor.

Sultonmurot pechka og'zini bekitib, darhol o'z joyiga yo'naldi. Kelganlar salomlashdilar.

— Salom! — deya javob berdi ularga butun sinf. O'rtaga sergaklantiruvchi jimlik cho'kdi. Hatto hech kim yo'talmadi ham.

— Biror voqea yuz berdimi? — deya so'radi Inkamol opa bo'g'ilib.

— Hech qanaqa hodisa yuz bergani yo'q, Inkamol opa, — deya uni darhol tinchlantirdi Tinaliyev. — Men boshqa ish yuzasidan

kelgan edim. Bolalarga gapim bor. Dars paytida kirganim uchun kechiring, ijozat bergan edilar, — dedi u keksa ilmiy mudir tomonga ishora qilarkan.

— Ha, muhim gap bor, — deb ta'kidladi ilmiy mudir ham, — o'tiringlar, bolalar.

Sinf duv etib o'tirdi.

Tinaliyev yaqinginada — kuzda frontdan kelganidan beri raislik qilayotgan bo'lsa-da, uni hamma bilardi, o'zi ham bu yerda o'tirganlarning deyarli barchasini taniydi. Demak, tanishish uchun kelmagan. Bo'lmasa, nega keladi? Yettinchi sinf o'quvchilari — ovulda ko'zga ko'rinib qolganlardan hisoblanadi. Ularning har qaysisi bilan qishloqning har bir joyida, uyda ham, idorada ham, yo'lda ham gaplashish mumkin. Ammo raisning birinchi marta bolalarga muhim gap aytish uchun ataylab maktabga kelishi edi. Nima demoqchi, qanaqa yangilik bor ekan? Yozning yo'rig'i boshqa, hammalari kolxozda ishlashardi, lekin hozir qanday gap bo'lishi mumkin?

— Gap bunday, — deb so'z boshladi Tinaliyev bolalarning sergak yuzlariga diqqat bilan boqib. U bir tomonga qiyshayib turgani ko'zga tashlanmasligi uchun qaddini tik tutishga harakat qilardi. — Maktabingiz sovuq, ammo sizlarga poxoldan boshqa narsa bilan yordam berishga ojizman. Poxol bo'lsa, hammaga ma'lumki, gur etib yonadi-yu, o'chadi. Ilgarilari maktabni isitishga beriladigan tappini avvaliga tog'dan orqalab tushib, keyin aravalarga ortib kelinardi. O'tgan yili bu ish bilan shug'ullanishga odam ham, vaqt ham bo'lmadi. Hamma frontda, bilasizlar. Men ikki tonna ko'mirni yashirib qo'yganman. Lekin bu ko'mir temirchilarga kerak. Ko'mirni ham, temirni ham chayqovchilardan sotib oldim. Payti kelib ular bilan hisoblasharmiz. Hozir esa sharoit og'ir. O'tgan yili ikki yuz gektar yerga kuzgi bug'doy sepolmay qoldik, ulgurolmadik. Hech kim aybdor emas. Urush... Biroq hamma joyda, hamma kolxoz-sovxozlar bizga o'xshab hosilni vaqtida yig'ishtirolmasa, urug'likni sepib ulgurolmasa, ishni tugallay olmasa, unda dushmanni qanday yengamiz? Ularni yengish uchun non ham, snaryad ham kerak. Shu tufayli oldingizga keldim, bolalar, oralaringizda ba'zi birovlaringizga o'qishni vaqtincha

qo‘ya turishlaringizga to‘g‘ri keladi. Hozir dam g‘animat, ulovni bahorgi shudgorga tayyorlash kerak, ot-ulovlarimizga esa qarab qo‘rqib ketasan — ramaqijon. Egar-jabduqni shay qilish kerak, ular ham ilma-teshik bo‘lib ketgan, pluglarni, seyalkalarni remont qilish zarur, bari qor tagida yotibdi... Bu gaplarni aytayotganimning sababi nima dersizlar. Kuzda ekolmay qolgan yerlarimizga lalmi ekaylik deyman. Buni qanday bo‘lmasin, frontcha qilib aytganda, so‘zsiz bajarish kerak! Bu esa plandan tashqari, o‘z kuchimiz bilan qo‘shimcha ikki yuz gektar maydonni haydab, bahori g‘alla ekish degan so‘z. Ikki yuz gektar!! Tushunyapsizlarmi? Ammo qani o‘sha kuch, kimga suyanaylik? Biz yana shunday qilishga qaror qildik: o‘zimizda borlaridan, bahorgi mavsumga tayyorlanayotganlardan tashqari, qo‘shimcha ravishda, ikki tishli plugchilar brigadasi tuzamiz. O‘ylab, chamalab ko‘rdik. Bu ishga xotin-qizlarni jo‘natolmas ekanmiz. Orasi uzoq, Oqsoyda. Odam yo‘q. Axiyri, siz o‘quvchilardan yordam so‘rashga qaror qildik...

Badjahl va tund, armiyadan kiyib kelgan kulrang shinelini yechmay, kulrang quloqchinda doim diydirab yuruvchi, tashvishdan yuzlari jiddiy, hali yosh bo‘lishiga qaramay, bir tomonga qiyshayib qolgan, qovurg‘alari mayib, qachon qaramang, yelkasiga dala sumkasini osib yuradigan rais Tinaliyev ana shunday dedi...

Rais Tinaliyev geografiya xaritasi osig‘liq maktab doskasi yonida turgancha odamlar-u butun zamin-u dengizlarni, jumladan, Seylon, Yava, Sumatra, Avstraliya singari yog‘ ichib, yalang‘och yotadigan ajoyib-g‘aroyib issiq o‘lkalarni ham sig‘dira olgan o‘sha xarita oldida turib ana shu alfozda so‘zlar edi.

Isitishdan ko‘ra ivirsig‘i ortiq poxol yoqib ilitilayotgan maktabda rais Tinaliyev ana shu alfozda so‘zlar edi. U uzoq Oqsoydagi yuzlab gektar qo‘shimcha yerlarga front uchun bahori g‘alla ekish haqida gapirarkan, uning og‘zidan hovur chiqib turardi...

Ha, rais Tinaliyev ana shunday dedi...

Tashqarida hamon qor bo‘raiab, tirqishlardan g‘o‘rillagancha sovuq yel kirar, simyog‘ochga qantarib qo‘yilgan, hurpaygan otning shamolda depsinib, boshini panaga olishga intilayotgani Sultonmurotga ko‘rinib turar edi. Shamol otning yollarini to‘zg‘itar,

ingichka dumini bir yonga itqitar edi. Ot bechora sovqotgan bo'lsa kerak...

Ha, bu yer Seylon emas...

— Yaxshi kunda men sizlarni o'qishdan qoldirarmidim, — dedi Tinaliyev. — Boshqa iloj yo'q. O'zlaring ham tushunishlaring kerak. Urushdan keyin, balki omon bo'lsam, men o'zim sizlarni maktabga boshlab kelib, o'qishni davom ettirishlaringni iltimos qilaman. Hozir esa ahvol mana shunaqa...

Keyin ilmiy mudir so'zladi. So'ngra yana Tinaliyev gapirdi. Oxiri sinf jonlanib ketib, bolalar qo'l ko'tarib: "Men boraman, ishlashga men ham boraman",— deb chug'urlasha boshlaganlarida Tinaliyev darhol aniqlik kiritdi:

— Kimda-kim raisga, har qanday o'quvchi ham bo'laveradi, deb o'ylasa, adashadi. Kimki yomon o'qigan bo'lsa, u yomon ishlaydi. Ikkinchidan, yaxshi o'qiydigan o'quvchining keyinchalik yetib olishi oson bo'ladi. Mana sen, Sultonmurot, sinfdagilarning eng kattasiga o'xshaysan...

Bolalar shovqin ko'tarishdi:

— Ichimizda eng kattamiz Onatoy. Yaqinda o'n oltiga kiradi!

— Men hozir yoshini aytayotganim yo'q. Bo'y-basti haqida gapiryapman. Muhimi, bu ham emas. Mana sen, Sultonmurot, — deb yana unga yuzlandi rais. — Sen o'tgan yili polizda yer haydagansan-a, shundaymi?

— Ha, — deya javob qaytardi Sultonmurot o'rnidan turib. — Orol ko'chasida yer haydaganman.

— Ikki tishli, to'rt ot qo'shilgan plugdami?

— Ha, ikki tishli, to'rt ot qo'shilganida, lekin men faqat yordam berganman, xolos. U Sartboyning plugi edi, uni o'sha kunlari armiyaga olishgan, ekin payti esa o'tib ketayotgan edi. Chekish oqsoqol ko'maklashishni iltimos qildi.

— Bilaman. Shuning uchun ham gapni sendan boshladim-da, — dedi rais.

Hamma yalt etib Sultonmurotga qaradi. U Mirzagulning ham tikilib turganini ko'rdi. Mirzagul unga boshqalarga qaraganda o'zgacha nigoh tashladi. Gap o'zi haqida borayotgandek, qizarib ketdi. Bundan Sultonmurot o'ng'aysizlanib, yuragi dukillab ura boshladi.

— Men ham polizda yer haydaganman! — deya o'tirgan joyidan baqirdi Onatoy.

— Men ham, — deya qo'shib qo'ydi Erkinbek. Yana ketma-ket ovozlar eshitildi.

Tinaliyev bolalarning jim bo'lishlarini iltimos qildi.

— Kelinglar, bolalar, navbat bilan gapiraylik. Bu yerda muhim ish haqida gap ketyapti. Gapni o'qishdan boshlaylik. Sening o'qishing qalay? — deya u yana Sultonmurotga yuzlandi.

— Unchalik emas, — dedi Sultonmurot.

— Nimasi unchalik emas?

— Unchalik yomon emas.

— Yaxshi ham emas, — deb qo'ydi shu paytgacha jim o'tirgan Inkamol opa. — Men unga sen bundan ko'ra yaxshiroq, yuz marta yaxshiroq o'qishing mumkin, deb doim aytaman. U juda qobiliyatli. Lekin hamma balo shundaki, kallasi bo'lmag'ur xayollar bilan band bo'laveradi.

— Haa, — dedi rais o'ychanlik bilan. — Men umid qilgan edimki... Ha, mayli. Sening otang frontda. Uning uchun osh-non yetkazib beradigan payting keldi. Sening o'qishing-chi, Onatoy?

— Meniki ham shunaqa, — dedi Onatoy xo'mrayib o'rnidan turarkan.

— Bundan chiqdi, bir-birlaringizdan qolishmas ekansiz-da, — dedi kulib Tinaliyev, biroz indamay turgach, shunday dedi: — Maktabga yana qaytganlaringda o'qishning qadr-qimmatini chuqurroq tushunib olasizlar. Bilaman, o'zimning boshimdan ham o'tgan. Sal narsa bo'lsa, bor-e, ishlayman, derdik. Faqat ishlash uchungina yashaydimi odam? Sen nima deb o'ylaysan, Onatoy?

Onatoy nimalardir deb izoh bermoqchi bo'ldi-yu, ammo keyin rostiga ko'chib qo'ya qoldi:

— Bilmadim.

— Men ham ko'p gapni bilmayman, — dedi Tinaliyev, — biroq urush bo'lmaganda o'qishga borardim, yana o'qigan bo'lardim...

Sinfdagi bolalar oshkora kulib yuborishdi. Kulgili-da, kap-katta odam, kolxoz raisi bo'lsa-yu, yana o'qimoqchi emish. Ularning esa o'qish jonilariga tekkan.

— Buning nimasi kulgili? — deb jilmaydi Tinaliyev.— Ha, bolalar, men o'qishni juda xohlardim. Buni sizlar ham keyinroq tushunib olasizlar.

Shunda kimdir paytdan foydalanib uning so'zini bo'ldi:

— Rais amaki, samolyotdan sakraganingiz rostmi?

Tinaliyev bosh irg'adi. Bola tag'in savol tashladi:

— Voy-vo'y! Qo'rqmadingizmi? Men bir marta tamaki omborining tomidan pichan g'aramiga sakraganimda tizzalarim qaltirab ketgan!

— Ha, sakraganman. Faqat parashut bilan, — deb tushuntirdi Tinaliyev. — Bu gumbazga o'xshagan narsa, tepangda xuddi o'tovga o'xshab ochiladi...

— Bilamiz, bilamiz, — deya chuvillashdi bolalar.

— Ana shunday, biz desantchilar edik. Parashut bilan sakrash vazifamiz edi.

— Desant nima degani? — dedi yana kimdir.

— Desantmi? Bu ko'chma, jangovar otryad. Eng muhimi, maxsus topshiriqlarni amalga oshirish uchun yuboriladigan otryad. Bildilaringmi, tushunarlimi?

Sinfga jimlik cho'kdi.

— Desant bir nechta va bir necha ming odamlardan tuzilishi mumkin, — deya davom etdi Tinaliyev. — Muhimi, desant dushmanning orqa tomoniga o'tib oladi-da, mustaqil harakat qiladi. Agar uncha tushunmagan bo'lsalaring, boshqa biron kun gapirib berarman. Hozir esa ishga o'taylik. Onatoy, sen o'tir, nega tik turibsan? Sening otang ham frontda jang qilyapti.

— Meniki ham!

— Mening otam ham!

— Meniki ham!

Tinaliyev qo'lini ko'tardi:

— Men hammasini bilaman, bolalar. Ertadan kechgacha faqat kolxoz ishi bilan ovora, deb o'ylamanglar. Hammasidan xabarim bor: kimlar armiyada-yu, kimlar gospitalda ekanligini bilaman. Sizlarni ham yaxshi bilaman. Shuning uchun sizlarning oldingizga keldim. Gap shu. Onatoy, otangga non yetkazib berishga sen ham

borasan. Sen ham bir yilchami, ko'proqmi maktabni qo'ya turishingga to'g'ri keladi.

— Men ham! Men ham! Men ham! — deb ba'zi bolalar o'rinlaridan sapchib tura boshladilar. Negaki bunaqa paytda har kim ham botir bo'lib ketadi. Buyoqda maktabga qatnashdan qutuladi. Ot haydaysan, xolos. Bundan ortiq yana nima kerak?

— Yo'q, shoshmanglar! — deb ularni tinchitdi rais. — Bunaqasi ketmaydi. Faqat plugda ishlaganlar boradi. Mana sen, Erkinbek. Sen ham yer haydaganmisan? Men bilaman, otang Moskva ostonasida halok bo'lgan. Ko'pgina otalarimiz, akalarimiz halok bo'lganlar. Sendan ham iltimos, Erkinbek, bizga yordam ber. O'qish o'rniga sening ham yer haydashingga to'g'ri keladi. Boshqa choramiz yo'q. Onangga bo'lsa o'zim tushuntiraman...

Keyin rais yana ikki kishining — Ergash bilan Qubbatqulning ismini aytdi. Ertaga ertalab hammalari otxonada, brigadirlarning ertalabki ish taqsimotida hozir bo'lishlarini tayinladi.

Uyda, yarim kechasi yotishga hozirlanayotganlarida Sultonmurot kolxoz raisi maktabga kelganini onasiga gapirib berdi. Onasi jimgina peshanasini silab, horg'ingina quloq soldi. U kun bo'yi kolxozda, fermada, kechqurun uyda bolalari bilan band edi. Tentak Ajimurot bo'lsa, behuda quvonib o'tiribdi:

— Voy-vo'y! O'qimas ekansan! Ot qo'shib plugda yer haydar ekansan! Men ham yer haydayman!

— Darsingni tayyorladingmi? — so'radi onasi.

— Ha, tayyorladim, — dedi Ajimurot.

— Bor, yotib uxla, uningni chiqarma! Tushundingmi?

Katta o'g'liga esa hech nima demadi.

Qizlarini o'rinlariga yotqizib, chiroqni o'chirish oldidan ma'yus tortib, o'ylanib qoldi. Aftidan, Sultonmurotni uxlab yotibdi deb o'yladi shekilli, boshini qo'llari orasiga olib yig'lab yubordi. Nozik yelkalari titrab, unsiz uzoq yig'ladi. Sultonmurotning yuragi ezilib ketdi, o'rnidan turib, qandaydir yaxshi gaplar aytib, onasini yupatgisi, ovutgisi keldi. Biroq bezovta qilishga jur'at etmadi, mayli, yuragini bo'shatib olsin. Axir, onasi hozir otasi haqida ham (u yoqda, urushda qanday ahvolda ekan, deb), bolalari haqida (ular to'rtta), uyi va har xil boshqa ehtiyojlar haqida o'ylayapti-da.

Ayol kishi ayolligiga boradi. O‘qtin-o‘qtin yig‘laydi. Rais Tinaliyev sinfdan chiqib ketganidan so‘ng muallima Inkamol opaning ham ko‘ngli juda buzilib ketdi, hatto o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. Allaqachon tanaffusga qo‘ng‘iroq chalingan bo‘lsa ham o‘rnidan qo‘zg‘almadi. Sinf ham uni kutib o‘tirar, hech kim tashqariga chiqmas, hamma muallimaning o‘rnidan turib, eshik tomon yurishini kutar edi. Eshik oldiga kelganida Inkamol opa yig‘lab yubordi. O‘zini tutishga harchand urinmasin, bo‘lmadi. Ko‘zida yosh bilan chiqib ketdi. U unutib qoldirgan xaritani o‘qituvchilar xonasiga olib kirgan Mirzagul ham ko‘zlari yoshga to‘lib qaytib keldi. Ha, ayollar ayolligiga boradi. Hammaga achinishadi ular, shuning uchun ko‘p yig‘lashadi. Nima qilibdi, bir yil o‘tar, ikki yil o‘tar, urush tugashi bilan yana o‘qishni davom ettirishar...

Sultonmurot mana shular haqida o‘ylar ekan, tashqarida uchqunlab yog‘ayotgan qor shivirigа quloq tutgancha uxlab qoldi.

Ertasiga ham yana o‘shanday uchqunlab qor yog‘di. Izg‘irin muzlagan yer ustini yalardi. Bulutlar karvoni osmonda vazmin suzardi. Otxonaga yetib borguncha Sultonmurot sovqotib ketdi.

Rais Tinaliyevning rejalari Sultonmurotning kecha o‘ylaganidan mushkulroq chiqib qoldi. Avvaliga rais va ozg‘in, sariq soqol, hammalariga to‘rttadan no‘xta tutqazgan brigadir Chekish chol bilan eski otxona oldidagi qo‘raga borishdi. Qor bosgan qo‘rada aravaga qo‘shiladigan otlar boshlarini egib, quruq oxurlardagi nishxo‘rd xashakni chimdishardi. Ma’lumki, yozda otlar semiz bo‘ladi, qishda esa et tashlaydi. Lekin bularning faqat terisi-yu ustuxoni qolgan, xolos. Ularni ishlatib-ishlatib, qish kelishi bilan og‘ilxonaga qamab qo‘yishibdi. Boqadigan, parvarish qiladigan odam yo‘q. Yem-xashak tanqis. Borini ham bahorgi yer haydashga saqlab qo‘yishgandi.

Bolalar sarosimada to‘xtab qolishdi.

— Nega qaqqayib qoldilaring? — deb baqirdi Chekish chol. — Bizga Manas tulporlarini qo‘sh qo‘llab tutqazishadi, deb o‘ylaganmidinglar? Bir chekkadan tanlayveringlar, adashmaysizlar. Yana yigirma kundan keyin bu qirchang‘ilarning har bittasi buqaday irg‘ishlaydigan bo‘lib qoladi. Bularning zuvalasi pishiq — faqat yem ber-u parvarish qil! Boshqasi bilan ishlaring bo‘lmasin!

— Olinglar, bolalar, hamma kerakli narsalar bilan ta'minlaymiz, — deb qo'shib qo'ydi rais. — Boshlanglar. Har biringga to'rttadan. Duch kelganini olaveringlar.

Shunda kutilmagan hol yuz berdi. Bu tashlandiq qo'radagi qarovsiz oriq otlar orasida otasining Chopdor va Chontor degan otlari ham yurar edi. Sultonmurot avval Chopdorni, keyin Chontorni tanib qoldi. Ularning kallador, hurpaygan, turtsang yiqilgudekligini ko'rib Sultonmurot ham quvonib, ham qo'rqib ketdi. Otasi bilan shaharga tushganlarini esladi. Qanday otlar edi-ya, bular otasining qo'lida ekanligida! Tetik, bardam, kuchli. Endi bo'lsa...

— Ana, qarang, ana, otamning otlari! — deb qichqirdi Sultonmurot raisga va brigadirga qarab. — Mana, Chopdor, mana, Chontor!

— To'g'ri! Haq gap! Ular Bekboyning otlari! — deya tasdiqladi Chekish chol.

— Unday bo'lsa, ola qol shularni! Otangning otlarini ola qol, — deb buyurdi rais.

Sultonmurot otasining otlari yoniga yana ikkita otni — Oqdum va Burulni qo'shib oldi. Keyin qolganlar ham o'zlariga ot tanladilar.

1943-yilning qishida ularni maktabdan ajratgan muhim ish ana shunday boshlandi...

Ish o'ylagandan ham ko'proq edi. Har kuni otxonaga borishlari, keksa Parpi va uning oqsoq bosqonchisiga ishlashlariga zarur bo'lgan pluglarni remont qilishga yordam berish uchun temirchilik ustaxonasiga chopishlari kerak edi. Avvallari keraksiz deb tashlab yuborilgan hamma temir-tersaklarni endi yig'ishga va tozalashga to'g'ri keldi. Hatto o'z vazifasini o'tab, o'tmaslashib qolgan plug tishlarini ham qaytadan ishga moslashtirdilar. Temirchilar bolg'a bilan urib ularning damini o'tkirlashtirar, olov va suvda obdan toblar edilar. Plug tishlarining hammasiniyam charxlab bo'lmasdi, biroq agar uddasidan chiqqudek bo'lsa, Parpining boshi ko'kka yetardi. Shunday paytlari u bosqonchisini ustaxona tomiga chiqarib, otxonadagi bolalarni chaqirtirardi.

— Hoy, qo'shchilar! — chaqirardi ularni tomdan turib oqsoq bosqonchi. — Bu yoqqa chopinglar, usta aka chaqiryapti!

Bolalar chopib kelishar va shunda Parpi chol hali issiq, salmoqli, qoramtir-ko'kish tusdagi, yangitdan o'tkirlangan plug tishini tokchadan olardi.

— Ma, ol, — uzatardi u o'tkirlangan yangi tishni olish navbati kelgan odamga, — ol, qo'lingga ushlab ko'r. Yaxshilab qara. Bor, plugingga solib boq. Eh! Chiroyliligini-chi! Xuddi uzukka ko'z qo'ygandek! Shudgor qilayotganingdami, xuddi Toshkent oynasiday yaraqlab turadi. Bunaqa tishlarda yuzlaringni tomosha qilib yurasizlar! Balki birorta qizga ko'zgu o'rnida sovg'a qilarsizlar-a? Zap sovg'a bo'ladi-da! Endi u yoqqa, tokchangga qo'yib qo'y. Keyin dalaga olib borarsan. Ana shunday, keyingi safar boshqa biringga yasab beraman. Hammaga yasab beraman. Hech kim tishsiz qolmaydi. Hammaga uch juftdan yasab berarman. Faqat o'zimga yangi tish qilolmayman. Sizlarga tishlarni yetkazib beramiz. Hali sizlar, bolalar, bizlarni dalada ko'p eslaysizlar. Axir plugning eng muhim qismi tishi-da! Boshqa barcha qismlar azbaroyi tish deb qurilgan. Tish kuchli bo'lsa, shudgor ham kuchli bo'ladi. Tish o'tmas bo'lsa, qo'shi ham ojiz. Mana shunaqa...

Ajoyib odam edi Parpi chol. Umr bo'yi temirchilik qilardi. Maqtanishni yaxshi ko'rardi-yu, ammo o'z ishiga puxta edi.

Egar-jabduq ustaxonasiga ham tez-tez borib turishga to'g'ri kelardi. Chekish brigadir abzallarni hozirlashga yordam qilinglar, deb tayinlar edi. Abzalsiz hech qayoqqa borolmaysizlar. Pluglar ham, otlar ham bor deylik, ammo abzalsiz hammasi uch pul. Bu to'g'ri gap. Shunga ko'ra ularning har biri jon kuydirib, qo'llaridan kelgancha o'z otlariga egar-jabduqlarni tezroq tayyorlash uchun sarrojlarga[1] yordamlashardi.

Eng muhim, eng asosiy ish — otlarni boqib parvarish qilishdan iborat edi. Kun bo'yi, ertalabdan kechgacha otxonada bo'lib, ishdan kech qaytishardi. Uyga faqat tunda, otlarning so'nggi ulushini, xashakni berib bo'lgach, qaytishardi. Juda shoshilish kerak edi!

Vaqt juda ziq edi. Yanvarning oxiri tugab borardi. Ulovni ishga solishga o'ttiz, nari borsa, o'ttiz besh kuncha qolgan edi. Otlarni oyoqqa turg'azishga va shudgor boshlanguncha kuchlarini tiklashga ulgurishadimi-yo'qmi — buyog'i endi ularga, plugchilarning

[1] Ot arava abzalini tayyorlovchi usta.

o'zlariga bog'liq edi. Ot uxlayapti, uning oldidagi oxurda doim, kechasi-yu kunduzi yem turishi shart, jonivor shunday mavjudot...

Tinaliyevning hisobi bo'yicha fevralning oxiri, yerlardan qor ketishi bilan pluglar Oqsoy uchastkasiga chiqishi kerak edi. Qachonlardir, uzoq vaqtlar muqaddam, odamlar Oqsoyni shudgorlab urug' sochishgan. Ammo keyin negadir Oqsoy dalalari tashlab ketilgan. Balki Oqsoy uzoq va kimsasiz bo'lganidandir, balki u yerlar sug'oriladigan maydon bo'lmagani, buning ustiga, tepaliklarda joylashgani uchundir. Brigadir Chekishning ta'kidlashicha, otasi unga shunday degan ekan: Oqsoyga chiqqan qo'shchi yo hech vaqosiz qolib xonavayron bo'ladi, yo xirmonni tashib ololmay odam yollaydi. Birinchi sharti — vaqtida ekib olish. Ikkinchisi— Oqsoydagi hosil yomg'irga ham bog'liq. Chekish chol ana shunday der edi.

"Dehqon doim tavakkal qiladi, ammo doim umidvor bo'ladi", — der edi Tinaliyev. Tinaliyev shunga suyanar va baxtimizga yomg'ir yog'ib, Oqsoyning g'alla xirmoni uyilib qoladi, degan umid bilan qo'shchilarni g'ayratlantirar edi...

Kunlar o'tdi. Hafta oxiriga borib otlar sezilarli darajada jonlanib, biroz etga kirib, ishlar yurishib qoldi. Kunlar iliy boshladi. Qish go'yo xayol surib, ketishga chog'lanib qolganday edi. Shuning uchun ham kunduz kunlari otlarni oftobga, tashqaridagi oxurlarga olib chiqishar edi. Oftobda otlar yaxshiroq qavshanib, tezroq et olishardi. Yigirma bosh Oqsoy desanti devor oldidagi uzun oxurlar bo'ylab to'rtta-to'rttadan saf tortishgandi. Raisning ertalabki tekshiruvida bolalar o'z otlarining yonida shay turishardi. Ularga Oqsoy desanti deb Tinaliyev nom qo'ygandi. Shu-shu brigadirlar ham, aravakashlar-u otboqarlar ham ularni aynan desantchi, desantchilar, Oqsoy otlari, Oqsoy pichani, Oqsoy pluglari deb atay boshlashdi. Odamlar otxona yonidan o'tayotib, desantning ishi qanday ketayotganini bilmoq uchun ko'z tashlashardi. Oqsoy desantchilari haqida butun ovul gapirardi. Tinaliyev Bekboyning o'g'li Sultonmurotni desantchilarga komandir qilib tayinlaganini ham hamma bilardi. Bu ishga, albatta, Onatoy qarshi chiqdi. U darhol bahslasha boshladi:

— Nega endi Sultonmurot komandir bo'larkan? Balki biz uni xohlamasmiz!

Bu so‘zlar Sultonmurotni yondirib yubordi. Chidab turolmay dedi:

— Men umuman komandir bo‘lishni xohlamayman! Xohlasang o‘zing bo‘laver!

Bolalardan Erkinbek va Qubbatqul ham bahsga aralashishdi:

— Onatoy, unga hasad qilyapsan! Senga nima? Aytdilarmi, bas, komandir Sultonmurot!

Ergash esa Onatoyning yonini oldi:

— Onatoyning qayeri kam? U baquvvat! Faqat bo‘yi Sultonmurotnikidan sal pastroq. Maktabda sinfkomni saylagandik, kelinglar, komandirni ham tanlab saylaymiz... Qachon qarasang — Sultonmurot, Sultonmurot!

Tinaliyev ularni jimgina tinglab turdi, keyin esa jilmayib qo‘ydi va boshini chayqab, birdan jiddiylashib jahli chiqdi.

— Qani jim bo‘linglar-chi! — buyurdi u. — Bu yoqqa kelinglar. Saflaninglar. Mana bunday, bir qator bo‘lib. Desantmisizlar, desantday bo‘linglar. Endi esa menga quloq solinglar. Eslaringda bo‘lsin, komandir saylanmaydi. Komandir yuqoridagi boshliq tomonidan tayinlanadi.

— O‘sha boshliqning o‘zini kim tayinlaydi? — so‘zini bo‘ldi Ergash.

— Yana ham yuqoriroqdagi boshliq!

Oraga jimlik cho‘kdi.

— Gap bunday, bolalar, — davom etdi rais. — Urush ketyapti, harbiychasiga yashashimizga to‘g‘ri keladi. Bilib qo‘yinglar, men sizlar uchun boshim bilan javob beraman. Ikkitangizning otangiz halok bo‘lgan, uchtangizning‘ otalaringiz frontda. Men sizlar uchun tiriklar va o‘liklar oldida ham javobgarman. Ammo men bu javobgarlikni sizlarga ishonganim uchun olyapman. Sizlar pluglaringiz bilan olisga, Oqsoyga borish oldida turibsizlar. Xuddi alohida topshiriq olgan parashutchilar desantiday ancha kun-u tunni cho‘lda yolg‘iz o‘tkazasiz. Agar salga bahslashadigan va baqirishadigan bo‘lsangiz, qanday yashaysiz va qanday ishlaysiz u yerda?

Rais Tinaliyev otxonada, bolalar safi oldida turib ana shu taxlitda so‘zlar edi. Sobiq parashutchi hamon o‘sha kulrang armiya shineli, o‘sha kulrang harbiy quloqchinida, cho‘zinchoq yuzlari tashvishli,

hali yosh bo'lishiga qaramay, bir tomonga mayishib qolgan, qovurg'alari mayib, qachon qarasang, dala sumkasini osib yuradigan rais Tinaliyev bolalar qarshisida tik turar edi.

Bekboyning o'g'lini komandir qilib tayinlagan rais Tinaliyev Oqsoy desanti safi oldida turib ana shu alfozda so'zlar edi.

— Hammasi uchun sen javob berasan, — dedi u, — odamlar uchun ham, pluglar uchun ham, ot-ulovlar-u egar-jabduqlar uchun ham. Oqsoydagi shudgorga ham sen javob berasan. Javob bermoq bu topshiriqni bajarmoq degani. Eplolmasang komandir qilib boshqa odamni tayinlayman. Hozircha esa hech qanaqa va hech kimning e'tirozini inobatga olmayman.

Rais Tinaliyev o'sha kuni otxonada kichkinagina Oqsoy desanti safi oldida turib, ana shu taxlitda so'zlardi.

Qo'shchilar ixlos va hayrat bilan uning yuziga tikilib, har qanday buyrug'uni bajarishga tayyor turishardi. U bolalarning oldida xuddi Manasga o'xshab haybatli, paxmoq soch, sovutda, ular bo'lsa uning yonida sodiq botirlariday turishardi. Go'yo qo'llarida qalqon va bellarida qilichlari borday edi. Manas o'z umidi, ishlarini ishonib topshirib qo'ygan o'sha azamatlarning o'zlari kimlar edi?

Birinchi pahlavon — Sultonmurot. Mayli, eng kattasi bo'lmasa ham u o'n beshga kirgan edi. Ammo aqli va botirligi uchun komandir qilib u — Bekboyning o'g'li Sultonmurot tayinlangan edi. Uning otasi esa otalarning ichida eng ziyodi, bu payt uzoq safarda — katta urushda edi. U o'zining jangovar oti — Chopdorni Sultonmurotga qoldirdi. Sultonmurotning kichik ukasi Ajimurot ham bor. Ukasini u goho jig'iga tekkaniga qaramay yaxshi ko'rar edi. Sultonmurot yana go'zal Mirzagul bekachni ham pinhona sevardi. Mirzagul bekachning tabassumidan go'zalroq tabassum yo'q. Turkiston teragiday sarvqomat, yuzlari oppoq qorday, ko'zlari esa zulmat tog' bag'ridagi gulxanday...

Ikkinchisi — mashhur pahlavon Onatoy botir edi. U otryadda eng kattasi, qariyb o'n olti yoshga to'lib qolgandi. Bo'yi oz-moz pastroq bo'lsa ham, u hech kimdan hech nimada qolishmasdi. Ammo kuch bellashganda hammadan o'tardi. Uning oti, botirning o'z nomiga o'xshash Oqto'riq kamon o'qiday sapchirdi! Onatoyning otasi ham ulkan urushda, uzoq safarda edi. Onatoy

ham o‘sha oy yuzli Mirzagul bekachni pinhona sevar edi. Sohibjamolning bo‘sasiga intiq edi...

Uchinchi pahlavon — yoqimtoy yigitcha Erkinbek botir edi. Oilaning to‘ng‘ichi. Ajoyib va sadoqatli do‘st. Goho u ma’yus uh tortib, pinhona yig‘lab ham olardi. Uning otasi o‘sha uzoq safarda Moskvani himoya qila turib, qahramonlarcha halok bo‘lgan edi. Erkinbekning jangovar oti botirga mos Oqpaypoq — ya’ni, oq paypoqli tulpor, deb atalardi.

To‘rtinchi pahlavon — Ergash botir edi. U ham do‘st, ham o‘rtoq. O‘n besh yoshlarda. O‘z fikrlarini aytishni yaxshi ko‘rar, bahslarga aralashaverardi. Ammo ishda esa unga ishonsa bo‘lardi. Uning otasi ham jang-u jadalda — uzoq safarda. Ergashning oti o‘ziga uyqash Oltintuyoq deb atalardi. Bu botirlarning ichida beshinchisi — Qubbatqul botir edi! U ham o‘n besh yoshlarda, u ham oila to‘ng‘ichi. Qubbatqulning otasi o‘sha uzoq safarda, o‘sha jang-u jadalda, Belorussiya o‘rmonlarida qahramonlarcha halok bo‘lgan. Qubbatqul toliqishni bilmaydigan mehnatkash. Har qanday botir kabi o‘z oti Ipakyol tulporini juda sevadi.

Tinaliyevning qarshisida mana shunday botirlar turishardi. Ularning ortida ingichka bo‘yinlari va boshlari orqasida, ot bog‘lanadigan joydagi uzun oxur yonida ikki tishli pluglarga qo‘shilgan, Oqsoy tomon jo‘nashi kerak bo‘lgan yigirmata ot turardi...

Qor ketishi bilan ular Oqsoyga, Oqsoyga shudgor qilishga ketishadi!

Oqsoyga, yer selgishi bilan Oqsoyga qo‘sh haydashga borishadi!

Ammo atrofda qor ketganicha yo‘q, hali u yerni qoplab yotardi. Biroq kunlar yaqinlashib, hamma narsa o‘sha kunga shay turardi...

BESHINCHI BOB

Nihoyat, o‘sha kunlar yaqinlashmoqda edi...

Oqsoy uchun ajratilgan otlarni hamma har xil — kimdir desantchi, kimdir Oqsoy otlari deb atar, ammo muhimi shundaki, ikki haftalardan keyin ular otxonadagi boshqa otlar ichida ko‘zga tashlanib turadigan bo‘lib qolishdi. To‘yg‘azilgan, sug‘orilgan, yuvib-tarab qo‘yilgan Oqsoy otlari kuchga to‘lib borayotgan muskullari, tetik ko‘rinishlari va ziyrak chimirilgan quloqlari

bilan ko‘zni quvontirib, desant oxuri bo‘ylab bir qator tizilishib turishardi. Ularning har biri yana o‘ziga xos qiliqlarini qilib, oldingi alfozga qaytgan edilar. Unutib qo‘yilgan odatlari yana paydo bo‘lgandi. Otlar o‘zlarining yangi xo‘jayinlariga ko‘nikib qolishgan edi. Tanish ovoz va qadam tovushlarini eshitishlari bilan o‘girilib qarab, erkalangancha, sekin, go‘yo pichirlashayotganday kishnab qo‘yishar, yumshoq lablarini qimtib suykalanishardi. Bolalar ham otlarning ostiga sho‘ng‘ib, xo‘jayinlardek qichqirishga o‘rganib qolishdi: “Qani, oyog‘ingni tort! To‘xta deyman, kallavaram, hozir! Qarang-a, turtkilab erkalik ham qiladi makkor! Ovora bo‘lasan, mening qo‘limga qaragan birgina sen emassan”.

Dastlabki kunlarda otlar suvloqqa suv ichgani bazo‘r borishardi, keyinchalik, ayniqsa, daryodan qaytishda o‘ynoqlaydigan bo‘lib qolishdi. Ularning har biri o‘zining jangovar otini — Sultonmurot Chopdorni, Onatoy Oqto‘riqni, Erkinbek Oqpaypoqni, Ergash Oltintuyoqni va Qubbatqul Ipakyolni minib olishardi-da, ularning hammasini birgalikda daryoga haydashardi.

Qishda suvloq qulay bo‘lishi, unga tushar joy tiyg‘anoq bo‘lmasligi kerak. Bir nechta ot suv ichishga tushishi ayniqsa zarur. Shuning uchun oldindan qirg‘oqlarda otning tuyog‘ini tutib turadigan joy hozirlash, xavotirli yerlarga poxol to‘shab qo‘yish lozim. Qattiq sovuqlarda esa muzni teshishga to‘g‘ri kelardi. Sultonmurot bu yerda ham kim qaysi kun suvloqni hozirlashi haqida qat’iy navbatchilik o‘rnatdi.

Otlar bolalar nazorati ostida muzday oqar suvdan shoshilmay, turtkilashmay ichishardi. Suv bu yerda muz ostidan chiqib sayoz toshloq bo‘ylab oqar va yana muz ostiga sizib ketardi. Muz ostida ham qulqillab, jildirab, ovoz chiqarib oqardi.

Otlar go‘yo quloq tutgandek suv ichishdan to‘xtar, yilt etgan quyosh nurlarida o‘zlarini toblab olgach, yana suvni simirishardi. Suv ichib bo‘lishgach, shoshilmay yo‘lga chiqishar, otxonaga qaytishda o‘ynoqlashib, pishqirib, kishnab, dumlarini silkitib dam oldinga, dam orqaga sapchishar, oyoqlarini ko‘tarib tik turishardi. Bolalar atrofda ot chopib, gijinglatib shovqin solishardi.

Oradan ko‘p vaqt o‘tmay odamlar desant otlarini zavqlanib tomosha qiladigan bo‘lib qolishdi. Go‘yo ular o‘sha eski qirchang‘i

otlar emas, qaytadan tug‘ilganday edi. Keksalar nazar-e’tibordan qoldirmay bu xususda shunday xulosa chiqarishardi: agar u mehnatkash, mehribon odamning qo‘lida bo‘lsa, dunyoda otdan vafodori bo‘lmaydi. Sen unga zig‘ircha yaxshilik qilsang, yuz hissa qilib qaytaradi. So‘ngra keksalar qadimda alomat bedovlar bo‘lganligi haqidagi rivoyatlarni so‘zlay ketishadi.

Faqat rais Tinaliyevdan maqtov olish qiyin. U talabchan, tikandek qattiq nigohi bilan otlarni, hammadan avval desantchilarning o‘zlarini bir-bir ko‘zdan kechirib chiqadi. Hamma narsani ipidan ignasigacha tekshirar, pluglar qalay, abzallar tayyormi der, hatto kimning shimining tizzasi yirtiq bo‘lsa— nega yirtiq, onasining qo‘li tegmasa, o‘zi qo‘liga igna olib tikib olishi shunchalik qiyinmi, deya ijikilab so‘rardi. Otning jabduqlari-chi, qachon axir tayyor bo‘ladi jabduqlar, deb qistovga olib qolardi. Oqsoyga otxonani ko‘chirib ketolmaysan, tunlari cho‘lga sovuq tushadi. U vaqt ziqligini, Oqsoyda hozir bugungi ishni ertaga qo‘yib bo‘lmasligini tinmay ta’kidlardi. Goho baqirib so‘kishga qadar borib yetar, aravakashlar plugli otga, ayniqsa, Oqsoyga ketadigan otlarga saqlanayotgan bedani o‘z vaqtida yetkazib berolmaganlari uchun Chekish brigadirga qattiq dashnom berardi.

Bo‘layotgan voqealardan u qadar sevinmayotgan kishilar ham bor: bular — onalar. Hali unisi, hali bunisi kelib, bu qanday ko‘rgilik, umrimiz bino bo‘lib quloq eshitmagan desantni o‘ylab topishibdi, erlarimizning urushdaligi yetmasmidi, endi o‘g‘illarimiz ham askar bo‘lishi qolganmidi, na uyga yordami tegadi ularning, na diydoriga to‘yib gaplashib o‘tirish bor. Kun-u tun otxonadan beri kelishmaydi... Xullas, gapirsa gap ko‘p.

Sultonmurotga hammadan ko‘ra og‘ir, axir komandir-da. Hammasi uchun u javob berishi kerak. Hammasidan ham onalar oldida javob berish og‘irroq. Onasi qo‘lini yuvib, qo‘ltig‘iga urdi, horg‘in: “Faqat otang urushdan tirik qaytsa bo‘lgani, nima qilsa o‘zi qiladi. To‘yib ketdim. Men ko‘z yumgach, esing joyiga tushadi-yu, ammo unda kech bo‘ladi...” — derdi. Onasiga juda qiyinligini Sultonmurot biladi, lekin qo‘lidan nimayam kelardi, uning o‘rnida har qanday odam ham hech narsa qilolmasdi. Desantchilarning har birining qo‘lida to‘rttadan ot va otdan tashqari qanchadan qancha yumush-

lari bor. Yem ber, sug‘or, tagini tozala, yem-xashak tayyorla, yana yem ber, go‘ngini tozalab tashqariga olib chiq va qayta shu ishlarni takrorlayverish... Otlarning yag‘rinlarini yuvish, yaralarini davolashning o‘zi shunday mashaqqatki... Uchastka vetfeldsherining har xil surtiladigan quyuq-quyuq dorilarni qoldirib ketganini aytmasa, umuman, o‘zlari davolashlariga to‘g‘ri keladi. Har kuni dorilarni surtib turish kerak, bo‘lmasa davolab bo‘larmidi. Boqishga-ku, amallaysan-a, ammo yaraning ustiga bo‘yincha osib qo‘yolmaysan-ku. Shu-da. Birorta sog‘ ot yo‘q, hammasining yag‘rinlarini yara-chaqa bosib ketgan, oyoqlari shikastlangan edi. Uni davolayotganingni hayvon tushunmaydi, qani tinch tursa-chi!

Otlarning tanasi et olib, oyoqqa turib olganlaridan keyin sovitish kerak bo‘lardi. Har bir otni har kuni bir yarim soatcha yo‘rttirish kerak, aks holda, brigadir Chekish aytganiday, “plugga qo‘shganda terlaydi-yu, surobi to‘g‘ri bo‘ladi-qoladi”.

Ittifoqo, ko‘ngilsiz hodisa yuz berdi...

Bir kuni beshovlon o‘z “jangovar” tulporlarini sovitib kelishga otlanishdi. Sultonmurot Chopdorida, Onatoy Oqto‘rig‘ida, Erkinbek Oqpaypog‘ida, Ergash Oltintuyog‘ida, Qubbatqul Ipakyolida edilar. Avvaliga odat bo‘yicha otlarni yo‘rttirib borishdi. Otxona atrofidan, keyin ko‘chadan yurib qishloq chetiga chiqishdi va qor qoplangan dala bo‘ylab yo‘rtib ketishdi. Quyosh charaqlab, qorlar jimirlar, jilvakor osmon bahor nurlariga yo‘g‘rilgandi. Tog‘lar oppoq, shunday sokin va yorug‘ ediki, agar o‘sha oq cho‘qqida pashsha uchsa eshitiladiganday va ko‘rinadiganday tuyulardi. Qish davrini surib bo‘lgan, quyosh asta-sekin qizdira boshlardi. Otlar shitob bilan chopib borishardi. Ular ham uvushgan oyoqlarining chigilini yozishga va yeldek uchishga juda zoriqqan edilar. Bolalar jilovni bo‘shatishib tezroq, tobora tezroq ot surgilari kelardi. Shundoq choptirishni istardilarki... Oldinda Sultonmurot bormoqda edi. Onatoy orqadan uni shoshirardi:

— Bo‘l tezroq, buncha imillamasang!

Biroq Sultonmurot komandir sifatida tezlikni oshirishga unchalik ro‘yxush bermadi. Sovitish bu poygada chopish emas senga. Bu — otlarni mashq qildirish, keyin plugga qo‘shgan paytda tortishga qiynalmasligi uchun qilinadigan tadbir. Desant bo‘lgan

bolalar shunday borishardi. Daladan burilib endi ortga qaytmoqchi edilar, tepalik ortidan qiy-chuv eshitildi. Bolalar maktabdan qaytmoqda edilar. Desantchilarni ko'rishlari bilan baqirib-chaqirib, qo'llarini silkita boshlashdi. Ularga javoban desantchilar ham qichqirishar, qo'l silkishardi. Sinfdoshlari, yettinchidagilar hamda boshqa sinf o'quvchilari darsdan qaytmoqda edilar. To'da suron ko'tarib kelishardi. To'da ichida Sultonmurot Mirzagulni darrov tanidi. Uni qanday topolganini o'ziyam bilmaydi-yu, bir parcha shol ro'mol ostidagi yilt etib ko'ringan yuzi, nozik jussasi, raftori va ovozidan bu Mirzagul ekanligini his qildi. Qiz ham uni tanidi shekilli — boshqalarga qo'shilishib nimalarnidir qichqirib, sumkasini o'ynatib, tepalikdan tushib kela boshladi. Hatto "Sultonmuroot!" — deb chaqirganday ham bo'ldi. Qo'llarini yozib unga tomon yugurib intilayotgani xotirini yarq etib, jonlantirib yubordi hamda shu kunlarda qizni o'ylab yurganini va sog'inganini shu lahzada sezdi. Shunda qandaydir bir to'lqin uni o'z og'ushiga olib, allaqayoqlarga girdikapalak qilib uchirib ketayotganday his qildi...

Nimadir bo'ldi-yu, shu zahoti ular beixtiyor to'dalashib o'sha tomonga, sinfdoshlari tushib kelayotgan tepalik sari yo'rtib ketishdi. Bir zumda dalani ortda qoldirishib, nishablikdan g'oyib bo'lishdi. Ular tepalik yonbag'ri bo'ylab saf tortishib, otlarini gijinglatib, hayratlangan bolalarning yonidan o'tib, otxona tomon o'tib ketishlari ham mumkin edi-ku. Sultonmurotning rejasi ham shunday edi. Shu payt Onatoy oldinga otilib chiqdi. Uning Oqto'rig'i uchqur ot edi.

— Qayoqqa, to'xta! Choptirma! — ogohlantirdi uni Sultonmurot, ammo Onatoy hatto pinagini ham buzmadi.

"U Mirzagul oldida o'zini ko'rsatmoqchi!" — degan fikr yarq etib Sultonmurotning miyasiga urildi. Uning jahli chiqib, chidayolmay, jo'shib ketdi va Chopdorning jilovini bo'shatib, hoy-hoylab, otning yoliga yopishib olgancha Onatoyni quva ketdi. Onatoy bo'lsa yana otga ustma-ust qamchi bosdi. Ular poyga chopganday, kim o'zarga, kim birinchi bo'lib qizga etib borishga, kim o'zining abjirligi va ustunligini ko'rsatishga oshiqqanday quvishib ketishdi. Eh, shunday ajoyib poyga chopdilar-a! Otasi bekorga Chopdorda ajoyib tulpor xislatlari bor demagan ekan, u haqiqiy bedovligini ko'rsatmoqda edi. Onatoyga quyunday etib olgan Sultonmurot

tantana qilardi! Ularning bellashuvini kuzatib to‘xtab qolgan sinfdoshlari to‘dasiga asta nazar solarkan, ular orasida qizga ko‘zi tushdi, aslidayam uni ko‘rmoqchi edi-da. Axir shu qizni deb bu bellashuvda qatnashmadimi. G‘alaba qozondi ham! Onatoyni quvib o‘tgach, qizga yaqinroq borish uchun tepalikka yo‘naldi. Chopdorning boshini, yaxshiyamki, sal tepalikka burgani, omadi bor ekan, bo‘lmasa bu hangoma nima bilan tugashini kim bilardi. Chunki so‘nggi daqiqalarda Onatoy yetib, uni quvib o‘tayotganida raqibiga bir narsa bo‘lganday bo‘ldi. Birdan hamma qichqirib yubordi. Sultonmurot jilovni tortib, orqasiga o‘girilsa, Onatoy yo‘q. U shiddat bilan chopib borayotgan otini bazo‘r to‘xtatib orqaga qayrildi-yu, Onatoyning Oqto‘rig‘i qorda iz qoldirgancha surib tepalikdan yumalaganini, Onatoyning o‘zi esa bir chetga otilib ketganini ko‘rdi. Bolalar gavdasini arang qordan ko‘tarib turayotgan Onatoy tomon yugurib ketishdi.

Sultonmurotning kayfi uchib ketdi. Yetib kelib Onatoyning qonga belangan qo‘llarini ko‘rgach, yana vahima bosdi. Bir lahza ko‘zlari Mirzagulning nigohlari bilan to‘qnashdi. Qo‘rqib oqarib ketgan bo‘lishiga qaramay u juda go‘zal edi... Onatoy o‘zini o‘nglab olib, pastda, qor uyumida tipirchilab yotgan oti tomon yugurdi. Ot tizginga o‘ralib qolgan edi. Bu orada orqada qolgan desantchilar ham etib kelishdi. Hammalari otni oyoqqa turishga ko‘maklashib yuborishdi. Shundagina Sultonmurotning qulog‘iga tovushlar chalinib, hamma narsa joyida shekilli, deya o‘ziga keldi.

Botirlarning Mirzagul bekach oldida o‘zlarini ko‘rsatishga urinishlari ana shunday ko‘ngilsizlik bilan tugadi. Qizning ko‘zlariga qarashga ularning yuraklari dov bermasdi. Otxonaga qaytar vaqt bo‘lgani uchun churq etmay, apil-tapil yo‘lga otlandilar. Faqat ovulga yetay deb qolganlarida Ergash Onatoyning Oqto‘rig‘i oqsayotganini sezib qoldi.

— To‘xta! — qichqirdi u. — Nima, otingni oqsayotganini bilmayapsanmi?

— Oqsayotganini? — g‘o‘ldiradi Onatoy.

— Ha-da! Oqsaganda qanday!

— Qani, oldinga o‘t-chi, — buyurdi Sultonmurot. — Ko‘raylik-chi, oldinga o‘t.

Haqiqatan, Oqto'riq oldingi o'ng oyog'ini zo'rg'a bosardi. Paypaslashib qarashsa, otning to'pig'i shisha boshlaganini ko'rishdi. Juda yomon ish bo'ldi-da. Endi nima qilishni bilishmasdi. Otlarni plugga rosa tayyorlashib-tayyorlashib, oxirida hammasi chippakka chiqdi. Qor bilan qoplangan tepalikda kim ot chopadi, axir har qadamda otlar sirpanib pastga yumalashlari mumkin ediku. Shunday bo'ldi ham. Xayriyatki, o'zlari omon qolishdi.

— Hammasiga sen aybdorsan! — dedi jahl bilan Onatoy qizarib-bo'zarib. — Quvishni birinchi sen boshlab berding.

— Orqangdan: "To'xta, qayoqqa?" — deb baqirmadimmi?

— Bo'lmasa nega quvlab o'tmoqchi bo'lding?

— O'zing otni nega choptirib ketding?

Baqirishib, talashib, sal bo'lmasa mushtlashib ketay deyishdi. Lekin eslarini yig'ib oldilar. Bu ot sovitishdan so'ng otxonaga oqsoq otni jimgina, horg'in yetaklab kirib kelishdi. Otlarni, oqsoqlanayotgan Oqto'riqni ham shovqin-suronsiz oxurlariga bog'ladilar-u, endi nima qilishlarini bilmay turib qoldilar. Tahlika ostida hech biridan bir fikr chiqmay churq etmay turishardi. Bu qilmishlari uchun javob berish kerakligini yaxshi bilishardi. Bolalar Onatoyga yuzlanib: sekin, nima bo'lganini otboqarlarga aytib ko'r. Oqto'riq oqsoqlanib qoldi, nima qilaylik, deb so'ragin, deyishdi. U ko'nmadi:

— Nega endi men borar ekanman? Men aybdor emasman. Bizning komandirimiz bor. O'zi borib aytaversin.

Yana bahslashdilar, yana mushtlashib ketishlariga sal qoldi. Hammadan ham Onatoyning o'zini aybdor hisoblamayotganligi Sultonmurotga alam qilib ketdi.

— Xotin ekansan! — dedi tutaqib. — Sen faqat og'izdagina botirsan! Sal narsaga chetda pisib turmoqchimisan! Qo'rqadi deb o'ylayapsanmi? Bo'lar ish bo'ldimi — o'zim borib aytaman hammasini.

— Boraver! Shuning uchun ham komandirsan-da, — bo'sh kelmadi Onatoy.

Sultonmurot o'zini qo'lga olib, hammasini qanday bo'lsa shundayligicha otboqarga aytib berishga jazm qildi. Otboqar hovliqib yugurib borib qoqingan otni ko'zdan kechira boshladi. To'sto'polon ko'tarildi. Naq shudgor qilish oldidan otdan ayrilish hazil-

mi axir. Shu zahoti Chekish brigadir kelib dag'dag'a qila ketdi. Buni kim bo'lsa ham yetkazishga ulguribdi-da. Otboqar bu vaqtda Oqto'riqning oyog'ini ko'zdan kechirib, shikastlanganmi yoki suyagi singanmi, aniqlayotgan edi. Shu payt orqadan ot tuyog'ining do'pir-do'piri eshitildi. Boshlarini o'girib qarashsa, ot ustida Chekish brigadir turibdi. U indamay otdan tushdi. Yaqin kelib haybat bilan tutaqib so'radi:

— Nima bo'ldi?

— Payi cho'zilganmi yoki suyagi darz ketganmikin, shuni bilmay turibmiz, oqsoqol.

— Bilishmasmish! — baqirdi Chekish jahldan bo'zarib. — Hammangni hoziroq tribunalga haydayman! Joy-joyingda otib tashlayman!

Chekish qamchisini o'ynatib qo'shchilar tomon otildi. Bolalar har tomonga tumtaraqay qochib qolishdi. Chekish ularni quva ketdi. Hech kimni tutolmay, battar bo'g'ilib, bo'zarib qamchisini siltab do'q qila boshladi:

— Plugga qo'shiladigan otlarni biz kimlarga ishonib o'tiribmiz? Bular dushman ekan-ku! Fashistlar! Bitta qo'ymay otish kerak! Qancha mehnat, qancha yemni yelga sovurdi bular! Endi shudgor nima bo'ladi?

U otxonani boshga ko'tarib qichqirar, so'kinarkan, Sultonmurotga to'qnash kelib qoldi. Bolalar qochib ketishganda ham Sultonmurot joyidan jilmagandi. Qo'rquvdan rangi quv o'chib, javob berishdan bosh tortolmay brigadirga termildi.

— Ha, hali bu senmisan! Qilar ishni qilib qo'yib, yana menga qarab turibsanmi! — Chekish chol o'zini tutolmay desantchilar komandirining yelkasiga qamchi tortib yubordi.

Biroq yana qamchisini ko'tardi-yu, negadir urmay pishqira ketdi:

— Qoch, itvachcha! Qoch, deyman! Yo'qol ko'zimdan! Yo'qsa, boplab savalayman!

Sultonmurot orqaga chekinib, beixtiyor qo'llari bilan yuzini to'sib, javdiragan ko'zlarini brigadirdan uzmay turardi. U cho'g'day qamchi yelkasini o'yib o'tishini kutardi. Bunga chidash, bardosh berish, qochmaslik uchun bor kuchini to'plab turar edi...

— Ha, mayli! — dedi kutilmaganda Chekish yigitchaning o'jarligidan hayratlanib. — Qolganini otang urushdan qaytgach olasan. Bu qilmishlaring uchun seni otangning oldida ham savalayman!

Sultonmurotdan sado chiqmadi. Chekish esa hech jahlidan, hovridan tushmay qamchisini o'ynatib, depsinardi:

— Qoch desang, qaqqayib turadi! Axir o'zing o'yla, hech zamonda seni tuta olarmidim! Sizlarni quvib nima qildim! Yo'liga qochmaysanmi, menga ham yengil bo'lardi! Uray desam, egning yupun, egningni desam, o'zing ham qoqsuyaksan, qamchi bilan solib bo'lmasa. Uradigan holing bo'lsa ham mayli edi! Bo'lar ish bo'ldi. Ko'nglingga olma. Otang qaytgach, birgalashib men cholning adabini berarsizlar. Qani endi ko'rsat-chi, nima qilib qo'ydilaring...

O'sha kuni mana shunday hodisa ro'y bergan edi. Sultonmurot qilmishiga yarasha oladiganini oldi. Brigadir ham qamchi bilan savalamay nima qilsin. Qancha mehnat, harakat zoye ketdi. Nimaga ham yarardi cho'loq ot? Go'shtgami? Biroq zahmatkash jonivorni so'yishga kimning qo'li borardi? Chekish va boshqa biladigan odamlarning aytishicha, otning qattiq shikastlanmaganligigina birdan bir tasalli edi... Onatoyning Oqto'rig'ini bir cholning huzuriga olib bordilar. U yilqilarni davolardi. Beda, pichan oborishib, u yerda navbatchilik qila boshlashdi. Omadlari kelib, besh kunlardan keyin Oqto'riq ilgarigi holiga qayta boshladi va uni otxonaga olib keldilar.

Umuman bu hafta og'ir o'tdi, uyda esa onasining tobi qochib qoldi. Avvaliga o'zini yomon his qila boshladi-yu, keyin issig'i ko'tarilib ko'rpa-to'shak qilib yotib qoldi. Sultonmurot onasi, ukalariga qarab uyda qolishiga to'g'ri keldi. U ana shundagina uylari bo'm-bo'sh, huvillab qolganini payqadi. Otasi armiyaga ketganidagi o'ntacha qo'ylaridan birortayam qolmadi: ikkitasini o'zlariga so'yishdi, qolganlarini harbiy zayomga sotishib, boshqa soliqlarga to'lab yuborishdi. Yaxshiyamki, hali yelini to'lishib qolgan, yaqin-orada tug'ishi kerak bo'lgan sigirlari, yana bir tomonda Ajimurotning eshagi Qorayol bor. Bor-yo'q mol-hollari mana shu. O'shalarni boqishga ham hech vaqo yo'q. Saroy tomidagi g'aramda quruq makkajo'xori poyasi saqlanardi. Hisoblab ko'rdi,

agar qish cho‘zilmasa sigirning tug‘ishiga bazo‘r yetarkan, ammo qish cho‘zilsa, nimalar bo‘lishini kim biladi. Eshak o‘ziga o‘zi yemak topmog‘i kerak edi. U hovli atrofidagi yantoq va burganlarni yeb yurardi. O‘tin-cho‘pga kelganda ahvol juda chatoq, tappi tugayozgan, shox-shabba yana bir necha kunga yetarli qolgan. Keyin nima bo‘ladi? Itlari Oqtosh ham sayoq bo‘lib ketibdi. Sultonmurot ma’yuslanib qoldi. O‘z-o‘zidan xijolat tortardi. Kun-u tun otxonada Oqsoy desantini tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘lib, xo‘jaliklari qarovsiz qolganini ham payqamabdi. Otasi borligida hecham shunday bo‘larmidi? Otasi pichan yig‘sa butun qish va bahorga yetardi. O‘tinni ham g‘amlab tashlardi. Nimasini aytasiz — otasi borligida hayotlari butunlay boshqacha, xotirjam, saranjom-sarishta, orasta edi. Faqat uylaridagina emas, hamma yerda, balkim butun dunyoda boshqacha edi. Hozir hovlilaridan fayz ketgan. Xuddi kuz payti yaproqlarsiz qolgan daraxtlar kabi hovlida nimadir yetishmay turardi. O‘tov o‘z o‘rnida, ko‘chalar, uylar o‘sha-o‘sha-yu, baribir otasi borligidagi fayz yo‘q. Hatto hovli orqasidagi ko‘chadan o‘tib turadigan arava g‘ildiraklarining taqir-tuqur ovozi ham, ilgarigidek, otasi shu yo‘llarda, xuddi shu aravalarni haydagan vaqtidagi singari maroqli emas edi.

Jambulga borgan odamlarning aytishicha, shaharda shunday qimmatchilik, ocharchilik va to‘s-to‘polon emishki, tezroq uyga qaytging kelarmish. Demak, shahar ham o‘sha otasi bilan borganlariday emas, butunlay o‘zgargan.

Nega shunday ekan-a? Demak, otasi yo‘qligi uchun shunday bo‘libdi-da... U hozir qayerda, holi ne kechdi ekan? Oxirgi xat bir yarim oylar chamasi oldin kelgandi. Qayerdadir yo‘lda biron yerda ushlanib qolyapti, deb tasalli berardi u onasiga. Onasi uh tortardi. Frontdan jo‘natilgan xat, ehtimol, ushlanib qolishi ham mumkin. Balkim xat yozishga hech kimning vaqti ham yo‘qdir hozir? Hamma gap ana shunda, biroq Chuy kanalidan xat kelmasligi boshqa-yu, frontdan xat kelmasligi boshqa. Mana, onasi ham, hammalari ham shu haqda o‘ylaydilar.

Avvalgi kun tong mahalida it hurib, keyin jimib qoldi. Erkalanib g‘ingshidi-yu, birozdan so‘ng deraza taqilladi. Onasi seskanib, kasal bo‘lishiga qaramay to‘shakdan turib ketdi. Sultonmurot ham

deraza tomon otildi. Tashqarida kimdir turardi. Birinchi bo'lib uni onasi tanidi.

— Tog'ang Nurg'ozi keldi, — dedi u o'g'liga, — bor, kutib ol. — O'zi bo'lsa ko'ngli aynab, tishi tishiga tegmay ko'rpaga kirdi.

Onasining akasi, Nurg'ozi tog'asi tog'da yashar va umr bo'yi qo'shni sovxozda cho'ponlik qilardi. Bir kuni yoshi o'tib qolgan bo'lsa-da, uni ham armiyaga chaqirishdi. Ammo Jambuldan uni va yana bir necha cho'ponni uyiga qaytarishdi. Otarlarda hech kim qolmagan edi. Podani kimsasiz tashlab ketib bo'lmaydi-ku. Yaxshiyam Nurg'ozi tog'alari bor ekan, onda-sonda bo'lsa-da, ulardan xabar olib turardi. Mana bu safar ham kechasi qo'ylarni qo'raga qamab, singlisini kasal deb eshitib, tog'dan tushib kelibdi. U oz fursatga kelib, nima gapligini bilgach, tezroq uyga qaytmoqchi edi.

Shamolda qorayib, lo'liga o'xshab qolgan, tulkiteri tumoq, kigiz qo'njli etiklari tizzasidan yuqorisigacha, bahaybat, chayir tog'asi ayoz bilan birga qo'y hidini anqitib kirib keldi. Shu zahotiyoq uyda g'ala-g'ovur ko'tarildi. Egnidan po'stinini yechib singlisini yoniga cho'kkaladi-da, uning issiq qo'lini o'zining zalvorli kaftiga olib, indamay tomir urishini eshitdi. Uzoq vaqt diqqat bilan uning nozik to'pig'ini ushlab, o'zining qattiq, yo'g'on barmoqlari bilan tomirini tekshirdi. Nimanidir sezib, nimanidir aniqladi. Biroz xayolga cho'mib, yo'talib qo'ydi, so'ngra soqolini siypalab, xushnud jilmaygancha Sultonmurotga dedi:

— Hechqisi yo'q. Yaxshigina shamollab, rosa sovuq o'tibdi. Bilganday go'sht, dumba yog'i olib keluvdim. Qalampir va piyoz solib issiq, yog'li sho'rva ichib, obdan terla, — maslahat berdi singlisiga u. — Sen-chi, Sultonmurot, egardagi xurjunni olib kel, nima bo'lsa hammasini uyga olib kir. Xurjunni esa bo'shatib ber... Uzoq o'tirib qololmayman, qo'ylar egasiz qolgan.

Onasi tog'asi bilan u yoq bu yoqdan gaplashib olgunlaricha Sultonmurot olov yoqib, choy qaynatishga ulgurdi. Ungacha kichkintoylar ham uyg'onib qolishdi. Darrov to'shakdan turib qipyalang'och diydirashganlaricha hammalari tog'alariga tashlanishdi. U go'daklarni yonida turgan po'stiniga o'rab olar, ular esa tizzasiga, elkalariga irg'ishlashardi. Ayniqsa, tog'aning erkatoyi Ajimurot bo'lsa rosmana go'dak bo'ldi-qoldi. Uchinchi sinfda

o‘qiyotganiga qaramay u qo‘zichoqday erkalanardi. Tog‘asining tulkiteri tumog‘ini boshiga kiyib, qamchinini qo‘liga olib, o‘zi esa xuddi otga minganday tog‘asining yelkasiga chiqib oldi.

— Uyalmaysanmi! Tush! — Sultonmurot uni bir-ikki turtkilади, ammo bunga Nurg‘ozi tog‘aning o‘zi indamasdi.

— Tegma unga, tegma, mayli, o‘ynayversin.

Ana shunday quvnoq, sershovqin tong otdi. Ajimurot allaqachon maktabga borishi kerak bo‘lsa ham hamon imillardi. Onasi baqirib-chaqirsa ham u tog‘asining atrofida girdikapalak bo‘lib ivirsirdi. Shundan so‘ng tog‘asi jiyanini qistay boshladi. Bazo‘r uni kiyinishga ko‘ndirishdi. Oxiri shunga borib etdiki, Sultonmurot ukasining qo‘llaridan tutib tashqariga sudrab chiqarib yubordi. U bo‘lsa eshikka tiralib olib, tashqariga chiqarib yuborilganidan bo‘kirib yig‘lay boshladi. Shu ko‘yi baqirib yig‘lagancha maktabga ravona bo‘ldi. Bolakayga hammaning rahmi kelib ketdi.

Nurg‘ozi tog‘aning hatto jahli ham chiqdi.

— Bu nima qilganing? — dedi u Sultonmurotni koyib.

— Yo‘q, tog‘ajon, men unga tegmadim.

— Nimaga yig‘layapti bo‘lmasa?

— Sultonmuroting unga tekkani yo‘q, — bolishdan bosh ko‘tarib gapga aralashdi onasi. — Yo‘q. Nurg‘ozi aka, u otasini sog‘inganidan shunday qilyapti. Shuning uchun ham bolalar sizga yopishgani-yopishgan. To‘yib ketdik. Kutaverib ko‘zimiz to‘rt bo‘ldi. Ikki enlikkina xat kelsa koshkiydi. Mana, ikki oy bo‘ldiki, dom-darak yo‘q...

Nurg‘ozi tog‘alari singlisini tinchita boshladi. Yig‘lamasligini, bolalari uchun o‘zini ehtiyot qilishini tayinlarkan, odamlarni o‘ldi deb hisoblashib, yarim yildan keyin ulardan xat olishganlari haqidagi har xil voqealarni gapirib berdi. Urush urushligini qiladi-da...

Bu gal, Sultonmurot bemor onasi yonida o‘tirib, hayotlari otasiz naqadar og‘ir kechayotganini chuqur his etdi. Ajimurotga o‘xshab kichikroq bo‘lganidami, sog‘inchidan bor ovozi bilan ho‘ngrab yig‘lab olardi. Shu ko‘yi, yig‘lab-siqtab, boshi oqqan tomonga jo‘nagan bo‘lardi. Uning salgina bo‘lsa-da, umidvor bo‘lgisi kelardi. Tez orada qaytmasa ham mayli, faqat otasi tirik bo‘lsa bas, ana o‘shanda erkin nafas olib, kutib, chidasa bo‘ladi. Endi u

o‘z muallimasi Inkamol opaning ahvoliga tushundi. Bir kuni opa otxonaga keldi. Rayonga ketayotgan yo‘lovchi aravaga otlarni qo‘shgunlaricha kutib turdi. U hamon o‘sha dag‘al jundan to‘qilgan shol ro‘molda, keksayib qolgan, yolg‘iz, ko‘zlari to‘la g‘am-anduh, qiyshayib qolgan darvoza oldida turardi. Lekin oradan bir kun o‘tib qaytib kelganida esa uni tanib bo‘lmas, keksa muallima o‘zgarib qolganday, asliga qaytganday edi. Hatto peshanasidagi ajinlari ham tekis bo‘lib ketgandi. Ochiq chehra bilan o‘quvchilarining ishlari bilan qiziqdi. Sultonmurot uni hovlini aylantirib, desant otlarini ko‘rsatdi.

— Mana, Inkamol opa, oxur oldida turgan bizning to‘rttala otimiz!

— Yaxshi otlar, parvarish qilingani shundoqqina ko‘rinib turibdi, — maqtab qo‘ydi Inkamol opa.

— Ilgari ularni bir ko‘rganingizdami, — so‘zlay ketdi Sultonmurot. — Qoqsuyak, hamma yog‘i yag‘ir va yag‘rinlari yarachaqa, yiring bosgan, oyoqlari esa oqsoq edi. Endi bo‘lsa, o‘zimiz ham taniyolmay qolganmiz. Inkamol opa, mana bu mening Chopdorim. Bir ko‘ring qanaqaligini! Otamning oti. Mana bunisi esa Oqpaypoq, ana unisini Eltomon deb ataymiz...

So‘ngra muallimaga ustaxonada otlarga urish uchun taxlab qo‘yilgan egar-jabduqlarni ko‘rsatdi. Keyin pluglarni ko‘rishdi. Hamma narsa taxt, shu topning o‘zidayoq otlarni qo‘shib, haydayversa bo‘ladigan...

Inkamol opa juda xursand bo‘ldi. Xayrlashayotganda esa ularni o‘qishdan qoldirganlarida tashvishlanib, norozi bo‘lganini, biroq hozir bularni ko‘rib ko‘ngli joyiga tushganini tan oldi. Hozir, muhimi, g‘alaba-yu odamlarning tezroq urushdan qaytishlari, qolgan narsalarning hissasini chiqarib olamiz, albatta chiqaramiz, dedi u.

Ma’lum bo‘lishicha, Inkamol opa agar yaxshi xabar chiqsa hech nima, hech qanday pul olmaydigan, birovlarning quvonchini o‘ziniki deb biladigan mashhur folbin huzurida bo‘lgan ekan. Folbin shuning uchun ham doimo rostini gapirarkan. O‘sha folbin opaga uch marta fol ochib, o‘g‘lini tirik, debdi. Asir ham, yarador ham emas. Faqat shunday topshiriqdaki, xat yozish man etilgan. Ruxsat olgach, mana ko‘rarsiz, xat ustiga xat kelaveradi, debdi... Bu

gaplarning qanchasi rost, qanchasi yolg'onligini hech kim bilmaydi-yu, ammo bu voqeani odamlarni rayonga olib borib kelgan aravakash otxonada so'zlab berdi.

Inkamol opaning folbinga borganini eshitgan Sultonmurot o'shanda daf'atan hayron bo'ldi-yu, uning qo'rquv aralash hasratlari boisini endi tushunib yetdi va biroz yengil tortgach, onasiga ham o'sha bashorat qiluvchi ayolga borib otasidan biror xabar topishni maslahat berishga qaror qildi.

Ha, bularning hammasi haqida o'ylashning o'zi og'ir va qo'rqinchli edi. Ammo buloq ko'zidan qaynab chiqib turgan tiniq suv oqimi kabi quyilib kelayotgan yorqin va quvonchli tuyg'ular ham bor edi. Bular uning haqida, Mirzagul haqidagi o'ylar edi. U aslida bu tuyg'ularni chorlashga urinmas, ammo ular yer ostidan nish urgan maysalar misol o'zidan o'zi paydo bo'lardi. Ularning quvonchli, musaffoligi mana shunda edi, shuning uchun ham ulardan ayrilib qolishni istamas, bu haqda o'ylashdan charchamasdi. U haqda o'ylar ekan, nimanidir bajarishi, harakat qilishi va bu yo'lda hech qanday falokatlardan, hech qanday qiyinchiliklardan cho'chish nimaligini bilmasdi. Lekin hammasidan ham bularning barchasini qizning bilishini istar edi.

O'z qalbidan kechayotgan tuyg'ularning barini nima deb atashni o'zi ham yaxshi bilmasdi. Ammo bu o'zi odamlardan eshitgan, kitoblardan o'qigan sevgi ekanligini g'ira-shira tushunib yetgandi. Frontga ketayotgan yigitlar unga xatlarini biror qizga yoki yosh kelinchakka berib qo'yishini so'rab bir necha bor iltimos qilishgan. U bunday maxfiy topshiriqlarni g'urur bilan bajargan. Bu haqda hech qachon, hech kimga laqillab ham yurmagan. Bunaqa narsalar haqida laqillab yurish yigit kishining ishi emas-ku! Hatto uzoq bir qarindoshi shunday xat yozib berishini iltimos qilgan payt ham bo'lgan. Jamonqul hali yosh, savodsiz edi, tog'larda qo'ylar ketidan yurib, yoshligida o'qimagandi. Shunda birdan armiyaga chaqirilib qoldi. Yigitning suyukli qizi bilan xayrlashgisi kelgan, qog'ozda bo'lsa ham o'z tuyg'ularini unga aytmoqchi bo'lgan. Ovulda qiz bola to'ygacha yigit bilan uchrashishi mumkin bo'lmagach, nima qilsin.

Shunda chalasavod Jamonqulning qarindosh boladan yordam so'rashiga to'g'ri keldi. Jamonqul aytib turdi, Sultonmurot esa

uning so‘zlarini qog‘ozga tushirdi. O‘shanda bu o‘yin ham, Jamonqulning so‘z tanlab hayajonlanishi ham, xatni yozib tugatgunlaricha tomog‘iga bir narsa turib qolganday bo‘lgani ham Sultonmurotga kulgili bo‘lib tuyulgan edi. O‘shanda Sultonmurot avvaliga o‘jarlik qilib yalintirgan, bir yil o‘tmay o‘zi ham bechora Jamonqulni hayajonga solib qo‘ygan o‘sha hissiyot o‘zining ham boshiga tushishini xayoliga keltirmagan holda bechora oshiqdan sovg‘aga dastasi arxar shoxidan qilingan pichoq olgan edi.

Jamonqulning tog‘-u toshda yolg‘iz yurib to‘qigan she’rini hozir Sultonmurot esladi va ichida o‘zicha takrorladi:

Oqsoq, Ko‘ksoy, Sariqsoy — kezmagan yer qolmadi,
Ammo sening o‘xshashing hech qaydan topilmadi...

Nogahon miyasiga bir fikr keldi: u ham qizga xat yozsa bo‘lmaydimi! Uyalib, qo‘rqib o‘tirmay hammasini to‘kib solish, o‘z his-tuyg‘ularini unga yetkazish yo‘li topilgach, unda hoziroq harakat qilish istagi, boshqalarga ham uning o‘ziga yaxshi bo‘lganiday, uning singari boshqalar ham o‘zlarini baxtiyor hisoblashlari uchun allaqanday xayrli ishlarni bajarish istagi tug‘ildi. Onasining tezroq sog‘ayib ketishi, otasini o‘ylab hadeb xavotirlanavermasligi uchun, tezroq yana fermada ishlashi, uylari sarishta va issiq bo‘lishi uchun, o‘g‘li kimnidir sevib qolganini, uning ko‘z o‘ngida atrof allaqanday go‘zallashib borayotganligini biroz sezishi uchun hammadan oldin onasiga yordamlashishi kerak...

U uyda bo‘lgan uch-to‘rt kuni mobaynida shunchalik ko‘p ish qildiki, yil davomida bunchalik ish qilib bo‘lmasdi. Uy va xo‘jalikka doir jamiki ishlarni tartibga solib, saranjom-sarishtaladi. Onasidan ham tez-tez hol-ahvol so‘rab turdi:

— Yaxshimisan! Biron narsa kerakmasmi?

Onasi unga javoban g‘amgin kulib qo‘yardi:

— Endi o‘lim ham qo‘rqinchli bo‘lmay qoldi. Tashvish qilma, biron narsa kerak bo‘lsa o‘zim aytaman...

Xatni bo‘lsa u tunda, hamma uxlagandan keyin yozdi. Hech kim va hech nima unga xalaqit bermasa-da, juda hayajonlandi. Avval nimadan boshlashni o‘ylab oldi. Unday yozib ham ko‘rdi, bunday ham, baribir bo‘lmadi. Har gal boshqacharoq va bundan

boshqacharoq boshlashi kerakday bo'lib tuyulaverardi. Fikrlari xuddi pala-partish otilayotgan toshdan hosil bo'lgan suv betidagi pufakchalarga o'xshab tarqab ketardi. Qalbida ardoqlab yurgan tuyg'ularini izhor qilgisi kelar, ammo bularni qog'ozga tushirishga kelganda gap qovushmay qolardi. Eng oldin unga, Mirzagulga, uning qanchalar go'zalligini, ovuldagilarning hammasidan go'zalligini va nafaqat ovulda, balki butun olamda tengi yo'q ekanligini aytgisi kelardi. O'zi uchun bir sinfda u bilan o'tirish, uning go'zalligini tomosha qilib termilish va dunyoda shu termilishdan yoqimliroq hech narsa yo'qligini aytgisi kelardi. Biroq hayot taqozosi bilan u o'z desanti tufayli endilikda maktabga borolmas, qachon ularning maktabga qaytishi noma'lum bo'lib qolgandi. Endi u qizni ahyon-ahyon uchratar, shuning uchunmi, juda-juda iztirob chekar va qattiq sog'inar edi. Shunday sog'inardiki, hatto ba'zida yig'lagisi kelardi. Buni u doim tan olgisi kelmasdi, erkak kishi doim erkaklarcha ish tutishi kerak, biroq ko'z yoshlari haqiqatan goho tomog'iga kelib qolardi. Tanaffus paytlari bekorga va dabdurustdan, sal-pal shilqimsifatlikni ep ko'rmay qizning oldiga borolmayotganligini va uning bekorga o'zini olib qochib yurganini xatda tushuntirishi kerak edi. Uning tuyg'ularida hech qanday yomon niyat bo'lmagan. Surbet Onatoy o'zining eng kuchli va dovyurak ekanligini, desantchilar ichida eng zo'ri ekanligini ko'rsatib qo'yishni ko'zlaganidagi o'sha kim o'zarga quvishishni ham unga tushuntirib berishni juda istardi. Ammo o'shanda, qiz o'zi ko'rganday, Onatoy hech narsa qilolmadi.

Afsuski, Oqto'rig'i shikastlandi. Ammo hammasidan uning aytgisi kelgan muhim narsa — qanday qilib sinfdoshlari to'dasidan qizni tanib qolgani va uni uzoq paytdan beri qattiq sevishini darrov tushungani, yana qo'llarini yozib va nimalar deb qichqirib tepalikdan tushib kelayotganida uning qanday go'zal ko'ringani edi. Qiz unga tomon xuddi musiqa ohangiday, sharsharaday, o't yolqiniday yugurgan edi...

Deraza tokchasidagi lampalarni ikki marta tuzatib qo'yishga to'g'ri keldi. Piligi tugab borardi. Yaxshiyam onasi boshqa xonada yotar va uning oxirgi kerosinni yoqib tugatayotganini bilmas edi. Xat hamon nima deb yozishni bilmagani uchun emas, balki

aksincha, hammasini to‘kib solish istagi borligi uchun ham qovushmasdi.

O‘tovdagi derazalarni allaqachon qorong‘ilik qoplab, allaqachon itlar hurishni bas qilgandi. Manas qorli tizma tog‘lari poyidagi vodiy aholisining barchasi allaqachon sukunatli fevral tuni qo‘ynida uyquga cho‘mgandi. Deraza tashqarisida zim-ziyo tun. Go‘yo unga butun olamda faqat ular — tun va uning o‘zi Mirzagul haqidagi o‘ylari bilan yakka qolganday tuyuldi.

Nihoyat u yozishga qaror qildi. O‘z xatini “Oshiqlik maktubi” deb nomlab, uni go‘zallik yog‘dusi uydagi lampa yog‘dusi o‘rnini bosa oladigan, ovulda yashaydigan sohibjamol M.ga bag‘ishlaganini yozdi. Keyin, bozorda minglab kishilar uchrashsalar-da, faqat bir-birovlariga qo‘l uzatishni lozim ko‘rganlarigina salomlashishini yozdi. Bularni hammasini u Jamonqulning xatidan yodlab olgandi. Keyin butun hayotini so‘nggi nafasigacha qizga bag‘ishlaganini va shunga o‘xshash narsalarni to‘kib soldi. Xat so‘ngida Jamonqulning she’rini esladi:

Oqsoy, Ko‘ksoy, Sariqsoy — kezmagan yer qolmadi,
Ammo sening o‘xshashing hech qaydan topilmadi...

OLTINCHI BOB

Ertasiga, Ajimurot maktabdan kelgach, akasi bilan dalaga, o‘tin olib kelishga jo‘nadi. Ajimurotga eshagi Qorayolni egarlashdi. Uning egariga arqon, o‘roq va qo‘lqoplarni bog‘lashdi. Itlari Oqtoshni ham o‘zlari bilan birga olishdi. It jon deb ularga ergashdi. Ajimurot, kichikligi uchun egarga mindi, akasi esa eshakni niqtalab yonida ketdi. Eshak shunday bir jonivorki, niqtalamasang, yurmaydi. Yo‘l esa olis. Sultonmurot quruq shox-shabbaga boy bir joyni bilardi. U joy uzoqda. Tuyuqjar darasida edi. Bahor va yozda daraga har tomondan qor suvlari, ayniqsa, yomg‘ir suvlari oqib kelardi. Ayqirib oqayotgan sel oqimi, momaqaldiroqlar gumburlashidan dara dahshatga tushar, kuzga kelib esa poyasi qattiq o‘tlar changalzorda odam bo‘yicha o‘sib qolardi. U yerga odam kam borardi-yu, lekin quruq qaytmasdi.

Atrofdagi hamma ko'ray terib olingandi. Endi Tuyuqjarga yo'l olish kerak. Sultonmurot onasini Oqsoyga ketgunicha o'tin-cho'pni g'amlab beraman, deb ishontirib qo'ygandi.

Avvaliga Sultonmurot har xil fikrlar og'ushida parishonxotir borar va ezma ukasining savollariga istar-istamas javob berib qo'yardi. O'ylayman desa o'y ko'p. Qo'shchilarning Oqsoyga jo'nash payti yaqin. Bunga sanoqli kunlar qoldi. Jo'nashdan oldin doimo ko'p narsa qilinmagani sezilib qoladi. Ayniqsa, mayda-chuyda ishlar. Oqsoyda, kerak bo'lib qolganda, mixni ham topib bo'lmaydi axir. Yaxshiyam, rais Tinaliyev ularnikiga kirib o'tdi. Onasining sog'ligi, desant komandirining ishlari qanday ekanligini ko'rishga kelibdi. O'zi ham ba'zi narsalarni — shudgor payti joy masalasi, o'tovlar o'rnatilishi va oziq-ovqatni tashish qanday tashkil qilinishi, hammasi haqida gapirdi, ayniqsa, onasi bilan gaplashgani yaxshi bo'ldi. Keyingi paytlarda kasallik va otasidan xat kelmayotgani tufayli onasining asabi buzilgan edi. Onasi rais bilan tortisha-tortisha: "Bu go'daklarni qayoqqa jo'natyapsizlar? Cho'lda nobud bo'lishadi-ku ular. O'g'limni jo'natmayman, — dedi. — O'zim kasalman. Qolgan bolalar hali yosh bo'lsa. Erimdan xat-xabar yo'q. Uyda esa pichan, o'tin yo'q". Rais esa ozroq pichan beramiz, boshqa iloj yo'q, bahorgi shudgor yaqin, dedi. O'tin haqida esa hech nima va'da qilmadi. Hatto oqarib ketib, halqumidan bir narsa uni qisganday dedi: "Cho'ldagi bolalarga kelsak, bekorga tashvishlanyapsiz. Yuragimdan his qilib turgan bo'lsam ham so'zlaringizga e'tibor ham bermayman. Bu, axir, front topshirig'i-ku. Shunday ekan, xohlaysanmi yo'qmi, so'zsiz bajarish shart. Mana, masalan, erlaringiz hujum oldidan uyni eslab u yo'q bu yo'q, uy isitilmagan, bolalarning qorinlari och, atakaga borib nima qilamiz, deb yig'lab qolishsa nima bo'lardi? Urush payti bunaqa narsani kim-kimga yo'l qo'yardi? Bizlar uchun esa Oqsoy — bu bizning hujumimiz. O'sha hujumga biz oxirgi kuchimiz — maktab yoshidagi bolalar bilan boryapmiz. Boshqa odamlar yo'q".

Mana shunday suhbat bo'ldi. Sultonmurot onasiga ham, rais Tinaliyevga ham achinadi. Uni ham tushunish kerak, bu ishni turmushning yaxshiligidan qilayotgani yo'q. U Sultonmurotning tezroq ishga chiqishini iltimos qildi. Vaqt juda g'animat, dedi. Onang-

ning ahvoli sal yengillashgach, bir minut ham vaqtni o'tkazmay tezroq ishga kirish...

Kechagi kundan boshlab onasi o'zini biroz yaxshi his eta boshlab, uyda u bu narsalarga urina boshladi. Endi uning otlarga, bolalar yoniga qaytishi mumkin edi. Biroq yer tagidan bo'lsa-da, o'tin topish kerak bo'lib qoldi. Oilani olovsiz, o'tinsiz qoldirib bo'lmaydi...

Erta bahor kuni edi. Iliq tush payti. Na qish, na bahorga o'xshaydi. Kuchlarning osuda kelishuvi. Atrof yaydoq, top-toza va jimjit. Har joy-har joyda qori erib ulgurmagan keng yalangliklar qorayib turibdi. Shaffof havoda qorli tog'lar salobati uzoq-uzoqlardan ko'zni qamashtirguday oqarib ko'rinadi. Atrofda bepoyon yer yastanib yotibdi. U inson parvarishiga muhtoj!

Sultonmurot to'xtadi. U yerdan, g'arbdan, adirlar qo'ynidan Ulug' Manas tog'i etagidagi Oqsoy darasini topishga urindi. Biroq o'sha Oqsoy deb atalmish joyda u hech narsani ko'rolmadi. Faqat kenglik va yorug'lik... Ana shu tomonga bir necha kun yo'l yurib borishlari kerak. U yoqda qanday bo'larkin? Ularni u yoqda nimalar kutayotibdi? A'zoyi badanini xavotirli bir sovuqlik jimirlatib o'tdi.

Lekin kun ajoyib edi. Ajimurot esa quvonchdan, ozod kundan, akasi yonidaligi va vafodor itlari atroflarida yugurayotgani, butun bir dunyoda erkin ekanliklari, uylariga o'tin olib kelishga borayotganlaridan xursand bo'lib esini yo'qotayozdi. O'zi bo'lsa eshak ustida. Ingichka tovushi bilan har xil qo'shiqlarni, urushdan oldingilarini ham aytib borardi:

Komanda ber, marshallar,
Bizlar jangga kiramiz.
Dushman qancha bo'lsayam,
Hammasini qiramiz.

Eh, tentakvoy! Esi past go'dak...

Ammo Ajimurotning hech narsa bilan ishi yo'q. U borliqni unutib kuylashda davom etardi:

Bir, ikki, uch,
Bizlardadir kuch!..

Sultonmurotning ham ko‘ngli yorishdi. Eshakka minib olgan botirga qarash kulgili edi. O‘tgan yilgi g‘aram yonidan o‘tishayotganlarida beixtiyor jim bo‘lib qolishdi. Bu ovloq joyda, to‘kilib-sochilib yotgan poxol g‘aramlari og‘ushida bahor nafasi ufurardi. Atrof jimjit. Burnog‘i yili hosilni o‘rib-yanchib olishlari bilan bu yerlarda hamma narsa jimib qolgan. U yerdan ho‘l, chirik somonning, tugab bo‘lgan yozning hidi anqiydi. Ariq ichida tegrasi yo‘q g‘ildirak yotardi. Yanchilgan bug‘doy poyalaridan qilingan chayla hamon saqlanib qolgan. Xirmonchilar tushlikda shu chaylada dam olishardi. Oftobro‘ya joyda, xirmonning o‘rtasida, bug‘doy chori uyilgan joyda qolib ketgan donlardan qalin maysalar ko‘kara boshlabdi.

Oqtosh g‘aram ichida nimanidir hidini olib, u yoq bu yoqqa yugurib yovvoyi kaptarlarni cho‘chitardi. Ular oqarib ketgan somonlar osilib qolgan jarliklar ostidan parr etib ko‘tariladi. Kaptarlar bu yerlarda qish bo‘yi donlab yurishardi. Ular dala tepasida zich holda gir aylanishib shiddatli va shodon parvoz qilishadi. Oqtosh ularning ortidan yugurib yuvosh hurganicha yana chopib ketar edi. Ajimurot ham baqirib-chaqirib kaptarlarni qo‘rqitdi-yu, tezda ularni unutdi. Sultonmurot esa qushlarni uzoq kuzata boshladi. Quyoshda sadaf bo‘lib tovlanayotgan qanotlariga boqib, ularning yengil parvozini zavq bilan tomosha qildi va bir mahal galadan bir juft kaptar ajralib chiqib yonma-yon uchib borayotganini ko‘rib qolib, armiyaga ketgan yosh matematika o‘qituvchisi yodiga tushdi:

Oq kaptar sen ko‘kdagi,
Men tuyg‘un qush to‘pdagi.
Birga bo‘lsak oh, qani,
Xohlamasman boshqani...

Bo‘zachinikidan chiqib ketishgach, o‘qituvchining xiyol kayfi oshdi. U brichkada ovuldan chiqib ketayotib, o‘zining moviy osmonda uchib borayotgan oshiq ko‘k kabutar ekanligini, yorning esa yonma-yon uchib borayotgan moda kabutar ekanligini uzoq kuyladi... O‘shanda bu qo‘shiq Sultonmurotga qiziq, salobatli o‘qituvchi esa birdan shunchalik kulgili bo‘lib ko‘ringan edi. Hozir esa uzoqlashib borayotgan bir juft yovvoyi kabutarlarni kuzatib qolar-

kan, badani junjikib qotib qoldi. Matematika o'qituvchisining bu qo'shig'i shu damda unga kuchli ta'sir etdi. Bolaga o'sha ko'kda uchib yurgan kabutar, o'zi yonma-yon uchayotgan, huv yonidagi esa Mirzagul bo'lib ko'rinib, hoziroq qiz yonida bo'lish istagi uni qamrab oldi-da, xuddi qish dalasi tepasida hosil qilib uchayotgan mana shu kabutarlarday parvoz qilgisi kelib ketdi. Unga yozgan maktubini eslarkan, kabutar haqidagi, "Oq kabutar" qo'shig'idagi so'zlarni ham xatga qo'shib yozishga qaror qildi... Hamma gap endi xatni unga qanday yetkazishda edi. Mirzagul bolalarning oldida hech qachon undan xat olmasligini biladi. Hatto, tanaffus paytlari ham undan o'zini olib qochib yuradi-ku. Endi bo'lsa Sultonmurot maktabga ham bormaydi. Qizning uyiga borib bo'lmasa, ota-onasi qattiqqo'l... Borganida ham nima deydi, qanday tushuntiradi? Nega bir ovulda yashab turib xat berish kerak ekan, deyishmaydimi.

Biroq u qiz haqida o'ylagani sari uning o'ylayotganini qiz bilishini shuncha ko'p istar edi. Buni uning bilishi favqulodda juda ham muhim edi.

Yo'l bo'yi u hali qiz haqida, hali Oqsoyga jo'nashlari, hali frontdagi otasi haqida o'ylab bordi va qanday qilib Tuyuqjar darasiga yetib kelganlarini sezmay qoldi. Bu yerga ulardan oldin kimdir kelib, qalin ko'rayning bir chekkasini o'rib ketibdi. Biroq muzlab qolgan soy atrofidagi jarlikda va maymunjiydaning tikanli chakalagi ichidagi ko'rayzorlar ham yetarli edi. Ko'rayni qanday o'rishni emas, balki qanday olib ketish g'amini yeyishga to'g'ri keldi. Ko'p o'ylanib o'tirmay ishga kirishishdi. Eshaklari Qorayolni qor ostidan quloq chiqargan o'tgan yilgi maysalarni o'tlashga qo'yib yuborishdi. Oqtoshga qarovning keragi yo'q, o'z holicha darada, Xudo biladi, kimni va nimalarni iskab yuribdi. Aka-uka g'ayrat qilib ishlashdi. Shox-shabbani o'roq bilan o'rishib, keyin kesilgan novdalarning hammasini dastalab bog'lash uchun bir joyga taxlashdi. Ular jimgina ishlashardi.

Tezda terlab ketishib, qo'y teri po'stinlarini yechib qo'yishdi. Ko'ray qalin, yo'g'on o'sgan bo'lsa, o'roq bilan o'rish xo'p zavqli. Ovul atrofida bunaqasini topib bo'lmaydi. U yoqda nima qilsin? Bu yerda esa dasta-dasta qilib o'rib olishning o'zi maroqli. Ko'ray chanog'ida shiqirlab, qo'zog'idagi urug'lari qorga to'kiladi. Xuddi

yozdagi, avgust oyidagi singari achchiq chang hidi dimoqqa uradi. Qadni rostlamoq mahol.

Ammo bu yerning ko'rayi juda zo'r, qo'ri rosa kuchli bo'ladi. Onasi, singillari quvonadigan bo'lishdi-da. Uyda pechka yaxshi yonsa, kayfiyat ham yaxshi bo'ladi.

Ular ancha ish qilib qo'yishgan, endi dam olamiz, deb turishganida Oqtosh birdan jon-jahdi bilan hurib qoldi. Sultonmurot boshini ko'tarib o'roqni silkitib baqirib yubordi:

— Ajimurot, qara, tulki!

Daradan qish bo'yi qotib qolgan yerda itdan qo'rqib ketgan tulki oldinda goh to'xtab, goh ortiga qaragancha chopib borardi. Tulki go'yo qor ustida sirpanib ketayotganday bemalol, erkin chopib borardi. U anchagina katta, quloqlari dikkaygan, beli ko'kimtir-qizil rangli va, shuningdek, uzun dumi ham ko'kimtir-qizil tusda edi. Oqtosh uni jon-jahdi bilan ta'qib etar, biroq o'ljasiga qanchalik ko'p intilmasin, shunchalik ko'p qorga botib qolardi.

— Ushla uni! Ushla! — baqirdi Ajimurot va ular o'roqlarini silkitib tulkining yo'lini kesib chiqishdi.

Qarshidan yugurib kelayotgan odamlarni ko'rgan tulki birdan ortiga qayrilib, tikanli butalar orqasiga o'tib ketdi va Oqtosh uning eski izidan chopib yonidan o'tgach, tulki yana teskari tomonga qarab qochdi. Albatta, tulki o'z kushandasini bemalol adashtirib qutulib ketishi mumkin edi, biroq hamma balo shunda ediki, u jar labiga kelib qolgan edi, xuddi qopga tushib qolganday, jar yoqasining bu yeri tik, o'tib bo'lmas devorday edi. Hech qayoqqa qochib qutulish mumkin emasday edi. Mana bu to'polonchi, tinib-tinchimas it bo'lmaganida tulki maymunjiyda orasiga yashirinib olardi, qani, uni qalin tikanzorlar ichidan birov topib ko'rsin-chi. Lekin it hali nodon, jaydari it bo'lishiga qaramay chidamli va qafiyatli chiqib qoldi. Uning hurishi bir minut ham to'xtamadi, tulkini dahshatga solgan ham ana shu itning hurishi bo'ldi.

Aka-uka esa kutilmagan hodisaga berilib, terlab-pishib, qizishib, o'z ovozlaridan va ta'qib zavqidan quloqlari bitib engashganlaricha uning orqasidan yugurishardi. Tulki yo itning qo'liga tushishi yoki jardan chiqib ketish uchun odamlarning yonidan o'tishi kerak edi.

Tulki odamlardan qochish o‘rniga, o‘girilib qaragancha, ular tomon yuzma-yuz yura boshladi. Kutilmagan hodisadan bolalar to‘xtab qolishdi. Tulki orqadan izma-iz ta’qib qilib, qiyaliklardan tez-tez yiqilib, surinib, halloslab kelayotgan Oqtoshning holini ko‘rib jar pastidagi qor uyumi tomon deyarli shoshilmay borardi. Bechora Oqtosh akillab chopaverishdan gangib qolgan edi. Tulki qalin qor bo‘ylab gir aylantirib uni rosa ahmoq qilayotganini it sezmas edi.

Ha, aka-ukalar ham unchalik sezgir emasdi. Ikkovi ham yugurib kelayotgan mo‘jizani ko‘rib qotib qolishdi. Chopayotganida tulki shunchalik chiroyli ediki, xuddi oqim bo‘ylab suzayotgan qayiqqa o‘xshardi. Tulki ularning o‘rtasidan o‘tishga, hech kimning ranjimasligi uchun qoq o‘rtadan yo‘l solishga shaylandi. Biroq u shundan keyin sal chaproqdan, Sultonmurotdan bir-ikki qadam naridan o‘tib ketdi. Mana shu qisqa daqiqalarda u tulkini boshdan oyoq, xuddi tushdagi kabi o‘z ko‘zlariga ishonib-ishonmay tomosha qildi. Shiddat bilan boshini tik tutib, tulki uning yonidan o‘tib borarkan, qop-qora porlab turgan ko‘zlari bilan unga boqdi. Sultonmurot bu aqlli hayvon nigohidan hayratlanishga ulgurdi. Tulki uning xayolida mana shu taxlitda boshini va xuddi shuningdek, momiq dumini ko‘targancha oqish qorni, qora ildam panjalari va aqlli, hamma narsani sezuvchi nigohi bilan qolgan edi... U Sultonmurot o‘ziga tegmasligini bilgan edi.

Ajimurot o‘rog‘ini tulkiga otib qichqirganidagina u o‘ziga keldi:

— Ur uni! Ur!

Sultonmurot uni urishga ulgurmay tulki ko‘ray orqasiga o‘tib ketdi. Ortidan Oqtosh quvib ketdi va ular ham jar bo‘ylab pastga qarab chopishdi.

— Yopiray! — deya oldi Sultonmurot. Aka-ukalar yugurishdi-yugurishdi-da, keyin to‘xtab qolishdi.

Tulki izsiz yo‘qolgan edi. Faqat goh u yer, goh bu yerda Oqtosh hurardi.

— Eh, seni qara-yu, — dedi keyin Ajimurot. — Shunday tulkini qo‘ldan chiqarding-a. Hatto qo‘lingni qimirlatmay qaqqayib turibsan-a.

Sultonmurot nima deyishini ham bilmasdi. Ukasi haq edi.

— Nima qilasan uni? — ming‘irlab qo‘ydi u.

— Nima qilasan? — ukasi aytmoqchi bo‘lgan gapini tushuntirib o‘tirmay qo‘l siltadi.

Keyin ular o‘rilgan shox-shabbalarni jimgina bir joyga yig‘a boshlashdi. Bog‘lamlarni kattaroq qilish uchun yana biroz o‘rishlari kerak edi. Shu paytdagina Ajimurot xafa bo‘lib dedi:

— Nima qilasan, nima qilasan, deysan! Otamga Nurg‘ozi tog‘amnikiga o‘xshagan tulki tumoq tikar edik, sen bo‘lsang qaqqayib turibsan!

Sultonmurot esankirab qoldi: mana, demak, ukasi tulkini quvganda nimaning g‘amini yegan ekan. Endi esa otasini Nurg‘ozi tog‘aniki kabi momiq tumoqda tasavvur qilib ko‘rib, haqiqatan ham mana shunday chiroyli tulkini tutolmaganiga achindi. Otasiga shunaqa telpak juda yarashar edi-da. Sultonmurotning o‘ylarini Ajimurotning piqillab yig‘lagan ovozi bo‘ldi. Ukasi shox-shabba bog‘lamlari ustiga o‘tirib olgancha astoydil yig‘lardi.

— Nima bo‘ldi? Senga nima bo‘ldi? — unga yaqinlashdi Sultonmurot.

— Hech narsa, — dedi u yig‘lamsirab.

Sultonmurot qayta surishtirib o‘tirmadi. Yaqinda Nurg‘ozi tog‘asi kelganida Ajimurotning yig‘laganini eslab, darrov tushundi. Bolakay otasini sog‘inib yig‘layapti. Tulki va tulki tumoq bunga bir turtki bo‘ldi, xolos... Sultonmurot ukasiga qanday yordam berishni bilmasdi. Uning o‘zi ham ma’yus tortib qoldi. Ukasiga mehr-shafqat hamda iztirob bilan yaqinlasharkan, u qalbidagi noyob tuyg‘ularini unga aytishga qaror qildi.

— Yig‘lama, Ajike, — dedi uning yoniga o‘tirarkan.— Yig‘lamagin. Bilasanmi, otam qaytib kelgach, men uylanmoqchiman.

Ajimurot yig‘idan to‘xtab unga hayratlanib tikilib qoldi:

— Uylanaman?

— Ha, agar sen bir ishda menga yordam bersang.

— Qanaqa ish? — darrov qiziqsindi Ajimurot.

— Faqat birovga churq etib og‘iz ochmaysan!

— Hech kimga! Hech kimga aytmayman!

Endi Sultonmurot ikkilana boshladi. Aytsinmi yo aytmasinmi?.. U o‘zini yo‘qotib, o‘ylanib qoldi. Ajimurot esa tiqilinch qila boshladi:

— Qani ayt-chi, qanaqa ish? Ayta qol, Sulton. Chin so‘zim, hech kimga og‘iz ocha ko‘rmayman.

Sultonmurot terga botgancha ukasining yuziga qaramay, qiynalib shunday dedi:

— Maktabga, xatni bir qizga eltib berish kerak.

— Xat qani, qanaqa xat o‘zi? — Ajimurot darhol akasiga yaqin surildi.

— Keyin ko‘rsataman. Xat bu yerda emas.

— Qayerda?

— Qayerda bo‘lsa o‘sha yerda. Keyin ko‘rasan.

— Kimga, qaysi qizga?

— Uni bilasan. Keyin aytaman.

— Hozir ayta qol!

— Yo‘q, keyin.

Ajimurot tiqilinch qilib turib oldi. Uni tinchitib bo‘lmasdi. Sultonmurot og‘ir xo‘rsinib, duduqlangancha aytishga majbur bo‘ldi:

— Bu... bu... xatni Mirzagulga oborib berasan.

— Qaysi Mirzagulga? O‘zlaringning sinflaringdagi qizgami?

— Ha.

— Urey! — quvonganidanmi yo sho‘xligi tutibmi, baqirib yubordi ukasi. — Men uni taniyman, u o‘zini juda go‘zal hisoblab yuradi! O‘zidan past sinfdagilar bilan gaplashgisi kelmaydi!

— Nega baqirasan? — achchiqlandi Sultonmurot.

— Xo‘p, xo‘p! Baqirmayman! Sen uni yaxshi ko‘rasanmi? Xuddi Oychurek va Semetey[1]misanlar, shunaqami?

— Jim bo‘l! — baqirdi Sultonmurot.

— Nima qipti? Gapirib bo‘lmaydimi? — uning jig‘iga tegardi Ajimurot.

— Bor, bor, baqiraver, huv tog‘larga chiqib olgin-u, butun dunyoga jar sol!

— Chiqib jar solaman! Sen o‘sha Mirzagulni sevasan! Bilaman! Bilaman! Sevasan...

Ukasining surbetligi akasining jahlini chiqarib yubordi. Sultonmurot uning orqasiga yaxshigina tushirib qoldi. Ukasi darrov bukchayib olgancha butun darani boshiga ko‘tarib yig‘lay boshladi:

[1] “Manas” eposining qahramonlari, Semetey Manasning o‘g‘li.

— Otam frontdaligida meni uryapsanmi? Shoshmay tur! Shoshmay tur! Hali javobini berasan! — U bor ovozi bilan baqirib yig'lay boshladi.

Endi uni yupatish kerak edi. Dardisar-ey! Ular yarashib olishgach, Ajimurot hamon entikib, xo'rsinib, mushti bilan yuzidagi yoshlarini arta-arta dedi:

— Qo'rqma, hech kimga, hatto onamga ham aytmayman. O'zingku, darrov urishga tushding... Xatni oborib beraman. Endi aytmoqchi bo'lib turuvdim-u urib qoldingda... Bir chetga chaqirib, tanaffusda beraman. Sen esa buning evaziga otam frontdan qaytib stansiyaga kelganida, hamma uni kutib olishga shoshilganida, meni ham birga olib borasan. Ikkalamiz Chopdorga minib, uni yeldirgancha hammadan oldin yetib boramiz. Sen-u men. Chopdor axir seniki-ku endi. Sen oldinda, men orqangga mingashib choptirib ketamiz. Chopdorni darrov otamizga berib, o'zimiz yonma-yon yuguramiz, onam, boshqa hamma odamlar esa bizni kutgani peshvoz chiqishadi...

Uning shu taxlit ezilib, ma'yus, yolvorib gapirishi Sultonmurotni shunday ezib yubordiki, o'ziniyam yig'lab yuborishiga sal qoldi. Qiziqqonlik qilgan ekan, endi esa bolakayni urganiga rosa afsuslandi.

— Xo'p, Ajike, yig'lama endi... Ikkovimiz Chopdorda chopib boramiz, faqat otamiz omon qaytsa bo'lgani...

O'rilgan hamma ko'rayni to'plab bog'laganlarida uchta kattagina bog'lam bo'ldi. Sultonmurot o'tinni bog'lashga usta edi. Avvaliga uyumlar ularning ko'ziga xuddi tog'day salobatli ko'rinib, hatto olib ketolmaymiz, deb ham qo'rqishgandi. Keyin esa arqon ustalik bilan ishga solingach, uyum avvalgisidan uch marta kichraydi. Yaxshi tortilgan bog'lam yelkada mahkam va tekis turadi, olib ketish ham qulay. Bunisini ular ikkita bog'lam qilishdi. Axir Qorayolni mana shuning uchun ham olib kelishgan-da. Bitta qo'shimcha bog'lamni Sultonmurot o'zi ko'tarib ketmoqchi bo'ldi. Yo'l uzoq edi, ammo uyga bir yo'la ko'proq o'tin olib borgan yaxshi. Shunday ko'rayni qoldirib ketib ham bo'lmaydi. Tuyuqjar darasidan antiqa shox-shabba yig'ishdi-da, o'zlariyam.

Qorayolning ustiga o'tinni shunday ortishdiki, qulog'iyam, dumi ham ko'rinmay qoldi. Ajimurot tizgindan tutib yetakladi. Uning

ortidan Sultonmurot o'tin bog'lamining og'irligidan egilib izma-iz jo'nadi. Bog'lam yelkaga alohida usulda: arqon chap qo'ltiqdan tushirilib ko'kragi orqali o'ng elkaga tortib o'tkazilgan, gardanning o'ng tomonidan arqonga ilmoq solinib bog'langan bo'lishi va yuk tashuvchi ilmoqning uchidan ushlab olishi kerak edi. Bunday holda o'tinni ko'tarib borayotgan odam bog'lam tugunining bo'shab qolgan joyini yo'l-yo'lakay tortib olishi mumkin.

Ular shunday, oldinda Qorayolning tizginidan tutib olgan Ajimurot, orqada yelkasida yuki bilan Sultonmurot, ularning ortidan esa holdan toyib sudralgancha Oqtosh kelardi.

Ko'ray olib ketayotganda uzoq vaqt dam olmay yurish kerak. Birinchi dovondan o'tgach, bosib o'tiladigan yo'llarning oralig'i qisqaradi, ikkinchi dovon birinchisining yarmiga, uchinchisi ikkinchisining yarmiga kamayib boraveradi. Sultonmurot buni yaxshi bilardi, shuning uchun ham kuchini tejab bir maromda, oyoqlarini keng yoyib qadam bosardi. Endi u atrofda hech nimani ko'rmas, faqat oldinga, oyoqlari ostiga qarab borardi. Bog'lamni ko'tarib ketayotganingda uzoq vaqt charchab qolmaslik va tez-tez dam olmaslik uchun, yaxshisi, biror narsa haqida o'ylash kerak.

U ertaga ertalabdan otxonaga qanday borishi va yana desant komandiri vazifalarini bajarishga kirishishi haqida o'ylab borardi. Shoshilish kerak. Oqsoyga jo'nash uchun sanoqli kunlar qoldi. Yaxshilab parvarishlangan otlar qadlarini ancha tutib olishdi. Pluglar ham, uning zapas qismlari ham, egar-u jabduqlar shay qilib qo'yildi-yu, ammo baribir, dalaga chiqish bilanoq nimadir yetishmasligi aniqlanadi, miri kam dunyo deganlar. Bu brigadir Chekishning so'zlari edi. U shundoq degandi: ko'z — qo'rqoq, qo'l — botir, dalaga qo'rqmay chiqish kerak, ish davomida qolganlari aniqlanaveradi, hammasi birdan bo'lmaydi-ku axir.

Sultonmurot qanday qilib onasining mehnatini yengillatishni o'ylardi. Onasining judayam tinkamadori quridi. Fermada sigir sog'adi, mollarga qaraydi, yana uyda tinim yo'q. Hammasiga balogardon o'zi. Pishir-kuydir, kir yuv... Qizlari bo'lsa hali yosh, Ajimurotning ham hali qo'lidan bir ish kelmaydi. O'zi bo'lsa oilaga begonaday bo'lib qolgan, bugun-erta Oqsoyga jo'naydi, kim bilsin, shu bilan qachon qaytadi. Qancha yerni haydab shudgor

qilish, boronalash kerak... Unda esa bor yo‘g‘i beshta ulov bor. Qolgan ot-ulov va pluglarning hammasi eski yerlarda ishlatiladi. U yerlarda ish yana ham ko‘proq.

Biroq bu yerlar har holda ovulga yaqin. Biror nima bo‘lsa, xotinlar chopiqqa tushishadi. Erkaklar qiladigan ish ayollar zimmasiga tushgan. Endi ular bel baravar ariqlar qazishyapti, dalalarga suv tarashyapti, to‘g‘onlar qurishyapti...

Nima qilib, qanday qilib onasining yumushini yengillatsa ekan-a? O‘ylab o‘yming oxiriga yetolmasdi...

Ammo hammadan ko‘ra u ertaga xatni berishi haqida, faqat "Oq kabutar" qo‘shig‘i so‘zlarini qo‘shib qo‘yishi kerakligi to‘g‘risida o‘ylardi. Mirzagul uning xatini o‘qiyotgani, o‘qib nimalarni o‘ylayotganini tasavvur qilishga urindi. Eh, sevgi haqida xat yozish shunday qiyin ekanki! Nimani izhor etishni istagan bo‘lsang, tamom aksi bo‘lib chiqar ekan. Hech qanday qog‘oz yurakdagi tuyg‘ularni o‘ziga singdirolmas ekan. Qiziq, nima der ekan u? U ham javob xati yozishi kerak. Boshqa nima ham qilardi? Qiz uning sevgisiga qanday qararkin? Uning rozi yoki norozi ekanligini Sultonmurot qayoqdan bilsaykin? Hamma gap shunda. Agar qiz uning sevgisini rad etsa nima bo‘ladi?.. Unda nima qiladi?..

Tuyuqjar allaqachon ortda qolib ketdi. Botayotgan quyosh endi uning faqat bir tomonidagina nur sochib turardi. Zamin hamon o‘sha qish sukunati va salobatini saqlab yotardi. Odatda, bo‘ron oldidan bor narsani qo‘porib parchalab tashlash uchun shunday sokinlik, osoyishtalik hukm suradi. Bunaqa paytlarda yovuz kuchlarni qaytarish uchun "Yaxshilikka ko‘rinsin!" deb qo‘yish kerak. Bu ba’zida yordam beradi. "Yaxshilikka ko‘rinsin!" — deb qo‘ydi ichida Sultonmurot oldingi birinchi manzil uchun qulay joyni ko‘zdan kechirarkan. Shunday joy tanlash kerakki, so‘ngra qiynalmay oyoqqa turish kerak bo‘lsin. Ko‘ray olib ketayotgan odam avval bog‘lamga elkasini qo‘yib tebrangancha turishga chog‘lanadi, chog‘langanda ham bog‘lam bilan birgalikda tebranib sekin orqalab oladi. Agar ortiqcha kuch bilan turmoqchi bo‘lsa, bog‘lam boshi ustiga surilib ketib baqaday yalpayib qolishi mumkin: tebrana turib tizzalash kerak, keyin oyoqqa turib olgach, "Yo pirim!" deb, iloji boricha qad rostlab olinadi. Avval yaxshilab nafas olish kerak bo‘ladi.

Sultonmurot bog‘lam ustida chalqancha yotib, bir daqiqa ko‘zlarini yumdi. Eh, arqonni ko‘krakka tashlab yotish qanday yaxshi-ya! U keyingi manzil qayerda bo‘lishini chamalagancha og‘ir yo‘l azobidan keyin maza qilib chalqanchasiga cho‘zilgan edi. Shunday holda qanday qilib faqat qizni o‘ylolyapti-ya?

— Faqat javobni kechiktirmay yozgin, eshityapsanmi? — unsiz pichirladi o‘z-o‘zicha jilmaygancha. So‘ng atrofga quloq tutdi.

G‘ira-shira qorong‘ilik cho‘kayotgan bu oqshomda atrof ulug‘vor va ajib bir sukunat qo‘ynida edi.

YETTINCHI BOB

Shunday kunlar yaqinlashmoqda edi...

Mast uyquga ketgunga qadar uzzu-kun to‘lqinlanib, orziqib Mirzagulning javob xatini kutish hissi uni tark etmadi... U nima bilan mashg‘ul bo‘lmasin, nima ishga tutinmasin, shu haqda tinimsiz o‘ylardi. U jon-jahdi bilan ishlar, desantiga topshiriqlar berar, xayolida esa Ajimurotning maktabda otxona tomon yelib uchishini orziqib kutilgan javob maktubini olib kelishini kutardi. Hatto Ajimurot ikkovi kelishib olgan ham edilar. Agar Mirzagul javob bergan bo‘lsa, Ajimurot sakrab-sakrab yugurishi, qo‘llarini silkitib hakkalashi, agar javob bermasa, qo‘llari shimi cho‘ntaklarida, yugurmay, asta qadam tashlab kelishi kerak edi.

Sultonmurot hadeb yo‘lga qarayverardi. Biroq ukasi har kuni qo‘llarini cho‘ntaklariga solintirgancha kelardi. Sultonmurot tushunolmay, iztirob cheka boshladi. Uning toqati toq bo‘lgandi. Dastlab uchrashganda qiz ukasiga nima deganini, qizning yoniga qanday yaqinlashgani va ular nimani gaplashganliklarini bilish uchun u Ajimurotdan ijikilab qayta-qayta so‘rab surishtiraverardi. Uyga ukasi allaqachon uxlab qolgan paytda kelardi. Uning yana nimalarnidir so‘ragisi kelardi. Biroq surishtirishning hojati ham qolmagan edi. Ajimurotning aytishicha, bu badfe’l Mirzagul bekach tanaffus paytlari umuman u bilan gaplashmas, o‘zini hech narsa bilmaganday tutarkan. Go‘yoki hech qanaqa xat olmaganga o‘xsharkan. Tanaffus paytlari dugonalari bilan jo‘rttaga gaplashib turar, Ajimurotni esa o‘zi so‘rab, qo‘llaridan tortmaguncha payqamas ham ekan.

Bularning sababini Sultonmurot hech tushunib yetolmasdi. Mirzagul, agar u bilan hech qanday munosabatda bo'lish istagi bo'lmasa, nega javob bermaydi, nega buni ochiq aytmaydi? Nega indamaydi, nahotki javob kutish qanchalik azob va og'ir ekanligiga aqli yetmasa? U shunday o'ylar bilan uxlab qolar, ertalab esa yana shu haqda o'ylay boshlardi. Vaqt ham tugab borardi. Mana, muzlar erib, yer erkin nafas oladigan, dalada birinchi jo'yak tortiladigan paytlar kelib qoldi, sen bo'lsang hammasiga ulgurishing kerak.

Bir kuni Sultonmurot ukasiga dedi:

— Meni yaqinda Oqsoyga, uzoq vaqtga ketadi, deb ayt.

Javob qisqa bo'libdi...

"Bilaman", — debdi, xolos.

O'ylayverib uning boshi qotib qoldi. Goho maktabga chopib borgisi, tanaffus bo'lishini kutib turib, uni tutib olib barini o'zi so'rab bilgisi kelar edi-yu, biroq ikkilanardi. Ilgari juda oddiy bo'lib tuyulgan narsalar endi mashaqqatli edi. Qo'rquv, jur'atsizlik, uyat va ikkilanishdan xuddi tog'-u toshdagi o'zgaruvchan havo kabi uning yuragini larzaga keltirar edi...

Ishni ham tashlab qo'yib bo'lmaydi. Ish degani tiqilib ketdi. Desant komandiri bo'lish oson emas ekan. Erta tongdan kechgacha qo'li bo'shamaydi. Oqsoyga ketish muddati yaqinlashgan sari battar tashvishlar ko'payaverdi.

Kirib kelayotgan bahor tashvishlarni ko'paytiribgina qolmay, ularning turmushlarini yashnatib yubordi. Soy bo'yi bahor yanglig' kengayib, xushnud bo'lib ketdi. Muz go'yo tutun kabi g'oyib bo'ldi. Muzlardan xalos bo'lgan soydagi suv yanada jonlanib shovullagancha toshlar ustidan chopa ketdi. Tez oqayotgan zangori suv ostidagi har bir mayda toshlar nur va soyada jilvalanardi. Otlar endi tuyoqlaridan qatra-qatra suv tomchilarini sachratib pishqirganlaricha soy o'rtasigacha yo'rg'alashib borishardi. Bolalar ham otlariga minishib, to'daga qo'shilishardi. Kulgilar, muzday suvning sachrashidan qiy-chuv, to'polon avjiga chiqardi.

Xuddi shu paytda Sultonmurot suv bo'yida turarkan, qizga ko'zi tushib qoldi. Soyning kechuvida uni ko'rdi-yu, joyida qotdi. Nega o'zini yo'qotib qo'yganday bo'ldi-ya? Mirzagul yolg'iz emasdi.

Ular, qizlar, to'rtta edilar. Ular maktabdan qaytishmoqda edilar. Ularni ko'rmay qolishi ham mumkin edi... Ozmuncha odam kechuvdan o'tmaydi deysizmi. Bir omadi kelib qoldi! Daf'atan ko'rdi-yu, joyida qotdi. Ko'rgan zahoti qizni tanidi-yu, Chopdorning tizginidan tutganicha qotib qoldi. Soyning sayoz joyidan qulochini yozib muvozanat saqlab o'tar ekan, qiz ham Sultonmurotni ko'rdi, qirg'oqqa chiqib to'xtab, u tomonga nigoh tashladi. Dugonalari bilan ketayotib ham bir necha bor orqasiga qarab qo'ydi. Har gal Mirzagul u tomonga o'girilib qaraganda, Sultonmurot o'z baxtiga peshvoz yugurgisi, bir yo'la, ochiq-oydin, talmovsiramay uni qanchalik sevishini aytishga tayyor edi. Usiz yashay olmasligini aytgisi kelardi. Ammo qiz har o'girilganda jur'ati etmay, joyida qotib turaverardi. Mirzagul dugonalari bilan Orolko'cha boshida g'oyib bo'lgan bo'lsa ham u hamon Chopdorni kechuvda tutib turar, boshqa otlar esa allaqachon suv ichib bo'lishib qirg'oqqa chiqishgan edi. Bolalar otxonaga jo'nash uchun otlarni bir joyga to'plashdi, u bo'lsa hamon go'yo Chopdorni sug'orayotganday joyidan qo'zg'almasdi...

Keyinroq esa bu haqda o'ylab ajablandi, ilgariroq uni shu yerda, maktabdan kelayotganida kutib turish mumkin ekanligiga aqli yetmaganligi uchun o'zini koyidi. Ha, o'sha yerda soyning kechuvida ittifoqo uni uchratib qolishi mumkin edi-ku axir. Nega avvalroq bu fikr kallasiga kelmadiykin? Albatta, endi o'zi harakat qilmog'i, qizni uchratib, maktubi xususida qanday fikrda ekanligini bilmog'i kerak.

Agar u desant otlarini sug'orishga odatdagidan biroz kechroq haydasa, shunday uchrashuv Xudoning bergan kuni takrorlanishini u keyin bildi. Har safar ular otlarni kechuvdan haydab ketishlari bilanoq shu yerda Mirzagulning paydo bo'lishi, o'zining esa mana shu oddiy narsani payqamaganligini his qilishi Sultonmurotga juda ham alam qildi. Hammasi shundoq jo'ngina ekan-u, u bo'lsa iztirob chekib, qiynalib yuribdi. Endi u qizni kutib turishga qat'iy qaror qildi. Ertasiga Sultonmurot kechuvda ataylab ushlanib, bolalarga tezda qaytishini, Chopdorni yaxshilab choptirajagini aytib, bolalardan otlarni sug'orib qaytgach, uning ham otlarini joyiga bog'lab, yem solib qo'yishlarini iltimos qildi.

Yana Onatoy oraga suqildi.

— Kimni kutayotganingni bilaman,— dedi u surbetlarcha.

Odam ham shunday bo'ladimi?

Sultonmurot ham tezlik qildi. "Bilsang bilibsanda, nima bo'pti?" — deb jimgina tinchitib qo'yish o'rniga Onatoyga o'shqirdi:

— Sen fashist josusisan!

— Kim josus? Men-a?

— Ha, sen!

— Qani isbotla! Agar men josus bo'lsam, mayli, tribunal otib tashlasin! Yolg'on bo'lsami, tumshug'ungga tushiraman.

Ular bir-birlariga o'dag'aylashib, otlarini chu-chulab niqtashib, bir-birlarini surishgancha soy o'rtasida gir aylana boshlashdi. Bir-birlariga baqirishib, g'azab bilan hezlanib, bir-birini ot ustidan itarmoqchi bo'lishardi. Qirg'oqda bolalar kulishar, ularni masxara qilib, gij-gijlardilar, ular esa hamon ikkita xo'rozday chinakamiga cho'qishardi. Atrofga suv sachrab, otlar soyda taqalarini g'ijirlatgancha toshga qoqila boshladilar. Shunda Erkinbek baqirdi:

— Hey, otlarni mayib qilasanlar!

Ular tezda o'zlariga kelishdi, hatto bahona topilganiga suyunishib, indamay bir-birlaridan nari ketdilar.

Biroq baribir kayfiyati buzilgandi. Bolalar otlarni otxonaga haydab ketganlaridan so'ng ham Sultonmurot zo'rg'a harsillab nafas olardi. O'zini biroz ovutish uchun yo'ldan ko'zini uzmay soy bo'ylab otini yo'rttirib ketdi. Uncha olislab ketmasdan orqasiga o'girilib qaradi-yu, qizni ko'rib qoldi. Mirzagul xuddi kechagiday dugonalari bilan kelmoqda edi. Ular o'zlari bilan o'zlari ovora, kimdir ulardan birini deb mushtlashishiga sal qolgani, iztirob chekayotgani, g'am-g'ussaga botib yurgani bilan ishlari yo'q edi. Yaqinda Sultonmurotning onasi o'g'liga qarab qo'rqib ketdi: "Senga nima bo'ldi? Kasalmasmisan? Rangingni qara-ya!" Onasini yupatib, qo'liga ko'zgu olib qaradi. Oynaga qaramaganiga ancha bo'ldi, hech vaqti bo'lmaydi, haqiqatan ham keyingi kunlarda juda o'zgarib ketibdi. Ko'zlari xuddi kasallarnikiday kirtayib ketibdi, yuzi tirishib, bo'yni ingichka tortib cho'zilib qopti. Qoshlari orasiga xuddi ajinday ikkita chiziq tushib, lablari ustida esa qopqora tuklar paydo bo'libdi. Agar chiroq yorug'uda razm solinmasa,

shundoq ko'rinmaydi. Qarang-a! Butunlay boshqacha bo'lib ketibdi, tanib bo'lmaydi... Otasi frontdan qaytsa, darrov taniy olmasa ham kerak...

Sultonmurot otda to'g'ri qizga tomon yaqinlasha bordi. Shu payt Mirzagulning bir-ikki marta kechuv tomonga qarab qo'yganini ko'rib qoldi. Qizning ham ko'zi unga tushib, cho'chib ketdi va joyida to'xtab qoldi, keyin tezda o'zini o'ngladi-da, dugonalari bilan birga yurib ketdi. Ular go'yo hech nima bo'lmaganday toshdan toshga sakrab soydan o'tishdi-yu, uy-uylariga tarqab ketishdi. U esa qizlarning yonidan quvib o'tib, xuddi qayoqqadir ish bilan shoshib borayotganday, ekinzorlarni oralab qizga to'qnash kelish umidida ko'chaga chiqdi. U qizni ko'chaning u boshida ko'rdi. Sultonmurot bu yerdan sekin yura boshladi. Ular bir-birlariga yaqinlashganlari sayin uni vahima bosa boshladi. Sultonmurotga hamma derazalardan, eshiklardan kuzatib turganday hamda ularni qanday uchrashishlarini va uning qizga nima deyishini kutib turishganday tuyulardi.

Mirzagul unchalik shoshilmay kelardi. Sultonmurot nima sodir bo'layotganini, nega hayajonlanayotganini tushunmas edi. Ular axir bir sinfda o'qishadi-ku, uning biron narsasini tortib olish, bir paytlar hatto xafa qilish ham hech gap emas edi. Hozir bo'lsa qizga hadiksirab, titrab-qaltirab yaqinlashmoqda edi. Endi uning bu uchrashuvdan qochib, bosh tortib ketgisi kelardi-yu, ammo kech edi. Ehtimol, Mirzagul uning holatini sezgandir. To'qnashishlariga ozgina qolganida qiz birdan shoshilib uylariga yetmasdanoq qo'shni hovliga o'zini urdi. Sultonmurot xursand bo'lib yengil nafas ola boshladi. Qizdan judayam minnatdor bo'ldi. Yakkamayakka uchrashish shunchalik ham qiyin bo'ladimi.

Keyinroq esa jur'atsizlik qilgani uchun o'zini o'zi koyiy boshladi. Tunda uyqusi qochdi, ertalab o'rnidan turgach, qiz haqida o'ylab, bugun qanday bo'lmasin, yoniga borib, to'ppa-to'g'ri aytishga va jiddiy turib xatiga javob yozadimi-yo'qmi, qachon yozadi, shularni so'rashga ahd qildi. Agar javob bermasa xafa bo'lib o'tirmaydi, erta-indin Oqsoyga jo'nab ketadi, o'tgan gaplar orada qolsin. Xuddi shunday deydi.

Shunday qat'iy qaror bilan kunni boshladi, mana shu maqsadda ishladi, shu maqsadda otlarni sug'orib kelgach, yana soy tomonga jo'nadi. Chopdorni minib bordi. Qirg'oq bo'ylab otda u yoq bu yoqqa yura boshladi. Shu asnoda yurarkan, beixtiyor ovuldagi tomlarda ham, uylarning soya tushib turadigan tomonlarida ham umuman qor qolmaganligiga ko'zi tushdi, qish bo'yi tepaliklarda xiylagina to'planib qolgan qorlar esa to'q sariq tusga kirib turar edi. Xuddi ular qachonlardir zoologiya darsida daftarlarga rasmi chizilgan amyobalarni eslatardi.

Kecha otxonada rais Tinaliyev bilan Chekish brigadir Oqsoy desantini sinovdan o'tkazishdi. Hamma pluglar nomerlab qo'yilib, qo'shchilarga birkitildi. Sultonmurotga birinchi nomerli plug tegdi. Keyin har birlari o'z otlariga jabduq urdilar. Bu ishni qanchalik uddalay olishlarini ko'rsatishdi, otlarni qanday plugga qo'shishlarini namoyish qilishdi. Beshta ulovning hammasini bir qatorga tizdilar. Umuman, bularning hammasi chetdan qaraganda ajoyib, salobatli ko'rinardi! Xuddi tachankalarga o'xshardi-yu, faqat ularning o'rnida pluglar bor edi, xolos. Otlar baquvvat, jabduqlar sozlab tortilgan, pluglar esa moyday yaltiramoqda edi. Rais Tinaliyev xuddi armiya qo'mondoni singari salobat bilan desant oldida yuribdi. Har bir bolaning qarshisiga kelib:

— Tayyorgarliging haqida axborot ber! — deydi.

— Axborot beraman. Qo'l ostimda to'rtta taqalangan ot, to'rtta yaxshi bo'yinturuq, to'rtta abzal, sakkizta qayish, bitta egar, bitta qamchi, uch juft zapas tishlari bilan bitta ikki tishli plug bor.

Xuddi armiyadagiday. Faqat Chekish brigadirning qovog'i soliq. Albatta, u keksa odam, bularni qayerdan tushunsin!

Tekshiruv yaxshi o'tdi. Biroq ikkita so'roqda desantchilar baribir noqulay ahvolga tushib qolishdi. Rais Tinaliyev hammalarini Ergashning plug qo'shilgan otlari yoniga chaqirdi.

— Qani, jabduqdagi kamchilikni topinglar-chi, — deb qoldi u.

Hammayog'ini qarab chiqishdi, paypaslab ko'rishdi hamki, biroq hech nima topisha olishmadi. Shunda buni rais Tinaliyevning o'zi ko'rsatdi:

— Bu nima? Nahotki to'riq otning ayili yonboshida buralib qolganini ko'rmayotgan bo'lsalaring? Mana qaranglar! Buralib qol-

gan ayil otning yonboshini shilib yuboradi-ku. Ot boyaqish buni qanday aytadi. Tortaveradi, ertasiga esa yonboshi shishib ketadi, keyin otni qo'shga qo'shib bo'lmaydi. Men zapas otlarni qayerdan topaman sizlarga? Zapas otlar yo'q menda! Demak, abzalga befarq qarash natijasida plug to'xtab qoladi! Qani, o'ylab ko'ringlar-chi, bizning shunday ishga yo'l qo'yishga haqimiz bormikin? Biz qish bo'yi nimaga tayyorlandik axir?..

Hammalari uyalib ketishdi. Bundoq qaraganda jo'ngina narsa-ku...

— Sultonmurot, desant komandiri sifatida sen doim ish boshlashdan avval otlarni kim qanday qo'shganligini tekshirishga majbursan. Tushunarlimi! — deb tayinladi rais Tinaliyev.

— Tushunarli, o'rtoq rais!

Desantchilarni dog'da qoldirgan ikkinchi masala yanada mushkul edi. Endi bu gal desant komandirining o'zi noqulay ahvolda qoldi. Rais Tinaliyev ularni savolga tutardi:

— Qani aytinglar-chi, abzallarni kechqurun, ish tugaganidan so'ng qayerda qoldirasizlar?

Ular o'ylanib qolishib, bunga har xil javob qaytarishdi. So'ngra abzalni dalada, pluglar yonida qoldirishga kelishishdi.

— Komandir, sening fikring qanday?

— Men ham shu fikrdaman. Abzallarni ham otlarni qo'shdan chiqargan joyimizda, pluglar yonida qoldiramiz. Ko'tarib yurmaymiz-ku, axir!

— Yo'q, bu noto'g'ri. Abzallarni kechasi dalada qoldirib bo'lmaydi. Birov olib ketmasligi uchun emas. Oqsoyda o'g'irlab ketadigan hech kim ham yo'q. Kechasi yomg'ir yo qor yog'ib qolishi mumkinligi uchun ham qoldirib bo'lmaydi. Abzallar ivib ketadi. Abzallar xom teri-ku axir. Dalada uni tulki yoki bo'lmasa sug'ur g'ajib ketishi mumkin. Gap nima haqida borayotgani tushunarlimi? Demak, nima qilish kerak? Pluglar dalada qoladi. Qo'shdan chiqarilgan otlarni abzallari bilan shiyponga olib kelasizlar. Sizlarga o'tov beriladi, o'shanda yashaysizlar. O'tov bitta, xolos. Menda boshqa o'tov yo'q. Har bir kishi jabduqni o'tovga olib kelib, o'zi yotadigan joyga yaxshilab taxlab qo'yadi. Tushunarlimi? Jabduqlarni boshingizga qo'yib yotasiz! Qonun shunday! Bu sizlarning qurolingiz! Har bir soldat esa eng avval qurolini asraydi!

O‘sha kuni Oqsoy otryadi to‘liq jangovar tayyorgarlikni namoyish etish uchun saflanganda rais Tinaliyev shunday degandi. Bu kunlar yaqinlashmoqda edi... Hamma narsa shunga qaratilgan edi...

Xuddi shunday... Ha, uch-to‘rt kundan keyin, agar havo aynib qolmasa, ular Oqsoyga jo‘nashlari aniq edi. Bu holda Mirzagul bilan yozgacha ko‘rishmasligi turgan gap. Sultonmurot shuni o‘ylab qo‘rqib ketdi. Uzoqdan bo‘lsa ham uni shuncha vaqtgacha ko‘rib turishdan mahrum bo‘lishni tasavvur qilish qiyin, hecham mumkin emas edi! U yana qizdan bugun anig‘ini bilib olishga qaror qildi. Agar yo‘q desa, bu unchalik katta falokat emas, kutishga ham vaqti yo‘q, bundan Oqsoydagi ishlar muhimroq...

Sultonmurot qirg‘oq bo‘ylab borarkan, hech ko‘zini yo‘ldan uzolmadi. U xavotirlana boshladi. Vaqt esa o‘tmoqda edi. Biroq, mana, qizlar ham kelishyapti! Ular orasida Mirzagul yo‘q edi. Dugonalari kelishar, u bo‘lsa yo‘q edi. Sultonmurot ranjidi. Shunday bo‘lgach, nima ham qilsin. Ko‘ngli buzilib otxonaga qaytdi. Ammo balki qiz kasaldir yoki boshqa biror hodisa sodir bo‘lgandir, deya yo‘l-yo‘lakay xavotirlanib ketdi. Bu xavotir borgan sari kuchaya borgani tufayli, buni bilmaguncha tinchlanmasligini his etdi. U qizlardan so‘rashga ahd qildi. Chopdorning boshini ular tomonga burdi. Shunda birdan uning ko‘zi qizga tushib qoldi. Mirzagul yolg‘iz o‘zi kelardi. U soydan o‘tadigan joyga yaqinlashib qolgan edi. Sultonmurot qiz bilan kechuvda uchrashish uchun Chopdorning jilovini bo‘shatdi. U shunday hayajonlangan ediki, oxirgi daqiqalarda beixtiyor o‘z-o‘zidan “Jonginam!” — deb yuborganini ham sezmay qoldi.

Sultonmurot qizni kechuvda qarshi oldi. U otdan irg‘ib tushib jilovidan tutgancha qizning qirg‘oqqa chiqishini kutib turdi.

Mirzagul unga qarab jilmaygancha kelardi.

— Yiqilib ketma yana! — u qizga shunday keng chim yotqizilgan soyning kechuvidan yiqilish xavfi bo‘lmasa-da, qichqirdi. Qizning chimlar ustidan yurib kelayotgani qanday yaxshi! Mana bu o‘jar soyga har qanday ko‘prik va ko‘prikchalarning bardosh berolmagani qanday yaxshi!

U qo‘lini uzatgancha qizni kutib turar, Mirzagul esa hamon undan ko‘zini uzmay, jilmayib peshvoz kelardi.

— Yiqilib ketma yana! — dedi u qayta.

Qiz hech nima deb javob qaytarmadi. U faqat jilmayib turardi. Qizning nigohidanoq Sultonmurot hamma savollariga javob oldi. Rosa tentak ekan-da o'ziyam, xat yozib, javob kutib bekorga azoblanib yurganini-chi...

Mirzagulning uzatgan qo'lini kaftiga oldi. Shuncha yil bir sinfda o'qib yurib uning shunchalik mehribon, ziyrak qo'llarini bilmas ekan. "Mana men keldim! — derdi qizning qo'li. — Shunday shodmanki! Nahotki xursand ekanligimni sezmayotgan bo'lsang?" Sultonmurot Mirzagulning yuziga boqdi. Qarab hayratga tushdi — u qizda o'zini ko'rdi! Xuddi u kabi Mirzagul ham vaqt o'tishi bilan tamom boshqacha bo'lib qolgan, bo'yi cho'zilib, ulg'ayib, xuddi kasaldan turgan kishinikiday ko'zlari ma'yus, o'zi parishon bo'lib qolgan edi. Mirzagul ham doim uni o'ylab kechalari uxlamay chiqqani, sevgani uchun ham ana shu muhabbat qizni Sultonmurotga o'xshatib qo'ygandi. Mana shuning uchun ham Mirzagul yanayam go'zalroq, qadrdonroq bo'lib ko'rinardi. Qiz o'zining shu turishi bilan go'yo baxt va'da qilib turardi. Sultonmurot bularning hammasini bir daqiqaning o'zidayoq tushunib, his etdi.

— Men seni kasal bo'lib qoldimi deb o'ylagandim, — dedi u titroq tovushda.

Mirzagul bu so'zlarga hech nima deb javob qaytarmay, dedi:

— Mana, — u Sultonmurotga atalgan ro'molchani uzatdi. — Bu senga! — dedi-yu, yurib ketdi.

Keyinchalik u bu shohi ro'molchani necha martalab qayta-qayta tomosha qildi. U ro'molchani cho'ntagidan olib, solib qo'yar va yana olardi. Bir varaq daftar qog'ozi hajmida keladigan ro'molcha chetlari chiroyli gul va yaproqlar shakli bilan bezab tikilgan, bir chekkasiga, bezaklar orasiga ikkita katta va bitta kichkina harflar bilan qizil ipda: "S. j. M" deb tikilgan, buning ma'nosi "Sultonmurot jana Mirzagul", ya'ni Sultonmurot bilan Mirzagul degani edi. Ular maktabda qirg'iz alfaviti reforma qilinmasdan oldin o'rgangan mana shu lotincha harflar Sultonmurotning uzundan uzoq maktublari va she'rlariga javob edi. Sultonmurot otxonaga shodligini bazo'r bosganicha qaytib keldi. U buni birovlar bilan baham ko'radigan baxt emasligini, bu faqat uning o'zigagina atalganligini va boshqa hech kim o'ziday baxtiyor bo'lolmasligini his qilardi.

Biroq bugungi uchrashuv haqida bolalarga judayam aytgisi, o'ziga sovg'a qilingan ro'molchani ularga ko'z-ko'z qilgisi kelardi...

Ishi yurishib ketdi. Bolalar otlarini sug'orib, taglarini tozalashdi, chelaklarda suli olib kelib, oxurlarga xashak solishdi. U birpasda ishga kirishib ketdi. Qashlog'ich bilan otlarining tarang, baquvvat yag'rin va yonboshlarini tez-tez qashlab, xashak olib kelgani yugurdi. Yugurarkan, hamisha soldatcha gimnastyorkasining ko'krak cho'ntagiga tikib qo'yilgan ro'molchasini tuyardi. Go'yo ko'kragida ko'zga ko'rinmas cho'g' yonib turganday edi. Shu tufayli ham u xursand, hayajonda edi. Baxtiyorligi — Mirzagul uning muhabbatini qabul etganligidan, hayajonlanishi sababi esa allaqanday anglashilmas tuyg'ularning paydo bo'layotganidan edi... U beda keltirish uchun otxona ortidagi beda g'arami tomon yugurdi.

Bu yer jimjit va yoruqqina bo'lib, qurigan o'tlarning hidi anqib turardi. Uning yana ro'molchaga judayam qaragisi kelib ketdi. Cho'ntagidan ro'molchani olib, o'tlarning islari orasidan uning o'ziga xos hidini ajratib, tomosha qila boshladi. Ro'molchadan xushbo'y atirsovun hidiga o'xshash hid kelardi. U bir kuni maktabda Mirzagulning sochlaridan shunday bir hidni tuygandi. Hozir yodiga tushdi, bu o'sha hid edi. U ro'molchani qo'llarida tutib turarkan, kimdir birdan ro'molchaga chang soldi. Burilib qarasa, Onatoy!

— Iya, hali sen undan ro'molcha olib turaman degin?

Sultonmurot lavlagiday qizarib ketdi:

— Bu yoqqa cho'z!

— Shoshma. Bir ko'raychi.

— Senga aytyapman, bu yoqqa ber.

— Baqiraverma, beraman. Boshimga uramanmi buni!

— Berasanmi, bermaysanmi?

— Qattiqroq baqir, qattiqroq! Sovg'aga berilgan ro'molchamni tortib oldi, deb baqirmaysanmi! — dedi-da, ro'molchani cho'ntagiga solib qo'ydi.

Keyin nima bo'lganini Sultonmurot bilmay qoldi. Faqat ko'z oldida Onatoyning g'azabdan va qo'rquvdan rangi quv o'chib ketgan yuzi lip-lip qildi-yu, so'ngra u bor kuchi bilan raqibini bir tushirdi va birdan qorniga qattiq tepki tushib o'zi bir chekkaga uchib

ketdi. Engashib yiqilayozdi-da, arang oyoqlarida turib oldi va g'aram yonida yanada g'azabga minib, jon-jahdi bilan Onatoyga tashlandi. Bolalar yugurib kelishdi. Ular yoqalashib ketishdi. Uch kishilashib ularni ajrata boshlashdi. Bolalar, qo'yinglar endi, deya yolvorib, ularning qo'llariga osilib olishar, Sultonmurot bilan Onatoy qonlari qaynab bir-birlarini ayamay mushtlashar va tinmay bir-biriga tashlanishardi. Oqibat nima bilan tugashini — yo o'lish, yoki ro'molchani qaytarib olish ekanligini his etgan Sultonmurot faqatgina: "Ber! Ber deyman!" so'zlarini takrorlardi. Onatoy baquvvat bo'lib, sovuqqonlik bilan harakat qilardi. Ammo adolat va haqiqat Sultonmurot tomonida edi. U tez-tez yiqilsa ham orqa-oldiga qaramay hujum qilardi. So'nggi marta u g'aram yonida yotgan panshaxaga yiqildi. Qo'llari shu onda o'z-o'zidan panshaxaga yopishdi. U panshaxani o'qtalgancha o'rnidan sakrab turdi. Bolalar har tarafga qochganlaricha baqirib yuborishdi:

— Qo'y!

— To'xta!

— Esingni yig'!

Onatoy uning ro'parasida, qayoqqa qochsam ekan, deya alanglab, og'ir nafas olgancha, qo'llari, oyoqlarini yoyib turar, biroq hech qayoqqa qochib ketolmasdi. Bir tomonda g'aram, ikkinchi tarafda otxona devori g'ov bo'lib turardi. Xuddi shu daqiqada Sultonmurot o'zini qo'lga ololdi. Bu oxirgisi ekanini, bundan boshqa chorasi ham yo'qligini u tushunib turardi.

— Bu yoqqa ber, — dedi u Onatoyga, — bo'lmasam yomon bo'ladi!

— Ma, ol! Ma! — hazilga aylantirishga urinib shoshib qoldi Onatoy. — Seni qara-yu! Hazillashib ham bo'lmaydimi! Tentak! — dedi unga ro'molchani irg'itar ekan.

Sultonmurot ro'molchani ko'krak cho'ntagiga solib qo'ydi. Qo'rquvlari o'tib ketdi. Bolalar yengil nafas olishib, g'ala-g'ovur boshlangandan so'nggina Sultonmurot boshi aylanayotgani, oyoq va qo'llari qaltirayotganini sezdi. Yorilgan labidan qonni tuflab, xuddi mast odamday gandiraklab g'aram ortiga o'tdi-da, o'zini pichan ustiga tashladi, chalqancha yotganicha nafasini rostlab, o'ziga keldi...

SAKKIZINCHI BOB

Kechga borib u Onatoy bilan yarashmagan bo'lsa-da, biroq oradagi umumiy ishlar ularni bir-biriga murojaat etishga majbur qildi. Baribir ko'ngilda dog' qoldi, voqeaning bunaqa ahmoqona sodir bo'lgani uyat edi. Ammo Sultonmurot bitta muhim sinovdan o'tganini tushunar, agar salgina yuraksizlik qilganida edi, o'zini o'zi hurmat qilmay qo'yishini bilardi. Bunday odam esa desant komandiri bo'lishi mumkin emas edi.

Bunga u o'sha kuniyoq, kechga yaqin otxonaga rais Tinaliyev bilan Chekish brigadir kelganlarida amin bo'ldi. Ularning otlari uzoq yo'l yurib charchagan, loyga botgandi. Tinaliyev bilan Chekish chol tongda Oqsoy tomon chiqib ketishib endigina qaytib kelishgandi. U yoqdan mamnun qaytishdi. Endi uch-to'rt kundan keyin Oqsoyga jo'nashsa bo'laverarkan. Dasht yerlari lorsillab yotganmish. Ekishga qulay yerlar ko'p bo'lib, kuching yetguncha haydayverishing mumkin ekan. Qo'ralarga joy belgilashibdi. Dasht uyg'onibdi. Shiypon uchun joy tanlashibdi. U yerga joylashib olish va qish bo'yi tayyorgarlik ko'rgan narsalarini boshlash qolgan edi, xolos.

— Xo'sh, ishlar qalay, bolalar? — ularga yuzlandi Tinaliyev. — Kayfiyatlar qalay? Qanday taklif va mulohazalar bor? Keyin tipirchilab qolmaslik uchun ovuldan uzoqlashib ketmasdanoq gapirib qolinglar.

Bolalar jim edilar. Go'yo favqulodda hal qilinishi lozim bo'lgan narsa yo'qday edi. Baribir, hech kim so'nggi so'zni aytishga jur'at qilolmasdi.

— Komandirimiz bor, — dedi Ergash. — U hammasini biladi, o'zi ayta qolsin.

Shunda Sultonmurot hozircha hech qanday kamchilik va muhtojlik yo'qligini, hammasi rejalab qo'yilganligi, poyabzallar busbutun qilinganini hamda ust-boshlar yamab-yasqalganligini, yopinishga esa po'stinlar olishligini, qisqasi, o'zlari, ularning pluglari va otlari yer yetilishi bilan istagan vaqtda ishga kirishishlari mumkinligini aytdi. Keyin har xil mayda-chuyda ishlarni — qozontovoq, o'tin, o'tovlarni muhokama qilishib, umumiy xulosaga kelishdi: agar havo aynib, qor yog'ib qolmasa, ikki-uch kun ichida dalaga chiqishadigan bo'lishdi.

Havo durust edi, ko‘k yuzini bulut qoplagan bo‘lsa-da, quyosh goh chiqib, goh berkinar, yerning hovuri ko‘tarilib, qordan xalos bo‘layotgan yerdan nam hid anqirdi...

Shunday kunlar yaqinlashmoqda edi... Hammaning fikr-xayoli shunga qaratilgan edi...

Qanchalik tayyorlanishmasin, baribir, jo‘nash oldidan yana anchagina ishlar qilinmaganligi ayon bo‘lib qoldi. Ikkita otning yopig‘i yetishmas ekan, borlari esa juda eskirib, uvadasi chiqib ketgan, ularni Oqsoyga olib borishning hojati yo‘q edi. Ilk bahor tunlari sovuq, deyarli qish tunini eslatadi, ayniqsa, shudgorlashning birinchi kunlarida... Chekishning aytishicha, avvallari yerni omoch bilan haydashgan vaqtlarida, birinchi kunlar goho tushgacha kechasi sovuq muzlatgan yerning erishini kutisharkan... Tuni bilan yopig‘i yopilmay sovuq yeb chiqqan ot esa ulov bo‘lishga yaramay qoladi.

Sultonmurotning yana ikkita yaxshi yopiq sotib olishgunlaricha hali idoraga, hali raisga, hali brigadirga, ovulga, kolxozga chopishiga to‘g‘ri keldi...

Mana shu yugur-yugur va tashvishlar ichida u hammadan ko‘proq otlarni sug‘orish vaqtini kutardi. Jo‘nash oldidan xuddi o‘shandagiday soydan o‘tiladigan joyda Mirzagulni ko‘rgisi kelardi... Har gal umid qilardi-yu, ammo qizni uchratolmasdi. Sultonmurot shoshilar, kutishga sira vaqti yo‘q edi. Shuning uchun ham Mirzagul bilan uning orasida doimo aytilmagan qandaydir gap borligini, ayniqsa, jo‘nash oldidan ular uchrashmasligi ham mumkinligi tufayli o‘zini qandaydir gunohkorday his etardi. Sultonmurot Mirzagulning ham o‘zi haqida o‘ylashini bilar va bunga u qizning o‘shandagi ilk nigoh tashlaganidayoq, Mirzagulda o‘z aksini ko‘rgan paytdayoq amin bo‘lgan edi. Biroq Mirzagulning o‘zi uchrashishga intiladi, deb xayoliga ham keltirmasdi. Qizlik g‘ururi, nomusi bunga yo‘l qo‘ymasdi. Qiz unga to‘qilgan ro‘molcha taqdim etib, nima demoqchiligini izhor qildi, qolgani esa uning ishi, erkaklarcha...

Albatta, u jo‘nash oldidan qiz bilan uchrashishi mumkin edi. Mana, yana bir ko‘ngilsizlik ro‘y bermaganida u shunday qilmoqchi edi. Oqsoyga jo‘nash arafasida, desantchilar o‘z otlarini oxirgi marta sug‘organi olib borishga hozirlanisharkan, Sulton-

murot oxirida qolib Mirzagulni kutmoqchi bo'lgandi. Shunda ular suvloqqa tomon yo'l olib, endi darvozadan chiqqan edilar hamki, Chekish brigadir kelib qoldi. Uning qovog'i soliq va tund edi. Malla soqoli titrar, tumog'ini ko'zlarigacha bostirib kiyib olgandi.

— Qayoqqa ketyapsizlar?

— Otlarni sug'orishga.

— To'xtanglar. Gap bunday, Onatoy, sen uyingga bor. Onang kasal bo'lib qolibdi. Otdan tush. Sizlar esa, bolalar, tezda suvloqqa borib otlarni tez sug'orib orqanglarga qaytinglar. Men sizlarni shu yerda kutib turaman!

Soy tomon otlarni yo'rttirib borisharkan, Sultonmurot borishda ham, kelishda ham yo'ldan ko'zini uzmay keldi-yu, ammo Mirzagulni ko'rmadi. Hali maktabdan qaytish vaqti bo'lmagan edi. Nega Chekish chol ularni bunchalik shoshirdi ekan-a? Nima bo'ldiykin? Agar shunday bo'lib qolmaganida edi, Mirzagulni albatta bugun kutib olgan bo'lardi! Soyning kechuvida uni yana shunday ko'rgisi kelardiki... Ular otxonaga qaytishib otlarni joylariga bog'lashgach, Chekish chol to'rtovlarini bir chetga chaqirdi.

— Gap bor, — deb ming'illadi u.

So'ngra o'tiringlar, dedi. Hammalari yelkalarini devorga tiraganlaricha cho'nqayishdi. Rais Tinaliyev tik turib gaplashishni yaxshi ko'rar, boshqalar ham tikka turgani uchun o'zi ham tik turardi. Chekish brigadir esa, aksincha, shoshilmasdan, bamaylixotir o'tirib gaplashishni yoqtirardi. Qariya-da, Chekish chol o'ychanlik bilan hurpaygan malla soqolini silarkan, gap boshladi:

— Yigitlar, sizlar endi yosh bola emasliklaringizni aytib qo'ymoqchiman. Hayotning achchiq-chuchugini tatish erta boshlaringga tushdi. Jazirama tuproqda yurib, muzday yerda yotish... Demak, taqdir shunday ekan. Mana, bugun biringizning boshingizga katta kulfat tushdi — Onatoyning otasi, Sattorqul frontda halok bo'libdi. Sizlar endi yosh bola emassizlar, agar biringizning boshingizga kulfat tushsa, ikkinchingiz unga suyanchiq bo'lmog'ingiz lozim. Tayyorlanib turinglar. Odamlarni qarshilab turasizlar. Otlarni bog'lab turasiz. Hozir rahmatli Sattorqulnikida odamlar to'planishadi, sizlar ham o'sha yerda bo'lishlaring kerak. Yosh bolalarga o'xshab Onatoyning yonida hiqillamanglar, hamonki

yig'lar ekansizlar, chinakamiga qattiq ovoz chiqarib erkakchasiga yig'langlarki, bundan Onatoyning sodiq do'stlari yig'layotgani aniq bilinib tursin. Men bilan hozir birga borasizlar, shuning uchun ham sizlarni shoshirgan edim...

Ular so'qmoq bo'ylab oldinma-ketin ko'cha oxirida joylashgan Onatoylarning uyi tomon ketishdi. Odamlar shunday sukut saqlaganlaricha otliq va piyoda, turli tomondan to'p-to'p bo'lib oqib kelishardi. Havo aynib turardi. Goh quyosh chiqib, goh yana ko'k bulut bilan qoplanar, goh birdan yer quchib boldirlarni achishtiruvchi shimol shamoli esib qolardi. Sultonmurot Onatoylar xonadoniga qo'rquvdan, nadomatdan og'ir iztirobga tushib bormoqda edi. Yana bir-ikki minutdan so'ng ovul uzra xuddi uyga o't tushgani kabi dahshatli yig'i-sig'i sadolari ko'tariladi, mana shu bobokalonlari tug'ilib o'sgan tog'larda yana bir odamning azasi boshlanadi, endi u odam urushdan qaytmaydi, hech qachon, hech kim uni ko'rmaydi, bu, albatta, qo'rqinchli edi. "Ko'pdan beri xat-xabar yo'q, otamga nima bo'ldi ekan-a? Omonmikin? Onam bo'lsa vahimaga tushib aqldan ozayozdi. Ishqilib, bunday bo'lmasin, hech bunday bo'lmasin!"

Ular hovliga yaqinlashib qolganlarida Onatoylarning uyidan dahshatli faryod ko'tarildi va bu o'kiriq kuchayib, odamlar to'planib turgan hovli va ko'cha bo'ylab yoyildi...

Desantchilar Chekishning orqasidan borarkanlar, bor ovozlari bilan o'kirishar, chol o'rgatganday bir ohangda:

— O'v, Sattorqul otajon, topilmas Sattorqul otajonimiz, endi seni qaydan topamiz-a, aziz boshing qaysi tuproqda qoldi? — deb rasmana ho'ngrab yig'lashardi.

Shu daqiqada, bu qayg'u umumning qayg'usiga aylangan shu daqiqada, Onatoyning otasi Sattorqul haqiqatan ham ularning o'z otasiday, shuhrati ketgan eng yaqin kishisiday tuyulib ketdi, chunki har bir kishining ulug'ligi uning yaqinlari tomonidan faqat undan judo bo'lganlaridagina bilinadi... Hamma vaqt shunday bo'lgan va doimo shunday bo'lib qolaveradi.

— O'v, Sattorqul otajon, topilmas Sattorqul otajonimiz, endi seni qayerdan topamiz, aziz boshingni qaysi tuproqqa qo'yding?

Desantchilar yig'lab, Chekish bilan odamlar orasidan o'tib hovliga kirishlari bilan eshik oldida turgan Onatoyni ko'rishdi. G'am odamni cho'ktirib qo'yadi. Ularning orasida eng kattasi, kuchli va barvastarog'i Onatoy ham yosh boladay bo'lib qolgandi. U boshiga tushgan bu og'ir kulfatdan ezilib, yosh boladay nola bilan xuddi yomg'irda qolgan toychoq singari mung'ayib devorga suyanib yig'lardi. Yuzlari yig'idan shishib ketibdi. Yonida o'zidan kichik uka va singillari o'kirishardi.

Onatoyning do'stlari uning oldiga borishdi. Onatoy do'stlarini ko'rib boshiga tushgan qayg'udan zorlanib, boshiga tushgan kulfatini ularga to'kib solib yanada qattiqroq yig'lay boshladi. Bu bilan u go'yo madad so'rab, yordam kutayotganday edi. Onatoyning bu yordamga muhtoj holati hammadan ko'proq Sultonmurotga qattiq ta'sir qildi. Bolalar o'zlarini yo'qotishib, uning atrofida aylanishar, nima qilishni, qanday qilib uni ovutishni bilishmasdi. Hech kim unga yordam berolmaydi. Bu payt hech kim Sultonmurotning qo'liga avtomat olib hovlidan otilib chiqib ketganini va avtomati bilan to'ppa-to'g'ri o'sha yoqqa — urush ketayotgan tomonga yugurib ketganini xayoliga ham keltirmas edi. Uning bir nafas to'xtamay to'g'ri frontga borganini va u yerda qahr-g'azab bilan na'ra tortib, qichqirib, fashistlarni qiyratayotganini, avtomatdan tinimsiz o't sochib, do'sti Onatoyning o'ldirilgan otasi, ovulga keltirilgan qayg'u va kulfatlar uchun o'ch olayotganini bilishmas edi...

Esiz, avtomati yo'q-da! Desant komandiri emasmi, Sultonmurot Onatoyga shunday dedi:

— Yig'lama, Onatoy. Nima qilardik. Mana, Erkinbek va Qubbatqulning otalari ham frontda halok bo'lishdi. O'zing bilasan, mening otamdan ham anchadan buyon xat yo'q. Urush. Tushunasan-ku. Sen faqat bir og'iz aytsang bas, biz senga yordam beramiz. Sen faqat o'zingga biroz yengil bo'lishi uchun nima qilishimiz kerakligini aytgin...

Ammo Onatoy devorga suyanib, yelkalarini silkitganicha entikib-entikib yig'lar va hech narsa deyolmasdi. Bu so'zlar uni ovutish o'rniga, aksincha, yarasiga tuz sepganday bo'ldi va u duvillab oqayotgan ko'z yoshlardan bo'g'ilib, nafasi qisilib, ko'karib ketdi. Sultonmurot chopib borib unga cho'michda suv keltirdi. Shu da-

qiqadan boshlab u o'zini bu yerda sodir bo'layotgan voqeaga javobgarday his eta boshladi. Odamlarga qandaydir yordam qilish zarurligini tushundi. To'rtalovi soydan paqirlarda suv tashishdi, o'tin yorishib, samovarlarga o't qo'yishdi, to'plangan qo'ni-qo'shnilarni kutishdi, otliq chollarni ulovga mingizib yuborishdi.

Odamlarning oyog'i uzilmasdi. Birovlar marhum oilasiga ta'ziyaga kelishar, boshqalari esa ta'ziyadan o'z burchlarini o'tab qaytishardi. Desantchilar kun bo'yi Onatoylarnikida bo'lishdi.

Sultonmurot muallima Inkamol opa yettinchi sinf qizlari, ularning orasida Mirzagul bilan kelib qolishganlarida juda og'ir daqiqalarni boshidan kechirdi. Inkamol opa Onatoyni quchoqlab olganicha shunchalik bo'zlab yig'ladiki, unga ko'z yoshisiz qarab bo'lmas edi. Mashhur folbinning muallimaning o'g'li haqidagi karomati to'g'ri chiqmadi, zotan unga opaning o'ziyam ishonmagan edi. Dilidagi xavotirlikni, g'amni tarqatish, qayg'u-hasratga to'lib ketgan yuragini bo'shatish uchun u ko'z yoshlariga erk berib yubordi. Qizlar ham muallimalari yonida yig'lab turishardi. Mirzagulning boshi egik, unsiz ko'z yosh to'kar, balki shu payt u otasi va akasini eslab ezilayotgandir.

U Sultonmurot tomonga biron marta ham qayrilib qaramadi. Mana shu holatda ham, iztirob va kulfat og'ushida ham u hammadan go'zal edi. Sultonmurotda eng oliy hamdardlik faxr hissini uyg'otdi. U qizning yoniga borgisi, uni quchoqlab yig'lagisi, qayg'usiga sherik bo'lgisi kelardi...

...Eh, Mirzagul, Mirzagul bekach,
Oq kaptar sen ko'kdagi,
Men tuyg'un qush to'pdagi...

Shundan so'ng hovlida Qur'on o'qilgach, hamma hozir bo'lganlar o'zlari bilan o'zlari yolg'iz qolishib, jimgina kaftlarini ochib, xuddi taqdir kitobiga qaraganday unga termilganlaricha bundan ming yillar muqaddam yiroq Arabistondan kelib qolgan, tug'ilganda va o'lganda dunyo mangu deb e'lon qilgan Qur'onning tantanavor va qiroatli ohangini tinglab turishardi. Bu gal Qur'on Onatoyning otasi — urushda shahid bo'lgan Sattorqulga bag'ishlanib o'qilmoqda edi.

Sultonmurot o‘sha ibodat mahalida ham kaftlari ustidan ko‘zini ochib qizga qaradi. Hamma qatori diqqat bilan razm solib turgan yosh Mirzagul g‘oyat go‘zal edi. Qizning yuzida chuqur o‘ychanlik mavjud. U Sultonmurot tomonga qaramadi.

Shunday, qiz loaqal bir so‘z qotmay ketdi. Faqat u ketayotib Sultonmurotga qayg‘uli nigoh tashlarkan, boshini tebratib qo‘ydi. Eh, Mirzagul, eh, Mirzagul bekach... Marhum Sattorqul uyidagi faryod biroz pasaydi. Atrofga judolikka ko‘nikishga da’vat qiluvchi dahshatli sukunat cho‘kdi. Yig‘i — bu norozilik, g‘alayon, tug‘yonning belgisidir, yaqindagina bo‘lib o‘tgan voqeani qaytarib bo‘lmasligiga tushunib yetish esa eng dahshatlisi. Shunday daqiqalarda odamni eng qayg‘uli fikrlar chulg‘aydi.

Onatoy devor tagida boshini xam qilib o‘tirardi. Sultonmurot unga qarashga yuragi betlamasdi. Qo‘pol, kuchli, badjahl Onatoyni kulfat bukib qo‘ygandi. Bundan ko‘ra uning baqirib yig‘lagani, ust-boshini yirtib, o‘zini har yoqqa urgani yaxshiroq edi.

Sultonmurot qanday qilib uni bu qayg‘uli, nochor ahvoldan qutqarishni bilmasdi. Ammo u Onatoyga yordam qilishi kerak edi, qanday yo‘l bilan bo‘lmasin, uning yolg‘iz emasligini, yonida odamlar, uning uchun jonlarini fido etishga tayyor odamlar borligini bildirishi kerak edi.

— Onatoy, yur, senga bir gapim bor, — dedi unga Sultonmurot.

Onatoy o‘rnidan turdi va ular bir chekkaga o‘tishdi.

— Xayolingga boshqa narsa kelmasin tag‘in, Onatoy,— deb so‘z boshladi Sultonmurot juda hayajonlanganidan zo‘rg‘a so‘zlab. — Axir men, o‘sha... Xohlasang o‘sha ro‘molchani senga butunlay beraman.

Onatoy ma’yus jilmaydi.

— Nimalar deyapsan, Sulton! Kerak emas, — dedi u.— Ro‘molcha seniki, uni hech kimga berma. Men bo‘lsam... Sen meni kechir, kechir meni, unut hammasini. Men endi hech qachon bunday qilmayman, Sulton. Endi menga hech narsaning keragi yo‘q... Mening otam, u shunday ediki... Biz uni shunday kutayotgandikki...— Onatoyning o‘pkasi to‘lib yana ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

Endi ular ikkovlashib o‘zlari tug‘ilgan va yashayotgan shu davrlari bilan xoli qolib yig‘lashardi...

Oqsoy yerlarida pluglar ishlayotganiga uch kun bo‘ldi. Uch kundirki, qo‘shchilar o‘z otlarini to‘xtovsiz chu-chulashib haydashardi. Yerda Oqsoy desantchilarining ilk mehnatlari mahsuli bo‘lgan qoramtir jo‘yak hosil bo‘ldi. Jo‘yak soz olingan, ko‘rib ko‘z quvonardi. Endi hamma ish ob-havoga qarab ketaveradi.

Ulug‘ Manas cho‘qqilari poyidagi bu bepoyon tog‘ etagida qadim-qadimdan hech kim buzolmagan osudalik hokim edi. Chimkent va Toshkentning suvsiz yerlariga qarab cho‘zilgan Oqsoy dashti shu yerdan boshlanardi.

Cho‘lning bu oyoq tegmagan bosh qismida plug qo‘shilgan ulovlar orqalaridan uzun iz qoldirib, tepalik tomon o‘rmalab ketayotgan mayda qo‘ng‘izlarni eslatardi.

Hozircha uchta plug ishlamoqda edi. Ergash va Qubbatqulni ovulda, kuzgi ekinlarni boronalab, ildizdagi namni yo‘qotishga yordamlashishlari uchun bir necha kunga olib qolishdi. Bu ishning kechiktirib bo‘lmasligi anig‘-u, biroq Oqsoyda ham vaqt kutib turmaydi-da: ularning mo‘ljalicha, yerni haydashga ulgurish uchun hamma desant pluglari ertalabdan kechgacha ishlashi kerak, bo‘lmasa ulgurisholmay, butun mehnatlari chippakka chiqadi. Sultonmurot qolgan ikki ulovning shu kunlarda kelib qolishini kutib bezovta bo‘lmoqda edi. Va’da berishganlari tufayli ham u Chekish brigadir bilan qattiq aytishib qoldi.

— Borib ayting, oqsoqol, — dedi u, — rais Tinaliyevning o‘zi kelib, hal qilib ketsin. Uchta plug bilan bu yerda hech nima qilib bo‘lmaydi. Topshiriqni bajara olmaymiz...

Chekish chol nima ham derdi? Uning ham qo‘li qisqa. Sultonmurot aqlli, tadbirkor brigadirga kolxozda ishlash qanchalik qiyin ekanligini tushunadi. Uning ham hammasini o‘z vaqtida, tartib bilan saranjom-sarishta qilgisi keladi-yu, ammo xuddi tagingdan chiqqan olovday tashvish oyog‘ingdan oladi, buning ustiga, bahorgacha uni-buni qilib olishni ko‘zlaydi-yu, odam yo‘q, ishchi kuchi yo‘q, oziq-ovqat yo‘q. Unisini qilsang, bunisi qolib ketadi. Kecha u o‘tirib bosh qotirdi. Ovulda qahatchilik. Zapaslari tugay deb qolibdi, yangi hosilgacha esa hali qayda. Hayvonlar qoqsuyak

bo‘lib qolgan, yemish bo‘lmasa ochdan o‘lishi turgan gap, ularni so‘yishdan esa naf yo‘q. Kasal uchun bir kilo go‘sht sotib olgani ot-ulov qilib bozorga borishadi. Bir kilo go‘shtning narxi ilgarigi butun bir molning narxidan qimmat. Biroq baribir kerak-da, borishyapti. Hatto ot-ulovdagina emas, piyoda bir parcha et deb o‘ttiz-qirq kilometrlab yo‘l bosib borishyapti. Salt otlar oyoqlarini arang ko‘tarib bosadi. Yo‘lga chiqsang, oraliqda qolib ketasan. Qo‘sh qo‘shiladigan otlarni esa zo‘rg‘a ekish mavsumigagina tayyorlashga ulgurishdi. Ulovlar parvarish qilingan-u, ammo ular ham ko‘p yuk ko‘tarishga uzoq dosh berolmaydi. Agar bularning hammasini o‘ylasang vahima bosib ketadi. Ammo hammasidan ham yomoni urush bo‘lib, uning nihoyasi ko‘rinay demasdi.

Birgina tasalli, birgina umid baxsh etadigan narsa — nemislarning mag‘lub etila boshlagani, ularning hamma joydan siqib chiqarilayotgani edi... Bugun ertalabdan havo jo‘nashib ketganday bo‘lgandi. Havo bulutli bo‘lib, tog‘ tepasida goho quyosh ko‘rinib qolardi, goh osmon boshing ustida sayr eta boshlardi-yu, birdan havo aynib, ko‘kka yana bulut chiqib qolardi. Tushga yaqin birdan havo sovib, atrof qorong‘ilashib ketdi. Qormi, yomg‘irmi yog‘ishi aniq edi... Atrofga butunlay qorong‘i cho‘kdi. Tushdan keyin plugchilar boshlarini qor yo yomg‘irdan berkitish uchun dalaga qoplarni olib ketishga majbur bo‘ldilar.

Avvalgi haydab qo‘yilgan joydan boshlashib jo‘yakni ichkari tomonga ag‘darib borishardi. Birinchi bo‘lib Sultonmurot, undan ikki yuz qadamlar orqada Onatoy, yarim chaqirimcha narida esa Erkinbek borardi. Bugun plugchilar dalada yolg‘iz edilar. Uch plugchi-yu, oldinda salobatli cho‘qqilar. Uch plugchi-yu, ortda bepoyon dasht. Rais Tinaliyev bu yerda ish boshlangan kunlarigina bo‘ldi. Ishi ko‘p emasmi, u Chekish brigadirni shudgorga ko‘z-quloq qilib qo‘yib, o‘zi tezda qaytib ketdi.

Bugun Chekishning o‘zi ham ovulda qolgan Ergash va Qubbatqulni ulovlari bilan bu yerga olib kelish uchun jo‘nab ketdi. Shunday qilib, uchinchi kundirki, plugchilar o‘z hollaricha — pluglar, otlar, hosilini yig‘ib-terib olib, odamlarni to‘ydirish uchun qayta-qayta haydayverish lozim bo‘lgan yer bilan ro‘baro‘ qolishdi...

Maydon dala shiyponidan uzoqda edi. O'zlari yashayotgan o'tovdan, beda g'aramlaridan, qoplardagi yemlardan, endi ularning uylarida nimalar bo'lsa, hammasidan yiroqda edilar. Dala shiyponida faqat keksa oshpaz kampir qolardi. Vaqtida ovqatni tayyorlash o'rniga doim o'tin ho'l, u yo'q bu yo'q deb zorlanib yurardi. Daladagilarga bir burda non bilan issiq atala bo'lsa yetadi-yu, kampir bo'lsa vaysagani-vaysagan, go'yo birov undan bir nima deb gina qilayotganday hayotdan noliyveradi. Ovulda kampirni uncha bilishmasdi. Qayerlardandir kelib qolgan ayol edi u. Boshqalar uyini, bolalari, ro'zg'or ishlarini tashlab kelolmadi, u bo'lsa plugchilar yonida kun ko'rishni ko'zlab Oqsoyga kelishga rozilik berdi. Mayli, yeganicha yesin-u faqat ovqatni o'z vaqtida tayyorlasa bo'lgani. Kampir hamisha behudaga yelib-yuguradi-yu, hech narsaga ulguro|maydi. Unga yordam qilishga esa plugchilarning vaqti bormidi. Ot, bu o't oldirib qo'ysang o'zi ketaveradigan mashina ham emas, bakini to'ldirib minib ketaveradigan traktor ham emas. Ishchining o'zi dalada xuddi otday ishlagach, keyin plugdagi otlarning qornini to'ydiradi, sug'orib parvarish qiladi-da, so'ng o'tovga bazo'r yetib borib, o'zini tappa yerga tashlaydi... Tong sahardan yana ishga... hammadan qiyini erta saharda uyqudan turish...

Plugning yurib turishi, otlar vaznini yo'qotmay, quvvati bahorning oxirigacha yetishi plugchining katta vazifasidir. Bu muhim. Judayam muhim. Birinchi kunlari, shudgorlashni boshlaganlarida, otlar har o'n-o'n besh qadamda to'xtab dam olardi, hansirab qolishardi. Shunda tishni sal ko'tarishga, yerni sayozroq haydashga to'g'ri kelardi. Biroq bu vaqtincha, otlar bo'yinturuqqa o'rgangunlaricha qo'llanildi.

Bugun ish sezilarli darajada yaxshi ketdi. Otlar endi ko'nikib qolishganlaridan plugni baravar tortishardi, to'rtalovi bir-birlariga yaqin turib olib erga enkayishib, xuddi darslikdagi burlaklarga o'xshab jon-jahdlari bilan oldinga intilib borishardi. Qadam-baqadam, qadam-baqadam yer bag'rini yorib borayotgan plugni itarib borishardi. Biroq ob-havo pand beryapti-da. Mana, qor hidi kelib, uchqunlar paydo bo'la boshladi... Demak, qish hali hunarini ko'rsatib ulgurmay ketish oldidan yana bir bor o'zini eslatib

qo‘ymoqchiga o‘xshaydi. Bekorga bunday qilyapti. Ayniqsa, bu qo‘shchilar uchun juda yomon bo‘ldi...

Sultonmurot boshiga qop yopinib oldi, biroq baribir qordan saqlana olmadi. Yerni ag‘darib borayotgan otga minib olib, boshi uzra qamchi o‘ynatib borarkan, shamol uning yonlarini ochib yuborardi. Qalin yog‘ayotgan ho‘l qor tezda erib ketar, atrof jivir-jivir qilardi. Tog‘lar qor pardasiga chulg‘angan edi. Faqat bu sukunatda yog‘ingarchilik domida qolib qiy-chuv ko‘tarayotgan qushlar qiyqirig‘ini eslatuvchi plugchilarning otlarni qichab baqirib-chaqirayotganliklari quloqqa chalinardi. Pluglar tinmay ishlardi. Qop-qora pluglar xuddi to‘lqin ustida javlon urgandek goh tepaliklar uzra paydo bo‘lib qolar, goh pastliklarga sho‘ng‘ib g‘oyib bo‘lardi.

Unga qo‘shilgan otlar engashib, xuddi tuproq ostidan chiqayotganday, chuqur-chuqur nafas olib, o‘rmalab borishardi. Qor ularning issiq, taranglashgan yelkalaridan bir onda ikkala yoniga oqib tushardi. Yer bo‘kib ketgan, tuyoqlar osti sirpanchiq, jabduqlar ho‘lligidan zilday og‘ir plug tishlariga yerning yopishqoq qatlami botib qolganidan otlarga judayam qiyin edi. Biroq pluglarni to‘xtatib bo‘larmidi. Haydashni davom ettiraverish kerak. Ertaga quyosh chiqqach bu jo‘yaklarga shabada tegib, shudgor tayyor bo‘ladi. Vaqtni boy bermaslik zarur.

Plug yerga tiqilib qola boshladi. Sultonmurot tez-tez egardan tushib qamchi dastasi bilan tishlarni loy parchalaridan tozalar, orqada kelayotgan Onatoy va Erkinbeklarni chaqirar, ulardan javob ovozi kelgach, yana ho‘l jabduqli va butun badanlari shalabbo bo‘lgan otlar orasidan jo‘yak tortayotgan otga yaqinlashib, egarga tirmashib chiqar va yana olg‘a intilardi.

Qor esa hamon yog‘ishdan to‘xtamasdi. Qop-qora plug qo‘shilgan otlar xuddi oppoq tumanda suzib borayotgan kemani eslatardi. Barcha tovushlarni yutib yuborayotgan qor sukunatida dala bo‘ylab birgina plugchilarning hayqirig‘i yangrardi.

— Onatooy!

— Erkinbeek!

— Sultonmurooot!

Yuzlardan suv oqar, bu erigan qormi, termi, bilib bo‘lmas, yugan tutgan qo‘llar shishib, sovuqdan muzdek qor tomaverib ko‘ka-

rib ketgan. Bir-biriga suykanishib ketayotgan otlar orasidagi oyoqlar ikki tomondan qisilib og'rir, ularni qayoqqadir siljitging keladi-yu, ammo joy yo'q. Buning ustiga, Sultonmurot ortidan Onatoy va Erkinbek kelayotganini, ular uchalasi — oltita plug tishi ekanligini, kuppa-kunduz kuni Oqsoy yerlarini haydayotgan bu tishlarni to'xtatib qo'yishga haqqi yo'q ekanligini tushunardi. Faqat otlar chidab bersa, holdan toyib qolmasa bo'lgani. Shuning uchun ham u xayolan otlarga murojaat qilar, o'git berardi:

"Sabr qiling, Qambar otadan[1] tarqagan zotlar, ahillik bilan baravar tortinglar. Axir har doim shunday qiynalmaysizlar-ku. Bugun qor yog'gan bo'lsa, ertaga erib ketadi. Olg'a, ha, olg'a, chu, jonivorlar! Sabr qiling, Cho'lpon ota nasllari, huv, ana, oldinda paykal oxirlayapti. Hozir o'sha yerdan burilib orqaga qaytamiz. Sabr qilinglar, qadamlarni bo'shashtirmanglar. Sizlarni plugdan chiqarishga mening haqim yo'q. Biz shuning uchun ham sizlarni qish bo'yi parvarish qildik. Boshqa yo'l yo'q. Men sizlarni yumshoq, qattiq yerni haydashga undayapman, bilaman, sizlarga og'ir, biroq shunday qilmasak nonsiz qolamiz-da. Chekish chol shunday degan va umrbod shunday bo'lib qolaveradi, deydi. Non, uning har bir burdasi peshona teriga yo'g'riladi-yu, faqat buni hamma ham bilavermaydi va hamma ham non tishlaganda bu haqda o'ylab o'tirmaydi. Bizga esa non juda kerak. Judayam kerak. Mana shuning uchun ham biz sizlar bilan Oqsoyda yuribmiz.

Chopdor, sen mening inimsan, sen mening qo'shchi otimsan. Sen ham plugni tortasan, ham meni ustingda olib yurasan. Senga qamchi urayotganim uchun meni kechir. Shu kerak bo'lib qoldi. Xafa bo'lma, Chopdor.

Chontor, sen chap tomonda, haydalgan yerdan yurasan, hammasidan ham senga qiyinroq, biroq sen Chopdordan keyingi eng kuchli otsan. Chontor, seni otam Bekboy doim maqtar edi. Yodingdami? Biz hammamiz shaharga borganimiz ham esingdami? Otamdan hanuz xat-xabar yo'q, bundan juda qo'rqaman, siz otlar buni tushunmaysizlar. Urushdagi odamlar uzoq vaqt xat yozishmasa bu juda yomon. Onam sog'inib, xavotirlanavergani dan judayam ozib ketgan. Onatoy otasining azasida hamma-

[1] **Qambar ota** — otning piri.

dan ko‘p yig‘lagan, qayg‘urgan Inkamol opa bilan onam bo‘ldi. Ular bir nimani bilishadi, qandaydir ko‘ngilsizlikni sezishadi-yu, ammo aytishmaydi. Ular bir nimadan xabardor... Chu, chu, Chontor, sening bo‘shashishingga yo‘l qo‘ymayman. Olg‘a, Chontor! Bo‘sh kelma!

Sen ham, Oqquyruq, sen ham mening inimsan. Sen mening o‘ng tomonimda, otlarning o‘rtasida borasan. Sen jon-jahding bilan plugni tortishing kerak, chunki Chopdor bilan ikkovingiz kuchli otlarsiz. Sen ajoyib, oq dumli chiroyli otsan. Biroq bo‘sh kelma, ruhing cho‘kmasin, sening charchashingga yo‘l qo‘ymayman. Chu, chu, Oqquyruq! Meni uyatga qo‘yma!

Qorato‘riq tulporim, sen oddiygina yaxshi otsan. Men seni qo‘shga tanlayotganimda senga juda ishonganman. Sen mehnatkash va yuvosh otsan. Men seni juda ham hurmat qilaman. Sen eng chekkada yurganingdan doim ko‘zga tashlanib turasan. Senga qarab ishimiz qanday ketayotganini aniqlash mumkin, Qorato‘riq. Men seni ham xafa qilmayman, faqat bo‘shashmay tortaver. Men senga so‘z beraman: Oqsoyda shudgorlash, ekishni tugallaganimizdan keyin, ovulga qaytayotganimizda hamma seni ko‘rishi uchun xuddi hozirgiday eng chekkada borasan. Biz Mirzagulning uyi yonidan o‘tayotganimizda u ko‘chaga chopib chiqib eng avvalo seni ko‘radi, Qorato‘riq. Shuncha harakat qilmay, jo‘nash oldidan u bilan ko‘risholmadim. Uning ro‘molchasi yonimda, shundoq bag‘rimda turibdi. Unga qor va yomg‘ir tegmaydi. Men Mirzagul haqida hamisha o‘ylayman. Uni o‘ylamay turolmayman. Agar uni o‘ylamay qo‘ysam hammayoq huvillab qoladi va menga hayotning qizig‘i qolmaydi.

Chu, chu, Qambar otadan tarqagan zotlar! Ahillik bilan tortinglar, qani olg‘a, olg‘a! Chu! Chu!.. Qor hamon yog‘yapti-ya. Qanday namxush qor. Hammamiz boshdan oyoq shilta-yu shalabbo bo‘ldik. Shamol ham qo‘ymayapti. Agar oshpaz kampirimiz xashakni junlar bilan yopib qo‘ysa yaxshi bo‘lardi-ya. Ammo bunga aqli etmasa, xashak ivib isrof bo‘ladi-da. Biz — o‘n ikki bosh otni nima bilan boqamiz axir! Ishga jo‘nash oldidan unga aytib qo‘yish kerak edi-yu, esimdan chiqibdi, qor yog‘ishi xayolimga kelmabdi.

U g‘alatiroq kampir, ko‘zi suq. Otlarimizni maqtagani maqtagan, boqib to‘ymaydi. Qanday semiz otlar, yaxshi boqilgan, deydi. Yonboshlaridagi yog‘ ikki enlidir, deydi. Eski vaqtlarda bunaqa otlar katta ma’rakalarda so‘yilar emish. Aytishicha, o‘sha paytlarda go‘shtni to‘yguncha yeyishar ekan. Ot go‘shtini qirq chelakli qozonlarda pishirishganlarida uning yuziga yig‘ilgan yog‘sardagini (topgan gapini-chi!) suzib olib, hammasini cho‘mich bilan kasal odamlarga suzib berilardi, deydi. O‘sha yog‘ betob odamga ichirilsa darrov oyoqqa turib ketardi, deydi. Mechkay, faqat yog‘ni o‘ylaydi, xolos. Otlarga ko‘zi tegmasa edi ishqilib. O‘rgildim undan! Maktabda ko‘z tegish yolg‘onligini aytishgan-ku. Nima desa deyaversin. Faqat ovqatni o‘z vaqtida tayyorlab tursa bo‘lgani. Kecha yovvoyi echkini pishirib bizni rosa hayratga soldi. Vaholanki, echki juda oriq edi. O‘tib ketayotgan qandaydir ikki ovchi o‘tov tomonda olov ko‘rib shu yoqqa kelishib, o‘ljasining bir qismini tashlab ketishdi, deydi. Rahmat o‘sha ovchilarga, urf-u odatni bilishar ekan. Birinchi uchratgan kishisiga tegishli o‘lja qoldiribdimi, demak, keyingi safar ham ovlari yurishishini niyat qilishgan. Agar ular tog‘dan tushgan bo‘lishsa, biz birinchi uchragan kishilarimiz, albatta. Atrofda esa boshqa hech kim yo‘q. Tog‘ga chopsang, dashtga ot qo‘ysang ham hech jonzotni topolmaysan. Qor haliyam yog‘yapti. Rosa yog‘di-da... Tinkalar ham qurib ketdi...”

Otlar jiqqa ho‘l bo‘lib to‘xtab qolishdi... Sultonmurot egardan tushdi-da, shishib ezilib ketgan oyoqlarida bazo‘r turib xuddi mast odamday gandiraklab otlarning orasidan o‘tdi. Qora terga botib, qaltirayotgan, quloqlaridan tuyog‘igacha ho‘l bo‘lib, sillasi qurib zo‘rg‘a nafas olayotgan otlarni ko‘rib shunday ichi achishib ketdiki, beixtiyor ingrab yubordi.

Qor esa hamon yog‘ar, otlarning hovur ko‘tarilib turgan yag‘rinlariga tushib erib ketmoqda edi. Sultonmurot ho‘l bo‘lib og‘irlashib ketgan qopni boshidan olib tashladi. O‘ziga itoat qilmayotgan, muzlab qolgan barmoqlari bilan abzallarni yecha boshlarkan, beixtiyor o‘zini tutolmay Chopdorning yag‘rinini quchoqlab turib ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Yig‘i orasida lablari otning terisidagi issiq taxir ta’mni tuyib: “Kechiringlar, kechiringlar meni!” — deb pichirlardi.

— Ha, Sultonmurot! Nima gap? — egat bo‘ylab yaqinlashib kelayotgan Onatoyning tovushi eshitildi.

— Otlarni bo‘shat! — baqirdi unga javoban Sultonmurot.

O‘NINCHI BOB

Biroq ertasiga kun ochiq, beg‘ubor bo‘ldi. Kechagi yog‘ingarchilikdan asar ham yo‘q edi. Faqat namgarchilik, faqat odamning ruhini tetiklashtiruvchi muzdek shabada esmoqda va faqatgina yer biroz qizg‘ish rangga kirgan va faqat cho‘qqilar ustida yengillanib qolgan oppoq qorlar bor edi, xolos. Tog‘lar ortidan o‘zligini olamga ko‘z-ko‘z qilib, ko‘kning yarmini nurga burkab bahor quyoshi ko‘tarila boshladi. Butun bepoyon Oqsoy o‘zining barcha o‘tloqlari, yalangliklari, adirlari-yu past-balandliklari bilan uzoq-uzoqlargacha ko‘zga yaqqol tashlanib turardi. Biroq ular o‘zlari yonbag‘rida tug‘ilib o‘sgan Ulug‘ Manas tog‘lari, zotan bu g‘ayritabiiy bir hol bo‘lsa-da, go‘yo tunda ularga yaqinroq kelib qolganday, shu oqshom tog‘lar Oqsoyga qarab ular tomon siljiganday, qo‘shchilar tongda turib tog‘ning ulug‘ligi, go‘zalligi va qudratini ko‘rib hayratlanishlari uchun siljiganday tuyulardi.

Yaqin-yiroqda, yonginalarida, ufqning qo‘l yetmaydigan joylarida tog‘ tizmalari jilvalanardi...

Ha, Oqsoyda o‘sha kuni ajoyib tong otdi. Yer shabadada singisin deb, ular shudgorlashga shoshilmay chiqishdi. Bu vaqt ichida otlarga qarashdi, abzallarni tuzatishib, ho‘l bo‘lib ketgan pichanni yoyishdi. Kun tezda isib ketdi. Ular shundan so‘ng pluglari tomon jo‘nashdi. Pluglar kechagi egatlarga botib qolgan edi. Plugning har birini uch kishilashib tortib chiqarishdi, tishlarini tozalashib, g‘ildiraklarini yog‘lashdi. Keyin otlarni qo‘shishib, bugun kechgacha bu paykalning shudgorini tugallashni, ertaga esa boshqa uchastkaga jo‘nashni o‘yladilar. Ish qizigandan qizib ketdi. Tuni bilan dam olgan otlar saharlab parvarish qilinganligi uchun ildam ishlardi. Otlar og‘ir pluglarni tortib borishardi. Ammo kechagi qorda qilingan shudgor o‘zini oqlagan — tuproq shabadada selgib qolgandi, qor aralash ag‘darilgan qatlamlar quyosh nurlari ostida xamirday ko‘pchib yotardi. Demak, tuproq “buzilmagan”, bezdek bo‘lib qolmagan. Demak, shudgor ko‘ngildagiday bo‘libdi.

O‘sha kuni ajoyib o‘tdi. Shunday kunlar bo‘ladiki, agar ishing yurishib ketsa, hayot shunday maroqli, ko‘ngilli, ajoyib va ayni vaqtda oddiy bo‘lib tuyuladi. Bekorga qish bo‘yi tayyorlanishmagan, mehnat qilishmagan va buning uchun maktabni tashlashga majbur bo‘lishmagan ekan; mana endi Oqsoy otryadi harakatda, pluglar esa ishlamoqda, yana bugun Ergash va Qubbatqullar kelishlari kerak. O‘shanda ularda beshta plug bo‘ladi, bu esa o‘nta tish degani. Ana kuch. Ana o‘shanda haqiqiy desant desa bo‘ladi! Undan so‘ng urug‘ sepib, maydonlarni boronalashadi, ana o‘shanda hosilni kutaver! Bahorgi bug‘doy ajoyib bo‘ladi. Chekish brigadir bahorgi hosil unumdor bo‘lmasa ham, ammo nonlar ichida eng shirini bo‘ladi, deydi. Ishimiz o‘ngidan keladi. Yomg‘ir yog‘adi. Shuncha mehnat qilingandan keyin yomg‘ir tixirlik qilishi mumkin emas. Yomg‘ir yog‘adi, faqat u yoqda, frontda bardosh qilsalar, hujumga o‘tsalar bo‘lgani, baxtimizga bu hosil tomog‘imizda turib qolmasa bo‘lgani...

Ular paykal uzra ana shunday borishardi. Oldinda Sultonmurot, ortda, ikki yuz qadamcha narida Onatoy va yarim chaqirim narida Erkinbek borishardi...

Quyosh qizigandan qizirdi. Tepaliklardagi yam-yashil maysalar tovlanardi. Xuddi ertakdagiday u yoqqa o‘tsang ham, bu yoqqa o‘tsang ham, qarshing ham ko‘m-ko‘k. Tuproq yangilanib yengil nafas olardi. Pluglar esa Oqsoydan ortida xuddi uzun kokilga o‘xshash yangigina olingan izlarni qoldirib borardi...

Oyoq ostidan “pirr” etib to‘rg‘ay uchdi. Qush sayray-sayray yaqinginaga qo‘ndi va yana qayerdadir boshqasi sayray ketdi, ularga allaqayoqda yana bir to‘rg‘ay jo‘r bo‘ldi. Sultonmurot jilmayib qo‘ydi. Qushlar quvonganlarida sayrayverishadi, uylari ham yo‘q, boshlari ustida yaproq, novda ham yo‘q, kimsasiz cho‘l qo‘ynida o‘z bilganlaricha yashayverishadi. Tag‘in xursand ham. Bahordan minnatdor, quyoshdan minnatdor! Kecha qushlar qayerda edilar-a, yog‘ingarchilikning o‘tishini qanday kutib turdilar ekan? Ha, endi bularning hammasi ortda qoldi. Bahor o‘z haqini endi oladi. Endi ish ham ko‘payadi, bu esa faqat boshlanishi. Nima qipti! Bugun Ergash, Qubbatqullar kelishadi, shunda butun desant birgalikda kirishishsa, ishlari jo‘nashib ketadi...

Otini "chu"lar ekan, to'satdan Sultonmurotning ko'zi narigi tomonda bir otliqni ko'rib qoldi. Otliq shudgor yaqinidan chetlab o'tib, ularga qaragancha tog' tarafga ketmoqda edi. Yelkasida miltiq. Boshida qishki tumoq. Tagida baquvvat, sovitilgan saman. Bolalar ham uni ko'rishdi-da, qichqira boshlashdi:

— Ey, ovchi, biz tomonga otingni bur!

Biroq ovchi indamadi. Ovchi ularga yaqinlashmasdan o'girilib qiyo tashlab ketmoqda edi. Sultonmurot uni ko'rib suyunib ketdi, otni to'xtatib, oyoqlarini uzangiga tirab baqirdi:

— Ey, ovchi, shiralg'a berganing uchun rahmat! Eshityapsanmi, rahmat! Tegish uchun rahmat!

Ammo ovchi indamay, xuddi hech nimani eshitmaganday, tushunmaganday ketaverdi. U tezda tepaliklar ortiga o'tib ketdi. Demak, vaqti yo'q, ishiga shoshilyapti shekilli.

Taxminan yarim soatlardan so'ng yana bir ovchi ko'rindi. U ham tog'ga tomon borar, uning ham elkasida miltiq bor edi. Ammo u boshqa yoqdan, qo'tonning boshqa chekkasidan o'tib borardi. Bu ovchi ham uzoqdan so'rashmay, ularga qaragancha jim borardi. O'zi odat bo'yicha otliq otini burib, qo'shchilarga salomatlik, xirmoniga baraka tilashi kerak edi. Chekish chol hozir odamlar aynib ketdi, deydi. Ehtimol shundaydir. Chekish chol donishmand, uning gapi to'g'ri chiqadi.

Ovchilar o'tib ketgandan so'ng juda hayajonli bir voqea sodir bo'ldi.

Buni birinchi bo'lib Onatoy eshitib qoldi. Yashavor! Ovozining boricha qichqirgan ham Onatoy bo'ldi:

— Turnalar! Turnalar uchyapti!

Sultonmurot yuqoriga qaradi — musaffo, moviy, cheksiz osmon kengligida ohista aylanib, parvoz qila turib saflanib, qurqurlashgancha ovoz chiqarib turnalar uchib borishardi. Katta gala turnalar yuksak parvoz qilishmoqda. Ammo samo undan ham yuksak. Bepoyon osmon kengligi va bu kenglikda xuddi barhayot orol singari suzib borayotgan qushlar to'dasi. Sultonmurot boshini ko'tarib qaragancha birdan ovozining boricha qichqirib yubordi:

— Ura! Turnalar!

Uchalovi ham qushlarning turnalar ekanligini yaxshi ko‘rib turgan bo‘lsalar-da, kutilmaganda, bu katta bir yangilikday bir-birlariga baqirishardi:

— Turnalar! Turnalar! Turnalar!

Sultonmurot turnalarning erta kelishi yaxshi belgi ekanligini eslab qoldi.

— Turnalarning erta kelishi yaxshilik alomati! — baqirdi u ot ustida Onatoyga qayrilib qararkan. — Hosil mo‘l bo‘ladi!

— Nima, nima? — eshitmadi Onatoy.

— Hosil, hosil mo‘l bo‘ladi!

So‘ng Onatoy egar ustida Erkinbek tomonga qayrilib unga qichqirdi:

— Hosil! Hosil mo‘l bo‘ladi!

Erkinbek esa javoban qichqirdi:

— Eshitdim, eshitdim! Hosil mo‘l bo‘ladi!

Turnalar esa hamon uchib bormoqda edilar. Ular samoning moviy og‘ushida cho‘milib, shoshilmay suzar, bir maromda qanot qoqishib, aylanishib, goh vazmin, goh ko‘p ovozla, goh birvarakayiga jo‘r bo‘lishib, bir-birovlarini chaqirishar va yana jimib qolardilar. Shaffof kun og‘ushida ularning silliq bo‘yinlari, ingichka tumshuqlari va ba’zilarining bag‘riga yarim kirgizib olgan, ba’zilarining esa mahkam siqib olingan oyoqchalari yaqqol ko‘zga tashlanib turardi. Goho qanotlari chetlaridagi oppoq patlarining uchlari ko‘zga chalinib qolardi. Ana shunda qushlarni tomosha qila turib, qo‘shchilar galaning sekin-asta pastlayotganini sezib qolishdi. Turnalar borgan sari pasayib yerga yaqinlab borar, go‘yo ularni qandaydir oqim o‘sha tomonga, uzoq tepaliklarga haydab borayotganday edi. Sultonmurot umri bino bo‘lib turnalarni bunday yaqindan ko‘rmagan edi. Turnalar hamisha sharpa singari, xuddi tushdagiday bosh uzra suzib o‘tishardi.

— Qara, qo‘nishyapti, qo‘nishyapti! — qichqirdi Sultonmurot va uchovlari ham egarlardan sakrab tushishib, ulovlarini qoldirganlaricha turnalar qo‘nayotgan yerga qarab chopishib ketishdi.

Ular oyoqlarini qo‘llariga olib, jonlari boricha yugura ketishdi! Ular turnalarni yaqindan ko‘rgilari kelardi: qanaqa ekan-a? Zo‘r bo‘ldi-da! Eh, Sultonmurot shunday tez yelardiki! Yer oyog‘i ostida

poyandoz, o'zi unga peshvoz edi. Yer bilan birga qorli tog'lar ham uning istiqboliga yugurar, ko'z uzmay kelayotgan turnalar galasi ham ko'kda charx urib, unga peshvoz uchib kelishmoqda edi. Yugurib, quvonib, nafasi bo'g'ilar, yuragi suyunchga to'lib, turnalarni quvarkan, agar qushlar patini tushirib qoldirguday bo'lishsa, saqlab Mirzagulga sovg'a qilishni va qizga bu voqeani ipidan ignasigacha hikoya qilib berishni xayol qilardi. Faqat yetib olsa, turnalarni ko'rsa bo'lgani edi. U Mirzagulga nisbatan qalbida quyilib kelayotgan mehrni tuygancha chopib borardi. Agar iloji bo'lsa edi, u hozirning o'zida turna pati bilan to'ppa-to'g'ri Mirzagulning oldiga yelib borardi... Turna pati bilan to'ppa-to'g'ri qizning oldiga...

O'N BIRINCHI BOB

Ular yugurib borishar, shafqatsiz bir nigoh esa miltiqning mo'ljal nuqtasidan mushkani ularning biridan ikkinchisi, uchinchisiga to'g'rilab ta'qib etardi. Bu nigoh miltiqning nishoni bo'ylab turnalar tomon yelib borayotgan bolalarni mo'ljalga olar edi. Pritseldan tashqaridagi yer bepoyon, ular esa chayqalib turgan mushka qarshisida shunday zarralar edilarki... Ularning tepasidagi osmon pritselda naqadar katta, bolalar esa mushka uchida shunchalik kichkina ko'rinardiki... Tepkini bossang, vassalom, ular yo'q bo'ladi... Bularning hammasi bir daqiqada yo'q bo'lishi mumkin va ular pritselda milt-milt etmay qo'yardi, faqat buning uchun tepki bosilsa bo'ldi edi.

— Eh, hozir ularni yer tishlatib, birvarakayiga tutday to'kib qo'yardim, hatto ovoz chiqarishga ham ulgurolmay qolishardi, — nafasini ichiga yutib g'o'ldiradi mo'ljal olib turgan odam.

— Bas qil, tentak! O'q bilan o'ynashib bo'ladimi, bekorga mo'ljalga olma, — dedi unga o'sib to'qay bo'lib ketgan, xuddi bo'rining inini eslatuvchi tepalik ostidagi ko'raylar ichida otlarni jilovidan tutib turgan ikkinchi ovchi.

Mo'ljalga oluvchi kishi hamon miltiqni mo'ljaldan olmay, lunjini shishirgancha jimib qoldi.

— Haddingdan oshma, deyapman senga, — buyruq berdi unga otlarni ushlab turgani. — Chopishib-chopishib qaytib ketishadi. Senga nima?

U quloq solmadi. Dag'al soqolli dahanini miltiq qo'ndog'iga qo'yib, pritsel orasidan turnalarning qichqiriqlaridan mast bo'lib yugurayotgan beaql bolalarni ta'qib etishdan maza qilardi. Uning jahli chiqa boshladi. Bolalarning chopishib kulishini-chi! Suyunishlarini ko'r. Uchta o'q bilan qiyratib tashlasa, qimir etmay qolishardi. Chopishadi — kulishadi! Biron sababi bormi desang. Chopishadi — kulishadi...

Plugchilar halloslab adirga yaqinlashganlarida turnalarning yana tepaga ko'tarilishayotganini ko'rib qolishdi... Demak, niyatlari o'zgaribdi. Balki ularga turnalar qo'nayotganday tuyulgandir?

Bolalar nafaslarini rostlab to'xtab qolishdi. Ularning hafsalalari pir bo'ldi. Sultonmurot esa yana ancha yergacha chopib bordi va turnalar galasini ko'zlari yoshlanib kuzatgancha to'xtab qoldi...

So'ngra ular ortlariga qaytishib, yana Oqsoy yerlarini shudgor qila boshlashdi. Bugun kun juda yaxshi bo'ldi. Tushga yaqin otlarga xashak olib kolxoz aravasi kelib qoldi. Aravakash ularga kartoshka, go'sht, un, o'tin olib kelibdi. U Chekish brigadirning o'zi ertaga Ergash, Qubbatqullarni ulovi bilan olib kelishligini aytdi. Chekish brigadir, bolalarga ayt, jahllari chiqmasin, hammasi hal bo'lgan, ertaga desant to'liq sostavda bo'ladi, debdi. Albatta bo'ladi, deb yana va'da beribdi. Bir-ikki kundan keyin ularning oldiga, Oqsoyga rais Tinaliyev ham kelarkan. Aravakash mana shunday xabarlar olib keldi. Tushda hammalari birga ovqatlanishdi, so'ng yana shudgorlashga jo'nayotganlarida oshpaz kampir Sultonmurotga ovulga bormoqchi ekanligini, ertaga Chekish brigadir bilan birga qaytib kelishini aytib qoldi. Ovulda uning qandaydir zarur ishi bor emish va yana kir yuvish uchun sovun olib kelishi kerak emish. Bolalarning och qolmasligi uchun kun bo'yi yetadigan non yopib va yana go'ja pishirib qo'yganmish, uni isitib ichishlari ham mumkinmish. Sultonmurot kampirning ketishini hech xohlamasa ham chor-nochor rozi bo'ldi, keksa odamning yo'lini to'sib, tortishib o'tirarmidi. Shundan so'ng qo'shchilar yana o'z pluglari tomon jo'nashib, kun botguncha ishlashdi. Kech bo'lganda shudgorni tamomlashdi. Endi bemalol tomosha qilsa arziydi — katta bir maydonni shudgordan chiqarib qo'ydilar. Bu endigina birinchi maydon, ehe, yana hali qanchasi bor. Boshlamasi tayyor. Demak, oxiri ham bo'ladi.

Oxirgi paykalni g'ira-shira qorong'ida haydab bitirishdi, qayrilishlarda qolib ketgan yerlarni shudgorlashib uzoq ivirsimay, ertasiga sahardan yangi maydonda ish boshlash uchun pluglarni u yerga olib borib qo'yishdi.

Otlarni chiqarib, shiyponga kelgunlaricha qosh qorayib qoldi. Shiypon huvillab yotibdi. Kampir allaqachon ketgan. Ha, mayli, ertaga keladi-ku.

Kun bo'yi rosa charchashdi. Shoshilmay bo'yinturuqlarni bo'shatib, ularni otlarning bo'ynidan olishib, jabduqlarni yechishdi-da, har kim o'z joyiga o'tovga olib kirishdi. O'n ikki bosh otlarning barini ham o'z joylariga, shiyponga, oxur vazifasini o'tash uchun keltirilgan g'ildiraklari yo'q eski aravaga bog'lashdi. Ha, har bir otni joy-joyiga arava ichidagi xashakka to'g'rilab bog'lab qo'yishdi. Ertalab otlarning qotib qolgan terlarini tozalash uchun barvaqtroq turishga qaror qilishdi. Qorong'ida yuvinishib, keyin o'tovda gulxan yoqishdi-da, uning yorug'ida go'jani isitishga erinib sovuqligicha ichishdi.

Uxlashga yotishdi. Sultonmurot hammadan keyin uxladi. Uyqu oldidan u yana bir bor otlarni ko'zdan kechirgani o'tovdan chiqdi. Otlar tumshuqlari xashakda, quruq bedani qurt-qurt chaynab, pishqirganlaricha jimgina turishardi. Ha, boshma-bosh, oltitadan otaravaning har tarafida jimgina turishardi. Havo ochiq bo'ladiganga o'xshardi. Oy borgan sari kichrayib bormoqda edi...

Sultonmurot negadir bir nimadan cho'chib, ozgina aylandi. Kimsasiz sokinlik, cheksiz zim-ziyo kecha. Ish bilan, tashvishlar bilan bo'lib, kimsasiz cho'l bag'ri shunchalik qo'rqinchli ekanligini sezmagan ekan. U o'tovga qaytishga shoshildi. Joyiga yotib uzoq paytgacha uxlayolmadi. Birdan uyini sog'inib, yuragi g'ash bo'lib qoldi. Usiz onasining uyoqda holi qanday kechayotgan ekan? Otasidan hanuzgacha hech qanday darak yo'q. Agar biror xabar bo'lganida bugun aravakash unga yetkazib suyunchi so'ragan bo'larmidi? Nimani so'rasa, berardi. Biroq, nimani berardi? Bu yerda hech vaqosi yo'q. Yarim qop bug'doy va'da qilardi, axir kuzda kolxoz ularga bug'doy beradi-ku, ana shuni berardi-da unga. Shularni o'ylab u og'ir xo'rsindi. Ajimurot undan: agar otam urushdan qaytsa, ikkalamiz Chopdorga minib uni kutib olgani

stansiyaga chopamiz, Sultonmurot kattaligi uchun oldinda, Ajimurot esa orqasiga mingashib borishi haqida undan va'da olganini esladi. Otasini kutib olgach, unga Chopdorni berib, o'zlari esa otasi bilan yonma-yon yugurishlarini, onasi va boshqa uzoq-yaqin kishilar ularga peshvoz chiqishini tasavvur qildi... Eh, qani edi shunday baxtga muyassar bo'lganida edi, u Chopdorni plugdan chiqarib choptirib ketardi... Keyin evaziga yuz hissa ko'proq ishlab berardi.

Sultonmurot asta yig'lay boshladi, chunki bunday baxt, ehtimol, hech qachon ro'y berishi mumkin emasligini g'ira-shira anglardi...

So'ngra u Mirzagul bilan soy bo'yida uchrashganini eslab qorong'ida jilmaydi. Hatto hozir ham qizning qo'llari taftini, go'yo o'sha qo'llarning unga: "Men xursandman! Men juda baxtiyorman! Mening qanchalik baxtiyor ekanligimni nahot sezmayotgan bo'lsang!" — deganini esladi. Qizga tikilarkan, uning qiyofasida o'zini ko'rganligini ham va Mirzagul o'zi ekanligini sezib qolib hayratlanganini ham yodga oldi. Mirzagul hozir uxlayotgan bo'lsa kerak. Ehtimol, mana shu daqiqalarda Mirzagul ham u haqda o'ylayotgandir. Axir Mirzagul bu Sultonmurot-ku. Sultonmurot gimnastyorkasi cho'ntagidagi Mirzagulning ro'molchasini paypaslab, silab qo'ydi...

Shunday o'ylar bilan uni mudroq bosib uyquga ketdi. Qattiq uxlab qoldi. So'ng to'satdan uni qandaydir yomon tush chulg'ab oldi. Kimdir uni bo'g'ganicha qo'lini qayirardi. U shunda uyg'onib ketdi, qo'rqqanidan baqirishga ham ulgurolmadi. Kimningdir achchiq maxorka hidi anqib turgan katta qattiq kafti uning og'zini berkitdi.

— Joningdan umiding bo'lsa jim bo'l! — dedi xirillab uning qulog'i ostida maxorka hidini anqitib, pishillagancha qo'pol bir odam. U odam temirday panjalari bilan Sultonmurotning jag'ini sindirguday pastga bosib, og'ziga latta tiqdi. Sultonmurot o'ziga kelganda qo'llari arqon bilan orqasiga bog'lab qo'yilgan edi. Uni sovuq ter bosib, o'zidan o'zi titray boshladi. O'tovdagi bu ikki odam kim, nega uni bog'lab qo'yishdi?

— Bunisi tayyor, — shivirladi biri ikkinchisiga.— Narigilariga ketdik.

Ular Onatoy yotgan tomonda qorong'ilikda paypaslanishdi. Onatoy qichqirib tipirchiladi-yu, ammo uni ham chandib tashladilar.

Erkinbekning esa boshiga tushirishdi shekilli, u bir ingrab jimib qoldi.

Sultonmurot hamon nima bo'layotganini tushunmasdi. Latta og'zini berkitib qo'yganidan u bo'g'ilar, qo'llari arqonda qisilib og'rirdi. O'tov zulmat og'ushida edi. Biroq bu odamlar kimlar, nega ular bu yerga kelishdi. Ular nima uchun bunday qilishyapti, niyatlari nima, balki ularni o'ldirishmoqchidirlar? Nega?

Sultonmurot qutulmoqchi bo'lib tipirchilardi. Shunda bu odamlardan biri uni tizzasi bilan bosib, temirday barmoqlari bilan kallasiga niqtagancha sekin dona-dona qilib dedi:

— Ko'pam shattalayverma. Eshityapsanmi? Sen bu yerdagilarning kattasiga o'xshaysan. Biz javobga tortilmasligingiz uchun sizlarni bog'lab tashladik, sizlarning bu yerda daxlingiz yo'q. Uqdingmi? — dedi u hamon temirday barmoqlari bilan uning kallasiga chertib. — Aql ishlatsalaringiz hammasi joyida bo'ladi. Sizlarni bu yerdan topishganda voqea qanday yuz bergan bo'lsa, hammasini shunday aytib berasizlar. Sizlarni qanday qilib so'roq qilishlari mumkin? Ammo kimki hozirdan hammadan burun biror harakat qilib tipirchilaydigan bo'lsa, itday savalab tashlayman. O'ldiraman! Jim yotinglar. O'lib qolmaysizlar.

Ular qattiq hansirashib, so'kinishib, tupurishgancha o'tovdan chiqib ketishdi. Sultonmurot ularning otlar bog'log'liq turgan joyda nimadir qilishib, paypaslanayotganlarini, otlarning qo'rquvda tipirchilayotganlarini eshitdi. Birozdan so'ng ko'plab tuyoqlarning taqillashi, qamchi ovozlari aralash yana qandaydir so'kinishlar eshitildi-yu, tuyoqlarning ovozi uzoqlashib, tez orada butunlay eshitilmay qoldi.

Faqat shundagina Sultonmurot sodir bo'lgan voqeaning dahshatini tushunib yetdi. O'g'rilar ularning qo'shchi otlarini haydab ketishgandi! Alam va g'azab yuragini o'rtab yubordi. U qo'llarini bo'shatishga urindi-yu, ammo hech narsa qilolmadi. Nafasi qisilib, boshini u yoq bu yoqqa burib, tili bilan og'zidagi lattani itara boshladi. Og'ziga xuddi o't solib qo'yilganday alanga olib, nafasi qaytib, qon oqa boshladi. Nihoyat og'zidagi la'nati lattani tupurib tashlashga muvaffaq bo'ldi. Go'yoki ozodlikka chiqqanday bo'ldi. O'pkasini to'ldirgan havodan boshi aylanib ketdi.

— Bolalar, bu menman! — qichqirdi u kallasini ko‘tarib. — Menman! Men gapiryapman!

Biroq hech kim unga javob qaytarmadi. U Onatoy, Erkinbek joylarida qimirlab qo‘yganlarini eshitdi.

— Bolalar, — dedi u shunda, — qo‘rqmanglar. Men hozir. Hozir biron narsa o‘ylab topaman. Faqat menga quloq solinglar. Onatoy, qimirlagin, qayerdasan?

Onatoy inqillab, tipirchilab o‘rnidan tura boshladi.

— Shoshma, Onatoy! Joyingda tur! — Sultonmurot kiyimlar va jabduqlar ustidan u tomonga otildi.— Endi orqang bilan menga suyan, qo‘llaringni qo‘y. Eshityapsanmi, qo‘llaringni qo‘y...

Ular orqama-orqa yotishdi. Sultonmurot do‘stining qo‘lidagi arqonni paypaslab topdi. Onatoyga qanday yotish, o‘girilishni aytib, o‘zi arqonning tugunlarini topishga tutindi. Onatoyni og‘riqqa chidashga undab, o‘zi oxiri qandaydir tugunni topib, uni tortib yuborgan edi, arqon bo‘shadi. Endi Onatoy qo‘llarini o‘zi bo‘shatib oldi...

O‘N IKKINCHI BOB

Ot o‘g‘rilari shoshilmay ketishardi. Ular otlarni goh yo‘rttirib, goh yo‘rg‘alatib borishardi. Qorong‘ida otlarni choptirib bo‘lmaydi, keyin buning hojati ham yo‘q edi. Ish silliq ko‘chdi. Kimdan qochishsin — go‘dak bolalardanmi? Yuz chaqirim atrofda esa tirik jonning o‘zi yo‘q. Bolalar esa tupkanning tagida bog‘log‘liq yotishibdi. Haliyam ishni bunday ko‘chganidan taqdirdan minnatdor bo‘lishsin... Ular to‘rtta otni olib ketishmoqda edilar. Har qaysilariga bir juftdan bo‘ladi. Boshqa olib bo‘lmasdi. Xudo ko‘rsatmasin, shu yog‘ini ham hazm qilib olishsa bo‘lgani edi... Kimsasiz joylardan uzoq yurishlari kerak. Toshkent atroflariga borishning o‘zi uch kunlik yo‘l. Yana u yog‘iga qancha yo‘l yurish kerak. Yetib olishsa bo‘lgani. U yog‘iga ish oson ko‘chadi. Toshkentdagi Oloy bozorida go‘shtni kilolab emas, misqollab sotishadi. U yerdagi odamlar savdoning tilini bilishadi, uquvli. Birovga oshirib yuborishadi. Endi buyog‘i ularning ishi. Ammo hozir go‘shti tillaga baravar bo‘lib turgan to‘rtta semiz otning pulini olib ketishning

o‘zi bo‘larmikin? Hazildan tashqari, bu jumboq! Shuncha pulni nima qilishadi! Rosayam o‘marishdi-da! Tezroq bo‘la qolishsa edi. Endi topib bo‘lishibdi. Pul bo‘lsa juftakni rostlash qiyin emas. Ketishlari, qo‘lga tushmasdan burun allaqachon bu yerdan juftakni rostlashlari kerak edi. Ushlasa — tamom! Tribunal! Endi tutib bo‘lishibdi! Pul bo‘lsa, changalda sho‘rva. Toshkentning naryog‘ida, ehe, yana qancha shaharlar, yerlar bor-u...

Taqdir deb bekorga aytishmaydi. O‘ziyam bo‘laricha bo‘lgandilar. Qani qorbo‘ron, qahratonda tog‘da kezib ko‘r-chi, ana u arxarni qo‘lga tushirib ko‘rchi, qo‘lga tushirganingda-chi, go‘shti bu paytga kelib nimaga yarardi, oriq, quruq chandirning o‘zi. Tishing o‘tmaydi. Buning ustiga, patronlar ham tugab bo‘lgan edi. Uzoqqa borisholmasdi.

Shunday paytda xuddi osmondan tushganday bu bolalarning pluglari bilan paydo bo‘lishi kimning xayoliga kelibdi. Xudoning ularga yuborgan in’omi! Olloh bor, u tepamizda muqarrar, — har kimning rizq-nasibasini bo‘lib qo‘ygan.

Bir chekkadan tanlamay olaverishdi, otlarning bari terib olinganday, barining qovurg‘alarida ikki enli yog‘, bunaqasini olamni aylanib chiqsang ham topolmaysan. Hil-hil go‘sht bo‘ladi, yeb to‘ymaysan. Xudo bor, u tepamizda muqarrar! U rizq, o‘lja yubordi, omad yubordi!..

Ular shoshilmay borishardi. Otlarning vaznini yo‘qotishga zarurat yo‘q edi. Bunaqa otlar Oloy bozoridagi qassoblarning tushlariga ham kirmagan. Pulni ber-u, olaver, ochofatlar!

Mana, samanlar oldindan tayyorlab qo‘yilgan jilovlarda to‘rtovlari yo‘rtib, pishqirishib borishyapti, qani endi o‘zlarini qayoqqa olib ketishayotganini bilishsa edi. O‘g‘irlab olib ketish ham oldindan o‘ylab qo‘yilgan. Yilqilarni to‘dasi bilan haydab bo‘lmaydi, tarqab ketishadi. Biri o‘rtada jilovni qo‘lida tutganicha egarda o‘tirib olgan, uzun jilovlardagi otlar esa ikkitasi chap tomonida, ikkitasi o‘ngda borardi.

Ortda malla ot minib olgan sherigi esa qamchi bilan tezlab haydab, to‘xtashga yo‘i qo‘ymasdi. Faqat bir maromda, sekin ham emas, tez ham yurishmay ketishardi. Aql bilan, faqat aql bilangina ish yuritish talab qilinardi...

O‘N UCHINCHI BOB

Chopdor joyida turardi, Sultonmurot o‘tovdan chiqa solib, Chopdorga mindi-da, atrofga alanglab qichqirdi:

— Onatoy, ovulga chop! Imillamay yugur! Odamlarimizni chaqir! Men ularni alahsitib turaman! Ularga yetib olaman! Faqat sen tezroq bo‘l. Sen, Erkinbek, shu yerdan bir qadam ham siljima. Uqdingmi! Chop, Onatoy, chop!..

O‘zi esa Chopdorda uzoqlashib borayotgan otlarning tuyoq tovushlarini tusmollab o‘g‘rilar tomon yelib ketdi.

Tezroq, tezroq, Chopdor, og‘ajonim, olg‘a, ularni quvib yet! Men yiqilib tushmayman, mayib ham bo‘lmayman! Men uchun xavotirlanma. Olg‘a, Chopdor! Agar o‘lsak birga o‘lamiz, faqat tezroq chop, tezroq, tun qorong‘i, tushunaman. Qo‘rqinchli, senga ham qo‘rqinchli. Baribir olg‘a boraver. Tezroq, tezroq! Qani ular? Oldinda yiltirab ko‘rinayotgan narsa nima? U yoqda nimadir qimirlayapti, qo‘ldan chiqarib yubormasak bo‘lgani. Olg‘a, Chopdor, olg‘a... yiqilib qolmagin-a, Chopdor, yiqilma...

O‘N TO‘RTINCHI BOB

— Quvishyapti! — qo‘rquv aralash qichqirdi yaqinlashib kelayotgan ot dupurini eshitgan o‘g‘rilardan biri.

So‘ng ular jilovni bo‘sh qo‘yishib, avvaliga otlarni yo‘rg‘alatib, keyin choptirib ketishdi. Endi salqinlashga vaqt yo‘q. Tavakkal, bo‘lganicha bo‘lar. Endi qochish kerak, orqa-oldga qaramay qochish kerak.

Oldindagisi olib ketayotgan otlarning yuganini o‘ziga tortib egarga engashdi. Orqadagi sherigi esa kuchining boricha qamchilab otlarni shoshirardi. Chopib borayotgan otlar tuyoqlari dukuridan yer larzaga keldi. Quloqlar ostida shamol hushtak chalardi. Tun cheksiz, qop-qora pishqirib oqayotgan to‘lqinli daryo singari shitob bilan ularga peshvoz yelardi.

— To‘xta! Qochib qutulolmaysanlar, to‘xta! — deya qichqirardi Sultonmurot ularga borgan sari yaqinlashib borarkan. Lekin uning tovushi quturib chopib borayotgan otlar shovqin-suronidan uzuq-yuluq eshitilardi, xolos.

Chopdor! Otlarning asili Chopdor! Otasining Chopdori! Qanday edi u! Xuddi quvib yetmasligi mumkin emasligini aniq sezganday, Oqsoydagi bu tungi poygada yiqilishiga haqi yo‘qligini tushunganday edi. Sultonmurot ot o‘g‘rilariga tezda yon tomondan yetib oldi, otlarni jilovidan ushlab borayotganliklari uchun qochib qutulish ularga unchalik oson emasdi.

— Otlarimizni qaytarib beringlar! Beringlar! Biz ular bilan yer haydaymiz! — baqirardi Sultonmurot.

O‘g‘rilarning biri chopib borayotib otni chetga burdi, otdan ag‘darmoqchi bo‘lib yirtqichday unga tashlandi. Ammo Chopdor chap berib qoldi. Barakalla, Chopdor, barakalla! O‘zini ta’qib qilayotgan ot o‘g‘risidan qochib Sultonmurot oldinga o‘tib oldi, yonboshidan borib, oldingisini qisib, otni qayirishga intila boshladi:

— Qayt orqaga! — baqirdi u.

— Qoch, o‘ldiraman! — qichqirdi unisi otini burib, ammo Sultonmurot yana o‘g‘rining oldini kesib chiqar va uni qisib borib, to‘g‘ri ketishga xalaqit berardi.

Ular shu zaylda borishardi. Sherigi har gal uni quvib yuborar, Sultonmurot esa goh u, goh bu tomondan o‘tib yo‘lni kesgancha ularning qochishiga xalaqit berardi. Shundan so‘ng birdan o‘q ovozi eshitildi. Sultonmurot uni eshitmadi, faqat yarq etgan o‘tni va bir daqiqa yorishib ketgan bepoyon Oqsoy bo‘shliqlarini, yonidan vahshiylarcha chopib o‘tayotgan qop-qora otlarni va odamlarni ko‘rib hayratlanishga ulgurdi, xolos.

O‘zi esa bir chekkaga otilib ketdi va toshday yerga urilib umbaloq oshib tushdi, so‘ng oyoqqa turib, shu zahotiyoq tagidagi oti qoqilib ketmaganligini tushundi. Ot kallasi bilan yerga urilib yonboshlagancha xirillar, go‘yo hamon chopishga intilayotganday jonholatda tuyoqlarini ko‘tarishga urinardi...

Sultonmurot og‘riq va g‘azabdan joni boricha baqirib, nima qilayotganini o‘zi ham bilmay ot o‘g‘rilari izidan chopdi:

— To‘xta! Qochib qutulolmaysanlar! Yetib olaman! Sizlar Chopdorni o‘ldirdinglar! Otamning oti Chopdorni nimaga o‘ldirasanlar!

U o‘zini bilmay g‘azab va jon-jahdi bilan yugurar, ularning ortidan xuddi yetib oladiganday, to‘xtatib orqaga qaytarib qola

oladiganday quvib borar edi. O‘g‘rilar qochmoqda, ot tuyoqlari qorong‘ida taqillab, borgan sayin uzoqlashmoqda, u bo‘lsa jahl ustida murosa qilishni xohlamay, hamon quvib bormoqda edi. U yeldek uchib borar, butun vujudi qizishib, badanlari achishib, ayniqsa qip-qizil qonga botgan qo‘llari lovillab quvib borayotganday tuyulardi. U shuncha tez, shuncha ko‘p yugurgani sayin yuzi va qo‘llari shunchalik yonar edi...

Oxiri u yiqilib tushdi, bo‘g‘ilib entikkanicha yumalab keta boshladi. Chidab bo‘lmas darajada og‘riyotgan yuzi, qo‘llarini qo‘ygani joy topolmasdi. Uning g‘azabi qaynab, bu tunni la’natlar, ko‘zlarida cheksiz alamli alanga bilan ingrab, fig‘on chekardi.

U otlarning tuyoq tovushlari asta-sekin uzoqlashib borayotganini eshitib turardi. Yer borgan sayin uzoqdagi tuyoq tovushini yutganicha zaiflik bilan sekin titrardi. Tez orada atrofdagi hamma narsa tinchib, jimib qoldi... Shunda u o‘rnidan turib, orqaga tisarilgancha, alam bilan ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Endi o‘zini hech nima va hech qanday yo‘l bilan ovutolmas, kimsasiz tungi Oqsoyda esa uni yupatadigan hech zog‘ yo‘q edi. U yig‘i aralash Ajimurotni o‘zi bilan otasi urushdan qaytganda kutib olgani birga chiqamiz, deb va’da berganini esladi. Yo‘q, endi hech qachon Ajimurot bilan otasi frontdan qaytganida Chopdorga minib, otni choptirib uni stansiyada kutib olisholmaydi. Ular endi Oqsoy yerlariga mo‘ljaldagi donni eka olishmaydi. Endi ular tishlari oynaday yaltiragan pluglarni sudrab Oqsoy dalalaridan qaytganlarida tantanali, quvonchli kun bo‘lmaydi. Mirzagul ham shod-u xurram bo‘lib ko‘chaga chiqmaydi, uning ovulga kirib borishini ko‘rmaydi ham, hayratlanmaydi ham. Umidlari chil-chil bo‘ldi. U shuning uchun yig‘lamoqda edi...

O‘N BESHINCHI BOB

Shamolda issiq qon hidini tobora aniqroq iskab borayotgan bo‘ri borgan sari ishtahasini karnay qilib yuborgan o‘sha is anqiyotgan joy tomonga dumini qisganicha chopib borardi... Qish bo‘yi ozib qolganiga qaramay bu keksa yirtqich hamon bahaybat edi. Oqsoydan sayg‘oqlar ketgunlaricha qishni bir amallab o‘tkazardi. Endi esa sayg‘oqlar urchigani Oqsoydan katta qumloqqa ketishgan.

Yosh bo'ri galalari bo'lsa tog'larda holsizlanib qolgan arxarlarni so'qmoqlarda tutib yurishibdi. Qari bo'ri eng og'ir damlarni boshidan kechirardi. U qishki uyqudan keyin sug'urlarning paydo bo'lishini kutardi. Kunlab, soatlab kutardi. Sug'urlar yaqin kunlar ichida oftobga chiqishlari kerak edi. Bu o'limdan qutulish demak edi. Sug'urlar yer ostida, o'zlarining chuqur, tubsiz inlarida shunchalik uzoq yotgandiki! Bu kunlarda Oqsoyda bo'ri qanchalik ochlik va zerikish bilan yashamadi!

Bo'ri o'ljaning begona bo'lishidan cho'chigandek qonning o'ziga tortuvchi hidi tomon yelib borardi. Bu yo katta o'lja, yo otning jasadi edi. Ter va go'sht hidi uning boshini aylantirib, mast qilib qo'ygandi! Bu bo'ri umr bo'yi to'dasi bilan uch yoki to'rt martagina otlarni quvishga muvaffaq bo'lgandi, xolos. Bo'ri yarim ochiq og'zidan so'lagini oqizib, bo'mbo'sh oshqozonida qattiq og'riq sezganicha chopib borardi. Bo'ri bulutli tong g'ira-shirasida chopib borayotgan oqish soyaga o'xshab yelardi.

Bo'ri shundoq chopib borishda o'ljasi ustiga tashlanmoqni qanchalik xohlamasin, ko'nikma ko'nikmaligini qildi — o'zini tutib, uzoqdan o'ljasi atrofini bir aylanib oldi. Aylandi-yu, dovdirab qoldi — o'lik ot yonida odam bor edi. Odam qo'rqib o'rnidan turdi.

— Ey! — baqirdi Sultonmurot yerni tepib.

Bo'ri tislanib, dumini oyoqlari orasiga qattiq qisib, xohlamaygina, bir chetga qochdi. Ketish kerak edi. Odam turibdi. Odam o'ljani olib ketishga xalal beradi. Bo'ri sal nariroq qochib borib birdan to'xtadi-da, past ovozda ulib odamga yuzlandi. Bo'rining ko'kish, besaranjom ko'zlari qahr bilan yonardi. Kallasini egib, tishlarini g'ijirlatib, g'azab bilan sekin-asta yaqinlasha boshladi.

Sultonmurot bo'rini xatarga soluvchi qichqiriq bilan to'xtatdi va Chopdorning boshidan yuganini yechib olishga ulgurdi. U tezda yugan bilan og'ir temir suvliqni o'rab dastak qilib oldi. Endi suvliq uning quroli bo'lib qoldi.

Bo'ri yana ham yaqinroq kelib yerga yotib oldi, junlarini hurpaytirib, sakrash oldidan xuddi qisilgan prujinaday qotib qoldi.

Sultonmurot umrida birinchi marta o'z yuragining urishini yaqqol eshitdi — u ko'ksida qattiq qisilib turgan yumaloq narsaga o'xshab tepardi... Sultonmurot yuganni qulochkashlagancha, xiyol engashib, kurashga shay bo'lib turdi...

JAMILA

Har gal safarga chiqishim oldidan kichkina yog'och ramkaga solingan surat oldida turish menga odat bo'lib qolgandi. Ertaga ovulga jo'nashim kerak. Mana, hozir ham o'sha suratga tikilib, go'yo undan oq yo'l tilayotgandek ko'zimni uzolmay, uzoq termilib qoldim.

Suratni hali biron marta ham ko'rgazmaga qo'yganim yo'q. Ovuldan qavm-qarindoshlarim kelishganida ko'rib qolishmasin, deb yashirib qo'yaman. Demak, suratda biror nojo'ya narsa tasvirlangan ekan, deb o'ylamang tag'in, uning iymanadigan, shuningdek, bu bir nodir asar, "ko'z tegadi" deydigan hech joyi ham yo'q, shunchaki o'rgamchikka chizilgan bir surat. Unda oddiy dala manzarasining aynan tasviri berilgan, xolos.

Suratning orqa planida so'lg'in kuz osmonining chekkalari oqarib ko'rinadi. Shamol parq-u bulutlarni uzoq-uzoqlarga, qorayib ko'ringan tog' cho'qqilari sari haydab borardi. Suratning old qismida sarg'ish libos kiygan bepoyon dala, keng daryo tasvirlangan. Yog'in-sochindan keyin po'rsillab yotgan, chekkalaridagi qamishlar bir-biriga ayqashib ketgan yo'lda ikki yo'lovchining oyoq izlari ko'zga tashlanadi. Yo'lovchilar uzoqlashgan sayin, oyoq izlari xiralasha boradi, go'yo yana bir-ikki qadam yurishsa ramkadan chiqib ketadigandek tuyulardi. Ha, aytmoqchi, yo'lovchilardan biri... Keling, bir boshdan gapirib bera qolay.

Bu voqea bolaligimda yuz bergan edi. Ulug' Vatan urushi uchinchi yilga qadam qo'ygan, ayniqsa, Kursk bilan Oryol ostonalarida dahshatli janglar borardi. O'shanda biz bir gala o'spirin bolalar kolxozda ekin sug'orib, arava haydab, o't o'rib yurar edik, xullas, urushga ketgan erkaklarning og'ir mehnati bizning zimmamizga tushgan edi.

Ayniqsa, hosil yig'im-terimida haftalab uy betini ko'rmasdik. Kecha-yu kunduz xirmonda bo'lardik yoki stansiyaga g'alla tashirdik.

Stansiyaga qatnab yurib, ko‘pdan beri uydagilarni ko‘rmaganim uchun o‘roqning ayni qizigan, saraton kunlarining birida yo‘l-yo‘lakay uyga kirib o‘tay, deb bo‘sh aravamni yo‘ldan burdim.

Biz azaldan ko‘chaning boshidagi yonma-yon tushgan ikki uyda turardik. Ularning balandligi uch metrcha keladigan, devorlari juda pishiq qurilgan bo‘lib, daryo tomoni daraxtlar bilan o‘ralgan hovli bizniki edi. Men katta uyning o‘g‘li edim. Akalarim urushga ketgan, ulardan xat-xabar yo‘q edi. Ikkalasi ham balog‘atga yetib, ayni uylanadigan vaqtda ketishgan. Keksa otam— duradgor-usta. Tong saharda namozini o‘qirdi-da, ustaxonaga jo‘nardi, shu ketganicha qosh qorayganda kelardi. Kolxozdagi barcha aravalar uning qo‘lidan o‘tardi. Uyda onam bilan singilcham qolardi, xolos.

Berigi kichik uyda esa yaqin qarindoshlarimiz turishardi. Qarindoshimiz deyishimning boisi, oradan ikki-uch avlod o‘tib ketgan bo‘lsa ham ular bilan azaldan mol-jonimiz bir edi. Ota-bobolarimiz birga ko‘chib, birga qo‘nib, juda ahil yashagan ekan, bu odatni muqaddas bilib, biz ham oraga sovuqlik tushirmay, apoq-chapoq bo‘lib kelardik. Kolxoz tuzilganda otalarimiz bir joyda o‘troqlashganlar. Bugina emas, ikki suv o‘rtasidagi Orol ko‘chada turuvchilarning hammasi bir otaning farzandlari edi.

Keyinchalik berigi uyning egasi dunyodan o‘tib, xotini ikki go‘dak bolasi bilan qoldi. Eski odat bo‘yicha qarindosh-urug‘lar yesirning boshini bog‘lab qo‘yaylik, deb arvoh va Xudoni pesh qilib, uni otamga nikohlab qo‘yganlar. Garchi u uyning qozon-tovog‘i, mol-joni, chorbog‘i bo‘lak bo‘lgani bilan aslida biz bir xonadon edik. Ularning ham ikki o‘g‘li askarga ketgan edi. Sodiq degan katta o‘g‘li uylanishi bilan ketgandi. Ular biz frontdamiz, deb onda-sonda xat yozib turishardi. Kichik uyda kichik oyim bilan kelini qolgan edi. Men uni doim “kichik oyi” deb chaqirardim. Ikkalasi ham ertadan qora kechgacha kolxozda ishlashardi. Kichik oyim (uni ovuldagilar ishchan ayol, baraka topsin, bunaqasi topilmaydi, deb maqtashardi) brigadir bilan adi-badi aytishib o‘tirmas, buyurgan ishini qilaverar, yur deganiga yuraverar, anovi yosh kelinchaklar qatori ariq chopishga ham, ekin sug‘orishga ham yo‘q demasdi, qo‘lidan sira ketmon tushmasdi. Xudo bilib berganmi,

deyman, uning kelini Jamila ham serg'ayrat, baquvvat bo'lib, biroq fe'l-atvori sal boshqacharoq edi.

Jamila yangamni chin qalbimdan yaxshi ko'rardim. Bir tomoni yangam, ikkinchi tomoni mendan biroz katta, lekin biz xuddi tengqur do'stlardek edik. Meni "kichkina bola" deb, o'z ukasidek erkalatganini aytmaysizmi.

Xullas, ikkala xonadonning tirikchiligini, ro'zg'orini oyim bilan singilcham tebratib turardi. Singilcham juda sho'x qiz edi, lekin o'sha og'ir kunlarda ancha quyilib, oyimga jon-dili bilan yordamlashganini sira-sira unutmayman. Ikki xonadonning qo'y-echkilariga qaragan ham o'sha, tezak terib, o'tin-cho'p g'amlagan ham o'sha, dom-daraksiz ketgan bolalarini qo'msab g'amgin xayollarga cho'mgan yolg'iz oyimning ko'ngliga tasalli bergan ham o'sha edi. Endi, har ikkala oilaning boshini qovushtirib, rizq-ro'zini saqlagan ham oyim, bilarmoni ham oyim edi. U, o'lganlarning arvohini hurmatlab, seniki-meniki demay, ikki xonadonga baravar qarab turgan, ovulning ko'pni ko'rgan obro'li, dindor xotinlaridan biri edi. Bizga taalluqli har qanday ishni oyim hal qilardi. Otam bo'lsa hech kimning esiga ham kelmasdi. "Hoy, usta akangga bormay qo'ya qol, uning g'ildirakdan boshqa hech narsa bilan ishi yo'q, har ikki ro'zg'orni ham boyvuchcha xotini tebratib turibdi, o'shanga bor", deyishardilar. Men ham yosh bo'lishimga qaramay uncha-muncha ishlarga aralashib turardim. Darvoqe, akalarim armiyaga ketib qolganidan, men ikki uyning dastyor yigiti bo'lib qolgandim. Shuning uchun ham o'zimda qandaydir mas'uliyat his etardim. Bu oyimga juda yoqardi, pishiq bo'lsin, yog'ochdan boshqani bilmaydigan otasiga o'xshamay, ro'zg'or ishlariga aralashib, ko'zi pishsin, der edi. Men aravamni chorbog'ning chetiga, ko'lankaga haydab kelsam, qamchisini qanjig'asiga qistirib olgan brigadir O'rozmat og'a bilan oyim eshik oldida negadir aytishib turgan ekan. Ularga yaqinlashganimda oyimning ovozi eshitildi:

— Bormaydi! Axir, bu insofdan emas-ku. Xudodan qo'rqishsin! Xotin kishining arava haydagani nimasi. Xudo xayringni bersin, aylanay, kelinimga tegma, o'rog'ini o'rib yuraversin, shusiz ham yolg'izlik azobini tortib, ikkala xonadonning tirikchiligidan bosh

qashishga ham qo'li tegmaydi! Buning ustiga, bir haftadan beri belim sanchib, anovi jo'xorilar qarovsiz qoldi. Baxtimga, yaxshiyam o'sha mushtdek qizcha bor ekan...

Oyim odaticha ro'mol uchlarini ko'ylagining yoqasi ostiga qistirar edi.

O'rozmatning chayqala-chayqala tinkasi quridi.

— Obbo siz-ey, — dedi u, — agar to'rt muchalim sog' bo'lib, qo'limdan kelsa, o'zimoq ilgarigidek qoplarni aravaga irg'itib-irg'itib, otlarni choptirib ketmasmidim! Iloji yo'q-da, yosh kelinlarga arava haydatib bo'ladimi, desak, o'zi rozi bo'lgan keliningizni siz yo'ldan ursangiz, bunaqada plan to'larmidi: boshliqlar frontga yuboriladigan g'allani nega to'xtatdinglar, deb stolni mushtlab, bizga do'q ursa, axir nima qilaylik, siz ham tushuning-da!

Brigadir mening qamchini sudratib kelayotganimni ko'rib, go'yo miyasiga bir yaxshi fikr kelgandek xursand bo'lib ketdi.

— Agar kelinimga yo'l-po'lda tentak aravakashlar tegajaklik qiladi, deb qo'rqsangiz, mana, qaynisi bor-ku, — dedi meni ko'rsatib. — Bu inim yangasiga birovni yaqin yo'latish u yoqda tursin, qaragani ham qo'ymas. Seit ham chakana emas, azamat yigit-ku. Sadag'asi ketay, jonimizga ora kirayotganlar mana shu bolalar-da...

Oyim meni ko'rgach, brigadirning so'zini bo'lib, yalina boshladi:

— Qayoqlarda tentirab yuribsan, bolam? Sochlaring o'sib, devonaga o'xshab ketibsan-ku. Otasi tushmagur bolasining sochini olishga ham qo'li tegmaydi... Ota emish...

— Unday bo'lsa, mayli, bugun sochini olib, chol-kampirlar yonida bir dam olsin, — dedi O'rozmat chehrasi ochilib, — Seitjon uka, bugun uyda qolib, otlaringga biroz dam ber. Ertaga Jamilaga arava beramiz, yangangni birga olib, unga o'zing bosh bo'l. Siz esa, onasi, Seit bor ekan, ko'nglingiz to'q bo'lsin, kamlik qilsa yangi kelgan Doniyorni ham qo'shib beray: o'zingiz bilasizki, u birovga ziyoni tegmaydigan xokisor odam... O'zlaricha uch arava bir brigada bo'lib, stansiyaga qatnayverishsin, mayli, bularning yoniga boshqalarni qo'shmay... Xo'sh, Seit, sen nima deysan? Bu, oying Jamilaga arava haydataylik, desak, ko'nmayapti. Qani, o'zing bir narsa de-chi...

Bir tomoni, brigadir meni rosa ko'klarga ko'tarib maqtagani, ikkinchidan, katta kishilardek mendan aql so'ragani, buning ustiga, yangam yonimda arava haydab yursa qanday maza bo'ladi, degan bolalarcha xayol bilan ishbilarmon odamlardek oyimga dedim:

— Haydasa haydayversin, nima, bo'ri yeb ketarmidi! — deb xuddi katta aravakashlardek chirt yetkizib tupurdimda, qamchini sudraganimcha salmoq bilan qadam tashladim.

— E, jin ursin seni, bo'ri yeb ketarmidi, deydi-ya! Qo'y, bolam, sen nimani bilarding! — dedi oyim achchiqlanib.

— Iye, nega bilmas ekan, ikki uyning azamat yigiti bo'ladi-yu, bilmaydimi! — deb yubordi O'rozmat. Oyim endigina ko'nganda yana aynib qolmasmikin, degan shubha bilan nima deyarini bilmay shoshib qoldi.

Oyim bo'lsa og'ir bir uh tortib qo'ydi.

— E, Xudoyim, shu tirnoqdek bolamizga o'zing umr ber... Devdek azamat yigitlarimiz qayerlarda yuribdi, uylarimiz ularsiz huvullab qoldi...

Shundan keyin men ularning gapini eshitmadim, bora turib uyning muyulishiga bir qamchi urdim, kokillarini selkillatib, kichkina qo'lchalari bilan shipillatib devorga tappi yopayotgan, menga ochiq chehra bilan jilmayib turgan singilchamga ham nazar solmay o'tib ketdim, dahlizda turgan cho'yan qumg'onni engashtirib, shoshilmay qo'limni yuvdim-da, qo'ltig'imga artdim, keyin uyga kirib, hash-pash deguncha katta kosadagi ayronni simirib tashladim, ikkinchisini esa deraza oldiga olib borib non to'g'rab yedim. Oyim bilan O'rozmat hali ham tashqarida suhbatlashib turishardi. Biroq bu safar ular hasratlashayotgandek ko'rindi. Oyim yenglari bilan yig'idan qizarib ketgan ko'zlarini artib, tasalli berayotgan O'rozmatning so'zlarini bosh irg'ab ma'qullar, ich-ichiga botib ketgan ko'zlari bilan dom-daraksiz ketgan bolalarini go'yo ko'rmoqchi bo'lgandek olis-olislarga tikilardi. Haytovur, ancha dardlashib ko'ngli yumshagan oyim Jamilaning arava haydashiga ko'ndi shekilli, birozdan keyin brigadir ko'ngli tinchib, yo'rg'a baytalini yo'rttirib ketdi.

O'shanda bu ishning oqibati nima bilan tugashini oyim ham, men ham bilmagan edik.

* * *

Jamilaning ikki ot qo'shilgan aravani bemalol haydab ketishiga hech ham shubha qilganim yo'q. Chunki u yoshligidan yilqichilar orasida o'sib, katta bo'lgan, tog' etagiga joylashgan Baqayir ovulidagi yilqichining qizi edi. Sodiq akam ham chavandoz bo'lgan ekan; u bir kuni yaylovdagi chorvadorlar to'yi munosabati bilan o'tkazilgan poygada Jamilaga yetolmay qolgan ekan. Shundan keyin izza bo'lib, uni olib qochib ketganligini bilardim. Ovsin-ajinlar bo'lsa hecham-da, ular bir-birlarini yaxshi ko'rib topishgan, deyishardi. Har qalay, nima bo'lsa ham ular uch-to'rt oy birga turishgan, keyin Sodiq akamni armiyaga olib ketishgan edi. Bilmadim, yoshligidan otasi bilan birga dala-dashtlarda yilqi haydashib, ot chopishib, erka o'sganidanmi yoki bitta-yu bitta qiz bo'lganligi uchunmi, ishqilib, Jamilaning xatti-harakatlarida allaqanday jo'shqinlik, erkaklarga xos fazilat bor edi. Har bir ishga astoydil kirishar, boshqa kelinlardek boshim, belim og'riyapti deb sira zorlanmasdi. Biroq o'zi ham birovga haqini ketkazmaydigan, aytishgan bilan aytishib, so'kishgan bilan so'kishadigan o'jar ayollardan edi. Uning ovuldagi kelinlar bilan yumdalashgan vaqtlari ham bo'lgandi.

Yon-atrofdagi odamlar:

— E, bu qanday shaddod kelin o'zi! Tushganiga hech qancha vaqt bo'lmay, tilidan zahar sochadi-ya! — deganlarida, oyim:

— Mayli, shunisi yaxshi! Kelinimiz ochiq-yoriq, sira bo'sh kelmaydi... Ana shunday ko'nglida kiri yo'q odam yaxshi, indamay yurgan pismiqlardan qo'rqish kerak, hamma fisq-fasod o'shalardan chiqadi, — deb javob qaytarardi.

Otam bilan haligi "ishchan" degan oyim boshqa qaynota, qaynonalardek Jamilani turtmay, so'kmay, aksincha, o'z farzandlaridek erkalatishib: "Xudo ishqilib o'ziga insof bersin, to'g'ri yurib, to'g'ri tursa bo'lgani!" — deyishardi. Ular voyaga yetgan to'rt o'g'illarini armiyaga jo'natishib, ikki xonadondagi yakka-yu yagona kelinini ranjitishadimi? Biroq men oyimning ba'zi ishlariga hayron qolardim. Boshqalarni qo'yib turaylik, oyim birovlarning qo'liga qaraydigan ayollardan emas edi. Har yili kuz kelishi bilan odati bo'yicha otam tayyorlagan olti qanotli qora o'tovni tikib, archa tutatardi. Bizlarni chizgan chizig'idan chiqmaydigan qilib tarbiyalab,

hargiz ikki oilaning boshini qovushtirib kelardi. Oyimning aytgani aytgan, degani degan edi. Ammo Jamila oramizda ajralib turardi. To'g'ri, u kampirlardan biroz tortinar, ularning hurmatini joyiga qo'yar, biroq ovuldagi ko'pchilik kelinlardek indamay boshini quyi solib o'tirmas yoki teskari qarab po'ng'illamas, ko'nglida borini yashirib o'tirmay, shartta gapirib qo'ya qolar edi. Gaplari o'rinli bo'lsa, oyim uni ko'pincha ma'qullar, lekin o'shanda ham o'z gapini ikki qilmasdi. Nazarimda, oyim, uni bir so'zligi, to'g'riligi uchun o'ziga yaqin tutar, kelajakda uni ikki xonadonning boshini qovushtirib, ro'zg'orning rizq-barakasini o'zidek saqlay oladigan uddaburon o'rinbosar qilib qoldirish niyatida bo'lsa kerak.

— Xudoga shukur, tagli-joyli yerga tushding, bolam. Bu ham bo'lsa sening baxting, buni sira ham yodingdan chiqarma. Xotin degan tangrining berganiga shukur qilib, ro'zg'orida birini ikki qilib yursa, shuning o'zi katta davlat. Biz chol-kampir topgan-tutganimizni o'zimiz bilan birga go'rga olib ketarmidik... O'z qadr-qimmatingni bilsang, sira kam bo'lmaysan, doim martabang baland bo'ladi, bolam, — deb eslatib turardi.

To'g'ri, chol-kampirlarning cho'chiganicha bor edi: Jamila juda sho'x, yosh bolaga o'xshardi. Bir qarasangiz o'zidan o'zi kampirlarga suykalib erkalanar, yo bo'lmasa birdan qah-qah urib kular, yoki ko'chadan kirib kelayotganida xuddi yosh qizchalardek ariqdan lorsillab sakrab o'tar yoxud o'zicha xirgoyi qilib yurardi. Kampirlar Jamilaning bu qiliqlarini o'zlaricha gap qilib: "Hali bola-da, bora-bora quyulib qoladi", — deb qo'yishardi.

Menga bo'lsa yangamning shunaqaligi yoqardi. Ba'zida ikkovimiz olishib, kurashib, quvlashib ham ketaverardik.

Jamila sarvqomat, bejirim ayol edi. Ikki o'rim qora sochini boshiga chambarak qilib o'rib, ustidan tang'ib olgan oppoq durrasi uning bug'doy rang kulcha yuziga shunday yarashib tushar ediki, asti qo'yaverasiz! Jamila kulganda uning shahlo ko'zlarida navqiron yoshlik barq urar, shunda u beixtiyor qaddini rostlab, ovulning sho'x laparlarini kuylab yuborardi. Ovuldagi yigitlar, ayniqsa, frontdan qaytib kelgan yigitlarning Jamilani ko'z ostiga olishib, tegishib yurganlarini necha bor payqardim. Hangomatalab yangam ular bilan bemalol hazil-huzul qilishardi-yu, biroq haddidan osh-

ganlarning ta'zirini berib qo'yardi. Baribir bu mening izzat-nafsimga qattiq tegar, yangamni rashk qilardim. Shuning uchun ham haligi "bezorilarga" o'zimni ko'rsatib qo'yay deb: "Hoy, bilib qo'yinglar, bu mening yangam bo'ladi-ya, ko'p pashshaxo'rda bo'lavermanglar", — degandek, ularning so'zini shartta bo'lib, viqor bilan xo'mrayib qarardim: "Endi nima qildik, buning yangasi ekanku!" deb yigitlar masxara qilib kulishganida, qizarib-bo'zarib, azbaroyi xo'rligim kelganidan yig'lab yuboray derdim. Buni sezgan yangam xursand bo'lib, kulgidan o'zini tiyolmay jilmayib: "Ishlaring bo'lmasin, nima, yanga degan yerda qolibdimi? Yur, ketdik, qaynim!" — deb ularning battar qitig'iga tegar, so'ngra boshini mag'rur ko'targancha dadil qadam tashlab ketardi. U yigitlarning ta'zirini berganidan ham xursand bo'lib, ham o'ziga xo'rligi kelib, menga qarab bir kulimsirab qo'yardi. Balki u: "E, tentak, yangamga ko'z-quloq bo'laman deysanmi? Agar buzilaman desam, ming ko'z-quloq bo'lsang ham buzilaman. Axir men chumchuq emasman-ku", degan xayolga borganmikin? Men ham o'shanday vaqtlarda aybdor kishidek g'ing demasdim. Ammo birozdan so'ng yangam xiyol yozilib: "Obbo kichkina bola-ey, juda g'alatisan-da!" — deb meni yana bag'riga bosib peshonamdan o'pardi.

Ha, chindan ham yangamni hech kimga ravo ko'rmay rashk qilardim, uning quvnoqligi, o'zini erkin tutishi bilan faxrlanardim. Biz u bilan juda apoq-chapoq, bir-biridan hech narsani yashirmaydigan sirdosh do'stlardek edik. Nega shundayligini o'zim ham bilmasdim. O'sha kezlarda ovulda erkaklar juda oz edi. Shu sababli ba'zi yigitlar ko'krak kerib, balandparvoz gapirib, ovulda mendan boshqa yigit yo'q, degandek, ayollarni hecham nazar-pisand qilishmasdi. Bir kuni pichan o'rimida, yur, desam bo'ldi, orqamdan ergashib kelaveradi, deb o'ziga ishonganlarning biri — uzoq qarindoshimizning o'g'li Usmon yangamga tegajaklik qilavergan edi, u Usmonning qo'lini siltab yubordi-da, g'aram soyasida o'tirgan joyidan turarkan:

— Tur yo'qol! — deb o'shqirdi va teskari qarab oldi.— Qo'llaringdan modabozlik qilishdan boshqa ish kelarmidi.

G'aram ostida taltayib yotgan Usmon qalin lablarini nafrat bilan burishtirib to'ng'illadi:

— Ol-a, mushukning bo'yi shiftga osig'liq turgan go'shtga yetmay, puf, sassiq, degan ekan... Shunga o'xshab, ko'p noz qilaverma. Ichingda jon-jon deb turibsan-u yana...

Jamila unga yalt etib qaradi-da:

— Jon-jon deb tursam turgandirman. Lekin peshonamga yozilgani shu ekan, nima qilay. Ey, ahmoq, buning kuladigan joyi bormi? Jon-jon deyish u yoqda tursin, ming yil toq o'tsam ham senga o'xshagan shumshuklarga nazarimni solmayman. Ahmoqsan. Ilgarigidek tinch zamon bo'lganda shunday deb bo'psan edi! — dedi.

— Shuni aytyapman-da! Urushning kasofati bilan qamchi yemay quturib yuribsan-da, — dedi istehzo bilan Usmon ko'zlarini o'ynatib tamshanarkan. — Mening xotinim bo'lganingdami, nima qilishimni o'zim bilardim!

Jamila lablari dir-dir titrab, Uşmonga yeb qo'ygudek bo'lib qaradi, unga bir narsa demoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, lekin "Shu ahmoq bilan aytishib nima obro' topdim" deb o'yladi shekilli, jirkanch bilan "tuf" dedi-da, yerda yotgan panshaxasini yelkasiga tashlab, indamay nari ketdi. Men berigi tomonda aravaning ustidan xashak tushirayotgan edim. Jamila meni ko'rishi bilan boshqa tomonga burilib ketdi. Yangam mening qay ahvolda ekanimni sezgan edi. Nazarimda, yangamni emas, meni haqorat qilishganlaridek izza bo'lib, g'azabim qaynab ketdi. "Nega ularga yondashasan, nega ular bilan gaplashasan?" — deb yangamga jonim achidi-yu, ichimda uni koyidim.

Jamila o'sha kuni kechgacha noxush yurdi, kulmadi ham, gapirmadi ham. Men shoti aravani haydab g'aram oldiga borganimda, Jamila meni gapirmasin deb ataylab ishga alahsitib, dilini o'rtayotgan o'y-fikrlarini yashirishga harakat qildi, u panshaxasini kattakon pichan g'aramiga sanchdi-da, go'yo tog'ni ag'darayotgandek uni yerdan shartta ko'tarib, yuzini yashirganicha g'ayrat bilan pichanni aravaga otaverdi. Undan uzoqlashar ekanman, qayta-qayta orqamga qayrilib qarardim: yangam panshaxa dastasiga suyanib biroz xomush turar, o'ylanib qolar, keyin yana ishga tushib ketardi.

Men aravaga oxirgi marta pichan bosar ekanman, Jamilaning botib borayotgan quyoshga uzoq tikilib turganini payqadim. Qu-

yosh daryoning narigi yog'ida, qozoq dashtlarining allaqayerida o't yoqilgan tandirning og'zidek alangalanib, holdan toyib, osmonda suzib yurgan pag'a-pag'a bulut parchalarini qizg'ish rangga bo'yab, binafsha rang dashtlikka so'nggi shu'lalarini sochib, asta-sekin ufq orqasiga o'tib borardi. Jamila qo'li bilan quyoshni to'sib, o'sha tomonda ajib bir manzara bordek, ko'zlarini uzmay, kulimsirab qarab turardi. Endi uning chehrasi ochilib, ko'ngli ancha ko'tarilgan edi.

O'shanda Jamila mening aytmagan, lekin yuragimda tugilib, tilim uchida turgan: "Nega ularga yondashasan, nega ular bilan gaplashasan!" — degan ta'namga javob berayotgandek:

— Haligi gaplarimni ko'nglingga olma, kichkina bola, — deb qo'ydi, eng yaqin sirdoshi bilan dardlashayotgandek. — Usmon ham odammi? It ham bir, u ham bir.

Jamila botib borayotgan quyoshdan ko'zini uzmay, indamay qoldi, keyin go'yo menga emas, o'ziga gapirayotgandek yana shunday dedi:

— Bunday kishilar ko'nglingdagini bilarmidi... Buni hech kim bilmaydi. Xudo bilsin, bunday erkaklar dunyoda yo'qdir ham!

Men aravani qaytarishga ham ulgurmasdan qarasam, Jamila allaqachon narigi tomonda ishlayotgan kelinlar oldiga yugurib borib, ular bilan chaqchaqlashib quvalashib yuribdi. Olovdek tovlanib turgan kechki shafaqqa qarab ko'ngli ochildimi yoki bugun yaxshi ishlaganidan xursand bo'ldimi, bilmadim, harqalay, kayfi chog' edi. Xashak ortilgan arava ustida o'tirar ekanman, Jamilaning qo'llarini keng yozgancha oppoq durrasini hilpiratib chopib borayotganini ko'rib, ko'nglim ancha taskin topdi: "Ha, Usmon o'zi kim-u, uning so'zi nima bo'lardi?"

— Chuh, jonivor, chuh! — deb otga qamchi urdim.

* * *

Brigadir O'rozmat og'a aytgandek, sochimi oldirib ketayin, deb otamning ustaxonadan qaytishini kutdim. Lekin u kelguncha bekor o'tirmay, deb Sodiq akamning xatiga javob yozdim.

Darvoqe, xat yozishda bizlarning o'zimizga xos bir taomilimiz bor. Armiyadagi akalarim xatni otamning nomiga yozishardi,

pochtalyon bo'lsa ularni onamga berardi, xatlarni o'qib berish, ularga javob yozish mening vazifam edi. Xatni o'qiy boshlashim bilanoq, unda nimalar yozilganini darrov bilib olardim. Chunki hamma xatlar egiz qo'zilardek bir-biriga o'xshardi. Sodiq akam har doim xatni "Sog'inchli salom xat" degan so'zdan boshlardi. Keyin: "Yetib ma'lum bo'lsinki, u tomonda, ya'ni gullab-yashnayotgan Tolosning salqin havosida sog'-salomat, o'ynab-kulib yurgan jondan aziz, mehribon otajonim Yo'lchiboyga" — deb salomni otamdan boshlardi, keyin katta oyimni, so'ngra ishchan oyimni, ana undan keyin qavm-qarindoshlarimizning sog'ligini so'rab, eng oxirida: "shuningdek, xotinim Jamila ham eson-omon yuribdimi?" — deb bir og'iz qistirib o'tardi.

Ota-onasi, qavm-qarindoshlari turganda dastlab xotinini esga olish, xatni uning nomiga yozish odobdan emas, albatta. Bu narsa faqat Sodiqqa emas, balki umuman erkak zotiga to'g'ri kelmaydi. Biroq biz shu ikki enli xat olib turganimizga ham ming qatla shukur qilamiz, ovuldagilar uchun bu bir katta baxt edi. Oyim xatni menga ikki-uch marta o'qitib olgandan keyin qozon-tovoq, issiq-sovuqqa uraverib yorilib ketgan qo'llariga olib, go'yo uchirib yuborishdan qo'rqqandek uni avaylab uchburchak qilib buklab qo'yardi.

— E-e, tumordek xatlaringdan onang aylansin, — derdi u ko'-ziga yosh olib, og'ir xo'rsinib. — Ota-ona, qarindoshlarning ahvolini so'raydi-ya! Axir biz uydamiz-ku, bizni jin urarmidi! Baxtimizga, ishqilib, sizlar omon bo'linglar, Xudo o'z panohida saqlasin. Ikki enli xat yozib, sog'-salomat yuribman, deb qo'ysalaring, shuning o'zi ham katta g'animat.

Oyim xatga yana biroz termilib qarab turardi-da, so'ngra uni sandiqdagi xatlar saqlanadigan xaltachaga yashirib qo'yardi.

Agar shu payt Jamila uyda bo'lib qolsa, u ham xatni bir karra ichida o'qib chiqardi. Jamila har safar xatni qo'liga olishi bilan o'z-o'zidan qizishib ketar, uni harislik bilan tez-tez o'qiy boshlardi. Lekin xatning oxiriga yaqinlashgan sayin yuzidagi quvonch alangalari so'nib, rangi o'chib, qoshlari yana chimirilib qolardi. Ba'zida xatni oxirigacha o'qib chiqishga ham sabri chidamay, hafsalasi pir bo'lardi-yu, g'ing demasdan, go'yo qarz olgan narsani qaytarib berayotgandek bo'shashib, xatni oyimning qo'liga tutqazardi.

Xat saqlanadigan xaltachani sandiqqa bekitarkan, kelinining tumshayib qolganini payqagan oyim unga tasalli bergan bo'lardi:

— Xabar kelganiga quvonish o'rniga xafa bo'lganing nimasi, bolam. Yoki faqat sening kuyoving askarlikka ketganmi? Barchaga barobar musibat, sabr qil... Ko'z ochib ko'rgan yorini kim sog'inmaydi deysan. Sog'insang ham sir boy berma, ichingda saqla.

Jamila bo'lsa miq etmasdi. Lom-mim demasa ham parishon chehrasi go'yo: "Eh, koshki edi tushunsangiz!" — deyayotgandek bo'lardi.

Sodiq akam bu xatini ham Saratovdan, gospitaldan yozgan edi. Xudo xohlasa, kuzning o'rtalariga borib qolarman, debdi. Ilgari ham shunday deb yozganida biz juda quvongan edik.

Otam ishdan qaytgach, tezda sochimni oldirdim-u uyda qolmay, otlarni bedazorga qo'yib yubordim-da, o'zim har kungidek xirmonda tunadim. Raisimiz mollarni bedazorga yoyishga ruxsat bermasdi, biroq men otlarim yaxshi to'ysin, deb ularni ko'zdan ovloq joydagi bedazorga tushovlab qo'yardim. Buni hech kim bilmasdi. Bu safar aravani xirmonda qoldirib borsam, pastlikda yana to'rt ot o'tlab yuribdi. Jahlim chiqib, ularni chekkaroq joyga haydab yubormoqchi bo'ldim. Biroq otlarning ikkitasi brigadir aytgan o'sha Doniyorniki ekanini tanib qoldim. Men, ertadan boshlab barimiz bir brigada bo'lib, stansiyaga birga qatnaymiz, degan o'y bilan otlarga tekkanim yo'q. So'ngra xirmonga kelsam, Doniyor ham shu yerda ekan. U endigina aravasining g'ildiraklarini moylab bo'lib, o'qning gaykalarini burayotgan ekan.

— Doniyor aka, otlar siznikimi? — deb so'radim undan.

U menga bir qarab qo'ydi-da:

— Ikkitasi meniki, — dedi.

— Qolgan ikkitasi-chi?

— Haligi, ha, oti nima edi, Jamilamidi, o'sha kelinniki. Aytmoqchi, u sening yangang bo'ladimi?

— Ha, yangam bo'ladi.

— Bo'lmasa, bugun kechasi Seit qarab tursin, deb brigadirning o'zi tashlab ketdi.

"Yaxshiyam ularni haydab yubormagan ekanman-a!"— deb qo'ydim ichimda.

Kech kirib, tog‘dan esgan mayin shabada ham tinib, xirmon jimjit bo‘lib qoldi. Doniyor ham men yotgan somon ustiga kelib yonboshladi. Lekin ko‘p o‘tmay yana o‘rnidan turdi-da, soy bo‘yi tomon ketdi. U tik jar yoqasiga bordi-da, boshini sal qiyshaytirib, qo‘llarini orqasiga qilganicha turib qoldi. Orqasidan qaraganda uning gavdasi oy yorug‘uda ko‘zga aniq tashlanib turardi. Doniyor, aftidan, mudroq, sokin tun uyqusini buzib, toshlardan toshlarga urinib, sharillab oqayotgan soy suvining musiqiy ohangini yo bo‘lmasa boshqa bir quloq ilg‘amas tovushlarni tinglayotgandek qimir etmay turardi.

“Odaticha soy bo‘yiga borib tunamoqchi shekilli”,— deb kulib qo‘ydim men o‘zimcha.

Doniyor ovulimizga yaqindagina kelgandi. Pichan o‘rog‘i endi boshlangan kezlar edi. Bir kuni bitta bola chopib keldi-da, ovulga bir yarador askar qaytdi, lekin kimligini o‘zim ham bilmayman, deb qoldi. Ovulda birov askardan qaytib kelgudek bo‘lsa, ko‘rgani hamma yopirilib borardi. Ammo bu safar frontdan kelgan kishining nasl-nasabi noma’lum bo‘lgani uchun o‘roqchilar tozayam shovshuv ko‘tarishdi.

— Begona deyishadi-ku.

— Begona bo‘lsa, bizning ovulga kelarmidi?

— Shuni ayt-a?

Shunday qilib, u kim ekan, o‘zimizning qarindosh-urug‘umizdan bitta-yarimtasining bolasi bo‘lmasin tag‘in, deyishib, bir to‘da odam ovulga ham borib kelishdi. Keyin bilishsa, Doniyor asli shu yerlik ekan. Aytishlaricha, u yoshligidan yetim qolib, har kimlarning eshigida yurgan, oxiri Chaqmoqdagi qozoq tog‘alarinikiga ketib qolgan, shu-shu bolani izlab borgudek bironta ham jonkuyari bo‘lmagan ekan. Shunday qilib, u el-urug‘ning yodidan ham chiqib ketgan ekan. Ovuldan ketib qolganidan keyingi hayoti to‘g‘risida esa Doniyor unchalik yozilib gapirmaganmish. Biroq hozir o‘ylab ko‘rsam, uning tortmagan azob-uqubatlari qolmaganga o‘xshardi.

Turmush bu mushtdek bolani ne ko‘ylarga solmagan, tirikchilik dardida u qayerlarga bosh urmagan. Doniyor ko‘p vaqt Chaqmoq dashtida qo‘y boqib yurib, voyaga yetgach, jazirama cho‘llarda kanal qazigan, yangi tuzilgan paxta sovxozlarida paxta ekib, ekin

sug‘orib, oxiri Toshkent yaqinidagi Ohangaron shaxtalarida ishlab, o‘sha yerdan armiyaga ketgan edi.

Xullas, Doniyorning armiyadan qadrdon ovulga qaytib kelganiga ovuldagilar xursand bo‘lishgandi; bechoraning tuz-nasibasi uzilmagan ekan, oxiri o‘z eliga qaytib keldi! Shuncha yil chetda yursa ham tilimizni esdan chiqarmabdi-ya. Biroq tili sal-pal qozoqchaga tortib ketadi, deyishardi.

“Ot aylanib qozig‘ini topadi, deganlar. Tug‘ushgan yer, el-yurtni unutish osonmi? Kelganingga biz ham, ota-bobolaringning arvohi ham xursand; Girmonni yengib, tinchlik bo‘lsa, sen ham uy-joy qilarsan, bola-chaqali bo‘larsan”, — deyishardi keksalar. Ular Doniyorning yetti pushtini surishtirib, uning qaysi urug‘dan ekanligini, ovuldagi ba’zi bir tug‘ushganlarining kimligini ham aytib berishdi. Xullas, ovuldagilar: “Doniyor dunyoga yangi kelgandek bo‘ldi”, — deyishadigan bo‘lishdi.

Oradan ko‘p o‘tmay bir kuni brigadir O‘rozmat shinelini yelkasiga tashlab, chap oyog‘iga sal oqsoqlagan novcha, bo‘yni uzun bir kishini ergashtirib keldi. Yo‘rg‘a baytalini gijinglatib kelayotgan pakana O‘rozmatning yonida haligi novcha askar salmog‘ini o‘ng oyog‘iga solib, orqada qolmay, tez-tez yurib kelardi.

Bizlar, pichan o‘radigan mashinada ishlayotgan bolalar, Doniyorni birinchi ko‘rishimiz edi. Doniyor yarasi yaxshi bitib ketmaganidan oyog‘ini bukolmasdi. Uni o‘roqqa yaramaydigan bo‘lgani uchun biz bilan birga mashinaga qo‘yishdi. Rostini aytsam, biz uni avvaliga unchalik yoqtirmadik. Chunki Doniyor juda odamovi edi, gapirishganda ham uning butunlay boshqa, faqat o‘zigagina ma’lum bo‘lgan narsalar to‘g‘risida xayol surayotgani, kishiga tikilib tursa ham ko‘ngli boshqa yoqda ekanligi shunday sezilib turardi. U og‘ir xayolga botgandek angrayib turardi. Buni payqagan kishilar: “Bechora, frontdan keyin hali ham o‘zini o‘nglab ololmasa kerak”, — deb yurishdi. Lekin Doniyorning o‘zini tutishiga, qo‘li-qo‘liga tegmay chaqqon ishlashiga, harakatchanligiga qarab, uni ochiq-yoriq, aqlli, gapga chechan odam ekan, deb o‘ylaysan kishi. Balki yetimlik azob-uqubatini ko‘p tortganidan u mehnatkash, lekin kamgap, sir-asrorini hech kimga aytmaydigan bo‘lib qolganmikin? Ehtimol, shundaydir. Sersavlat, bo‘y-basti kelishgan

Doniyorning jag‘i bir-biriga yopishib ketgan, qovog‘i sira ochilmas, ko‘zlari bir xil g‘amgin boqardi. Faqat doim uchib turadigan qoshlari uning yuziga husn berib turardi. Goho-goho u qandaydir bir sirli tovush eshitgandek hushyor tortar, qoshlari uchib, go‘yo bir narsadan xursand bo‘lgandek ko‘zlari yaraqlab ketardi. Lekin biz buning sababini bilmasdik. Bugina emas, uning boshqa qiziq odatlari ham bor edi. Qosh qorayganda otlarni aravadan chiqarib, ovqat qachon tayyor bo‘larkin, deb o‘choq atrofida dam olib o‘tirardik. Doniyor bo‘lsa yonimizdagi Qorovultepaga chiqib, qorong‘i tushgunga qadar o‘sha yerda o‘tirardi.

“U yerda nima bor ekan? U kimni qo‘riqlaydi, u nimani qo‘riqlayapti? — deb kulishardik biz. Kunlardan birida men ham qiziqib, uning yoniga chiqib o‘tirdim. Bu yerda aytarli hech narsa yo‘q edi. Tog‘ etaklari bo‘ylab yastanib yotgan bepoyon dashtlik chuqur dengizga cho‘kib borayotgandek oqshom qo‘ynida yo‘qolib borardi. Doniyor mening kelganimga parvo qilmadi. U chehrasi yorishib, bir tizzasini quchoqlaganicha xayol surib o‘tirardi. U men anglab yetmagan, ma’nosiga tushunmagan allaqanday sirli tovushlarni butun vujudi bilan berilib tinglayotgandek tuyulardi. Ba’zan qoshlari chimirilib, ko‘zlari chaqnab, kuchi tanasiga sig‘mayotgandek to‘lg‘anar, go‘yo o‘rnidan irg‘ib turib, qulochini yozgancha butun borliqni ko‘ksiga bosib, quchoqlamoqchi bo‘layotgandek tuyulardi. Bir qarasang, qattiq charchagan odamday yana bo‘shashib, g‘amgin bo‘lib qolardi.

Kolxozimizning pichan o‘radigan mashinalari buralib-buralib oqayotgan kattakon Gurkurov soyining bo‘ylarida xuddi shu Gurkurov soyidek gurkirab yurardi. Pichan o‘rog‘i soylarning to‘lib-toshib oqayotgan davriga to‘g‘ri keldi. Toshdan toshga urilib, ko‘piklanib, pishqirib oqqan suv kech kirishi bilan yana ko‘payardi va yarim kechaga borib sharillab oqqan ovozidan kapada yotgan yerimda uyg‘onib ketardim. Qaymog‘i olingan sutdek osmonda muzdek shabada g‘ir-g‘ir esib, ko‘kdagi yulduzlar shu’la sochib mo‘ralab turardi. Tun og‘ushida hayqirib oqqan soy suvining to‘lqini yana ham kuchliroq sezilib, go‘yo ustimizga bosib kelayotgandek tuyulardi. Biz qirg‘oqdan olisda bo‘lsak-da, kapamizni suv oqizib ketmasmikin, degan vahima beixtiyor ko‘ngilga

g'ulg'uga solardi. Do'stlarim hech narsadan xabarsiz, dong qotib uxlashardi, men tashqariga chiqib ketaman.

Tunda soy bo'yi ham ko'rkam, ham vahimali bo'ladi. O'tloqning u yer-bu yerida o'tlab yurgan otlar qorayib ko'rinardi. Hamma yoq jimjit. Otlar shabnam tushgan o'tlarga to'yib, dam-badam pishqirishar va yengil mudrashardi. Sal narida Gurkurov suvi quturib, mayda tol novdalarini egib, toshlarni yumalatib, sokin tun jimligini buzib, go'yo yer qa'ridan qaynab chiqayotgandek dahshat bilan sharillab oqardi. Shunday kechalarda men doim Doniyorni eslardim. "Darvoqe, Doniyor qayerda qoldi ekan?" — deb so'rardim o'zimdan o'zim. U doim yakka o'zi suv bo'yidagi pichan g'aramlari ustiga borib yotardi. "Nima balo, u kechasi qo'rqmaydimi, suvning sharillashidan qulog'i bitmaydimi?" — degan fikr xayolimdan o'tardi. "U hozir ham uxlayotganmikin yoki uyg'oqmikin? Tavba, yolg'iz suv bo'yiga borib yotishning nima hojati bor ekan? Buning nima halovati bor? Qiziq, sira odamlarga qo'shilmaydi-ya. U hozir qayerda ekan?" — deb atrofga nazar tashlab, quloq solaman, hammayoq jimjit. Qirg'oq bo'ylab qiya tepalik cho'zilib ketgan tog' etaklariga qorong'ilik cho'kmoqda, osmonning u yer-bu yerida yulduzlar miltillab ko'rinmoqda.

Ovulga kelganiga bir necha kun bo'lsa ham o'zini chetga tortib, hech kimga qo'shilmay yurgan Doniyor oshna-og'ayni orttira olmadi. Birovga yondashmas, janjallashish, tortishish nimaligini bilmas, birovga yaxshi ham gapirmas, yomon ham gapirmas edi. Ovulga yaxshilik ham qilib, yomonlik ham qilib, yig'ilishlarda so'zlab, to'y va ma'rakalarda qariyalar bilan yonma-yon o'tirib, elning issiq-sovug'uga aralashib yurgan o'ktam yigitlar qadr-qimmatli bo'lib, darrov og'izga tushadigan, xotin-qizlarning nazariga ilinadiganlar ham shular bo'lardi.

Doniyorga o'xshab ertadan kechgacha ter to'kib ishlaydigan, lekin o'zini boshqalardan chetga olib yuradigan, o'zi bilan o'zi bo'lib, birovga zarari ham, foydasi ham tegmaydigan kishilar to'g'risida: "Bir amallab kun ko'rib yurgan bechora-ku", — deyishardi. Bizlarga o'xshagan o'zbilarmon, mahmadona bolalar esa haligidek chinakam, asil yigitlardek bo'lishni havas qilib, Doniyorning yuz-ko'zi oldida bo'lmasa ham, orqasidan mazax qilardik.

Uning ko‘ylagini o‘zi yuvganiga ham kular edik: u armiyadan bitta ko‘ylak bilan kelganligi uchun ham uni qurir-qurimas kiyib olardi. Biroq qizig‘i shundaki, Doniyor mo‘min-qobil bo‘lsa ham, biz u bilan bemalol, botinib gapirisha olmasdik. Gap uning kattaligida emas edi, albatta. Chunki u juda nari borsa, akalarim bilan teng kelardi. Shuning uchun ham biz u bilan sensirab gaplashar edik. Nima, o‘zimizni pastga urarmidik. Garchi Doniyor ulug‘sifat bir odam bo‘lmasa-da, uning shunday hech kim bilan gapirishmay, vazmin yurishida qandaydir bir xosiyat bordek, sho‘x, shayton bolalar undan hayiqib turishardi.

Bunga qisman o‘zim ham sababchi bo‘ldimmi, deyman-da. Chunki men odamlardan, ayniqsa, frontga borib kelganlardan ko‘rgan-bilganlarini ipidan ignasigacha gapirib berishni iltimos qilib, ularni hol-joniga qo‘ymasdim, savolman deganni yog‘dirib yuborardim. Shuning uchun ham men “Seit xira” degan laqab orttirganman.

Doniyor kelgan dastlabki kunlarda, men undan urush to‘g‘risida ko‘p narsalarni so‘rab, bilib olaman, deb yurdim. Bir kun ishdan so‘ng gulxan atrofida ovqat ichib dam olib o‘tirganimizda Doniyordan so‘rab qoldim:

— Doniyor aka, urushda ko‘rgan-kechirganlaringdan bir gapirib bermaysanmi?

Doniyor hadeganda gapira qolmadi. Chamamda, mening bu gapim unga yoqmadi shekilli.

— Urush deysanmi? — dedi u va xuddi o‘ziga javob berayotgandek past ovoz bilan qo‘shib qo‘ydi: — Urushning nomi o‘chsin, uni bilmaganlaring yaxshi!

Doniyor narida yotgan xashakdan katta bir tutam olib gulxanga tashladi va olovni tez-tez puflab yondirdi-da, hech kimga qaramay qo‘llarini o‘tga toblay boshladi. U alangalanib yonayotgan olovga tikilgancha uzoq jim qoldi.

Doniyorning nega bunday qilganini kim bilsin, lekin uning o‘sha ikki og‘iz gapidan ham urushni ertakdek ermak qilib gapirib bo‘lmasligi, u odamning yurak-yuragiga singib ketishi, u haqda gapirish nihoyatda og‘ir ekanligi shunday sezilib turardi. Uyalganimdan boshimni yerdan ko‘tara olmadim. Shu-shu Doniyordan urush

haqida so'ramaydigan bo'ldim. Bolalar ham unga tegajaklik qilmaydigan bo'lishdi.

Biroq ko'rinishi tund, odamga aralashmaydigan Doniyor o'zicha yakka-yolg'iz yuravergani uchun uning armiyadan kelganligining qizig'i ham qolmadi. Qay bir kishilar: "Shunchaki bir odamda", degandek qilib uni nazariga ilmas, boshqa birovlar esa undan ro'yi-rost kulib, ko'pchilik esa rahmi kelib: "Boshpanasiz, bir amallab jon saqlab yurgan bir g'arib-da... Kolxozning dalada beradigan issiq ovqati bo'lmasa, tentirab ketib qolarmidi... O'ziyam, qo'ydek yuvosh ekan..." — deb achinib gapirishardi. Bora-bora kishilar Doniyorga ko'nikib qolishdi shekilli, uni boshqa gap qilmaydigan bo'lishdi. Odamlarning u bilan ishi bo'lmay qo'ydi.

* * *

Ertasi saharlab Doniyor ikkalamiz otlarni xirmonga olib keldik, shu payt Jamila yangam kelib qoldi. U bizni ko'rishi bilan uzoqdan qichqirdi:

— Ey, kichkina bola, qaysisi mening otlarim, bu yoqqa haydab kel! Xomutlari qani? — deb umri bo'yi aravakashlik qilgan odamdek, g'ildiraklari joyidamikin degandek tepib ko'rar, u yoq-bu yog'ini sinchiklab ko'zdan kechirardi. Biz Doniyor bilan otlarni yetaklab, xirmonga yaqinlashib kelganimizda, ikkalamizning afti-angorimiz Jamilaga g'alati ko'rindi shekilli, u bir kulimsirab qo'ydi, Doniyorning uzun va oriq oyoqlaridan qo'nji keng soldatcha etiklari chiqib ketgudek bo'lib shalvirab turardi, men bo'lsam, qorayib, toshdek qotib ketgan oyoqlarim bilan otni niqtab kelardim.

— O'xshatmaguncha uchratmas, deganlaridek juda topishibsizlar-ku. — Shu-shu go'yo bizning jilovimizni qo'liga olgandek, u buyruq qilaverdi: — Qani, tez-tez bo'linglar, urushda turish yo'q, ertaroq salqinda jo'nay qolaylik, — deb otlarini aravaga qo'sha boshladi.

Jamila, Doniyorning bori ham, yo'g'i ham bilinmaydi, degandek, uni nazariga ilmasdi. Gapirishsa ham men bilan gaplashardi. U bizdan qolishmay yelib-yugurib ishlardi. Jamiladagi bu jasorat, ayniqsa, o'zini katta olib gapirishi Doniyorga qattiq tekkandek bo'ldi. Doniyor chakkasi tirishib, uni ham yoqtirmagandek, ham

hayratda qolgandek, tumshayib teskari burilib oldi. Jamila buni payqagani ham yo‘q. Doniyor tarozi ustidagi qoplardan birini indamay dast ko‘tarib aravasiga tashlaganda, Jamila unga yopisha ketdi.

— Bu nima qiliq, har kim o‘z bilganicha ishlayveradimi? Qani, qo‘lingni ber, qo‘llashganni Xudo qo‘llaydi! Hoy, kichkina bola, aravaga chiq, qoplarni joylashtir!

Jamila Doniyorning qo‘lidan shartta ushlab, qopni ikkovlashib ko‘targanida, Doniyor uyalganidan qip-qizarib ketdi. Shundan keyin ham ular qoplarni qo‘llashib ko‘tarib bosishdi, qo‘llari bir-biriga chirmashib, qop ustidan asta sirpanib tusharkan, Doniyor o‘ng‘aysizlanib unga qaramaslikka harakat qilardi. Jamila bo‘lsa parvoyi falak, har safar tarozibon xotinning yoniga kelganida, u bilan hazil-huzul qilib, hiring-hiring kulishardi. Jo‘nash oldidagina u ko‘zini bir qisib qo‘yib, Doniyorga:

— Hoy yigit, isming nima, Doniyormidi, ko‘rinishdan erkakka o‘xshaysan-ku, qani, yo‘l boshla! — dedi.

Doniyor bu safar ham miq etmadi. Jamilaga cho‘chigandek bir qarab qo‘ydi-da, aravani haydab ketdi.

“Obbo sho‘ring qurg‘ur-ey, muncha uyalmasang!” — deb achinib qo‘ydim unga.

Yo‘l olis, dashtdan yigirma chaqirimcha yo‘l bosib, Qoratog‘ darasidan o‘tib, stansiyaga borish kerak. Shunisi yaxshiki, xirmondan to stansiyagacha yo‘l qiyalab boradi, otlarga ham ancha yengil edi. Ulug‘tog‘ tog‘ining etagidagi ko‘m-ko‘k daraxtlar ichiga ko‘milgan ovulimiz to daradan chiqib ketguncha, xuddi kaftdagidek aniq ko‘rinib turardi. Daraning etagidan esa temiryo‘l kesib o‘tadi.

Shunday qilib, biz har kuni stansiyaga g‘alla tashib yurdik. Ovuldan ertalab chiqib, stansiyaga peshinda yetib boramiz. Taqir yo‘ldagi shag‘al arava g‘ildiraklari ostida g‘ichirlardi. Kun isigan sayin otlarning yag‘rinlaridan ter quyilib oqardi...

Saratonning jazirama quyoshi hammayoqni qovjiratib kuydiradi. Stansiyaga kelsang ot-aravaning ko‘pligidan qadam bosolmaysan. Tog‘ etagidagi uzoq kolxozlardan eshak va ho‘kizlarga g‘alla ortib kelgan bolalar bilan xotinlarning kiyimlari terdan sho‘ri chi-

qib, chang bosgan betlari qorayib kuyib, shamoldan lablari yorilib, yalangoyoq, yalangbosh horib-tolib kelardilar. Zagotzernoning hovlisi qiy-chuv bo'lib, uning darvozasiga: "Hamma g'alla front uchun!" degan shior yozib qo'yilgandi. Paxsa bilan aylantirib olingan pastqam hovlining tashqarisida vagonlarni bir-biriga ulab yurgan parovoz qaynoq bug' chiqarib, qumursqadek tinmay harakat qilardi. Sal naridan poyezdlar quloqni kar qilgudek darajada bo'kirishib o'tishadi. Xuddi darvoza oldiga cho'ktirilgan tuyalar o'rnidan turgisi kelmay, jini qo'zib, ko'pik sochib ovozining boricha bo'kirardi.

Kattakon kapponning ichiga g'alla tog'-tog' qilib uyib tashlangan. G'alla solingan qoplarni orqalab taxta trapdan ana shu uyumlarning tepasiga olib chiqib to'kish kerak. Kapponning qizigan tunuka tomidan chiqqan bo'yoq aralash temir hidi bug'doy changi bilan birga qo'shilib dimog'ni qichitardi.

Uyqusizlikdan ko'zlari qizarib ketgan omborchi pastda qo'lini paxsa qilib so'kinardi:

— Hoy bola, ko'zingga qara, ustiga chiqarib to'ksang-chi!

U nega so'kinadi? So'kinmasa bo'lmaydimi? O'sha yerga olib chiqib to'kish kerakligini o'zimiz ham bilamiz-ku.

Biz bu yerdagina emas, balki dalaning o'zida, yerga don tashlangan kundan mehnat qilamiz. Yosh-yalang, xotin, bolalarimiz yoz bo'yi tinmay parvarish qiladi, kombaynchilarimiz har kuni yuz martalab buziladigan, parti ketib, sharti qolgan kombaynni bir nafas ham to'xtatmay, saratonning jazirama kunlarida ham daladan chiqishmaydi. Hozir ham dalada o'roqchilar tong sahardan qorong'i kechgacha zirqirab og'rigan bellarini yozolmay g'alla o'rmoqdalar, bir qarich bolalar bitta ham boshoqni qoldirmay terib olmoqdalar. O'sha kunlarda biz barcha topgan-tutganimizni frontga jo'natamiz, bu bizning g'alabaga qo'shgan ter bilan qonimizdir.

Hali-hali esimda, yosh bola ekanman, zabardast yigitlar ko'taradigan katta-katta qoplarni yelkamga tashlab, uning bir burchagidan mahkam tishlab trapdan yuqoriga chiqar ekanman, qovurg'alarim mayishib, ko'zlarim tinib ketardi. Qadam sayin trapning taxtalari egilib, kappon ichidan ko'tarilayotgan chang aralash g'ubor o'pkani qisardi. Necha marta holdan toyib, orqamdan sirg'alib tushib

borayotgan qopni yelkamdan irg'itib, o'zim ham sakrab yuborgim kelardi. Lekin orqamdan ham qop ko'targan odamlar kelardi. U ham menga o'xshagan bir yosh boladir yo bo'lmasa, tushib-chiqib yurgan ayollarning biridir. Agarda urush bo'lmaganda bunday og'ir yukni ularga kim ko'tartirib qo'yardi? Shunday og'ir ishga ayollar chidash berayotganda nolishga haqqim bormi?

Ana, oldinda Jamila yangam boryapti. Etagini qistirib olgan, uning bug'doy rang chiroyli oyoq muskullari tarang tortilib, paylari uzilib ketgundek bo'ladi. U go'yo yukini yengillatayotgandek bukilib, egilib, og'ir qadam tashlab borardi. Goh-goh u mening holdan toyib borayotganimni sezgandek to'xtab qolardi-da:

— Bo'shashma, kichkina bola, oz qoldi! — deb qo'yardi. Biroq o'zi ham qattiq charchaganidan ovozi bo'g'ilib chiqardi.

Bug'doyni to'kib, orqaga qaytayotganimizda, doim Doniyorga duch kelardik. U odati bo'yicha hech kimga qo'shilmay, jimgina, salmoq bilan oyog'ini oqsoqlanib bosardi. Biz unga yondashganimizda, og'ir tortgan bo'ynini cho'zib, qistirilgan ko'ylagining barini yozib kelayotgan Jamilaga Doniyor enkayganicha qovoq ostidan tikilib o'tardi. U Jamilani go'yo birinchi marta ko'rayotgandek hamisha ana shunday tikilib qarardi. Lekin Jamila bunga sira e'tibor bermasdi. Birga ishlaganimizdan buyon ularning biron marta ham ochilib gaplashganini ko'rganim yo'q. Jamila ba'zan shunchaki hazillashib, tegishib kulib gapirsa, ba'zida mutlaqo ishi bo'lmasdi. Bu uning kayfiyatiga bog'liq edi. Hushi kelsa, yo'lda kelayotib Jamila menga: "Qani, chuh de, kichkina bola, ketdik!" — derdi-da, o'tirgan yeridan sapchib turib, qiyqirib, qamchinini o'ynatgancha aravani haydab ketardi. Men ham undan qolishmasdim. Hash-pash deguncha oldinda borayotgan Doniyorni quvib o'tib ketardik. Doniyor orqada chang-to'zon ichida qolardi. Aslida bu hazil bo'lsa-da, lekin bunday hazilga hamma ham chidayvermasdi. Biroq Doniyor g'ing demas, ranjimas edi. Biz chang-to'zon ko'tarib, uning yonidan tasira-tusur qilib o'tib ketsak ham u go'yo aybdor kishidek muloyimgina kulimsirab, aravada tik turganicha otlarga ustma-ust qamchi bosib borayotgan Jamilaga ajablanib, indamay qarab qolardi. Uning jahli chiqdimikin, deb orqamga qayrilib qaraganimda, chang quyuni ichida qolgan Doniyorning mam-

nun bo'lgandek Jamiladan ko'zini olmay tikilib turganini payqardim. Uning bu qarashida o'ta ko'ngilchanlik, olijanoblik bilan birga, yuragini kuydirayotgan allaqanday sirli bir hasrat borligi sezilib turardi. Jamilaning bu qiliqlarini, istehzoli kulishlarini, yonidan go'yo mensimagan kishidek indamay o'tishlarini Doniyor hecham ko'ngliga og'ir olmas, bariga chidab, bir og'iz so'z qaytarmas edi. Ba'zida Doniyorga rahmim kelib:

— Qo'yday yuvosh odamning dilini og'ritganing nimasi, yanga? — desam, Jamila menga:

— Ke, qo'y, shuni gapirma! — deb qo'lini siltab kulib qo'yardi. — E, shunchaki bekorchilikdan hazillashaman-da. Nima, biron joyi kamayib qolarmidi!

Bora-bora yangamga qo'shilib men ham hazil-huzul qiladigan bo'ldim. Chunki Doniyorning Jamilaga ma'noli tikilib qarashlari menga g'alati tuyula boshladi. Ayniqsa, Jamila qop ko'targanida Doniyor ko'zining qiri bilan unga tikilib qolardi. Har kim o'zi bilan o'zi ovora bo'lib, ko'pchilik ish bilan alahsib, buni payqamaydi, deb o'ylaydi shekilli. Aravakashlar qiyqirig'i, ot-aravalarning ko'pligidan stansiyaning xuddi bozorga o'xshab ketgan to's-to'polon hovlisida Jamila qanchalik qiynalmasin, sira bo'sh kelmay yelib-yugurib ishlaganidan, qahqaha urib kulganidan u hammadan ajralib ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Jamila arava chetiga qo'yilgan qoplarni ko'kragini kerib yelkasiga olarkan, qop-qora qo'ng'ir soch o'rimlari yerga tegay-tegay deb ketar, salmoq bilan orqasiga burilganida esa qisiq ko'zlarining qorachiqlari kipriklari orasidan yalt etib ko'rinardi. O'shanda qop ko'targan Jamila kapponning eshigiga yetgunga qadar Doniyor uni zimdan kuzatib qolardi. Men buni payqab yurardim. Hadeganda ko'nglimga og'ir olmagan bo'lsam ham, lekin keyinchalik Doniyorning yangamga bunday zimdan nazar tashlab yurishi menga yoqmadi, hatto izzat-nafsimga tekkandek bo'ldi: hech kimga ravo ko'rmay qizg'anib yursam-u Jamilaga boshqalar qolib, Doniyorboy ko'z tiksa-ya. "Doniyorki, Jamilaga ko'z tikdimi, boshqalardan xafa bo'lmasam ham bo'larkan! Tavba!" — derdim jahlim chiqib o'zimga o'zim.

Endi Doniyorni mo'min-qobil yigit deb ayamoq u yoqda tursin, yomon ko'ra boshladim. Shundan keyin men yana yangamga

qo‘shilib, uni masxara qila boshladim. Ammo bu hazilimizning tagi zil bo‘ldi.

G‘alla tashib yurgan qoplarimiz orasida olachadan tikilgan yetti pudli katta bir qop bor edi. Hamisha yangam ikkovimiz uni kapponga olib borib yerga to‘kardik, chunki uni bir kishi ko‘tarolmasdi. Bir kuni xirmonda aravalarga yuk ortayotib, yangam bilan birga haligi katta qopni Doniyorning aravasiga tashladik-da, ustidan boshqa qoplarni bostirib qo‘ydik. Qani, nima qilar ekan, deb o‘yladik o‘zimizcha.

Xirmondan kunchiqarda jo‘nab ketdik. Yo‘lda rus qishlog‘ida birovning bog‘iga kirib, Jamila ikkovimiz olma o‘g‘irlab chiqdik-da, yo‘l-yo‘lakay qahqahlab kulishib ketdik: Jamila bora-borguncha Doniyorga “Ilib ol!”— deb olma otib bordi. Olma tugagandan keyin biz odatdagicha uni chang-to‘zonda qoldirib, ancha uzoqlashib ketdik. Doniyor daradan chiqaverishdagina bizni quvib yetdi, temiryo‘l berk ekan, uning ochilishini kutib turishga to‘g‘ri keldi. Bu yerdan to stansiyagacha birga keldik. Bu orada haligi yetti pudli qop yodimizdan ko‘tarilib ketibdi, xayolimizda hech gap yo‘q, g‘allani tashib bo‘lay deb qoldik. Bir mahal Jamila biqinimga turtib, Doniyorni ko‘rsatib bir kulib qo‘ydi. Doniyor arava ustida turgan ekan. “Buni nima qilsam ekan?” — degandek haligi katta qopning u yoq-bu yog‘iga qarab turardi. So‘ngra u Jamilanig qiqir-qiqir kulayotganini payqab qolib, bizning sinamoqchi bo‘lganimizni sezdi shekilli, qip-qizarib ketdi.

— Hoy, ishtoningni baland ko‘tar, tushib ketmasin tag‘in! — deb qichqirdi Jamila.

Doniyor unga bir o‘qrayib qaradi-da, qopni nari-beri surib, aravaning chetiga keltirdi, so‘ngra uni bir qo‘li bilan suyab turib, yerga sakrab tushdi. Hash-pash deguncha bo‘lmay, zildek qopni bir siltab yelkasiga oldi-da, kappon tomon yura boshladi. Biz, qani, nima qilar ekan, deb o‘zimizni go‘llikka solib, sir bermay turdik, boshqalar ham unga parvo qilishgani yo‘q. Hamma ham qop ko‘tarib yuribdi-da, kim bilan kimning ishi bor deysiz. Ammo Doniyor trapga yaqinlashganda Jamila uning orqasidan yugurib ketdi.

— Buni qayerga olib boryapsan, esing joyidami o‘zi, shu yerga tashla, nima, hazilni tushunmaysanmi?

— Nari tur! — deb Doniyor uni jerkib soldi.

Shoxi singan Jamila o‘ng‘aysizlanib, trapdan chiqib ketayotgan Doniyorning orqasidan kulib qarab:

— Bu o‘larmonni qaranglar, ko‘tarib ketdi-ya! — deb xuddi aybli kishidek iljayib, o‘zicha to‘ng‘illab qo‘ydi.

Garchi Jamila hadeb qiqir-qiqir kulsa ham, borgan sari uning kulgisi sun’iylashib, o‘zini-o‘zi zo‘rlab kulayotgandek bo‘lib tuyuldi. Doniyor qopni ko‘tarib borar ekan, yarador oyog‘iga zo‘r kelib, oqsay boshlaganidagina, biz uni qanday azobga qo‘yganimizni tushundik.

Doniyorning oyog‘i yarador ekanini nega ilgariroq o‘ylamadik axir? Eh, bolaligim qursin-a, shu gap mendan chiqdi-ya!

— Orqangga qayt! — deb qichqirdi Jamila kulgi aralash. Biroq endi buning iloji yo‘q edi. Chunki orqasidan ham qop ko‘targan odamlar kelishayotgan edi.

Men esimdan og‘ayozib, keyin nima bo‘lganini bilmayman. Ko‘z o‘ngimda o‘sha kattakon qora qopni ko‘targan Doniyor. U bukilib, trapdan yer bag‘irlab yuqoriga chiqib borardi. Yarador oyog‘ini avaylab bosar, unga zo‘r kelmasin, deb qanchalik urinmasin, baribir, har qadam tashlaganda og‘riqqa chidayolmay, tishini-tishiga qo‘yib, boshini chayqardi. U yuqorilagan sari ustidagi og‘ir qop yelkasiga minib olgan balo-qazodek uni battar bosar, u tobora ko‘p chayqalardi. Yangam bilan o‘ylamay qilgan bu qilmishimizga azbaroyi uyalganimdan yer yorilsa-yu, yerga kirib ketgudek bo‘ldim, qo‘rqqanimdan yuragim orqamga tortib ketdi. Qop ko‘targan Doniyor emasu go‘yo men o‘zimdek, oyoqlarim zirqirab, ko‘z o‘ngim qorong‘ilashib ketdi.

Doniyor yana to‘xtab, qopni tishladi-da, ko‘zini yumdi. Mening ham boshim aylanib, yer o‘pirilib ketayotgandek bo‘ldi. Bir nafas hech narsani bilmay qoldim.

Kimdir bilagimni changallab, sindirib yuborgudek siqib ushladi. Bunday qarasam, Jamila ekan. Qo‘rqqanidan murdadek oqarib ketgan, lablari dir-dir titrab, ko‘zlarini katta ochgancha Doniyorga termilib turardi. Atrofimizni omborchi va boshqalar o‘rab olishibdi. Ular ham nima gapligiga tushunmay, Doniyorga hayron bo‘lib qarashardi.

Mana, Doniyor yurib borayotib sirg'alib ketayotgan qopni o'nglab olay deb bir silkidi-yu, lekin og'irlikka ortiq tob bera olmay cho'kkalay boshladi.

— Tashla! Tashla qopni! — deb qichqirib yubordi Jamila. Doniyor quloq solmadi. Orqada kelayotganlarga tegib ketmasligi uchun qopni trapning chetidan pastga tashlab yuborsa bo'lardi. Biroq u o'jarlik qilib qopni ko'targanicha turaverdi. Jamilaning ovozini eshitishi bilan yana oyoqlarini rostlab, oldinga qarab intildi. Bir-ikki qadam yurib orqaga tisarila boshlaganida, tarozibonning jonponi chiqib ketib, ovozining boricha qichqirib yubordi:

— Tashla! Tashlasang-chi, it emgan!

— Tashla! — deb boshqalar ham qichqirishdi.

Doniyor bu safar ham o'z bilganini qilib, chayqalib-surinib ilgari bosdi..

— Yo'q, u qopni tashlaydigan emas. O'z aytganini qiladigan yigitga o'xshaydi, — dedi kimdir qo'l siltab.

Endi faqat haligi odamgina emas, balki yonimizda turgan boshqa odamlar ham, uning orqasidan qop ko'tarib borayotgan kishilar ham bunda bir sir borligini sezishib, Doniyor qop bilan birga qulab tushmaguncha uni tashlamasligiga ishonch hosil qilishdi.

Hamma bir zum jim bo'lib qoldi.

Kapponning orqasida parovoz zir yugurib vagonlarni bir-biriga ulamoqda. Doniyor yuqoriga yuk tortib chiqib ketayotgan otdek ilgarilab borardi. U chayqalib yiqiladigandek bo'lsa, shartta to'xtab, kuch to'plar, keyin yana oldinga qarab intilardi. Doniyorning orqasidan kelayotgan odamlar ham noiloj u to'xtaganda to'xtab, u yurganda yurishardi. Ularning ham tinkasi qurib, qora terga botib ketishgandi. Biroq ulardan bittasi ham Doniyor bilan sen-menga bormadi. Ular toyg'oq yo'ldan go'yo bir-birlariga ko'rinmas ip bilan bog'langandek turnaqator bo'lib jim borishardi. Bordi-yu, bittasi toyib ketgudek bo'lsa, boshqalar ham xarob bo'ladigandek tuyulardi. Ularning indamay qadam tashlashlarida, bir xil chayqalishlarida kuchli g'ayrat va shijoat, hamkorlik sezilib turardi: Doniyorning orqasidan kelayotgan ayolning oyog'i chalishib, yiqilishiga sal qoldi-yu, shunda ham u o'ziga emas, Doniyorga Xudodan madad so'rayotgandek unga rahmdillik bilan termilib qaradi. Mana, oz

qoldi. Doniyor yana bir zo‘r bersa marraga yetadigandek ko‘rinardi. Lekin Doniyor yana gandiraklab, yarador oyog‘i unga itoat qilmay qo‘ydi. Agar u yelkasidagi qopni tashlab yubormasa, o‘zining ham qulab ketishi mumkin edi.

— Yugur! Orqasidan suyashib yubor! — deb qichqirdi Jamila menga. O‘zi bo‘lsa go‘yo Doniyorni ushlab qolmoqchi bo‘lgandek qo‘llarini oldinga cho‘zardi. Men trapdan yuqoriga yugurdim; qop ko‘targanlar orqasidan siqilib o‘tib, Doniyorga yetib oldim. U qo‘ltig‘i ostidan menga bir qarab oldi. Betidan ter quyilib, manglay tomirlari bo‘rtib chiqib, ko‘ziga qon to‘lib ketgan edi. Men unga ko‘maklashmoqchi bo‘lgan edim, Doniyor menga:

— Nari tur! — dedi zarda bilan keyin qopni bir silkidi-da, bor kuchini to‘plab, yana oldinga intildi.

Doniyor qavarib, qadoq bo‘lib ketgan qo‘llarini shalviratib, oqsoqlanib trapdan tushganda, pastdagilar lom-mim deyishmasdan yo‘l berishdi. Faqat tarozibongina o‘zini tutolmay jahli chiqib, Doniyorni koyib ketdi:

— Nima, seni jin urdimi yo esingni yedingmi? Yoki meni odammas deb o‘yladingmi, axir bir og‘iz aytsang, pastga to‘ktirardim-ku. Bunday og‘ir qopni ko‘tarsin, deb senga kim aytdi?

— Ishing bo‘lmasin, o‘zim bilaman, — dedi Doniyor sekingina, so‘ngra chirt yetkizib tupurdi-da, aravasi tomon ketdi. Orqasidan Jamila:

— Hazilni tushunmagan tentak! — deb pichirlab qo‘ydi.

Shunday dedi-yu, boshini yerdan ko‘tara olmadi. Doniyor buni uqdimi-uqmadimi, harqalay, yangam ikkovimiz uning yuziga tik qaray olmas edik.

Yo‘l bo‘yi ham birontamiz og‘iz ochganimiz yo‘q. Doniyorning-ku, kamgapligi hammaga ma’lum, so‘zga no‘noq. Ayniqsa, bugungisiga tushunolmay hayron edik, u bizdan xafami, yuz ko‘rishmaydigan bo‘ldimi yo oqko‘ngillik qilib, hamma gapni unutib yubordimi, bilmasdik. Bizning sukut saqlashimizning boisi bor edi: bir tomoni, uyalganimizdan yuziga qarayolmasak, ikkinchidan, hazilimizni ko‘ngliga og‘ir olib yurgani uchun undan xafa edik.

Ertalab g‘alla qoplayotganda Jamila bu kasofat qopni oldi-da, uni chok-chokidan shir-shir yirtib yubordi.

— Ma, topgan matohingni boshingga ur! Brigadiringga aytib qo'y, ikkinchi marta bunday qoplarni bera ko'rmasin, — deb haligi yirtilgan qop parchalarini tarozibonning oldiga otib yubordi.

— Hoy, aqling joyidami, bu nima qilganing?

— Hech nima!..

* * *

Ertasiga har kungidek stansiyaga kelib, qosh qorayganda yana ovulga yo'l oldik. Doniyor oldinda ketib borar edi. Uning ko'nglidagi xijili yozildimi-yo'qmi, bila olmadik, zotan, buni bilish oson emasdi. Xuddi o'rtamizda hech gap o'tmagandek, Doniyor indamay ishini qilaverdi. Shunisi borki, yarador oyog'i ko'proq lat yegan bo'lsa kerak, u qattiqroq oqsab, ayniqsa, qop ko'targanda qiynalib yurdi. Garchi u hech narsa demasa ham, uning yurish-turishi gunohkor ekanligimizni eslatib, ko'nglimizni og'ritar edi. Loaqal Doniyor sal-pal hazillashib, kulib qarasa ham mayli edi, ko'nglimiz ravshan tortardi.

Jamila otdan tushsa ham egardan tushmay, go'yo ko'nglida hech gap yo'qday hazil-huzul qilib yuraverdi. Lekin ich-ichidan ezilib, xafa bo'lib yurganini aniq sezardim.

Mana, ovulga ketib boryapmiz. Latofatli ajoyib tun.

Sutdek oydin avgust kechalarini kim bilmaydi deysiz. Osmondagi yulduzlar uzoq-uzoqlardan mo'ralashsa ham go'yo ular shunday yaqindan har biri o'zicha nur sochayotgandek tuyulardi.

Yulduzlar charaqlagan shunday go'zal kechada biz dara bo'ylab kelardik. Otlar go'yo uyga shoshilayotgandek tobora tez yo'rg'alardi. Mayda shag'al ot tuyoqlari va arava g'ildiraklari ostida g'ir-chillab, atrofga uchib chiqardi. G'ir-g'ir esib turgan mayin shabada ermanning achchiq isi bilan g'arq pishgan g'allaning xushbo'y hidini dimoqqa keltirib urardi. Bularning hammasi otlarning terga botgan egar-jabdug'udan chiqayotgan hid bilan qo'shilib boshni aylantirar edi. Yo'lning bir tomonida na'mataklar bilan qoplangan qoyalar qad ko'tarib turardi, yo'lning ikkinchi tomonida, pastlikda, tol va yovvoyi teraklar orasidan Gurkurov jo'sh urib oqardi. Orqada ko'prikdan taraqa-turuq qilib o'tayotgan poyezdlarning yangroq gudogi olis-olislardan ham eshitilib turardi.

Bunday so‘lim tunda yo‘l yurishning o‘ziga yarasha gashti bor. Tun quchog‘ida baliqdek suzib borayotgan otlarning yoqimli “chir-chiriga” quloq solish, shamol dimoqqa urayotgan xushbo‘y hidlarni to‘yib-to‘yib simirish qanday yaxshi!

Jamila oldimda ketib borardi. U tizginni bo‘sh qo‘yib, atrofiga suqlanib qarar, o‘zicha allaqanday ashulani xirgoyi qilardi. Bizning og‘zimizga tolqon solgandek jim kelayotganimizdan Jamilaning toqati toq bo‘layotganini sezib turardim. Shunday kechada jim ketib bo‘ladimi? Yuragida o‘ti bor odam shunday go‘zal tabiat manzarasini ko‘rib jim tura oladimi?!

Yo‘q, Jamila jim turolmadi, u ovozini baralla qo‘yib kuylab yubordi. Menimcha, uning yana bir boshqa niyati — Doniyorning ko‘nglini ochib, xafachiligini yozmoqchi bo‘lsa kerak. Zotan, odamlar bir-birlarining gunohlarini kechirmasmikin, deb ikkilanib turgan paytda qandaydir bir turtki kerak bo‘ladi-ku. Ehtimol, Jamila shu fikrga borgandir, xullas, u bir silkinib qo‘ydi-da, qalbidan qaynab chiqayotgan yangroq ovoz bilan kuylab yubordi:

Shohi ro‘moling bog‘lab,
Yonimda yursang yayrab...

Jamila bunday sho‘x-sho‘x laparlarni juda ko‘p bilardi. Uning ashulasi kishiga orom bag‘ishlardi. Jamila ashulasini bir zum bo‘lib, oldinda borayotgan Doniyorga qichqirdi:

— Hoy, bo‘shang yigit, ovozingni bir chiqarsang-chi! Yigitmisan o‘zing?

Doniyor aravasini to‘xtatdi-da, orqasiga qayrilib:

— Kuylayver, Jamila, qulog‘im senda, — deb qo‘ydi tortinib.

— Nima, boshqalarning qo‘shiq eshitgisi kelmaydi, deb o‘ylaysanmi? — dedi kesatib Jamila. — Aytmasang aytma, tarang qilishini qara-yu!

Shundan so‘ng u “sen aytmasang men aytaman”, degandek, Doniyorga o‘chakishib yana ashulani oldi. Uning nima uchun Doniyorni ashula ayt, deb qistaganini bilolmadim. Gapga solmoqchi bo‘ldimikin? Shunday bo‘lsa kerak, chunki birozdan keyin Jamila yana iltimos qila boshladi:

— Hoy, Doniyor, umringda birovni sevganmisan? — dedi-yu, nima uchundir kulib yubordi.

Doniyor javob qaytarmadi, Jamila ham churq etmay qoldi. Dara ichiga bir nafas jimlik cho'kdi. Faqat g'ildiraklarning dukur-dukur ovozi, otlarning pishqirgani eshitilardi, xolos.

"Juda odamini topib so'rading-da", deb kulib qo'ydim men.

Yo'lni kesib o'tib, sharqirab oqayotgan soyga yetganimizda, Doniyor aravani sekinroq haydab, ot taqalarining kechuvdagi kumushdek yaraqlagan toshlarga tegib shaqillashiga diqqat bilan quloq sola boshladi. So'ngra "chuh" deb, otlarga bir qamchi urdi-da, birdan titroq ovoz bilan:

Eh, Olatog', Olatog',
Ota-bobom o'sgan yer! —

deb kuylab yubordi. Biroq u yana to'xtab, yo'talib qo'ydi, lekin keyingi ikki misrani yurakdan chiqarib zavq bilan aytdi:

Ey, Olatog', Olatog',
Oq bulut qalqib ko'chgan yer!

Doniyor nimadandir cho'chigandek yana jim bo'lib qoldi. Kishi degan uyalmasa-da, nima endi, shu ham ashula aytish bo'ldimi, bundan ko'ra aytmagani tuzuk edi. Xudo biladi, yuzi olov bo'lib yonib ketgandir. Negadir uning uchun o'zim ham mulzam bo'ldim.

Lekin Doniyorning shu bir og'iz kuylashida ham qandaydir bir joziba, nafosat borligi aniq sezilib turardi. Ha, ovozi ham yaxshi edi.

"Qoyilman!" — deb qo'ydim ichimda hayratlanib. Jamila ham qichqirib yubordi.

— Iye, durustsan-ku, ilgari qayerda yurgan eding? Qani ayt, yaxshilab ayt!

Doniyor miq etmay kelaverdi. Oldimizda daradan vodiyga chiqadigan joy oqarib ko'rinardi, o'sha tomondan shabada esardi. Doniyorning hali boshlagan kuyini yana davom ettirishini sabrsizlik bilan kutardim. Doniyor yana kuylay boshladi, men o'zimda yo'q quvonib ketdim.

Doniyor avvaliga tortinib-tortinib sekin kuylay boshladi. Ammo bora-bora ovozini baralla qo'yib, erkin ayta boshladi, uning ashulasi darada qo'ng'iroqdek yangrab, uzoq-uzoqlardagi qoyalarda aks-sado berdi. Doniyorning qo'ng'iroqdek ovozigina emas, balki kuyning ohanraboligi, jo'shqin his-tuyg'ularga boyligi ham kishini maftun etardi. Buning nimaligini aqlimga sig'dira olmay lol bo'lib qoldim: bu ashulachining ovozimi yo bo'lmasa, yurakdan qaynab chiqayotgan boshqa bir narsami? Kishi qalbining eng nozik torlarini chertib, unda ezgu niyatlar uyg'otayotgan bu nima o'zi? Rostini aytsam, bu savolga hozir ham javob bera olmayman.

Qani endi, qo'limdan kelsa-yu, bularning hammasini qog'ozga bitib o'tirmay, iloji bo'lsa o'sha ajoyib kuyning o'zginasini yaratib bersam.

Unda deyarli so'z yo'q, lekin bu kuy so'zsiz ham samimiy, sof niyatli qalb egasining butun quvonchi, umid-orzulari va tilaklarini ifodalab berardi. Men umrim bino bo'lib bunday kuyni eshitgan emasman. U qirg'izchaga ham, qozoqchaga ham o'xshamasdi, biroq bu kuyga azaldan bir-biriga qondosh-jondosh bo'lgan qirg'iz bilan qozoq xalqining kuylaridagi eng nafis, eng dilrabo ohanglar singdirilgandek bo'lib tuyulardi. Bu kuy goh qirg'iz tog'laridek baland-balandlarga parvoz qilsa, goh poyoni yo'q qozoq dalalaridek uzoq-uzoqlarga taralardi. "Yo tavba, Doniyorni shunchalik ashulachi deb kim o'ylagan edi?" — derdim men o'zimga o'zim.

Darani bosib o'tib keng dalaga chiqqanimizdan keyin Doniyorning ashulasi qanot yozib, yana ham kuchliroq yangradi. Bu dilrabo kuy bir-biriga ulanib, bir-biri bilan almashinib borardi. Bugun Doniyorga nima bo'ldi, tinchlikmi o'zi, hech narsani tushuna olmasdim. Go'yo u shu kunni, shu damni ko'pdan beri orziqib kutgandek, qalbidagi butun sir-asrorini to'kib soldi. Doniyorning nima uchun merov odamday elga kulgi bo'lib yurganini, nima uchun kechqurunlari Qorovultepaga chiqib olib yolg'iz o'yga cho'mib o'tirganini, nima uchun kishi ilg'amas tovushlarga quloq osganida qoshlari chimirilib, ko'zlari quvonchga to'lganini endi bir qadar tushuna boshlagan edim. U qalbida yuksak insoniy muhabbat tug'yon urgan bir inson edi! Menimcha, uning sevgisi biror kishiga ishqi tushib, o'sha odamga ato qilingan sevgi emas, balki inson-

ni yaratib, uni kamolga yetkazgan keng olamga, yorug‘ dunyoga bo‘lgan cheksiz, jo‘shqin sevgi edi! Ha, u bu sevgini o‘z qalbida ardoqlab saqlagan, ana shu sevgi bilan yashagan edi. Agar u shunday yuksak qalb egasi bo‘lmay, didi past, yuragi muz bir kishi bo‘lganda edi, tabiat uni qanchalik iste’dodli qilib yaratgan bo‘lmasin, baribir, u bunchalik kuylay olmas edi.

Doniyorning kuyi tungi dasht ustida yana jo‘sh urib, mudroq dalani uyg‘otayotgandek bo‘lardi. Keng, bepoyon dala o‘zi yaratib, o‘zi ardoqlab o‘stirgan qadrdon kuychisining ashulasiga jim quloq soladi. Bug‘doyzor oydinda dengiz kabi chayqalar va mo‘l hosildan darak berib, o‘z o‘roqchilarini kutardi. Yo‘l chetida joylashgan eski tegirmon atrofidagi mirzateraklarning yaproqlari ham nimalarnidir shivirlashardi. Soyning narigi tomonida, uzoq-uzoqlarda xirmonchilar o‘t yoqishib, go‘ja pishirmoqdalar. Huv ana, kimdir allaqanday ish bilan qishloqqa shoshib ketmoqda. Oldinda qishloq bog‘i ko‘rinar, shabada g‘arq pishgan olmalarning, ayni gullagan makkajo‘xorilarning yoqimli hidlarini hovlilarda yoyilgan tezaklarning hidiga aralashtirib, dimoqqa keltirib urardi.

Doniyor yana ancha vaqtgacha kuylab keldi. Avgust tuni uning ashulasiga mahliyo bo‘lgandek jim quloq solardi. Hatto otlar ham go‘yo maroqli kuyni buzishdan qo‘rqqandek yurishini sekinlashtirgandi. Kishiga cheksiz orom baxsh etib, zavq-shavq bilan kuylab kelayotgan Doniyor ayni avjiga chiqqanida, birdan jim bo‘lib, otlarni choptirib ketdi. O‘zimcha, Jamila yana uning orqasidan ergashsa kerak, deb o‘ylab, men ham hozirlanib turdim-u, biroq Jamila boshini quyi solguncha chuqur xayolga cho‘mib, qimir etmay o‘tirardi. U havoda uchib yurgan ashula sadolariga hamon quloq solayotgandek edi.

Doniyor shu bo‘yi to‘xtamay, birozdan so‘ng ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Biz to ovulga yetguncha og‘iz ochmadik. Ba’zida kishi o‘z dardini so‘z bilan ifodalashga ojiz bo‘lib qoladi.

Shu kundan boshlab hayotimizda qandaydir bir o‘zgarish yuz bergandek bo‘ldi. Endi ko‘nglim allaqanday yaxshi narsalarni qo‘msab, yuragim g‘alati his-hayajonlarga to‘lib, o‘zimdan o‘zim xursand bo‘lib yurdim. Ertalab xirmondan jo‘nab, stansiyaga kelib, g‘allani topshirib bo‘lgach, Doniyorning sehrli ashulasini qachon

eshitarkinmiz, deb ketishga shoshilar, o‘sha damni sabrsizlik bilan kutar edik. Uning ashulasi yurak-yuragimga singib, qayerga bormay, qayerda turmay, qulog‘im tagida jaranglayotgandek bo‘lardi.

Tong saharda turib, yalangoyoq, yalangbosh shabnam tushgan bedazor orqali o‘tloqdagi tushovlangan otlarning oldiga borayotganimda ham bu kuy menga hamroh bo‘lardi. Tog‘ orqasidan mo‘ralab ko‘tarilgan quyosh xuddi mening quvonchimga sherik bo‘lgandek jilmayib nur sochardi.

Oltin donalari kabi keksa xirmonchilarning panshaxalaridan sachrab tushayotgan bug‘doy donalarining mayin shildirashida ham, ko‘kda parvoz qilib yurgan yolg‘iz kalxatning qanot qoqishida ham, xullas, ko‘rib, uqib, sezib yurgan narsalarimning hammasidan Doniyorning kuyi eshitilayotgandek bo‘lardi.

Kechqurun darada arava haydab borayotganimizda men o‘zimni xuddi boshqa bir olamga kirib borayotgandek his qilardim. Ko‘zlarimni yumib Doniyorning ashulasiga quloq solar ekanman, ona suti bilan qonimga singib, bir qarichligimdan tanish bo‘lgan manzaralar ko‘z o‘ngimdan birma-bir o‘ta boshlardi: goh ovulning zumrad osmonidan pag‘a-pag‘a bulutlar suzib o‘tishar, goh o‘tlab yurgan yilqilar uyuri dukurlashib, kishnashib yaylovda chopib qolishar, qulunlar kokillarini o‘ynatib qop-qora ko‘zlarini javdiratganlaricha onalarini qidirishib qolar, goh suruv-suruv qo‘ylar tepaliklarda o‘tlab yurishar, goh qoyalardan oqib tushayotgan shalola oynadek yarqirab ko‘zlarni qamashtirar, dengizdek mavjlanib yotgan qamishzorlar orasiga cho‘kib borayotgan qiiyoshni lolarang ufq sari yo‘rtib borayotgan yolg‘iz otliq mana hozir qo‘li bilan ushlab oladigandek bo‘lib tuyulardi, keyin o‘zi ham quyosh bilan birga butalar orasiga kirib g‘oyib bo‘lardi.

O‘, jonajon bepoyon dalam! Qozoq jondoshimning yeri bilan payvand bo‘lgan azamat dalam. Mana, tog‘larimizni ikki yoqqa ayirib tashlab, qamish va shuvoqlarga ko‘milib, buyuk bir dengizday chayqalib yotasan. Nimalarga qodir ekanligingni kim biladi sening! Qarog‘im, sirtingdan qarasa qimirlagan jon yo‘qdek bo‘zarib yotganing-yotgan. Ammo kechagina qon-qardoshlaring unib-o‘sgan bag‘ringda urush boshlanib, dushmanlar o‘lkamizga chang solganda, quchog‘ingdagi giyohlar yonib, dovyurak chavandoz-

larning dushman ustiga sherdek tashlanganda, musaffo osmoningni issiq chang qopladi, yer-u ko'k larzaga keldi. O'shanda qirg'oqning narigi betidan ot o'ynatib kelgan qozoq xabarchisi:

— Otlan, qirg'iz, otlan! Yov keldi! — deb saraton quyuni ichida yana qayoqqadir otini yeldek uchirib ketdi.

O'shanda keng dalam, daryolarim, tog'larim larzaga kelib, o'z elini otga mingizdi. Yigitlar jangga otlanganda osmon-u zamin titrab, yovni mahv etishga chorlab bong urildi. Minglab uzangilar bir-biriga tegib shaqirlashib, son-sanoqsiz chavandozlarning ko'zlaridan qahr va g'azab o'ti chaqnab, el bilan, yurt bilan xo'shlashdi. Ularning oldida qizil bayroqlar hilpirab, orqada otlarning tuyog'idan chiqqan chang orasida onalar va juvonlar: "Keng dalamiz madadkori bo'lsin! Xosiyatli ona Yer madad bersin! Buyuk Manasning ruhi yor bo'lsin!" — deb bo'zlab qolishdi.

Senga jonim fido, ey muqaddas dalam, tog'larim! Elimga shu kuch-qudratni sen o'zing berding.

Mana shularning barisini Doniyor kuyga solib, ko'z o'ngimda yorqin gavdalantirib, sermazmun keng olamning butun zeb-ziynatini, ko'rkini ochib ko'rsatdi. "Yopiray, bularning barini u qayerdan o'rgandi ekan", — deb hayron bo'laman. O'zimcha, chet yerlarda ko'p yillar sarson-sargardon bo'lib, o'z el-yurtini ko'rish ishtiyoqi bilan yashagan, shu quvonchli damni intizorlik bilan kutgan odamgina o'z ona tuprog'iga shunchalik mehr qo'yishi, uni shu qadar seva olishi mumkin, degan fikrga keldim. Doniyorning bu kuylarini tinglar ekanman, uning boshpana izlab o'tkazgan mashaqqatli yetimlik yillarini ham, qonli jang maydonlarida bosib o'tgan yo'llarini ham ko'z oldimga keltirar edim. Ehtimol, uning ona-Vatan haqidagi jo'shqin kuylari o'shanda tug'ulgandir. Doniyorning ashulalarini tinglab o'tirib, inson bolasi o'z ona tuprog'ini shunchalik seva olganligi uchun ham tiz cho'kib, o'sha tuproqni xuddi o'z onangdek quchoqlab o'pging keladi. Ana shunda, birinchi marta yuragimda qandaydir yangi bir his uyg'onib, qalbimni o'rtab, qani endi o'sha yerning muqaddasligini, uning ko'rkini Doniyorchalik seza bilsam, seva bilsam, uning madhiyasini Doniyorchalik tarannum qilolsam, degan bir havas uyg'onganligini sezdim. Nimanidir orziqib kutardim, lekin nimaligini o'zim ham bilmasdim. Bunga ham xursand,

ham xunob bo'lardim. O'shanda menda rassomlik san'atining ilk kurtaklari paydo bo'lganini, kelajakda hayotni bo'yoqlar, suratlar orqali tasvirlashga havas uyg'onayotganini bilmagan ekanman.

Men bolaligimdan surat solishni yaxshi ko'rardim, bolalar o'qish kitoblaridan ko'chirib solgan rasmlarimni ko'rishib: "Voy, xuddi o'zi-ya!" — deyishardi. Muallimlarimiz ham maktab devoriy gazetasini menga topshirishar edi. Lekin keyinchalik surat solishni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yishga to'g'ri keldi. Urush boshlanib, akalarim armiyaga ketgach, men o'qishni tashlab, o'z tengqurlarim qatori kolxozda ishlay boshladim, o'sha vaqtlarda surat solmoq kimning ham esiga kelardi deysiz. Kelajakda rassom bo'laman, degan o'yim yo'q edi, ammo Doniyorning kuylari meni hayajonlantirib, hayotning butun go'zalligini sezishga ilhomlantirdi...

Men o'ngimda emas, go'yo tushdagidek bu totli xayolga berilib, xuddi dunyoga yangi kelib, ko'zim endi ochilgandek atrofga suqlanib qarardim. Mening uchun bu juda katta turmush sabog'i edi.

Jamilaning o'zgarib ketganini aytmaysizmi! Oldingi sho'x, hazilkash, gapga chechan kelindan go'yo asar ham qolmagandek edi. Uning o'ynoqi o'tkir ko'zlari endi go'yo bulutli kundagi quyosh singari negadir g'amgin boqardi. Yo'lda ketib borayotganimizda Jamila doimo chuqur o'yga tolar, lablarida bilinar-bilinmas tabassum o'ynab, u faqat o'zigagina ma'lum bo'lgan allaqanday latif bir narsadan huzur qilayotgandek, undan suyunayotgandek tuyulardi. Ba'zan esa aksincha, xayolini bir narsa buzgandek, qopni aravadan yelkasiga silkib olib, shu turganicha qotib qolardi. U shu turishida, go'yo quturib oqayotgan suvga duch kelib, uni kechib o'tishini ham, o'tmasligini ham bilmay lol bo'lib turgan odamga o'xshardi. Doniyorga esa u nima uchundir yaqin yo'lamay, uning ko'ziga tushishdan qochib, chetlab yurdi.

Jamila o'zini uni avvalgidek nazarga ilmayotgandek qilib ko'rsatishga qanchalik urinmasin, oxiri bir kuni sabri chidamay xirmonda Doniyorga gap otdi.

— Ustingdan ko'ylagingni yechsang bo'lardi. Yuvib berardim.

Ko'ylakni soyga olib borib yuvdi-da, quritish uchun yozib qo'yib, burishgan joylarini tekislagan bo'lib uni ancha vaqtga-

cha mehr bilan siladi. Ko'ylakning to'zigan joylarini quyoshga tutib ma'yus tikilar, nimadandir koyingandek boshini chayqab qo'yardi.

Keyingi kunlarda Jamila biroz ochilib, qah-qah urib kuladigan, hazil-huzul qiladigan bo'ldi. Bir kuni beda o'rog'idan kelishayotgan bir to'p qiz-juvonlar bilan yigitlar xirmonga burilishdi. Oralaridagi armiyadan qaytib kelgan yigitlar:

— Hoy qizlar, bug'doy nonni o'zlaring yeyaverasizlarmi, qani, bizning ulushimizni beringlar, bo'lmasa hammangni suvga pishamiz! — deyishdi hazillashib va panshaxalarini o'qtalishdi.

— Bizlarni panshaxalar bilan qo'rqitolmaysizlar. Mana bu qiz-juvonlarni nima bilan mehmon qilishni o'zim bilaman, sizlar tuyoqlaringni shiqillatib qolinglar,— dedi Jamila o'rnidan sapchib turib.

Yigitlarning hafsalasi pir bo'ldi shekilli:

— Unday bo'lsa, qiz-juvoning bilan baringni qo'shib suvga pishamiz, — deyishdi battar o'chakishib.

Shu zahotiyoq tapir-tupur olisha ketgan yoshlar shovqin-suron ko'tarishib, bir-birini suvga itara boshlashdi.

— Ushla, qo'yib yuborma! — deb qichqirardi Jamila, hech kimga bo'sh kelmay, ustalik bilan chap berib. Yigitlar ham shuncha qiz-juvonning ichida faqat Jamilani ko'zlari ko'rgandek, nima uchundir, hammasi ham unga yopishar, tortqilashar, har biri uni quchoqlab, bag'riga bosishga harakat qilardi. Mana, uch yigit birgalashib Jamilani yerga yiqitishdi-da, oyoq-qo'lidan ko'tarib, suv bo'yiga olib borishdi.

— Hozir hammamizni o'pasan, bo'lmasa suvga tashlaymiz! Qani, bo'l tez! — deyishib xaxolab kulishgan yigitlar uni enkaytira boshladilar.

— Qo'ymanglar, yigitlar, bo'sh kelmanglar!

Ichagi uzilib kulgan Jamila baliqdek sirg'anib, qo'ldan chiqib ketar, xotinlarni yordamga chaqirib qichqirar, lekin ular qiychuv ko'tarishib, o'zlarining suvda oqib borayotgan ro'mollarini ushlash bilan ovora edilar. Yigitlar xaxolashib Jamilani suvga otib yuborishdi, osmonga sachragan suv tomchilari xuddi kumush donalaridek tovlanar edi. Hali ham kulgidan o'zini to'xtata olmagan

Jamila suvdan chiqib kelar ekan, uning to‘zg‘igan ho‘l sochi yana ham chiroyiga-chiroy qo‘shib yuborgan edi. Chit ko‘ylagi badaniga yopishib, siynasi olmaday dirkillab turardi. Jamila bo‘lsa parvoyi falak, qiqir-qirir kular, ust-boshidan sirqib tushayotgan suvni ham payqamasdi.

— O‘p, darrov o‘p! — deb qistashardi yigitlar.

Jamila ularni o‘par, yigitlar uni yana suvga otishar, u bo‘lsa go‘yo buni xush ko‘rgandek, suvdan chiqib, sochini silkitib, yana qotib-qotib kulardi. Yoshlarning bu qilig‘iga xirmonda kulmagan odam qolmadi. Xirmon sovurayotgan chollar ham o‘zlarini yigirma besh yashar bo‘z bolalardek his qilib, ajin bosgan yuzlari sevinchdan porlab: “Ha, ha, bo‘sh kelma, ushla! Etagidan tort!” — deb ko‘pkarida uloq tortishgandek zavq-shavq bilan qichqirishar, sharaqlab kulishardi. Men ham o‘zimni to‘xtata olmay qotib-qotib kulardim. Bu safar yangamni qo‘riqlash esimga ham kelmabdi. Birgina Doniyor indamay, qovog‘ini solib o‘tirardi. Unga ko‘zim tushishi bilan men ham jim bo‘ldim. U xirmonning bir chekkasida yolg‘iz o‘zi o‘tirgan ekan. Doniyor yigitlarga yeb qo‘yg‘udek o‘qrayib qarar, vajohatidan go‘yo hozir yugurib borib Jamilani ularning qo‘lidan ajratib oladigandek edi. Yuziga tik boqishga botinolmay, farishtadek pok deb bilgan Jamilani yigitlarning quchoqlab o‘pishi, tortqilashib o‘ynaganlari Doniyorning ko‘ngliga juda qattiq botdi. Uning butun fikri-zikri, es-hushi Jamilaning husni jamolida edi. Doniyor yigitlardan qanchalik qizg‘anmasin, xandon otib kulayotgan Jamiladan ko‘zini olmay, uning bu qilig‘iga ham koyinib, ham maroqlanib, xo‘mraygan qovoqlari ostidan muloyim boqib, tishini-tishiga qo‘yib o‘tirdi. Yigitlar Jamilaga har tomondan yopishib, betlarini o‘ptirganlarida Doniyor quti o‘chib, turib ketmoqchi bo‘lar, lekin oyoqlari itoat qilmayotgandek qimir etolmasdi. Bir vaqt Jamila uning qarab turganini payqadi shekilli, qanoti qayrilgandek bo‘shashib, xiralik qilavergan yigitlarni siltab tashladi.

— Yetar, hazilning tagi zil bo‘lmasin tag‘in!

— Iye, senga nima bo‘ldi, — deb kimdir xaxolab kulib, uni yana quchoqlamoqchi bo‘lgan edi, Jamila uning ko‘kragidan itarib yubordi:

— Nima ishing bor? Nari tur!

Keyin Doniyorga yalt etib bir qaradi-da, ko‘ylagini siqqani butalar orasiga kirib ketdi.

Doniyor bilan Jamila o‘rtasidagi munosabatning qanday oqibatlarga olib kelishini o‘shanda men bilmagan edim. Rostini aytsam, bu haqda chuqurroq o‘ylashga qo‘rqib, ko‘pincha o‘zimni boshqa narsalarga alahsitishga harakat qilardim. Lekin Jamilaning Doniyordan chetlab yurgani va bunga o‘zi yana ich-ichidan kuyungani negadir ko‘nglimni g‘ash qilar edi. Bundan ko‘ra ilgarigidek hazillashib yuraversa bo‘lmasmidi? O‘zim shunday deyman-u, biroq kechalari ovulga qaytayotganimizda Doniyorning ashulasini eshitarkanman, ularni o‘ylab, qalbim quvonchga to‘lib-toshar, haligi g‘amgin o‘y fikrlar xayolimdan ko‘tarilib, dunyoning butun lazzati shu ashulada deb bilardim. Daradan o‘tib, daryo bo‘yiga chiqqanimizda Jamila aravadan tushib, piyoda yurardi. Men ham aravadan tushib yurardim, yayov yurib, miriqib kuy tinglaganga nima yetsin! Bunday paytda yo‘ldagi chang-to‘zonlar orasida emas, xuddi osmonda, bulutlar qo‘ynida ketib borayotgandek bo‘lasan kishi! Avval yangam ikkalamiz aravalarimiz yonida boramiz, so‘ngra asta-sekin beixtiyor Doniyorga yondashib qolganimizni o‘zimiz ham sezmay qolamiz. Qandaydir sehrli bir kuch bizni Doniyor sari yetaklardi. Qorong‘ida uning yuz ifodasini, ko‘z qarashini ko‘rishni istardik, nahotki shu qadar yurak bilan kuylayotgan kishi o‘sha o‘zimizning kamgap, odamovi Doniyor bo‘lsa! Yuragi talpinib, kuydan orom olgan Jamila har doim unga yaqinlab borganida Doniyor tomon sekin qo‘l cho‘zganini o‘zi ham sezmay qolardi. Lekin zavq-shavq bilan kuylayotgan Doniyor buni payqamas edi. Uning o‘y-xayoli qayerdadir, osmonda kezib yurgandek uzoq-uzoqlarga ko‘z tikib, qo‘llarini ko‘ksiga qovushtirgancha, kuy ohangiga chayqalib o‘tirardi. Jamilaning qo‘li shilq etib tushib, arava chetiga tekkanda xuddi hushiga kelgandek qo‘lini tortib olar va yo‘l o‘rtasida serrayib turib qolardi. Jamila hang-u mang bo‘lib, anchagacha Doniyorga mo‘ltayib qarab turar, keyin yana qadam tashlardi.

Ba’zan menga yangam ikkovimizni ham bir xil, allaqanday ajib his-tuyg‘u hayajonga solayotgandek bo‘lib tuyulardi. Ehtimol, bu

his-tuyg'ular ikkovimizning ham qalbimizda ko'pdan buyon yashirinib yotib, endi vaqt-soati kelib tug'yon urayotgandir.

Jamila ish bilan alahsirab, uncha sir boy bermaslikka harakat qilardi. Lekin xirmonda qolib, qo'li ishdan bo'shadi deguncha, Jamila o'tirgani joy topolmay kalovlanib qolardi. Bekorchilikdan nima qilarini bilmagani-bilmagan odamdek shu o'rtada aylanib yurar, so'ngra xirmon sovurayotganlarning yoniga borar, ularga yordamlashmoqchi bo'lib, uch-to'rt kurak g'alla tashlardi-da, keyin birdan kurakni chetga irg'itib, somon g'arami oldiga ketardi. U dam olmoqchi bo'lgandek g'aram soyasiga o'tirardi-yu, go'yo yakka-yolg'iz o'tirishdan qo'rqqandek meni chaqirardi:

— Bu yoqqa kel, kichkina bola!

Men, yangam hozir menga butun sir-asrorini ochib, yuragidagi dardini aytsa kerak, deb kutardim. Lekin u hech narsa aytmas, erkalatib boshimni o'z tizzasiga qo'yardi-da, o'zi olis-olislarga uzoq tikilgancha qaltiragan issiq kaftlari bilan sochimni, yuzimni sekin-sekin silardi. Men yangamning tashvishli, g'amgin chehrasiga qarar ekanman, negadir o'zimni unga o'xshatardim. Chunki uning ham qalbini allaqanday bir hissiyot o'rtayotganini, uning ham yuragida yangi umid-orzular uyg'ona boshlaganini sezib qolgandim. Nazarimda, Jamila bu otashin hisni qalbidan chiqarib tashlashga urinayotgandek bo'lardi. Biroq o'z sevgisini tark etolmay, uning barcha zahmatlariga chidashga majbur bo'lardi. Men ham bunga o'xshab, bir ko'nglim Jamila Doniyorni sevsa yaxshi bo'lardi, desa, bir ko'nglim, sevmagani yaxshi, derdi. Axir ming qilsa ham kelinimiz-ku, akamning xotini-ku. Uni birovga qanday ravo ko'ray. Biroq bu xil fikrlarni darrov xayolimdan chiqarib tashlashga harakat qilardim. Jamilaning tizzasiga bosh qo'yib yotib, uning sal ochilgan g'uncha lablariga, yosh to'la shahlo ko'zlariga termilib qarash menga dunyo-dunyo rohat bag'ishlar edi. Jamila o'shanda naqadar go'zal, naqadar latofatli edi. Qalbining naqadar pok, beg'uborligi, o'y-xayollarining naqadar teran, yorqin ekanligi uning nur yog'ilib turgan chehrasidan ko'rinib turardi. O'sha kezlarda men shularning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rib yurgan bo'lsam ham, ammo tub mohiyatiga uncha tushunib yetmagan edim. Lekin hozir oradan qancha vaqtlar o'tib ketganidan keyin o'sha voqealarni eslab, ko'pin-

cha o'zimga-o'zim savol beraman: balki sevgi degan narsa— inson har tomonlama kamolotga yetib, aql-idroki to'lgandan keyin paydo bo'ladigan bir tuyg'umikin? Bu ham shoir yoki rassom ilhomiga o'xshab insonga kuch-qudrat bag'ishlab, yangi orzu-umidlar, istiqbol sari yetaklovchi bir kuch emasmikin? Ehtimol, oshiqlikning butun siri ham shundadir. Jamilaning yuziga qarab, ba'zi paytlarda o'zim ham his-hayajonlariga sherik bo'lgandek, qandaydir sirli bir narsa yuragimga quvonch bag'ishlagandek bo'lar edi. O'rnimdan sapchib turib, yugurgim kelar, ovul chetidagi keng dalaga chiqib, yuragimga g'ulg'ula solayotgan tashvish bilan quvonchning siri nimadaligini yer va samodan qichqirib so'ragim kelardi. Bir kun men bu savolimga javob topgandek bo'ldim.

Kunlardan birida biz stansiyadan ovulga qaytib kelayotgan edik. Qosh qorayib qolgandi. Ko'kda yulduzning vodiy bo'ylab yangragan ashulasigina buzadi. Jamila ikkovimiz uning orqasidan borardik. Doniyorning ashulasi bu safar negadir yolg'izlik dard-alamlarini ifoda qilgandek juda mungli eshitilib, kishi qalbini poralar edi. Ko'zimga qaynoq yosh kelib tomog'imga bir narsa tiqilgandek bo'ldi. Jamila bu safar qo'llarini Doniyor tomon uzatib, unga yaqin bordi-da, aravaga suyanib, boshini quyi solganicha indamay ketaverdi. Doniyorning ovozi tobora kuchayib, tungi dashtda yangidan to'lqinlana boshlaganda, Jamila qaddini rostlagancha aravaga sakrab chiqib oldi. U Doniyor bilan yonma-yon o'tirdi-da, qimirlashdan qo'rqqandek, qo'lini ko'ksiga qovushtirgancha qotib qoldi. Qani buyog'i nima bo'larkin, degandek, men ham ulardan ko'zimni uzganim yo'q. Jamilaning chiqib o'tirganini Doniyor payqamadi shekilli, unga qaramay kuylayverdi. Birozdan so'ng Jamila qo'llarini asta-sekin Doniyorning yelkasiga tashladi-da, unga suyanib, boshini yelkasiga qo'ydi. Shunda Doniyorning tovushi bir zum titradi-yu, keyin yana ham kuchayib, qo'ng'iroqdek yangradi. U sevgi haqida kuylardi.

Tong otib, gullagan vodiy yuzidan qora parda ko'tarilganda men o'sha keng dala o'rtasida sevishgan ikki yoshni ko'rdim. Ular menga hech nazar solmasalar ham ko'z ostidan qarab, sehrlangandek ergashib borardim. Sevishganlar men bilan ishi bo'lmay, faqat menigina emas, balki butun borliqni ham unutib yuborgandek, jon-

ga orom beruvchi kuy oqimida chayqalib, bir-biriga termilishib sekin borishardi. Nazarimda, Doniyor bilan Jamila butunlay boshqacha bo'lib qolgandek edi.

Bular men ilgari ko'rmagan-bilmagan qandaydir yangi, baxti kulib boqqan kishilar edi.

Ha, ularning biri ko'zi qorong'ida o'tdek yonib, eski ko'ylagining yoqasini ochib yuborib, dala-dashtga yangroq kuy taratib borayotgan Doniyor edi.

Ha, ikkinchisi, Doniyorga erkalanib jimgina o'tirgan mening yangam Jamila edi! Uning kipriklarida sevinch yoshlari miltirar, yuzida baxt nuri porlar edi.

Chinakam baxt shu emasmi? Doniyor o'zidagi ona-Vatanga, yorug' dunyoga bo'lgan otashin, yuksak mehr-muhabbatini ham, ana shu ulug' sevgi tug'dirgan dilrabo kuyni ham Jamilaga tortiq etdi. U Jamila uchun, Jamila haqida kuylardi. Axir baxt degani shu emasmi?! Ularga yuragimdan baxt-saodat tiladim. Doniyorning kuylari meni yana hayajonga soldi-da, birdan, kutilmaganda miyamga g'alati bir fikr keldi: "Men ularning suratini chizaman!" — dedim o'zimcha va go'yo nodir bir narsa topib olganday o'zimda yo'q suyunib ketdim. Lekin shu zahoti o'z fikrimdan o'zim cho'chib ketdim: "Bu ish mening qo'limdan kelarmikin, eplay olarmikinman?" Lekin orzu-istak qo'rquvdan kuchli keldi. "Ha, men ularning suratini albatta chizaman, men ularni xuddi hozirgidek baxtiyor qilib tasvirlayman!" — derdim.

Men shunday shirin orzu-xayollar og'ushida mast bo'lib, atrofga nazar tashlar ekanman, avgust tuni ko'zimga yana ham go'zal ko'rinib, dala gullab-yashnayotgandek bo'lib tuyulardi. Orzu-niyatimga xuddi hozir yetadigandek bo'lardim. Lekin endi bilsam, o'shanda juda g'o'r, yosh bola ekanman, kelajakda qanchadan qancha qiyinchiliklarga duch kelishimni bilmagan ekanman. Men o'zimga, ona Yerni Doniyor ko'zi bilan ko'ra bilish, Doniyor qalbi bilan seva bilish kerak, derdim. Men uning ajoyib ashulalarini bo'yoqlar yordamida hikoya qilib beraman. Menda ham o'sha tog'lar, dalalar, maysazorlar, bulutlar daralarning jonli tasviri beriladi. Buning uchun juda katta mahorat kerakligini o'ylamay, "bo'yoqlarni qayerdan olsam ekan, maktabdan so'rasam be-

rishmas, axir o'zlariga kerak-ku!" — deb tashvishlanib yurardim. Endi bilsam, o'shanda chuchvarani xom sanab, bolalik qilib yurgan ekanman.

Doniyorning ashulasi nima uchundir birdan uzilib qoldi. Bunday qarasam, Jamila Doniyorni mahkam quchoqlab, uni bag'riga bosib olgan ekan. Biroq shu zahotiyoq nimadandir cho'chigandek tisarilib, aravadan sakrab tushdi. Doniyor shoshib qolganidan tizginni tortib aravani to'xtatdi. Jamila teskari qaraganicha yo'lning qoq o'rtasida serrayib turib qoldi, so'ng boshini shartta burdi-da, yig'i aralash:

— Nega qaraysan? Menda nima ishing bor? Qarama menga, aravangni hayda, jo'na! — dedi-da, orqada qolgan aravasi tomon ketdi. Men lol bo'lib, og'zimni ochib qolgan ekanman, yangam meni ham koyib berdi:

— Xo'sh, sen-chi, sen nega angrayib turibsan, aravangga min! Boshimga bitgan balo bo'ldilaring-da!

"Qiziq, unga nima bo'ldi, chap yonidan turganmi",— deb o'ylardim yo'l-yo'lakay. Albatta chuqurroq o'ylagan odam Jamilaning rostdan ham iztirob chekayotganini izohsiz ham tushunar edi: ko'z ochib ko'rgan eri Saratov gospitallaridan birida yotsa, yaqinda qaytib boraman, desa, axir bu oson gapmi? Men hech narsa to'g'risida o'ylagim kelmasdi. Men o'zimdan ham, Jamiladan ham xafa bo'ldim, agar Doniyorning bundan keyin ashula aytmasligini, uning ovozini boshqa eshitmasligimni aniq bilsam, Jamiladan butun vujudim bilan nafratlangan bo'lardim.

Hozir o'lgudek charchab, ko'nglim negadir g'ash bo'lib, tezroq xirmonga yetib, somonga cho'zilsam derdim. Arava tinmay silkinib, tinkani quritar, tizgin qo'limdan chiqib-chiqib ketardi. Xirmonga yetib kelganimizda bir amallab otlarning xomutlarini yechdim-da, ularni aravaning tagiga tashlab, keyin somon g'arami ustiga borib cho'zildim. O'sha kecha otlarni Doniyor tushovlabdi.

Lekin ertalab juda xursand bo'lib turdim, ko'nglim musaffo tong singari ravshan, quvonchga to'la edi. Ha, men Jamila bilan Doniyorning suratini chizaman. Lekin "O'xshata olarmikinman?" — degan gumon butun miyamni chulg'ab olgan edi. Ko'zimni yumib,

ularni qanday tasvir qilmoqchi bo'lsam, ana o'shanday tasavvur etdim. O'rnimdan irg'ib turdim-da, kattakon soy bo'yiga tushib, qo'l-betimni yuvdim. Keyin o'tloqqa tushovlangan otlarni ko'zdan kechirdim. Ertalab shudring tushgan muzdek beda oyoqlarimni savalab, tizzamgacha shilta ho'l qilgandi. Lekin men buni pisand qilmay, oldinga chopib borar, tevarak-atrofdagi har bir narsani sinchiklab ko'zdan kechirar, yodimda saqlab qolishga urinar edim. Mana, quyosh tog' orqasidan ko'tarilib kelar, ariq bo'yidagi yolg'iz kungaboqar esa unga tomon bo'y cho'zardi. Uni kakralar o'rab olgan, biroq kungaboqar bo'sh kelmay ko'kka intilar, sariq gulli boshlarini mag'rur ko'tarib, quyosh nurini simirardi. Mana, ariqning arava o'tgan joyidan — g'ildiraklar izidan suv jimirlab oqmoqda. Suv o'rtasida ko'karib turgan binafsharang yalpizdan atrofga muattar hid taralardi.

"Qani endi rassom bo'lsam-u, musaffo go'zal tongni, ko'k bilan o'pishgan azamat tog'larni, shudring qo'ngan ko'm-ko'k bedazorni, ariq bo'yidagi bir tup kungaboqarni suratga solsam!"

Biroq xirmonga kelishim bilan bu shirin xayollarimdan asar ham qolmay, ko'nglim g'ash bo'ldi. Aftidan, Jamila o'tgan kechasi uxlamay chiqqan bo'lsa kerak, ko'zlari kirtayib, qovog'idan qor yog'ib turardi. Menga u hech narsa demadi, qayrilib qaramadi ham. Xirmonga brigadir O'rozmat kelib, endi otidan tushayotganida, Jamila uning yoniga bordi-da, salom-alik ham qilmay, tomdan tarasha tushgandek gapirib qoldi:

— Aravangizni oling! Qayoqqa yuborsalaring ham mayli, lekin stansiyaga g'alla tashimayman!

— Iye, senga nima bo'ldi, Jamilaxon, jin tegdimi? — dedi O'rozmat hazillashib.

— Jin tekkani yo'g'-u, lekin bormayman dedimmi, bormayman.

O'rozmatning jahli chiqdi:

— Bu gapingni qo'y, g'alla tashiysan, vassalom! — dedi u qo'ltiqtayog'ini yerga do'q etkizib urib. — Agar birov xafa qilgan bo'lsa, ayt, mana shu tayog'im bilan gardaniga bir tushiray. Bo'lmasa, ishingga jo'na. G'alla menga emas, frontga kerak, ering ham frontda-ku. — Brigadir jahl bilan shartta burildi-da, tez-tez odimlab ketdi.

Jamila g'ing deyolmay, qo'lidagi qamchinini o'ynatib, aybdor odamdek, qizarganicha turib qoldi. Berigi yoqda turgan Doniyorni ko'rdi-yu, sir boy bermay, og'ir xo'rsinib qo'ydi. Doniyor hamma gapni eshitdi-yu, lekin sezdirmadi. U teskari qaragancha xomut iplarini qattiq tortib bog'lay boshladi. Jamila ham xirmon o'rtasida birpas turdi-da, so'ng: "E, nima bo'lsa bo'lar", degandek qo'l siltab aravasi tomon ketdi.

O'sha kuni biz ovulga har kungidan barvaqt qaytdik. Chunki borayotganda ham, kelayotganda ham Doniyor otlarini zovtalab haydab bordi. Jamila g'amgin, gapirmas edi. Men qaqragan biyday dalani ko'rib ko'zlarimga ishonmasdim: axir kuni kecha u xuddi afsonalarda tasvirlangandek gullab-yashnab turgandi-ku... Kechagi ajoyib manzara, Doniyor bilan Jamilaning aravada yonma-yon o'tirganlari sira ko'z o'ngimdan ketmas edi. Go'yo hayotning eng go'zal bir lavhasini qo'limda ushlab turgandek bo'lardim. O'sha ajib bir lavha butun fikr-yodimni band qilgan edi. O'ylagan maqsadimga yetmagunimcha jonim tinchlik topmaydigandek edi. Xirmondagi hisobchining bir varaq qalin qog'ozini o'g'rilab olib, g'aram orqasiga yashirib, g'alla sovuradigan kurak ustiga qo'yganimda yuragim chiqib ketayotgandek dukillab bo'g'zimga tiqildi. Otam meni birinchi marta ot ustiga mingizgandagi kabi "Bismillo!" dedim-da, qalamni qog'ozga tekkizdim. Ana-mana deguncha Doniyorning qiyofasini qog'ozga chiza boshladim. Lekin bu hali mukammal bo'lmagan, shunchaki o'rgamchikka chizilgan surat edi. Lekin Doniyorning qomati o'ziga ancha o'xshay boshlaganida boshim ko'klarga yetib, u yerdaligimni, nima ish qilayotganimni ham unutib qo'ydim. O'sha avgust tuni, yastanib yotgan bepoyon dala qog'oz betida jilolangandek, Doniyorning dilrabo kuyi hozir ham qulog'im ostida jaranglab turgandek bo'ldi. Ko'z o'ngimda soldatcha ko'ylagining yoqasi ochiq Doniyor bilan uning yelkasiga bosh qo'ygan Jamila gavdalandi. Bu mening umrimda birinchi marta chizgan mustaqil suratim edi! Mana arava, mana yonma-yon o'tirishgan Doniyor bilan Jamila, mana, bo'sh tashlab qo'yilgan tizginlar, mana, qorong'ida sag'risi zo'rg'a ko'rinib yo'rtib borayotgan otlar, undan narida biyday dala, uzoq-uzoqlarda yulduzlar miltillaydi... Ishga shunchalik berilib ketibmanki, kimningdir

tepamga kelib jahl bilan qichqirganidan hushimga keldim. Qarasam, Jamila ekan:

— Nima balo, kar bo'lib qoldingmi?

U meni izlab yurgan ekan, shoshganimdan suratimni berkitishga ham ulgurolmay qoldim.

— Bug'doyni allaqachon yuklab bo'ldik, bir soatdan beri qichqiramiz-a, ovozing chiqsa-chi!.. Qo'lingdagi nima? — deb Jamila suratni mendan tortib oldi va: "Bu nima qiliq!" — deb avzoyi buzilib, qog'ozga termilganicha qoldi.

O'shanda xijolatdan juda mulzam bo'ldim. Jamila suratga uzoq tikilib turdi-da, keyin yoshlangan ko'zlari bilan menga ma'yus boqib:

— Shuni menga bergin-a, kichkina bola! — dedi u sekingina. — Sendan menga yodgor...

Jamila surat solingan qog'ozni ikki buklab qo'yniga solib qo'ydi.

Biz yo'lga chiqib ovuldan ancha uzoqlashib ketguncha o'zimga kela olmadim. Qalbimni shu qadar to'lqinlantirgan o'sha lavhani chindan ham qog'ozda aks ettira oldimmi yoki bu bir tush — xayolmi, deb gumonsiradim. Lekin shunday bo'lsa ham qalbimning chuqur bir joyida chizgan suratimdan faxrlanish hissi uyg'onib, yuragim sevinchdan tolib-toshar, yaqinda bo'yoq topsam, juda ko'p suratlar chizib maktabga ilib qo'yardim, degan shirin xayollar meni mast qilardi. Endi bilsam, bu bolalikka xos bir fazilat ekan. Men o'z xayollarim bilan band bo'lib, juda tez ketayotganimizni ham payqamabman. Chunki oldinda borayotgan Doniyordan orqada qolmaylik, deb Jamila otlarga ustma-ust qamchi urardi. Keyingi paytlarda Doniyor aravasini har qachongidan ham tez haydaydigan bo'lib qolgandi.

Jamila Doniyor bilan yonma-yon borardi. U goh o'ngga, goh so'lga qarar, ba'zan esa biron ayb ish qilib qo'ygandek ayanchli jilmayib turardi. Buni ko'rib men ham jilmayardim va: "Chizgan suratim yangamga yoqdi shekilli, xafaligi tarqab, ko'ngli yozildi. Jamila Doniyorga ashula ayt desa, u albatta aytib beradi... Demak, bugun Doniyorning ashulasini maza qilib tinglar ekanman-da... Eh, tezroq ayta qolsa ekan", — degan o'y ko'nglimdan kechardi!

Bu safar biz stansiyaga ancha barvaqt yetib keldik, lekin otlarimiz qora terga tushib ketgan edi. Tarozi ham bo'sh ekan, Doniyor aravadan tusha solib, qoplarni tashiy boshladi. Uning buncha shoshib-pishib ishlashiga, indamay tumshayib yurganiga hayron edik. Poyezdlar o'tganda, Doniyor to'xtab qolib, ularning orqasidan uzoq vaqt qarab turar, negadir chuqur o'ylanib qolardi. Jamila ham go'yo uning ko'nglidagini bilmoqchi bo'lgandek, Doniyor boqqan tomonga qaradi.

Jamila aravasining yoniga borib Doniyorni chaqirdi:

— Beri kel-chi, Doniyor, qashqa otning taqasi tushay deb turibdi, shuni yulib tashlagin.

Doniyor otning tuyog'ini tizzalari orasiga qisib, taqani yulib olib, qaddini rostlayotganida Jamila sekin shivirladi:

— Nima, hech narsani tushunmaysanmi deyman? Yo mendan boshqa qiz-juvon qurib qolganmi.

Doniyor qiyo boqdi-yu, lekin hech narsa demadi.

— Nima, menga oson deb o'ylaysanmi? — dedi Jamila xo'rsinib.

Doniyor Jamilaga mehr bilan boqib, allanima dedi-yu, lekin men eshitmay qoldim, chunki yuganidan ushlab turgan otim boshini siltab pishqirib yubordi. Doniyor nimadandir mamnun bo'lgandek qo'lidagi taqani silab, o'z aravasi tomon ketdi. Men unga qarab, nahotki uning yuragi Jamilaning haligi so'zlaridan taskin topdi ekan, deb hayron bo'lardim. Axir "Menga oson deb o'ylaysanmi?" — degan so'zining nimasiga xursand bo'ladi?

Biz qoplarni tashib bo'lib, endi ovulga qaytmoqchi bo'lib turganimizda, hovliga egniga g'ijimlangan eski shinel kiygan, yelkasiga xalta ilib olgan bir oriq yarador soldat kirib keldi. Undan sal oldin stansiyaga bir eshelon kelib to'xtagan edi. Haligi soldat chor-atrofga alang-jalang qaradi-da:

— Gurkurov ovulidan kim bor?! — deb qichqirdi. Bu kim bo'ldiykin, deb o'yladim-da:

— Men Gurkurovdan bo'laman, — dedim.

Soldat quvonib ketdi-da:

— Kimning bolasisan, ukajon? — deb so'rab oldimga kelmoqchi bo'lgan edi, birdan Jamilaga ko'zi tushib, turgan joyida dong qotib qoldi.

— Karimmisan? — dedi Jamila shodlanib.

— Voy, Jamila, singiljonim! — deb soldat Jamilaning yoniga yugurib borib, u bilan qo'sh-qo'llab ko'risha ketdi.

Bu kelgan yigit Jamilaning uzoq qarindoshi, hamqishlog'i ekan.

— Buni qara, xuddi bilgandek shu yoqqa qayrilibman-a! — dedi u hayajon bilan, — Sodiqning yonidan chiqqanimga atigi besh kun bo'ldi, gospitalda u bilan birga yotdik, Xudo xohlasa, u ham bir-ikki oyda kelib qoladi. Men kelayotganimda xotiningga xat yozib ber, o'z qo'lim bilan topshiray, deb xat yozdirib olgandim... Juda yaxshi qilgan ekanman-da, mana, omonatingni ol!— deb xursand bo'lib, soldat shinelining ichidan uchburchak xatni olib, Jamilaga uzatdi. Jamila xatni shosha-pisha oldi-da, quvonganidanmi yo uyalganidanmi, avvaliga qizarib, so'ngra rangi quv o'chib, indamay Doniyorga ko'z qirini tashladi. U boyagi xirmondagidek oyoqlarini kerib, aravasining yonida yolg'iz turarkan, Jamilaga ma'yus boqardi. Bu orada har tomondan yugurib kelishgan kishilar soldatni o'rab olib, ba'zisi qarindosh, ba'zisi hamqishloq chiqib, hol-ahvol so'rashib qolishdi. Jamila o'z hamqishlog'iga minnatdorchilik bildirishga ulgurmagan ham ediki, Doniyor uning yonidan aravasini taqir-tuqur qilib o'tdi-da, chang-to'zon ko'tarib yo'lga tushdi. Kishilar uning orqasidan:

— Nima balo, uni jin urdimi? Esi joyidami o'zi? — deb qichqirib qolishdi.

Soldatni ham tanish-bilishlari olib ketishdi shekilli, hovlida yangam ikkalamizdan boshqa hech kim qolmabdi. Biz Doniyorning aravasi ko'zdan g'oyib bo'lguncha, olisda ko'tarilayotgan changga qarab turdik.

— Yur, yanga, uyga ketaylik, — dedim men.

— O'zing ketaver! — dedi Jamila.

Ana shunday qilib, biz birinchi marta alohida-alohida ketdik.

Havoning dimligidan nafas olish qiyin edi. Yerdan ko'tarilgan harorat lablarimni qavartirib, tomog'imni quritib yubordi. Jazirama quyosh nuri ertalabdan kuydirib, qovjiratib yotgan yer bilan endi sho'rxok tuz bilan qoplanib, asta-sekin soviyotgandek bo'lardi. Quyosh sho'rxok yerdan ko'tarilayotgan sarob singari parda ichida ufq sari cho'kib borardi.

Uzoqda, ufq tepasida qizil-sur bulutlar yig'ila boshladi. Ba'zan kuchli garmsel esib, otlarning tumshuqlariga chang aralash oqish sho'rxoklarni keltirib urar hamda ularning chang bosgan yol va dumlarini yulqib, yo'l bo'yidagi ermanlarni uchirib ketardi.

"Yomg'ir yog'adi shekilli", deb o'yladim. Shunda yolg'izlik dardi ichimni o'rtab, allanimadan qo'rqqandek otlarni jadal haydab ketdim. Mengina emas, hatto uzun oyoqli tuvaloq qushlar ham bir narsadan cho'chigandek qamishzorlar orasiga kirib yashirinishdi. Shamol jazirama issiqda qovjiragan qariqiz yaproqlarini allaqayerlardandir yo'l ustiga uchirib kelardi. Biz tomonlarda bunday o'simliklar o'smaydi. Chamamda, bu yaproqlar qozoq cho'llaridan uchib kelgan bo'lsa kerak. Tevarak-atrofda qimirlagan jon yo'q. Doniyor ham ko'rinmaydi, orqada qolgan Jamiladan ham darak yo'q. Quyoshning oxirgi nuri ham so'ndi. Toliqqan dala ham mudrab uyquga ketdi.

Men xirmonga qosh qorayganda yetib keldim. U yer tinch, g'ir etgan shabada yo'q. Doniyorni chaqirgan edim, qorovul javob berdi.

— U soyga ketdi, nima ishing bor edi? — dedi-da, so'ngra bir yutinib olib, o'zicha ming'illadi. — Havoning dimligini-chi, hamma uy-uyiga ketdi. Shamol bo'lmasa, xirmonda ish bo'larmidi...

Otlarni bedazorga tushovlab, soyga burildim. Doniyor odatdagidek tik tushgan jar tepasida tizzasini quchoqlab, boshini quyi solgancha jar ostida suvning shovullab oqishiga quloq solib o'tirardi. Uning muztar bo'lib o'tirishi yuragimni ezib yubordi. Doniyorning yoniga borib, uni mahkam quchoqlab, tasalli bermoqchi, iliq so'zlar bilan ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ldim. Lekin nima ham deya olardim, uni qanday yupataman axir. Anchagacha ikkilanib turdim-da, so'ngra xirmonga qaytib ketdim.

O'shandan keyin g'aram ustida yotib ancha vaqtgacha uxlay olmay, osmonni qoplab kelayotgan bulutlarga qarab xayol surib ketdim. "Inson hayoti nega bunchalik murakkab, sira tushunib bo'lmaydi-ya". Jamilaning bo'lsa hamon daragi yo'q. Nega buncha hayalladi ekan, qayerlarda yurganikin, deb aravaning g'ildirak tovushlarini eshitishga zor bo'lib quloq solib yotdim. Qattiq charchagan bo'lsam ham sira uyqum kelmadi. Tog'lar tepasidagi bulutlar orasidan yashin yalt-yult etib chaqnardi.

Doniyor kelganda hali uyg'oq edim. U nima qilarini bilmay, qayta-qayta yo'lga qarab, xirmonda biroz aylanib yurdi-da, so'ngra yonimga kelib, o'zini yuztuban otdi.

"Endi u ovulda qolmaydi, boshini olib ketsa kerak", — deb o'ylardim. Lekin bechora qayerga ham borardi? Boshpanasiz bir musofir kimga ham kerak? Bechoraga qiyin bo'ldi-da, endi nima qilar ekan?

Endi ko'zim ilingan ekan, xirmon tomondan arava tovushi eshitildi. "Jamila bo'lsa kerak", — deb o'yladim uyqu aralash.

Qancha uxlaganimni bilmayman, bir vaqt naq qulog'im tagida shitirlagan tovush eshitilib, birov kelayotgandek bo'ldi. Qanot serpigandek qandaydir bir sovuq narsa betimni silab o'tdi. Ko'zimni ochsam Jamila ekan. Cho'milib kelgan bo'lsa kerak, ko'ylagini ham ho'llab olibdi, shuning uchun ham yonimdan o'tayotganida salqin shabada esgandek bo'ldi. Jamila to'xtab qoldi-da, u yoq-bu yoqqa alanglab, Doniyorning bosh tomoniga o'tirdi.

— Doniyor, mana men o'zim keldim! — dedi u sekin shivirlab.

Atrof jimjit, osmonni gumburlatib yashin chaqnadi.

— Xafa bo'ldingmi? Qattiq xafa bo'ldingmi?

Yana jimlik cho'kdi, qirg'oqdan tuproqning suvga "sho'lp" etib tushgani eshitildi.

— Lekin mening aybim nima? Senda ham gunoh yo'q.

Tog'lar ustida yashin gumburladi. Jamila cho'chib yalt etib qaraganida, yashin uning yuzini yoritib yubordi. Jamila atrofga bir qaradi-da, o'zini Doniyorning ko'ksiga tashladi, uning yelkasi Doniyorning baquvvat qo'llari ostida dir-dir uchardi. Jamila ham g'aramga cho'zilib Doniyor bilan yonma-yon yotdi.

Kuchli shamol somonni ko'kka sovurib, xirmon chetida qiyshayib turgan o'tovni yalab o'tdi-da, quyun bo'lib osmonga ko'tarildi. Chaqmoq bulutlar orasida ko'kimtir iz qoldirib, qarag'ay singandek qasira-qusur qilib hammayoqni larzaga soldi. A'zoyi badanim titrab, ham qo'rqib, ham quvonib ketdim. Momaqaldiroq, yozning oxirgi momaqaldirog'i yopirilib kelar, ilk nafasi dimoqqa urilardi. Endi Jamilani hech qanday kuch to'solmasdi. U Doniyorga sekin shivirladi:

— Chindan ham gumonsiradingmi, nahotki, men seni unga almashtirsam! U meni hech qachon sevgan emas, sevmaydi ham!

Mayli, kim nima desa deyaversin, lekin men senikiman! Yolg'izim, azizim, men seni hech kimga bermayman. Men seni ko'pdan beri sevaman. G'oyibona oshiq bo'lib kelishingni intizorlik bilan ko'zim to'rt bo'lib kutgandim. Kutganligimni bilgandek, mana, sen ham meni izlab kelding.

Jarlik orqasidagi soy qirg'oqlaridan ivib, suvga qulab tushayotgan tuproq chaqmoq yorug'uda ko'rinib turardi. Dastlabki yirik yomg'ir tomchilari somon ustiga shitirlab yog'a boshladi.

— Jamilam, jonginam, sevgilim, Jamilaxon! — deb Doniyor qirg'izcha va qozoqcha eng nafis so'zlar bilan o'z ma'shuqasini erkalatardi, — men ham seni ko'pdan beri sevib yurardim. Umrimda ko'rmagan bo'lsam ham okoplarda yotib seni o'ylardim. Sevgan yorim vatanimda ekanligini bilardim. Bu sen ekansan, Jamilam!

— Shunqorim, mard lochinim! Bu yoqqa qara-chi, ko'zlaringga to'yib boqay!

Yomg'ir sharros quyib berdi. Qora uy tepasiga yopilgan namatlar xuddi qanot qoqqan qushdek shamolda uchib ketdi. Goh qiyalab, goh tik quygan jala yerni orziqib kutgandek ustma-ust o'pardi. Ketma-ket momaqaldiroq gumbirlab, butun osmon qa'rini tilib o'tgandek bo'lardi. Uzoq-uzoqlardagi tog'lar bahor lolalaridek qizarib ko'rinardi.

Yomg'ir kuchaya bordi. Men bo'lsam, somonga ko'milib olib, yuragimning duk-duk urishini sezib yotardim. Men nihoyatda baxtiyor edim! O'zimni uzoq kasallikdan keyin birinchi marta ko'chaga chiqqan odamdek his etib, har bir narsaga suqlanib qarar, go'yo hayot lazzatini endi bilayotgandek edim.

Yog'in ham, chaqmoqlarning yorug'u ham somon ostida yotgan joyimga yetib borardi, lekin men o'zimni juda yaxshi his etardim, uyquga ketar ekanman, o'zimcha kulimsirab qo'yardim. Qulog'imga chalingan sharpaning nimaligini bilmasdim. Bu Jamila bilan Doniyorning shivirlashimi yo bo'lmasa tinayotgan yomg'irning somonga shitirlab tushishimi?

"Mana endi yomg'ir tinmaydi, hademay kuz ham kiradi!" — derdim o'zimga o'zim. Nam somon bilan erman hidi dimoqqa urib, kuzdan darak berardi.

Lekin bu kuzda bizni nimalar kutayotgani haqida o'ylamabman.

* * *

O‘sha kuzda men ikki yillik tanaffusdan keyin yana maktabga qatnay boshladim. Darsdan bo‘sh vaqtlarimda ko‘pincha haligi soy bo‘yidagi jar tepasiga borib o‘tirardim. Xirmon huvullab bo‘shab qolgan edi. Bu yerda men maktabdan olgan bo‘yoqlar bilan o‘zimning dastlabki etyudlarimni chizdim. Chizgan suratchalarimdan o‘zimning ham ko‘nglim to‘lmas edi. “Bo‘yoqlarimning mazasi yo‘q. Qani endi chinakam, asl bo‘yoqlar bo‘lsa!” — deb o‘ylardim ichimda. Yaxshi bo‘yoqlarning qanday bo‘lishini bilmasdim ham. Rassomlar ishlatadigan moybo‘yoqlarni faqat keyingi vaqtlardagina ko‘rishga muyassar bo‘ldim.

Bo‘yoq o‘z yo‘li bilan-u, lekin muallimlarning gapida ham jon borga o‘xshardi: rassom bo‘lish uchun o‘qish kerak. Bu gap to‘g‘riligini bilib tursam ham o‘qishimga sira ko‘zim yetmasdi.

O‘qish qayoqda deysiz, akalarim dom-daraksiz ketgan bo‘lsa, men ikki uyning yolg‘izgina dastyori bo‘lsam, o‘qishga yuborisharmidi. Shuning uchun o‘qish to‘g‘risida og‘iz ham ochmasdim. Lekin o‘qishni qo‘msab, borolmasligimga ich-ichimdan achinardim, buning ustiga, bu yil kuzning bu qadar ko‘rkam kelishini aytmaysizmi!

Qo‘lingdan kelsa, o‘tirsanggu chizsang, ajoyib surat chiqardi-da.

Gurkurovning suvi kamayib, qozondek-qozondek toshlar turtib chiqib, ularning usti yam-yashil, sap-sariq yo‘sin bilan qoplangandi. Ertalabki izg‘irindan yalang‘och tollarning nozik tanalari qizarib ketgandi, biroq teraklarning sap-sariq yaproqlari hali to‘kilmagan edi.

Yilqichilarning yozi bilan o‘t yoqilaverib tutundan qorayib ketgan o‘tovlari katta soyning u yer-bu yerida ko‘zga tashlanardi. O‘tovdan buralib-buralib chiqayotgan ko‘k tutun xuddi to‘y-to‘ylagan xotinlardek ovulma-ovul suzib yurishardi. Toychoqlar atrofga yoyilib ketgan onalarini qidirishib, zo‘r berib kishnashardi. Endi toychoqlarning kishnagani-kishnagan. Chunki biyalarni to bahargacha uyurda saqlash qiyin. Tog‘lardan qaytgan mollar hosili yig‘ib olingan dalalarda poda-poda bo‘lib yurishardi. Dasht sahni tuyoq izidan ilma-teshik bo‘lib ketgan edi.

Bu yil ham kuz kuzligini qildi: hammayoqni to‘zitib izg‘irin shamol qo‘zg‘aldi va osmonning avzoyi buzilib, qor aralash yomg‘ir yog‘a boshladi. Bir hafta surunkasiga yoqqan yomg‘ir bir kun sal tinishi bilan men Gurkurov tomonga qarab jo‘nadim. Toshloqdagi bir tup tog‘ chetani qip-qizil cho‘g‘dek yonib, “Meni suratga ol”, — degandek bo‘y cho‘zib turardi.

Men soy bo‘yidagi butalar orasida surat chizib o‘tirganimda qosh qorayib qolgan edi. Bir vaqt boshimni ko‘tarib qarasam, narigi sohilda ikki kishi turibdi, daryoning sayoz joyidan kechib o‘tishgan bo‘lsa kerak. Ularning Doniyor bilan Jamila ekanini darrov tanidim. Men ularning jiddiy va tashvishli yuzidan ko‘zimni uza olmay tikilib turdim. Doniyor har galgidek dadil qadam tashlar, yurgan sayin shinelining bari ohori to‘kilgan soldatcha etigining qo‘njlariga shartillab tegardi. Jamila bo‘lsa egniga bozorga borganda kiyadigan parcha-parcha qizil gulli ko‘ylagini, chiybaxmal choponini kiyib, boshiga oq jun ro‘molini o‘rab olgandi. Bir qo‘liga tuguncha ko‘tarib, ikkinchi qo‘li bilan Doniyorning xaltasidan ushlab bormoqda. Ular yo‘l-yo‘lakay nimalar to‘g‘risidadir o‘zaro gapirishib borishardi.

Ularning ovulimizni tashlab, qayoqqadir ketishayotganini sezib, yuragim “jiz” etib ketdi.

Mana, ular jarlikdan o‘tib, qamishzor oralab ketib borardi. Men bo‘lsam, xuddi bir narsani yo‘qotgan kishidek ularning orqasidan qarab, nima qilarimni bilmay qoldim. Qichqirayin desam, nafasim siqilib, ovozim chiqmasdi.

Quyosh tog‘lar yoqalab suzib borayotgan bulutlarga qizg‘ish nurlarini so‘nggi bor sochdi, atrofni qorong‘ilik qoplay boshladi.

Doniyor bilan Jamila orqa-oldilariga qaramay, temir yo‘l razyezdini ko‘zlab tez odimlab borishmoqda. Bora-bora ularning qoralari uzoqlashib, birozdan keyin qamishzor orasiga kirib, butunlay g‘oyib bo‘ldi.

Ana o‘shandagina men o‘zimga kelib, orqalaridan ovozimning boricha:

— Jamila-a-a-a! — deb qichqirdim.

Dala ustida ancha vaqtgacha: “a-a-a” degan aks sado eshitilib, birozdan so‘ng tinar edi.

Yana bir marta jahl bilan:

— Jamila-a-a-a! — deb qichqirdim-da, so‘ng ularning orqasidan yugurib qoldim. Suvni suv demay, oyoqyalang, boshyalang, ularning orqasidan quvib borardim, ust-boshim jiqqa ho‘l bo‘lgandi. Shunga qaramay, yana tezroq chopa boshladim. Birdan oyog‘im nimagadir chalinib ketdi-da, yuztuban yiqildim. Boshimni ko‘tarmay, ikki qo‘lim orasiga olib, o‘ksib-o‘ksib yig‘lab yubordim. Ko‘z yoshlarimdan namlangan mayin tuproq qo‘limni, betimni muzlatib g‘ira-shira qorong‘ilik ko‘nglimga g‘ulg‘ula solgandek, o‘pkam qisilib, achchiq-achchiq yig‘ladim, qamishlar go‘yo mening qayg‘u hasratimga hamdard bo‘lgandek tinmay shitirlashar edi.

— Jamila! Jamila! — derdim men o‘pkamni bosolmay piq-piq yig‘lab. Men eng yaqin, eng aziz odamlarim bilan xayrlashar edim. Mana, hozirgina yerda yotib, o‘zim ham Jamilani sevib qolganligimni tushundim. Bu mening ilk, bolalikdagi sevgim edi.

Yuzimni ko‘z yoshidan ho‘l bo‘lib ketgan yengimga artib, yana anchagacha yig‘lab o‘tirdim. Men faqat Jamilalar bilangina emas, balki o‘zimning bolalik davrim bilan ham xayrlashar edim.

Qorong‘ida timirskilanib uyga kelganimda hovlimizda shovqin-suron avjida edi: it egasini tanimasdi; kimdir otga egar urardi. Bezori Usmon bo‘lsa, har kungidek mast, otini gijinglatib, ovozining boricha baqirardi:

— Aytmaganmidim, mana oqibati nima bo‘ldi. Yo‘lchiboy ota sharmandayi sharmisor bo‘ldi. Qani ketdik, bu sayoq it, chala qozoqni ushlab bo‘ynini uzmasam, otimni boshqa qo‘yaman. O‘n yilga kesilsam, kesilaman-u, lekin har qanday yalangoyoqning xotinlarimizni olib ketishiga yo‘l qo‘ymayman. Qani ketdik, yigitlar. Qayerga ham borardi deysan?

Ular qaysi tomonga ketisharkin degan fikr xayolimdan o‘tdi-yu, yuragim shuv etib, a’zoyi badanim muzlab ketdi. Nima qilarimni bilmay, otliqlarning orqasidan men ham ovul chekkasigacha yugurib bordim-da, ularning razyezd tomonga emas, stansiyaga olib boradigan katta yo‘l tomonga qarab burilib ketganlarini ko‘rib, ko‘nglim o‘rniga tushdi. So‘ngra uyga qaytib keldim-da, yig‘laganimni hech kim bilmasin deb, otamning to‘niga o‘ralib yotdim.

Ovulda har xil mish-mish gaplar tarqaldi. Hamma xotinlar Jamilani qoralashardi:

— Ahmoq-da! Aqli bo'lsa tuz ichgan joyiga tuflab, sanqib yurgan bir musofirga ergashib ketarmidi.

— Shunisiga kuyaman-da! Uning nimasiga qiziqdi ekan deyman-da! Eski shineli bilan teshik etigidan bo'lak hech balosi yo'q edi-ku!

— Qo'ton-qo'ton qo'yi bormidi! Uyi yo'q, joyi yo'q, nasl-nasabi betayin bir daydi-da! Mayli, uvoli o'ziga, hali attang deydi... Bu tannoz xotinning holini o'shanda ko'rarmiz.

— Tavba, Sodiqdan ortiq erni topib bo'pti.

— Qaynonasini aytmaysanmi, qaynonasi-chi? Bunday yuvosh qaynonani qayerdan topadi! O'ziga o'zi qildi juvonmarg, mayli!

Burungi yangamni, Jamilani qoralamay, uning qilmishini to'g'ri deb topgan yolg'iz men bo'lsam kerak. Doniyorning eski shineli bilan teshik etigidan boshqa hech narsasi bo'lmasa ham, lekin uning ma'naviy boy, qalbi yuksak odamligini men bilmaganda kim biladi. Jamila Doniyorning etagini ushlab ketib, o'z baxtini toptadi, degan gaplarga ishonish u yoqda tursin, aksincha, men, u o'z baxtini endi topdi, deb ishonardim. Faqat oyimga achinardim, xolos. Jamila bilan birga uning butun kuch-quvvati ketgandek. Oyim g'amgin bo'lib, o'zini ancha oldirib, qaddi bukilib qoldi. Oh, bechora oyim! Hayot oqimi ba'zida eskilik ildiziga shafqatsiz bolta urib, yangi baxt sari intilishini oyim tushunmasa kerak-da. Agar bo'ron azim chinorni tag-tomiri bilan qo'porib tashlasa, u qaytib qaddini rostlayolmaydi... Oyimning har bir xatti-harakatidan uning oldingi kuch-quvvati qolmaganligi sezilib turardi. Ilgarilari u hech kimdan ignaga ip o'tkazib berishni iltimos qilmas, qarilik g'ururi bunga yo'l qo'ymas edi. Bir kuni uyga kirib kelsam, oyim ignaning ko'zini topolmay, qiynalib yig'lab o'tiribdi.

— Ma, ipni o'tkazib ber-chi! — dedi u qaltiragan qo'llari bilan igna va ipni menga uzatib. So'ngra og'ir xo'rsindi-da, ko'z yoshlarini artib, o'zicha ming'irladi: — E-e, sho'rlik kelinim, ko'ra-bila turib o'zingni o'tga tashlading-a. Uyimizning to'ri seniki, yeganing oldingda, yemaganing ketingda edi... O'zingni o'zing juvonmarg

qilding... Bizni dog‘da qoldirib ketding... Nega ketding? Uyimizda nima kamchilik ko‘rding... Sho‘rlik Jamila...

Oyimning shunday mung‘ayib o‘tirganini ko‘rib, o‘zimni tutolmay, beixtiyor: “Yo‘q, oyi, u sho‘rlik emas!” — deb qichqirib yuborgim keldi-yu, lekin o‘zimni bosdim. Oyimni mahkam quchoqlab, Doniyorning kimligini, uni jonimdan aziz ko‘rishimni aytib, yig‘lab yuborishimga oz qoldi. Lekin bu so‘zlarni aytishga tilim borarmidi. Bu gapim bilan oyimni bir umrga xafa qilgan bo‘lardim.

Lekin baribir bu begunoh “qilmishlarim” sir bo‘lib qolmadi.

Oradan ko‘p o‘tmay Sodiq akam armiyadan qaytib keldi. Rostini aytganda, u ko‘rinishda unchalik sir boy bermasa ham, lekin nomusdan qattiq kuyunib, jig‘ibiyron bo‘lib yurdi, Usmonlar bilan ichishib qolgudek bo‘lsa:

— Ketgan bo‘lsa sadqayi sar! Sarson-sargardon bo‘lib yurib, oxiri bir kun ochidan o‘ladi-ketadi. Xotinman deganing to‘lib yotibdi, chertib-chertib olish mumkin. Oltin boshli xotindan baqa boshli er yaxshi! — derdi jahl bilan.

— Gaping-ku to‘g‘ri-ya, — deb javob qaytarardi Usmon. — Afsuski, o‘shanda qo‘limga tushmadi-da, unisining ichak-chavog‘ini ag‘darib, bunisining sochlaridan otga bog‘lab sudratardim! Ehtimol, ular janubda, paxta dalalarida yo bo‘lmasa qozoq yerlarida tentib yurishgandir. Sayoqlik Doniyorga kasb bo‘lib qolgan. Shunisiga dog‘manki, buni hech kim bilmay, hech kim sezmay qolgan-a, qanday bo‘lganiga kishining sira aqli yetmaydi-ya... Bu ishning hammasini o‘sha qanjiqning o‘zi qilgan, isini ham chiqarmadi-ya, la’nati, bo‘lmasa men uni naq!..

Bunday gaplarni eshitganimda qonim qaynab, mushtlarimni qisardim. Kuchim yetsa, o‘sha Usmonning basharasiga tuflab: “Pichan o‘rog‘ida adabingni bergani esingdan chiqibdi-da... Eng yaramas, eng razil odam sensan-ku!” — degan bo‘lardim.

Bir kuni uyda maktab devoriy gazetasiga surat chizib o‘tirgan edim, oyim ham pechka oldida cho‘qqayib o‘t yoqib o‘tirardi, bexosdan eshik ochilib, uyga rangi ko‘karib, g‘azabidan ko‘zlariga qon to‘lgan Sodiq akam kirib keldi. U mening ustimga yopirilib kelayotganda, yelkasiga tashlab olgan shineli yerga tushib ketdi.

— Buni sen chizdingmi? — deb so‘radi u bir varaq qog‘ozni tumshug‘umga tiqib. Qog‘ozdagi suratni ko‘rib yuragim orqamga tortib ketdi: bu o‘sha xirmonda o‘tirib qalamda chizgan Doniyor bilan Jamilaning surati edi. Suratga ko‘zim tushishi bilan go‘yo ular menga qarab turishgandek bo‘ldi. “Qiziq, Jamila buni nega tashlab ketdiykin? Uni bir yerga yashirib qo‘ygan-u, keyin esidan chiqarib ketgan bo‘lsa kerak!” — deb o‘yladim ichimda.

— Ha, men chizgan edim! — dedim.

— Bu-chi, bu kim o‘zi?

— Doniyor.

— E, ablah, sotqin! — deb o‘shqirdi Sodiq akam menga va suratni mayda-mayda qilib yirtdi-da, oyog‘i ostiga olib toptab, keyin eshikni qattiq yopib chiqib ketdi.

Uy ichiga og‘ir jimlik cho‘kdi.

— Sen buni bilarmiding? — deb so‘radi oyim bir mahal.

— Ha, bilardim.

Oyim pechkaga o‘t yoqib o‘tirib, menga shunday ta’na va hayrat nazari bilan qaradiki, men nima qilishimni bilmay, bosh barmog‘imni uzib olgudek bo‘lib:

— Men ularning suratini yana chizaman! — dedim. Oyim g‘ing demay boshini ma’yusgina chayqab, yerga boqdi. Yerda sochilib yotgan suratga qarab, ichimni o‘tdek o‘rtayotgan xo‘rlikka hech chiday olmadim. Mayli, men oilamiz, urug‘umiz uchun “sotqin” bo‘layin, biroq men odamgarchilikka, haqiqatga, hayot haqiqatiga xiyonat qilganim yo‘q, aksincha, adolat tarafdori bo‘ldim. Mening ko‘nglim sof, niyatim xolis ekanligini hech kim bilgan emas, buni odamlarga ham aytib bo‘lmaydi, boshqalar tugul, hatto oyim ham buni tushunmas edi, albatta.

Oyim indamay o‘tiraverdi. Izza bo‘lganimdan ko‘zlarimga yosh keldi, yirtib tashlangan surat parchalari go‘yo jonliday yerda aylanib yurardi. Doniyor bilan Jamilaning yorqin qiyofasi sira ko‘z o‘ngimdan ketmas, Doniyorning o‘sha avgust kechasi aytgan orombaxsh qo‘shiqlarini yana eshitayotgandek bo‘lardim. Ularning ovuldan ketganlarini eslaganimda, g‘ayratga to‘lib men ham ular kabi o‘z istiqbolim yo‘lida qiyin safarga otlanishga qat’iy bel bog‘ladim.

— Men o‘qishga ketaman! — dedim oyimga. — Rassom bo‘lgim keladi, rassomlik o‘qishiga boraman, otamga ham aytib qo‘ying...

Men hozir oyim urushda halok bo‘lgan akalarimni eslab, faryod ko‘tarib yig‘lasa kerak, deb o‘ylagan edim. Lekin baxtimga oyim yig‘lagani yo‘g‘-u, faqat g‘amgin, eshitilar-eshitilmas qilib gapirdi:

— Mayli, o‘zing bilasan, borsang bora qol... Uchirma qanot bo‘lganlaringdan keyin gapimizga kirarmidilaring, har qaysing o‘z bilganlaringni qilasizlar. Biz nimani bilamiz, balki sizlarning bilganlaring to‘g‘ridir, balki juda katta odam bo‘lib ketarsanlar... Hozir zamon o‘zi shunaqa-ku. Mayli, boraver... Ehtimol, o‘sha yoqlarga borganingdan keyin suratkashlik yaxshi kasb emasligini o‘zing tushunib olarsan... Uyingni, ota-onangni unutma, nasihatim shu...

Shu kundan boshlab kichik uy o‘z-o‘zidan bo‘linib ketdi. Hademay men ham o‘qishga jo‘nadim.

Rassomlik maktabini bitirib, o‘z mahoratimni oshirish uchun yana Leningrad akademiyasiga o‘qishga borganimda, o‘z diplom ishimni topshirdim. Bu diplom ishi — ko‘pdan beri orzu qilib, yuragimda saqlab yurgan suratim edi.

Albatta, sizlar bu suratda Doniyor bilan Jamila tasvirlanganini darrov fahmlagandirsizlar. Ular daladagi yolg‘izoyoq yo‘ldan yonma-yon ketishar edi. Doniyorning shineli shamolda yelpinib, yuzidan sevinch balqigan Jamila uning xaltasidan ushlab olgandi.

Ularning oldida Doniyor kuylagan poyonsiz, yorug‘, keng dala yastanib yotardi. Hozir olamda Jamila bilan Doniyordan baxtli odam bo‘lmasa kerak!

To‘g‘ri, suratimni har tomonlama mukammal, bekam-u ko‘st ishlangan deb aytolmayman. Axir, mahorat degan o‘z-o‘zidan darrov kelmaydi-ku. Bu og‘ir, mashaqqatli mehnat mevasi... Lekin baribir bu surat men uchun dunyoda eng aziz, eng qimmatli narsa edi. Chunki o‘zimdagi san’atga bo‘lgan barcha mehr-muhabbatim, ixlosim, zavqimni men birinchi marta ana shu suratga bergandim.

Mana endi ancha tajribali bo‘lib qolgan bo‘lsam ham, ba’zan chizgan suratlarim ko‘nglimdagidek bo‘lib chiqmaydi, o‘zimga yoqmaydi, o‘shanda o‘z kuchimga o‘zim ishonmay gumonsirab qolaman. Shunday og‘ir damlarda o‘sha surat — Doniyor bilan

Jamila meni o‘ziga chorlaydi. Ularga uzoq tikilib, har gal ular bilan maslahatlashgandek bo‘laman.

“Hozir qayerdasiz, qaysi yo‘ldan ketyapsiz? Hozir dalamizda yangi yo‘llar ko‘p. Qozog‘istondan tortib Oltoy va Sibirga qadar cho‘zilib ketgan! Hozir u yerlarda cho‘lni bo‘stonga aylantirish, yangi yerda yangi turmush qurish uchun ko‘plab azamatlar mardona mehnat qilmoqdalar! Balki sizlar ham o‘sha yoqqa ketgandirsizlar! Unday bo‘lsa, oq yo‘l! Safarlaring bexatar bo‘lsin! Jamila, mening Jamilam, sen boshingni baland ko‘tarib, keng daladan mag‘rur qadam tashlab ketding... Hozir ham o‘shandaymisan, hozir ham yo‘l yurishdan toliqmaysanmi? Yo o‘z kuchingga o‘zing ishonmay, charchagan, ikkilanib qolgan kunlaring ham bo‘ladimi? Bo‘sh kelma, bardam bo‘l, Doniyordan madad ol! Doniyor senga sevgi, vafo, ona Yer, hayot to‘g‘risidagi jo‘shqin kuylarini kuylab bersin! O‘shanda ko‘z o‘ngingda keng dala gullab, avgust tunidagi kuchli bo‘ron guvullasin! Olis yo‘ldan qo‘rqma, Jamila, sening yo‘ling baxt yo‘lidir, sen o‘z baxtingni topding!”

Men ularga qarab Doniyorning ovozini eshitaman, demak, Jamila ikkisi meni safarga chorlaydi. Ha, men yo‘lga chiqishim kerak! Ha, keng dala bag‘ridan o‘tib, ovulimga boraman! Tug‘ilib-o‘sgan yerim — kuch-quvvatim! Men undan yangi-yangi bo‘yoqlar topaman. Chizgan suratimning har bir bo‘yog‘idan, har bir lavhasidan Doniyorning kuyi eshitilib tursin! Chizgan suratimning har bir bo‘yog‘ida, har bir chizig‘ida Jamilaning yuragi urib tursin!

SARVQOMAT DILBARIM

MUQADDIMA O‘RNIDA

Kasbim jurnalist bo‘lganligi sababli Tyan-Shanda tez-tez bo‘lib turishga to‘g‘ri kelardi. Bundan bir yarim yil muqaddam, bahor kunlaridan birida meni shoshilinch suratda redaksiyaga chaqirib qolishdi. Bu vaqt men Tyan-Shan oblastining markazi Norinda edim. Avtostansiyaga yetib kelsam, bundan bir necha minut ilgari avtobus jo‘nab ketgan ekan. Navbatdagi mashinani yana besh soatlar chamasi kutish kerak edi. Xullas, birorta yo‘lovchi mashinada ketishga urinib ko‘rishdan boshqa iloj qolmagan edi. Shu maqsadda shahar chekkasidagi tosh yo‘lga qarab yugurdim.

Muyulishdagi benzin kolonkasi oldida bir yuk mashinasi turardi. Shofyor mashinaga endigina benzin quyib bo‘lgan ekan. Sevinib ketdim. Kabina oynasiga xalqaro qatnov belgisi “SU” — “Sovet Ittifoqi”, deb yozib qo‘yilgan edi. Demak, mashina Xitoydan Ribachyedagi chet ellar bilan aloqa qiladigan transport avtobazasiga kelayotgan ekan. U yerdan istagan vaqtda Frunzega ketish mumkin edi.

— Siz hozir jo‘naysizmi? Meni ham Ribachyegacha olib ketsangiz! — deb iltimos qildim shofyordan.

U o‘girilib, yelkasi osha menga qarab qo‘ydi-da, qaddini rostlab, xotirjamgina:

— Yo‘q, og‘a, ilojim yo‘q, — dedi.

— O‘tinib so‘rayman, meni zarur ish bilan Frunzega chaqirtirishibdi.

Shofyor menga yana xo‘mrayib qaradi.

— Tushunyapman, ammo xafa bo‘lmang, og‘a. Hech kimni olmayman.

Men hayron bo‘lib qoldim. Kabinasi-ku bo‘sh, bir kishini olib ketsa nima qilarkin. Shoshilib turganimni, nafasim bo‘g‘zimga tiqilib ketayotganini ko‘rib turgan bo‘lsa.

— Men jurnalistman. Juda shoshilyapman. Istaganingizcha haqini to'lashim mumkin...

— Gap pulda emas, og'a! — deb so'zimni shartta bo'ldi shofyor. So'ngra jahl bilan ballonni tepib ko'rdi.— Boshqa safar bepul ham olib ketaman. Ammo hozir sira ilojim yo'q. Mendan ranjimang. Hademay boshqa mashinalarimiz ham kelib qoladi, xohlaganingizga tushib ketishingiz mumkin, lekin men olib keta olmayman...

Yo'lda kabinaga birovni olsa kerak, deb o'yladim va:

— Kuzovda-chi? — deb so'radim.

— Baribir... Kechirasiz meni, og'ajon.

Shofyor soatiga bir qaradi-yu, jo'nashga shoshildi.

Juda boshim qotib, yelkamni qisib qo'ydim-da, boyadan beri budka darchasidan bizni jimgina kuzatib turgan benzinchi keksa rus ayoliga hayron bo'lib qaradim. U go'yo: "Tegmang, uni o'z holiga qo'ying", — deyayotgandek bosh chayqardi. Qiziq.

Shofyor kabinaga o'tirdi va og'ziga tutatilmagan papirosni qistirib, motorni yurgizib yubordi.

U hali yosh, o'ttizlar chamasidagi, biroz bukchaygan, ammo baland bo'yli yigit edi. Uning rul chambaragini ushlab olgan salmoqdor chayir qo'llari, g'amgin, o'ychan ko'zlari va charchab-horiganidan salqib ketgan qovoqlari xotiramda saqlanib qoldi. Yo'lga tushishdan oldin u yuzini kafti bilan siladi va chuqur xo'rsinib qo'ydi, tog' oralab ketadigan yo'lga tashvishlanib nazar tashladi. Mashina yeldek uchib ketdi.

Tyan-Shan shofyorlari ko'rinishdan badjahl bo'lsalar ham, joy bo'lsa yo'lovchilarning iltimosini hech qachon rad etmas edilar. Bu gal esa qandaydir tushunib bo'lmaydigan qaysar bir shofyorga uchrab qoldim.

Benzinchi ayol budkadan chiqdi. Aftidan, u meni yupatmoqchi bo'ldi shekilli:

— Xafa bo'lmang, hozir siz ham ketasiz, — dedi.

— Shoshib turmaganimda mayli edi-ya!.. — deb to'ng'illadim alamimga chiday olmay.

— Modomiki shunday ekan...

— Nima edi?

— Yo‘q, shunchaki aytdim-da! — deb ayol kimgadir achingandek qo‘l siltadi va shlangni kolonka oldiga yig‘ishtirib qo‘yar ekan, xo‘rsinib qo‘ydi: — Bu voqeaning tarixi uzoq...

Men jim turardim.

— Yigit bechoraning boshiga tashvish tushgan. Bir vaqtlar u biz bilan shu yerda, dovondagi bazada ishlardi.

Benzinchi ayolning gapini oxirigacha tinglash menga nasib bo‘lmadi. Yo‘lovchi “Pobeda” kelib qoldi, biz yo‘lga tushdik.

Yuk mashinasiga hadeganda yetib ololmadik, faqat Do‘lan dovoni etaklaridagina yetib oldik. U hatto ko‘pni ko‘rgan Tyan-Shan shofyorlariga ham ruxsat etilmaydigan g‘oyat tezlik bilan uchib borardi. Mashina burilishlarda ham tezligini kamaytirmay, qoyalar ostidan g‘uvullab o‘tib borar, shiddat bilan balandliklarga uchib chiqar va birdan xuddi ag‘darilib ketgandek pastga tomon sho‘ng‘ir, yana bir zumda ustiga yopilgan brezentning chekkalari shalop-shaloplab bortga urilib, hilpiragancha oldinda paydo bo‘lar edi.

Baribir “Pobeda” “Pobeda”ligini qildi. Biz yuk mashinasini quvib o‘ta boshladik. Men o‘girilib qaradim: bu odam muncha umidsizlikka tushgan, qayoqqa bunchalik yelib ketyapti? Shu payt yomg‘ir aralash do‘l sharros quyib berdi. Bizda, dovonda bunday yog‘ingarchilik tez-tez bo‘lib turardi. Qiyalab, chaparastasiga urayotgan do‘l aralash yomg‘ir tomchilari orasidan ranglari oppoq oqarib ketgan, papiros tishlab olgan jiddiy tusdagi qiyofa kabina oynasi orqasidan lip etib ko‘rinib o‘tdi. Uning qo‘llari rul chambaragida tez-tez harakat qilardi. Kabinada ham, kuzovda ham hech kim yo‘q edi.

Mana shu tasodifiy uchrashuvdan so‘ng oradan ko‘p o‘tmay meni Qirg‘izistonning janubiga, O‘sh oblastiga komandirovkaga yuborishdi. Odatdagicha biz jurnalistlarning vaqtimiz hamma vaqt ziq bo‘ladi. Oqshom poyezd jo‘nashi oldidan vokzalga chopgancha yetib keldim va vagonga sakrab chiqib, o‘z kupemga kirdim, hadeganda derazadan tashqariga qarab o‘tirgan passajirga e’tibor ham bermabman. Nazarimda, bu kupega ikkalamizdan boshqa hech kim chiqmaydiganga o‘xshardi. Hamrohim menga qayrilib qaramadi ham. U boshini oynaga qadagancha yo shunchaki tashqariga tikilib o‘tirardi yoki bo‘lmasa allanimalar haqida o‘ylardi.

Poyezd tezligini oshira bordi. Radiodan muzika ovozi yangradi: tanish kuy ijro etilayotgan edi. Bu qirg'iz klassik kuyi menga doim g'ira-shira oqshom payti dashtda ketib borayotgan yolg'iz otliqning ashulasini eslatardi. Yo'l uzoq, bepoyon dasht. Egarda o'tirib xayol surib, bironta ashulani asta xirgoyi qilinsa ham bo'ladi. Xirgoyi qilganda ham qalbdan chiqarib kuylasang. Axir ot tuyoqlarining tapir-tupur sadolari ostida yolg'iz o'zi xirgoyi qilib borayotgan yo'lovchining qalbida turli xil o'y-xayollar ozmuncha bo'ladi deysizmi?.. Ariqdagi suv mayda yaltiroq toshlar ustidan shildirab oqayotgandek, qo'biz torlaridan orombaxsh mayin kuy asta-sekin taralardi. Qo'biz adirlar orqasiga yonboshlayotgan quyosh haqida, har yoqqa salqinlik taratayotgan mayin shabada haqida, yo'l yoqalab ketgan ko'm-ko'k yovshan va sap-sariq chalovlarning sekin-sekin tebratib, gul changlarini to'kayotgani haqida kuylardi. Dasht ham chavandozning ashulasini tinglaydi va u bilan birga o'ynab, birga kuylaydi...

Ehtimol, hozir biz poyezdda yelib borayotgan bu yerdan o'sha chavandoz ham qachonlardir yurgandir... Balki o'shanda, xuddi hozirgidek, dasht ufqida shafaq sekin-asta ochsariq tusga kirib so'na borgan, tog' bag'ridagi qor esa xuddi hozirgidek quyoshning so'nggi shulalarini emib, pushti rangga kirgan-u, yana darhol xiralashib so'nib qolgandir.

Deraza ortidan bog'-rog'lar, tokzorlar, qulf urib yotgan ko'm-ko'k makkajo'xori dalalari o'tib borardi. Yangi o'rilgan barra yo'ng'ichqa ortilgan qo'sh otli arava temiryo'l chorrahasi tomon yo'rtib borardi. U shlagbaum oldida to'xtadi. Quyoshda qoraygan, rangi unniqib ketgan yirtiq mayka kiyib, ishtonini tizzasigacha shimarib olgan aravakash bola o'rnidan turdi-da, poyezd tomon havas bilan boqib, iljayganicha kimgadir qo'l siltadi.

Radiodan taralayotgan kuy poyezdning taraqa-turug'uga jo'r bo'lib, kishini hayratga solarli darajada bir-biri bilan uyg'unlashib ketardi. Otning dukur-dukuri relslarning tutashgan joyiga urilayotgan g'ildirak tovushi bilan almashingandek edi. Qo'shnim bo'lsa qo'lini stolchaga tirab, ko'zlarini hamon tashqaridan uzmay o'tirardi. Nazarimda, u ham o'zicha o'sha tanho otliqning ashulasini unsiz kuylayotgandek edi. U xafami yoki biron narsani o'ylayapti-

mi, harqalay, uning qiyofasidan boshida qandaydir chuqur qayg‘u, yuragida o‘chmas alam borligi sezilib turardi. U o‘zini shu qadar unutgan ediki, kupeda mening o‘tirganimni ham payqamasdi. Men uning yuzini ko‘rishga intildim. Qayerda uchratgan edim bu odamni? Hatto bug‘doyrang qo‘llari, uzun va baquvvat barmoqlari ham tanish ko‘rinadi.

Nihoyat uni tanidim: bu meni mashinasiga olmagan o‘sha shofyorning xuddi o‘zginasi edi. “Biron yoqqa o‘z ishi bilan ketayotgan bo‘lsa kerak”, — deb o‘yladim va shu bilan xotirjam bo‘ldim. Chamadondan kitob oldim. O‘zimni unga tanitishimning hojati bormidi? Ehtimol, u allaqachonlar unutib yuborgandir. Shofyorlarga yo‘lda ozmuncha yo‘lovchi duch keladi deysizmi?

Shunday qilib, biz yana ancha vaqtgacha o‘zimiz bilan o‘zimiz ovora bo‘lib, jim ketdik. Kech kirib, qosh qoraya boshladi. Hamrohim chekmoqchi bo‘lib yonidan papiros chiqardi va gugurt chaqish oldidan chuqur xo‘rsinib qo‘ydi. So‘ngra boshini ko‘tardi-yu, hayratlanib menga qaradi va shu zahotiyoq qizarib ketdi. Tanidi.

— Salom, og‘a! — dedi u aybdor kishidek kulimsirab. Men ham unga qo‘l cho‘zdim.

— Uzoqqa ketyapsizmi? — deb so‘radim.

— Ha... Uzoqqa! — dedi u papiros tutunini taratarkan va birozdan keyin qo‘shib qo‘ydi: — Pomirga.

— Pomirga! Demak, hamroh bo‘lar ekanmiz-da. Men O‘shga ketyapman.

— Men ham xuddi o‘sha tomonga.

— Juda soz bo‘ldi, zerikmas ekanmiz.

— Ehtimol, — deya ishonchsizlik bilan to‘ng‘illadi u.

— Dam olganimi? Yoki o‘sha yoqqa ishga joylashmoqchimisiz?

— Ha, shunga o‘xshashroq... Chekasizmi? — deb papiros uzatdi u.

Biz papirosni tutatib, biroz jimib qoldik. Dastlab boshqa hech qanday gapimiz qolmagandek tuyuldi. Hamrohim yana xayolga cho‘mdi. U boshini quyi solib, poyezd harakatiga mos tebranib borardi. U, nazarimda, birinchi uchrashganimizdagiga qaraganda juda o‘zgarib ketgandek ko‘rindi. Ancha o‘zini oldirib qo‘ygan, peshanasidagi uch qator ajin yanada ichkariroq botib kirgan, chimirilgan

qoshlari esa yuziga g'amgin soya solib turgandek edi. U to'satdan boshini ko'tardi-da, qiyiq qo'yko'zlarini menga tikib:

— Siz o'shanda mendan qattiq xafa bo'lgandirsiz-a, og'a? — deb so'radi ma'yus jilmayib.

— Qachon? Negadir eslolmayapman, — men uning noqulay ahvolga tushib qolishini istamas edim. Rostini aytganda, o'tgan ish xafa bo'lishga arzimasdi ham. Lekin u menga shunday bir samimiyat bilan tikilib turardiki, mening tezda iqror bo'lishdan boshqa ilojim qolmagan edi. — E, ha... unga ancha bo'ldi-ku... Arzimagan gap edi, esimdan ham chiqib ketipti. Buning nimasi bor ekan. Yo'lda har xil hodisa sodir bo'lishi mumkin. Siz o'sha uchrashganimizni hali eslab yuribsizmi?

— Boshqa vaqtda bo'lganda, ehtimol, unutib yuborgan ham bo'lardim. Lekin o'sha kunni unutolmayman...

— Nima bo'lgan edi? Biror falokat yuz berganmidi?— deb so'radim men undan beixtiyor, uning o'sha kungi mashinani qanday boshqarayotganini eslab.

— Yo'q, nima desam bo'larkin? Falokat yuz bermagan edi! — dedi u biroz durustroq so'z tanlab, so'ng kulib yubordi, to'g'rirog'i, o'zini kulishga majbur qildi.— Hozir bo'lsa, istagan tomoningizga mashinada sayr qildirib kelar edim-u, ammo ko'rib turibsiz, o'zim ham yo'lovchiman...

— Hechqisi yo'q, ot bir bosgan izidan ming marta yuradi, deydilar-ku, ehtimol, vaqt-soati kelib, yana yo'lda uchrashib qolarmiz...

— Agar nasib qilib uchrashib qolsak, albatta o'zim zo'rlab kabinaga chiqarib olaman, — dedi u boshini silkib.

— Demak, kelishdikmi? — deb hazillashdim men.

— So'z beraman, og'a! — dedi u xursand bo'lib.

— Shunday qilib, nega o'shanda meni olib ketmagan edingiz?

— Nega deysizmi? — dedi-yu, shu ondayoq ma'yus bo'lib qoldi.

U tarvuzi qo'ltig'idan tushgandek jim qolib, papiros tutunini jon-jahdi bilan torta boshladi. Men o'rinsiz savol berganimni payqab qolib, gapni boshqa yoqqa burishga intildim. Biroq vaqt o'tgandi. U papirosini o'chirdi-da:

— Ilojim yo‘q edi... O‘g‘limni o‘ynatib olib yurgan edim... — dedi zo‘r-bazo‘r g‘o‘ldirab.

— O‘g‘limni? — Hayron bo‘ldim men. — Kattaginami u?

— Yo‘q! — deya jilmaydi u, endi uning ko‘zlari menga tabassum bilan boqardi. — Hali yosh, endi beshga qadam qo‘ydi...

— Nima, u sizni biron joyda kutib turganmidi?

— Ha, dovonda.

— Xo‘sh, keyin nima bo‘ldi? — men hali ham hech narsa tushuna olmayotgan edim. Qiziq, nega o‘g‘li u yerda bo‘ladi, umuman, bolaning bu gapga nima aloqasi bor?

— Bilasizmi... Gap bunday... Sizga qanday tushuntirsam ekan... — deb u peshanasiga sizib chiqayotgan ter qatralarini artdi, hayajonini bosish uchun chekdi, so‘ng menga jiddiy tikildi.

Ana shunday qilib, men shofyorning o‘z taqdiri haqidagi hikoyasini eshitishga muyassar bo‘ldim. Lekin u hech kimga, ayniqsa, menga — jurnalistga o‘z hayoti to‘g‘risida batafsil gapirib bermasligiga qattiq ishonardim. Keyinroq bilishimcha, bu odam duch kelgan yo‘lovchiga yuragidagi sir-asrorini to‘kib soladigan odamlardan emas ekan. Ammo shofyorning boshidan kechirgan sarguzashtlari shunday ediki, uning xohishi-istagidan qat’i nazar, voqeani birma-bir aytib berishga majbur edi. Aks holda men hatto Tyan-Shan yo‘lida oramizda bo‘lib o‘tgan arzimas hodisani ham tushunib yetmagan bo‘lardim.

Manzilga yetguncha hali vaqtimiz ko‘p edi. Poyezd O‘shgacha deyarli ikki kecha-kunduz yuradi. Men uni shoshirmasdim va turli savollar berib gapini ham bo‘lavermasdim. Kishi o‘z kechirganlarini qayta boshidan kechirayotgandek his etib, goh so‘zi og‘izida qolib to‘xtab, goh o‘ylanib, entikib hikoya qilib bersa — juda maroqli bo‘ladi. Ammo uni hikoyasiga qo‘shilib ketmaslik uchun men o‘zimni zo‘r-bazo‘r tutib turardim. Chunki men kutilmaganda shuni bilib qoldimki, sharoitga ko‘rami yoki o‘zimning har narsaga aralashib ketaveradigan jurnalistlik kasbimga ko‘rami, harholda, shaxsan bu yigit haqida bo‘lmasa ham taqdir unga uchratgan, ammo shofyorga uncha tanish bo‘lmagan kishilar to‘g‘risida uncha-muncha narsa bilardim. Shuning uchun ham men uning hikoyasini davom ettirishim, ba’zi tafsilotlar bilan to‘ldirishim,

unga noma'lum bo'lgan ko'p narsalarni so'zlab berishim mumkin edi. (Darvoqe, qissaning ikkinchi hikoyasida xuddi mana shu tafsilotlar bayon etiladi.) Ammo men buni shofyorning hikoyasini oxirigacha tinglab bo'lganimdan keyin aytib berishga qaror qildim. So'ngra esa u fikrimdan ham qaytib, unga hech narsa gapirmadim. Shunday qilganim yaxshi bo'ldi, deb o'ylayman. Nega? Chunki bu tafsilotni keyinroq, qissaning eng oxirida so'zlab berishni lozim ko'rdim.

Modomiki asosiy mavzudan chetlashib ketgan ekanman, shunga ko'ra bu o'rinda bir lirik chekinish qila qolay.

Ehtimol, o'quvchilar "Ikki hikoyadan iborat qissa" degan g'alati sarlavhachaga e'tibor qilishgandir. Ha, darvoqe, shunday. Bu shunchaki avtorning xohishi bilan bo'lgan narsa emas. Ma'lumki, odatda, agar zarurat tug'ulsa, adabiy asarlar bo'lim, bob va qismlarga ajratiladi. Hikoya esa o'z-o'zidan ma'lumki, alohida mustaqil adabiy asardir. Biroq bu yerda gap forma haqida ketayotgani yo'q.

"Bu voqeaning tarixi uzoq!" — degan edi benzin kolonkasidagi ayol. Haqiqatan ham men so'zlab bermoqchi bo'lgan voqea juda uzoq va ehtimol, odatdagi hikoyalarga mutlaqo o'xshamas. Men bu haqda allaqachon avtor tilidan kichkinagina qissa ham yozgandim. Ya'ni, tashqaridan kuzatib turib, voqea-hodisalar va kishilar xarakterlarini chizib bergandim. Shunday qilib, tasvirlanayotgan hayot qaynovida avtor sifatida o'zim ham qatnashgandim. Qissani o'qib chiqish uchun o'rtoqlarimga berarkanman, birdaniga ustimga do'lday ta'na va tanbehlar yog'ila boshladi. Aytilgan fikrlar hech bir-biriga to'g'ri kelmasdi: ba'zilar meni haq, avtor o'z qahramonlariga nisbatan shunday pozitsiyada bo'lishi kerak, deyishsa, ba'zilar meni koyishib, g'azablanib, avtor nohaq, asarni bunday emas, boshqacharoq yozish kerak edi, dedilar. Ayniqsa, qissaning xotima qismi ko'pchilikning achchig'ini keltirgandi. Xullas, ular har to'g'rida bahslashishardi. Axloq haqida, qahramonlarning xatti-harakatlari haqida tortishishib, yo ularni qoralashar, yo ma'qullashardi. Ammo kishilarning hayotga nisbatan bu shaxsiy qarashlari bilan bog'liq bo'lgan barcha e'tirozlari menga, avtorga qaratilgan bo'lib, go'yo bularning hammasi mening xohishim bilan ro'y bergandek edi.

O‘rtoqlarimdan qaysi birining fikri qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini muhokama qilib o‘tirishni o‘z zimmamga olmayman, tahlil qilish niyatim ham yo‘q. Biroq uzoq fikr yuritishlardan so‘ng shunday xulosaga keldim, ya’ni qissani hayotda qay tarzda eshitgan bo‘lsam, xuddi shu tarzda yozishim kerak. Men bu qissani ikki kishidan eshitganman, shuning uchun ham qissa ikki hikoyadan tashkil topgan.

U ikki kishining boshidan kechirganlaridir. Men nimani eshitgan bo‘lsam, shunigina yozyapman. Yaxshisi, qahramonlarning o‘zlari hikoya qilib bera qolishsin.

SHOFYOR HIKOYASI

...Bularning hammasi hech kutilmaganda yuz berdi. O‘sha kezlarda men motorlashtirilgan qismda harbiy xizmatni o‘tab bo‘lib, armiyadan endigina qaytib kelgan edim. Harbiy xizmatga borgunimcha o‘n yillikni tamomlab, shofyorlik qilardim. O‘zim bolalar uyida tarbiyalanganman. Do‘stim Alibek Jonturin mendan bir yil oldin harbiy xizmatdan bo‘shab kelib, Ribachyedagi avtobazada ishlayotgan edi. Xizmatni o‘tab bo‘lgach, men ham to‘ppato‘g‘ri o‘sha avtobazaga keldim. Biz Alibek ikkimiz Tyan-Shanda yoki Pomirda ishlashni doim orzu qilib yurardik. Avtobazada meni yaxshi kutib olishdi. Yotoqxonaga joylashtirishdi. Hatto biror yeri ham lat yemagan yap-yangi “ZIL” mashinasini berishdi. To‘g‘risini aytsam, mashinamni odamni sevgandek sevardim. Motori juda kuchli, ajoyib mashina edi. Shunday bo‘lsa ham biz unchalik ortiqcha yuk bilan yurmasdik. Tyan-Shan yo‘lini o‘zingiz yaxshi bilasiz, bu avtotrassa dunyodagi eng baland tog‘li yo‘llardan biri, qanchadan qancha daralar, dovonlar bor. Tog‘da suv istagancha topiladi, shunga qaramay, hamma vaqt ehtiyotdan suv olib yurishga to‘g‘ri kelardi. Ehtimol, kuzovning oldi burchagidagi ustunchaga osib qo‘yilgan suvli kameraga ko‘zingiz tushgan bo‘lsa kerak. Yuk oz bo‘lsa ham, olis va o‘nqir-cho‘nqir yo‘llarda motor tez qizib, radiator erib ketishi hech gap emas. Shuning uchun doim suv olib yurish kerak. Dastlab men ham qanday bo‘lmasin, mashinaga ko‘proq yuk ortish choralarini ko‘zlab uzoq vaqt bosh qotir-

dim. Biroq hech nima chiqmadi. Harqalay, tog‘ tog‘ligini qiladi. Shunday bo‘lsa ham o‘z ishimdan ko‘nglim to‘q edi. Bu yerning o‘zi ham, tabiati ham menga yoqardi. Avtobazamiz shundaygina Issiqko‘lning qirg‘og‘ida joylashgan edi. Bu yerga chet ellik turistlar ham kelib turishardi. Ular ko‘l sohilida sehrlangandek bir necha soatlab tomosha qilib turib qolishardi, ana shunday paytlarda men o‘zimcha: “Qarang, Issiqko‘limiz qanday ajoyib! Bunchalik go‘zal, bunchalik ko‘rkam manzarani topa olish mumkinmi?..” — deb faxrlanardim.

Dastlabki kunlarda negadir biroz siqilib yurdim. Bahor, ishlar qaynagan payt, sentabr Plenumidan keyin dastlabki kunlardanoq kolxozchilar qurilish ishlarini avj oldirib yuborishgan edi. Ular butun vujudi bilan ishga sho‘ng‘ib ketishdi-yu, ammo texnika yetishmasdi. Shuning uchun ham avtobazadagi mashinalarning bir qismini kolxozlarga yordamga yuborishardi. Ayniqsa, ishga yangi kirganlarni, shu jumladan, meni ham nuqul o‘sha yoqqa yuborishardi. Trassaga o‘tib, endi yo‘lga ko‘nikdim deganda, yana u yerdan olib ovullarga haydashardi. Ishning qanchalik muhim va zarur ekanligini tushunardim. Ammo men har holda shofyorman, mashinaga jonim achirdi-da. Mashina emas, balki men o‘zim o‘nqir-cho‘nqirlardan sakrab otilib, qishloq bo‘ylab loy kechib borayotgandek bo‘lardim. Yo‘llar shunaqangi rasvoki, bunaqasini hatto tushingizda ham ko‘rmagansiz.

Kunlardan birida yangi molxona uchun kolxozga shifer olib borayotgandim. Bu ovul tog‘ etagida joylashgan bo‘lib, unga boradigan yo‘l ham xuddi ana shu tog‘ yonbag‘ridagi dasht bo‘ylab o‘tardi. Mashina bemalol borayotgan edi, yo‘l ham selgib qolgan ekan. Biroq ovulga yetay deb qolganimda, mashinam birdan qandaydir ariqqa tiqilib qoldi. Bu yo‘l bahordan beri yurilaverib shunchalik ag‘dar-to‘ntar qilib tashlangan ediki, hatto tuya cho‘kib ketsa ham topib olish qiyin edi. Unday qilib ko‘rdim, bunday qilib ko‘rdim, mashinani turli tomonga haydab ko‘rdim — hech narsa chiqmadi. La’nati loy uni qa’riga shunchalik tortib ketgan ediki, xuddi qisqichda tutib turgandek, hech qayoqqa qo‘zg‘atmasdi. Buning ustiga rulni jahl bilan qattiq burib yuborgan ekanman, mashinaning qayeridir shilq etib chiqib ketdi. Yana uning ostiga kirishga

to‘g‘ri keldi. Hammayog‘im loyga belanib qora terga tushib, yo‘lni og‘zimga kelgan so‘zlar bilan so‘kib yotgan edim, kimningdir shu tomon yurib kelayotgan oyoq sharpasini eshitib qoldim. Yotgan joyimdan menga faqat rezina etikkina ko‘rinardi. Etiklar yaqinlashib kelib, qarshimda qimir etmay turaverdi. Jahlim chiqib ketdi. Nimani tomosha qiladi-ya, sirk bormi bu yerda!..

— Qani, tepamda turma, yo‘lingga ravona bo‘l! — deb qichqirdim mashina ostidan. Eskirib, go‘ng tegib iflos bo‘lib ketgan ko‘ylak etagiga ko‘zim tushib qoldi. Nazarimda, allaqanday kampirga o‘xshadi, ovulga olib borib qo‘yar, deb kutib turgan bo‘lsa kerak.

— Yo‘lingdan qolma, kampir! — dedim unga yana.— Bu yerda hali ancha vaqt aylanishib qolaman, kutaverib toqating toq bo‘ladi...

U bo‘lsa:

— Men kampir emasman! — dedi.

U bu so‘zlarni qandaydir ishonchsizlik bilan uyalinqirab aytgan edi.

— Kimsan bo‘lmasa? — dedim achchig‘im chiqib.

— Qiz bolaman.

— Qiz bolaman? — deb etiklariga yana ko‘z qirimni tashladim. Jerkib berganligim uchun xijolat tortib, bu yog‘ini hazilga burdim:

— Chiroylimisan? — deb so‘radim.

Etiklar ketishga hozirlanib, chetga qarab odimlay boshladi. Shunda men darrov mashina ostidan chiqdim. Qarasam, haqiqatan ham qoshlari jiddiy chimirilgan va kattakon, ko‘rinishidan otasiniki bo‘lsa kerak, kamzulini yelkasiga tashlab olgan qizil durrachali, nozikkina bir qiz turibdi. U menga jimgina termilib turardi. Men bo‘lsam yerda o‘tirganimni ham, loy va balchiqqa belanganimni ham unutib yuborib:

— Chakki emas! Chiroyli ekansan-ku! — deya uning boshidan oyog‘igacha nazar tashlab chiqar ekanman, iljayib qo‘ydim. U haqiqatan ham go‘zal edi.

— Shu oyoqlaringga tuflichalar bo‘lsami! — deb hazillashdim o‘rnimdan turarkanman.

Qiz to‘satdan shartta burildi-da, orqasiga qayrilib ham qaramay, jadallagancha keta boshladi.

Nima bo'ldi unga? Xafa bo'ldimi? Hazil-mutoyiba qilib o'tirishning vaqti emas! Es-hushimni yig'ib oldim, ortidan yugurib yetib olmoqchi bo'ldim, keyin yana orqaga qaytib, asboblarni tezda yig'ishtirib oldim-u, kabinaga irg'ib chiqdim va mashinani goh oldinga, goh orqaga zarb bilan haydab tebrata boshladim. Faqat birgina narsani — unga yetib olishni o'ylardim, xolos. Motor esa zo'r berib tirillar, mashina silkinar edi. Biroq u joyidan bir qadam ham siljimasdi. Qiz bo'lsa borgan sari uzoqlashib borardi. Men loyga botib, turgan joyida dirillab aylanib yotgan g'ildiraklarning ostiga qarab:

— Qo'yib yubor! Qo'yib yubor deyapman! Eshityapsanmi? — deb baqirardim, kimga qichqirayotganimni o'zim ham bilmay.

Jonimning boricha akseleratorni siqdim. Mashina o'kirib sekin-asta olg'a siljiy boshladi va qandaydir bir mo'jiza bilan botqoqdan otilib chiqdi. O'zimda yo'q quvonib ketdim! Mashinani yo'lga chiqarib, ro'molcha bilan yuzimdagi loyni artdim va sochlarimni silab tartibga soldim. Qizga yonma-yon kelgach, mashinaga tormoz berdim, bunchalik jur'at qayerdan paydo bo'ldi menda, o'zim ham bilmayman, o'rindiqda o'tirgan yerimda yonboshlagancha abjirlik bilan kabina eshigini shartta ochdim-da:

— Marhamat! — deb ehtirom bilan qo'l uzatdim.

Qiz to'xtamadi. "Ana xolos!" — deya boshimni qashiy boshladim. Boyagi jasorat va ehtiromdan asar ham qolmagandi. Men unga yana yetib oldim. Bu gal uzr so'rab, iltimos qila boshladim:

— Xafa bo'lmang. Men, axir, shunchaki... O'tiring.

Ammo qiz lom-mim demadi.

Shunda men uni quvib o'tib, mashinamni yo'lga ko'ndalang qilib qo'ydim-da, kabinadan sakrab tushib, o'ng tomonga yugurib o'tdim, eshikni ochib, uni ushlab turaverdim. U, obbo, muncha yopishib oldi bu tentak, degandek hadiksirab menga yaqinlashdi. Men hech narsa demadim, nima ham qila olardim. Bosh egib kutib turaverdim. Menga rahmi keldimi yoki shunchakimi, haytovur, bir bosh chayqab qo'ydi-da, indamay kabinaga chiqib o'tirdi.

Biz yo'lga tushdik.

Men indamay o'tirardim, qanday gap boshlashni o'ylardim. Qizlar bilan birinchi marta uchrashayotganim yo'q, shunday bo'lsa

ham hozir u bilan gaplashishga yuragim dov bermay turardi. Nega shunday-a? Rul chambaragini aylantirar ekanman, unga zimdan qarab qo'yardim.

Qop-qora nozik va mayin sochlari qo'ng'iroq-qo'ng'iroq bo'lib bo'yniga tushib turardi. Kamzuli esa yelkasidan sirg'alib tushib ketdi, uni tirsagi bilan tutib turardi, o'zi bo'lsa menga tegib ketishdan qo'rqib, nariroq surilib o'tirdi. Qarashlari jiddiy bo'lsa ham, umuman, qiyofasidan mehribonlik va samimiylik sezilib turardi. Yuzlari oydek, rangi tiniq edi. Peshanasini tirishtirib, chimirilmoqchi bo'lardi-yu, biroq uddalay olmasdi va yo'l-yo'lakay ehtiyotkorlik bilan menga qarab-qarab qo'yardi. Ko'zimiz ko'zimizga tushib qoldi. U jilmayib qo'ydi. Ana shundan keyin men gap boshlashga qaror qildim.

— Siz u yoqda, mashina oldida nega to'xtagan edingiz? — deb og'zimga kelganini so'rab qo'ya qoldim.

— Sizga yordamlashmoqchi edim.

— Yordamlashmoqchi? — deb kulib yubordim. — Darhaqiqat, yordamingiz tegdi! Agar siz bo'lmaganingizda, kechgacha o'sha yerda qolib ketgan bo'lardim... Siz doim shu yo'ldan yurasizmi?

— Ha. Fermada ishlayman.

— Juda yaxshi! — deb quvonib ketdim, ammo darrov o'zimni o'nglab olib, so'zimni to'g'rilab qo'ydim. — Yo'l juda yaxshi!

Xuddi shu payt mashina chuqurlikka tushib qattiq silkingan edi, yelkalarimiz bir-biriga tegib ketdi. Men tomoq qirib qo'ydim, ko'zlarimni qayoqqa yashirishni bilmay, qip-qizarib ketdim. U esa kulib yuborardi. Shunda men ham o'zimni tutib turolmay, xaholab kulib yubordim.

— Men bo'lsam kolxozga bormayman deb yuribman-a, — dedim kulgi aralash. — Agar yo'lda sizga o'xshagan yordamchi uchrashini bilganimda edi, dispetcher bilan adi-badi aytishib o'tirmagan bo'lardim... Eh, Ilyos, Ilyos! — deya o'zimni o'zim koyidim. — Bu mening ismim, — deb tushuntirdim so'ng qizga.

— Mening ismim Asal...

Biz ovulga yaqinlasha boshladik. Endi yo'l ancha tekis edi. Men mashinani yana qichabroq haydadim. Shabada kabina derazasiga urilib, Asalning boshidagi durrachasini yulqilar va sochlarini

to‘zitar edi. Biz churq etmasdik. Ikkimiz ham iliq hislar quchog‘iga cho‘mib borardik. Tirsagi tirsagingga tegay-tegay deb o‘tirgan mana shu qiz haqida bundan bir soat ilgari sen hech narsa bilmasding, endi bo‘lsa nima uchundir faqat uning to‘g‘risida o‘ylaging keladi. Shunday paytlarda mashinani haydash ham juda oson, juda maroqli bo‘lar ekan... Asalning ko‘nglida nimalar kechayotganini bilmasdim, ammo uning ko‘zlari tabassum bilan porlardi. Ehtimol, u ham menga o‘xshab hech qachon ajralmaslik uchun uzoq va tinimsiz yurishni istayotgandir. Bu mening orzu-xayollarim, albatta. Shu chog‘ mashina ovul ko‘chalaridan o‘tib borayotgan edi.

Shunda Asal mashinada ketayotgani to‘satdan esiga tushib qolgandek:

— To‘xtating, tushaman! — dedi cho‘chinqirab.

Men mashinaga tormoz berdim.

— Yetib keldik shekilli? Shu yerda turasizmi?

— Yo‘q, — dedi u negadir hayajonlanib, bezovtalanib. — Yaxshisi, shu yerda tushib qo‘ya qolay.

— Nega endi? To‘ppa-to‘g‘ri uyingizga olib borib qo‘yaman! — deb uning e’tiroz bildirishiga imkon bermay, mashinani yana haydab ketdim.

— Shu yerda tushaman, — dedi Asal nihoyat. — Rahmat!

— Marhamat! — dedim arang, so‘ng: — Agar ertaga mashinam yana boyagi yerda tiqilib qolsa, yordam berasizmi? — dedim hazil aralash jiddiylik bilan.

U javob berishga ulgurolmadi. Yaqindagi hovlining ko‘cha eshigi ochilib, allanimadan tashvishlangan keksagina ayol yugurib chiqdi.

— Asal! — deb qichqirdi u nimadandir ogohlantirmoqchi bo‘lgandek, qo‘li bilan og‘zini berkitib. — Qayoqlarda daydib yuribsan, Xudo ko‘tarsin seni! Bor, tezroq kiyimlaringni almashtir, sovchilar kelishdi!

Asal uyalib ketdi. Yelkasidan kamzulini ham tushirib yubordi, so‘ngra uni yerdan oldi-da, itoatkorona onasi orqasidan ketdi. U eshik oldiga borganda orqasiga bir qayrilib qaradi, ammo shu zahotiyoq eshik “taq” etib yopildi. Men ko‘chadagi qoziqda bog‘log‘liq turgan egarlangan va uzoq yo‘l yurib terga botib kelgan otlarni endigina payqabman. O‘tirgan yerimdan turib, devor osha hovliga qaray

boshladim. O'choqboshida xotin-xalaj uymalashib yurishardi. Katta rux samovardan burqsab tutun chiqib turardi. Ikki kishi ayvonda yangi so'yilgan qo'y terisini shilmoqda. Xullas, sovchilarni ko'ngildagidek kutib olishayotgan edilar. Mening bu yerda qiladigan ishim qolmagandi. Borib yuklarni tushirishim kerak edi.

Avtobazaga kech kirganda qaytdim. Mashinani yuvib, garajga kiritib qo'ydim. Bu yerda ancha vaqtgacha o'ralashib yurdim, mashinaning u yoq-bu yog'ini ko'zdan kechirib, tuzatgan bo'ldim. Bugungi voqeani ko'nglimga shunchalik yaqin olganimni negadir o'zim ham tushunmasdim. Butun yo'l bo'yi o'zimni o'zim dam koyirdim, dam yupatardim: "Xo'sh, senga nima? Qanaqa ahmoqsan o'zing? Axir u sening kiming bo'ladi o'zi? Qaylig'ingmi? Yo singlingmi? Tasodifan yo'lda uchrashib qolib, uyiga olib borib qo'yibsan, xo'sh, nima bo'pti? Go'yo ilgaridan bir-birlaringni sevib yurgandek kuyunishingni qara-yu! Ehtimol, u sening haqingda o'ylashni ham istamas. Senga juda ko'zi uchib turgani ham yo'qdir! Axir qizning ayttirib qo'ygan kuyovi bo'lsa, sen uning kimi bo'lasan, hech kimi! Yo'lda uchragan begona shofyor bo'lsang, senga o'xshagan shofyorlar son-sanoqsiz-ku, axir... Yana birovlarning ishiga aralashishga nima hadding bor: ular quda-anda bo'lishyapti, yaqinda to'y qilishadi, ularning ishiga tumshug'ungni suqib nima qilasan? Hammasiga tupur. Sening ishing nima? Yaxshisi, rulingni aylantirib yuraver!.."

Ammo butun balo shunda ediki, o'zimni har qancha avrasam ham u qizni yodimdan chiqara olmasdim.

Mashina oldida qiladigan ishim ham qolmadi. Yotoqxonaga borsam bo'lardi. U yerda shovqin-suronli, gavjum joy — qizil burchak ham bor. Mening u yoqqa borgim yo'q. Ko'nglim yolg'iz bo'lishni istardi. Qo'llarimni boshim ostiga qo'yib, mashina qanotiga chalqanchasiga yotdim. Yonginamda, mashina ostida Jontoy degan shofyor ivirsib yurgan edi. U chuqurdan boshini chiqardi-da:

— Senga nima bo'ldi, chiroyli yigit? Xayol suryapsanmi? — dedi masxaraomuz to'ng'illab.

— Ha, pul haqida! — deb shartta kesdim gapini.

Men uni yoqtirmasdim, u uchiga chiqqan xasis, ayyor va hasadgo'y yigit edi. U boshqalarga o'xshab yotoqxonada turmasdi.

Allaqanday bir ayolnikida ijaraga turardi. Aytishlaricha, unga uylanishga va'da berganmish, nima bo'lsa ham uy-joyli bo'lib oladi-da.

Men teskari o'girilib oldim. Hovlida, mashinalar yuviladigan joyda yigitlarimiz qiy-chuv ko'tarib, hazil-huzul qilishyapti. Kimdir kabinaga chiqib olib, navbat kutib turgan shofyorlar to'dasiga qarata brandspoytdan vishillatib suv sepmoqda. Ular butun avtobazani boshlariga ko'tarib qahqahlashardi. Otilib chiqayotgan suv shunchalik kuchli ediki, borib urilgan odamini bemalol gandiraklatib yuborardi. Boyagi yigitni kabina ustidan tushirishmoqchi bo'lishar edi-yu, ammo u turgan joyida irg'ishlab, go'yo avtomatdan o'q yog'dirayotgandek, kishilarning orqasiga suv bilan savalab, bosh kiyimlarini uchirib yuborar edi. Birdan otilib chiqayotgan suv osmonga ko'tarildi-yu, quyosh nurlari ostida kamalakka o'xshab egilib tusha boshladi. Qarasam, dispetcherimiz Xadicha turibdi. Suv esa uning ustidan uchib o'tmoqda. Biroq u qimir etmasdi. Xadicha o'z qadr-qimmatini bilardi, hammaning o'ziga suqlanib qarashini ham sezardi. U o'zini qanday tutishni yaxshi bilar, uncha-muncha odamni o'ziga osonlikcha yaqin yo'latmasdi. Hozir ham u ishonch bilan hech narsadan cho'chimay, qani sepib ko'r-chi, ojizlik qilasan, degandek, parvoyi falak turardi. Etikli oyoqlarini kerib, shpilkalarni og'zida tishlab, kulimsiragancha uni sochlariga qadardi. Mayda, kumushsimon suv zarrachalari uning boshi uzra tushayotgan edi. Yigitlar qahqahlashib, kabina ustidagi yigitni gijgijlashardi.

— Xadichani cho'miltirib qo'y!

— Bir bopla!

— Qo'lidan kelmaydi!

— Qochib qol, Xadicha!

Yigit jur'at eta olmay, otilib chiqayotgan suv oqimini yuqorilatib-pastlatib o'ynardi. Uning o'rnida men bo'lganimdami, boshidan oyog'igacha suvga cho'miltirardim, shunda ham u menga hech narsa demagan bo'lardi, kulardi-qo'yardi, xolos. Men buni maqtanchoqlik qilib aytayotganim yo'q. Xadichaning boshqalarga qaraganda menga qandaydir boshqacha munosabatda ekanini doim sezib yurardim. U men bilan gaplashganda boshqacharoq: muloyim, sal tantiqroq

bo‘lib qolardi. Hazillashib tegajoqlik qilsam ham, boshini silasam ham unga yoqib ketardi. Uning doim men bilan bahslashib, janjallashib qolib, yana darhol, hatto nohaq bo‘lsam-da, taslim bo‘lishini yaxshi ko‘rardim. Ba’zan uni kinoga olib tushardim, uyi yotoqxona yo‘lida bo‘lgani uchun kuzatib ham qo‘yardim. Uning oldiga, dispetcher xonasiga to‘ppa-to‘g‘ri kirib boraverardim, boshqalar esa faqat tuynukcha orqali murojaat qilishardi.

Ammo hozir Xadicha ham ko‘nglimga sig‘masdi. Mayli, u erkaligini qilaversin. Xadicha so‘nggi shpilkasini qadab bo‘ldi:

— Bas, yetar endi shuncha o‘ynashganing! — dedi u amirona.

— Xo‘p bo‘ladi, o‘rtoq dispetcher! — deb kabina ustidagi yigit qo‘lini chakkasiga qo‘yib chest berdi-yu, hukmni osonlik bilan bajo keltirdi. Atrofdagilar xaholashganicha yigitni kabina ustidan sudrab tushirdilar.

Xadicha esa biz turgan garajga qarab kelaverdi. U Jontoyning mashinasi yonida to‘xtab, kimnidir izlay boshladi. U xiyla paytgacha meni payqamadi. Oramizda garajni xona-xona qilib ajratib turuvchi sim to‘rlar bor edi. Jontoy chuqurdan boshini chiqarib:

— Salom, suluv qiz! — deb salomlashdi.

— E, Jontoy...

U ko‘zlarini lo‘q qilib, Xadichaning oyoqlariga tikilib turardi. Xadicha esa ensasi qotgandek yelkasini qimtib qo‘ydi-da:

— Xo‘sh, namuncha tikilasan? — deb etikchasining uchi bilan Jontoyning iyagiga sal turtib qo‘ydi.

Boshqa odam bo‘lganda, ehtimol uni so‘kib bergan yoki ranjib qolgan bo‘larmidi. Bu bo‘lsa go‘yo bo‘sa olgandek og‘zi qulog‘iga yetib, chuqurga sho‘ng‘ib ketdi.

Xadicha to‘siqqa yaqinlasharkan, menga ko‘zi tushib qolib:

— Dam olyapsanmi, Ilyos? — dedi.

— Ha, par to‘shakda yotgandek!

U yuzini sim to‘rga qadab, menga tikilib qaradi va sekingina:

— Dispetcherxonaga kir, — dedi.

— Xo‘p.

Xadicha ketdi. O‘rnimdan turib, ketishga hozirlandim. Jontoy yana boshini chiqardi:

— Yaxshi narsa-ya! — dedi qo‘llarini ishqalab, menga ko‘z qisib.

— Ammo sening tenging emas! — deb gapning po‘skallasini aytdim qo‘ydim.

Men uning jahli chiqar, men bilan urishib ketar, deb o‘ylagan edim. Urish-janjal ishqibozlaridan emasman-u, ammo yuragim shu daraja azob chekayotgan ediki, o‘zimni qo‘yarga joy topa olmay turgan edim. Biroq Jontoy xafa bo‘lishni xayoliga ham ketirmadi:

— Hechqisi yo‘q! — deb to‘ng‘illadi u. — Omon bo‘lsak, ko‘rarmiz...

Dispetcher xonasida hech kim yo‘q edi. Nima balo? Qayoqqa yo‘q bo‘ldi u: ichkari kirishim bilan eshik yopildi. Orqaga o‘girildim-u ko‘kragim Xadichaning ko‘kragiga qadalib, to‘qnashib qoldik. U boshini orqaga tashlab, eshikka suyanib turardi. Ko‘zlari kipriklari ostida chaqnardi. Qaynoq nafasi yuzimga urilardi. U mening quchoqlab olishimni, o‘pishimni kutib turgandek edi. O‘zimni tuta olmay qoldim. U tomon intildim-u, yana shu zahotiyoq orqaga tislandim. Bu gap qanchalik g‘alati tuyulmasin, men o‘sha daqiqada o‘zimni Asalimga xiyonat qilayotgandek his etdim. Bunday fikrning juda kulgili ekanligi xayolimga ham kelmadi.

— Nega chaqirding? — deb so‘radim norozi ohangda.

Xadicha hamon menga jimgina boqib turardi.

— Gapir, nima? — dedim toqatim toq bo‘lib.

— Nahotki nimagaligini bilmasang? — dedi u dili og‘rigandek. — Negadir qiyo boqmaydigan bo‘lib qolding. Yoki boshqa birontasi topilib qoldimi?

Men dovdirab qoldim. Nega mendan o‘pkalayapti? Qayoqdan bila qoldiykin?

Shu paytda tuynukchaning zulfi shiqillab qoldi.

Jontoy boshini tiqib mo‘raladi. U qisiq ko‘zlarini o‘ynatib tirjayib turardi. Poylamoqchi bo‘libdi-da! Eh, ko‘nglimda nimalar borligini bilganda edi, bunday qilmagan bo‘lardi!

— Marhamat, o‘rtoq dispetcher! — dedi u ichiqoralik bilan Xadichaga qandaydir qog‘ozni uzatarkan.

Xadicha jahl bilan unga xo‘mrayib qaradi-yu, qog‘ozni olmadi. Alam bilan yuzimga to‘rsillatib gapira ketdi:

— Sen uchun yo‘llanmani kim oladi? Alohida taklif qilishlarini kutib yuribsanmi?

Xadicha qo‘li bilan meni chetlatib, stol tomon tez o‘tdi.

— Ma! — deb yo‘llanmani uzatdi.

Men uni oldim. Ertalik yo‘llanma yana o‘sha kolxozga berilgan edi. Yuragim muz bo‘lib ketdi: Asalning qay ahvoldaligini ko‘ra-bila turib, yana o‘sha yoqqa boramanmi... Nega o‘zi doim meni kolxozma-kolxoz haydashgani-haydashgan?

G‘azabim qaynab, qizishib ketdim.

— Yana kolxozgami? Yana go‘ng-u g‘isht tashishgami? Bormayman! — deb yo‘llanmani stolga uloqtirdim.— Bas, shuncha loy kechganim yetar. Boshqalarni ham yuborishsin!

— Baqirma! Naryading bir haftalik! Lozim bo‘lsa tag‘in yuborishadi! — dedi Xadicha menga.

Men esa xotirjamlik bilan:

— Bormayman! — dedim qat’iy.

Har galgidek hozir ham Xadicha birdan shashtidan tushib qoldi.

— Xo‘p, mayli. Men boshliqlar bilan gaplashib ko‘raman, — dedi.

U stoldan yo‘llanmani oldi.

“Demak, bormaydigan bo‘ldimmi? — deya o‘yladim men. — Endi Asalni ham hech qachon ko‘rmaymanmi?” Battarroq qiynala boshladim. Negadir tezda o‘z hukmimdan qaytdim-da, yana u yoqqa borishga ahd qildim. Agar shunday qilmasam, keyin umr bo‘yi afsuslanib yurishim menga ayon bo‘ldi. “Mayli, nima bo‘lsa bo‘lsin, ammo boraman!..”

— Mayli, bu yoqqa ber! — deb yo‘llanmani tortib oldim.

Tuynukchadan mo‘ralab turgan Jontoy piqillab kulib yubordi-da:

— Ovuldagi buvimga salom aytib qo‘y! — dedi.

Men hech narsa demadim. Tumshug‘uga boplab tushirsang! Eshikni taraqlatib yopdim-da, yotoqqa ketdim.

Ertasi yo‘lda ketayotib chor tarafga nazar tashlab, ko‘zlarim to‘rt bo‘ldi. Qani u? Qani endi, uning sarvinoz qomati ko‘rina qolsa. Qizil durrachali sarvqomatim! Ehtimol, rezina etik, otasining kamzulini kiyib olgan dersiz! Bekor gap! Men uning qanaqa ekanligini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman! Uning nimasi meni rom etdi, qalbimni nega bunchalik o‘rtayapti?

Tevarak-atrofga nazar tashlab bormoqdaman. Yo‘q, hech qayerda ko‘rinmaydi. Bu safar emas, turgan-bitgani azob bo‘ldi. Qani u, uni qanday topsam ekan? Ovulga yetdim, so‘ngra qishloq ko‘chasi bo‘ylab haydadim, uning hovlisiga yaqinlasharkanman, mashinani sekinlatib, oxiri to‘xtadim. Ehtimol, u uyidadir? Qanday chaqiraman, unga nima deyman? U bilan yana uchrashish menga nasib etmas ekan-da. Yukni olib borib tashlash uchun mashinaga gaz berdim. Yukni tushirishyapti-yu, ko‘nglimda hamon umid uchqunlari yonmoqda. Balki qaytishda uchratib qolarman? Biroq qaytishda ham uchratmadim. Shundan keyin mashinani ferma tomon burdim. Ularning ko‘hna fermasi anchagina chekkada, ovuldan uzoqda ekan. U yerga yetib kelib, bir qizdan so‘radim. U, Asal yo‘q, bugun ishga chiqmadi, dedi. “Demak, yo‘lda men bilan uchrashmaslik uchun atayin ishga chiqmagan”, — deb o‘yladim-da, juda xafa bo‘lib ketdim. Avtobazaga g‘amgin bo‘lib qaytdim.

Ikkinchi kuni yana yo‘lga chiqdim. Ammo endi uni uchratishni xayolimga ham keltirmasdim. Darvoqe, mening unga nima keragim bor? Agar qiz unashtirilgan bo‘lsa, uni bezovta qilishdan nima foyda? Ammo negadir bunday bo‘lishiga sira ishongim kelmasdi. Axir ovullarimizda hanuzgacha qiz bilan yigitni bir-biriga ko‘rsatmay, orqavoratdan fotiha qilib yuboraveradilar-ku! Bu haqda necha marta gazetalarda ham o‘qidim. Biroq yozgan bilan foydasi qancha? To‘ydan keyin nog‘ora chalishning foydasi yo‘q, fotihani buzib bo‘lmaydi. Unashtirilgandan keyin gap tamom. Fotihani buzish — xayrli ish emas, ikki yoshning turmushi buzildi, degan gap... Mana shunday o‘y-xayollar miyamda chuvalashib ketgandi...

O‘sha kezlar ayni bahor chog‘i edi. Tog‘ etaklarida lolalar tovlanardi. Bolaligimdanoq men bu cho‘g‘dek qip-qizil gullarni sevardim, yalangoyoq chopqillab yurib quchoq-quchoq lola tersang-u unga keltirib bersang! Ammo qani endi u, topib ko‘r-chi...

Bir mahal, qarasam, Asal. Ko‘zlarimga ishongim kelmaydi! O‘tgan gal mashinam tiqilib qolgan joyning naq o‘zginasida bir chetda, xarsang tosh ustida o‘tiribdi. Birovni kutib o‘tirganga o‘xshaydi. U cho‘chib o‘rnidan turdi va sarosimaga tushib, boshidan durrasini yulqib oldi-yu, qo‘lida g‘ijimlay boshladi. Asal bu safar chiroyli ko‘ylak va tufli kiyib olgan edi. Yo‘l shunchalik olis

bo‘lsa ham u poshnali tufli kiyib olibdi. Mashinani to‘xtatishga shoshildim. Yuragim esa taka-puka bo‘lib o‘ynardi.

— Salom, Asal!

— Salom, — dedi u sekingina.

Men kabinaga o‘tirishga yordamlashmoqchi bo‘ldim, u burilib, yo‘l bo‘ylab asta yurib ketdi. Demak, kabinaga chiqishni xohlamayapti. Mashinaning eshigini ochganimcha u bilan yonma-yon sekin haydab ketaverdim. Shu zaylda, u yo‘l chekkasida, men esa rulda jimgina borardik. Men nima haqda gapirishni ham bilmasdim, bir payt u:

— Kecha fermaga kelgan sizmidingiz? — deb so‘rab qoldi.

— Ha, nima edi?

— Shunchaki o‘zim. U yerga bormang.

— Sizni ko‘rmoqchi edim.

U hech narsa demadi. Miyamdan esa o‘sha la’nati unashish sira nari ketmasdi. Nima bo‘lganini bilgim kelardi. Ammo so‘rashga tilim bormasdi. Yuragim dov bermasdi. Uning nima deb javob berishidan cho‘chirdim. Asal menga qarab qo‘ydi.

— O‘sha gap rostmi?

U bosh irg‘adi. Rul qo‘limdan chiqib ketayozdi.

— To‘y qachon? — deb so‘radim.

— Yaqinda, — dedi u ohista.

Mashinani g‘izillatib, boshim oqqan tomonga ketib qolishimga sal qoldi. Tezlikni oshirish o‘rniga aksincha qilib qo‘yibman. Motor bekorga gurillab aylanardi. Asal cho‘chib o‘zini chetga oldi. Men esa hatto undan uzr ham so‘ramabman, o‘sha mahal uzr so‘rash esga kelarmidi.

— Endi boshqa uchrashmas ekanmiz-da? — dedim.

— Bilmadim. Uchrashmaganimiz ma’qulroq.

— Men esa, men baribir... Istasangiz-istamasangiz doim sizni izlayman!

Biz yana jim qoldik. Ehtimol, ikkimiz ham bir narsa haqida o‘ylayotgandirmiz, ammo ikkimiz ikki yo‘ldan ketayotgandek, go‘yo o‘rtamizda mening unga yaqinlashishimga, uning esa mening kabinamga o‘tirishiga imkon bermaydigan qandaydir devor turgandek edi.

— Asal! — dedim. — Mendan o'zingizni tortmang. Sizga hech ham xalal bermayman. Sizni uzoqdan ko'rib yuraman. Maylimi?

— Bilmadim, balki...

— O'tiring, Asal.

— Yo'q, mayli, ketavering. Ovulga yaqinlashib qoldik.

Shundan keyin ham biz uchrashib turdik, har safar uchrashganimizda go'yo tasodifan to'qnashib qolgandek bo'lardik. Yurishimiz ham avvalgidek. U yo'l chetidan, men esa kabinada borardim. Juda alam qilardi, ammo nima qila olardim, birovni zo'rlab kabinaga chiqarib bo'lmaydi-ku, axir.

Kuyov haqida og'iz ochmasdim. Noqulay ahvolda qolishi mumkin, qolaversa, so'rashni ham istamasdim. Ammo so'zlarimdan tushunishimcha, Asal uni yaxshi bilmas ekan. U ona tomondan biroz chatishgan ekan, o'zi esa uzoqda, tog'dagi o'rmon xo'jaligida yasharmish. Bu oilalar qadimdan bir-birlari bilan qiz berishib, qiz olishib, shu bilan avlodma-avlod qarindosh-urug'chilik aloqalarini saqlab kelisharkan. Bizda esa bunday urug'-aymoqchilik juda hurmat qilinadi. Asalning ota-onasi uni begonaga berishni xayollariga ham keltirmasdi. Men haqimda so'z ham bo'lishi mumkin emasdi. Men kim bo'libman? Allaqanday kelgindi, tag-zotining tayini yo'q bir shofyorman-da. Ochig'ini aytganda o'zim ham qizdan umidvor bo'lib og'iz ocholmagan bo'lardim.

O'sha kunlari Asal kamgap bo'lib qoldi. G'am-g'ussa chekib, doim allanimalar haqida o'ylab yurardi. Mening esa butun umid va ishonchlarim sovurilgan edi. Uning taqdiri hal bo'lmoqda, uchrashish ham befoyda edi.

Biroq biz xuddi yosh bolalardek, gapirishganda bu haqda so'z ochmay, chetlab o'tardik va u bilan shu taxlitda uchrashaverdik, chunki uchrashmasdan turolmas edik. Ikkalamizga ham busiz yashash mumkin emasdek tuyulardi. Ammo bizni oldinda nimalar kutayotganini tasavvur ham qila olmasdik.

Oradan besh kun o'tdi. Shu kuni ertalab avtobazada yo'lga tayyorgarlik ko'rayotgan edim. Bir o'rtog'im kelib, seni dispetcherxonaga chaqirishyapti, dedi. Chopib ketdim.

— Suyunchi ber! — dedi quvonch bilan Xadicha. — Seni Sinszyan yo'liga o'tkazishdi!

Men turgan yerimda qotib qoldim. Sinszyanga meni birinchi marta yuborayotganlari yo‘q edi. Shunday bo‘lishi turgan gap edi, ammo keyingi kunlarda menga umrbod kolxozga qatnashim shartdek bo‘lib qolgandi. Xitoyga qatnash ko‘p kunlik yo‘l, kim bilsin, Asalni ko‘rishga vaqt topa olarmikinman. Uni xabardor qilmasdan to‘satdan g‘oyib bo‘lib ketamanmi?

— Senga ma’qul tushmadi deyman-a? — dedi Xadicha.

— Kolxoz nima bo‘ladi? — dedim hayajonlanib. — U yerdagi ishlar ham tamom bo‘lgani yo‘q-ku.

Xadicha yelkasini qisib qo‘ydi:

— U yoqqa borishni ilgari o‘zing istamagan eding-ku. “Obbo, qo‘lga tushirdi-yu!” — deb o‘yladim men va jahlim chiqib:

— Ilgari istamagan bo‘lsam istamagandirman-da! — dedim.

Stulga o‘tirdim, nima qilishimni bilmay qoldim.

Jontoy yugurib kirib keldi. Ma’lum bo‘lishicha, mening o‘rnimga uni kolxozga yuborishayotgan ekan. Men sergaklanib turdim. Jontoy bosh tortsa kerak, chunki qishloqqa qatnaganda norma kamayib ketar edi. Bu esa qo‘lga oz pul tegadi degan so‘z. Ammo u, bilmadim, nima uchundir, yo‘llanmani oldi, yana buning ustiga mamnun bo‘lib:

— Xohlagan tomoningga yuboraver, Xadicha, dunyoning narigi chekkasiga bo‘lsa ham mayli! Hozir ovulda qo‘ylarning ayni qo‘zilayotgan payti, senga ham olib kelaymi? — dedi. Keyin bu yoqda men o‘tirganimni ko‘rib: — Kechirasan, xalaqit berdim shekilli, — deb qo‘ydi.

— Yo‘qol bu yerdan! — deb o‘shqirdim boshimni ko‘tarmasdan.

— Xo‘sh, nega o‘tiribsan, Ilyos! — deb yelkamga turtdi Xadicha.

— Kolxozga men borishim kerak, meni yubor, Xadicha! — deb iltimos qildim undan.

— Aqling joyidami o‘zi, ilojim yo‘q, naryad tamom bo‘lgan, — dedi-da, menga tashvishlanib tikildi. — Namuncha kolxozga qatnaging kelib qoldi?

Men hech narsa demay, chiqib ketdim. Garajga keldim. Jontoy meni masxara qilgandek yonimdan mashinasini g‘izillatib o‘tib ketdi, qanoti bilan urib ketishiga sal qoldi.

Mashina yonida allamahalgacha ivirsib yurdim, ammo biron iloj topa olmasdim. Yuk ortiladigan stansiyaga bordim. U yerda bir to‘da shofyorlar navbat kutib turishgan edi.

O‘rtoqlarim papiros chekishamiz, deb chaqirishdi, ammo men kabinadan chiqmay o‘tiraverdim. Ko‘zimni yumdim-u, Asalning yo‘lda meni behuda kutib o‘tirganini ko‘z o‘ngimga keltirdim. Bir kun kutar, ikki kun, uch kun... So‘ng mening haqimda nima deb o‘ylashi mumkin? Qo‘rqoq, qochib qoldi, deb o‘ylasa-ya!

Mening navbatim esa yaqinlashmoqda edi. Oldimdagi mashinaga yuk orta boshlashdi. Kran qandaydir katta-katta yashiklarni kuzovga tushirmoqda. Yana birozdan keyin kran ostiga mening mashinam turishi kerak. “Kechir meni, Asal! — deb o‘yladim men. — Kechir, meni, go‘zalim, sarvqomatim! Seni ogohlantirolmadim!” Ammo shu payt to‘satdan miyamga oddiygina bir fikr kelib qoldi: axir men u yoqqa allaqachonoq borib unga aytib qaytishim mumkin edi-ku. Yo‘lga bir necha soat kechikib chiqsam, osmon qulab yerga tushmas? Avtobaza boshlig‘iga keyinchalik tushuntirarman, balki tushunar, tushunmasa biroz koyir, hayfsan e’lon qila qolar yoki juda zo‘r kelsa ishini olar. Allaqachon shunday qilishim kerak edi! Ketdim!

Mashinamni orqaga yurgizmoqchi bo‘lib, darhol motorni yurgizdim. Ammo ortimda mashinalar tirband edi. Bu orada oldimdagi yuk ortilgan mashina o‘z joyini bo‘shatdi. Navbat menga keldi. Men sal hayallab qoldim.

— Mashinangni keltir! Hey, sen! — deb baqirdi kranchi menga qarab.

Yuk olish uchun mashinamni oldinga siljitdim. Kranning xartumi tepamga yaqinlashib kelmoqda. Bo‘ldi, ish tamom! Eksport yuki bilan biron yoqqa jilib ko‘r-chi. Nega axir shuni ilgariroq o‘ylab ko‘rmabman-a? Safarga jo‘natuvchi kishi kelib, hujjatlarga belgi qila boshladi. Men kabinaning orqa derazachasiga qaradim. Tepadan kuzovga konteyner tebranib tushmoqda edi. U borgan sari kuzovga yaqinlashib kelaverdi.

Ana shunda men:

— Po‘sht! — deb qichqirdim-da, mashinani shiddat bilan konteyner ostidan olib qochdim. Xayriyatki, motor o‘chirilmagan edi.

Orqadan qichqiriq, hushtak va so‘kish ovozlari eshitildi. Biroq men e’tibor bermasdan mashinani omborlar, taxlab qo‘yilgan yog‘ochlar va ko‘mir uyumlari yonidan g‘izillatib borardim. Pastqam yo‘llar bilan shahardan chiqib oldim va tog‘ etagiga, kimsasiz yo‘lga yetib kelgach, rulga mahkam yopishib oldim. Mashina yelib borardi, “ZIL” goh u tomon, goh bu tomon chayqalib ketardi. Ammo biz bunga ko‘nikib qolgan edik.

Ko‘p o‘tmay Jontoyni quvib yetdim. Oldinga o‘tib ketmoqchi bo‘lib signal berdim. U kabinadan boshini chiqarib xo‘mrayib qaradi. Dovdirab qolib, ko‘zlari qinidan chiqib ketayozdi: meni tanidi. Ablahni qarang! Birovning shoshilayotganini ko‘rib turgandan keyin unga yo‘l berish kerak-da. Ammo u-chi, yo‘l bergisi kelmaydi, boshimni aylantirmoqchi. Shunda men mashinani chetga burdim-da, uni to‘g‘ri paykal bilan quvib boraverdim. Jontoy ham mashinasini qistay boshladi. Endi u yo‘lga chiqib olishga imkon bermasdi. Biladiki, atrofda harakat qoidalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortadigan biron kimsa yo‘q. Buning ustiga, hozir uni hech nima qila olmasligimni biladi. Shu zaylda uchib borardik: u yo‘lda, men paykal ichi bilan. Ikkalamiz ham rulga yopishib olganmiz, yirtqichlardek bir-birimizga ko‘z olaytiramiz, so‘kinamiz.

— Sen qayoqqa? Nega? — deb baqirdi u menga.

Men unga musht o‘qtalib do‘q qilardim. Harholda mening mashinam yuksiz edi. Uni quvib o‘tdim, orqamga qayrilib qarasam, u endi shoshmay, tinchgina kelardi. Ha, iblis, menga desa battar bo‘l.

Asalni hech qayerda uchratolmadim. Ovulga kelib, mashinani ularning hovlisi oldida to‘xtatdim. Xuddi piyoda chopib kelgandek nafasim bo‘g‘zimga tiqila boshladi. Hovlida ham, ko‘chada ham hech kim ko‘rinmasdi. Faqat egarlangan otgina qoziqqa bog‘loqlik turardi, xolos. Nima qilsam ekan? Kutishga ahd qildim. Mashinani ko‘rib ko‘chaga chiqar, deb o‘yladim o‘zimcha. Go‘yo bir narsani tuzatayotgandek motorni ochib, u yoq-bu yog‘ini qaray boshladim, ammo o‘zim eshikdan ko‘zimni uzmasdim. Unchalik uzoq kutmadim: eshik ochilib, ichkaridan Asalning onasi va to‘ladan kelgan, qora soqolli, ikki qavat to‘n kiygan chol chiqdi. Qo‘lida ajoyib qamchi. Aftidan, u hozirgina choy ichgan bo‘lsa kerak, terlab-pishib, bo‘rsib ketgandi. Ular ot bog‘langan qoziqqa yaqin-

lashdilar. Asalning onasi izzat-u ikrom bilan uzangini ushlab turib, cholning egarga chiqib olishiga yordamlashdi. Bilsam u sovchini kuzatayotgan ekan.

— Biz sizdan xursandmiz, quda! — dedi u. — Ammo bizdan ham ko'nglingiz to'q bo'lsin. O'z qizimiz uchun hech narsani ayamaymiz. Xudoga shukur, qo'limiz quruq emas.

— E, e, boyvuchcha, xafa bo'lmaymiz, — dedi u egarga tuzukroq o'rnasha turib. — Ollo taolo yoshlarga umr bersin. Yaxshilik qilsak begonaga emas, o'z farzandlarimizga qilamiz. Xudoga shukur, birinchi marta qudalashayotganimiz yo'q. Xo'p, omon bo'l, boyvuchcha. Shunday qilib, juma kuniga kelishdik-a!

— Ha, juma kuni kutamiz. Juma — ulug' kun. Oq yo'l sizga. Qudamga salom ayting!

"Nega ular juma kuni haqida gapirib qolishdi?" — deb o'yladim men. "Bugun qanaqa kun? Chorshanba... Nahotki juma kuni olib ketishsa? Eh, qachongacha eski urf-odatlar biz yoshlarning hayotimizni poymol etadi?" Chol otini tog' tomon yo'rttirib ketdi. Asalning onasi otliq uzoqlashib ketguncha kutib turdi, so'ngra menga tomon o'girilib, xo'mrayib qaradi.

— Nega bu yerda pashshaxo'rda bo'lib qolding, ho takasaltang? — dedi u. — Bu yer senga karvonsaroy emas! Tuyog'ingni shiqillatib qol! Qani jo'na, eshityapsanmi? Senga aytyapman.

Demak, allaqachon sezib qolibdi.

— Mashinam buzilib qoldi! — dedim o'jarlik bilan po'ng'illab va belimgacha kapotning ostiga sho'ng'ib ketdim. Yo'q, uni ko'rmagunimcha hech qayoqqa ketmayman, derdim o'zimcha.

Kampir javrab-javrab kirib ketdi.

Men kapotning ostidan chiqdim-da, mashina zinasiga o'tirib olib, cheka boshladim. Qayoqdandir kichkinagina qizcha paydo bo'lib qoldi. U bir oyoqlab hakkalab mashina atrofida gir aylana boshladi. Qizcha sal Asalga o'xshardi. Uning singlisi emasmikin?

— Asal ketib qoldi, — dedi u, o'zi esa hamon sakrab-sakrab o'ynardi.

— Qayoqqa? — deb ushlab oldim uni. — Qayoqqa ketdi?

— Men qayoqdan bilay! Qo'yvor! — deb qo'limdan yulqinib chiqdi-da, qochib ketayotib tilini ko'rsatib qo'ydi.

Kapotni taq etib yopib, rulga o‘tirdim. Qayoqqa boray, uni qayerdan izlay? Vaqt o‘tib ketyapti, qaytishim kerak. Men orqaga qaytdim, dashtga yetib kelib, ariqdan o‘tish joyida mashinani to‘xtatdim. Nima qilish kerakligiga sira aqlim yetmasdi. Kabinadan tushdim-da, yerga ag‘anab yotdim. Yuragim siqila boshladi. Asalni ham topa olmadim, safarni ham barbod qildim. Orqaga qaytishning foydasi yo‘q. Bo‘lar ish bo‘ldi. Nima bo‘lsa bo‘lar. O‘yga botdim, ko‘zimga hech narsa ko‘rinmas, qulog‘imga hech narsa eshitilmasdi. Shu ko‘yda qancha vaqt yotdim, bilmayman. Harqalay, anchagina yotgan bo‘lsam kerak. Keyin, nima uchunligini hali ham bilmayman: bir mahal boshimni ko‘tardim. Mashinaning narigi tomonida tuflicha kiygan oyoqlar to‘xtadi. O‘sha! Darrov tanidim. Shunday quvonib ketdimki, o‘rnimdan turolmay, cho‘kkalagancha o‘tirib qoldim. Bu safar ham biz o‘sha joyda — birinchi marta uchrashgan yerda ko‘rishdik.

— Yo‘lingdan qolma, kampir! — dedim mashina ostidan “tuflichalardan” ko‘z uzmay.

— Hech ham kampir emasman-da! — deb hazilga hazil bilan javob qaytardi Asal.

— Kimsan bo‘lmasa?

— Qiz bolaman?

— Qiz bolaman? Chiroylimisan?

— Qarab ko‘ring-chi!

Ikkalamiz ham baravariga kulib yubordik. Men sakrab turib, unga tomon otildim. U ham menga qarab yugurdi. Yuzma-yuz to‘xtadik. Baxtiyor bolalardek quvnab kulardik.

— Go‘zallarning go‘zali! — dedim men. Qo‘ltig‘ida ikkita kitob, egnida kalta yengli ko‘ylak, yuzlari gul-gul yonib, shabadada tebranib turgan nozikkina sarv daraxtiga o‘xshardi u.

— Mening bu yerdaligimni qayoqdan bilding?

— Kutubxonadan kelayotgan edim, qarasam, yo‘lda sizning mashinangizning izlari!

— Rostdanmi?

Men uchun bu “sevaman” so‘zidan ham azizroq, qimmatliroq edi. U ham mening haqimda o‘ylar ekan, hatto mashinamning izini ham tanirkan, demak, meni sevar ekan-da. Orqadagi

chap g'ildirakning pokrishkasi ikki xil edi, qiz ana shundan xabardor ekan.

— Men izga ko'zim tushishi bilanoq bu yoqqa yugurdim, ko'nglimda siz xuddi shu yerda kutib turgandek bo'laverdingiz!

Men uning qo'lidan ushladim:

— Bu yoqqa chiq, Asal, biroz aylanamiz.

U jon deb rozi bo'ldi. Endi u ham, men ham go'yo butunlay boshqa odam edik. Barcha tashvish-u g'am-g'ussalar unutilib, ulardan asar ham qolmagan edi. Ko'zimizga samo-yu yer va ikkimizdan boshqa hech narsa ko'rinmasdi, biz baxtiyor edik. Kabina eshigini ochib, uni o'tqazdim, o'zim esa rulni tutdim. Yo'lga tushdik. Yo'l bo'ylab boraverdik, qayoqqa va nega — o'zimiz ham bilmasdik. Ammo biz uchun buning ahamiyati yo'q edi. Yonma-yon o'tirsak, bir-birimizga kulib qarasak, qo'lga qo'l tegib tursa, buning o'zgacha gashti bor-da. Asal mening soldatcha shapkamni to'g'rilab qo'ydi. Men uni ikki yildan beri kiyib yurgan edim.

— Shunday kiysangiz yarasharkan! — dedi u va erkalanib yelkamga suykala boshladi.

Mashina dashtda qushdek uchib borardi. Butun borliq harakatga kelgandek edi. Tog'lar, daralar, dov-daraxtlar — hamma-hammasi bizni qarshi olishga oshiqardi. Qarshimizdan shamol urilar — biz olg'a qarab yelib borardik, quyosh bizga tabassum bilan boqardi, chunki biz quvnab-kulib borardik. Havo yovshan va gul-lolalarning xushbo'y hidini taratardi, chunki biz to'yib-to'yib nafas olayotgan edik.

Yakka-yu yolg'iz qabr ustidagi ko'hna gumbaz xarobalarida o'tirgan cho'l kalxati ko'tarilib, qanotlarini silkib-silkib mashina bilan birgama-birga yo'l bo'ylab yer bag'irlab uchib borardi.

Yo'lda ketayotgan ikki chavandoz cho'chib ketib, o'zlarini chetga oldi. Keyin dag'dag'a bilan qiyqirib, orqamizdan ot qo'ydi.

— He-e, to'xta! To'xta — deb qiyqirib, yer o'pib chopib kelayotgan otlarini qamchilashardi. Ularning kim ekanligini bilmasdim. Balki Asalning ovulidandir. Ammo biz ularni tez chang-to'zonda qoldirib ketdik.

Oldinda qandaydir arava yo'l chetiga burildi. Aravada o'tirgan yigit bilan qiz o'rinlaridan qo'zg'alib cho'kkalashdi-da, qo'llarini

bir-birovlarining yelkasiga tashlagancha ikkinchi qo'llarini silkib qolishdi.

— Rahmat! — deya kabinadan qichqirdim ularga.

Dasht tamom bo'lib, katta yo'lga chiqib oldik. G'ildiraklar ostida asfalt g'uvillay boshladi.

Mashina bizni ko'l tomon eltardi. Men uni shartta yo'ldan chetga burdim-da, to'ppa-to'g'ri qo'riq yerga soldim, o't-o'lanlarni bosib-yanchib qirg'oqqa tomon haydadim. Tepalikda, naq suv tepasida to'xtadik.

O', Issiqko'l, qirg'iz diyorining so'nmas qo'shig'i! Bu dengiz oshiq-ma'shuqlar haqidagi afsona va qo'shiqlar diyori ekanligiga ishonmay bo'ladimi, axir. U shu damda mavjlanib, qatra g'uborsiz, rang-barang tovlanib turardi.

Ko'kimtir to'lqinlar o'rkach-o'rkach bo'lib, go'yo qo'l ushlashib olishgandek, sarg'imtir qirg'oqlar sari yelib-yugurardi. Tog'lar ortida quyosh botmoqda, suvning etaklari ko'zni qamashtirib, pushtirang kasb etgan edi. Uzoqlarda osmon gumbaziga bosh urgan qorli tog'larning och binafsharang tizmalari ko'zga chalinadi. Bu tizmalar ustida kulrang bulutlar suzib yurardi.

— Uni qara, Asal! Oqqushlar! — deb qichqirib yubordim men. Oqqushlar Issiqko'lga faqat kuzda uchib kelishib, shu yerda qishlashadi. Bahorda esa bu yerga juda kamdan kam kelishadi. Odamlarning aytishicha, bular shimolga ko'chib ketayotgan janub oqqushlari emish. Ularning kelishi yaxshilikdan, baxtdan darak berar emish...

Oqqushlar galasi oqshomgi ko'l uzra uchib yurishardi. Qushlar goh yuqoriga ko'tarilar, goh qanotlarini yoyib pastga suzishardi. Ular suvga qo'nar, qanotlari bilan shaloplatib urib, ko'pirib turgan suv tomchilarini uzoqlarga sachratardilar-da, yana osmonga ko'tarilardi. So'ngra ular turnaqator tizilib, bir tekisda qanot qoqishib, tunamoq uchun ko'rfazning qumloq sohillari tomon uchib ketishardi.

Biz kabinada o'tirib, ko'lni jimgina tomosha qilardik. Go'yo hamma narsani hal qilib qo'ygandek, shunday dedim:

— Hu-uv anovi qirg'oqdagi tunuka tomlarni ko'ryapsanmi, u bizning avtobazamiz bo'ladi. Mana bu bo'lsa, — deb kabinani

ko‘rsatdim, — bizning uyimiz! — dedim-da, birdan kulib yubordim. Uni qayoqqa ham olib borardim.

Asal ko‘zlarimga tikilib, o‘zini ko‘ksimga tashladi. U mening pinjimga tiqilarkan, ham yig‘lar, ham kulardi.

— Jonginam, azizim! Menga hovli-joyning keragi yo‘q! Faqat ota-onam, keyinchalik bo‘lsa ham qachon bo‘lmasin, meni tushunib, gunohimni kechirishsa bo‘lgani. Ular mendan umrbod xafa bo‘lishadi, buni yaxshi bilaman... Ammo ayb mendami axir...

Tezda qosh qoraya boshladi. Ko‘kni bulutlar qoplab oldi, ko‘lga sokinlik cho‘kib, endi qorayib ko‘rinardi. Tog‘ tizmalariga go‘yo elektr payvandchi o‘tirib olgandek, birdan o‘t chaqnab, ko‘zlarni qamashtirar va yana o‘char edi. Momaqaldiroq bosib kelayotgan edi. Oqqushlarning yo‘llarini o‘zgartirganlari ham bejiz emas. Tog‘da yog‘ingarchilikka duch kelishlarini oldindan sezganlar.

Mana, momaqaldiroq gumburladi. Yomg‘ir sharros quya boshladi. Ko‘l chayqalib to‘lqinlanib qirg‘oqlarga urila ketdi. Bu birinchi bahor momaqaldirog‘i edi.

Bu bizning birga o‘tkazgan birinchi tunimiz edi. Kabina ustidan, oynalardan yomg‘ir paqirlab suv quygandek oqib, sizib tushardi. Olis-olislarga cho‘zilgan och yashil yashinlar qop-qora ko‘lga suzib tushardi. Biz esa bir-birimizning pinjimizga kirib, shivirlashib gaplashardik. Asalning cho‘chiganidanmi yo sovuq qotganidanmi, sal titrayotganini sezib turardim. Uni kamzulim bilan o‘rab, qattiqroq quchoqladim. Shunda o‘zimga o‘zim juda kuchli, ulkan odamdek bo‘lib ko‘rindim. O‘zimda shunchalik mehr va muhabbat borligini hech qachon sezmagan edim, birovga mehribonlik va g‘amxo‘rlik qilish shunchalik zavqli ekanini ham bilmasdim. Uning qulog‘iga: “Hech kimga, hech qachon seni xafa qildirib qo‘ymayman, qizil durrachali sarvqomatim!” — deb pichirladim.

Ana-mana deguncha yomg‘ir ham ancha shashtidan tushib qoldi. Ammo chayqalib yotgan ko‘l hamon beshik-beshik bo‘lib to‘lqinlanar, yomg‘ir shivalab yog‘ardi.

Men kabina tokchasidagi safarda olib yuriladigan radiopriyomnikni oldim. O‘sha kezlardagi mening topgan-tutganim shu edi. Muzika tinglashni juda yaxshi ko‘raman, shuning uchun ham priyomnikni doim o‘zim bilan birga olib yurardim. Uning u yoq-

bu yog'ini sozlab, kerakli to'lqinni tutdim. Hozirgidek esimda: o'sha kecha teatrdan "Cho'lpon" baletini olib eshittirishmoqda edi. Baletda kuylanayotgan yoqimli va kishini o'ziga tortuvchi qudratli muzika sadolari xuddi o'sha ashulada kuylangan chin sevgi kabi toshlar osha, cho'qqilar osha kabinaga oqib kelayotgan edi. Butun zal hayajonga kelgan, gulduros qarsaklar bilan artistlarni olqishlar, tomoshabinlar ularning nomlarini aytib qichqirishar edi, ehtimol raqqos va raqqosalarning oyoqlari ostiga gullar otishayotgandir. Ammo, menimcha, teatrda o'tirganlardan birontasi ham biz kabi — to'lqinlar mavjlanib, shiddat bilan qirg'oqqa urilayotgan ko'l sohilida, sharros yomg'ir ostida kabinada o'tirgan oshiq-ma'shuqlar singari zavq-shavqqa to'lib hayajonlanayotgan bo'lmasa kerak. Bu bizning baletimiz, birinchi kechamizdagi ilk baletimiz edi. O'z baxtini izlab ketgan qiz — Cho'lponning taqdiri bizning qalbimizga naqadar yaqin edi. Mening Cho'lponim — tong yulduzim men bilan birga, yonginamda o'tiribdi. Yarim kechaga borib u yelkamga boshini qo'ygancha uxlab qoladi, men esa allamahalgacha o'zimni bosa olmay, shirin xayollar og'ushiga cho'mdim. Uning yuz-ko'zini, betlarini asta-sekin silar, tinib-tinchimas Issiqko'lning qanday to'lg'anayotganini, xo'rsinib chuqur nafas olayotganini tinglar, kuzatar edim.

Ertalab biz avtobazaga yetib keldik. Yaxshigina dakki yedim. Ammo bunday quvonchli voqea munosabati bilan kechirdilar. Keyinchalik mening yuk ortuvchi kran ostidan qanday qochib qolganimni eslashib, anchagacha kulib yurdik.

Men safarga — Xitoyga jo'nashim kerak edi. Asalni ham o'zim bilan birga olvoldim. Uni yo'lda do'stim Alibek Jonturinning uyida qoldirmoqchi bo'ldim. U oilasi bilan birga dovondagi bazada, Norinning shunday yonginasida yashardi. Bu joy chegaradan uncha uzoq emas edi. Bu yo'ldan yurganda doim unikiga tushib o'tardim. Alibekning xotini yaxshi ayol edi, uni juda hurmat qilardim. Biz yo'lga chiqdik. Birinchi navbatda yo'l yoqasidagi magazindan Asalga uncha-muncha kiyim-kechak oldik. Uning egnida birgina ko'ylagi-yu, qo'lida kutubxonadan olgan ikki dona kitobidan bo'lak hech narsasi yo'q edi. Bulardan tashqari, kattakon, guldor shol ro'mol ham sotib oldik. Bu ishimiz juda yaxshi bo'lgan

ekan. Yo'lda birinchi uchragan kishimiz keksa shofyor, oqsoqolimiz O'rmat aka bo'ldi. U olisdanoq menga to'xta, deb ishora qildi. Mashinaga tormoz berib to'xtatdim. Kabinadan tushib salomlashdik:

— Assalomu alaykum, O'rmat aka!

— Vaalaykum assalom, Ilyos! Ilyos! Qo'lingga baxt qushi qo'nibdi, Xudoyim baxt bersin, uvali-juvali bo'linglar! — deb fotiha bergan bo'ldi menga.

— Rahmat! Qayoqdan bila qoldingiz, O'rmat aka? — deb taajjublandim men.

— E, o'g'lim, xushxabarning sadag'asi ketay. Butun trassa bo'ylab og'izma-og'iz ko'chib yuribdi.

— Yo'g'-e! — deb battarroq taajjublandim.

Yo'l ustida turib gaplashardik, O'rmat aka hatto mashinaga yaqin ham kelmadi. Asalga ko'z qirini ham tashlamadi. Yaxshiyamki, buni Asalning o'zi fahmlab qolib, boshiga ro'molini tashlab, yuzini berkitdi. Shunda O'rmat aka mamnunlik bilan jilmaydi-da:

— Mana bu ishing joyida! — dedi u va kabinaga yaqinlashib kelib, Asalga boqdi. — Rahmat, qizim, hurmat qilganing uchun rahmat. Bundan buyon sen bizning kelinimizsan, avtobazadagi hamma oqsoqollar kelinisan, qizim. Hali ular yo'lda uchrab qolishadi. Mana, Ilyos, ko'rmana. Kelinni quruqdan quruqqa ko'rsatmaydilar,— deb u pul uzatdi. Men qo'lini qaytara olmadim, yo'qsa, xafa qilib qo'yardim.

Biz xayrlashdik. Asal hamon boshidan ro'molini olmasdi. Odatdagicha tagli-taxtli qirg'iz oilasiga tushgan kelindek, u odamlar bilan uchrashganda uyatchanlik bilan yuzini berkitardi. O'zimiz yolg'iz qolganimizda esa o'zaro kulishardik, boshiga ro'mol tashlab olgan Asal menga yanada go'zalroq bo'lib ko'rinardi.

— Jonginam, qani, boshingni ko'tar, meni bir o'pib qo'y-chi, — dedim unga.

— Mumkin emas, oqsoqollar ko'rib qolishadi, — dedi-yu, shu zahotiyoq kulgi aralash, go'yo birov ko'rib qolmasin deyayotgandek, ehtiyotlik bilan chakkamdan o'pib oldi.

Yo'lda borarkanmiz, yana ham qiziqroq hodisalarga duch keldik. Avtobazaning trassadagi hamma shofyorlari uchrashganda

bizni qayta-qayta to‘xtatishib tabriklashardi, baxt-saodat tilashardi. Ularning ko‘pchiligi yo‘l-yo‘lakay gul terib, guldasta yasabgina qolmay, hatto sovg‘alar tayyorlab qo‘yishga ham ulgurishibdi. Bilmadim, kimning aqliga keldi ekan bu. Bu fikrni hoynahoy rus yigitlarimiz o‘ylab topishgan bo‘lsa kerak. Ular qishloqda to‘y bo‘lib qolsa, mashinani boplab bezatadilar. Hozir ham ular mashinamizga qizil, ko‘k, yashil lentalar taqib, shoyi durralar, guldastalar ila boshladilar. Mashinamiz turli-tuman ranglarga g‘arq bo‘lib, cho‘g‘dek tovlanardiki, ehtimol u o‘nlab kilometr naridan ko‘zga tashlanib turgan bo‘lsa kerak. Asal ikkimiz g‘oyatda baxtiyor edik, men do‘stlarimning bu iltifotidan qalbdan faxrlanardim. Do‘st kulfatda sinaladi, deydilar. Menimcha, ular baxtli damlarda ham sinaladilar.

Yo‘lda eng yaqin do‘stim Alibek Jonturin ham uchradi. U mendan ikki yosh katta. U — kallasi katta, norg‘ul yigit edi, o‘zi ancha yosh bo‘lsa ham sermulohaza, og‘ir, vazmin yigit bo‘lib, ajoyib shofyor edi. Bazada uni juda hurmat qilishardi. Alibekni profkom qilib ham saylashgandi. Qani, u nima derkin, deb o‘ylab turibman.

Alibek mashinamizga jimgina qaradi-da, bosh tebratib qo‘ydi, so‘ngra Asalga yaqin kelib, qo‘l berib salomlashdi va uni tabrikladi.

— Qani, yo‘llanmangni bu yoqqa ber-chi! — dedi u. Men bunday kutib olar deb o‘ylamagan edim. Hech narsaga tushunmay, qog‘ozni jimgina uzatdim. U avtoruchkasini oldi-da, yo‘llanmaga ko‘ndalangiga to‘ldirib, burchakma-burchak qilib yirik harflar bilan yoza boshladi: “To‘y safari, №167!”

— Nima qilyapsan? — deb dovdirab qoldim. — Axir bu hujjat-ku!

— Tarixiy bo‘lib saqlanib qoladi! — deb kulimsiradi u. — Nima, buxgalteriyada o‘tirganlarni odam emas deb o‘ylayapsanmi? Endi qo‘lingni ber! — deb meni mahkam quchoqlab o‘pdi. Biz xaxolab kulib yubordik. Keyin mashinalarimizga qarab yura boshladik, ammo Alibek meni to‘xtatib:

— Qayerda turadigan bo‘ldinglar? — deb so‘rab qoldi.

Men yelkamni qisib qo‘ydim.

— Mana bizning uyimiz! — deb mashinani ko‘rsatdim.

— Kabinadami? Ehtimol, bolalaringizni ham o‘sha yerda boqarsizlar?.. Menga qara, dovondagi uyimizga joylashaveringlar, baza boshliqlari bilan o‘zim gaplashaman. Biz o‘z uyimizga ko‘chib o‘tarmiz.

— Uying hali bitmagan-ku?

Alibek Ribachyeda, avtobaza yaqinida uy qurmoqda edi. Bo‘sh vaqtlarimda men ham unga yordamlashib turardim.

— Hechqisi yo‘q! Ozgina ishi qolgan, ammo undan ortiqrog‘ini umid qilmay qo‘ya qol, o‘zing bilasan, uy-joy masalasi ancha chatoq.

— Xo‘p, rahmat! Bizga shuning o‘zi ham kifoya.

— Xullas, biznikiga tushinglar, qaytishda esa meni kutib turatur. Men yetib kelaman, keyin xotinlarimiz bilan hamma narsani hal etib olamiz! — deb Asal tomonga qarab ko‘z qisib qo‘ydi.

Ha, endi tuzliq to‘rva bo‘yinga ilindi.

— To‘y safaringiz xayrli bo‘lsin! — deb qichqirib qoldi Alibek orqamizdan. Obbo xumpar-e! Safarimiz to‘y sayohati ekaniga o‘zimizning ham fahmimiz yetmabdi-ya.

Hamma ishimiz o‘ngidan kelayotganiga biz xursand edik. Faqat bir uchrashuvgina kayfiyatimni biroz buzdi.

Yo‘lda, muyulishlardan birida to‘satdan oldimizda Jontoyning mashinasi chiqib qoldi. U qayoqdandir kelayotgan edi. U yolg‘iz emas edi. Kabinada Xadicha o‘tirardi. U menga qo‘l silkib qo‘ydi. Men mashinaga shartta tormoz berdim. Mashinalar borti bortiga yaqinlab to‘xtadi. Jontoy derazadan kallasini chiqarib:

— Namuncha yasan-tusan qilib olibsan, to‘ymi deyman? — dedi.

— To‘y bo‘lganda qandoq! — dedim men.

— Yo‘g‘-e? — deb ishonqiramay so‘radi u cho‘zib va Xadichaga qarab qo‘ydi. — Biz bo‘lsak seni izlab yuribmiz! — degan so‘z og‘zidan chiqib ketdi uning.

Xadicha qanday o‘tirgan bo‘lsa, shundayicha hang-u mang bo‘lib, rangi o‘chib, qotib qolgandi.

— Salom, Xadicha! — dedim unga xushmuomalalik bilan. U jimgina bosh irg‘ab qo‘ydi.

— Hali yonimdagi qaylig‘im degin? — nima gapligini endigina anglagan edi Jontoy.

— Yo‘q, xotinim, — deb e’tiroz bildirdim-da, Asalning yelkalaridan quchoqladim.

— E, hali shunaqa de? — deb Jontoy ko‘zlarini battarroq olaytirdi. U xursand bo‘lishini ham, xafa bo‘lishini ham bilmasdi. — E-e, tabriklayman, chin qalbimdan tabriklayman...

— Rahmat!

Jontoy razilona tirjayib:

— Juda uchar ekansan! Qalinsiz qo‘lga tushirgandirsan-a? — dedi.

— Ahmoq! — deb so‘kdim uni mashinani haydayotib.

Ablahni qarang-a! Shunaqa odamlar ham bo‘ladi-da dunyoda. Yana ham boplab so‘kmoqchi bo‘ldim. Kabinadan bosh chiqarib qaradim: oldinda yo‘l so‘l tomonga keskin buriladi-da, tepalikka ko‘tariladi. Shunday qarasam, Jontoy mashina yonida turib, chakkasini qashlab, Xadichaga allanimalar deb qichqirib, musht o‘qtalib do‘q urardi. Xadicha bo‘lsa yo‘ldan chetga, dala tomonga yugurib ketyapti. Chopib-chopib borib, gup etib yiqildi-da, boshini qo‘llari bilan bekitdi. Oralarida nima gap bo‘lganini bilmasam ham ko‘nglim g‘ash bo‘ldi, go‘yo bunga men ham aybdordek, unga rahmim keldi, ichim achidi. Asalga hech narsa demadim. Uning kayfiyatini buzgim kelmadi.

Bir haftadan keyin Alibek xotini bilan yashagan dovondagi uyga joylashib oldik.

Uychamiz uncha katta emas edi: ikki xona va bir dahliz. Bunday uylardan u yerda bir nechta edi. Ularda shofyorlar oilalari bilan hamda yonilg‘i punktining ishchilari yashardi. Uyimiz tor bo‘lishiga qaramay, yaxshi joy edi, yo‘lning shunday yoqasida, Norin daryosi ham juda yaqin edi. Harqalay, oblast markazida. Kinoga, magazinga borib kelish juda o‘ng‘ay, kasalxona ham bor... Yana shu jihatdan ham qulay ediki, dovondagi bu baza yo‘lning qoq o‘rtasida edi. Biz asosan Ribachye bilan Sinszyan o‘rtasida qatnardik. U tomonga o‘tganda ham, bu tomonga o‘tganda ham yo‘l-yo‘lakay uyga tushib dam olish, hatto tunab qolish ham mumkin edi. Men deyarli har kuni uyga kirib o‘tardim. Mabodo yo‘lda tutilib qolsam-da, baribir yarim tunda bo‘lsa ham uyga yetib kelardim. Asal doim meni kutib o‘tirardi, xavotirlanardi, to kelgunimcha mijja qoqmasdi.

Biz endi uy-ro‘zg‘or uchun zarur uncha-muncha buyumlarni sotib ola boshladik. Xullas, turmushimiz asta-sekin yaxshilanib bormoqda edi. Asal ham ishlashi kerak, degan qarorga keldik. Uning o‘zi qattiq turib oldi: ovulda tug‘ulib-o‘sgan emasmi, ish jon-u dili edi. Ammo kutilmaganda yangi baxtga erishdik: Asalning ona bo‘lishiga oz qolgan edi. Negadir, biz buni hadeganda payqamabmiz. Asalning ko‘zi yorigan kuni men Xitoydan qaytib kelayotgan edim. Juda shoshilib, hayajonlanib ketyapman. Asal Norindagi tug‘uruqxonada yotgan edi. Kelsam, o‘g‘il tug‘ubdi. Uning oldiga kirmoqchi bo‘ldim, biroq har qancha tushuntirsam ham qo‘yishmadi. Lekin baribir xursand edim. Mashinaga o‘tirdim-da, tog‘ma-tog‘ g‘izillatib haydab ketdim. O‘zimni tuta olmay, mashinani tobora qattiqroq quvardim. Bu qishda bo‘lgan edi. Tevarak-atrofda faqat qorli qoyalar. Atrofimdan oq-qora rang g‘irillab o‘taverganidan ko‘zlarim jimirlashib ketardi. Do‘lan dovonining tepasiga yeldek uchib chiqdim. Osmono‘par ulkan balandlik, bulutlar yer bag‘irlab suzib yurgandek edi, pastdagi azamat tog‘lar ham uning qarshisida pak-pakana bo‘lib ko‘rinardi. Men kabinadan sakrab tushib, dara yoqasiga chopib bordim va sof havodan o‘pkamni to‘ldirib nafas oldim-da, butun olam eshitgudek qilib qichqirdim:

— E-ey, tog‘lar! Men o‘g‘il ko‘rdim!

Nazarimda, tog‘lar ham larzaga kelgandek bo‘ldi. Ular mening so‘zlarimni takrorladi va daradan daraga taralib, uzoq vaqtgacha aks-sado berib yangrab turdi.

O‘g‘ilchamizni Samad deb atadik. Unga men shunday deb nom qo‘ydim. Samad bizning ermagimiz bo‘lib qoldi: Samad, bizning Samad jilmaydi, uning tishchalari chiqib qoldi. Xullas, hamma yosh ota-onalardek biz ham uni sevib ardoqlar edik. Biz bir-birimizni sevardik, ahil va inoq yashardik, so‘ngra esa... So‘ngra baxtsizlik yuz berdi...

* * *

Bu baxtsizlikka qanday yo‘liqib qolganimni hozir qaytadan bayon etish ancha mushkul. Hammasi aralash-quralash bo‘lib, chigallashib ketdi... O‘zim-ku, bilaman-a, ammo bundan nima foyda...

Bu odam bilan hech qachon uchrashmagan edik. Uning bu ishlarga hech qanday aloqasi ham yo‘q edi. Men buni shuning uchun gapiryapmanki, haqiqatan ham na u, na men bir-birimizning bu yorug‘ dunyoda shunday yashayotganimizni bilmas edik. Bir kuni yo‘lda tasodifan uchrashib qoldik va bu bizning so‘nggi uchrashuvimiz emasligiga o‘zimiz ham shubha qilmay ajralishgan edik. Bor gap shu...

Kech kuzda safarga ketmoqda edim. Havo kishini zeriktiradigan tund edi. Osmondan qormi, yomg‘irmi, qandaydir mayda zarrachalar yog‘ardi. Tuman xuddi sumalak singari tog‘ yonbag‘irlari bo‘ylab chizilib ketgan edi. Butun yo‘l bo‘yi kabina oynasini artib turadigan cho‘tkani muttasil ishlatib qo‘yishga to‘g‘ri keldi. Men tog‘ oralab xiyla ichkariga kirib borib, Do‘lan dovoniga yaqinlashib qolgan edim.

Eh, Do‘lan, Do‘lan, Tyan-Shanning bahaybat beli! Umrimning qanchadan qancha sahifalari u bilan bog‘liq! Qatnov yo‘limizning eng og‘ir, eng xavfli qismi ham shu yer edi. Yo‘l ilonizi bo‘lib, goh u yoqqa buriladi, goh bu yoqqa. Charxpalakda uchgandek tobora qiyalab yuqoriga ko‘tarilib, bulutlarni g‘ildirak bilan yanchib o‘tayotgandek bo‘lasan. Goh seni o‘tirg‘ichga siqib, orqaga jipslab qo‘yadi, goh rulga yopishganingcha mashina seni pastga olib qochadi. Buning ustiga quturgan tuyadek havosini aytmaysanmi. Yozmi-qishmi, Do‘landa, baribir. Bir zumda do‘lmi, yomg‘irmi savalab ketadi yoki bo‘lmasa, shunaqayam qor bo‘roni turib beradiki, bir qadam naridagi narsani ham ko‘ra olmaysan. Mana shunday bizning oq sochli Do‘lan!.. Ammo biz tyanshanliklar unga ko‘nikib qolganmiz, ko‘pincha, tunda qatnardik... Men bularni hozir hikoya qilib beryapman, u yerdan qatnab yurgan paytlarda esa bu haqda o‘ylashga ham vaqting bo‘lmasdi.

Do‘lan yaqinidagi daralardan birida yuk mashinasini quvib yetib oldim. Bu “GAZ-51” mashinasi ekanligi aniq yodimda. To‘g‘rirog‘i, quvib yetganim yo‘q, uning o‘zi to‘xtab turgan ekan. Ikki kishi motorni tekshirish bilan ovora edi. Ulardan biri yo‘l o‘rtasiga bamaylixotir chiqdi-da, qo‘lini ko‘tardi. Yo‘lni to‘sib qo‘ymaslik uchun ulardan o‘tibroq to‘xtadim. Oldimga jiqqa ho‘l brezent plash kiygan, boshiga kapyushon yopingan kishi keldi.

Yoshi qirqlarga borib qolgan, qo‘ng‘ir mo‘ylovi soldatchasiga cho‘tkasimon qilib qirqilgan, qovog‘i soliqroq, ko‘zlari esa muloyim tikilardi.

— Yo‘l uchastkasiga eltib qo‘y, yigit, — dedi u menga. — Motor ishlamay qoldi, traktor keltiramiz.

— Qaysi uchastkaga? — deb so‘radim. Chunki yo‘l tuzatish uchastkalari ko‘p edi, bunday uchastkalar deyarli har o‘n besh-yigirma kilometrda bo‘lardi.

— Do‘landagi meteostansiyaga yetmasdan biroz beriroqdagisiga.

Meteostansiya dovonning eng baland yerida, yo‘l tuzatish uchastkasi esa yetti kilometrlar chamasi pastda, yo‘ldan sal chetroqda, burilishda joylashgan edi.

— O‘tiring, — dedim, — olib borib qo‘yaman. Balki o‘zimiz biror ilojini toparmiz? — deb kabinadan chiqdim. Ular traktor deb to kech kirguncha sarson bo‘lmasin uchun bir amallab yordam bergim keldi. Yo‘l tuzatuvchilarga azbaroyi hurmatim tufayli shunday qilgim kelardi: axir ular albatta biz uchun zahmat chekyaptilar-da.

— Nima ham qila olarding, olov olmayotibdi, — dedi shofyor ochiq turgan kapotni bekitarkan, ma’yuslik bilan. Bechora sovuq yeb, junjikib, ko‘karib ketibdi. Bu yerlik shofyorlardan emasligi ko‘rinib turibdi, poytaxtdan kelayotgan bo‘lsa kerak. U dovdirab atrofga alanglardi. Ular uchastkaga Frunzedan nimadir olib kelishayotgan edi. Nima qilish kerak? Miyamga bir qiziq fikr kelib qoldi. Avval dovonga bir qarab qo‘ydim. U yoqda havoning avzoyi buzuq, bulutlar pastlab suzardi. Nihoyat bir qarorga keldim. O‘ylagan fikrim juda zo‘r bo‘lmasa ham men uchun o‘sha paytda g‘oyat katta revolyutsion voqea bo‘lib ko‘ringan edi.

— Tormozing joyidami? — deb so‘radim shofyordan.

— Ana xolos... tormozsiz yurib bo‘ladimi! Motor ishlamayapti deyapmiz-ku senga!..

— Trossing bormi?

— Xo‘sh, bo‘lsa-chi!

— Bu yoqqa keltir, mashinamga ula.

Ikkalasi ham joylaridan jilmay, ishonqiramagandek menga tikilib turishardi.

— Nima balo, aqlingdan ozdingmi? — dedi shofyor sekingina.

Xarakterim shunaqa, bilmadim, bu yaxshimi, yomonmi. Biroq bundan qat'i nazar, miyamga bir fikr keldimi, bo'ldi, kuyib-yonib ketsam ham baribir uni amalga oshirmaguncha qo'ymayman.

Men shofyorga yalinib-yolvora boshladim.

— Jon do'stim, kel, ulay qolaylik? Xudo ursin, yetkazib qo'yaman.

— Qo'ysang-chi! — deb qo'l siltadi u. — Nima, bu yerda shatakka olish mumkin emasligini bilmaysanmi. Buni o'ylamay ham qo'ya qol. Bor, yo'qol, yo'lingdan qolma!..

U go'yo eng muhim va eng katta iltimosimni rad qilgandek, shunaqayam alam qildiki menga.

— Eh, eshshak, qo'rqoq! — deb mashinamga qarab yurdim. — Qani, yuring, ketdik! — deb chaqirdim mo'ylovli kishini. Keyinroq bilsam, u yo'l tuzatadigan ustalardan ekan.

— Tura tur! — deb to'xtatdi meni yo'l tuzatuvchi va yuzimga bir tikildi-da, shofyorga qarab:

— Trossni keltir, — dedi.

U kalovlab qolib:

— O'zingiz javob berasiz, — dedi yo'l tuzatuvchiga.— Mashina sizning ixtiyoringizda, Boytemir aka.

— Hammamiz javobgarmiz! — dedi u qisqa qilib.

Menga bu gap yoqib qoldi. Bunday kishilarga tezda hurmating ortadi. Biz haligi mashinani shatakka olib yo'lga tushdik. Dastlab durustgina yurib boraverdik. So'ngra Do'langa yaqinlashavergan imiz sari yo'l ham tobora yuqoriga — tog'ga tomon ko'tarilib, goh yonbag'irlar bo'ylab, goh tik qiyalik bo'ylab pastlab borardi. Yurish qiyinlashdi. Motor ingrab, quloq ostida faqat guvullagan ovozgina eshitilardi. Yo'q, qanchalik nolish qilib ingrama, baribir bor quvvatingni ishga solaman. Do'landa yurish qanchalik mushkul bo'lmasin, baribir mashinalarda ozmi-ko'pmi ortiqcha quvvat saqlanib qolishini ilgaridan payqab yurardim. Yo'lning yomonligini nazarga olib, hamma vaqt normadagi yukning yetmish foyizini yuklashar edi. Ko'rsatma shunday edi. Lekin o'sha payt men bu haqda o'ylamagandim, albatta. O'ylab o'tirishning vaqti ham emasdi-da. Kurash oldidan sportchilarda g'alabaga zo'r ishonch

kuchi paydo bo'lganidek, menda ham hozir xuddi shuningdek mo'jizakor kuch jo'sh urardi. O'ylagan fikrimni sinab ko'rish, maqsadga erishish, mashinani manzilga yetkazishda ularga yordamlashishdan bo'lak maqsadni ko'zlamasdim. Ammo buni amalga oshirish oson ish emas ekan.

Ostimdagi mashina qalt-qalt titrab, zo'riqib, so'nggi kuchlarini sarflamoqda edi. Nam havo kabina oynalariga urilib, uni xiralashtirar, tozalov cho'tkasi zo'rg'a artib ulgurardi. Qayoqdandir bulutlar yopirilib kelib, naq g'ildiraklar ostida o'rmalashib, yo'l uzra suza boshladi. Yo'l ham muyulishlarda tikka ko'tarilib keskin burilib ketardi. Qayoqdagi ishni boshlab qo'yganim uchun o'zimni o'zim koyiy boshladim: odamlarga shikast yetkazib qo'ymasam edi. Mashinadan ko'ra o'zim ko'proq qiynalib ketdim. Ust-boshimni: shapka, fufayka, kamzul, to'r ko'ylagimni — hammasini yechib tashladim. Birgina ko'ylakda o'tiribman-u hamma yog'imdan xuddi hammomda o'tirgandek bug' ko'tarilardi. Hazil ishmi: shatakdagi mashinaning o'zi qancha-yu, ustiga-ustak yana ozmuncha yuki bormi, yaxshiyamki, Boytemir zinada turgandi. Menga ovoz bilan orqadagiga imo-ishora qilib, harakatni boshqarib borardi. Qing'ir-qiyshiq, past-baland yo'llar bo'ylab tirmashib, o'rmalab borarkanmiz, hoynahoy falokatdan o'zini saqlab qolish uchun sabr-toqati chidamay, oxiri sakrab tushib qolsa kerak, deb o'ylagan edim. Aksincha, u qimir ham etmadi. Tog' tepasiga qo'ngan burgutdek mahkam o'rnashib olib, kabinaga yopishib turardi. Unga qaradim: yuzlari go'yo toshdan yo'nilgandek osoyishta, suv tomchilari betlaridan, mo'ylovidan sirqib tushib, ko'ngli yengil tortayotgandek edi.

Biz yana bir katta qiyalikdan oshsak, marraga yetardik. Shu payt Boytemir derazaga engashib:

— Ehtiyot bo'l, oldinda mashina kelyapti! O'ngroqqa ol, — dedi.

Men mashinani o'ngroqqa oldim. Tog' tepasidan yuk mashinasi tushib kelayotgan edi. Jontoyniki! Endi tamom, xavfsizlik injeneri rosa boplaydigan bo'ldi: Jontoy chaqib beradi. U borgan sari yaqinlashib kelmoqda edi. Rulga yopishib olgan, xo'mraygancha pastga tomon tushib kelardi.

Biz yonma-yon kelib qoldik. Kabina derazalari ro'baro' kelganda Jontoy o'zini orqaga oldi va mallarang tulki tumoqli boshini ta'naomuz tebratib qo'ydi. "He, iblis! Tiling qichigan bo'lsa, og'zingga siqquncha gapiraver!" — deb o'yladim ichimda.

Tepalikka ham chiqib oldik, yo'l pastga tomon juda qiyalab ketardi, dovondagi ana shu so'nggi marrani ham qo'lga kiritsak, yo'l tuzatish uchastka hovlisiga burilamiz. Mashinani o'sha tomonga burdim. Harholda sudrab olib keldim-ku! Motorni o'chirdim, qulog'imga hech narsa kirmasdi. Qulog'im bitib qolibdi. Nazarimda, men emas, balki butun borliq chuqur uyquga cho'mgandek bo'ldi. Churq etgan ovoz yo'q, Boytemir yerga sakrab tushgandagina qulog'im eshita boshladi. Kabinadan arang sudralib chiqdim va shu zahotiyoq zinaga o'tirib qoldim. Nafasim qisilardi, madordan ketgan edim, buning ustiga dovonning havosi siyrak edi. Boytemir yugurib keldi-da, yelkamga fufaykani tashlab, boshimga shapkani bostirib kiygizdi. Narigi mashinadan rangi oqarib, dami ichiga tushib ketgan haligi shofyor ham sekingina oqsoqlanib kelaverdi. U oldimda cho'qqayib o'tirdi-da, sigareta uzatdi. Qo'llarim qaltirab, sigaretani oldim. Hammamiz chekib olganimizdan so'ng o'zimizga keldik. Menda yana o'sha la'nati yovvoyi kuch jo'sh urib ketdi.

— He-e, qalay! — dedim men. — Ko'rdingmi!

Shofyorning yelkasiga bir tushirgandim, u o'tirib qoldi. So'ng uchovimiz ham o'rnimizdan sakrab turdik-da, bir-birimizning orqamizga, yelkamizga tushira ketdik. O'zimiz esa qahqahlab kulib, allanimalar deb quvonch bilan qichqirib, baqirishib to'polon ko'tardik... Nihoyat tinchlanib, yana cheka boshladik. Men kiyimlarimni kiyib, soatimga qaradim-u, ketishim kerakligi "lop" etib esimga tushib qoldi.

— Xo'p, men borayin! — dedim.

Boytemirning qovog'i osildi:

— Yo'q, uyga kiramiz, mehmonimiz bo'lasan! — dedi.

Mening esa biron daqiqa ham vaqtim yo'q edi.

— Rahmat! — deb minnatdorchilik bildirdim. — Ilojim yo'q. Uyimga kirib o'tmoqchiman, xotinim kutib o'tirgandir.

— Qola qolsang nima bo'lardi? Bir shishani qoqib tashlardik, — dedi ko'ndirmoqchi bo'lib yangi do'stim shofyor yigit.

— Qo‘y, zo‘rlama! — deb uning so‘zini bo‘ldi Boytemir. — Xotini kutayotgan ekan. Isming nima seni?

— Ilyos.

— Mayli, boraver, Ilyos. Rahmat senga, bizni qutqarganing uchun.

Boytemir mashina zinasida turib meni to yo‘lgacha kuzatib qo‘ydi. U indamay qo‘limni qisdi-da, mashinadan sakrab tushib qoldi. Tog‘ tepasiga ko‘tarilayotib, kabinadan boshimni chiqarib qaradim. Boytemir hamon yo‘lda turardi. Qo‘lida shapkasini g‘ijimlab, kallasini quyi solganicha allanimalar haqida o‘ylardi.

Bor gap shu, ana shunday qilib biz ajrashdik.

Ammo o‘sha kecha tuni bilan qiynalib chiqdim. Shamollab qolgan ekanman. Uyga kelganimda hech narsani sezmagan edim. Tezda ovqatlanib oldim. Asalga voqeani batafsil gapirib o‘tirmadim. Lekin yo‘lda odamlarga yordamlashganim uchun kechikib qolganimni aytdim, xolos. Men o‘z hayotimni qaylig‘imdan yashirmasdim. Ammo, menimcha, bunday narsalarning hammasini aytaverish ham zarur emas edi. U busiz ham mendan doim xavotir olib o‘tirardi. Bundan tashqari, men bunday nojo‘ya ishlarni takrorlash niyatida ham emas edim. Hayotimda bunday voqea bir bo‘ldi, dovon bilan kuch sinashib ko‘rdim, bas. Ehtimol, yo‘ldan og‘rib qaytmaganimda, buni ertasigayoq unutgan bo‘lar edim. Uyga bir amallab yetib keldim-u holdan toyib yiqildim. Nima bo‘ldi, qanday bo‘ldi, bilmayman. Hadeb alahlardim, go‘yo mashinani shatakka olib, Do‘landa kelayotgandek bo‘laverdim. Kuchli qor bo‘roni yuzimga urilar, nafas ololmay qiynalardim, baranka xuddi paxtadan yasalgandek, aylantirsam qo‘llarimga yopishib qolardi. Oldinda esa cheki-chegarasi yo‘q dovon. Mashina radiatori tinmay guvullab ko‘kka qarab tirmashib borar va yana balandlikdan pastga tomon shuvullab tushib ketar edi... Aftidan, bu kasallik dovoni bo‘lsa kerak. Uni men uchinchi kuni yengib, yengil torta boshladim. Yana ikki kun yotdim. O‘zimni yaxshi his etardim, o‘rnimdan turmoqchi ham bo‘ldim, ammo Asal hech ko‘nmadi. To‘shakda yana ikki kun yotishga majbur qildi. Unga qararkanman, hayratda qoldim. Men kasal bo‘ldimmi yoki umi? Shunchalik qiynalib tashvish tortibdiki, kishi tanib bo‘lmaydi, ko‘zlarining osti ko‘kimtir halqa-halqa bo‘lib, ozib ketibdi, qattiqroq puflasang yiqilib ketayotgandek,

uning ustiga, qo'lida bolasi. Yo'q, bunaqasi ketmaydi, degan qaroorga keldim. Taltayib yotishga haqim yo'q. U dam olishi kerak. O'rnimdan turib, kiyina boshladim.

— Asal! — deb chaqirdim sekin. O'g'ilcham uxlab yotardi. — Qo'shnilar bilan gaplashib ko'r, ko'nishsa Samadni qoldirib, kinoga borib kelamiz!

U karavot yoniga chopib keldi-da, meni yana yotqizib qo'ydi. Xuddi birinchi marta ko'rayotgandek mendan ko'zini uzmasdi. Ko'z yoshlarini tutishga urinardi-yu, ammo ular kipriklari ostida yiltirab, lablari titrardi. Asal ko'ksimga yuzini qo'yib, yig'lab yubordi.

— Senga nima bo'ldi, Asal? Nima bo'ldi? — deb dovdirab qoldim men.

— Sizning sog'ayib ketganingizdan o'zimda yo'q xursandman.

— O'zim ham xursandman, ammo yig'lashning nima keragi bor. Sal mazam qochsa qochibdi-da. Qaytaga uyda sen bilan bir necha kun birga bo'ldim, Samad bilan ham o'ynab xumordan chiqdik. — O'g'limning allaqachon emaklay boshlagan, endi esa yurishga shaylanayotgan eng yaxshi, eng shirin chog'lari edi. — Rostini aytsam, yana bir shunday kasal bo'lsam qaniydi! — dedim hazillashib.

— Qo'ysangizchi shunaqa gapni, keragi yo'q! — deb jerkib berdi Asal.

Shu payt karavotchada uxlab yotgan o'g'ilcham uyg'onib qoldi. Asal uni iliqqinaligicha ko'tarib keldi. Uchovimiz karavotga ag'anab, to'polon qilib hazillashardik, Samad esa ayiqchadek u yoqdan bu yoqqa o'rmalab, bizni tepkilar edi.

— Mana ko'ryapsanmi, qanday yaxshi! — dedim unga. — Sen bo'lsang... Tura tur hali, yaqinda ota-onangning oldiga — ovulga boramiz. Qani gunohimizni kechirmay ko'rishsin-chi. Samadni ko'riboq zavqlanib ketib, hammasini unutib yuborishadi...

Ha, ovulga kechirim so'rab borish niyatida edik. Ammo avvalo otpuska olish, so'ngra Asalning ota-onasidan tortib barcha qarindosh-urug'larigacha sovg'a-salomlar tayyorlash lozim edi. U yoqqa quruqdan quruq borishni istamas edim. Bu orada qish ham kirib qoldi. Tyan-Shanning qishi qattiq bo'ladi. Kuchli dovul, qor

bo‘ronlari va tog‘dan qor ko‘chish hodisalari tez-tez bo‘lib turardi. Bunday paytlarda shofyorlarga tashvish yana ortardi, yo‘l tuzatuvchilarga esa yana ham qiyinroq bo‘lardi. Ular tog‘lardan ko‘chib turadigan qor uyumlariga qarshi kurash olib borar va qor o‘pirilib tushishi mumkin bo‘lgan xavfli yerlarni oldindanoq portlatishib, darhol yo‘lni tozalab qo‘yishar edi. To‘g‘ri, o‘sha yilgi qish biroz tinchroq o‘tgan edi. Yoki menga shunday ko‘ringandir, chunki ish shunchalik ko‘p ediki, uncha-muncha narsalarga e’tibor bermasdik. O‘sha yili bizning avtobazaga kutilmaganda katta qo‘shimcha topshiriq berishdi. Aniqrog‘i, bunday katta topshiriqni olishga biz shofyorlar o‘zimiz sababchi bo‘lgan edik, shaxsan men uning tashabbuskori edim. Men bunga hozir ham afsuslanmayman va ma’qul ish qilganman, deb hisoblayman. Ammo, nazarimda, mening barcha musibatlarim xuddi shundan boshlangandek tuyuladi. Voqea bunday bo‘lgan edi. Bir kuni kechqurun avtobazaga qaytib kelayotgan edim. Asal mendan Alibek Jonturinning xotiniga kichik bir tuguncha berib yubordi. Men mashinani ularning uyi tomon burib, signal berdim. Alibekning xotini chiqdi. Unga haligi tugunchani berayotib:

— Alibek uydami? — deb so‘radim.

— Yo‘q, hali kelganicha yo‘q.

— Qayoqda u, yo‘ldami?

— Yo‘g‘-a, bugun yo‘lga chiqqani yo‘q, keyinroq borarmish. Nimagadir u yoqdan bu yoqqa zir yugurib yuribdi. Aytishicha, xitoylik ishchilar avtobazaga telegramma yuborishgan emish.

— U yoqda nima gap bo‘libdi?

— Zavod uchun asbob-uskunalarni tezroq yetkazib berishni iltimos qilishibdi.

— Qanaqa asbob-uskuna? Sinszyanda qurilayotgan qishloq xo‘jalik mashinalari zavodi uchunmi?

— Bilmadim, Ilyos. O‘zing eshitib qolarsan.

— Hozir Alibek qayerdaykin?

— Qayerda bo‘lardi. Yuk tushirish stansiyasida-da, hamma o‘sha yerda. Eshelonlar kelganmish.

Men ham mashinani o‘sha yoqqa tomon haydadim. Nima gap o‘zi, aniqlab olay dedim-da. Mana, yetib ham keldim. Bizning yuk tushirish stansiyamiz darada, ko‘ldan sal berida joylashgan

bo‘lib, temir yo‘lning so‘nggi stansiyasi edi. U yerda g‘ala-g‘ovur, g‘ira-shira qorong‘i, hech narsani payqab bo‘lmasdi. Dara tomondan esayotgan kuchli shamol simyog‘ochlardagi chiroqlarni tebratar, shuvullab shpallarni yalab o‘tardi. Vagonlarni bir-biriga tirkab yurgan parovozlar u yoqdan bu yoqqa qatnab turardi. Eng chekkadagi yo‘lda turgan kran ilgaklarini ko‘tarib, tebranganicha, vagonlardagi sim va tunuka tasmachalar bilan tang‘ib, mixlab tashlangan yashiklarni tushirayotgan edi. Yanglishmabman. Bu Sinszyandagi mashinasozlik zavodiga yuboriladigan tranzit yuklar edi. U yerda yirik inshoot qurilayotgandi. Avvallari ham biz u yoqqa ba’zi asbob-uskunalarni olib borgan edik.

Avtobazamiz mashinalaridan talayginasi shu yerda ekan. Biroq hali ularning birontasi ham yuk ortmay turardi. Hamma shofyorlar nimanidir kutishayotgandek edi. Ular kabinalarda, mashina zinalarida o‘tirishardi. Ba’zilar shamoldan panalanib, yashiklarga suyanib olishgandi. Men ular bilan salomlashdim. Biron kimsa menga e’tibor ham bermadi. Papiroslarini tutatishib, sukut saqlab turishardi. Chetroqda o‘tirgan Alibekni ko‘rib qoldim. Uning oldiga bordim.

— Salom, Alibek!

— Salom!

— Nima qilyapsizlar? Telegramma olibsizlarmi?

— Ha. Zavodni muddatidan ilgari ishga tushirishmoqchi.

— Xo‘sh, nima bo‘pti?

— Endi gap bizda qoldi.

— Rostdanmi?

— Ko‘ryapsanmi, butun yo‘l yoqalari yukka to‘lib ketibdi. Hali yana keladi. Bularni qachon tashib ulguramiz? Bu haqda o‘ylayapsanmi? Odamlar bizga ishonib, u yoqda kutishmoqda!.. Ularga har bir kun g‘animat.

— Sen bularni nega menga gapiryapsan? Mening bu ishlarga nima daxlim bor?

— Nima daxlim bor?! Bu nima deganing, yo boshqa mamlakatdan kelganmisan? Yoki bizga naqadar muhim ish topshirilganini tushunmaysanmi?

— Azbaroyi Xudo, aqldan ozibsan! — deb ajablanib, o‘zimni chetga oldim.

Shu payt yashiklar orqasidan ovozlar eshitilib qoldi. Avtobazamiz boshlig'i Omonjo'lov ko'rindi. U kamzulining etagi bilan shamolni to'sib, pana qilib papiros tutatdi-da, so'ngra indamay hammamizga bir-bir nazar tashlab chiqdi.

— Gap mana bunday, o'rtoqlar, — dedi u, — ministrlikka telefon qilib ko'raman, balki yordam berishar. Ammo bunga orqa qilish kerak emas. Nima qilish kerakligini hozircha o'zim ham bilmay turibman.

— Buni uddalash qiyin, o'rtoq Omonjo'lov! — dedi kimdir. — Yuklar juda og'ir, qo'pol, ortishga ham, joylashtirishga ham noqulay. Kuzovga ikki-uchtadan ortig'i sig'maydi. Mabodo kecha-yu kunduz ishlaganimizda ham, Xudoga shukur, ko'klamgacha yetadigan ish bor.

— Hamma gap shunda-da, — dedi Omonjo'lov. — Ammo ilojini topishimiz kerak. Xo'p, hozircha uy-uyimizga tarqalaylik. Sizlar ham o'zlaringizcha o'ylab ko'ring!

U "Gazik"ka o'tirib jo'nab ketdi. Shofyorlardan birontasi ham joyidan qo'zg'almadi. Ular negadir shoshilmasdilar. Qorong'i burchakda o'tirgan allaqanday kishi, hech kimga murojaat qilmay, o'zicha do'rillab gapirdi:

— Bo'lmag'ur ish! Ikki oyoqni bir etikka tiqib bo'lmaydi! Bu haqda ilgariroq o'ylash kerak edi! — deb o'rnidan turib, papiros qoldig'ini o'chirdi-da, mashinasi tomon ketdi.

Uni boshqa shofyor quvvatladi:

— Bizda doim shu ahvol, ish qistalang keldimi, bo'ldi, qutqaringlar, jon og'aynilar, deb darhol shofyorlarga osilishgani osilishgan.

Odamlar unga o'shqirib berishdi:

— Bu xalqaro ish-ku, Ismoil, sen bo'lsang bozorchi shallaqi xotinlarga o'xshab vaysayapsan-a!

Men munozara-tortishuvlarga qo'shilmay turardim. Ammo birdan miyamga bir fikr kelib qoldi: dovonda mashinani qanday shatakka olganim yodimga tushdi. Chidab tura olmadim-da, har vaqtdagidek qizishib ketib:

— O'ylab o'tirishning nima keragi bor! — deb o'rtaga otilib chiqdim. — Mashinalarga pritsep ulash kerak!

Hech kim qimir etmasdi. Ba'zilar hatto menga qayrilib qaramadi ham. Bunday fikrni faqat telbalargina aytishi mumkin edi.

Jontoy sekingina hushtak chalib qo'ydi:

— Ko'rdinglarmi!

Men uning ovozidan tanidim. Turgan yerimda har tomonga alanglayman, bo'lgan ishni birma-bir so'zlab bergim kelyapti. Ammo qandaydir so'loqmonday yigit yashik ustidan tushib, qo'lqopini yonidagi sherigiga berdi-da, oldimga yaqin kelib, yoqamdan ushlab, o'zi tomon tortib:

— Qani, "uff" de-chi! — dedi.

— Uff! — deb pufladim men.

— Kayfi yo'q! — dedi u yoqamni bo'shatarkan, hayron bo'lib.

— Bo'lmasa, jinni-minni bo'lgandir-da, — dedi haligi yigitning sherigi uni quvvatlagandek va ikkalasi ham mashinalariga o'tirishib, jo'nab ketishdi. Boshqalar ham ketishga hozirlanib, o'rinlaridan jimgina qo'zg'alishdi. Hech qachon bunchalik kulgi, bunchalik mulzam bo'lmagan edim! Yer yorilmadi-yu, yerga kirmadim.

— To'xtanglar! Qayoqqa ketyapsizlar! — deb shofyorlar orasida alanglab, u yoqdan bu yoqqa yugura boshladim. — Men hazil qilayotganim yo'q, haqiqatan ham pritseplar ulash mumkin...

Keksa, oqsoqol shofyorlardan biri jahli chiqib, oldimga keldi-da:

— Men bu yerda shofyorlik qila boshlagan paytlarimda sen hali ishtonchan yurgan go'dak eding. Tyan-Shan tansa maydoni emas, senga juda rahmim kelyapti, xalq o'rtasida masxarabozlik qilma! — dedi.

Odamlar meni masxara qilishib, mashinalariga tarqala boshladilar. Shunda men butun stansiyani boshimga ko'tarib baqirdim:

— Sizlar shofyor emas, xotinchalishlarsiz!

Buni bekor qilgan ekanman, boshimga balo orttirib oldim.

Hamma to'xtab, baravariga menga qarab yopirilib kela boshladi:

— Nima deding, ablah! Ko'pchilikning hayoti bilan o'ynashmoqchimisan!

— Novator! Mukofot olmoqchi! — deb shovqin soldi Jontoy. G'ala-g'ovur zo'rayib ketdi, odamlar meni iskanjaga olib, yashiklarga qisib qo'yishdi.

— Masxara qilyapsanmi hali!

— Sol tumshug'uga!

— Mishig'ingni artib olsang-chi!

Do'pposlab, dabdala qilib tashlashsa kerak, deb o'ylab, yerdagi yotgan taxtani qo'limga oldim.

— Qani, chetroq tur, yo'l ber! — deb hushtak chalib, kimdir hammani itarib-surib kela boshladi.

Bu Alibek edi.

— Jim! — deb baqirdi u. — Sen, Ilyos, tushuntirib gapir! Tezroq so'zlay qol!

— E, nimani gapiraman! — dedim men nafasim bo'g'zimga tiqilib. Chunki hali og'iz ochishga ulgurmasdanoq yulib-tortqilashib, tugmamdan birontasini ham qoldirishmay uzib yuborishgandi. — Men dovonda bir mashinani yuki bilan shatakka olib, yo'l tuzatuvchilar uchastkasigacha oborib qo'yganman. Bor gap shu.

Yigitlar ishonmagandek jim bo'lib qolishdi.

— Xo'sh, torta oldingmi? — deb so'radi kimdir shubhalanib.

— Ha, butun Do'landan to uchastka hovlisigacha tortib bordim.

— Ho, juda zo'r-u! — dedi kimdir ajablanib.

— O'zicha valdirayapti-da! — deb e'tiroz bildirdi ikkinchi biri.

— Faqat muttahamlargina valdiraydi. Buni Jontoy ham ko'rgan. Hoy, Jontoy, qayoqdasan? Ayt! Qanday uchrashganimiz esingdami?..

Ammo Jontoyning ovozi chiqmasdi. U yer yorilib, yerga kirib ketgandek, g'oyib bo'ldi-qo'ydi. U ablahdan nafratlanib yurganim bejiz emas edi. Hozir buni o'ylab turadigan vaqt emasdi. Odamlar bahslashib ketdi. Meni quvvatlagan odamlar ham bo'lishdi. Biroq qandaydir bir shakkok chiqib, birdaniga ularni fikrlaridan qaytardi-qo'ydi:

— Bekorchi gap sotishning nima keragi bor! — deya to'ng'illay boshladi u. — Birov bir ishni bir marta qilsa qilibdi-da! Bunday hodisalar ozmi! Biz yosh bola emasmiz. Trassamizda pritseplar ulab yurish man etilgan. Bunga hech kim ruxsat ham bermaydi. Mehnat xavfsizligi injenerlariga shunday deb ko'r-chi, nima derkin: shunaqayam boplasinki, dodingni Xudoga aytgin. Sizlarni deb javobgarlikka tortilishni xohlamasa kerak... Gapning o'g'il bolasi shu.

— E, qo‘ysang-chi! — deb gapga aralashdi boshqa birov. — Ruxsat bermaydi deganing nimasi! Mana, Ivan Stepanovich o‘ttizinchi yillarda polutorka mashinada dovonni birinchi bo‘lib ochgan. Unga ham hech kim ruxsat bermagan edi. U o‘z bilgicha qilgandi bu ishni. Mana o‘zi, hali o‘lganicha yo‘q...

— Ha, darvoqe, shunday bo‘lgan edi, — deb tasdiqladi Ivan Stepanovich. — Ammo hozir shubhalanib turibman: axir bu yerdan hatto yozda ham hech kim pritsep bilan o‘tgan emas, hozir esa qish...

Shu paytgacha indamay o‘tirgan Alibek gapga aralashdi:

— Yetar shuncha tortishganimiz. Ilyosning taklifi hali sinab ko‘rilmagan narsa bo‘lsa ham o‘ylab ko‘rish kerak. Lekin sen aytgancha emas, Ilyos, pritsepni ulaymiz-u ketavermaymiz. Bunday qilish yaramaydi, oldin bunga hozirlik ko‘rish, hammasini jiddiy o‘ylab chiqish, maslahatlashish va sinab ko‘rish kerak. Quruq so‘z bilan hech narsani isbotlay olmaysan...

— Isbotlayman! — dedim men unga. — Sizlar o‘ylab, fol ochib bo‘lgunlaringizcha, men isbotlab beraman! Ana o‘shanda ishonch hosil qilasizlar! — deb burilib mashina tomon yurdim va avtobazaga jo‘nab ketdim.

Har kimning o‘z xulqi, fe’l-atvori bor. Ularni boshqarib turish kerak, albatta, biroq bunga hamma vaqt ham muyassar bo‘lavermaydi kishi. Rul boshqarib borayotgan bo‘lsam ham na ostimdagi mashinani, na yo‘lni his etardim. Dard-alam, xafagarchilik va asabiylik butun vujudimni egallab olgandi. Boyagi so‘zlar borgan sari izzat-nafsimga qattiq tegib, yurakni o‘rtab tutaqtirayotgan edi. Yo‘q, men sizlarga isbotlab berganim bo‘lsin! Odamning so‘ziga ishonish kerakligini isbotlab beraman, uning ustidan kulish qandayligini ko‘rsatib qo‘yay, ehtiyotkorlik bilan orqa-oldingga qarab ish ko‘rish qanaqa bo‘lishini bir isbotlab beray! Alibekka ham qoyilman: o‘ylab ko‘rish, tayyorlanish, sinab ko‘rish kerakmish! U hamisha shunaqa aqlli, ehtiyotkor! Ammo men uchun bular bir pul! Men bu ishni xamirdan qil sug‘urgandek bajarib, kimligimni ko‘rsatib qo‘yaman!

Mashinani garajga qo‘yganimdan keyin ham uning atrofida ancha vaqtgacha o‘ralashib yurdim. Sirtdan qaraganda tinchlanib

qolganga o‘xshasam ham ko‘nglim bezovta edi. Men faqat bir narsa haqida — o‘zimning haq ekanligimni qanday qilib ertagayoq isbotlasam ekan, deb o‘ylardim. Fikrimni isbotlash, so‘zlab berish uchun boshliqlar oldiga borishni, ularning e’tirozlarini tinglashni endi xohlamas edim.

Yo‘l bitta: pritsep bilan dovonga qarab jo‘nash. Men buni qanday bo‘lmasin, bajarishim kerak edi. Ammo pritsepni menga kim berardi, uni avtobazadan Tyan-Shan yo‘liga olib chiqishga kim ruxsat etardi?

Shunday o‘y-xayollar bilan garajdan chiqib, hovli bo‘ylab sekin yura boshladim. Kech kirib qolgan edi. Faqat dispetcherxonada chiroq yonib turardi. Men to‘xtab qoldim: e, dispetcher-chi. Dispetcher hammasini to‘g‘rilab berishi mumkin-ku! Hamma ish uning qo‘lida. Men dispetcherxona tomon shoshildim. Chamamda, bugun Xadicha navbatchilik qilayotgan bo‘lsa kerak. Shunday bo‘lsa yana ham yaxshi. U mening iltimosimni rad etmaydi. Rad etishi ham mumkin emas. Rad etgan taqdirda ham axir men jinoyat qilmoqchi emasman-ku. Aksincha, u hamma uchun foydali, hamma uchun muhim bo‘lgan ishni amalga oshirishda menga yordam beradi, xolos.

Dispetcherxonaga yaqinlashar ekanman, anchadan beri ilgarilardagidek eshikdan to‘g‘ri kirib boravermayotganligim va tuynukcha orqali murojaat qilayotganligim esimga tushib, ikkilanib qoldim. Shu payt eshik ochildi. Ostonada Xadicha turardi.

— Sening oldingga kelayotgan edim, Xadicha. Yaxshiyamki, shu yerda ekansan!

— Men ketyapman.

— Xo‘p, yur, uyinggacha kuzatib qo‘yaman.

Xadicha taajjublanib, menga shubhalanib qaradi-da, jilmayib:

— Ketdik, — dedi.

Biz tashqariga chiqib, ko‘cha bo‘ylab keta boshladik. Ko‘cha zim-ziyo qorong‘i edi. Ko‘l tomondan to‘lqinlarning shovullagani eshitilib turar, izg‘irin shamol esardi. Xadicha qo‘ltig‘imdan ushlab, sovuq shabadadan panalab pinjimga tiqila boshladi.

— Sovqotyapsanmi? — deb so‘radim.

— Sen bilan birga bo‘lsam sovqotmayman! — dedi u.

Xadicha yana bir nima demoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, biroq jim qolib, yana kiftimga ishqalana boshladi. Bunga qadar hayajonlanib turgan edim, endi bo'lsa negadir tinchlanib, o'zimni erkin seza boshladim.

— Ertaga qay mahal navbatchilik qilasan, Xadicha?

— Ikkinchi smenada.

— Senda bir ishim bor. Juda muhim. Bari senga bog'liq...

Yo'lda unga hammasini aytib berdim. Avvaliga gapimga quloq solgisi ham kelmadi, biroq men uni hamon ishontirishga intilardim. Chiroq ostida, muyulishda to'xtadik. Xadicha bir qarorga kelolmay turardi.

— Eh, Ilyos! — dedi u tashvish bilan ko'zimga boqib.— Bekor shunday qilyapsan!

Ammo men nima desam ham uning bajarishini tushunib turardim. Uning qo'ltig'idan ushlab:

— Bekorga emas. Menga ishonaver! Hammasi joyida bo'ladi. Xo'sh, kelishdikmi? — dedim.

U xo'rsinib qo'ydi.

— Sen aytganingdan keyin, nima ham qila olardim!— dedi-da, xo'p degandek bosh qimirlatdi.

Men beixtiyor uning yelkasidan quchoqlab oldim.

— Asli yigit bo'lib tug'ulishing kerak ekan-da, Xadicha! Xo'p, ertagacha xayr! — deb qo'lini qattiq qisdim. — Kechgacha hamma qog'ozlarni to'g'rilab qo'y, xo'pmi?

— Namuncha shoshilmasang! — dedi u qo'limni bo'shatmay turib. So'ngra birdan o'zgarib qoldi. — Mayli, boraver... Yotoqxonagami?

— Ha, Xadicha.

— Xayrli tun, — dedi u.

Ertasiga bizda texnika ko'rigi bo'ldi. Avtobazadagi odamlar diqqinafas bo'la boshladi: inspektorlar doim bemavrid tiqilinch qilishadi-da, nuqul biron narsadan ayb topib, akt tuzishgani tuzishgan. Qanchalik dahmaza, qanchalik tashvish. Ammo ularning o'zlari esa juda og'ir, sovuqqon odamlar. Planga muvofiq avtobazani texnika ko'rigidan o'tkazishlari kerak edi, shunga ko'ra ular bamaylixotir o'z ishlarini bajarayotgan edilar.

O‘z mashinamdan ko‘nglim to‘q edi, ammo remont qilayotgan kishidek o‘zimni chetga tortib turaverdim. Xadicha navbatchilikka o‘tguncha vaqtni cho‘zib turish kerak edi. Hech kim men bilan gaplashmas, hech kim kechagi hodisani eslatmas edi. Odamlar buni xayoliga ham keltirmasdi: hamma texnik ko‘rikdan tezroq o‘tib, yo‘lga tushishga va bekor ketgan vaqtning hissasini chiqarishga oshiqardi. Ammo baribir ko‘nglimdagi dog‘ yoddan ko‘tarilmasdi.

Texnika ko‘rigidan tushdan keyin o‘tdim. Inspektorlar ham ketishdi. Hammayoq bo‘shab, huvullab qolgan edi. Hovlining ichkarisida ochiq havoda pritseplar turardi. Ulardan ba’zan tekis yo‘llarda, ichki qatnovda foydalanilar edi. Men pritseplarga qanday borish qulayroq ekanini ko‘zdan kechirib, ulardan birini — eng chetkisini mo‘ljallab qo‘ydim. U oddiygina to‘rt g‘ildirakli aravaga o‘xshardi. Uning hamma hikmati mana shu. Ammo shuni deb qanchalik hayajonga tushdim... O‘sha payt meni nima kutayotganini bilmas edim. Shuning uchun ham yaxshigina ovqatlanib, biror soat bo‘lsa ham mizg‘ib olish maqsadida xotirjamgina yotoqxonaga ketdim. Yo‘l juda xavfli edi. Baribir uxlay olmadim. Vaqtni ilondek to‘lg‘anib o‘tkazdim. Qosh qoraya boshlagach, avtobazaga bordim.

Xadicha bo‘lsa allaqachon kelib turgan ekan. Hamma narsa taxt edi. Men uni behuda tashvishlantirmaslik uchun ortiqcha takalluf qilib o‘tirmasdan yo‘llanmani oldimda, garajga shoshildim. Yugurib ketyapman-u xayolimdan: “Tamom! Endi bu yog‘ini bir ko‘rsatib qo‘yay sizlarga!” — degan fikrni o‘tkazdim. Mashinani burdim va tislab borib pritsepga to‘g‘riladim, so‘ngra motorni sekin yurgizib qo‘ydim-da, tevarak-atrofni ko‘zdan kechirish uchun kabinadan chiqdim. Biron kimsa ko‘rinmaydi. Faqat remont ustaxonasidagi dastgohlarning taqir-tuquri-yu, ko‘l to‘lqinlarining qirg‘oqqa urilishidan ko‘tarilgan shalop-shulup ovozlari eshitilib turardi. Osmon sukunat ichida turgandek tuyulsa ham bironta yulduz ko‘rinmasdi. Yonimda motor sekin tirillab turardi, mening yuragim ham gup-gup urardi. Chekmoqchi bo‘ldim-u, lekin papirosni shu zahotiyoq chetga otib tashladim, keyin... Darvoza oldida meni qorovul to‘xtatdi:

— To‘xta, qayoqqa! — dedi u.

— Yuk ortishga, oqsoqol, — dedim men o‘zimni beparvo ko‘rsatishga urinib. — Mana chiqishga propuska.

Chol qog'ozga sinchiklab tikildi-yu, ammo fonus yorug'uda hech narsa o'qiyolmadi.

— Vaqtimni olma, oqsoqol! — dedim sabrim chidamay. — Ish qolib ketyapti!

Yuk ortish tinchgina o'tdi. Yaxshigina yuk ham olindi: kuzovga ham ikki, pritsepga ham ikki bo'lak yuk olib yo'lga chiqdim va faqat shundan keyingina ko'nglim joyiga tushib, cheka boshladim. So'ngra mashinaga qulayroq o'tirib oldim-da, chiroqni yoqib, to'la gaz berdim. Mashina chirog'idan taralayotgan yog'du atrofni qoplab olgan qorong'ilik chokini so'kib borardi. Yo'l bo'm-bo'sh edi. Mashinani eng yuqori tezlikka qo'yib haydashim mumkin edi. Orqada sharaqlab kelayotgan pritsep yengilgina va bir tekisda yelib borayotgan mashinaga deyarli xalal bermasdi. To'g'ri, burilishlarga kelganda mashina yo'l chekkasiga surilib ketardi va rulni boshqarish ham ancha qiyinlashar edi. Ammo bunga odatlanmaganlikdan, keyinchalik ko'nikib ketarman, deb o'ylardim. "Do'lanni zabt etaman, Sinszyanga ham boraman!" — deb qichqirdim o'zimga-o'zim va ot ustida enkayib chopib borayotgandek rul chambaragiga yopishib oldim. Yo'l ravon kelgan yerlardan iloji boricha tezroq haydab o'tish va tun yarmida Do'langa hujum boshlash niyatida edim.

Ba'zi vaqtlarda tezlikni mo'ljalimdagidan ham oshirib haydardim. Ammo tog' boshlangandan keyin sekinroq va ehtiyotkorlik bilan yurishga to'g'ri keldi. Bu motorning quvvati yetmasligidan emas, albatta. Tepalikka chiqishga qaraganda, pastlikka tushish ancha qiyin edi. Pritsep nishablikdan o'qday g'izillab kelib, mashinaga zarb bilan urilar va uning tinchgina tushishiga xalaqit berar edi. Har qadamda tormoz berib, tezlikni kamaytirish va rulni ziyraklik bilan boshqarib turishga to'g'ri kelardi. Boshda o'zimni dadil tutdim, uncha-muncha narsaga e'tibor bermaslikka harakat qildim, lekin borgan sari xavotirlanib, asablarim buzila boshladi. Hali yo'lda yana qanchadan qancha tepalik va nishabliklar uchraydi. Bularni sanab chiqish hech kimning xayoliga kelganmikin! Shunday bo'lsada, ruhimni tushirmadim. Bu yerda holdan toyishdan boshqa hech narsa ko'nglimga tahdid solmasdi. "Hechqisi yo'q, — deb ovutardim o'zimni o'zim. — Dovonga chiqish oldidan nafasimni rostlab

olaman. Dovondan albatta oshib o‘taman!” Biroq men nega o‘sha kuzda mashinani shatakka olganimdagiga qaraganda hozir ko‘proq qiynalyapman, deb o‘ylab o‘tirmadim.

Do‘lan tobora yaqinlashib kelmoqda. Chiroq nurlari qop-qora tun qo‘yniga cho‘kkan ulkan daraning qoyalarini siypalab o‘ta boshladi. Qorli qalpoqlarini bostirib kiyib olgan bu qoyalar yo‘l ustida osilib turardi. Chiroq nurlarida pag‘a-pag‘a qor parchalari yaltirab ko‘rina boshladi. “Yuqoridan shamol uchirib tushayotgan bo‘lsa kerak”, dedim o‘zimcha. Ammo qor parchalari kabina derazalariga yopishib, erib, pastga sirqib tushardi. Demak, qor yog‘ayapti. U siyrak yog‘ayotgan bo‘lsa ham nam qor edi. “Bunisiga balo bormidi!..” — dedim g‘ijinib. Oyna tozalaydigan cho‘tkalarni ishga soldim.

Dovonning dastlabki balandliklari boshlandi. Motor odatdagidek o‘zining mungli qo‘shig‘ini kuylay boshladi. Uning zo‘riqib bir ohangda guvillashi qorong‘ida o‘rmalab borayotgan qo‘ng‘iz bolasini eslatardi. Nihoyat marraga yetib keldim. Endi oldinda pastga qarab qiyalab ketgan olis yo‘l. Motor ovozi pasayib, mashina quyiga qarab tusha boshladi. Mana endi u yon-bu yonga qarab tebranib bormoqda. Men pritsepning orqada lapanglab, yo‘l-yo‘lakay mashinaga sharaqlab kelib urilayotganini sezib, halqalarning tutashgan yeridan g‘ijirlab chiqayotgan metall ovozlarini eshitib turardim. Bu g‘ijirlash ovozi g‘ashimni keltirib, belimni, bilaklarimni sirqiratib og‘ritayotgandek bo‘lardi. G‘ildiraklar tormozga itoat qilmay, nam qor to‘shamida sirg‘alib boradi, mashina sirg‘alib bir silkinib ketgan edi, ruli qo‘limdan chiqib ketdi-da, shaqir-shuqur qilib, yo‘l bo‘ylab, qiyalab pastga tomon g‘izillagancha tushib keta boshladi. Shunda men darhol rulni burib, mashinani to‘xtatdim. Bu yog‘iga yurish amrimahol edi, oyoq-qo‘limda jon qolmagandi. Mashina chirog‘ini ham, motorini ham o‘chirdim. Tayoqdek qotib qolgan qo‘llarim xuddi yasama qo‘ldek pastga shalop etib tushdi. Men o‘rindiq suyanchig‘iga o‘zimni tashlab, toshday qotib o‘tirar va xirillab nafas olayotganimni o‘zim ham eshitib turardim. Shu taxlitda bir necha minut o‘tirib, nafasimni rostlab oldim-da, papiros cheka boshladim. Chor atrofim qop-qorong‘i zimiston, dahshatli sukunat. Faqat kabina teshikchalaridan shamol

g‘uvillab kirib turardi. Oldinda nimalar kutayotganini tasavvur qilishdan yuragim vahimaga tushardi. Bu yerdan yuqoriga qarab qiyalik bo‘ylab baland-past, qing‘ir-qiyshiq yo‘llar davom etardi. Bu — motor va qo‘llarning azobi. Bu tog‘ yonbag‘irlari bo‘ylab ilonizi yo‘llar bilan yuqoriga tinimsiz o‘rmalab chiqish demakdir. Oldinga — yuqoriga — orqaga, yana ilgariga — oldinga — orqaga, yana va yana... Ammo o‘ylab o‘tirishga vaqt yo‘q, qor gupillab urib turibdi.

Motorni yurgizdim. Mashina qattiq o‘kirib, balandlik sari qo‘zg‘aldi. Tishimni-tishimga qo‘yib, tinimsiz ravishda ilonizi yo‘llarni asta-sekin bosib o‘taverdim. Nihoyat, tepalikka ham chiqib oldim. Endi tik qiyamalik, yo‘l tuzatuvchilar uchastkasiga burilib ketadigan muyulishga qadar bir tekis nishablik, undan keyin esa dovonga so‘nggi hujum boshlandi. Bir amallab pastga tushib oldim va to‘rt kilometrcha cho‘zilib yotgan to‘g‘ri yo‘ldan mashinani yeldek uchirib borib, yuqoriga ko‘tarila boshladim. Mana, u olg‘a intilib tobora yuqorilashib bormoqda... Ammo boyagi tezlab kelayotgani ko‘pga bormadi, tezlik borgan sari pasaya bordi. Motorni ikkinchi, so‘ngra birinchi tezlikka qo‘yib haydadim. Rulni mahkam ushlagancha, o‘zimni orqaga tashladim. Bulut parchalari orasidan yulduzlar mo‘ralashib qarashardi. Mashina joyidan qimir etmas va uyog‘iga tortolmasdi. G‘ildiraklar bir yerda g‘irillab aylanib, chetga surilardi, men akseleratorni jon-jahdim bilan bosdim.

— Qani, yana! Yana ozgina! Qimtib yubor! — deb qichqirib yubordim.

Cho‘zib-cho‘zib ingrayotgan motor titrab-qaltirab dirillay boshladi-da, birdaniga o‘chdi-qoldi. Mashina sekingina orqaga keta boshladi. Jon holatda tormoz berdim, to‘xtamadi. Pritsepning og‘irligi bilan borgan sari tezroq sirg‘alib, pastga tomon g‘ildirab tushaverdi, nihoyat, mashina qoyaga urilib, taqqa to‘xtadi. Hammayoq jimjit bo‘lib qoldi. Kabina eshigini ochib, tashqariga qaradim. Xuddi o‘ylaganimdek! Padariga la’nat! Pritsep yo‘l yoqasidagi ariqqa tushib ketgan edi. Endi uni hech qanday kuch bilan chiqarib bo‘lmasdi. O‘zimni yo‘qotib, dovdiraganimcha, yana motorni yurgizdim, zo‘r berib mashinani oldinga qarab hayday boshladim. G‘ildiraklar o‘z o‘rnidan qo‘zg‘almay g‘irillab aylanardi.

Mashina bor kuchi bilan ilgariga qarab intildi, butun tanasi dirillab ketdi-yu, ammo joyidan siljimadi. Men mashinadan sakrab tushdim-da, pritsepga tomon chopib bordim. Uning g'ildiraklari ariqqa chuqur botib ketgan edi. Nima qilish kerak? Boshim qotib qolgan edi, g'azab bilan pritsepga otildim, uning g'ildiragini qo'llarim va butun gavdam bilan itara boshladim. So'ngra kuzovning ostiga kirib boshim sirqirab og'rib ketgunicha yirtqich hayvon singari bo'kirib, pritsepni yelkam bilan yo'lga surib chiqarishga urinib ko'rdim, ammo qayoqda deysiz! Holdan toyib, yo'lga yuztuban yiqildim va qor aralash loyni quchoqlab alamimdan yig'lab yubordim. Keyin o'rnimdan turdim-da, gandiraklaganimcha mashina zinasiga kelib o'tirdim.

Yiroqdan motorning guvillagan ovozi eshitildi. Ikki chiroqcha balandlikdan pastdagi tekis yo'lga yog'du sochib tushayotgan edi. Bu shofyorning kimligini va yarim tunda taqdir uni qayoqqa va nima uchun haydayotganini bilmasdim, ammo bu chiroqlar go'yo meni quvlab yetib, ushlab oladigandek seskanib ketdim. Qaroqchi singari pritsep ilgagiga qarab yugurdim, uni mashina bilan ulab turgan metall o'qni sug'urib olib, chetga uloqtirdim va kabinaga irg'ib chiqib, pritsepni ariqda qoldirganimcha, mashinani yuqoriga qarab yeldek uchirib ketdim. Qandaydir tushunib bo'lmaydigan dahshatli qo'rquv ta'qib etardi meni. Orqamdan kelayotgan mashina nazarimda xuddi izma-iz quvib yetib kelayotgandek tuyulardi. Mashinani shunchalik tez haydardimki, azbaroyi yo'lni yod bilganimdan biron yerga urib ham olmadim. Agar ko'zlarimni bog'lab qo'yganlarida ham xuddi shunday qilgan bo'lardim.

Tongotarda dovondagi bazaga yetib keldim. Nima qilayotganimni o'zim ham anglamay, aqldan ozgan kishidek, eshikni musht bilan qoqa boshladim. Eshik lang ochildi. Asalga qaramay, boshdan oyoq loyga belanganimcha uyga kirdim. Entikkanimcha allaqanday bir nam narsaning ustiga o'tirdim. Bu kursi ustiga uyib qo'yilgan kir uyumi ekan. Papiros olish uchun qo'limni cho'ntagimga tiqqan edim, qo'limga mashina kalitlari ilindi. Men uni jahl ustida kuchim boricha chetga uloqtirdim va boshim "shilq" etib tushdi, urib po'la qilib tashlangandek, tinka-madorim qurib, shalpayganimcha o'tirardim. Ko'zlarim polda. Stol yonida Asal o'z og'irligini yalang oyoq-

larining dam unisiga, dam bunisiga solib turardi. Unga nima ham deya olardim? Asal polda yotgan kalitlarni olib, stol ustiga qo'ydi.

— Yuvinib olasizmi? Kechqurun suv isitib qo'yganman, — dedi u sekingina.

Men boshimni sekin ko'tardim. Sovqotgan Asal nozikkina qo'llarini ko'ksiga qo'yib, tungi ko'ylakda qarshimda turar edi. Uning qo'rquv bosgan ko'zlari tashvish va achinish bilan menga boqardi.

— Dovonda pritsepni ag'darib yubordim, — dedim begona tovush bilan.

— Qanaqa pritsep? — deb so'radi u tushunmasdan.

— Temirdan yasalgan, yashil rangli, "02–38" nomerli! Qanaqa bo'lsa ham baribir emasmi! — deb qichqirdim jahl bilan. — O'g'irlab olgandim uni, tushunasanmi? O'g'irlab olgandim.

Asal sekingina "Voy!" deb yubordi-da, karavotga o'tirib qoldi.

— Nega?

— Nega bo'lardi? — uning hadeganda gapga tushunavermagani mening jig'imga tegardi. — Dovondan pritsep bilan o'tmoqchi edim! Tushundingmi? O'z fikrimni amalda isbotlamoqchi edim... Mana endi uyim kuydi!

Men yuzimni kaftlarim orasiga olgancha o'tirardim. Ikkalamizdan ham birmuncha vaqt sado chiqmadi. Asal shartta irg'ib turdi-da, kiyina boshladi.

— Nega o'tiribsiz endi? — dedi u jiddiy qiyofada.

— Nima qilishim kerak? — deb g'o'ldiradim men.

— Avtobazaga qaytib boring!

— Qanday boraman! Pritsepsiz-a?

— U yerda hammasini tushuntirib berasiz!

— Esingni yedingmi! — Tars yorilib ketishimga sal qoldi. Xona bo'ylab u yoqdan bu yoqqa tez-tez yura boshladim. — Qaysi yuz bilan pritsepni u yerga sudrab boraman? Kechirasizlar meni, xato qilib qo'ydim, deymanmi?! Oyoqlariga bosh urib yalinib-yolvorgani boramanmi? Yo'q, bormayman! Bilganlarini qilishsin! Hammasiga tupurdim!

Mening baqiriq-chaqirig'imdan karavotda yotgan o'g'ilcham uyg'onib ketib, yig'lab yubordi. Asal uni qo'liga olgan edi, bola battarroq qichqira boshladi.

— Qo'rqoqsiz, — dedi Asal sekingina, lekin qat'iy qilib.

— Nima-a! — deya g'azabdan o'zimni tutolmay musht o'qtalgancha unga tashlandim, qo'l ko'tarishga ko'tardim-u, ammo urishga jur'at etolmadim. Uning hayratlanib boqib turgan shahlo ko'zlari meni tang qoldirdi. Men uning chaqnab turgan ko'z qorachiqlarida o'zimning dahshatli va burishib-tirishib ketgan turqimni ko'rib turardim.

Uni qo'pollik bilan bir chetga siltab yuborib, eshik tomon shiddat bilan borib, uni taraqlatib yopganimcha tashqariga chiqib ketdim.

Tashqari allaqachon yorishib qolgan edi. Kunning yorishib ketgani menga qattiq ta'sir qildi; kecha bo'lib o'tgan hamma qilmish-qidirmishlarim menga yanada mudhish, yanada xunuk bo'lib ko'rinar, o'zimni bir umr tuzatib bo'lmaydigan xato qilib qo'ygandek his qilardim. Hozircha birgina najot yo'li bor bo'lib, bu ham bo'lsa loaqal mashinadagi yukni joyiga eltib qo'ymoq zarur edi. U yog'iga nima qilishni bilmayman...

Orqaga qaytishda uyga kirib o'tmadim. Asal bilan janjallashib qolganimdan emas. Usiz ham mulzam edim. Hech kimga ko'rinmaslikka va hech kimni ko'rmaslikka urinardim. Boshqalarni bilmayman-u bunday hollarda yolg'iz bo'lishni va boshimga tushgan tashvishni boshqalarga sezdirmaslikni istardim. Kimga keragi bor buning? Agar qo'lingdan kelsa, hamma kulfatlaring ado bo'lguncha sabr-toqat qil, chida...

Kechasi yo'lovchilar tunaydigan uyda tunab qoldim. Tuni bilan uxlayolmay alahsirab chiqdim. Tushimda dovonda pritsepni qidirib yurgan emishman. Uning izlari bormish-u, o'zi yo'q emish. Har tomonga zir yugurib, pritsep qayoqqa g'oyib bo'ldi, kim olib ketdi, deb so'rab-surishtirib yurganmishman. Men qaytayotganimda u haqiqatan ham o'sha bexosiyat yerda — turgan joyida yo'q edi. Faqat izlari bor edi, xolos. Qaytarib olib ketishibdi. Keyin bilsam, pritsepni avtobazaga Alibek sudrab kelgan ekan.

Pritsep orqasidan o'zim ham ertalab avtobazaga yetib keldim. Shu kunlar ichida qorayib ketibman, kabina yoniga qadab qo'yilgan kuzatuv oynachasiga qarab o'zimni o'zim tanimay qoldim.

Avtobazada hayot odatdagicha edi. Faqat mengina, go'yo begona kishilardek, mashinani darvoza tomon iymanibgina haydab

kelib, sekingina hovliga kirib bordim va mashinani garajdan nariroqda, bir chekkada to'xtatdim-da, kabinadan chiqmay o'tiraverdim. Atrofga ko'z yugurtirib chiqdim. Odamlar ishlarini yig'ishtirib qo'yishib, har tomondan menga qarab tikilib turishardi. Eh, qani endi lip etib qayrilsang-u, boshing oqqan tomonga qochib qolsang. Biroq hech yoqqa qochishning iloji yo'q edi. Kabinadan chiqishga to'g'ri keldi. Bor jasoratimni to'plab, hovlidan yurib, dispetcherxona tomon yo'l oldim. O'zimni xotirjam tutishga, shaxdam qadam tashlashga urinardim, ammo aslida esa saf tortib turgan kishilar oldidan o'tayotgan gunohkor soldatdek yurib borardim. Hammaning meni xo'mrayib kuzatib turganini sezib turardim. Hech kim meni chaqirmadi ham, men bilan salomlashmadi ham. Ularning o'rnida bo'lganimda, ehtimol men ham shunday qilgan bo'lardim.

Ostonaga qoqilib ketdim. Go'yo yuragim ham qoqilib ketgandek bo'ldi: eh, Xadicha haqida o'ylamabman, uni sharmanda qildim! Endi nima deyman unga?

Koridorda nafasimni rostlab, peshonamdagi terni artdim. Boshimni ko'tarib, u yoq-bu yoqqa qarasam, ro'paramda devoriy gazetamiz "Chaqmoq" sahifasidagi plakat menga tikilib turardi. "Uyat senga!" deb yirik harflar bilan yozib qo'yilgan so'zlar ostida tog' orasida qoldirib ketilgan pritsep tasvirlangan edi...

Men teskari o'girildim. Yuzlarim shapaloq yegandek lovullab yonardi. Dispetcherxonaga kirdim. Xadicha telefonda nimanidir gaplashayotgan edi. Meni ko'rib gapidan to'xtab, trubkani joyiga osib qo'ydi.

— Ma! — deb badbaxt yo'llanmani stolga otdim.

Xadicha achingan qiyofada menga qaradi. Faqat shallaqilik qilib yig'lab yubormasa bo'lgani deb o'yladim. "Hozir emas, keyin, bo'lak biror yerda!" — deb yolvordim ichimda. U ham meni tushundi, hech narsa demadi.

— Shovqin ko'tarishdimi? — deb so'radim sekin.

Xadicha bosh irg'ib qo'ydi.

— Hechqisi yo'q! — dedim g'ijinib, uning ruhini ko'tarish uchun.

— Seni katta yo'ldan olishdi, — dedi u.

— Olishdi? Butunlaymi? — dedim kulimsiragan bo'lib.

— Butunlay olishmoqchi edilar — remontga... Ammo yigitlarimiz sening yoningni olishdi. Hozircha ichki reyslarga o'tkazishdi. Boshliqqa uchra, seni chaqirtirishgan edi.

— Bormayman! Mensiz o'zlari hal qilishaversin. Pushaymon qilmayman...

Men xonadan chiqdim. Boshimni quyi solganimcha, koridordan arang chiqib ketdim. Kimdir menga peshvoz kelardi. Men unga yo'l berib, o'zimni chetga oldim. Bu Alibek edi. U moyga belangan qo'llarini ham artmay garajdan kelayotgan ekan. Men uning yonboshidan o'tib ketmoqchi edim, ammo Alibek yo'limni to'sdi.

— Yo'q, shoshma! — deb meni burchakka qisdi. Ko'zlarimga tikilib, g'azab bilan shivirladi: — Xo'sh, ishlar qalay, azamat? Isbotladingmi? Itfe'lligingni ko'rsatding!

— Ishimiz jo'nashib ketsin devdim-da, — deb po'ng'illadim men.

— Yolg'on!

— Nima yolg'on?

— Yolg'iz o'zing shuhrat qozonmoqchi bo'lding! O'zing uchun tirishding! Biroq muhim ishni barbod qilding. Mana endi, shulardan keyin ham pritsep bilan yurish mumkinligini isbotlab ko'r-chi! Ahmoq! Shuhratparast!

Ehtimol, bu so'zlar mening o'rnimda boshqa odam bo'lganida aqlini yig'ib olishga majbur etarmidi, ammo menga endi baribir edi: o'z fikrimni hali ham isbotlab, maqsadga erishishim mumkinmi, yo'qmi, bunga befarq qarardim. Agar men shu paytgacha o'zimcha ich-etimni yeb yurgan bo'lsam, endi shu daqiqadan boshlab kishilarning achchiq tazyiqlarini va menga nafrat bilan qarashlarini butun vujudim bilan his qila boshladim. Men go'yo ularning ko'ziga o'zimning shon-shuhratimni orttirishga urinuvchi shuhratparast bir kimsa bo'lib ko'rinayotgan edim. Haqiqatda esa bu mutlaqo shunday emasdi. Ammo fakt faktligicha qoladi.

— Chetroq tur! — deb nariga itardim Alibekni. — Sensiz ham yuragim siqilib turibdi!

Eshikka chiqdim. Sovuq, izg'irin shamol hovli sahnidagi qorni uchirib o'ynardi. Odamlar men tomonga ko'z qirini tashlashib, yonimdan jimgina o'tib ketishardi. Nima qilish kerak? Mahkam tugilgan mushtlarimni cho'ntagimga tiqib, darvoza tomon yurdim.

Muzlab qolgan ko'lmakchalar oyoq ostida oyna singari chirsillab sinardi. Oyog'imga tavot moyidan bo'shagan bankacha to'g'ri kelib qoldi. Jonim boricha uni darvozadan ko'cha tomon tepib yubordim-da, o'zim ham ortidan boraverdim. Kun bo'yi shaharcha ko'chalari bo'ylab daydib yurdim, kimsasiz huvullab yotgan pristanda tentiradim. Issiqko'lda po'rtana quturib, qirg'oqqa bog'lab qo'yilgan barjalar suv betida chayqalib-qalqib yotardi.

Bir mahal qarasam, suv transporti boshqarmasining choyxonasiga kelib qolibman. Yolg'iz o'zim deraza yoniga borib o'tirdim. Oldimda — stol ustida og'zi ochilgan bir shisha aroq bilan tarelkada qandaydir gazak turardi. Birinchi stakanni ichishim bilanoq kayfim taraq bo'lib, oyog'im ostiga anqov kishilardek termilib o'tirardim. Mening ko'nglim ham zangori tutunga cho'mib, mast-alastlarning pala-partish gaplariga to'lgan shu choyxona singari xira va g'ash edi.

— Nega g'amgin ko'rinasan, yigit? — bexosdan boshim uzra kimningdir yoqimli va xiyol istehzoli ovozi eshitildi. Boshimni arang ko'tardim. Yonimda Xadicha turardi.

— Ha, bir o'zing icha olmayapsanmi? — deb iljayib yonimga o'tirdi u. — Qani, birga ichaylik bo'lmasa!

Xadicha stakanlarga aroq quyib, bittasini menga surib qo'ydi.

— Ol! — dedi u, go'yo biz bu yerga anchayin o'tirish va ichish uchun kelgandek, g'urur bilan hayosizlarcha ko'z qisib.

— Sen nimaga suyunyapsan o'zi? — deb so'radim norozi ohangda.

— Nima, yig'laymi bo'lmasa? Sen turganda menga boshqa narsaning keragi yo'q, Ilyos! Men seni sabrli, chidamli deb o'ylagan edim. Kel, nima bo'lsa bo'lar! — deb sekingina kulib qo'ydi u va yonimga yaqinroq surildi, qop-qora nozli ko'zlarini suzib, qo'lidagi stakanni cho'qishtirdi.

Biz ichdik. Men papiros tutatdim. Ko'nglim biroz yorishgandek bo'ldi: kuni bo'yi birinchi marta jilmayishim edi.

— Qoyilman senga, Xadicha! — dedim va uning qo'lini qisdim.

Darvoqe, Xadicha o'sha kecha juda ochilib ketgan edi.

Keyin ko'chaga chiqdik. Qosh qorayib qolgan edi. Ko'l tarafdan esayotgan sho'x shamol daraxtlarni va chiroqlarni tebratib o'ynar-

di. Oyoq ostimizdagi yer ham unga taassuf qilgandek chayqalardi. Xadicha qo'ltig'imdan tutib, meni yetaklab borardi, u mehribonlik bilan yoqamni ko'tarib qo'ydi.

— Men sening oldingda aybliman, Xadicha! — dedim o'z gunohim va minnatdorchiligimni yashira olmay. — Ammo shuni bilib qo'y, men seni hech kimga xafa qildirib qo'ymayman... Hammasiga o'zim javob beraman...

— Bularni unutib yuborasan, jonginam! — dedi u. — O'zing ham tinib-tinchimagansan-da... Doim qayoqqadir yelib yugurganing-yugurgan. Men bo'lsam senga achinaman. O'zim ham ilgari shunaqa edim. Hayotdan ilgarilab keta olmaysan, undan nasib qilganini ol... Taqdir bilan o'ynashib nima qilasan...

— Bu har kimning tushunchasiga bog'liq! — deya e'tiroz bildirdim, so'ngra o'ylab ko'rib: — Ehtimol, sen haqdirsan... — deb qo'ydim.

Biz Xadicha yashaydigan uyning shamolga teskari tomonida to'xtadik.

— Mana, uyga ham yetib keldim! — dedi u.

Men ketmoqchi bo'lardim-u, biroq u yerdan sira jilolmasdim. Endi ikkimiz o'rtamizda bir-birimizni bog'lab turuvchi qandaydir bir narsa bor edi. Xadichaning samimiyligi, menga nisbatan hamdardligi va uning oldida o'zimni qarzdor kishidek sezayotganligim darhol ketishimga yo'l bermayotgan edi. Buning ustiga, hozir yolg'iz qolib, yotoqxonaga borishdan ham cho'chiyotgan edim. Haqiqatan u hozir juda ochilib ketgan bo'lsa ham ba'zida shunday zahar bo'lib qoladiki, undan o'zingni beixtiyor chetga tortishga harakat qilasan.

— Nega o'ylanib qolding, jonginam? — deb so'radi Xadicha. — Charchadingmi, yo'ling olislik qilyaptimi?

— Hechqisi yo'q, bir amallab yetib olaman. Xayr.

U qo'limni ushlab ko'rib:

— Vuy-y, muzlab qolibsan-u! To'xta, isitib qo'yay! — dedi-da, qo'limni paltosi ostiga yashirib, qattiq ko'ksiga bosdi. Men qo'limni tortib olishga, qizning bu qaynoq mehr-muhabbatiga qarshilik ko'rsatishga jur'at eta olmadim. Qo'lim ostida uning yuragi go'yo ko'pdan orziqib kutib yurgan o'z ulushini talab qilayotgan-

dek dukillab urardi. Ha, darvoqe, men mast edim, ammo hech narsani tushunmaydigan, sezmaydigan darajada uchib qolgan emasdim, albatta. Men sekingina qo'limni tortib oldim.

— Ketdingmi? — deb so'radi Xadicha.

— Ha.

— Xo'p, xayr! — deb Xadicha xo'rsindi-da, qayrilib, eshik tomon tez yurib ketdi. Qorong'ida eshikning "taq" etib yopilgani eshitildi. Men ham yo'lga tushdim-u, biroq bir necha qadam yurganimdan so'ng to'xtadim. Bir mahal qarasam, yana o'sha eshikchaning oldiga kelib qolibman, buning qanday bo'lganini o'zim ham bilmayman. Eshikni itardim. Xadicha meni shu yerda kutib turgan ekan. U bo'ynimga tashlandi, lablarimdan o'pib, mahkam quchoqlab oldi.

— Oxiri qaytding-a! — deb pichirladi u, so'ngra qo'limdan ushlab, uyiga yetakladi.

Yarim tunda uyg'ondim, ancha vaqtgacha qayerda ekanligimni bilolmay yotdim. Boshim qattiq og'rirdi. Biz bir karavotda yonma-yon yotardik. Badani iliqqina, yarim yalang'och Xadicha pinjimga kirib olgandi. U yelkam uzra bir maromda tinchgina nafas olardi. Men o'rnimdan turib, darhol bu yerdan ketmoqchi bo'ldim. Sal qimirlab qo'ydim. Xadicha ko'zlari yumuqligicha meni quchoqlab oldi. U silliq, yum-yumaloq tizzasini kaftimga qo'ydi.

— Ketma! — deb shivirladi qulog'imga. So'ngra boshini ko'tarib, qorong'ida ko'zlarimga tikildi-da, entikib-entikib pichirlay boshladi: — Endi sensiz yashay olmayman! Sen menikisan! Har vaqt ham meniki eding! Boshqa hech narsani bilmayman, bilishni ham istamayman! Meni sevsang bo'lgani, Ilyos! Sendan boshqa narsa talab qilmayman... Ammo sendan voz kecha olmayman, tushunyapsanmi, o'z orzularimdan voz kecha olmayman! — deb yig'lab yubordi. Uning ko'z yoshlari yuzimga yumalab tusha boshladi.

Men qoldim. Tongga yaqin uyquga ketdik. Qarasak, rosa uxlabmiz. Tashqarida kun yorishib ketgan edi. Tez kiyindim, yoqimsiz, tashvishli bir his yuragimni siqib noxush qilardi. Yo'l-yo'lakay kalta po'stinimni kiyib, shoshilib hovliga chiqdim, po'stinimning tugmalarini qadarkanman, o'zimni "lip" etib ko'cha eshikka urdim. Tevarak-atrofga nazar tashladim, devorning muyulishidan malla-

rang tulki tumoq kiygan odam to'ppa-to'g'ri men tomonga kelaverdi. Eh, uni ko'rgani ko'zim, otgani o'qim yo'q-da! Jontoy ishga ketayotgan edi, u bu yerga yaqin joyda yashardi. Ikkovimiz ham bir lahza serrayib qoldik. Men o'zimni ko'rmaganlikka soldim. Shartta burildim-da, avtobazaga qarab ketaverdim. Jontoy orqamdan ma'nodor yo'talib qo'ydi. U orqamdan qorni g'arch-g'urch bosib kelmoqda edi. Uning bu shiddatli g'arch-g'urch odimlashida qanchalik zaharxandalik, birovning baxtsizligidan sevinish borligi ravshan anglashilib turardi. Biz to avtobazaga qadar shu taxlitda oldinma-keyin yurib keldik. Men avtobazaga kiraverishdagi yo'lakka kelganda qadamimni tezlashtirdim va garajga burilmay, to'g'ri idoraga qarab ketdim. Koridorning biror yerida to'xtab, sal nafasimni rostlab olishim kerak edi.

Bosh injenerning kabinetidan odamlarning gangir-gungur ovozlari xiyol eshitilib turardi. Bu yerda odatdagidek ertalabki qisqa yig'in o'tmoqda edi. Agar pritsep voqeasi odamlar xayolidan ko'tarilib ketgan bo'lsa edi, hozir bu yerga jon deb kirgan bo'lardim. Qani endi men ham kirib deraza tokchasigami, boshqa yergami chiqib olib, oyoqlarimni chalishtirgancha papirosimni chekib, huzur qilib o'tirsam, yonimda o'tirgan hamkasabalarim bilan u yoq-bu yoqdan gaplashsam, ertalabki naryadni eshitsam, shofyorlarning ish sohasidagi biror arzimagan narsa yuzasidan beg'araz so'kishlarini va tortishuvlarini tinglab o'tirsam... Shu paytgacha bular inson uchun shunchalik zarur, shunchalik aziz ekanini hech tasavvur etmagan ekanman. Garchi shunday bo'lsa-da, shofyorlarning ko'zlariga ko'rinishga jur'at eta olmasdim. Qo'rqqanligimdan emas, yo'q, qo'rqoqlik qilganim yo'q. Meni ko'proq o'sha muvaffaqiyatsizlikdan g'azablanish, umidsizlikka tushish va ular oldida behayolarcha ko'rsatgan botirligim, ojiz qaysarligim tashvishlantirayotgan, yana bularning ustiga-ustak, Xadicha bilan tasodifan tunab qolganim meni iztirobga solayotgan edi. Odamlar ham mening qilmishimni hali-beri unutmaydiganga o'xshaydi. Ichkarida xuddi mening haqimda so'z borardi. Avval ichkaridan eshitilib turgan gaplarga e'tibor bermadim.

Ammo birdan kimningdir g'azab bilan baqirib gapirayotgan tovushi eshitila boshladi:

— Bu qanday bemazagarchilik! Uni sudga berish kerak, sizlar bo'lsangiz uni xaspo'shlab o'tiribsizlar! Tag'in ba'zilar uyalmay-netmay, to'g'ri o'ylabdi, deb uni himoya qilishyapti! Axir pritsepni dovonga tashlab kelibdi-ku!..

Uni boshqa ovoz bo'ldi:

— To'g'ri! Bunaqalarning ko'pini ko'rganmiz. Aql o'rgatishga juda usta. Shuhrat orttirmoqchi bo'libdi, ko'ngli mukofot istab qolibdi. Qarang, avtobazaga yaxshilik qilmoqchi emish! Biroq hammasi chappasidan ketdi!

Odamlar tortisha boshladi. G'ovur-g'uvur zo'rayib, hech narsani anglab bo'lmay qoldi. Men nari ketdim, tirqishdan gap poylashni o'zimga ep ko'rmadim. Yo'llanma olish uchun dispetcherxonaga qarab yo'naldim.

— Men qayoqqa boraman? — deb so'radim o'sha kuni navbatchilik qilayotgan qizdan.

Hozircha meni avvalgi joyimda qoldirishibdi. Aftidan, hali mening masalam uzil-kesil hal etilmagan ko'rinadi.

Koridor bo'ylab orqaga qaytdim. Shofyorlarning xonadan gur etib tashqariga chiqayotganlarini eshitib, qadamimni tezlatdim. Ular hamon vag'ir-vug'ur gaplashishardi. Alibek yo'l-yo'lakay kimgadir qizishib uqtirardi.

— Pritsepga tormozlarni o'zimizda o'rnatamiz. Kompressorda shlangni sug'urib tashlab, o'rniga kolodkani joylashtirish uncha qiyin ish emas-ku! Anovi Ilyosmi? Ilyos, to'xta! — deb chaqirdi u meni.

Men to'xtamay, garajga qarab ketaverdim. Alibek menga yetib oldi-da, yelkamdan ushlab tortdi.

— Uh, seni qara-ya! Tushunyapsanmi, axir ishontirdim-da! Tayyorgarlik qilaver, Ilyos! Sherik bo'lib borasanmi? Sinab ko'ramiz! Pritsep bilan!

Mening dilim ranjidi: meni yomonotlilikdan qutqarmoqchi bo'libdi, omadsiz o'rtog'ini shatakka olar emish! Sherik emish! Men uning qo'lini yelkamdan siltab tashladim:

— Pritsepingdan o'rgildim!

— Namuncha zarda qilasan. O'zingdan ko'r! Men senga shunchaki gapirayotganim yo'q — biz uncha-muncha narsalarni

o‘ylab qo‘ydik, odamlar bilganlarini aytishdi, qolaversa, dovonda tashlab kelgan pritsepingni o‘zim tortib kelganman... Biron ish chiqib qolsa kerak...

— Qilsang, o‘zing qilaver, meni o‘z holimga qo‘y, bor.

— Qo‘ysang-chi, shuncha jinnilik qilganing yetar. Ishni yarim yo‘lda tashlab ketish yaxshi emas! Ha, rostdanam, unutayozibman. Volodka Shiryayev senga hech narsa demadimi?

— Yo‘q, uni ko‘rganim yo‘q. Nima edi?

— Iya, bu qanaqasi bo‘ldi! Qayoqlarda yuribsan o‘zing? Asal yo‘lga chiqib, kim ko‘ringandan seni so‘raydi, xavotir olib o‘tiribdi! Sen bo‘lsang!..

Turgan yerimda oyoqlarim chalishib ketdi, yurak urishim xuddi to‘xtab qolayozgandek o‘zimni shu qadar og‘ir sezdimki, hatto o‘limimga ham ming marta rozi bo‘ldim. Alibek bo‘lsa yengimdan tortib, hamon pritseplar uchun yasaladigan qandaydir moslamalar va yana allanimalar haqida tushuntirardi. Jontoy bir chekkada quloq solib turardi.

— O‘z holimga qo‘ysang-chi! — deb qo‘limni tortib oldim. — Mendan nima kerak senlarga? Sudga bo‘lsa sudga beringlar! Shu yog‘i ham yetar! Hech qanday pritsepning keragi yo‘q menga! Hech kimga sherik ham bo‘lmayman! Tushundingmi?

Alibekning qovog‘i osildi, peshonasi tirishdi:

— O‘zing boshlab, o‘zing o‘t qalab, endi birinchi bo‘lib dumingni xoda qilib qochmoqchimisan? Shunaqami?

— Qanday tushunsang, shunday tushunaver! — dedim-da, shartta burilib, garaj tomon ketdim.

Mashina oldiga keldim, qo‘llarim qaltirardi, nima qilishni bilmasdim. Nima uchundir mashina ostidagi chuqurga sakrab tushdim-da, sal o‘zimni bosib olish uchun terib qo‘yilgan g‘ishtlarga yonboshladim.

— Menga qara, Ilyos! — tepamdan shivirlagan ovoz eshitildi.

Boshimni ko‘tarib qaradim: bunisi yana kim bo‘ldi! Tumoq kiyib olgan Jontoy menga ayyorona tikilgancha chuqur tepasida xuddi qo‘ziqorindek cho‘nqayib o‘tirardi.

— Uni juda boplading-da, Ilyos! — dedi u.

— Kimni?

— Alibekni-da, aktivistni! Naq nishonga urding! Darrov nafasi o'chdi-qoldi, bo'lmasa bu novator quloqni batangga keltirardi.

— Xo'sh, sening qanchalik ishing bor?

— Nima ishim borligini o'zing ham tushunib turgan bo'lsang kerak. Biz shofyorlarga pritsepning keragi yo'q. Uning oqibati qanday bo'lishini bilamiz: birortasi ishlab chiqarish normasini oshiradi, yo'lni qisqartadi, keyin hammalaring o'sha ilg'or darajasiga ko'tarilinglar deyiladi-yu, biroq yuk tashish uchun to'lanadigan haqni kesib qoladilar. Xo'sh, kim o'z cho'ntagiga zarar keltirishni istaydi? Bir kunlik shuhrat, obro' kimga kerak? Biz sendan xafa bo'layotganimiz yo'q. Ha, ko'ngling to'q bo'lsin...

— Biz deganing kimlar? — deb so'radim undan bamaylixotir bo'lishga intilib. Ammo birdan bosib kelgan g'azabdan yuragim siqilib ketdi: — Mashinani shatakka olib ketayotganimda nega nafasingni chiqarmay o'tib ketganingni endi angladim! Olisni ko'zlabsan-u, ammo tumshug'ing ostidan narini ko'rolmabsan, seningcha, boshqalar hech narsani tushunmaydi. O'zingcha meni ahmoq deb o'ylayapsan shekilli! Biz deganing senmi? — deb so'radim yana.

— Faqat mengina emas, — dedi Jontoy ko'zlarini pirpiratib.

— Yolg'on, mag'zay, bit! Seni deb qasddan pritsep bilan yurganim bo'lsin! Tanimda jonim bor ekan, aytganimni qilaman. Sen bilan ana o'shanda gaplashaman. Qani, tuyog'ingni shiqillatib qol-chi!

— Hay-hay, haddingdan oshma! — deb o'dag'ayladi Jontoy. — Sening ham qanaqaligingni yaxshi bilamiz... Biroq o'ylab ko'r... Anoviga kelsak, davring kelganda yurib qol...

— He seni!.. — deb jahl ustida qichqirib yubordim-da, joni qahrim bilan jag'iga tushirdim.

U xandaq chekkasiga qanday o'tirgan bo'lsa, shundayicha orqasiga ag'anab tushdi. Tumog'i ham uchib ketdi. Men xandaqdan mushukdek sakrab chiqdim-u, unga tashlandim. Ammo Jontoy o'rnidan turib olgandi, u o'zini chekkaga olib qochib, butun hovlini boshiga ko'tarib dodlay boshladi:

— Bezori! Kazzob! Musht bilan qo'rqita olmaysan meni! Sening ham adabingni berib qo'yadigan kuch topilar! Haddingdan oshma, zararkunanda!..

Har tomondan odamlar yugurib kela boshladilar. Alibek ham chopib keldi.

— Nima gap? Nega urding uni?

— Haqiqat uchun! — deya battarroq baqira boshladi Jontoy. — Haq gapni yuziga aytganim uchun! Pritsepni o'g'irlagan ham o'zi, dovonda ag'darib tashlab ketib, ishni barbod qilgan ham o'zi, yana boshqalar vijdonan uning xatosini tuzatmoqchi bo'lishsa, u tumshuqqa soladi! Endi bu ishdan manfaatdor emas, chunki obro' va shon-shuhratni qo'ldan boy berib qo'ydi!..

Alibek men tomon yurdi. Rangida qoni yo'q, oppoq oqarib ketgan, g'azabdan tutilib-tutilib gapirardi.

— Ablah! — deb ko'kragimdan itarib yubordi u. — Alam qilganidan dovon uchun qasd olyapsanmi? O'ylama, sensiz, qahramonlarsiz ham ishlay olamiz!..

Men indamay turaverdim. Biron narsani tushuntirib beradigan holim yo'q edi hozir. Jontoyning haddan tashqari surbetlarcha aytgan yolg'on-yashiq so'zlaridan shunchalik iztirobga tushgan edimki, hatto biron og'iz so'z aytolmay qoldim. O'rtoqlarim menga o'qrayib turishardi. Jontoy bo'lsa labidagi qonni tumog'i bilan artib, hamon o'kirardi. Men mashinaga sakrab chiqdim-da, avtobazadan tashqariga haydab ketdim.

Yo'lda ichib oldim. Ta'bim juda xira edi. O'zimga nisbatan bo'lgan qahr-u g'azabni bartaraf eta olmas va so'nggi kunlarda bo'lib o'tgan hamma qilmishlarimni unuta olmas edim. Asalni eslasam, vijdon azobida yana qiynalardim.

Dastlabki yo'l bo'yidagi magazinchalardan biriga kirib chiqdim, foydasi bo'lmadi, so'ngra yo'l-yo'lakay yana bir to'xtab, to'la stakanni paqqos urdim. Shundan keyingina sal yengillashdim. Ko'priklar, yo'l bo'yidagi belgilar va qarshidan kelayotgan mashinalargina ko'z o'ngimdan lip-lip o'tib borardi. Ko'nglim ancha yorishgandek bo'ldi. "Eh! — deya o'ylardim o'zimcha. — Bo'lganicha bo'lar. Senga nima yetishmaydi, mashinangni haydab yuribsan, bo'ldi-da, Xadichaning bu ishlarga nima daxli bor, senga u nima yomonlik qildi, boshqalardan uning qayeri kam? Yoshgina, chiroyli, dilbar ayol bo'lsa. Seni jon-dilidan yaxshi ko'radi. Sen uchun har narsaga tayyor, sen bo'lsang u haqida bo'lmag'ur turli

xayollarga borib yuribsan. Axir u bilan o'tkazgan tuning yomon bo'ldimi. Yaxshilikni bilmagan ahmoq!"

Kechqurun uyga qaytib keldim. Kalta po'stinimni bir kiftimga kiyib olganimcha, eshik oldida gandiraklab turibman: men ba'zan rulni boshqarish oson bo'lsin uchun o'ng yengimni yechib olardim. Bu bolaligimdan odat bo'lib qolgan, bolalar bilan tosh otib, kimo'zar o'ynaganimizda ham shunday qilardim...

Asal ko'zi tushishi bilan menga otildi. Ammo qay ahvoldaligimni ko'rib qo'rqib, hayron bo'lib turib qoldi.

— Sizga nima bo'ldi, Ilyos? — So'ngra gap nimada ekanligini angladi shekilli: — Voy, nega turibsiz? Charchadingizmi, sovqotdingizmi? Qani, yechining! — dedi.

Asal yordamlashmoqchi bo'lib qo'lini cho'zdi, biroq churq etmasdan uning qo'lini o'zimdan nariga surib qo'ydim. Nomus qilayotganimni qo'pollik bilan bekitishga to'g'ri keldi. Qoqinib-surilib borarkanman, nimanidir taraqlatib tepib yubordim-da, o'zimni gurs etib stulga tashladim.

— Biror narsa bo'ldimi, Ilyos? — dedi Asal menga yaqinlashib kelarkan, mast-alast ko'zlarimga tashvish bilan tikilib.

— Nima, sen hali bilmaysanmi? — deb boshimni quyi soldim; yaxshisi, uning yuziga qaramayin. Men, Asal hozir o'pkalab, taqdirdan noliy boshlaydi, deb kutib turardim. O'zimni oqlamay, har qancha koyisa ham tinglashga tayyor edim. Ammo u go'yo uyda yo'qdek churq etmasdi. Men sekingina ko'z qirimni tashladim. Asal orqasini o'girgancha deraza yonida turardi. Garchand uning yuzini ko'rmayotgan bo'lsam ham iztirob chekayotganini va ko'zlarida yosh miltillab turganini sezdim. Unga juda rahmim kelib ketdi, yuragim ezila boshladi.

— Bilasanmi, Asal, men senga bir narsani aytmoqchi edim, — deb gap boshladim jur'atsizlik bilan. — Shuni aytmoqchimanki! — nafasim bo'g'zimga tiqilib ortiq so'zlay olmadim. Qilgan gunohimga iqror bo'lishga yuragim dov bermadi. Yo'q, u mendan buni hech qachon kutmagan, ayta olmayman. Unga rahmim kelgandi, ammo bekor qilgan ekanman. O'sha daqiqada o'zimni-o'zim yenga olmadim. — Biz, ehtimol, bu yaqin-orada sizlarnikiga, ovulga bora olmasak kerak, — deb gapni boshqa yoqqa bur-

dim. — Keyinchalik vaqt-soati bilan borarmiz... Hozir bundan ko'ra zarurroq ishlar bor...

— Xo'p, mayli! Keyinroq borarmiz, shoshadigan joyi yo'q! — dedi Asal va ko'z yoshlarini artib, oldimga keldi. — Hozir bu haqda o'ylamay qo'ya qoling, Ilyos. Hammasi yaxshi bo'lib ketadi. Yaxshisi, o'zingizni o'ylang. Juda o'zgarib qoldingiz. Sizni hech tushuna olmay qoldim, Ilyos.

— Xo'p, bo'pti! — deb uning gapini bo'ldim, yuraksizlik qilib qo'yganimdan jahlim chiqib. — Charchaganman, uyqum kelyapti.

Men yolg'on-yashiq so'zlarni yanada ko'proq gapirib qo'ymaslik, oradagi sof sevgi ko'zgusiga dog' tushirib qoymaslik uchun tezroq yotib uxlashim kerak edi. Asal ham uni-buni so'rab boshimni qotirib o'tirmasdi. Men voqeani bir boshdan oqizmay-tomizmay aytib bermoqchi bo'lib, bir necha bor hozirlandim-u, biroq oradan vaqt o'tgan sari iqror bo'lishdan uzoqlasha bordim. Bilsam, hammasining o'z mavridi — vaqt-soati bor ekan. Kayfim tarqalgach, bo'lib o'tgan voqealarni unga endi hech qachon ochiqchasiga gapirib bera olmasligimni tushundim. Nega bundayligini o'zim ham bilmasdim. Oradan bir kun o'tgach, qaytishda dovonning narigi tomonida Alibekni uchratib qoldim. U pritsep bilan kelayotgan ekan. Do'lan ishg'ol etilgan edi.

Alibek meni ko'ra solib, yurib kelayotgan yerida kabinaning o'ng eshigidan sakrab tushdi-da, qo'l silkiy boshladi. Men tezlikni kamaytirdim. U yo'lda behad xursand va g'olibona turardi.

— Salom, Ilyos! Bu yoqqa chiq, chekishamiz! — deb qichqirdi u.

Men unga yaqinlashib tormoz berdim. Alibekning kabinasida yoshgina yigitcha — ikkinchi shofyor o'tirardi. Mashinaning g'ildiraklariga zanjirlar o'rab bog'langan. Pritseplarda pnevmatik tormoz. Buni men darhol payqagan edim. Biroq to'xtamadim. Menga juda alam qilgan edi. Uddasidan chiqibsan — qoyil! Lekin meni tinch qo'y.

— To'xta, to'xta! — deb Alibek orqamdan yugura boshladi. — Ishim bor, to'xta, Ilyos! Eh, shayton, senga nima bo'ldi?.. Xo'p, mayli! O'zing bilasan...

Men mashinani tezlatdim. Qichqirma. Bizning bir-birimizda hech qanday ishimiz yo'q. Mening ishim allaqachon rasvo bo'lgan.

Yaxshi qilmadim, eng yaqin do'stim Alibekdan ajraldim. Axir u haq edi, hamma narsada haq edi, buni endi tushunib yetdim. Ammo o'sha paytda mening qanchalik asablarimni buzgan, qanchalik umrimni sarflagan narsaga u alam qilarli darajada juda tez va juda oddiy yo'l bilan erishganligini kechira olmasdim.

Alibek chuqur mulohazali va jiddiy yigit edi. U hech qachon dovonga menga o'xshab partizanlik qilib bormasdi ham. Bunaqangi harakatlar uning tabiatiga yot edi. Uning kuch-quvvati, e'tibori ham xuddi mana shunda edi. U mashinani sherik bilan birga haydab to'g'ri qildi. Ular mashinani yo'lda navbatma-navbat haydashlari, dovonni yangi kuchlar bilan qo'lga kiritishlari mumkin edi. Dovonda hal etuvchi narsa — motor, iroda va inson qo'llari. Buning ustiga, Alibek bilan sherigining manzilga borib kelishda bekor ketadigán vaqti deyarli ikki marta qisqarar edi. Bularning hammasini u hisobga oldi, mashina kompressoridan pritsepga bir vaqtda harakat qila oladigan tormoz o'rnatdi. U eng oddiy narsani — zanjirlarni ham unutmadi, ular bilan oldingi g'ildiraklarni tang'ib qo'ydi. Xullas, u faqat "ura" qichqirig'i bilan emas, balki shay bo'lib, to'la qurollangan holda dovonga hujum qildi. Ana shu yo'sinda Do'landan mashinalar pritseplar bilan o'tadigan bo'lib qoldi.

Alibekdan keyin dovondan boshqalar ham pritseplar bilan yurishga kirisha boshlashdi. Hammasi emas, albatta, ammo odatdagidek har bir ishda ham asosiy narsa uning boshlanishida-da, axir. Bu orada mashinalarning soni ham ortib qolgandi, qo'shni avtobazadan yordam yuborishgandi. Bir yarim hafta davomida kecha-yu kunduz Tyan-Shan traktida mashinalarning guvillashi tinmadi. Xullas, qanchalik og'ir, qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, biznikilar xitoylik ishchilarning iltimosini belgilangan muddatda ado etishdi, ularni uyaltirib qo'yishmadi. Men ham ko'pchilik qatori ishladim. Bularni, endi hamma ishlar iziga tushib, oradan shuncha yillar o'tib ketgandan keyingina aytyapman. O'sha qizg'in kunlarda esa men egarda hali mustahkam o'tira olmas va hayot otini ham unchalik boshqara olmasdim...

Dovon ortida Alibek bilan uchrashganimizdan so'ng avtobazaga kelganimda, kech kirib qolgan edi. Yotoqxonaga qarab yo'l oldim, ammo yo'l-yo'lakay markaziy ko'cha tomon burildim. Yana

choyxonaga. O'sha kunlarda mening hushdan ketguncha ichib, o'lgudek mast bo'lgim, loaqal bir lahza bo'lsa ham hamma-hammasini unutib, toshdek qotib uxlagim kelardi. Men o'zimni zo'rlab bo'lsa ham juda ko'p ichdim, ammo aroq menga deyarli ta'sir etmadi. Men choyxonadan battar xafa bo'lib, g'azabim qaynab chiqdim. Tun yarmida shaharchada daydib yurdim va nima qilayotganimni o'ylab-po'ylab o'tirmasdan Beregovaya ko'chasiga, Xadichaning uyiga qarab qayrildim. U ham meni kutib o'tirgan ekan.

Keyin ham ahvol ana shunday davom etaverdi. Men ikki olov o'rtasida qolgandim. Kunduzlari ishda, avtobazada qolgan kechalarim esa darrov Xadichanikiga yugurib qolardim. Oyog'im unikiga tortib turardi, u bilan o'zimni xotirjam va erkinroq his qilardim. U yerda go'yo o'zimdan, odamlardan va haqiqatdan yashiringandek bo'lardim. Nazarimda yolg'iz Xadichagina meni tushunadigandek va sevadigandek tuyulardi. Uyimga kelganimda esa iloji boricha tezroq jo'nab qolishga harakat qilardim. Asal, aziz Asalginam! Agar u o'zining oqko'ngilliligi va sofdilligi bilan meni uydan tobora uzoqlashtirayotganini bilsa edi. U shu fazilatlari bilan meni tezroq ketish uchun bahona topishga majbur qilardi, chunki unga munosib emasligimni, men uchun u qilgan barcha narsalarga o'zimning sazovor emasligimni ko'ra-bila turib bu yerda ortiq tura olmasdim. Men uyga bir necha bor mast bo'lib keldim. Ammo u biror marta ham ta'na qilmasdi. Hali-haligacha uning menga nisbatan shunday munosabatda bo'lganini tushuna olmayman: bo'shligi, irodasizligidanmi yoki aksincha, o'ta bardoshliligi va insonga nisbatan ishonchi tufaylimi? Ha, u albatta mening o'zimni qo'lga olishimni, muvaffaqiyatsizliklar ustidan g'olib kelishimni va yana avvalgi holimga qaytishimni kutar, bunga ishonar edi. Ammo undan ko'ra meni koyigani, bor haqiqatni vijdonan aytib berishga majbur etgani yaxshiroq edi. Ehtimol, Asal mening yuragimni o'rtab tirnayotgan narsalar faqat ishdagi ko'ngilsizliklargina emasligini bilganida, mendan javob talab qilgan bo'larmidi?..

U shu kecha-kunduzda mening hayotimda nimalar sodir bo'layotganini tasavvur eta olmasdi. Men esa unga juda achinardim, yurak sirlarimni ochishni doim galga solardim. Natijada, shu

taxlitda ish ko'rib, uning oldida, muhabbatimiz oldida, oilamiz oldida bajarishim lozim bo'lgan burchimni ado etishga ulgura olmay qoldim.

So'nggi marta uchrashuvimizda Asal meni quvonch bilan, shavq-zavq bilan kutib oldi. Yuzlari gulgun ochilib, ko'zlari tabassumdan porlar edi. U kalta po'stinim va etigimni yechirmasdanoq to'g'ri ichkariga sudradi.

— Buni qarang, Ilyos! Samad endi tippa-tik turyapti!

— Rostdanmi? Qani u?

— Huv ana — stol tagida!

— Polda emaklab yuribdi-ku!

— Mana hozir ko'rasiz! Qani, o'g'lim, qanday turishingni dadangga bir ko'rsatib qo'y! Qani tur, tura qol, Samad!

Samad undan nima istayotganliklarini tushungandek bo'ldi. U stol ostidan quvonib emaklab chiqdi-da, karavot yonida to'xtadi, uni ushlab, zo'rg'a tikka turdi. U jilmayib, nozik oyoqlarida biroz kalovlanib turdi-da, keyin o'shanday jilmayganicha "gup" etib polga o'tirib qoldi. Chopib borib, uni quchoqlab oldim-da, badanidan yoqimli sut hidi anqib turgan go'dakni bag'rimga bosdim. Xuddi Asal kabi naqadar qadrdon va aziz edi bu hid.

— Sekinroq, Ilyos, nafasi qaytib ketadi! — deb Asal quchog'imdan Samadni tortib oldi. — Xo'sh, endi nima deysiz? Qani, endi yechining. U tez kunda kattakon bo'lib qoladi, shunda oyisi ham ishga boradi. Hammasi o'rniga tushadi, hammasi yaxshi bo'lib ketadi, shundaymasmi, o'g'ilcham? Siz-chi, — deb Asal kulimsirab, ma'yus ko'zlari bilan menga boqdi. Men stulga o'tirdim. U o'zining mana shu bir og'iz so'zi bilan so'nggi kunlar ichi aytmoqchi bo'lib yurgan, lekin aytolmay yuragida saqlab kelayotgan barcha gaplarini bayon etganini payqadim. Bu so'zlarda iltijo ham, ta'na ham, umid ham mujassamlashgan edi. Men o'sha ondayoq unga bor gapni so'zlab berishim yoki tezroq bu yerdan chiqib ketishim zarur edi. Yaxshisi, keta qolay. U behad baxtiyor edi va hech narsadan shubhalanmasdi. Men o'rnimdan turdim.

— Men ketdim, — dedim.

— Qayoqqa? — deya seskanib ketdi Asal. — Bugun ham qolmaysizmi? Loaqal choy ichib olsangiz-chi.

— Ilojim yo‘q. Ketishim kerak, — deb to‘ng‘illadim men. — O‘zing bilasan, hozir ish juda qistov...

Yo‘q, meni uydan haydayotgan narsa aslo ish emas edi. Vaholanki, yo‘lga ertalab chiqishim kerak edi.

Qorong‘ida mashina yoniga kelib, kabina o‘rindig‘iga o‘zimni gurs etib tashladim va alamimdan ingrab yubordim, motorni yurgizish uchun kalitni o‘z o‘rniga tushira olmay, ancha vaqtgacha timirskilab o‘tirdim. So‘ngra yo‘lga chiqdim, derazalarda miltillab turgan chiroqlar orqada qolib, to ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha haydab bordim. Darada, ko‘prikdan o‘tishim bilanoq mashinani yo‘ldan chetga burib, butazorda to‘xtatib, chiroqlarini o‘chirdim. Shu yerda tunashga ahd qildim. Cho‘ntagimdan papiros oldim. Gugurt qutisida bittagina gugurt cho‘pi qolgan ekan. U lov etib yondi-yu, o‘chib qoldi. Papirosni ham qutichaga qo‘shib kabina oynasidan uloqtirib yubordim, boshimga kalta po‘stinni tortib, oyoqlarimni yig‘ishtirganimcha o‘rindiqda bukchayib yotib qoldim.

Qop-qorong‘i va bahaybat tog‘lar ustida oy xiragina nur sochib turardi. Darada shamol hazin guvillar, ochilib turgan kabina eshigini u yoqdan bu yoqqa tebratar edi. U shamolda ohistagina g‘ijirlardi. Kabinada yotar ekanman, o‘zimning butunlay yakka-yu yolg‘izligimni, odamlardan, oilamdan va avtobazadagi o‘rtoqlarimdan ajralib qolganligimni hali hech qachon hozirgidek chuqurroq sezmagan edim. Bundan buyon bu taxlitda hayot kechirish mumkin emas edi. O‘zimga-o‘zim so‘z berdim: safardan avtobazaga qaytib kelishim bilanoq Xadicha bilan gaplashaman, undan meni kechirishini, ikkovimiz o‘rtamizda bo‘lib o‘tgan hamma narsalarni unutishini iltimos qilaman. Shunday qilsam, vijdonan haqqoniy va to‘g‘ri ish tutgan bo‘laman. Biroq hayot bu fikrimni boshqachasiga hal etdi. Men shunday bo‘lishini hech qachon o‘ylamagan va kutmagan edim. Oradan bir kun o‘tgach, ertalab dovondagi bazaga yetib kelganimda, uyda hech kim yo‘q edi. Eshik lang‘illab ochilib yotardi. Dastlab Asal biron yoqqa: suvgami, o‘tingami chiqqan bo‘lsa kerak, deb o‘yladim. U yoq — bu yoqqa qaradim. Xonada hamma narsa ivirsib yotardi. Olov yoqilmagan, qora pechkadan qandaydir yoqimsiz sovuq urib turar, uy huvullab yotardi. Samadning karavoti yoniga bordim — bo‘m-bo‘sh.

— Asal! — deb shivirladim dahshat aralash.

"Asal!" — deb shivirlab aks sado berdi devorlar.

Men eshikka o'qdek otilib chiqdim.

— Asal! — deb qichqirdim hovlida turib. Hech kim javob qilmadi. Qo'ni-qo'shnilarimiznikiga yugurdim, benzinkolonkaga chopib bordim, hech kimdan aniqroq javob ololmadim. Odamlarning aytishicha, kecha bolasini tanishlarinikida qoldirib, o'zi kun bo'yi qayoqqadir ketibdi va tunda qaytib kelibdi. "U voqeadan xabar topib ketib qolgan!" — degan dahshatli xayoldan cho'chib ketdim.

Umrimda hali hech qachon Tyan-Shan tog'laridan mashinani o'sha, men uchun baxtsiz bo'lgan kundagidek tez haydamagan bo'lsam kerak. Men nuqul qayerdadir anovi muyulishdan keyin yoki anovi darada, yoki yana qayerdadir yo'lda unga yetib oladigandek bo'laverdim. Go'yo burgutdek parvoz qilib, ketib borayotgan mashinalarni quvib yetardim va ularga yonma-yon kelib mashinaga tormoz berardim-da, kabina va kuzovlarga ko'z yugurtirib chiqib, shofyorlarning so'kish-koyishlari ostida mashinani yana ilgarilab yeldirib borardim. Men shu vaziyatda radiatordagi suv qaynab ketmaguncha uch soatlar chamasi mashinani beto'xtov yeldek uchirib haydadim. Kabinadan sakrab tushdim-da, radiator ustiga qor socha boshladim, so'ngra yo'l yoqasidagi pastlikdan suv olib chiqqani yugurdim. Suvni darhol quydim. Radiatordan bug' ko'tarilar, mashina esa poygadan chiqqan otdek ufurardi. Rulga endi o'tirmoqchi ham edimki, Alibekning qarshidan kelayotgan avtopritsepiga ko'zim tushib qoldi. Quvonib ketdim. Garchand biz gaplashmay, salomlashmay yurgan bo'lsak ham mabodo Asal ularnikida bo'lsa, baribir u buni menga aytishi kerak-ku. Men yo'lga yugurib chiqib, qo'limni ko'tardim-da:

— To'xta, to'xta, Alibek! To'xta! — deb qichqirdim.

Rulni boshqarib borayotgan navbatchi yigit Alibekka savol nazari bilan qaradi. Alibek esa xo'mrayganicha teskari burilib oldi. Mashina to'xtamasdan o'tib ketdi. Mashina g'ildiraklaridan ko'tarilgan qor to'zoni orasida qolib, ancha vaqtgacha qo'limni ko'targancha turib qoldim. So'ngra yuzimni artdim. Mayli, olmoqning bermog'i bor-ku, axir! Biroq hozir undan xafa bo'ladigan darajada emas edim. Demak, Asal ularnikiga bormapti. Bu ko'nglimni

battarroq g'ash qila boshladi. U o'z ovuliga ketgan bo'lsa kerak, boshqa boradigan joyi yo'q. U ota-onasi oldiga qaysi yuz bilan bordiykin va nima dedi ekan ularga?

Tezda ovulga jo'nashim kerak.

Yukni tushirgach, avtobaza hovlisiga kirib o'tirmadim. Mashinani ko'chada qoldirib, hujjatlarni topshirish uchun dispetcherxonaga yugurib ketdim. Borayotib yo'lakda Jontoy bilan to'qnashib qoldim. Uning yonidan o'tib ketdim, u bo'lsa ortimdan jirkanch va hayosizlarcha tirjayib qoldi.

Halloslab dispetcherxonaning tuynukchasiga boshimni suqdim-da, Xadichaning oldiga yo'llanmani tashladim. U menga g'alati qilib bir qarab qo'ydi. Uning ko'zlaridan qandaydir bezovtalik va o'zini gunohkordek sezayotganligi nogoh sezilib ketdi.

— Tezroq olsang-chi! — dedim men.

— Biron nima bo'ldimi?

— Asal... uyda yo'q, ketib qolibdi!

— Rostdanmi? — dedi ranglari oppoq oqarib ketgan Xadicha va o'rnidan turdi-da, lablarini tishlab: — Kechir, kechir meni, Ilyos! Hammasiga men, men... — deya boshladi.

— Nimaga men-menlab qolding! Tushuntiribroq gapirsang-chi, qani, ayt barini! — deb despetcherxonaning eshigiga qarab otildim.

— Bularning hammasi qanday bo'lganini o'zim ham bilmay qoldim, gaplarim rost, Ilyos. Kecha yo'lakda turuvchi qorovul tuynuk eshikchasini taqillatib, bir qiz kelib, seni so'rayapti, dedi. Qorovul uni bu yerga chaqirdi-da, o'zi chiqib ketdi. Men uni darhol tanidim. U "jimgina menga tikilib qaradi: "Shular hammasi rostmi?"— deb so'radi. Men, men esa dovdirab qolib, qo'qqisdan: "Ha, rost. Hammasi rost. U men bilan birga!"— deb yuboribman. U cho'chib ketib, tuynukchadan boshini shartta tortib oldi. Men esa boshimni stolga shilq etib tashlaganimcha, jinnilarga o'xshab: "Meniki u! Meniki!" — deb ho'ngrab yig'lab yubordim. U koridordan yugurib chiqib ketdi, keyin uni ko'rmadim... Kechir meni...

— Shoshma-shoshma. U qayoqdan bildiykin?

— Jontoy aytgan. O'sha, u menga ham do'q qilib yurardi. Uning ablahligini bilmaysanmi axir!

— Bilaman. Biroq u bu gal haqiqatni aytibdi.

— Sen, Ilyos, bor, uni qidirib top. Men endi sizlarga xalaqit bermayman. Biron yoqqa bosh olib ketaman...

Mashina meni qishki cho'l bag'ridan olib borardi. Yo'lni qalin, ko'kimtir muz qoplab yotardi. Shamol qor uyumlarining yollarini tarab, ariq bo'ylaridagi qorlarni quyun qilib uchirib, o'zi bilan olis-olislarga olib ketardi. Uzoqdagi tog' etaklarida shamolda nuragan devorlar va yaproqlari to'kilib shipshiydam bo'lib qolgan ovul bog'lari elas-elas qorayib turardi.

Kolxozga kechqurun yetib keldim. Mashinani menga tanish bo'lgan xonadon oldiga kelib to'xtatdim, nafasimni rostlab olish uchun papiros tutatdim, so'ng uning qoldig'ini o'chirib tashladim-da, signal bera boshladim. Ammo Asal o'rniga yelkasiga po'stin tashlab olgan onasi chiqdi. Men kabina eshigini ochib, zinaga tushdim va sekingina:

— Salom, opa! — dedim.

— Ha-a, senmiding! — deb g'azab bilan javob qildi u. — Qilar ishni qilib qo'yib, tag'in meni opa deyishga qanday tiling bordi? Yo'qol bu yerdan, basharang qursin. Sayoq, muttaham, lo'li! Bolamning bosh-ko'zini aylantirib olib qochibdi-da, yana uyalmay-netmay burnini tortib kelganini qara-ya! Benomus! El-yurt oldida sharmandayi sharmisor qilding...

Kampir og'iz ochirgani qo'ymasdi. U meni og'ziga kelgan achchiq so'zlar bilan tinmay qarg'ar edi. Uning baqiriq-chaqirig'ini eshitib, qo'shni hovlilardan erkak-ayollar va bolalar to'plana boshladilar.

— Xaloyiqni chaqirmasimdan, bu yerdan tuyog'ingni shiqillatib qol! Basharang qursin, turqingni sira ko'rmayin! — g'azabga to'lgan ona po'stinini yerga uloqtirib tashladi-da, menga tomon xezlab kela boshladi.

— Hoy, yaxshilikcha jo'nab qol bu yerdan! — dedi allaqanday bir kishi yo'lga tomon qo'lini ishora qilib dag'dag'a bilan.

Yo'lga tushishdan boshqa iloj qolmagan edi. Axir meni Asal hatto ko'rishni ham istamagandan keyin ketish kerak edi-da. Mashinamga tosh va tayoqlar otila boshladi. Bolalar meni ovuldan ana shunday haydab qolishdi. Nega shunday qilishdi ekan? Ehti-

mol, ular meni bu kampirni haqorat qilib, xafa qilgan deb o'ylashdimikin? Yoki biron kallakesar deb o'ylashgan bo'lsa kerak...

O'sha tuni ko'l bo'yida uzoq daydib yurdim. Oy nurida jilolanayotgan ko'l to'lqin urib, o'zini qo'yishga joy topa olmasdi. O', Issiqko'l, mangu qaynoq ko'l! O'sha tun muzdek sovuq eding, iltifotsizlik bilan qarshi olgan eding. Men to'ntarilib yotgan qayiq ustida o'tirardim. Qirg'oqdagi sayozliklar sari o'rkach-o'rkach bo'lib yopirilib kelayotgan to'lqinlar zarb bilan etiklarimning qo'njiga urilar va pishqirib yana orqaga qaytar edilar.

So'ng allakim menga yaqinlashib keldi-da, yelkamga sekingina qo'lini qo'ydi. Bu Xadicha edi.

* * *

Bir necha kundan keyin biz birga Frunze shahriga jo'nab ketdik. Anorxoy dashti yaylovlarini o'zlashtirish bo'yicha qidiruv ishlari olib borayotgan ekspeditsiyaga men shofyor, Xadicha ishchi bo'lib o'rnashdik. Mana shunday qilib yangi hayot boshlandi.

Ekspeditsiya bilan birgalikda Anorxoy cho'lining ichkarisiga, naq Balxash bo'ylarigacha yetib bordik. Agarda undan ham olislarga borib qolganimizda ham baribir, orqaga qaytmagan bo'lardim. O'tmish bilan aloqani uzadigan bo'lgandan keyin bir umrga uzmoq kerak.

Dastlabki paytlarda dard-alamimni ish bilan yengdim. Ish esa istagancha topilardi. Uch yildan ortiqroq vaqt ichida butun Anorxoy dashtini kezib chiqdik, quduqlar qazidik, yo'llar o'tkazdik, yo'l ustida bazalar qurdik. Xullas, hozirgi Anorxoy baland-past adirlardan iborat bo'lib, yovshan bilan qoplanib yotgan va hatto kishi kuppa-kunduzi adashib, boshi va oyog'i qayoqda ekanligini topa olmay haftalab, oylab tentirab yuradigan ilgarigi yovvoyi dasht emas. Hozir u yerlar madaniy dam olish joylari, uylar va qo'sharlari bo'lgan chorvadorlar o'lkasiga aylangan. Don ekishadi, hatto chorva uchun pichan tayyorlashadi. To'g'ri, hali Anorxoyda qo'l urilmagan ishlar ko'p, biz shofyorlarni bo'lsa qo'yavering, ularning ishi hamma vaqt boshidan ortib yotadi. Biroq men u yerdan qaytib keldim. Hali ko'p yerlari noobod, odamlar kam yashaydigan dashtda yashash og'irligidan yoki bo'ronli qishda, yo'lsiz

cho‘lda tentirab yurish qiyin bo‘lganligi uchun emas. Bu qiyin-chiliklarning bari vaqtinchalik narsa, albatta. Agar inson mustahkam o‘rnashib olsa, cho‘lni o‘ziga bo‘ysundira oladi, u yerga o‘zi ham ko‘nikib qoladi, cho‘lni ham o‘ziga moslashtira oladi. Xadicha ikkimiz qiyinchiliklardan qo‘rqmasdik, turmushimiz ham yomon emas edi, bir-birimizni hurmat qilardik. Ammo hurmat boshqa-yu, muhabbat boshqa. Agar biri sevib, ikkinchisi sevmasa, unda bu ham, menimcha, ko‘ngildagidek haqiqiy turmush bo‘lolmaydi. Yo inson o‘zi shunday tuzilganmi, yo faqat men tabiatan shunaqamanmi, bilolmadim, harqalay, menga doimo bir narsa yetishmasdi, uning o‘rnini ish bilan ham, do‘stlik bilan ham, seni sevguvchi ayolga nisbatan e’tibor va g‘amxo‘rliging bilan ham almashtirib yoki o‘rnini to‘ldirib bo‘lmasdi. Men Asalning oldiga borishga yana bir bor urinib ko‘rmay, shoshma-shosharlik qilib ketib qolganim uchun ko‘pdan beri ich-ichimdan o‘kinib yurardim. Anorxoyda o‘tkazgan keyingi yarim yil mobaynida bo‘lsa Asal va o‘g‘ilchamni sog‘inib yurak-bag‘rim ezilib ketdi. Tunlari uxlay olmay chiqardim. Samadning kulib, nozik oyoqchalarida zo‘rg‘a tik turgani ko‘zimga ko‘rinaverardi. Uning iliq tafti va go‘daklarga xos mayin hidini go‘yo butun umrga singdirib olgandayman. Qadrdon Tyan-Shan tog‘lari, mavjlanib yotgan moviy Issiqko‘l, ilk va so‘nggi muhabbatimni topgan tog‘ etaklaridagi jonajon dashtlar meni o‘ziga tortardi. Xadicha bularning hammasini bilardi, biroq men uni hech narsada ayblamaganimdek, u ham meni biron narsada ayblamas edi. Nega ham ayblardik? Biz birga yashay olmasligimizni nihoyat tushungan edik.

O‘sha yili Anorxoyga bahor erta keldi. Adirlarni qoplab yotgan qorlar tezda erib, kunlar isib, o‘t-o‘lanlar ko‘kara boshladi. Dashtga jon kira bordi, u issiqlik va namlikni emib bug‘lanib yotardi. Tunlari havo shishadek musaffo bo‘lar, osmonda yulduzlar charaqlardi.

Biz parmalash vishkasi yonidagi chodirda yotgan edik. Har vaqtdagidek uyqu kelmasdi. Kutilmaganda allaqayoqlardan parovozning qichqirgan ovozi zo‘r-bazo‘r eshitilib, cho‘l sukunatini buzdi. Uning bu tomonlarga qay tarzda yetib kelganini aytish qiyin. Qozoq temiryo‘li bizdan dasht bo‘ylab yarim kunlik yo‘l narida.

Yoki menga bu tovush shunchaki eshitilgandek bo'ldimi, bilolmayman. Biroq yuragim "jiz" etib ketdi. U meni yo'lga chorlardi.

Shunda men:

— Bu yerdan ketaman, Xadicha, — dedim.

— To'g'ri, Ilyos. Ajralishimiz kerak, — dedi u.

Biz ajralishdik. Xadicha Shimoliy Qozog'istonga, qo'riq yerlarga jo'nab ketdi. Eh, Xudo, uning baxtiyor bo'lishini chin yurakdan istardim. Men Xadichaning ko'nglidagi odamini topishiga, balki o'zi ham sezmay-bilmay turib uni izlab yurgan yigit bilan uchrashishiga ishongim kelardi. U birinchi eridan yolchimadi. Unga ko'ngilsiz bo'lib, ajralishib ketdi. Shuningdek, men bilan ham o'z baxtini topolmadi. Agar men haqiqiy, chinakam sevgi nima ekanligini, sevish va sevilishning ma'nosini to'la anglab yetmaganimda, ehtimol, u bilan turmush qurib ketgan bo'lar edimmi?.. Darvoqe bu shunaqangi narsaki, uning nega bunday bo'lishi kerag-u, unga o'zgacha bo'lishi mumkin emasligini izohlashga ojizlik qilib qolasan kishi.

Xadichani stansiyagacha olib borib, poyezdga o'tqazib yubordim va to orqada qolib ketmagunimcha vagon bilan yonma-yon chopib boraverdim. "Safaring xayrli bo'lsin. Xadicha, oramizda o't-gan yaxshi-yomonni unut!" — deb shivirlab qoldim so'nggi marta.

Turnalar Anorxoy osmonidan janubga tomon uchib borardi, men esa shimolga, Tyan-Shan tomon borardim...

* * *

Manzilga yetib keldim-u, hech qayerda to'xtamasdan, to'ppa-to'g'ri ovulga jo'nadim. Chamadonimni rayon mehmonxonasida qoldirdim. Yo'lovchi mashina ham juda qulay kelib qoldi: u tog'ga, geolog-razvedkachilar huzuriga ketayotgan ekan. Men kuzovda borar ekanman, hech narsa haqida o'ylamaslikka urindim, butun vujudimni bir vaqtda ham qo'rqinch, ham quvonch chulg'ab olgan edi. Biz tog' etagidagi dasht yo'lidan, Asal bilan uchrashgan o'sha qadrdon yo'ldan ketayotgan edik. Ammo u endi ilgarigi torgina qishloq yo'li emas, balki shag'al yotqizilgan, beton ko'priklari va yo'l belgilariga ega bo'lgan keng va tep-tekis ko'cha bo'lib ketibdi. Men hatto avvalgi oddiy yo'ldan asar qolmaganiga biroz achingan-

dek bo'ldim. Mashinam tiqilib qolgan ariqni, Asal o'tirgan o'sha xarsang toshni ham taniyolmay qoldim.

Ovulga yetmasdanoq kabina tepasini qoqa boshladim.

— Nima gap? — deb boshini chiqarib so'radi shofyor.

— To'xtat, tushaman.

— O'rta yo'lda-ya? Hozir yetamiz-ku.

— Rahmat! Yaqin qoldi, — deb mashinadan yerga sakrab tushdim. — Buyog'iga piyoda bora qolarman. — U mening qayoqqa va nega kelayotganimni qayoqdan bilsin. Pul uzatdim.

— Qo'y! — dedi u. — Shofyorlardan, hamkasabalardan olmaymiz.

— Ushla buni, shofyorligim peshonamga yozib qo'yilgani yo'q-ku.

— Yurish-turishingdan sezib turibman.

— Xo'p, mayli, ketaver bo'lmasa, salomat bo'l!

Mashina yo'lga tushdi, u hovlilar ortidagi ko'chaga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Men esa es-hushimni yig'ishtirolmay hamon yo'l ustida turardim. Shamolga chap berib sigareta tutatdim. Sigaretani labimga keltirar ekanman, barmoqlarim dir-dir titrardi. Bir necha bor bosib-bosib, ichimga tortdim-da, so'ngra g'ildirak iziga tashlab toptab, yo'lga ravona bo'ldim. "Mana, yetib ham keldim", deb g'o'ldiradim o'z-o'zimga. Boshqa aytadigan gapim ham yo'q edi. Yuragim fikr-xayollarimni bosib ketmoqchidek gurs-gurs urar, go'yo bir narsani bolg'alayotgandek qulog'im shang'illardi.

Ovul ajabtovur o'zgarib, xiyla kengayib qolibdi, yangidan solingan ko'pgina shifer tomli binolar paydo bo'libdi. Ko'chalarga simyog'ochlar o'rnatilib, simlar tortilibdi, kolxoz boshqarmasi binosi oldidagi simyog'ochda radio gapirardi. Bolalar maktabga chopqillab ketishyapti. Ulardan sal kattaroq bolalar esa universitetni bitirgan yosh o'qituvchilari bilan (bu ko'kragidagi znachogidan ko'rinib turardi) bir gala bo'lishib, allanimalar haqida o'zaro gaplashib borishardi. Ehtimol, ularning orasida menga tosh va tayoqlar otib qolgan bolalar ham bordir. Mayli, hechqisi yo'q, o'sha kezlarda hali ular yosh bola emasmidi.

Garchand meni bu yerda hech kim tanimasa ham, birov sezib qolmasin deb ko'chaning bir chekkasidan shoshib borardim.

Mana o‘sha sambittolli va paxsa devorli hovli. To‘xtab, nafasimni rostladim. Qo‘rquv va tashvishdan badanim muzlab, ko‘cha eshigi tomon qat’iyatsizlik bilan yurib boraverdim. Taqillatdim. Qo‘lida portfel ko‘targan qiz chopib chiqdi. Bu — menga tilini ko‘rsatib qochgan o‘sha qizcha edi. Endi u maktabga boradigan bo‘lib qolibdi. Qiz shoshilib turardi. U menga hayron bo‘lib qaradi-da:

— Uyimizda hech kim yo‘q! — dedi.

— Hech kim yo‘q?

— Ha, oyim lesxozga mehmon bo‘lib ketdi... Dadam traktorlarga suv tashiyapti.

— Asal-chi, qayerda u? — deb qo‘rqa-pisa so‘radim-u, shu zahotiyoq og‘zim qaqrab ketayotganini sezdim.

— Asal? — deb ajablandi qiz. — Asal allaqachon ketib qolgan...

— Keyin hech kelmadimi?

— Har yili pochcham bilan birga keladi. Oyim uni juda yaxshi kishi deb maqtaydi.

Qizdan bo‘lak hech narsa haqida surishtirib o‘tirmadim. U maktabiga chopib ketdi, men esa orqaga qaytdim.

Bu yangilik meni shu qadar dovdiratib qo‘ydiki, uning kimga va qachon turmushga chiqqani endi menga baribir edi. Bilib nima ham qildim? Biroq o‘tgan yillar orasida nima uchundir Asal boshqa birovga turmushga chiqib ketgandir, degan fikr hech qachon xayolimga ham kelmagan edi. Axir shunday bo‘lishi ham mumkin ediku. Hech qanday dom-daraksiz bir necha yillar qoramni ko‘rsatmay ketganimdan keyin, hammani qo‘yib meni kutib o‘tirarmidi...

Ovuldan chiqiboq, hech qanday mashinani kutib o‘tirmasdan, to‘g‘ri yo‘l yoqalab ketaverdim. Agar biror mashina quvib yetganida ham uni to‘xtatmas edim. Har qalay, biron yoqqa yurishim kerak edi, qayoqqa bo‘lsa ham — dunyoning narigi chekkasiga bo‘lsa ham menga baribir edi endi.

Men bir vaqtlar Asalni olib ketgan yo‘ldan borardim. Ammo yo‘l burungicha emas — yaxshilab shibbalanib, shag‘al yotqizilgandi. Faqat dashtgina ilgarigicha: atrofda qop-qora shudgori, o‘rib olingandan keyin qolgan sarg‘ish poyalar ko‘zga tashlanardi.

Bepoyon dasht Issiqko'lning nurli hoshiyadek ajralib turgan uzoq qirg'oqlarini yorib kirib, tog' yonbag'irlaridan tortib to ufqqa qadar yastanib yotardi. Qorlar erib, yalang'ochlanib qolgan yer namga to'yib ko'pchib yotardi. Allaqayoqlarda traktorlar tarillab, bahorgi shudgorlash boshlab yuborilganidan darak berardi.

Rosa xuftonda rayonga yetib keldim, tunni mehmonxonada bir amallab o'tkazdim-da, ertalab avtobazaga borishga ahd qildim.

Qayoqqadir, o'zga o'lkalarga ketishdan endi foyda yo'q edi. Hamma orzu-istaklarim barbod bo'lib, hammasidan mahrum bo'lgan edim. Endi shunchaki yashash-u ishlashdan o'zga iloj qolmagan edi — uyog'i nima bo'lishini kim bilsin.

Tyan-Shan traktidan mashinalar odatdagidek turnaqator tizilishib u yoqdan bu yoqqa qatnab turardi, biroq men o'zimizning avtobaza mashinalaridan birontasida ketishni ma'qul ko'rdim. Mana, tanish mashinalardan biri yaqinlashib kelmoqda. Qo'l ko'tardim.

Kabinada o'tirgan shofyor hadeganda meni payqamay qoldi. Katta tezlik bilan kelayotgan mashina g'izillab o'tib ketdi-yu, biroq shu zahotiyoq taqqa to'xtadi. Men chamadonimni qo'lga oldim. Shofyor kabinadan chiqdi. Bunday qarasam, polkdoshim Ermak, u stajirovkani armiyada mening qo'limda o'tagan edi. Ermak o'sha kezlarda hali yoshgina yigitcha edi. U menga qarab jimgina jilmayib turardi.

— Tanimayapsanmi?

— Serjant... Ilyos! Ilyos Aliboyev! — Nihoyat esladi u.

— Xuddi o'zi! — deb iljaydim-u, ammo o'zimga juda alam qilib ketdi, odamlar zo'r-bazo'r tanigandan keyin, juda o'zgarib ketibman-da.

Biz yo'lga tushdik. U yoqdan bu yoqdan gaplashib bordik, armiyada xizmat qilgan yillarimizni esladik. Ishqilib, mening turmushim haqida gap ochib, surishtirib qolmasa bo'lgani, deb cho'chib turardim. Ammo Ermak, aftidan, hech narsadan xabarsizdek ko'rinardi. Men biroz tinchlandim.

— Uyga qachon qaytding? — deb so'radim men.

— Ishlayotganimga mana ikki yil bo'ldi.

— Alibek Jonturin qayerda?

— Bilmadim. Men kelsam, u ketib qolgan ekan. Aytishlaricha, Pomirning allaqayeridagi avtobazada bosh mexanik bo'lib ishlayotgan emish.

"Qoyilman, Alibek! Qoyilman senga, do'stim! Puxta yigitsan!" — deb undan behad xursand bo'ldim. Demak, oxiri o'z maqsadiga erishibdi-da, u armiyada xizmat qilib yurgan kezlaridayoq avtobomil va yo'l texnikumida sirtdan o'qib yurgan edi. U institutni ham sirtdan tugatishni orzu qilib yurardi.

— Boshliqlaring Omonjo'lovmi?

— Yo'q, yangi odam. Omonjo'lov ministrlikka ko'tarilib ketdi.

— Seningcha, qalay, meni ishga olisharmikin?

— Nega endi olishmasakan, olishadi, albatta. Birinchi klass shofyorsan, axir armiyada ham yaxshilar qatorida eding-ku.

— Qachonlardir shunday edim, — deb to'ng'illadim men. — Jontoyni-chi, bilasanmi uni?

— Bizda unaqa odam yo'q. Hech qachon eshitmaganman ham.

"Ha, avtobazada ozmuncha o'zgarishlar bo'lmapti..." — deb xayolimdan o'tkazdim. Keyin so'radim:

— Pritseplar bilan ishlash qalay? Dovondan olib o'tyapsizlarmi?

— Ha, bemalol o'tib yuribmiz, — dedi u e'tiborsizgina. — Yukning qanaqaligiga bog'liq. Zarur bo'lsa tirkab olishadi-yu, ketishaveradi. Hozir mashinalar juda baquvvat emasmi...

Bu pritseplar menga naqadar qimmatga tushganini u bilmasdi. Anorxoy dashtida ishlab yurgan kezlarimda ham bu hodisa haqida ko'p bosh qotirardim. Bu ishda birgina men aybdormanmi yoki yana qandaydir bo'lak sabablar ham bormikin? Agar bunday o'ylab qaralsa, bu juda oddiy, uncha bosh qotirib o'tiradigan ish emas edi. Qanchalik og'ir va qanchalik qiyin bo'lmasin, Do'landan pritsep ulab o'tish mumkin ekanligi oxiri isbotlandi-ku, endilikda, agar zarurat tug'ulib qolsa, bemalol olib o'tilyapti-ku. Ammo bari balo shundaki, biror yangilik o'zining ishda qo'llanilishini talab etayotgandek, eshigingni qoqib turgan taqdirda ham o'z vaqtida sezib ololmaymiz. Nega odamlar mening taklifimga shunchalik ishonchsizlik bilan qarashdi? Bu taklifni tog' sharoitida amalga oshirish haqiqatan ham qiyinligidan tashqari, yana bizning trassada mashinalardan foydalanish va yuk tashish qonun-qoidalari instruksiya-

si ham bor edi, unda dovondan pritsep ulab o'tish man etilgandi. Xudo biladi, bu instruksiya qachon ishlab chiqilgan ekan. Ehtimol urushdan avval polutorkalarga moslab tuzilgandir. Bu bechora polutorka pritsep u yoqda tursin, hatto o'zi tep-tekis yo'ldan arang yurardi. Endilikda hech qanday instruksiyaning hojati yo'q edi. Yangi markali, juda baquvvat zamonaviy yuk mashinalari vujudga keldi-yu, ammo qog'ozdagi narsalar esa to hayotning o'zi o'chirib tashlamaguncha eskiligicha saqlanib kelaverdi. Mayli, bu kichkina va alohida bir masala, deylik, biroq shunga o'xshash narsalar boshqa, yanada muhimroq va yanada kattaroq ishlarda yuz berib qolishi mumkin-ku, axir. Endi-ku, o'rtoqlarimning yuk ortish stansiyasidagi beodobligim uchun salkam do'pposlamoqchi bo'lganlaridan xafa emasman-a.

Lekin o'sha vaqtda xuddi ana shu narsa mening jahlim chiqib ketishiga va qiziq ustida hech narsani o'ylab o'tirmay, pritsepni dovonga olib ketishimga sabab bo'lgan edi-da...

Xullas, o'zimning qadrdon avtobazamga qaytdim. Birinchi kuni Ermak o'z uyiga taklif qildi. Yaxshigina kutib oldi. Uchrashganligimiz sharafiga biroz ichamiz, dedi. Ammo men ichmadim, ko'pdan beri ichmasdim, ichish niyatim ham yo'q edi.

Avtobazada ham yaxshigina kutib olishdi. Ishga qabul qilishdi, yotoqxonada yashay boshladim. Meni taniydigan oshna-og'aynilarimning jig'imga tegib, uni-buni so'rab-surishtiravermaganlaridan juda xursand bo'ldim. Ko'rib turibdilarki, bir kimsa qayoqlardadir tentirab yurib, yana o'z o'rtoqlari huzuriga qaytib kelib, vijdonan halol ishlayapti — juda yaxshi. O'tgan ishni qo'zg'ashning nima hojati bor? O'zim ham hammasini unutishga, bir umrga unutishga harakat qilardim. Men bir vaqtlar oilam bilan yashab turgan o'sha dovondagi baza oldidan o'tib borayotib, atrofga nazar tashlamay, hatto benzinkolonkadan benzin ham olmay, g'izillaganimcha o'tib ketardim. U yerda bir daqiqa bo'lsa ham ushlanib qolmaslik uchun to'xtamasdan chetlab o'tardim. Ammo baribir meni hech narsa qutqara olmadi, o'zimni o'zim alday olmadim.

Avtobazaga qaytganimga ham ancha vaqt bo'ldi. Trassa meni o'ziga jalb etib oldi, unga yana ko'nikib qoldim. Mashinani har ohangga solib haydardim, motorni barcha tezliklarda va baland-

liklarga chiqishda sinab ko‘rdim. Qisqasi, o‘z ishimni bilardim va unga sho‘ng‘ib ketdim.

O‘sha kuni Xitoydan qaytib kelayotgan edim. Bamaylixotir, hech narsani o‘ylamay papiros chekib, rul chambaragini aylantirgancha, har tomonga nazar tashlab kelardim. Ayni bahor, tevarak-atrof kishini o‘ziga maftun etardi. U yer-bu yerga o‘tovlar tikilayotgan edi: chorvadorlar bahorgi yaylovlarga chiqishayotgan edilar. O‘tovlar uzra ko‘tarilgan ko‘kish tutunlar ko‘kka bo‘y cho‘zishardi. Shamol bezovtalanib kishnayotgan ot ovozini olib keldi. Qo‘y-qo‘zilar yo‘l yoqasida o‘tlab yurishardi. Bolalik chog‘larim esimga tushib ketdi, ko‘nglim xiyol g‘ash tortdi... Ko‘lga yaqinlashib qolganimni bilaman, birdan cho‘chib, seskanib ketdim: oqqushlar!

Shu bilan hayotimda ikkinchi marta Issiqko‘lda bahorgi oqqushlarni ko‘rishim edi. Ko‘m-ko‘k Issiqko‘l uzra oppoq qushlar gir aylanishib parvoz qilishardi. To‘g‘ri borayotib, nimagaligini o‘zim ham bilmay, mashinani yo‘ldan keskin burdim-da, xuddi o‘tgan safargidek, qo‘riq yerni kesib, ko‘lga tomon hayday boshladim.

O‘, Issiqko‘l, Issiqko‘l, qirg‘iz diyorining so‘nmas qo‘shig‘i! Nega men yana o‘sha kunni, Asal bilan suv bo‘yida, tepalikda to‘xtagan kunni esladim-a! Ha, hozir ham hammasi avvalgidek: oq-ko‘kish to‘lqinlar go‘yo qo‘l ushlashib olganday saf tortishib o‘rkach-o‘rkach bo‘lib, sarg‘ish qirg‘oqlarga mingashar edilar. Yotog‘iga yo‘l olgan quyosh tog‘lar ortiga asta-sekin botib bormoqda, etakdagi suvlar esa qontalashgandek qizg‘ish tusda tovlanardi. Oqqushlar tantanavor chag‘illashib charx urishardi. Ular birdan qanot qoqib yuqoriga parvoz qilardilar-u, yana qanotlarini yozib chuvullab pastga suzib tushar, suvga to‘sh urib, qat-qat halqachalar hosil qilardilar. Ha, hamma-hammasi ayni o‘sha manzaraning o‘zi-yu, ammo yonimda Asal yo‘q edi, xolos.

Hozir qayerlarda yuribsan, qizil durrachali sarvqomatim?

Ko‘l bo‘yida allamahalgacha qolib ketdim. Keyin avtobazaga qaytib keldim, undan chiqib sabr-toqatim tugab, kayfiyatim tag‘in buzila boshladi. Yuragimda qo‘zg‘algan dard-alamlarni bosish uchun yana choyxonaga bordim. Choyxonadan juda kech qaytdim. Atrof qop-qorong‘i, osmonni bulut qoplagan edi. Quvurdan otilib chiqayotgandek daradan guvillab esayotgan kuchli shamol quturib

daraxtlar qaddini egib-bukar, simyog‘ochlardagi simlarga urilib chuvillar va mayda toshlarni kishi yuziga keltirib urar edi. Ko‘l esa chayqalib to‘lg‘anardi. Men yotoqxonaga zo‘r-bazo‘r yetib oldim-u, yechinib o‘tirmasdan o‘zimni karavotga tashladim.

Ertalab boshimni ko‘tara olmasdim, sirqirab og‘rirdi. Tashqarida yurakni siquvchi qor aralash yomg‘ir shivalab yog‘ardi. Ishga borishga hafsalam kelmay, uch soatlar chamasi ag‘anab yotdim. Bunday hodisa, ya’ni hattoki, ishning ham ko‘nglimga xush kelmayotganligi hayotimda birinchi marta sodir bo‘layotgan edi. Ammo keyin o‘zimdan o‘zim uyalib ketdim-u, yo‘lga chiqdim.

Mashina majoli qurigandek imillab borardi, to‘g‘rirog‘i, o‘zimning tabiatim xira edi. Buning ustiga, havo ham aynagan edi. Qarshimdan kabinalari va bortlari qorga botgan mashinalar chiqib turardi. Demak, dovonda qor yog‘ayotgan ekan. Mayli, yog‘sa yog‘aversin, menga nima, bo‘ron turib bermaydimi, menga baribir, nimadan qo‘rqaman, nima bo‘lsa bo‘lar...

Avzoyim juda buzuq edi. Tepamda turgan ko‘zguchaga qarab ko‘nglim aynab ketdi: soqol-mo‘ylovim o‘sib ketgan, xuddi kasaldan turgandek yuzlarim so‘lg‘in, qovog‘im shishgan edi. Yo‘lda biroz tamaddi qilib olsam bo‘lardi, ertalabdan beri tuz totganim yo‘q, ammo ovqatga ishtaham yo‘q bo‘lsa ham ichishdan qochmasdim. O‘zingga bir marta erk berdingmi, bas, keyin to‘xtatib olish qiyin. Birinchi stakandan so‘ng ancha tetiklanib, o‘zimga keldim. Mashina ham yengil yurib borayotgandek bo‘ldi. Keyin yana yo‘lda yugurib kirib yuz gramm ichib chiqdim, keyinroq buning ustiga yana ozroq otib oldim. Yo‘l g‘irillab ortda qolib borar, oyna tozalovchi cho‘tkalar u yoqdan bu yoqqa borib kelardi. Mashina bilan jangga kirib borayotgandek egilib olib, og‘zimdagi sigaretani chaynardim. Qarshidan kelib, kabina oynalariga ko‘lmak suvlarni sachratib, g‘izillab o‘tib ketayotgan mashinalarnigina ko‘rardim, xolos. Men ham tezlikni oshira bordim, kech kirib qolgan, tog‘ga kelganimda zim-ziyo tun edi. Mana shu yerga kelganimda aroq o‘z kuchini ko‘rsata boshladi. Madorim qurib, ko‘zim tinib, yo‘lni ko‘rish tobora qiyinlasha bordi. Kabina ichida dimiqib ketdim, ko‘nglim ayniy boshladi. Hali hech qachon bunchalik mast bo‘lmagan edim. Yuzimdan sharros ter quyilardi. O‘zimni mashi-

nada emas, go'yo olg'a tomon shiddat bilan tun bag'rini yorib borayotgan ikkala chiroq nurlari o'rtasida o'tirib ketayotgandek his qilardim. Nurlar bilan birgama-birga men ham goh yorug'lik tushib turgan chuqurlikka zarb bilan otilib tushar, goh titrab-qaltirab qoyalar ustida o'rmalovchi nurlarga tirmashib yuqoriga ko'tarilar, goh nurlar ketidan quvlab u yoqdan bu yoqqa yugurayotgandek bo'lardim. Har daqiqa sayin holdan toyib boraverdim. Biroq har qancha og'ir bo'lsa ham to'xtamasdim, chunki ruldan qo'limni uzdimmi, bas, mashinani endi boshqara olmasligimga aqlim yetib turardi. O'sha paytda dovonning qayerida borayotganimni aniq eslayolmayman. Oh, Do'lan, Do'lan, Tyan-Shanning haybatli beli! Senda yurish bunchalar mushkul! Ayniqsa, tunda, yana men singari kayfi oshgan shofyor uchun!

Mashina allaqanday balandlikka zo'r-bazo'r ko'tarildi-yu, birdaniga pastlikka, tog' etagiga qarab sho'ng'idi. Ko'z o'ngimda tun gir-gir aylanib, hammayoq ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Qo'llarim endi menga itoat qilmay qo'ygandi, rul chambaragidan sirg'alib tushar, tezlik richagini tuta olmas edi. Borgan sari mashinaning tezligi oshib, pastga tomon uchib borardi. So'ng allanimaga urildi shekilli, taraqa-turuq, sharaqlagan ovozlar eshitildi. Chiroqlar o'chib, ko'z o'ngimni zim-ziyo qorong'ilik bosdi. Qalbimning allaqayerida: "Mana, avariyaga ham uchrading!" — degan fikr yalt etib ketdi. Shu ko'yda qancha vaqt yotganligimni bilmayman. Bir payt qulog'imga paxta tiqib qo'yilgandek bir ovoz arang eshitildi. "Qani, yorit-chi!" Kimningdir qo'llari yelkamni, boshimni va ko'kragimni paypaslab ko'rdi. "Tirik, ammo o'lardek mast", — dedi o'sha ovoz. Boshqasi esa: "Yo'lni bo'shatish kerak", — dedi unga.

— Qani, do'stim, sal suril-chi, rulni menga ber, mashinani chetga olaylik! — haligi qo'l yelkamga sekingina turtardi.

Men ingrab, ruldan zo'rg'a boshimni ko'tardim. Peshonamdan qon oqardi. Ko'kragim ezilib shikastlangan ekan, qaddimni ko'tarishga yo'l qo'ymasdi. Tepamdagi kishi gugurt chaqib, yuzimga qaradi. So'ngra yana ikkinchi marta gugurt chaqib, yana tikildi-da, qo'ng'ir mo'ylovlari ostidan hayratlanib jilmaydi.

— Do'stim, senga nima bo'ldi! Bu qanaqasi? — derdi u xafalanib g'amgin ohangda qorong'ilik orasidan.

— Mashina... qattiq shikastlanibdimi? — dedim xirillab qon aralash tuflab.

— Yo'q, unchalik emas. Faqat borayotib zarb bilan surilib ketgan-u, ko'ndalang bo'lib qolgan, xolos.

— Unday bo'lsa hozir jo'nab ketaman, yo'lda turmayman! — deb o'zimga itoat qilmay qo'ygan qaltiroq qo'llarim bilan motorni yurgizmoqchi bo'lib startyorni bosishga urindim.

— To'xta! — deb u meni mahkam quchoqlab oldi. — Maynabozchilik yetar. Chiq bu yoqqa. Tong otguncha uxlab ol-chi, ertaga uyog'ini yana ko'rarmiz...

U meni kabinadan tortib chiqardi.

— Kamol, sen yo'l tirband bo'lib qolmasdan mashinani chekkaga chiqarib qo'y, keyin nima bo'lganini aniqlarmiz! — dedi u hamrohiga, o'zi bo'lsa qo'llarimni bo'yniga solib, qorong'ida qayoqqadir yetakladi. Biz uzoq yurdik, u odam meni jimgina yetaklab borardi, men iloji boricha o'zim yurishga harakat qilardim, biroq tezda toliqib qolaverdim, shunda u odam yana qo'ltig'imga kirib yetaklashda davom etardi. Shu yo'sinda biz allaqanday xonadonga yetib keldik. Boyagi kishi qo'ltig'imdan tutib turib, uyga kirishimga yordamlashdi. Kiraverishdagi xonada kerosinchiroq yonib turardi. U kishi meni taburetkaga o'tqazib, ustimdan kalta po'stinimni yecha boshladi. Shundagina men uning yuziga qaradim. Uni tanidim. Bu yo'l tuzatuvchi usta, dovonda mashinani shatakka olganimda uchrashgan o'sha Boytemir edi. Men juda uyalib ketdim, lekin shunga qaramay, sevindim ham, endi uzr so'rab, tashakkur izhor etmoqchi bo'lib og'iz juftlagan ham edimki, shu payt polga bir nima taraqlab tushdi. Men qayrilib qaradim va yelkalarimdan ulkan tosh bosib turgandek o'rnimdan xiyol ko'tarildim. Ostonada, sochilib yotgan o'tinlar oldida toshdek serrayib qotib qolgan Asal turardi.

— Bu nimasi? — deb pichirladi u. "Asal!" — deb qichqirib yuborishimga sal qoldi, ammo uning yaqinlashmay, begona qiyofada tikilib turganidan og'iz ocholmay qoldim. Uyat va nomusdan o't bo'lib yonib, boshimni quyi soldim. Xonaga bir zum yurakni yorib yuborgudek og'ir sukunat cho'kdi. Agar Boytemir bo'lmaganida,

bilmadim, nima bo'lardi. U hech narsa bo'lmagandek bamaylixotir meni o'rnimga o'tqazdi.

— Hech narsa bo'lgani yo'q, Asal, — dedi u xotirjamgina. — Shofyor birozgina shikastlanibdi, tuzalib ketadi... Sen, yaxshisi yod bersang bo'lardi bizga...

— Yod? — endi uning ovozi o'z holiga qaytgan, mayinlashgan va tashvishli edi. — Yodni qo'shnilar olib ketishgan edi... Hozir olib chiqaman! — deya Asal es-hushini yig'ib oldi-da, yugurib tashqariga chiqib ketdi.

Men qimir etmay, lablarimni tishlaganimcha o'tirardim. Kayfim tarqab, bir zumda hushimga kelib qoldim... Endi chakka tomirlarim lo'qillab ura boshladi.

— Avval yuvish kerak, — dedi Boytemir peshonamdagi shilingan joylarni ko'zdan kechirarkan, keyin chelakni ko'tarib tashqariga chiqib ketdi. Qo'shni xonadan ko'ylakchan, yalang oyoq, besh yoshlar chamasidagi bir bola mo'ralab qarardi. U yotgan joyidan turib kelgan bo'lsa kerak, katta-katta sinchkov ko'zlari bilan menga termilib boqardi. Men uni darhol tanidim. Qanday taniganimni o'zim ham bilmayman, har qalay, o'g'lim ekanini sezdim, qalbim sezdi buni.

— Samad! — deb shivirladim kutilmagan uchrashuvdan ovozim bo'g'ilib va unga qarab intildim. Shu payt ostonada Boytemir paydo bo'ldi, men uni ko'rib, negadir bir cho'chib tushdim. Chamasi, o'g'limning otini atab chaqirganimni eshitib qolgan bo'lsa kerak. Xuddi o'g'irlik ustida qo'lga tushgandek, o'zimni juda noqulay seza boshladim. Xijolat tortayotganimni sezdirmaslikka intilib, peshonamdagi shilingan yerni qo'lim bilan bekitganimcha:

— Bu sizning o'g'lingizmi? — deb so'radim. Nega shunaqa deb savol berdim-a? Bu xatoyim uchun o'zimni hozirgacha kechira olmayman.

— Mening o'g'lim! — dedi mezbonga xos xushmuomalalik bilan Boytemir. U qo'lidagi chelakni polga qo'ydi-da, Samadni ko'tarib oldi. — Mening o'g'lim, albatta, o'z o'g'lim, shunday emasmi, Samad! — derdi u o'g'lini o'pib va mo'ylovi bilan uning bo'ynilarini qitiqlab erkalab. Boytemirning ovozida va o'zini tutishida soxtalikdan asar ham yo'q edi. Uning barcha xatti-

harakatlari shunchalik tabiiy ediki, go‘yo mening o‘rnimda mening rolimni ado etayotgandek edi. — Ha, toychog‘im, nega uxlamayapsan? Hamma narsadan xabardor bo‘lsang-a, qani, o‘rningga chop-qilla-chi!

— Oyim qani? — deb so‘radi Samad.

— Hozir keladi. Ana kelyapti. Bor endi, o‘g‘lim, uxla.

Asal jimgina yugurib kirdi va bizga sergaklik bilan tezgina nazar tashlab chiqdi-da, yodli shishachani Boytemirga berib, o‘g‘lini olib ketdi. Boytemir namlangan sochiq bilan yuzimdagi qonni artdi.

— Birpas chidaysan endi! — deb hazillashdi u shilingan joylarimga yod surarkan va jiddiy suratda: — Bu ishing uchun seni o‘tda kuydirsa ham bo‘lardi-yu, mayli, endi, mehmonimizsan-da... Mana tamom, qutulding, bitib ketadi. Asal, bizga choy qo‘yib yuborsang bo‘lardi.

— Hozir! — dedi Asal o‘g‘lini allalay turib.

Boytemir polga yoyilgan kigiz ustiga ikki qavat ko‘rpacha solib, yostiq qo‘ydi.

— Bu yoqqa o‘tib o‘tir, — dedi u menga. — Yonboshla, biroz damingni ol...

— Hechqisi yo‘q, rahmat! — deb g‘o‘ldiradim men.

— O‘tir, o‘tiraver, o‘z uyingdek bemalol o‘tiraver! — deb qattiq turib oldi u.

Bularning hammasi go‘yo tushimda bo‘layotgandek edi. Mana hozir hammasi oshkor bo‘ladi, qani endi yer yorilsa-yu, yerga kirib ketsang, degan qo‘rquv va tashvishdan yuragim tars yorilib ketayozgandek edi. Chunki men bu yerga naqadar ayanchli ahvolda: mast, iflos va qonga bo‘yalgan holda kelganimni payqagan edim. Uf, onam nega tuqqan ekan meni-ya!

Asal bizga qaramaslikka harakat qilib, samovarni oldi-da, tashqariga olib chiqib ketdi.

— Men hozir senga yordamlashib yuboraman, Asal! — dedi Boytemir uning orqasidan. U Asalning ketidan endi chiqmoqchi bo‘lib turgan edi, Samad yana o‘rnidan irg‘ib turdi. Uning mutlaqo uxlagisi yo‘q edi.

— Senga nima bo‘ldi, Samad! — deb mehribonlik bilan bosh chayqadi Boytemir.

— Amaki, siz to‘ppa-to‘g‘ri kinodan chiqdingizmi?— deb so‘radi o‘g‘lim jiddiy, oldimga yaqinroq kelib.

Men uning nima haqda gapirayotganini tushunmadim, Boytemir bo‘lsa xaxolab kulib yubordi.

— Voy, tentagey, — deb kulardi Boytemir bolaning yoniga cho‘kkalab o‘tirganicha. — Toza ichaklarni uzding-ku. Biz konga kino ko‘rgani borib turamiz! — dedi u menga murojaat qilib. — U ham biz bilan birga boradi.

— Ha, men kinodan chiqdim! — deb umumiy kulgiga qo‘shildim.

Ammo Samad qovog‘ini solib oldi-da:

— Yolg‘on! — dedi.

— Nega endi yolg‘on bo‘larkan?

— Bo‘lmasa, anov urishadigan qilichingiz qani?

— Uyga tashlab keldim...

— Menga ko‘rsatasizmi, amaki? Ertaga ko‘rsatasizmi?

— Xo‘p, xo‘p, ko‘rsataman. Qani, bu yoqqa kel-chi, sening oting nima, Samad-a, to‘g‘rimi?

— Samad. Sizning otingiz nima, amaki?

— Menikimi... — deya nafasim ichimga tushib ketdi.— Mening otim Ilyos amaki, — dedim zo‘r-bazo‘r.

Boytemir shoshib qoldi:

— Sizlar bu yerda gaplashib o‘tira turinglar, biz hozir choy qaynatib kelamiz. — U ostonada to‘xtadi. — Sen, Samad, borib yot, kech bo‘lib qoldi.

— Dada, yana ozgina o‘tira qolay! — deb yolvordi Samad.

— Ha, mayli! — deb rozi bo‘ldi Boytemir.

Samad oldimga keldi. Men uning qo‘llarini siladim: u menga o‘xshardi, juda o‘xshardi. Hatto qo‘llari ham, kulgisi ham xuddi menikiga o‘xshardi.

— Katta bo‘lganingda kim bo‘lasan? — deb so‘radim men qanday bo‘lmasin, o‘g‘limni gapga solmoqchi bolib.

— Shofyor bo‘laman.

— Mashinada yurishni yaxshi ko‘rasanmi?

— Judayam... Qo‘l ko‘tarsam, hech kim meni mashinasiga chiqarmaydi...

— Ertaga men seni o‘ynatib kelaman. Bo‘ptimi?

— Bo‘pti. Men sizga o‘zimning oshiqlarimni beraman! — U oshiqlarni olib kelish uchun narigi xonaga chopib kirib ketdi.

Deraza ortida samovar karnayidan o‘t chiqib turardi. Asal bilan Boytemir allanimalar haqida gaplashishardi. “Samadimizning nima deganini eshitganingdami, ichaging uzilardi”, — dedi Boytemir quvonch bilan tarasha yorayotib. Qiziq, Asal ham aytarli biron narsa bo‘lmagandek xotirjamgina javob berdi: “Ha! U shunaqa, nimani ko‘rsa, shuni gapiraveradi!”

Samad arxar terisidan yasalgan xaltachadagi oshiqlarini pishillab ko‘tarib keldi-da, oldimga sochib tashladi:

— Tanlab oling, amaki! — deb u rang-barang bo‘yoqlarga bo‘yalgan o‘z boyligini namoyish qila boshladi.

Men esdalik uchun bittasini olmoqchi bo‘ldim-u, ammo jur’at eta olmadim. Eshik ochilib, qaynagan samovarni ko‘tarib Boytemir kirdi. Uning ketidan Asal ko‘rindi. U choy damlaguncha, Boytemir bizning oldimizga yumaloq xontaxtani keltirib qo‘ydi-da, dasturxon yozdi. Biz Samad bilan oshiqlarni yig‘ishtirib, ularni yana xaltachaga solib qo‘ydik.

— O‘z bisotini ko‘z-ko‘z qilayapti, ah, maqtanchoq! — deb sevib tortqiladi Boytemir Samadning qulog‘idan.

Oradan sal o‘tmay biz samovar atrofida o‘tirib choy icha boshladik. Biz bir-birimizni go‘yo hech qachon ko‘rmagandek va bilmaydigandek o‘tirardik. Shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘zimizni xotirjam tutishga, kamroq gaplashishga tirishardik. Faqat Samadgina o‘zini erkin tutardi. U Boytemirning tizzasiga chiqib olib, pinjiga tiqilganicha boshini sarak-sarak qilib o‘ynardi.

— U-uh, doim mo‘ylovingiz odamni qitiqlaydi-ya, dada! — deb tipirchilardi u va o‘zi unga yopishib chakkasini mo‘yloviga tegizar edi.

— Ehtiyot bo‘l, choyga kuyib qolasan! — deb ogohlantirdi Boytemir.

Hali bu go‘dak atrofida o‘tirgan biz kattalarning har birimiz hozir o‘z o‘y-xayollarimiz bilan band ekanligimizni fahmlamas edi. Bizning taqdirimiz bugun favqulodda to‘qnashib qolishi kimning xayoliga kelibdi deysiz. Bularning hammasi nima bilan tugallanar ekan?..

Boshqa odamni "dada", deb erkalanayotgan o'z o'g'lim bilan yonma-yon o'tirish menga oson deysizmi? Visolida qanchalar azob va iztirob chekkanim Asal, mening aziz Asalim ro'paramda o'tirgan bo'lsa-yu, ko'zlariga tik qarashga jur'at eta olmasam. Qanday qilib bu yerga kelib qoldiykin u. Sevib qolib turmushga chiqdimikin? Go'yo men unga mutlaqo begona, mutlaqo notanish kishidek, u o'zini tanimaslikka solayotgan bo'lsa, men buni qayoqdan bilayin axir? Nahotki u mendan shu qadar nafratlangan bo'lsa? Boytemir-chi? Nahotki u mening aslida kim ekanligimni payqamayotgan bo'lsa? Samad ikkimiz bir-birimizga o'xshashimizni nahotki sezmayotgan bo'lsa? Nega u dovonda mashinani shatakka olganimizdagi uchrashuvimizni hatto eslamadi ham? Yo unutdimikin?..

Uyquga yotganimizda men o'zimni yanada og'irroq sezdim. Menga shu yerning o'ziga, kigiz ustiga o'rin solib berishdi. Men devorga qarab yotardim, chiroq piligi xiyol pasaytirilgan. Asal bo'lsa idish-tovoqlarni yig'ishtirmoqda edi.

— Asal! — deb chaqirdi Boytemir sekingina qo'shni xonaning qiya ochiq turgan eshigidan.

Asal uning oldiga bordi.

— Ko'ylagini yuvib qo'ysang bo'lardi, — dedi u.

Asal stuldan qonga belangan katak-katak ko'ylagimni oldi-da, yuva boshladi. Biroq shu zahotiyoq yuvishdan to'xtadi. Boytemir tomonga o'tgani eshitildi.

— Radiatorning suvini to'kib qo'ydilaringmi? — deb so'radi u shivirlab. — Tag'in muzlab qolmasin...

— To'kilgan, Kamol to'kib tashladi! — dedi Boytemir ham shivirlab. — Mashina deyarli lat yemagan... Ertalab yordamlashamiz...

Men esa mashina haqida o'ylamabman ham: na radiator va na motor ko'rinardi ko'zimga.

Asal ko'ylakni yuvib bo'lib, uni pechka tepasiga yoyar ekan, chuqur xo'rsinib qo'ydi va chiroqni o'chirib, chiqib ketdi.

Uyni qorong'ilik qopladi. Hammamizning ham uxlamay yotganimizni sezib yotardim. Har birimiz o'zimizcha yolg'iz o'y-xayollarimiz bilan edik. Boytemir o'g'li bilan bir karavotda yotibdi.

U nimalardir deb Samadni erkalar, uyqusida tipirchilab tepkilansa, ko‘rpani ustiga tortib yopib qo‘yardi; Asal goho-goho og‘ir xo‘rsinib qo‘yardi. Uning qorong‘ida xuddi yomg‘irda qolgan toshdek yiltirayotgan ko‘zlari menga ko‘rinib turardi... Ular balki yosh bilan to‘ladir. Nima haqda, kim haqida o‘ylayotganikin? Endi u bir emas, uch kishi haqida qayg‘urishi kerak edi... Ehtimol, u ham xuddi men singari bir-birimizni bog‘lab turuvchi o‘sha o‘tmish kunlarni, lazzatli va iztirobli damlarni xotiridan bir-bir o‘tkazayotgandir. Ammo endi uning visoliga yetolmayman, shuningdek, uning o‘y-fikrlarini ham bilolmayman. Keyingi yillar ichida Asalning o‘zi ham, ko‘zlari ham o‘zgarib ketgan edi... Endi bu ko‘zlar avvalgi, ishonch bilan boqib, mehr, soddadillik bilan porlab turuvchi g‘uborsiz ko‘zlar emas edi. Ular vazmin va jiddiylashgan edi. Biroq Asal men uchun hamon o‘sha dasht quchog‘ida yayrab o‘sgan sarvqomatligicha qolgan edi. Uning har bir xislat, xususiyat va xatti-harakatlari men uchun tanish va qadrdon edi. Bu esa bir alamimni ikki qilib, qalbimni o‘rtab tirnardi. Alamimdan yostiq burchagini tishlaganimcha g‘ing demay yotardim. Tonggacha mijja qoqmadim.

Derazadan ko‘kda suzib yurgan oy bulutlar orasidan yog‘du sochar, dam-badam o‘z jamolini ko‘rsatib qo‘yardi.

Erta tongda Asal bilan Boytemir xo‘jalik ishlari bilan hovliga chiqib ketganlarida men ham o‘rnimdan turdim. Jo‘nash kerak edi. Sekin odimlab borib Samadni o‘pdim-da, tezda xonadan chiqib ketdim.

Asal hovlida tosh o‘choqqa o‘rnatilgan katta qozonda suv isitmoqda edi. Boytemir o‘tin yorardi. Biz u bilan birga mashina tomon ketdik. Jimgina papiros chekishib borardik.

Mashina kechasi yo‘l chekkasidagi betonli ustunchalarga urilgan ekan. Ulardan ikkitasi tag-tugi bilan qo‘porilib yotardi. Mashinaning chirog‘i singan, qanoti va oldingi qismi pachaqlangan, g‘ildiragi bir tomonga xiyol qiyshayib ketgandi. Biz bularning hammasini lom va bolg‘a bilan ozmi-ko‘pmi tuzatdik. So‘ng motorni yurgizolmay uzoq vaqt azob chekdik. Motor dovonda muzlab qolgan edi. Karterni mash’al yoqib qizdirdik, keyin ikki kishilashib ruchkani aylantira boshladik. Yelkalarimiz to‘qnashib, kaftimiz ruchka dastasini aylantiraverib qizib ketdi, bir-birimizning

yuzimizga iliq nafasimiz urilardi, ikkalamiz ham bir ishni bajarar edik, ehtimol, o'y-xayolarimriz ham bir yerdan chiqar.

Motorning o't olishi juda qiyin bo'ldi. Ikkalamiz ham hansiray boshladik. Shu orada Asal ikki chelak issiq suv keltirdi va ularni jimgina oldimga qo'ydi-da, o'zini chetga olib turdi. Suvni radiatorga quydim. So'ngra yana Boytemir bilan birgalikda ruchkani bir-ikki aylantirib yuborgan edik, nihoyat motor ishlab ketdi. Men kabinaga o'tirdim. Motor notekis, uzilib-uzilib ishlardi. Svechalarni tekshirish uchun Boytemir kapot ostiga kirdi. Shu chog' paltochasining tugmalari qadalmagan Samad hansiraganicha chopqillab kelib qoldi va mashinaning atrofidan g'izillab chopa boshladi. Chunki u mashinaga minib sayr qilish ishtiyoqida edi. Asal uni tutib oldi-da, qo'lidan mahkam ushlab olgancha, kabinaning yoniga o'tib turdi. U menga ta'na qilgandek, shunaqa ham alam va achinish bilan termildiki, o'z gunohimni yuvish va ularni yana o'zimga qaytarish uchun shu damda lozim bo'lsa har narsa qilishga tayyor edim. Men kabinaning ochiq eshigidan engashib qaradim:

— Asal! O'g'limizni olib o'tir! O'tgan galgidek mashinaga o'tqazib olib ketaman, bir umrga olib ketaman! O'tir! — deb motor shovqini ostida yolvorardim unga.

Asal hech nima demadi, jiqqa yoshga to'lgan ko'zlarini jimgina chetga burib, "yo'q", degandek bosh chayqadi.

— O'tiraylik, oyi! — deya uning qo'lidan tortqiladi Samad. — O'ynab kelamiz!

U o'g'lini siltab tashladi va uni qo'lidan qo'ymay nariga yetaklab ketdi. U boshini quyi solgancha atrofga nazar tashlamay borardi. Samad esa orqaga tortqilar, ketgisi kelmasdi.

— Tayyor! — deb qichqirdi Boytemir kapotni yopib, keyin, asbob-uskunalarni menga uzatdi.

Yo'lga tushdim. Yana qo'lim rulda, yana yo'l, tog'-toshlar, mashina meni uchirib olib ketmoqda, uning men bilan qanchalik ishi bor...

Asal bilan o'g'limni dovonda ana shu yo'sinda topdim, biz shu xilda uchrashdik va ajrashdik. Chegaraga bora-borguncha va qaytishda butun yo'l bo'ylab o'ylab o'yimga yeta olmadim. Cheki-chegarasi yo'q o'y-xayollardan charchab ketdim... Endi bu yerlardan

boshim oqqan tomonga qarab bosh olib ketishim kerak edi, bu yerda qolishim mumkin emas edi.

Bunga men qat'iy qaror qildim, shu xayollar bilan orqaga qaytdim. Dovondan oshib o'tdim va yo'l uchastkasidan o'tib keta turib Samadni ko'rib qoldim. U yo'l yoqasida bir o'g'il bola va o'zidan biroz kattaroq bir qiz bola bilan o'ynab yurgan edi. Ular toshqo'rg'on o'ynashardi, ya'ni toshlardan hovlichalar va mollar uchun qo'ralar qurishmoqda edi. Ehtimol, ilgarilari ham ularni yo'l yoqasida ko'rgandirman-u, ammo taniy olmagandirman. Demak, deyarli har kuni o'g'ilchamning yonginasidan o'tib-qaytib yurganimni o'zim payqamay yurgan ekanman. Mashinani to'xtatdim.

— Samad! — deb chaqirdim men toychog'imni. Ko'rgim kelib ketdi. Bolalar menga qarab chopqillab kelishdi.

— Amaki, bizni mashinada o'ynatgani keldingiz-mi?— deb oldimga chopib keldi Samad.

— Ha, ozgina sayr qildirmoqchiman sizlarni! — dedim men.

Bolalar chuvillashib, hammasi birdaniga kabinaga chiqishdi.

— Bu bizning tanish amakimiz, — deb maqtanardi Samad o'rtoqlariga.

Men ularni biroz sayr qildirgandek bo'ldim. Ammo shu bilan o'zimni shu qadar quvnoq va shu qadar baxtiyor his qilar edimki, bolalarning o'zlari ham bunchalik huzur qilmagan bo'lsalar kerak. So'ngra ularni mashinadan tushirdim.

— Qani endi uylaringga chopinglar! — Bolalar chopqillab ketishdi. Men o'g'limni to'xtatdim:

— Shoshmay tur, Samad, senga ozroq gapim bor! — deb uni qo'limga olib, boshim uzra yuqoriga ko'tardim, yuziga uzoq tikilib turdim, so'ngra ko'ksimga bosib, o'pib-o'pib oldim-da, pastga tushirdim.

— Qilich qani, olib keldingizmi, amaki? — dedi Samad esiga tushib qolib.

— E, yodimdan ko'tarilib ketibdi-ku, o'g'lim, endi kelasi safar olib kelaman! — deb va'da berdim unga.

— Endi esingizdan chiqarmaysiz-a, amaki? Biz boyagi joyda o'ynab yuramiz.

— Yaxshi, qani endi tezroq chop!

Avtobazada duradgorlik ustaxonasida yog'ochdan uchta o'yinchoq qilich yasab, o'zim bilan birga olib yurdim.

Bolalar haqiqatan ham meni kutib turishgan ekan. Men ularni mashinada yana biroz aylantirdim. O'g'lim va uning o'rtoqlari bilan do'stligimiz ana shunday boshlandi. Ular menga tez ko'nikib qolishdi. Uzoqdan ko'zlari tushishi bilanoq bir-biridan o'zishib chopib qolishardi.

— Mashina, mashinamiz kelyapti! — deb qichqirishardi.

Menga yana jon kirib, odambashara bo'lib qoldim. Yo'lda ketayotib ruhim tetik, dimog'im chog' ketar va o'zim bilan birga qandaydir noyob his-tuyg'ularni eltib borardim. Yo'l yoqasida meni o'g'lim kutib turganini bilardim. Loaqal bir-ikki minut bo'lsa-da, u bilan yonma-yon o'tirish men uchun katta baxt-ku. Endi butun fikr-u xayolim qanday bo'lsa ham o'g'limning oldiga o'z vaqtida yetib borish tashvishi bilan band edi. Men hamma vaqt dovondan kunduzi o'tishni mo'ljallardim. Iliq bahor kunlari edi, bolalar doim ochiq dalada o'ynab yurishardi. Shuning uchun ham men ularni ko'pincha yo'l yoqasida uchratardim. Azbaroyi shu uchungina yashayotgandek va ishlayotgandek tuyulardi menga: o'zimda yo'q baxtiyor edim... Ammo ba'zan yuragim qo'rquvdan orqasiga tortib ketardi. U yoqda yo'l uchastkasidagilar bolalarni mashinada o'ynatib yurganligimni bilishadimi-yo'qmi, bilmadim-u, ammo o'g'limning men bilan uchrashishini man etishlari, uni yo'l yoqasiga chiqarmay qo'yishlari mumkin edi. Men bundan juda qo'rqardim. Asal bilan Boytemirdan bunday qilmasliklarini, loaqal mana shu oniy uchrashuvlardan meni mahrum etmasliklarini dilimdan yalinib-yolvorib so'rardim. Ammo bir kuni xuddi shunday bo'ldi...

Birinchi May bayrami yaqinlashib kelmoqda edi, o'g'limga sovg'a qilmoqchi bo'lib, unga o'ziyurar mashina — xuddi menikiga o'xshash yuk mashinachasi sotib oldim.

O'sha kuni avtobazada o'ralashib qolib, yo'lga kechroq chiqqanim uchun juda shoshilardim. Ehtimol, shuning uchun hammi, ko'nglim allanarsani oldindan sezayotgandek g'ash tortayotgan edi, bekordan bekor hayajonlanib, xavotirlanardim. Yo'l uchastkasiga yaqinlashib borar ekanman, Samadning qanchalik xursand bo'lishini ko'z oldimga keltirib, o'rog'liq o'yinchoq mashinani

yonimga solib qo‘ydim. Garchi uning bundan ko‘ra yaxshiroq o‘yinchoqlari bo‘lsa ham, bu alohida sovg‘a — shofyor bo‘lishni orzu qilib yurgan jajjigina bolaga yo‘lovchi tanish shofyorning sovg‘asi edi. Ammo bu gal Samadni uchratolmadim. Bolalar usiz chopib kelishdi... Men kabinadan chiqdim:

— Samad qani?

— Uyda, kasal bo‘lib qoldi, — dedi bir bola.

— Kasal bo‘lib qoldi? Boshi og‘riyaptimi yoki boshqa yerimi?

— Yo‘q, u kasal emas! — dedi bilag‘onlik bilan qizcha. — Oyisi bu yoqqa yubormayapti!

— Nega?

— Bilmayman. Borma, deyapti.

Tarvuzim qo‘ltig‘imdan tushib, kayfiyatim buzildi. Mana shu bilan tamom, vassalom!

— Ma, olib borib ber, — deb o‘rog‘liq o‘yinchoqni haligi bolaga uzatdim, biroq shu zahotiyoq fikrimdan qaytdim. — Yo‘q, qo‘ya qol. — O‘yinchoqni qaytib olib, boshimni quyi solganimcha mashina tomon ketdim.

— Nega amakimiz bizni mashinaga chiqarmadi? — deb so‘radi bola opasidan.

— Kasal bo‘lib qoldi, — dedi opasi qovog‘ini solib.

Ha, qizcha to‘g‘ri topgandi. Bu xabar men uchun har qanday kasallikdan ham ortiq edi. Butun yo‘l davomida o‘ylanib bordim... Nahotki Asal mendan shu daraja ko‘ngli qolgan bo‘lsa, nahotki u menga nisbatan shu qadar bag‘ritoshlik qilsa? Men qanchalik yomon bo‘lmay, nahotki uning zarracha ichi achimasa! Yo‘q, ishongim kelmasdi... Asalning shu darajaga borishi mumkin emas, bu yerda boshqa bir gap bor... Xo‘sh, nima bor? Men qayoqdan bilay... Shu chog‘, o‘rtog‘i aytganidek, o‘g‘limning biroz tobi qochib qolgan bo‘lsa kerak, deb o‘zimni o‘zim ishontirishga urindim. Nega unga ishonmasligim kerak ekan? Axir haqiqatan ham shunday bo‘lishi mumkin-ku. Men bunga o‘zimni shu darajada ishontirib qo‘ygan edimki, keyin bu fikrimdan o‘zim ham cho‘chib ketdim. O‘g‘limning isitmalab va alahsirab, ilondek to‘lg‘anib yotgani bir-bir ko‘z oldimdan o‘taverdi... Balki biron yordam zarur bo‘lib qolar, dori-darmon keltirish yoki kasalxonaga olib borish

kerak bo‘lib qolar. Axir ular shaharda emas, dovonda yashashadi! Juda qiynalib ketdim. Orqaga qaytishga shoshildim, qanday tadbir-chora qo‘llash mumkin ekanligini tasavvur eta olmasdim-u, biroq xayolimdan birgina narsa o‘tardi: tezroq yetib borish-u, agar, o‘g‘lim sog‘-salomat bo‘lsa, ko‘rib ko‘ngilni joyiga tushirish. Men uni uchratishimga ishonardim, buni qalbim aytib turgan edi. Xuddi qasddan qilgandek, bakda yonilg‘i tamom bo‘lib qoldi, mashinani dovondagi benzokolonka oldida to‘xtatishga to‘g‘ri keldi.

* * *

Hikoyasining shu yeriga kelganda hamrohim Ilyos jimib qoldi. Qizib ketgan yuzlarini kafti bilan ishqalab, chuqur xo‘rsinib qo‘ydi-da, qiya ochilib turgan vagon derazasini oxirigacha surib, bilmadim, nechanchi marta ekan, yana cheka boshladi.

Vaqt yarim kechadan oshgan edi. Bizdan boshqa yo‘lovchilarning hammasi uxlab qolishgan bo‘lsa kerak. G‘ildiraklar relslarga “taq-taq” urilib, o‘zlarining tuganmas qo‘shig‘ini kuylab borardi. Derazalar ortidan yozgi tun pardasi g‘izillab o‘tib turar, stansiyalarning yer bag‘irlab yonib turgan chiroqlari milt-milt etib o‘tardi. Parovoz yelib borayotib qattiq chinqirdi.

— Xuddi mana shu paytda siz menga uchragan edingiz, og‘a, men esa sizning iltimosingizni bajo keltirolmagan edim. Endi sizga hammasi ayon bo‘lgan bo‘lsa kerak, — deb hikoyasini davom ettirarkan, xomushgina jilmayib qo‘ydi qo‘shnim. — Siz benzokolonka oldida qolgan edingiz, so‘ng “Pobeda”da mendan o‘zib ketdinglar. Buni ko‘rgan edim. Ayni shu payt dovon etagiga yomg‘ir yog‘ib o‘tgandi...

Ha, mashinani qattiq hayajon ichida haydab borardim. Nihoyat qalb sezgilarim meni aldamagan edi. Samad yo‘l yoqasida kutib turardi. U mashinani ko‘rishi bilanoq yo‘lni kesib chopqillab qoldi:

— Amaki! Shofyor amaki!..

Demak, o‘g‘ilcham sog‘-salomat! Eh, o‘zimda yo‘q suyunib ketdim, quvonchim ichimga sig‘masdi!

Men mashinani shartta to‘xtatib, kabinadan sakrab tushib, o‘g‘limga peshvoz yugurdim.

— Nima bo‘ldi, og‘ayni, kasal bo‘lib qoldingmi?

— Yo‘q, oyim yubormadi. Uning mashinasiga chiqmagin, deydi. Men yigladim, — deb arz qilardi Samad.

— Xo‘sh, hozir qanday qilib kelding?

— Dadam, agar birov bolalarni mashinada o‘ynataman desa, qo‘yaver, o‘ynataversin, dedi.

— Rostdanmi?

— Men shofyor bo‘laman, dedim...

— Albatta shofyor bo‘lasan, bo‘lganda ham qanday de! Bilasanmi, men senga nima olib keldim? — Men o‘yinchoq mashinani oldim. — Bunga qara, o‘ziyurar “ZIL”cha, kichkintoy shofyorlarga juda bop mashinada bu!

Bola og‘zi qulog‘iga yetib jilmaydi.

— Men doim, har doim siz bilan birga mashinada yuraman-a, amaki? — deb yolvoruvchi ko‘zlari bilan termildi menga. Ko‘nglim buzilib ketdi.

— Albatta, har doim! — deb ishontirdim uni.— Istasang, Birinchi may bayramida shaharga birga boramiz, mashinani bayroqchalar bilan yasatamiz, keyin seni yana olib kelib qo‘yaman. — Nega men unga bu so‘zlarni aytganligimni, bunga qanchalik haqqim borligini va ayniqsa, o‘z so‘zlarimga nega birdan o‘zim ham ishonib qolganligimni hozir tushuntirish qiyin edi. Bu ham yetmagandek, yana so‘zlarimga erk berib gapiraverdim. — Agar yoqsa butunlay menikida qolasan! — dedim o‘g‘limga juda jiddiy suratda. — Biz kabinada yashaymiz, men seni doim o‘zim bilan birga olib yuraman. Bo‘ptimi?

— Bo‘pti! — jon-jon deb rozi bo‘ldi Samad. — Mashinada yashaymiz! Ketdik, amaki, hozir ketamiz!..

Ba’zan kattalar ham bolalik qilib qo‘yadi. Biz kabinaga o‘tirdik. Men ishonqiramay motorni yurgizdim, startyorni bosdim. Samad juda xursand edi: meni tortqilar, erkalanar, o‘rindiqda irg‘ishlardi. Mashina qo‘zg‘aldi. Samadning quvonchi ichiga sig‘masdi, tinmay kulardi, rulni, qarshisidagi knopkalarni ko‘rsatib allanimalar deb bijirlab gapirardi. Unga qo‘shilib men ham xursand bo‘lib ketdim. Ammo birdan es-hushimni yig‘ib oldim. Butun vujudimni issiq alanga qoplab oldi; nima qilyapman o‘zi?! Mashinaga tormoz berdim. Ammo Samad to‘xtatishga ko‘nmadi:

— Tezroq, amaki, tezroq haydang! — derdi u. Bolaning iltijo bilan baxtiyor boqishlarini qanday qilib rad eta olardim. Tezlikni yanada oshirdim. Endigina g'izillab uchib borayotgan edikki, yo'lga gudron yotqizib yurgan greyder ko'rinib qoldi. Greyder burildi-da, smolali suyuqlikni yo'lga yotqizganicha bizga tomon kelaverdi, uning ketidan esa suyuqliklar solingan ulkan qozonlar orqasida Boytemir turgan ekan. U grabarka bilan yo'lga yotqizilgan gudronni tekislamoqda edi. Men dovdirab qoldim. Mashinani to'xtatmoqchi bo'ldim-u, ammo kechikkan edim: Samad bilan allaqancha yerga kelib qolgan edik. Men boshimni pastroq egdim-da, jon-jahdim bilan gazni bosdim. Boytemir hech narsani sezmay qoldi. U boshini ko'tarmay ishlab yotgan edi: bu yerdan o'tib turgan mashinalar kam deysizmi? Qaysi biriga ham qarardi! Biroq Samad uni ko'rib qoldi:

— Ana dadam! Amaki, keling, dadamni ham chiqarib olamiz, maylimi? To'xtating, dadamni chaqiraman!

Men indamasdim. Endi to'xtatishning iloji yo'q edi, unga nima deyman axir? Samad birdan orqasiga qayrilib qaradi, qo'rqib ketdi-da, qichqirib yig'lab yubordi:

— Dadamga boraman! To'xtat, dadamga boraman! To'xtat, tushaman! O-o-yi-i!..

Muyulishdagi qoya orqasiga o'tib mashinani to'xtatdim. O'g'limni ovutishga urina boshladim:

— Yig'lama, Samad, yiglama, qo'y! Hozir olib borib qo'yaman. Lekin yig'lama!

Ammo qo'rqib ketgan bola hech narsaga quloq solmasdi.

— Yo'q, tushaman! Dadamga boraman! Och! — deb kabina eshigiga yopishib taqillata boshladi. — Och, dadamga boraman hozir! Och!

Ana xolos, juda g'alati ish bo'ldi-ku.

— Yig'lamagin-da, axir! — deb yalinib-yolvorib, uni ko'ndirishga urinardim. — Hozir ochaman, yig'lamasang bo'lgani! Dadangning oldiga o'zim olib borib qo'yaman! Qani, tush-chi, ketdik!

Samad yerga sakrab tushdi-da, yig'lagancha orqaga chopib ketdi. Men uni ushlab qoldim:

— Shoshma! Ko'zingni art. Yig'lama. Jon o'g'lim, yig'lamagin! Mashinang qoldi-ku, olmaysanmi? Mana qara! — Men shoshib o'yinchoqni oldim-da, qaltiroq qo'llarim bilan murvatini buradim. — Qara, senga qarab chopib ketyapti, qani tutib ol-chi! — Mashinacha yo'lda g'izillab yurib ketdi va toshga urildi-da, yo'l yoqasidagi ariqqa chirpirak bo'lib uchib tushdi.

— Kerak emas! — dedi u va yana battarroq yig'lab, orqasiga qaramay qochib ketdi.

Men bo'lsam dong qotib qoldim. Tomog'imga qaynoq dumaloq bir narsa qadalgandek bo'ldi. Men o'g'limga yetib olish uchun yana orqasidan chopdim:

— To'xtab tur, yig'lama, Samad! To'xta, men sening... men, men sening, o'zing bilasan-ku! — Biroq davomini aytishga tilim kelmasdi...

Samad orqasiga qayrilib qaramay chopib borardi, u muyulishdan o'tib ko'zdan yo'qoldi. Men qoyagacha chopib borib, qochib ketayotgan o'g'limning orqasidan qarab qoldim.

Uning yo'lda ishlayotgan Boytemir oldiga yugurib borib, unga o'zini tashlaganini kuzatib turdim. Boytemir Samadning oldida cho'qqayib o'tirdi-da, uni quchoqlab bag'riga bosdi. Bola ham men tomonga qo'rqib, xavfsirab qarab, uning bo'ynidan quchoqlab oldi.

Boytemir grabarkasini yelkasiga tashlab, Samadning qo'lidan ushladi. Ular yo'l bo'ylab uzun-qisqa yetaklashib ketishardi.

Men qoyaga suyanganimcha uzoq turdim, so'ngra orqaga qaytdim. O'yinchoq mashinacha oldida to'xtadim. U ariqda to'ntarilib yotardi. Ko'z yoshlarim yuzimdan oqib tusha boshladi. "Mana, ishning pachavasi chiqdi!" — dedim mashinamga, uning kapotini siypalab. Motorning issiq tafti yuzimga gup etib urildi... Endi o'g'lim bilan so'nggi uchrashuvimizning shohidi bo'lgan mashinamga nisbatan ham qandaydir mehr-muhabbatim oshib ketgan edi...

* * *

Ilyos o'rnidan turib, eshikka tomon yurdi.

— Biroz sof havodan nafas olay, — dedi u.

Men kupeda qoldim. Yorishib kelayotgan sahar osmonining bir parchasi deraza ortidan oqarib, tebranib o'tib borardi. G'ira-shi-

rada simyog'ochlar lip-lip o'tib turardi. Chiroqni o'chirsa ham bo'lardi.

Men Ilyos bilmagan, ammo menga ayon bo'lgan narsalarni unga aytib bersammikin, yo'qmikin, deb chalqancha o'ylab yotardim. Ammo u hadeganda kupega qaytib kelavermadi. "Mayli, dam olvolsin, ertaga aytarman", degan qarorga keldim. Aytmay yaxshi qilgan ekanman, chunki ertasiga yana o'ylab ko'rib, bu fikrimdan qaytdim.

Men yo'l masteri Boytemir bilan deyarli o'sha kezlarda — Ilyos Asal bilan o'g'lining dovonda yashayotganligidan xabar topgan chog'larda tanishgan edim. Pomirda Qirg'iziston yo'l ishchilarining o'zaro tekshirish va tajriba almashish bo'yicha delegatsiyasini kutishayotgan edi. Shu munosabat bilan Tojikiston respublika gazetasi qirg'izistonlik tog' yo'li ishchilari haqida ocherk yozib berishimizni iltimos qilgan edi.

Delegatsiya orasida eng yaxshi yo'l masterlaridan biri Boytemir Qulov ham bor edi.

Men Boytemir bilan tanishish maqsadida Do'langa keldim.

Biz u bilan qo'qqisdan uchrashib qoldik va bu uchrashuv men uchun juda muvaffaqiyatli bo'ldi. Dovonga yetay-yetay deb qolganimizda avtobusimizni qo'lida qizil bayroqcha tutgan ishchi to'xtatdi. Bilsak, yo'lda hozirgina tog' o'pirilishi yuz berib, yo'l tuzatuvchilar uni tozalayotgan ekan. Men avtobusdan chiqib, o'pirilish yuz bergan joyga qarab ketdim. Tog' tepasida pastga qarab tosh aralash yer ko'chib, yo'lga qulab tushibdi-da, o'zi bilan birga yo'lning bir chekkasini to'sib qo'yiigan beton ustunchalarni ham qo'shib tik qiyalik bo'ylab jarlikka qarab o'pirib ketibdi. Yo'lning bu qismi taxta qoliplar yordamida qaytadan tiklanayotgan edi. Buldozer uyilib qolgan tuproqni pastlikka surib tushirardi. Buldozer yurolmaydigan joylarni esa ishchilar belkuraklar bilan tozalab, shibbalashardi. Brezent plash va kirza etik kiyib olgan kishi buldozer bilan yonma-yon yurib, traktorchiga yo'l-yo'riq ko'rsatmoqda edi:

— Xiyol chaproqqa bur! Yana biroz ichkariga! Taxta qoliplar ustidan hayda! Ha, shunday! To'xta! Orqaga!..

Yo'l deyarli tozalab bo'lingan edi. Shofyorlar ikkala tomondan tinmay signal berishib, soqchi ishchilarni so'kib, yo'lni ochishni

talab qilishardi, ammo plashli kishi bularga parvo qilmasdi. U buldozerni mo'ljallangan yerdan yurishga va qoliplar ichidagi tuproqni yaxshilab shibbalashga qayta-qayta majbur etardi. "Boytemir deganlari shu bo'lsa kerak. U o'z ishining ko'zini bilarkan!" — degan qarorga keldim men. Ha, yanglishmabman, bu ayni shu kishining o'zi ekan. Nihoyat, yo'l ochilib, mashinalar harakatga tushib qolishdi.

— Siz nima qilib turibsiz, avtobusingiz ketib qoldi-ku? — dedi menga Boytemir.

— Men siz bilan uchrashgani keldim.

Boytemir taajjublanmadi ham. Men bilan oddiygina qo'limni mahkam qisib ko'rishdi.

— Mehmondan qochmaymiz, xursand bo'lamiz.

— Sizda ishim bor edi, bake,— dedim uni hurmatlab. O'zimni ham tanitdim. — Yo'l tuzatuvchilarimizning Tojikistonga borishidan sizning xabaringiz bormi?

— Ha, eshituvdim.

— Gap bunday. Pomirga ketishingiz oldidan siz bilan gaplashib olmoqchi edim.

Men kelishdan maqsadimni asta-sekin tushuntirar ekanman, borgan sayin Boytemirning qovog'i osilib, dag'al va qo'ng'ir mo'ylovini o'ychan silay boshladi.

— Kelganingiz-ku juda yaxshi bo'libdi, — dedi u menga, — lekin Pomirga men bormayman, mening xususimda yozib o'tirishingizning hojati ham yo'q.

— Sababini bilsak bo'ladimi? Ishlar ko'pmi? Yoki uyda biron kori hol bo'ldimi?

— Ish ham yetarli, har qalay yo'l-da, o'zingiz ko'rib turibsiz. Uyda deysizmi? — u papiros ola turib biroz jimib qoldi. — Uyda ham... albatta, hamma oilalarda bo'ladiganidek ozmi-ko'pmi ishlar bor... Ammo Pomirga bormayman.

Men unga o'xshagan yo'l tuzatuvchilarning delegatsiya sostavida borishining qanchalik muhim ekanligini tushuntirishga va ko'ndirishga kirishdim. Ammo Boytemir ko'proq hurmat yuzasidangina menga quloq solar edi, men uni har qancha tashviqot qilsam ham baribir ko'ndira olmadim.

Men juda xafa bo'ldim va birinchi galda o'zimdan o'pkaladim. Jurnalistlik sezgirligim bu safar ish bermadi, chunki men unga to'g'ri yondasholmagandim. Men dovondan redaksiyaning topshirig'ini ham, qo'shni respublika gazetasining iltimosini ham bajara olmay quppa-quruq ketadiganga o'xshab qoldim.

— Xo'p, mayli, bake, kechirasiz, endi men ketay. Hozir biror yo'lovchi mashina kelib qolar.

Boytemir menga osoyishta va sergak ko'zlarini qadab, diqqat bilan tikildi-da, miyig'ida kulib qo'ydi.

— Shaharlik qirg'izlar urf-odatlarimizni unutib qo'yyaptilar-da. Mening uyim, oilam, dasturxonim va tunaydigan joyim bor. Meni deb kelgan ekansiz, yo'ldan qaytmasdan, bugun uyimga tushib, ertaga ketarsiz. Yuring, men sizni xotinim va o'g'limning oldiga qoldirib qaytay: ko'nglingizga olmaysiz, albatta. Qorong'i tushmasdan yo'lni bir aylanib chiqishim kerak. Tezda qaytaman. Ishimiz shunaqa...

— Bake! — deb to'xtatdim uni. — Men siz bilan birga yo'lni aylanib chiqa qolay.

Boytemir mening shaharlik qiyofamga bir nazar tashlab oldi-da, ayyorona ko'z qisib qo'ydi:

— Qalay bo'larkun, men bilan birga kezib yurishingiz sizga noqulay bo'lmasmikin? Masofa uzoq, buning ustiga yo'l ham yaxshi emas.

— Mayli, hechqisi yo'q, — deb qat'iy turib oldim men.

Shunday qilib, biz yo'lga tushdik, har bir ko'prik va muyulish oldida, o'pirilgan joylar va osilib turgan qoyalar qarshisida yo'l-yo'lakay to'xtab, ularni ko'zdan kechirib borardik. Bularning hammasi yo'l masterining ziyrak va o'tkir nazaridan o'tardi. Biz o'z-o'zidan gapga kirishib ketdik, albatta. Hali-haligacha nima uchun, qaysi so'zim bilan, nimam bilan va qay yo'sinda Boytemirning ishonchini qozonganligimni o'zim ham bilolmayman. Azbaroyi shu ishonchi tufayli u menga o'z taqdiri haqida va oilasining taqdiri haqidagi qissani so'zlab berdi.

Faqat endigina, Ilyosning hikoyasini oxiriga qadar tinglab bo'lgach, jurnalist sifatida omadim juda o'ngidan kelganini tushundim. Zohiran xotirjam va osoyishta ko'ringan Boytemir o'sha

kunlari o'zi bilan g'am-g'ussa, tashvish va o'y-xayollarning ulkan yukini ko'tarib yurar edi. Qandaydir, tasodifan, ko'nglini yozish uchundir, Boytemir bir-ikki og'iz aytib yubordi-yu, keyin gapini to'xtata olmay, qalbidagi dard-hasratlari qo'zg'alib, daryo kabi oshib-toshib ketdi...

YO'L MASTERINING HIKOYASI

Mana siz, nega Pomirga borgingiz yo'q, deb so'radingiz. O'zim pomirlik qirg'izman. Tug'ulgan elim Pomir bo'lsa ham men bu yoqlarda, Tyan-Shanda yuribman.

Juda yoshlik chog'larimdanoq Pomir yo'l qurilishida ishlay boshladim. U yoqqa komsomol chaqirig'i bilan borgan edim. Qurulish xalq qurilishi edi, mexanizmlar yetishmasdi, ish qanchalik og'ir bo'lmasin, biz, ayniqsa yoshlar, ishtiyoq bilan, g'ayrat va shijoat bilan ishlardik. G'ayrat ko'rsatmay bo'larmidi: asrlar bo'yi inson qadami yetmagan Pomirga yo'l solinyapti-ya! Men zarbdorlar qatoriga o'tib oldim, dam-badam mukofot va in'omlar olib turardim. Buni maqtanib emas, shunchaki kezi kelgani uchun aytyapman.

U yerda, qurilishda men bir qizni uchratib, uni jon-dilimdan sevib qoldim. O'zi ham juda chiroyli, aqlli qiz bo'lib, qurilishga ovuldan kelgan edi; bu esa o'sha paytlarda oddiy qirg'iz qizi uchun katta qahramonlik edi. U yog'ini surishtirganda, o'zingizdan qolar gap yo'q, hatto hozir ham qizlarning ishlab chiqarishga borib ishlashlari unchalik oson emas — bunga urf-odatlarimiz to'sqinlik qiladi. Gulbara bilan tanishganimizga bir yilcha bo'ldi. Yo'l qurilishi oxirlab qolgan edi. Yo'lni ishga solib yuborish uchun o'z kadrlarimiz bo'lishi zarur edi. Yo'l qurilishi ishning bir tomoni, uni birgalashib, umumiy kuch bilan bajara olish mumkin, shuning bilan birga, unga ko'z-quloq bo'lib, nazorat ham qilib turish kerakda. Bizda Husainov degan bir yosh injener bor edi, u hozir ham yo'l sohasida ishlaydi, ministr bo'lib xizmat qilmoqda. Biz u bilan do'stlashib qoldik. Menga yo'l ishlari kurslariga borib o'qishga maslahat bergan ham shu kishi bo'ldi. Men o'qishni bitirib kelgunimcha Gulbara kutib turolmas, uni ovulga olib ketib qolishar, deb o'ylagan edim, yo'q, u qaytishimni kutdi. Nihoyat birga tur-

mush qurib, o'sha yerda, yo'l uchastkasida qolib ishlay boshladik. Biz juda ahil va bir-birimizga mehribon edik... Shuni ham aytish kerakki, ayniqsa, tog' va dovonlarda yashovchi yo'l tuzatuvchilar uchun mustahkam oila — yaxshi xotin osh-nondek zarur. Men buni keyinroq o'z hayotimda sinab ko'rdim. Agar men o'z ishimni bir umrga jon-dilimdan sevib qolgan ekanman, bunda xotinimning xizmati ham oz emas. Biz qiz ko'rdik, keyin ikkinchisi dunyoga keldi, xuddi shu kezlarda to'satdan urush boshlanib qoldi.

Pomir yo'li sharros quyib bergan jaladan keyingi daryo kabi chayqalib, to'lqinlanib ketdi. Butun xalq ana shu daryo singari pastga tomon oqa boshladi — ular armiyaga ketayotgan edi.

Nihoyat menga ham navbat keldi. Ertalab hammamiz boshlashib uydan yo'l yoqasiga chiqdik. Kichkina qizchamni qo'limda ko'tarib borardim, kattasi esa barimdan ushlab olgancha yonma-yon borardi. Gulbaram, bechora Gulbaram! Uning qo'lida mening safar xaltam, o'zini dadil tutishga va meni ham ovutib, tinchitishga urinardi. Ammo kimsasiz tog'-u toshlardagi yo'l uchastkasida ikki yosh bola-yu, yana xuddi o'ziga o'xshash ikki qo'shni ayol bilan qolish unga naqadar og'ir ekanligini butun qalbimdan sezib turardim. Men ularni ovulga: qarindosh-urug'larim oldiga jo'natmoqchi bo'ldim, ammo Gulbara istamadi. Kunimizni bir amallab o'tkazarmiz, seni kutamiz, yo'lni ham qarovsiz qoldirib bo'lmaydi-ku, axir, derdi u. Men rafiqam va farzandlarim bilan so'nggi marta yo'l yoqasida turib xayrlashdim. Biz Gulbara bilan u vaqtda hali juda yosh, hayotga endigina qadam qo'ygan edik...

Men sapyorlar batalyoniga tushdim. Moskva ostonalaridagi ko'pgina tankka qarshi qurilgan to'siqlarga mening ham qo'lim tekkan. Keyin esa Don va Visla daryolarini kechib o'tib, Dunayga qarab ketdik. Urush maydonlarida biz qanchadan qancha yo'llar, kechuv joylari, ko'priklar barpo etdik. Qilgan ishlarimizni sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi! Ba'zan shunday paytlar ham bo'lardiki, goh muzday suvda titrab-qaltiraysan, goh tutun va olov ichida yonasan, atrofingda snaryadlar betinim portlaydi, kechuv joylarni ostin-ustun qiladi, qanchadan qancha odamlar qiriladi, tinkamadoring qurib, o'lishingga ham ming marta rozi bo'lasan. Biroq shunday paytlarda tog'-toshlarda yashab, xuddi Xizrni yo'qlagan-

dek meni intizorlik bilan kutayotgan bola-chaqamni eslasam va Pomirdek joydan bu yerda, ko'prik ostida bekordan bekorga o'lib ketgani kelmaganimni o'ylasam, kuch-qudratim shu qadar ortib ketardiki, bir-biridan ajralib ketayotgan simlarni hatto tishlarim bilan burardim, hayotdan voz kechgim, taslim bo'lgim kelmasdi. Ana shu kuch bilan Berlin ostonalarigacha yetib bordim.

Xotinim tez-tez xat yozib turardi, yaxshiyamki, pochta ularning yonginasidagi yo'ldan o'tardi. U hamma narsa haqida, shu jumladan, yo'l haqida ham batafsil yozardi — u mening o'rnimga master bo'lib qolgan edi. Unga juda og'ir ekanligini bilardim: yo'l ham uncha-muncha yo'llardan emas, Pomirda-ya! Buning ustiga, qo'shnilar ham duch kelgan tomonga qarab ko'chib ketishibdi.

Qirq beshinchi yilning bahoriga kelib to'satdan xat kelmay qo'ydi. Front pochtasida har xil hodisalar bo'lishi mumkin-ku, deb o'ylab, o'zimni o'zim ovutardim. Kunlardan birida meni polk shtabiga chaqirib qolishdi. Xo'sh, gap shunaqa, starshina, urushib bo'lding, yaxshi jang qilding, tashakkur va mukofotlar ham olding. Endi uyingga qaytasan, u yerda sen hozir ko'proq keraksan. Ammo birinchi navbatda harbiy komissariatga kir, hujjatlaringni topshir, keyin uyingga jo'na... Men kutilmagan bu xabardan quvonib ketdim, albatta. Hatto uyga telegramma ham yubordim.

Men qadrdon joylarimga yetib keldim. Harbiy komissariatga esa kirib o'tirmadim, ulguraman hali, qayoqqa qochib ketardim! Uyga! Tezroq uyga yetib boray! Yo'lovchi polutorka mashina uchrab qoldi, men unda Pomir yo'li bo'ylab jo'nab ketdim.

Qani endi qanotim bo'lsa-yu, uchib borsam, frontdagi "Studebekker"larda yurib o'rganib qolibman, kabinaga engashib shofyorga qichqirardim:

— Tezroq hayda, oshna, shaldiroq aravangni muncha ayamasang! Uyimga ketyapman!

Mana, yaqinlashib ham qoldim. Muyulishdan o'tish bilan mening uchastkam. Sabr-toqatim chidamadi. Mashinaning yurib ketayotganiga qaramay, sakrab tushdim-da, safar xaltamni yelkamga tashlab, yugurib ketdim. Shunday qilsam tezroq yetib boraman, deb o'yladim. Chopyapman, chopyapman, muyulishdan ham o'tdim... O'tdim-u, hech narsani taniyolmadim. Go'yo hamma-hammasi

o‘z joy-joyida turgandek: tog‘lar ham o‘z o‘rnida, yo‘l ham o‘sha, ammo na uy-joy, na hovli va na biron tirik jon zoti ko‘rinardi. Faqat tosh uyumlarigina qalashib yotardi. Bizning hovlimiz xiyol chetroq-da, naq tog‘ning tagginasida edi. Tog‘ etagidagi joylar juda tor edi. Toqqa ko‘zim tushdi-yu, darhol dong qotib angrayib qoldim. Balandlikdan qor qatlari ko‘chib, o‘zi bilan birga yo‘lda uchragan hamma narsani tep-tekis qilib supurib ketgan, go‘yo o‘tkir tirnoqli temir panjalari bilan tog‘ yonbag‘irlarini qo‘porib, pastlikka ag‘anatib uloqtirgan-u chuqur va ulkan jarlikning sahnini qo‘sh qo‘shgandek ag‘dar-to‘ntar qilib tashlagan edi. Xotinim o‘zining so‘nggi xatida juda qalin qor tushganini, so‘ngra kutilmaganda yomg‘ir yog‘a boshlaganini yozgan edi. Demak, qor uyumini qulamasidan ertaroq portlatib, pastga qulatib yuborish zarur edi, biroq bu ayol kishining qo‘lidan kelarmidi.

Ana shunday qilib, oilam bilan ham uchrashdim. Ming bor o‘lim bilan yuzma-yuz kelib, tiriklayin do‘zaxga tushib qaytsam-u, bu yerda bola-chaqamdan nom-nishon bo‘lmasa. Tinka-madorim qurib, qotib turardim. Tog‘-toshlarni larzaga keltirib hayqirgim, dod degim kelardi-yu, nafasim bo‘g‘zimga tiqilib, ovozim chiqmasdi. Go‘yo butun vujudim toshga aylanib qotib qolgandek edi. Faqat yelkamdagi safar xaltamning sirg‘alib oyog‘im ostiga tushib borayotganini sezib turardim, xolos. Men uni o‘sha yerga tashlab ketdim, unda qizlarimga, xotinimga sovg‘alar olib kelgan edim, yo‘lda gimnastyorkamni novvotga ayirboshlab oluvdim. Men turgan yerimda go‘yo biror mo‘jizani kutayotgandek uzoq turib qoldim. Keyin orqamga qayrildim-da, yo‘ldan ketaverdim. Bir zum to‘xtab, ortimga qayrilib qaradim, tog‘lar sarak-sarak bo‘lib tebranib, butun og‘irliklari bilan ustimga bostirib kelayotgandek bo‘ldi. Yuragim qinidan chiqayozgandek qichqirib yubordim-da, qocha boshladim. Qoch! Bu la’nati joylardan qoch! Ana shunda dahshatli ovoz bilan ho‘ngrab yiglab yuborgan edim.

Qayoqqa va qay tarzda borayotganligimni eslayolmayman, uchinchi kuni stansiyaga kelib qolibman. G‘ala-g‘ovur xalq to‘lqini ichida adashgan kishidek daydib yurardim. Nomimni atab bir ofitser meni chaqirib qoldi. Qarasam — injener Husainov. Harbiy xizmatdan bo‘shab, uyiga qaytayotgan ekan. Men boshimga tushgan

kulfat haqida unga ikki og'izgina so'zlab berdim. Endi qayoqqa bormoqchisan, deb so'radi u. "O'zim ham bilmayman", deb javob berdim. Yo'q, dedi u, bunday qilish yaramaydi, chidash kerak. Bir o'zingning sandiroqlab yurishingga yo'l qo'ymayman. Qani, yur, Tyan-Shanga ketdik, yo'lni qurib tugallash kerak. U yog'ini yana ko'rarmiz.

Men bu yerga ana shunday qilib kelib qolganman. Dastlab yo'lda ko'priklar qurib yurdim. Vaqt o'tib borardi, biror ishning boshini tutish kerak edi. O'sha kezlarda injener Husainov ministrlikda ishlayotgandi. U mening oldimga tez-tez kelib turar va har kelganida avvalgi ishimga, uchastka yo'l masteri bo'lib o'tishga maslahat berardi. Bunga yuragim dov bermasdi. Eslasam, yuragim orqaga tortib ketardi. Qurilishda yakka o'zim emasman, ko'pchilik bilan ishlash oson bo'ladi. U yoqda-chi, kim biladi, yolg'izlikdan yuragim yorilib ketsa kerak. Oradan necha yillar o'tib ketdi. Biroq men hamon o'zimni o'nglolmas, boshimga tushgan tashvishlarni unutolmasdim. Go'yo shu bilan hayotim tamom bo'lgan-u, bundan bu yog'iga hech narsadan umidim yo'qdek edi. Uylanishni xayolimga ham keltirmasdim. Gulbaram va bolalarimni haddan tashqari sevar edim. Hech kim, hech qachon ularning o'rnini bosa olmaydigandek tuyulardi menga. Faqat kun kechirish uchungina va shunchaki uylanish esa — ish emas. Bundan ko'ra so'qqabosh bo'lib yurgan ma'qulroq.

Nihoyat, uchastkaga master bo'lib borishga qaror qildim, ishlab ko'raman, agar yoqmasa, yana biron yoqqa ketaveraman-da, deb o'yladim. Menga bu yerda dovonning naq o'zidagi uchastkani berishdi. Yomon bo'lmadi, asta-sekin kirishib, ko'nikib ketdim. Ehtimol, bunga uchastkaning juda sertashvishliligi sabab bo'lgandir: dovonda har qancha desangiz ham ish topiladi. Ammo bu menga og'irlik qilmadi, aksincha, yaxshi bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan qalbimdagi dard-alamlar so'na boshladi, ularni asta-sekin unuta bordim. Ba'zi-ba'zida o'sha mudhish kun tushimga kirib chiqardi: o'sha yer yuzidan supurilib ketgan hovli qarshisida toshdek qotib, yelkamdagi safar xaltamning sirg'alib oyog'im ostiga tushib borayotganini sezib turaman. Keyin qayrilardim-da, orqamga qarab qaytib ketardim. Uyg'onib ketib qarasam, ko'zimda g'ilt-g'ilt yosh bo'la-

di. Bunday paytlarda sahardayoq o‘rnimdan turib ishga jo‘nardim, shu ketganimcha to tunga qadar uyga qaytmasdim. Shu tariqa men so‘qqabosh bo‘lib qolgandim. To‘g‘ri, ahyon-ahyonda: “Ehtimol, hali yana baxtli kunlarga erisharman”, degan hazin o‘y xayolimga kelib qolardi.

Nihoyat juda og‘ir, iztirobli va cheksiz mashaqqatli bu baxt men kutmagan bir paytda kelib qoldi.

Bundan to‘rt yilcha muqaddam tugab borayotgan qish kunlarining birida qo‘shnimning bemor onasini oblast kasalxonasiga olib borgan edim. Qo‘shnimning o‘zi bo‘lsa uydan bo‘shab chiqa olmasdi. Bir yoqda ish, oila, bir yoqda bolalari... Kampirning ahvoli esa kun sayin og‘irlashib bormoqda edi. Men uni vrachlarga ko‘rsatishga ahd qildim. Shu kun uchastkamizga yo‘l boshqarmasidan mashina kelib qoldi. Unda nimadir keltirishgan edi. Biz ana o‘sha mashinada oblast markaziga bordik. Kampirni vrachlarga ko‘rsatdim. Vrachlar kampirni kasalxonaga yotqizish kerak, yotqizilmasa bo‘lmaydi, deb maslahat berishdi. Kampir kasalxonaga birinchi marta tushganidan, yotmayman, deb qaysarlik qilib turib oldi, o‘lsam o‘lamanki, ammo kasalxonada qolmayman, derdi u. Qaytarib olib ket, bo‘lmasa qarg‘ishimga qolasan. Shuncha qilsam ham uni ko‘ndira olmadim. Yana qaytarib olib ketishga to‘g‘ri keldi. Turli-tuman dori-darmonlar olib, orqaga qaytdik. Vaqt allamahal bo‘lib qolgan edi. Avtobazaning dovondagi bazasidan o‘tib ketdik. Bir payt shofyor mashinasini shartta to‘xtatdi, men uning:

— Qayoqqa borasiz? — deb so‘rayotganini eshitdim.

Allanima deb mujmalgina javob qaytargan ayol kishining ovozi quloqqa chalindi va uning nari ketayotgan odim sharpasi eshitildi.

— Chiqa qoling! — dedi shofyor unga. — Nega unday qilasiz? — deb mashinani unga yaqinroq haydab bordi.

Qo‘lida bola, tuguncha ko‘tarib olgan yoshgina ayol mashina bortiga yaqinlashdi. Men ayolning kuzovga chiqib olishiga yordamlashdim, kabina orqasidagi shamol tegmaydigan pana joyni unga bo‘shatib berib, o‘zim burchakka o‘rnashib oldim.

Biz yo‘lga tushdik. Kun sovuq, rutubatli shamol esardi. Bola yig‘lay boshladi. Ayol bolani ovutishga har qancha urinmasin, u sira tinchlanadiganga o‘xshamasdi. Toza chatoq bo‘ldi-ku! Ka-

binaga o'tqazay desak, u yerda chalajon kampir o'tirardi. Shunda men ayolning yelkasidan sekingina turtdim:

— Qani, menga bering-chi, ehtimol, tinchib qolar, o'zingiz sal egilibroq o'tiring, shamol tegmasin.

Men bolani kalta po'stinim bilan o'rab oldim-da, bag'rimga bosdim. U tinchib, pishillab nafas ola boshladi. Juda do'mboq, o'ziyam o'n oylik chamasi jajjigina bola ekan. Men uni chap bag'rimga olib o'tirardim. Birdan yuragim gupillab, xuddi otib tushirilgan qush kabi tipirchilay boshladi. Nega ekanligini o'zim ham bilmayman. Qalbim ham qayg'u, ham quvonchli tuyg'ularga to'lgan edi. "Eh, nahotki hech qachon otalik baxtiga muyassar bo'lolmasam-a", deb o'ylardim men. Bola esa bag'rimda issiqqina yotardi. Unga boshqa hech narsaning keragi ham yo'q edi.

— O'g'ilmi? — deb so'radim.

Ayol bosh irg'ab qo'ydi. Ko'rib turibman, bechora sovqotib qolgan, egnida yupqa palto. Men bo'lsam qishda ham kalta po'stin ustidan plash kiyib yuraman: bizning ish sharoitimizda busiz mumkin emas. Bolani bir qo'limda ushlab turib, unga ikkinchi yengimni cho'zdim.

— Plashimni yeching. Bunaqada shamollab qolasiz.

— Yo'g'-e, qo'ying, ovora bo'lmang, — deb ko'nmadi u.

— Torting, tortavering! — deb turib oldim men. — Yopinib oling.

U plashga o'ralib oldi, shamol kirmasin deb etaklarini oyog'i ostiga qistirib qo'ydim.

— Biroz isidingizmi? — deb so'radim men.

— Ha, isidim.

— Yo'lga namuncha kech chiqdingiz?

— Shunday bo'lib qoldi, — dedi u ohistagina.

Shu payt biz daradan ketayotgan edik. Bu yerda konchilar posyolkasi joylashgan edi. Hamma uyquga ketgan, derazalarda bironta chiroq ko'rinmasdi. Itlar vovillab mashina ketidan chopishardi. Shunda birdan, bu ayol qayoqqa borarkin, degan fikr xayolimga keldi. Men, nima uchundir, u konga kelayotgan bo'lsa kerak, chunki u yoqda boradigan joy yo'q, dovon, undan keyin esa bizning uchastka, deb o'ylardim o'zimcha.

— Siz yetgan bo'lsangiz kerak? — dedim unga va kabinani taqillatdim. — Biz ham yetay deb qoldik, dovonga kelyapmiz. Mashina nariga bormaydi.

— Bu yer qanaqa joy? — deb so'radi u.

— Kon. Siz bu yerga kelayotganingiz yo'qmi?

— Men... men shu yerga kelayotgandim, — dedi u qimtinib. Keyin "dik" etib turdi-da, menga plashni berib, qo'liga bolani oldi. Bola hiqillay boshladi. Men bortga yaqinroq kelib, unga yordamlashish uchun yerga sakramoqchi bo'ldim. Biroq bu bechoraga bir gap bo'lgan, boshiga biron musibat tushgan ko'rinadi, deb o'ylab qoldim. Sovuq tunda yolg'iz o'zini tashlab ketsak qanday bo'larkin?

— Sizning boradigan joyingiz yo'q! — dedim men unga ro'yirost. — Yomon xayollarga bormang, tag'in. Bolani bu yoqqa bering! — deb qo'lidan go'dakni shartta oldim. — So'zimni qaytarmang. Tunni biznikida o'tkazasiz, keyin ixtiyor o'zingizda. Ketdik! — qichqirdim shofyorga.

Mashina qo'zg'aldi. U boshini quyi solib, jimgina o'tirardi, bilmadim, ehtimol yig'layotgandir.

— Xavotir olmang! — deb tinchlantirdim uni. — Men sizga hech qanaqa yomonlikni ravo ko'rmayman. Men yo'l masteri Boytemir Qulov bo'laman. Menga bemalol ishonavering.

Ularni o'z xonamga joylashtirdim. O'zim unga taqab qurilgan bo'sh uychamizga kirib, yog'och karavotga yotdim.

Allamahalgacha uxlay olmadim. O'ylar girdobida qoldim. Tinchimni yo'qotdim. So'rab-surishtirib o'tirish juda noqulay edi. O'zim ham buni yoqtirmayman, ammo baribir ayrim narsalarni so'rashga to'g'ri keldi. Ehtimol u bechoraga mening yordamim kerakdir. U savollarimga istar-istamas qisqa-qisqa javob qaytarardi. Biroq men aytilmay, uning yuragida qolib ketayotgan gaplarni ham anglab turardim. Agar insonning boshiga musibat tushsa, uning har bir so'zining tagida yana aytilmay qolgan o'nlab so'z yotadi. U erini tashlab, uyidan chiqib ketibdi. Takabburroq bo'lsa kerak, azob chekayotgani, kuyunayotgani sezilib turibdi-yu, ammo hech taslim bo'lmoqchi emasdi. Nima ham deyish mumkin, har kimning ixtiyori o'zida. Nima qilsa o'zi biladi. Shunday bo'lsa ham bu yosh-

gina ayolga juda rahmim kelardi. U hali o'n gulidan bir guli ochilmagan qizchaga o'xshardi, qaddi-qomati kelishgan, chehrasidan nur balqib turardi. Odatda u mehribon, shirinso'z edi, ehtimol, samimiy ayoldir. Shunday juvonni hamma narsadan mahrum etib, bosh olib ketishga majbur etgan qanaqa inson ekan-a? Bunga sira tushunolmasdim. Keling, menga nima, bu ularning ishi. Ertaga biror mashinaga o'tkazib qo'yarman.

O'sha kuni o'ylayverib charchab ketdim, ko'zim ilinishi bilan o'zimni mashinada ketayotgandek his qildim. Kalta po'stinim ostiga jajji bolani o'rab olganmishman. Go'dakning badaniga issiq yugurib, ko'ksimda maza qilib yotganmish.

Tongotarda o'rnimdan turdim. Yo'llarni ko'zdan kechirib kelgani ketdim, ammo tez orada qaytdim. Mehmonlarim nima qilishayotgan ekan, degan o'y miyamdan ketmasdi. Ularning uyqusini buzmaslik uchun ehtiyotlik bilan old xonadagi pechkaga o't yoqib, samovar qo'ydim. Ammo u allaqachon uyg'onib, ketishga hozirlik ko'rayotgan ekan. U menga minnatdorchilik bildirdi. Ularni choy ichirmay jo'natmadim, biroz kutib o'tirishga majbur qildim. Tungi kichkintoy hamrohim ajoyib bola ekan, odamga sira tortinmay kelaveradi, hech narsa bilan ishi yo'q. U bilan o'ynashib huzur qildim, xumordan chiqdim: u bilan darhol ko'nikishib, apoq-chapoq bo'lib ketdim.

Choy ustida ayoldan so'radim:

— Qayoqqa borishingiz kerak? Yo'lovchi mashina to'xtataymi?

U biroz o'ylanib turdi-da:

— Ribachyega, — dedi.

— U yerda qarindoshlaringiz bormi?

— Yo'q. Qarindosh-urug'larim ovulda, To'so'rning narigi yog'ida.

— E-e, unda siz ana o'sha tomonga boradigan boshqa mashinaga o'tirishingiz kerak. Bo'lmasa qiynalib qolasiz.

— Men baribir u yoqqa bormayman. Borishimiz ham mumkin emas, — dedi u o'g'liga o'ychan boqib. — o'zimiz aybdormiz...

Men uni ota-onasining roziligisiz turmushga chiqqan bo'lsa kerak, deb o'zimcha taxmin qilardim. Keyin bilsam, haqiqatan ham shunday ekan.

U ketishga tayyorlana boshladi, biroq men uni bolasi bilan shamolda turib qolmasin deb biroz uyga kirib kutib turishga ko'ndirdim. Mashinani bir o'zim to'xtatsam ham bo'ladi-ku, axir.

Yuragim ezilib, yo'lga chiqdim. Ularning ketishini, o'zimning esa yolg'iz qolishimni o'ylasam negadir yana qayg'um oshib, xayolim parishon bo'lardi.

Avval yo'lovchi mashinalar kelavermadi. Keyinchalik bo'lsa bittasini ko'ra turib atayin o'tkazib yubordim, qo'l ko'tarmadim. Ammo bu qilmishimdan o'zim cho'chib ketdim. Nega bunday qilyapman? Ana shundan boshlab meni dard-alamlarim iztirobga solib qiynay boshladi. Mashinalar birin-ketin o'tib borardi, men esa ularning birortasini ham to'xtatmay, g'ayriixtiyoriy ravishda vaqtni cho'zardim. Endi kelganini to'xtataman, derdim-u, ammo qo'lim yana ko'tarilmasdi. Uyatdan yuzlarim laxcha cho'g' bo'lib yonib, terlab ketdim. Bu nima qilganim: birovni aldab, yo'lidan qoldiryapman-ku! Qanday haqqim bor bunga? Uyda u menga ishonib umid bilan kutib o'tiribdi. Yo'l bo'ylab u yoqdan-bu yoqqa yura boshladim. O'zimdan o'zim cho'chirdim. Menga bir balo bo'layotgandek edi. Qandaydir bahona-yu sabablar qidirib topardim. Goh oynasi siniq ekan, kabina sovuq bo'ladi, deyman; goh mashina ko'ngildagidek bo'lmasdi; goh shofyori yoqmasdi — olatasirchi ko'rinardi, ehtimol, ichib ham olgandir. Kabinasi band mashinalar o'tganda esa xuddi yosh bolalardek quvonib ketardim. Ishqilib, ular hozir ketmasaydi, yana biroz, yana besh-o'n minut uyimda o'tira turishsa yaxshi bo'lardi. "Axir u qayoqqa ham boradi?— deb o'ylardim men. — O'zi aytdi, ovulga borishi mumkin emas. Boshqa joylarda ularning hech kimi yo'q. Ribachye yo'l ustidagi serqatnov shaharcha, u yerda har xil odam yashaydi. Bolasi bilan qayerga boradi? Durustroq joy topguncha, qish paytida o'g'lidan ajralib qoladi! Yaxshisi, shu yerda biroz yashab turishsin, yana u yoq-bu yoqni o'ylab ko'rsin, ehtimol, erinikiga qaytib borar. Yo u xotinini izlab kelib qolar..."

E, sho'rpeshona, yaxshisi, tentirab yurmasdan uning o'zini yo'l yoqasiga boshlab kelib, jo'nata qolsam bo'lmasmidi! Uch soatlar chamasi yer depsab vaqtni bekor o'tkazdim. O'zimdan o'zim nafratlandim: nega, nima uchun bunday qilyapman-a? Yo'q, hozir uni

bu yerga boshlab kelaman-da, o'zining oldida mashina to'xtataman. Bo'lmasa, hech narsa qilolmay turaveraman. Men uyga qaytdim. U endi eshikdan chiqib kelayotgan ekan, kutaverib toqati toq bo'libdi. Men uyalib ketdim, xuddi biror gunoh qilib qo'ygan yosh boladek unga javdirab qaradim.

— Kutib qoldingiz-a? — deb g'o'ldiradim men. — Yo'lovchi mashinalar uchramadi, to'g'rirog'i, uchradi-yu, ammo ko'ngildagidek emas ekan. Kechirasiz, tag'in yomon xayollarga borib yurmang. Xudo haqqi, uyga kirib biroz o'tira turing. O'tinib so'rayman!

U taajjublanib, menga ma'yusgina boqdi-da, indamay uyga qaytib kirib:

— Siz menga achinyapsizmi? — dedi.

— Yo'q, uning uchun emas. Bilasizmi... Siz uchun tashvishlanyapman. Qiynalib qolasiz. Qanday qilib kun kechirmoqchisiz?

— Ishlayman. Suyagim mehnatda qotgan.

— Qayerda ishlaysiz?

— Biror yerga joylasharman. Ammo uyga qaytmayman, ovulga ham bormayman. Mehnat qilib kun kechiraman.

Men indamadim. Hammasi tushunarli edi. U hozir hech narsa haqida o'ylamasdi, ko'ziga ham hech narsa ko'rinmasdi.

Alam, g'urur uni noma'lum tomonlarga haydamoqda edi. Ammo "mehnat qilib kun kechiraman", deyish aytishgagina oson, axir. Ishlab kun kechirish to'g'ri-ku, lekin hadeguncha unga erisha qolmaysan kishi. Insonni o'z erkiga, xohishiga qo'ymaslik ham yaxshi emas. Bola menga qarab talpindi. Uni ko'tarib oldim. Uning yuzidan o'parkanman: "Eh, do'mbog'im, sendan ajralishga to'g'ri kelyapti-ku. Qaniydi sen bilan bir umrga ajrashmasak. O'z o'g'limdek qadrdon va aziz bo'lib qolgan eding menga", deb o'tkazdim ko'nglimdan.

— Ha, mayli, yuring, — dedim keyin sekingina.

O'rnimizdan turdik. Men bolani ko'tarib oldim, biroq eshik oldiga borganda to'xtab:

— Ish bo'lsa bizda ham topiladi, — dedim yana unga. — Shu yerda ishlasangiz ham bo'ladi. Kichikroq xona ham bor. Rost, qola qoling. Shoshilmang. Ketishga har vaqt ulgurasiz. Yana o'yiab ko'ring...

U avval indamay turdi. Ammo men hozircha bu yerda ishlab turishning afzalligini, so'ng nima qilish zarurligini hayot o'zi ko'rsatishini, ketgisi kelsa xohlagan vaqtida keta olishi mumkin ekanligini aytib, unda ishonch hosil qildim. Shunday qilib, Asal va Samad, o'g'lining ismi shunday ekan, bizning yo'l uchastkamizda qolishdi.

Hovlidagi qo'shimcha qurilgan uycha sovuq edi, shuning uchun Asalni o'g'li bilan mening xonamda yashashga ko'ndirdim, o'zim bo'lsam o'sha hujraga ko'chib o'tdim. Menga shu uycha ham yetardi.

Shu paytdan boshlab mening hayotim o'zgarib ketdi. Bir qarashda-ku, hech narsa o'zgarmagandek ko'rinardi, hamon avvalgidek so'qqabosh edim, ammo men o'zimni yana inson his qila boshladim, uzoq yillik yolg'izlikda sovigan qalbim tag'in iliy boshladi. Men endi yakka o'zim yashamasdim... Odamlar bilan kishilar orasida yashash, ishlash, do'stlashish, umum ishini ado etish, yordamlashish va yordam olish naqadar yaxshi. Kuning bitib, vaqt-soating yetib o'lganingda ham boshqalardan kam qilib ko'mishmaydi... Ammo shunga qaramay, hayotning bir tomoni borki, uni sevgilingga bo'lgan mehr-muhabbatdan bo'lak hech narsa bilan almashtirib, to'ldirib bo'lmaydi... Men kichkintoyga juda o'rganib qoldim. Uchastkaga aylanib chiqqan paytlarda ham uni issiqqina qilib o'rab olib, o'zim bilan birga ko'tarib yurardim. Xullas, bo'sh vaqtimning hammasini u bilan o'tkazardim. Shu paytgacha qanday qilib yashab kelganimni tasavvur eta olmayman. Qo'shnilarim ham ancha durust kishilar edi.

Ular Asalga ham, Samadga ham mehribon edilar. Bolani kim sevmaydi deysiz. Asalning o'zini olsak dilkash, samimiy, ochiq ko'ngilli ayol, shuning uchun ham u uchastkadagilar bilan til topishib, aralashib-qurulashib ketdi. Mening esa kichkintoyga ham, Asalga ham mehr-u muhabbatim yanada oshib ketdi. Bolaga mehrim onasiga bo'lgan mehr-muhabbat bilan payvasta edi. Rostini aytsam, har qancha urinsam ham his-hayajonlarimni o'zimdan o'zim yashira olmadim. Asalni sevib qolgan edim. Bir umrga butun qalbim bilan yolg'izlikda o'tkazilgan hijronli yillar, barcha azob-uqubatlarim evaziga uni behad sevib qoldim.

Barcha judoliklarim, g'am-hasratlarim bu muhabbatga mujassamlashgan edi. Ammo buni unga oshkor etishga haqqim yo'q edi. Asal hamon erini kutardi. Kutishga uzoq kutardi-yu, biroq hech sir boy bermasdi. Biz yo'lda ishlayotgan kezlarda uning har bir yo'lovchi mashinani intizor va umidvor ko'zlari bilan kutib olishi va kuzatib qolishini ko'pincha sezardim. Ba'zan o'g'lini ko'tarib yo'l yoqasiga chiqar va u yerda necha soatlab o'tirar edi. U ko'rina qolmasdi. U kim va qanaqa odam ekanligini bilmayman, buni so'ramasdim ham, Asal ham buni hech kimga so'zlamasdi.

Vaqt o'tib borardi. Samad ham ulg'ayib qoldi. Oh, u juda sho'x, jajji toychoq ediki, bilmayman, birov o'rgatganmi yoki o'rganganmi, har holda u meni dada, deya boshladi. Ko'rdimi, bas: "Dada!" "Dada!" — deb bo'ynimga osiladi. Asal Samadga qarab o'ychan jilmayib qo'yardi. Men bo'lsam ham quvonardim, ham yuragim o'rtanib azob chekardim. Unga ota bo'lishga ming bor rozi edim-u, ammo nima ham qila olardim...

O'sha yili yoz kunlaridan birida biz yo'l tuzatayotgan edik. Mashinalar bizni chetlab o'tib borardi. Asal qo'qqisdan shofyorlardan biriga qarab qichqirdi:

— Hey, Jontoy, to'xta!

Mashina bizdan biroz o'tdi-yu, taqqa to'xtadi. Asal shofyor tomon chopib ketdi. Ularning nima haqda gapirishganlarini bilmadim-u, ammo Asalning to'satdan kabinaga qarab qichqira boshlaganini eshitib qoldim:

— Aldayapsan! Yolg'on! Ishonmayman! Yo'qol bu yerdan! Hoziroq yo'qol!

Mashina yo'liga ravona bo'ldi. Asal esa yo'lni kesib o'tib, uyga qarab otildi. Aftidan, u yig'layotgan edi.

Lattadek bo'shashib, qo'lim ishga bormay qoldi. Kim bo'ldi u? Asalga nima dedi? Shunga o'xshagan shubha va taxminlar qamrab oldi meni. Chidab tura olmay, uyga yurdim. Asal o'g'li bilan uyda o'tirar edi. Axiri bo'lmadi, kechqurun uning oldiga kirdim.

— Samad qani? Uni juda sog'inib qoldim! — dedim men.

— Mana, bu yoqda, — dedi Asal ma'yusgina.

— Dada! — deb menga talpindi Samad. Uni qo'limga ko'tarib, erkalatdim. Onasi esa g'amga botib, indamay o'tirardi.

— Nima bo‘ldi, Asal? — deb so‘radim.

Asal chuqur xo‘rsinib qo‘ydi.

— Men ketaman, bake, — dedi u. — Bu yerda turmushim yomon bo‘lganidan emas, albatta, sizdan ming marta minnatdorman. Biroq nega, qayoqqa ekanligini o‘zim ham bilmayman-u, boshim oqqan tomonga ketaman...

U bu gaplarni shunchaki aytgani yo‘q, buni ko‘rib turibman, g‘am-alam ichida ketib qolishi mumkin. Haqiqatni aytishdan bo‘lak ilojim qolmagan edi.

— Nima ham derdim, Asal, seni bu yerda ushlab turishga haqqim yo‘q. Ammo sen ketgach, bu yerda yashay olmayman, men ham bosh olib ketishim kerak. Vayron bo‘lgan uy-joyimni bir marta tashlab ketganman. O‘shandan buyon biroz ko‘nikib qolgandek bo‘luvdim... Tasodifmi bu yoki taqdirmi, faqat sen va o‘g‘ilchang bilan birga bo‘lib, g‘am-g‘ussalarimni unuta boshlagan edim. Buni gapirib o‘tirishning hojati ham yo‘q, o‘zing bilasan, Asal. Agar sen hozir ketadigan bo‘lsang, bu yer ham Pomirda qolib ketgan uyim kabi men uchun haromga aylanadi. O‘ylab ko‘r, Asal... Mabodo u qaytib kelsa va qalbing unga undaydigan bo‘lsa, sizlarga zarracha xalal bermayman, doim erking o‘zingda, Asal...

Men shu so‘zlarni aytib Samadni ko‘tarib oldim-u, yo‘lga chiqdim. U yerda Samadni anchagacha ko‘tarib yurdim. Bu toychog‘im hech narsani tushunmasdi.

Asal shu ko‘yi vaqtincha yashab qolaverdi. Ammo uning nimalar haqida o‘ylab yurgani, qanday qarorga kelgani menga qorong‘i edi. Bu kunlar ichida men ozib-to‘zib qorayib ketdim.

Bir kuni tush paytida allaqanday ish bilan hovliga kirib qoldim. Qarasam, Samad ajabtovur yurishga intilyapti. Asal uni, tag‘in yiqilib tushib lat yemasin, deb qo‘rqib, sal ushlab turardi. Men to‘xtadim.

— Bake, qara, o‘g‘ling endi yuradigan bo‘lib qoldi!— dedi quvonch bilan jilmayib.

Nima dedi u? O‘g‘ling! Men yelkamdagi belkurakni irg‘itib yubordim-da, cho‘nqayib o‘tirib, toychog‘imni chaqira boshladim:

— Toy-toy-toy, bo‘talog‘im! Qani, menga kel-chi, oyoqlaring bilan yerni tepkilab yur-chi, dadilroq bos!

Samad qulochini yozib yubordi.

— Dada! — deb oyoqchalarini entak-tentak bosib, menga qarab chopdi. Men uni ushlab oldim-da, boshim uzra baland ko‘tarib, bag‘rimga qattiq bosdim.

— Asal! — dedim men unga. — Ertaga bir bolalar bayramini o‘tkazaylik-a. Sen oq va qora jundan to‘qilgan chilvir tayyorlab qo‘y.

— Xo‘p, bake! — deb kulib yubordi u.

— Ha, ha, albatta oq va qora jundan to‘qilgan bo‘lsin.

Men otga mindim-u, chorvador do‘stlarim oldiga jo‘nadim, u yoqdan qimiz va yangi so‘yilgan go‘sht olib keldim. Ertasiga esa biz kichkina bayramimiz — “chilvir kesish” bayramiga qo‘shnilarimizni taklif etdik.

Men Samadni yerga o‘tqazdim-da, oyoqlarini oq-qora chilvir bilan tushovladim, yoniga qaychini keltirib qo‘ydim. So‘ng hovlining narigi chekkasida turgan bolalarga qarab buyruq berdim:

— Kimki birinchi bo‘lib chopib kelib chilvirni kessa, o‘shanga birinchi bo‘lib mukofot beriladi, qolganlarga esa navbat bilan ulashiladi. Qani, boshlanglar, bolalar! — deb qo‘l siltadim.

Xuddi poygaga qo‘yilgan arg‘umoqlar singari bolalar bizning “hoy-huv” va shovqin-suronimiz ostida qiyqirishib chopa ketishdi.

Chilvir kesilib bo‘lgandan keyin Samadga qarab:

— Qani, o‘g‘lim, chopqillayver endi! — dedim. — Uni qo‘lidan ushlab olib yuringlar, bolalar!

Ular Samadning qo‘lidan tutishdi, u ham bolalar bilan chopib ketdi. Men esa ularning orqasidan, hech kimga murojaat qilmasdan, beixtiyor gapirib yuboribman:

— Odamlar! Mening toychog‘im chopqillab yurib ketdi! U tulpordek ildam bo‘lsin!

Samad bolalar ketidan chopqillab bora turib, orqaga qayrilib: “Dada!” dedi-da, dumalab tushdi. Biz Asal bilan ikkimiz baravariga unga tomon tashlandik. Men Samadni yerdan ko‘tarib olganimda, Asal birinchi marta menga:

— Jonim! — dedi.

Shu kundan boshlab biz er-xotin bo‘lib qovushdik.

Qishda o‘g‘ilchamizni olib ovulga, chol-kampirlar oldiga borib keldik. Ular bizdan juda xafa edi, biroq keyinchalik kechirishdi, duo qilishib fotiha berishdi.

Kunlar birin-ketin sezilmay o'tib borardi. Samad besh yoshga to'ldi. Biz Asal bilan juda ahil, juda inoq yashardik, faqat birgina narsa haqida og'iz ochmas va eslamas edik. Asal u haqda o'ylarmidi, yolg'iz qolganda uni eslab o'y-xayollarga berilarmidi, buni bilmayman, biroq biz go'yo gap-so'zsiz dilimizda o'zaro shartlashib qo'ygandek edik: biz uni tanimaymiz, biz uchun u odam yo'q va bo'lmaydi ham...

Ammo inson ko'ngli nimalarni istamaydi deysiz. Buning ustiga yana shunday narsalar ham borki, ulardan qochib qutula olmaysan. U yaqindagina bu yerlarda paydo bo'lib qoldi.

Bir kuni kechasi yo'lda avariya bo'lib qoldi. Yordamchim bilan ikkovimiz nima bo'lganini bilish uchun yugurdik. Ehtimol, biror baxtsizlik yuz bergandir. Yetib keldik. Allaqanday yuk mashinasi yo'l chekkasidagi ustunlarga tumshug'u bilan kelib urilibdi. G'irt mast shofyor hushidan ketib taxtadek qotib yotardi. Men uni tanidim-u, ammo ismini eslayolmadim.

U bir kuni bizni falokatdan qutqargan va mashinamizni shatakka olib, dovonga olib chiqib qo'ygan edi. Do'landa esa mashinani shatakka olib yurish hazilakam ish emasdi. Ilgarilari bu yerda bunday ish qilish u yoqda tursin, hatto hech kimning xayoliga ham kelmasdi. Bu shofyor bo'lsa, tirishqoq, dovyurak yigit ekan, har qancha og'ir bo'lsa ham mashinamizni uchastkagacha sudrab olib keldi. U menga juda yoqib qoldi, ko'nglimdagidek yigit ekan. O'sha voqeadan keyin allakim birinchi bo'lib dovondan pritsep bilan o'tmoqchi bo'libdi, maqsadiga erishishiga oz qolgan ekan-u, ammo uddalay olmabdi. Pritsepni yo'l yoqasidagi ariqqa tushirib yuboribdi-da, tashlab ketib qolibdi. Men o'shanda o'sha dovyurak yigitning ishi emasmikin, deb xayoldan o'tkazgan edim. Mard kishining o'z maqsadiga erisha olmaganiga juda achingan edim.

Ammo o'sha voqeadan keyin dovondan pritsep bilan o'tadigan bo'lishdi. Yigitlar mashina va pritseplarni sharoitga moslashtirib juda to'g'ri ish qilgan edilar.

Vijdonan aytsam, bu yigit Asal tashlab ketgan kishi ekanini bilmasdim. Agar bilganimda ham baribir shunday qilgan bo'lardim. Men uni uyga sudrab olib keldim, shunda hammasi oydin-

lashdi-qo'ydi. Eshikdan o'tin ko'tarib kirib kelgan Asalning ko'zi unga tushdi-yu, qo'lidagi o'tinlari polga sochilib ketdi. Ammo go'yo birinchi marta uchrashayotgandek, birortamiz ham sir boy bermadik. Ayniqsa, men o'zimni qo'lga olishim kerak edi, chunki ehtiyotsizlik qilib biron noo'rin so'z aytib yoki nojo'ya harakatim bilan ularning ko'ngliga tegib ketmaslikka intilardim va ularning bir-birovlarini tushunib olishlariga xalal bermaslik uchun o'zimni tutishga harakat qilardim. Endi men hech narsani hal eta olmasdim. Endi hamma gap ularning o'zlarida qolgandi: ular orasida o'tmish kechmishlari, men bag'rimga bosib va erkalab karavotda olib yotgan o'g'illari bor edi.

O'sha tuni birortamiz ham mijja qoqmadik, har kim o'z o'ylari bilan band edi. Shu jumladan, men ham.

Asal o'g'li bilan ketib qolishi ham mumkin edi. Bu albatta ularning ishi. Mayli, ular yurak amri va aql-idroklari buyurganini qilishsin. Men, men esa... nima ham derdim, bunga mening nima daxlim bor, masalani hal etish menga bog'liq emas, ularga xalaqit bermasligim kerak...

U hozir ham shu yerda, mana shu yo'ldan qatnaydi. Shuncha yillar davomida qayerlarda bo'lganiykin u, nima bilan shug'ullandiykin? Ammo buning ahamiyati yo'q... Bu ularning ishi...

Biz Boytemir bilan yo'lni aylanib chiqib, orqaga qaytdik. Qosh qorayib qolgan edi. Tyan-Shanning muzli cho'qqilari ustidagi osmon-u falak bahor oqshomining binafsha rang tusiga kirib borayotgandi. Mashinalar yo'ldan ikki tomonga qarab g'iz-g'iz o'tib turardi.

— Mana, hayot qanchalik murakkab, — dedi Boytemir biroz sukutdan so'ng o'ychan. — Men hozir uydan ketishim kerak emas. Mabodo Asal ketish xayolida bo'lsa, mayli. Faqat menga ketayotganini bir og'iz aytsa bo'lgani, o'g'li bilan so'nggi bor xayrxo'shlashib, oq yo'l tilab qolaman. Axir Samad men uchun o'z o'g'limday bo'lib qolgan-ku. Biroq uni o'z otasidan zo'rlab tortib ololmayman. Shuning uchun men ham hech qayoqqa bormayman. Ayniqsa, Pomirga... Men buni sizga gazeta uchun hikoya qilib berayotganim yo'q, albatta. Shunchaki, inson insonga o'z dardini aytib berayotgandek gapirib beryapman-da...

XOTIMA O‘RNIDA

Biz Ilyos bilan O‘shda ajralishdik. U Pomirga jo‘nadi, men bo‘lsam o‘z ishlarim bilan ketdim.

— Borib Alibekni topaman. Yangicha hayot boshlayman! — dedi u yo‘l-yo‘lakay. — Meni endi tuzalmas, tamom bo‘lgan odam deb o‘ylamang. Kelajagim, hayotim hali oldinda. Kunlar o‘tar, men ham uylanarman, boshqalarga o‘xshab bola-chaqali, uy-joyli bo‘larman. Ishlayman, do‘st, yor-birodarlar orttiraman. Lekin faqat birgina narsa: umrbod, manguga yo‘qotgan narsamni qaytara olmasam kerak... O‘tgan ishni hech qachon qaytarib bo‘lmaydi... Ammo hayotimning so‘nggi kunlariga qadar, to so‘nggi nafasimgacha Asalni va oramizda bo‘lib o‘tgan hamma shirin damlarni saqlab o‘taman.

Yo‘lga chiqish oldidan ko‘lga, o‘sha tik tepalikka bordim. U yerda men Tyan-Shan bilan vidolashdim, Issiqko‘l bilan xayrlashdim. Xayr, Issiqko‘l, tugallanmay qolgan orombaxsh kuylarim! Moviy to‘lqinlaring va oltin qirg‘oqlaring bilan birga qo‘shib seni o‘zim bilan birga olib ketardim-u, ammo sevgilimning sevgisini olib keta olmaganimdek, seni ham olib ketish qo‘limdan kelmaydi. Alvido, Asal! Alvido, qizil durrachali sarvqomatim! Alvido, sevgilim! Baxtiyor bo‘lgil...

Men Boytemirdan eshitganlarimni Ilyosga so‘zlab bermadim. Axir bu odamlarning ko‘rkamligi va qadr-qimmati ham ularning bir-biri haqida hech narsa bilmasdan turib, bir-biriga shu qadar oliyjanoblik qilishida, insoniy munosabatda bo‘lishida emasmi! Shunday ekan, bu gaplarni unga so‘zlab nima ham qilardim...

BIRINCHI MUALLIM

Bu suratni hali tamom qilganim yo'q. Qanday chiqishini hozircha aytish qiyin. Har kuni ilk saharda turib, xomaki etyudlarimni yana ikki-uch marta ko'zdan kechirarkanman, tong sukunatida u yoq-bu yoqqa asta-asta yurib o'yga cho'maman. Yo'q, hali ko'nglimdagini topganimcha yo'q, yana tag'in ko'p ishi bor. Bu surat hali ko'ngildagi bir tilak, qalbimni hayajonga solgan orzu-umid, xolos...

Hali tamomlanmagan asar to'g'risida oldindan jar solishni o'zim ham azaldan yoqtirmasdim. Bu baxillikdan emas. Beshikdagi chaqaloqning kim bo'lib voyaga yetishini qayoqdan bilib bo'ladi deysiz? Lekin bu safar o'zinigz ko'rib turibsiz, shu odatimdan voz kechib, xomxatala asarimni o'rtaga tashlab, undan gap ochmoqchiman... Indamay yurishga hech ilojim yo'q. Rostini aytsam, bir o'zim yolg'izlik qilib qoldim, bezovta qilib, es-hushimni o'zimga band etgan bu voqea yuragimga sig'may, quchog'im ham yetmay turibdi.

Bo'lgan voqeani aynan tasvirlab, xalqni undan bahramand qilsam, degan umidim bor. Istar edimki, ko'pchilik ham fikr-mulohazalarini o'rtaga tashlasa... Bu asar xalq damidan chiqqan olovdek bo'lsa-yu, unga o'z qoningizdan qon, kuchingizdan kuch qo'shib bersangiz, shu vajdan bu voqeani sizlarga bayon etishni o'z burchim deb bilaman...

* * *

Ovulimiz Oq-Jar tog'ining etagida, katta soy sharqirab oqib turgan keng tekislikda; undan pastroqda — Qora tog'gacha yastangan adir bo'ylab cho'zilgan temir yo'lning ikki tomoni qozoq dalasi...

Ovulimiz ustidagi tepalikda ikki katta terak bo'lardi; men buni bolalik chog'imdanoq bilardim. Bu qo'shterak hali ham bor. Qachon qaramang, ovulga qaysi tomondan kirmang, hammadan bu-

run tepalikda bir-biri bilan yonma-yon turgan o'sha baland teraklar ko'zga chalinadi.

Bilmadim, nima uchundir, bolaligimdanmi yoki kasbim rassomlik bo'lganidanmi, haytovur, har gal stansiyadan tushib, tepalikdan o'tib, ovulimizga qarab yo'l olganimda, qo'shteraklar joyida turganmikin, deb sabrsizlik bilan beixtiyor shu tomonga qarayman. Teraklar naqadar katta bo'lsa ham, uzoqdan shuncha dargumon-u, lekin ularning surati ko'z oldimga kelib turaverardi. Tezroq ovulga yetib, ertaroq tepalikka chiqsam, qo'shterakka egilib salom bersam, ularning shovullashini to'yib-to'yib eshitsam, deb yuragim orziqardi.

Ko'cha-ko'yda nima ko'p — daraxt ko'p, lekin bu teraklar o'zi boshqa bir olam, qandaydir xosiyatli, tili borday. Kun-tun yaproqlari dirillab, chayqalgan uchlari bir-biri bilan o'pishib, o'zini ming ko'yga solib shovillaydi. Goh sohilga kelib urilgan erka to'lqinday eshitilar-eshitilmas guvillashib qo'yadi, goh jim o'ylanib qolib, sog'ina-sog'ina yuragi qon bo'lganday, allanimalarni eslab xo'rsinib, yulqingan shamol bulut haydab, yomg'ir haydab, butoqlarini egib yuborganda, teraklar bir-biridan madad olib: sindirib bo'psan, deganday battar o'jarlik qilib, zarda bilan to'lg'anib qo'yishadi.

Ho' ancha keyin esim kirib ulg'ayganimda, men bu teraklarning siri asroridan voqif bo'ldim. To'rt tomoni ochiq baland tepada turishganidan, bular doimo shamol o'qiga to'g'ri kelib, havoning har bir o'yiniga javob qaytarib turishgan. Tinmay shovullab, ming ohangda ovoz chiqarib turishlari ham shundan.

Lekin mening bu idrok qilganlarim bolalik xayolimning ilk taassurotini sovuta olmadi. O'sha vaqtdagi hayajonlarim hali ham o'z haroratini yo'qotmadi, nazarimda, bu teraklar hali ham qandaydir bir sirni yashirgan jonli maxluqday.

Bolalik umrimning eng shirin orzulari shu teraklar soyasida qolib ketganday, esimga tushgan sari yana qayta boshdan eslagim keladi.

O'qishimiz tamom bo'ldi deguncha bizlar chumchuq qidirib shu yerga kelardik. Chuvullashimizga mast bo'lganday qo'shterakning tepa shoxlaridagi yaproqlari hilpirab, bizga soya tashlardi. O'sha kezlarda yoriq tovon, kaftlarimiz hovjiragan biz tentaklar terak-

larga mushukday tirmashib chiqa boshlaganimizda chumchuqlar chirillab qolardi. Chirillashiga qararmidik! Hadeb bir butoqdan ikkinchisiga o'taverib, chumchuqlar "pir" etib uchib ketgan baland butoqqa chiqqanimizda, ko'z-oldimizda namoyon bo'lgan olam manzarasini ko'rib hayratdan damimiz ichimizga tushib ketardi, tutmoqchi bo'lgan chumchuq bolalarini ham esimizdan chiqarib yuborardik. Ko'zimizga kattakon bo'lib ko'rinib yurgan kolxoz otxonasining tepadan xuddi chigirtkaday ko'ringaniga, qishloqdan nari cho'zilib ketgan dalaning kattaligiga, yana undan nariroqdagi qancha-qancha qadrdon yerlar, ovulimizdagi ariqlardan boshqa tag'in qancha-qancha kumushday tovlanib oqayotgan suvlarga suqlanib qarab, bu dunyoning cheti shumi yo undan narida ham shunday osmon, shunday bulutlar, shunday yerlar bormikin, deb xayol surib ketardik.

O'shanda qulog'imizga shamol ovozi chalinsa, unga jo'r bo'lib qimirlagan yaproqlar, ko'z ilg'amas uzoq-uzoqlarda ajoyib va g'aroyib narsalar ham bor deganday shivirlab, betlarimizni silab erkalatardi. Yuragim duk-duk urib qinidan chiqib ketadiganday, qo'shterakning shovullashiga astoydil quloq solardim. Ko'z oldimga ertakdagiday butun olam kelibdi-yu, lekin bir narsa esimga kelmabdi. Bu teraklarni kim o'tqazgan-u qanday umid bilan o'stirganini o'ylamabman.

Shu qo'shterak qad ko'tarib turgan joyni ovuldagilar nima uchundir "Duyshenning maktabi" deyishardi. Birortasining moli yo'qolib: "Hoy falonchi, g'unajinimni ko'rdingmi"? — deb so'rasa, to'xtab unga: "Ho', yuqoridagi "Duyshenning maktabida" yilqilar yuribdi, o'sha yoqdan xabar olib ko'r", — deb javob berishardi. Kattalarga taqlid qilib biz ham: "Yuringlar, Duyshenning maktabiga ketdik, terakka chiqib chumchuq haydaymiz", — der edik.

Bir vaqtlar o'sha tepada maktab bor ekan. Bizning zamonamizda bu maktabdan asar ham qolmagan-u, lekin qo'shterakli tepaning nomi xalq og'zidan tushgan emas. Bolalik chog'imda bu maktab o'rnini xo'p qidirb ham ko'rganman. Keyinchalik: "Nimaga "Duyshenning maktabi" deyishadi, Duyshen o'zi kim?" — deb qarilardan surishtirsam, bu savolimga ular hech qizig'i yo'q, anchayin gapdan qo'l siltab javob qilishardi: "Kim bo'lardi, shu yurgan oqsoq-

qo'y[1] Duyshen-da. O'sha hurriyatdan keyin ho' anavi tepada eski bir molxona bo'lardi. Duyshen komsomol bo'ldim, deb o'sha yerda maktab ochib, bola o'qitgan. Maktab qayoqda deysan, anchayin bir gap-da. U vaqtlar o'zi qiziq zamon emasmidi, Xudo ko'rsatmasin, uzangiga oyog'i yetib, otning yolidan tutamlab olganlarning hammasi o'ziga bek, o'ziga xon bo'lib qolgandi. Har kim o'z bilganini qilardi. Duyshen ham o'shanda miyasiga kelganini qildi-da. Hozir u maktabdan bir parcha guvala ham qolmagan, ilgari nomi yo'q tepa edi. Endi "Duyshenning maktabi" degan nom oldi..."

Duyshen degan kishini uncha yaxshi bilmas edim. Baland bo'yli, burgut qovoq, salobatli odamga o'xshardi. Uning hovlisi ariqning narigi tomonida, ikkinchi brigada ko'chasida edi. Men ovulda turgan kezlarimda Duyshen kolxoz mirobi bo'lib ishlardi, egarning qoshiga katta ketmonni chirmab olib, shatakdan chiqib qolgan, o'ziga o'xshash suyaklari ko'rinib qolgan otni minib, goh-gohda o'tib qolardi. Keyin qariganda pochtachilikka o'tib ketdi, deb eshitgandim. Lekin gap unda emas. Komsomol deganda men o'sha vaqtlarda ishga ham, gapga ham epchil, yalqov-poraxo'rlarni gazetaga yozib turuvchi ovul yigitlarining eng miqtisini tushunardim.

Rostini aytsam, soqoliga oq kirgan, qaysar otiga kuchi yetmagan haligi rasmana odamning bir zamonlar qanday qilib komsomol bo'lganini, xat-savodi bo'lmasa ham, bolalarni qanday o'qitib, qanaqa o'qituvchi bo'lganini o'zimcha hech tasavvur qilolmadim.

O'sha vaqtlarda bu gaplar ovulda aytilgan son-sanoqsiz ertaklardan bo'lsa kerak, deb qo'ya qolgandim. Keyin bilsam, " Duyshenning maktabi" degan gapning o'z tarixi bor ekan, buni tasodifan yaqinda bilim qoldim.

O'tgan kuzda kolxozdan menga bir telegramma keldi.

Ikki yildan buyon kolxozimiz o'z kuchi bilan yangi maktab solayotgan ekan. Maktab binosi qurilib bo'lgandan keyin ovuldagilar meni maktabni ochish marosimiga chaqirishipti. Bu quvonchli kunlarda elim bilan birga bo'lay degan niyatda darhol yo'lga otlandim. Ovul manzaralarini suratga olish niyatida ovulga to'y marosimidan uch-to'rt kun ilgari jo'nab ketdim. Shahardan chaqirilganlardan akademik Sulaymonovani ham kutib o'tirishgan

[1] Qirg'iz urug'laridan birining nomi.

ekan. Bu ayol bu yerda bir kun-yarim kun turib, keyin Moskvaga jo‘nab ketadi, deyishdi. Akademik Sulaymonovaning kelishini eshitib juda suyunib ketdim. Xalqqa tanilgan bu olimaning ovulimizdan ekanligi, qiz vaqtida shaharga ketib, o‘qib, olim bo‘lgani ovulda qulog‘imga chalinib yurardi. O‘zi bilan shahardaligimda tanishib olgan edim.

Men ko‘rganda Oltinoy Sulaymonova sochiga oq kirib, elliklarga borib qolgan, to‘lishgangina ayol edi. Mashhur hamqishlog‘imiz universitetda kafedra mudiri bo‘lib ishlardi, falsafadan leksiya o‘qib turar, xizmat qiladigan yeri akademiya bo‘lib, tez-tez chet ellarga borib-kelib turardi. Opaning bemalol o‘tirib, men bilan to‘yib suhbatlashishga vaqti bo‘lmay yurardi. lekin har gal goh majlisda, goh to‘satdan ko‘chada uchrashib qolganimizda ovuldagilarning omon-esonligini so‘rar, asarlarim to‘g‘risida qisqacha bo‘lsa ham biron fikr aytmay qo‘ymasdi.

Men bu kishining kamtarligiga, odamoxunligiga qoyil qolib, bir kuni o‘ziga dangal aytdim:

— Opa, ovulga borib, el-yurt bilan ko‘rishib kelsangiz bo‘lardi. Ovuldagilarning hammasi nomingizni sirtdan tilga olib, faxrlanib yurishadi, lekin ko‘pchilik sizni tanimaydi. Atoqli olima qizimiz ovulimizdan yotsiraydi, bizlarni tanigisi kelmaydi, deydiganlar ham yo‘q emas...

— Gapingiz to‘g‘ri, ukam, — deb Oltinoy Sulaymonova xo‘rsinib qo‘ydi, — borishga o‘zim ham ko‘pdan intizorman. Bormaganimga ham talay vaqt bo‘ldi. Ovulda tug‘ishgan qarindoshlarim yo‘q-ku, lekin elingdan yaqin tug‘ishganing bo‘larkanmi! Albatta boraman, fursat topdim, boraman... O‘zim ham yurtimni xo‘p sog‘inganman...

Akademik Sulaymonova o‘sha kuni kechikibroq keldi. Uning mashinasi kelib to‘xtaganda maktabning tantanali majlisini endi ochmoqchi bo‘lib turishgan edi. Majlisdagilarning hammasi duv etib chiqib uni kutib olishdi, tanigan-tanimagan hamma — yosh-u qari u bilan qo‘l berib ko‘rishgisi kelardi. Oltinoy Sulaymonova bunchaligini kutmagan bo‘lsa kerak. Ko‘ngli tog‘day ko‘tarilib, suyunib ketganidan nima qilishini bilmay, ikki bukilib odamlarga ta’zim qila-qila borib prezidiumdan o‘rin olib o‘tirdi.

Qancha-qancha tantanali majlislarda bo‘lib izzat-ikrom ko‘rgan Oltinoy Sulaymonova, bu safar oddiygina qishloq maktabida hamqishloqlarining ochiq chehra bilan kutib olishganini ko‘rib, hayajoni zo‘r kelganidan ko‘z yoshlarini tutolmay qoldi.

Majlisning oxirida pionerlar uning bo‘yniga qizil galstuk taqib, qo‘liga guldasta tutqazishdi. Yangi maktabning faxriy kitobiga uning nomini birinchi qilib yozib qo‘yishdi. O‘quvchilarning konserti va o‘yin-kulgilardan keyin, kechqurun bir to‘da muallimlar, ovul aktivlari bilan birga hammamiz maktab direktorining uyida mehmon bo‘ldik.

Mehmonda ham Oltinoy Sulaymonovaning kelganiga suyunishib, uni gilam bilan yasatilgan to‘rga o‘tqazishib, qo‘llaridan kelgancha izzat-hurmatini bajo keltirishdi. Katta dasturxon atrofida o‘tirganlar duv-duv gap bilan ovora. Qadahlar ko‘tarilib, tostlar aytilayotgan edi, bir vaqt qo‘liga bir dasta gazeta-jurnal ushlagan bir yigitcha eshikdan kirib keldi-da, mezbonga o‘ntacha telegramma cho‘zib, og‘ay, qo‘l qo‘yib beringiz, deb iltimos qildi. Ilgarigi o‘quvchilardan kelgan tabrik telegrammalar qo‘ldan qo‘lga o‘tib, kimdir gap orasida:

— Hoy, buni Duyshen qariya olib keldimi? — deb so‘rab qoldi.

— Ha, — dedi yigit. — Majlisdagilarga o‘qib eshittirishsin, deb otini xo‘p yeldirib kelibdi-yu, kechikibroq qolgani uchun oqsoqolning ko‘ngli o‘rniga tushmadi.

— Nima qilib turibdi, ayt, tushsin otdan, uyga kirsin, — dedi mezbon.

Yigit chiqib ketganda yonimda o‘tirgan Oltinoy Sulaymonova bir seskanib tushdi, rangi quv o‘chib nimanidir eslaganday mendan so‘radi:

— U qaysi Duyshen, kimni aytishyapti?

— Kolxozning pochtachisi, opa, — dedim men. — Duyshen oqosoqolni tanirmidingiz?

Ha, deganday bosh irg‘ab Oltinoy Sulaymonova bir narsa demoqchi bo‘lib, o‘rnidan turishga harakat qilgan edi, deraza yonidan bir otliq dupurlab o‘tib ketdi, uyga kirib kelgan yigit:

— Tushingiz desam, u kishi unamadi, og‘ay, — dedi, — hali xat tarqatishim kerak, deb ketib qoldi.

— Mayli, ketaversin, u cholning ham o‘ziga yarasha ulfatlari bor, — dedi kimdir biroz xomush tortib.

— O, Duyshen deganni bilmas ekansizlar, u qonun-qoidani juda o‘rniga keltiradi, xizmatini bajarmasdan hech qayoqqa burilmaydi, — dedi yana bittasi.

— To‘g‘ri aytadi, juda ajoyib odam o‘zi. Urush tamom bo‘lgandan keyin Ukrainada ekan, gospitaldan chiqib, o‘sha yerda turib qolibdi, kelganiga besh yilcha bo‘lgan. Unib-o‘sgan ovulimda qolsin suyagim dedim, deydi. Bu dunyodan, o‘zi sho‘rlik, toq o‘tib ketyapti...

— Bir kirib o‘tsa bo‘lardi... Ha, mayli, — deb mezbon tag‘in qo‘lini siltab qo‘ya qoldi.

Bir mahal to‘rda o‘tirgan ovul oqsoqollaridan biri qadah ko‘tarib so‘z qotdi:

— O‘rtoqlar, esinglarda bo‘lsa kerak, bir vaqtlar “a” harfini ham bilmagan “Duyshenning maktabida” bizlar ham o‘qigan edik... — U shu gapni aytdi-yu, ham ko‘ngli buzilib, ham kulgisi qistab, ko‘zini yumib, boshini chayqab qo‘ydi.

— Voy, tavba!

— Rost, rost! — deb kulib qo‘yishdi boshqalar.

— Nimasini aytasan! Ozmuncha nag‘ma ko‘rsatganmi Duyshen deganing? Biz bo‘lsak uni rasmana o‘qituvchi deb yuribmiz-a!

Qaq-qah kulgi bosilishi bilan haligi qadah ko‘targan odam yana gapini davom ettirdi:

— Mana endi, oldimiz dongi chiqqan akademik bo‘lib, ketimiz oliy ma’lumotli, o‘rta bilimli bo‘lib oldik. Ovulimizda bugun yangi o‘rta maktab ochdik, boshqa tomonlarini aytmaganda ham, zamonamizning qanchalik o‘zgarganligi shundan ko‘rinib turibdi. Qani, kelinglar, og‘a-inilar, ovulimizning o‘g‘il-qizlari bundan buyon ham o‘qimishli bo‘lib, o‘z zamonasining peshqadam kishilari qatoridan joy olishsin!

Bu gap hammaga ma’qul tushib, shov-shuv ko‘tarildi. Faqat Oltinoy Sulaymonova juda xijolat tortganday, labini tishlab qizarib ketdi. U, ryumkani labiga tegizdi-da, yana qaytib o‘rniga qo‘ydi. Gap, kulgi bilan alahsib qolgan odamlar uning bu holatini sezganlari ham yo‘q.

— Opa deyman, bir nimadan xijolat bo'lib o'tiribsiz-a? — dedim men.

— O'zim, shunchaki, inim, — dedi-da, Oltinoy Sulaymonvoa ikki-uch marta soatiga qarab qo'ydi, boshqa indamadi.

Keyin mehmonlar eshikka sayri havo qilishga chiqqanda qarasam, Oltinoy Sulaymonova bir chekkada yolg'iz o'zi tepalikda chayqalgan qo'shterakka tikilib, xayol surib turgan ekan, sekin qadam bosib yoniga bordim.

Botishga taraddudlanib kuzgi dalaning chetiga chiqib olgan qip-qizil kun nurlari tepalikda turgan teraklarning cho'qqilariga bir tegib, bir tegmay mavjlanib turgan ekan.

— Sho'rlik teraklar bargini to'kyapti, bahorda bu teraklarni gullaganda ko'rsangiz! — dedim.

— O'zim ham shuni o'ylab turgan edim, — deb Oltinoy Sulaymonova boshini silkib xo'rsinib qo'ydi. — Har bir jonivorning bahori ham, kuzi ham bor.

Uning ajin bosgan so'lg'in yuziga g'amgin-o'ychan ko'lanka tushib, o'tkir qora ko'zlari o'ksiganday bo'ldi, teraklarga dard-alam bilan tikilib qarab qoldi. Shu paytda ko'pni ko'rgan bu o'qimishli ayol, qani endi bir zamonlar o'tib ketgan o'n sakkiz yoshim qaytib kelsaydi, deb ko'nglidan o'tkazgan qizil ro'mol, qirmizi yuzini eslagan qadimgi qirg'iz ayollariga o'xshab ketdi.

Teraklarga tikilib u yana bir narsa aytgisi keldi-yu, lekin niyatidan qatydi shekilli, indamay turdi-da, birdan qo'lida ushlab turgan ko'zoynagini taqib oldi.

— Moskva poyezdi bu yerdan soat o'n birda o'tadi shekilli? — deb so'radi.

— Ha, opa, o'n birda o'tadi.

— Unday bo'lsa, hozir yo'lga chiqishim kerak ekan.

— Nega birdan ketadigan bo'lib qoldingiz? Bir-ikki kun turaman deb va'da bergan edingiz-ku? Hali javob ham berishmas.

— Zarur ishlarim bor. Hozir ketmasam bo'lmaydi.

Ovuldoshlari hammasi yopirilib, ketmaysiz, xafa bo'lamiz, deyishlariga qaramay, tayyor ovqatga ham turmay, Oltinoy Sulaymonova uzr so'radi-da, oxiri yo'lga chiqadigan bo'ldi.

Kun botib, qosh qorayganda, ovuldoshlari o'pkalaganday bo'lib uni mashinaga o'tqazib jo'natib yuborishdi. Men Oltinoy Sulaymonovani stansiyaga uzatib bordim.

Oltinoy Sulaymonova nima vajdan to'satdan yo'lga otlanib qoldiykin? Shunday ulug' ayyom kunida ovuldoshlarini ham xafa qilib qo'ydi. Yaxshi ish bo'lmadi. Ikki-uch yo'la sababini so'ray deb og'iz juftladim-u, lekin qattiq tegarmikin deb qo'rqdim. Hozirgi holatida savolimga biron javob bermasligiga ko'zim yetib turgandi. Yo'l bo'yi Oltinoy Sulaymonvoa bir og'iz ham gapirmadi, qattiq o'yga botib, yuzidan g'amginlik arimadi. Stansiyaga kelib, poyezdga tushar oldida yurak yutib undan so'radim:

— Opa, xafa ko'rinasiz, ko'nglingizga qattiq tegadigan biron gap o'tdimi?

— Yo'g'-e! Ko'nglingizga unday gap kelmasin! Kimdan xafa bo'lardim? O'zimdan xafa bo'lsam bo'ladi. G'aflatda qolgan ekanman... Qaytanga mendan har qancha domongir bo'lsanglar ham kamlik qiladi.

Shu bilan Oltinoy Sulaymonova Moskvaga jo'nab ketdi. Men shaharga qaytib kelgach, dastlabki kunlarning birida o'ylamagan-kutmagan yerda Oltinoy Sulaymonovadan xat oldim. Moskvada mo'ljalidan ziyodroq turib qolishidan darak berib, xatida bunday deb yozgandi:

"Qadrdon inim, shoshilinch zarur ishlarim bo'lsa ham hammasini yig'ishtirib qo'yib, shu xatni yozmaslikka ilojim bo'lmadi. Agar shu xatda yozganlarim sizni qiziqtirsa, shu hikoyatimni xalo-yiqqa yetkazish ustida o'ylab-mulohaza qilib ko'rsangiz, deb iltimos qilaman. Bu faqat bizning ovuldoshlarimizga emas, hammaga, ayniqsa yoshlarga ibrat bo'lar, deb o'ylayman. Men ko'p xayol ko'chalariga kirib chiqdim, oxiri shu fikrga keldim. Bu — mening shuncha zamonlardan buyon yuragimda asrab kelgan sirim. Qancha ko'p odam bu sirdan voqif bo'lsa, o'zimni shunchalik baxtiyor deb bilaman, vijdon azobidan shuncha ko'proq xalos bo'laman. Meni uyatga qo'yarmikanman deb xijolat ham bo'lmang. Hech narsani yashirmay, ochiq yozing..."

Bir necha kun shu xat ta'siri ostida yurib, oxiri qissani Oltinoy Sulaymonova tilidan hikoya qilishga qaror berdim.

* * *

... Bu voqea 1924-yili yuz bergandi. Ha, xuddi o'sha yili...

Hozirgi kolxozimiz yerlari u vaqtlarda o'troq kambag'al-jataqchilar ovuli edi. U vaqtlarda o'n to'rt yoshli yetim qiz bola edim, amakimning qo'lida turardim.

O'sha yili kuzda chorvadorlar tog'ga qishlovga ko'chib ketgandan keyin ovulimizda askar shineli kiygan bir yigit paydo bo'lib qoldi. Shineli esimda qolganining vaji shuki, u negadir qora movutdan tikilgan edi. El-yurtdan ovloqdagi tog' pinjiga kirib olgan kichkina qirg'iz ovulida bu katta bir voqea bo'ldi.

Oldin uni, o'zi komandir ekan, ovulga ham katta bo'lib kelibdi, deyishdi, keyin bilishsa, komandir qayoqda deysiz, ocharchilik vaqtida ovuldan temir yo'lga ketib dom-daraksiz bo'lib ketgan Tashtanbekning o'g'li Duyshen degan yigit ekan, uni ovulga o'qituvchi qilib yuborishganmish, maktab ochib, bola o'qitar ekan, deyishdi.

"Maktab", "o'qish" degan so'zlar u zamonlarda endi eshitilib kelayotgan gaplar edi, ularning ma'nosiga tushunadiganlar ham kamdan-kam edi.

Bu gap rostmikin, endi nima bo'larkin, deb turishganida bir mahal, xaloyiq ovul o'rtasidagi tepaga yig'ilsin, degan xabar kelib qoldi.

Amakim: "Voy, tavba, bu tag'in qanaqa majlis bo'ldiykin? Bo'lar-bo'lmasga odamlarni ishdan qoldirishdan boshqani bilishmaydi", — deb javrashini qo'ymaydi-yu, keyin axiyri eldan kam yerim bor ekanmi, deganday, qirchang'i bo'lsa hamki, otiga minib, yig'inga jo'nab ketdi, men ham uning ketidan qo'shni bolalarga ergashib yugurib bordim.

Biz entika-entika har gal yig'ilish bo'ladigan tepalikka yetib borganimizda, u yerda bir to'da otliq va yayov odamlar o'rtasida haligi qora shinel kiygan rangpar yigitcha nutq so'zlab turgan ekan. Uning gaplarini yaxshiroq eshitish uchun yaqinroq surilib borgan edik, po'stini yirtiq bir chol uyqudan turgan odamday, to'satdan tutilib-tutilib uning gapini bo'ldi:

— Ey, bolam, ilgari bola o'qitishni mullalarga chiqargan edi, sening otangni biz bilamiz. O'zi ham bizga o'xshagan oyoqyalang

edi. Qani ayt-chi, yigitcha, sen o'zing qayoqdan mulla bo'lib qolding? — dedi.

Duyshen shu ondayoq javob berib:

— Otaxon, men mulla emasman, men komsomolman. Endi mullalar bola o'qitmaydi, muallimlar o'qitadi. Men askarlikda yurib xat-savodli bo'lib olganman, ilgari ham oz-moz o'qigandim. Men mana shunaqa mullaman, bildingizmi? — dedi.

— Ha, mundog' degin...

— Baraka top! — deb uning so'zini ma'qullashdi.

— Ana shunaqa, komsomol meni muallimlikka tayinlab, bolalarni o'qitasan deb yubordi. Maktab ochish uchun biron joy kerak bo'ladi. Sizlar yordam bersangizlar, anuv tepadagi eski otxonani tuzatib, maktab ochsak degan o'yim bor. Qani, nima maslahat berasizlar?

Mushukday shumshayib bir ko'zini yumib egarning qoshini bir quchoqlab o'tirgan Satimqul tajang tirs etib tupurib qo'yib gap qotdi:

— E, qo'ysang-chi, o'qishingdan bizga nima foyda bor?

Duyshen nima deyishini bilmay ko'zlari lipillab ketdi.

— Rost, to'g'ri aytyapti, — deb boshqalar uning gapini ma'qullashdi. — Biz ketmon chopib kun ko'rib yurgan dehqonmiz, endi bolalarimiz o'qib amaldor bo'lisharmidi? Aylanay, ko'p boshimizni qotirma!

Hamma jim qoldi. Duyshenning rangi o'chib, ovozi qaltiradi:

— Sizlar nima, bolalaringizning o'qishiga qarshimisizlar? — deb o'rtaga savol tashladi.

— Qarshi bo'lsak nima, zo'rlik qilarmiding? Unaqa zamonlar o'tib ketgan. Hozir erkimiz qo'limizda, ozodlikka chiqqanmiz! — dedi kimdir birov.

Duyshenning rangi bo'zday oqarib ketdi. Shinelining ilgaklarini uzib yuborayozganday, cho'ntagidan to'rt buklangan qog'ozni olib shoshilib ochdi-da, hammaga ko'rsatib turib zarda bilan gap boshladi:

— Sizlar hali bolalarni o'qitish kerak, deb yozilgan bu qog'ozga qarshimisizlar, bunga Sovet hukumatining muhri bosilgan-a! Sizlarga yer-suv bergan, sizlarni ozodlikka chiqargan kim o'zi, bi-

lasizlarmi?! Qani, Sovet hukumatining qonuniga kim qarshi? Qani aytsin, kim?!

"Qani kim" deb azbaroyi baqirib aytgan gapi sukunatda yotgan kuz havosini o'qday yorib o'tib, aks-sadosi qoya toshlarga borib urilganday bo'ldi. Hamma yoq suv quyganday jim, hamma boshini egib turardi.

— Bizlar o'zimiz kimmiz — kambag'allarmiz, — deb endi Duyshen muloyimlik bilan, gap boshladi. — Bizni umr bo'yi xo'rlab, oyoq osti qilib kelishdi, johillikda o'tdi umrimiz. Sovet hukumati endi bizlarga ko'zi ochilsin, xat-savodi chiqsin deyapti. Buning uchun bolalarni o'qitishimiz kerak...

Duyshen javob kutganday jim turgan edi, haligi, sen qayoqdan mulla bo'lib qolding, deb so'ragan yirtiq po'stinlik odam insofga kelganday:

— Ha, mayli, juda bola o'qitging kelib qolgan bo'lsa, o'qitaver, bizga nima... — deb qo'ydi.

— Lekin sizlardan iltimosim bor, — dedi Duyshen, — menga yordam beringlar. Anuv tepadagi boydan qolgan otxonani tuzatsak deyman, ko'prik solish kerak, maktabga o'tin kerak bo'ladi...

— Shoshmay tur, hoy yigit, — deb Satimqul tajang yana tirs etib bir tupurdi-da, biron narsani nishonga olganday, ko'zlarini qisib turib gap boshladi:

— Sen, yigitcha deyman, maktab ochaman, deb muncha katta ketmasang? Ustinga kiyishga choponing yo'q, ostingda minishga oting, bir parcha bo'lsa ham haydab qo'ygan yering, qo'rangga bog'lab qo'ygan bironta moling yo'q-ku! Sen, nima, ot o'g'irlab kun ko'rmoqchimisan?..

— Bir kunim o'tar. Hukumat menga moyana to'laydi.

— Boyadan beri qayoqda eding, shundoq demaysanmi? — Satimqul gapni o'rinlatib, o'zidan-o'zi rozi bo'lganday, iljayib egar ustida bir kekkayib qo'ydi. — Gap bu yoqda ekan, bildik endi. Undog' bo'lsa, yigitcha, bilganingni qilib, hukumat moyanasi bilan bolalarni o'qitaver, hukumatning xazinasida nima ko'p, pul ko'p. Bizni tinch qo'y, o'z tashvishimiz ham boshimizdan oshib yotibdi...

Satimqul shu gaplarni aytdi-yu, otning boshini burib jo'nab qoldi. Uning orqasidan boshqalar ham tarqab ketishdi. Duyshen

qog‘ozni qo‘liga ushlagancha, nima qilishini bilmay anchagacha turib qoldi...

Men Duyshenga achinib ko‘zimni uzmay qarab qolgan ekanman, yonimda o‘tib borayotgan amakim jerkib:

— Ha, alvasti, sen nima qilib yuribsan bu yerda, tur, uyga bor! — degan edi, bolalarning orqasidan yugurib chopib ketdim. — Buni qara, bu tirmizaklar ham yig‘ilishga suquladigan odat chiqarishibdi-ya!

Ertasiga bir gala qizlar suvga ketayotganimizda yo‘lda Duyshenni ko‘rdik. U ketmon, belkurak, bolta ko‘tarib suvdan kechib o‘tib ketdi. Shu-shu har kuni azonda qora shinel kiygan Duyshen yolg‘iz o‘zi tepalikka, egasi tashlab ketgan otxonaga chiqib, kechqurun allamahalda ovulga qaytib tushardi. Goho orqasiga kattakon bir bog‘ yantoq yoki poxol ortib chiqib ketayotganini ko‘rardik. Uni uzoqdan ko‘rganlar uzangiga oyoq tirab, qo‘llarini soyabon qilib:

— Hoy, anavi tepalikda poxol orqalab ketayotgan Duyshen muallim emasmi! — deb qiziqsinib gaplashib ketishardi.

— Ha, o‘sha!

— Voy, sho‘ring qursin, muallimlik ham oson emas ekan-ku...

— Bo‘lmasa-chi! Orqalagan yukini qara, boyning qaroli ham muncha ko‘tarmaydi.

— Gapga kelganda eh-ha, juda chechan ko‘rinadi!

— Qo‘lida muhr bosilgan qog‘ozi bor-da: hamma gap shunda...

Bir kun adirdan tezak terib kelayotganimizda, muallim nima qilib o‘tirgan ekan deb maktab tomonga burildik. Bu saroy ilgari bir boyning otxonasi edi. Qish-qirovda qulunlagan biyalarni toychoqlari bilan shu yerda boqishardi. Sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyin boy qayoqqadir qochib ketdi-yu, shu bilan otxonasi bo‘sh qoldi. Bu yerga hech kim oyoq bosmay qo‘yganidan atrofini o‘t, tikanak bosib ketgan edi. Endi qarasak, tikanaklar ildizi bilan sug‘urib olinib bir joyga uyib qo‘yilibdi, otxona hovlisi supurib-sidirilibdi. Yomg‘ir yuvib, qulab tushgan devorlari loy bilan shuvalibdi, eshikning shalog‘i chiqib osilib qolgan halqasi bir amallab eplashtirib yana qoqib qo‘yilibdi.

Biroz dam olmoqchi bo‘lib, bo‘yimiz teng tezak qoplarni yerga qo‘yib turgandik, usti boshiga loy chaplangan, yenglari shimaril-

gan Duyshen uydan chiqib keldi-da, bizni ko'rib, yuzidagi terlarini artib:

— Ha, yaxshi qizlar, kelinglar. Tezak terib yuribsizlarmi? — dedi.

Biz uyalganimizdan churq etmay, bir-birimizga qarab, qop tagida o'tirgan yerimizdan, ha, deganday bosh silkib qo'ydik. Duyshen uyalganimizni sezdi-da, bizga dalda berganday jilmayib gap qotdi:

— Qoplaringiz o'zingizdan ham katta-ya! Kelganinglar yaxshi bo'pti qizlar, bu maktabni sizlarga atab ochyapman. Maktabinglar ham taxt bo'lib qoldi. Hozirgina bir burchakka pechkaday qilib o'choq ham qurib qo'ydim, ana, ko'rdinglarmi, tomdan mo'risi ham chiqib turibdi! Endi qishga o'tin g'amlasak bo'lgani, o'tindan g'am yemasak ham bo'ladi, dalada nima ko'p — quvray ko'p. Yerga qalin poxol to'shaymiz-da, ana undan keyin o'qishimizni boshlab yuboramiz. Qalay, o'qishga havasinglar bormi, maktabga qatnab turasizlarmi?

Dugonalarim orasida yoshi kattasi men edim, shu sababdan javob berishga botinib:

— Kennoyim yuborsa, qatnab turaman, — dedim.

— Nega yubormas ekan, uyga qamab, ustingdan qulf solib qo'yarmidi? Isming nima?

— Oltinoy, — dedim, etagimning yirtig'idan ko'rinib turgan tizzamni kaftim bilan bekitib.

— Oltinoy — isming ham o'zingga mos, chiroyli ekan. — U erkalatganday jilmayib qo'ygan edi, dilim ham iliganday bo'ldi. — Oltinoy, esli qiz ko'rinasan, boshqa bolalarni ham o'zingga ergashtirib, maktabda o'qiymiz, deb olib kelgin, xo'pmi?

— Xo'p, amaki.

— Meni og'ay denglar. Maktabni ko'rasizlarmi? Tortinmasdan kirib ko'raveringlar.

— Yo'q, biz uyga ketamiz, — deb uyalinqirab javob berdik.

— Mayli bo'lmasa, uy-uyinglarga boringlar, bira-to'la o'qishga kelganda ko'rarsizlar. Men qorong'i tushguncha borib yana biroz yantoq o'rib kela qolay.

Duyshen o'roq, arqonlarni olib dalaga qarab ketdi. U ketgandan keyin biz ham qoplarimizni orqalab ovul tomon jo'nab qoldik. To'satdan boshimga bir fikr keldi:

— Hoy, qizlar, — deb dugonalarimni to‘xtatdim. — Kelinglar, tezagimizni maktabga to‘kib ketamiz, har qalay qishga yarab qolar.

— Uyga quruq boramizmi? Aqlingni yeganmisan!

— Borib yana terib kelamiz-da.

— Be, kech bo‘lib qoldi, uyda toza so‘kish eshitamiz.

Shunday deyishdi-da, o‘rtoqlarim menga qaramasdan, qoplarni ko‘tarishib jo‘nab qolishdi.

Men o‘shanda nima vajdan shunday qilganimga hali-hali tuzukkina aqlim yetmay yuradi. Qizlar gapimga kirmaganlaridan izza bo‘lib orim keldimi yoki go‘daklik chog‘imdan men sho‘rlik biron shirin so‘z eshitmay bir umr dakki yeb, ko‘z yoshim ham qurib qolganidanmi, ko‘rmagan, bilmagan bir odam yuragimni ilitib: “Es-hushli qiz ekansan”, deb erkalatib aytgan ikki og‘iz shirin so‘zi meni eritib yubordimi...

Qismatim, toleim, hayotimning butun achchiq-chuchuklari, azob-uqubatlari mana shu bir qop tezakdan boshlanganini yaxshi bilaman, bunga imonim komil. Bunday deyishimning boisi shuki, o‘sha kuni bu qilmishimning oxiri nima bo‘ladi, deb o‘ylab-netib o‘tirmay, umrimda birinchi marta yurak yutib ko‘nglim tortgan ishga tavakkal qadam qo‘ydim.

O‘rtoqlarim meni tashlab ketishgandan keyin yugurib Duyshenning maktabiga qaytib bordim, qopdagi tezakni eshik tagiga to‘kdim-da, tezak terish uchun g‘izillab yana adirga tushib ketdim.

Kattakon bir ishni qoyil qilib qo‘yganday, yuragim dukillab, sevinchim ichimga sig‘may ketdi. Kuch-g‘ayratim jo‘sh urib, to‘g‘ri kelgan tomonga chopqillab ketaveribman. Baxtiyorligimdan quyosh ham xabardor-u, u ham quvonchimga sherikday, qushday parvoz qilib ketishimdan uning ko‘ngli ochilganini o‘zim ham bilardim. Nega deganda, hozirgina savob ish qilgan edim-da!

Quyosh tepalar ustiga yaqin kelib qolgan edi-yu, lekin, nazarimda, nigohimga to‘yib olgisi kelganday, hali-veri botgisi yo‘q edi. Quyosh yo‘limga poyondoz solib, oyoqlarim ostidagi kuz tuprog‘ini to‘q qizil, pushti va och qizil nur bilan bezab turardi. Gir atrofimda kapalakchalar lip-lip etib olovday yonadi. Ming yamoq kamzulimning kumush rang tugmalarida quyosh olovday yonib turadi.

O‘zim g‘izillab chopib ketyapman-u, yer, osmon, shamolga qarab: meni ko‘rib qo‘yinglar! Ko‘rdingizmi, g‘ururdan boshim osmonda! Men endi maktabda o‘qiyman, boshqa bolalarni ham o‘zim bilan o‘qishga olib boraman... — deb shodligim ichimga sig‘may ketyapti.

Shu ko‘yi o‘zimda yo‘q, o‘ynoqlab yugurib borayotgan edim, bir vaqt tezak terish esimga tushib qoldi. Qiziq, yoz bo‘yi bu yerlardan poda arimas, har qadamda tezak uchrardi. Endi, aksiga olib, tezakdan nom-nishon ham ko‘rinmasa-ya, xuddi yer yutganday! Yo o‘zim qidirmadimmi? Tezak axtarib yuraveribman. U zormanda qolg‘ur ham onda-sonda bir ko‘rinib qoladi deng. Qorong‘i tushguncha qopim to‘lmay qolsa-ya, deb yuragimni vahima bosib, shoshilganimdan chiy butalari orasida adashib qolibman. O‘zim qo‘rqib ketyapman.

Bir amallab qopimni yarimlaganimda kun botib, adirlarga bir zumda, qorong‘i tushdi-qo‘ydi.

Hech mahal yolg‘iz o‘zim bunday bemahalda yurmagan edim. Sukunatga cho‘mgan tepalarni zimiston tun burkab oldi. Bu yerda meni bir narsa ushlab qoladiganady, qopni darrov yelkamga tashlab, ovulga qarab chopdim. Azbaroyi vahima bosganidan, baqirishim, yig‘lashim ham hech gap emasdi, lekin Duyshenning haligi gaplari esimdan chiqmagan, u ojizligimni ko‘rib yana mendan hafsalasi pir bo‘lmasin, degan xayolga bordim-da, or-nomus kuchlilik qildi, ko‘zimni chirt yumib, damimni ichimga yutib kelaverdim. O‘qituvchi xuddi menga tikilib qarab turganday, yon-verimga qarashdan ham hayiqaman, o‘zimni dadil tutib boraverdim.

Hamma yog‘imdan ter quyilib, chang bosib ovulga yetib keldim, hansiraganimcha ostona bosib uyga kirgan edim, o‘choq yonida o‘tirgan kennoyim menga qarab o‘shqirib o‘rnidan turib ketdi. Kennoyim o‘zi badfe’l, qo‘pol ayol edi.

— Qaysi go‘rda yuribsan? — deb dag‘dag‘a qildi men tomon tashlanib, javob qaytargunimcha bo‘lmay qo‘limdagi qopni yulib olib uloqtirib yubordi: — Qorong‘i tushgacha sanqib yurib tergan tezaging shumi?!

Qizlar kelib allaqachon chaqimchilik qilib qo‘yishgan bo‘lsa kerak, deb o‘yladim.

— Xudoning balosi, itvachcha! Maktabda kiming bor? O'liging qola qolsa bo'lmasmidi shu maktabda! — Kennoyim qulog'imni burab ura ketdi, — itvachcha, yetimcha! Bo'rining bolasi o'lganda ham it bo'lmaydi! Odamlarning bolalari daladan uyga tashisa, sen uydan dalaga tashiysan! Maktabingni burningdan chiqarmasam... Qarab tur hali. Ikkinchi oyoq bosganingni ko'rsam, iligingni sindiraman. Hali shoshma, seni... Qani maktabdan og'iz ochib ko'r-chi!

Baqirib yubormasam go'rgaydi, deb nafasimni chiqarmay o'zimni bosib turdim. Keyin o'choqqa xashak tashlab, ko'k mushugimni silab o'tiraverdim, ko'zimdan tirqirab yosh chiqib ketdi... Mushugim har gal yig'laganimda kelib tizzamga o'tirib olardi. Kennoyimning kaltagidan yig'laganim yo'q, qarg'ish-do'pposlashlariga-yu o'rganib qolgandim: endi kennoyim meni o'lsa ham maktabga yubormaydi, deb shunga kuyib yig'ladim...

Chamasi, shundan ikki kun o'tgach, ertalab ovulda itlar hurib, odam ovozlari eshitilib qoldi. Bilsak, Duyshen uyma-uy kirib bolalarni o'qishga yig'ib yurgan ekan. U vaqtlarda ovulimizda ko'cha qayoqda deysiz, guvala uylar ovulda yakkam-dukkam-u, har kim ko'ngliga yoqqan joyga uy solib o'tiraverardi. O'ntacha bolani eragshtirib, Duyshen hovlidan-hovliga kirib yurgan ekan.

Bizning hovlimiz bir chekkada edi. Kennoyim ikkalamiz o'g'irda tariq yanchib turgan edik, amakim hovlida o'raga ko'milgan bug'doyni olayotgan edi, bozorga eltib sotmoqchi bo'lgan ekan. Kennoyim ikkalamiz navbatma-navbat o'g'ir dastasini goh ko'tarib, goh tushirib tariq yanchib turibmiz-u, fursat kelganda Duyshenlar tomonga ko'z qirimni tashlab ham olaman. Bizning hovliga kirmay burilib ketmasaydi, deb qo'rqaman. Kennoyim meni maktabga bermasligiga ko'zim yetib turgan bo'lsa ham, nimadandir umidvor bo'lib, hech bo'lmasa muallim bu hovlida turishimni bilib qo'ysin, deb betoqatlik bilan kutaman: "Ey Xudo, kela qolsa ekan", deb Xudodan tilak tilab turibman.

— Salom, yanga, hormanglar, mana bir gala bo'lib hol-ahvol so'ragani keldik, — deb Duyshen hazil-huzul bilan salom berib, bir to'da bolalarni orqasidan ergashtirgancha hovliga kirib keldi.

Kennoyim salomiga istar-istamas alik olganday bir nima deb ming'irlab qo'ydi-yu, lekin amakim o'radan boshini ko'tarmadi ham. Duyshen pinagini ham buzmay, hovlining o'rtasida yotgan g'o'laga savlat to'kib borib o'tirdi, qo'liga qalam-qog'oz oldi.

— Bugun maktabni ochmoqchimiz. Qizingiz necha yoshda?

Kennoyi javob qaytarmay, zarda bilan o'g'ir dastasini "gurs" etib urdi-da, yana aylantirib-aylantirib qo'ydi. Kennoyimning gapirgisi kelmay, ensasi qotib turganligi avzoyidan sezilib turardi.

Endi nima bo'lar ekan, deb ichimdan zil ketganday bo'ldim.

Duyshen menga qarab, kulib qo'ygan edi, huv bir galdagiday ko'nglim yayrab ketdi.

— Oltinoy, necha yoshga kirgansan? — deb so'radi. Men qo'rqqanimdan indamadim.

— Yoshi bilan nima ishing bor,·nima, tergovchimisan! — dedi qo'rslik bilan kennoyim. — O'qishing o'zingga buyursin. Bunga o'qishni kim qo'yibdi, nonni "nanna" deb yurgan, erkatoylar ham o'qimasdan yurishibdi-ku! Bir galasini yig'ib olibsan-ku, o'shalarni olib boraver maktabingga, biz bilan ishing bo'lmasin.

Duyshen irg'ib o'rnidan turdi-da, rangi o'chib, qovoqlari solinib:

— Bu gapni o'ylab gapiryapsizmi? Xo'sh, yetim Xudoga nima yomonlik qilibdi? Yoki yetimlar o'qimasin degan zakon bormi?

— Zakon-pakoning bilan ishim yo'q. Men o'zim zakonman, menga zakonchilik qilma.

— Og'zingizga qarab gapiring. Bu qiz sizga kerak bo'lmasa, bizga kerak. Sovet hukumatiga kerak! Bizga qarshi chiqsangiz, zakonchiligimizni ko'rsatib ham qo'yamiz!

— Sen o'zing kimsan, kim seni katta qilib qo'ydi! — deb o'dag'ayladi kennoyim. — Bunga, yedirib-ichirib yurgan men xo'jayinlik qilamanmi yoki sayoqvachcha darbadar senmi?

Shu paytda beligacha yalang'och bo'lib olgan amakim o'radan ko'rinmaganda, bilmadim, bu dahanaki jangning oxiri nima bo'lardiykin? Amakim bu uyda er kishi, xo'jayin borligini unutib, xotinining har narsaga burnini suqishini yoqtirmasdi. Shunday paytlarda xotinini o'lguday tutib urardi. Bu gal ham zardasi qaynab ketdi shekilli:

— Hoy, xotin deyman! — deb jerkib tashladi u, o‘radan chiqib, — sen qachondan beri bu uyning biy-bekasi bo‘lib qolding?! Ko‘p gapirma, ishingni qil! Ayda, Tashtanbekning o‘g‘li, adi-badi aytishib o‘tirma, olib ketaver qizni, o‘qitasanmi-cho‘qitasanmi, bilganingni qil. Ayda, qo‘radan tuyog‘ingni shiqillatib qol! Ket...

— Buni maktabda yayratib qo‘yib, o‘g‘irni kim yanchar ekan-u, qozon-tovoqqa kim qarar ekan, — deb kennoyim manjalaqilik qila boshlagan edi, amakim baqirib:

— Yum og‘zingni, gap bitta! — dedi.

Har yomonning bir yaxshisi bor, deganlariday, birinchi marta maktabga borishim mojarosi shunday bo‘lgan edi.

Shundan buyon Duyshen har kuni ertalab hovlima-hovli yurib, bizni maktabga olib ketar edi.

Birinchi kuni maktabga borganimizda u bizni yerga to‘shalgan poxl ustida o‘tqazib, har birimizga bittadan daftar, bittadan qalam va bittadan taxtacha berdi-da:

— Taxtachani tizzangizga qo‘ysangiz xat yozish oson bo‘ladi, — deb tushuntirdi.

Keyin devorga yopishtirilgan suratni ko‘rsatib:

— Bu kishi Lenin! — dedi.

Leninning shu surati bir umr esimda qoldi. Keyin bu suratni nimagadir hech yerda uchratmadim, o‘zimcha uni “ Duyshen ko‘rsatgan surat”, deb yuraman. Lenin o‘sha suratida halpillagan harbiy kiyimda, ozg‘in, soqol-mo‘ylovi o‘sgan edi. Yarador qo‘lini bo‘yniga osib olgan, bostirib kiygan kepkasi ostidagi ziyrak ko‘zlari bilan sokin boqib turardi. Bu mayin, mehrli ko‘zlar bizga: “Bolakaylar, kelajagimiz qanday porloq bo‘lishini bilsangiz edi!” deb turganday edi. O‘sha xayrli daqiqada, nazarimda, u chindan ham mening kelajagim to‘g‘risida xayol surib turganday tuyulgandi.

Duyshen bu suratni ko‘pdan beri yonida olib yurgan bo‘lsa kerak, rosmana plakat qog‘ozga bosilgan ekan, eskirib, chetlari unda-munda yirtilib ham ketgan... Maktabimizning to‘rt devorida shu suratdan boshqa hech nima yo‘q edi.

— Bolalar, men sizlarga harf yozishni, o‘qish va hisobni o‘rgataman, — degan edi o‘shanda Duyshen. — O‘zim nimani bilsam, sizlarga ham shularni o‘rgataman...

Aytganiday, Duyshen bilganlarini ayamasdan, sabr-toqat bilan bizga ta'lim bera boshladi. Har birimizning yonimizga kelib qalam ushlashni o'rgatib bo'lgandan keyin, biz eshitmagan gaplarni zo'r ishtiyoq bilan tushuntirib, qulog'imizga quyib bordi. Hozir ham o'ylab turib, yozilgan narsani o'zi zo'rg'a hijjalab o'qiydigan bu chalasavod yigitning shunday buyuk ishga bel bog'laganiga hayron qolaman, axir uning qo'lida bironta darslik, hatto oddiy alifbe kitob ham yo'q edi-da! Ota-buvalari, yetti pushti xat-savodsiz o'tib kelgan bolalarni o'qitish oson gap deysizmi! Duyshenning na dars programmasi va na metodikadan xabari bor edi. Dunyoda bunday narsalar borligini bilmasdi ham.

Duyshen bizni bilganicha, qo'lidan kelganicha o'qitdi, ko'ngliga nima kelgan bo'lsa shuni o'qitaverdi. Uning sof ko'nglidan chiqqan g'ayrat-tashabbusi behuda ketmadi, o'z samaralarini berdi, bunga imonim komil.

U qahramonlik ko'rsatdi-yu, lekin bu qahramonligidan o'zi ham bexabar edi. Ha, bu chin qahramonlik edi, nega deganda, o'sha kezlarda ovulidan boshqa joyni ko'rmagan qirg'iz bolalari ko'z oldida, agar yoriq-teshiklardan qorli tog' cho'qqilari ko'rinib turadigan shu kulbani maktab deb atash mumkin bo'lsa, shu maktabda to'satdan quloq eshitmagan, misli ko'rilmagan yangi dunyo namoyon bo'ldi.

Lenin yashab turgan Moskva shahri Avliyo-Otadan katta, Toshkentdan ham bir necha marta kattaligini, dunyoda Talas vodiysiday keladigan ulkan-ulkan dengizlar borligini, bu dengizlarda tog'day-tog'day kemalar suzib yurishini biz ana o'shanda bilgan edik. Bilsak, bozorda sotiladigan lampa moyini yer ostidan qazib chiqarishar ekan. Xalq boyib, turmushimiz yaxshilanganda maktabimiz derazalari katta-katta oq uyda bo'lib, bolalar partalarda o'tirib o'qiydigan bo'lishiga biz o'sha vaqtdayoq ishongan edik.

Uncha-muncha harf taniganimizdan keyin, "Ota", "Ona"ni yozishni bilmasak ham, birinchi yozgan so'zimiz "Lenin" bo'ldi. bizning siyosiy alifbemiz: "boy", "batrak", "sovet" degan so'zlar edi. Duyshen "revolutsiya" so'zini yozishni bir yildan keyin o'rgataman, deb va'da qildi.

Duyshen, otasi temir yo'lda ishlab yurgan kezlari, Mixail Semyonovich degan bir keksa muallimning qo'lida ikki qish o'qigani, keyin armiyaga borib, oqlar bilan urushganlarini hikoya qilganda, biz ham xayolimizda u bilan yonma-yon turib jang qilganday bo'lardik. Lenin to'g'risida xuddi uni o'z ko'zi bilan ko'rganday hayajonlanib gapirardi. Uning aytganlarining ko'plari, albatta, buyuk dohiy haqida xalq og'zida doston bo'lib yurgan rivoyatlar edi. Bunga hozir aqlim yetib turibdi, lekin bular o'sha kezlarda biz, Duyshen shogirdlari uchun kundek ravshan haqiqatlar edi.

Bir kun oqko'ngillik bilan:

— Og'a, Lenin bilan qo'l berishib ko'rishganmisiz? — deb savol bergandik, muallimimiz bir xil bo'lib bosh chayqadi-da:

— Yo'q, bolalar, Lenin bilan yuz ko'rishish nasib bo'lgan emas menga, — deb bizning oldimizda xijolat bo'lganday xo'rsinib qo'ydi.

Har oyning oxirida Duyshen ish bilan volostga piyoda jo'nab ketardi-yu, shu bilan ikki-uch kun deganda qaytib kelardi.

Shu kunlarda biz uni juda sog'inib qolardik. Bir tug'ishgan akamni kutganday kennoyimga sezdirmay, tez-tez pastki yo'lga qarab, muallimning xurjun ko'targan qorasi ko'rinarmikin, yuragimni ilituvchi tabassumini qachon ko'rarkinman, ma'rifatli so'zlarini qachon eshitarkinman, deb yo'liga intizor bo'lib kutardim.

Duyshenning shogirdlari ichida eng kattasi men edim. Shuning uchun ham boshqalardan uquvim yaxshiroq edi, lekin, nazarimda, boshqa sababi ham yo'q emasdi. Muallimning har bir so'zi, ko'rsatgan har bir harfi men uchun tabarruk, muallimga ixlosim zo'r edi. Duyshenning ta'limini qulog'imga quyib olishdan ham muhimroq ilinjim yo'q edi bu dunyoda.

Duyshenning bergan daftarini ayab-avaylab, uni yer-ko'kka ishonmay, yurgan yo'limda o'roq uchi bilan yer chizib, ko'mir bilan devorga, xivich bilan qor ustiga harf suratini solib, so'z to'qib yurardim. Nazarimda, dunyoda Duyshendan o'tar olim, undan o'tar aqlli odam yo'q edi.

Shu orada qish ham kirib qoldi.

Birinchi qor tushguncha tepaning etagida shildirab oqib turgan ariqdan qo'l ushlashib kechib o'tib yurdik. Keyin ariqning suvi

oyoqni kesib yuboradigan bo'lib, kichkina bolalarning ko'zidan tirqirab yosh ham chiqib ketdi. Endi bolalar turnaday tizilib turishardi. Duyshen ularni galma-galdan bittasini yelkasiga olib, ikkinchisini qo'lida ko'tarib ariqdan o'tkazib qo'yardi.

Shularni hozir o'ylab ketib, ko'rgan ko'zimga ham ishongim kelmay qoldi. Odamlar o'sha vaqtda johilligidanmi deyman yoki bo'lmasa aqli kaltalik qilganmi, haytovur, Duyshendan kulishardi. Tog'da qishlab, har zamon tegirmonga kelgan boylarni asti qo'yavering. Ustlarida pochapo'stin, boshlarida suvsar telpak, ostlarida semiz otlarini o'ynatib, kechuv yonida bizga duch kelganlarida Duyshenni kalaka qilganlari-qilgan edi:

— Manavi, bittasini qo'liga, bittasini orqalab olgan jo'jabirday kim o'zi? — deb qamchisi bilan turtib o'tmay qo'ymasdi birontasi.

Boshqa biri:

— Attang, bunaqa mehnatkashligini bilganimda, kichik xotinlikka olardim-ku! — deb xaxolab kulib, hamma yog'imizga loy sachratib o'tib ketishardi.

O'shanda xo'rligim kelib yig'laguday bo'lardim, g'azabim qaynab, kuchim yetsa otning tizginidan ushlab: "Muallimimizning sadaqasi ketgur, uyatsiz, ahmoqlar!" — deb yuzlariga tik boqib qichqirgim kelardi.

Biroq norasida qizning gapiga kim ham quloq solardi. Achchiq-achchiq ko'z yoshlarimni ichimga yutib qolaverardim. Duyshen bo'lsa hech nima ko'rmagan, hech nima eshitmaganday, bu sassiq gaplarga parvo ham qilmasdi. Qaytanga, biron qiziq gap o'ylab topib, bizlarni alahsitish payidan bo'lardi.

Ko'prik solishga yog'och topish uchun Duyshen har qancha harakat qilsa ham, bo'lmadi. Bir kuni maktabdan qaytayotganimizda, bolalarni ariqdan o'tkazib qo'ydik-da, Duyshen ikkalamiz ariq bo'yida qoldik. Suv kechishdan qutulish uchun tosh va chimdan hatlamchi yasamoqchi bo'ldik.

Rostini aytganda, ovuldagilarning o'zlari insof qilishsa, shu yerga ikkita-uchta taxta olib kelib tashlashsa, ko'prik ham bitardi-qo'yardi, lekin u zamonlarda o'qishning ma'nosiga aqli yetmagan xaloyiq, Duyshenni anchayin bekorchi afandi deb bilishardi. Chidasang o'qit, bizni tinch qo'y, deganday, ot kechgan yerga

ko‘prik solib o‘rganmagan odamlar, bizning mushkulimizni oson qilish yetti uxlab tushlariga ham kelmabdi-ya! Lekin ular, tanalariga bir o‘ylab ko‘rishsa bo‘lardi: nima uchun boshqalardan ortiq bo‘lsa borki, lekin kam yeri bo‘lmagan, aqli hushi joyida bu navqiron yigitning shuncha azob-uqubat, xo‘rliklariga qaramay, tirishib-tirmashib ularning bolalarini o‘qitib, qo‘lidan kelganicha ularga ilm berayotganining vaji nima edi?

Biz o‘sha kuni ariqqa hatlamchi solayotganimizda birinchi qor tushgan edi. Suyak-suyaklardan o‘tib oyoq-qo‘lni qaqshatgan muzdek suvda Duyshenning oyoq yalang bo‘lib olib, katta-katta xarsang toshlarni ko‘tarib yurganiga hali-hali aqlim yetmaydi. Ariqning o‘rta yeridan zo‘rg‘a qadam tashlab borardik, suv oyog‘imni kesib ketay derdi, bir vaqt boldirimning tomiri tortishib, alamiga chidolmay qoldim, nomus kuchli, na baqirishimni bilaman, na qaddimni rostlay olaman. Ko‘zim tinib yiqilib ketayotgan ekanman, Duyshen ko‘rib qoldi, qo‘lidagi toshni irg‘itib yuborib yonimga yugurib keldi, dast ko‘tarib, ariqdan olib chiqdi-da, yerda yotgan shineliga qo‘ydi. U goh tirishib, ko‘karib qolgan oyoqlarimni uqalar, goh muzlab qolgan qo‘llarimni kaftlari orasiga olib ishqalar, goh og‘ziga yaqin olib borib dami bilan ilitardi.

— Qo‘y, Oltinoy, sadag‘ang ketay, sen shu yerda isinib o‘tiraver, — deb Duyshen yalinganday bo‘ldi, — men o‘zim hozir bitkazaman...

Hatlamchini bitirgandan keyin, Duyshen etigini kiyib turib, sovuqdan hurpaygan avzoyimni ko‘rib miyig‘ida kulib qo‘ydi:

— Isidingmi, hasharchi qiz? Shinelni yopinib ol, ha balli! — dedi. Birozdan keyin: — Huv o‘shanda tezak qoldirib ketgan senmiding, Oltinoy? — deb savol berdi.

— Ha, dedim men.

Duyshen o‘zi bilan o‘zi gaplashganday: “O‘zim ham shunday deb o‘ylovdim” deganday miyig‘ida kulib qo‘ydi.

Hali-hali esimda, o‘sha onda ikki yuzim yonib olov bo‘lib ketdi: bundan chiqdi, bu arzimagan narsani muallimim bilgan va esida saqlab yurgan ekan-da! O‘zimni baxtiyor his qildim, boshim osmonga yetdi.

Duyshen ham mening xursandligimni sezdi.

— Sadag‘asi ketay, shu oppoq qizni, — dedi u meni erkalatib, — qanday dono qizki... qani endi qo‘limdan kelsa, seni katta shaharga yuborib o‘qitsam. Ulug‘ martabali odam bo‘lib yetishar-ding-a!

Shunday dedi-yu, Duyshen shartta burilib ariq bo‘yiga bordi.

Toshlar ustidan shaldirab oqib turgan ko‘m-ko‘k suv labida ikki qo‘li orqasida-yu, ko‘krak kerib, tog‘ ustidan suzib o‘tayotgan oq bulutlarga chanqoq ko‘zlari bilan tikilib, o‘y surib turgani hali-hali ko‘z oldimdan ketgan emas.

Nimalarni o‘yladi ekan o‘shanda? Xayolida meni rostdan ham katta shaharga o‘qishga yuborgan bo‘lsamikin! Men bo‘lsam Duyshenning shineliga o‘ralib olib: “Oh, qani endi Duyshen tug‘ishgan akam bo‘lsa-yu, bo‘yniga osilib erkalab qattiq-qattiq quchoqlasam, ko‘zimni chirt yumib dunyoda bor shirin-shirin gaplarni shivirlab qulog‘iga aytsam! Ey, Xudoyim, uni menga tug‘ishgan aka qila qolsang nima bo‘pti!” — deb tilak tilagan edim. O‘shanda muallimimizni odamgarchiligi, yaxshi niyatlari uchun, bizlarning kelajagimiz to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilganligi uchun ham unga mehr qo‘yib, izzat-hurmatini bajo keltirgan bo‘lsak kerak. Bizlar go‘dak bolalar bo‘lsak ham, o‘yimcha, o‘sha vaqtdayoq aqlimiz yetib turardi shunaqa narsalarga.

Bo‘lmasa tizzadan suv kechib, izg‘irinda nafasimiz bo‘g‘ilib, shuncha uzoq joyga — tepalikka har kun qatnab tinka-madorimizni quritishga bizni kim majbur qilardi, deysiz? Maktabga o‘z ixtiyorimiz bilan havas qilib borardik. O‘qishlaringga borsalaring-chi, deb bizni qistovga oladigan hech kim yo‘q edi. Bu muzxona saroyda yuz-ko‘zlarimizni qirov bosib, oyoq-qo‘llarimiz sovuqdan muzlab qolsa ham, chidab o‘tirardik. Faqat pechka yoniga borib navbatma-navbat isinib olardik, qolganlarimiz o‘z o‘rnimizda Duyshenning darslariga quloq solib, o‘qish bilan mashg‘ul bo‘lardik.

Mana shunday qahraton qish kunlaridan birida, endi o‘ylasam yanvar oyining oxirlarida bo‘lsa kerak, Duyshen uyma-uy kirib, bizlarni yig‘di-da, maktabga boshlab ketdi. U indamay borar, qovoqlari burgut qanotiday uyulgan, rangi o‘chgan, yuzi bamisoli cho‘g‘da toblangan temirday unniqib ketgan edi. Biz muallimimizni hech qachon bunday holatda ko‘rmagan edik. Uning avzoyi-

ga qarab bizlar ham jim bordik: biron ko'ngilsiz hol yuz berganini sezib turardik.

Yo'lda qor tepaliklariga duch kelganimizda Duyshen doimo avval o'zi yo'l ochar, uning ketidan men yurardim, keyin hamma bolalar o'tib olishardi. Bu gal ham tepaga chiqaverishda kechasi qor uyilib qolgan ekan, Duyshen yo'l ochgani oldinga o'tib ketdi. Ba'zida odamning orqasidan ham uning avzoyini, ko'nglidan nima gaplar o'tayotganini bilsa bo'ladi. O'shanda ham muallimimiz boshiga og'ir musibat tushganligi sezilib turardi, nega deganda, u boshini quyi solib zo'rg'a oyoq sudrab ketayotgan edi. Ko'z oldimda goh qora, goh oq dahshat solib namoyon bo'lib turgani hali-hali esimda: bizlar g'ozday tizilib tepalikka chiqib ketayotganimizda, qora shinel ostidan Duyshenning bukchaygan qaddi ko'zga tashlandi, undan yuqorida oppoq qor tepaliklari tuya o'rkachlariday ko'rinib turar, shamol har gal hamla qilganda ularning uchini uchirib ketardi, undan ham balandroqda — sutday oppoq osmonda bir qora bulut qora dog'day ko'zga chalinardi.

Maktabga yetib kelganimizda Duyshen pechkaga olov ham yoqmadi.

— O'rninglardan turinglar, — deb buyurdi.

Hammamiz o'rnimizdan turdik.

— Telpaginglarni olinglar, — dedi.

Bizlar hammamiz itoatgo'ylik bilan telpagimizni qo'limizga oldik, o'zi ham askarlikdan kiyib kelgan quloqchinini boshidan yulib oldi. Nima bo'layotganiga aqlimiz yetmay turaverdik. Keyin muallimimiz sovuqdan bo'g'ilgan uzuq-uzuq ovoz bilan gap boshladi:

— Lenin otamiz olamdan o'tdi, hozir butun dunyoda odamlar motamda. Sizlar ham joy-joylaringizdan qo'zg'almay, mana bu suratga qarab turinglar. Bu kun bir umr xotiringizda saqlanib qolsin.

Maktabimizning ichi xuddi suv sepgandek jimjit bo'lib qoldi. Eshik-teshikdan shamolning uvillashi, shamol uchirib kelgan qorning shitirlab poxol ustiga tushishi ham eshitilib turardi.

Tinim bilmagan shaharlar jimib, yer-u ko'kni larzaga keltirib turgan zavodlar sukutga ketganda, gumburlab dala-dashtlarni yangratib turgan poyezdlar yetgan joyida to'xtab, butun dunyo motam

libosiga burkanib olganda — mana shu motam soatida xalqning bir bo'lagining bir zarrasi bo'lmish biz, Duyshenning shogirdlari maktabimizda, hech kim ko'rmagan, hech kim bilmagan bu muzday saroyda muallimimiz bilan yonma-yon g'amgin qiyofada saf tortib turardik. Lenin uchun hammadan ko'proq kuyib-pishgan, eng yaqin kishilariday vidolashdik. Lenin bobomiz bo'lsa yarador qo'li bog'loqlik, boyagi-boyagiday halpillagan harbiy kiyimda devorga osiqlik joyidan bizlarga jilmayib qarab turardi. U hamon o'sha ochiq chiroyi bilan bizga qarab: "Kelajagingiz qanday go'zal, qanday porloq bo'lishini bilsangiz edi!" deganday bo'lardi. O'sha sokin daqiqada, nazarimda, darhaqiqat u mening kelajagimni o'ylab turganday ko'rinib ketdi ko'zimga.

Keyin Duyshen ko'z yoshlarini artib, bizga bir ko'z yugurtirib chiqdi-da:

— Men bugun volostga jo'nab ketaman. Partiyaga kiraman. Uch kundan keyin qaytib kelaman, — dedi.

O'sha uch kun, nazarimda, tabiatning eng achchiq, eng qayg'uli kunlari bo'ldi. Dunyodan o'tgan ulug' zotning o'rni to'lmay, tabiat armon taronasini bo'ronga, o'ksik-o'ksik o'shqirgan shamolga berib, dardi alamini qahraton sovuqqa berib, qoya va xarsang toshlarga kelib o'zini urdi, tinchini topolmay qoldi... Qayg'u-hasrat, nadomat, talpinishdan o'zini tutolmay, dod faryod ichida yerparchin bo'laverdi...

Ovulimizga jimlik cho'kdi, pastlab tushgan bulutlar orasida g'ira-shira qorasi ko'rinib turgan tog'-toshlar ostida jimib qoldi. Qurum bosgan mo'rilardan uzun-uzun tutun chiqib turardi, odamlar uydan ko'chaga chiqmay qo'yishdi. Atrofda bo'rilar ham uvlab qolishdi. Quturib, katta yo'lda kuppa-kunduz kunlari ham huradigan bo'lib qolishdi, kechalari ovulga yaqin kelib, tishlab tortqilaydigan hech nima topolmay, tong otguncha uvlab izg'ib yurishardi.

Muallimimizdan negadir xavotir olib, ustida issiqroq to'ni ham yo'q, yupqa shinelda bu sovuqda qanday yetib kelar ekan, deb yuragimni hovuchlab yurdim. Duyshen keladigan kuni ko'nglim g'ash bo'laverdi, o'zimni qo'yarga joy topolmay qoldim. Dam-badam eshikka chiqib, qorasi ko'rinarmikin deb ko'zim to'rt bo'lib tur-

dim: jimjit, qorli dalada odamzod bolasidan asar ham ko'rinmadi. Nima bo'ldiykin, kelmay qolish odati yo'q edi-ku!

"Voy, Xudoyim-yey, kechga qolmay ertaroq kela qolsa-chi! Bo'yginangdan aylanay, og'am! Bemahalda qayoqlarda yurganikin!" — deb ichimda koyib ham oldim.

Biroq, unsiz nidomga qirdan javob bo'lmagandan keyin, kennoyimga bildirmay yig'lab ham oldim.

Hadeganda, eshikka yugurib turishim kennoyimning joniga tegib ketgandan keyin:

— Hoy, shum oyoq, eshikni tinch qo'yasanmi-yo'qmi? Gum bo'lib o'tirsang-chi o'rningda, ipingni yigir! Bolalarni ham toza muzlatding, yashshamagur! — deb dag'dag'a qilib meni eshikka chiqarmay o'tirg'izib qo'ydi.

Qosh qorayib qoldi, muallimning kelgan-kelmaganidan bexabar o'tirardim. Tipirchilab yuragim o'ynab ketaverdi. Har zamonda, Duyshen yetib kelgan bo'lsa kerak, deb o'zimni ovutib qo'yaman. Aytgan kunida kelmay qolish odati yo'q edi-ku, deyman o'zimga o'zim. Goh tobi qochib qolgan bo'lsa-ya, madori ketib zo'rg'a qadam tashlab kelayotgandir, bo'ronga qolib adashib ketsa nima qilaman, deyman. Ip yigirmoqchi bo'laman-u, qo'lim titrab, ip hadeb uzilgani-uzilgan, buni ko'rgan kennoyimning jazavasi tutib:

— Senga nima balo bo'ldi?! Yog'och bo'lib qolganmi deyman qo'ling? — deb menga xo'mrayib g'ajib tashlamoqdan beri bo'lib o'tirdi. Keyin sabri chidamay qoldi shekilli: — Qora qoning og'zingdan kelgur! Tur o'rningdan, Sayqal buvining qopini oborib ber, — dedi.

Suyunganimdan o'rnimdan irg'ib turib ketibman. Duyshen o'sha Sayqal buvining uyida turardi-da. Sayqal buvi bilan Qartangboy otaning menga uzoqroq qarindoshligi bor edi. Ilgari ularnikiga borganimda, vaqt-vaqti bilan tunab ham qolardim. Kennoyimning esiga shu narsa keldimi yo Xudoning menga rahmi keldimi, ishqilib, qopni qo'limga ushlab turganimda kennoyim yana:

— Juda jonimga tegib ketding, bor o'shoqqa! Xo'b deyishsa, Sayqalnikida yotib qola qol, yo'qol ko'zimdan... — deb qo'shib qo'ydi.

Yugurib hovliga chiqdim, shamol jazavasi tutgan shamanday bo'kirardi: o'qchiganday bo'lardi-da, keyin to'satdan kishiga hamla qilib, lovillab yonib turgan yuzlarimga qor tikanday kelib sanchilardi. Qopni qo'ltig'imga qisib olib, endigina ko'rinish beran ot tuyoqlari izidan ovulning narigi uchiga qarab g'izillab chopib ketdim. O'zim bo'lsam: "Kelganmikin, muallim kelganmikin?" deb yakkash shuni o'ylayman.

Halloslab yugurib yetib bordim, qarasam, yo'q. Eshik oldida nafasim og'zimga tiqilib tosh qotib qolganimni ko'rib Sayqal buvi qo'rqib ketdi:

— Senga nima bo'ldi? Namuncha yugurmasang, tinchlikmi o'zi?

— Ha, o'zim. Mana, qopingizni olib keluvdim. Yotib qolsam maylimi?

— Ha, bolam qola qol, chirog'im... Obbo, jinni qiz-e! Yuragimni ham qinidan chiqaza yozding-a! O'zing ham kuzdan beri qorangni ko'rsatmay qo'yding. Kel, o'tga yaqin kelib o'tir, isinib ol.

— Qozonga go'sht tashla, kampir, qizimni mehmon qil. Duyshenning ham keladigan vaqti bo'lib qoldi. — Deraza yonida eski kiyiz etikni yamab o'tirgan Qartangboyning ovozi chiqdi. — Allaqachon kelishi kerak edi, ha, mayli, qorong'i tushguncha kelib qolar. Uyga qaytarda otning qadami ham ildamlashib qoladi.

Hademay derazalar qorong'ilanib, tun ham kirib keldi. Yuragim poyloqchilik qilib turganday, har gal itlar vovillaganda yo qulog'imga odam tovushi chalinganda bir seskanib tushardim. Lekin Duyshendan darak yo'q. Yaxshiyamki, Sayqal buvi bir mahalgacha undan-bundan gapirib, vaqt o'tganini ham bilmay qoldik. Ana kelar, mana kelar, deb kutib o'tiraveribmiz, qarasak, yarim kechadan oshib ketibdi, kuta-kuta charchagandan keyin Qartangboy ota:

— Qo'y endi, kampir, joyingni sol, yotamiz. Bugun kelmaydi endi. Kech bo'lib qoldi. Boshliqlarning nimasi ko'p, ishi ko'p bo'ladi, biron ish bilan ushlanib qolgan bo'lsa kerak, bo'lmasa allaqachon uyda bo'lardi, — dedi-da, yechinib o'rniga yotishga tayyorlandi. Menga pechkaning orqasiga, bir burchakka joy solib berishdi. Ko'zimga hech uyqu kelmadi, cholning yo'tali qo'zg'ab,

u yonidan bu yoniga ag‘darilib, shivirlab duo o‘qib yotdi-da, birmahal tinchini yo‘qotgan odamday.

— Otginamning holi nima kechdi ekan? Tekinga birov bir tutam xashak bermaydi, yemni bo‘lsa pulga ham topib bo‘lmaydi, — deb ming‘irlab qo‘ydi.

Qartangboy ota birozdan keyin uxlab qoldi-yu, lekin shamolning uvillashi kishini tinch qo‘ymadi. Shamol xuddi tomda paypaslab yurganday g‘udur panjalari bilan uyning tepasini ag‘dar-to‘ntar qilar, oynani timdalardi. Hovlida shamol devorga kelib o‘zini urayotgani baralla eshitilib turardi.

Cholning so‘zlari menga tasalli bermadi. Nazarimda, Duyshen hozir yetib keladiganday, surati xayolimdan ko‘tarilmay, ko‘z oldimda turaverdi, yolg‘iz o‘zi qir-dalada ahvoli nima kechdiykin, deb yuragimni vahima bosaverdi... Shu ahvolda ko‘zim yumilib ketgan bo‘lsa kerak, bir mahal yuragim hovliqib ketdi-yu, boshimni yostiqdan ko‘tardim. Sovuq, xunuk uvlagan tovush yangrab qayerlardadir havoda tarqalib ketdi. Bo‘ri ovozi... bitta emas, bir galaga o‘xshaydi. Bo‘rilar to‘rt tomondan uvlab, jadallik bilan yaqinlashib kelaverdi. Jo‘r bo‘lishib yer-ko‘kni buzib galalashib, uvlashi goh uzoqlashib, goh yaqinlashib turar, shamolda qir-dalaga tarqalardi, axiyri ovul chetiga yetib kelishganday bo‘ldi.

— Bo‘ron chaqirishyapti, yer yutgurlar! — dedi kampir shivirlab.

Chol jimgina quloq solib turdi-da, o‘rnidan irg‘ib turdi:

— Yo‘q, kampir, bularning uvlashi bejiz emas! Birovni quvib kelishyapti. Odamnimi, biron yilqinimi, bir nimani o‘rab olishgan. Eshityapsanmi? Xudo saqlasin, yana bizning Duyshen bo‘lmasin! Axir, u hech nimani pisand qilmaydigan tentak-ku!

Qartangboy qorong‘ida to‘nini axtarib hovliqib qoldi.

— Chirog‘ingni yoq, kampir, chirog‘ingni yoqsang-chi! Xudo xayringni bersin, tezroq bo‘l!

Titrab-qaqshab biz ham kampir bilan birga shoshib o‘rnimizdan turdik, kampir chiroqni topib uyni yoritguncha bo‘rilarning qutirib uvlashi to‘satdan to‘xtab, jim bo‘lishdi-qolishdi.

— Yiqitishdi, go‘rso‘xtalar! — deb chol baqirib yubordi-da, qo‘liga tayoq olib o‘zini eshikka qarab otgan edi, shu choq itlarning

vovillagan ovozi eshitildi. Kimdir qor g'ajirlatib deraza yonidan o'tdi, toqatsizlik bilan eshikni taq-taq ura boshladi.

Uy ichiga muzdek bulut yopirilib kirdi. Bulut tarqalganda qarasak, Duyshen turibdi. Yuzida qoni yo'q, oppoq oqarib ketgan, entikib, gandiraklab ostonadan o'tib, devorga kelib suyanib qoldi. Azbaroyi holdan ketgandan:

— Miltiq! — dedi zo'rg'a.

Bizlar gapini anglamaganday angrayib turardik. Ko'z oldimni qorong'ilik bosib, chol-kampirning:

— Qora qo'y, oq qo'y sadaqa boshingdan! Bahoviddin avliyo seni o'z panohida asrabdi! Senmiding, bo'tam? — degan gaplari qulog'imga kirganini bilaman.

— Miltiq qani, miltiq, ota — deb Duyshen yana eshik tomonga otilgan edi.

— Miltiq yo'q, nima bo'ldi, qayoqqa borasan? — deb chol-u kampir Duyshenning bo'yniga osilishdi.

— So'yil bormi?

— So'yilni nima qilasan, hech qayoqqa bormaysan, esing joyidami, bolam? Kim bilan tenglashmoqchisan, bizga ham rahming kelsin, — deb ikkovlari yalinib-yolvorishdi.

Birdaniga butun avzoyim shalayim bo'lganday sekin borib o'rnimga yotib oldim.

— Ulgurolmadim, hovliga yetib keluvdim hamki, bosib olishdi, — deb og'ir xo'rsinib qamchisini burchakka irg'itdi Duyshen. — Ot yo'lda kelayotgandayoq madori qurigan edi, bo'rilar quvib qolishdi, ovulga zo'rg'a chopib keldi-yu, gup etib yiqildi, o'sha zamon hammasi kelib ustiga yopirilishdi.

— Xudo seni o'zi bir asrabdi! Ot ketsa sadqai sadag'a, ot yiqilmaganda seni ham omon qo'yishmasdi. Avliyo Bahoviddin qo'llabdi seni, oxiri baxayr bo'lsin. Endi yechinib, o'tga yaqinroq kel. Kel, etigingni tortib qo'yay, — deb Qartangboy ota suyunganidan Duyshenni qo'yarga joy topolmay qoldi.

— Hoy, kampir, nimang bor yeydigan, isit, bir Xudo asrabdi o'zingni, bolam.

Ular olovga yaqin borib o'tirishdi. Shundan keyin Qartangboy yengil tortib xo'rsinib qo'ydi:

— Ha, mayli, peshonangda yozilgani bo‘pti. O‘zing ham uncha kech yo‘lga chiqmasang?

— Volkomda majlis cho‘zilib ketuvdi, ota. Partiyaga kirdim.

— Bu ishing yaxshi bo‘pti. Shundog‘ ekan, ertaga ertalab kela qolsang bo‘lmasmidi? Axir, seni birov yelkangdan itarib, ket, demagandir?

— Bolalarga bugun kelaman deb va’da beruvdim, — deb javob qildi Duyshen, — ertaga ertalab o‘qishimizni boshlaymiz.

— Obbo, tentag-e! Yana bolalarim deydi-ya! — deb Qartangboyning jahli chiqib bir sapchib tushdi: — Tavba, bolalarga va’da beruvdim deydi-ya! Shu mishiqilarni deb, Xudo ko‘rsatmasin, biron falokatga uchrasang, unda nima bo‘lardi? O‘zing nima deyapsan, bir o‘ylab ko‘rsang-chi?

— Buni men muqaddas burchim deb bilaman, otaxon. Bu-ku mayliku-ya, har gal piyoda borib, piyoda kelardim, bu safar shayton meni yo‘ldan ozdirib, yolg‘iz otingizdan ajratib, bo‘rilarga xomtalash qilib berganimni aytmaysizmi...

— Bosh-ko‘zingdan sadaqa, bolam! Shu qirchang‘i otni ham gapirib o‘tiribsanmi, — deb Qartangboy kinoya aralash gapirib qo‘ydi. — Bir umr peshonamga ot bitgan emas, bu yog‘i ham bir gap bo‘lar, Sovet hukumatining sadag‘asi ketay, yana otlik bo‘lib qolarman...

— Shundog‘ desangiz-chi, cholim, — dedi Sayqal kampir yig‘lamsiragan ovoz bilan, — ot sendan aylansin... Ovqatingni issig‘ida icha qol, bolam...

Jimlik cho‘kdi. Birozdan keyin Qartangboy xayol surib tezak cho‘g‘ni titkilab o‘tirib:

— Qarab tursam, o‘zing es-hushli yigitsan. Bu go‘dak bolalarni o‘qitaman, deb o‘zingni ming azobga duchor qilyapsan. Shundan boshqa tuzukroq ish qurib qolganmi senga? O‘zingni buncha xor qilmasang, undan ko‘ra, birontasiga cho‘ponlikka yollasang ham, usting but, qorning to‘q bo‘lardi-ku, axir...

— Ota, jigarchilik qilib menga yuragingiz achishib turibdi, bilaman. Agar shu yosh bolalar ham sizga o‘xshab, o‘qishning nima keragi bor, o‘qib nima bo‘lardik deb turishsa, unda Sovet hukumatining ishi yurishmay qoladi-ku. O‘zingiz Sovet hukumatining sadag‘asi ketay, umri uzoq bo‘lsin deyapsiz-ku! Shu vajdan bola

o‘qitishni o‘zimga xorlik deb bilmayman. Qani endi, qo‘limdan kelsa, bolalarga ko‘proq bilim berolsam, armonim qolmas edi. Axir, Lenin ham aytgan-ku...

— Ha, aytgancha... — deb Qartangboy Duyshenning gapini bo‘ldi-yu, biroz jim turgach dedi:

— Sen-ku, joningni jabborga berib yuribsan. Qani, ko‘z yoshing bilan Leninni tiriltirib ololsang edi! Qani endi dunyoda shunaqa kuch topilsa edi! Yo bo‘lmasa sen, boshqa odamlarda dard qolmagan, deb o‘ylayapsanmi? Axir, yurak-bag‘rimiz tutoqib ketyapti-ku! Noilojmiz-da! Dini boshqa bo‘lsa ham, siyosatga to‘g‘ri keladimi-yo‘qmi, unga atab kuniga besh vaqt duo o‘qib yuribman. Ba’zida, Duyshen bolam, qanchalik qayg‘urib ko‘z yoshi qilsak ham, bari bir, foydasi yo‘qligiga aqlim yetib turadi. Men keksa boshimga shunday deb qo‘ydim: Lenin xalq orasiga singib qoldi, Duyshen, endi qondan qonga, otadan bolaga o‘tib, adabiy barhayot bo‘lib qoladi...

— Tilingizdan aylanay, otaxon, haq gapni aytdingiz. U o‘zi dunyodan o‘tdi-yu, lekin bizlar hayotni Lenin andazasi bilan o‘lchaymiz.

Ularning gapini eshitib yotib, men anchadan keyin sekin-asta o‘zimga kelganday bo‘ldim. Avval hammasi tushday ko‘rindi, Duyshenning eson-omon qaytganiga anchagacha ko‘nglim ishonmay yotdi. Bir mahalda yuragim quvonchga to‘lib-toshgandan nafasim bo‘g‘zimga sig‘may qolibdi, azbaroyi suyunganimdan o‘pkam to‘lib ko‘z yoshlarim duv-duv to‘kilib, yig‘lab yubordim. Bilmadim, dunyoda hech kim menchalik xursand bo‘lganmikin! Shu damda chol-kampirning kulbasi ham, bo‘ronday bo‘kirayotgan tun ham, ovulning bir burchagida Qartangboyning yolg‘iz otini tortqilab xomtalash qilayotgan bir gala bo‘rilar ham, hech nima ko‘rinmay qoldi! Qalb, idrok, butun vujudim nur singari bepoyon, benihoya ajoyib baxt daryosiga g‘arq bo‘lgandi. Yig‘im eshitilmasin deb boshimni ko‘rpaga burkab, og‘zimni qattiq yumib oldim-u, lekin Duyshen:

— Bu yig‘layotgan kim bo‘ldi? — deb so‘rab qoldi.

— Ha, Oltinoy, boya qo‘rqib ketuvdi, shunga yig‘layapti, — dedi Sayqal buvi.

— Oltinoy? Nima qilib yuribdi bu yerda?

Duyshen o'rnidan irg'ib turdi, tepamga kelib tizzalab o'tirdi-da, yelkamga qo'lini tegizib: — I-ye, Oltinoy, nima bo'ldi senga, nega yig'layapsan? — deb so'radi.

Men bo'lsam yig'imni tiyolmay, yuzimni devorga o'girib, battar ho'ngrab yig'lab yubordim.

— Ha, oppoq qiz, nimadan qo'rqding? Tentak qiz! Kap-katta bo'lib-a... Qani... menga bir qara-chi!

Duyshenning bo'ynidan qattiq quchoqlab oldim, ko'z yoshlarim bilan yuvilgan, olov bo'lib yonib turgan yuzlarimni uning yelkasiga qo'yganimcha o'zimni tutolmay shirin-shirin yig'layverdim! Suyunganimdan ichimdan qaltiroq turdi.

— Voy, voy, yuragi tushib qolganmi deyman. Kampir, bunga bir dam solib qo'ysang-chi, kel tezroq qimirlasang-chi, — deb Qartangboy ham namatdan turdi.

Hammalari besaranjom bo'lib qolishdi.

Sayqal buvi allaqanday duolarni o'qib, goh yuzimga suv purkab, goh yelkalarimni qoqib yuribdi-yu, yana o'zi menga qo'shilishib yig'laydi. O'shanda yuragim quvonchga to'lib-toshganidan o'rnidan jilib qolganini bilishsa edi, buni ta'riflashga holim yo'q edi, rostini aytganda, ojizlik ham qilardim.

Tinchib, ko'zim uyquga ketguncha, Duyshen qizib ketgan peshonamni sovuq qo'li bilan silab yonimda o'tirdi.

* * *

... Qish dovon oshdi. Bahor yeli yetib kelganda tog' qo'ynida oq qor, ko'k muz siljib o'ziga yo'l ochib katta-katta toshlarni yumalatib yuborganda, bahor taronasini o'ylab toshqin suvlar tog' yelkalaridan shildirab oqib tushdi.

Ehtimol, bu mening ilk yoshlik bahorim bo'lgandir. Bahor ko'rki ko'zimga har yilgidan boshqacharoq tuyuldi shekilli, bizning maktabimiz o'rnashgan tepadan ko'ringan ajoyib bahor, manzarasi meni o'ziga maftun qilardi. Yer xuddi quloch yoyib o'zini to'xtatolmay tog'dan quyosh nuriga g'arq bo'lgan, yengil, suyuqqina tutun qoplagan ko'kimtir bepoyon dala-qirlarga g'izillab yugurib borayotganday bo'lar, allaqayerlardan havoni larzaga keltirib

kishnagan cho'ziq yilqi ovozi eshitilib turar, osmonda kumush bulutlar oralab kishiga zavq berib o'tayotgan turnalar yer-u ko'kka bahordan darak berib uzoq safarga chorlaganday saf tortib o'tishardi.

Bahor kelishi bilan bizlarga ham jon kirdi. O'yin-kulgimiz ko'payib, maktabdan ovulga bir-birimizni quvalashib, qiyqirishib borardik. Kennoyimning bunga g'ashi kelib, har gal bir qarg'ab olmasa ko'ngli o'rniga tushmasdi:

— Hey, ta'viya, muncha shataloq otmasang? So'laqmonday bo'ying bir joyga yetib qolibdi-yu, yurishingni qara, yo qari qizlikni bo'yningga olmoqchimisan? Sen tengi qizlar allaqachon erga chiqib, qaynanalik-qaynatalik bo'lib olishdi, sen bo'lsang... Huv, topgan matoning boshingda qolsin! Maktabing bilan qo'shmozor bo'lgur! Hali shoshmay tur, adabingni bermasam seni...

Kennoyimning do'qlari ham menga uncha qor qilmasdi, uning qarg'ishlarini eshitaverib etim o'lib qolgandi. Ichi qoraligidan qari qiz derdi, bo'lmasa bo'yim o'zi shu yil bahorda sal cho'zilganini demasa, o'zim boyagi-boyagi, Duyshen aytmoqchi, sochi paxmoq malla qizman-ku... Duyshenning gapiga jahlim ham chiqmasdi. "Sochim-ku paxmoqku-ya, — deb o'ylardim o'zimcha, — lekin malla emasman. Bo'yim yetsin bir chiroyli qiz bo'layki, odamlarning havasi kelsin! Duyshen menga: ko'zlaring yulduzday yonib turadi, istarang issiq, Oltinoy", — deb aytib yuradi-ku!

Bir kuni maktabdan kelsam hovlimizda ikki begona ot bog'loqlik turibdi. Egar-jabdug'iga qaraganda, egalari tog'dan tushishgan. Ilgari ham bozor-o'chardan qaytishda hovlimizga kirib o'tishardi.

Kennoyimning qandaydir beo'xshov xoxolab kulgani ostonaga yetmasimdanoq qulog'imga chalindi:

— Jiyan bola, ko'pam pishiqlik qilaverma, kamib qolmaysan. Kennoyining qadrini jazmaning qo'lingga tekkanda bilasan! Hali zamon o'zing ham ko'rarsan! Xi-xi-xi!

Hammalari gur etib kulib yuborishdi, men ostonada paydo bo'lganimni ko'rib, jim bo'lib qolishdi. To'rda namat ustiga yozilgan dasturxon yonida yuzlari qip-qizil, semiz bir odam o'tirgan ekan. U katta suvsar telpagi ostidan menga yalt etib qarab, tomog'ini qirib yo'talganday bo'ldi.

— E, keling, oppoq qiz, kela qoling oppog‘im! — qarasam, kennoyim jilmayib, juda shirin so‘z bo‘lib qolibdi. Amakim ham namatning bir chekkasida yana birov bilan o‘tiribdi. “Tuz, ko‘zir” deb qarta o‘ynab, aroq ichib, ovqat yeb o‘tirishibdi. Ikkovlarining ham kayfi bor-u, qarta urganda tebranib kallalarini qimirlatishadi.

Ko‘k mushugim dasturxonga yaqin kelgan edi, yuzi qizil odam uni mushti bilan bir urdi, mushuk bechora jon achchig‘ida miyovlab, bir burchakka borib jim bo‘lib qoldi. Yegan mushti jonidan o‘tib ketdi-da! Qanday qilib chiqib ketishimni bilmay turganimda, kennoyim menga asqatdi:

— Aylanay bolam, ovqating qozonda, olib yeya qol, — dedi.

Uydan tashqari chiqib ketdim-u, lekin kennoyimning tilyog‘lamaligini ko‘rib, ko‘nglim g‘ash bo‘lib qoldi. Beixtiyor hushyor tortdim.

Chamasi, ikki soatlardan keyin mehmonlar otlariga minib, tog‘ga jo‘nab ketishdi. Kennoyim yana boyagiday: “Shumshuk, tirik yetimcha”, — deb qarg‘ay boshlagan edi, ha, boyagi mastligida aytgan gaplari ekan-da, deb ko‘nglim o‘rniga tushdi.

Shu voqeadan biroz o‘tgach, biznikiga bir ish bilan Sayqal buvi kirib keldi. Hovlida yurganimda uning: “Voy, bu nimasi! Uvoliga qolishdan qo‘rqmaysanmi?” — deb ko‘ngli buzilib gapirganini eshitib qoldim.

Kennoyim bilan Sayqal buvi ikkalasi qattiq aytishib qolishdi, bir mahal Sayqal buvi qizarib-bo‘zarib uydan chiqib ketdi. Kampir ham rahmi kelib, ham o‘qrayib menga qaradi-yu, indamay chiqib ketdi.

Ko‘nglim g‘alati bo‘lib qoldi. Nega menga o‘qrayib qaradiykin, nima yomonlik qiluvdim?

Ertasi kuni maktabga borsam, Duyshenning avzoyi buzuq ko‘rindi, sirini boy bermaslikka harakat qilmoqchi bo‘ladi-yu, lekin nimadandir xafa. Yana razm solib tursam, men tomonga qaramaslik payidan bo‘ladi. Darsdan keyin biz hammamiz gala-gala bo‘lib maktabdan chiqqan edik, Duyshen meni chaqirib qoldi:

— To‘xta, Oltinoy, — deb yonimga keldi-da, ko‘zimga tikilib turib qo‘lini yelkamga qo‘ydi. — Uyingga borma, Oltinoy, gapim-

ga tushundingmi? — dedi. Yuragim shuv etib ketdi. Kennoyimning ko'nglidagi niyatini endi tushundim.

— Javobini men o'zim beraman, — dedi Duyshen, — hozircha biznikida turasan, ko'zimdan uzoqqa ketmagin, xo'pmi?

Rangim o'chib ktegan bo'lsa kerak, Duyshen iyagimdan ko'tarib, ko'zimga tik boqdi:

— Qo'rqma, Oltinoy! — dedi, u odaticha kulib qo'yib, — men yoningda bo'lganimda hech kimdan qo'rqma. O'qishingdan qolma, hech nimani xayolingga keltirma!.. Qo'rqoqligingni o'zim ham bilamanku-ya... — deb esiga bir narsa tushganday xoxolab kulib yubordi. — Senga anchadan buyon bir narsani aytmoqchi bo'lib yuruvdim. Esingdami, ho' o'shanda Qartangboy ota, azonda turib olib qayoqqadir chiqib ketgan edi. Bir vaqt qarasam, senga dam soldiraman deb, bilasanmi ķimni — folbinni, haligi Jaynaqning kampirini boshlab kelibdi. — Nimaga olib keldingiz, desam: — bir dam solib qo'ysin, Oltinoyning yuragi qo'rqqanidan joyidan ko'chib qolibdi, deydi. — E, bu alvastini jo'nating, bunga beradigan qo'y qani biz kambag'alda. Yolg'iz otni bo'lsa bo'rilar yeb ketdi, deb quvib yubordim. Sen uxlab yotgan eding, kavushini qo'liga berib chiqarib yuboruvdim, meni oppoq soqolim bilan uyatga qoldirding, deb Qartangboy ota bir haftagacha men bilan gaplashmay yurdi. Nimasini aytasan, kampir ikkovlari mehribon, ajoyib odamlar. Yur endi, Oltinoy, uyga ketamiz, — deb Duyshen meni o'zi bilan olib ketdi.

Muallimimni bekorga xafa qilmaslik uchun o'zimni har qancha qo'lga olishga harakat qilsam ham, hadeb meni vahima bosaverdi. Kennoyim kelib ura-ura oldiga solib olib ketsa, kim nima deya olardi? Keyin ko'ngillariga kelgan ishni qilishaveradi, ovulda kim ularning qo'lini tutardi? Kechalari mijja qoqmay, bir falokat boshlanadi, deb vahima qilib chiqardim.

Qay holatda yotib-turganimni Duyshen, albatta, bilardi. Yurak chigalimni yozib, ko'nglimni ko'tarish uchun ertasi kuni maktabga ikkita terak ko'chat olib keldi. O'qish tamom bo'lgandan keyin, Duyshen qo'limdan ushlab, bir chekkaga olib borib:

— Hozir ikkalamiz bir ish qilamiz, — dedi-da, menga sirli jilmayib qo'ydi. — Mana bu teraklarni senga atab olib keldim. Ik-

kalamiz ekamiz, bular katta bo‘lib, baquvvat tortguncha, sen ham voyaga yetib, ajoyib odam bo‘lib, gulday ochilasan. Qalbi pok, zehni o‘tkir qizsan, nazarimda, o‘qisang martabang baland bo‘ladi. Bunga imonim komil, meni aytdi deyarsan, peshonang ham nishona berib turibdi. Hozir novdaday, shu terak ko‘chatlariday navqironsan. Kel, Oltinoy, shu ko‘chatlarni o‘z qo‘limiz bilan o‘tqazaylik! Baxting o‘qishdan ochilsin, chaqnagan ko‘zingdan aylanay...

Bo‘yim tengi yosh-yosh ko‘k teraklar ekan. Maktabimizdan sal nariroqda ekib qo‘ygan edik, tog‘ etagidan esgan shabada endigina yozilgan yaproqchalarni silab jon kirgizganday bo‘ldi. Yaproqchalar zirillab, terakchalar tebranib qo‘ydi.

— Mana ko‘rdingmi? Bir chiroyliki! — dedi Duyshen orqasiga tisarilib borib, — endi huv katta buloqdan ariq ochib kelamiz. Hali ko‘rasan, biram sarvqomat bo‘lib voyaga yetishsinki! Shu tepalikda og‘a-iniday yonma-yon qad ko‘tarib turishadi. O‘tgan-ketganlarning ko‘ziga tashlanib, hammaning bahrini ochadi. U vaqtga borib zamon ham boshqacha bo‘lib ketadi. Oltinoy, boshimiz omon bo‘lsa, u yaxshi kunlar ham nasib bo‘lar...

Suyunganimdan ko‘nglim shodlikka to‘lib, nima deyishga gap ham topa olmay Duyshenga tikilib turaveribman. Uning rangpar yuzlari, cho‘ziq qora ko‘zlari qanday suluv, o‘zi pok qalb egasi ekanligini ilgari bilmay yurganday, tol o‘tqazganda loy bo‘lgan barmoq bo‘g‘inlari, uzun-uzun zabardast qo‘llari qo‘qqisdan tegib ketganda kishining yuragi huzur qilishini sezmay yurgan ekanman. Hozir yuragimni hayajonga solgan allaqanday sezgi uyg‘onib: “Duyshen og‘ay, sizday bola tuqqan onaga rahmat... sizni bag‘rimga bosib o‘pgim kelib turibdi!” deb yuborishimga sal qoldi, yuragim dov bermadi, o‘ylarimdan o‘zim uyalib ketdim. Lekin hali-hali afsuslanib yuraman. Biroq, o‘shanda tepamizda ko‘m-ko‘k osmon, to‘rt tomonimiz ko‘kalamzor adir-u, har birimiz o‘z o‘y-xayollarimiz bilan band edik. Boshimga tushgan xavf-xatarni shu baxtli onda butunlay unutib yuborgandim. Ertangi kunim nima bo‘lishini ham, ikki kun bo‘pti-yu, kennoyim meni izlab kelmaganini ham o‘ylamay qo‘ygan edim. Meni eslaridan chiqarib qo‘yishdimikin yoki o‘z ixtiyoriga qo‘yib qo‘yaylik deyishdimi? Keyin bilsam,

Duyshen ko'nglimdan o'tib turgan hamma gaplarni bilib yurgan ekan, ovulga yetib kelganimizda:

— Ko'p ham qayg'uraverma, Oltinoy, bir ilojini toparmiz. Indinga volostga borib sening to'g'ringda gaplashib kelaman. Balki yordam berishar, seni o'qishga yubortirish niyatim bor. Borasanmi o'qishga? — dedi.

— Siz nima desangiz, muallim, o'sha ma'qul, — deb javob berdim. Shahar degani qanaqa bo'lishini ko'z oldimga keltira olmasam ham, Duyshenning gaplarini eshitgach, ko'nglimda shaharga borib o'qish orzusi tug'ildi.

Goh suyunib, goh begona yurtda holim nima kecharkin, deb vahima bosib, xullas, shu gap miyamda aylanib yuraverdi.

Ertasi kuni maktabda o'tirganimda ham shaharga borib qolsam kimnikida turaman, qani endi, sayoblikka bironta odam boshpana bersa, o'tinini yorarman, suvini tashib berarman, kir-chirini yuvarman, axir qarab turmay, qo'limdan kelgancha rozi qilarman, deb xayol surib o'tiruvdim, to'satdan maktabimizning orqasida ot tuyoqlarining dupur-dupuri eshitilib qoldi. To'satdan shitob bilan otliqlar paydo bo'lib, hozir maktabimizni yanchib vayron qiladiganday tuyuldi. Muallimimizning gapi qulog'imizga kirmay, hammamiz hang-mang bo'lib tosh qotib qoldik. Bu holatimizni payqagan Duyshen shoshib:

— Bolalar, ko'nglingizni bo'lmay o'qishingizga qaranglar, — dedi.

Lekin eshik shartta ochildi, qarasak, ostonada achchiq istehzo aralash kulimsirab kennoyim turibdi. Duyshen eshik oldiga bordi-da, bosiq ovoz bilan:

— Xo'sh, xizmat? — deb so'radi.

— Xizmatimizning senga daxli yo'q, qizimni uzatmoqchi bo'lib yuribman. Hoy bepadar! — deb kennoyim men tomonga otilgandi, Duyshen yo'lini to'sdi.

— Bular maktab qizlari. Uzatadigan qiz yo'q bu yerda! — dedi dadil va salobat bilan.

— Nima? Bor-yo'qligini hozir ko'rsatib qo'yamiz. Hoy, jiyan bola, qani kelinglar. Sochidan sudrab chiqinglar, bu yuzi qorani!

Kennoyim otliqlardan biriga qo'li bilan ishora qilgan edi, anavi kungi suvsar telpak kiygan, yuzi qip-qizil, semiz odamga ko'zim tushdi. Uning ketidan qo'llariga uzun-uzun tayoq ushlagan yana ikki odam otdan tushib kelishdi.

Duyshen eshik oldida turganicha o'rnidan qo'zg'almadi.

— Sen, hey daydi it, birovlarning qiziga o'z xotiningday xo'jayinlik qilmoqchimisanmi deyman? Nari tur!

Shunday dedi-yu, suvsar telpakli xuddi ayiqday tashlanib Duyshenga dag'dag'a qildi.

Duyshen eshik kesakisiga qattiq yopishib olib:

— Sizlarning bu yerga qadam qo'yishga haqingiz yo'q, bu maktab! — dedi.

— Aytmadimmi? Bularning bir balosi bor. Uni o'zi allaqachon yo'ldan urib olgan. Bu qanjiqni tekinginaga tuzog'iga ilintirib olgan! — deb kennoyim chiyillab yubordi.

— Maktabing bilan nima ishim bor! — deb haligi semiz odam bo'kirib qamchisini ko'targan edi, Duyshen uning qorniga oyog'i bilan bir tepdi, semiz odam gup etib yerga yiqildi. Shu zahoti so'yil ushlab turganlar uning ustiga otilishdi. Qo'rqib rangi quv o'chgan bolalar dod-voylashib yugurib yonimga kelishdi. Mushtlashish, so'yil zarbidan maktab eshigining tip-piti chiqib ketdi. Menga yopishib olgan bolalarni ham o'zim bilan sudrab mushtlashayotganlar tomonga otilib bordim.

— Qo'yib yuboringlar, muallimimizni urmanglar! Mana, kerak bo'lsam, meni olib ketinglar! — degan edim, Duyshen menga bir qarab qo'ydi. Yuzlari qip-qizil qonga bo'yalgan, dahshat va g'azabdan ko'zlaridan o't chaqnab turardi. Yerdan bir parcha taxtani qo'liga oldi-da, u bilan hamla qila turib:

— Qochinglar, bolalar, ovulga qochinglar! Qoch, Oltinoy! — deb baqirdi. Azbaroyi zo'r berib baqirganidan ovozi bo'g'ilib qoldi.

Duyshenning qo'lini sindirishdi. U qo'lini ko'kragiga bosib, orqasiga tisarildi, ana ular bo'lsa qon hidlab quturgan buqaday:

— Ur! Boshiga sol! O'ldir! — deb so'yil bilan uni yana rosa do'pposlashdi.

Darg'azab kennoyim bilan suvsar telpakli bir sapchib yonimga kelishdi. Sochimni bo'ynimga o'rab, hovliga sudrab chiqishdi. Bor

kuchim bilan ularning qo'lidan sug'urilib chiqishga urinib turganimda, ko'zim bir zumda yig'lashdan ham qo'rqib dong qotib qolgan bolalarga, devor tagida qora qoniga belanib yotgan Duyshenga tushdi.

— Muallim! Aylanay, og'a! Voydod, o'ldirishdi-ku bular, — deb baqirib unga intildim...

Qayoqda deysiz! Duyshen bir holatda... Yuz-ko'zlari, kiyimlaridan sog' joyi qolmagan. Ablahlarning kaltak zarbidan xuddi mast odamday, gandiraklab zo'rg'a oyoq ustida turar, likillab qolgan boshini tik tutishga harakat qilardi, ana ular bo'lsa tinmay do'pposlashardi. Meni yerga yiqitib, ikki qo'limni chilvir bilan orqamga bog'lashdi. Xuddi shu paytda Duyshen yerda sudralib qoldi.

— Og'a! — deb qichqirgan edim, og'zimni qo'l bilan yopib, o'zimni egar ustiga tashlashdi.

Suvsar telpakli odam otga minib olgan ekan, qo'li va ko'kragi bilan meni mahkam bosib oldi. Duyshenni urkaltak qilgan anavi ikkovi ham otga minib, hammalari jo'nab qolishdi. Kennoyim otning yonida yugurgilab:

— Xo'p ta'ziringni yedingmi, juvonmarg bo'lgur! Jazmaning ham asfalasofilinga ketdi... — deb boshimga mushtlab ketayotganda, bir mahal orqadan qulog'imga:

— Oltin-n-oy! — degan yurak-bag'irni ezadigan dahshatli ovoz eshitildi.

Osilib yotgan boshimni zo'rg'a ko'tarib qarasam, qop-qora qonga belanib chala o'lik qilingan Duyshen sog' qo'liga kattakon bir tosh olib orqamizdan yugurib kelyapti. Uning orqasidan butun sinf bolalari uvvos solib og'aylab, baqirib kelishyapti.

— To'xta, hoy itlar! To'xta deyman! Qo'yvoringlar uni, qo'yvoringlar deyapman. Oltinoy! — deb sandiraklab yugurib bizga yaqin kelib qoldi.

Zo'ravonlar ot boshini tortishdi, ikkalasi Duyshenning atrofida ot aylantirib qolishgandi, u singan qo'lim xalaqit bermasin degan xayolda yengini tishlab otliqlarni poylab tosh otdi, lekin otgan toshi tegmadi. Anavi ikkovi Duyshenni bittadan so'yil bilan urgandi, u loyga yiqilib tushdi. Ko'z oldim qorong'ilashib, dod solib yig'la-

shayotgan bolalarning yerda yotgan muallimlari yoniga yugurishib kelib, dahshat to'la ko'zlarini unga tikib to'xtab qolishganini ko'rib qoldim, xolos.

Meni qanday, qayoqqa olib ketishganini bilmayman. Ko'zimni ochsam, o'tovda yotibman.

Qorong'i tushib kech kirar ekan, o'tov tuynugidan osmondagi hech narsadan bexabar yulduzlarning charaqlashi ko'zga chalinib, uzoq-uzoqlardan ariqning shuvullab oqishi, poda-poda qo'y haydab ketayotgan qo'ychivonlarning ovozlari eshitilib turardi. O'choq boshida qiyshaygan yog'ochday, qovoqlari soliq, unniqib qop-qorayib ketgan bir xotin o'tiribdi. To'rga qarasam, oh, qani endi ko'zimning o'qi bo'lsa-yu...

— Hey, xotin, turg'iz o'rnidan anuvni! — deb amr qildi yuzi qizil semiz odam. Qora xotin yonimga kelib, yog'ochday dag'al qo'llari bilan yelkamdan silkitib qo'ydi.

— To'qolingni bir amallab ko'ndir, bo'lmasa, bari bir, o'z bilganimni qilaman!..

Shunday dedi-yu, anavi odam nusxa o'tovdan chiqib ketdi. Qora xotin bo'lsa o'rnidan qo'zg'almadi ham, og'zidan gap ham chiqmadi. Soqovmidiykin! Uning kul singari bo'zargan sovuq ko'zlarida hech qanday jon yo'q. Kuchuk bolaligidan miyasiga urilaverib ko'kmiya bo'lib qolgan itning termilgan ko'zlariga o'xshaydi. Yer ustidamanmi, qorong'i go'rga tushib ketganmanmi, o'lik-tirikligimni bilmay o'tiraverdim. Soyda oqqan suv mungli sharillab holimga achinganday, toshdan toshga urilib betoqat bo'layotganday...

Ming la'nat senday ichi qora dog'uli kennoyiga! Iloyim, uvolimga qolgin, qarg'ishim boshingga yetsin. To'kilgan ko'z yoshlarim, tanimdan oqqan qonlarim sel bo'lib seni o'z qa'riga tortsaydi! Shu kecha, meni o'n besh yoshimda qizligimdan judo qildilar... Meni zo'rlab xotin qilgan shu hayvonning bolalaridan ham yosh ekanman...

Ikki kun o'tib, uchinchi tunda bu kunimdan o'lganim yaxshi, mayli, o'ligim cho'l-biyobonlarda qola qolsin, quvib yetishsa, o'qituvchim Duyshen singari jonim boricha olishib o'lganim yaxshi, degan o'y bilan qochmoqchi bo'ldim.

O‘tov ichi qop-qorong‘i, sekin yurib borib eshikni topdim, qo‘lim bilan piypaslab qarasam, eshikni jun arqon bilan tang‘ib bog‘lab qo‘yishibdi, hadeganda qorong‘ida arqon tugunlarini yechib eshikni ochish oson emas. Shundan keyin o‘tov keragasini ko‘tarib, ostidan surg‘ulib biron iloj qilib chiqib ketmoqchi bo‘ldim, bor kuchimni ishga solib urinsam ham, butun harakatim bekor ketdi — o‘tovni tashqaridan ham arqon bilan yerga tortib qattiq bog‘lab qo‘yishgan ekan, qo‘zg‘atib bo‘lmadi.

Biron o‘tkir narsa topib eshik iplarini qirqishdan boshqa iloj qolmadi. Qorong‘ida piypaslab-piypaslab bilakdek yog‘och qoziqdan boshqa hech narsa topmadim. Jon achchig‘ida shu qoziq bilan o‘tov tagini kovlay boshladim. Miyamda faqat birgina fikr aylanib yuradi — yo bu yerdan qochib qutulaman yoki bo‘lmasa bu kunimdan o‘lganim yaxshi, anavining xurragi, pishillashini eshitmasam bo‘lgani, iloyim yo‘lim oson bo‘lsin, ajalim yetgan bo‘lsa, mayli, bu qafasdan qutulib, muallimim Duyshenday o‘z erkim uchun jonim bo‘g‘zimdan chiqquncha olishib o‘la qolay!

To‘qol nima degan odam bo‘ldi! Bir umr yorug‘ dunyoni ko‘rmagan sho‘rli to‘qol... ham jismi, ham qalbi qul ikkinchi xotindan ham yomon xo‘rlikka giriftor bo‘lgan odam zoti bormi bu dunyoda!..

Jonim boricha yerni tirnab qaziy berdim. Keraganing tagidan ikki qo‘l sig‘adigan teshik ochilganda tong otib, nazarimda, ovul uyg‘onganga o‘xshadi. Eshikda itlar vovillab, odamlarning ovozi eshitilib qoldi. Birozdan keyin yilqilar dupurlab, qo‘ylar yo‘talishib o‘tdi-da, o‘tovning yoniga kimdir kelib, arqonlarni yechib, o‘tov tepasidan kigizlarni tushira boshladi. Qarasam, indamas “kundoshim” qora xotin. Demak, ko‘ch-ko‘ch bo‘layotgan ekan. Bugun azonda bu yerdan qo‘zg‘alib, dovon oshib boshqa qo‘nishga ko‘chib ketmoqchi bo‘lib gaplashayotganlari kecha qulog‘imga bir chalinganday bo‘lgandi. Sho‘rim qurib, qochishim yana beshbattar qiyin bo‘lar ekan-da...

Keraganing ostini kovlagan joyimdan hech qimirlamay yerga qarab o‘tiraverdim. Yashirib ham nima qilardim... Baribir, o‘tov tagi kovlanganini qora xotin ko‘rdi-ku, ko‘rsa ham, hech e’tibor bermay, indamay o‘z ishini qilaverdi. Bu dunyosining unga hech

daxli yo‘g‘-u, hayotnging g‘avg‘osi uning his-tuyg‘ulariga aslo taqilmaydiganday, o‘zi bilan o‘zi ovora, to‘rda boshini ko‘rpaga burkab ayiqqa o‘xshab yotgan xo‘jayinini, hoy turing ko‘chib ketyapmiz, deb uyg‘otishni ham o‘ziga lozim ko‘rmadi.

Hamma o‘tov kigizlari yig‘ishtirib olingan edi, yap-yalang‘och bo‘ldi-qoldi, men bo‘lsam hamon qafasga tushgan qushday o‘tiribman, soyning naryog‘ida odamlar tuyalarga yuk ortib, to‘s-to‘polon bo‘lishib ko‘chish taraddudini ko‘rishyapti. Bir mahal soydan uchta otliq chiqib kelib, haligilardan nimanidir so‘roqlashdi-da, biz tomonga yo‘l olishdi. Avvaliga bular ko‘ch ko‘chirgani kelishgan bo‘lsa kerak deb o‘ylab o‘tirdim. Keyin razm solib qarab ko‘zimga ham ishonmay qoldim. — Duyshen bilan yoqasiga qizil taqqan ikki militsioner to‘g‘ri bizning o‘tovga qarab kelishyapti.

O‘rnimdan turay desam holim yo‘q, baqiray desam ovozim... Bir suyunib ketdimki, xayriyat, muallimim tirik ekan! Lekin, e-voh! Yuragim jarohatlangan, nomusim poymol etilgan... Jonim halqumimga kelib tiqilib qolganday, qulog‘im bitib, a’zoyi badanim bo‘shashib ketdi...

Yuz-ko‘zlari bint bilan bog‘langan, chap qo‘lini bo‘yniga osib olgan Duyshen otdan sakrab tushib, eshikni oyog‘i bilan bir itardi, shiddat bilan o‘tovga kirdi-da, yuzi qizil odamning ustidagi ko‘rpasini yulib olib irg‘itib tashladi.

— Tur o‘rningdan! — dedi g‘azab bilan.

U boshini ko‘tarib, ko‘zini bir ishqaladi, Duyshenga tashlanmoqchi bo‘lgan edi, militsionerlarning o‘qtalgan to‘pponchalarini ko‘rib jim bo‘la qoldi. Duyshen chap qo‘li bilan yoqasidan tortib, o‘ziga yaqin keltirdi, ko‘ziga tik boqib, g‘azabdan lablarining qoni qochib:

— Tur, ablah! Qani, yur, ko‘ngling tusagan yeringga olib borib qo‘yamiz! — dedi. U itoatkorlik bilan o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Duyshen uni yana bir yoqasidan tortib ko‘ziga tik boqdi-da, titroq tovush bilan:

— Sen uni giyohday oyoq osti qildim, rasvoyi olam qildim, deb xayol qilgandirsan? Bilib qo‘y, la’nati, u zamonlar o‘tib ketgan, hozir zamon bizniki, shu bilan endi sening kuning bitadi, — dedi. Uning etigini yalang oyoq kiydirib, ikki qo‘lini orqasiga bog‘lash-

di, militsionerlar uni otga o'ngarib, biri yetaklab, biri haydab olib ketishdi. Men Duyshenning otiga mindim, u yonida piyoda ketdi.

Biz yo'lga tushganimizda orqamizdan yurak-bag'irni ezadigan dahshatli baqirgan ovoz eshitildi. Qora xotin orqamizdan yugurib kelardi. U aqldan ozgan majnunday yugurib erining yoniga kelib, suvsar telpagini tosh bilan urib tushirdi, yuziga kul sochib yubordi:

— Qonimni suvday ichding, qonxo'r! Boshimga ne-ne kunlarni solmading, juvon o'lgur! Mening qo'limdan endi o'liging qutulmasa, tiriging qutulmaydi! — deb baqirib o'kirganini eshitganda, yurak bag'rim ezilib ketdi.

Qirq yildan beri og'iz ochmay, erining ko'ziga tik qarolmay yurgan bu g'aribning yuragida yig'ilib qolgan dard-alamlari bugun hamma to'g'onlarni chilparchin qilib, seldek o'pirib chiqqanday bo'ldi. Uning chinqiriq ovozi baland-baland dara qoyalariga borib urilib, aks-sadoday yangradi. Goh u, goh bu tomonga yugurib o'tib, ko'm-ko'k tomirlari o'ynab ketgan oriq, kosovday qo'llari bilan so'qaday boshini qayerga yashirishni bilmay tipirchilab qolgan erining ustiga go'ng, qum sochib, kesak otib, qo'liga nima ilinsa, shu bilan urib, unga la'natlar yog'dirdi:

— Yurgan yo'lingda o't unmasin, ilohim, o'liging ko'milmay dalada qolib ketsin, suyaging qaytib kelmasin, qarg'a-quzg'unlar ko'zingni o'ysin, qorangni ikkinchi ko'rmay, o'l, o'l, harom o'l! — dedi-yu, jinni bo'lgan odamday baqirib-o'kirib, shamolda to'zg'ib ketgan sochlaridan qochganday ko'zi tushgan tomonga yugurib ketdi.

Shu voqea ustiga yetib kelgan qo'ni-qo'shnilari ot choptirib uning orqasidan quvib ketishdi.

Yomon tush ko'rib bosinqirab chiqqan odamday boshimning g'uvillashi to'xtamadi. Ko'z oldimni qorong'i parda bosib, es-hushimni yig'olmay, dilim g'ash, o'zim xunob kelaverdim. Duyshen sal oldinda otni yetaklab ketyapti. U bint bog'langan boshini quyi solib, jimgina xayol surib borardi.

Ancha yurganimizdan keyin kasofat dara ko'rinmay ketdi. Militsionerlar ilgarilab ketib ko'rinmay qolishgandi; Duyshen otni to'xtatdi-da, dard-alamli ko'zlari bilan birinchi marta menga tik qaradi.

— Oltinoy, kechir meni, seni bu kulfatlardan saqlay olmadim, kechir meni, — dedi. Qo'llarimdan ushlab, qattiq bir xo'rsinib oldi. — Sen kechirganing bilan, Oltinoy, bari bir o'zimdan bir umr domongir bo'lib yuraman.

Ho'ngrab yig'lab otning yoliga yuzimni qo'yib oldim. Ko'nglimni yig'i bilan bo'shatib olgunimcha Duyshen yonimda nafasini ham chiqarmay sochimdan silab turdi.

— Qo'y, Oltinoy, behudaga joningga jabr qilma, — dedi u bir vaqt. — Gapimga quloq sol, Oltinoy, o'tgan kuni volostda bo'lganimda o'qishing to'g'risida gaplashib keldim. Shaharga yuborib o'qitamiz, deyishdi. Eshityapsanmi? Yur, endi ketdik.

Adir oralab shildirab oqib turgan tiniq suvga yetganimizda Duyshen mehribonlik bilan menga qarab:

— Otdan tushib yuvinib olsang-chi! — dedi. Keyin cho'ntagidan sovun olib menga uzatdi. — Men nariroq borib otga o't yedirib turay, yechinib suvga tushib yuvinib ol. Hammasini unut qil, zinhor xayolingga keltirma endi. Cho'milib ol, Oltinoy, yengil tortasan, xo'pmi?

Xo'p deganday bosh irg'adim. Duyshen nari ketib, ko'rinmay qolgan edi, yechindim, seskana-seskana suvga tushdim. Oq, ko'k, yashil, qizil toshlar suv tagidan menga ko'z tashlab qarab turishardi. Ko'm-ko'k, toshqin suv to'lqini to'pig'imga kelib urilib nimalarnidir vijirlab gap ochdi. Hovuchlab suv olib ko'kraklarimga sepdim. Badanimdan muzday suv oqib tushganini ko'rib shuncha kundan buyon birinchi daf'a beixtiyor kulib yubordim. Yayrab-yayrab kuldim! Yana anchagacha ustimga suv quyib turdim-da, keyin suvning chuqur joyiga o'zimni tashladim. Suv oqimi bir zumda meni yana sayoz joyiga olib chiqib qo'ydi, men bo'lsam yana o'rnimdan turib, hadeb o'zimni qaynab ko'piklanib turgan oqimga otaman.

— Suvjon, shu kunlarning hamma shaltoq, ifloslarini yuvib ket! Meni o'zingday halol va musaffo qil! — deb shivirlab, o'zimdan-o'zim kulaman-u, lekin nimadan kulganimni o'zim ham bilmayman...

Oh, qani endi odamzodning bosgan izlari bir umr o'chmasaydi! Duyshen bilan ikkalamiz tog'dan tushib kelgan so'qmoq yo'lni

topolsam, sajda qilib, muallimimning bosgan izlarini o'pardim. Bu so'qmoq men uchun hamma yo'llardan ham aziz. Menga yangi hayot bag'ishlagan, yangi umid-orzular hadya qilgan, yorug' dunyoga chiqargan o'sha kun, o'sha so'qmoq, o'sha yo'l xayrli bo'lsin... O'sha quyoshga ming bor rahmat, o'sha zamon tuprog'iga ofarin...

Ikki kundan keyin Duyshen meni stansiyaga olib bordi.

Bu voqeadan keyin ovulda qolishga ko'nglim ham bo'lmadi. Yangi hayotga yangi joyda qadam qo'yish kerak edi. Bu qarorim ovuldagilarga ham ma'qul bo'ldi. Sayqal buvim bilan Qartangboy otam meni kuzatib borishdi, ular ko'zlarida yosh, yo'limga atashgan tugun, xaltalarni ko'tarib, bolalarday yelib-yugurib yurishardi. Men bilan xayr-xo'shlashgani boshqa qo'shnilarimiz ham, tajang Satimqul ham yetib keldi. U:

— Xayr, endi bolam, Xudo seni o'z panohida saqlasin, oy borib, omon qayt! O'zingni dadil tut, Duyshenning yo'rig'idan chiqmasang, baraka topasan. Bizlarning ham uncha-munchaga aqlimiz yetadigan bo'lib qoldi, deb oq yo'l tilab qoldi.

Maktabimiz bolalari brichka aravaning orqasidan ancha yergacha yugurishib kelib, uzoq vaqt qo'l silkib xayrlashib turishdi. Meni bir nechta yetim bolalarga qo'shib, Toshkentga, bolalar uyiga jo'natishdi. Stansiyada bizni charm kurtka kiygan bir rus ayoli kutib oldi.

Stansiyaga kechga yaqin yetib kledik. O, aylanay sendan, ko'klam maysa, terakzor stansiyam! Yuragimning yarmini bir umr o'sha yerda qoldirib ketgan bo'lsam kerak...

Birozdan keyin poyezd ham yetib keldi. Bizning ayrilishimizni bilgandek, mo'ralab qarab turgan sarvqomat teraklar kechki shamolda tebranib, bir-biriga allanimalarni shivirlab, oh tortib, hasrat qilganday bo'lishdi. Duyshen har qancha sabr-qanoatli bo'lsa ham, bu gal o'zini bosib turishga urinib, sir boy bermaslikka harakat qilsa ham, yurak dardini yashira olmadi: uning ko'nglidan nimalar o'tayotganini, baribir, o'zim ham bilib turgandim. Mening tomog'imga ham olovday bir narsa kelib tiqilib qoldi. Duyshen tikilganicha ko'zini mendan uzolmay, yuz-ko'zlarim, tugmalarimgacha silab turaverdi.

— Seni bir umr yonimdan siljitmasdimku-ya, Oltinoy, — dedi u. — Lekin, nima qilay, seni o'qishdan qoldirishga haqqim yo'q-da. O'zim ham uncha savodli emasmanki... Nima bo'lganda ham, o'qishga ketganing ma'qul! O'qib yaxshi o'qituvchi bo'lasan, maktabimiz esingga tushgan kezlari hali rosa kularsan ham... Mayli, iloyim tilagan tilagimga yetkazsin...

Shu orada darani yangratib uzoqdan parovoz ovozi eshitildi, poyezd chiroqlari ham ko'rinib qoldi. Stansiyadagi odamlar yuklarini ko'tarib qimirlab qolishdi.

— Ana, hozir endi jo'nab ketasan! — dedi titroq ovoz bilan Duyshen, qo'limni qattiq siqib. — Baxtli bo'l, Oltinoy, o'zingga ehtiyot bo'l, ishqilib o'qish payidan bo'l... Biron javobga ham tilim bormadi, ko'z yoshlarim bo'g'ib qo'ygandi.

— Yig'lama, Oltinoy, — deb Duyshen ko'z yoshlarimni artib qo'ydi-da, to'satdan bir gap esiga kelib: — Anavi biz ekkan terakchalarni, Oltinoy, men o'zim parvarish qilaman. Omon bo'lsang, katta odam bo'lib kelganingda, bo'y cho'zib chiroyli bo'lganini ko'rarsan hali.

Shu payt poyezd ham yetib keldi, sharaq-shuruq qilib vagonlar bir-biriga urilib to'xtadi.

— Qani endi, xayrlashaylik, beri kel, manglayingdan bir o'pay! — Duyshen meni qattiq quchoqlab peshonamdan o'pdi. — Eson-omon bo'l, oq yo'l senga, baxting ochilsin, chirog'im! Hech nimadan qo'rqma, dadil qadam bos!

Bir sakrab vagon zinapoyasiga chiqdim-da, orqamga qayrilib qaradim. Singan qo'lini bo'yniga osib olgan Duyshenning bilinar-bilinmas ko'z yoshi aralash menga termilib qarab qolgani hech ko'z oldimdan ketmaydi. Keyin menga qarab talpingan edi, shu onda poyezd o'rindan qo'zg'alib jo'nadi.

— Xayr, Oltinoy! Xayr, chirog'im! — deb qichqirdi u.

— Xayr, muallim, xayr, aziz ustozim!

Duyshen vagon bilan yonma-yon yugurib boraverdi, keyin orqada qoldi, bir vaqt o'zini yana zarb bilan oldinga tashlab:

— Oltin-oy! — deb baqirib yubordi. Menga muhim bir gapni aytolmay qolganiga o'ksinib baqirdi. Yuragining eng teran yeridan chiqqan bu nido hali-hali qulog'imdan ketgan emas...

Poyezd tunneldan chiqib, to‘g‘ri yo‘lga tushib oldi, tobora tezlashib Qozog‘iston qir-dalalaridan meni yangi hayot sari olib ketdi...

Xayr muallimim, xayr, birinchi maktabim, xayr, bolalik chog‘im, xayr, yer ostida ko‘zi ochilmay qolgan tiniq buloq singari, pinhon sof muhabbatim...

Ha, Duyshen orzu qilib bizlarga tasvirlab bergan katta shaharda, derazalari katta-katta maktablarda o‘qidim. Rabfakni bitirganimdan keyin, meni Moskvaga institutga yuborishdi. Shu uzoq o‘qish yillari har gal boshimga mushkul ish tushib, umidsizlik meni yengmoqchi bo‘lib hamla qilganida, eng qiyin daqiqalarda Duyshenni ko‘z oldimga keltirardim, uning tayinlab aytgan gaplari menga madad berib keldi, meni olg‘a undar, tisarilishimga qo‘ymasdi. Odamlarning bir o‘qib miyasiga quyib olgan narsalari menga juda zo‘r mashaqqatlar bilan nasib bo‘lardi. Nega deganda, menga hamma darslarni boshidan boshlashga to‘g‘ri keldi.

Rabfakda o‘qib yurgan chog‘imda muallimimga maktub yuborib, unda oshkora muhabbat izhor qildim, sizni kutishga ahd qilganman, deb xabar qildim. Lekin, afsuski, xatimga javob ololmadim. Shu-shu xat yozib turishimiz ham to‘xtab qoldi. Nazarimda u o‘qishimga xalaqit bermaslik uchun mendan ham, o‘z huzur-halovatidan ham voz kechdi shekilli. Balki, bu qilgan ishi to‘g‘ridir... Ehtimol, boshqa sababi bordir?.. O‘shanda ozmuncha qon yutmadim, boshimga ne-ne xayollar kelmadi...

Birinchi dissertatsiyamni Moskvada yoqladim. Men uchun bu katta jiddiy yutuq edi. Ana o‘sha yillari o‘zim o‘qish bilan ovora bo‘lib ketib, ovulga borishga hech iloj topolmadim. Shu o‘rtada urush boshlanib qoldi. Kech kuzakda Moskvadan Frunzega evakuatsiya qilinib ketayotganimizda o‘sha muallimim meni birinchi marta o‘qishga jo‘natgan stansiyada poyezddan tushib qoldim. Baxtimga, ovulimiz yonidan sovxozga o‘tib ketadigan bir arava ham uchrab qoldi.

O, jondan aziz Vatanim, sen bilan og‘ir jang-u jadal kunlarida uchrashish nasib bo‘ldi. Yurtimning obod bo‘lganini ko‘rib, quvondim. Yangi-yangi ovullar paydo bo‘libdi, yangi-yangi ko‘chalar

ochilibdi, yangi ko'priklar bino bo'libdi... Lekin urush dilni siyoh qilib turibdi-da.

Ovulga yaqinlashgan sari yuragim qiniga sig'may, tipirchilay berdi.

Uzoqdan yangi-yangi notanish ko'chalar, uy va bog'larga ko'z tashlab kelyapman. O'sha maktabimiz turgan tepalikka ko'zim tushdi-yu, yuragim shuv etib ketdi — tepalikda ikki azim terak yonma-yon qad ko'tarib, shamolda chayqalib turishibdi. Shu onda butun umrim bo'yi "muallim" deb atab kelgan odamimning o'z nomini birinchi marta tilga oldim:

— Duyshen! — deb shivirlab qo'ydim. — Duyshen, qilgan hamma yaxshiliklaring uchun rahmat! Esingdan chiqarmabsan, demak, o'ylab yuribsan... Ofarin, sendek sadoqatli zotga!..

Aravakash bola ko'z yoshlarimni ko'rib:

— Nima bo'ldi sizga, opa! — deb tashvishlanib so'radi.

— Ha, hech nima! Bu kolxozda biron kishini taniysanmi?

— Bo'lmasa-chi! Hammalari o'z odamlarimiz.

— Duyshenni bilasanmi, muallim bor edi-ku?

— Duyshen deysizmi? U armiyaga ketgan-ku. O'zim uni shu aravada voyenkomatga oborib qo'ygandim.

Ovulga burilishda boladan, aravangni to'xtat, deb iltimos qildim, aravadan tushdim. Yerga tushib o'ylanib turib qoldim. Shu og'ir kunlarda tanish qidirib, meni taniysizmi, men falonchi bo'laman, deb uyma-uy yurishni o'zimga ep ko'rmadim. Duyshen bo'lsa armiyada ekan. Innaykeyin, kennoyim bilan amakim bor joyga qadam bosmaganim bo'lsin, deb ont ichgandim. Odamzodning ko'p gunohlarini kechirish mumkin, lekin bunaqangi yovuzlikni hech kim ham kechirmas, amakim bilan kennoyimga qoramni ko'rsatish niyatim ham yo'q edi. Yo'ldan burilib tepalikka — qo'shterak yoniga qarab ketdim.

Eh, teraklar, jon teraklar! Qancha-qancha suvlar oqib o'tdi-yu, u mahalda sizlar ko'm-ko'k ko'chat edingiz! Mana, endi sizlarni ekkan, voyaga yetkazgan odamning hamma orzu-istaklari, aytgan gaplari ro'yobga chiqdi. Nega ma'yus ko'rinasiz, shovullab nimadan qayg'urasiz? Yo qish yaqinlashib qoldi, izg'irin shamollar yaproqlarimizni to'kib yuboradi deb, shuning tashvishini qilyapsiz-

mi? Yo bo'lmasa xalqning g'am-g'ussasi, qayg'u-alami shox-shabbalaringizni zirqiratyaptimi?

Ha, hali izg'irin qish ham keladi, bebosh bo'ronlar ham bo'ladi, lekin bahor ham keladi...

Kuzgi yaproqlarning shovullashiga uzoq vaqt quloq solib turdim. Teraklar yonidan o'tgan ariqlarni kimdir yaqinda tozalab qo'yibdi: yerda oyoq, ketmon izlari bor. Ariq to'la limmo-lim tiniq suv, uzilib tushgan sap-sariq terak barglari suv yuzida qalqib turibdi.

Tepalikdan maktabning bo'yalgan tunuka tomli ko'rinib turardi, ilgarigi maktabimizdan nomu nishon ham qolmabdi.

Tepalikdan tushib, yo'lda uchragan brichka aravada stansiyaga qarab ketdim.

* * *

Urush tugab, g'alaba kunlari ham yetib keldi.

Xalq ozmuncha qora kunlarni boshidan kechirdimi? Bolalar maktabga otalarining polevoy sumkalarini ko'tarishib yugurib ketishardi. Erkaklar qaytib yana mehnatga kirishib ketdilar, beva qolgan xotinlar ko'z yoshi to'ka-to'ka oxiri taqdirga tan berishdi; qarindosh-urug', aka-ukalarini, erlarini umid bilan zoriqib kutganlar ham ko'p bo'ldi. Axir, hamma birdan qaytmadi-da.

Duyshenning holi nima kechganini bilolmay dog'da yurdim. Ovulimizdan shaharga kelib-ketib yurganlar, Duyshen bedarak bo'lib ketdi, selsovetga shunday qog'oz kelganmish deyishdi.

— Kim bilsin, balki o'lgandir, — deb tusmol ham qilishdi. — Bedarak ketganiga, axir, ozmuncha vaqt bo'ldimi... deyishdi.

"Demak, muallimim qaytib kelmas ekan-da, deb ba'zi-ba'zida xayolimdan o'tkazib qo'yardim. O'sha stansiyada xayrlashganimizdan buyon diydor ko'rishish nasib bo'lmabdi-ya..."

Har zamon-har zamon o'tmishimni xotirlabman-u, yuragim g'am-g'ussaga to'lib-toshay deb qolganini payqamay yuravergan ekanman.

Qirq oltinchi yili kech kuzakda Tomsk universitetiga ilmiy komandirovkaga jo'nab ketdim.

Sibir yerlariga birinchi marta qadam qo'yishim edi. O'sha qish oldi kezlarida Sibirning qahri kelgan-u o'zi g'amgin ko'rinardi.

Asrlarni ko'rgan o'rmonlari derazadan qop-qora devorday tuyuladi. O'rmonlar oralig'idagi sayhon joylarda mo'risidan oq tutun burqirab turgan, tomlari qora qishloqchilar ko'zga tashlanib turadi. Muz qotgan dalalarga birinchi qor tushgan-u, havoda qarg'alar to'p-to'p bo'lib qag'illab parvoz qilib yurishibdi. Osmonning qovog'i soliq.

Poyezdda vaqtim chog' ketyapman. Kupemizdagi hamrohlarimizdan biri frontdan kelgan qo'ltiqtayoqli invalid yigit harbiy hayotdan qiziq-qiziq voqealar va latifalar aytib kuldirgani-kuldirgan. Ajoyib-g'aroyib gaplarga shunday ustaki, beozor askiyalari ham xuddi chinday bo'lib ko'rinadi, vagondagilarning hammasi uni yaxshi ko'rib qolishdi.

Novosibirskdan o'tganimizda poyezdimiz qandaydir razyezdda bir minutcha ushlanib qoldi. Men deraza yonida haligi yigitning sho'xligiga qarab kulib turgandim.

Poyezd o'rnidan qo'zg'alib, jadallashdi, stansiyadagi yakka uy deraza oldidan suzib o'tganday bo'ldi, strelkachiga ko'zim tushganda derazadan shartta orqamga tisarildimu, shu zahoti yana oynaga yopishib oldim. Uni, Duyshenni ko'rib qoldim! U budka yonida qo'lida bayroqcha tutib turgan edi. Nima bo'lganini o'zim ham bilmayman.

— To'xtating! — deb butun vagonni boshimga ko'tarib baqirdim-u, nima qilishimni bilmay, o'zimni vagon eshigi tomon otdim, shu lahzada ko'zim stop-kranga tushdi, shartta plombasini uzib oldim.

Vagonlar bir-biriga urilib, poyezd birdan tormozlandi, yana shunday shiddat bilan orqasiga tisarildi. Polkalardagi yuklar gumburlab ag'anab tushdi, idish-tovoqlar shaqirlab ketdi, bolalar bilan xotinlarning yig'isi eshitildi. Kimdir vahimadan ovozi bo'g'ilib:

— Poyezd odamni bosib ketibdi! — deb baqirib yubordi.

Men bo'lsam vagon zinapoyasidan sakradim, nazarimda jahannamga ag'anab tushganday bo'ldim, ko'zimga hech narsa ko'rinmay qoldi, aql-hushini yo'qotgan odamday strelkachining budkasiga — Duyshenning yoniga yugurdim. Orqamdan konduktorning hushtagi eshitildi. Vagonlardan odamlar sakrab tushib, ular ham orqamdan yugurishdi.

Bir nafasda poyezdning u boshiga borib yetdim. Duyshen ham menga qarab chopib kelyapti.

— Muallim, jonim Duyshen! — deb baqirdim-u, o'zimni uning bag'riga otdim.

Strelkachi menga qarab hayron bo'lib to'xtab qoldi. Duyshenning xuddi o'zginasi, yuz-ko'zlari quyib qo'yganday, lekin ilgari mo'ylov qo'yib yurish odati yo'q edi, o'zi ham ancha keksayib qolibdi.

— Sizga nima bo'ldi, singlim, nima gap? — deb mehribonlik bilan so'radi u qozoq tilida. — Yanglishdingiz shekilli. Strelkachi Jongazin bo'laman, otim Beynov.

— Beynov?

Alamim zo'ridan, uyalganimdan dodlab yuborishimga sal qoldi, zo'rg'a o'zimni bosib oldim, yer yorilmadi-yu yerga kirmadim. Nima noma'qulchilik qilib qo'ydim? Yuzimni qo'llarim bilan berkitib, boshimni ham qildim. Bu kunimdan ko'ra yer yuta qolsa bo'lmasmidi meni! Strelkachidan uzr so'rab, xalqdan kechirim so'rashim kerak edi, men bo'lsam xuddi tosh qotganday, damim ichimga tushib turaveribman. Yugurib kelgan yo'lovchilar ham nima sababdandir jim turishardi. O'zim bo'lsam, hozir baqirib rosa so'kishadi men betamizni, deb kutib turibman. Lekin hech kim miq ham etmadi. Mana shu mudhish jimlikdan qandaydir bir xotin:

— Bechora sho'ring qurg'urning ko'ziga eri, yo ukasiga o'xshab ko'ringanda! — dedi. Odamlarga jon kirdi.

— Muncha vahima qilmasa, — deb birov to'ng'illab qo'ydi.

— Muncha yozg'irmasangiz, axir, bu kasofat urushda ne-ne kunlar boshimizga tushmayapti deysiz... — deb shartta kesib gap qaytardi bir ayol.

Strelkachi qo'llarimni yuzimdan olib:

— Qani yuring, vagoningizga olib borib qo'yay, sovuqda qoldingiz, — dedi. Shunday deb qo'limdan ushlab oldi. Bir tomonimdan yana bir ofitser ushladi.

— Yuring, grajdanka, hechqisi yo'q, xafa bo'lmang, — dedi.

Odamlar yo'l berishdi, meni xuddi dafn marosimidagiday ikki qo'ltig'imdan ushlab borishdi. Bizlar sekin qadam tashlab oldinda boramiz, qolgan hamma kishilar ketimizdan borishardi. U yoq-bu yoqdan yugurib kelayotgan yo'lovchilar ham bizga qo'shilishib

borishardi. Kimdir tivit ro'molini yelkamga tashladi. Kupedagi qo'ltiqtayoqli hamrohimiz yon tomonda oqsoqlanib borardi. U sal oldinga o'tib yuzimga bir qarab oldi. Xushchaqchaq, mehribon va dovyurak bu sho'x yigit nima uchundir bosh yalang, nazarimda, ko'zlaridan miltillab yosh oqib ketyapti. Buni ko'rib mening ham ko'zim yoshlandi. Poyezd bo'ylab ohista qadam tashlab boryapmiz, telegraf simyog'ochlarining hushtak chalib guvillashlari qulog'imga xuddi marsiyaday eshitilardi. "Yo'q, endi uni ko'rish menga nasib bo'lmaydi".

Vagonimiz yonida bizni poyezd boshlig'i to'xtatdi. U barmog'ini menga bigiz qilib, bir nimalar deb baqirar, sud javobgarligi, shtraf haqida nimalarnidir jahl bilan gapirardi. Men bo'lsam bu gaplarga e'tibor ham bermadim, shu paytda dunyoni suv olib ketsa, to'pig'imga ham chiqmasdi. U protokolini qo'limga tutqazib, qo'l qo'ydirib olmoqchi bo'ldi. Men bo'lsam qalam olishga ham madorim yo'q. Shu paytda haligi hamrohimiz uning qo'lidan qog'ozni yulib olib, qo'ltiqtayoqlab tumshug'ining tagiga borib yuziga baqirdi:

— Tinch qo'ysang-chi, uni! Men qo'l qo'yaman, stop-kranni uzgan men bo'laman, javobini o'zim beraman...

Kech qolgan poyezd Sibir yeridan, qadimgi rus o'lkasidan g'izillab boradi. Tun qorong'isida qo'shnimning gitarasidan mungli kuy sadolari yangraydi.

* * *

Yillar ketidan yillar keldi. Turmush o'z yo'lidan qolmay, porloq kelajak va uning katta va kichik g'am-tashvishlari bir umr da'vatini bas qilmadi. Yoshim bir joyga borib qolganda erga chiqdim. Umr yo'ldoshim tuzuk, bama'ni odam, bolalarimiz bor, oilamiz ahil, apoq-chapoqmiz. O'zim falsafa fanlari doktoriman. Tez-tez safarda bo'laman. Juda ko'p mamlakatlarda bo'ldim... O'sha-o'sha ovulimizga bormagandim. Buning o'ziga yarasha ancha-muncha sabablari bor edi, albatta, lekin o'zimni oppoq qilib ko'rsatish niyatim yo'q. Ovulim bilan bordi-keldi uzilib qolganligi yaxshi emas, bunda o'zimni gunohkor deb bilaman. Lekin peshonamga yozilgani shu ekanmi...

Men o'tmishimni unutib yuborganim yo'q, unutib yuborishga qurbim ham kelmasdi. Yo'q, undan qandaydir uzoqlashib qoldim, xolos.

Tog'larda shunday chashmalar bo'ladiki, yangi yo'l ochilsa, bu chashmalarga eltadigan so'qmoq yo'llar esdan chiqib ketadi, suvsaganda yo'ldan burilib boradigan yo'lovchilar tobora kamayadi, shu bilan bu chashmalarni yalpiz yoki na'matak bosib ketadi. Keyin bora-bora yo'lovchilar ko'ziga ko'rinmay ham qoladi. Bunday chashmalar onda-sonda birontaning esida qolib jazirama issiq kunlarda tashnasini qondirish uchun yo'ldan burilib chashma boshiga borsa borar. Yo'lovchi keladi-yu, o't bosib ketgan chashmani qidirib topadi. Giyohlarni avaylab ochadi-yu, hayratidan "oh!" deb yuboradi: allaqachonlardan buyon hech kim loyqalatmagan, muzdek buloq suvining tiniqligi va chuqurligini ko'rib hayratda qoladi, buloqda u o'zini ham, quyoshni ham, osmonni ham, tog'-toshlarni ham ko'radi... Ko'radi-yu, shunday joylarni bilmaslik gunoh, yor-birodarlarni ham bundan xabardor qilish kerak, deb ko'nglidan o'tkazib qo'yadi. Shunday deb o'ylaydi-yu, yanagi safargacha o'zi ham esidan chiqarib qo'yadi.

Ba'zan hayotda ham shunday bo'larkan, shuning uchun ham buning oti hayot bo'lsa kerak...

Bunday chashmalar yaqinda ovulimizga borib kelganimdan keyin esimga tushib qoldi.

Siz o'shanda meni, nima vajdan birdaniga Kurkuredan ketib qoldiykin deb hayron bo'lgandirsiz? Hozir sizga yorilib aytgan dardlarimni o'shanda odamlarga aytsam bo'lmasmidi? Yo'q, o'shanda ko'nglim juda buzilib, nomus kuchlilik qildi, o'zimdan-o'zim uyalib ketdim, shu vajdan darhol jo'nab keta qoldim. Mundog', yuragimga quloq solib ko'rsam, Duyshen bilan diydor ko'rishgulik holim yo'q, ko'ziga tik boqib qarolmasdim. O'zimni bosib, yurak to'lqinimni tinchitishim kerak edi, fikr-o'ylarimni bir joyga to'plab, faqat ovuldoshlarimga emas, yana boshqa ko'pdan-ko'p do'stlarimga aytmoqchi bo'lgan gaplarimni yaxshilab o'ylab bir qarorga kelishim zarur edi.

O'zimni gunohkor his qilganimning yana bir boisi shuki, bu izzat-ikromlar menga emas, boshqa bir zotga atalishi kerak edi, yan-

gi maktab ochish marosimida men emas, boshqa bir zotni to‘rga o‘tqazish lozim edi. Bunga hammadan avval faqat birinchi muallimimiz, ovulimizning birinchi kommunisti qariya Duyshenning haqi bor edi. Holbuki buning aksi bo‘ldi.

Biz hammamiz to‘kin dasturxonda mehmon bo‘lib o‘tirdig-u, bu bebaho odam shu ulug‘ ayyom kuni ham pochtachiligini qo‘ymay, bir zamonlar shu maktabda o‘qib odam bo‘lgan talabalarning yuborgan tabrik telegrammalarini maktabning ochilish vaqtiga yetkazish tashvishida yurdi.

Bu ittifoqo sodir bo‘lgan voqea emas. Bunday hodisalarni men o‘zim ko‘p ko‘rganman. Shuning uchun ham men o‘z-o‘zimga savol beraman: oddiy kishilarni Lenin singari astoydil izzat-hurmat qilish odatimizni, ajabo, qachon tark qilib qo‘ydik?.. Xudoga shukur, hozir bu narsalar haqida riyokorlik, tilyog‘lamalik qilmay, ro‘yirost gapiradigan bo‘lib qoldik. Bu jihatdan ham Leninga yanada yaqinroq bo‘lib olganimizdan o‘zimizni ming bor baxtiyor his qilamiz.

O‘z zamonasida Duyshenning qanday muallimlik qilganidan yoshlar bexabar. Kattalardan ko‘plari dunyodan o‘tgan. Duyshenning shogirdlaridan ko‘plari urushda halok bo‘lib ketishdi, ular chinakam sovet jangchilari edilar.

Muallimim Duyshenning qissasini yoshlarga yetkazishni o‘z burchim deb bilardim. Mening o‘rnimda har qanday kishi bo‘lganda ham shunday qilardi, bu turgan gap. Lekin, afsuski, ovuldan uzilib qolgandim! Duyshendan ham xabar topolmay, bora-bora uning siymosi xotiramda sokin muzeyxonalarda saqlanadigan aziz yodgorlikday bo‘lib qoldi.

Hali muallimim huzuriga borib, gunohimni bo‘ynimga olib, undan kechirim so‘rashim bor. Yolvorib, uzr so‘rayman.

Moskvadan qaytib kelganimdan keyin Kurkurega borish niyatim bor; odamlarga yangi internat-maktabga “Duyshen maktabi” deb nom qo‘yishni taklif qilmoqchiman. Internat-maktabga hozir pochtachilik qilib yurgan shu oddiy kolxozchining nomini qo‘ysak deyman. Siz ham, ovuldosh do‘stim, mening bu taklifimni quvvatlarsiz, deb umid qilaman. O‘ylayman, iltimosimni yerda qoldirmassiz.

Moskvada hozir tun, soat bir. Mehmonxona balkoniga chiqib, osmondagi yulduzlarday charaqlab turgan bepoyon Moskva chiroqlarini tomosha qilib, ovulimga borsam, muallimim bilan ko'rishib, oppoq soqollaridan o'psam, deb xayol surib turibman.

* * *

Derazalarni lang ochib qo'ydim. Uyga rohatijon havo oqib kirdi. Yorishib borayotgan ko'kish tong nurida boshlab qo'ygan etyud va xomaki suratlarimni ko'zdan kechirib turibman. Bunday suratlarim ko'p, bir necha marta hammasini yangidan boshlagan paytlarim ko'p bo'lgan. Lekin yaxlit bir surat haqida fikr aytishga hali erta. Eng muhim narsani hali topganimcha yo'q. Tong sukunatida xayol surib qadam tashlab yuribman, hech o'yimning oxiriga yetolmayman. Har gal ham shu kayfiyatda o'tadi. Har gal, suratim hali xayol pardasidan chiqmagan, deb o'zimni qattiq ishontiraman.

Shunday bo'lsa ham, hali alvonga tushmagan suratim ustida sizlar bilan gaplashish niyatim bor. Maslahatlashmoqchiman. Bu suratim ovulimizning birinchi ustozi, birinchi kommunist qariya Duyshenga bag'ishlanadi, buni albatta bilib turibsiz.

Lekin murakkab hayot, muqaddas kurashni, turli-tuman taqdir va insonlik hislarini bo'yoqlar bilan ifoda qilish qo'limdan kelarmikin, shu tomonini hali o'zimcha tasavvur qilolmay yuribman. Bu limmo-lim to'la kosani chayqatmay, bir qatrasini ham zoye ketkazmay siz zamondoshlarimga yetkazishnin iloji qanday bo'larkin? Niyatimni sizga yetkazish bilan birga, uni hammamizning ijodimizga aylantirish uchun nima qilsam bo'larkin?

Bu suratni chizmaslikka ilojim yo'q, lekin shuncha o'y-xayollar, andisha-yu, anduhlar meni qamrab olganki! Ba'zan o'ylab o'tirib, bu niyatimni bunyodga chiqarish qo'limdan kelmas, degan umidsizlik meni yengganday bo'ladi. Ba'zan bo'lsa qayoqdan ham taqdir qo'limga rassom qalamini tutqazdi, deb yana bir hayajonga tushaman. Qanday azob, qanday nadomat kunlarga qoldim o'zim! Ba'zan bilaklarimga qon to'lib, o'zimni shu qadar baquvvat his qilamanki, tog'ni talqon qilish ham hech gap bo'lmay qoladi menga. Shunday kezlarda: razm sol, o'rgan, sarasini sarakka chiqar, deb xayol surib ketaman.

Duyshen bilan Oltinoy qo‘shteragini suratga sol, axir, sen bu teraklar qissasini bilmasang ham, yoshligingda senga ozmuncha huzur bag‘ishlaganmi! Oftobda unniqib ketgan yalang oyoq bolaning suratini ol. U bola balandga chiqib terak shoxiga o‘tirib, uzoq-uzoqlarga zavq bilan ko‘z tashlab turibdi.

Yoki bir surat solib, unga “Birinchi muallim” deb nom qo‘y. Bunda Duyshen bolalarni qo‘liga ko‘tarib suvdan o‘tkazib turgan bo‘lsin-u, qip-qizil pochapo‘stin kiygan, semiz-semiz o‘ynoqi ot mingan anavi to‘pos odamlar xo‘rlashib, uni mayna qilishayotgan bo‘lsin...

Yo bo‘lmasa muallimning Oltinoyni shaharga kuzatib turganini tasvirla. Oxirgi marta yuragidan nido chiqarib xayrlashgani esingdami? Shu lahzani shunday ajoyib suratga tortginki, surating Oltinoyning qulog‘i tagidan hali ham ketmagan Duyshen nidosi singari har bir kishining yuragidan aks-sado topsin.

O‘zimga-o‘zim shunday deyman. O‘zimga-o‘zim ancha gaplarni ma’qullayman-u, lekin hammasi ham ro‘yobga chiqavermaydi-da... Suratim qanday chiqishiga hozir ham ko‘zim yetmaydi, lekin bir narsaga qattiq ahd qilganman: izlanaman.

1962-yil

SOMON YO‘LI

Ota, men senga yodgorlik o‘rnatolmadim. Sening qayerga dafn etilganligingni ham bilolmayman. Ushbu asarimni, otam To‘raqul Aytmatov, senga bag‘ishlayman.

Ona, sen bizni ulg‘aytib odam qilding. Sening uzoq umr ko‘rishingni tilab, onam Naima Aytmatova, senga bag‘ishlayman.

I

— Omonmisan, qutlug‘ dalam!

— Shukur. Keldingmi, To‘lg‘anoy? Bulturgidan ancha cho‘kib qolibsan. Sochlaring oppoq, qo‘lingda hassa.

— Umr o‘tib boryapti, ona-Yerim, oradan tag‘in bir yil o‘tdi. Bugun mening sig‘inadigan kunim.

— Kelishingni bilardim. Kutayotgandim, To‘lg‘anoy. Bu safar nabirangni ham ergashtirib kelmoqchi emasmiding?

— Shunday edi-yu, lekin bu safar ham yolg‘iz keldim.

— Demak, sen unga hali ham hech nima aytmabsan-da, To‘lg‘anoy?

— Yo‘q, aytolmadim.

— Ishqilib, ertami-kechmi, axir bir kun u ham eshitadi-da, To‘lg‘anoy. El og‘ziga elak tutib bo‘ladi, deysanmi?

— To‘g‘ri aytasan. Ertami-kechmi, axir bir kuni biladi. O‘zi ham ulg‘ayib, yaxshi-yomonni tushunadigan bo‘lib qoldi. Biroq men uchun hali ham temir qanot palaponga o‘xshab ko‘rinadi. Bolalik qilib o‘tgan-ketganni to‘g‘ri tushunolmay, ko‘ngli sovib qolmasa deb tashvishlanaman. Bari bir odam haqiqatni bir kun emas, bir kuni bilishi kerak-da. Men bilgan haqiqatni, sirdoshim xosiyatli Yer, sen bilgan va el bilgan haqiqatni hozircha yolg‘iz ugina bilmaydi, xolos. Bilganda nima der ekan, qanday o‘y-xayollarga borarkin, gapning tagiga yetolarmikin? Qanday qilib uning

dilini og‘ritmay, yoshligidanoq hayotdan ko‘nglini qoldirmay, sirimni ayta olsam ekan? Qani endi ikki og‘iz so‘z bilan bitadigan ish bo‘lsa. Keyingi kunlarda faqat shuni o‘ylayman, tun-u kun xayol suraman. Qishda tobim qochib, to‘shakda yotganimda ham o‘limdan qo‘rqmagan edim, ajal yetsa tap tortmay o‘limni qarshi olardim. Biroq, kunim bitib, ko‘zim yumilib ketsa, aytadigan vasiyatimni aytolmay, o‘zim bilan go‘rga olib ketamanmi, deb yuragimga vahima tushdi. U esi yo‘q, buni qaydan bilsin, u tentak, maktabni ham yig‘ishtirib qo‘yib, yonimdan siljimay qoldi. Onasining xuddi o‘zginasi: “Enajon, qayering og‘riyapti? Suv ichasanmi, yo doridan beraymi? Ustingni yopib qo‘yaymi, enajon?” — deb girdikapalak bo‘lardi. O‘shanda tilim bormadi, kuchim yetmadi. Boyqushim, ichida hech kiri yo‘q, soddadil norasida go‘dak edi. Hech nimadan gumon qilmasdi. Unga nima ham deya olardim. Shularni o‘ylarkanman, kalavamning uchini topolmay qiynalardim. Unday qilib ham, bunday qilib ham fikrlarimni taroziga solib ko‘rardim: bu narsa jo‘ngina so‘zlab beradigan jumboq emas ekan-da. Qanchalik o‘ylamay, baribir bir fikrga kelib to‘xtayman: bo‘lgan haqiqatni bola to‘g‘ri tushunsin deb, men unga yolg‘iz o‘z taqdirinigina emas, balki butun zamonamning tarixini, o‘tgan-ketganlar xususida, o‘zim haqimda, bariga guvoh bo‘lgan, saxovatli dalam, sening haqingda, qolaversa, o‘sha kezda hech nimadan bexabar minib o‘ynab yurgan velosipedi haqida aytib berishim kerak. Balki shundagina to‘g‘ri qilgan bo‘larman. Turmush hammamizni bir tugunga bog‘lab, hamirdek qorishtirib qo‘ygan ekan, hech nimani yashirib ham, qo‘shib ham bo‘lmaydi. Hatto bola emas, keksa kishi ham bu ishni har xil tushunishi mumkin. Ko‘zimning ochig‘ida shu katta qarzimdan qutulsam, o‘lsam armonsiz ketardim...

— Bu aytganlaring to‘g‘ri, To‘lg‘anoy. Qani beriroq kel, mana bu toshga o‘tir. Oyoq og‘riqsan-ku. O‘tir, bir yo‘lini qilarmiz. Oldingi safar bu yerga kelganing esingdami, To‘lg‘anoy?

— Undan beri qancha vaqtlar o‘tib ketdi-ku, eslolmayman.

— Yo‘q, sen o‘sha vaqtlarni eslashga bir harakat qilib ko‘r-chi, To‘lg‘anoy. Qani bir boshidan esla-chi.

— Esimda yaxshi qolmabdi. Kichkinaligimda, o‘rim mahalida, ota-onam yetaklab kelib, g‘aramlar tagiga o‘tirg‘izib qo‘yishardi.

— Ha, yig'lamasin deb qo'lingga bir burda non ham berib qo'yishardi.

— Keyin, kattarib qolganimda, el yaylovga ko'chganda, o'sha atrofda ekinlarni ko'rib yugurib yurardim. Unda men g'izillab chopib yuradigan, sochlari to'zgan sariq qiz emasmidim. O', bolalik-ey, uning ham o'zgacha gashti bor ekan! Chorvadorlar hu pastki tomondan Sariq Yoyiq tekisligida chang-u to'zon ko'tarib ko'chib jo'nashar edi. Birining ketidan biri turna qator tizilishib yaylovga, salqin adirlarga oshiqib yo'l olishardi. O'shandagi yoshlik chog'larim-ey! Uyur-uyuri bilan dupurlashib, kishnashgan yilqilar bosib ketgudek bo'lib kelishaversa, bug'doyning ichidan sakrab chiqib, ularni hurkitib yuborardim.

"Ey, yerdan chiqqan alvasti, hap senimi!" — deb yilqichilar uzun tayog'ini ko'tarib meni quvlab yuborishardi.

Necha minglab qo'y tuyoqlari do'l yoqqandagidek dupurlashib o'sha yo'ldan o'tib turishardi. Ularning orqasidan boy ovullarning ko'ch-ko'ronlari o'tib borar, yo'rg'a minib, qip-qizil cho'g'dek kiyingan qiz-juvonlarni ko'rganimda, hayron bo'lib, suqlanib qarab qolardim. Ancha joygacha ularning orqasidan ergashib yugurib-yelib borardim. Qani endi, men ham shunaqa ro'mol o'rab, shunaqa ko'ylak kiysam, deb orzu qilardim.

— Rost, To'lg'anoy, sen unda yalang oyoq, yalang bosh bir qashshoqning qizi eding. Biroq, o'shanday shoyilarni kiymasang ham, bo'ying yetganda oq sariqdan kelgan, yetilib to'lishgan qanday suluv qiz bo'lding. Sen unda ko'lankangga qarab qadam bosarding. Ayniqsa erta bilangi ko'lankang xuddi o'zingdek xushbichim bo'lardi.

— O'shanda men o'n yetti yoshlarda edim. O'sha yili o'roq o'rib yurib Suvonqul bilan uchrashmaganmidim. Suvonqul bu yerga Tolosning yuqori yog'idan yollanib kelgan edi. Hozir ko'zimni yumsam xayolimda Suvonqulning o'sha vaqtdagi qiyofasi gavdalanadi. Yoshgina, o'n to'qqiz-yigirmalardagi yigit, o'zi xipcharoq ko'rinsa ham, qo'llari paydor, temirdek salmoqli edi. Chakmonini doimo yelkasiga tashlab yurardi. Yoningda sheriging o'roq o'rib yursa, kishining qalbini quvontiradi: har ishning qiyomini keltirib ishlaydigan azamatlar bo'ladi-ku, Suvonqul shundaylardan edi.

U tezda o‘zib ketar, men ham o‘roqqa chaqqon edim, shundayam ortda qolib ketardim. Suvonqul qaytib kelib, mening tegishimdan o‘ra boshlaganda izza tortardim: “Sizni birov yordamga chaqirdimi? Taltaymang, keting bu yerdan, o‘zim ham bitiraman!” — desam kulib qo‘yib, indamay ishlayverardi, o‘shanda nimadan orlangan ekanman? Endi bilsam, erkalangan ekanman...

— Sizlar o‘shanda ishga doim elning oldi bo‘lib kelardilaring, To‘lg‘anoy.

— To‘g‘ri. El uyg‘onmay, g‘ira-shira tong yorishganda Suvonqul bilan ikkimiz birin-ketin ishga ketardik. U meni berigi tomondan qarshi olardi. O‘sha kunlar, o‘sha ajoyib tong otishlar bizning sevgi kunlarimiz ekan. Birga-birga kelayotganda dunyo boshqacha ko‘rinib, boshqacha sezilardi. El-yurtga non bergan jonajon dehqon dalam, bo‘zarib-sarg‘ayib yotsang ham, oppoq tonglarni dengizdek toshib, quchog‘ini senchalik ochib, senchalik o‘rtanib kim kutib olardi! O‘sha tonglarni senga hamroh bo‘lib biz kutib olardik, o‘sha tonglarni senga hamroh bo‘lib to‘rg‘ay kutib olardi. Ko‘rimsizgina bo‘z to‘rg‘ay osmonda uchib yurgan yuragi kabi bir nuqtadek bo‘lib ko‘rinsa ham, qanchalar nozik, qanchalar kishi dilini to‘lqinlantiruvchi qo‘shiqlar to‘qib, zorlanib sayrar edi. “Ana bizning to‘rg‘ay sayradi!” — deb qo‘yar edi Suvonqul. Qiziq, to‘rg‘ayni ham o‘zimizniki qilib olgan ekanmiz. Xushovozingdan aylanay, to‘rg‘ayim...

— Rost, To‘lg‘anoy, o‘sha to‘rg‘ay sizlarning to‘rg‘ayingiz edi.

— Esingdami, Yer, o‘sha oydin kecha? Balki, tabiatda, ikkinchi bor unday tun bo‘lmas. Oy yorug‘ida o‘roq o‘ramiz deb Suvonqul ikkalamiz qolib ketmaganmidik. Hu ufq ortidan kumush rang oy ko‘tarilganda, yulduzlar ham osmon uzra birin-ketin ko‘z ochishdi. O‘shanda biz uvat chetida Suvonqulning tor chakmonini ostimizga solib, ariq qiriga bosh qo‘yib cho‘zilib yotganimiz. Shu kecha biz umr bo‘yi yo‘ldosh — ajralmas yor bo‘lib qovushdik. Suvonqul cho‘yandek qo‘li bilan kokilimni silab, manglayimdan, yuzimdan erkalatib siypaganda, uning qoni jo‘shib urayotgan qalbining harorati kaftidan sezilib turardi. Men unga erkalab: “Suvon, nima deysiz, biz baxtli bo‘lamizmi, a? — desam, esingdami o‘shanda aytgan gaplari: “Yer-suv elga teng bo‘lsa, bizning ham ekin eka-

digan yerimiz bo'lsa, biz ham el qatori yer haydab, ekin ekib, xirmon ko'tarsak, bizning baxtimiz o'sha. Bizga bundan ortig'ining nima keragi bor, To'lg'an. Dehqonning ulushi ekkan ekinida" — demaganmidi. Uning aytgan so'zlariga nima uchundir behad quvonib ketib, bo'ynidan mahkam quchganimcha, lablaridan jon-tanim bilan o'pdim... So'ngra ariqdagi suvga cho'milib chiqdik-da, yana o'z o'rnimizga kelib, qo'l ushlashib, jimgina osmonga qarab, rohatlanib yotdik.

Yer, sen ham o'shanda sokin oydin tunda salqin tortib, bizga qo'shilib yayrab yotding. Garmsel esganda shirin asal hidi shiroljin bilan ermanning xushbo'y hidiga aralashib bug'doyzorga taralardi, bug'doyzor shuvullab, boshoqlarga tushgan oy nuri oltin ko'ldek chayqalib yotardi. Yoki o'sha tunni tabiat bizga ataylab shunday holda baxsh etdimikin? Yarim kechasi yulduzlar to'dasiga qarasam, somon yo'li olamning u boshidan bu boshigacha yoyilib yotgan payti ekan. Suvonqulning aytganlari esimga tushib, xayolimda osmonning o'sha kumush yo'li bilan qandaydir azamat bir dehqon katta quchoq somon ko'tarib o'tgan-u, go'yo uning ulkan qulog'idan sochilib tushgan don, to'pon baraka to'kib iz qoldirib ketgandek edi. Orzumizga yetsak, mening ham Suvonqulim shunday somon ko'targan dehqon bo'lsa, xirmonning betidan birinchi sovurib olgan somonidan quchoq to'ldirib yo'lga tushganida, xuddi o'shanday baraka to'kilgan yo'l solib o'tsa, deb o'ylanib yotdim. Ona-Yerim, birinchi marta senga o'shanda gapirdim. Esingdami mening aytganlarim?

— Esimda, To'lg'anoy? Sen o'shanda menga yuzlanib, bunday degansan: "Yer, jon ato etgan Yer, bizni ko'tarib yurgan Yer, sen bizga baxt bermasang, nega Yer bo'lib atalgansan, biz nechun dunyoga kelganmiz! Biz sening bolalaringmiz, Yer, tilakdosh bo'lgin, orzu-niyatimizga yetkazgin!" — deb aytgansan, To'lg'anoy.

— Ha, shunday deganman. Kun chiqar paytda ko'zimni ochsam, Suvonqulim yonimda yo'q. U allaqachonlar turib, o'roq o'rib yotgan ekan. Qachon turganini bilmayman, rosa qiyratib tashlabdi; bug'doy poyada bog'-bog' bug'doy uyulib yotibdi.

"Hoy, Suvonqul, bu nima qilganingiz?" — dedi. U kafti bilan terini artib: "Seni uxlasin degandim", — deb kulib qo'ydi. Men

uning bu ishidan biroz o‘pkalab: “Kechagi gaplaringiz qani, shu ham teng sheriklik bo‘libdimi?” — desam, u o‘rog‘ini tashlab, yugurib mening oldimga keldi-da, quchoqlab qo‘lida ko‘targancha: “Ko‘zingdan aylanayin, To‘lg‘an, ko‘zingdan o‘rgilib ketay, teng sherikmiz, bundan buyon yaxshi, yomonning bariga sherik bo‘lamiz!” — dedi. Shu zaylda meni qo‘lidan qo‘ymay, erkalatganicha allanarsalar haqida gapirdi, men bo‘lsam xursandligimdan kulardim. Bir vaqt qarasam, meni ko‘targanicha tepalikka yugurib chiqdi-da, ko‘tarilib kelayotgan quyoshga qarab: “Ey quyosh, ko‘rdingmi? Ko‘rdingmi mening jononimni! Mana, mana, ko‘rib ol, ko‘rmanangni ber, bergin suyunchingni ayamay!” — deb qichqirdi. Hazilimi, chinimi — bilmayman, men o‘shanda yig‘lab yubordim, qalbim quvonchga to‘lganidan o‘zimni tutolmay anchagacha entikib-entikib yig‘lardim...

— Qo‘y, To‘lg‘anoy, endi yig‘lashing yaxshi emas. U yig‘i boshqacha yig‘i edi, odamning umrida unday yig‘i bir martagina bo‘ladi. Endi nimaga yig‘laysan. Yig‘lama, yoki tilaklaringga erisha olmadilaringmi? Ayt-chi, to‘g‘risini, sizlarchalik kim baxtli bo‘loldi?

— Gaping to‘g‘ri. Yangi zamonda Suvonqul ikkimiz ham o‘z mehnatimiz bilan voyaga yetdik. Bilasan-ku, qish-u yoz demay qo‘limizdan ketmon tushmadi. Mehnatimiz zoye ketmadi — uyli-joyli bo‘ldik, mol-hol orttirdik. Tilagimizga yetib, uch farzandli bo‘ldik. Ha, birin-ketin uch o‘g‘il ko‘rdik. Hozir ba’zan o‘ylab o‘tirib xayolimga shunday mudhish fikrlar keladi: nima uchun yil sayin qo‘yga o‘xshab tug‘averdim ekan? Odamlarnikidek oralaridan uch-to‘rt yil o‘tganda, balki, bunday falokatdan chetda qolisharmidi. Balki, butunlay dunyoga kelishmaganda nima qilardi! O‘, sho‘ring qurg‘urlar... Aylanib-qoqinib ketaylarim, so‘zimni og‘ir olmanglar, kechiringlar, kechiringlar onalaringni! Yuragim tutaqib, o‘lib yotganimdagi gapim-da! Qanday qilay endi...

— To‘lg‘anoy, esingni yig‘... So‘zingni qaytarib ol. U bolalarga shak keltirma. Ularni men tirnoqdayligidan ko‘rib-bilib yurdim-ku. Ularning bosib ketgan izlari ko‘rinmagani bilan, mening ko‘ksimda muhr bo‘lib saqlanib qolgan, To‘lg‘anoy. U uchala og‘a-inilarni sizlarning farzandlaringiz ekanini Suvonqul bu yerga birinchi marta traktor haydab kelganda bildim.

— Ha, ha xuddi o‘shanda. Suvonqul o‘sha yili qishi bilan suvning narigi tomonidagi katta qishloqdagi traktorchilar kursiga qatnab, traktorchilikni o‘rganib yurdi. Unda traktorni kim bilsin. Suvonqul uyga kechikib kelganda qayerdagi bir bo‘lmag‘ur ishlarga o‘ralashib yuribsiz, undan ko‘ra burungi brigadirligingiz yaxshi emasmidi, el qatori tirikchiligingizni qilsangiz-chi, deb urishib ham ketardim. Shunday desam, yana kulib qo‘yib: “Traktorni sen o‘yinchoq bilib yurganga o‘xshaysan. Shoshma hali, To‘lg‘an, yozda haydab kelganimda bilarsan”, — der edi. Daladan sovqotib charchab kelganini ko‘rib, “Ke, qo‘y endi”, — deb ayar edi. O‘ylab ko‘rsam, Suvonqul ishning ko‘zini bilib yurgan ekan. Traktorchilar o‘qishiga ovuldan savodli biron kimsa chiqmaganda, Suvonqulning o‘zi men boraman savodimni ham chiqaraman, deb brigadirlikdan bo‘shab olgandi. U kezlarda Qosim bilan Maysalbek maktabga qatnab yurishardi. Otasiga o‘shalar muallimlik qilishdi. Kechqurun uy ichimiz bilan ovoramiz. Suvonqul yerga bag‘rini berib yotib olib, yozishni o‘rganganda, uch o‘g‘li uch tomonidan o‘rgatib, ota, bunday qilib yozing, qalamni bunday ushlang, qo‘lingiznii qaltiratmang, to‘g‘ri yozing, deb g‘ujurlashib yotar edi. Suvonqul ketmon chopgandan battar qora terga tushib ketardi. O‘zimni tutolmay kulgim kelardi. “Qo‘ysalaring-chi, bolalar, otalaringni joniga tegmay, mulla qilmoqchimisizlar uni? Suvonqul, joningizni uncha qiynamay, yo mullalikni, yo traktorni o‘rgansangiz-chi” desam, xo‘rsinib qo‘yardi. “Hammadan ham seniki o‘tib ketdi-ku. Traktorni o‘rganish uchun anchagina mullalik kerak ekan-da. Masxara qilaverma!” Haytovur, shunday qilib yurib, oxiri maqsadiga yetdi.

Ilk bahor, endigina tuproq ko‘pchib qolganda ovulning chetidan dukurlagan ovoz chiqib, allaqayerdan hurkkan yilqilar ko‘chani qoq yorib, pishqirib, to‘pi bilan chopib o‘tishdi. Nima bo‘ldiykin, deb eshikka chopib chiqsam, chorbog‘ etagida traktor kelayotgan ekan. Qop-qora cho‘yan mashina tutunini burqsitib, bahaybat g‘ildiraklari bilan yerni o‘yib, gumburlatganicha tobora ko‘chaga yaqinlashib kelaverdi. Uning atrofidagi xalqni ko‘rsang, yosh-u qari demay, butun ovul chuvullab, chopqillashib yurishardi. Odamlarga qo‘shilib men ham yugurib yetib bordim. Qarasam, uchala o‘g‘lim bir-birini mahkam ushlashib, traktor haydayotgan otasining yoni-

da kelishardi. Turqlarini ko‘rsang, yovni yengib kelayotgandek, ko‘zlari chiroqdek chaqnab, yuzlaridan nur yog‘ilardi. O‘zlarida yo‘q xursand bo‘lib, gerdayib, maqtanishib kelishayotgan ekan. Ular o‘sha kuni ertalaboq ko‘prik tomonga chopib ketishgan ekan, menga aytishmabdi ham, yubormay qo‘yadi, deyishgan bo‘lsa kerak. Bolalarga esim og‘ib, biron nima bo‘lib qolmasin, deb:

— Qosim, Maysalbek, Jaynoq, ha senlarnimi! Tushinglar! — deb qichqirsam, traktorning gurillashidan o‘z tovushimni o‘zim ham eshitmay qoldim. Suvonqul mening nima deganimni tushundi shekilli, qo‘rqma, degandek kulimsirab qo‘lib bilan ishora qilib qo‘ydi. Uning ham quvonchi ko‘ksiga sig‘may suyunib kelardi. Suvonqul o‘shanda yoshgina, qora murt yigit edi. E, Xudoyo, bolalarning otasiga shunchalik o‘xshash ekanligini o‘shanda sezsam bo‘ladimi. To‘rttalasi ham birga tug‘ishgandek. Ayniqsa, Qosim bilan Maysalbek xuddi Suvonqulning o‘zginasi — quyib qo‘ygandek edi. Kenjam, Jaynog‘im bo‘lsa, menga o‘xshashroq, oq sariqdan kelgandi.

Traktor shu bo‘yi ovulda to‘xtamasdan to‘g‘ri dalaga chiqib ketdi. Hammamiz birdek: otliq ham, piyoda ham uning ketidan qolmay ergashib kelyapmiz, hammadan qiziqtirgan narsa — traktorning yer haydashi edi. Traktorning uch qator tishi yer bag‘rini yorib, chimlarni kesib-qo‘porib yurib ketganda odamlarning bari chuvullab, “Balli-balli!” deyishib, xurkib tisarilgan otlariga qamchi bosib, uning ketidan birga yura boshladi. Nima bo‘lib ko‘pchilikdan ayrilib qolganimni bilmayman, bir vaqt qarasam, yolg‘iz o‘zim qolibman. Traktor borgan sari uzoqlashib boryapti — men bo‘lsam jimgina orqadan javdirab qarab turibman. Biroq, o‘shanda yer yuzida menchalik baxtli kishi bo‘lmagandir, sevinchim cheksiz edi. Suvonqulning ovulga birinchi marta traktor haydab kelganigami, yo farzandlarimni shunday ko‘zga ko‘rinib, dastyor bo‘lib qolishganigami — qaysi biriga ko‘proq suyunishimni bilmay, yolvordim: “Qatorlashib o‘tirgan bo‘y-bastilaringdan aylanaylarim! Ilohim otangizdek odam bo‘lsangizlar roziman, o‘shanda roziman taqdirimga!” deya takrorlardim.

— Ha, To‘lg‘anoy. Ona bo‘lib, onalik lazzatining eng shirin damlarini o‘shanda totgan eding. Sen unda to‘lib-toshgan, kuch-quvvatli ayol eding. Ishda ham yoshlardan qolishmas eding.

— Tani joning sog‘ bo‘lsa, ishlaganga nima yetsin. Qolaversa, chindan ham baxtim yor bo‘lgan ekan. Birga o‘sgan teraklardek o‘qillarim er yetib, har biri o‘z yo‘llarini topib qolishgandi. Qosim otasiga tortdimi, traktor haydayman deb yurib, traktor haydab, keyin kombaynchilikni ham o‘rganib oldi. Bir yoz kombaynda shturvalchi bo‘lib, suvning narigi betidagi “Qayindi” kolxozida ishlab yurdi. Keyingi yili yana o‘zimizning ovulga kombaynchi bo‘lib keldi. Ona bechoraga bolalarining bari birdek aziz, albatta. Shunday bo‘lsa ham o‘rtancha o‘g‘lim Maysalbek bilan ko‘proq faxrlanardim. Ehtimol, sog‘inib yurganimdandir, uyasidan erta uchgan palopondek, Maysalbegim uydan erta ketmadimi. U yoshligidanoq maktabda yaxshi o‘qimasmidi. Kitobga juda o‘ch edi, kitob deganda mukkasidan ketardi. Shunday qilib yurib, maktabni bitirgan zahoti, muallimlikka o‘qish uchun shaharga ketmovmidi. Kenjatoyim, Jaynoq esa, o‘taketgan qiziqchi, ochiq-sochiq yigit bo‘lib o‘sdi. Uyda turish yo‘q edi unda. Komsomolning sekretariman, deb, yoshlar qayerda bo‘lsa: majlisdami, o‘yindami, to‘garakdami, devoriy gazeta chiqarishyaptimi — bu ham o‘shalar bilan birga o‘sha yerda bo‘lardi. Goh jinim qo‘zib: “Hay, sanqi, garmoningni ham, to‘shagingni ham olib, bir yo‘la kolxoz idorasiga ko‘chib bora qolsang-chi. Senga uy-joyning ham keragi yo‘qqa o‘xshaydi!” — desam, Suvonqul o‘g‘lining tarafini olardi. “Urishma, onasi, ko‘pchilikning yumushi. Bekor yurgan bo‘lsa, o‘zim ham tizginini tortib qo‘yardim”, — der edi. Suvonqul o‘sha kezlarda tag‘in brigadirlik qilayotgan edi. Chunki traktorni endi yoshlar hayday boshlamaganmidi.

Ko‘p o‘tmay kelinlik ham bo‘ldik. Qosim “Qayindi”da ishlab yurganda bir-biriga ko‘ngil qo‘yib qolgan bo‘lsa kerak, Alimanni o‘sha yoqdan olib kelmadimi. Ko‘hlikkina, xipcha belli, yoshgina qiz ekan, eng avval boshdan unga mehr qo‘yib, o‘z bolamdek ko‘rib qoldim. Kelin aqlli bo‘lsa, o‘z bolangdek bo‘lmay nima bo‘lardi. Rostini aytish kerak, kelinim yomon chiqmadi. Shuning o‘zi oilaning katta rizqi-ku. Hozir o‘ylab qarasam odam boshiga davlat qushi qo‘nganda, odamning o‘z fe’li atvoridan, oilaga, el-u xalqqa qilgan muomalasidan bir-biriga ulashib, unib-o‘sib, ko‘payishib baxt uchib kelar ekan-da. Shunday topilgan tole

qadr-qimmatli bo'larkan. O'z qoningdek — to'kilsa, jon bergan bilan barobar ekan.

Aliman kelgan yili — unutilmas yil, esdan chiqmas yoz bo'ldi. O'sha yili ekinlar juda erta pishib berdi. Soydagi katta suv ham har yilgidan erta to'lib-toshib oqdi. Ikki-uch kun surunkasiga yoqqan yomg'ir tog'dagi qorlarni darrov eritib yubordi shekilli, daryoning rangi buzilib, hademay seldek toshqinlab bostirib keldi. Eskidan qalqib turgan orolchalarni bir kechada yamlab, yuvib ketsa bo'ladimi.

Shunga qaramay, ob-havo o'ngidan kelib, bir tekisda isib turdi. Yetilib qolgan bug'doylar sarg'ish tortib yer yuzini qoplab, etagi ufqqa tutashib ketgan qirlardagi ekinlar pishib berdi. O'shanda bizlar qo'lga o'roq tutib ishga kirishib ketdik. Maydon chekkalarini o'rib, kombaynga yo'l ochdik. "Endi kelining bilan bellashmay, uyda rohat qilib o'tirsang bo'lmaydimi!" — deyuvchilar ham yo'q emasdi. Bu so'zlarga men parvo qilmasdim. Qo'ldan kelsa, el qatori ishlaganga nima yetsin. Kelinim ikkalamiz birdek o'roq o'rib yurdik. O'sha kunlardagi xotiralar hech qachon esimdan chiqmaydi. Aliman bug'doyzor chekkasida o'sib turgan gulxayridan bir dasta terib olib, bir vaqt qarasam, mendan uyalinqirab bug'doyzor orasidan jimgina ketib borayotgan ekan. Bu nimasi, qo'lidagini nima qilar ekan, deb tursam, yo'l yoqasida turgan kombaynga yaqinlab bordi-da, guldastasini kombayn zinapoyasiga qo'ya solib, yana yugurib keldi. Kombaynda odam qorasi ko'rinmasdi. Qosim qayoqqadir ketgan ekan. U erta-indin o'rimga tushamiz deb kombaynni shaylab qo'ygan edi. Alimanning bu ishiga ich-ichimdan quvonib, Xudo xohlasa ikkalasi ahil yashab ketishar ekan, deb kelinimdan ko'nglim tasalli topdi. Alimanning o'shandagi qiyofasi hali ham ko'z o'ngimda: boshida qizil durra, egnida oq ko'ylak, xushbichim nimcha, qo'lida gulxayri ushlagan, o'zi qora mag'izdan kelgan, shahlo ko'zlari chaqnagan suluv kelinchak emasmidi. O', ajoyib kelinim! Gulga maftun kelinim. O'ziyam gulga ishqiboz edi, erta ko'klamda qor ostidan bo'lsa ham boychechak terib kelardi... Esim qursin, nimani gapirayotgan edim. Ha, ha, o'sha kunning ertasiga o'rim boshlanib ketmadimi.

Yig'im-terimning birinchi kuni o'zgacha bir bayram emasmi. Shuncha yurib o'sha kuni qovog'i solingan bir kimsani ko'rmadim.

Bu kunni hech kim bayram deb atamasa ham, har kimning ovozida qandaydir quvnoqlik, yurish-turishda ham, haydagan aravasi, mingan oti, qilgan ishi — hammasi-hammasida birdek quvnoqlik, to'g'risini aytganda, o'rimning dastlabki kuni hech kim ishlab yolchitmadi. U kuni o'yin-kulgidan, hazil-mazax gaplardan qo'l bo'shamaydi. Ayniqsa o'roqchilar orasida qiziq bo'ladi, unda yoshlar, qiz-juvonlar ko'p emasmi. Tomosha o'shalarda. Qosim MTS-dan mukofotga olgan velosipedini minib ertalab kombayni oldiga ketayotgan edi, bir to'da sho'x juvonlar uni tutib olishdi. "Nega sen velosipedingdan tusha solib, bizga salom bermaysan? Sen gerdayib qolibsan! O'roqchilarni ko'zga ilmay qolganga o'xshaysan!" — deyishib, Qosimni har tomondan tortishib, Alimanga bosh egib kechirim so'ratishsa bo'ladimi. Qosim bu bilangina qutulolgani yo'q. "Qulluq qildim, qulluq qildim!" — deganiga qaramay, sen endi bizni velosipedingga mindirib, xuddi o'ris qizlardek sayr qildirasan, deyishib, bir-birlarini velosipedga ko'tarishib mindirishib, orqasidan qiy-chuv ko'tarib yurishib Qosimni rosa ovora qilishdi. Shunda ham velosipedda jo'n o'tirishmay, o'ynashib: "Voydod, akajon, o'ldim, endi o'ldim, yiqildim, voydod!" — deyishsa, boshqalarining ichagi uzilgudek bo'lib: "O'lsang o'l, o'lsang ham bo'ynidan quchoqlab yiqil!" — deyishib dalani boshlariga ko'tarib kulishardi.

Shunday qilib, Qosimning jig'iga tegishardi. Uning o'zi ham kulgidan mast bo'lib, bo'ldi endi, deb birini aylantirib kelsa, yana biri tegajaklik qilib unga osilishardi: "Ha, mening undan nimam kam? Burnim puchuq, ko'zim qiyshiqmi?" — deyishib joni-holiga qo'yishmasdi. Oxiri Qosimning ham jini qo'zirdi: "Hoy, sizlar nima balo, quturdinglarmi? Och kanadek yopishasizlar-a? Bas endi. Masxarabozlik qilgani kelganmisizlar yo ishlashgami?" Shaddot kelinlar shunda ham bo'sh kelmay: "Anovini qaranglar! Ishni sen qilasan, hukumat kombaynni nimaga chiqarib qo'yibdi!" — deyishardi.

Yoshlargina emas, nariroqda turib bu o'yin-kulgiga biz ham rosa qonardik, kulaverib ichaklarimiz uzilaridi. Ho', o'shandagi musaffo osmon! O'shandagi quyoshning porlashi, o'shandagi donli boshoqlar, o'shandagi elning kulgisi!..

— Ha, To‘lg‘anoy. O‘sha kuni xuddi shunday bo‘lgan edi. Sen o‘sha kuni o‘z toleingni yanada chuqurroq tushunib, menga siringni aytganding.

— Men hozir ham shuni aytmoqchiman. Hozir ham o‘sha fikrimdan qaytmayman. Hozir ham o‘sha kunlarni tuganmas jumboqdek gapirib beraman.

Tez orada o‘roqchilar ishga kirishib, adirda ish qizib ketdi. Saraton avjiga minib, quyosh seli qaynardi. Qalbim ertalabki quvonchdan tolpinib, ruhim shodlanib, mayin shabadadan lazzat olgandek rohatlanardi. O‘sha kungi quvonchlarning barchasi men uchun, mening toleim uchun ato qilingandek tuyulardi. Ko‘zim ko‘rib, qulog‘im uqqanning hammasi borliqni, hayot go‘zalliklarini ochib, orom baxsh etardi. Bir tomondan o‘roqlarning jarangi, bir yondan shovullab to‘kilayotgan bug‘doylarning yoqimli ovozi eshitilib tursa, nari yoqda Qosimning kombayni toshqin suvdek gurkirab “Mehnat qo‘shig‘i”ning yangicha kuyini kuylayotgandek, bug‘doyni shipirib o‘rmoqda edi. Kombaynda o‘tirgan Qosim sharsharadek quyilib tushayotgan bug‘doyga kaftini tutib bir hovuch donni yuziga yaqinlashtirib hidlaganda, o‘zim ham bir qop semirib ketgandek bo‘ldim: yangi donning hididek yoqimli hid bormikin!

— E-ey, aravakash, ertaroq bo‘l! — deb Qosim tog‘ tepasida turib jar solgandek qichqirgan edi, darhol arava yetib kelishi bilan kombayn to‘xtadi, Aliman: “Suvini eltib berayin!” — deb ko‘zani olganicha Qosim tomonga yugurdi. Bug‘doyzor oralab oq ko‘ylak, qizil durrali Aliman yugurib borar ekan, qo‘lida ushlagani ko‘za emas, go‘yo yuragini tortiq qilib ko‘tarib borayotgandek, sevgan yoriga butun borlig‘i bilan berilganligi uning barcha harakatlaridan sezilib turardi. “Hoynahoy, Suvonqul ham chanqab qolgandir”, — degan xayol bilan yon-verimga qarasam, u ko‘rinmasdi. Qaydan ko‘rinsin, o‘rim boshlangandan keyin brigadirda tinim bo‘larmidi. Ertadan-kechgacha otdan tushmay dala aylanib yurgani-yurgan.

Kechki payt o‘roqchilarga atalgan yangi bug‘doy noni ham tayyor bo‘ldi. Yangi nonga birinchi bo‘lib o‘roqchilarning og‘zi tegishi ilgaridan qolgan rasm emasmi. Biz u nonning unini anhorning chetidan o‘rib olingan bug‘doylardan tuyib tayyorlagan edik. Yangi

bug‘doyning noniga og‘zi tekkanda har qachon xosiyatli taom totgandek bo‘laman. Ko‘rinishda qora bo‘lsa ham, xamiri yumshoq yo‘g‘rilgan yangi non uncha ko‘pchib pishmagani bilan uning dumbul ta’mina va quyosh, yer, tutun anqigan tansiq hidiga nima yetsin!

Qorni ochgan o‘roqchilar ariq bo‘yiga yig‘ilishishganlarida, quyoshning otash nafasi so‘nib, ufq sari bosh qo‘ygan edi. U kungi oqshom odatdagidan yorg‘in va uzoqqa cho‘ziladigandek tuyulardi. Biz uy ichimiz bilan olachiqning sirtidan o‘rin oldik. Suvonqul hadeganda kelavermadi. Jaynoq esa eski odaticha yana yo‘q, akasining velosipedini minib, Qizil uyga varaqa ilmoqchiman, deb shoshilib ketgandi. Aliman boshidagi durrasini yerga yozib qo‘yib, uydan olib kelgan olmalarni sochib tashladi-da, kosalarga achitma quydi. Kombaynni to‘xtatib, ariqdagi suvga qo‘lini yuvib kelgandan so‘ng, Qosim ham kelib o‘tirdi. U charchoq holda sekin non ushatar ekan:

— Issiqqina ekan hali ol, opa. Yangi bug‘doyning nonini birinchi bo‘lib tatib ko‘r, — dedi.

— Bismillo, — deb nondan oldim-u, chaynayotib allaqanday bir yangi ta’m, yangi hidni sezdim. U hid — kombaynchi qo‘lining hidi — somon, qoramoy, temir ushlagan qo‘llarning hidi edi. Nonning har bir to‘g‘ramidan o‘shanday kerosin hidi ham kelib turardi, biroq umrimda shunchalik mazali non yemagan edim, chunki u nonni o‘g‘limning mehnatkash qo‘llari ushatib bergan edi, u non ko‘pchilikning noni, shu davrada to‘planishib o‘tirgan kishilarning topgan noni edi. Shu choqda men onaning kim ekanligini, uning baxti bamisoli bug‘doyning unib chiqqan poyasi bo‘lsa, uning tubtomiri yer bilan chirmashgandek, elning, ko‘pchilikning baxt-u saodatidan ajralmas ekanini o‘yladim. Ha, men hozir ham o‘sha ishonchdaman. Mayli, bu bechora boshimga nimalar tushmadi... El-yurt bor ekan — hayot ham bor...

Shu asnoda Suvonqulni kutaverib kech ham kirdi. Yoshlar u yoqdagi suv bo‘yiga borishib, jar yoqasida lovillagan gulxan yoqishdi, qo‘shiq ayta boshlashdi. Ularning orasida qiyoq[1] chalib baland tovush bilan qo‘shiq aytgan Jaynoqning tanish ovozi quloq-

[1] **Qiyoq** — skripkaga o‘xshagan cholg‘u asbobi.

qa chalinar edi: "Ovozingdan o'rgilay, yoshligingda sayrab qol, tengqurlar bilan jo'r ovoz bo'lib aytilgan qo'shiq, ko'ngilni ochib, odamlarni bir-biriga yaqinlashtirib inoqlashtiradi", — deb tinglab o'tirdim. Axir onaman-da, ona! Fikri xayolimda bolalarim, ularning kelajagi bo'lardi, "Qosim-ku odam bo'lib qoldi, — deb o'ylardim o'zimcha. Yoz chiqishi bilan kelinchagi ikkovi alohida uy-joy qurib ketishadi. Mehnatkashligi ham xuddi otasining o'zi, qorong'i tushib qolsa ham kombayn, traktorning chirog'ini portlatib, dalada bug'doy o'rib yurgani-yurgan edi. Aliman ham qavatida, ish vaqtida bir dam birga bo'lish ham ular uchun g'animat emasmi. Maysalbegimni o'ylaganimda sog'inganimdan ko'zimga jiqqa yosh kelardi. O'tgan juma kuni xat yozib, unda bu yil yozda uyga borolmasam kerak, pioner lageriga boshliq bo'lib Issiqko'lga jo'nayapman, debdi. "Mayli, shu kasbni sevgan ekan, qayerda bo'lsa ham omon bo'lsin" — deb duo qilardim.

Suvonqul kelib ovqatlanganidan so'ng, tunda ovulga qaytdik. Ertalab mol-holga qarashi kerak edi, kechqurun esa ularga ko'zquloq bo'lib turishni qo'shnim Oyshaga tayinlab kelgandim. U bechora kasalmand bo'lib, bir kun sog' bo'lsa, bir kun kasal bo'lib ishga chiqolmas edi.

Biz otga mingashib kelayotganimizda, tun mudrab, dala osuda edi. Mayin esgan shabada qorong'ida shitirlab, o't-o'lanlar boshini yalab o'tar, oy shu'lasida chayqalgan bug'doyzorlar mavjlanib, ko'lankalarini o'ynatar va toliqqan yer uyquga ketgan edi. Olisda oqqan soy sharqirab, go'yo uning beshigini tebratayotgandek tuyulardi. Bug'doyzor ichida esa chigirtkalar chirillar edi. Tabiatning bu sukunatli damlari qandaydir o'tgan-ketganlarni yodga solib, allanimialarni eslatib, yurakni zoriqtiradi. Suvonqulning belbog'idan mahkam ushlab, mingashib kelyapman. U meni, oldinga o'tirishni taklif etsa ham, unamay, har doim shunday orqada mingashib yurishni yaxshi ko'rardim. Otni ba'zan yo'rg'alatib, ba'zan yo'rttirib borayotgan Suvonqulning jimgina kelishi ham, uning kamsuxanligi va egarda horg'in holda o'tirishi ham men uchun jondan aziz edi. "Ha, boyaqishim, umr o'tib, qarib boryapmiz, har qalay umrni zoye ketkazmaganga o'xshaymiz. Hayot shunday ekan — ikkalamiz go'yo kechagina qo'shilgandaymiz-u, buni qara,

qancha vaqtlar o'tib ketibdi. Shunday bo'lsa ham hayot qanday shirin, hali ham qalbdagi orzu-umidlar tugamaydi" — deb o'ylab kelayotib, boshimni ko'tarib osmonga qarasam, yuragim "shuv" etib ketdi: somon yo'li xuddi o'sha vaqtdagidek osmonning u boshidan bu boshiga cho'zilib yotgan ekan. Chindan ham osmon gumbazi bo'ylab tungi yulduzlar orasidan qandaydir bir alp dehqon xirmondan bir quchoq somon ko'tarib o'tgan-u, yo'lda to'kilib qolgan to'pon ko'zga aniq ko'rinib turgandek. Hatto sochilib yotgan somonni shamol o'ynatayotgandek, miltirab uchgan mayda uchqunlar yalt-yalt qilib tovlanib yotardi. "Voy, tavba!" — deb yoqamni ushladim. O'sha tun, o'sha yoshlik kezlari yarq etib ko'z o'ngimga keldi. O'ylab qarasam, o'shandagi orzu-niyatlarimizning hammasi ro'yobga chiqmadimi? Ha, yer-suv elniki bo'lib, ko'p qatori biz ham qo'sh haydadik, ekin ekib, xirmon ko'tarib, tilagimizga yetdik. Zamon o'zgarib, bunday baxtli kunlar kelishini o'shanda kim bilsin, haytovur, yaxshi niyat — yarim mol, deganlaridek, ko'pning niyati yerda qolmas ekan-da, dedim o'zimcha. Shunday xayollarga berilib, jimgina ketayotganimda Suvonqul yalt etib orqasiga qayrildi: "Nima, uxlab qoldingmi deyman, To'lg'anoy? Gapirmaysan? — dedi. — Men ham bugun rosa charchadim. Hozir uyga yetamiz. Yoki yangi ko'cha bilan burilib ketaylikmi?" "Burila qolaylik", — dedim men.

Yangi ko'cha deganimiz ovulga kiraverishdagi yo'l bo'yida edi. U ko'cha bo'lib ko'cha ham emasdi, o'sha yili ko'klamda uy quradigan yoshlarga uchastka berilgan edi. Qosim bilan Aliman ham yangi ko'chaning boshidan yer olishgandi. G'ishtlarni asta-sekin uch kishi bo'lib quyishib, terib, poydevor o'rnini ham qazib qo'yishgandi. O'tgan haftada ikki kun soydan tosh terib, uyning o'rniga tashib keltirishgandi. Biz o'shani ko'rishga burildik, bundan buyon o'roq mahalida kunduz kunlari osonlikcha qo'l bo'shaydimi, uyulib yotgan katta tepa toshlarni ko'rib, Suvonqul bolalarning ishidan xursand bo'ldi: "Ko'ngling to'q bo'lsin, onasi, tosh bemalol yetib ortadi, molxonalik tosh ham ortib qolar, — dedi u. — Yig'im-terimni tugatgandan keyin, yopirilib, devorini ko'tarib, ustini yopib olamiz-u, qolganini kelgusi yozda bitkazamiz. To'g'rimi, To'lg'an?" "To'g'ri, ustini yopib olsak, qolganini ham omon-

lik bo‘lsa bitkazamiz. Jaynog‘imiz shoshib, o‘pkasini qo‘ltiqlab qolibdi. Bu ko‘cha Komsomol ko‘chasi atalsin deb qaror chiqardik, deydi. Aliman yangasi bo‘lsa uni mazax qilib kulib: hoy kichkina bola, tug‘ilmagan bolaga eldan burun ot qo‘ygandek, yalang‘och yerga nom izlab ovora bo‘lib yurgandan ko‘ra, oldin uylanib, joy-poy qilib, ko‘cha qursang-chi, ko‘chaga nom qo‘yish qochmas-ku, desa, Jaynoq ham bo‘sh kelma: yo‘q, siz to‘g‘ri tushunmayapsiz, deb talashib-tortishib ketdi”.

Suvonqul mening bu so‘zimga kulib qo‘ydi: “U qurmagurni qanchalik shoshqaloq deyishmasin, ammo ko‘chaning nomini to‘g‘ri topibdi. Mana bu qurilayotgan uylarning hammasi yosh-larniki-da, hammasi o‘sib kelayotgan yosh avlodniki. Elning o‘z-o‘zidan o‘sib-unayotgani uchun, ovulimizga sig‘ishmay yangi qishloq quryapmiz, mana shu ko‘cha bitsin, o‘shanda ko‘rasan, o‘g‘limning aytganlari hammasi to‘g‘ri chiqadi...”

Biz shu zaylda so‘zlashib kelayotgan tun, keyin bilsam, dunyo-ning eng qirg‘inli tuni ekan.

II

— Boshingni yuqori ko‘tar, To‘lg‘anoy, bardam bo‘l.

— To‘g‘ri. Bundan boshqa ilojim qancha. Esingdami, aylana-yin ona-Yer, o‘sha kungi voqealar?

— Men hech nimani unutmayman, To‘lg‘anoy. Yorug‘ dunyo bino bo‘lgandan beri o‘tgan-ketgan narsalarning hammasi yodim-da. Kitobga sig‘magan, odamlar unutgan tarixning bari mening yodimda, sening ham boshingdan o‘tkazganlaring barisi dilimda. So‘zlay ber, so‘zla, To‘lg‘anoy, so‘zla bandam, bugun qulog‘im senda.

— Oh, nimani aytayin. O‘shaning ertasi kuni quyosh chiqar-chiqmas o‘roq o‘rib, ishga tushdik. U kuni biz katta soy yoqasidagi jarlikdagi bug‘doyzorda ish boshladik. Endigina qizg‘in ish bosh-lagan edik, suvning narigi betidan chopib kelayotgan otliq ko‘rin-di. Xuddi orqasidan yov quvib kelayotgandek. Chakalak-qamish-zorlarni oralab, otining yoliga yopishib olganicha bir odam suv yonidagi toshloqqa keldi-da, otining tizginini tortmay turib niqtab

soldi. Bu kim bo'ldi ekan, pastdagi ko'prikdan o'tmasdan, nega muncha shoshildi ekan deb qarab turdik. Otliq — o'ris yigit ekan. Jiyron ayg'irni qamchilab suvga solganda, hammamiz hayratlanib qotib qoldik: daryoda suv bo'lgan paytda bu yerdan hech kim o'tolmas edi; ot tugul tuyani ham oqizib ketadigan toshqin daryo hayqirib yotsa-yu, jonidan to'ygan kim ekan? "Hoy, o'rtoq, to'xta, qayt orqangga!" — deguncha bo'lmay gijinglagan ayg'irni sapchitganicha qamchi bosib haligi otliq o'zini suvga urdi. U allanarsalarni qichqirib qo'l silkidi. Ammo daryoning shovqinidan hech nima eshitilmasdi. Guldurab ko'pik otib to'lqinlangan suv ko'z ochib yumguncha otliqni olib ketdi. Qulog'ini chimirgan ayg'irning boshi to'lqinlar orasida bir ko'rinib, bir ko'rinmay borardi. Asov daryo ikki qo'llab otining yoliga yopishib olgan haligi kishining shapkasini boshidan yulib olib, o'zi bilan birga oqizib ketayotgan edi. Biroq otliq oqim kuchidan foydalanib, tobora qirg'oqqa yaqinlashaverdi. U pastda, tegirmonga quyiladigan joyga borib, suvdan chiqqanda hammamiz yengil nafas oldik. Ba'zilar: azamat yigit ekan, deyishsa, ba'zilar: u sog' emas, mast bo'lib, quturib yurgan qandaydir kimsa bo'lsa kerak, deyishardi.

Tegirmonning yonginasida bug'doy o'rib yurgan Qosimning kombayni jimib qolgandi. Men unga anchagacha e'tibor qilmabman. Ehtimol, biror yeri buzilgandir, ish paytida har narsa bo'lishi mumkin. Hech qayoqqa qaramay, hadeb o'roq tortaverdim. Kutilmaganda yonimda turgan Aliman jonining boricha "Ena!" deb qichqirib yubordi. Bunday qarasam, o'rog'ini tashlab yuborib, kelinimning rangi quv o'chib, ko'm-ko'k bo'lib ko'karib ketibdi. "Ilon chaqib oldimikin?" — deb oldiga chopib bordim. Aliman g'iq etmasdi. Uning olaygan ko'zlari tikilib turgan tomonga qarab turganimda, etim junjikib ktedi. Kombaynning yonidan allaqanday qiyqiriq tovushlar eshitilardi; chor atrofdan otliq, yayov, aravada bug'doyzor oralab odamlar chopib kelishardi. "Voy, enajon!" — deb qichqirgan Aliman kombayn tomon jon holatda yugurib ketdi. "Voh, bular sog'ga o'xshamaydi! Kombaynning tishiga ilinib, mayib bo'lgan shekilli!" — degan so'zlar qulog'imga urilib, butun vujudimni qamrab oldi. "Bo'l ketdik!" — deyishganda, o'roqchilar yopirilib yugurishdi. "Xudo o'zing saqla, Xudo o'zing saqla,

Xudo!..” — deb ular orqasidan yugurib ketayotib, ariqdan sakrayman deb yuz tuban yiqilib, o‘rnimdan turdim. Yana yugurib ketdim. Voh, o‘shandagi jon talvasam-ey! Bug‘doyga o‘t tushgandek ustimdagi ko‘ylagim, butkul vujudim, sochimning tubigacha zirqirab, talpinib chopardim. Osmondagi so‘qir quyosh yuziga parda tutib olgandek ko‘z o‘ngimda bir nechta bo‘lib ko‘rinib, boshim aylanardi. Ularga yetolmay yiqilar ekanman, to‘xtanglar, deb qichqiray desam, ovozim chiqmasdi.

Shu zaylda yugurib, kombaynga yetib borganimda, to‘plangan odamlar chuvalashib, kiyim-kechagi jiqqa ho‘l, jiyron ayg‘irni jilovidan ushlab olgan bir odamni o‘rab olishgan ekan. “Bunday turinglar, meni qo‘yib yuboringlar”, — deb to‘dani yorib kirib, kombayn yonida turgan Qosim bilan Alimanni ko‘rganimda qaltiragan qo‘llarimni uzatib bolamga tashlandim. Qosim hozirlanib, darhol meni to‘sib qoldi-da: “Ona, urush boshlanibdi!” — dedi. “Urush? Urush deysanmi?” Bu so‘zni men hech qachon eshitmagandek, uning ma’nosiga tushunmagandek, yana qaytarib so‘radim. “Ha, ona, urush boshlanibdi”, — dedi Qosim. “Nima uchun urush? Qanaqa urush?” Bu sovuq xabarning ortida nimalar yotganini payqamagandek, “Urush, urush deysanmi?” — deb pichirlab turib, yuragimda paydo bo‘lgan qo‘rqinchdan nafasim qisilib, yig‘lab yubordim. Meni ko‘rib boshqa ayollar ham chuvullab yig‘lab yuborishdi.

“Eh, xotinlar, to‘xtanglar hozir! Jim bo‘linglar!” — deb kimdir birov qichqirdi. Shunda barimiz undan maslahat kutgandek jim bo‘lib qoldik. Dalaga ham sukunat cho‘kdi. Shu suv sepgandek jimlikni allakimning luqmasi buzdi: “Urushga ketar ekanmiz-da!” Uning gapiga hech kim javob qaytarmadi. Sokinlik battar kuchaya borib, soyda shovullab oqayotgan daryoning tovushi quloqqa yanada aniqroq eshitila boshladi. Qosim to‘planganlarga bir sidra qarab oldi-da, o‘z-o‘ziga gapirayotgandek g‘udurlandi: “Endi ekin-tikinni ertaroq yig‘ib olish kerak, bo‘lmasa qor ostida qolib ketadi”, — so‘ngra yana biroz jim qolib, birdan yordamchisiga qat’iy buyurdi. “Nimaga angrayib turibsan, yurgiz motorni! Sizlar-chi, sizlar endi nimaga qarab turibsizlar, o‘roqchilar! Odam yetishmay qolsa, azobini o‘zlaring tortasizlar. Qani turinglar, urushda turish yo‘q!”

Odamlar qo'zg'ala boshladi. Boyadan beri boshini quyi solib turgan xabarchi shundagina qaddini rostladi. Yoshgina o'ris yigit ekan, ho'l sochlari peshonasiga yopishib, ko'k ko'zlari, Xudo biladi, umrida birinchi marta shunchalik g'amga botgan bo'lsa kerak. Uning qanchalik tashvishga tushganligi beg'ubor yuzidan shundoqqina bilinib turardi. U chuqur xo'rsindi-da, yonida yaydoq otini minib turgan yigitga yuzlanib, qirg'izcha gapirdi: "Og'ayni, sen hozir ovulga chopib borib, raisni, qishloq Sovetini, brigadirni top, to'xtamay, raykomga jo'nasin, xo'pmi? Men yana ikkita kolxozga borishim kerak". Xabarchi jiyron ayg'iriga minib, yo'lga tushgan edi, haligi bizning ovuldosh yigit: "Hoy, do'stim, tura tur! — deb beri chaqirdi. — Shapkang oqib ketibdi. Ma, mening qalpog'imni kiyib ol, kun o'tib ketmasin" — dedi.

Hozirgina daryodan kechib o'tgan jiyron ayg'ir ohudek sakrab, yo'lga tushganda, orqasidan quyuq chang ko'tarilib, xabarchining qorasi ko'zdan g'oyib bo'ldi. Uni kuzatib turgan odamlarning hammasi ham turli xayollarga berilgan shekilli, kombayn bilan traktorning motorlari birdan o't olib baravariga gurillaganda, ular cho'chib tushib, bir-birlariga yalt etib qarab qo'yishdi.

O'sha daqiqadan boshlab yangi hayot, urush hayoti boshlanmadimi...

— Ha, To'lg'anoy, o'sha xabarchining dupur-dupuri hali ham qulog'im ostida ketmay, otining tuyoqlari tekkan izlar tanamda muhrdek saqlanib qoldi.

— E-e, munavvar Yer, aytaversak ikkimizniki ham tugamaydi. Bilasan-ku, kun qanday jazirama issiq edi. Jonli, jonsizning hammasini harsillatib yubormadimi, g'alla ham o'sha yili tiralib qolgan ekan, cheksiz maydonda to'rt-besh kun ichida qiyg'os pishib bermadimi. Hamma yoqni g'alla bosib ketgandi. Shoshgan ish qursin, o'rilgan bug'doyni bog'lashga ham ulgurmay, shu bo'yicha aravalarga to'kib-sochib yuklaganda, qanchasi isrof bo'lardi. U ham mayli-ya, ichim achiganda elga achirdi. Askarga chaqirilganlar kun sayin ketib boryapti, qolganlari esa jonini jabborga berib, kun-u tun demay, jazirama issiqda dalada, xirmonda hosilni yig'ib-terib olguncha zo'r berib ishlab yotishdi. Boyaqish Qosim, bolam, bitmaganning barini bitkazadigandek, kun-u tun kombayn ustidan

tushmasdi, tinib-tinchimasdi. Qosimgina emas, uning kombayni ham jonli bir nimadek qahr bilan gurillab, chang-to'zon ichida bir maydondan ikkinchi maydonga yopirilib kirib, bug'doyni shipirib o'rardi. Qosimim esa kombaynning ustida parvozga hozirlangan burgutdek, old tomonidan ko'z uzmay, yana qanchasi qoldi, bugun qanchasini o'rib ulguraman, degandek tobora olg'a intilardi. O'sha kunlari u qop-qora bo'lib, kuyib ketgandi. Ko'rsang, esing og'ib qolardi, lablari yorilib, jag'lari shilingan, soqol-mo'ylovi patak bo'lib ketgandi. "Shu zaylda ishlab yurib, oxiri nima bo'larkansan, bolam, issiq o'tib ketib, kombayndan qulab tushmasmikinsan?" — deb ichimdan kuyinaman, biroq aytishga og'zim bormaydi. Dunyoda nima o'tib, nima qaytayotgani ma'lum-ku.

Oradan ko'p o'tmay Qosimga ham navbat keldi. O'sha kuni tushga yaqin kombayn tomonga yugurib ketgan Aliman, bir vaqt qarasam, qovog'i osilgan holda qaytdi. "Chaqiruv qog'ozi kelibdi", — dedi u zo'rg'a gapirib. "Qachon?" — "Hali qishloq Sovetidan keltirib berishibdi". O'g'limning axir bir kuni ko'p qatori askarlikka ketishini bilib yurardim-u, shunday bo'lsa ham, bu xabarni eshitganda bo'g'inlarim bo'shashib, nima uchundir o'roq tutgan qo'llarim qaltirab ketdi. O'rog'im qo'limdan tushib, yerga o'tirdim qoldim. "Unday bo'lsa, bu yerda nima qilib yuribdi u, tayyorlanmaydimi?" — dedim lablarim titrab. "Kechqurun boraman" — dedi. "Menga uyga borib hozirlik ko'rishni aytdi. Men ketaverayin, ena. Otamga aytib qo'yarsiz. Kichkina bola qayerda yuribdi ekan... Aytib qo'yarsiz". "Sen bora qol, Aliman. Xamir qilib tur, men ham hozir boraman. Aliman ketgandan keyin ham ko'pgacha o'rnimdan turolmay shalvirab o'tirdim. Hatto boshimdan sidirilib tushgan ro'molimni olishga ham qurbim kelmadi. Yerga tikilib o'tirsam, qumursqalar yo'l solib, nari-beri chopishib, don tashib, somon sudrab, g'imirlab yurishgan ekan. Nima uchun shu xayollarga borganimni bilmayman, qumursqalarning shu zaylda hech nimadan bexabar o'rmalab yurganlarini ko'rib, ko'z yoshlarimni tiydim.

Shu mahal aravasini haydab, Jaynoq yetib keldi. Shu kezlarda stansiyaga g'alla tashib yurardi. Akasining askarga ketishini eshitib kelgan shekilli, aravadan sakrab tushib: "Yura qol ona, uyga bo-

raylik", — deb meni qo'ltiqlab aravaga mindirdi. Shu qisqa vaqt ichida kenja bolam tanib bo'lmas darajada o'zgargan edi. Ilgarigi hazil-mazax qiliqlari yo'q, ko'pni ko'rgan katta odamdek bosiq bo'lib qolibdi. Jaynoqning aftiga tikilib, nima uchundir uni u kungi xabarchi o'ris yigitga o'xshatdim. Ha, buning ko'zlarida ham o'shanikidek o'ychanlik, esayganlik sezilib turardi. Ko'pning boshiga g'am tushsa, odamzodning bari ham birdek ekan, dedim ichimda. Shularni o'ylab kelar ekanman, Maysalbegimdan anchadan beri xabar kelmaganini eslab, yana yuragim allanechuk bo'lib ketdi: "U nima bo'ldi ekan? Askarga olib ketdimikin, yo boshqa bir nima bo'ldimikin? Ikki enlikkina xat yozib daragini bildirib qo'ysa bo'lmasmikin, bolasi tushmagur. Ruxsat bersa uygayoq kelmaydimi, endi kim ham o'qirdi. Ota-ona esiga kelmaydiganga o'xshaydi, uzoqda yurib, tosh mehr bo'lib ketganmi?" — deb har qaysisining tashvishini alohida tortib aravada kelardim. "E Jaynoq, — dedim men, — sen stansiyaga qatnab turibsan, qanday, urushning to'xtaydigan siyog'i bordaymi?" Yo'q, ona, — dedi u o'shanda, — hozircha ahvol og'ir. Nemislar bostirib kelyapti. Biznikilar endi o'shalarni to'xtatib, qaddini rostlasa, kuch yig'ib olardik. Sen, ona, uni-buni o'ylayverma, ko'p nima bo'lsa, biz ham shu-da..." A-a, sadag'ang ketay. U meni yupatmoqchi. Ko'zimni ko'r, qulog'imni kar qilsam ham qanday o'ylamay bo'ladi.

Uyga kelsam, Alimanim xamirni chala yo'g'irganicha xo'rsinib yig'lab o'tiribdi. "Sen nima, eldan boshqachamisan. Odamlardan ortiq joying bormi, elning bari askarga jo'nab ketyapti-ku, muncha endi bo'shashding, sho'ring qurg'ur!" — deb koyib berayin dedim-u, yana: "Kel, yosh narsaning dilini og'ritmayin, ko'ngli cho'kib qolmasin", — deb jim bo'ldim. Yoki, o'shandayoq qattiqroq gapirsam bo'larmidi? Qosim kech peshindan o'tib, kun botganda uyga keldi. U hovliga kelishi bilan Aliman yoqib turgan o'tinini tashlab, yugurib borib bo'yniga osildi-da: "Sendan ajralmayman! Sendan ajralmay o'laman!" — deb chuvvos tortib yig'ladi. Qosim kombayndan tushgan bo'yicha chang-u tuproqqa botib kelayotgan ekan: "Hamma yog'im tuproq, Aliman. Tura tur, sovuningni olib kel, katta suvga borib yuvinayin", — degan edi, Alimanning menga yalt-yalt qaraganidan iymanganini seza solib, suv olib kel,

deb qo'liga chelak tutqazib qo'ydim. Ular o'shanda oy chiqqandan keyin, kech qaytishdi. Uydagi ishlarni Jaynoq ikkimiz bitirdik. Yarim kechada Suvonqul ham yetib keldi. Qayoqlarda yuribdi ekan, desam, kunduziyoq, tog'ga chiqib ketib, o'zimizning saman otni yilqidan ushlab kelibdi. Ajoyib yo'rg'a edi. Ovuldagi qiz-juvonlarning: "Ostingda saman yo'rg'a, choptirasan yo'l-yo'lga" — deganlari o'sha edi-da. O'g'li askarga jo'nab ketayotganda, bir kun bo'lsa ham, yo'rg'asini minib qolsin, degan bo'lsa kerak otasi.

Ertasi kuni azonda otlantirib, harbiy komissariatga jo'nadik. O'shanda birinchi safar yoppasiga askarga olinmadimi. Har tomondan qo'shilib, yo'lda chuvalashgan aravalarni, odamlarni ko'rsang, son-sanog'i yo'q, oldi katta Qapchig'ayga kira boshlasa ham, keti esa ko'rinmasdi. Rayon markaziga to'plangan odamlar ko'chaga sig'masdi. Otliq, aravalik, ayol, bola-chaqalar. Har biri o'z yaqinini qurshab, yonidan nari jilmaydi. Lekin, ko'p degani hazil gap emas, "ko'p yig'ilsa, ko'l bo'lur" deganlari rost ekan. O'sha to'polonli yig'inda ham jangga borayotgan, g'ayratli, azamat yigitlar bardam so'zlab, bardam yurib, hatto qo'shiq aytib o'ynab, qiyqirishib, ko'pchilikning ko'nglini ko'tarishardi. O'rischa, qirg'izcha kuylar aralashib, bir og'izdan aytilgan "Katyusha" deganlari barimizga xush keldi. "Katyusha" qizning nomi ekan-da, o'sha kezdagi yoshlarning suygan ashulasi ekan-da...

Askarga chaqirilganlar harbiy komissariatning hovlisiga sig'magani uchun, ularni katta ko'chaning o'rtasiga qator-qator tizib, har birining nomini aytib chaqira boshlaganda, yig'ilgan xalq bir tekisda tinchlanib, jimib qoldi.

Shunday qarasam, urushga ketib borayotganlar saralangan suxsurdek yigitlar ekan, yo'qlamada nomi chiqqanlar "menman!" — deb javob berib, biz tomon yalt etib qarab qo'yishar, "Suvonqulov Qosim" deganda yuragim "shuv" etib, nafasim ichimga tushib ketdi. "Menman!" — dedi Qosim. Aliman shu payt qo'limni mahkam ushlab: "Enajon", — deb shivirlab yubordi. uning dardini bilib turibman, lekin bilgan bilan ilojim qancha: ko'pga kelgan to'ydan kim o'zini olib qochadi. Eh, Aliman, Alimanim-ey, davr talabini, xalq talabini yaxshi tushunar edi. Biroq, men o'z yoriga shunchalik berilgan, uni shunchalik sevgan ayolni hali ko'rmagan edim.

Alimanning xayrlashganini eslasam, jonimni unga sadaqa qilgim keladi. O'sha kuni biz ovulga qaytib keldik, sababi, askarlarni bir kun o'tib ertasi jo'natar ekan, deyishdi. Kolxozimiz katta yo'lga yaqin emasmi — bu yerda zoriqmay, uyga borib turinglar, keta turib xayrlashib o'taman deb, Qosim qistab qo'ymadi. Alimanning minib kelishiga Suvonqulning otini qoldirib, biz aravada qaytdik. Jaynoq ham rayonda qoldi, unga aravasi bilan askarlarni tashib turish tayinlangandi.

Tunda huvillagan uyga kelib, yotmay, yig'lab o'tirsam, Suvonqul choy qo'ya yotib, menga tasalli berishga urindi. O'shanda aytganlarini sira unutmayman: "Ikkovimiz kim edik, To'lg'anoy. Mana shu el, mana shu yurt bizni odam qildi. Yaxshilik ko'rdik, endi yomon kuniga duch kelganda, har birimiz o'z g'amimizni yeb qayg'uraversak, biz nima degan odam bo'ldik. Ertaga bardam bo'l. Aliman sen bilan mening ko'rganimizning o'ndan birini ham ko'rgani yo'q, u yig'lasa — yo'rig'i boshqa. Sen — onasan: bilib qo'ygin, urush shunday kuchayaversa, men ham ketaman, Maysalbekning ham yoshi yetib turibdi, kerak ekan — barimiz ketamiz. Mana shunga, To'lg'anoy, hozirdan ko'nikaver..."

Ertasiga tushdan keyin askarlarni stansiyaga jo'nata boshlashdi. Qosim bilan Aliman yo'lni qisqartib, ulardan oldin kelishdi. Uyingga kirib xayrlashib chiqqin, deb, Qosimga ruxsat berishibdi. Alimanning ikki ko'zi qip-qizil, qovoqlari shishib ketgan, yo'l bo'yi yig'lab kelgan bo'lsa kerak. Qosim sir bermagani bilan, u ham ich-ichidan kuyinardi. Alimanning ko'z yoshlari, uning javdirab tikilib turishlari Qosimga qattiq ta'sir qildi shekilli, haqiqatan ham shunday gap bo'ldimi, haytovur, u otdan tushgan zahoti: "Sizlar stansiyagacha kuzatamiz deb ovora bo'lmanglar, ota, balki men qaytib qolarman — traktorchi, kombaynchilarni bo'shatmoqchi bo'lib turishibdi. Buyruq kelib qolsa, uylaringga qaytaramiz, deyishdi", — dedi. Endi o'ylasam, Alimanni ayab, bizni ayab, shunchalik aytgan so'zi ekan. Stansiyaning orasi ham bir kunlik yo'l emasmi, qaytishni ham hisobga olganga o'xshaydi. Men darrov o'sha so'zga ishonib qo'ya qoldim, umid qurg'ur odam bilan hamisha birga ekan. Biroq, keyinchalik Qosim bularni ataylab aytganini bildim. Hammamiz ham birdek bildik chog'i.

Orqadan kelayotgan yo'lovchilardan oldinroq ovuldan chiqib, katta yo'ldan Qosimni kuzatib borayotganimizda, dalada ishlayotganlarning hammasi xayrlashgani yugurib kelishdi. Arava haydagan, o'roq o'rgan, xirmon bostirayotganlar qolgani yo'q. Qosimning kombayni ham shu orada bug'doy o'rib yurgan ekan. Kombaynni to'xtatib, unda ishlayotganlar ham yetib kelishdi.

— To'g'ri aytasan, To'lg'anoy...

— Ha, qutlug' dalam, usta jangga ketardi bolg'asi bilan vidolashadi, deyishadi. Qosim ham o'z kasbining ustasi emasmidi. Qosim ovuldoshlari bilan xayrlasha turib, kombaynga yaqin kelib to'xtaganda, katta yo'l tomonga bir qarab qo'ydi. Qizil bayroq ko'tarib, aravada, otda kelayotganlarning oldi muyulishdan endigina ko'zga tashlangan edi. "Ota, ushlab turing-chi", — deb Suvonqulga otning jilovini bera solib, Qosim kombayniga qichab bordi, so'ng uning hamma tomoniga bir sidra ko'z yugurtirib oldi-da, birdan ustiga sakrab chiqdi. "Hayda, Eshonqul! Boyagidek haydayver!" — deb, traktorchiga qichqirdi. Elas-elas eshitilib turgan motor ovozi birdan bor quvvati bilan gurillab, shaqirlab o'rnidan qo'zg'algan kombayn ortidan somon, to'pon to'zg'itib, donni bir tomonga ajratib, shitob bilan bug'doylarni o'ra boshladi. O'sha paytda mening ko'zimga shunday ko'rindimi, u oddiygina kombayn emas, balki qanotini yoyib, yer bag'irlab uchib borayotgan bahaybat cho'l burgutidek bo'lib tuyulardi. Shturvalni mahkam ushlab olgan Qosim esa betini iliq shamolga tutib, ko'kragini kerib, kulib turardi. Traktorchi ikkalasi o'sha yerda nimalarnidir qichqirishib, shovqin solishib, yanada tezlatib, traktorni maydon chekkasidan qaytara solib kelayotganda, qarab turgan odamlar bir daqiqa hamma narsani unutib, quvonch bilan kuzatib turishardi. Aliman ham o'shanda hozir ayrilishini unutgandek ko'zlari porlab, o'zicha g'ururlanib, quvonib turardi. Baridan ham haligi qo'shnimiz Oyshaning bolasi, o'shandagi o'n uch-o'n to'rtlardagi Bektosh, — shu kezlarda kombaynda somon tortardi, — onang aylangur, kombaynning ustida turib Qosim bilan quchoqlashib, xayrlashsa bo'ladimi. Qosim uni qo'liga ko'tarib, bet-u boshidan o'pkilab, endi sen o'rgangin buni, degandek, shturvalni bolaning qo'liga tutqazib, o'rniga qolgan yordamchisi bilan xayrlashdi-da, kombayndan tushib keldi. Etim junjikib, Su-

vonqulning tundagi gaplarini eslab, arang tishimni tishimga qo'yib turdim. Yo'lga qarasam, askarga jo'nayotganlar ovulning yonidan o'tib, yetib kelgan ekan.

Shunday qilib, Qosimni jo'natib, to'planganlar hammamiz u bilan xayrlashdik. Alimanim-ey, senga ayon bo'lganmidi, katta-kichikdan tortinmay, nimaga shunchalik bo'zlab osilding? "Xayr endi, Aliman, men qaytib kelaman, ko'rasan-ku, ertagayoq bo'shab kelaman, yig'lama muncha, men kelaman, kutgin meni!" — deb Qosim otlanish uchun uzangini ushlaganda, Aliman yana chopib borib, bo'yniga osilib, yosh bolalardek, qo'lidan tortib, birpas to'xta, deb yig'layverdi. "Bo'lmasa, bolam, anovi yo'l bo'yigacha kuzatib kel, — dedi Suvonqul keliniga. — Biz shu yerda qolamiz. O'rtoqlari uzab ketmasin, Qosim, bu yoqqa qarachi!" Ular biroz bir-biriga indamay tikilib turishdi-da: "Tushundingmi?" — dedi Suvonqul. "Tushundim, ota!" — dedi Qosim. "Bo'lmasa jo'na!" Suvonqul otiga minib, xirmon tomonga chopib ketdi. Qosim men bilan xayrlashganda: "Maysalbekdan xat kelsa, adresini solib yuboringlar", — dedi. Qosim bilan Aliman otni yetaklab, qo'l ushlashib, katta yo'lga chiqib olguncha orqasidan qarab turdim. Aliman bora-borguncha uzangiga osilib, chopib borardi. Shunda Qosim ot ustida turgancha, xotinining peshonasidan so'nggi bor o'pib, saman yo'rg'aning boshini qo'yib berganda, uning ketidan chang-to'zon ichida Aliman qo'l silkib yugurardi.

Ertasi kuni kechqurun yaydoq saman yo'rg'ani aravasining orqasiga bog'lab, Jaynoq stansiyadan olib keldi.

III

— Nega jimib qolding, To'lg'anoy?

— O'sha yili yana nimalar bo'lganini eslayapman. Haytovur, kim bilsin, hayot og'irlashib ketganidan odamlar cho'chib qolishmadimi. Uzoqlarda qirg'in bo'lib, qon to'kilib yotganda, bizning yopishganimiz — ish bo'ldi. Qosimning aytgani to'g'ri chiqdi: ishga qanchalik yopirilib kirishsak ham urushning kasofatidan ekin-tikinlarni oxirigacha yig'ishtirib ololmadik. Kartoshkalar qor ostida qolib ketdi. Ovulda katta kuch bo'lgan erkaklar birin-ketin

siyraklashib, askarga ketib qolavermadimi. Qolganimiz ertadan kechgacha urush nima bo'lyapti ekan, deb quloq tutamiz. O'shandagi xabarlar ko'ngilga taskin berarli emas edi, kutganimiz pochtachi bo'lib qoldi.

Qosim jo'nab ketgandan keyin ko'p o'tmay, Maysalbekdan xat keldi. Birinchi xatida u: o'qishdagi o'z tengqurlarim bilan askarga chaqirildim, hozircha shaharning o'zidamiz, sizlar bilan yuz ko'rishib xayrlasha olmaganimga achinaman, bunday bo'larini kim bilibdi, g'alaba bilan qaytsak, tilagimiz shu, debdi. Ikkinchi xatida: Novosibirsk degan shahardaman, komandirlik o'qishiga yuborildim, deb suratini ham solib yuboribdi. Suratingdan aylanayin, askarcha forma kiyib tushgan ekan, biram yarashiqli, sochini orqasiga tarab, manglaylari keng, qovog'ini xiyol uygancha tikilib turibdi. Tushimda ham o'sha suratdagidek ko'rinardi. Aliman Maysalbekni bir martagina ko'rgan edi. Ko'klamda, Qosim uylanganda, u ikki kunga javob olib kelgandi. Qayin inisining suratini ko'rib, Aliman: "Bizning muallim yigitga o'xshagan suluv yigit bormikin, ena? Chimildiqning ortidan yaxshi payqamagan ekanman, tikilavergani uyalgandim. Endi omon-eson qaytib kelib o'zidek bilimli, o'zidek suluv qiz olsa, yarashib tushardi-da, ena!" — der edi.

Qish kirguncha shu zaylda bolalardan ketma-ket xat kelib turgani uchun yuragim ancha-muncha taskin topib turdi! Ko'p o'tmay, Qosimdan front tomonga qarab jo'nab ketdik, degan xabar keldi. Endi qanday bo'lar ekan, degan o'y-xayol sira yodimdan ko'tarilmasdi. Bu orada Suvonqulni ham qayta-qayta harbiy komissariatga chaqirib, komissiya qilib qoldi. Bir tomonda esa brigadirlik tashvishi, sira tinim yo'q. Bu qanaqa bo'ldi ekan, demak, Suvonqulni ham olib ketadiganga o'xshaydi, endi qanday qildik, deb yursam, bir kuni chindan ham askarga olishlikka povestka kelibdi. Uni eshitib, yuragim qinidan chiqqudek bo'ldi. Xirmonda bug'doyning qoldig'ini tozalab yotgandik. Panshaxaning sopidan ushlab xayol surib turgan edim, Suvonqul chopib kelib, otdan tushdi-da, yur uyga, tayyorgarlik ko'raylik, dedi.

Mingashib yurayin, desam, yo'q otni sen mingin, men yoningda yurib gaplashib borayin, dedi. Bunday paytlarda odam so'zlashishga so'z ham topolmay qoladiganga o'xshaydi, aytadigan gap-

ning bari ichda qolib, jimgina kelaverdik. Qora bulutlar osmonni qoplab, Sariq Yoyiq tomondan turgan muzdek shamol qorni uchqunlatib, bo'ronga aylantirgudek bo'lib, goh zo'rayib, goh pasayib turdi. Atrofimga qarasam, jonim tutashgan dehqon dalam, sen ham yalang'och qolib, kimsasiz, unsiz tumshayib turgan ekansan.

— Ha, To'lg'anoy, qish bosib, tanam muzlab, sovuqdan qorayib, mening ham yolg'izsiragan g'amgin kunim edi.

Suvonqul ustma-ust gugurt chaqib papiros tutatardi. Bir vaqt shamoldan qochib, otning panasiga o'tdi-da, papirosini tutatar ekan, mening qo'limdan ushlab: "Sovqotdingmi?" — deb so'radi. U o'shanda bir nima demoqchi bo'ldi, balki, bolalarimiz urushda, mana endi men ham urushga ketyapman, qanday bo'ladi, qanday qo'yadi, ko'rishamizmi, yo'qmi, shuncha yil issiq-sovug'imizga chidashib, birga yashadik — rozi bo'l, taqdir shu ekan, qanday qilamiz, omon-esonlikni tilaylik, demoqchi bo'ldimi, kim biladi. Haytovur, boshini ko'tarib, meni ham ayab, ham suyib, lablarini tishlagancha uzoq tikilib qoldi. Soqol-mo'yloviga endigina oq oralay boshlaganini o'shanda sezdim. O', xosiyatli dalam, mening boshimga tushgan yaxshi-yomonliklarning bariga shohid bo'lding-a...

— Ha, To'lg'anoy, sening butkul umring shunday o'tdi.

— Suvonqul ikkovimizning o'sha dalada qo'shilib, yigirma ikki yil mehnatimiz bilan, halol peshona terimiz bilan unib-o'sib umr surganimiz o'sha zamon ko'z o'ngimga keldi. Umr yo'ldoshimdan shu holda ajralaman deb o'ylaganmidim. Kechagina o'roqqa tushgan birinchi tunda xuddi shu yo'l bilan mingashib borayotganimizni eslab, ovulga kiraverishda yoshlarning yangi ko'chasi boshlangan bo'yicha qolib ketganligini, Qosim bilan Alimanning chorbog'ida uyulib yotgan g'isht bilan toshni ko'rib, otning yoliga tashlanib, o'ksib-o'ksib yig'lab yubordim. Suvonqulning zehni g'oyat o'tkir edi. Mening nimani o'ylab kelayotganimni bilib oldi. "Yig'lasang, hozir yig'lab ol, To'lg'on, biroq bundan keyin el ko'zi oldida yig'lab yurmagin, — dedi u. — Sen, To'lg'an, Aliman bilan Jaynoqqagina bosh bo'lmay, mening o'rnimda ham brigadir bo'lib qolasan, bu ishga sendan boshqa layoqatli hech kim qolgani yo'q ovulda". "Shunday paytda bo'lmag'ur so'zingni qo'y, Suvonqul,

keragi yo‘q, brigadirligingni nima qilaman, men kimga brigadirlik qilaman!” — deb yig‘layverdim. Shunday desam kechqurun chindan ham kolxozning idorasiga chaqirib qolishdi. Frontdan qo‘li yarador bo‘lib kelgan yangi raisimiz Usenboy, Suvonqul, yana ikkita-uchta oqsoqol kishilarimiz o‘tirishibdi. “To‘lg‘anoy yanga, nima bo‘lsa ham belingizni mahkam bog‘lab, ko‘pchilikning topshirig‘ini bo‘yningizga olasiz. Ayol kishi bo‘lsangiz ham, yer-suvning tilini, elning sharoitini sizdan yaxshi biladigan odam yo‘q. Suvonquldek brigadirimizni, zahar yutib, achchiq chaynab, urushga yuborib turganimizda, uning ishongan kishisi — sizga, biz ham ishonamiz. Zamonning qandayligini o‘zingiz ko‘rib-bilib turibsiz. Ertadan boshlab ishga kirishing, To‘lg‘anoy yanga”, — deb qat’iy gapirdi Usenboy. Boshqa oqsoqollar ham shunday deb maslahat berishdi. Qisqasi — brigadir bo‘lishga ko‘ndim. Ko‘nmay iloj qancha. Shunday qilganim ham bir tomondan ma’qul bo‘lgan ekan — Suvonqulimning eng oxirgi iltimosi shu emasmidi: keta-ketguncha ko‘pning g‘amini yegan bechoram-ey, tuni bilan, qo‘sh haydashga hozirdan tayyorlana ber, ot-ulovni yem-xashakka to‘yg‘iz, omoch-bo‘yinturug‘ingni to‘g‘rilab, remont qilib qo‘y, falonchining bola-chaqalariga qiyin bo‘ldi, berigi qo‘shnilar esa qari-qartang, ko‘z-quloq bo‘lib yur, uni unday qil, buni bunday qil, deb gapirib o‘tirdi. Tashqarida tong otguncha tinmay shamol guvillab, qor yog‘ib chiqdi.

Suvonqulni ham katta yo‘lga kuzatib qo‘ydik. O‘zi qatori bir talay kishilar bilan aravaga tushib, to‘pga aralashib ketdi-qoldi. O‘shandagi sovuqning shashtini-yey, yuzlarni yorib yuboray dedi-ya...

— O‘sha kuni sen Suvonqulni kuzatib qaytib kelayotganingda, qayta-qayta orqangga qarab, qattiq yig‘lading, To‘lg‘anoy.

— Ha, ona-Yerim, o‘sha kundan boshlab raisimiz Usenboy aytgandek, belni mahkam bog‘lab otga minib brigadirlik ishiga kirishdim. Endigi brigadirlarning ham ishi oson emas-u, lekin u kezlarda tamomila turgan-bitgani azob edi. Ishga yaroqli erkaklardan hech kim yo‘q, hammasi urushga ketgan, qolganlari qiz-juvonlar, yosh bolalar, qari kishilar. Topgan-tutganimizni frontga yuborib turdik. Aravachalarning g‘ildiragi yo‘q, xomut-bo‘yinturuqlar ishdan

chiqqan, ustaxonada ko'mir o'rniga soy bo'yidagi o'tinlarni yoqib, bosqonni bir amallab ishlatib turdik. Elning turmushi kundan-kunga og'irlashib borardi. Shunday bo'lsa ham, kolxozda ishni to'xtatmay, tebratib turishning payida bo'ldik. Hozir o'ylasam, birovga yaxshi, birovga yomon gapirib, kolxoz deb yurib, ko'p ishlar boshdan o'tgan ekan, biroq el uchun, uning ozib-to'zsa ham el bo'lib tura berganligiga joningni sadaqa qilsang ham arziydi. O'shandagi ayollar — hozir kampir, yosh bolalar — besh-oltitaning otasi, u kunlarni unutib ham yuborishgandir, biroq, men ularni ko'rgan sayin, ko'z oldimda o'lmach-o'chmasdek ularning o'shandagi hayoti gavdalanadi, och-yalang'och yurib kolxozda ishlaganlari, orzu o'yi — borlig'i toshga tamg'a bosgandek ko'ksimda. Men o'zim ham qanday ahvolda edim, shunday bo'lsa ham, yiqilib-surilib, brigadir bo'lib yurganimga hech qachon o'ksinmayman. Tong azonda kolxozning saroyiga yetib borib har birini ishga chaqirib, shu bilan kechgacha otdan tushmay el yotguncha idorada kundalik majlisda o'tirib, ko'pchilikning ishi bilan alaqsib yurgan ekanman. Mayli, ba'zan joni achiganidan ba'zi birovlar gapimga quloq solmay, meni so'kkan kunlari ham bo'ldi, bunday paytda Aliman bilan Jaynoq, o'z bolalarim emasmi, ularga tinim bermay kun-u tun ishga hayday berdim. Shunday qilganimga ham koyinmayman, bo'lmasa ne bo'lmag'ur o'y-xayollarga berilib ketardik. Bir uydan qatorasiga uch kishi urushga ketib o'tirsa, o'ylanmay bo'ladimi.

— Rost, To'lg'anoy. Sen o'shanda men bilan so'zlashishdan qochayotgandek, doim chopib, allaqayerlarda shoshilib, xalloslab yurarding.

— Shunday qilmaslikka ilojim bormidi, sirdoshim ona-Yer. Frontga ketdim degani bo'yicha bir yarim oy chamasi Qosimdan xabar kelmay turdi. Aravasi bilan stansiyaga qatnab, Jaynoq sayog'im uyda yo'q bo'lsa, Aliman ikkimiz harna bo'lsa ichimizda saqlab, Qosim haqida gaplashishdan qo'rqqandek, ko'zimiz bir-biriga tushganda, boshqa bir bo'lar-bo'lmas tirikchilik haqida gap ochib, yosh boladek bir-birimizdan so'rashga oshiqamiz.

Qishning o'rtalarida, ayozli kunlarning birida ustaxonada otlarni taqalatib yurardim, sizga shoshilinch telegramma kelibdi, deb, rais allaqanday qog'ozni olib chopib keldi. "Qo'y, voy u ni-

mang?" — deb yuboribman. "Voy, To'lg'an yanga-yey, qo'rqmang, yomonlikning beti qursin, bu telegramma Maysalbekdan ekan, Novosibirskdan yuboribdi, beriroq keling! — dedi Usenboy. — Hozir to'xtamay stansiyaga jo'nang, o'g'lingiz shu ikki kunning ichida o'zimizning stansiyadan o'tar ekan, uchrashib qolay, debdi. Otlarga yem-xashak soldirib, aravani tayinlatib qo'ydim. To'lg'anoy, yanga, kechikmay jo'nanglar!" — deb qoldi. Suyunganimdan nima qilarimni bilmay, halloslab, ustaxonada nari-beri yugurib, undan shoshib uyga jo'nadim. Ishning oldi-ketini surishtirmay, aytganim faqat: "Maysalbegim kutib olsin, debdi! Maysalbegim kelsin, debdi! Seni kutib olmaganda, kimni kutib olaman, aylanib ketay, o'g'lim, tolpinib uchgan qushdek yayov yugurib borarman!" — deb, o'zim bilan o'zim so'zlashib, qahraton ayozda halloslab, terlab-pishib kelaverdim. A-a, o'shanda men qurg'ur, hushim o'zimga kelib, Maysalbegim qay tarafdan o'tar ekan, deb o'ylamabman. Nari-beri kuymanib, Maysalbegim o'rtoqlari bilan uyning ovqatidan totib ketsin, deb, bo'g'irsoq, yupqa, go'sht pishirib, o'sha kuniyoq Aliman ikkimiz aravaga tushib jo'nab qoldik. Avval, Jaynoq bilan borsammikin, deb o'ylanib turdim. Shunday desam, Jaynoqning o'zi: "Qo'y, ona, Aliman borsin, men uyda qolayin. Menga qaraganda Alimanning borishi zarur", — dedi. Juda to'g'ri ish qilgan ekan kenja bolam. Yosh bo'lsa ham, Jaynog'im har narsaga farosati yetadigan bola. Yangasining qanday dimiqib, g'am chekib yurganini sezib yurgan ekan, Alimanni pichanda ishlab yurgan yeridan o'zi chopib borib, chaqirib keldi. Ko'pdan beri kelinimning bunday xursand bo'lganini ko'rganim yo'q edi. Xuddi yosh boladek suyunib, mendan beshbattar tolpinib: "Bo'ling, ena, kechikib qolmaylik!" — deb o'pkasini bosolmay qolibdi. Yo'lga chiqqanda ham shunday edi: aravani tezlatib haydab, gohda tizgin, gohda qamchini aravakash boladan tortib olib, o'zi shoshqilanib haydardi. Yo'l bo'yi bir tekisda zahar sochib, laylakqor yog'ib turdi. O'sha qor oppoq bo'lib, Alimanning ro'moliga, manglay sochiga, yoqasiga qo'nib, uning yiltillagan qop-qora ko'zlarini, nur tomib turgan qip-qizil yuzini yana ham go'zal ko'rsatib, husniga husn qo'shayotgandek edi. Buning ustiga, bora-borguncha birpas jag'i tingani yo'q kelinimning. Birinchi bor to'yga borayotgan boladek, u-bu haqda erkalanib

gapirib: "Muallim bola poyezddan tushganda, siz indamay turing, ena. Meni tanirmikin? — derdi. So'ng yana biroz turib: — Yo'q, ena, men orqasidan borib, muallim bolaning ko'zini yumib olsam, nima qilar ekan, oy, bu kim o'zi deb, cho'chib ketarmikin?" — deb kulib borardi. Oh, Alimanim-ey, oh, kelinim-ey, senchalik kuyovini sevgan ayol bo'lganmikin? Meni bilmaydi deb kelayotib, o'zginang oxiri siringni ochib qo'ymadingmi. Boyagidek hazillashib kelayotib, bir vaqt g'amli qiyofada o'zicha gapirib yubordi: "Muallim bola Qosimga juda o'xshash-a?" — dedi-yu, indamay qoldi. Birozdan so'ng xafaqonligi yana tarqadi. "Hayda otlarni, hayda tezroq!" — deb shoshirardi. Shunday qilib, stansiyaga kun botarda yetib bordik. Stansiya joylashgan dara shamolning uyasi ekan, qor uchqunlari izg'ib yuribdi. Maysalbek hozir kelib qoladigandek, aravadan tushgan zahoti, Aliman ikkalamiz shiddat bilan temir yo'lning bo'yiga yetib bordik-da, u yoq-bu yoqni qarab, nima qilarimizni bilmay mustar bo'lib qoldik. Ertalabdan beri urinib qizigan tanimiz soviy boshladi. Taram-taram temir yo'llar orasidan u yoq-bu yoqqa pishqirib qatnab yurgan parovoz goh muzlab yotgan vagonlarni taqir-tuqur qo'zg'atib qo'yar, sim yog'ochlar esa shamolda hushtak chalib yotardi. Bir-ikkida poyezd kutmagan odam qursin. Qachon keladi, qaysi tomondan keladi — bilolmay turaveribmiz. Uncha o'tmay olisdan poyezdning qichqirib, shaqillab kelayotgani quloqqa chalingan edi: "Ana, kelayotibdi!" — dedi Aliman. Oyoq-qo'lim titrab, yuragim halqumimga tiqildi. Poyezd tobora yaqinlashib kelaverdi, shoshganimdan: "Ma, xurjunni sen ushlab tur-chi!" — dedim. Bug' chiqarib parovoz biroz o'tdida, vagonlar to'xtadi. Vagonlar yo'lovchilarga liq to'la ekan, xotin-bolalar ham bor, ko'pi soldatlar. Ularning kim ekanini, qayerga borayotganini Xudo biladi, lekin Maysalbek ko'rinmaydi. Poyezd yoniga yugurib, eshiklardan bosh chiqarib turgan kishilardan: "Suvonqulov Maysalbek bormi? Aytinglar-chi, aylanaylar, Suvonqulov Maysalbek bormi?" — desak, bir xillar bilmaymiz deyishsa, bir xillari indamaydi, bir xillari kulib ham qo'yadi. Oradan hech vaqt o'tmay poyezd o'rnidan qo'zg'alib, yurib ketdi. Bizning stansiyada bor-yo'g'i uch minut to'xtar ekan. Tarvuzimiz qo'ltig'imizdan tushgandek turib qoldik. Poyezd yo'lga tushganda uni kuzatib turgan

qora to'nli, cho'loq, o'rta yoshlardagi temiryo'lchi o'ris kishi bizni ko'rib, sizlar kimni kutib turibsizlar, deb so'rab qoldi. Unga uzoqdan kelganimizni tushuntirib, Maysalbekning yuborgan qog'ozini ko'rsatdik. Shunda u ko'zoynagini taqib, o'qib chiqdi-da, sizning o'g'lingiz askar esheloni bilan kelayotibdi. Uning qaysi eshelon ekani, qaysi vaqtda o'tari noma'lum. Kechikmasa bugun-erta yetib kelishi kerak. U, balki, o'tib ham ketgandir, kuniga qancha eshelonlar o'tadi, gohida to'xtamay ham ketadi, qaysinisi ekanini kim bilsin, degandek dargumon gapirdi. Bizning bo'zarib ketgan rangimizni ko'rib, temiryo'lchi achindi shekilli: "Eh, urush, urush! Barchani qaqshatding-ku, — deb boshini chayqadi-da, — sizlar endi sovuqda turmay, mana bu yoqqa kirib o'tiringlar, poyezd kelar oldidan chiqib kutib olasizlar", — dedi.

Stansiyaning yolg'iz xonasida quruq o'rindiqda cho'zilib yotgan o'ntacha kishi bor ekan. Urushning dastlabki kunidanoq har qaysisi o'z yeridan bosh olib chiqib, yo'l azobini tortgan yo'lovchilar bu yerda o'z uyidagidek joylashib, uxlagani uxlab, gaplashgani gaplashib, bir xillari temir krujkalarda xo'rillatib choy ichib, gitara chalib, ichida xirgoyi qilayotganlar ham bor. Aliman ikkovimiz ham narigi chetga borib o'tirdik. Shishasi singan yolg'iz chiroq arang lipillab yonib, xonani g'ira-shira yoritib turibdi. Bir mahal poyezdning yaqinlab kelayotgani eshitilib qoldi, biz eshikka otilib chiqdik. Zulmat ichida jin o'ynagandek, shamol yeng-u etakdan tortqilab, parovozning issiq bug'i betga urib, biroz o'tdi-da, yuk tashiydigan poyezd sekin kelib to'xtadi. Unda soldatlar ko'rinmasa ham, Aliman ikkalamiz: "Maysalbek! Maysalbek bormi?" — deb vagonlardan vagonlarga yugurdik. Undan darak yo'q. Xonaga qaytib kelganimizda, odamlarning bari uyquga ketgan edi. "Ena, charchadingiz-a, yotib dam olib turing-chi, men o'zim xabardor bo'lib turaman", — dedi Aliman. Kelinimning yelkasiga boshimni qo'yib, qiyshaydim. Biroq, qani uyqu kelsa, uxlab bo'larmidi. Qulog'im, yuragim, aqlim bilan poyezdning uzoqdan kelayotganini yerning bilinar-bilinmas larzasidan ham sezib yotdim. Poyezd qaysi tarafdan kelmasin, qulog'imizga chalingan zahoti, yetolmay qolmaylik, deb xurjunni ko'targancha yugurib, qarshisiga chiqamiz. Qancha eshelonlar o'tdi, lekin birontasida ham May-

salbekni uchratolmadik. Yarim kechaga yaqin yer larzaga kelib, eshikka yugurib chiqqan edik, daraning narigi yog'idan ham, berigi yog'idan ham parovozning qichg'irig'i eshitilib, ikki poyezd ikki yoqdan kelayotgan ekan. Shunday ko'z tutib o'tirganimizga yarasha qani kutganimizdek bo'lib chiqsa, aylanay!.. Shoshganimiz shunchalikki, qaysi tomonga yurishimizni bilmay halloslab, ikki yo'lning o'rtasiga tushib qolgan ekanmiz, qarama-qarshi qichqirib kelgan poyezdlar, quloqni bitirib, kelgan bo'yicha to'xtamay taraq-turuqlab o'tganda, shamol uyilgan qorlarni vagonlarning ostiga uchirib ketgudek bo'lib har tomondan urildi. "Ena!" — deb baqirgan Aliman meni quchoqlaganicha fonusning tagida ushlab turardi. O'sha shaq-shuq quyun ichida yarq-yurq etgan vagonlarning deraza-eshiklariga tikilib, Maysalbegim shunda o'tib ketmadimi, degan o'y butkul vujudimni titratib, esimdan og'dirardi. G'ildiraklar ostidagi qo'sh izlar mening zirqiragan yuragimdek, o'shanda zing-zing etib turardi. Ayt-chi, dunyo tayanchi Yer, qaysi zamonda, qaysi ona o'shandek o'z bolasini bir ko'rarga zor bo'lib, ko'zidan qonli yosh to'kib, yig'isi tosh yorib, yo'l poyladi ekan?

— Aytolmayman, To'lg'anoy. Sening zamoningdagidek urush olamda bo'lgani yo'q.

— Bo'lmasa, o'shandek yo'l poylagan onaning eng so'nggisi men bo'layin! Ilohim, meningdek temir yo'l quchoqlab, zor qaqshagan banda bo'lmasin!

— To'lg'anoy, o'g'ling bilan ko'risholmay kelganingni, sen berigi katta yo'ldan qayrila berganingda bilgan edim. Ranging shunchalik o'zgarib, ko'zlaring kirtayib, kasaldan turgandek bo'lib qolibsan.

— Shundan ko'ra bir oy es-hushsiz to'shakda yotsam rozi edim. Tong otguncha kelinim ikkovimiz bir dam tinim bilmay, temir yo'lning bo'yida u yoqdan-bu yoqqa yugurib yurdik. Tongga yaqin bo'ron bosildi. O'shanda kun botar tarafdan vagonlari tilkalanib kuyib ketgan bir eshelon keldi. Yopiray, tilkalangan eshelon asta sudralib kelganda, dara sukunatda edi. Oz-moz uchqunlab turgan qorni hisobga olmasa, stansiyada g'imirlagan jon, churq etgan tovush yo'q edi. Bu sudralgan eshelonlarning birontasida ham odam yo'q ekan. Dabdalasi chiqqan vagonlar tirkalishib, haroba-

zor gumbazlar orasidagidek, unsiz huvullab yotgan go'riston sukunati hukm surar, burqsigan tutun, kuygan temir, yongan qarag'ay hidi anqib turardi. Kuni kecha tanishgan qora to'nli cho'loq o'ris kishi fonusini ko'tarib, yonginamizga kelgan edi, Aliman undan: "Bu eshelonga nima bo'lgan?" — deb astagina so'radi. "Bombalar pachaqlab ketgan", — dedi u ham sekingina. "Endi bu vagonlarni qayerga olib ketishyapti?" — "Remontga", — dedi temiryo'lchi. Ularning so'zini tinglab, bu eshelonda kimlar yurib, qayerda bomba ostida qolgan, ur-yiqit, baqiriq-chaqiriqning ichida kimlar oyoq-qo'lidan ajrab, kimlar jon berib, hayot bilan vidolashdi ekan, urushning shamoli shu bo'lsa, o'zi-chi, o'zi qanaqa mudhish narsa, deb xayolimdan o'tkazdim.

Urushdan qaytgan eshelon stansiyada ancha turgandan keyin, sekin sudralib, yana allaqayoqqa yugurib ketdi. Yuragim hovliqib, butun vujudim titrab ketdi. Endi Maysalbegim hali pachaqlangan eshelon kelgan tomonga, qon maydoniga yo'l oladi-da. Qosim nima bo'ldi ekan? Suvonqul ham Ryazan shahriga yaqin yerda mashq qilib yotibmiz deb yozibdi. U yer frontdan uncha uzoq emasga o'xshaydi...

Quyosh chiqib, tush ham bo'ldi, umidimiz uzildi. Maysalbek biz kelgungacha o'tib ketgan ekan-da, bo'lmasa stansiyaga kelgan har bir eshelonni qo'ymay qarab chiqdik-ku. Endi nima qilamiz? Maysalbek bilan yuz ko'rishmay qolganimizmi bu? Aravadagi otlarga saqlab qo'yilgan yem-xashak ham tugab qolyapti, deb har qaysisini bir o'ylab, ovulga qaytib ketishga ko'nglimiz bo'lmay, Aliman ikkovimiz temiryo'lchilarga yordamlashib, temir yo'llarning orasiga uyilgan qorlarni tozalashdik. Shunday qilmasak, vaqt o'tadigandek emas. Sovuq kechagidan bo'sh kelmay, yomg'ir aralash shamol bo'lib turdi. Bir vaqt havo ochildi, bulutlarni yorib quyosh chiqdi. "Oh, Xudoyim-ey, shu quyoshdek bo'lib o'g'lim yarq etib ko'zga ko'rinib qolsa-chi!.. Xudoyim, o'zing yetkazgin bolamni!" — deb yolvorardim. Shu orada kun chiqar tomondan parovozning haybatli ovozi eshitilib, stansiyaga yaqinlashayotgan eshelon ko'rindi. "Ena, shu emasmikin? Xudo xohlasa shu!" — dedi Aliman, xuddi bilgandek xurjunni yelkasiga solib, o'shanda bilib turgandek, nima uchundir bo'zarib, yuzi-

dan qoni qochdi. Mening ham nafasim qisilib, yuragimga vahima tushdi. Bir-biriga tutashgan ikki parovoz yaqinlab, tutun, bug', qora cho'yan, qizil temir g'ildirak gurkirab, shaqillab o'taverdi, birma-bir ochiq vagonlarga yuklangan zambarak, tanklar yonida miltiqli kishilar ko'zga chalinib turardi. Vagonlarning eshigiga to'plangan soldatlarning o'yin-kulgisidan ularning so'zlarini anglab bo'lmasdi. Vagonlar ko'z ilg'amay zing'illab o'ta boshladi. Qo'liga bayroqcha ushlagan qandaydir bir temiryo'lchi yugurib kelib "To'xtamaydi, to'xtamaydi!" — deb, qo'lini siltab, bizning ko'kragimizdan itarib temir yo'ldan chetlatayotgan edi, shu mahal yonginamizdan: "Ona! Aliman!" degan qichqiriq eshitildi. Maysalbek! U ham, aylanib, qoqinib ketayin bolam-ey, bir qo'li bilan vagonning tutquchini ushlab, bo'ynini orqaga tashlab, quloqchinini silkib, hayrlashib borâyotgan ekan. "Maysalbek!" — deb qichqirganimni bilaman. O'sha ko'zga tashlangan paytda, Maysalbekning qaddi-qomati aniq ko'rindi: shinelining etaklarini shamol tortqilab, yuzida, ko'zida o'kinch ham, sevinch ham, uchrashuv ham, xayrlashuv ham bor! Quturib esgan shamol uning ovozini olib qochdi, Maysalbekning o'sha turishidan ko'z uzmay, u uzoqlashgan sayin poyezd bilan birga yurib, eshelonning eng oxirgi vagoni yonimdan o'tganda, orqasidan yana chopib, yuz tuban yiqildim. O, o'shanda bo'zlab, qaqshab yig'laganim-ey! O'q yog'ib turgan maydonga ketib borayotgan o'g'limning o'rniga, temir yo'lni quchoqlab, vidolashib yotdim. G'ildiraklarning relsga taq-tuq urilishi ham tobora uzoqlashib borardi.

Hozir ham, gohida o'sha eshelon qulog'imni tindirib, bir-biriga tutashgan ikki parovoz olib uchgan vagonlar miyamni qoq yorib o'tayotgandek bo'ladi.

Orqamdan o'shanda xo'rsinib yig'layotgan Aliman yetib kelib, uning ketidan yana bir temiryo'lchi o'ris ayol kelib yotgan yerimdan quchoqlab turg'izishib, temir yo'ldan chetga olib o'tishdi. Aliman meni qo'ltiqlab kelayotib, o'shanda, qo'limga askar quloqchinini tutqazdi: "Mang, ena, muallim bola tashlab ketdi", — dedi u. Maysalbegim menga tashlab ketgan ekan.

— To'g'ri aytasan, To'lg'anoy, aravada kelayotib, qalpoqni ko'ksingga bosib kelmaganmiding.

— Ha, o‘sha quloqchin hozir ham uyda ilig‘li turibdi. Peshonasida qizil yulduzi bor, bo‘z matodan tikilgan soldatcha quloqchin. Ba’zan qo‘limga olib hidlayman, undan hali ham o‘g‘limning isi kelib turgandek...

IV

— To‘lg‘anoy, boyaqish To‘lg‘anoyim, sumbul sochlaringga kumush qirov tushirib ketgan o‘sha kunlar emasmidi? Esizgina o‘rim-o‘rim sochlar! Sen bu yerga kelganda har gal ham boshqacha qiyofada kelarding. Dam-badam yuking og‘irlashgandek, hamma qiyinchiliklarga bardosh berib, dardingni ichga yutib jimgina kelib, jimgina ketsang ham boshingga qanday qiyin, og‘ir kunlar tushganidan to‘la ogoh edim.

— Ha, ona-Yerim, nima ham der edim. Yolg‘iz mengina bo‘lsam edi — urushning kasri tegmagan bitta ham oila, bironta ham odam qolmagan edi-ku. Boshqasi u yoqda tursin, dunyoning o‘ng-tersi bilan ishi bo‘lmagan endigina tili chiqqan mushtdek bolalar ham, og‘zidan suti ketmagan go‘daklar ham, bir ashula aytib ber-chi, desang, yurak bag‘ringni yorib:

“Oq ko‘ynagim etagi
Hilpir-hilpir etarmi.
Askarga ketgan otamning
Bir xabari kelarmi?” —

deb qaqshab tursa, kimning ichi achimaydi, bostirib kirgan dushmanga: “Hap senimi!” — deb kim g‘azablanmaydi. Mudhish xabar — qora xat kelganda, askarga ketgan kishilardan ajralib, har kuni ovulning ikki-uch yeridan dilingni ezib yuboradigan yig‘i-sig‘i ovozlari chiqib tursa, kishining qoni qaynab, urush o‘tining yolqini, yurak-bag‘ringni o‘rtayotganini o‘shanda bilar ekansan! Xuddi o‘sha kezlarda brigadirlik qilib, elning achchiq-chuchugini birga totib, ko‘pchilikni eplab, bosh-ko‘z bo‘lib yurganimdan hozir ham faxrlanaman, hozir ham uni zavq bilan, minnatdorchilik bilan eslayman. U bo‘lmaganda, balki men allaqachon mayishib, allaqachon mudrab, allaqachon urush to‘polonlari ichida oyoq osti bo‘lib ketar edim. Qilichini yalang‘ochlab kelgan yovga qarshi zarba be-

rishning yagona yo‘li kurashda, mehnatda emasmi. Mana, qadrdon dalam, ish orasida chopa kelib, yana un chiqarmasdan ot jilovini qayta burib, indamasdan chopib ketishimning boisi ham shunda. Qosimdan xat kelgani esingdami, mehribonim?

— Bo‘lmasam-chi, To‘lg‘anoy. Sen narigi yoqdagi ko‘chadan chiqaverishingda, baland-pastliklarga qaramay, otning boshini qo‘yib chopib kelayotganingdayoq bilgan edim. Sen o‘shanda adirga go‘ng sochib yurgan kelining bilan kichik o‘g‘ling oldiga suyunchi olgani kelgan eding, To‘lg‘anoy!

— Suyunchi olmay bo‘ladimi? Birdaniga ikki oy dom-daraksiz ketgan Qosimimdan sog‘-salomatman deb xabar kelsa-yu, men suyunmay, kim suyunsin! Moskva yonidagi keskin janglarga ikki bor kirib, ikkalasidan ham sog‘-salomat chiqdim, nemislarning shashti qaytib to‘xtab qoldi, bizning polkimiz hozir dam olyapti, depti. Alimanning o‘shandagi quvongani-yey!.. Aravadan irg‘ib tushib, Jaynoqdan oldin “Enajon, og‘zingizga moy, qoqinib ketay, enajon!” — deb, yetib keldi-yu, xat ushlagan qo‘llari qaltirab, hech narsa o‘qiy olmay: “Omon! Omon-eson!” — deyaverdi. Yon-verida go‘ng sochib yurgan juvonlar yugurib kelishib, “Qani, o‘qi-chi, Aliman, kuyoving nima depti?” — deyishsa, “Hozir, aylanaylar, hozir!” — dedi-yu, o‘qiy olmadi. “Menga ber-chi, yanga. Odamlarga o‘qib berayin”, — deb Jaynoq xatni oldi-yu, baland ovoz bilan o‘qiy boshladi. O‘shanda Aliman nima uchundir yerga o‘tirib qolib, qizigan peshonasiga changallaganicha qor bosdi. Xat o‘qilib bo‘lgach, u biroz o‘ylanib turdi-da, betidagi erigan qorni ham surtib olmay, shu bo‘yicha yig‘lashini ham, kulishini ham bilmay, xuddi tush ko‘rgan yosh boladek jilmayib: “Yuringlar, endi ishlaylik!” — dedi. So‘ng o‘zi atrofga bamaylixotir nazar tashlaganicha odimlab ketdi. Nimalarni o‘ylaganini kim bilsin, menimcha yozda, shu dalada Qosimga suv tashib yurgan kezlarini esladimi, balki, uni askarga ketayotganda kombayn bilan xayrlashgani ko‘z oldiga kelgandir. Tavba, kelinim sir saqlab yursa ham, barisi yuziga chiqar edi. Axir, shunday odamlar ham bo‘ladi-ku. Shu daqiqa Alimanning ko‘zlari ham sevinib, ham mung‘ayib, allaqanday ajoyib, go‘zal ko‘rinishlarni eslagandek kulimsirab, erkalab katta yo‘lda yomg‘irdek to‘qilgan saman yo‘rg‘aning olislab borayotgan

changini kuzatayotgandek mo'ltillab yosh olib, qisqasi, kelinim o'y-xayollar seliga cho'mgandek edi. Hazilkash Jaynoq tushmagur uni qo'yarda-qo'ymay yengidan tortib: "Ey yanga, es-hushingizni yo'qotganga o'xshaysiz. Shunchalik holingiz bor ekan, nima qilardingiz xatga qo'l cho'zib... xatni o'qiy olmay, el-u xalqqa kulgi bo'ldi, deb Qosim og'amga yozib yuboray. Xotiningizni yana maktabga bermoqchimiz deyin!" — dedi. Aliman uni hazillashib mushtlab, bir-birovlarini quvlashib ketgandan keyin, men ham beixtiyor kula boshladim. "Mayli, — dedim o'shanda o'zimcha — ich-ichimdan faxrlanib. — Yovni yov bosadi! Qosimning jangga kirib ko'p qatori nemis bilan solishib chiqqani rost ekan. Mening bolalarimdek yigitlar elni qo'riqlamay, kim qo'riqlasin. Faqat omon bo'lib, dushmanni yengib, zafar bilan qaytib kelsa bo'lgani, boshqa hammasiga chidash mumkin, mayli, it azobini tortsak ham, ertaroq yengsak bo'lgani! Xudoyim, ertaroq yengsak ekan!" — deb tilak tilardim. Bu faqat mening istagim bo'lmay, ko'pning tilagi, ulug' tilak bo'lgani uchun ham, hammasiga ko'nar ekansan. Uyda yolg'iz qolgan kenjam, Jaynog'im, o'n sakkizga yetar-yetmas askarga ketganda: "Mayli, boshga tushganni ko'z ko'rar!" — deb o'zimni o'zim yupatdim.

Qishning oxirlariga borib Jaynoqni o'z tengqurlari qatori harbiy komissariatga chaqira boshlaganda, ularni shunchaki bir askar sifatida mashq qildirib yursa kerak, deb o'ylardim. Uni askarga oladi degan xayol ham ko'nglimdan o'tmagan edi. Ikki marta rayonga borib, o'n kun chamasi o'ynab keldi, keyingi borishda esa oradan bir kun o'tib, ertasigayoq Jaynoq uyga qaytib keldi. "Nima, senga javob berishdimi, tezda qaytib kelib qolding?" — deb so'rasam: "Yo'q, ona, ertaga yana rayonga qaytib ketaman. Harbiy komissariat bir kun uyda bo'lishga ruxsat berdi", — dedi. Men bo'lsam o'shanda ham payqamabman. Uzoq safarga otlanayotgandek Jaynoq o'sha kuni juda ko'p ishlarni bitirib qo'ydi. Ishdan birrov qaytib kelsam, qo'raning ichini supurib, olam-jahon o'tinni yorib qo'yibdi. Molxonani tozalab, tomning ustidagi pichanni quritib to'plab, otasi ot bog'lab yuradigan oxurning buzilgan joylarini chaplayotgan ekan. "Voy, uni nima qilasan, bolam, yozda shuvalar", — desam: "Vaqt borida bitirib qo'ygan yaxshi,

ona. Keyin qo'l tegmaydi", — dedi. So'ng bilsam, u bekorga unnab yurmagan ekan. Jaynog'im o'z ixtiyori bilan komsomol chaqirig'iga javoban urushga jo'nab ketdi. Uni biz Jaynoq jo'nab ketgandan keyin bildik, stansiyadan aravakash, ovuldoshi orqali xat yuboribdi. Aldab ketgandek, voy bechora bolam-yey, to'g'risini aytib xayrlashib ketsang, yig'lab-siqtasam ham tushunar edim-ku. Aliman ikkalamizga yozgan xatida, xayrlashmay ketganim uchun meni kechiringlar, sizlarni birato'la bilishsin, dedim, askarga o'z ixtiyorim bilan ketishni lozim topdim, deb yozibdi. Mening bu ahdimga rozi bo'lmas, deb o'yladimi, yo aytishga og'zi bormadimi, qaydam. Bilishimcha, Jaynoq urushni sevib, qiziqib ketgani yo'q, uni yomon ko'rgani uchun, elga keltirgan ziyon-zahmatini qalbdan his qilgani uchun qo'lga qurol olib, bellashgani ketdi. Otasi, ikki akasi el-u xalq deb jang maydonida qon kechib yurganda, buning joni ulardan ham azizmidi, u ham or-nomusli yigit emasmi. Ha, Jaynoq xuddi shuning uchun, urushni yomon ko'rgani uchun ketganiga ko'zim yetib turibdi! Yolg'iz Jaynoq frontga borgani bilan dushmanni qiyratib yubormaydi, biroq, bunday deyish ham to'g'ri emas. Jaynoqqa o'xshaganlar o'nlab qo'shiladi, yuzlab, minglab qo'shiladi, shunday qilib kuch to'planadi! Shunday qilib qo'l paydo bo'ladi, shunday qilil tog' hosil bo'ladi! Jaynog'im, kenjam, quvonchig'im, hazilkashim, xushchaqchaq suxsur toychog'im, bolam! Sen nima uchun aytmay ketganingni bilmadi deysanmi? Seni bolalik qilib, urushning nima ekanini, o'limning nima ekanini tushunmay ketaverdi deb o'yladi, deysanmi? Sening xushchaqchaqligingni ko'rib, sening insonga bo'lgan tog'dek mehr-muhabbatingni har kim ham tushunavermas edi. O'sha muhabbatingdan xotin-xalajning ko'rgan azobiga tik qarab tura olmading. Odamning bu dunyoda orttirgan narsasi yaxshilik ekan-da. Mana endi, urushda yurib, allaqayerda nom-nishonsiz qurbon bo'lding. Qirq to'rtinchi yilning qaysi bir qorong'i tunida partizanlarga yordamlashish uchun samolyotdan parashyutda sakrabsan-u, parashyut desantidaman, nemislarning orqa tomoniga o'tib uch bor jang qilib keldik, deb xabar qilganingcha dom-daraksiz ketding. Dushman bilan olishib, biror yerda o'qqa uchradingmi, yo to'qayzorda adashib ketdingmi, yoki qo'lga tushib qoldingmi. Haytovur, omon

bo'lganingda biror sharpang sezilardi-ku, bolam. Sen juda erta xazon bo'lding, Jaynog'im, kenjatoyim, yosh ketib elning esida ham uncha qolmagansan. Men seni yo'qlaganda, bizni ayab aytmay ketganingni doim eslayman, o'sha kezlarda stansiyaga arava bilan qatnab yurganingda, notanish bir yosh bolaga ustingdagi to'ningni yechib berganingni doim eslayman. Qish tushib qolgan, ayozli tunlarning birida, aravasini o'rtoqlariga berib, Jaynoq ko'ylakchan kirib keldi. Sovuqdan ko'kargan yuziga qarasang, aqling qochadi, tishi tishiga tegmay, tarasha bo'lib qolyapti. Shunday bo'lsa ham, sir boy bermaydi. "Voy, bu nimasi, kiyiming qani, yo'lda birov yechintirib oldimi?" — desam, bir bolaga berib keldim, dedi. Keyin o'rtoqlari aytib berdi. Urushdan evakuatsiya bo'lib kelgan bitta o'ris xotin to'rtta yosh bolasi bilan bizning stansiyaga tushib qolgan va hammasi och-yalang'och bo'lib, sovuqdan titrashib o'tirishgan ekan. Onasi bolalarni eplab-seplab ro'mol-po'molga o'rab qo'ygan bo'lsa kerak, sakkiz-to'qqiz yoshlardagi dastyor o'g'liga hech narsa yetmay, jaldur kamzuldagina tirishib o'tirganmish. Jaynoq o'sha bolaga ustidagi to'nini yechib beribdi. To'nini kiygizib qo'ysa, etagi tovoniga shalpirab, sudralib, yenglari tizzasidan pastga tushib tursa ham, biroz isigan bola, qayta jon kirgandek, qayta tirilgandek kulimsirab, jilmayib, huzur qilib qolibdi. Jaynoq o'shanga xursand bo'lib, yo'l bo'yi sovuqda aravalarning ortidan yugurib, navbatma-navbat o'rtoqlarining kiyimini olib kiyib borayotgan bo'lsa ham, haligi bolani dam-badam eslab: "Yaxshi ish bo'ldimi, bechora bola isib, o'ziga keldi-a?" — deb kelaveribdi. To'g'risini aytsam, bir kishiga to'n yechib berish bilan elning kami ko'sti to'lib, butun bo'lib ham qolmaydi. Biroq, haligidek birga o'n qo'shilib, o'nga yuz, ming qo'shilib, elchilik-yurtchilik, odamgarchilik, jigarbandlik degan narsalar shundan kelib chiqishiga ishonaman. Odam yaxshilikni yerdan topib olmaydi, odamdan o'rganadi. Jaynoq berib ketgan to'n yirtilar, butunlay yo'q bo'lib ketar, aytishga arzimaydigan narsa, biroq gap unda emas, shu kichkina bolaning qalbida birov qilgan yaxshilik uchqunlari saqlanib qolsa, odam bo'lgandan keyin birovga yaxshilik qilish burch ekanini yoshligidanoq tushunib olsa, Jaynog'imning qilgan savob ishi o'shanda.

Eh, endi nimasini aytayin, urush kasofati qancha-qancha odamlarning yostig'ini quritdi, Jaynog'im omon bo'lganda qanday odam bo'lar edi! O', fe'l-atvoringdan, qiliqlaringdan aylanay, bolam, qaydasan, qaydasan? O'n gulingdan bir guling ochilmasdan, qayerlarga borib o'qqa uchding ekan? Oh, dunyo, oh, jonajon Yer, bolamni ko'z ochib yumguncha tiriltirib, diydorini birgina ko'rsatib qo'ysang-chi!..

— To'lg'anoy, sabr qil, o'zingni bosib ol. Unday qilma, o'zingga rahm qil... Yuragingning har bir tepishini g'animat bil. Bo'yningdagi qarzingni unuttingmi?

— Yo'q, sirdosh dalam, unutmayman. Unutmaganligim uchun huzuringga kelib turibman-da. Shu qarz bo'lmaganda hanuzgacha tirik yurgan bo'larmidim, chiqmagan jonim qiltillab, yuragim allaqachon g'alvir bo'lgan-ku. Esingdami, ona-Yer, o'sha mudhish kunlar?

— Esimda, To'lg'anoy. Seni qo'sh haydatib yurgan yeringdan chaqirib ketishganlaridayoq bilgan edim. Odamlarning ko'z qarashidan, kiprik qoqishidan, pichirlashib gaplashganidan sezganman.

— Ha, boychechak ochilgan ko'klam kunlari dalaga endigina qo'sh chiqargan kezlar emasmidi? Kun tegmagan kamarlarda qurt-qumursqalar hali ham karaxt uxlab yotgan bo'lsa ham, mayin shabada esib, yer selgib, kun sayin maysalar nish urib, bahor yaqinlashmoqda edi. Oh, bahorni qo'msab, donning sepilishini orziqib kutayotgan dehqon dalam! Namiqqan yuzlaring ko'kimtir rang olib, olamning chor atrofiga yastanib, allaqayeringda kumush rang taratib, to'shakda yotgan juvondek balqib turganingdan, bepoyon dalam!

Plug tishlari endigina yer bag'rini tilib, nam tuproqning iliq tafti yurakni qitiqlayotgandek edi, traktor orqasidan bamaylixotir odimlab borarkanman, yerga: hosildor, barakali bo'l, urushda yurganlarga quvvat bo'l, deb, Suvonqul bilan Qosimdan ko'pdan buyon xat-xabar uzilganini eslab, o'zimcha o'ylanib tursam, ovuldagi qariyalardan biri kelib qoldi. "E, oqsoqol, kelib qolibsiz, ish boshidan bir fotiha berib yuboring!" — dedim. "Dehqon bobom, xizr nazar qilsin, xirmon barakali bo'lsin, huzurini el ko'rsin! — deb,

u kishi ot ustida fotiha qildi-da: — To‘lg‘anoy, rayondan kelgan vakil, brigadir kelsin, deb chaqiryapti, yurgin”, — dedi. Qo‘shchilarga ishni tayinlab, ovulga yo‘l oldim. Uyimda hech nima yo‘q, rayondan kuniga kattalar kelishadi, ayniqsa yer haydash boshlanganda ko‘proq kelishmaydimi. Qariya bilan asta-sekin uni-buni gapirishib kelar ekanmiz, u kishi gap orasida so‘z qistirib: “Rahmat senga, To‘lg‘anoy! Shunday mushkul kunlarda elga bosh bo‘lib yuribsan, dadil bo‘lib ishlayver. Senga ham oson emas, odamning boshiga nimalar tushmaydi, nimalar o‘tmaydi, degandek bunday og‘ir kunlarda bir-birimizni qo‘llashimiz, madadkor bo‘lishimiz darkor, yo‘q bir-birimizga madormiz, elmiz. El bilan ko‘targan yuk yerda qolmaydi”, — deb qo‘yadi.

Ovulga kiraverib, ko‘cha bo‘ylab kelayotganimizda uyimiz yonida g‘ala-g‘ovur to‘planib turgan xalqni ko‘rib ham hech narsani sezmapman. Qariya menga yalt etib qaradi-yu, cho‘chigandek: “Otdan tush, To‘lg‘anoy”, — dedi. Men hayratlanib qarab turgan bo‘lsam kerak, u kishi otidan tusha solib, mening qo‘ltig‘imdan oldi: “Tush, To‘lg‘anoy, tushishing kerak!” — deb takrorladi. Tilim kalimaga kelmay, butun vujudim junjikib, otdan tushdim. Bir vaqt qarasam, narigi yoqdan Alimanni ergashtirib, uch-to‘rt ayol kelayotgan edi, Aliman o‘sha kuni ariq olishda ishlayotgan edi. Uning ko‘tarib kelayotgan ketmonini bir ayol yelkasidan shartta oldi. Shundagina hammasini tushundim: “Bu nima qilganlaring, voy Xudo, sho‘rim qursin!” — deb ko‘chani to‘ldirib baqirdim. Shu mahal Oysha qo‘shnimning uyidan ayollar chiqa solib, qo‘llarimni mahkam ushlashdi: “Bardam bo‘l, To‘lg‘anoy, Suvonqul bilan Qosimdan judo bo‘ldik!” — deganda: “Ena, enajonim-ey!” — deb chinqirgan Alimanning tovushi chiqqach, turgan odamlarning hammasi: “Jigarim-ey! Jigarim-ey”, — deb o‘kirib yig‘layverishdi: Oh, la’nati urush, maqsading shumidi? Oh, qora kun ko‘rgilik shumidi? Mengina emas, ko‘cha-ko‘y, uylar, dov-daraxtlar chayqalib egilar, yer-ko‘kni buzgan yig‘i tovushlaridan qulog‘im tinib, garang odamdek hech narsani eshitmay, allaqanday bir mudhish jimlik ichida, go‘yo tushdagidek, go‘yo kishilarning yuzini bulut qoplab olgandek ko‘zga chalinib yo o‘lik, yo tirik ekanligimni sezmay, orqamga qayrilgan qo‘llarimni bo‘shatib olishga harakat qilardim.

Yonimda kim borligi, eshik yonida dod-voy solayotgan odamlar kimlar ekani bilan ishim yo'q, mening birgina aniq ko'rib turganim — Aliman. Betini, ko'ylagini yulib, sochlari to'zg'igan kelinim ham nimalarnidir zor qaqshab, chinqirib, ikki yoqdan osilganlarga bo'yin bermay, u ham men tomon tolpinardi. Alimanga tezroq yeta qolsam degan xayol bilan men ham unga intilaverdim, biroq xuddi qirq kunlik olis yo'ldan kelayotgandek bir-birimizga yetolmay, qo'shilguncha ancha vaqt o'tdi. O'rtaga uzoq yo'l tushgandek, bir vaqt Aliman yetib keldi-da, bitgan qulog'im o'shandagina ochildi. Ikki qo'lini yozib: "Boshimizga qorong'i kun tushdi, ena, ayriliq, yesirmiz, yesirmiz! Oy-kunimiz so'ndi, birdek yesirmiz!" — deb, Aliman faryod chekib, o'zini mening quchog'imga otdi. Ha, o'sha paytda ikki yesir qo'shilib, bir-birimizga yongan ko'kragimizni bosib, zor qaqshab yig'lardik...

Ajoyib azamatlar, tog' nurasa bo'lmasmidi, ko'l qurisa bo'lmasmidi! Suvonqul bilan Qosimim, ota-bola ikkovi ham qanday dehqon edi! Dunyoning tayanchi shunga o'xshash zahmatkashlar emasmi: elni to'yg'azganlar ham o'shalar, yov kelganda qo'lga qurol olib, mamlakatni qo'riqlab, qon to'kkanlar ham o'shalar. Agar urush bo'lmaganda, Suvonqul bilan Qosimim qancha odamlarga rizq-ro'z berib, mushkulini oson qilib, ekin ekib, qancha xirmon ko'tarib, qancha ishni bajargan bo'lardi. O'zlari ham el mehnatidan huzur-halovat ko'rib, odamning qancha rohatiga sherik bo'lishar edi. O'ylab qarasang, qiziq, aylanayin, ona-Yer, urush boshlanar ekan-u, u urushda odamzodning eng asl, hunari bor azamatlari o'z ishini tashlab, birining qonini biri to'kib, birini biri o'ldirishga safarbar bo'lishar ekan. Men bunga ko'nikmayman va umrbod ko'nikolmayman. Tabiat tomonidan yaratilgan eng oliy mavjudotlarning eng buyugi — odamzod, dunyoni o'ziga bo'ysundirgan kim — odamzodmi, shunday ekan, bir-biriga bunchalik ziyon keltirmay, tinch-totuv yasholmaydimi? Sirdosh dalam, javob ber, ayt javobingni.

— Qiyin savol berding-ku, To'lg'anoy. Men bilganimdan beri, odam odam bo'lib yaratilgandan beri urushgani urushgan. Ba'zan urushda mutlaqo qirilib nom-nishonsiz ketgan ellar ham bo'lgan, kuli ko'kka sovurilib, tirik jon qolmay, xonavayron bo'lgan sha-

harlar ham bo'lgan. Necha asrlar odamzod iziga zor bo'lib, bo'm-bo'sh yotgan vaqtlarim ham bo'lgan. Har gal urush chiqqanda, gap uqqanlarga, urushmanglar, qon to'kkuncha aql ishlatinglar, deb aytaman. Hozir ham aytadigan so'zim shu: "Ey, odamlar, dunyoning to'rt burchagida yashagan odamlar, sizga nima kerak — Yermi? Mana men — Yerman, men barcha odam bolasiga yetaman, menga talashishlaringning keragi yo'q, menga inoqlik kerak! Mehnat kerak! Shudgorga bitta don tashlasalaring, yuz dona qilib beraman, xipchin sanchsalaring, chinor qilib beraman, bog' qilsalaring, meva tugib beraman, mol yoysalaring pichan bo'lib beraman, uy qursalaring, devor bo'lib beraman, urug'-aymoqlaring ko'paysa, hammalaringga joy bo'lib beraman! Men tugamayman, men xasis emasman, men konman, men hammalaringizga baravar yetaman!" — deyman. Sen endi, To'lg'anoy, odam bolasi tinch yashay oladimi, yo'qmi, deysan. O'zing o'ylab ko'r-chi, u mendan emas, sizlardan, odam bolasining o'zidan, sizlarning inoqliklaringizdan, xohishlaringizdan, aqli idroklaringizdan... Meni urushning zahmatini tortmaydi deysanmi. Maydonda qurbon bo'lgan mehnatkashlarimning: sening Suvonqulingga, Qosimingga, Jaynog'ingga o'xshagan dehqonlarimning mehnatini sog'inaman, ularni yo'qlayman. Yer vaqtida haydalmay, ekin vaqtida sug'orilmay, xirmon vaqtida ko'tarilmay turganda, men ularni: "Kelinglar, polvonbilak dehqonlarim, kelinglar, bolalarim, tezroq turib kelinglar, quvrab ketyapman!" — deb chaqiraman. Afsuski, ketmonini ko'tarib, Suvonqul kelsa qani, afsuski, kombaynini haydab, Qosim bug'doy o'rimiga kirsa qani, afsuski, xirmonga qizil alvon tortib, Jaynoq aravasini quvib kelsa qani!..

— Sen ham mendek bag'ri qon ekansan, g'amxo'r dalam, sen ham mendek sog'inarkansan, sen ham mendek yo'qlar ekansan. Rahmat, senga, jigarbandim Yer!

Bilasan-ku, yomon-yaxshi kunda birga bo'ldik. Suvonqul bilan Qosimning azasini tutib, Aliman ikkalamiz qora kiyinib, aza ochib, yig'imizni ham tugata olmadik. Eshitganimizdan so'ng yetti kun o'tib, yettisini o'tkazganimizdan keyin, el ruxsat berdi: bir yilgacha aza tutsang ham ozlik qiladi, iloj qancha; oxiri baxayr bo'lsin, Maysalbeging bilan Jaynog'ing (unda Jaynoq tirik, xat uzilmay,

kelib turgan payti edi) omon-eson qaytib kelishsin, yoz yorishli deganlaridek, tirikchilik qilinglar, qo'sh haydash vaqtida birdek ishga kirishinglar, o'lganlar uchun dushmandan o'ch olganimiz shu bo'lsin, deyishdi. Kelinim ikkalamiz uyda o'tirganimiz bilan nima qila olardik. O'lganlarning ketidan o'lib ketmas ekansan, ko'pchilikning gapiga ko'ndik, ishga chiqdik. Ishga chiqish kuni ertalab raisimiz Usenboy allaqanday ikkita qog'oz olib keldi, qora qog'ozlar ekan, saqlab qo'yinglar, dedi. Bilsak, Qosimning qora qog'ozi yarim oy burun idoraga kelgan ekan, Moskva ostonasidagi hujumda, Orexovka degan qishloqda qazo qilibdi. Uni bildiramiz deb turganlarida, Suvonquldan ham qora xat kelib qolibdi. U ham Yeles shahrida katta hujumda qurbon bo'libdi. Ovuldoshlarimiz ikki odamimizni bir vaqtda bildirganlarining ham boisi shunda. Undan keyingisining nimasini aytay. Brigadir ekanman, belimni mahkam bog'lab, yana otlanib chiqdim.

— To'lg'anoy, sen kelganda ikkalamiz ko'pni ko'rgan onalar kabi o'tdek tutaqib, jimgina ko'rishdik, a?

— Ha, shunday qilmasak bo'larmidi. Men yig'i-sig'i qilaversam, kelinim undan battar hayotdan bezib ketmasmidi? Bilib turding-ku, kuyoviga shunchalik kuygan juvonni umrimda ko'rgan emasman. Men ham erimdan, ham o'g'limdan judo bo'lib, undan oz kuymagan edim. Shunday bo'lsa ham mening yo'l-yo'rig'im boshqa. Ozmi-ko'pmi, Suvonqul ikkalamiz ancha yil birga umr kechirib, turmushning achchiq-chuchugini birga totib qoldik, bola-chaqali bo'ldik, murodimizga yetdik. Urushning harxashasi bo'lmaganda, birga qarib, buyurganini yana birga ko'rardik. Aliman bilan Qosim bo'lsa endigina qo'shilib, yoshlikning eng shirin paytida, sevgining eng qaynoq kezida, bolta bilan qiya chopilgandek ikkisi ikki tomonga qulab yiqilmadimi. O'g'lim-ku, o'ldi, biroq Alimanning tirik yurishini demasa, tushungan kishiga u ham o'lgan bilan barobar emasmidi. Albatta, Aliman yosh edi; keyinchalik bora-bora, balki, yana o'z tengini toparmidi... Alimanga o'xshash beva qolgan ko'pgina kelinlar urushdan keyin turmushga chiqib ketishdi. Ko'pchiligi baxti ochilib, hozirgi kunda bola-chaqali ona bo'lib qolishgan. O'shalar to'g'ri qiladi. Biroq, hamma birdek emas ekan-da, ba'zi birovlar burungisini tez unutib, jon-jarohati bitgach,

tezda yangi yo'lga tushib olishadi. Alimanning esa, sho'ri qurib, unday bo'lmadi. U boshiga tushgan baxtsizlikka ko'nika olmadi, burungisini unuta olmadi. Bunda mening ham katta aybim bor. Ha, shunga qolganda bo'shlik qildim. Bo'shlik ham deb bo'lmaydi, kelinimni ayab yurib, uning ichki siriga aralasha olmay qo'yganimni nima desam ekan, bo'shlikmi, yo undan ham yomon gunohmi? Esingdami, ona-Yer, o'sha bahorda shu yerda bo'lgan ish?

— O'sha choqda kelining mening betimga chopganini aytyapsanmi?

— Ha, o'shani aytaman. O'sha bahorda bahri dilingni yashnatib qiyg'os ochilgan qizg'aldoq ko'pdan buyon yaydoq qolgan dalangda to katta yo'lga qadar to'shalib yotmovdimi. Gulning chiroylisi qizg'aldoq emasmi, aylanay!

O'sha kezlarda brigadamiz a'zolari bosh ariqni kovlashmoqda edi. Men ham shu yerda qo'shchilar yoniga borib, undan ketmon chopayotganlar yoniga kelib, ot ustida yurardim. Odamlar kun botmasdanoq ariqni chopib bo'lib, ovulga erta tarqalishdi. Alimanga, sen qiz-juvonlar bilan uyga ketaver, orqangdan yetib boraman, dedim-u, berigi tomonga, qo'shchilarning olachig'iga burildim. Birozdan keyin otlanayin deb oyog'imni uzangiga solayotganimda, Alimanni ko'rib qoldim. U uyga ketmasdan shu yerda yolg'iz qolibdi. Gul terib yurgan ekan. Gulni yaxshi ko'rmasmidi. Ana, sho'rlik Aliman, gul suygan, guldek bo'lgan kelinim! Qo'lidagi o'ntacha qizg'aldoqni erkalanib silar, yuziga bosib, qandaydir bir chuqur o'yga cho'mgandek turardi. Uni shu holatda ko'rib, chakkamga issiq ter yugurdi. Shunda uning bir vaqtlar o'roq o'rib yurib, gulxayri tergani esimga tushdi. Shunda u boshiga qizil durra o'rab, qo'liga oppoq gulxayri ushlab olgan emasmidi, hozir bo'lsa boshida qora ro'mol, qo'lida qizil gul, farqi shundagina edi. Aliman o'shanda xayolga cho'mgan boshini yuqori ko'tardi-da, anchagacha tevarak-atrofga nazar tashlab turdi, so'ng osmonga tikilib, birdaniga, buning endi kimga qanchalik keragi bor, degandek, kechirgin, ona-Yerim, sening betingga urgandek, achchig'i bilan qo'lidagi gulni uloqtirdi-yu, o'zi esa yuz tuban yiqilib yotib qoldi. Mayli, yig'lab olsin, deb men olachiqning orqasidan panalab turdim. Shu mahal Aliman o'rnidan yana irg'ib turdi-da, boshi oqqan

tomon, katta yo'lni ko'zlab otilganicha jo'nadi. Esim chiqib, otga mina solib orqasidan tushdim. Qani endi yeta olsam. Oldimda qora ro'molini hilpiratib, qizil gullar ustida qochib borayotgan kelinimni ko'rar ekanman, sarosimaga tushib: "Aliman! Aliman! Bu nima qilganing, voy o'lay! To'xta! To'xtagin!" — deyaveribman. O'sha safar yo'rg'a samanining orqasidan yugurgandek, Aliman katta yo'lga yetib borib, yana qaytib, men tomonga yuzlandi. "Ena! Enajon! Menga hech nima demang! Indamang! Qo'ying!" — deb qo'lini yozib yugurib keldi-da, otning yolini changallab boshini mening tizzamga qo'ydi-da, ho'ngrab yig'ladi. Men indamadim, nima ham der edim, yig'isi bosilguncha qarab turdim. Bir vaqt boshini ko'tarib, Aliman menga qaradi. Oh, o'shandagi ahvolini-yey, yuzidan issiq yosh oqib, ko'zlari shishib ketgan. "Qarang, ena, — dedi u xo'rsinib. — Quyosh shunday yarqirab tursa, dala shunday gullab tursa, musaffo osmon shunday kulib tursa, Qosim kelmaydi-a? Endi hech qachon kelmaydi-a?" "Yo'q kelmaydi", — dedim men. Aliman chuqur xo'rsinib oldi-da: "Kechiring, ena, — dedi. — Qosimning orqasidan yugurib borib, birga o'lay degandim". Shunda men ham yig'lab yubordim. Agar men odam bo'lsam, uzoqni ko'ra oladigan ona bo'lsam, o'shandayoq uning betiga qaramay turib: "Bu sening nima qilganing, yosh bola bo'lib qoldingmi, bundan keyin yashashni istamaysanmi? Senga o'xshagan qancha kelinlar beva bo'lib qoldi. Sabr qil, asta-sekin Qosimni unut, sendek juvon yerda qolarmidi. O'z tengingni yana toparsan. Baxting ochilar. Qo'y, bunday qilma, yomon bo'ladi. Hayotdan bezsang, o'zingning sho'ring. Bardam bo'l!" — demaymanmi, shunday qilib uni yo'lga solmaymanmi? Ammo men shunday deb ayta olmagan edim, haqiqat bo'lsa ham sovuq gap yomon ekan. Keyin ham necha marta shu so'zni kezi kelganda, tilimning uchida tursa ham, tortinib ayta olmadim. Bunga turli sabablar bo'ldi, mendagina emas, Alimanning o'zidan ham o'tdi. Qisqasi, so'zning ham temirdek qiziq payti bo'lar ekan, vaqt o'tgach, bora-bora sovub, bora-bora og'irlashib, bora-bora aytishga qiyinlashib, eski dard zo'rayib ketar ekan. Bu gapni men mana hozir, zamon tinchlanib, oradan qancha vaqtlar o'tgandan so'ng aytyapman. O'sha to'polonli yillarda, kolxozning bitmas-tuganmas ishlari bilan o'ralashib, bu ishni bafurja o'tirib,

o‘ylashga vaqt ham, fursat ham bo‘lmagandi. Bizning barcha harakatimiz, umidimiz, tilagimiz, kutganimiz — ertaroq g‘alabaga erishsak, urush tugasa. Undan keyingi ishning hammasi o‘zicha hal bo‘ladigandek oson ko‘rinardi. Lekin hozir ham urushning achchiq iztirobi bitdi deb ayta olmaymiz... Ha, ona-Yer, bitmagani uchun shu zaylda hammasini qaytadan eslab, barchasini qaytadan qon yutgan yuraklardan o‘tkazib, so‘zlashib o‘tiribmiz-da.

— Gapiraver, To‘lg‘anoy, gapiraver. Bugun so‘z senga. Hikoyangni davom ettiraver.

— Gapirmasdan iloj qancha: hayot o‘zi shunga majbur etadi. Urushning uchinchi, to‘rtinchi yillari davom etib, kishi qalbini dam kuyuntirib, dam suyuntirib, dushman tobora chekinib borayotgan bo‘lsa ham, hech bir cheki yo‘qdek, kuch-quvvatdan tolgan elni battarroq qaddini bukib, tinkasini quritardi. El kuzda, yig‘im-terim paytida mashoq terib, bir amallab kun o‘tkazgan bo‘lsa, qish o‘rtalariga borib topgan-tutgani ham oxirlab qolgan edi. Ko‘klamga kelib tog‘dan qazib olingan o‘t-o‘lanlarning tomirlarini yeyish bilangina kun kechirganlar ham bo‘ldi. Aliman ikkalamiz och-to‘q bo‘lsak ham, sabr-toqat qilib, kolxozning ishidan kun o‘tkazib yurdik. Bolali-chaqali kishilarning kuni juda qiyin bo‘ldi. Oppoq bo‘lib shishib ketgan bolalarni ko‘rganimda jonim achib, o‘zimni aybdor kishidek his etib, ularning “non” deb termilgan ko‘zlariga boqolmay yurdim. Qo‘limdan kelsa borimni ayamay, hatto Suvonqul, Qosimlarning orqasidan borib, sen ham frontda joningni fido qil, shunda bu bolalarning ham qorni to‘yadi, deyishsa hech ham ikkilanmasdan ado etardim. Men bir kuni shu gaplarni Alimanga aytdim. Shunday desam u juda o‘ylanib qoldi. “Rost aytasiz, ena, — dedi u, — katta kishilar-ku nega och qolishganini tushunishadiku-ya, ammo bolalar buning farqiga yetarmidi. Ularning dunyoning hech qanday bordi-keldisi bilan ishi yo‘q. Ularga bizdan ham qiyin. Ularni har qanday bo‘lsa ham, eplab, urush tugab, otalari, og‘alari qaytib kelguncha bir amallab och qo‘ymasligimiz kerak. Bu ikkalamizning ham burchimz, ena. Qo‘ldan kelguncha xalqqa yordamlashib turaylik, foydamiz tegsin. Insonning qadr-qimmati ham shunda-da”. Biroq buning uddasidan chiqish qiyin edi. Ekin ekib, non topgan dehqonlarning nonsiz qolishi tangrining teskari

ishi edi. Bunday paytlarda meniki-seniki degan gaplar bo'lmaydi. Hamma narsa urushga — hayot ham, erk ham, mehnat ham, yosh bolalarning og'zidagi ovqat ham — hammasi-hammasi — so'nggi burda nongacha qonsiragan urushga! Undan hech kim hech qayoqqa qochib qutulolmaydi. Qochib ko'rganlar bo'ldi, yashirishning nima hojati bor, o'sha qochoqlar oxiri aylanib kelib, xalqqa zarari tegar, uning dushmani, qaroqchisi bo'lib chiqar edi. Boshqa nima ham qilardi. Esingdami, ona-Yer, o'sha qishki tun.

— Ha, haligi adashib ketganingni aytyapsanmi?

— O'shani aytyapman. Qirq uchinchi yil qishining o'rtalari edimi, yoki ko'klamning boshlari edimi, haytovur, qor erimay, sovuq bo'lib turgan edi. Tunning qaysi mahali edi, esimda yo'q, el tekis uxlab yotganda allakim derazani sindirgudek urib: "To'lg'anoy! Brigadir! Tur tezroq! Uyg'on!" — deb qichqirdi. Hushimiz ketib, Aliman ikkimiz sakrab turdik. "Ena! Ena!" — dedi Aliman qandaydir bir quvonchli hodisani sezgandek tovush bilan. Aldoqchi sarobdek doim xayoldan ketmas umid shu mahalda mening qalbimga ham bir uchqun tashlasa-ya: askarga ketganlardan biri kelib qoldimi, degan o'y xayolimga kelsa bo'ladimi. "Sen kimsan? Sen kimsan?" — derazaga yugurdim. "Eshikka chiq, To'lg'anoy! Bo'l ertaroq! Saroydan ot o'g'irlandi!" — dedi kelgan kishi. Aliman chiroqni yoqquncha etigimni kiya solib ko'chaga chopib chiqdim. Ot saroyiga raislar ham yetib kelgan ekan. Saman yo'rg'a bilan birga, — uni biz kolxozga topshirib yuborgan edik, — aravaga qo'shadigan yana ikkita ot yo'q. Brigadamizning ko'klamgi yer haydashga mo'ljallangan ajoyib otlari edi. Otboqar otlarga tungi yem-xashagimni solayin deb pichanxonaga ketganda o'g'irlab ketishibdi. Kelsa, saroy qorong'i, chiroq o'chgan, shamol o'chirgan bo'lsa kerak, deb shoshmay yoqi qarasa, berigi chetda uch otning o'rni bo'sh. U paytlarda uchta ishchi otni yo'qotish kolxoz uchun hozirgi paytda o'nta traktorni yo'qotgandek gap edi. Qolaversa, bu hodisa frontdagi soldatlarning har biridan bir burdadan nonni tortib olgan bilan barobar emasmidi. Hammamiz otlanib, ba'zi birovlar o'qlangan miltiq olib, otlarni izlashga tushganimizda, o'g'rilar yo'liqsa sog' qo'ymas edik. Xudo haqqi, sog' qo'ymas edik! Biroq yetolmadik, uzab ketishgan bo'lsa kerak, qayoqqa ketganini kim bilsin.

Ovuldan chiqib, ikki-uch to‘pga bo‘linib turli tomonga qarab qidirishib ketdik. O‘shanda adashib qolmadimmi. Minganim kolxozning zotdor ayg‘iri edi, jonivor, qamchi tekkizmay, olib uchib, katta yo‘ldan o‘tib, tog‘ tarafga yo‘l olganimni bilaman, orqamdan kelayotganlar ham bor edi, boshqa tomonga urib ketishganmi, ulardan uzab ketganimni anchadan keyin bildim. Qaroqchilarning qorasi qayerdan ko‘rinarkin, deb tizginini bo‘sh qo‘yib, keng dalalar bilan uchib borayotgandim, bir mahal ot taqqa to‘xtaganda, boshimni ko‘tarib qarasam, oldimda katta jarlik. Tog‘ etagiga kelib qolibman. Qorayib ko‘ringan qir ortidan to‘lin oy bolqib, yulduzlar chaqnashib, osmon charaqlab turgan ekan. Izg‘irin yaxlab qolgan qorlarni yalab, qurib qolgan oqquraylarning qaddini bukib, hushtak chalib, nuragan chaldivorlar ichida ukki, boyo‘g‘lilar guk-guklashib yotgan edi. Bu tunda olamning qayerlarida qancha yaxshi, qancha yomon ishlar bo‘lib turgandir. Tarixning katta-kichik voqealari sodir bo‘layotgandir, xuddi shunday bizning ovulimizda ham mudhish tun bo‘ldi. Otlarni kim o‘g‘irladi, qanday odamlarikin? Shunday paytda elining uvol-savobidan qo‘rqmagan kimlar bo‘ldi ekan? O‘g‘rilar jarlikdagi to‘qayzorda bekinib yotishgan bo‘lmasin, deb soyga tushib qaradim, hech narsa ko‘rinmasdi, bir tulki “lip” etib to‘qayzor ichidan chiqa qochdi-da, oy nurida ko‘kimtir tovlanib jarlik bilan kumush quyrug‘ini sudrab g‘izillab keta boshladi.

Ovulga qaytdim. Jarlik bo‘ylab kelayotib esimga tushdi: Jekshenqul degan kimsa askardan qochib kelgan emish, yonida ikkita o‘rtog‘i ham bor. Sariq Yoyiqdagi qozoqlardan emish, degan mish-mish gaplarga uncha ishonmagan edim. Odamlar urushda o‘t ichida jon olib, jon berib yotsa, qanday qilib bular bunda yakka boshini olib qochib, bekinib yursin? Bu nima degan yuzi qoralik: “Sen o‘lsang o‘laver, men qolsam bo‘lgani, deganimi? Shu ham insonlikmi?” — deb o‘ylab kelardim. Ovulda har kimning fe’li aniq ma’lum emasmi. Unda bunday pastkashlikka boradigan hech kim yo‘q edi. Qolaversa, uch yilqini birdan qanday hazm qila olarkin? O‘g‘ri chetdan kelgan. Boyagidek chetlab, o‘zini olib qochib yurgan, tog‘-toshni oralab yurganlargina bu ishning uddasidan chiqishi mumkin, degan fikrga keldim. Jekshenqullarning askardan qochib yurgani chin bo‘lsa, hoynahoy, o‘shalarning ishidir bu, degan gu-

monga bordim. Bunday desam, o'g'rini ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab olgan yerim yo'q. Biroq, Jekshenqullar bilan ham yuzlashishga to'g'ri kelib qoldi. Bu ish ko'klamda sodir bo'lgan edi.

To'g'risini aytsam, kolxozning kundalik tashvishlari bilan yurib, bu voqea yoddan ham ko'tarilay deb qolgan ekan. Uch ot ikki tishli plugni o'g'irlash bilan barobar degan gap, lekin iloji qancha, g'unon-sunonlarni eplab, brigadaning pluglarini bir amallab o'rnini to'ldirdik. Shu bilan qo'sh haydash ham boshlanib ketdi. O'g'ri emas, Xudoni ham unutib yuboradigan vaqt boshlandi. Hayotimdagi eng mashaqqatli ko'klam o'shanda bo'lgan edi. El nima qilsin, el ishlasak deydi, lekin ochlikdan sillasi qurib, ketmon ko'tara olmaydiganlar ham bo'ldi. Ilgarigidek kuch-quvvat yo'q, bir kunlik ish haftaga cho'zilib ketardi. Buning ustiga, kolxozda urug'lik ham yetishmasdi. Hampaning[1] bor-yo'g'ini sidirib, har bir donni bittalab terib olib brigada planini bazo'r bajardik.

O'sha kunlarda xalqning ahvolini ko'rib juda achindim. Mehnat kuniga hech narsa olmasa, yeyishga noni bo'lmasa, nima, elni qiramizmi. Endigi ko'klamda bundan beshbattar ocharchilikka duchor bo'lamiz-ku. Yo'q, bu holda yashash mumkin emas, qanday qilib bo'lsa ham bir yo'lini topish kerak, deb yurib, hov yuqoridagi bekor yotgan yerlar bor edi-ku, o'shani haydatib, urug' septirmoqchi bo'ldim. Raisga maslahat soldim, raykomgacha bordim, tushuntirdim: buni biz plandan tashqari o'z kuchimiz bilan elning mehnat haqiga mo'ljallab ekamiz, dedim. Stolga bag'rini berib o'tirgan kimdir birov: "Yo'q, bunday qilish mumkin emas. Agar biz bunga yo'l qo'ysak, kolxoz ustavini buzgan bo'lamiz!" — dedi. "Ustaving qora yerga kirsin! — dedim men. — Biz och yursak sizlarga kim non topib beradi?" — desam: "Og'zingga qarab gapir, o'lging kelyaptimi?" — deydi. "Og'zimga qarab gapiryapman. Biz ishga yaramay qolsak, frontdagi soldatlarga kim non topib beradi? Buni o'ylamaysanlarmi?.."

Xullas, oxiri rozi bo'lishdi. Biroq gap boshqa yoqda edi — sepishga urug' yo'q edi. Kolxozning hampasida don degandan irimiga qolmagan-ku, uni qayerdan olaman. Boshim qotib, oxiri elni yig'ib maslahat soldim, hamma gapni, bor maqsadimni aytdim:

[1] Omborxonada don saqlash uchun ajratilgan qism.

"Qani xaloyiq, maslahatli to'y buzilmas, deganlar. Nima qilamiz, kelgusi ko'klamda ham shunday gezarib o'tiramizmi, yo bir harakatimizni qilamizmi? Mana bu ekilganlardan umid qilmaylik, yashirishning nima keragi bor, uning urug'ligidan boshqa hammasi frontniki, urushda yurgan askarlarning rizqi. Agar urug'lik topsak, plandan tashqari yer haydab ekin ekish niyatimiz bor. Uning hosilini mehnat haqiga, qari-qartang, yetim-yesirlarga bo'lishtirib beramiz. Menga ishonsalaring hamma minnatni, javobgarlikni o'z bo'ynimga olaman. Gapning po'skallasi shuki, yeb o'tirgan tishlaringda saqlab turgan don-dunlaringni beringlar. Yerga sepaylik. Mayli, hozir yemasak yemaylik, sabr qilaylik, sut-qatiq ichib bo'lsa-da, bir amallab pishiqchilikka yetib olarmiz. O'zlaring uchun, bola-chaqalaring uchun mardlik ko'rsatinglar, aylanaylar, yo'q demanglar, chaynab turganlaring bo'lsa ham beringlar, vaqt o'tmasdan urug'ni sepib olaylik". Odamlar yig'ilishda xo'p deyishgani bilan ish boshlanganda qiyin bo'ldi. Ayniqsa, ko'p bolali onalar xuddi o'lmay turib qo'lidan hech narsa bermaydigandek, xullas, ular urushni ham, hayotni ham, kolxozni ham qarg'ab, yashirib o'tirgan bug'doyi bormi, arpasi bormi, bolalarining rizqini qiyib bo'lsa-da, berishdi. Aravani kechgacha uyma-uy qatnatib, birovga yaxshi, birovga yomon gapirib, hatto aytishib ham qoldik, oldi bir pud bug'doy, keti kilodan suli bersa ham unganini, barini qo'ymay yig'ib yurdik. Mayli, bir qism don — shu ham foyda, kuzda o'sha bir siqim dondan bir pud hosil olsak hozirgining o'rnini qoplamaydimi, degan o'ydaman. Shunday bo'lmasa bu ishga qo'l urmasdim. Qanday bo'lsa ham o'shanda nima uchun munchalik qattiqqo'llik qildim ekan-a? O'ngga qarab kulib, chapga qarab yig'lab hech kimni ham ayaganim yo'q. Bir xillarining qo'lidan tortib olgandek bo'ldim. Bechora qo'shnim Oyshaning o'shandagi holatini sira unutmayman. Kuyovidan erta ayrilib (Yomonboy urushdan burun qazo qilmadimi), g'am chekib yurib, Oysha kasalmand bo'lib qolgan edi. Sal tuzalganda kolxozda mehnat qilib, tomorqada ishlab yolg'izi Bektoshni arang boqib katta qildi. O'zi ham so'nggi kunlarda ishga yarab, oilasini tebratib qolgan edi. O'sha kunlarda Bektoshga urug' yiqqan aravani haydatib qo'ygan edim. Ularning uyining to'g'risiga kelganda: "Bektosh, uylaringda hech narsa bormi?" — dedim.

"Ozgina bor, — dedi bola. — Pechkaning orqasida, to'rvachada". "Bo'lmasa olib chiq", — desam: "Yo'q, To'lg'an opa, o'zingiz borib oling", — dedi.

Ikki-uch kundan beri og'rig'i zo'rayib, Oysha uyda yotgan ekan, dardning zo'ridan ranglari siniqib ketibdi. "El qatori beradiganingni bergin, Oysha", — degan edim: "Bori-budimiz shu", — deb to'rvachani ko'rsatdi. "Shuni bo'lsa ham bergin. Urug'liqqa yer tayyor, sepmoqchimiz", — desam, Oyshaning qovog'i uyilib, indamay qoldi. La'nati yo'qchiligi-ey, odamni qanday xor qiladi! "Oysha, bu bilan ko'p bo'lsa o'n kun tirikchilik qilarsan, lekin hali qahraton qish turibdi, kelgusini ham o'ylash kerak, bolangning ahvolini qara, ko'chada aravasi bilan kutib turibdi", — dedim. Oysha yerga tikilib turib yalinib-yolvordi: "Bor bo'lsa ayaydi deysanmi, To'lg'anoy. O'zing ko'rib turibsan-ku, men bunday yarimjon bo'lsam, oxiratli qo'shnimsan-ku..." Ko'ngilchanligim tutib bo'shashib ketdim, biroq shu zahotiyoq ko'ngilchanlikni yig'ishtirib qo'ydim: "Men brigadirman, ko'pchilik uchun shu doningni olib ketaman! — dedim-da, o'rnimdan turib, to'rvachani qo'limga oldim. Oysha indamay teskari qaradi... Olti-yetti kilo bug'doy ekan. To'rvasi bilan olib ketaverayin dedim-u, yana ko'nglim bo'lmay, yarmini katta tovoqqa to'kdim. "Menga qara, Oysha, yarmini oldim, xafa bo'lmagin", — dedim. Oysha men tomon qaraganda, ko'zidan oqqan yoshlar betiga sizilib tushayotgan ekan. O'shanda tashlab ketaversam bo'lmasmidi. Bunday bo'lishini kim bilibdi, to'rvachani ushlagan bo'yimcha uydan chopib chiqdim. Odamni bunday qiynagandan ko'ra, e, qurisin bu dunyosi! Nega, nega shunday qildim ekan? Hozir ham shu qilmishlarimni eslasam — kechirolmayman.

— Yo'q, To'lg'anoy, sening unda hech qanday gunohing yo'q. Sen elga yaxshilik qilayin degan eding, aksincha bo'lib qolmadimi.

— Ha, aylanayin dehqon dalam, sen bariga guvohsan: niyatim xolis edi. Agar o'shanda ovuldagilar yopirilib urib o'ldirishsa ham rozi edim. Bilasan-ku, ikkita katta qop urug'lik don to'plandi. Uni biz g'alvirlab, tozalab dalaga o'zim chiqarib qo'ygan edim. O'sha kuni qo'yib tursam ham bo'lardi. Haydaladigan biroz yer qolgan

edi. Biroq men tezroq ekib olsam deb shoshilardim. Ertasi kuni azonda turib urug‘ sochmoqchi edim. Urug‘ tayyor, yer tayyor, deyarli hamma ish ko‘ngildagidek borayotgan edi. Kechga tomon uyga kelib nimagadir unnadim, tinchim yo‘q edi. Kunduzi Bektosh bilan yana bir bolaga baronalarni aravaga solib, dalaga olib borib tashlanglar, deb tayinlagan edim. “Bola, bolaning ishi chala” deganlaridek, ular aytganimni qilishdimi, yo‘qmi, deb ishonolmay Alimanga aytdim: “Men qo‘shchilar tomonga borib kelayin, tezda kelaman”, — deb otlanib jo‘nab ketdim. Ovuldan o‘taverib otni yo‘rttirib haydadim. Qosh qorayib, hamma yoqni zulmat qoplab olayotgan edi. Qo‘shchining boshiga yetmay shudgorda omochga qo‘shilgan ho‘kizlar o‘z holicha yuribdi, yonida hech kim yo‘q. Nega shu mahalgacha ho‘kizlarni qo‘shdan chiqarmadi ekan, deb qo‘shchi boladan achchiqlandim. U juvonmarg qayerlarda yuribdi ekan, deganimcha bo‘lmay, yo‘l bo‘yida molalari bilan ag‘darilib yotgan aravani ko‘rib esim chiqib ketdi. Aravaning yonida hech kim yo‘q. “Hoy bolalar! Qayoqda yuribsizlar, qayerdasizlar? Kim bor bunda?” — deb qichqirdim. Odam zoti yo‘qdek hech kim javob bermadi. “Bu nimasi, bular soqqa o‘xshamaydi-ku”, — deb olachiqqa chopib bordim. Otdan sakrab tushib, gugurt chaqib, kirib kelsam, Bektosh, o‘rtog‘i, qo‘shchi bola uchalasi qo‘llari bog‘langan holda yerda yotishibdi, kiyimlari titilib, yuzlari qonga botgan, og‘izlariga latta tiqilgan. Bektoshning og‘zidan lattasini yulib olib: “Urug‘! Urug‘ qani!” — dedim. “Olib ketishdi! Urib, olib ketishdi!” — deb o‘g‘rilar ketgan tomonni boshi bilan irg‘ab ko‘rsatdi. O‘sha yerda qanday bo‘lganini bilmayman, otga irg‘ib minib quvishga tushdim.

Umrimda munaqa ot choptirmagan bo‘lsam kerak. Pichoq suyakka yetganda odam hech narsaga qaramas ekan. Qorong‘i tun emas, mayli, zimiston bo‘lsin! O‘z uyimni o‘g‘ri urib, o‘z mulkimni olib ketishsa roziman, xirmonga qo‘l solib, o‘n qop g‘alla olib ketsa chidar edim — xirmonning chorisi der edim, biroq bu urug‘ uchun jonimni berishga tayyor edim!..

— Ha, To‘lg‘anoy, elning og‘zidan tortib olingan har bir don uchun, odamning qonidan qimmat o‘sha urug‘ uchun joningni qurbon qilsang ham oz edi. O‘shanda sen zim-ziyo tunni larzaga solib:

“To‘xta! To‘xta! Yuzi qoralar!” — deb shunday dahshatli qichqirgan edingki, men uyquga ketib borayotganimda cho‘chib uyg‘ondim. Sen, otingning to‘rt tuyog‘i dupurlab, o‘g‘rilarga yaqinlab kelayotgan ekansan.

— Ha, olamni buzib hayqirganim rost. O‘shanday hayqirib kelayotganimda niyatim pok ekan, o‘g‘rilarning orqasidan bilgandek yo‘l solibman. Ko‘p o‘tmay oldinda o‘g‘rilarning qorasi ko‘rinib, otlarning taqalari toshga urilib eshitila boshladi. Uchta ekan. Otga qoplarni o‘ngarib, tog‘ tarafga urib ketishyapti. “To‘xta! Urug‘likni tashlanglar! Tashlanglar urug‘likni! Tashla deyman!” — deb qamchi bosib kela boshladim. Oramiz tobora qisqaraverdi. Ular qoplarni ortib olgani uchun qattiq chopib ketisha olmadi, lekin urug‘ni ham tashlashmadi. Qaysi biridir o‘rtada yo‘rg‘a minib borayotibdi. Ilgarigi sinchiligim emasmi, orqasidan tanidim, yurishidan, orqa ola tuyog‘idan tanidim — bizning saman yo‘rg‘a ekan. Qishda otlarni o‘g‘irlab ketganlar shular emasmikin? “To‘xta! Men tanidim senlarni, men tanidim seni, Jekshenqul! Sen, Jekshenqulsan! Qutultirmayman endi seni, to‘xta!” — deb hayqirib kelayotsam, chindan ham u Jekshenqul ekan, yo‘rg‘aning boshini bura solib, otdan “lip” etib tushdi-da, qorong‘ida ko‘zlarimni qamashtirib miltiqning og‘zidan yarqillatib o‘q uzdi: gumburlagan tovush bilan qo‘shilib, otim munkib ketib, ustidan do‘ppidek uchib tushdim. Yiqilayotib bu otilgan miltiq ekanligini, o‘q yelkamga tekkanini sezdim. Undan boqshasi menga qorong‘i edi.

Bir vaqt o‘zimga kelib, ko‘zimni ochsam, tevarak-atrofim jimjitlik, chalqancha tushib yotgan ekanman, butun vujudim o‘zimniki emasdek zirqirab og‘rirdi, qimirlashga darmonim yo‘q. Yonginamda goh pishqirib, goh tepinib, oyoq silkib, o‘q tekkan ot jon talvasasida yotibdi. U shu ahvolda biroz pishqirib, qiynalib yotdi-da, keyin qimirlamay, cho‘zilib qoldi. U bilan birga bir zumga hayot to‘xtab qolgandek tuyuldi. Sukunatli tunda yolg‘iz bir o‘zim qoldim... Men qimir etmay yotardim, qimir etishga harakat ham qilmasdim. Qanday ishlar bo‘lib o‘tganini o‘shandagina tushundim. Shu bo‘yicha ko‘zim yumilib ketsa, o‘lsam dedim. Elga endi nima deyman, qaysi ko‘zim bilan qarayman? Ko‘zlarimga yosh to‘lib, osmonga tikilsam, nursiz — xira somon yo‘li tepaga kelib, xud-

di Oyshaning yuzlaridan oqqan ko‘z yoshlaridek bo‘zarib, sarg‘ayib turgan ekan. Titragan lablarimni tishlab, el uchun, yurt uchun so‘rab, tilab, Oyshalarni yig‘latib tortib olgan urug‘imni o‘g‘irlab ketgan qochqindilarni qarg‘adim: “Ilohim, qon to‘kkan elning uvoli tutsin senlarni! Urushning uvoli ursin seni, Jekshenqul! Shunday qilib yashaganingdan ko‘ra dunyoga kelmay qo‘ysang bo‘lmaydimi? Suvonqulim, Qosimim ichgan suvni sen ham bulg‘ab ichib yurgan ekansan-da, tuf betingga!..”

Men anchagacha shu ahvolda yotdim. Bir vaqt kimdir birovning oyoq tovushi eshitildi. “To‘lg‘an opa! To‘lg‘an opa-a-a-a!” — degan bolaning yig‘lamsiragan tovushidan tanidim — Bektosh. Izlab yurgan bo‘lsa kerak. Boshimni arang ko‘tarib: “Bektosh, beri kel”, — deb chaqirdim. Odam-da, otasining bolasi-da, yonimga yetib kelib: “To‘lg‘an opa, sog‘-salomatmisiz, To‘lg‘an opa?” — deb boshimda yig‘lay boshladi. “Sog‘-salomatman, belim sal turg‘izmay turibdi, tuzalib qolsa kerak”, — desam: “Bu hech nima emas, sog‘ayib ketasiz, To‘lg‘an opa”, — deb biram suyunib, narigi yoqda izlab yurgan o‘rtoqlariga: “Bolalar, beri kelinglar. To‘lg‘an opam bu yerda ekan, omon-eson, omon-eson ekan!” — deb qichqirdi. “Endi opangga nima deb javob beramiz?” — desam, Bektosh biroz indamay turib: “Javobini men o‘zim beraman, To‘lg‘an opa. Elning bariga javobini o‘zimiz beramiz, To‘lg‘an opa. Hech nima emas”, — deb, bola-da, o‘shanda o‘n to‘rt, o‘n beshlardagi kezi emasmi, izza bo‘lganiga chiday olmay yig‘lab yubordi. Mushtlarini qisib, joyidan irg‘ib turib tog‘ tarafga qarab qo‘l siltab gapirdi: “Biz bari bir o‘lmaymiz. Ko‘rasanlar-ku, men ham ulg‘ayib yetilarman, bu qilmishlaringni hech qachon unutmayman!” — dedi. Uning shu mardona so‘zi uchun ko‘nglim bo‘shashib yig‘ladim. Shunday qilsam, yig‘lamang, To‘lg‘an opa, men ham sizning bolangizman, men ham ulg‘ayaman, Qosim akamning o‘rnini bildirmayman, deb qo‘ltig‘imdan suyab, o‘rnimdan turg‘azdi.

Bolalar meni aravaga solib uyga keltirishib qo‘yishdi. Ikki-uch kun og‘rib, to‘shakda yotdim. Ovuldagilarning birontasi qolmay, ko‘ngil so‘rab kelib-ketib turishdi. Elga rahmat, roziman, o‘shanda hech kim hech nima degani yo‘q menga. Shunday bo‘lsa ham ko‘zlagan ishim bitmay qattiq koyindim. Shudgor qilingan yerlar

qotib ketib, urug‘ sepilmay, o‘g‘rilarga yem bo‘lib ketganini eslaganim sari yuragim achishib yurdi.

— Gaping to‘g‘ri, To‘lg‘anoy. Sengina emas, men ham sezdim buni. O‘sha — ekilmay qolgan shudgor mening tanimda bitmay qolgan yaradek bo‘lib, o‘rni ko‘p vaqtgacha bilinib yurdi. Shudgorga urug‘ sepilmasa mening eng katta jarohatim o‘sha emasmi, To‘lg‘anoy. Urushning aybi bilan qancha urug‘ sepilmay, qancha odamlarning umri xazon bo‘ldi. Mening eng yomon ko‘rganim, mening ashaddiy dushmanim urush boshlaganlar, ular urug‘ ham sepishmaydi.

— To‘g‘ri aytasan, urush bilan dehqonchilik bir-biriga qarama-qarshi emasmi. Urushgan ekin ekmaydi, demak, u boshqa odamlarning nasibasiga qo‘l soladi, demak, u boshqa odamlarning dushmani! Maysalbek, aylanib ketay, o‘g‘lim, u ham o‘sha xatida yozmaganmidi. Esingdami ona-Yer, Maysalbekning yozgan xati.

— Men uni yod bilaman, To‘lg‘anoy.

— Ha, sen ikkovimiz uni yod bilamiz. Bugun mening sig‘inadigan kunim, bugun biz hammasini esga olamiz, ona-Yerim.

— So‘zlayver, To‘lg‘anoy. Sening bu aytganlaring eskirmaydi, hamisha yangidek. Maysalbegingning yozgan xatini yana bir qaytarib aytib ber-chi. Maysalbek faqat sening o‘g‘lingmas, u mening ham o‘g‘lim, Maysalbek — Yer o‘g‘li!

— Men o‘shanda uyda og‘rib yotganimda, ovuldoshlarim hol-ahvol so‘rab, hammasi ham iliq so‘zlar aytib, ko‘ngil ochib yurganlarining ham sababi bor emasmidi. Men uning bir uchini sezib qolgandek ham bo‘ldim.

Oysha qo‘shnim, bechora o‘zi arang kun o‘tkazib yuribdi-yu, menga quymoq pishirib olib chiqibdi. U uyga kirib kelganda o‘sha kungi qilmishlarimga qattiq izza bo‘ldim. So‘z topolmay tilim kalimaga kelmay qoldi. “To‘lg‘anoy, sen xayolingga hech narsani keltirmagin, — dedi Oysha. — Mening ko‘ngli bo‘shligimni kechirgin. Sendek ayol uchun kerak bo‘lsa jonimni ham ayamayman, kerak bo‘lsa yolg‘iz o‘g‘lim Bektoshni ham beraman. Busiz ham u ikki uyning o‘rtasidagi bola bo‘lib qoldi. Seni mendan ortiq ko‘radi u. Sen biz bilan odamsan, biz sen bilan odammiz. Shuni tushunib qo‘ygin”, — dedi. “Rahmat bu aytganlaringga”, — dedim men

ham. Bu gaplarni shunchaki aytdi-qo'ydi deb o'ylasam, yo'q, chin yurak so'zlari ekan.

O'sha kunning ertasiga bel og'rig'im yengillab, uyda nari-beri qimirlab, eshikka chiqdim. Derazaning ostiga kigiz solib, oftobda isinib o'tirdim. Alimanni ishga chiqavergin, desam, raisimiz bugun ham enangga qarashgin, deb ruxsat berdi, dedi. O'choqda o't yoqib, Aliman kir yuvdi.

Eshik oldidagi bahaybat keksa olma o'sha yili qiyg'os gullab, yana kuchga to'lib yasharganda, ochilib, shamol tekkanda shoxchalaridan oppoq gullar to'kilib yotdi. Olma gullagan kezda havo ham zumrad buloqdek tiniq, g'oyatda toza bo'lmaydimi. Olisdagi yiltillagan qorli tog' cho'qqilari ham ko'rinib turardi. Shunday o'tirganimda ko'chadan pochtachi Temir chol kirib kledi. "Horma, To'lg'anoy", — deb anchagacha so'zlay olmay, shoshilib, o'zicha negadir shumshayib, yengil yo'talib, shamollab qolibmanmi, qurg'ur deb so'zlanib, senga xat bor edi, degandek, sumkasini axtarib, xat berdi. Uning bu sekin imillashiga achchig'im kelib: "Tezroq aytmaysanmi, zoriqtirmay, kimdan ekan?" — desam, Maysalbekdan chog'i, dedi. Suyunib, yuragim hovliqqanidan, hamisha Maysalbekning xatlari uch burchak bo'lardi, bu safar bosma bilan bosilgan to'rt burchak, sirti qalin atlas qog'oz ekaniga ham e'tibor bermabman. Shu payt yarador oyog'ini sudrab qo'ltiqtayoq bilan qo'shnimiz Bektursun kelib qoldi, zerikkanda kelib gurunglashib ketardi. Xat kelgan shekilli, ho, Maysalbekdan-ku, deb sabrsizlik bilan ko'rishdi. "Qo'ling nega qaltiraydi? Beriroq o'tirib o'qib berchi", — dedim. Shunday desam kigizning chetiga o'tirayotib, voy oyog'im, deb og'riqsinib, rangi ko'karib, terlab ketdi o'zi ham. Xatni qo'li qaltirab arang ochdi-da, o'qiy boshladi. Oh sho'rlik bolam, sho'rlik xat...

"Onajonim, oq sutingizdan aylanayin, onajonim! — deb boshlabdi xatini. — Men sizning qanday odam ekanligingizni bilmasam, bu xatni yozmas edim. Sizning aqilligingizga, g'ayratingizga, sizning kuch-qudratingizga ishonib shularni yozayapman. Shunday bo'lsa ham nima deb tushuntirishga, nima deb aytishga so'z topolmay, allaqanday oq qog'ozni qoralab o'tirgan chog'im.

Axiri mening qilgan ishimni to‘g‘ri deb toparsiz, men bunga o‘zimga ishongandek ishonaman. Ha, ona, so‘zsiz meni to‘g‘ri dersiz... Shunday bo‘lsa-da, tushunsangiz ham yuragingizning tagida menga degan aytilmagan savol qolar: “Bolam, qanday qilib o‘z umringdan o‘zing kechding? Odamga bir martagina nasib bo‘ladigan bu yorug‘ dunyo bilan o‘zing vidolashib ketaverding? Men seni nimaga tug‘ib, nimaga o‘stirdim?” Ha, ona, siz onasiz. Sizning bu savolingizga tarix keyin javob berar. Bu endi mening aytadiganlarim, urushni biz tilab olganimiz yo‘q, bu ko‘pning boshiga kelgan qirg‘in, butun insoniyatga qilingan zulm bo‘ldi. Biz u bilan kurashmay qololmaymiz, uning uchun qon to‘kib, uning uchun jon berib, uni yer bilan yakson qilishga majburmiz. Shunday qilmasak bizning odam degan nomimiz o‘chadi. Men urushda yurib mardlik ko‘rsatayin deb hech qachon orzu qilmagan edim, men o‘zimni eng bir faxrli, eng bir olijanob ishga — muallimlikka bag‘ishlagan edim. Zamon shunday keldi. Bolalarni o‘qitish o‘rniga qo‘limga qurol ushlab, jangchi bo‘ldim. Bu mening aybim emas.

Mana hozir maktabda o‘quvchi yoshlarga mening birinchi va eng oxirgi berib ketar vasiyatim shu, ularga berib ketgan bilimim ham shu. Bunga men hayotdan olgan hamma bilimimni, vujud-u dilimni qo‘shdim.

Bir soatdan keyin men Vatanim topshirgan ishga borib, qaytib kelmayman, dushman to‘dasiga borib, uni qiyratib, o‘zim ham yo‘q bo‘laman. Vatan uchun, el uchun, g‘alaba uchun dunyoning barcha yaxshiligi uchun...

Bu mening so‘nggi xatim, so‘nggi qalam tebratishim, so‘nggi so‘zim. Ona, ming bor ona desam ham qadringizga yeta olarmidim, tushuning: bu oddiy o‘lim emas, bu osongina jondan kechish emas, bu hayot kechirishning eng tengsiz turi. Balki quloqqa qayta-qayta o‘qilsa ham, bu yashash uchun bo‘lgan o‘lim. Men hozir shuni o‘z ixtiyorim bilan tanladim. Mening hech qanday tap tortgan yerim yo‘q. Vatanim shu ishni menga ishonib topshirgani uchun faxrlandim.

Meni yo‘qlamang, ona. Meni beiz ketdi ham demang. Dunyoda bundan keyin urush bo‘lmasa, yangi ko‘z ochgan bolaning ingalagani — o‘sha men, bo‘y yetgan qizlarning sevgi to‘la yoniq

ko‘zlari — o‘sha men, muallimning bolalarga birinchi o‘rgatgan “a” harfi — o‘sha men, o‘shaning bari men, o‘shaning bari men, men, deb bilib yuring, onajonim!

Yig‘lamang, onajonim, hech kim yig‘lamasin. Bunday o‘lim uchun hech kim yig‘lamasin. Alvido, mangulikka xayr, alvido!.. Alvido, cho‘qqilaringdan aylanayin, Ola tog‘!

Sizning muallim o‘g‘lingiz — leytenant Maysalbek Suvonqulov.

Front. 1943-y. 9-mart. Tungi soat 12”.

Qayg‘u-alamdan zil tortgan boshimni zo‘rg‘a ko‘tarib qarasam, hovlida el to‘planib turibdi. Bari birdek indamay, boshlarini quyi solib, aza tutib turishgan ekan, hech kim tovush chiqarib yig‘lagani yo‘q. Maysalbek hech kim yig‘lamasin degan emasmi. Ayollar meni qo‘ltig‘imdan suyab zo‘rg‘a turg‘izishdi. Gullagan olmaga shamol tegib, butoqlardan uchgan oppoq gullari yuz-ko‘zimga urilib, yumshoqqina silab o‘tardi. O‘sha gullagan olmaning narigi yog‘i, ovulning ustki tomoni, olisdagi tog‘ning tepasi, uchi-cheki yo‘q musaffo osmon ekan. Dunyoning munchalik keng ekanini ko‘rib, olamning munchalik tor ekanini sezganimda hamma yoqni buzib, bo‘zlab, hayqirib yig‘lagim keldi. Biroq bunga erk bermay, lablarimni mahkam tishlab turdim. Aliman boyadan beri qanday turganini bilmayman, men uyda turganimda ikki qo‘lini yozib, ko‘r kishidek meni ko‘zlab, timirskilanib kelaverdi-da, birdaniga yuzlarini qo‘li bilan berkitib, teskari burilib ketdi.

Mana shunday qilib o‘rtancha o‘g‘lim Maysalbekdan ham ajraldim. Tashlab ketgan qalpog‘i qoldi.

— Menda esa Maysalbekning vatani degan nom qoldi, To‘lg‘anoy. Elga qilgan ishi, dong‘i qoldi.

— Ha, Maysalbekning oti o‘chgani yo‘q. Botir degan nomini ardoqlab qishlog‘imiz “Maysalbek” nomidagi kolxoz bo‘ldi. Frontdagilar Maysalbekning yozib ketgan xatiga o‘zlarining xatlarini qo‘shib, qishloq Sovetiga yuboirshgan ekan. U xatda Maysalbekning jangchi o‘rtoqlari uning ko‘rsatgan mardligi haqida yozib, barimizning ko‘nglimizni ko‘tarib, sizning o‘g‘lingiz, jigarbandingizni hech qachon unutmaymiz. Vatanimiz u bilan faxrlanadi,

deyishibdi. Keyin bilsam, Maysalbegim razvedkachi ekan. Bizning askarlar hujumga o'tish oldidan nemislarning pistirmada to'plagan qurol-yarog', o'q-dorilari bir kechada o't olib, atrofdagi to'qaylar yopirilib yonib, frontdagi jangchilarimizga katta yo'l ochilibdi. Shu ishni qilgan mening o'g'lim Maysalbek bo'libdi. Men ham uning bu ishidan g'ururlandim. Shunday bo'lsa ham, menga qolsa urush chiqmaganda, men uning boshqa ishlari bilan faxrlansam baxtli bo'lardim. O'g'limning o'zi aytgandek, bolalarni o'qitib, o'qitgan yoshlari o'zidan ilg'or, o'zidan bilimli chiqib, har xil ishda, har xil ilmda dong taratishsa, Maysalbegimning ham obro'si shunda edi. Odam bolasiga eng avvalo obro' kerak. Urushda ko'rsatilgan botirlikning zo'r jasorat ekanligiga shubham yo'q. Buning uchun bosh egib, o'g'limga rahmat aytaman. Lekin tirik yurganiga nima yetsin edi.

Azaldan ham urushdan hech kim yaxshilik ko'rgan emas...

V

— Rost, To'lg'anoy, urushda yengib chiqqan kunda ham, alami quvonchidan kam bo'lmas ekan. O'sha yili, g'alaba keltirgan bahorda, sizlarning askarlarni kutib olganlaringni hali ham unutmayman, To'lg'anoy. O'sha voqealarning qaysi biri quvonch, qaysi biri armon ekanligini haligacha aytolmayman...

— Men ham aytolmayman — quvonchimiz ko'pmidi yoki g'am-alamimiz... Dushman yengilib, urush tugaganda, ostin-ustin bo'lgan dunyo tinchib qoldi-da, avvali la'nati urushning qizig'i bilan uncha sezilmagan narsalar o'shanda elning yuragini yana bir marta g'azablantirib yubordi. Chunki, g'alaba o'lja olib, bayram bo'lib kelgani yo'q, u bizga urushda omon qolgan jangchilarning sirli timsolida qancha yo'llar bosib, tovoni teshilgan soldat etigini kiyib keldi.

O'sha kuni bizga qo'shning navbati tegib, omoch bilan tomorqamizni haydab, jo'xori ekish bilan ovora edik. Ko'chada qandaydir bir tovushlar chiqib, chopib yurishgan kishilarni ko'rganda, Aliman, bilib kela qolayin, deb yugurib ketdi-da, tezda qaytib keldi: "Ena, odamlarning bari askarlarni kutib olgani ketyapti, ovulda hech kim qolmay jo'nayapti. Yuring, ena, tezroq bo'ling!" —

dedi. Omochni ham, ho‘kizlarni ham joy-joyida qoldirgancha jo‘nadik. Chindan ko‘cha odamlar bilan liq to‘la edi. Qiz-juvonlar, bola-chaqalar, hatto qiltanglagan chol-u kampirlargacha qolmay otliq, piyoda kishilar — hammasi kutib olishga ketib boryapti. Bu xabar qayerdan chiqqanini kim bilsin, frontdan bo‘shab kelayotgan bir soldat (Kumushtak degan yuqorigi ovulning bolasi deyishdi), askarlarning hammasi uy-uylariga qaytib kelayotibdi, deb yo‘lda uchrashgan birovga aytib ketgan emish. Stansiyaga ikki eshelon askar kelib to‘xtagan emish, bugun tushda borib qolamiz, deb xabar qilishgan emish. Haytovur, mana shunday quvonchli gaplar emish! El shunday xushxabarni kutib turgan ekan, anig‘ini hech kim bilmasa ham, gumonsiragan jon yo‘q, bir kishi qolmay yoppasiga kutib olishga chiqdik. Urush boshlanmasdan avvalroq yoshlar sola boshlagan yangi ko‘chaning o‘rnida, ovulning etakrog‘ida yig‘ilib kutib turdik. U chog‘da o‘sha chala qolgan ko‘cha, chala tomlarga o‘rganib qolgan bo‘lsak kerak, jang maydonidan g‘alaba bilan kelayotgan botir jangchilarimizni qanday xosiyatli, qanday armonli yerda kutib turganimizni o‘ylamabmiz. Maqsadimiz — askarlarni ovulga kiraverishda barimiz birdaniga kutib olish edi. Keksalar ariqning uvatiga yonboshlab, otliqlar ot ustida, bolalar nuragan tomlarning devorlariga minib, chaqqonroqlari daraxtlarning shoxlariga chiqib olishibdi. Ana keladi, mana keladi, deguncha ko‘rgan tushimizni, ayon bo‘lgan narsalarni so‘zlab, yo‘ldan tosh terib olib, fol ochib, folimizni yaxshilikka yo‘yib, katta yo‘ldan ko‘zimizni olmay, tikilib qarab turdik. Hozir o‘ylab tursam, dunyodagi odam bolasining bari o‘shanda bir maqsadda, bir niyatda, biriga biri yaxshilikni ravo ko‘rib, o‘z o‘g‘il bolalarini shunchalik suyishsa, o‘shanchalik kutishsa, balki urush bo‘lmasmidi, deyman.

Yig‘ilganlarning ko‘pi nafasini ichiga yutib, churq etmay, gap qotmay turardi. Har kim o‘zicha xayol surib turgan bo‘lishi kerak. Chunki, besh yil qonli urushni boshidan kechirib, endi g‘alabaga yetishib turgan kunda, urushning eng so‘nggi ko‘rinishidan hayajonlanib turgandi. Kim kelib, kim kelmaydi, degan so‘roq har kimning xayolida bor edi, shundan boshlab har kimning taqdiri, har kimning umidi har xil yechiladi. Shundan boshlab har kimda yangi hayot boshlanadi.

Daraxtlarga chiqib olgan bolalardan bittasi bir vaqt: "Kelyapti!" — deb qichqirganda, qo'bizning tarang tortilgan toriga qo'l tekkandek barimiz bir ovozdan "Kelyapti", — deb takrorlab, serrayib turib qoldik. To'p ichiga pashsha tushsa eshitilgudek jimjitlik cho'kdi-da, o'sha zahoti: "Qani? Qayerda kelyapti? Qani?" — degan ovozlar chiqib, shu ondayoq yana jim bo'lib qoldi. Olisda, katta yo'lning ustidagi yolg'iz aravadan bo'lak hech nima ko'rinmadi. Arava ovulga ayrilgan yo'lning ustida to'xtadi-da, undan sakrab tushgan birgina soldat xaltasini, shinelini yelkasiga solib, aravakash bilan xo'shlashib, beri yura boshladi. Bizning oramizda hech kim hech nima degani yo'q, turgan odamlarning bari indamay, angrayib qarab turishdi. Soldat tobora yaqinlashib kelaverdi, lekin bir kishi ham o'rnidan qo'zg'algani yo'q. Odamlarning oqargan yuzlarida qandaydir bir narsa kutayotgandek umid uchqunlari sezilib turardi. Chunki bizning kutganimiz yolg'iz soldat emas, yo'lga sig'may, tiqilib urushga jo'nagan singari, qalin askarning to'pi bilan qaytib kelishi edi.

— Bandasizlar-da, To'lg'anoy! Urushga ketganlar qachon to'la-to'kis hammasi qaytib kelgan edi? Odam degan gohida shuni esdan chiqarib qo'yadi shekilli.

— Gaping to'g'ri, ulug' dalam! Biroq biz bandamiz-da: yaxshilikka doim umidimiz katta. Shuning uchun ham o'shanda yakka bitta soldatning kelayotgani elning hushini uchirib, esini chiqardi. Soldat beriroqdagi do'ngchaga yetib, ovulning chetida turib qolgan elni ko'rib, yuragi dov bermadi shekilli, u ham cho'chib to'xtab qoldi. Bu nimasi, bu qanaqasi bo'ldi ekan, bular nima uchun indamay qarab turishibdi, degan o'y bilan soldat burilib orqasiga qaradi. O'zidan boshqa yo'lda hech kim yo'qligini ko'rib, u bizga to'g'ri yurib kela boshladi-da, yana to'xtab, yana qayrilib, orqasiga qaradi. U shu ahvolda yaqin kelaverganda, oldinda turgan bir kichkina qiz: "Ashirali akam! Ashirali akam! Ashirali akam kelayotibdi!" — deb qichqirib yubordi. Qayoqdan taniganini kim bilsin, boshidagi ro'molini yulqib olib, haligi yalang oyoq, chaqchaygan qiz: "Akam! Akam!" — deb qichqirgan bo'yicha soldatga tomon yugurdi. Uning ketidan bolalar yugurib, so'ng ayollar, keyin turgan kishilarning hammasi: "Ashirali! Aylanay, rostdan ham Ashirali

emasmi?" — deb chuvillashib jo'nadi. O'sha damda bizni qanday kuch sehrlab, yuragimizda qanday sof tuyg'ular qo'zg'alganini aytolmayman — qandaydir bir quvonch, jonga huzur baxsh etgan mehr-muhabbat, shodlik ko'z yoshlari butun borlig'imizni qamrab olgandi. Quchoq ochib soldatga chopib borayotganimizda biz o'zimiz bilan qo'shib butun hayotimizni, boshdan o'tgan-kechirgan kunlarimizni, azob-uqubatlarimizni, uxlamagan tunlarimizni, oqargan sochlarimizni, qarigan qizlarimizni, yetim-yesir qolganlarimizni, daryodek oqqan ko'z yoshlarimizni, g'ayratimizni, g'am-g'ussalarimizni bayroqdek ko'tarib, g'alaba bilan qaytgan jangchimizga olib borayotgan edik. Oldidan to'sib chiqayotgan elni ko'rib, soldat ham tez-tez yurib kelaverdi.

Odamlar bilan yugurib borayotganimda, bir vaqt stansiyada to'xtamay bir zumda o'tib ketgan eshelon hozir ham yonimdan o'tib borayotgandek, qulog'im tinib, quyun-bo'ron, g'ildiraklar ostida zing'illagan relslar yuragimni zirqiratib, "Ona-a! Alima-an!" degan Maysalbekning shamol olib qochgan ovozini quvib borayotgandek edim.

Otliqlar birinchi bo'lib yetib borib, soldatga ot ustida yopirilib, uning ko'tarib kelayotgan xaltasini, shinelini qo'lidan olib, o'zini poygadan g'olib chiqqan tulpordek yetaklab kelishardi. Yer, ona-Yer, sen o'sha soldatni unutmadingmi? Botirning qiyofasi esingdami?

— Esimda, To'lg'anoy. Men u soldatning qiyofasini hech vaqt unutmayman, u bugun ham yo'l tortib, quchoq ochib: "Aylanayin, el-yurt! Aylanayin el-yurt! Jonim qurbon! Boshim qurbon!" — deb qichqirib, yugurib kelayotgandek. Uning ko'kragidagi medallar kumush tilladek jaranglab, yuzidan oqqan ko'z yosh go'yo yomg'ir tomchilab kelayotgandek. Shularning hammasi esimda, To'lg'anoy! Keng yelkali, baland bo'yli baqquvvat soldat, necha marta ajal bilan betlashgan, necha marta o'qqa chap bergan jangchi yosh boladek quvonib, bugun ham hu anovi yo'lda yugurib kelayotgandek.

— Ha, ha, xuddi shunday. Biz ham hammamiz yig'lab, el bilan soldat qo'shilganda, sog'inishgan ikki to'lqin qo'shilishgandek, ezilishib, quchoqlashib ko'rishdik. O'sha to'polon, qiy-chuvda har

birimiz har tomondan Ashiralining bo‘yniga, yelkalariga osilib o‘pishardik.

O‘, g‘alaba-yey, orzu qilib kutgan, kurashib yetishgan g‘alabamiz-ey! Assalomu alaykum, g‘alaba! Kechirgin bizning yig‘laganlarimizni, kechirgin Aliman kelinimni. Omon qaytgan Ashiralining ko‘kragiga boshini qo‘yib: “Qayerda mening Qosimim? Qayerda?” — deb qichqirganini kechirgin. Hammamizni kechirgin, G‘alaba! Seni deb qancha nuridiydalarimizdan ajraldik.

“Boshqalar qani? Falonchi qayerda? Tuginchi qani? Qolganlar qachon keladi?” deb yopirilib, so‘raganimizni kechirgin. So‘roqlarning o‘rtasida qolib, ko‘z yoshini to‘xtatolmay: “Ketganlarning bari keladi! Ertaga kelishadi. Yaqinda kelishadi. Bitta qolmay kelishadi!” — deb Ashiralining aytganlarini kechirgin. Kechirgin bizni, g‘alaba, kechirgin. Sen bilan yuz ko‘rishib turib, biz ko‘nglimizda har birimiz jang maydonidan qaytib kelmaganlar bilan so‘nggi bor vidolashdik, ularni yana bir marta eslashib, yana bir sidra kuyinib, yuragimizni sovutdik. Kechirgin meni, g‘alaba, kechirgin! Ashiralini qayta quchoqlab, qayta o‘pib, Jaynog‘imni, Maysalbegimni, Qosimimni, Suvonqulimni eslab, ichga yutgan armonimni kechirgin!

— Yo‘q, To‘lg‘anoy, unday dema. Dunyo sendan kechirim so‘rasin, zamona sendan kechirim so‘rasin! Sen kechirarmiding, To‘lg‘anoy?

— .....

— Nega indamaysan, To‘lg‘anoy?

— Kechirmas edim! Dushmanimni azaldan kechirmayman. Biroq zamonamga kek saqlagan yerim yo‘q. Oxiri baxayr bo‘lsin. Ammo urushga da’voim ko‘p. Otilgan o‘q, to‘kilgan qon — tarixning hisobida, lekin odamlarning zavol topgan umri-chi? Uni kimning bo‘yniga qo‘yib, tarixning qaysi betiga yozamiz? Uning uchun kim javob beradi? O‘qqa uchramagan bo‘lsa ham, Alimanning taqdirini eslaganimda, yurak-bag‘rim kuyib cho‘g‘ bo‘ladi. Uning uvoli kimga? Uning dardini kimga, kimga aytaman? Bechora kelinim, gul sevgan kelinim!

Ashiralining tug‘ishganlari uni uylariga olib ketib, elning bari tarqab ketgandan so‘ng, Aliman ikkalamiz uyga qaytdik. Shu bilan

urushdan olish-berishimiz tugab, bundan bu yoqqa tinchlik davri boshlandi.

Biz jimgina kelaverdik. Yangigina yig'laganigami, Aliman qisilib, entikib, chuchkirib kelardi. Qovog'ini solib, hech yoqqa qaramay, o'chgan rangini ko'rib, kelinimning allaqanday xayollarga cho'mganini tushundim. Kun qizib, havo dimiqqanida, kishi ham ko'ngil ko'taruvchi so'z topguncha diqqinafas bo'lib ketmaydimi. Xuddi shunday, Aliman ham qiynalib turgan edi. Buni men javdirab tikilgan ko'zlarida, labini mahkam tishlaganidan sezib turardim. "Oh, endi ayrilishamizmi. Qosimdan umidi uzildi-ku, — deb o'ylanib kelardim. — Ayrilishmaganda nima qilamiz. O'lgan qaytib kelarmidi, yo orqasidan o'lish kerakmi, ketadi-da endi, ketmaganda iloj qancha. Attang-a, qanday qilay, qanday qilay! Ketsa ketadi-da. Qachongacha yesir o'tiradi. Ko'ngli buzilib, ketayotibdimi. Peshonadagi shu ekan, roziligimni beraman. Ishqilib, baxti ochilsa bo'lgani. Yosh emasmi, tag'in bir tengini topar, Qosimdek mehriboniga yo'liqarmikin? Kim biladi? Baxtli bo'l, chirog'im, baxtli bo'l. Nimasini aytayin. Goho meni eslab qo'ysang, deyman, bolam. Sendan boshqa kimim bor. Sen ketsang, o'lganing kunini ko'rib, bir uyda yoppa-yolg'iz qolaman. Sho'rlik boshim. Qariganda madadkor bo'ladigan farzandlarimdan nishon ham qolgani yo'q. Biroq, menga qaramagin. Uvolingga qolmayin, qachon ketsang ham boshing bo'sh. Mening uchun g'am yema, bolam, kuningni ko'r. Roziman sendan, oq fotiha beraman..." — deb aytadigan gapimni hozirlab, so'zlashishga tayyor bo'lib turdim. Sirdosh bo'lgan, biriga biri kuyingan kishilar odamning xayolidagini gapirtirmay biladiganga o'xshaydi. Men o'shanda qanday azob chekib kelayotganimni Aliman bilgan ekan. Biroq uning gapi men kutgandek bo'lib chiqmadi. Saxiy dalam, sendan yashiradigan sir bormi, Alimanning o'shandagi ishlariga, uning aytgan so'zlariga, uning beqiyos odamgarchiligiga, yuragi kengligiga roziman, o'la-o'lguncha roziman, biroq o'zimdan noroziman, o'zimni la'natlayman...

Nima uchun o'shanda bo'shlik qildim, nima uchun Alimanning so'ziga yosh boladek ko'na qoldim?

Qosimlarning chorvog'ining yonidan o'tib borayotganimizda, uy qilamiz deb g'amlagan olam-olam jahon tosh, necha yildan

beri qor-yomg'irda qolib, ezilib bitgan g'ishtlar bir uyum tuproq bo'lib yotgani ko'zga tashlandi. Yoshlar urushga ketgandan beri bu yangi ko'cha o'sha boshlanganicha qolgan, tevarak-atrofini g'ovlagan ola buta, qariqiz o'tlari bosib, ularning orasida arqonlangan buzoqlar yuribdi. Nuragan devorlarning boshlarida sassiqpopushaklar tojlarini tarab, yozning havosida yayrab, bemalol sayrab turishgan ekan. "Yopiray, uy-joy solib, o'zimizcha ko'payishib boryapmiz, deganlarimiz qayerda qoldi? Qara-ya. Boyaqish Qosimimga ham buyurmadi-da", — deb o'ylanib kelayotganimda, Aliman menga yalt etib qaradi-da, qattiq aksirdi. "Ena, — dedi u menga, — muncha endi qayg'urmasangiz! Yoki yorug' dunyodan umidingizni uzdingizmi? Unday qilmang, enajon, bo'shashmang muncha, g'ayratingiz bir elchalik bor edi-ku. Beri keling-chi, bunday tepalikda gaplashaylik". "Hozir aytadi, ketaman deydi endi", — degan o'y vujudimni kuydirib yubordi. "O'tiraylik, gaplashaylik", — dedim men ham. Yo'l bo'yidagi do'nglikka qayin ona-kelin ikkalamiz maslahatlashgani o'tirdik. Oh Alimanim-ey, nega muncha mehru muhabbatli bo'lib yaralding ekan! O'sha oq ko'ngilliging o'z boshingga yetdimi, kim biladi? "Ena, — dedi o'shanda Aliman. — Kasofat urush bitdi endi. Haqi qolgani yo'q. Bundan keyin nima qilamiz, degan o'yingiz ham bordir. Koyimang, enajonim. Dunyo shunchalik adolatsiz bo'lib ketdi, deysizmi? Peshonamizga yozilgan yaxshilikning uchquni ham qolmadi, deysizmi? Bir uydan ketgan to'rt kishidan qanday qilib birontasi omon qaytmasin. Yo'q, yo'q, ena, qo'yib turing, mening so'zimga quloq soling. Oq dilimni aytaman, ena, ko'nglingizga qarasam, Xudo ursin, unda o'zimni o'zim aldagan bo'laman. Ishoning menga! Yaxshilik qo'llasa, kichkina bola omon qaytib keladi. Xabarsiz ketdi degani — omon degani, ekan. Kim biladi, qo'lga tushib ketdimi, tentirab-adashib ketdimi, yo yarador bo'lib, to'qayda yashirinib yuribdimi, haytovur ertami-kechmi Jaynog'ingiz yarq etib qaytib kelganda bilarsiz. Bedarak yo'qoldi deganiga umidsizlanmaylik, ena. Daraksizgina emas, hatto o'ldi deb qoraxat kelgan ba'zi birovlarning ham tirik ekani ma'lum bo'lyapti-ku. U tugul, yuqorigi ovullarda ham, ho' pastdagi qozoqlarda ham shunday voqealar bo'ldi, o'zingiz bilib

yuribsiz-ku, azasini ochib, oshini berib bo'lgandan keyin, bir kuni omon-eson qaytib keldi. U, bizning kichkina bola, omon-eson yuribdi. Yuragim sezib turibdi. Qanday qilib endi to'rt kishidan birontasi ham qaytib kelmasa. Sabr qilaylik, ena, kutaylik. Menga qarang, enajon, men ham sizning bolangizman-da, avval keliningiz bo'lsam, endi o'g'lingiz o'rnida o'g'lingizdek ko'ring. Unday emas desangiz, ma'qul, bir-birimizning yuzimizga oyoq qo'ysak, unda nima bo'ladi. Qosimning arvohi guvoh, sizni yolg'iz tashlab ketmayman, ena. Qolganini o'zingiz biling..."

Aliman gapirib bo'lgach, anchagacha indamay qoldik. Mayning o'rtalari shekilli o'shanda. Uzoqdan elas-elas ko'ringan baland cho'qqini ola-bula bulut qoplab, onda-sonda havo guldurlab, shabada yelib turardi. O'sha yarqiragan vaqtda bahorgi shudring tushib tursa kerak. Quyosh shu'lasiga burkangan yomg'ir donalari simobdek yarqirab, goho tog'ga, goho soyga ko'chib, go'yo olam yuzini yuvayotgandek. O'sha olislardagi yomg'irning salqin nafasini shamol haydab, lip-lip etib jonimga orom berardi. Alimanga hech nima deganim yo'q. Biroq mening aytadigan so'zlarim shu yarqiragan yomg'irdek sof so'zlar edi. Tunga aylangan dilimga, hansiragan jonimga yorug' nur tekkandek, butun vujudim bilan senga aytdim, ulug' Yer. Shunday odamlarni yaratganing uchun, rahmat senga, Yer, dedim, Dunyoning pokligiga, odamning pokligiga rahmat dedim. Shu ola-bula bulutingga, yarqiragan yomg'iringga rahmat dedim. Yomg'ir yog'adi, ekin o'sadi, el kun ko'radi, men ham ular bilan birga yashayman dedim. Bularni aytganim — Aliman meni ayab, hurmatlagani uchungina emas, meni yolg'iz tashlamayman degani uchun emas, yo'q, bir kishining domi rizqi qayerda o'tmaydi deysan, men suyunganda, men faxrlanganda, boshqa narsaga, insonda bo'lgan ulug' narsaga sig'indim. Urush oadmni qattiqqo'l qiladi, toshbag'ir, shaxsiyatparast, hayvon qiladi deb kim aytadi? Yo'q, urush, qirq yil qirg'in keltirsang ham, nechalarning ajalini yetkazib, o'rtab, qiyratib, yakson qilsang ham, odamni sen tobe qilib, bo'ysundira olmaysan. Odam umid qilgan hamma yaxshiliklaridan ajralsa hamki, qanday bo'lmasin, birovga yaxshilik qilsam, deydi, uni suyab, turg'izsam, deydi, uni ozgina bo'lsa ham baxtli qilolsam deydi.

Mening Alimanim chinakam odam-da! Qorong'i kechada parashyutga osilib, dushmanlarning o'rtasiga samolyotdan sakrab tushgan Jaynoq xabarsiz, daraksiz yo'q bo'ladi, deganiga qaramay, u o'lmaydi, u omon, u so'zsiz qaytib keladi, deb ishongani, tilagani kim uchun? Dunyo unchalik adolatsiz emas, deb bel bog'lashi kim uchun? Alimanning chin qalbdan aytgan so'zlariga men ham ishonib, rostdan ham Jaynoq tirikmikin, unday bo'lsa, qaytib kelsa ham ajab emas, deb yosh bolalardek umidvor bo'lib qoldim. Men shu holda o'ylanib o'tirsam, Aliman tomorqaga tashlab ketgan omoch-bo'yinturug'larimizni eslab: "I-ye, yerimizni haydab bitirmadik-ku, ena, yuring, tezroq yuring, qotib qolmasin", — deb shoshirib qoldi.

Chorvoqqa kelsak, ho'kizlar omochni sudragan bo'yicha, allaqachon ariq yoqalab o'tlab yurishipti. Aliman ularni qaytarib kelgach, yana haydashni boshladik. Odamning ko'ngli qiziq narsa-da. Bir zumda qanot bog'lab kishini olib uchadi emasmi. Aytgan so'zlari, qilgan harakatlari o'z ko'ngliga to'g'ri kelsa kerak, Aliman, o'sha urushdan oldingi qiyofasiga qaytib kelgandek ochilib kulgani, chehrasini ochib so'zlagani yarashib turibdi. Nimchasini yechib nariroqqa irg'itib yuborib, oq ko'ylagining etagini lippa urib, yengni shimarib, boshidagi ro'molini chakkaga tortib tushirib, qora to'rig' yuzidan nur yog'ilib, baland tovush bilan: "Ola bosh ho'kiz, cho'x! Cho'x, cho'x! Qayt, qayt, cho'loq quyruq. Cho'x, cho'x-e!" — deb uzun tasma qamchini shartillatib urib, o'zicha baqirib yer hayday boshladi. Oh, Alimanim-ey, bilsam, u meni o'ksinmasin, hayotdan, ishdan ko'ngli sovimasin, tirikchilik qilsin, degani ekan-ku. Omochning tutqichidan ushlab kelayotganimda, orqasiga qayrilib qarab: "Ena, omochni astaroq bosing, toshi betga chiqib qolmasin!" — deb boshlab yurdi. Yana ikki-uch borib keladigan yer qolganda yomg'ir tomchilay boshladi. Borgan sari kuchayib, jalaga aylandi. Bu kuchaygan bevosh jala o'tkinchi ekan. Shunday bo'lsa ham ovulda tashvish orttirdi. Qanotlarini shapillatib qaqag'lagan tovuqlar o'zini har yoqqa urar, ayollar yoygan kirlarini olib qochar, bolalar ko'chada quvlashib:

"Jala, jala, o'tib ket,
Qora suvdan keib ket", —

deyishib, chopishib yurishdi. Ivib ketamiz, aylanay, uyga kirib turaylik, desam, Aliman: "Hech nima emas, ena, bitirib qo'yaylik!" — deb, yosh qizchadek yomg'irning qitiqlaganiga qotib kulib, ho'kizlarni to'xtatmay haydayverdi. Kelinimning bu ishidan xursand bo'ldim. "Fe'l-atvoringdan aylansin enang, o'tkinchi yog'indek yarqillagan yuzingdan aylanayinim, yomg'irdek sho'xligingdan o'rgilay! Qanday baxtli ayol eding! Ee, dunyo, dunyo, dunyo shunday ekan!" — deb yuragim quvonib, Alimanning aftiga tikilib to'ymadim. Keyin o'ylasam, uning bu ishlari hali menga atalgan, mening ko'nglimni ko'tarmoqchi bo'lgan ekan. Aliman hadeb kaftini yog'inga tutib: "Ena, bu yoqqa qarang-chi! Qanday so'lim yomg'ir! Qanday musaffo yomg'ir! Bu yil don mo'l bo'ladi. Cho'x, cho'x-e, yomg'ir, barakangni to'kaver, to'kaver!" — deb qamchi bilan yomg'irni, ho'kizlarni savalardi. O'shanda u o'zining naqadar go'zal ekanligini, ivigan ko'ylaklari badaniga yopishib, qomatining qanchalar xushbichim ekanligini, ko'zlarining qanchalik chaqnaganini sezmagan bo'lsa kerak. Ilohim, uvoling tutsin urushni!

Jala to'xtab, olislab ketganda, Aliman ham tezda o'tib ketar ekan-da, degan xayol bilan uzab borayotgan yog'inning ortidan munglanib tikilib, olisga ko'z yugurtirib, yomg'irning bosilib borayotgan kuyiga quloq solib, qattiq aksirdi. Boyaqishim-ey, Qosimni esladi shekilli o'shanda. Ko'zi menga tushib, kulib yubordi-da: "Yomg'irning nami bilan makkajo'xorini ekib olaylik!" — deb, uyga chopib ketdi.

Ivitilgan makkajo'xoridan Aliman katta bir changal olib chiqib: "Ena, shu makkajo'xori dumbul bo'lguncha kichkina bola omon-eson qaytib kelsin!" — deb niyat qilgan urug'ini yerga sochib yubordi. Alimanning o'shandagi qiyofasi ko'z o'ngimdan sira ketmaydi. Bulut orasidan yalt etib chiqib, hozirgina ko'tarilgan qip-qizil cho'g'dek, oftob tekkanda, yomg'irdan keyin nam bo'lgan qora tuproqni yalang oyoq bosib, qadam sayin shudgorga oltin sochayotgandek urug' sepib, bu xosiyatli mehnatni yaxshi niyat, yaxshi umidga bag'ishlab, Alimanim jo'xori emas, yaxshilik urug'i sepib yurgandek edi. "Ko'rasiz-ku, ena, mening aytganlarim to'g'ri chiqadi. Nasib bo'lsa, kichkina bolaga dumbulni o'zim o'tga

ko‘mib, pishirib beraman. Ilgarilari dumbulni men bilan talashib yeguchi edi-ku. Esingizdami, bir marta issiq so‘tani olib qochaman, deb qo‘yniga solib yuborganda, badani kuyib qolmaganmidi. Uh, uh, deb, ichini ushlab, sakrab yursa, men jinni odamdek: Bu ham oz sizga. Oz! — yeb kulaveribman. Esingizdami? — deb Aliman meni ham kuldirib yubordi.

VI

Mayli, endi, shunisiga ham rahmat! Makkajo‘xori bir emas, ikki marta, uch marta dumbul bo‘ldi, biroq Jaynog‘imiz qaytib kelgani yo‘q. Aliman keyin aybdor odamdek indamay qoldi o‘zi...

Olatog‘da qish o‘tib, ko‘klam kelib, hayot o‘z oqimida avvalgidek davom etaverdi. El to‘yib, kolxoz qaddini tiklab, ko‘rgan-kechganlarimiz asta-sekin xayoldan ko‘tarilib, urushning izlari yo‘qola boshladi. Aliman ikkalamiz avvalgidek kolxozda ishlab yurdik. Yigitlar frontdan qaytib kelgach, brigadirlikni men ularga topshirdim: “Sizlarning yo‘qligingizda uch yil eplab, ishlab turdim, endi esa qaridim, horidim, yigitlar, endi ishni o‘z qo‘llaringga olinglar”, — dedim. O‘shandagi yoshlarning bir xillari hozir ham meni “Brigadir opa”, — deyishadi, hurmat qilishganidan bo‘lsa kerak...

Zamon tinchlangani bilan Aliman ikkalamizning qayg‘u-g‘amimiz bitgani yo‘q. Ko‘rinishdan yorishib, sir bildirmagandek bo‘lsak ham, biroq haqiqatda bo‘lib o‘tgan ishlar doimo uning ham, mening ham yuragimdan ketmay azob berardi. Bunday qarasang, har kim o‘zicha aql yuritib, har birimiz o‘z ko‘machimizga o‘zimiz kul tortishimiz, o‘z turmushimizni o‘zimiz qurishimiz kerak edi, to‘g‘ri yo‘l ham shu edi. Biroq, biz shunday qilmadik. Mendan o‘tdimi, Alimandan o‘tdimi, uning sabablari ko‘p, uni gapirib o‘tirib ham nima qilamiz. Balki, bizdan hech qanday ayb o‘tmagandir. Qanchadan qancha dard-u alamimni aytib, senga kelardim-ku, jonajon dalam...

— Ha, kelarding, To‘lg‘anoy. Gunohga botirib nima qilaman kelinimni, nima qilaman, uvolini qanday qilaman, deb yig‘larding. Qachon kelsang ham, necha bor kelsang ham, o‘shanda men sen-

ga maslahat berolmaganman, To'lg'anoy. Oradan ancha yillar o'tib ketdi. Sen, mana, qartayib qolding. Biroq hozir ham seni oqlab, yo bo'lmasa qoralab biron narsa aytolmayman.

— Kim biladi. Shularni o'ylasam o'zimni kechirolmayman. Kelinim Alimandan o'zga, fe'l-atvori boshqa, muomalasi boshqa, odamgarchiligi boshqa, yurish-turishi boshqa ayol bo'lganda, ko'p kechiktirmasdanoq: "Qo'y, endi bolam, qachongacha tul bo'lib o'tirasan. Yosh boshingni xor qilmay, birovga tegib ketgin", — der edim. Biroq, Alimanga aytolganim yo'q. Agarda aytsam, odamzod dunyosining osoyishtaligi qandaydir xiyonat qilayotgandek, qandaydir bir pok narsani bulg'ab qo'yayotgandek botinolmay yurdim. To'g'ri, Qosim o'ldi — sen endi ketgin, keraging yo'q, boshqa birovga tegib olgin, deyishga og'zim borarmidi? So'zlarimni qanchalik silliqlamayin, baribir shu ma'no kelib chiqdi. Bir cheti es-aqli bor juvon emasmi, o'zi yorilar deb shoshilmagan ham edim. Aliman bo'lsa, bechora boyaqishim-ey, kishilarga buncha mehribon bo'lib yaratilganini qara, meni ayab ko'zi qiymay yurganga o'xshardi. Shunga qaramay, mendan o'tmasin, deb bir kun Qayindidan og'alari qidirib kelganda, men Alimandan ming marta roziman, deb ko'nglimdagini tushuntirdim. Shunday desam, ularni jerkib: mening bilan ishlaring bo'lmasin, ketamanmi, ketmaymanmi, o'zim bilaman, sizlar aralashmanglar, debdi. Gapirmasam bo'lar ekan, deb afsuslanib qoldim. Mening uyalganimni bilib, Aliman o'shanda, o'rtamizda qandaydir bir so'z o'tganini sezdirgani ham yo'q. Ich-ichimdan minnatdor bo'ldim. Shu zaylda bir-birimizni ayab, bir-birimizni qiyolmay, Jaynoq kelib qolarmikin, deb umid qilib aldanib yurib, eng oxiri undan ham umidni uzib, keyin uning vaqti o'tgach, kech bo'lib qoldi. Ha, ona-Yerim, imonimdek pok sirimni aytyapman. Qolganini o'zing bilasan-ku.

— Bilaman, To'lg'anoy. Keliningga avvaldan aytmay yurib, keyin aytganingda yuzingga qaramas edim.

— Rost aytasan. Qanday bo'lib ketganini hozir ham bilolmayman. Ovulimiz yo'l ustida emasmi, yaylovga mol haydaganlar, ishlashga tushganlar har doim bizning yerlardan o'tib ketishmasmidi? Yer o'rtasi deb molini yoyib, ikki-uch kun turib ham qolishardi.

Qirq oltinchi yilning kuzida quyi ovullik bir cho'pon qo'yini boqib yurdi. Askardan kelgan yigitga o'xshaydi, bo'z shinelli, to'nini bo'ktirib, miltig'ini yelkasiga osib, bu yerlarda aylanib yurganida uncha e'tibor bermasdim unga. Ovulda kimdir birov to'y qilib qoldi-da, uloq berdi. Haligi cho'pon uloqchi yigit ekan, uloqni bizning darvozaning oldiga olib kelib tashladi. Hovlidan yugurib chiqdim-u, o'shanda ko'rdim uni, o'ynoqlagan otini gijinglatib turibdi. Ajabtovurgina yigit ekan. Nima uchundir boshqa so'z og'zimga kelmay: "Hoy, bu nimang, bolam?" — debman. Shunday desam: "Uyda kim bor?" — dedi. "Kim kerak edi?" — dedim. "Qo'limdan tushib ketdi", — dedi-da, bir engashib uloqni olib, taqimlab jo'nab ketdi. Ungacha uloqchilar yetib kelib orqasidan yopirilib quvib ketishdi. Shundan keyin men u cho'ponni ikkinchi marta ko'rganim yo'q. Lekin uning qilgan ishlariga achchig'im keldi. Bu nima qilgani: olib kelgandan keyin tashlab ketmaydimi, uloq — tushgan uyniki emasmi, yoki rosti bilan qo'lidan tushib ketdimikin? "Unday bo'lsa, nega ko'chaga tushmay, darvozaning oldiga tushadi?" — degan har xil o'y bosdi. Men shu zaylda turganimda Aliman chiqib keldi. Gulli ro'molini o'rab, shoyi ko'ylagini kiyib yasanib olgan, to'yga bormoqchi bo'lib turgan edik. Meni ko'rganda Aliman yerga qarab qizarib ketdi. "Yurmaysizmi, ena", — deb sekin gapirdi. Boyagi cho'ponning nima uchun kelganini endigina tushundim. Ikki-uch kundan beri Aliman suv olib kelaman deb ariqdagi suvni qo'yib, katta soyga borib, kech qaytib yurgandi. Ko'nglim nimanidir sezgandek bo'luvdi-ya... Oxiri bir kun shunday bo'lishini, so'zsiz shunday bo'lishini ilgaridan bilardim. Qizganganimdan emas, yo balki qizg'anganimniki hamdir, lekin gap boshqa yoqda. Alimanni ko'p kechikmay, o'z o'rnini topib olsa ekan, deb tilab yurib, ish o'ngidan kelganda, tisarildim, qo'rqdim. Boshi ochiq kelinimni emas, go'yo o'z qizimizni erga berayotgandek, Alimanni yanglishmasa ekan, tushgan joyi yaxshi bo'lsa ekan, deb yurdim. To'yda o'tirganimda ham, uyda o'tirganimda ham shu o'y xayolimdan ketmadi.

"Boyagi yigit qanaqa odam ekan? Yaxshilab, bilib-ko'rib olgin. Shoshilma, Aliman bolam, aldanib qolma!" — deb ichimda aytib yotdim. Nima bo'lsa ham yoshlarga to'siq bo'lib qolmayin. Aliman-

ni iymantirmay, o'z ixtiyori o'zida ekanligini, mening unga hech qanday qarshiligim yo'q ekanligini, qanday qilib bildirsam ekan, deb qiynaldim. Hech nimani sezmagan kishidek bo'lib, kundagidek so'zlab, kundagidek kulib yursam ham, Aliman mendagi o'zgarishni sezgan ekan. Kechga tomon suvga boraman deb chelaklarni olib chiqib ketganda yelkamdan og'ir yuk tushgandek yengil tortdim. Borsa borib, uchrashib kelsin, dedim o'zimcha. Lekin ko'p o'tmay Aliman suv ko'tarib keldi. Soyga bormay, ariqning o'zidan olib kelgan ekan. "Ena, suv isitib berayin, boshingizni yuvib oling", — dedi Aliman, chelaklarni joyiga qo'ya turib. "Ertaga kunduzi yuvib olarman, ishing bo'lsa...", — deb boshlagan edim, Aliman so'zimni bo'lib: "Ertaga kolxozning ishidan qo'l bo'shamaydi, ena, yuvib oling, sochingizni tarab qo'yayin", — dedi. Ko'ngliga kelmasin degan o'y bilan ko'nib qo'ya qoldim. Katta qozonni to'ldirib suv isitib, meni bosh yuvib ko'rmagan boladek o'tirg'izib, darrov qatiq bilan yuvib, undan keyin sovunlab, suvni iliq qilib chapishtirib, boshimga quyib turdi. Boshqa vaqtda bo'lsa, bolam, qo'ya qol, o'zim yuvib olaman, derdim, biroq bu safar inday olmadim. "Obbo, bu qanday bo'ldi, meni deb ikki o'rtada va'da qilgan yeriga borolmay qoldi-ku", — degan o'yga bordim. Unday desam, Aliman unibuni gapirib, ko'ngli ko'tarinki bo'lib yurdi. Bor-yo'g'i sochimni tarayotib sal bezovta bo'ldi. "Ena, yoshligingizda sochingiz zap soch bo'lgan bo'lsa kerak!" — deb manglayimni, sochimni erkalatib silab, yuzlarimga, bo'ynimga qo'llarini uzoq qo'yib turdi. "Men bilan xayrlashyapti-ku", — deb o'ylanib, ko'zimga kelgan yoshlarni yashirib, o'zimni arang tutib turdim. U bo'lsa sochlarimni o'rib, sandiqdan atir oldi. "Voy bolam, menga uning nima keragi bor, voy aylanay, qariganda uyat emasmi?" — deganimga qo'ymay kulib, zo'rlab boshimga atir sepdi-da, bo'ynimdan quchoqlab hidladi. "Mana qanday suluv, yop-yosh bo'lib qoldingiz", — deb rosa suyundi. Men ham kuldim.

"Endi choy iching, ena", — dedi. Choydan keyin esa: "To'shagingizni solib beray, yotaylik", — dedi.

O'sha kecha ikkovimiz ham uxlaganimiz yo'q. Aliman o'zicha xayol surib yotdimi, goh-gohda qattiq xo'rsinib qo'yardi. Men bo'lsam ko'zimni yumsam hamki, Alimanning bugungi qilgan

yaxshiliklariga mehrim tovlanib, o'tgan-ketganlar ko'z o'ngimdan o'tib turdi. Allamahalgacha Alimanning hov o'shanda gulxayrilarni kombaynning pillapoyasiga olib borib qo'yganini eslab yotdim. Bir mahal Qosim askarga jo'nashda uni otga mingizmay, bo'yniga mahkam osilib, yosh boladek qo'llaridan tortqilaganini esladim. Yana bir mahal shoshib stansiyaga borayotganimizda yog'gan oppoq qor Alimanning ro'moliga, peshona, sochiga, yoqasiga qo'nib, uning husniga husn qo'shib, chinakam go'zal qilib ko'rsatgani esimga tushdi. So'ngra, menga quchoq ochib yugurib: "Enajonim-ey! Yesirmiz, birdek, yesirmiz!" — deb baqirgani qulog'imga eshitilgandek bo'ldi. Yana bir mahal qizg'aldoqqa to'lgan keng dalada qora ro'molli Alimanning katta yo'l tomonga chopib ketgani esimga tushdi. Qo'y-chi, shularni o'ylab yotib, eng oxirida boyagi uloqchi cho'pon bilan qo'y haydashib, ergashib ketayotgani ko'z oldimga keldi. "Xayr, enajon! Yomon ko'rma, ketganim shu. Xayr endi enajonim-ey!" — desa orqasidan qo'l siltab jar yoqalab yugurib: "Xayr, chirog'im! Xayr, gul suygan kelinim, xayr peshonamga sig'magan yulduzim! Omon bo'l, baxting ochilsin, umring ko'karsin, omon bo'l, xayr-xo'sh! Hoy, yigit, bolamni xor qilma! Qarg'ayman, qarg'ishim uradi-ya" — deb yotdim. Ko'zimga yosh to'lib, issiqqina bo'lib, yuzlarimdan yumalab yostiqqa tomib yotdi. Yig'laganimni Aliman bilib qolmasin deb iloj boricha o'zimni bosib yotdim.

Ertasi kuni ham Aliman hech yoqqa chiqmadi. Shundan keyin haligi cho'pon ko'rinmay qoldi. Qo'yini haydab ketib qolgan bo'lsa kerak. Alimanning bo'zargan yuzini ko'rib qattiq koyindim. Ko'ngli bo'lsa ketavermaydimi, menga qayishganidan nima foyda! Anchagacha o'ylanib yurib, keyin bu ish yoddan chiqib ketgandek bo'ldi.

Shundan so'ng erta ko'klamda boyagi cho'pon yana paydo bo'ldi. Qo'yini boqib katta soyda yurganini sirtdan payqab qoldim. O'sha kunlari Aliman kech kirari bilan ketib, el yotguncha tashqarida yurardi. Men nima ham derdim. O'zi biladi-da. To'g'risi, nima qilishim, nima ham deyishim kerak edi, ayt-chi, jonim tutashgan dalam? Esingdami o'sha shovqinli tun, ertasi kuni oldingga kelib yig'laganim...

— To‘xta, To‘lg‘aynoy. Sen u tunni shovqinli deb aytma. U tunning yaxshi tomoni ham, yomon tomoni ham bor. Jon yaralgan tunga til tegizma, To‘lg‘anoy.

— So‘zimni qaytarib oldim, ona-Yerim, kuygandan aytgan gapim-da bu. Kuymay ilojim qancha — o‘sha kecha Alimanni uzoq kutib o‘tirdim. Ovulda hamma yotsa ham, men nima uchundir chiroq o‘chirmay, nimanidir gumon qilib, nimadandir qo‘rqib, derazaga tikilib, shitir etgan tovushga quloq osib, ko‘z yummay o‘tirdim. Oydin tun bo‘lib, u yer-bu yerda bulut suzib yursa ham, bahor havosi tinch edi. Bir uyda yolg‘iz o‘zim o‘tirganimdan, badanim uchganidan ko‘rpaga o‘randim. Yarim kechaga borib ko‘zim ilingan ekan, taqillagan tovushdan cho‘chib uyg‘onib, boshimni ko‘tarib qarasam, Aliman kirib kelayotgan ekan. Mast, g‘irt mas. Ko‘ylagining yoqasi yirtilib, osilib tushgan, badanlari ko‘rinib, sochlari betlariga to‘zg‘ib tushgan. Ko‘zlari bir joyda turmaydi. Alimanning mast bo‘lishini umrimda birinchi ko‘rishim. Nima deyishimni bilmay, o‘rnimdan turishga ham holim qolmadi. Aliman bo‘sag‘adan arang hatlab kirdi-da, yiqilib ketay deb borib pechga suyanib qoldi. Keyin pechni ushlagan bo‘yicha javdirab turib: “Ha!” — deb xunuk kulimsiradi. “Nimaga qaraysiz?” — dedi u boshini chayqab. “Nega qaraysiz menga? Ha, men mastman. Ha, men mastman. Ha, men aroq ichdim. Ichmay nima qilaman? Men ichmasam kim ichadi-a? Nega indamaysiz? Mening turqumdan qo‘rqib turibsizmi?..”

Men indayolmadim. Kelinimning shunday ahvolga tushib qolganidan yuragim siqilib o‘layozdim. Aliman yana biroz dovdirab, boshini salanglatib turdi-da, bir payt shivirladi: “Ena, siz hech nimani bilmaysiz. A, men bo‘lsam... Men... Men bugun... Qosim askarga jo‘nar kuni kechqurun katta soyga birga bormadikmi... Hammasi xuddi o‘sha yerda...”, — deb gapirib turib sochini ikki qo‘llab changalladi: “Men it bo‘ldim, ena, enajonim!” — degan qichqiriq yuragidan otilib, o‘zi kigizga yuz tuban quladi, quladi-da, boshini yerga urib ho‘ngrab yig‘lay boshladi. O‘rnimdan irg‘ib turib, qushdek uchib bordim yoniga. Boshini ko‘tarib ko‘kragimga bosdim: “Yig‘lamagin, Aliman, yig‘lamagin. Nima bo‘ldi senga, qani ayt-chi? Xafa bo‘ldingmi? Yo birov bir narsa dedimi senga? Ayt-chi, menga. Yo mendan xafa bo‘ldingmi, xafa bo‘lgan bo‘lsang

ayt, saqlagan sirlaringning barini ayt, eshitay...» «Yo'q, yo'q, ena, enajonim, bechoraginam, yolg'izim, hech nimani bilmaysiz-da, bilganda ham qo'lingizdan nima kelar edi. La'natlar bo'lsin o'shanga!» — deb qandaydir bir o'ziga xos dard-alamini tortib, o'zini to'xtatolmay, meni quchoqlab olib, xo'rsinib-xo'rsinib yig'layverdi, uzoq bo'zladi, undan keyin biroz tinchidi-da, uyquga ketdi. Men uxlayolmadim. «Nima bo'ldi kelinimga? Nima qildim endi?» — deb tong ottirdim.

Ertasi kuni Aliman o'rnidan turganda, uyalib menga qaray olmadi, gapirgani ham yo'q. Ishga chiqib ketayotganimizdagina: «Meni kechiring, ena», — dedi ohista.

Shu bilan oradan ikki-uch oy o'tib, yozda haligi qochqinchi Jekshenqulning tergovi bo'ldi — urushdan keyin elga qovusholmay uyiga yashirincha kelib-ketib yurgan ekan. Biroq chetda yurganida ham tinch yurmay, olib sotarlik qilib, qo'y o'g'irlab, qo'lga tushib qolibdi. Tergovda uning burungi qilmishlari ochilib qolib, bizning ovulga so'roq qilishga olib kelishgan ekan. Qishloq Sovetining odami meni ham guvoh bo'lasan, deb kelibdi. Ko'chada ketayotsam, Aliman ketmon ko'tarib ishdan kelayotgan ekan. Sekin yurib, eldan ajralgan kishidek mung'ayib, yolg'iz o'zi kelayotibdi. Ko'rinishdan xafa, ozib, ko'zi kirtayib qolibdi. O'sha yozda yuzini ham dog' bosib ketgan edi. Yuragim achishib ketdi. Endi uyga borib, tag'in yolg'iz o'zi o'tirmasin, degan xayol bilan: «Yur, bolam, idoraga birga borib kelamiz», — dedim. Shunday desam: «Yo'q, ena, u yerda nima bor menga. Boshim og'rib turibdi, uyga borayin», — dedi. «Mayling, — dedim, — dam olib yotib tur, sigirni o'zim kutib olaman».

Idoraning yonida hamma yog'i yopilgan mashina turibdi. Guvohlikka chaqirilgan va ishdan qaytayotib bu yerga kelgan bir to'da kishilar ochiq derazaning yonidan gapga quloq solib turishibdi, men ham o'shalarga qo'shilib turdim. Jekshenqulni ko'rmaganimga ancha yil bo'lgan, to'lishib, semirib ketibdi. Yelkalari etga to'lib, ko'zlari qisilib, olayib o'tirgan ekan. Sog'ib o'tirgan yolg'iz sigirlarimizni ko'shga qo'shib, ochdan o'lib borayotganimizda, topgan-tutganimizni qo'limizdan tortib olgan shu it emasmidi? Mening Xudo ko'shgan yorim, bolalarim front-

da qon kechib jangda yurganda, bu la'nati o'zini eldan ortiq tutib qochib yurmabdimi? Endi bo'lsa ovuldagi oqsoqollar bilan aytishmagani qolibdi. "Shu ham gap bo'ldimi, frontda o'lganlarning o'z ajali o'zi bilan, menga ularning nima aloqasi bor? — deydi. — O'g'ri deysizlar, ko'zlaringiz bilan ko'rib, qo'llaringiz bilan tutib olganlaringiz yo'q. Ming gapiringlar — hammasi quruq so'z. Dalil kerak". Buni eshitganda qonim qaynab ketdi: "Joningni sotma, imonsiz! Dalil kerakmi senga, men dalil!" — deb derazadan turib qichqirdim. "Opa, ichkariga kiring. Bu yoqqa kirib gapiring", — dedi o'rnidan turib tergovchi. Kirib bordim-da, hammasini aytib berdim. "Ha, biz seni qo'limiz bilan tutib olganimiz yo'q, sening orqangdan tushib ushlashga vaqtimiz ham bo'lganmas. Biz u vaqtda yer tirmalab frontga non berganmiz, biz unda mashoq terib bolalarni boqqanmiz. Sen esa unda qo'shga bog'langan otlarni haydab ketib, elning bitta donalab yig'gan urug'ini olib qochib, bola-chaqalarning nasibasini quritib, qo'l solgansan. Demak, sen shu bilan frontdagi soldatlarning qo'lidan nonini tortib olgansan, orqangdan yetib borib: "To'xta! Men bilaman seni, Jekshenqul. To'xta!" deganimda, qayrila solib, meni otgansan!" — deb yurakda qaynagan so'zlarimni barini aytaverdim. Shunda, ayt, tortinmay aytaver, degandek, Oysha qo'shnimning bo'zargan yuzidan oqqan qator-qator yosh, o'sha munchoq ko'z yoshlaridek bo'lib miltillagan osmondagi somon yo'li ko'z oldimga kelib turdi. "Dalil deb hiyla qilib qutulsang qutulib ketarsan, lekin bilib qo'ygin, el-yurtning mushkulidan o'zingni chetga olib, uning o'lim-yitimida baravar qayg'u chekmaganing uchun odam sonidan chiqib, umring yakka moxovlikda o'tadi. Senga dalil ham, jazo ham shu", — dedim.

Men gapirib bo'lganimdan keyin tergovchi: "Rahmat sizga, ona. Endi bo'shsiz, uyingizga boravering", — dedi.

Idoradan kelayotsam Jekshenqulning xotini eshikni to'sib oldi. Jin tekkan narsadek o'zini urib qichqirdi: "O'ligingni ko'ray, qoqbosh. Vijdonim sof deb nima yaxshilik ko'rding. Sen toza, vijdoning sof ekan, keliningning qornidagiga nima deysan? U qayoqdan bo'lgan? Uyingda bo'layotgan sharmandalikni ko'rmay, nima qilib yuribsan? Sharmandalar?!"

Yuragim "shuv" etib, junjikib ketdi. Ha, ha, bu xotinning aytganlari to'g'ri emasmi? Ko'pdan beri o'ylab, gumon qilib yurgan narsalarim shu zahoti ochiq-oydin bo'lib qoldi. Shunda eshikda turgan kishilar: "Ovozingni o'chir, o'lasan", deyishib, Jekshenqulning xotiniga hamla qilib qolishdi. "Tegmanglar, unga qo'l urmanglar", — deb indamay jo'nab ketdim. Ko'chada kelayotib, turli o'y-xayollarga berildim. Bunday bo'larini o'ylamagan edim. Keyingi kezlarda Aliman qandaydir o'zini xalqdan chetga tortgandek, fe'l-atvori ham o'zgarib, begona odamdek, gapirmay, kulmay qolganiga men shunchaki xafa bo'lib yurgan bo'lsa kerak, deb o'ylardim. Haligi cho'pon yigit ko'ngliga o'tirmay, kelisholmay qolishgan bo'lishsa kerak, deb gumon qilardim. U o'shanda ko'rinmay tog'ga ketib qolgan edi. Uni ikkinchi hech kim ko'rmadi. Keyin bilsam, ish boshqacha ekan. Afsus, afsus... Bunday bo'lishini kim bilgan edi. Endi qanday bo'larkin deb o'ylayverib, qaddim dol bo'ldi.

— Ha, To'lg'anoy, sen o'shanda menga kelib, endi nima qilaman, deb siringni aytgan eding.

— Senga aytmay, kimga ham aytardim. Jonim tutashgan, dehqon dalam, mushtdayligimdan boshlab, shu qarigan chog'imgacha sening harorating bilan, sening kuch-quvvating bilan hayotda qanchadan-qancha dovon oshib yashab kelyapman. Nima qilayin, desam, sen o'shanda: "O'ylab ko'r, To'lg'anoy, chuqurroq o'ylab ko'r. Ko'nglingni keng qil, uzoqni ko'zlab ish tutgin. Nomus qilib yurish bilan ish bitmaydi, aqlsizlik qilma", — degan eding.

Bu menigina emas, balki boshqalarni ham o'ylantirganidan mamnunman. Ichgan suvimiz bir, ko'rgan kunimiz bir, taqdirimiz ham bir bo'lgan zamondosh ovuldoshlarimning keng fe'liga rahmat aytib, ta'zim qilaman. O'sha voqeaning ertasiga Oysha qo'shnim uyiga choyga chaqirib, so'z orasida uni-buni gapirib: "Haligi Jekshenqulning xotini kechasi bilan ko'chib ketibdi", — dedi. Indamadim. Ko'chsa har kimning o'z ixtiyori. Keyin oradan ancha vaqt o'tgandan keyin bilsam, u o'zi emas, o'sha kechasi, butun el to'planib kelib: "Bizning ovuldan chiqib ket!" — deb aravaga solib, ko'chirib yuborishibdi. O'shandan keyin katta-kichikning birontasi bu haqda gap-so'z qilmadi. Balki, tengqurlari Alimanning o'ziga aytsa aytgandir. Lekin menga hech kim bu haqda gapirgani

yo‘q. O‘shandan beri qancha vaqt o‘tdi, hali ham hamma hurmat qiladi. Rahmat, ko‘zim yumulguncha roziman. Agar ilgarigi zamonlar bo‘lsa, ne-ne achchiq so‘zlarni yuzimga solmasmidi, deb o‘zimcha o‘yladim. Endi bo‘lsa, bu urushning qancha azob-uqubatini tortib, tirik qolgan har bir odamning bahosi, qadr-qimmati qanchalik mo‘tabar ekanligini, uning ko‘ngli qanchalik yarim ekanligini, zamonaning katta sabog‘ini olgan elning o‘zi ham tushundi. Alimanning gunohini kechirdi. Agarda ular Aliman ikkalamizdan kulishsa, o‘zlaridan kulgan bilan barobar emasmidi. Darvoqe, shunday bo‘lardi. Mayli, odamlar har nima deyishi mumkin. Mol olasi sirtida, odam ketsa, bas, yetadi odamlarga. Shunday odamlar hozir ham oramizda bor. Lekin asliga kelganda, umuman olib baho berganda, odamday beg‘ubor narsa yo‘q, bunga aminman, bunga faxrlanaman. O‘zimning boshimdan o‘tdi-ku bular, bilasan-ku, ona-Yer, o‘sha yili men uchun qanday mashaqqatli yil bo‘ldi.

— Ha, To‘lg‘anoy, sen o‘sha yil cho‘kib qolding.

— Cho‘kkanim ham mayli-ya, Alimanimni hozir o‘ylasam, ich-ichim achishadi. O, Xudo-yey, Xudo-yey, qayerda topib, qayerda yo‘qotdim uni... Alimanning bo‘yida bo‘lib qolganini bilib qolganimdan keyin, doim uni avaylashga tirishdim. Ko‘zga tashlanib qolgan bo‘lsa ham nima uchundir, bilmaslikka solib, gap-so‘z qilib yurmadik. Tirikchilikka doir hamma narsani avvalgidek kengashib, bor-yo‘g‘imizni birga baham ko‘rib yurdik. Biroq, haligi xususda gap ochishga botinolmadi. Men uning ko‘nglini og‘ritmayin dedim, u esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytishga uyaldimi, xayolida ketmoqchi bo‘lib yurib, ungacha meni qizartirib-bo‘zartirib yurmay, hammasini ketish oldida aytaman dedimi, har qalay, bilolmasdim. Men uchun o‘sha kezlarda buni bilish ham qiyin edi. O‘zi lommim demagandan keyin nima ham deya olardim, qanday so‘ray olardim. Qo‘qqisdan so‘rab qolsam, uydan ketgin degandek tushunib, ketib qolmasmikin, deb xavotirlanardim. Sog‘ yurganda xo‘p-xo‘p edi, ikkiqat bo‘lganda yo‘lingni top deb bo‘larmidi. Yo‘q, yo‘q, Alimanimga bunday yomonlikni hech vaqt ravo ko‘rmayman. Ko‘nglimda, men uni ayblaganim ham yo‘q. Butun narsani o‘z ko‘zim bilan ko‘rib-bilib yurmabmidim. Alimanning boshiga tushgan kun — mening ham boshimga tushgan kun, u

tuqqan bola — mening ham bolam, nomus-orini, yaxshi-yomonini, bori-yo'g'ini birdek baham ko'raman, o'zimcha shunday qarorga kelganman. Aliman ketib qolsa, mensiz kuni o'tmay qolarmidi, tashlab ketishga ko'zi qiymay yurib, shunday malomatga duchor bo'lishini bilmabmanmi. Ixtiyorini o'ziga qo'yib berdim. Ertami-kechmi, axiri bir kun vaqt-soati yetganda kelajak haqida ochiq-oydin gaplashib olarmiz. Ko'nglimizda shuni saqlab yurdik. Shunday bo'lsa ham, bugun-erta deb ketga surib kelmadikmi. U tugul Aliman ketib ham qoldi-ku. Bu ham mendan o'tdi, mening beparvoligimdan bo'ldi...

Yoz oxirida Alimanning bo'yidagi o'shanda besh-olti oylik kezi edi, erta bilan molni podaga qo'shayin, deb ko'chaga haydab chiqdim. Podachi ovozi qo'ng'iroqdek o'n ikki-o'n uch yoshlardagi yetim bola edi. O'sha kuni u ko'chaning narigi boshidan allanimalarni shang'illab qichqirib, oldi turib kelayotgan ovulni birdan uyg'otib yubordi. U uyimizning yaqiniga kelganda, sigirlarni "xo'sh-xo'shlab" kelayotib: "To'lg'an opa! — deb menga ham yalt etib qaradi. — To'lg'on opa, suyunchi bering! Jo'rabek akamning kelini ko'zi yoridi, suyunchi bering!" — dedi.

"E, aylanayin, ko'paysin, ko'paysin. Qachon tug'di?"

"Tong mahali".

"O'g'ilmi, qizmi?"

"Qiz. Otini To'rg'ay qo'yamiz, deyishdi. To'lg'an opa, tong mahali tug'ilgan, to'rg'ay, deyishdi".

"Juda yaxshi bo'libdi, bolam. Umrini bersin", — dedim.

Birovning yorug' dunyoga kelganiga o'zicha quvonib, shu katta quvonchni hammaga bo'lishib, xabar qilib yurgan podachi bolaning so'zi mehrimni qo'zg'ab yubordi. Qandaydir bir musaffo iliqlik yuragimga to'planib kelib, darvozadan kirib kelayotganimda, yursam ham, tursam ham doim dilimda turgan narsani qanday qilib esimdan chiqarib yuborganimni bilmayman: "Aliman, suyunchi! Jo'rabekning kelini tug'ibdi. Eshitdingmi? Oy-kuni yetib yurgandi, bechora, omon-eson...", — deb gapirib kelayotib, Alimanni ko'rganda mum tishlagandek bo'ldim. Uyning devoriga suyanib shalpayib turgan ekan. Boshini arang chayqab, lablarini tishlab bo'zarib turgan ekan. "Men tug'ganda hech kim bunchalik

suyunchi tortib xabar qilmaydi", degan o'yga bordi shekilli, kim bilsin, o'zimning gapimdan o'zim xijolat bo'lib, yuzim qizarib, nima qilarimni bilmay, gapirolmay qolib, tandirning yoniga o'tirdim-da, tezak qalay boshladim. Yuzimning qizargani tarqaganda qayrilib qarasam, Aliman hali ham o'sha bo'yicha bo'zarib turibdi. Hushim uchib, nima qilarimni bilmay: "Biron yering og'riyaptimi?" — dedim yoniga borib. "Yo'q, ena, o'zim shunday", — deb qo'ydi. "Biron yering og'risa, uyga kirib yotsang-chi, qiynalmay". "Qiynalayotganim yo'q. Tamaki bargini ipga tizishning nima qiyinchiligi bor, borayin", — deb juvoldizlarini qo'liga olib chiqib ketdi. Shunday bo'lgandan keyin endi ochig'ini aytayin. "Tortinma, bolam, uyalma. Buning hech qanday uyati yo'q, bu ham hayotning ajoyib bir tomoni. Kimning qanday tug'ilgani ham gap ekanmi, tug'ilganlarning hammasi birdek, ayirmasi yo'q. Dunyoga kelgan har bir norasta hamma odamzodning bolasi, demak, bu mening ham bolam, sen tug'sang u menga begona bo'lmaydi, o'z bolamdek ardoqlab boqarman. Shuni tushungin. Ko'nglingni yozib xursand bo'lib yurgin", — deb ilgaridan tayyorlab qo'ygan so'zlarimni aytayin degan o'y bilan orqasidan yugurib ko'chaga chiqdim. "Hoy, Aliman, to'xtab tur. Bu yoqqa qara", — desam, eshitmaganga solib yurib ketaverdi.

"Xafa bo'ldi shekilli", degan o'y kun bo'yi ichimni tirnadi. Ayollar bilan tamaki yulib yurib hammasini bir-bir o'ylab: "Mayli endi, kechqurun aytayin, bunday yurishimiz yaxshi emas", — deb o'zimni pishiqlab oldim. Lekin bu o'y-xayollarimni aytish nasib bo'lmadi. Kechqurun ishdan qaytib uyga kelsam, Aliman yo'q. Ana keladi, mana keladi, deb o'tirib yuragimni vahima bosdi. Nima falokat bo'ldi ekan. Ko'chaga chiqib izlayin-chi, degan xayol bilan uydan chiqib borayotsam, ekin tarafdan o'tin ko'tarib Bektosh kelayotgan ekan. Bektosh unda kolxozning aravasini shaldiratib haydaydigan yigit bo'lib qolgan edi... U indamay kelib, o'tinni uyning orqasiga tashladi-da, menga javdirab qarab qo'ydi. "To'lg'an opa, Aliman, meni enam izlamasin, deb aytib ketdi. Qayindidagi qarindoshlarimnikiga ketdim, dedi". Bo'g'in-bo'g'inim bo'shashib, bo'sag'aga o'tirdim. "Qachon ketdi?" "Boya. Tushdan keyin ko'chadan mashina o'tib borayotgan ekan, o'shanga tushib

ketdi". O'z yog'imga o'zim qovrilib o'tirsam, sadag'ang ketay Bektosh: "Kabinkasiga minib ketdi, opa. Sira qo'rqmang, shofyori durust odam ekan" — deb qo'ydi. Bektoshni o'zim ham yaxshi ko'rar edim. Unga yana mehrim ortdi. "Ha, bechoram, odam bo'lar ekansan", — dedim ichimda. Bola bilinmay o'saverar ekan-da, mana hozir er yetib, es-hushlikkina, peshonasi yorug' yigit bo'ldi. Ko'zimga shunday ko'rindi. Ariqdan so'v olib kelib, Bektosh eshikning oldiga sepdi. "Dahlizni supurib-sidirib salqin qilib qo'yayin. Onam, sizning choyingizni sog'inib qoldim, deydi. Hozir keladi", — deb o'zicha kuymanib samovar qo'ydi.

Oyshalar uzoq o'tirib choy ichib ketishdi. Uyda yotolmadim. Osmondagi chamandek yulduzlar tong otguncha charaqlab, so'ng birin-ketin so'nishib, eng oxiri porlab turgan yolg'iz Cho'lpon yulduzi qolib, u ham asta-sekin uzoqlashib, allaqayoqqa g'oyib bo'ldi.

Aliman ketgandan keyingi kunlarim qursin. Butunlay yolg'iz qoldim. Uch-to'rt kun eplab, o'zimni yupatib yurdim. Keyin chiday olmadim, shartta turib qayoqqadir bosh olib chiqib ketmoqchi ham bo'ldim, Alimanni ko'rishni eslasam, yurak-bag'rim battarroq eziladi. Agar uni tug'ishganlari xushfe'llik bilan kutib olsa — ko'p yaxshi, boshida, mening turmushimga aralashmanglar, deb katta ketgan eding, endi bizni yo'qlab keldingmi, deyishsa, sho'rlik bolam, bu xo'rlikka qanday chiday olar ekan. Xayoliga allanimalar kelib, shunday qilib yashagandan ko'ra o'lsam bo'lmaydimi, deb hayotdan bezib yurmasa-da. Yonimda bo'lganda hech kimga xo'rlatmas edim-a. Qanday qilib ketib qoldi ekan, bu ham sho'rimda. Nima bo'lsa ham borayin, o'z ko'zim bilan ko'rayin. Borsam balki men bilan qaytib kelar. Shunday qilsa ekan, Xudo-ya, shunday qilsa ekan. Bormayman, qolaman, desa — buni ham bilayin, nima qilardim, roziligimni aytib, oq fotiha berib qaytib kelardim. Kiyim-kechagini ham olib ketmadi, ularni ham eltib berayin. Kelsa-kelmasa ham aytar so'zimni aytishim kerak. Burchim emasmi. Voy, ko'p kechikmay jo'nayin, deb ertasi uyni-joyni Oyshaga tayinlab, yo'lga chiqdim. Qayindi tomonga borayotgan mashinani Bektosh to'xtatib berdi. Shu mashinaga tushib ovuldan sal uzaygan edim, so'qmoq yo'l bilan narigi daladan piyoda yurib kelayotgan bir ayolni ko'rib qoldim. Darrov tanidim — Aliman ekan! Xuddi

o‘zi, bo‘yginangdan o‘rgilay, qaytib kelayotgan ekan. Shu zahotiyoq o‘rnimdan irg‘ib turib, mashinani dukillatib ura boshladim. “To‘xtat! To‘xtat hozir, men tushaman!” — dedim. Mashina biroz yurib borib to‘xtagandan so‘ng, xurjunimni olib, shoshib undan tushdim. Shu orada uyulgan quyuq chang yetib kelib, ko‘zimga hech nima ko‘rinmay qoldi. Boyagi ko‘rganim o‘ngimmi, tushimmi deb taajjublanib turib qoldim. Kattakon mashinaning orqasidan tushib, yuragim qinidan chiqib ketgudek bo‘ldi-da: “Alima-an!” — deb qattiq qichqirdim. Oh, aylanayin dehqon dalam, o‘zing ko‘rmaganmiding, bu voqea ham o‘shanda bo‘lmaganmidi?

— Ha, To‘lg‘anoy, o‘shanda, hu, ana yo‘lda bo‘lgan edi. Sen: “Aliman!” deb qichqirganingda, Aliman yalt etib qarab, seni ko‘rib qoldi-da, so‘ng: “Ena! Enajonim!” — deb sen tomonga yugurdi. Sen o‘shanda esing chiqib: “Yugurma, bolam, yugurma, aylanay, yiqilasan!” — deb yolvorib kelayotib, o‘zing yiqilib tushib, yana irg‘ib turib chopib ketding.

— Ha, ha, xuddi o‘shanday bo‘lgan edi. Qanday yetib borganimni bilmayman. Aliman ikkovimiz quchoqlashib ko‘rishdik. Rosa sog‘inib qolgan ekanmiz: “Keldingmi, keldingmi, bolam, enangga qaytib keldingmi?” — desam: “Keldim, enajon, keldim. O‘zingizga qaytib keldim”, — dedi. Xuddi shu mahalda Alimanning qornidagi bolasi qo‘zg‘alib “bilq-bilq” etib ikki-uch marta tepib qo‘ydi. Uni ikkovimiz ham birdek sezib qoldik. Aliman qornini ushlab ohista silab menga qaradi. Uning shu ko‘z qarashi butun vujudimni vayron qilib yubordi. Men ham ba’zan bir nimani gumon qilib, ichimdan kuyinib yurgan ekanman-da! Qandaydir bir daqiqalik vaqt ichida hayotning eng bir baxtli, eng bir totli damlarini boshidan o‘tkazib turgandek Alimanning quvnoq yuzlari mehrimni o‘ziga tortib, kipriklariga ilingan munchoq-munchoq yosh donalari yuzlariga yumalab tushdi. Oh, muqaddas enalig-e! Go‘yo ko‘z yoshlari hayotdagi hamma azob-uqubatlarni yuvib yuborayotgandek! “Ko‘zingdan aylanayin, boqishingdan aylanayin!” — deb bet-boshimni silab, yalinib-yolvorib, hiqillab yig‘lab yubordim. Shunday qilsam: “Yig‘lamang, ena, — deb meni yupatdi. — Kechiring meni, kechiring. Sizni tashlab ketolmas ekanman. Chidolmadim, ko‘nglim bo‘lmadi”. Ko‘pdan beri aytaman deb yurgan gapimni

endi aytayin, payti kelib qoldi: "Nima uchun ketding, xafa bo'ldingmi?" — dedim. Aliman indamay turib qoldi-da: "So'ramang, ena. So'rab nima qilasiz, menga hech nima demang, men ham sizga hech nima demayin. Qiynamang meni, enajonim, qiynamang?" — dedi.

Shunday qilib, bu safar ham aytolmadim. Yana nima uchundir har qachon aytar gapimni sezib turgandek so'zlashishdan qochib, o'zini shunday tortib turib olmadimi boyaqish bolam. Bir gapni o'rtaga tashlasa o'ziga ham, menga ham yengilroq bo'lmasmidi. Esingdadir, ona-Yerim, o'sha yili kuz uzoq cho'zilib, so'nggi kunlari seryog'in bo'lmadimi. Havo bir ochilib, bir tutilib, izillagan sovuq ko'p vaqt uydan chiqarmay qo'ydi. Kuz havosi kabi kun sayin Alimanning qovog'i ham uyulib, gaplashmaydigan, kulmaydigan bo'lib qoldi. O'zicha tashvish tortib o'tirgani-o'tirgan. Chamamda, oy-kuni ham yaqinlashib qolgan edi. G'amga cho'kib qolmasin, deb qo'limdan kelgancha erkalatib, hazil-huzul gapirib, u qilgan, bu qilgan bo'laman. Biroq yosh bola bo'lgandan keyin qiyin ekan. Mengina emas, boshqalar ham bunga urinib ko'rishibdi. Bektosh, onam tumovlanib yotib qoldi, degan edi. Oyshani ko'rayinchi, deb borsam, isitmasi chiqib, yo'talib yotgan ekan. "O'zing-ku yarimjon odam eding, jimgina o'tirmay, ovul qidirib yurding", — desam, astagina jilmayib kulib qo'ydi. Bundan ikki-uch kun burun uch-to'rtta ayol bo'lib Bektoshning aravasiga tushib narigi ovulga to'yga borib kelishgan edi. Bilsam, ish boshqacha ekan. "Issiqroq o'ranib, yaxshi bo'lib ketgin", — deb o'rnimdan turayotsam, Oysha: "To'xtab tur-chi, To'lg'anoy, xafa bo'lmasang aytadigan bir og'iz gapim bor edi", — dedi. "Aytkin", — dedim.

"Quyi ovulga biz to'yga borganimiz yo'q, unda mening qarindosh-urug'im ham yo'q. Buni o'zing ham bilasan. Sendan yashirib bir ish qilgan edim. To'lg'anoy, kechirgin, — dedi. — Haligi cho'pon yigitni topib, o'rtaga oldik. Alimanning oy-kuni yetib turibdi, uning uvol-savobini kim ko'taradi, desak, bari bir hech nima chiqmadi. U o'zi ayolmand ekan, ikkinchidan, vijdonini yutib, men uningni ko'rgan emasman, bilgan emasman, deb tonib turibdi. Xotini ham bir shallaqi ekan, sezib qolib, betga chopib, itdek shar-

mandamizni chiqardi. Qaytib kelayotganimizda yo'l bo'yi yomg'ir yog'ib, kechki sovuq turib qoldi. Bunisi ham mayli-ya, Aliman endi nima qiladi?" — deb Oysha yuzini to'sib yig'lab yubordi. "Yig'lama, men turganda Aliman xor bo'lmaydi", — deb chiqib ketdim. Boshqa nima ham der edim.

Alimanni eti-boshi og'rib qoldimi, deb hadiksirab, keyingi kunlarda ko'zimni uzmay, uning yonidan sira jilmay yurdim. Birdan eshikka chiqib ketsa ham, orqasidan ergashib: "E-e, Aliman, qayoqda yuribsan?" — deb shoshib qolaman. To'lg'oq tutib qolmasin, deyman-da, bo'lmasam, men sho'rlikning boshqa nima ishim ham bor edi.

Bir kuni u issiq kiyinib olib, eshikka chiqib ketayotgan edi: "Qayoqqa borasan, bolam?" — dedim. "Katta suvga boraman", — dedi. "E bo'tam, kun bunday bo'lib tursa, entikib qanday borasan. Uyginada o'tirsang-chi. Suvda nima bor deysan. Yo yoz kuni bo'lmasa", — dedim. "Yo'q, boraman", — dedi. "Unda men ham birga boraman, yolg'iz yubormayman", — desam, jahli chiqib ketdi. Ko'pdan beri achchiqlanib yurganining qusurini chiqardi: "Nima uchun menga ergashib, qadam-baqadam poylab qoldingiz. Nimangiz bor menda. Meni o'z holimga qo'ysangiz-chi. O'ladi deysizmi, o'lmayman, o'lmayman!" — deb eshikni tars yopib chiqib ketdi. Tumshayib o'tirib qoldim. So'zi og'ir botdi. Qattiq xafa bo'ldim. Shunday bo'lsa ham ko'nglim tinchimadi. Ikki-uch marta eshikka chiqib qaradim, suvga ketgan bo'yicha ko'rinmasdi.

Ko'zga ilinmagan mayda yomg'ir savalab, shamol oq parqu bulutlarni ag'dar-to'ntar qilib haydardi. Dov-daraxtning tanasi, butoqlari sovuqdan qorayib ketibdi. Elning bari uy-uyida, hech kimsa yo'q, qishloq ichi egasizdek jimjit. Yuzlariga chimmat tutgandek tog' cho'qqilari g'ira-shira ko'rinib turardi.

Yomon ko'rsa ko'rsin, orqasidan borayin, to'lg'og'i tutib zah yerga yotib qolmasin, deb tomorqaning etagiga yetib borganimda Aliman ko'rindi. Boshini quyi solib og'ir yurib kelayotgan ekan. Orqamga darrov qaytib keldim-da, choy qaynatib, tuxum solib, quymoq qildim. Saqlangan olmadan tanlab, qizillarini dasturxonga qo'ydim. Aliman kirib keldi-da, dasturxonni ko'rib, indamay kulimsiradi. "Kechikib ketding-ku, bolam. Endi o'tirib choy

ichgin", — dedim. "Ko'nglim hech nimani tortmay turibdi, ena. Olmadan bittasini bering-chi, o'shani yeyayin", — dedi. "Nima bo'ldi senga, Aliman? Yoki biron yering og'riyaptimi?" — desam, labini tishlab: Boya siga qattiq gapirib qo'ydim. Meni o'z holimga qo'ying", — deb qo'l siltab qo'ydi.

Yana kech bo'lib, tun kirib keldi. To'shakka yotganimda, mening so'zim ham unga yoqmay qolibdi-ku, deb ichimdan o'ksinib yotib uxlab qolibman. Boshqa vaqtda uzoq tun bo'yi tez-tez uyg'onib, Aliman tomonga qarab qo'yardim. Bu kecha nima balo bo'lib uxlab qolganimni bilmay qolibman. Uxlamay ko'zim o'yilsa-chi...

Tunning qaysi vaqti ekanini bilmayman, birdan uyg'onib ketdim-da, Alimanga qaradim. O'rnida yo'q. Eshikka chiqib ketgandir, deb biroz kutdim, yana kutdim. Yo'q. Tura solib, Alimanning to'shagini ushlab ko'rdim: muzdek, qachonlardir turib ketgan, darrov uni-buni kiyina solib, eshikka otilib chiqdim. Hovlining ichini aylanib qarab, ko'chaga chopib chiqib, undan tomorqa tomonga o'tdim. "Aliman! Aliman!" — deb qichqirsam ham, hech kim yo'q. Itlargina hurib qo'yishdi. Bo'g'inlarim bo'shashib ketdi. Ketgan ekan-ku, endi qanday qildim? Uyga qaytib chopib kelib, dahlizdagi fonusni yoqib, burchak-burchaklarni qarab, endi eshikni izlayin deb fonusni ko'tarib hovliga chiqqanimda, narigi saroydagi somonxonaning ichidan odamning ingragan, qichqirgan tovushi eshitildi. Somonxonaning eshigini tez ochib kirib borib, serrayib turib qoldim. Somonning ustiga chalqancha tushgan Aliman tug'a olmay qiynalib yotgan ekan, ko'riboq, esim chiqib ketdi. "Bu nimang, voy tushmagur! Nima uchun aytmading?" — deb qo'ltiqlab ko'taray deb oyog'iga qo'limni tekkizganimda, bilchillab qonga botgan chopon, ko'ylaklar issiq bo'lib bilagimga urildi. Yuzlari ko'karib, ko'zlari olayib nafas ololmay hiqillab: "O'ldim! O'ldim!" — deb inqillab yotibdi. Qornini ushlab ko'rib ish chatok ekanini darhol tushundim. Xudoning o'zi saqlasin, qon ko'p ketib qolibdi. O'zi ham anchadan beri to'lg'oq tutib yotgan ekan. Bunday vaqtda do'xtirdan boshqa davo yo'q, jonini olib qolsa o'sha olib qoladi.

Tentiraklab ko'chaga chopib chiqib, Oyshalarning derazasini mushtlab yubordim: "Turinglar, voy, turinglar! Bektosh, ayla-

nayin, aravangni tezda tayyorla. Alimanni do‘xtirga olib bormasak bo‘lmay qoldi” — deb ularni uyg‘otib qaytib chopib kelib, Alimanga suv ichirdim. Qalt-qalt etib, tishi tishiga tegmay, arang ichdi. Ungacha to‘shakda kasal yotgan Oysha chopib keldi. Alimanning aftini ko‘rib, bo‘zdek oqarib, titrab: “Aylanayin, Aliman, chidab tur. Chidab tur, Xudo, Xudo!” — deb kuyundi. O‘sha kechasi Bektosh ishdan kech qaytib, Xudo yarlaqab, otlarini bostirmaga bog‘lab, aravasini uyga kiritib qo‘ygan ekan. Ko‘p o‘tmay aravani hovliga haydab kirdi. Aravaga ko‘rpa-to‘shak solib, yostiq qo‘yib, qorong‘ida timirskilanib uch kishi bo‘lib Alimanni zo‘rg‘a ko‘tarib yotqizdik. Shu bilan u-buga qaramay tez jo‘nayverdik.

Oh, o‘shandagi yo‘l azobi-yey, oh, o‘shandagi qorong‘i tun-ey... Do‘xtirxona u vaqtda suvning narigi bo‘yida, katta qishloqda emasmidi. Ko‘prik bo‘lsa hov pastda, ancha yiroqda edi.

Uydan chiqqanimizdan Alimanning to‘lg‘og‘i qayta kuchayib, besh bukilib, besh yozilib, ustidagi yopinchilarini irg‘itib, odam chiday olmaydigan tovush bilan chinqirardi.

— Ha, To‘lg‘anoy, o‘sha qorong‘i, izg‘irin tunda qish kelishini kutib junjikib, sovuqdan qaltirab yotgan edim, odamning qattiq chinqirgan yagona tovushidan seskanib qo‘zg‘aldim. O‘sha sizlar ekansizlar-ku.

— Ha, ona-Yerim, men shunda nima qilishimni bilmay shoshib qoldim. Bektosh aravani tezroq haydasa, Aliman chidamay qichqiradi, sekinroq haydasa, sabri chidamasdi: qon to‘xtamay ketaverdi, mayib bo‘lib qoladi-ku, deb menda jon qolmadi. Shu zaylda g‘ildirab boraverdik. Bunday yo‘l bir tekisroq bo‘lsa-chi, aylanay. Alimanning boshini tizzamga qo‘yib, bo‘ynidan quchoqlab o‘tirdim. Goh yopinchilarini o‘nglayman, goh fonusni yuziga tutib qarayman. Bektosh aylanayin, qayta-qayta qayrilib: “Chidab tur, yanga, mana yetamiz”, — deb ovutmoqchi bo‘ladi. Muzdek yomg‘ir savalay boshladi. Bir vaqt inqillab qichqirib yotgan Aliman chiranib, qayta buklanib, baqirib, qichqira boshladi. “Aliman! Aliman!” — deb cho‘g‘dek yuzlarini siypalab, yoriqqa tutsam, jon talashgan, qiynalgan ko‘zlari bilan menga ayanchli bir holda, tikilib: “To‘xtanglar. O‘lyapman. To‘xtanglar”, — dedi. Aravani to‘xtatdik. “Boshimni qattiqroq bosing, ena”, — deb entikib yig‘lab

gapirdi. "Ena, enajonim! Ichim kuyib, o'lib boryapman, tirik qolmayman. Xosiyatingizdan aylanayin enajonim, u dunyo, bu dunyo roziman sizdan. O'g'lingiz qarshisida men pokman, gunohim yo'q. Qosimning ko'zi tirik turganda men shunday bo'larmidim... A-a-a, Qosim-ey... Men ham joni bor odam emasmanmi, ayolman-da... Bu dunyoning rohatini ko'rmay ketdim, qanday qilayin, qanday qilayin. Kechiring, kechiring, enajon, Xudo shu ko'yga soldi, yomon ko'rmang". Bag'rim ezilib yalindim: "Chidab tur, bolam, chidagin, sen poksan, senda hech qanday gunoh yo'q. Sen eng halol ayolsan. Sen o'lmaysan. Chidagin, mana ko'prikka yetib oldik. Endi tez yetamiz, sen o'lmaysan!" O'sha mahalda Aliman yana chalqancha yotib, kuchanib, qorni yana siqila boshladi. Bolaning qo'li chiqib kelayotgan ekan. Qon hali ham ketib turibdi. Biroz vaqt o'tsa o'lib qolishiga ko'zim yetib: "Bektosh, qo'ltig'idan yuqori ko'tarib, qornini siq, — dedim. — Uyalma, ko'tar tezroq!" Boyadan beri yig'lab o'tirgan Bektosh irg'ib turib, Alimanni ko'tarib, qornini bosganda, bolaning qo'lidan ushlab tortdim. Bola chiqmay yotardi. Aliman bir yoqda qichqirib jon talashib yotsa, tavba, qulog'imni tindirib, tag'in o'sha eshelon: bir-biriga ulashgan ikki parovoz olib uchgan vagonlar miyamni qoq yorib o'tib borayotgandek tuyuldi... "Ona-a, Alima-an!" — deb shamol olib qochgan hayqiriq tovushga chaqaloqning "Ingga-a!" degan tovushi qo'shildi... Eh, hayot-ey, nega muncha berahm bo'lding, nega muncha ko'r bo'lding? Bola ham tushdi. Alimanning joni ham chiqa boshladi. Qip-qizil etni etagimni nari-beri o'ray solib qarasam, Bektosh qo'ltig'idan olib ko'targan bo'yicha, Alimanning bir oyog'i qiyshayib, qo'llari salanglab qolibdi. "Voy, Aliman!" — deb tomirini ushlab ko'rsam, jon yo'q, chiqib bo'pdi... Hayqirgan shamolni yorib eshelonning shaq-shaq urgan ovozi qulog'imdan hech vaqt ketmaydi... Dunyoga kelgan zahoti "Ing-ga-a!" deb qichqirgan bola birinchi to'ng'ich tovushi-la o'lib borayotgan onasi bilan xo'shlashiyotgandek yig'lar edi... Alimanning ko'zi muzlab olayib qoldi. Nima qilishimni bilmay qoldim. Bir vaqtning o'zida birini uzatib, birini kutib oldim. Bir vaqtning o'zida biri o'lib, biri tug'ilib, ko'z oldimda ajal bilan hayotning to'qnashgani esimni og'dirdi. Undan keyin o'zim ham nima bo'lganini bilmayman...

— Sizlarning tovushlaringizni men eshitdim, To‘lg‘anoy. “Aliman! Aylanayin qarog‘im! Ko‘zingni och! Ko‘zingni och!” — deb sen zor qaqshab yotding. Yangi tug‘ilgan chaqaloq ko‘lning qirg‘og‘ida yolg‘iz qolgan o‘rdak bolasidek bo‘zlab, emchak so‘rayotganga o‘xshardi.

Bu tongga yaqin yomg‘ir qorga aylanib yog‘a boshlagandek bo‘ldi.

— Ha, ko‘prikka yetmasdanoq orqaga qaytib kelayotganimizda tong yorishdi. Bo‘zargan osmonning beti zangori tusga kirib, g‘ira-shira yorug‘da yumshoqqina oppoq qor sepkilab yog‘ib turardi. Tevarak-atrofda na bironta jon ko‘rinar va na bironta tovush eshitilardi. Dunyo bir tekisda sukunatga cho‘mgan edi. Tabiatning o‘sha horg‘in holatini buzib, yolg‘iz bizning arava kelardi. Bektosh aravada o‘tirgan joyida boshini quyi solib, yo‘l bo‘yi hiqillab yig‘lab keldi. Otlar arang bosib, yoliga, quyrug‘iga qor yopishib, aravani tortolmay charchab, arang kelishardi. Bolani choponimga o‘rab, men aravaning yonida piyoda kelardim.

Shunday qilib, urush eng oxirgi o‘chini olib tinchidi. O‘sha kungi bosilgan yo‘l hayotimdagi eng og‘ir yo‘l bo‘ldi. “Tfu, sening betingga, dunyo! — derdim. — Kechdim sendan, kechdim. Yashashni istamayman! Bunday qilib yashagandan ko‘ra, bugunoq o‘lganim bo‘lsin!” — deb niyatim buzilib, hayotdan bezib kelaverdim. Men shunday kelayotganimda, choponimdagi bola, tirik jonda, bir qimirlab, bir ovoz chiqarib, bir ingalab yig‘lab kelardi. Uning tarlasi borgan sari qalbimni isitib, yuragimga yaqinlasha bordi. O‘g‘ilmi, qizmi ekanligini, ham bilganim yo‘q. Obbo bechora-yey, hadeganda onangni yo‘qlab qolding-ku, deb undan battar uvvos tortib yig‘ladim. O‘sha kuyguli, iztirobli yig‘ining orasida qandaydir g‘alati bir fikr tug‘ildi: “Umr tap taqir tugab qolmabdi-ku. Orqasidan kichkinagina tirik jon qolibdi-ku. Hayot bilan yana bir marta bellashib ko‘rsak qanday bo‘larkin?” Birozdan keyin yana o‘yladim: “Ona sutini totmagan go‘dak odam bo‘ladi deysanmi. Qancha yashay olardi deysan”, — deb gumon qildim. Unga ham ko‘nmay: “Xudo-yey, endi shu norastaning umrini ber!” — deb tilayman. Qo‘ychi, shunday har xil o‘y-fikrlar bilan olishib oppoq tong otganda ovulga yetib keldik. Ukkining patidek yumshoq qor

uchqunlari birini biri quvishib havoda aylanmachoq o‘ynab yog‘ib turdi. Ovulga kiraverishdagi hali yangi ko‘cha deganimiz ko‘zimga allaqanday sovuq, ayanchli bo‘lib ko‘rindi o‘shanda. Uy-joy solib, bog‘ qilib, oz-moz chorva ko‘paytiramiz, kun ko‘ramiz deganlarning bundan yetti yil burun boshlagan ishlari ilgari bosmay, orqaga ketib, mehnatlarining iziga qolgan edi. Qo‘nqaygan xarobalarni oqquray, tikanaklar g‘ovlab bosib ketgandi. Qor yog‘ib, ularning kemtik-semtigini yashirib yotardi. Qosimlarning charbog‘iga qarasam, Aliman ikkovining orzu-tilaklariga o‘rnatilgan haykaldek uyulgan tosh tepa, allaqachon tuproqqa aylanib ketgan g‘ishtlarning unutilib yotgani yurak-bag‘rimni ezib yubordi. A-a, qarog‘larim, orzularingga yetmay qoldilaring-ku, deb aravada yotgan Alimanning aftiga qarasam, yuzi oppoq bo‘lib, dunyoning hamma yaxshi, yomoniga rozi bo‘lgandek tinchib, ko‘zi yumilgan. Yuziga tushgan qor erimay, arava qimirlaganda sidirilib tushib turdi.

Ko‘chaga kirib kelgan ekanmiz... Aylanayin Bektosh yigitlardek aravadan sakrab tushdi-da, umrida birinchi marta yig‘i boshlab: “Jigarim-ey! Jigarim-ey!” — deb butun ovulni boshiga ko‘tarib yubordi.

Har tarafdan el yugurib kela boshladi. Yig‘lab, bo‘zlab yetib kelgan Oysha: “Bolani menga ber endi”, — deb oldi-da, choponiga o‘rab, uyiga ko‘tarib ketdi. Oradan bir kun o‘tib Alimanni o‘rniga qo‘ydik. Ayol kishi bo‘lsam ham qabrining boshigacha o‘zim bordim, kelinimni o‘z qo‘lim bilan qo‘ydim, manguga vidolashdim. U kuni ham qor uchqunlab turdi. Uyulgan qora tuproq tezda oppoq tepaga aylandi. O‘sha yili, ko‘klamda kelinimning qabriga gul o‘tqazdim. O‘shandan beri har yili gul ekib o‘stiraman. Yodgorligim, ermagim shu. Alimanim gul suygan kelin emasmidi...

Shu bilan u qilib, bu qilib Jonbo‘lotni echkining suti bilan boqib katta qilib olmadimmi. U ikkovimiz ko‘rmagan azobning bittasi ham qolmadi. Haytovur, tuz-nasibasi bor ekan, omon qoldi. Mana hozir o‘n ikki yoshga kirib qoldi. Aylanib kelib qariganda topganim, ko‘rar kunim shu bo‘lib qoldi. Shunisiga ham qanoat qilaman, yoqamni ushlayman. Aytgandek, o‘sha paytdagi do‘xtir yigit endi katta kishi bo‘lib qolmadimi, har safar yo‘liqqanda so‘rab qoladi: “Qanday opa, o‘g‘ling katta bo‘lib qoldimi?” — deydi. “Xudoga

shukur, yigit bo'lib qoldi", — deyman. Shunda u jilmayib qarab qoladi. "Shunday qil, opa, yaxshi odam qilib o'stirgin", — deydi. Jonbo'lot go'dakligida qattiq shamollab, bir kun qarasam, lablari ko'karib, ko'zlari olayib mazasi qochib boryapti. Esim chiqib, o'sha yerdan ola yugurdim. Tun edi. Do'xtirga tezroq yetayin, deb qish bo'lsa ham katta suvdan kechib o'tmadimmi. Kiyim-kechagim jiqqa ho'l kirib borsam, do'xtir yangidan kelgan yosh bola ekan, qo'rqib ketdi. "Nima uchun suv kechib yuribsiz, tinchlikmi? Buning ota-onasi qayerda?" "Buning otasi ham, onasi ham men. Bolam, shunimni omon saqlab qol. Bu o'lsa meni tiriklay ko'maver. Yashamayman", — dedim.

Kechasi bilan yonidan ketmay dori-darmon qilib turdi. Menga ham yangi ust-bosh, dori berib, oldini oldi, lekin erta bilan isitma bosib, qon yo'talib yiqildim. Qalin tuman ichida kuyib borayotgandek es-hushimni bilmay yotsam, do'xtir dam-badam kelib, muzdakkina qo'li bilan chakkamni ushlab: "Opa, o'g'ling yaxshi bo'lib qoldi. Bo'shashma, boy berma kasalga!" — deb g'ayratlantirdi. "Unday bo'lsa, o'lmayman, o'lmayman", — deb shivirlab qo'ydim. O'lmay tirik qolganimga ham shu sabab bo'ldi deyman...

— O'g'ling yigit bo'lib qolibdi, To'lg'anoy. Bu yil o'roq mahalida shu o'rtada chopib yurgan ekan, Alimanga o'xshashligidan tanib oldim.

— Ha, qutlug' dalam, onasiga o'xshashligi chin. Biroq hech nimani bilmaydi-da. Otam frontda o'lgan, deydi, onamning qabri bo'lsa ovulning chetida, deb qo'yadi. Bu yil yozda bir qiziq voqea bo'ldi. Yozgi ta'til kunlari edi. Qosimning haligi bir velosipedi bor emasmidi. U yigirma yildan beri saroyda qoziqda osiqlik turardi. Jonbo'lot o'shani eshikka olib chiqib tuzatdi. Bola-da, qachonlar zang bosib, yaroqsiz bo'lib qolgan emasmidi. Bir vaqt Bektosh ham unga yopishib olibdi. Ikkalasi tuzatmoqchi bo'lishdi. Rosa ovora bo'lishdi. Jonbo'lotni Bektosh boshidan o'z bolasidek ko'rardi. Hozir uchtaning otasi, og'ir, salmoqli, miqti kishi bo'lmadimi. Ko'pdan beri kombayn haydaydi. Oysha bo'lsa — o'lgan. Tengdoshimdan ajralib, shunday qattiq o'ksidim.

Xullas, bir kun qarasam Jonbo'lotim yugurib-yelib velosipedini yetaklab qoldi. "Ena, qarang otamning velosipedi qanday yaxshi

bo'lib qoldi", — dedi. Yuragim allaqanday bo'lib ketdi. Shunda maqtanib: "O-o, men o'rganib qoldim, ena. Qarab tur hozir!" — deb velosipedning egariga bo'yi yetmay bir yoq tomoniga qiyshayib yopishib, lapanglab, goh bu yog'iga og'ib, goh u yog'iga og'ib haydaganda yiqilib ketadimi deb qo'rqib: "Tush, voy sho'rim, yiqilasan!" — desam, yana qattiqroq haydab borib, velosipedi bilan birga yiqildi, qattiqqina yiqildi. "O'rgilay, qayoqdagi ishni boshlading, o'lasan-ku bunday-da!" — deb halloslab yetib bordim. Yerdan dast ko'tarib, yuz-boshini artdim. Shunda qarasam, narigi yoqda Bektosh tek, anchayingina qarab turgandek tikilib turibdi. Indamadi, men ham indamadim. Bir-birimizni tushundik.

Oradan ko'p o'tmay ekinlar pisha boshladi, bir kun Bektosh kelib: "Jonbo'lotni kombaynga yordamchi qilib olayin", degan edi. "Yarasa ola qol", — dedim.

Aytishga aytib qo'yib, ikki kundan keyin ko'nglim chidamay bolamni ko'rgani bordim. Podada kelayotgan moldek dimiqib garmsel yurib tursa ham, pishiqchilik mahaliga nima yetsin! Dehqonning yil bo'yi to'kkan terining, qilgan mehnatining natijasi, samarasi shunda ko'rinmaydimi. Boyligi qo'liga sig'may, mardligi terisiga sig'may yerdan topgan oziq-ovqati qancha odamzodga nasib bo'ladi. Dehqon olamni boqadi.

Donning anqigan xushbo'y hididan, aylanay dehqon dalam, mavjlangan ekinlarni ko'rib xumordan chiqmadimmi! Hov olis-olislarda goh ko'rinib, goh ko'rinmay chopib kelayotgan otliqqa qaraganingdagina dunyoning naqadar kengligini bilar ekansan.

Jonbo'lot kombaynda somon tashib yurgan ekan, meni ko'ra solib: "Ena, ena! Men bu yoqdaman", degandek maqtanib qichqirdi. Shturvalning yonida mag'rurona turgan Bektosh boshini irg'ab qo'ydi.

Ariqning bo'yida tolning soyasiga o'tirib kechgacha tomosha qildim. Yo'l changitgan mashinalar bir-biriga ulanib bug'doyni xirmonga tashib turdi.

Qosh qorayganda kombaynchilar dam olgani kelishdi. Bektoshning yonida mag'rurlanib kelayotgan Jonbo'lot anchagacha gapirolmay, yarmigacha yalang'och bo'lib ariqdagi suvga yuvindi-da, olib kelgan tugunchagimni ko'rib: "Ena, olma olib keldin-

gizmi?" — deb sevinib ketdi. "Olib keldim", — desam, yugurib kelib bo'ynimdan quchoqlab o'pa boshladi. Bektosh piqillab kulib yubordi: "Boyadan beri shunday qilsang bo'lmasmidi. Mayli, buguncha erkalanib ol enangga", — dedi.

Ko'chma uyning yonida o'tirib choy ichdik — yangigina yopilgan issiq non ekan. Jonbo'lot katta kishilardek non to'g'rab: "Oling, ena", — dedi. Bir burda non olib tishlaganimda, Qosimning qo'lining hididek kombaynchining moyli qo'lining hidi anqib turdi. Ha, ha, xuddi o'shanday — kerosin, quyosh, somon hidi kelayotgandek shirin non ekan. Ko'z yoshlarim bilan qo'shib yutib yubordim. "Non o'lmas ekan-da! — dedim ichimda. — Hayot o'lmas ekan-da, mehnat o'lmas ekan-da!"

"Qo'noqlab kelib qolibsiz, opa. Yotib keting bugun biznikida", — deb Bektosh uyga ketkizmay qo'ydi. Somon ustiga to'shak solib berishdi. O'sha kechasi osmonga qarab yotsam, somon yo'li yangigina tushgandek, allakim hozirgina katta bir quchoq somon ko'tarib o'tgandek, yiltillagan mayda to'ponlar shamol tekkandek sochilib, tovlanib yotardi. Go'yo osmoni falakda o'sha somon yo'li bo'ylab tobora olislab borayotgan eshelonning "shaq-shuq" ovozi yuragimni zirqiratib, uzoq vaqt eshitilib turgandek bo'ldi. Temir izlarga urilgan g'ildiraklari meni tebratgandek, ko'zim ilinib, bugungi tunda dunyoga yana bir dehqon keldi-ku, umrini bersin, sepgan urug'i yulduzlardek hisobsiz bo'lsin, deb somon yo'liga tikilib uxlab qolibman.

G'ira-shira tongda o'rnimdan turib ishlayotganlarga xalaqit bermayin deb ovulga jo'nadim.

Ko'pdan beri bunday musaffo tongni ko'rmagan edim. Ko'pdan beri to'rg'ayning bunday sayraganini eshitmagan edim. Cheki yo'q, chegarasi yo'q ko'm-ko'k musaffo osmonga ko'rk bo'lib, bo'z to'rg'ay, odamning osmonga uchib chiqqan yuragi kabi tinim bilmay, qanot qoqib pirpirab, bir nuqtadekkina bo'lsa ham naqadar nozik, naqadar to'lqinlantiruvchi kuylarni taratib xonish qilardi. Tilginangdan aylanayin, to'rg'ayim. "Ana, bizning to'rg'ay sayradi", deb qo'yardi Suvonqul. Sen ham o'lmas ekansan, to'rg'ayim!

VII

— O‘, qutlug‘ dalam, sening hozir dam olib yotgan payting. Kecha o‘roqqa tushgan odamlarning ovozi ham eshitilmaydi. Bug‘doy tashib yo‘l changitgan mashinalar ham yo‘q, yaqin orada kombaynlar ham ko‘rinmaydi, mollar ham tog‘dan tushgani yo‘q. Odamga buyurgan non-u nasibasini o‘ziga buyurib, bir qarzingdan qutulgandek yer haydash uchun qo‘sh chiqqunga qadar osuda yotadigan mahaling. Hech kim yo‘q, ikkovimiz — sen va men. Ko‘zi yorigan ayoldek cho‘zilib yotganingdan aylanayin, ona-Yerim. Men senga bugun butun hayotimni aytib berdim.

Bugun mening sig‘inadigan kunim, bugun mening Suvonqulni, Qosimni, Maysalbekni, Jaynoqni va Alimanni eslaydigan kunim. Men ularni o‘la-o‘lgugnimcha unutmayman. O‘rni kelganda hammasini Jonbo‘lotga tushuntirib aytib beraman. Esi bo‘lsa tushunar, aqli bo‘lsa kechirar bizni... Lekin boshqalar-chi, quyosh ostida yashagan barcha odamzodga aytar so‘zim, aytar gapim bor. Uni qanday aytaman, uni qanday qilib hammaga aytib chiqaman?

Ey osmonda yarqiragan Quyosh, yer yuzida yurib sen aytgin!

Ey ko‘chib yuruvchi bulutlar, yomg‘ir bo‘lib yog‘ilib, har bir tomching bilan sen aytgin!

Yer, barcha odam bolasini to‘yg‘azgan Yer, sen, sen aytgin, jonim tutashgan Yer.

— Yo‘q, To‘lg‘anoy, sen aytgin. Sen — Insonsan. Sen hammamizdan buyuk, sen hammamizdan ulug‘ bo‘lib yaratilgan jonsan, sen aytgin, sen — Insonsan!..

VIII

— Ketdingmi, To‘lg‘anoy?

— Ketdim. Xayr, omon bo‘l, o‘lmasam yana kelarman.

1963-yil

OQ KEMA

BIRINCHI BOB

Uning ikki ertagi bo'lardi. Biri o'ziniki bo'lib, uni hech kim bilmasdi. Ikkinchisini esa bobosi so'zlab bergandi. Keyin birontasi ham qolmadi. Gap shu xususda.

O'sha yili u yetti yoshga to'lib, sakkizga qadam qo'ygandi.

Avval portfel sotib olindi. Qop-qora dermantin portfelni ochib-yopganda shiqillaydigan qulfi yaltirab turardi. Yonida mayda-chuyda soladigan kissasi ham bor. Qisqasi, g'aroyib, ayni paytda oddiy maktab portfeli edi. Hamma narsa, ehtimol, shundan boshlandi.

Bobosi uni ko'chma do'kondan sotib oldi. Ko'chma do'kon tog'dagi chorvadorlarga mol sotib, aylanib yurganda, ularga ham, San-Toshdagi o'rmonchilik qorovulxonasiga ham birrov burilgandi.

U bu yerdan, dara va nishab yo'llar bo'ylab tog'dagi qatag'on o'rmonga ko'tarildi. Qorovulxonada bor-yo'g'i uch oila yashaydi. Lekin shunday bo'lsa-da, vaqti-vaqti bilan ko'chma do'kon o'rmonchilarni ham yo'qlab turardi.

Uch hovlida yolg'iz bitta bola bo'lib, u har safar ko'chma do'konni birinchi bo'lib ko'rar edi.

— Kelyapti! — deb qichqirdi u eshik va derazaga qarab chopib.— Mashina-magazin kelyapti!

Issiqko'l bo'ylaridan bu tarafga cho'zilgan aylanma yo'l kela-kelguncha dara, daryo sohili bo'ylab, toshloq va o'nqir-cho'nqirlardan o'tib kelardi. Bu yo'llardan yurish hazilakam ish emas. Qorovultoqqa yetguncha yo'l pastdan yuqoriga torayib, qiyalab borardi-da, keyin tikka taqir nishablik bo'ylab o'rmonchilar hovlisiga tushadi. Qorovultog' shundoq yonginalarida — yozda bola durbindan ko'lni tomosha qilgani deyarli har kuni o'sha yoqqa

chopardi. U yerdan esa yo'lda kelayotgan piyoda-yu, otliq, albatta, mashina ham, hamma narsa kaftdagidek ko'rinib turardi.

O'sha safar — issiq yoz kunlaridan birida bola o'z ko'lobida cho'milib turgan edi, shunda qiya yo'lni changitib kelayotgan mashinani ko'rib qoldi. Ko'lob daryoning chetroq sayoz joyida, qumloq yerda bo'lib, bobosi tosh qalab to'sib bergan edi. Agar shu to'siq bo'lmagan-da, kim biladi, balki bola ham allaqachonlar tirik qolmagan bo'larmidi? Buvisining aytishicha, daryo allaqachon uning suyaklarigacha yuvib, to'g'ri Issiqko'lga eltib tashlarmidi va u yerda baliqlar hamda suvdagi har xil baloyi battarlarga yem bo'larmidi? Hech kim uni qidirib jon koyitmas, dardida kuyib, ado bo'lmas edi, rost-da, suvda pishirib qo'yibdimi? Sirasini aytganda, u kimga ham kerak. Hali hozircha bu falokat bo'lganicha yo'q. Sodir bo'lsa, kim biladi, buvisi balki chindan ham uni qutqargani urinib ko'rmas, kampir tug'ishgan buvisi bo'lganda boshqa gap edi, axir, uning o'zi, o'gaysan, deb yuradi-ku. O'gay esa qancha yedirib, qancha ichirma, baribir o'gayligiga boradi. O'gay... Agar u o'gay bo'lishni istamasa-chi? Xo'sh, nega endi u o'gay bo'lishi kerak? Balki u emas, buvisining o'zi o'gaydir?

Lekin bu to'g'rida ham, bobosi yasagan to'siq haqida ham keyinroq gap bo'ladi.

Shunday qilib, u o'shanda ko'chma do'konni uzoqdan ko'rib qoldi, mashina ketidan to'zon ko'tarib, tog'dan tushib kelayotgan edi. Shunda u quvonib ketdi, o'ziga portfel olinishini bilgandek quvonib ketdi. Shu zahotiyoq suvdan sakrab chiqdi, chillakdek oyoqlarini ishtonining pochalariga tiqdi-yu, suvning sovuqligidan ko'karib ketgan badanining ho'li bilan ko'chma do'konning kelayotganini birinchi bo'lib yetkazish uchun so'qmoqdan uylar tomon chopib ketdi.

Bola butalar ustidan hatlab, sakrab o'tish qiyin bo'lgan xarsang toshlarni yonlab o'tib, na o'siq o'tlar, na xarsang toshlar oldida, bular shunchaki narsalar emasligini bilsa-da, bir daqiqa ham to'xtamay chopib borardi. Ular ranjib qolishi, hatto chalib yiqitishi ham mumkin edi. "Mashina-magazin keldi. Men keyin kelaman", — yo'l-yo'lakay u "cho'kib yotgan tuya"ga gap qotdi. U bag'rini yerga berib yotgan sarg'ish bukri toshni shunday deb

atardi. Odatda bola o'z "tuya"sining yonidan uning o'rkachini silamasdan o'tmasdi. Xuddi bobosi dumi cho'ltoq axta otini shapatilagani kabi, u ham ishning ko'zini biladigan kishilar singari o'z "tuya"sining yonidan o'tib borayotib naridan beri, sen sabr qilib turasan endi, mening ishim chiqib qoldi, deb uni shapatilab qo'yardi. Uning xarsang toshida "egar" ham tayyor edi. Yarmi oq, yarmi qora bu chavkar toshdagi egarchada xuddi otda o'tirgandek o'tirgan bo'lardi. Yana "bo'ri" degan tosh bor — bo'riga juda o'xshash qo'ng'ir, oq oralagan, yoldor va cho'ng peshanali. Bola uning oldiga pisib emaklab borardi-da, mo'ljalga olardi. Lekin eng sevimli tosh, bu suv yuvib ketgan qirg'oqdagi kattakon xarsang "tank" edi. Qarab tursang "tank" qirg'oqdan otilib chiqadi-yu, daryoni shovqin-suronga solib, to'lqinlantirib, ko'piklantirib, yurib ketadigandek. Tanklar kinolarda axir shunday yuradi-ku, qirg'oqdan suvga otiladi: ketdi! Bola kinolarni kam ko'rgan, shuning uchun ham ko'rganlari yodida qattiq o'rnashib qolgan. Bobosi ba'zan uni kino ko'rsatgani tog' ortidagi — qo'shni daradagi sovxoz naslchilik fermasiga olib borardi.

Shu sababli ham qirg'oqda daryoni har qachon kesib o'tishga shay turgan "tank" paydo bo'ldi. Yana boshqa — "yaxshi" va "yomon" toshlar, hatto "ayyor" va "ovsar"lari ham bor.

O'tlar orasida ham — "sevimli", "botir", "hurkak" va "yovuz" hamda boshqa har xillari mavjud edi. Chaqirtikan, masalan, — eng birinchi dushman. Bola u bilan kuniga o'n martalab jang qilgan, chopib tashlagan. Lekin bu jangning oxiri ko'rinmasdi — chaqirtikan hadeb o'saverar va ko'payaverardi. Mana, daladagi pechak gullar, to'g'ri, ular ham yovvoyi, shunga qaramay bular eng aqlli va quvnoq gullardir. Ular ertalab quyoshni hammadan ortiq yayrab qarshi oladi. Boshqa o'tlarga — tong nima, tun nima, baribir. Pechakgullar esa kun ilishi bilanoq ko'z ochadi, kulib boqadi. Oldin bir ko'zini, keyin ikkinchisini ochadi, shundan so'ng bag'ridagi barcha gullar birin-ketin ochila boshlaydi. Oq, och ko'k, binafsha va yana har xil rangda... Agar ularning oldida sukut saqlab o'tirsang, go'yo bu gullar uyqudan uyg'onib, allanimalar haqida shivirlashayotgandek tuyuladi. Chumolilar ham buni sezadi. Ular ertalabdan pechakgullar huzuriga chopib, quyosh nurlaridan ko'zlarini

qisib, gullarning o'zaro nimalar haqidadir shivirlashayotganiga quloq soladi. Balki, ko'rgan tushlarini so'ylashayotgandir?

Kunduzlari, odatda, tush vaqtiga borib bola serpoya shiroljinlar g'uj bo'lib o'sgan tomonga jo'nashni yaxshi ko'rardi. Shiroljin baland bo'yli, gulsiz, lekin xushbo'y hidli bo'ladi. Ular yon-veriga boshqa o'simlikni yo'latmay to'da-to'da bo'lib, alohida o'sadi. Shiroljin — sadoqatli do'stdir. Ayniqsa, biror ko'ngilsizlik yuz berib, pinhona yig'laging kelganda shiroljin ostidan yaxshi panoh topish mumkin. Ular o'rmon yoqasidagi qarag'ayzorlar singari yoqimli hid taratib turadi. Shiroljinlar quchog'i qaynoq va sokin. Eng muhimi — ular osmonni to'sib qo'ymaydi. Chalqancha yotda, osmonni tomosha qilaver. Avval ko'z yoshlari orasidan hech nimani ajrata olmaysan. Keyinchalik esa, bulutlar suzib ketadi va sen o'ylayotgan narsalar osmonda; ko'z oldingda aniq namoyon bo'la boshlaydi. Bulutlar yaxshi biladi: ko'ngling ancha noxush, qayoqlargadir jo'nab qolging yoki uchib ketging keladi, toki seni topolmay, oh-voh qilishsin: "Eh bolagina, bedarak ketdi-ya, endi uni qayerdan topamiz", deb kuyib yurishsin. Bunday bo'lmasligi uchun — sen yo'qolib qolmasliging va jimgina yotib, bulutlardan zavqlanishing uchun sen nimani istasang bulutlar o'shanga aylanib qoladi. O'sha birgina bulutning o'zidan turli-tuman shakllar yuzaga kela boshlaydi. Faqat bulutlar qanday shaklga kirayotganini ko'rib bilsang bas.

Shiroljinlar tagi jimjit, ular osmonni to'smaydi. Shiroljinlar mana shunaqa, iliq qarag'ayzor hidini ufuradi.

U o'tlar to'g'risida ko'p narsa bilardi. Suv bosadigan pichanzordagi kumushrang supurgi o'tlarga rahmi kelardi, juda g'alati-da bu supurgi o'tlar, havoyi juda. Ularning ipakdek mayin popuklari shamolsiz yasholmaydi. Shamolni kutgani-kutgan, shamol qayoqqa essa, o'sha yoqqa egilib, xuddi buyruqqa bo'ysungandek, yoppasiga salom beradi. Agar yomg'ir quyib bersa yoki momaqaldiroq boshlanib qolsa bormi, giyohlar qayerga bosh suqishini bilmay qoladi. To'lg'anadi, tiz cho'kadi, yer bag'irlab qoladi. Oyoqlari bo'lganda-yu, ehtimol, ko'z yetgan joygacha qochib qolisharmidi... Yo'q, ular o'zlarini mug'ambirlikka solyapti. Momaqaldiroq tin-

sin-a, havoyi supurgi o'tlar yana shamolning hukmida— shamol qayoqqa essa, ular ham o'sha yoqqa egila boshlaydi.

Bola yolg'iz, jo'ralarsiz mana shu sodda — bayov narsalar qurshovida yashardi, avtolavkagina hamma narsani unutishga, ko'ringanda chopishga majbur qila olardi. Shuning uchun ko'chma do'konni ko'rgan zahoti hamma narsani unutib, o'zini o'sha tomonga otardi. Nimasini aytasan, ko'chma do'kon — bu senga allaqanday tosh yoki o'tlar emas. Unda kishining jonidan bo'lak hamma narsa bor!

Bola uyiga yetib kelganida ko'chma do'kon ham orqa tomondan hovliga yaqinlashib qolgan edi. O'rmon xo'jaligi qorovulxonasiga qarashli bu uylar daryoga qaratib solingan. Hovlilar qiyalab qirg'oqqa tutashar, daryoning narigi qirg'og'ida esa o'rmon suv yuvgan jar chetidan boshlanib, tog'ga qarab ko'tarilib ketar edi. Shuning uchun ham o'rmon xo'jaligiga qarashli qorovulxonaga yo'l uylarning orqa tomonidan aylanib kelardi. Bola o'z vaqtida yetib kelmaganida ko'chma do'kon kelganini hech kim bilmay qolardi.

Bu payt erkaklardan hech kim yo'q, hammalari ertalaboq tarqab ketishgan, ayollar uy ishlari bilan mashg'ul edi. Bola ochiq turgan eshiklarning oldidan quloqni qomatga keltirib qichqirib o'tdi:

— Keldi! Mashina-magazin keldi!

Ayollar tipirchilab qolishdi. Yashirib qo'ygan pullarini topish uchun yugurib qolishdi, uylaridan otilib chiqqanlaricha bir-birlaridan o'zib ketishdi. Mashina oldiga chopishdi, hatto buvisi uni maqtab qo'ydi:

— Ko'zi o'tkir-da, bizning bolaning!

Bola ko'chma do'konni o'zi boshlab kelganday boshi osmonga yetgan edi. Bu xushxabarni ularga u yetkazgani, birga hovlidan chopib chiqqani, eshigi ochiq turgan avtofurgon oldida ular bilan tiqilishib turganidan xursand edi. Lekin ayollar bu yerda uni tez unutib qo'yishdi. Unga qarashga vaqt bormidi? Ming xil mol — ko'z qamashadi. Ayollar bor-yo'g'i uch kishi: buvisi, bu yerning eng kattakon kishisi — o'rmon qorovuli O'razqulning xotini Bekey (Bekey — onasining opasi, unga xola) va yordamchi ishchi Seydahmadning xotini yoshgina Guljamol qizchasini ko'tarib olgandi. Bor-yo'g'i uch ayol. Lekin ular hovliqib, mollarni shunday titib

tashlashdiki, oxiri sotuvchi ularning navbat kutishini va hammalari baravariga javramasliklarini talab qilishga majbur bo'ldi.

Ammo uning so'zi ayollarga unchalik ta'sir qilmadi: avval boshida ular bor narsani bir chekkadan tortqilay boshlashdi, keyin tanlashga tushishdi, oxiri tanlaganlarini ham qaytarishdi.

Bir chetga olib qo'yishadi, o'lchashadi, bahslashisha-di, shubhalanib, bir so'ragan narsalarini o'n qaytalab so'rashadi. Biri yoqmaydi, ikkinchisi qimmat, uchinchisining rangi unchamas... Bola bir chetda turardi. U zerikdi. Zero, u kutgan g'aroyib narsa yo'qqa chiqqan, tog' yo'lida ko'chma do'konni birinchi bor ko'rgandagi quvonchi g'oyib bo'lgandi. Ko'chma do'kon kutilmaganda har xil lash-lushlar tiqilgan oddiy mashinaga aylanib qoldi.

Sotuvchining qovog'i solina boshladi: bu xotin-xalaj biron narsa sotib olish uchun to'planishganga o'xshamaydi. Tog' oshib, buncha uzoq manzilga nima uchun ham keldi-a?

Shunday bo'ldi ham. Ayollar shaxtlaridan qaytib shalvirab qolishdi. Biroz charchaganday ham bo'lishdi. Negadir bir-birlarining oldidami yoki sotuvchi oldidami, o'zlarini oqlashga tushishdi. Buvi birinchi bo'lib, puli yo'qligidan shikoyat qildi. Puli yo'qning — xaridi yo'q. Bekey xola eri yo'qligi sababli kattaroq xarid qilishga botina olmadi. Bekey xola olamdagi hamma ayollar ichra eng baxtsizi — sababi, farzandi yo'q. Shuning uchun eri O'razqul mast bo'lganida uni do'pposlaydi, bundan bobo ham jabr tortadi: axir Bekey uning qizi-da, Bekey xola mayda-chuyda va ikki shisha aroq oldi. Bekorga oldi, o'ziga jabr. Buvi o'zini tutib turolmadi. Sotuvchi eshitmasin deb pichirlab so'radi.

— Nega o'z boshingga o'zing baloni sotib olyapsan?

— O'zim bilaman, — qisqa javob qildi Bekey xola.

— Ahmoq, — yana ham sekinroq, lekin badxohlik bilan shivirladi buvi. Sotuvchi bo'lmaganidami, Bekey xolaning boplab adabini berardi. E-he, ularning qarg'ashganini bir ko'rsangiz...

Ularning joniga yosh juvon Guljamol oro kirdi. U o'zining Seydahmadi shaharga tushishga tayyorlanayotganini, pulsiz shaharga borib bo'lmasligini, shu sababdan pul sarf qilolmasligini sotuvchiga tushuntira ketdi. Shu tariqa ular ko'chma do'kon oldida ivirsib turishdi-turishdi-da, sotuvchi aytgandek, "uch pul"ga narsa xa-

rid qilib, uylariga tarqalib ketishdi. Shu ham savdo bo'ldimi axir? Sotuvchi jo'nab ketgan ayollarning orqasidan tupurib qolarkan, tezroq rulga o'tirib jo'nab ketish uchun to'zg'itib tashlangan mollarni yig'ishtira boshladi. Shu payt bolaga ko'zi tushdi.

— Nimaga turibsan, shalpang quloq? — so'radi u. Bolaning quloqlari osilgan, bo'yni ingichka, boshi katta va yum-yumaloq edi. — Biron nima olasanmi? Olsang, tezroq kel, bo'lmasa hozir yopaman. Puling bormi?

Sotuvchi shunchaki o'zi, bekorchilikdan so'radi, lekin bola uzrli javob qildi.

— Yo'q, amaki, pulim yo'q, — deb bosh chayqab qo'ydi.

— Men bo'lsam puling bormi deb o'ylabman, — soxta ishonchsizlik bilan gap qotdi. — Siz bu yerdagilar hammangiz boysizlar, lekin o'zlaringni kambag'alga solib yurasizlar... Cho'ntagingdagi nima u, pul emasmi, axir?

— Yo'q, amaki, — dedi bola oldingidek samimiy va jiddiylik bilan yirtiq cho'ntagini ag'darib ko'rsatarkan (ikkinchisi tikib tashlangandi).

— Demak, pullaring tushib qolibdi-da. Chopgan joylaringni qidir. Topasan.

Ular jim qolishdi.

— Kimning bolasisan? — yana so'roqqa tuta boshladi sotuvchi. — Mo'min cholnimi, a?

Bola bosh irg'ab javob qildi.

— Nabirasi bo'lasanmi?

— Ha, — bola yana bosh silkidi.

— Onang qayoqda?

Bola hech nima demadi. Uning bu haqda gapirgisi kelmasdi.

— Onang o'zi haqida hech xabar bermaydimi? O'zing bilmaysanmi?

— Bilmayman.

— Otangni-chi? Uni ham bilmaysanmi? Bola jim qoldi.

— E, og'ayni, qanaqasan o'zing, hech nimani bilmaysan, — hazilomuz o'pka qildi sotuvchi. — Ha, mayli, agar shunday bo'lsa... Ushla. — U bir siqim konfet uzatdi. — Sog' bo'l.

Bola iymanib turardi.

— Ol, ol. Meni yo'ldan qo'yma. Ketishim kerak.

Bola konfetlarni cho'ntakka solib, ko'chma do'konni yo'lga uzatib qo'yish uchun mashina orqasidan chopishga shaylandi. U o'ta baroq, tanbal ko'ppagi Baltekni yoniga chaqirib oldi. O'razqul hamisha uni otib tashlayman, deb do'q qilib yuradi: bunday ko'ppakni boqishning nima keragi bor. Bobosi har doim avval bironta ovcharka topish kerak, Baltekni esa biror joyga eltib tashlash lozim, deb sabr qilishni so'raydi. Baltekning qornidan bo'lak tashvishi yo'q. To'ysa — uxlar, och bo'lsa, o'zinikimi, begonami, farq qilmay, duch kelgan kishiga tama bilan suykalanar edi.

Mana shunaqa ko'ppak edi Baltek. Ba'zida zerikkanidan mashina orqasidan chopib qolardi. To'g'ri, uzoqqa bormasdi. Jinday chopgach, orqasiga qaytardi. Dardisar it. Lekin baribir, it bilan chopish yolg'iz chopishdan yuz marta ma'qul. Har nima bo'lmasin, itda.

Bola, sotuvchi ko'rmasin deb, sekingina Baltekka bitta konfet tashladi. "Bilib qo'y, — ko'ppakni ogohlantirib qo'ydi u, — uzoq chopamiz". Baltek unga osilib, dumini likillatardi: yana umidvor edi. Lekin bolaning boshqa konfet tashlagisi yo'q edi: axir sotuvchini xafa qilib qo'yishi mumkin, u bir siqim konfetni itga bergani yo'q-ku.

Xuddi shu mahal lop etib bobo kelib qoldi. Chol asalari qutilari tomonga ketgandi. U yerdan uylar orqasida nimalar bo'layotgani ko'rinmasdi. Ish o'ngidan keldi, bobo ayni mahalda ko'chma do'kon ketmay turib yetib keldi. Tasodif. Aks holda nabiraga portfel nasib qilmagan bo'lardi. Shu kuni bolaga baxt kulib boqdi.

Ko'pni ko'rgan kishilar keksa Mo'minni — Mo'min chaqqon deb atashardi. Bu atrofda uni hamma tanirdi, u ham hammani bilardi. U ochiq ko'ngilligi, hatto sal-pal biladigan odamiga ham biron yaxshilik qilishga tayyorligi, har kimning xizmatiga hozir-u nozirligi, hammaga sadoqati va xushmuomalaligi tufayli shunday laqab olgandi. Ammo tillani tekin tarqatishganda hech kim uchun qadri qolmaganidek, uning jonbozligining qadriga ham hech kim yetmasdi. Uning yoshidagi kishilarga qanday hurmat va izzatda bo'lishmasin, Mo'minga hech kim bunday munosabatda bo'lmasdi. U bilan betakalluf muomala qilishardi. Mo'min bug'u avlodidan

bo‘lib, bu bilan g‘oyatda faxrlanar va o‘z qabiladoshlaridan biron tasining ma’rakasidan qolmasdi. Bug‘u avlodining mashhur oqsoqollaridan birortasining ulug‘ ma’rakalarida unga mol so‘ydirishar, martabali mehmonlarni qarshi olib, otdan tushirish, choy uzatish-u o‘tin yorib, suv keltirishgacha hamma ishni unga topshiraverishardi. Turli tarafdan son-sanoqsiz mehmonlarni kutib olish lozim bo‘lgan bunday katta ma’rakalarda ozmuncha tashvish bo‘ladimi? Mo‘minga nima xizmat buyurilmasin, u ana-mana deguncha barini saranjom-sarishta qilar, eng muhimi — boshqalardek bo‘yin tovlayvermasdi. Bu tumonat mehmonlarni kutib va ovqatlantirib jo‘natishi lozim bo‘lgan ovul yoshlari Mo‘minning bu ishlarni qanday qilib joyiga qo‘yayotganini ko‘rib qoyil qolishardi:

— Mo‘min chaqqon bo‘lmasa, biz nima qilardik-a?

Ba’zida esa o‘z nabirasi bilan uzoqdan kelgan chol choyxonachi yigitga qarashib ketardi. Mo‘minning o‘rnida boshqa odam bo‘lganda bu ishni haqorat deb bilardi, lekin Mo‘min parvo ham qilmaydi.

Keksa Mo‘min chaqqonning mehmonlarga yelib-yugurib xizmat qilishi hech kimni ajablantirmas — shuning uchun ham o‘z nomi bilan Mo‘min chaqqon-da. Mo‘min chaqqon bo‘lishiga o‘zi sababchi. Agar chet odamlardan birontasi ajablanib, — hey qariya, nega xotinlarga dastyorlik qilib yuribsan, bu ovulda yosh yigitlar qurib ketganmi, — deb qolguday bo‘lsa, Mo‘min shunday javob qilardi:

— Marhum mening og‘am edi (u bug‘u avlodining hammasini o‘z og‘asi sanardi. Lekin boshqa mehmonlar uchun ham ular yot emas, “og‘a” edi). Ularning ma’rakasida men xizmat qilmasam, kim xizmat qiladi? Biz, bug‘u avlodi, bosh onamiz — Shoxdor ona bug‘udan tarqalganimizdan buyon ana shundaymiz. Karomatli Shoxdor ona bug‘u esa bizga tirikda ham, o‘likda ham do‘stlikni vasiyat qilib qoldirgan.

Mo‘min chaqqon mana shunaqa odam edi!

Keksa ham, yosh ham uni “san”lab gapirar, qaltis hazil ham qilaverishardi — chol beozor edi, u bilan hisoblashmasa ham bo‘laverardi — chol bezabon edi. O‘z hurmatini talab qilishning uddasidan chiqmagan kishini odamlar oyoqosti qilaveradi, deb bekorga aytishmagan-da. U shuning uddasidan chiqmasdi.

Uning qo'li gul edi. Duradgorlik, egarchilik qilardi, yoshligidanoq pichan g'aramlashning ustasi edi, kolxoz uchun shunday g'aramlar yasardiki, qishda ularni buzishga ko'z qiymasdi: yomg'ir uning ustidan xuddi g'ozning patida sirg'angandek silliq tushar, qor esa tomning ikki nishabiga tushgandek tushib ketardi. Urushda mehnat frontida Magnitogorskdagi zavodlarning g'ishtini terdi, staxanovchi bo'lib shuhrat qozondi. Qaytib kelgach, qorovulxonada yog'och uy qurdi, o'rmonchilik bilan mashg'ul bo'ldi. Yordamchi ishchi bo'lib hisoblansa ham, aslida, o'rmonga ko'z-quloq edi, uning kuyovi O'razqulning esa umri ko'pincha mehmon-dorchilik bilan o'tardi. Boshliqlar bostirib keldimi, bas, O'razqul ularni darhol o'rmonga boshlar, ov uyushtirar, xullas, hamma narsaga mutasaddilik qilardi... Mollarga ham Mo'min qarar, asalarilar ham uning bo'ynida edi. Mo'minning butun umri erta tongdan qora kechgacha ishda, tashvishda o'tdi, lekin hurmat talab qilishni o'rganolmadi.

Mo'minning tashqi ko'rinishi ham mo'ysafid keksalarga o'xshamasdi. Sipogarchiligi ham, jiddiyligi, badjahlligi ham yo'q. Oqko'ngil edi u. Uning qadr topmaydigan bu insoniy xususiyatini bir qarashdayoq payqab olsa bo'lardi. Bunday qismat hamisha unga: "Oq ko'ngil bo'lma, yovuz bo'l! Mana, senga oqibat! Yovuz bo'l!" deb ta'kidlab kelsa ham, u o'z xushfe'lligini tashlamaydi. Uning yuzlari kulimsirab turar, ajinlari qat-qat edi. Ko'zlari esa har doim: "Nima istaysan? Biror og'iringni yengil qilaymi? Men tayyorman, faqat aytsang bas, nimaga muhtojsan?" — degandek mo'ltirab turardi.

Burni ham yumshoq, o'rdaknikiday yalpoq, bamisoli kemirchagi yo'qday. Bo'yi ham ko'p baland emas, o'smirlarday chaqqongina chol. Soqol nima degan gap — shu ham nasib qilmagandi. Qip-qizil ko'sa. Yaydoq iyagida ikki-uchtagina sariq tuk bor, xolos. Bor-yo'q soqol shu.

Bot-bot yo'lda basavlat cholga duch kelasan-u soqoli ko'ksiga tushgan, keng-mo'l po'stinining yoqasiga serbar barra qoplangan, boshida qimmatbaho telpak, ostida egarlari kumushdan arg'umoq — bir qarasang donishmand, bir qarasang payg'ambar, bunday kishiga ta'zim qilgani hech tortinmaysan, bunday kishi

hamma joyda izzatda! Mo'min esa faqat Mo'min chaqqon bo'lib tug'ilgan. Ehtimol, uning yolg'iz ustunligi shunda ediki, u qanday o'tirdim, bilib gapirdimmi, qanday javob qildim, qanday kulimsiradim deb tashvishlanmas, birovlarning oldida obro'si to'kilishidan cho'chimasdi. Mo'min mana shu ma'noda, o'zi sezmagan holda, kamdan kam uchraydigan baxtli odam edi. Ko'p odamlarni kasallik emas, o'z nazdida o'zligidan kattaroq qo'yishdek xudbinlik, alamzadalik balosi kemirib ado qiladi. (Dono, boobro', xushro'y, buning ustiga qattiqqo'l, adolatli va jasur degan nom chiqarishni kim istamaydi?..)

Mo'min esa bunday emasdi. U afandife'l edi va unga afandiga muomala qilgandek muomala qilishardi.

Faqat bir narsa Mo'minni qattiq xafa qilishi mumkin edi: birontasining ma'rakasini o'tkazish uchun qarindoshlar to'planadigan kengashga uni chaqirishni unutib qo'yishsa... U qattiq ranjir va buni unutolmay azob chekardi, gap — uni chetlab o'tganlarida emas, u kengashda baribir hech nimani hal qilmas, faqat qatnashardi, xolos. Buning boisi qadimiy urf-odatning poymol bo'lgani edi.

Mo'minning o'z tashvishlari bor, u bularning azobini tortardi, oqshomlarni ko'z yoshi bilan o'tkazardi. Begonalar bundan deyarli xabarsiz. Yaqin kishilari esa bilishardi.

Mo'min nabirasini ko'chma do'kon oldida ko'rgandayoq uning nimadandir xafa ekanligini darhol fahmladi. Sotuvchi musofir bo'lgani uchun chol dastlab u bilan so'rashdi. Egardan tezgina sakrab tushib, darhol ikki qo'lini sotuvchiga uzatdi:

— Assalomu alaykum, katta savdogar! — dedi u yarim hazil, yarim chin. — Karvoning omon-eson yetib keldimi, savdo-sotig'ing yaxshi bo'lyaptimi? — Mo'min ochiq ko'ngillik bilan sotuvchining qo'llarini silkitdi. — Qancha suvlar oqib o'tdi ko'rishmaganimizdan beri. Xush ko'rdik!

Sotuvchi uning so'zlari va ko'rimsiz kiyim-boshi ustidan takabburona kulib qo'ydi — o'sha-o'sha beso'naqay kirza etik, kampir tikkan bo'z ishton, titilib ketgan kamzul, yomg'ir va oftobda sarg'ayib ketgan kigiz qalpoq. Sotuvchi Mo'minga javob qildi:

— Karvon but. Faqat shunisi chatoqki, savdogar bu yoqqa kelganda, dumingizni tutqazmaysiz, o'rmonga, qirga qochasiz. Xotin-

laringizga bir tiyinni o'n joyidan tugib saqlab qo'yishni tayinlaysiz. Bu yerda molni uyub tashlasang ham biron kishi bir tiyin chiqargisi kelmaydi.

— Aybga qo'shma, qadrdon, — xijolatomuz kechirim so'radi Mo'min. — Sening kelishingni bilganimizda ketmasdik. Pulni aytadigan bo'lsang, yo'qni yo'ndirib bo'lmaydi. Mana kuzda kartoshkalarni sotamiz...

— Gapir-a, — uning so'zini bo'ldi sotuvchi. — Siz qurumsoq boylarni yaxshi bilaman. Tog'da yashaysiz, yer, pichan istaganingcha. Chor atrofing o'rmon — uch kunda aylanib chiqolmaysan. Moling bormi? Asalaring bormi? Hammasi bor. Bir tiyin ustida esa azon aytasan. Mana, xarid qil, shoyi ko'rpa, tikuv mashinasidan bitta qoldi...

— Xudo haqqi, bunaqa pul yo'q menda, — o'zini oqladi Mo'min.

— Shu gaplarimga ishonadi deb o'ylaysanmi? Qurumsoq chol, pul yig'asan. Xo'sh, qayerga olib ketasan?

— Xudo haqqi, yo'q. Shoxdor ona bug'u haqqiga qasam ichaman!

— Hay, mayli, chiy baxmal ol, yangi shim tiktirib olasan.

— Olgan bo'lardim, Shoxdor ona bug'u haqqi!

— E-e, sen bilan tortishib o'tirishdan foyda yo'q, — sotuvchi qo'l siltadi. — Bekor kelibman. O'razqul qayoqda?

— Ertalab barvaqt Oqsoyga ketgandi. Cho'ponlarda ishi bor...

— Mehmondorchilikda yurgan chiqar, — o'zicha tushungan bo'ldi sotuvchi.

Noqulay jimlik cho'kdi.

— Sen xafa bo'lmagin, chirog'im, — yana gap boshladi Mo'min. — Kuzda, Xudo xohlasa, kartoshkani sotamiz...

— Kuzgacha uzoq.

— Bunday bo'lsa, kechirgin. Xudo xayringni bersin, uyga kir, choy ichib ketasan.

— Choy ichgani kelganim yo'q, — rad etdi sotuvchi.

U furgonning eshikchasini yopib turib, cholning yonida ko'ppagining qulog'idan ushlab mashina orqasidan chopishga shay bo'lib turgan bolaga ko'zi tushdi-da, dedi:

— Hech bo'lmasa portfel olgin. Bola hademay maktabga borar, albatta? Yoshi nechada?

Mo'minga bu maslahat ma'qul tushdi: hafsalasi pir bo'lgan sotuvchidan nimadir xarid qilishi shart edi, qolaversa, nabirasiga chindan ham portfel kerak, bu yil kuzda maktabga boradi.

— To'g'ri aytasan, — bezovtalanib qoldi Mo'min, — mening xayolimda ham yo'q edi. Bo'lmasa-chi, yetti-sakkizga chiqdi. Qani, bu yoqqa kel, — nabirasini chaqirdi u.

Bobo cho'ntagini kovlashtirib, yashirib yurgan besh so'mlikni chiqardi. Ko'pdan beri yonida yurgan bo'lsa kerak, g'ijimlanib ketibdi.

— Ushla, shalpang quloq, — sotuvchi bolaga ayyorona ko'z qisib portfelni uzatdi. — Endi o'qishni qotirgin. Xat-savodingni chiqarmasang, bobong bilan mana shu tog'larda abadiy qolib ketasan.

— O'qiydi! Uning zehni o'tkir, — qaytimni sanarkan, javob qildi Mo'min. Keyin yangi portfelni avaylab ushlab turgan nabirasiga ko'z yugurtirdi-da, uni bag'riga bosdi. — Mana, yaxshi bo'ldi. Kuzda maktabga borasan, — deb qo'ydi sekingina.

Bobosi qadoq qo'lini bolaning boshiga mayingina qo'ydi. Shu dam bolaning tomog'iga nimadir tiqilganday bo'ldi va qotma bobosi kiyimlarining o'ziga tanish hidi dimog'iga urildi. Undan quruq pichan va mehnatkash kishining ter hidi kelardi. Sadoqatli, ishonchli, mo'tabar kishi u. Ehtimol, yer yuzida bolani jon-dilidan yaxshi ko'radigan, aqllilik balosiga uchragan kishi — Mo'min chaqqon deb atalgan bu chol shunday sodda, afandife'l edi... Xo'p, nimasi yomon buni? Har nima bo'lmasin, o'z bobong bo'lgani yaxshi.

Cheksiz quvonchga to'lishini bola xayoliga ham keltirmagandi. Shu paytgacha maktab haqida o'ylab ko'rmagandi. Shu paytgacha faqat bobosi bilan bug'u avlodidan mashhur keksalarning ma'rakasiga borganda— tog'lar ortidagi Issiqko'lda qishloqlaridan maktabga qatnagan bolalarni ko'rgandi. Bola shu ondan boshlab portfeldan ayrilmay qoldi. Shodligidan terisiga sig'may maqtanib qorovulxonaning butun hovlisini aylanib chiqdi. Avval buvisiga ko'rsatdi. Mana, bobom olib berdi! Keyin Bekey xolasiga ko'rsatdi. U ham portfelni ko'rib xursand bo'ldi va bolani maqtab qo'ydi.

Bekey xolaning xushnud damlari kamdan kam bo'lardi. Ko'pincha g'amgin va tajang yurar, jiyaniga e'tibor ham qilmasdi. Bunga vaqti ham bo'lmasdi. Uning o'z dardi bor. Buvisi, farzandi bo'lganda butunlay o'zgacha yurardi, derdi. Eri, O'razqul ham, Mo'min bobo ham hozirgiday emas, balki boshqacha odam qiyofasida yurgan bo'lardi. Uning ikkita qizi — Bekey xola va bolaning onasi bo'lsa-da, baribir, cholga og'ir edi; o'z bolang bo'lmasa — bir balo, bolangda bola bo'lmasa — ming balo. Buvisi shunday deb zorlanadi. Kim bilsin...

Bola Bekey xolasidan so'ng olgan narsasini ko'rsatish uchun yoshgina Guljamol bilan uning qizchasi oldiga yugurdi. Bu yerdan esa pichan o'rayotgan Seydahmad oldiga tushib ketdi. Jigarrang "tuya" oldidan chopib o'tarkan, uning o'rkachlariga urib qo'yishga ham vaqti bo'lmadi, "egar" yonidan, "bo'ri" va "tank" yonidan o'tib, keyin qirg'oq bo'ylab yugurib borardi. Yopishqoq butazor orasidagi so'qmoq yo'ldan chopib o'tdi. So'ngra esa o'tloqdagi uzun yo'lakdan Seydahmadning oldigacha chopqillab keldi.

Bugun bu yerda Seydahmadning yolg'iz o'zi edi. Bobo allaqachon o'zining tegishini, bir yo'la O'razqulning ham tegishini o'rib qo'ygandi. Pichanni ham allaqachon tashib bo'lishdi — buvisi bilan Bekey xola tashib turdi, bobosi bosaverdi, u esa bobosiga yordamlashdi. Molxonaning oldiga ikkita g'aram uyishdi. Bobosi ularni shunday ixcham bosdiki, bir tomchi yomg'ir ham o'tmasdi. G'aramlar xuddi taroq bilan tarab qo'yilgandek silliq edi. Har yili shu. O'razqul pichanga qo'lini urmaydi, hammasi qaynotasining bo'ynida — harholda u amaldor. — Istasam, — deydi u,— senlarni bir zumda ishdan haydab yuboraman. — U bobo bilan Seydahmadga shunday do'q qilardi. Bu ham mastlikning kasofati. Boboni haydab bo'pti. Unda kim ishlaydi? Bobosiz ishlab ko'rsinchi! O'rmonda ish oshib-toshib yotibdi, ayniqsa, kuzda. Bobom aytadiki, o'rmon qo'y suruvi emas, tarqalib ketmaydi, lekin tashvish undan oz emas. Shunga ko'ra o't tushsa yoki tog'dan sel quyilsa bormi — daraxt bir yoqqa sakray olmaydi, joyidan qo'zg'almaydi, turgan joyida nobud bo'laveradi. Kimki daraxtlarni asrab qololsa, o'sha haqiqiy o'rmonchi bo'la oladi. O'razqul Seydahmadni haydab bo'pti, unday yuvosh odam bormi. Hech nimaga aralashmay-

di, talashib-tortishmaydi. Biroq Seydahmad har qancha yuvosh, baquvvat yigit bo'lmasin, yalqov, uyquni yaxshi ko'radi. O'rmonchilikka ham shu vajdan kelib qolgan. Bobo, bunday yigitlar sovxozda mashina quvib, traktorda yer ag'darib yurishibdi, deb kuyinadi... Seydahmad esa tomorqasidagi kartoshkani sho'raga bostirib yubordi. Guljamolning bir o'zi qo'lda bolasi bilan tomorqada ishlashiga to'g'ri keldi.

Seydahmad pichan o'rimini ham kechiktirib yubordi. Bobo hatto o'tgan kuni uni koyib berdi. "O'tgan qishda,— dedi u, — senga emas, mollarga ichim achidi. Shuning uchun pichan berdim. Agar yana men keksa cholning pichaniga ko'z tikadigan bo'lsang, hoziroq ayta qol, sen uchun ham o'rishga tayyorman".

Gap ta'sir qildi. Seydahmad bugun ertalabdan o'rimga tushib ketdi.

Orqadan kelayotgan qadam tovushini eshitib, Seydahmad qayrildi, ko'ylagining yengi bilan yuzini artdi.

— Nimaga kelyapsan? Meni chaqirishyaptimi?

— Yo'q. Portfel oldim. Mana. Bobom olib berdi. Men maktabga boraman.

— Shunga shunchalik chopib keldingmi? — Seydahmad xaxolab kuldi. — Mo'min boboning esi kirarli-chiqarli bo'lib qolgan, — u barmog'ini chakkasiga bosib aylantirdi, — sen ham shunaqa chog'i! Qani, qanaqa portfel? — U qulfchasini shiqillatib, portfelni u qo'lidan bu qo'liga oldi-da, kallasini liqillatgancha kulimsirab qaytarib berdi. — To'xta, — xitob qildi u, — sen qaysi maktabga ham borarding? Qayerda senga maktab tayyor turibdi?

— Qayerda bo'lardi? Fermadagi-da.

— Jilisoyga qatnamoqchimisan? — hayratlandi Seydahmad. — Axir u yoqqa tog' osha besh kilometrcha yurish kerak, bundan kam emas.

— Bobom, otda olib borib kelaman, dedi.

— Har kuni u yoqqa borib, bu yoqqa kelarkanmi? Esini yebdi chol. Uning o'zini ham o'qitish kerak. Sen bilan bir partaga o'tiradi, dars tugadimi — qaytaveradi. — Seydahmad Mo'min boboni nabirasi bilan bir partada o'tirishini ko'z oldiga keltirib qotib-qotib kuldi.

Bola o'yga tolib jim qoldi.

— Ha, men buni shunchaki kulgi uchun aytyapman-da! — tushuntirdi Seydahmad.

U bolaning burniga og'ritmaygina chertib, boshidagi bobosining furajkasini tortib, qoshi ustiga bostirib qo'ydi. Mo'min o'rmon mahkamasining odatdagi furajkasini kiyishga or qilardi. ("Nima, men biron-bir boshliqmanmi? Men o'zimning qirg'iz qalpog'imni boshqa hech qanaqasiga almashmayman".) Yozda ham Mo'minning boshida qora sidirg'a satin bilan hoshiyalangan yo'l-yo'l oq qalpoq — almisoqdan qolgan eski kigiz qalpoq, qishda ham shunday daqqiyunusdan qolgan teri taqiya bo'lardi. O'rmon ishchilarining odatdagi yashil furajkasini u nabirasiga berardi.

Seydahmadning yangilikni masxaraomuz qarshi olishi bolaga yoqmadi. U xo'mrayib furajkasining soyabonini manglayi ustiga ko'tardi va Seydahmad yana burniga chertmoqchi bo'lganda boshini burib g'ijindi:

— Tegishma!

— Obbo sen-ey, jahling tez ekan-ku! — miyig'ida kuldi Seydahmad. — Ha, sen xafa bo'lmay qo'ya qol. Portfeling ajoyib. — Keyin uning yelkasiga qoqib qo'ydi. — Endi tuyog'ingni shiqillat. Hali men ancha-muncha o'rishim kerak...

Seydahmad kaftiga tufladi-da, yana o'rishga tushib ketdi.

Bola esa yana chopganicha o'sha so'qmoqdan, yana o'sha toshlar yonidan uyga qaytdi. Toshlar bilan ovunishga hali-beri vaqti yo'q edi. Portfel — jiddiy narsa.

Bola o'z-o'zi bilan so'zlashishni yaxshi ko'rardi. Lekin bu safar o'ziga emas, portfeliga so'z qotdi: "Sen uning gapiga ishonma, bobom unaqa emas. Uning sira shumligi yo'q, shuning uchun ham undan kulishgani-kulishgan. Chunki quvlik-shumlikni bilmaydi. U biz ikkalamizni maktabga olib borib yuradi. Sen hali maktab qayerdaligini bilmaysan-a? U unchalik uzoq emas. Men senga uning qayerda ekanligini ko'rsataman. Biz unga Qorovultog'dan durbinda qaraymiz. Men yana, senga oq kemani ko'rsataman. Faqat biz avval molxonaga kirib chiqamiz. U yerda durbinimni yashirib qo'yganman. Men unda buzoqchamni kuzatib turishim kerak, lekin

men, har kuni oq kemani ko'rishga chopaman. Buzog'imiz katta bo'lib qoldi, tortib ketsa to'xtatolmaysan, sigirni emib qo'yadigan odat chiqardi. Sigir uning onasi, sutini undan ayarmidi. Tushundingmi? Onalar hech qachon, hech nimani ayashmaydi. Mana, Guljamol shunday deydi, uning qizchasi bor... Tezda sigirni sog'ib bo'lishadi, keyin biz buzoqni yaylovga haydaymiz. O'shanda biz Qorovultoqqa chiqamiz-da, tog'dan turib oq kemani ko'ramiz. Men axir durbin bilan ham xuddi ana shunday gaplashaman. Endi biz uchtamiz — men, sen va durbin..."

U shu zaylda uyga qaytdi. Portfel bilan gaplashish unga juda yoqib qoldi. U bu suhbatni davom ettirib, hali portfeliga noma'lum bo'lgan o'zi haqidagi voqealardan so'zlab bergisi kelib turganda, unga xalaqit berishdi. Yon tomonda otning dupur-dupuri eshitilib qoldi. Qishloq tarafdan bo'z otliq kelardi. Bu — O'razqul. U ham uyga qaytayotibdi. Uning o'zidan boshqa hech kimga minishga ruxsat etmaydigan Olabosh bo'z otiga to'y-hashamlarda uriladigan mis uzangili egar urgan, ko'krak qayishlari tortilib, qo'ng'iroqli popukchalar osilgandi.

O'razqulning qalpog'i ensasiga surilib tushib, soch qoplagan bir enli qizil past manglayi ochilib qolgan. Issiq elitgan uni. Rayon rahbarlari kiyadigan nusxadagi uncha kelishtirib tikilmagan chiy baxmal kitelining tugmalari boshdan oxirigacha yechilib ketgandi. Oq ko'ylagi kamari tagidan chiqib yotardi. Qorni to'q, kayfi baland. Bundan sal oldin mehmonda o'tirib, qimizga to'ygan, burnidan chiqquncha go'sht yegan edi.

Yon-atrofidagi cho'ponlar va yilqichilar yozda yaylovga kelishlari bilanoq O'razqulni tez-tez mehmonga chaqirishardi. Uning eski oshna-og'aynilari bor edi. Lekin bu takliflar tama bilan qilinardi. O'razqul kerakli odam. Ayniqsa, tog'da yashab uy qurmoqchi bo'lganlar uchun u judayam kerak: molni tashlab biron yerga ketolmaysan, qurilish materiallarini qayerdan qidirasan, birinchi navbatda o'rmonga kelishga majbursan. O'razqulning ko'nglini topsang, qarabsanki, daraxt kesish taqiqlangan o'rmondan ikki-ta-uchta yog'ochni tanlab olib ketasan-da.

Aks holda tog'da bir umr molning orqasidan sarson-sargardon bo'lib yuraverasan, uy qurishing ham bir umr cho'ziladi...

Lohas bo'lgan karaxt O'razqul xrom etigining uchini uzangiga ehtiyotsiz tirab, egarda mudrab borardi.

Bola qo'lidagi portfelini silkitib ro'parasidan chopqillab chiqib qolganda, bu tasodifdan uning otdan uchib ketishiga sal qoldi.

— O'razqul amaki, portfelimni ko'ring! Men maktabga boraman. Mana mening portfelim!

— Obbo palakat-e! — O'razqul seskanib jilovni tortarkan, koyiy boshladi.

U bolaga uyqu aralash qizargan, shishgan, shirakayf ko'zlarini tikdi:

— Nima qilib yuribsan, qayoqdan kelyapsan?

— Uyga ketyapman. Portfelimga qarang, uni Seydahmadga ko'rsatib kelyapman, — dedi bola ming'irlab.

— Mayli, o'ynayver, — to'ng'illadi O'razqul va egarda omonatgina tebranib yo'lida davom etdi. U o'z taqdiridan ranjib yurgan, Xudo uni farzand dog'ida kuydirib, boshqalarga saxiylik bilan besh-o'ntalab bola berib qo'ygan bir paytda, bu ahmoqona portfel-u, ota-onasi tashlab ketgan, xotiniga jiyan bo'lmish bu bola bilan qanchalik ishi bor...

O'razqul pishillab, xo'rsinib qo'ydi. Afsus-nadomat va qahr-u g'azabdan u bo'g'ilib borardi. U ich-ichidan ezilardi, negaki umri zoye o'tyapti, shularni o'ylaganda, befarzand xotiniga nisbatan g'azabi qaynab-toshardi. Buning bariga o'sha la'nati xotini aybdor, mana bir necha yildirki tug'mayapti...

"Shoshmay tur hali!" — O'razqul go'shtdor mushtlarini siqib, xayolan do'q urdi va ho'ngrab yig'lab yuborishdan o'zini arang tutib qoldi. U uyga yetishi bilan xotinini tutib urishni bilardi. O'razqul mast bo'lganda hamisha shunday qilardi; bu ho'kiztabiat erkak g'am va jahldan aqlini yo'qotib qo'yardi...

Bola so'qmoqdan izma-iz bora turib, oldinda birdan O'razqulning g'oyib bo'lganiga hayron qoldi. O'razqul esa daryo tomon burilib, otdan tushdi-da, jilovni tashlab, o'siq o'tlarni bosib-yanchgancha pastga tushib ketdi. U chayqalib va bukilib, yuzlarini qo'llari bilan siqqanicha boshini yelkalari ichiga tortib borardi. O'razqul qirg'oq bo'yida cho'nqayib o'tirib oldi. Daryodan hovuchlab suv olib yuziga sepa boshladi.

"Balki, issiqdan boshi og'rigandir", — O'razqulning qilayotgan harakatidan shunday xulosaga keldi bola. O'razqulning yig'layotganini va hech o'pkasini bosib ololmayotganini u bilmasdi. U shuning uchun yig'ladi-ki, unga peshvoz chiqqan bola uning o'g'li emas, shuning uchun yig'ladiki, u portfelli bu bolaga hech bo'lmaganda bir og'iz shirin so'z aytish uchun o'zida kuch topolmadi.

IKKINCHI BOB

Qorovultog' cho'qqisidan hammayoq yaqqol ko'rinib turardi. Bola qorni bilan yotib olib durbinni ko'ziga to'g'riladi. Bu o'tkir dasht durbini edi. Qachonlardir boboga qorovulxonadagi uzoq yillik xizmatlari uchun mukofotga berishgandi. Chol durbinni olib yurishni yoqtirmasdi. O'zimning ko'zlarim undan qolishmaydi, derdi. Biroq durbin nabirasiga yoqib qoldi.

Bu safar u tog'ga durbin va portfel bilan birga keldi. Boshda hamma narsa yumaloq oynachada sakrab aralashib ketaverdi, keyin birdan tiniqlik va turg'unlik kasb etdi. Mana shunisi hammasidan zavqli edi. Bola topilgan fokusni buzib qo'ymaslik uchun nafasini ichiga yutar, manzaralarni go'yo o'zi yaratayotgandek mahliyo boqardi. Keyin u nigohini boshqa nuqtaga tikdi, yana hamma narsa aralashib ketdi, tiniqlik yo'qoldi. Bola yana okulyarni aylantirishga tushdi.

Bu yerdan atrofdagi hamma narsa, hatto osmono'par yuksak qorli cho'qqilar ham ko'rinib turardi. Ular hamma tog'larning ortida, hamma tog'lardan baland, butun yer uzra yuksaklikka bo'y cho'zgandi. Qorli cho'qqilar poyidagi o'rmonzor tog'lar, pastroqdagi serbarg butazorlar, yuqorida qalin qarag'ayzorlar bilan burkangan tog'lar ham ko'rinib turadi. Kunga qaragan Kungay tog'i ham shunday edi; Kungayning pastki tomonlarida o'tdan bo'lak hech nima o'smasdi. Tog'ning ko'lga qaragan tomonidan yanada pastroq tushilganda nuqul mayda toshlar ko'chmasiga duch kelinardi. Bu ko'chmalar vodiyga quyilib tushgan, vodiy esa ko'l bilan tutashib ketgandi. Bu tarafda dalalar, bog'lar, qishloqlar yastanib yotardi... Yam-yashil ekinzorlarning u yer-bu yeri sarg'ish tus olgan, o'rim

payti yaqinlashyapti. Yo'llarda zig'irday ko'rinayotgan mashinalar xuddi sichqonlardek g'izillar, ular orqasidan uzun dum — chang-to'zon ko'tarilardi. Dalaning arang ko'z ilg'ab oladigan uzoq chekkasida, qumloqdan, tasma tortgan qirg'oq ortida ulkan ko'l to'q samoviy rangda tovlanardi. Bu — Issiqko'l. U yerda suv bilan osmon bir-biriga tutashib turardi. Undan narida hech nima yo'q. Ko'l harakatsiz, shu'lador, kimsasiz. Faqat qirg'oqqa urilayotgan to'lqinlarning oppoq ko'pigini arang ilg'ab olish mumkin.

Bola o'sha tomonga uzoq qarab turdi. "Oq kema hali ko'rinmayapti, — dedi u portfelga. — Kel, yana bir marta maktabimizga qaraylik".

Bu yerdan tog'ning ortidagi qo'shni pasttekislik ravshan ko'rinardi. Hatto durbinda uy oldidagi deraza ostida o'tirib olib, qo'lda kalava yigirayotgan kampirgacha kuzatsa bo'lardi.

Jilisoy bag'ri daraxtsiz, faqat onda-sonda qirqilmay qolgan, yakkam-dukkam qarag'aylar o'sib yotardi. Qachonlardir bu yerlar o'rmonzor bo'lgan. Endi usti shifer bilan yopilgan qator molxonalar turar, katta qoramtir go'ng va somon uyumlari ko'zga tashlanardi. Bu yerda sut fermasining zotdor buzoqlarini saqlashar va boqishardi. Molxonalardan uncha uzoq bo'lmagan joyda bir parchagina qishloq — chorvadorlar posyolkasi joylashgan. Qishloqcha tepalikdan pastga tomon cho'zilib tushgan edi. Qishloqning eng chekkasida, ko'rinishdan turar joyni eslatmaydigan kichkinagina uy turardi. To'rt yillik maktab mana shu edi. Yuqori sinflarning o'quvchilari sovxozga, maktab-internatga qatnashardi. Bu yerda esa kichkintoylar o'qishardi.

Bola tomog'i og'riganda bobosi bilan shu posyolkadagi feldsher huzuriga kelgandi. Endi u kulrang cherepitsa bilan yopilgan, yolg'iz trubasi qiyshayib turgan, qo'lda yasalgan taxta-lavhada: "Mektep" deb yozib qo'yilgan kichkinagina maktabga durbindan uzoq tikilib turdi. U o'qiy olmasa-da, xuddi shu so'z yozilganini faraz qildi. Durbindan hamma mayda-chuyda narsalar aniq-tiniq ko'rinib turardi. Devor suvog'iga tirnab yozilgan allaqanday so'zlar va deraza romlariga yelimlab yopishtirilgan oynalar, ayvonning g'adir-budur taxtalari ko'zga chalinardi. U qo'lda portfeli bilan bu yerga kelishni va hozir kattakon qulf osig'liq turgan anovi

eshik ostonasidan qanday hatlab o'tishini tasavvur qilib ko'rdi. O'sha eshik orqasida nima bor, nima bo'ladi?

Bola maktabni tomosha qilib bo'lgach, durbinni yana ko'lga to'g'riladi. Lekin u yerda hamma narsa ilgarigidek edi. Oq kema hali ko'ringancha yo'q. Bola teskari o'girildi-da, durbinni bir chetga qo'yib, pastga, tog' tubiga qaray boshladi. Pastda, shundoq tog'ning tagida cho'zinchoq pastqamlik bo'ylab jo'shqin serostona daryo kumushdek tovlanib oqardi. Qirg'oqdan daryo bo'ylab yo'l ketgan va u daryo bilan birga qoya burilishida ko'zdan g'oyib bo'ladi. Ro'paradagi qirg'oq jarlik va o'rmonzor edi. Naq tog'lar tepasidagi qorlargacha cho'zilib ketuvchi noyob San-Tosh o'rmonzori mana shu yerdan boshlanardi. Eng tepada qarag'aylar o'sardi. Ular toshlar va qorlar orasida tog' tizmalarining qirrasidagi qoramtir taroqlardek dikkayib turardi.

Bola uylarga, bostirmalarga, qorovulxona hovlisidagi qurilishlarga masxaraomuz qarab chiqdi. Ular yuqoridan kichkina va omonat ko'rinardi, Qorovulxonadan nariroqda, qirg'oq bo'yida u o'zining tanish toshlarini topdi. "Tuya", "bo'ri", egar", "tank" — hammasi joyida, ularning hammasini birinchi marta durbinda mana shu yerdan — Qorovultog'dan turib kuzatgan, o'shanda ularga ot qo'ygandi-da.

Bola miyig'ida kulib o'rnidan turdi va uylar tomonga tosh yumalatdi. Tosh shu yerning o'zida, tog'ning ustidayoq qola qoldi. Bola yana joyiga o'tirdi-da, durbindan qorovulxonaga qaray boshladi. Avval linzalarning kattasidan kichigi tomonga tutib qaray boshladi — uylar uzoq-uzoqlarga siljib, o'yinchoq qutichalarga aylanib qoldi. Xarsanglar kichkina toshchalar holiga keldi. Daryoning qirg'oqqa yaqin yerdagi sayoz joyida bobosi qilgan ko'lob esa kulgili, chumchuqning inicha kelardi. Bola bosh chayqab kulimsiradi-da, durbinni tez aylantirib, okulyarni to'g'rilay boshladi. Uning ulkan shaklga kengaygan suyukli xarsang toshlari durbinning oynalariga manglayini tirab turganday tuyuldi. "Tuya", "bo'ri", "egar", "tank" kemtik-yoriqlari, yon-veridagi sarg'aygan otquloqlari bilan juda haybatli va eng muhimi, ular haqiqatan ham bola atagan narsalarga juda o'xshardi. "Eh, sen qanday zo'r "bo'ri"san! "Tank"ni qara, dahshatli!.."

Xarsang toshlar ortidagi sayozlikdan bobo ko'lob qilgandi. Durbindan qirg'oqdagi mana shu joy yaqqol ko'rinib turardi. Shitob bilan oqqan suv bu yerdan, keng toshloq sayozlikdan qiyalab o'tar va toshlar ustidan ko'pirib o'tardi-da, yana shiddatli oqimga kelib qo'shilib ketardi. Sayozlikdagi suv tizzadan kelar, lekin oqimi shunchalik kuchli ediki, bolalarni daryoga oqizib ketishi hech gap emasdi. Oqim surib ketmasligi uchun bola qirg'oq bo'yidagi tolning shoxini ushlab olardi. Tol butalari ayni qirg'oqning chekkasida o'sib chiqqan bo'lib, bir shoxi yerda, bir shoxi suvda, naq suvga botib turardi. Buning nimasi cho'milish? Bog'lab qo'yilgan otdan farqi yo'q. Buning ustiga yana qancha dilsiyohlik, so'kish eshitishlar! Buvisi bobosiga uqtirardi:

"Daryoga oqib ketsa o'zidan ko'rsin — qo'limni cho'zmayman. Endi shunisi yetmay turgan edi. O'z ota-onasi tashlab ketdi. Menga boshqa tashvishlar ham yetib ortadi, majolim yo'q".

Unga nima deb bo'ladi? Kampir bu hisobda to'g'ri gapirayotir. Lekin bolaga ham rahming keladi-da: daryo yonginasida, naq eshigining ostida. Kampir qancha qo'rqitmasin, bola baribir suvga tushaverdi. Mana shundan keyin Mo'min chol bola bexatar cho'milsin, deb, sayozlikda toshlardan ko'lob qilishga qaror qildi.

Mo'min chol oqim yumalatib ketmasligi uchun qanchadan qancha katta toshlarni tanlab ko'tarib keldi. Ularni qorniga qo'yib tashidi, toshlar orasidan suvning bemalol o'tib turishini hisobga olgan holda ularni suvning ichida tik turib, shunday taxlab terdiki, suv haqiqatan ham bemalol oqadigan bo'ldi. Siyrak soqolli qotma chol ho'l ishtonlari badaniga yopishgan, kulgili holda kun bo'yi shu to'siq bilan ovora bo'ldi. Kechqurun esa zo'riqib yo'taldi, belini ololmay qoldi. Shunda buvisi javrab berdi:

— Kichkina ahmoq-ku — o'z oti bilan kichkina, katta ahmoqqa kim qo'yibdi bu ishlarni? Namuncha jon kuydirmasang? Yedirasan, ichirasan, yana nima kerak? Buncha erkalatmasang. Eh, bu yaxshilikka olib bormaydi...

Nima bo'lmasin, sayozlikda ajoyib ko'lob paydo bo'ldi. Endi bola hech qo'rqmasdan cho'milardi. Shoxchadan ushlaganicha qirg'oqdan pastga tushar va oqimga o'zini otardi, otganda ham hamisha suvga ko'zini ochgan bo'yi tushardi. Shuning uchun

ko'zini ochiq tutardiki, baliqlar ochiq ko'z bilan suzib yuradi-da. Uning g'alati orzusi bor: u baliqqa aylanib qolishni va uzoq-uzoqlarga suzib ketishni xayol qilardi.

Bola hozir durbindan ko'lobga qarab turib, ko'ylak-ishtonini yechib, qip-yalang'och junjikib suvga tushishini tasavvur qildi. Tog' daryolarining suvi hamisha sovuq, entiktiradi, lekin keyin ko'nikib qolasan. Tolning shoxchasini ushlab, oqimga yuzi bilan otilishini ko'z oldiga keltirdi. Boshi uzra suv shovullagancha qo'shilib ketadi, qorni ostidan, yelkalari, oyoqlari ustidan suv qaynab oqib o'tadi. Suv ostida tashqaridagi hamma tovushlar tinib, quloqlarda faqat suvning shildirashi qoladi. U ko'zlarini katta-katta ochib, suv ostida nimaiki ko'rinsa, bariga jon-jahdi bilan tikiladi. Ko'zlari sanchib ketadi, og'riydi, lekin u mag'rur jilmayadi, hatto suvda turib tilini ko'rsatadi. Buni u buvisiga ko'rsatmoqchi. Bilib qo'ysin, u hech qayerda ham cho'kmaydi va hech qayerda hech nimadan qo'rqmaydi. Keyin u qo'lidagi shoxchalarni qo'yib yuboradi, toki u oyoqlari bilan to'siqdagi toshlarga tiralib qolmagunga qadar suv uni surib ketaveradi. Shu yerda nafasi ham qaytadi. U suvdan sapchib turadi, qirg'oqqa chiqadi va yana tol shoxchasi tomon chopqillab ketadi. Bu takrorlanaveradi. U bobosi yasagan ko'lobda kuniga yuz marta cho'milishga ham tayyor. Xullas, baliqqa aylanmaguncha cho'milaveradi. Qanday bo'lmasin, uning baliqqa aylanishi shart...

Bola daryo qirg'og'ini tomosha qila turib, durbinni o'zlarining hovlisiga to'g'riladi. Tovuqlar, kurk tovuqlar jo'jalari bilan, to'nkaga suyab qo'yilgan bolta, tutab yotgan samovar, hovlidagi turli-tuman narsalar aql bovar qilmaydigan darajada kattalashib, shunday yaqinga kelib qoldiki, bola beixtiyor ularga qo'lini cho'zdi. Shu payt, falokat bosib arqonga yoyilgan kirni bamaylixotir yamlayotgan qo'ng'ir buzoqcha durbinda filday ko'rinib qoldi-yu, jonponi chiqib ketdi. Buzoqcha huzur qilganidan ko'zlarini qisib olgan, lablaridan so'lak oqib turardi — u kampirning ko'ylagini og'iz to'ldirib chaynashda maza qilayotgandi.

— Eh, sen jinni! — Bola durbinni ushlagancha o'rnidan turdi va qo'lini silkiy boshladi. — Qani yo'qol, eshityapsanmi, yo'qol naryoqqa! Baltek, Baltek! (Kuchuk obyektivda uyning tagida pinagini

buzmay yotardi). Tishla, tishla uni! — jon achchig'ida itga buyruq qilardi u. Lekin Baltek parvo ham qilmay, go'yo hech nima bo'lmagandek soyada cho'zilib yotardi.

Xuddi shu mahal uydan buvisi chiqib qoldi. Nima bo'layotganini ko'rib qolgan kampir qars urdi. Supurgini qo'liga oldi-da, buzoqqa tashlandi. Buzoq qochdi, kampir orqasidan quvdi. Bola durbindan ularga tikilgan bo'yicha tog'dan ko'zga tashlanib qolmaslik uchun o'tirib oldi. Buzoqni quvgan kampir alamdan va yugurishdan bo'g'ilib javragancha uyga jo'nadi. Bola uni xuddi yonma-yon turgandek, hatto yonma-yon turganidan ham yaqinroq ko'rdi. Bola buvisini xuddi obyektivda biror kishini katta qilib ko'rsatgandek ravshan ko'rib turdi. Bola uning jahldan qisilgan sarg'ish ko'zlarini, qat-qat burishgan ajinli yuzining qizarib ketganini ko'rdi. Xuddi birdan ovozi yo'qolib qolgan kinodagidek, durbinda kampirning yakkam-dukkam tishlari ko'rinib, lablari ovozsiz tez-tez qimirladi. Kampirning nima deb qichqirayotganini uzoqdan eshitib bo'lmasdi, lekin bola uning so'zlarini xuddi qulog'i ostida jaranglayotgandek aniq va baralla eshitardi. Uh, kampir uni rosa koyirdi! Bola nima deb qarg'ayotganini yoddan bilardi: "Qani, qarab tur. Qaytib kelarsan-ku. Dodingni beraman. Bobongga ham qaramayman. Necha marta aytdim-a, shu jinnilarning o'yinchog'ini yo'qotgin deb. Yana tog'ga qochib ketgan. Xudo ko'tarsin o'sha kemangni, o't tushsin, cho'kib ketsin".

Bola tog' tepasida og'ir xo'rsindi. Portfel olgan, maktabga qanday otlanishni orzu qilib turgan shunday bir kunda buzoqni ko'zdan qochirsa-ya...

Kampir javrashni qo'ymasdi. U koyib turib, chaynab tashlangan ko'ylagiga tikilib qaradi. Uning oldiga Guljamol qizchasini olib chiqdi. Buvi unga shikoyat qila turib, tutoqib ketdi. Mushtini tugib tog' tomonga do'laytirdi. Uning qoq suyak bo'lgan johil mushti okulyar oldida uzoqdan dag'dag'a solib turardi. "Ermak topding o'zingga. Xudo ko'tarsin kemangni. O't tushsin, cho'kib ketsin..."

Hovlidagi samovar qaynadi. Qopqoq ostidan burqsib ko'tarilayotgan bug' durbinda ko'rinib turardi. Bekey xola samovarni olib ketgani chiqdi. Buvisining yana jazavasi tutdi. Ma, jiyanchangning

qilmishini ko'rib qo'y degandek, chaynab tashlangan ko'ylagini uning burniga tiqdi.

Bekey xola uni tinchitmoqchi, yupatmoqchi bo'ldi. Bola uning nimalar deb taskin berayotganini bilib turardi. Har qachongidek, bu safar ham shunday deyayotgandir: "Xafa bo'lmang, enajon. Esi yo'q, go'dak hali — nimasidan xafa bo'lasiz. Bu yerda bironta jo'rasi yo'q, bir o'zi. Qichqirish, go'dakni qo'rqitishdan nima foyda". Bunga buvining ham javobi shubhasiz, aniq: "Sen menga o'rgatma. Sen oldin o'zing tug'ib ko'r, bolalarni tergashni o'shanda bilasan. U nima qilib tog'da sanqib yuribdi? Buzoqni arqonlab qo'yishga vaqti yo'q. Tog'da u nimaga buncha tikilgani-tikilgan? Sayoq ota-onasining yo'ligami? Uni tuqqanlar turli tarafga qochib ketishdi. Senga yaxshi-da, bepusht..."

Bola hatto shunday uzoq masofadan turib durbinda Bekey xolaning ich-ichiga botgan yuzlarining qanday oqarib-bo'zarib ketganini, butun vujudi bilan titrab-qaqshab o'gay onaning yuziga — bola xolasining qanday javob qilishini aniq bilardi — to'rsillatib gapirib tashlaganlarini bilib turdi: "Sen o'zing jodugar kampir, qancha o'g'il-qiz o'stirib qo'yding? O'zing kim bo'libsan?"

G'ala-g'ovur boshlandi! Buvi jahldan uvvos sola boshladi. Guljamol ayollarni yarashtirishga urinib, buvini quchoqlab, yupatgani uyga olib kirmoqchi bo'lar, u esa, battar tutoqib, hovlida jinnilardek u yoqdan bu yoqqa zir yugurardi. Bekey xola qaynab yotgan samovarni ko'targancha dog' suvni to'kib-sochib, chopgan ko'yi uyga olib kirib ketdi. Buvi esa toliqib, mollarga suv quyiladigan nov tomonga tushib ketdi. U ho'ngragancha yig'lab o'z taqdiridan qattiq kuyinardi. Bolani unutdi, endi yaratgan parvardigorning o'ziga, bu foniy dunyoning beparvoligiga yopishib ketdi. "Hali menga osilyapsanmi? Sen mening kimligimni so'rayapsanmi? — buvi o'gay qizning orqasidan g'azablanardi.— Agar meni Xudo jazolamaganda, agar u mening besh go'dagimni bag'rimdan yulib olmaganda, yolg'iz o'g'lim o'n sakkiz yoshida urushda o'qqa uchmaganda, cholginam, mehribonginam Tayg'ar suruv bilan bo'ronda qotib qolmaganda, men siz, o'rmon odamlarining orasida yurarmidim? Men senga o'xshaymanmi, senga-ya, tug'mas? Men qarigan chog'imda sening jinnisifat otang Mo'min bilan yashab yu-

rarmidim? Qaysi aybim-gunohlarim uchun sen meni buncha qiynading, la'nati Xudo? "

Bola ko'zdan durbinni olib, g'amgin bosh egdi. "Biz endi uyga qanday qaytamiz? — Sekingina portfelga so'z qotdi u. — Buning hammasiga men sababchi, jinni buzoq sababchi. Yana sen ham sababchisan, durbin. Oq kemaga qaragani har safar meni sen chaqirasan. Sen ham aybdorsan".

Bola atrofga razm soldi. Chor atrof tog' — qoya, o'rmon. Tepalikdan, muzlar qo'ynidan boshlangan irmoqlar yarqirab jilvalanganicha ohista pastga oqib tushar va faqat shu yerga, pastga tushgandan keyingina daryo bo'lib tinimsiz hayqirib yotish uchun ovoz paydo qilgandek boiardi. Tog'lar esa ulkan va nihoyasiz, ko'krak kerib turardi. Bola o'zini shu daqiqalarda bag'oyat kichik, bag'oyat yolg'iz, butunlay unutilgan his qilardi. Faqat tog'lar bor uning yonida, tog'lar, chor atrofda baland tog'lar.

Quyosh ko'l tomonga og'a boshladi. Havo unchalik issiq emasdi. Sharq tarafdagi qiyaliklarga birinchi, kalta soyalar tushdi. Quyosh endi tobora pastga yo'nalaveradi, soyalar esa pastga, tog'lar poyiga cho'zilaveradi. Odatda, kunning ayni shu mahalida lssiqko'lda oq kema ko'rinardi.

Bola durbinni ko'zga tashlanib turgan o'sha eng uzoqdagi joyga burdi va nafasini yutib kutib turdi. Ana u! Hamma narsa birdan unutildi: u yerda, oldinda. Issiqko'lning ko'm-ko'k sathida oppoq kema paydo bo'ldi. Mana, qalqib chiqdi. Ana u! Trubalari qator tizilgan, o'zi kuchli va chiroyli. U xuddi ip tortib qo'ygandek to'g'ri va bir tekis suzib borardi. Bola shosha-pisha durbin oynalarini ko'ylagining etaklari bilan artdi-da, yana okulyarni to'g'rilay boshladi. Kemaning ko'rinishi yanada tiniqroq bo'la boshladi. Endi uning to'lqinlararo qanday chayqalib, quyrug'i ortidan qanday oppoq ko'pikli iz qoldirib ketayotganligini ilg'asa bo'lardi. Bola oq kemadan ko'z uzmay unga zavq bilan tikilardi. Bolaning ixtiyorida bo'lganda edi, u suzayotgan odamlarni ko'rmoq mumkin bo'lishi uchun oq kemani yaqinroq suzib kelishga yolvorib ko'ndirgan bo'lardi. Lekin kema bulardan bexabar edi. U o'z yo'lidan, kim biladi, allaqayoqdan chiqib, allaqayoqqa, ohista va ulug'vor suzib borardi. Kemaning suzib borishi uzoq vaqt ko'rinib turdi, bola ham

uzoq vaqt baliqqa aylanib, daryo bo‘ylab unga, oq kemaga qarab suzib ketishi haqida xayol surib qoldi...

Bola bir kuni Qorovultog‘dan turib ko‘m-ko‘k Issiqko‘lda oq kemani birinchi marta ko‘rib qolganida uning go‘zalligidan yuragi gupirib, darhol otasini —issiqko‘llik matrosni — xuddi shu oq kemada suzayotir, degan qarorga kelgandi. Bola o‘zi bunga ishonar, chunki u shunday bo‘lishini juda-juda istardi.

U na otasini, na onasini eslay olardi. Bola ularni biron marta ham ko‘rmagan. Ularning hech qaysi biri uni biron marta yo‘qlab kelmagan. Lekin bola bilardi: otasi Issiqko‘lda matros, onasi esa otasidan ajrashganidan so‘ng, o‘g‘lini boboda qoldirib, o‘zi shaharga ketgan. Ketgan-u, shu bo‘yi g‘oyib bo‘lgan. Tog‘ ortidagi, ko‘l ortidagi, yana tag‘in tog‘ ortidagi uzoq shaharga ketgan.

Mo‘min bobo kunlardan birida o‘sha shaharga kartoshka sotgani borgandi. Rosa bir hafta yo‘q bo‘lib ketib, qaytgach, choy ustida Bekey xola bilan buviga qizini, ya’ni bolaning onasini ko‘rganini gapirib bergan. U allaqanday katta fabrikada to‘quvchi bo‘lib ishlar ekan. Uning yangi oilasi — ikki qizi bo‘lib, ularni bolalar bog‘chasiga topshirar va haftada bir martagina ko‘rar ekan. Katta turar joyda, lekin katalakdek xonada yashashar ekan. Hovlisida esa xuddi bozordagiday birov-birovni tanimasmish. Hamma uyiga kirdi deguncha eshigini qulflab olarmish. Xuddi turmadagiday, hamisha qamalib o‘tirisharmish. Eri shofyor bo‘lsa kerak, avtobusda odamlarni ko‘chama-ko‘cha tashib yurarkan. Ertalab soat to‘rtda ketib, kech qaytarkan. Ishi og‘ir ekan, deb hikoya qilardi chol. Zor yig‘lab, kechirim so‘radi. Ular yangi kvartira olish uchun navbatda turishibdi. Qachon olishadi — noma’lum. Lekin qachon olishsa, eri ko‘nsa, o‘g‘lini olib ketmoqchi. Mendan picha kutib turishni iltimos qildi. Mo‘min bobo unga, g‘am yemagin, debdi. Eng muhimi — er bilan murosa qilib yashash, boshqasi bitib ketaveradi. O‘g‘lining ham ko‘p g‘amini tortmasin. “Toki men tirik ekanman, bolani hech kimga bermayman, agar o‘lsam — Xudo uni o‘zi bir yo‘lga solar, tirik odam o‘z taqdirini topib ketar...”

Cholning gaplarini eshitgan Bekey xola bilan buvi darhol xo‘rsinib va hatto barobariga jinday ko‘z yoshi qilib olishdi.

Xuddi shu o'tirishda gap aylanib kelib, bolaning otasi haqida ham so'z ochib qolishdi. Boboning aytishicha, uning avvalgi kuyovi, bolaning otasi, hali ham allaqaysi kemada matros bo'lib xizmat qilarmish, uning ham yangi oilasi, ikkitami, uchtami bolasi bor emish. Pristan yaqinida yasharmish. U chamasi ichishni tashlaganmish. Yangi xotini har safar bolalari bilan uni qarshi olgani pristanga chiqarmish. "Bundan chiqdi, — o'yladi bola, — ular mana shu kemani — uning kemasini qarshi olishar ekan-da..."

Kema sekin uzoqlashib borardi. Trubasidan tutun burqsitib, ko'lning ko'm-ko'k silliq sathida suzib borayotgan bu oppoq va uzun kema, baliqqa aylangan bolaning o'zi tomon suzib kelayotganini bilmasdi. U shunday baliqqa aylanib qolishni orzu qilardiki, baliqning hamma joyi — tanasi, dumi, suzgich qanotlari, tangachalari unga o'tsa-yu, faqat ingichka bo'yinli, shalpang quloqli, tirnalgan burunli boshi o'zida qolsa bas. Ko'zlari ham o'zicha qolsin. Lekin xuddi hozirgiday emas, chin baliqlarday ko'radigan bo'lishsin.

Bolaning kipriklari xuddi buzoqnikiga o'xshash uzun-uzun bo'lib, hamisha o'zidan o'zi nimagadir pirpirab turardi. Guljamol, qizimning ham kipriklari shunday bo'lgandami, qanday chiroyli bo'lardi! — deydi. Chiroyli bo'lishning nima keragi bor? Shaxsan unga chiroyli ko'zlarning keragi yo'q, unga suv ostida ko'ra oladigan ko'zlar kerak.

Bobo yasagan ko'lobga kelganda u baliqqa aylanadi. Bir qarabsizki — u baliq-da. So'ngra ko'lobdan daryoga, naq pishqirib shiddat bilan oqayotgan daryoga sakrab o'tardi va oqim bo'ylab suv ostiga sho'ng'ib ketardi. Keyin ham shu tarzda sakrab-sakrab atrofga nazar tashlab boradi, qizig'i yo'q joylarda faqat suv ostida suzardi. U jo'shqin daryo oqimida qizil tuproqli katta jarlik bo'yidan, daryo ostonalari va to'lqinlaridan, tog'lar va o'rmonlar yonidan oqib o'tadi. U o'zining suyukli xarsang toshlari bilan xayrlashadi: Xayr, "cho'kib yotgan tuya", xayr, "bo'ri", xayr, "egar", xayr, "tank". Qorovulxona yonidan suzib o'tayotganda esa suvdan sakrab chiqib, suzgich qanotlarini bobosiga silkitadi: "Xayr, bobo, men tezda qaytaman". Bobo shunda hayratdan dovdirab, nima qilishini bilmay qotib qolarmidi? Buvi, Bekey xola, Guljamol qizchasi bilan — hammasi og'zini ochib qolarmidi? Qayerda kim ko'ribdi— kallasi odam-u, tanasi baliqni?

Bola esa ularga suzgich qanotlarini silkib qo'yardi: "Xayr, men Issiqko'lga, oq kemaga suzib boraman. U yerda mening matros dadam bor". Baltek, ehtimol, qirg'oq bo'ylab chopsa kerak. It umrida bunaqa hodisani ko'rmagan-da, axir. Agar Baltek u tomonga suvga o'zini tashlaguday bo'lsa, u qichqiradi: "Qayt, Baltek, qayt. Cho'kib ketasan!" — o'zi esa suzib ketaveradi. Osma ko'prikning sim arqoni ostidan, keyin to'qaylar yonidan, so'ng gumburlab turgan daradan o'tib, to'g'ri Issiqko'lga suzib boradi.

Issiqko'l deganlari — bu butun bir dengiz. U Issiqko'l to'lqinlarida suzib yuradi, to'lqindan to'lqinga ko'chadi va shunda oq kemaning qarshisidan chiqib qoladi. "Salom, oq kema, bu menman!" — deydi u paroxodga. — Durbindan har doim senga qaragan menman". Kemadagi odamlar hayratdan yoqa ushlab, mo'jizani ko'rgani yugurishadi. Shunda u o'zining matros otasiga so'z qotadi. "Salom, dada, men sizning o'g'lingizman. Men sizning oldingizga suzib keldim". — "Sen qanaqa o'g'ilsan? Sen yarim baliq, yarim odamsan-ku!" — "Siz meni o'z oldingizga, kemaga chiqarib oling, men shunda sizning o'g'lingiz boiib qolaman". "Voy, tavba. Qani, ko'raylik-chi". Otasi to'r tashlab uni suvdan palubaga tortib oladi. Shunda u o'z asliga qaytadi. Keyin-chi, keyin...

Keyin oq paroxod o'z yo'lida suzib ketaveradi. Bola otasiga hamma narsa haqida, butun hayoti davomida nimaiki bilgan bo'lsa hikoya qilib beradi. O'zi yashab turgan tog'lar haqida, o'sha xarsang toshlar haqida, daryo va noyob o'rmon haqida, baliqlarday ko'zi ochiq suzishni o'rgangan yeri — bobosining ko'lobi haqida so'zlaydi.

Mo'min bobosinikida qanday yashayotganligini ham aytib beradi, albatta. Bu odamni Mo'min chaqqon deb atashsa ham, uning yomon odam emasligini otasi bilib qo'ysin. Bunaqa bobo hech joyda yo'q, bobolarning eng yaxshisi. Uning hech shumligi yo'q, shuning uchun hamma undan kulib yuradi. Birovga hech yomonlikni ravo ko'rmaydi. O'razqul amaki esa cholga hadeb tirg'ilaveradi! Ba'zan odamlarning oldida ham boboga qichqiraveradi. Bobo esa gapiga boplab javob qilish o'rniga, O'razqul amakini kechirgani-kechirgan va hatto uning o'rniga o'rmon xo'jaligi ishlarini ham o'zi boshqaradi. Faqat shugina deysizmi? O'razqul mast-alast

bo‘lib kelganda, uning hayosiz ko‘zlariga tupurish o‘rniga, unga peshvoz chiqib, otdan tushirib qo‘yadi, uyga suyab kiradi, karavotga yotqizib qo‘yadi, sovuq yemasin, boshi og‘rimasin, deb ustiga po‘stin tashlaydi, otining esa egarini oladi, yuvib taraydi, yem beradi. Hammasiga sabab — Bekey xolaning tug‘masligi. Nega shunday, dada? Istasang tug‘gin, istamasang keragi yo‘q, deb qo‘ya qolsa bo‘lmaydimi? O‘razqul amaki Bekey xolani urganda boboga rahming keladi. Boboning o‘zini ursa yengil bo‘lardi. Bekey xola qichqirganda u biram qiynaladiki. Qo‘lidan nima ham kelardi? Qizining orasiga tushgisi keladi-yu, lekin buvi bunga yo‘l qo‘ymaydi. “Aralashma, — deydi u, — o‘zlari murosaga keladi. Sen cholga kim qo‘yibdi. Xotin seniki emas, joyingda o‘tir”. “Axir, u mening qizim-ku!” — desa, buvi: “Xo‘sh, uying uyiga tutash bo‘lmay, uzoqda yashaganingda nima qilarding? Har safar ot choptirib borib ajratib kelarmiding? Shundan keyin kim sening qizingni xotin qilardi?” — deydi.

Men aytayotgan buvi — bu ilgarigisi emas. Siz uni, dada, balki bilmassiz ham. Bu boshqa buvi. O‘z tug‘ishgan buvim yoshligimda vafot etgan. Bu buvi bo‘lsa keyin kelgan. Bizning havolarga sira tushunib bo‘lmay-di — bir qarasang ochiq, bir qarasang bulutli, bir qarasang yomg‘ir aralash do‘l. Buvi ham xuddi shunday, tushunib bo‘lmaydi. Bir qarasang mehribon, bir qarasang berahm, hech tushunolmaysan. Jahli chiqqanda — naq yeb qo‘yadi. Biz bobom bilan jim bo‘lamiz. Buvi: “Begonani qancha yedirma, qancha ichirma, undan yaxshilik ko‘rmaysan”, — deydi. Men, axir bu yerda o‘gay emasman-ku, dada. Men hamisha bobom bilan birga yashab keldim. Uning o‘zi o‘gay bu yerda, u bizga keyin kelib qo‘shildi. Endi esa meni o‘gay deydi.

Qishda biz tomonda qor meni ko‘may deydi. Eh, qor uyulib ketadi! Agar o‘rmonga borish kerak bo‘lsa, faqat bo‘z ot Olaboshdagina borib bo‘ladi, u ko‘kragi bilan qor uyumini surib ketadi. Shamollar ham shunday zo‘rayadiki, oyog‘ingda turolmaysan. Ko‘lda to‘lqinlar ko‘tarilib qolsa, kemani yong‘oq po‘chog‘idek o‘ynatsa, bilingki, bizning San-Tosh shamoli ko‘lni chayqaltiryapti. Bobom hikoya qilgandilar, juda qadim zamonda dushman lashkarlari bizning o‘sha yerlarimizni bosib olgani yurish qilibdi. Ana shunda

bizning San-Toshdan shunday shamol turibdiki, dushmanlar egarda o'tirolmay qolishibdi. Otlardan tushishibdi, lekin piyoda ham yurisholmabdi. Shamol ularning yuzini qonga belabdi. Shunda ular shamolga orqa o'girishibdi, shamol esa ularning yelkalariga urilib, qayrilib qarashiga imkon bermabdi, to'xtagani qo'ymabdi va ularni bitta qo'ymay Issiqko'ldan haydabdi. Mana qanday bo'lgan. Biz ana shu shamolda yashayapmiz! U bizdan boshlanadi. Butun qish bo'yi o'rmon daryo ortida shamoldan g'ichirlab, ingrab chiqadi. Hatto vahimali bo'ladi.

Qishda o'rmonda ish unchalik ko'p emas. Qishda biz tomonlar odamsiz huvullab qoladi — yozda ko'chmanchilar keladigan mahallarga sira o'xshamaydi. Yozda katta yaylovda oqshomlari suruv yoki yilqi uyurlari bilan odamlarning qo'nishini juda yaxshi ko'raman. To'g'ri, ular ertalab tog'ga jo'nab ketishadi, lekin baribir ularning kelishi yaxshi. Ularning bolalari va xotinlari yuk mashinalarida kelishadi. Yuk mashinalarida o'tovlarni va boshqa turli-tuman narsalarni olib yurishadi. Ular sal-pal joylashib olishgach, biz bobom bilan so'rashgani boramiz. Hammalari bilan qo'l berib ko'rishamiz. Men ham. Bobom, kichiklar o'zlaridan kattalarga doim birinchi bo'lib qo'l uzatishlari kerak, deydi. Kimki qo'l uzatmasa, u odamlarni hurmat qilmagan bo'ladi. Keyin, bobom yettining biri avliyo bo'lib chiqishi ham mumkin, deydi. Avliyo — bu juda xushfe'l va aqlli odam. Kimki u bilan qo'l berib ko'rishishga muyassar bo'lsa, bir umr baxtiyor bo'ladi. Men, shunday ekan, nega u o'zining avliyo ekanligini ayta qolmaydi, biz hammamiz u bilan qo'l berib ko'rishgan bo'lardik, desam, bobom kuladi: hamma gap shunda-da, deydi u, avliyo o'zining avliyoligini bilmaydi — u oddiy odam. Faqat qaroqchigina o'zining qaroqchiligini biladi. Bular menga uncha tushunarli emas, lekin biroz uyalinqirasam ham, men hamisha odamlar bilan qo'l berib ko'rishaveraman.

Bobom bilan birga yaylovga kelganimda esa uyalmayman.

"Ota-bobolaringizning yozgi qo'nog'iga xush kelibsizlar! Mol-u jon sog'-salomatmi, bola-chaqa omon-esonmi?" — bobom ana shunday so'rashadi. Men esa faqat qo'l cho'zib ko'rishib qo'ya qolaman. Bobomni hamma biladi, bobom ham hammani biladi. Unga yaxshi. Uning o'z suhbat mavzusi bor, u ko'chmanchilarning

hol- ahvolini so'raydi va o'zi biz qanday yashayotganligimizni gapirib beradi. Men esa bolalar bilan nimani gaplashishni bilmayman. Keyinchalik biz bekinmachoq, urush-urush o'ynab ketamiz va o'yinga shunday berilib ketamizki, ketgim kelmay qoladi. Qani endi hamisha yoz bo'lsa, hamisha bolalar bilan o'tloqda o'ynab yursang! Biz o'yinga kirishib ketguncha gulxanlar bo'y cho'zadi. Gulxanlardan yaylov toza yorishib ketadi, deb o'ylaysizmi, dada? Hamma joy emas. Olovning atrofi yorug', undan nari esa avvalgidek qop-qorong'i. Biz esa urush-urush o'ynaymiz, shu qorong'ilik qo'ynida yashirinamiz va hujum qilamiz, xuddi kinodagidek. Agar sen komandir bo'lsang, hamma senga itoat qiladi. Komandirlik komandirning o'ziga ham yoqsa kerak...

Keyin tog'lar ustiga oy suzib chiqadi. Oy chiqqanda o'yin yana gashtli bo'ladi, lekin bobom meni olib qaytadi. Biz uyga yaylovdan, butazordan qaytamiz. Qo'ylar jimgina yotishadi. Yilqilar atrofda o'tlab yuradi. Biz ketayotib kimningdir qo'shiq aytayotganini eshitamiz. Yosh cho'pondir, balki keksadir. Bobom meni to'xtatadi: "Quloq sol. Bunday qo'shiqlarni hamisha eshitavermaysan". Biz to'xtaymiz, qo'shiqni tinglaymiz. Bobom kuyga mahliyo bo'lgancha bosh chayqaydi.

Bobo hikoya qiladi: eski zamonda bir xon boshqa bir xonning qo'liga asir tushibdi. Xon asir tushgan xonga debdi: "Agar istasang — mening qulim bo'lib tirik qolasan, bo'lmasa, eng so'nggi tilagingni bajo keltiraman-da, keyin o'ldiraman". Xon o'ylab turib javob qilibdi: "Qul bo'lib yashashni istamayman. Yaxshisi, meni o'ldirgin, lekin avval mening vatanimdan birinchi duch kelgan cho'ponni chaqirtirib ber". "Uni senga nima keragi bor?" "O'lim oldidan uning qanday kuylashini tinglamoqchiman". Bobom aytadi: ona yurt qo'shig'i uchun odamlar jonini beradi. Qanday odamlar ekan-a, bir ko'rsang ularni. Ehtimol, katta shaharlarda yashashar?

Eshitish yoqimli. Bobom: bular eski qo'shiq deydi. "Qanday odamlar bo'lgan-a! — shivirlaydi u. — Qanday qo'shiqlar kuylashgan-a, ey Xudoyim-ey..." Negaligini bilmayman-u, bobomga shunday rahmim keladi va uni shunchalik yaxshi ko'rib ketamanki, oxiri yig'lagim keladi...

Tong sahardayoq yaylovda hech kim qolmaydi. Qo'y va yilqilarni yoz bo'yi boqqani nariga, tog'ga haydab ketishgan. Ular ortidan izma-iz boshqa kolxozlardan boshqa ko'chmanchilar kelishadi. Kunduzlari to'xtashmaydi, yonimizdan o'tib ketishadi. Tunda esa yaylovga qo'nishadi. Biz yana bobom ikkovimiz odamlar bilan uchrashgani boramiz. Bobom odamlar bilan ko'rishishni juda yaxshi ko'radi. Bu odatni men undan o'rgandim. Ehtimol, vaqti kelib bir kun yaylovda haqiqiy avliyo bilan uchrashib qolarman...

Qishda O'razqul amaki bilan Bekey xolam shaharga doktorga qaratgani ketishadi. Balki doktor yordam qilar, bir dori bersa-yu, bola tug'ilib qolsa, deb umid qilishadi. Lekin buvim hamisha, aziz joylarga borgan ma'qul, deydi. Bu qayerdadir, tog'ning ortida, dalalarida paxta o'sadigan joyda emish. Tep-tekis yerda, tog' bo'lishi mumkin bo'lmagan tekislikda aziz bir tog' — Sulaymon tog'i bor emish. Ana shu tog' poyiga bir qora qo'chqor so'yib, Xudoga iltijo qilsa, tog'ga chiqib har qadamda Xudoga sig'inib, yolvorsa hamda chin ko'ngildan so'rasa, Xudoning rahmi kelib, farzand ato etarmish. Bekey xolam o'sha yoqqa, Sulaymon tog'iga borishga juda intizor. O'razqul amaki esa unchalik istamaydi. Uzoq. Ko'p pul kerak, deydi. U yoqqa faqat samolyot bilan tog'dan oshib borish kerak, axir. Samolyotgacha ham qancha yurish kerak, bu ham pul...

Ular shaharga ketishsa, biz shumshayib qolamiz. Axir ko'pchilik emasmiz-da, bor qo'shnilarimiz — Seydahmad, uning xotini Guljamol va ularning kichkinagina qizchasi, xolos.

Kechqurunlari, ishdan qo'l bo'shaganda, bobom menga ertaklar aytib beradi. Bilaman, uydan tashqarida zim-ziyo, sovuq tun. Izg'irin izillab turibdi. Eng ulkan tog'lar ham bunday tunlarda vahimaga tushib bir to'p bo'lib to'planishib, uyimiz oldiga — deraza ostidagi yoruqqa yaqinroq kelib olishadi. Menga bu ham qo'rqinchli, ham sevinchli tuyuladi. Pahlavon bo'lganimdami, katta po'stin kiyardim-da, tashqariga chiqardim. Men u tog'larga bor ovoz bilan derdim: "Qo'rqmang, tog'lar! Men shu yerdaman. Mayli, izg'irin, qorong'u zulmat, dovul bo'lsin, men hech nimadan qo'rqmayman, sizlar ham qo'rqmanglar. Bir yerga g'uj bo'lib to'planishmasdan joylaringda turaveringlar".

Men keyin qor uyumlaridan yurib, daryodan hatlab o'tib — o'rmonda paydo bo'lardim. Tunda o'rmon daraxtlar uchun juda vahimali, axir. Ular yolg'iz, bir so'z aytadigan jonzoti ham yo'q. Sovuqda yalang'och daraxtlar muzlaydi, ularga bosh suqadigan joy qayda. Men esa o'rmonga borib, ularga aytarlik vahimali bo'lmaslik uchun har bir daraxtning tanasiga qo'lim bilan urib-urib qo'yardim. Ko'klam ko'karmay qoladigan daraxtlar — bu o'sha, qo'rqinchdan qotib qolgan daraxtlar bo'lsa kerak. Keyin biz bu qurib qolgan daraxtlarni o'tinga kesamiz.

Bobom menga ertak aytayotganda men mana shularning hammasi haqida o'ylayman. U uzoq hikoya qiladi. Ular har xil — kulgililari ham bor, ayniqsa, ochko'z bo'ri sho'ri qurib yutib yuborgan Chipalak otli jimjiloqday bola haqidagisi kulgili. Yo'q, avval uni tuya yutib yuboradi. Chipalak barg-xazonlarning ostida uxlab qoladi, tuya esa shu atrofda tentirab yurgan bo'ladi, "hap" etkizib barg-marglarga qo'shib yutib yuboradi. Shuning uchun ham aytishadi-da: tuya nima yutganini bilmaydi deb. Chipalak chinqirib, odamlarni yordamga chaqiradi. Keksalar o'zlarining Chipalaklariga yordam berish uchun tuyani so'yishga majbur bo'lishadi. Bo'ri bilan ham shunga o'xshagan voqea sodir bo'ladi. U ham o'zining ovsarligi tufayli Chipalakni yutib yuboradi. Oxirida bo'zlab yig'laydi. Bo'ri Chipalakka duch kelib qoladi. "Oyog'im ostida o'ralashgan qanaqa pashsha? Seni bir yamlab yutib yuboraman". Chipalak esa deydi:

— Tega ko'rma menga, bo'ri, aks holda, kuchukka aylantirib qo'yaman.

— Ha-ha, — xaxolaydi bo'ri, — bo'rining kuchuk bo'lib qolganini kim ko'ribdi. Shu dag'alliging uchun men seni yeyman. Shunday debdi-da, uni yutib yuboribdi. Yutibdi-yu, esidan ham chiqarib yuboribdi. Lekin shu kundan boshlab bo'rilik rizq-ro'zidan ayrilibdi. Bo'ri pisib qo'ylarga endi yetdim deganda, Chipalak uning qornida turib qichqirarkan: "Ey, cho'ponlar, uxlamanglar! Bu men, qo'ng'ir bo'riman, qo'ylaringni bo'g'izlagani pusib kelyapman!" Bo'ri nima qilarini bilmaydi. O'zining biqinini tishlaydi, yerga dumalaydi. Chipalak esa hech jim bo'lmabdi. "Ey, cho'ponlar, chopinglar bu yoqqa, uringlar meni, do'pposlanglar".

Cho‘ponlar tayoq ko‘tarib bo‘riga tashlanishibdi, bo‘ri qochibdi. Cho‘ponlar hayratga tushib quvisharmish. Bo‘ri aqldan ozibdi, o‘zi qochadi-da, tag‘in o‘zi qichqiradi, deb hayron bo‘lisharmish. Bo‘ri esa qichqirarmish: “Meni quvib yetinglar, og‘alar, uringlar, rahmingiz kelmasin!” Cho‘ponlar kulgidan yiqilib qolisharmish, bo‘ri esa arang qochib qutilarmish. Lekin bu bilan uning holi yengillashmabdi. Qayoqqa tumshuq suqmasin, Chipalak unga pand beraveribdi. Hamma joyda uni quvishaveribdi, hamma joyda undan kulishaveribdi. Bo‘ri ochlikdan ozib ketibdi, terisi bilan suyagigina qolibdi. Tishlarini shaqirlatib ulibdi: “Bu qanaqa jazo bo‘ldi menga? Nega men o‘z boshimga o‘zim baloni sotib oldim? Qariganda jinni bo‘ldim, esimni yeb qo‘ydim”. Chipalak esa uning qulog‘iga shivirlabdi: “Toshmatga chop, uning qo‘ylari semiz! Boymatga chop, uning itlari kar. Ermatga chop, uning cho‘ponlari uxlab yotibdi”. Bo‘ri esa o‘tirib olib hiqillarmish: “Hech qayoqqa bormayman, yaxshisi, bitta-yarimtaga kuchuk bo‘lib yollanaman...”

Kulgili ertak-a, dada, to‘g‘rimi? Bobomning boshqa ertaklari ham bor — mungli, dahshatli, qayg‘uli. Lekin mening eng sevimli ertagim Shoxdor ona bug‘u haqidagi ertak. Bobom, Issiqko‘lda yashagan har bir kishi bu ertakni bilishi kerak, deydi. Bilmaslik gunoh. Balki, siz bilarsiz buni, dada? Bobomning aytishicha, buning hammasi rost, bo‘lgan ish, deydi. Qachonlardir shunday bo‘lgan ekan. Biz hammamiz Shoxdor ona bug‘uning bolalari ekanmiz. Men ham, siz ham, boshqalar ham...

Qishda biz mana shunday yashaymiz. Qish uzoq cho‘ziladi. Bobomning ertaklari bo‘lmasa, qishda men juda zerikib qolardim.

Bahorda biz tomonlar yaxshi bo‘ladi. Kunlar isib ketgach, yana tog‘ga cho‘ponlar kelishadi. O‘shanda biz tog‘da yana ko‘payishib qolamiz. Faqat daryoning u tomonida — bizdan narida hech kim yo‘q. U yoqda faqat o‘rmon va o‘rmondagi narsalar bor, xolos. U yoqqa hech kim oyoq bosmasin, hech kim bironta novdaga tegmasin, deb biz qorovulxonada yashaymiz-da. Biz tomonga hatto olimlar kelishgandi. Shim kiygan ikkita ayol, chol va bir yoshgina yigit. Bu yigit ularning shogirdi. Rosa bir oy yashashdi. O‘t, yaproq va novda yig‘ishdi. Ular aytishdiki, bizning San-Toshdagiga o‘xshagan o‘rmonlar yer yuzida juda oz qolibdi.

Deyarli yo‘q emish. Shuning uchun ham o‘rmonimizdagi har bitta daraxtni asrash kerak.

Men esa bobom har bitta daraxtni shunchaki ehtiyot qiladi deb o‘ylardim. Bobom O‘razqul amaki qarag‘aylarni yog‘och o‘rnida birovga bersa juda yomon ko‘rardi...

UCHINCHI BOB

Oq kema uzoqlashib ketdi. Uning trubasini durbinda ham ko‘rish mumkin bo‘lmay qoldi. Hademay u ko‘zdan yo‘qoladi. Endi bolaga otasining kemada suzishi haqidagi o‘ylariga nuqta qo‘yish payti keldi. Hammasi yaxshi boshlangan edi, mana, oxiri uncha xush kelmadi. U baliqqa aylanib, daryodan ko‘lga suzishni, oq kemaning unga qanday duch kelishini, otasi bilan qanday uchrashishini osongina tasavvur qilardi. Otasiga nimalar haqida so‘zlab berishni ham bilardi. Biroq ishning oxiri yurishmadi. Chunki qirg‘oq ham deyarli ko‘rinib qoldi. Kema pristan tomon yo‘l oldi. Matroslar qirg‘oqqa tushishga hozirlana boshlashdi. Ular uy-uyiga ketishadi. Otasi ham uyiga jo‘nashi kerak. Pristanda uni xotini va ikki bolasi kutmoqda. Endi nima qilsin? Otasi bilan boraversinmi? U o‘zi bilan birga olib ketarmikan? Mabodo olib ketadigan bo‘lsa, xotini: “Kim bu, qayerdan kelgan, nima keragi bor?” deb qolsa-chi. Yo‘q, yaxshisi bormagani ma’qul...

Oq kema ko‘zga elas-elas ilashuvchi bir nuqtaga aylanib, tobora uzoqlashib boradi. Quyosh suvga bosh qo‘ydi. Ko‘l yuzasidagi ko‘zni qamashtiruvchi olovli binafsha rang yog‘du durbindan ko‘rinib turardi.

Kema ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Shunday qilib, oq kema haqidagi ertak ham tugadi. Uyga jo‘nash kerak.

Bola portfelini yerdan oldi, durbinni qo‘ltig‘iga qisdi. Qirdan tezgina, ilon izi so‘qmoqdan qiyalab chopib tushib ketdi. Uyga yaqinlashgan sari yuragi po‘killay boshladi. Buzoq yamlab qo‘ygan ko‘ylak uchun endi javob berish kerak. Jazodan bo‘lak hech nima xayoliga kelmasdi. Ruhan butunlay tushib ketmaslik uchun bola portfelga murojaat qildi: “Sen qo‘rqma. Xo‘sh, bizni koyishadi. Axir men atay qilganim yo‘q-ku. Men, to‘g‘risi, buzoqcha bo‘sha-

lib ketganini bilmabman. Xo'sh, meni savashar ham. Chidayman. Agar seni polga qarab uloqtirishsa, cho'chima. Axir sen portfelsan-ku, sinib qolmaysan. Agar kampirning qo'liga durbin tushsa bormi, omon qolmaydi. Biz avval durbinni molxonaga berkitib qo'yamiz-da, keyin uyga boramiz..."

U shunday qildi ham. Lekin ostonadan hatlab o'tishga yuragi dov bermasdi.

Ammo uyda vahimali sukunat hukmron edi. Hovli shunday jimjit, kimsasiz ediki, egasi ko'chib ketgandek huvullab yotardi. Ma'lum bo'lishicha, Bekey xolani eri yana do'pposlabdi. Mo'min bobo yana qizining kaltaklanganligi, sochlari to'zg'ib faryod chekayotganligi ustidan chiqibdi va yana bu sharmandagarchilikning oldini olish uchun jinniligi tutgan kuyovini tinchitishga, uning mushtiga yopishib, yalinib-yolvorishga kirishibdi. Buning ustiga otasi turibdi demay, uning ko'zi oldida, qizini eng tuban so'zlar bilan haqorat qilibdi. Uni bepusht mochag'ar, yaramas qisir eshak va yana maza-bemaza so'zlar bilan so'kibdi. Qizining yovvoyi va telbalarga xos ovoz bilan: "Xudo meni befarzand qilib yaratgan bo'lsa, mening gunohim nima? Bu dunyoda qo'yday tug'ib yotgan ayollar ozmi, faqat meni Xudoyim farzanddan qisgan. Nega? Nima uchun mening taqdirim shunday? Bundan ko'ra o'ldir meni, yirtqich. Mana, ur, ur!..", — degan hayqirig'ini ham eshitgan.

Mo'min chol burchakda g'ujanak bo'lib o'tirgancha, hamon entikib-entikib nafas olar, tizzasi ustiga tashlangan qo'llari iztirob va alamdan titrardi. Yuzlari dokaday oqarib ketgan edi.

Mo'min nabirasiga qaradi-yu, so'z qotmadi, yana horg'in ko'zlarini yumdi. Buvisi uyda yo'q edi. U Bekey xolani eri bilan yarashtirib qo'ygani, ularnikida tinchlik o'rnatgani, singan idish-tovoqlarni yig'ishtirgani ketgandi. Buvisining shunaqa fe'li bor: O'razqul xotinini savalayotganda oraga tushmaydi, cholni ham qaytaradi. Janjaldan keyin esa yarashtirgani boradi. Shunisiga ham rahmat.

Hammadan ko'ra bolaning cholga rahmi kelardi. Har safar shunday damlarda cholning joni halqumiga kelardi. Burchakka tikilgancha karaxt o'tirar, hech kimning ko'ziga ko'ringisi kelmasdi. Hech kimga, hech bir zotga qalbida nimalar kechayotganini bildirmas-

di. Aslida bunday paytlarda Mo'min juda qartayib qolgani, yakka-yu yolg'iz o'g'li urushda halok bo'lgani haqida xayol surardi. O'g'limni hozir hech kim bilmaydi, eslamaydi ham. O'g'li yonida bo'lganida balki bunchalik xo'rlanmasmidi. Mo'min umr bo'yi bir yostiqqa bosh qo'yib yashagan xotinini ham qo'msardi. Lekin eng katta baxtsizligi — uning qizlariga baxt kulib boqmadi. Kenjatoyi nabirasini unga qoldirib shaharga ketdi, endi u yerda katta oilasi bilan bir xonaga tiqilib o'tiribdi. Ikkinchisi bunda O'razqulning jabrini tortyapti. U keksayib qolgan bo'lsa ham, farzandi huzurida bo'lib, qizi uchun hamma xo'rliklarga bardosh beradi, alam qiladigan joyi shundaki, qiziga ona bo'lishdek baxt nasib qilmayapti. O'razqul bilan turmush qurganiga ham mana qancha yillar bo'ldi. Bu turmush qizining joniga tegdi, lekin qochib qayoqqa ham borardi? O'zi ham qarib qoldi, kuni bitib bir kun o'lib-netib qolsa, unda nima bo'ladi, baxti qaro qizining holi nima kechadi?

Bola birpasda kosadagi qatiqni bo'shatdi-da, bir burda nonni kavshab, deraza ostiga jimgina cho'kdi. Chiroqni yoqmadi, bobosini bezovta qilgisi kelmadi. Qo'y, o'zicha o'tirib xayol sursin.

Bola ham o'z o'ylariga berildi. U hech tushunolmasdi. Bekey xola nega eriga aroq tutgani-tutgan. Eri bo'lsa uning evaziga do'pposlagani-do'pposlagan, xola bo'lsa yana yarimta topib kelaverardi.

Eh, Bekey xola, Bekey xola! Necha marta eri chala jon qilib ursa ham, baribir kechiraveradi. Mo'min bobo ham uni hamisha kechiraveradi. Nega kechirishadi? Bunaqa odamlarni kechirmaslik kerak. U yaramas, sayoq odam. Bizga uning keragi yo'q. Usiz ham kunimiz o'tadi.

Shiddatli bolalik tasavvurlari uning xayolida adolatli jazo hukmini jonlantirardi. Bu hukmning hammasi O'razqulga qaratilgan bo'lib, bular uni, yo'g'on, beso'naqay, iflos odamni daryoga sudrardi. Keyin esa havoda silkitib-silkitib daryoning naq o'rtasiga itqitadi. U esa Bekey xola va Mo'min bobodan kechirim so'raydi. Axir u baliqqa aylanib qololmaydi-da...

Bola ancha yengil tortdi. U o'z tasavvurida O'razqulning daryoda qanday g'arq bo'lib borayotganini va yonginasida kigiz qalpog'i suzib ketayotganini ko'z oldiga keltirganda o'zini kulgidan tiyolmadi.

Ammo kattalar, ming afsuski, bola o'ylagandek odil ish tutishmadi. Ular hammasini aksincha qilishdi. O'razqul uyga yana mast bo'lib qaytdi. Uni hech nima bo'lmaganday qarshi olishdi. Bobo otini ushladi, xotini samovarga yugurdi. Hammayoq faqat uni kutayotgandek. U esa jinnilik qila boshlaydi. Oldiniga ma'yuslanib yig'laydi. Nega yig'lamasin, axir bu qanaqasi, qo'l berib so'rashishga arzimaydigan eng jo'n odamning ham istaganicha bolasi bor. Beshta, hatto o'nta. O'razqulni-chi? Uning nimasi kam boshqalardan? Nimasi yetmaydi uning? Yoki martabasi pastmi? Xudoga ming qatla shukur, noyob o'rmonning katta qorovuli! Yoki u qandaydir daydi zotmi? Axir lo'lining ham lo'livachchasi bor. Yoki u betayinmi, obro'si yo'qmi? Hammasi bor. Hammasiga yetishgan. Egarlangan oti bor, qo'lidan qamchi tushmagan, har yerda uni hurmat bilan kutib olishadi. Xo'sh, uning tengdoshlari o'z farzandiga to'y qilishadi, u-chi? O'g'ilsiz, urug'siz, kim u?

Bekey xola ham yig'laydi jonini hovuchlab, erining ko'nglini topishga tirishadi. Yashirib qo'ygan "yarimta"sini oladi. Alamidan o'zi ham ichadi. Borgan sari ichish ortadi, keyin oxiri O'razqul hayvonga aylanib, o'zining butun alamini ana shu ayoldan, o'zining xotinidan oladi. U esa uning hamma gunohini kechiradi. Bobo ham kechiraveradi. Hech kim O'razqulga bas kelolmaydi. Hushiga kelib qarasaki, momataloq bo'lib ketgan xotini erta turib samovar qo'ygan bo'ladi. Chol esa otini to'yg'azib, egarlab qo'yibdi. O'razqul choyni ichib, otga mingach, yana boshliq, San-Toshdagi barcha o'rmonning xo'jayini. Lekin O'razquldaka odamni allaqachon daryoga uloqtirish kerakligi hech kimning xayoliga ham kelmaydi.

Qosh qoraydi. Hali zamon qorong'i tushadi.

Bolaga birinchi portfel olib berilgan kuni ana shunday o'tdi.

U uxlash oldidan portfelini qo'ygani joy topmasdi. Oxiri bosh tomoniga qo'ydi. Xuddi shunday portfeldan sinflarning yarmisida bo'lishini bola hali bilmasdi. Lekin bu ham baribir uning ko'nglini buzolmaydi, uning portfeli go'yo boshqacha, alohida portfelday tuyulardi. Xuddi shunday, uning jajji hayotida katta voqealar yuz berishi, bir kun kelib, yorug' jahonda yolg'iz o'zi, faqat mana shu portfel bilan qolishini hali bilmasdi. Buning hammasiga uning o'zi

sevgan Shoxdor ona bug'u haqidagi ertak sabab bo'lishidan bexabar edi... Bu oqshom ham o'sha ertakni yana bir bor eshitgisi keldi. Mo'min cholning o'zi bu afsonani sevar, go'yo hammasini o'z ko'zi bilan ko'rganday, xo'rsinib, yig'lamsirab, jim qolib va o'yga tolib hikoya qilardi.

Biroq bola bobosini bezovta qilishga botinmadi. U bobosining ertak aytishga holi yo'qligini sezardi. "Biz undan boshqa safar iltimos qilamiz, — dedi bola portfeliga. — Hozir esa senga Shoxdor ona bug'u haqidagi ertakni xuddi bobomdan eshitganimdek so'zma-so'z o'zim aytib beraman. Shunday sekin so'zlaymanki, boshqa hech kim eshitmaydi, sen esa eshitgin. Men hamma narsani kinodagiday so'zlashni va ko'rishni sevaman. Mana shunday. Bobom buning hammasi bo'lgan ish, deydi. Shunday bo'lgan ekan..."

TO'RTINCHI BOB

Bu juda qadimda o'tgan. Zamonlarning zamonida, yer yuzida maysalardan ko'ra dov-daraxtlar ko'p bo'lgan, qurg'oq yerlardan ko'ra o'lkamizda obi hayot mo'l bo'lgan davrlarda bir qirg'iz qabilasi ulkan va muzday daryo bo'yida yashardi. Bu daryoni Enasoy deb atashardi. U bu yerlardan uzoqda, Sibirdan boshlanadi. U yerlarga otda uch yil-u uch oyda yetib borish mumkin. Bu daryoni hozir Yenisey deyishadi, ilgarilari Enasoy deb yuritishgan. U haqda shunday qo'shiq ham to'qilgan:

Sendan ulkan daryo bormi, Enasoy,
Sendan aziz tuproq bormi, Enasoy.
Sendan chuqur dard ham bormi, Enasoy,
Sendan ozod quchoq bormi, Enasoy.

Sendan ulkan daryo yo'qdir, Enasoy,
Sendan aziz tuproq yo'qdir, Enasoy.
Sendan chuqur dard ham yo'qdir, Enasoy,
Sendan ozod quchoq yo'qdir, Enasoy.

Mana shunaqa edi, bu Enasoy daryosi.

Enasoy bo'yida turli xil elat yashardi. Ular g'oyat og'ir hayot kechirardi, chunki ular bir-birlariga doimo adovat ko'zi bilan qarar

edilar. Qirg'iz qabilasini dushmanlar turli tomondan qurshab olgandi. Goh ular, goh bular hujum qilishar, goho qirg'izlarning o'zi ham boshqalarga chovut solib, mollarni haydab ketishar, uylariga o't qo'yishar, odamlarni o'ldirishardi. Qulay kelib qolganda bir tomon ikkinchi tomon odamlarini o'ldirib yuborar edi. Zamon shunaqa edi. Odamning odamga ichi achimasdi. Odam odamni g'ajirdi. Shu darajaga borildiki, hech kimning dehqonchilik qilgisi, mol boqqisi, ov qilgisi kelmay qoldi. Qaroqchilik bilan kun kechirish oson tuyulardi; qo'qqisdan bosasan, o'ldirasan, olasan-ketasan. Bir qotillikka qasdma-qasd o'n qotillik bilan javob berishga harakat qilishardi. Shu zaylda kun o'tgan sayin ko'proq qon to'kilardi. Odamlarda aql o'tmaslashib borardi. Dushmanlarni yarashtiradigan, insofga keltiradigan odam yo'q edi. Dushmanga qiron keltirib, o'zga qabilaning so'nggi odamigacha qonini oqizgan, mol-u mulkini qo'lga kiritgan odam eng aqlli va uddaburon sanalardi.

O'rmonda bir g'aroyib qush paydo bo'lib qoldi. Inson ovoziga o'xshash ayanchli ovoz bilan tundan tonggacha sayrar va yig'lar, shoxdan shoxga sakrab so'ylardi; "Katta baxtsizlik bo'ladi! Katta baxtsizlik bo'ladi". Shunday bo'ldi ham, o'sha qora kun keldi.

O'sha kuni qirg'iz qabilasi Enasoy bo'yida o'zining buyuk oqsoqolidan judo bo'ldi. Botir Qulchi ko'p yillar yo'lboshchilik qildi, ko'pgina yurishlarda, jang-jadallarda qatnashdi. Janglarda omon qoldi, lekin ajali yetdi. Qabiladoshlar ikki kun katta g'am-alamda o'rtandilar, uchinchi kuni esa botirning jasadini yerga topshirgani yig'ildilar. Eski odatga ko'ra, buyuk oqsoqolni Enasoyning o'nqir-cho'nqirli qirg'og'i bo'ylab so'nggi yo'lga kuzatish lozim edi, toki marhumning ruhi Enasoy daryosi bilan yuksaklikda judolashsin, axir "Ena" — bu ona demak, "soy" esa — bu daryoning o'zani-ku. Uning qalbi Enasoy haqidagi qo'shiqni so'nggi bor kuylasin.

Sendan ulkan daryo bormi, Enasoy,
Sendan aziz tuproq bormi, Enasoy.
Sendan chuqur dard ham bormi, Enasoy,
Sendan ozod quchoq bormi, Enasoy.

Sendan ulkan daryo yo'qdir, Enasoy,
Sendan aziz tuproq yo'qdir, Enasoy.
Sendan chuqur dard ham yo'qdir, Enasoy,
Sendan ozod quchoq yo'qdir, Enasoy.

Dafn etish lozim bo'lgan tepalikda yorug' jahonning to'rt tomonini ko'rsatmoq uchun botirning qabri bosh uzra ko'tarildi: "Mana sening daryong. Mana sening osmoning. Mana sening yering. Sen biz bilan, hammamiz bir urug' odamlarimiz. Osuda uxla. Biz hammamiz seni kuzatgani keldik". Kelajak avlod xotirasi uchun botirning qabri ustiga marmar tosh qo'yildi.

Botirning jasadini dafn etishga olib o'tishganda har bir oila o'z ostonasi oldida u bilan vidolashishadi, oq motam yalovini egib, uv tortib yig'lashadi, keyin boshqalar bilan birga qo'shilib yana oq motam yalovlarini egiltirgan holda, aytib yig'lashayotgan kelgusi o'tov tomon ilgarilab borishadi va shu zaylda so'nggi manzilga, to qabristongacha yetib borishlik uchun motam kunlarida barcha qabiladoshlar o'tovlarini daryo yoqasiga qator tikishdi.

O'sha kuni hamma tayyorgarlik ko'rib bo'linganda quyosh uyqudan bosh ko'targandi. Uchiga otning dumi bog'langan tug' va botirning urush aslahalari — nayza va qalqoni olib chiqildi. Uning oti dafn etish yopiqlari bilan burkalgan edi. Karnaychilar jangovar kuy chalishga, barabanchilar barabanga tayoqni jon-jahdlari bilan urishga shay edilarki, toki o'rmon larzaga kelsin, qushlar bulut yanglig' osmonga ko'tarilib, shovqin-suron va nola solsinlar. Yirtqich hayvonlar bo'kirib-hayqirib chakalakzorlarga chopib qolsin, maysalar yerga qapishib ketsin, sadolar jaranglab, tog'larni larzaga keltirsin. Motamsaro ayollar sochlarini yoyib, botir Qulchiga aza ochishga shay turishardi. Yigitlar zabardast yelkalarida botirning katta, og'ir jasadini bezovta qilmay ko'tarish uchun tiz cho'kkan edilar. Hamma narsa botirni oxirgi yo'lga kuzatib qo'yishga tayyor edi. O'rmon etagida esa to'qqizta biya, to'qqizta ho'kiz, to'qqizta to'qqizlik qo'y qurbonlik uchun hozirlab qo'yilgandi. Shunda kutilmagan hodisa ro'y berdi. Enasoyliklar bir-biriga har qancha dushman bo'lmasin, oqsoqollarning dafn marosimi kunlarida bir-biri bilan urush qilishni rasm qilmagandi. Mana hozir esa bir

to‘da dushman g‘am-anduhga botgan qirg‘oqdagilarni tong chog‘i to‘rt tomondan sezdirmay o‘rab kelib, pistirmalardan barobariga otilib chiqib, hamlaga o‘tdilarki, oqibatda hech kim otga ham minolmadi, qo‘liga qurol ham ola olmadi. Shu tariqa ko‘z ko‘rmagan qirg‘in urush boshlandi. Hammani bir chekkadan o‘ldira boshlashdi. Yengilmas qirg‘iz qabilasini bir hamla bilan qirib tashlash — dushman rejasi ana shunday edi. Hammani bir boshdan qilich damidan o‘tkazishdi, toki bu yovuzlikni eslab hech kim yodga olmasin, qasoskor qolmasin, vaqt esa o‘tmish izlarini qumlar bilan ko‘mib yuborsin. Tuya ko‘rdingmi — yo‘q.

Insonni tug‘ish va o‘stirish qanchalar qiyin, o‘ldirish esa — hammasidan oson. Ba’zi birovlar o‘z qoniga botib qiymalanib yotishar, birovlar esa qilich va nayzadan qutulib qolmoq uchun o‘zini daryoga otar, Enasoy to‘lqinlari orasida cho‘kib ketardi. Daryo yoqalab jarliklar-u tikka kesib tushgan qirg‘oqlar bo‘ylab butun bir chaqirim yo‘lda olovga qoplangan qirg‘iz o‘tovlari lovullab yonardi. Hech kim qochib qutula olmadi, hech kim omon qolmadi. Hammasi o‘ldirildi va kuydirildi. O‘lib yotganlarning jasadini qirg‘oqdan Enasoyga uloqtirdilar. Dushmanlar: “Endi bu yerlar bizniki! Endi bu o‘rmonlar bizniki! Endi bu mollar bizniki!” — deb quvonishardi.

Ular boy o‘lja bilan qaytishar ekan, o‘rmondan ikki bola — bir o‘g‘il va bir qizning qanday chiqib kelganini payqashmadi. Bu o‘zboshimcha va sho‘x bolalar ota-onalaridan yashirincha ertalaboq yaqin o‘rmonga qo‘lsavat uchun po‘stloq shilgani ketishgandi. Ular o‘ynab yurishib, o‘rmonning ancha ichkarisiga kirib ketishganini sezmay qolishdi. Jang suronini eshitib orqaga otilgan go‘daklar na otasini, na onasini, na akasini, na opasini tirik topa oldilar. Go‘daklar ota-onasidan va elatidan judo bo‘lib qoldi. Ular bo‘zlab kultepadan kultepaga chopishar, lekin bironta tirik jonni topib bo‘lmasdi. Bir zum ichida yetim bo‘lib qolishdi. Yorug‘ jahonda yakka-yu yolg‘iz qoldilar. Uzoqlarda esa jang to‘zoni ko‘kka urilardi, dushmanlar qonli kurash natijasida qo‘lga kiritgan mol va qo‘ylarini haydab ketishardi.

Bolalar tuyoqlar ostidan ko‘tarilgan changni ko‘rib, o‘sha tomonga yugurishdi. Ular qonxo‘r dushman izidan yig‘lab, qichqirib

chopishardi. Faqat bolaning qalbigina shunday sodda dil bo'ladi. Jallodlardan yashirinish o'rniga ularga yetib olishga shoshilishardi. Har nima bo'lsa ham yolg'iz qolishmasa, bu vayronadan, la'nati joydan nari ketishsa bas. Bir-birining qo'lidan ushlab olishgan bola va qizcha ketayotganlar orqasidan quvib jindakkina kutishni, o'zlari bilan birga olib ketishlarini yolvorib so'rashardi. Biroq qiychuv va tuyoqlarning dupur-dupuri-yu, haydovchilarning hayqirig'ida bu ojiz ovozlarni kim eshitardi.

Bolalar jon-jahdi bilan uzoq chopishdi. Lekin baribir, yetib olisholmadi. Keyin esa yiqilib qolishdi. Atrofga boqishga, qimirlashga qo'rqishardi. Hammayoq vahimali edi. Shu zaylda bir-birining pinjiga kirib ko'zlari yumilganini bilmay qolishdi.

Yetimcha yetti ko'cha, deb bekorga aytmaganlar. Tun bexatar o'tdi. Hayvon ularga tegmadi, o'rmon mahluqlari ko'tarib ketmadi. Ular uyg'onishganda, tong otgandi. Quyosh nur sochib, qushlar sayrardi. Bolalar o'rinlaridan turib yana mol haydovchilarning izidan yo'lga tushishdi.

Yo'lma-yo'l meva va ildiz yeb jon saqlashdi. Yo'l yura-yura uchinchi kuni bir tog' tepasida to'xtashdi. Pastga qarashsa — keng, yam-yashil maysazorda katta tantana bo'layotibdi. Bu yerda tikilgan o'tovlarning, gurillab yonayotgan gulxanlarning, gulxan atrofida o'tirgan odamlarning son-sanog'i yo'q. Qizlar hayinchak uchib qo'shiq aytishmoqda. Davra tortgan odamlar o'rtasida polvonlar xuddi burgutday gir aylanib, bir-birini itqitib otishyapti. Dushmanlar o'zlarining g'alabasini nishonlashardi.

Bola bilan qiz yaqin borishni ham, bormaslikni ham bilmay tog' tepasida turishardi. Lekin go'sht qovurdoq, non, sarimsoqning yoqimli hidi ufurib turgan gulxan atrofida paydo bo'lib qolishni istashardi.

Bolalar chidab turisholmadi, tog'dan tusha boshlashdi. Tantana egalari hayron bo'lishdi, ularni to'da bo'lib o'rab olishdi.

— Kimsanlar? Qayoqdan?

— Biz ochmiz, — javob berdi bola bilan qizcha, — bizga yeydigan bir nima bersangiz.

Ular bolalarning tilidan kim ekanligini darrov payqab qolishdi. Baqirib-chaqirib, shovqin solishdi. Tugatilmagan dushman oilasi-

ning omon qolgan a'zolarini hozir o'ldirish kerakmi yoki xonning oldiga olib borish kerakmi? — deb bahsga tushib ketishdi. Ular bahslashib turganda rahmdilgina bir ayol bolalarga jindek pishgan ot go'shti uzatdi. Bolalarni xon huzuriga sudrab borishar ekan, ular qo'llaridagi ovqatni yutoqib yeyaverishdi. Ularni ostonada oybolta ushlab turgan yasovullar xonning baland qizil o'toviga olib kelishdi. Butun qarorgoh bo'ylab esa allaqayoqdan paydo bo'lib qolgan qirg'iz zotlari haqidagi tashvishli xabar tarqaldi. Bu nimadan darak berishi mumkin? Hamma o'z o'yini va tantanani tark etib, ur-to'polon bilan xonning o'tovi tomon chopib ketdi. Bu payt xon mashhur lashkarlari bilan qorday oppoq namat to'rida savlat to'kib o'tirardi. U asal qo'shilgan qimizni simirib, maqtov qo'shiqlarini sel bo'lib tinglab o'tirardi. Xon odamlar nima uchun to'planishganini bilgach, g'azabdan quturib ketdi: "Meni bezovta qilishga qanday jur'at etdilaring? Biz axir qirg'iz zotini butunlay qirib tashlamagan edikmi? Men senlarni Enasoyning abadiy hukmroni qilib qo'ymadimmi? Namuncha o'pkalaringni qo'ltiqlab yugurib kelmasalaring, qo'rqoqlar? Qaranglar, oldilaringda kim turibdi! Ey, cho'tir yuzli Baymoq kampir, — qichqirdi xon. U olomon orasidan ajralib chiqqanda esa unga dedi:

— Mana bularni o'rmonga oborib shunday qilginki, shu bilan qirg'iz zoti tugasin, xayolda ham qolmasin, nomi abadiy o'chsin. Boshia, Cho'tir Baymoq kampir, aytganimni darhol bajo keltir..."

Cho'tir Baymoq kampir jimgina itoat qilib, bola bilan qizni qo'lidan ushladi-da, olib ketdi. Ular o'rmon oralab uzoq yurgach, Enasoy qirg'og'idagi baland jarlikka yetib kelishdi. Cho'tir Baymoq kampir bolalarni shu yerda to'xtatib, ularni jar yoqasiga olib keldi. So'ng, ularni jarlikka itarib yuborish oldidan shunday dedi:

— O, muazzam Enasoy daryosi! Sening qa'ringga tog'ni qulatsa, u bir xarsangday jo bo'ladi. Agar yuz yillik qarag'ayni tashlasa, uni cho'pday oqizib ketasan. Kel endi, ikki qum zarrasini — ikki inson bolasini o'z bag'ringga olgin. Ularga yer yuzida joy yo'q. Senga men aytib o'tirishim kerakmi, Enasoy? Agar yulduzlar odamga aylanib qolsa bormi, osmon ularga torlik qilib qoladi. Agar baliqlar odamga aylanib qolsa bormi, ularga daryo va dengizlar torlik qilib qoladi. Senga men aytib o'tirishim kerakmi, Enasoy? Ol, bu bola-

larni, uloqtirib ket. Qo'y, ular bu manfur dunyomizni go'daklikda, toza qalb bilan, bolalik hayosi bilan, yovuz niyat va yovuz ishlar bilan o'z nomiga isnod keltirishga ulgurmasdanoq tark etishsin, toki inson azob-uqubatini ko'rish va boshqalarning ham g'am-alamiga sababchi bo'lish ularga nasib qilmasin. Ol bularni, ola qol bularni, qudratli Enasoy...

Bolalar zor qaqshab, ho'ngrab yig'lardi. Tik qirg'oqdan pastga qarash qanchalik dahshatli ekanligini ko'rib turgan bolalarning qulog'iga kampirning so'zi kirmasdi. Pastda esa quturgan to'lqinlar sapchiydi.

— Quchoqlashinglar, bolalar, oxirgi marta xayrlashib olinglar, — dedi Cho'tir Baymoq kampir. O'zi esa ularni jarga irg'itish qulay bo'lsin uchun yenglarini shimardi. Keyin shunday dedi:

— Endi meni kechiringlar, bolalar. Peshanangizga yozgani shu ekan. Bu ishimni hozir o'z ixtiyorim bilan qilmayotgan bo'lsam ham, lekin sizlarning baxtingizga...

U gapini tugatmagan ham ediki, yonginasidan bir ovoz keldi:

— To'xta, dono, oqila kampir, gunohsiz bolalarni juvonmarg qilma.

Cho'tir Baymoq kampir qayrilib qaradi-yu, hayratda qoldi: qarshisida g'aroyib ona bug'u turardi. Uning yirik-yirik ko'zlari ta'nali va g'amgin boqardi. U sutdek oq, qorni bo'taloqning yungidek qo'ng'ir yung bilan qoplangan. Shoxlari bo'lsa go'zallik timsoli: serbutoq, go'yo kuzgi daraxtning bir bo'lak shoxi. Yelini emizikli ayolning ko'kragidek top-toza va silliq.

— Kimsan? Nega odamga o'xshab gapiryapsan? — so'radi Cho'tir Baymoq kampir.

— Men ona bug'uman, — javob berdi u. — Shuning uchun odamga o'xshab gapirdimki, bo'lmasa sen tushunmaysan, quloq ham solmaysan.

— Nima istaysan, ona bug'u!

— Qo'yib yubor bolalarni, donolarning donosi. Sendan iltimos qilaman, ularni menga ber.

— Nima qilasan ularni?

— Odamlar mening ikki egizimni, ikki bug'u bolasini o'ldirishdi. Men o'zimga bola izlab yuribman.

— Sen bularni boqmoqchimisan?

— Ha, donolarning dono ayoli.

— Sen yaxshilab o'ylab ko'rdingmi, ona bug'u? — masxaraomuz kuldi Cho'tir Baymoq kampir. — Bular axir odam bolasi-ku. Bular katta bo'lishadi, keyin sening bolalaringni o'ldirishadi.

— Ular katta bo'lishsa, mening bolalarimni o'ldirishmaydi, — javob qildi unga bug'ular onasi. — Men ularga ona bo'laman, ular esa mening bolalarim. Axir ular o'z aka-ukalarini o'ldirishadimi?

— Eh, nimasini aytasan, ona bug'u, sen odamlarni bilmaysan, — bosh tebratdi Cho'tir Baymoq kampir, — ular o'rmon hayvonlarigagina emas, hatto o'z-o'zlariga ham rahm-shafqat qilishmaydi. Bu yetimchalarni senga berardim, shunda mening so'zlarim qanchalik rostligiga o'zing guvoh bo'larding, lekin odamlar baribir qo'lingdan tortib olib bu bolalarni o'ldirishadi. Buncha g'amning senga nima keragi bor?

— Men bolalarni uzoq o'lkalarga olib ketaman, u yerdan bolalarni hech kim qidirib topolmaydi. Bolalarga rahm qil, donolarning donosi, ozod qil ularni. Men ularga sadoqatli ona bo'layin. Yelinlarim to'lib turibdi. Sutim bolalarni orziqib kutyapti. U bolalarga intizor.

— Ha, mayli, shunday bo'ladigan bo'lsa, — dedi oxiri Cho'tir Baymoq kampir o'ylab turib, — bularni tezroq olib jo'na. Yetimlarni o'zingning uzoq yurtingga olib ket. Agar ular uzoq yo'l yurib, toliqib, halok bo'lsa yoki duch kelgan qaroqchilar o'ldirib ketsa, yoki bo'lmasa bu odam bolalari sening yaxshiligingga yomonlik bilan javob qaytarishsa — o'zingdan ko'r.

Ona bug'u Cho'tir Baymoq kampirga minnatdorchilik bildirdi. Bola bilan qizga esa:

— Endi, men sizlarning onalaringman, sizlar esa mening bolalarimsizlar, — dedi. — Senlarni uzoq yurt-ga, qorli tog' va daraxtzorlar qo'ynida joylashgan iliq dengiz — Issiqko'lga olib ketaman.

Bola va qizcha shodlanib, Shoxdor ona bug'u ortidan chopqillab ketishdi. Lekin asta-sekin charchab, holdan toyishdi, yo'l esa olis — dunyoning bu chetidan u chetiga cho'zilgan. Ona bug'u bolalarni o'z suti bilan boqib, kechalari bag'riga bosib isitmaganda ular hech qayerga ham yetisholmas edi. Ular uzoq yurishdi. Ona

yurt bo'lmish Enasoy tobora ortga chekinib borar, lekin yangi vatan bo'lmish Issiqko'lga hali juda uzoq edi. Yo'l yurishdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishdi. Yoz-u qish, ko'klam-u yoz va kuz, yana yoz-u qish, yana bahor-u, yana yoz va kuz qalin o'rmonlardan, jazirama cho'llardan, ko'chma qum sahrolardan, baland tog'lardan va hayqirib oqqan daryolardan ne mashaqqat bilan o'tishdi. Ularning izidan bo'rilar galasi quvdi, Shoxdor ona bug'u esa bolalarni ustiga mindirib yovuz yirtqichlardan qutqarib ketdi. Ularning izidan tushgan otliq ovchilar o'q uzib, qichqirishardi: "Bug'u odam bolasini o'g'irlab ketyapti! Ushla! Tut!" va ketma-ket o'q uzishardi. Shoxdor ona bug'u bolalarni opichib, g'izillab uchayotgan o'qlarga, chaqirilmagan qutqaruvchilarga yetkazmay borardi. U o'qdan ko'ra tezroq chopar va shivirlardi: "Mahkamroq ushlanglar, bolalarim, bosqinchilar!"

Oxiri Shoxdor ona bug'u o'z bolalarini Issiqko'lga yetkazib keldi. Ular tog' tepasida turib, hayratlanishardi. Chor atrof qorli tog'lar bilan qoplangan, tog'lar o'rtasida ko'm-ko'k o'rmon, ko'z ilg'agan hamma joyda dengiz chayqalib shovullab turardi. Ko'm-ko'k suv yuzida oppoq to'lqinlar yugurar, shamol ularni uzoqlardan haydab kelib, yana yiroqlarga haydab ketardi. Issiqko'l qaydan boshlanib, qayda tugaydi — bilib bo'lmasdi. Bir chekkasida quyosh bosh ko'tarsa, ikkinchisida hali tun pardasini yig'ishtirolmasdi. Issiqko'lning chor atrofini qancha tog' qurshab olgan — sanab bo'lmasdi, u tog'lar ortida yana shunga o'xshash qanchadan qancha qorli tog'lar bo'y cho'zib turibdi.

— Mana shu yangi vataningiz bo'ladi, — dedi Shoxdor ona bug'u. — Mana shu yerda yashaysizlar, yer haydaysizlar, baliq tutasizlar, mol-u hol qilasizlar. Ming yillar tinch-totuv yashanglar. Ha, sizlarning avlodingiz yashaydi, ko'payadi. Sizlar keltirgan tilni avlodlar unutishmaydi. Ularga o'z ona tillarida so'zlash va kuylash yoqimli bo'ladi. Insonlarga qanday yashash lozim bo'lsa, shunday yashanglar. Men esa sizlar va sizlarning bolalaringizning bolalari bilan hamisha birga bo'lay...

Mana shunday qilib, bola va qizcha qirg'iz avlodining ajdodlari sifatida mangu jannatmakon Issiqko'lda o'zlariga yangi makon topdilar.

Vaqt tez o‘tib boraverdi. Bola baquvvat yigit bo‘ldi, qiz bo‘yga yetdi. Shunda ular qovushib, er-xotin bo‘ldilar. Shoxdor ona bug‘u esa Issiqko‘lni tark etmasdan, yaqin o‘rtadagi o‘rmonda yashay boshladi.

Bir kun tong mahali Issiqko‘l qo‘qqisdan notinchlanib, shovullay boshladi. Qizni to‘lg‘oq tutib, azoblanmoqda edi. Er esa cho‘chib ketdi. Qoya ustiga chopib chiqdi-da, ovozining boricha chaqira boshladi:

— Qayerdasan, Shoxdor ona bug‘u? Issiqko‘l qanday shovqin solyapti, eshityapsanmi? Qizing tug‘yapti. Tezroq kel, Shoxdor ona bug‘u, bizga yordam qil...

Shunda uzoqdan xuddi karvonlarning qo‘ng‘irog‘iday jarangdor tovush eshitildi. Bu tovush tobora yaqinlashib kelaverdi. Shoxdor ona bug‘u yetib keldi.

U shoxlarida beshik keltirdi. Beshik oppoq qayindan yasalgan bo‘lib, bandida kumush qo‘ng‘iroqcha jaranglab turardi. Bu qo‘ng‘iroq Issiqko‘l beshiklarida hozirgacha ham yangrab turibdi. Onalar beshiklarni tebratar, kumush qo‘ng‘iroq jaranglar, go‘yo Shoxdor ona bug‘u uzoqlardan chopib, shoshib, shoxlarida qayin beshik ko‘tarib kelayotganday tuyuladi...

Shoxdor ona bug‘u yetib keldi-yu, shu payt qizning ham ko‘zi yoridi.

— Bu beshik sizlarning to‘ng‘ichlaringiz uchun, — dedi Shoxdor ona bug‘u. — Hali ko‘p farzand ko‘rasizlar. Yetti o‘g‘il, yetti qiz!

Ota-ona xursand bo‘lishdi. To‘ng‘ich farzandlarini Shoxdor ona bug‘u sharafiga — Bug‘uboy deb atashdi. Bug‘uboy o‘sib-ulg‘aydi, qipchoqlar avlodidan bo‘lgan go‘zal qizga uylandi, shu bilan Bug‘uboy avlodi — Shoxdor ona bug‘u avlodi ko‘paya boshladi. Bug‘uboy avlodlari Issiqko‘lda ko‘p va qudratli bo‘lib qoldi. Bu avlod Shoxdor ona bug‘uni muqaddas deb bilishardi. Bug‘uboy avlodlarining o‘tovida eshik tepasiga bug‘u shoxi osib qo‘yilar, bu esa uzoq-uzoqlardan ham o‘tovning Bug‘uboylar avlodiga mansub ekanligidan darak berib turardi. Bosqinchi dushmanlarni daf etganda yoki poyga musobaqalarida Bug‘uboy avlodlarini “Bug‘u”! degan bitta laqabning o‘zidanoq anglab olishar, ular esa har doim g‘olib chiqishardi. O‘sha kezlar Issiqko‘l o‘rmonlarida oppoq shoxdor

bug‘ular bo‘lardi, go‘zallikda hatto ko‘kdagi yulduzlar ham ularga rashk qilardi. Ular shoxdor ona bug‘uning bolalari edi. Ularga hech kim tegmasdi, hech kim hurkitmas edi. Bug‘uboy avlodlari bug‘uga duch kelgan joyda otdan tushib, unga yo‘l berardi. Oshiqlar suygan qizlarini suluvlikda go‘zal oq bug‘uga qiyos qilishardi...

Bug‘uboy avlodining oshib-toshib ketgan mashhur bir boyi to o‘lguniga qadar shu odat saqlanib qoldi. Uning ming-minglab qo‘ylari, ming-minglab yilqilari bo‘lib, mollariga qaraydigan qancha-qancha cho‘ponlar ham uning izmida edi. O‘g‘illari unga katta ma’raka qilishdi. Ular bu ma’rakaga yer yuzining hamma ma’lum va mashhur kishilarini chaqirishdi. Mehmonlar uchun Issiqko‘l qirg‘og‘iga bir ming bir yuzta o‘tov tikdilar. Qancha mol so‘yildi, qancha qimiz ichildi, qanchalab qashqarcha noz-ne’matlar berildi, sanog‘iga yetib bo‘lmasdi. Boyning o‘g‘illari gerdayib yurishardi: axir otadan bitmas-tuganmas meros qolganligini, farzandlar otani hurmatlab, uning xotirasini qanday e’zozlashlarini odamlar ko‘rib qo‘ysin-da... (“E bo‘tam, odamlar aql o‘rniga boyligini ko‘z-ko‘z qilishsa, bu qanday yaramaslik”.)

Marsiya aytuvchilar esa marhumning o‘g‘illari taqdim etgan arg‘umoqlarda yelib, sovg‘aga berilgan suvsar telpak va shoyi to‘nlarga o‘ralib, marhumni va uning merosxo‘rlarini ko‘klarga ko‘tarib maqtashardi.

— Bu olamda bunday baxtli hayot va shukuhli ma’rakani ko‘rgan bormi? — deb kuylardi biri.

— Dunyo bino bo‘lgandan beri bunaqasi hali bo‘lmagan! — derdi ikkinchisi.

— Hech qayerda bo‘lmagan! Faqat bizdagina ota-onalarni shunday hurmatlashadi, ota-ona shon-sharafini yuksak tutishadi, ularning muqaddas nomini ulug‘lashadi, — kuylardi uchinchisi.

— Ey, qaqildoq marsiyachilar, nima deb valdirayapsiz! Olamda bu xotamtoylikning ta’rifiga loyiq so‘z, marhumning shon-shuhratiga teng keladigan shuhrat bor ekanmi? — kuylardi to‘rtinchisi...

Ular shu zaylda kecha-kunduz kim o‘zarga bahslashardi. (“E-e, bo‘tam, hofizlar hamd-u sano o‘qishda bahslashsa, qanday yaramaslik, ular qo‘shiqchidan qo‘shiq kushandasiga aylanishadi”.)

Dovruq solgan ma'raka ko'p kunlik bayramday o'tdi. Boyning maqtanchoq o'g'illari boshqalarni lol qoldirishni, shuhratlari olamga yoyilishini orzu qilishdi. Yana buning ustiga mangu uyquga ketgan shavkatli otalari Shoxdor ona bug'u avlodidan ekanligini hamma bilish uchun uning qabriga bug'u shoxini o'rnatishni o'ylab topishdi. ("E bo'tam, qadimgi odamlardan qolgan gap bor: boylik — takabburlikni, takabburlik esa — telbalikni tug'diradi".)

Boyning o'g'illari ota xotirasiga ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yodgorlik o'rnatishni istashgani uchun ham hech nima ularga to'sqinlik qila olmadi. Aytilgan so'z — otilgan o'q. Ovchilarni yo'llashdi. Ovchilar bug'u otib, shoxini tanasidan ayirishdi. Bug'u shoxlarining tepaga taralib turishi ko'kda parvoz qilayotgan burgutning qanotlariga o'xshardi. Bug'u shoxlari o'g'illarga yoqib tushdi: ularning har biri o'n sakkiz butoqqa bo'lingan— demak, o'n sakkiz yoshda ekan. Yaxshi! Ular shoxni qabr ustiga o'rnatish uchun ustalarga farmon berishdi.

Qariyalar hayratda qolishdi:

— Bug'uni o'ldirishga qanday haddingiz sig'di? Shoxdor ona bug'u avlodiga qo'l ko'tarishga kim jur'at etdi?

Boyning merosxo'rlari ularga javoban:

— Biz o'z yerimizdagi bug'uni o'ldirdik. Bizning saltanatimiz ostidagi yerlarda nimaiki qimirlagan, uchgan tirik jonzot bo'lsa, pashshadan tortib tuyagacha — hammasi bizniki. O'zimizga qarashli jamiki narsalarni nima qilish-qilmaslikni o'zimiz yaxshi bilamiz. Yo'qolinglar! — deyishdi.

Xizmatkorlar qariyalarni qamchi bilan savalab, otga teskari mindirishdi-da, sazoyi qilib haydashdi.

Hamma balo shundan boshlandi. Shoxdor ona bug'u avlodlarining boshiga katta baxtsizlik tushdi. Deyarli har bir kishi o'rmonlarda oq bug'ularni ovlashga tushib ketdi. Bug'uboy avlodidan bo'lgan har bir kishi o'z ajdodlari qabriga bug'ushox o'rnatishni burch deb bilar edi. Bu ish endi marhumlar xotirasiga bo'lgan muqaddas vazifa, alohida hurmatga aylandi. Kimki bug'u shoxlarini topolmas ekan, endi uni odam o'rnida sanamay qo'yishdi. Bug'u shoxlari bilan savdo qilish, ularni oldindan g'amlab qo'yish odat tusiga kirib qoldi. Shoxdor ona bug'u avlodlari orasida shun-

day kishilar paydo bo'ldiki, ular bug'u shoxlaridan o'lja yig'ishni va pullashni hunar qilib oldilar. ("E bo'tam, pul hukmron bo'lgan joyda ezgu so'zga o'rin yo'q, go'zallikka o'rin yo'q".)

Issiqko'l o'rmonlarida bug'ularga qirg'in keldi. Ularga shafqatsiz bo'lishdi. Bug'ular qadam yetmagan joylarga qochdi, lekin u yerda ham qo'yishmadi. Ovchilar tozilarni qo'yib pistirma tomon haydashar, o'zlari esa pistirmalarda berkinib yotib, yaqinlashgan bug'ularni bexato otib olishardi. Bug'ularni to'da-to'dasi bilan qirishdi. Shox butoqlari eng ko'p bo'lgan bug'uni kim otarga garov bog'lashardi.

Bug'ular g'oyib bo'ldi. Tog'larni tark etdi. Na tunda, na tongda bug'u ovozi eshitilardi. Na o'rmonda, na yaylovda uning qanday irg'ishlab, qanday sapchishlarini, shoxlarini yelkasi ustiga tashlab, parvozdagi qushday jarliklardan qanday sakrab o'tishlarini endi hech kim ko'rmasdi. Butun umri bo'yi bug'u nima ekanligini ko'rmagan yangi insonlar tug'ildi. Faqat u haqidagi ertaklarni eshitib, qabrlar ustidagi shoxlarni ko'rishdi, xolos.

Shoxdor ona bug'uga nima bo'ldi?

U odamlardan ranjidi, juda qattiq ranjidi. Aytishlaricha, son-sanoqsiz o'qlar va tozilar dastidan bug'ularga kun qolmagan, ularning eng so'nggi avlodi barmoq bilan sanarli darajada oz qolgan chog'da Shoxdor ona bug'u eng baland cho'qqiga ko'tarilib, Issiqko'l bilan vidolashibdi va so'nggi bolalarini ulkan dovon ortiga, boshqa yurtlarga, boshqa tog'larga boshlab ketibdi.

Mana, olamda qanday ishlar bo'ladi. Mana, ertak ham tugadi. Xoh ishon, xoh ishonma.

Shoxdor ona bug'u esa ketishi oldidan bundan buyon bu yerlarga aslo qadam bosmayman, debdi...

BESHINCHI BOB

Yana tog'lar qo'yniga kuz kirib keldi. Yana shovqin-suronli yozdan so'ng hamma narsa kuzgi sokinlikka moslasha boshladi. Mol qamaydigan qo'ralar atrofidagi changlar bosildi, gulxanlar o'chdi. Mollar qishlovga ko'chdi. Odamlar jo'nab ketishdi. Tog'lar huvullab qoldi.

Burgutlar bazo'r qur-qurlab, yolg'iz ucha boshladi. Yoz bo'yi o'z o'rnidan shovullab oqqan daryo sayozlanib, ovozi pastlashib qoldi. O'tlar o'sishdan to'xtadi, ildizlardan jon ketdi. Barglarning shoxlarda osilib turishga ortiq madori qolmay, uzilib tusha boshladi.

Eng baland cho'qqilarga esa kechalari kumush rang yupqa qor yog'ib chiqardi. Ertalab g'ira-shira tog' tizmalari qoraburul tulkining yoliday oppoq tusga kirardi.

Sovuq tushib, daralarda izg'irin shamol esa boshladi. Lekin hamon kunlar charog'on va quruq edi.

Daryo ortida, qorovulxona ro'parasidagi o'rmon tezda kuz og'ushiga kirdi. Daryodan to yuqoriga, Qora qarag'ayzor chegarasigacha cho'zilib ketgan chakalakzorlarni dudsiz olov yanglig' kuzgi xazonrezgi bosgandi. Eng chidamli daraxtlar — to'q sariq rangli tog' teragi va qayin o'rmonlari, ayniqsa, ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Ular ulkan o'rmonning qor bosgan baland cho'qqilarigacha — qayrag'och va archalar qorayib turgan yergacha cho'zilib ketgan edi.

Qarag'ayzor qo'yni hamma vaqt top-toza va qasrlardagidek salobatli. Qayoqqa qaramang, faqat qattiq daraxtlarning jigarrang tanasi, smolali quruq hid, butun o'rmon poyiga to'kilgan qoramtir igna yaproqlar. Keksa qarag'aylarning uchida g'ir-g'ir shamol esadi.

Lekin bugun erta tongdanoq tog'lar boshida chag'illab, bezovtalangan zag'chalar aylanib qoldi. Jon-jahdi bilan chag'illagan zag'chalarning kattakon galasi qarag'ayzor o'rmon tepasida betinim aylanaverdi. Ular bolta ovozini eshitgan zahotiyoq bezovtalangan bo'lsa, so'ng xuddi birov ozor bergandek bir-birlariga gal bermay chag'illab, qirqilgan qarag'aylarni tog'dan olib tushayotgan ikki kishining izidan ta'qib etardi.

Yog'ochlarni otlarga bog'lab sudratib kelishardi. O'razqul otning jilovini tutib oldinda borardi. U turtinib, plashining bari butalarga ilinib, qo'shga qo'shilgan ho'kizday hansirardi. Uning ortidan, yog'och orqasidan Mo'min bobo yelib kelardi. Bunday balandlikda unga ham osonmasdi, cholning nafasi qisilib qolgandi. Uning qo'lida qarag'ay pishang bo'lib, bu bilan u yo'l-yo'lakay yog'ochlarni o'nglab borardi. Yog'ochlar goh to'nkalarga, goh toshlarga hadeb qadalib qolaverar, qiyalikka kelganda esa nishab-

ga ko'ndalang burilar va pastga yumalab ketguday bo'lardi. Unda falokatdan qochib qutulib bo'psan — naq majaqlab o'ldiradi.

Pishang bilan yog'ochlarni to'g'rilab borayotgan kishiga ayniqsa, xavfli, har balo yuz berishi mumkin. Qo'rquvdan bir necha bor yuganni tashlab qochgan O'razqul har safar chol o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, yog'ochni qiyalikda tutib, uning ot yoniga qaytishini va yugandan tutishini kutayotganini ko'rib uyalib ketardi. Lekin o'z aybingni yashirmoq uchun uni birovga to'nkamoq kerak deb bekorga aytishmagan-da.

— Sen nima, meni narigi dunyoga jo'natmoqchimisan? — O'razqul qaynotasiga qichqirdi.

Atrofda O'razqulning ovozini eshitadigan va unga dakki beradigan hech kim yo'q edi: keksalarga shunday muomala qilishni kim ko'rgan? Qaynotasi, buni men ataylab qilibmanmi, axir o'zim ham yog'och tagida qolib ketishim mumkin-ku, xuddi u buni qasddan qilayotgandek, unga buncha qichqirishning nima keragi bor, deb qo'rqa-pisa pichirladi.

Bu hol O'razqulning yana battar jahlini chiqardi.

— Eh, seni qara-ya! — g'azablandi u. — Seni bosib qolsa, axir sen yoshingni yashagansan. Senga nima? Men mayib bo'lsam, qizing kimga qoladi, uni kim oladi? Shaytonning qamchisiday bu bepusht kimga kerak...

— Tushunib bo'lmaydigan odamsan, o'g'lim. Senda odamlarga hurmat degan narsa yo'q, — dedi bunga javoban Mo'min.

O'razqul hatto to'xtab, cholga razm soldi:

— Bunday chollar allaqachon o'choq oldida yonboshlab, o'zini olovga toblab yotibdi. Senga esa maosh oqib kelib turibdi. Qayoqdan kelyapti bu maosh? Mening sharofatim bilan kelyapti. Senga yana qanaqa hurmat kerak?

— Kel, qo'y endi, aytdim-qo'ydim-da, — muloyimlashdi Mo'min.

Shunday qilib, ular yurishda davom etdi. Yana bir dovon oshib, qiyalikda tin olgani to'xtashdi. Ot butunlay terga tushib, ko'pikka qoplandi.

Son-sanoqsiz zag'chalar esa hamon tinchimas, charx urib aylangani-aylangan. Go'yo butun kun bo'yi chag'illashga qasd qilganday zo'r berib chag'illardi.

— Qishning erta tushishini sezyapti, — dedi Mo'min ohista gapni boshqa yoqqa burib va bu bilan O'razqulni jahldan tushirmoqchi bo'lib. — Uchib ketishning payida bo'lyapti. Xalaqit berganni yoqtirmaydi, — deb qo'shib qo'ydi, xuddi aqlsiz qushlar uchun uzr so'ragandek.

— Kim ularga xalaqit beryapti? — keskin burilib qaradi O'razqul. Birdan qizarib ketdi. — Allanimalar deb aljiysan, chol, — dedi sekin do'q urgan ohangda.

"Eh, — xayolga keltirdi u, — nimaga ishora qilyapti! Bu nimasi, uning zag'chalari dastidan qarag'ayga tegmaslik, bir shoxini ham sindirmaslik kerak ekan-da? Yo'q, bekor aytibsan? Hozircha bu yerga men xo'jayinman". U g'azab bilan uymalashayotgan zag'chalar galasiga qaradi:

— Eh, pulemyot bo'lgandami! — dedi va burilib uyatsiz so'z bilan so'kindi.

Mo'min jim qoldi. U kuyovining so'kishini ko'p eshitgandi.

"Yana ayniyapti, — ich-ichidan g'am tortdi chol. — Ichdi — hayvonga aylanadi. Nahorda bosh og'rig'iga tortsa ham — bir so'z qotma. Odamlar nega bunday bo'lib qolishar ekan-a? — o'yga toldi Mo'min. — Sen unga yaxshilik qilasan, u senga yomonlik qaytaradi. Uyalmaydi ham, uyalishni xayoliga keltirmaydi ham. Xuddi shunday bo'lishi lozimdek. Hamisha o'zinikini to'g'ri deb biladi. Faqat unga yaxshi bo'lsa bo'lgani. Hamma uning atrofida girdikapalak bo'lishi kerak. Agar istamasang, majbur qiladi. Yaxshiyamki, mana bunday tog'da, o'rmonlar orasida o'tiradi, uning qo'li ostida bitta, ikkita odami bor. Kattaroq amalga minsa bormi? Xudo ko'rsatmasin... Bundaylarni joyidan siljitib ham bo'lmaydi. Hamisha o'z ulushini changallab qoladi. Sen bunaqalardan hech joyga qochib qutulolmaysan ham. Hamma joyda u seni kutib turadi, izlab topadi. O'zining dorilomon yashashi uchun sening joningni sug'urib oladi. Hamisha haq bo'lib chiqadi. Ha, bundaylarni siljitib bo'psan..."

— Xo'sh, yetar qaqqayib turish, — O'razqul cholning xayollarini tarqatib yubordi. — Ketdik! — buyruq qildi u. Ular yo'lda davom etishdi.

Bugun ertalabdanoq O'razqulning kayfiyati joyida emasdi. Ertalab, asbob-uskunalari bilan narigi qirg'oqqa, o'rmon tarafga o'tish

kerak bo'lgan chog'da, Mo'min nabirasini maktabga olib borishga shoshardi. Bugun aqlidan ozib bo'ldi! Har kun ertalab otni egarlaydi, bolani maktabga eltib qo'yadi, keyin uni yana olib kelgani boradi. Bu tashlandiq daydi bilan ovora. Qarang-a, maktabga kechikish mumkin emasmish. Bu yerdagi ish shundayki, Xudo biladi oxiri nima bo'larkin, bundan chiqdi — bu ishni keyinga qoldirib tursa bo'larkan-da? Shunday emasmi? "Men, deydi, bir zumda qaytib kelaman, bola maktabga kechiksa muallimaning oldida uyalaman". Uyaladigan odamingni topibsan! Ahmoqsan-da! Bu muallimang o'zi kim bo'libdi? Besh yildan beri ustidan bitta palto tushmaydi. Faqat daftar bilan, sumka bilan ko'rasan... Doimo yo'lda qo'l ko'tarib mashina kutgani-kutgan — hadeb rayonga tushadi, hamisha unga nimadir yetishmaydi, goh maktabga ko'mir deydi, goh oyna, goh bo'r, hatto lattagacha so'raydi. He, nomusli muallima bunday maktabga kelarmidi? Qanaqa ot topishibdi-ya — "mitti maktab". U chindan ham mitti-da. Undan nima naf kelardi. Haqiqiy o'qituvchilar shaharda. Maktablari oynadan. O'qituvchilari galstuk taqib olgan. Lekin shaharda shunday-da... Boshliqlar u yerda hashamatli mashinalarda ko'chalardan qanday o'tishadi. Mashinalarni aytmaysanmi?! Qop-qora, yaltiroq, bu mashinalarni "lip" etib o'tib ketguncha to'xtab tomosha qilging keladi. Shahar odamlari esa xuddi bu mashinalarni ko'rmayotgandek parvo ham qilishmaydi. Vaqtlari yo'q — shoshilishadi, qayoqqadir chopishadi. Ana u yerda, shaharda, hayotni — hayot desa bo'ladi. Qani endi o'sha yoqqa yetishsang, biron joyga o'rnashib olsang ekan. U yerda odamlarni amaliga qarab hurmat qilishni bilishadi. Lozimmi — demak, hurmat qilishing shart. Katta amalga — katta hurmat. Madaniyatli odamlar. Shuning uchun ham u yerda mehmonma-mehmon yurish yoki u-bu sovg'a qilish, yog'och tashish yoki shunga o'xshash allaqanday ishlarni qilishga to'g'ri kelmaydi. Bu yerdagiga o'xshab — ellik so'm, ko'pi bilan yuz so'm berib, yog'och olib, ustingdan shikoyat yozib yurmaydi: O'razqul poraxo'r, falon-piston... Nodonlik!

Ha, shaharda bo'lgandami... Eh, tog'iga ham, o'rmoniga ham, mana bu dardisar yog'ochlarga ham, pushtsiz xotiniga ham, manavi valakisalang, beaql cholga ham qo'l siltab yuborgan bo'lardim. Eh, suliga to'ygan otdek jo'sh urib ketardim-da! O'zimni hurmat

qilishga majbur etardim. "O'razqul Balajanovich, kabinetingizga kirishga ruxsat eting". U yerda shaharlikka uylanib olardim. Nega mumkin emas ekan? Aytaylik, bironta qo'lida mikrofoni bilan o'ynab ashula aytadigan go'zal artistkaga: aytishadiki, ular uchun eng muhimi odamning amaldor bo'lishimish. Mana shunaqasini qo'ltig'idan olib galstuk taqib yursang. Kinoga borsang. U bo'lsa tuflisini tiqillatib, atir taratib yursa. O'tgan-ketgan burnini cho'zib qolaveradi.

Qarabsanki, bolalar tug'iladi... O'g'limni yuristlikka o'qitardim, qizim esa royal chalsin. Shaharlik bolalar darrov ko'zga tashlanadi — aqlli bo'lishadi. Uyda faqat ruscha gaplashishadi: ular kallalaridan eski qishloq so'zlarini chiqarib tashlashadi. U o'z farzandlarini shunday tarbiyalagan bo'lardi: "Papochka, mamochka, uni olib ber, buni olib ber..." o'z jigarbandingdan biron narsani ayab o'tirarmiding? U ko'plarni boplardi-da, kim ekanini ko'rsatib qo'yardi. Boshqalardan nimasi kam uning? Nima, yuqoridagilarning undan biron joyi ortiqmi? Ular ham o'ziga o'xshagan odamlar-da. Ularning omadi kelgan faqat. Uning esa omadi kelmagan. Baxt kulib boqmagan. O'zida ham ayb bor. O'rmonchilar kursini bitirgach, shaharga ketishi kerak edi, texnikumga kirishi kerak edi yoki bo'lmasa institutga. Shoshdi — amalga uchdi-da. Kichkina bo'lsa ham, harholda amal-da. Mana endi tog'ma-tog' yur, eshakka o'xshab yog'och tashi... Buning ustiga mana bu qarg'alar ortiqcha. Nimaga buncha qag'illashadi, nimaga aylanib qolishdi? Eh, pulemyot bo'lgandami...

O'razqulning avzoyi buzilishiga arzigulik sabablar bor edi. Yozni yallo qilib o'tkazdi. Kuz yetib keldi, yoz bilan birga cho'ponlar va yilqiboqarlar davrasidagi mehmondorchilik davrlari ham o'tib ketdi. Xuddi qo'shiqda aytilganday: "Yaylovdagi chechaklar ochilib bo'ldi, etagingni yig'ishtirib qol..."

Kuz keldi. O'razqulga ko'rsatilgan hurmatlar uchun, ziyofatlar uchun, qarzlar uchun, va'dalar uchun hisoblashadigan payt keldi. Buning ustiga maqtanib katta ketganlari-chi: "Senga nima kerak? Xari bo'ladigan ikkita qarag'ay yog'ochmi, faqat shumi? Shuning nimasini gapirib o'tiribsan. Mashina olib kelasan-da, olib ketaverasan".

Og‘zidan gullab, hadyalar olib, aroqni ichaverdi, mana endi bo‘g‘ilib, terga botib, yer yuzidagi hamma narsaga la’nat o‘qib, tog‘ma-tog‘ yog‘och sudrab yuribdi. Bu yog‘ochlarning daxmaza bo‘lganini aytmaysizmi? Umuman, butun hayotida ro‘shnolik ko‘rmadi. Bexosdan kallasiga lop etib bir fikr keldi: “Hammasiga tupuraman-da, boshim oqqan tomonga ketaman”. Lekin u shu zahotiyoq hech qayoqqa ketolmasligini tushundi. Hech kimga hech qayerda keraklik joyi yo‘q va ko‘ngli tilayotgandek hayotni hech qayerdan izlab topolmaydi.

Bu yerdan ketib yoki va’dangdan tonib ko‘r-chi! Uni o‘z oshna-og‘aynilari tutib berishadi. Odamlar yaramas bo‘lib ketgan. O‘tgan yili o‘zining bug‘u avlodi qarindoshiga hadya qilingan qo‘zichoq uchun qarag‘ay yog‘och va’da qilgandi, kuzda esa qarag‘ay uchun yuqoriga chiqqisi kelmadi. Bu aytmoqqa oson, qani u yoqqa bir chiqib boq, yog‘ochlarni arralab, yumalatib ko‘r, keyin bilasan qanaqa ekanligini. Yana buning ustiga qarag‘aylar besh yil-o‘n yillik bo‘lsa qani, ularni eplab ko‘r-chi! Oltin bersa ham bu ishga qo‘l urging kelmaydi! Aksincha, o‘sha kunlari Mo‘min cholning tobi qochib, ko‘rpa-to‘shak qilib yotib oldi. Bir kishi uddasidan chiqolmaydi bunday ishni. Ha, biron kimsa umrida yolg‘iz o‘zi tog‘dan yog‘och olib tushishning uddasidan chiqqan emas. Yiqitish-ku mumkin, lekin yiqitgan bilan qarag‘ayni pastga olib tushib bo‘lmaydi... Nima bo‘lishini oldindan bilganda, Seydahmadni yoniga olib chiqqan bo‘lardi. Lekin O‘razqul tog‘ga tirmashib chiqib yurishga erindi-da, birinchi duch kelgan qarag‘ay bilan qarindoshidan qutulib qo‘ya qolmoqchi bo‘ldi. Lekin u uncha-munchasiga ko‘nmadi: unga haqiqiy qarag‘ay kerak emish, vassalom. “Qo‘zichoqni olishni bilasan, gapingning uddasidan chiqishni bilmaysanmi?” O‘razqul jahli chiqib, hovlidan uni haydab chiqardi: olmaysanmi— jo‘nab qol. U yigit ham bo‘sh kelmadi. San-Tosh o‘rmonchilik zapovednigining qorovuli O‘razqul Balajanov ustidan darhol shikoyat xati yozib, unga shunday to‘g‘ri va noto‘g‘ri gaplarni qo‘shdiki, oqibat-natijada O‘razqulni “sotsialistik o‘rmon kushandasi” sifatida otish lozim edi. Keyin rayonning va o‘rmonchilik ministrligining turli xil tekshiruv komissiyalari O‘razqulni uzoq vaqt sarson qilishdi. Zo‘rg‘a qutuldi. Mana senga qarindosh! Yana: “Biz hammamiz

Shoxdor ona bug‘u bolalarimishmiz. Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun!” emish. Hammasi bekor gap, qachonki bir tiyin uchun bir-birimizning yoqamizdan olib, turmaga tiqishga tayyor bo‘lsak. Qanaqasiga bug‘u avlodidan bo‘laylik. Bu ilgari vaqtda bo‘lgan, odamlar bug‘uga ishonishgan. Naqadar befahm va sodda bo‘lishgan-a o‘sha zamonning odamlari, kulgili! Endi esa hamma madaniyatli, hamma savodli. Kimga keragi bor buni, bu ertakni yosh bolalarga aytsa boshqa gap.

Shu voqeadan keyin O‘razqul boshqa hech kimga, hech qanaqa tanishga, hech qanday qabiladoshga, hatto Shoxdor ona bug‘uning ming tuqqani bo‘lsa hamki, bironta novdani, bironta cho‘pni bermaslikka ont ichdi.

Yana yoz keldi. Ko‘m-ko‘k tog‘li yaylovlarda o‘tovlar oqarib, yer-ko‘kni podalarning shovqin-suroni tutib, ariqlarda va daryoda suv tortilib qoldi. Quyosh porlagan, sarxush qimiz hidi kelar, gul bo‘yi ufurardi. Ochiq havoda o‘tovlarning oldida, ko‘m-ko‘k maysalar ustida, oshna-og‘aynilar davrasida o‘tirib qimiz ichib, qo‘zi go‘shtiga to‘yib kayf qilishga nima yetsin. Keyin esa boshni aylantirish uchun bir stakan aroqni simirib, shunday kayfga kelasanki, o‘zingni go‘yo daraxtlarni ildizi bilan qo‘porib tashlagudek yoki bo‘lmasa anovi tog‘ning boshini uzib olgudek his qilasan...

Bunday kunlarda O‘razqul ichgan ontini unutardi. Katta o‘rmonning katta xo‘jayini deb atashlari unga naqadar xush kelardi. Yana va’dalar berdi, yana hadyalar qabul qildi. Yana qadimiy qarag‘aylar qaysi birlarining kuni bitib, kuz kelganda umri tugashini sezmasdi.

Kuz esa hosili o‘rib olingan dalalardan sezdirmay kelib, tog‘ sari pinhona siljidi-da, butun atrofni qoplab oldi. U bosib o‘tgan yo‘lda maysalar sarg‘aydi, o‘rmonni xazonrezgi bosdi.

Mevalar pishdi. Qo‘zilar to‘qli bo‘ldi. Ularni alohida otarlarga — to‘qlilarni alohida, qo‘ylarni alohida to‘daga ayirishdi. Ayollar yig‘ilgan sarig‘ yog‘ni meshga joylab olishdi. Erkaklar vodiyga kim birinchi bo‘lib qaytishi haqida gurung qilishardi. Ketish oldidan esa yozda O‘razqul bilan gaplashganlar falon kuni, falon soatda va’da qilingan yog‘ochga mashina olib o‘rmonga kelishlari haqida uni ogohlantirib qo‘ydilar. Mana shu bugun kechqurun ikkita qarag‘ay yog‘och olib ketgani pritsepli mashina keladi. Qarag‘ayning bitta-

si pastda tayyor turibdi, mashina keladigan joyga daryodan o'tkazib qo'yilgan. Ikkinchisini mana, pastga olib tushishyapti. Agar O'razqul hozir ushbu yog'och ustidan yeb-ichganlarini qusish imkonini topgandami, hozir chidashga majbur bo'layotgan bu azob-uqubatlardan qutulish uchun shu zahotiyoq qusib tashlagan bo'lardi.

Afsuski, o'zining tog'dagi la'nati bu taqdirini o'zgartirishga qodir emas: mashina tunda yog'och olib ketish uchun shu bugun kechqurun pritsepi bilan keladi.

Hamma ish o'ngidan kelsa yaxshiku-ya: yo'l sovxoz o'rtasidan, to'g'ri idoraning oldidan o'tadi, boshqa yo'l yo'q, sovxozga esa militsiya, gosinspeksiya kelib turadi. U yerda yana rayondan kelganlar ham bordir? Ularning ko'ziga yog'och ortgan mashina duch kelib qolsami: "Xo'sh, yog'ochni qayoqdan olib kelyapsiz va qayoqqa?"— deb surishtira boshlashadi.

Bu xayoldan O'razqulni sovuq ter bosib ketdi. Hamma-hamma narsaga — boshi ustida aylanayotgan zag'chalarga, baxtsiz Mo'min cholga, bundan uch kun burun shaharga kartoshka sotgani ketgan dangasa Seydahmadga g'azabi jo'sh urib ketdi. U tog'dan yog'och olib tushilishini bilardi-ku, axir! Demak, sezdirmay jo'nab qolgan... Endi faqat bozordagi ishlarini bitirgandan keyingina qaytadi. Bo'lmasa O'razqul, chol bilan ikkalasini yog'och sudrab kelishga jo'natib, o'zi bu azobdan qutulgan bo'lardi.

Lekin Seydahmad uzoqda, zag'chalarga ham qo'l yetmaydi. Hammasining alamini xotinidan olishi mumkin— lekin uyga yetish amri mahol. Birgina Mo'min chol bor. Tog'dan nafasi bo'g'ilib, qahr-g'azabi ortib, har qadamda og'zidan oq it kirib, qora it chiqib kelayotgan O'razqul otga ham, uning orqasidan kelayotgan cholga ham rahm qilmay, changallar orasidan yo'l soldi. Bu ot harom o'lsa mayli, bu chol o'lsa ham mayli, yuragi yorilib o'zi o'lsa ham mayli. O'razqulning sha'ni va amaliga yarashmagan, uning ko'nglidagidek bo'lmagan bu dunyoga o't tushsin.

O'razqul o'zini tutolmay, otni qiyalikdan tikka changallar orasiga haydab ketdi. Mayli, Mo'min chaqqon yog'ochlar atrofida girdikapalak bo'lib qolsin. Qani, u yog'ochni eplamay ko'rsinchi! "Majaqlab tashlayman, ahmoq cholni, vassalom", ko'nglidan

o‘tkazdi O‘razqul. Boshqa vaqtda u hech qachon yog‘och bilan bunday xavfli nishablikka o‘zini urishga yuragi betlamagan bo‘lardi. Bu safar shayton yo‘ldan ozdirdi. Mo‘min ham uni to‘xtatib qolishga ulgurmadi, faqat qichqirib qololdi, xolos: “Qayoqqa ketyapsan? Qayoqqa? To‘xta!” — yog‘och chirpirak bo‘lib aylanib, butalarni yanchib pastga yumalab ketdi. Yog‘och ho‘l va og‘ir edi. Mo‘min yog‘ochni ushlab qolish uchun pishang solmoqchi bo‘ldi. Lekin zarb shunday kuchli ediki, pishang cholning qo‘lidan otilib chiqib ketdi.

Hamma ish ko‘z ochib yumguncha bo‘lib o‘tdi. Ot yiqildi va yoni bilan pastga surilib ketdi. Ot surilayotib O‘razqulni ham urib yiqitdi. U titrab-qaqshab butalarga tirmashib, ilinib, yumalab ketdi. Shu payt qalin xazon ustidagi allaqanday shoxli jonivorlar hurkib qochib qoldi. Ular talvasaga tushib, jon-jahdi bilan sakray-sakray qayinzorlar ichida g‘oyib bo‘ldi.

— Bug‘ular! Bug‘ular! — qo‘rquv va shodligidan o‘zida yo‘q xursand bo‘lib qichqirdi Mo‘min. Keyin go‘yo o‘z ko‘zlariga ishonmagandek jim bo‘lib qoldi.

Nogoh tog‘ qo‘yniga sukunat cho‘kdi. Zag‘chalar birdan g‘oyib bo‘ldi. Yumalab ketayotgan yog‘och yoshgina baquvvat qayinni bosib, ezib qiyalikda ilinib qoldi. Ot egar-abzali og‘ib, oyoqqaturdi.

Hammayog‘i yirtilib ketgan O‘razqul emaklab bir tomonga chiqib oldi. Mo‘min kuyoviga yordamlashgani tashlandi:

— O, muqaddas ona Shoxdor bug‘u! Bizni hozir u qutqazdi! Ko‘rding-ku. Bu Shoxdor ona bug‘uning bolalari. Bizning onamiz qaytib kelibdi! Qara-ya!

O‘razqul yuz bergan voqeaga hali ham ishonqiramay joyidan g‘amgin holda xijolat chekib turdi-da, qoqina boshladi:

— Ko‘p vaysama, chol. Yetar endi, otning abzalini chiqar.

Mo‘min itoatkorona shoshilinch ravishda otning abzalini ola boshladi.

— O, qudratingdan o‘rgilay, Shoxdor ona bug‘u! — u xursandligidan g‘o‘ldirashini qo‘ymasdi. — Bug‘ular bizning o‘rmonimizga qaytibdi. Shoxdor onamiz bizni unutmabdi! Bizning gunohimizdan o‘tibdi...

— Hali ham g'o'ldirayapsanmi? — do'q qildi O'razqul. U endi qo'rquvni unutgan va yana eski g'azabi bo'g'ziga kelgandi. — Ertagingni aytyapsanmi? O'zing jinni bo'la turib, boshqalar ham ahmoqona ertagimga ishonaveradi, deb o'ylaysanmi!

— Men o'z ko'zim bilan ko'rdim. Bular bug'ular edi,— bo'sh kelmasdi Mo'min bobo. — Nahot sen ko'rmagan bo'lsang, o'g'lim? Sen o'zing ko'rding-ku.

— Xo'sh, ko'rdim. Uchtasi chopqillab ketdi, shekilli.

— Rost, uchta. Menga ham shunday tuyuldi.

— Nima qipti shunga? Bug'u bo'lsa bug'u-da. Mana bu yerda odam o'z jonidan judo bo'lishiga sal qoldi. Nimasiga quvonish kerak ekan. Bular agar bug'ular bo'lsa, demak, dovon ortidan kelgan. U yoqda — Qozog'istonda, tog'ning narigi tomonida, o'rmonlarda hali bug'ular bor, deyishadi. U yer ham zapovednik. Zapovednikning bug'ulari bo'lsa ehtimol. Kelsa kelibdi-da. Bizning nima ishimiz bor. Qozog'istonning bizga daxli yo'q.

— Balki, bizda yashab qolar ular? — orzu qilib gapirdi Mo'min bobo. — Qani endi qolsa...

— Bas endi, — uning so'zini bo'ldi O'razqul. — Ketdik!..

Yog'ochni hali ancha pastga sudrab tushish, keyin esa yana otda daryodan sudrab olib o'tish kerak edi. Bu ham og'ir ish. Agar yog'och daryodan omon-eson olib o'tilsa, so'ngra yana mashinaga ortiladigan tog' yon-bag'rigacha yetkazish darkor.

Eh, qancha mehnat.

O'razqul o'zini butunlay baxtsiz his qildi. Butun borliq unga nohaq yaratilganday tuyuldi. Tog'lar bo'lsa, hech nima sezmaydi, hech nima istamaydi, hech nimadan zorlanmaydi, bir joyda turgani-turgan, o'rmonlar esa avval kuzga, undan keyin qishga o'tadi, buning hech qanday mashaqqatli joyi yo'q. Zag'chalar ham o'z erkicha uchib yuradi. Istaganicha chag'illaydi. Bug'ular, agar ular haqiqatan ham bug'ular bo'lsa, dovonning narigi yog'idan keladi-da, o'rmonda daydib yuraveradi, qanday yuradi, qanaqa yuradi, o'zining ishi. Shaharda odamlar asfalt ko'chalarda beparvo qadam tashlashadi, taksilarda yurishadi, restoranlarda o'tirishadi, vaqtichog'lik qilishadi. Uning peshànasiga mana shu tog'larda yurish bitilgan, u bebaxt... Hatto uning mana shu hech nimaga yaramay-

digan qaynotasi Mo'min chaqqon ham undan baxtliroq, chunki u ertakka ishonadi. Ovsar odam. Ovsarlar hamisha o'z hayotidan mamnun.

O'razqul o'z hayotini ko'rarga ko'zi yo'q. Hayoti o'zi istagancha emas. Bu hayot Mo'min chaqqonga o'xshaganlarga xos. Unga esa nima ham kerak? Umri mehnatda o'tyapti, bir kun dam olish yo'q. Umrida esa biron inson unga qaram bo'lgan emas, u esa hammaga qaram bo'lib kelgan, hatto o'zining kampiriga ham — chol hatto unga bir so'z qaytarmaydi. Shunday sho'rpeshona erkak bilan ham baxtiyor bo'laveradi. O'rmonda bug'ularni ko'rib, xuddi yuz yil dunyoda izlagan aka-ukalarini uchratgandek, ko'z yoshi qilib yuribdi-ya.

Eh, nimasini gapirasan...

Ular axiri so'nggi manzilga chiqishdi, u yerdan uzun tik yo'l daryoga tushib boradi. Tin olgani to'xtashdi.

Daryoning narigi betida, qorovulxona yonidagi O'razqulning uyi oldida qandaydir bug' ko'tarilardi. Bug'ga qarab samovar qaynab turganini bilsa bo'lardi. Demak, uni xotini kutayotibdi. Lekin bundan O'razqul yengil tortmadi. U og'zi bilan entikib nafas olar, havo yetishmasdi. Ko'kragi, boshi og'rir, yuragi gupillab urardi. Peshonasidan ter quyilardi. Oldinda esa hali uzoq va tik nishab turibdi. Uyda esa pushtsiz xotin kutib o'tiribdi, samovar qo'yib o'tirganlariga kuyaymi, ko'nglimni topmoqchi... Birdan chopib borib, bu qorindor samovarni bir tepib, uchirib yuborgisi kelib ketdi. Keyin esa xotiniga tashlanib, o'lguday ursa. U xayolan xotinining dod-faryodini eshitib, uning baxtsiz qismatini tasavvur qilib, huzur qildi.

"Yaxshi bo'pti, — o'ylardi u. — Ajab bo'pti. Men qiynalganimda nega u rohat qilib o'tirishi kerak?"

Uning xayollarini Mo'min bo'ldi.

— Men esimdan chiqarayozibman, o'g'lim, — shosha-pisha xatosini tuzatmoqqa urinib O'razqulning oldiga keldi. — Men bolani olgani maktabga borishim kerak axir. Darslari tugadi-ku.

— Xo'sh, nima bo'pti? — atayin vazmin ohangda so'z qotdi O'razqul. — Nima qil deysan?

— Jahling chiqmasin, bolam. Yog'ochni shu yerda qoldiramiz. O'zimiz pastga tushamiz. Sen uyingga borib ovqatlanasan. Men

shu paytda otda chopib maktabga borib kelaman. Bolani olib qaytaman. Keyin kelib yog'ochni olib ketamiz.

— Shuni o'ylab topguncha ancha bosh qotirdingmi, chol? — zaharxandalik bilan gap qotdi O'razqul.

— Bola axir yig'laydi-da.

— Nima bo'pti shunga? — qizishdi O'razqul. Nihoyat cholni xumordan chiqquncha so'kishga bahona topildi. Kun bo'yi O'razqul janjalga bahona axtardi, mana endi Mo'minning o'zi unga bahona topib berdi. — U yig'lar ekan deb biz ishimizni tashlab ketaylikmi? Ertalab, maktabga olib boraman, deb boshni qotirding. Olib bording, yaxshi. Endi maktabdan olib kelaman deysan. Men nima senga? Yo biz maynabozchilik o'ynayapmizmi bu yerda?

— Keragi yo'q, o'g'lim, — zorlandi Mo'min. — Shunday kunda. Menga-ku mayli-ya, bola kutadi-da, shunday kunda yig'laydi-da...

— Nima shunday kunda? Bu qanaqa xosiyatli kun o'zi?

— Bug'ular qaytdi. Nima keragi bor edi shunday kunda...

O'razqul dovdirab, hatto hayratidan jim bo'lib qoldi. U tikanli butalar orasida yumalab, qo'rquvdan yuragi yorilayozganda sakragan soyalari lip etib o'tganday ko'zga tashlangan bu bug'ularni allaqachon unutgan edi. Yog'och bilan pastga yumalaganda birgina daqiqada taqdiri hal bo'lib ketardi. Uning bug'ularga qarashga ham, cholning vaysashiga quloq solishga ham holi kelmay qolgandi.

— Sen meni nima deb o'ylayapsan? — dedi u sekin va jahl bilan cholning yuziga pishqirib. — Afsus, soqoling yo'q, bo'lmasa boshqalarni o'zingdan ko'ra ahmoqroq deb o'ylamasliging uchun yulib tashlardim. Sening bug'ularingni boshimga uramanmi. Nimasiga yana men ularni o'ylashim kerak ekan. Sen meni gap bilan chalg'itma. Qani tur, yog'ochni ushla. To daryodan olib o'tmagunimizcha, biron nima haqida g'ing dema. U yoqda kim maktabga boryapti, kim yig'layapti — mening ishim yo'q. Bas, endi ketdik...

Mo'min har safargidek bo'ysundi. U toki yog'och joyiga bormaguncha O'razqulning qo'lidan qutulib ketolmasligini bilib, sukut saqlagancha jon-jahdi bilan ishlardi. Qalbi tug'yon urib yotsa ham, u boshqa biron so'z qotmadi. Nabirasi uni maktab oldida kutib turibdi; hamma bolalar uy-uyiga tarqab ketishgan, faqat yolg'iz uning yetim nabirasigina yo'l poylab, bobosini kutmoqda.

Chol barcha sinfning bolalari maktabdan qanday yer tepinib otilib chiqishini, qanday uy-uyiga chopqillab ketishini ko‘z oldiga keltirdi. Och qolishgan. Ular yo‘ldayoq o‘zlariga tayyorlangan ovqatning hidini sezishadi va quvonchga to‘lib, hayajonlanib uylarning derazasi ostidan chopib o‘tishadi. Onalari allaqachon kutib o‘tirishibdi. Har birining chehrasida odamni quvontiradigan tabassum. Ona o‘ziga og‘irmi, yengilmi, bolasi uchun tabassum qilishga har qachon o‘zida kuch topa oladi. Hatto ona: “Qo‘llaringchi? Qo‘llaringni kim yuvadi?” — deb o‘shqirib turganda ham baribir uning ko‘zlarida o‘sha tabassum yashiringan bo‘ladi.

Mo‘minning nabirasi o‘qishga tutingan kundan beri qo‘li siyohdan arimay qoldi. Bu bobosiga hatto yoqib tushardi: demak, yigitcha ish bilan mashg‘ul. Ana, hozir uning nabirasi siyohli qo‘llarida shu yil yozda sotib olingan portfelini ushlab yo‘lda turibdi. U, ehtimol, kutaverib charchagan va endi ko‘zini uzmay, otda yo‘rtib kelayotgan bobom do‘nglikda ko‘rinib qolmasmikan, deb bezovtalanib turgandir. Axir u hamisha o‘z vaqtida kelardi-ku. Bola har safar maktabdan chiqqanida bobosi sal narida uni toqatsizlik bilan kutib turardi. Hamma uy-uyiga tarqab ketar, u esa bobosi tomonga chopardi. “Ana bobom turibdi, chopdik!” derdi bola portfeliga. Chopib borayotib hayajonga to‘lgancha to‘xtab qolardi. Agar yon-verida hech kim bo‘lmasa, u bobosiga tashlanib, eski ust-boshlarining va yozgi quruq pichanning o‘zi ko‘nikib ketgan hididan nafas olib, yuzlarini uning qorniga ishqab quchoqlab olardi. O‘sha kunlari bobosi narigi qirg‘oqdan pichan tashirdi, qishda qalin qorda u yerga yetib bo‘ladimi. Yaxshisi kuzda tashib keltirgan ma’qulda. Keyin ancha paytgacha Mo‘mindan to‘zg‘igan pichanning achqimtil hidi kelib yurdi.

Bobo bolani o‘zining orqasiga, otning sag‘risiga mingashtirib olar, shu bilan u yoqdan bu yoqdan gaplashib yetib kelib qolganlarini sezishmasdi. Tog‘ tepaligining ikki cho‘qqisi orasidagi pastqamlikdan oshib, to‘g‘ri San-Toshga kelishardi.

Bolaning maktabga qattiq berilgani buvisining achchig‘ini keltirardi. Bola ko‘zini ochgan zahoti, apil-tapil kiyinib, portfeliga kitob-daftarlarni solardi. Kechasi ham portfelini yoniga qo‘yib yotishidan buvisining jahli chiqardi:

— Bu yaramas portfelga buncha yopishib qolding? Shu senga xotin bo'lib qolgandami, qaliniga bizni sotib yer ekansan-da...

Buvisining gapi bolaning u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketar, qolaversa, gap nima haqda borayotganini ham uncha tushunib yetmasdi. Uning uchun eng muhimi maktabga kechikmaslik edi. U hovliga otilib chiqib bobosini shoshirardi. Faqat maktab ko'zga tashlangandagina tinchlanardi.

Bir safar ular baribir kechikib qolishdi. O'tgan haftada tong xiyol yorishganda Mo'min otda narigi qirg'oqqa yo'l oldi. Ertalab barvaqt pichanga bir qatnov qilishga qaror qilgandi. Hammasi joyida bo'layotgandi, lekin yo'lda pichan sochilib ketdi. Yana hamma pichanni qayta bog'lab, yana otga ortish kerak edi. Shoshib bog'langan pichan qirg'oqning o'zida yana sochilib ketdi.

Nabirasi esa narigi tomonda kutib turardi. U g'adir-budur toshning ustiga chiqib, portfelini silkir va qichqirib allakimni chaqirardi. Chol shoshar — arqon chalkashib ketgan, yechib bo'lmas, ko'r tugun tushib qolgandi. Bola esa hamon qichqirardi, shunda chol uning yig'layotganini angladi. Pichanni ham, arqonni ham tashladi-da, tezroq nabirasining oldiga yetib borish uchun otga minib, uni kechuvdan haydab ketdi. Daryodan o'tguncha ham ancha vaqt o'tdi: kechuvdan o'tish osonmas, suv ko'p, oqim tez. Kuzda hali uncha qo'rqinchli emas, yozda otni chappa ag'daradi. Mo'min nihoyat daryodan o'tib nabirasining oldiga borganida u ho'ngrab yig'lardi. Bobosiga qaramas, faqat yig'lar va so'ylanardi: "Kechikdim, maktabga kechikdim". Chol otdan engashib, bolani egarga ko'tarib oldi-da, yo'rtib ketdi. Bu maktab qurg'ur yaqin orada bo'lgandami, bolaning o'zi g'iz etib borib kelaverardi. Shuning uchun butun yo'l bo'yi to'xtamay yig'ladi, chol uni hech nima bilan ovutolmadi. Maktabga ham ho'ngrab yig'lagan holida olib keldi. Dars boshlanib ketgan edi. To'g'ri sinfga olib kirdi.

Mo'min muallima oldida qayta-qayta uzr so'rab, buning boshqa takrorlanmasligini aytib so'z berdi. Lekin hammasidan ham chol kechikkani uchun nabirasining kuyib-pishganini va zorlanib yig'laganini ko'rib iztirob chekdi. "Ilohim maktabni hamisha shunday sevsin-da",— xayoliga keltirdi u. Harholda bolapaqir nimaga bunchalik yig'ladi. Demak, yuragida bir armon bor-da...

Hozir ham yog‘ochning atrofida charx urib, goh u tomoniga, goh bu tomoniga chopib o‘tar, tog‘dan tezroq pastlikka sirg‘alib tushsin, hech qayerga ilinib qolmasin deb, yog‘ochning ostiga pishang solib, itarib borarkan, Mo‘minning xayolidan nabirasi ketmasdi — nima bo‘ldi ekan-a?

O‘razqul esa shoshmasdi. U otni yetaklab borardi. Bu yerda ko‘p shoshib bo‘lmaydi — uzun, tik nishablikdan qiyalab yurishga to‘g‘ri keladi. Lekin uning gapini inobatga olib, yog‘ochni shu yerda qoldirib, keyin kelib olib ketish mumkin emasmi? Eh, kuch-quvvati bo‘lgandami, yog‘ochni shartta yelkasiga qo‘yib, daryodan o‘tgan va mashinaga ortiladigan joyga eltib tashlagan bo‘lardi. Mana-e, olinglar yog‘ochlaringni va yo‘qolinglar. Mo‘minning o‘zi bo‘lsa nabirasining oldiga otilgan bo‘lardi.

Qayoqda deysiz, bular xomxayol. Hali toshlar va shag‘alliklardan yurib qirg‘oqqa yetish, so‘ng kechuvdan yog‘ochni ot bilan sudrab narigi tomonga olib o‘tish kerak. Otning sillasi quridi — u tog‘da qancha past-balandliklarga chiqib tushmadi... Ishqilib, oxiri baxayr bo‘lsin, agar yog‘och daryo o‘rtasida toshlarga ilinib, yoki ot qoqilib yiqilib tushsa, ish chatoq!

Ular suvdan kechib o‘tishayotganda Mo‘min bobo duo qilib turdi: “O‘zing qo‘lla, Shoxdor ona bug‘u, ilohim yog‘och ilinmasin, ilohim ot yiqilmasin”. Etiklarini yelkasiga tashlab, ishtonining pochasini tizzasidan yuqori shimarib olgan yalangoyoq Mo‘min bobo qo‘lda pishang bilan suvda suzib borayotgan yog‘och ortidan arang yetib ulgurardi. Yog‘ochni oqimga qiya qilib sudrashardi. Daryo suvi qancha toza va tiniq bo‘lsa, shuncha sovuq ham edi. Kuzning suvi-da.

Chol bunga bardosh berardi: mayli, oyoq uzilib tushmaydi. Ishqilib, yog‘och tezroq olib o‘tilsa bo‘lgani. Baribir yog‘och ilinib qoldi, aksiga olganday, sertoshli yerga kelganda taqqa to‘xtadi. Bunday hollarda otga jinday dam berib, keyin yaxshilab bir “chu!” deyilsa — kuchli siltov bilan yog‘ochni toshlar panjasidan tortib olsa bo‘ladi.

Lekin otga minib olgan O‘razqul toliqib kuchdan ketgan jonivorni qamchi bilan ayamay savaladi. Ot orqa oyoqlari bilan cho‘qqayib, sirg‘alib, qoqinib ketar, lekin yog‘och joyidan qo‘z-

g‘almasdi. Cholning oyoqlari muzlab qoldi, ko‘zi tina boshladi. Boshi aylandi. Jarlik, jarlik ustidagi o‘rmon, osmondagi bulutlar pastga tusha boshladi, daryoga sho‘ng‘ib, sho‘x oqimda suzib, yana joyiga qaytdi. Mo‘minning mazasi qocha boshladi. La’nati yog‘och! U qurib yotganda edi, boshqa gap edi, suvda o‘zi suzib ketardi. Buni esa hozirgina qirqishdi-yu, darrov daryoga sudrab tushishdi. Kim axir shunday qiladi! Oqibati shu bo‘ladi-da. O‘ylanmay qilingan ishning oxiri voy. Qayrog‘ochni qurisin deb tashlab kelishga O‘razqulning ra’yi yo‘q. Inspeksiyaning ko‘zi tushib qolsa, taqiqlangan o‘rmondan qimmatli daraxtlarni o‘g‘irlikcha qirqqan, deb akt tuzadi. Shuning uchun ham qirqilgan yog‘ochni shu zahotiyoq gumdon qilishi kerak.

O‘razqul o‘kchasi bilan otni niqtar, qamchi bilan boshiga urar, so‘kinar, xuddi hammasi uchun go‘yo u, Mo‘min aybdordek, cholga baqirardi, yog‘och esa joyidan jilmasdi, u battar toshga o‘rnashib borardi. Cholning sabr-toqati tugadi. U butun umrida birinchi marta g‘azab bilan ovozini balandlatdi.

— Tush otdan! — u O‘razqulning yoniga jiddiy borib, uni egardan tortdi. — Otning tortolmayotganligini ko‘rmayapsanmi? Hoziroq tush!

Hayron qolgan O‘razqul jimgina bo‘ysundi. Egardan etigi bilan to‘g‘ri suvga sakradi. Xuddi shu daqiqadan boshlab, u garang va qulog‘i bitib qolganday, o‘zini yo‘qotgan edi.

— Qani kel. Ko‘tardik! Qani ol! — Mo‘minning komandasi bilan ular yog‘ochni joyidan biroz ko‘tarib, uni toshlarning siquvidan bo‘shatib, pishangning ustiga mindirdilar.

Ot naqadar aqlli jonivor! U ayni shu paytda toshlarga qoqinib, toyinib pastromkani torday tarang tortib oldinga silkindi. Lekin yog‘och o‘rnidan bir qo‘zg‘aldi-yu, toyib yana botib qoldi. Ot yana bir silkindi va o‘zini tutib qololmay suvga yiqilib tushib, tipirchilagancha egar-jabdug‘iga o‘ralashib qoldi.

— Otni! Otni ko‘tar! — Mo‘min O‘razqulni turtdi. Ular birgalikda otni bazo‘r oyoqqa turg‘azib qo‘yishdi. Ot sovuqdan titrar, arang suvda turardi.

— Yech otni!

— Nimaga?

— Yech deyapman senga. Boshqatdan bog‘laymiz. Pastromkani ol.

Yana O‘razqul jimgina bo‘ysuna qoldi. Otni yechib bo‘lgach, Mo‘min uning yuganini qo‘lga oldi.

— Endi ketdik, — dedi u. — Keyin kelamiz. Ot damini olsin.

— Qani, to‘xta-chi! — O‘razqul cholning qo‘lidan yuganini tortib oldi. U xuddi uyqudan ko‘z ochgandek bo‘ldi. Birdan yana asl holiga qaytdi.

— Sen kimning boshini qotiryapsan. Hech qayoqqa bormaysan. Yog‘ochni hozir chiqaramiz. Kechqurun yog‘ochga odamlar kelishadi. Gap-so‘zsiz otni egarla, eshityapsanmi?

Mo‘min jimgina burildi-da, sovuq qotgan oyog‘i bilan oqsagancha sayozdan qirg‘oq tomon yurdi.

— Qayoqqa ketyapsan, chol? Qayoqqa deyapman?

— Qayoqqa! Qayoqqa! Maktabga. Nabiram u yerda rosa tushdan beri kutyapti.

— Qani qayt-chi! Qayt!

Chol quloq solmadi. O‘razqul otni dalada qoldirib, sal kam qirg‘oqda, toshloq ustida Mo‘minga yetib oldi, yelkasidan ushlab o‘ziga tortdi.

Ular yuzma-yuz turib qolishdi.

O‘razqul epchillik bilan cholning bo‘yniga osilgan eski kirza etikni yulib oldi-da, qaynotasining boshiga, yuz-ko‘ziga ikki marta qulochkashlab urdi.

— Qani yur! — xirilladi O‘razqul etiklarni bir chekkaga uloqtirarkan.

Chol etik oldiga borib, uni ho‘l qumdan ko‘tarib, qaddini rostlaganda lablaridan qon tirqirab oqardi.

— Yaramas! — dedi Mo‘min qonni tupurarkan, etikni yana yelkasiga ilib.

Bu hech kimning so‘zini qaytarmagan Mo‘min chaqqonning so‘zi edi. Bu sovuqdan ko‘kargan, eski etiklarini yelkasiga ilgan, lablari qonab ketgan bechora cholning so‘zi edi.

— Yur!

O‘razqul uni sudradi. Lekin Mo‘min kuch bilan uning qo‘lidan siltanib chiqdi-da, orqasiga qaramay jimgina nariga ketdi.

— Xap sanimi, qari ahmoq! Endi kuningni ko‘rsataman! — O‘razqul uning orqasidan mushtini do‘laytirib dag‘dag‘a qildi.

Chol qayrilib qaramadi. U “yotoq tuya”ning oldidagi supachaga borib o‘tirdi, etigini kiydi va uyiga tez yurib ketdi. Hech yerda to‘xtamay, to‘g‘ri otxonaga kirdi. U yerdan O‘razqulning daxlsiz, mehmonga miniladigan, poygada chopadigan, birov egarlashga botinolmaydigan bo‘z oti — Olaboshni yetaklab chiqdi. Xuddi yong‘in chiqqandek Mo‘min uni hovlidan egarsiz, uzangisiz minib chiqib ketdi. U derazalar yonidan, hali ham shaqillab qaynab yotgan samovar yonidan ot choptirib o‘tganida tashqariga otilib chiqqanlar — Mo‘minning xotini, qizi Bekey va yosh Guljamol cholga bir gap bo‘lganini darrov fahmlashdi. U hech qachon Olaboshga minmas va hech qachon hovlidan bunchalik shoshilib chiqmagandi. Bu Mo‘min chaqqonning isyoni ekanligini ular hali bilishmasdi. Keksaygan chog‘idagi bu isyon uni nimalarga giriftor qilishini ham bilishmasdi.

Qirg‘oq tomondan esa otni yetaklab O‘razqul uyga qaytardi. Ot oldingi oyog‘ini oqsab bosardi. Ayollar jim turib, uning hovliga yaqinlashib kelishiga ko‘z tikib turishardi. O‘razqulning ko‘nglidan nimalar kechayotganini, u o‘sha kuni ularga qanday g‘am-alamlar keltirayotganini hali ayollar xayoliga ham keltirishmasdi...

U ho‘l, shaloplagan etikda, ho‘l ishtonda vazmin va og‘ir qadamlar bilan ular oldiga yaqinlashib, ayollarga g‘amgin nazarda xo‘mrayib qaradi. Xotini Bekey bezovtalanib qoldi:

— Nima qildi, O‘razqul? Nima bo‘ldi? Hamma yog‘ingiz ho‘l bo‘lib ketibdi-ku. Yog‘och oqib ketdimi?

— Yo‘q, — qo‘l siltadi O‘razqul. — Ma. — U yuganni Guljamolga uzatdi. — Otni otxonaga olib bor. — Shunday deb o‘zi eshik tomonga yurdi. — Yur uyga, —dedi u xotiniga. Kampir ham ular bilan birga bormoqchi edi, O‘razqul uni ostonaga yo‘latmadi.

— Sen nari tur, kampir. Senga hech qanday ish yo‘q bu yerda. Uyingga bor-u, xap o‘tir.

— Nima bo‘ldi senga? — xafa bo‘ldi kampir. — Bu nimasi? Cholimga nima bo‘ldi? Nima gap?

— Uning o‘zidan so‘ra, — javob qildi O‘razqul.

Uyda Bekey erining ho'l ust-boshlarini yechib, unga po'stin berdi, samovarni olib kirib, choy qo'yishga tutindi.

— Choyni qo'y, — qat'iy rad qildi O'razqul. — Aroq ber.

Xotini ochilmagan yarimtalikni olib, stakanga quydi.

— To'ldirib quy, — buyruq qildi O'razqul. Bir stakan aroqni suvdek ichib yuborgach, po'stinga o'raldi-da, kigizga cho'zilib, xotiniga dedi:

— Qo'ydim, sen mening xotinim emassan, men sening ering emasman. Jo'na, bu uyda sening izing qolmasin. Qorangni ham ko'rsatma. Vaqt g'animatida jo'nab qol!

Bekey uh tortdi, karavotga o'tirdi va har galgidek ko'z yoshlarini ichiga yutib, sekin gapirdi:

— Yanami?

— Nima, yanami? — bo'kirib yubordi O'razqul. — Yo'qol!

Bekey uydan otilib chiqdi va har doimgidek qo'llarini bukib, hovlini boshiga ko'tarib ho'ngrab yig'lay boshladi:

— Men, baxti qaro, bu dunyoga nega kelgan ekanman-a...

Bu choq Mo'min chol Olaboshda nabirasi oldiga yo'rtib borardi. Olabosh — chopqir ot. Lekin baribir Mo'min ikki soatdan ziyodroq kechikdi. U nabirasini yo'lda uchratdi. Bolani muallimaning o'zi uyiga olib kelayotgandi. O'sha muallima beshinchi yil kiyayotgan, shamol yalab ketgan, yenglari qo'pol, hech o'zgarmas paltosida. Horigan ayolning qovog'i soliq ko'rinardi. Anchadan beri yig'layverib ko'zlari shishgan bola qo'lida portfeli bilan bechora va xo'rlangan qiyofada uning yonida kelardi. Muallima Mo'min cholni qattiq so'roqqa oldi. Chol esa ayolning oldida otdan tushib, boshini quyi solib turardi.

— Agar vaqtida kelib olib ketmaydigan bo'lsangiz,— dedi muallima, — bolangizni maktabga olib kelmang. Menga ishonmang, o'zimda ham to'rttasi bor.

Mo'min yana uzr so'radi, bunday hol boshqa takrorlanmaydi deb, yana so'z berdi.

Muallima Jilisoyga qaytib ketdi, bobo bilan nabira esa uyga yo'l olishdi.

Bola otda bobosining oldiga o'tirib jimgina borardi. Chol ham unga nima deyishini bilmasdi.

— Juda och qoldingmi? — so'radi u.

— Yo'q, muallimamiz non berdi, — javob berdi nabira.

— Nega bo'lmasa miq etmay kelyapsan?

Bola shunda ham gapirmadi.

Mo'min gunohkorona jilmaydi:

— Oh, arazgo'y bolaginam. — U bolaning furajkasini olib, boshidan o'pdi va yana furajkasini boshiga kiygizib qo'ydi.

Bola qiyo ham boqmadi.

Ikkalasi ham shunday ma'yus va jim ketishdi. Mo'min jilovni mahkam tutib, salt otda bola urinib qolmasin deb, Olaboshning boshini bo'shatmay borardi. Endi shoshishning ham keragi yo'qday edi.

Ot tezda undan nima talab qilinayotganini payqadi-da, yarim yo'rg'alab yurib ketdi. U yerga nag'alini taqillatib urib, pishqirib borardi. Shunaqa otda qani endi yolg'iz o'zing xirgoyi qilib ketsang. Odamning yolg'izlikda kuylaydigan qo'shig'i ozmi? Ro'yobga chiqmay qolgan orzular haqida, o'tgan umr haqida, sevgan chog'laring, boshdan kechirgan voqealaring haqida...

Inson ko'nglida armon bo'lib qolgan narsalarni eslashni xush ko'radi. Aslini olganda insonning o'zi ham nimadan armon qilayotganini unchalik tushunib yetmaydi. Lekin har zamon-har zamon shu haqda o'ylab qo'ygisi, uning tagiga yetgisi keladi.

Yaxshi ot — mehribon hamroh...

Mo'min chol nabirasining sochi taqir olingan ensasiga, ingichka bo'yni-yu, shalpang quloqlarigacha qarab o'ngmagan hayotida butkul ishi-yu, mehnatidan, chekkan barcha tashvish va g'amlaridan endi faqatgina yolg'iz mana shu hozircha nochor bola qolganini o'ylardi. Bobosi uni oyoqqa turg'izishga ulgursa yaxshiku-ya. Lekin u yolg'iz qolsami — og'ir bo'ladi. O'zi mushtdek-ku, ammo fe'lli-huyli. Uning oddiygina, mo'mingina bo'lgani yaxshi edi...

Axir O'razqulga o'xshaganlar uni o'lguday yomon ko'rib, bo'rining ta'qibiga tushgan bug'uchaday burda-burda qilib tashlaydi-ku...

Shunda Mo'min boyagina lip etib shitobli soya solib o'tgan va ko'ksidan hayrat va shodlik xitoblari otilib chiqishiga sababchi bo'lgan o'sha bug'ularni esladi.

— Bilasanmi, o‘g‘lim, nima? Bug‘ular yurtimizga qaytib keldi, — dedi Mo‘min bobo.

Bola yelkasi ustidan yalt etib qaradi:

— Rostmi?

— Rost. O‘zim ko‘rdim. Uch bosh.

— Qayoqdan kelganikin ular?

— Menimcha, dovon orqasidan. U yerda ham o‘rmon bor. Hozirgi kuz xuddi yozdagiday-da, dovon ochiq. Shuning uchun bizga mehmon bo‘lib kelgan.

— Ular biz tomonda qoladimi?

— Yoqsa qoladi. Hech kim tegmasa, yashab yuraveradi. Ozuqa serob bizda. Bu yerda xohla mingta bug‘u boq. Ilgarigi vaqtlarda, Shoxdor ona bug‘u davrida, bu yerda ularning son-sanog‘i bo‘lmagan...

Bu xabarni eshitib bolaning muzlagan ko‘ngli erib, xafaligi tarqalganini sezgan chol yana o‘tgan zamonlar haqida, Shoxdor ona bug‘u haqida hikoya qilishga tushib ketdi. O‘zining ertagiga o‘zi ham berilib ketib, qani endi birdan shunday baxtli bo‘lib qolsang-da, boshqaga ham baxtingni ulashsang! — deb qoldi. Butun umr shunday yashasang. Mana shunday, xuddi hozirgiday, xuddi hozirgi soatdagiday. Lekin hayot bunday qurilmagan, baxt bilan yonma-yon, izingdan izma-iz yuradigan, hech mahal arimaydigan baxtsizlik qalbingga, hayotingga bemavrid daxl qilib turadi. Hatto hozirgi damda, u nabirasi bilan baxtiyor borayotgan chog‘ida ham, cholning qalbida shodlik bilan tashvish yonma-yon turardi: u yoqda O‘razqul nima qildi ekan? U yana nima shumlikni tayyorlab turgan ekan, qanaqa zulm? Unga, itoatsizlik qilishga jur’at etgan cholga qanaqa jazo o‘ylab qo‘ydi ekan? Axir O‘razqul buni shunday qoldirmaydi-ku. Bo‘lmasa uni O‘razqul deyishmasdi-da.

Qizini va uning o‘zini kutayotgan baxtsizlik to‘g‘risida o‘ylamaslik uchun Mo‘min nabirasiga bug‘ular, bu jonivorlarning karomati, marhamati, go‘zalligi va uchqurligi, xuddi shularning sharofati bilan har qanday baloni daf qilishlari haqida hikoya qilardi.

Bolaga yaxshi edi. U uyda nima kutayotganligini bilmasdi. Uning ko‘zi va quloqlari yonardi. Nahotki bug‘ular qaytib kelgan bo‘lsa? Demak, hammasi to‘g‘ri ekan-da! Bobosining aytishicha,

Shoxdor ona bug‘u odamlarning yovuzligini kechirgan emish va o‘z bolalariga Issiqko‘l tog‘lariga qaytishga ruxsat etganmish. Bobosi aytadiki, bu yer qandayligini bilish uchun hozircha uchta bug‘u kelgan, agar ularga yoqsa, unda hamma bug‘ular yana vataniga qaytadi.

— Bobo, — deb bobosining so‘zini bo‘ldi bola, — balki, Shoxdor ona bug‘uning o‘zi ham kelgandir? Balki, bu yer qandayligini uning o‘zi ko‘rib, keyin bolalarini chaqirmoqchidir?

— Ehtimol, — dedi Mo‘min ishonchsizgina. U tutilib qoldi, o‘zini noxush seza boshladi: ortiqcha berilib ketgani yo‘qmi, bola uning so‘zlariga ortiqcha ishonib yuborgani yo‘qmi? Lekin Mo‘min chol nabirasini ishonchdan qaytarishga urinmadi. Bu endi juda kech edi.— Kim biladi, — yelkalarini qisdi Mo‘min. — Balki, balki, Shoxdor ona bug‘uning o‘zi ham kelgandir. Kim biladi...

— Hozir bilamiz-da. Yuring, buva, siz bug‘ularni ko‘rgan joyga boramiz, — dedi bola. — Men ham bir ko‘ray.

— Ular axir bir joyda turmaydi-da.

— Biz izidan boramiz. Ularning izidan uzoq-uzoqlarga izlab boraveramiz. Ularga ko‘zimizning qiri tushdi deguncha, qaytamiz. Shunda ular odamlar tegmasligini bilib oladi.

— Go‘daksan-da, — kulimsiradi bobo. — Uyga boraylik, o‘sha yerda ma’lum bo‘ladi.

Ular qorovulxonaga yaqinlashib, uylar ortidagi so‘qmoqdan borishardi. Uylar orqa tomondan — xuddi yelkasini o‘girib turgan odamga o‘xshardi. Uchala uy ham ichida nima bo‘layotganidan hech bir nishon bermay turardi. Hovli ham bo‘m-bo‘sh va jimjit. Mo‘minning yuragini noxush vahm bosdi. “Nima yuz bergan bo‘lishi mumkin? O‘razqul uning baxtsiz qizi Bekeyni urdimikin? Yoki mast bo‘lguncha ichganmikin? Yana qanday falokat yuz berishi mumkin? Nega buncha jimjitlik, nega shu mahalda hovlida hech kim yo‘q? Agar hamma narsa joyida bo‘lsa, bu mash’um yog‘ochni daryodan sudrab chiqish kerak, — o‘yladi Mo‘min. — Qo‘y, shu O‘razqulni, yaxshisi u bilan aloqani uzish kerak. Bilganini qilib, qolgan hammasiga tupurish darkor. Eshakka uning eshak ekanligini isbotlab berolmaysan-ku”.

Mo‘min otxonaning oldiga keldi.

— Tusha qol. Mana, yetib ham keldik, — u nabirasiga hayajonlanganini bildirmaslik uchun xotirjam gapirdi. Bola qo'lida portfeli bilan uyga chopmoqchi bo'lganida, Mo'min bobo uni to'xtatdi: — To'xta, birga boramiz.

U Olaboshni otxonaga bog'lab chiqdi-da, bolani qo'lidan ushlab, uyga qarab yurdi.

— Menga qara, — dedi bobo nabirasiga, — agar meni so'kishsa, sen qo'rqmagin va u yerdagi har xil gaplarga ahamiyat qilmagin. Buning senga daxli yo'q. Sening ishing maktabga qatnash.

Biroq aytadigan hech nima sodir bo'lmadi. Ular uyga kelishganda, faqat kampir Mo'minga xushlamaygina tikildi-da, labini tishlab, yana o'zining tikayotgan ishiga berildi. Mo'min chol ham unga hech nima demadi. U xona o'rtasida qovog'ini solgan holda sergak turib, keyin qozondan katta kosadagi un oshini olib, non va qoshiq keltirdi-yu, nabirasi ikkalasi kechikkan tushlikka o'tirishdi.

Jimgina ovqatlanishdi, buvisi esa hatto ular tomonga qayrilib ham qaramadi. Uning jigarrang so'lg'in yuzida g'azab to'ngib qolgandi. Bola qandaydir mudhish hodisa sodir bo'lganini payqadi. Chol-kampir esa jim edi.

Bolaga shunday vahimali, shunday tashvishli tuyuldiki, tomog'idan ovqat ham o'tmay qoldi. Ovqat ustida odamlarning jim qolib, o'zlarining allaqanday yomon va shubhali xayollariga berilishidan yomoni yo'q. "Balki, bunga biz sababchidirmiz?" — dedi bola xayolida portfeliga. Portfel deraza tokchasida turardi. Bola xayolan portfeli bilan shivirlasha boshladi:

"Sen hech nima bilmaysanmi? Bobom nega buncha g'amgin? Uning gunohi nima? Bugun nega u kechikdi, nega Olaboshni egarsiz minib bordi? Axir hech qachon bunday bo'lmagandi-yu. Balki u o'rmonda bug'ularni ko'rib qolib, ushlanib qolgandir?.. Ehtimol, hech qanday bug'u yo'qdir. Bu yolg'ondir? Unda nima? Nega bo'lmasa gapiradi? Agar u bizni aldagan bo'lsa, Shoxdor ona bug'u qattiq ranjiydi-ku..."

Mo'min ovqatlanib bo'lgach, bolaga sekingina dedi:

— Sen hovliga chiqavergin, bir ish bor. Menga yordamlashasan. Men hozir chiqaman.

Bola itoatkorona chiqib ketdi. U eshikni yopgan zamon, buvisining ovozi keldi:

— Qayoqqa?

— Yog'ochni keltirgani boraman. Boya daryoda tiqilib qolgandi, — javob qildi Mo'min.

— Ha, payqab qoldingmi! — qichqirdi kampir. — Esingga tushdi! Sen borib qizingning holini ko'r. Uni Guljamol uyiga olib ketdi. Sening tug'mas telba qizing kimga kerak endi. Bor, kimga o'xshab qolganini endi o'zi aytsin. Eri uni uyidan qutirgan itday haydadi.

— Xo'sh, nima bo'pti, haydasa haydapti-da, — dedi qiziq ustida Mo'min.

— Eh, seni qara! Kimsan o'zing! Qizlaringni bari sayoq, nabirangni o'qitib amaldor qilmoqchi bo'lasanmi? Kutaver. O'zingni baloga giriftor qilganingga arzisa edi. Tag'i ı Olaboshni minib chopibdi. Seni qara-yu! Ko'rpangga qarab oyoq uzatganingda edi, kim bilan o'ynashayotganingni bilarding... U sening bo'yningni sapchaday uzib tashlaydi. Sen qachondan beri odamlarga gap qaytaradigan bo'b qolding? Qachondan beri botir bo'lib qolding? Qizingni biznikiga yetaklab kelishni xayolingga ham keltirma. Ostonaga yo'latmayman...

Bola ma'yus bosh egib hovlida sekin-sekin yurardi. Uydan kampirning qichqirig'i kelardi, keyin eshik taraqladi va Mo'min uydan otilib chiqdi. Chol Seydahmadning uyiga yo'l oldi, yo'lda esa unga Guljamol duch keldi.

— Yaxshisi hozir emas, keyin, — dedi u cholga. Mo'min bo'shashib to'xtab qoldi. — Yig'layapti. Urdi uni, — pichirladi Guljamol. — Aytadiki, ular endi birga yashamasmish. U sizni qarg'ayapti. Hammasiga otam aybdor, dedi.

Mo'min churq etmadi. Nima desin? Endi uni hatto o'z qizi ham ko'rishni istamaydi.

— O'razqul o'zinikida ichib yotibdi. Hayvon hayvonligini qiladi-da, — pichirlab gapirdi Guljamol.

Ular o'y surib qolishdi. Guljamol achinib xo'rsindi.

— Hech bo'lmasa, bizning Seydahmad tezroq kela qolsa edi. Bugun qaytishi kerak. Birgalashib shu yog'ochni olib chiqsalaring bir balodan qutulardilaring.

— Gap yog‘ochdami? — boshini chayqadi Mo‘min. U o‘ylab qoldi va yoniga kelib turgan nabirasini ko‘rib, unga:

— Bor, sen o‘yna, — dedi.

Bola nariga ketdi. U molxonaga kirib, yashirgan durbinini oldi. Uni artdi. “Ishlarimiz yomon, — u durbinga g‘amgin so‘zlay boshladi. — Bunga biz portfel ikkalamiz aybdorga o‘xshaymiz. Bironbir joyda boshqa maktab bo‘lganda edi. Biz portfelim bilan o‘sha yoqqa o‘qishga ketardik. Hech kimga bildirmasdik. Faqat, bobomga qiyin bo‘ladi, qidiradi. Sen-chi, durbin, kim bilan oq kemaga qaraysan? O‘ylaysanki, men baliq bo‘lolmaymanmi? Mana ko‘rasan. Oq kemaga suzib boraman...”

Bola pichan g‘aramining orqasiga berkinib, durbinda atrofga qaray boshladi. Uzoq qarash ko‘ngliga sig‘madi. Boshqa vaqtda bo‘lsa, qarab ko‘zing to‘ymaydi: kuz o‘rmonlariga qoplangan tog‘lar ko‘rinadi, yuqori oppoq qor, past yal-yal yonadi, qip-qizil cho‘g‘.

Bola durbinni joyiga qo‘yib, saroydan chiqarkan, bobosining egar-jabduqli otni hovlidan olib o‘tib ketayotganini ko‘rib qoldi.

Bola bobosining oldiga chopaman deb turgandi, uni O‘razqulning qichqirig‘i to‘xtatdi. O‘razqul ichki ko‘ylakda, yelkasiga po‘stin tashlagan, basharasi sigirning shishgan yeliniday qip-qizil edi.

— Ey! — dag‘dag‘a bilan qichqirdi u Mo‘minga. — Otni qayoqqa olib ketyapsan? Qani, joyiga kiritib qo‘y. Sensiz olib chiqamiz. Qo‘lingni tegiza ko‘rma. Endi sen bu yerda hech kim emassan. Men seni ishdan bo‘shataman. Xohlagan tomoningga jo‘na.

Bobo alamli kulimsirab, otni qaytarib otxonaga olib kirdi. Mo‘min qo‘qqisdan behad keksayib va cho‘kib qolgandek bo‘ldi. U chorig‘ini shapillatib, atrofga boqmay borardi.

Bola bobosi tortgan jabrdan bo‘g‘ilib, yig‘laganini hech kimga ko‘rsatmaslik uchun daryo qirg‘og‘i bo‘ylab chopib ketdi. Oldidagi so‘qmoqni tuman bosganidan goh ko‘z ilg‘amas, goh yana oyog‘i ostida ko‘rinib qolardi. Bola ko‘z yoshlarini oqizib chopib borardi. Mana uning suyukli xarsanglari: “tank”, “bo‘ri”, “egar”, “yotoq tuya”. Bola ularga hech nima demadi: ular hech nima tushunmaydi, joyida qotib turgani-turgan. Bola faqat “yotoq tuya”ning o‘rkachini

quchoqladi va sarg'ish toshga engashib, ilojsiz dard-u hasrat o'tida o'rtanib ho'ngrab yig'ladi. U yig'lay-yig'lay yuragini bo'shatdi va tinchlandi.

Oxiri boshini ko'tarib, ko'zini artdi-da, oldinga qarab dong qotib qoldi.

Naq uning ro'parasida, narigi qirg'oqda, suvda uchta bug'u turardi. Haqiqiy bug'ular. Tirik. Ular suv ichgani kelgan, endi tashnalikni qondirganga o'xshardi. Bittasi — eng katta shoxlisi yana suvga boshini egib suv simirar ekan, suvga go'yo shoxlarini oynada ko'rmoqchi bo'lib tikilayotgandek tuyulardi. U qo'ng'ir tusli, ko'krakdor va kuchli edi. Boshini silkitganda yungli, oqish labidan tomchilar sachrab tushdi. Erkak bug'u quloqlarini qimirlatib bolaga diqqat bilan razm soldi.

Lekin hammasidan ham ko'ra mayda shoxli, ikki biqini do'ppaygan oq bug'u bolaga ko'proq tikildi. Uning shoxlari kaltaroq, lekin juda chiroyli, xuddi Shoxdor ona bug'uning o'zginasi edi. Ko'zlari shahlo, tip-tiniq. O'zi esa har yili bittadan qulunlaydigan qomatdor biyaga o'xshaydi. Shoxdor ona bug'u bu xum kalla, shalpang quloq bolani qayerda ko'rganini eslayotganday, unga ko'z uzmay qarab turdi. Uning ko'zlari namli yaltirab, uzoqdan yonib turardi. Burnidan yengil hovur ko'tarilardi. Uning yonginasida shoxsiz bug'ucha orqasini o'girib tolning novdasini kemirardi. Uning hech nima bilan ishi yo'q. Semiz, g'ayratli, quvnoq. U birdan novda kemirishni qo'ydi-da, dikirlab yelkasi bilan ona bug'uga turtinib ketdi va uning atrofida o'ynoqlab, erkalana boshladi. O'zining shoxsiz boshini Shoxdor ona bug'uning biqiniga ishqaladi. Shoxdor ona bug'u bo'lsa hamon bolaga tikilib turardi.

Bola nafasini ichiga yutib, toshlar panasidan chiqdi va xuddi tushdagiday, qo'llarini oldinga cho'zib qirg'oqqa, suvning o'ziga yaqin keldi. Bug'ular hech bir hurkmadi, narigi qirg'oqdan unga bamaylixotir qarab turaverdi.

O'rtada, suv ostidagi toshlar ustidan irg'ishlab, tezoqar, ko'mko'k tiniq daryo qaynab oqib yotardi. Agar ularni ayirib turgan shu daryo bo'lmaganda go'yo bug'ularning oldiga borib ularga qo'l tekkizish mumkinday edi. Bug'ular tekis, toza shag'al ustida turishardi. Ularning orqasida, shag'al tugagan joyda zich o'rmon-

ning kuzgi xazonrezgisi alvon tusda tovlanardi. Undan yuqorida — jar tepasida qarag'ay va tog' teragi yal-yal yonadi. Undan ham yuqoriroqda cheksiz o'rmon-u tog' tizmasidagi oppoq qor ko'zga tashlanadi.

Bola ko'zlarini yumdi va yana ochdi. Ko'z oldida hamon o'sha manzara, oltin yaproqli daraxtzordan sal beriroqda, top-toza shag'al ustida hamon o'sha ertaklardagi bug'ular turardi.

Mana ular burildi-da, tizilgancha shag'aldan o'rmon tomonga yurib ketdi. Oldinda — katta bug'u, o'rtada shoxsiz bug'ucha, ular ortida Shoxdor ona bug'u. U qayrilib, bolaga yana bir bor qarab qo'ydi. Bug'ular daraxtzorga kirib, butalar oralab ketdi. Ular tepasida qizil novdalar chayqalar va oltin yaproqlar ularning tarang va silliq yelkasiga to'kilardi.

Keyin ular so'qmoqdan jar tomon yuqoriga ko'tarildi va shu yerda to'xtadi. Bolaga go'yo bug'ular yana qarab turgandek tuyuldi. Katta bug'u bo'ynini cho'zib va shoxlarini orqasiga tashlab xuddi karnayday sado soldi: "Ba-ba!" Uning ovozi jar va daryo ustida uzoq aks sado berib taraldi: "A-a!"

Shundagina bolaning hushi joyiga keldi. U oyog'ini qo'lga olib tanish so'qmoqdan uyga chopib ketdi. U jonining boricha chopardi. Hovlidan g'izillab o'tib, eshikni lang ochib, entikkancha, ostonadan turib qichqirdi:

— Bobo! Bug'ular keldi! Bug'ular! Ular shu yerda!

Bir burchakda g'amgin va jimgina o'tirgan Mo'min bobo unga bir qarab qo'ydi-yu, hech nima demadi, gap nima haqda ekanligini aniq tushunmadi.

— O'chir, ovozingni! — do'q qildi kampir. — Kelsa kelibdi-da, hozir ulardan ham boshqa tashvish ko'p.

Bola jimgina chiqib ketdi. Hovli kimsasiz edi. Kuz quyoshi g'ira-shira yalang'och tog' tizmalari — Qorovultog' ortiga botdi. Quyosh haroratsiz quyuq shafag'i bilan tog'larni lola rangiga burkardi. Muz qotgan shafaq bu yerdan kuzgi tog' cho'qqilariga beqaror shu'la sochib turardi. O'rmonga g'ira-shira qorong'ilik cho'kdi.

Izg'irin turdi. Bola eti uvushib qaltiray boshladi.

To‘shakka kirganida ham eti uvushishi qolmadi. Anchagacha uxlay olmadi. Hovliga allaqachon qorong‘ilik cho‘kkan. Boshi zirqirardi. Lekin u miq etmasdan yotardi. Uning og‘rib qolganini hech kim bilmasdi. Unutgandilar.

Bu yerda uni unutmay ham nima qilishsin!

Bobo butunlay tinchini yo‘qotib qo‘ydi. O‘zini qo‘yarga joy topolmasdi. Goh tashqari chiqar, goh ichkari kirar, goho achinish bilan chuqur nafas olib o‘tirib olar, goho turardi-da, qayergadir ketardi. Kampir bo‘lsa cholga dakki berar va ayni paytda u ham tinmay goh u yoqqa, goh bu yoqqa yurar, hovliga chiqar va yana zum o‘tmay qaytib kirardi. Hovlida qandaydir noaniq, uzuq-yuluq ovoz eshitildi, kimningdir shoshilinch oyoq sharpasi, kimningdir so‘kinishi quloqqa chalinardi, aftidan, O‘razqul yana so‘kina boshlagandi, allakim entikib-entikib yig‘lardi...

Bola o‘rinda jimgina yotar, barcha ovoz va oyoq sharpalaridan, uyda va hovlida yuz berayotgan butun voqealardan charchog‘i ortar edi.

U ko‘zini yumib oldi. O‘zining yolg‘izligini, unutilganini sezdirmay, bugun ko‘pdan beri orzu qilib yurgan narsasini ko‘rganini eslay boshladi. U katta daryo qirg‘og‘ida turardi. Suv shunchalik tez oqardiki, unga uzoq tikilib turish mumkin emasdi, ko‘z tinib, bosh aylanib ketardi. Daryoning narigi qirg‘og‘ida esa unga bug‘ular qarab turardi. U kechga yaqin ko‘rgan o‘sha uchala bug‘u hozir ham o‘sha joyida edi. Hamma-hammasi uning ko‘z oldida qayta takrorlana boshladi. Shoxlari katta erkak bug‘u boshini suvdan ko‘targanda uning namli lablaridan yana o‘sha suv tomchilari oqib tushdi. Shoxdor ona bug‘u esa xuddi avval ko‘rgani singari mehribonlik bilan tikilib turardi. Uning ko‘zlari katta-katta, qop-qora va namli edi. Bola hayratda qoldi, Shoxdor ona bug‘u xuddi odamlarga o‘xshab, xuddi bobosi singari g‘amgin va ayanchli xo‘rsinar edi. Keyin ular butalar orqali daraxtzorlarga kirib ketdi. Bug‘ular ustida qizil novda chayqalar va oltin yaproqlar ularning tarang, silliq yelkasiga uchib tushardi. Ular jar bo‘yiga ko‘tarilib, shu yerda to‘xtadi. Katta bug‘u bo‘ynini cho‘zib, shoxlarini yelkasi osha

orqasiga tashlab "Ba-ba!" deya karnayday sado soldi. Bola uning ovozi daryo ustida uzoq yangrab turganini eslab, o'zicha jilmayib qo'ydi. Shundan keyin bug'ular o'rmonga kirib, g'oyib bo'ldi. Lekin bola ulardan ajralishni istamasdi. U o'zi istagan narsalarni yana ko'rish uchun xayol sura boshladi.

Yana tezoqar ulkan daryo ko'zi oldidan shiddat bilan oqib o'ta boshladi. Oqim tezligidan uning boshi aylandi. U bir sakradi va daryo ustidan uchib o'tdi. Hamon qumloqda yotgan bug'ular yaqiniga yengil va ohista qo'ndi. Shoxdor ona bug'u uni yoniga chaqirdi:

— Sen kimning bolasisan?

Bola indamadi. U kimning bolasi ekanligini aytishga uyalardi.

— Biz bobom bilan seni juda yaxshi ko'ramiz, Shoxdor ona bug'u. Biz seni anchadan beri kutayotgan edik, — dedi.

— Men ham seni bilaman. Sening bobongni ham. U yaxshi odam, — dedi Shoxdor ona bug'u.

Bola sevinib ketdi. Lekin o'z minnatdorchiligini qanday bayon etishni bilmasdi.

— Istasang, baliqqa aylanaman-u, daryo bo'ylab suzib Issiqko'lga, oq kemaga yetib boraman, — dedi bola to'satdan.

U buning uddasidan chiqa olardi. Biroq Shoxdor ona bug'u unga hech nima demadi. Shunda bola yechina boshladi va xuddi yozdagidek, daryo yoqasida tolning shoxidan ushlab, suvga tushdi. Suv issiq va dimiqqan edi. U ko'zi ochiq holda suv tagidan suzib ketdi. Son-sanoqsiz oltin qum donachalari mayda suv osti o'tlari bilan qo'shilib girdob hosil qilardi. Uning nafasi bo'g'ila boshladi. Issiq oqim esa uni hamon olib ketardi.

— Yordam ber, Shoxdor ona bug'u, yordam ber menga, men ham sening farzandingman, Shoxdor ona bug'u! — deya baqirdi u.

Shoxdor ona bug'u uning ortidan qirg'oq bo'ylab yugurdi. U shunday tez yugurdiki, havo vizillab ketdi.

Bola ustidagi ko'rpani otib tashladi va darhol yengil tortdi. U terlab-pishgan edi. Lekin bunday paytlarda bobosi uni yana yaxshiroq o'rab qo'yishini eslab, ko'rpaga o'ralib oldi. Uyda hech kim yo'q edi. Chiroq piligi yonib tugagan, shuning uchun ham u xonani xiragina yoritib turardi. Bola o'rnidan turmoqchi, suv ichmoqchi bo'ldi, lekin tashqaridan qandaydir keskin ovoz eshitildi.

Kimdir birovga baqirdi, allakim yig'ladi, kimdir uni yana yupantirdi. G'ala-g'ovur, oyoq sharpasi eshitildi. Keyin naq deraza tagidan uh tortib ikki kishi o'tdi. Ular bir-birini yetaklab borayotgandek edi. Eshik taraqlab ochildi, kampir jahl bilan harsillaganicha Mo'min boboni uy ichiga itarib yubordi. Bola bobosining bunchalik qattiq qo'rqqanligini hech qachon ko'rmagan edi. Aftidan, u hech narsani anglamasdi. Cholning ko'zlari besaranjom javdirardi. Kampir uni ko'kragidan itarib, o'tirishga majbur qildi:

— O'tir, o'tir, ahmoq chol, so'ramasa aralashib nima qilasan. Birinchi marta shunday bo'lyaptimi ularda. Hammasi yaxshi bo'lsin desang, tumshug'ungni suqmay tek o'tir. Nima desam, shuni qil. Eshityapsanmi? U biz bilan do'stlashmoqchi emas, balki dunyodan bezdirmoq-chi, tushunyapsanmi? Keksayganda qayerga ham boramiz? Qayerga? — Kampir shunday dedi-yu, eshikni taraqlatib yopib, shoshganicha chiqib ketdi.

Uy yana jimib qoldi. Faqat cholning xirillagan, uzuq-yuluq nafas olishi eshitilib turardi. U o'choq yonida cho'nqaygancha boshini qaltirayotgan qo'llari orasiga olib o'tirardi. Birdan chol tiz cho'kdi va qo'llarini cho'zib, kimgadir zorlangancha iltijo qila boshladi:

— Ol meni, olib ket, bu tolei pastni! Unga farzand ato qil! Unga qarasam yurak-bag'rim qon bo'ladi. Hech bo'lmasa bittagina tirnoq ato et, rahming kelsin bizga...

Chol yig'lagancha gandiraklab o'rnidan turdi-da, devorni ushlab borib, eshikni ochdi. U tashqari chiqdi, eshikni yopdi va eshik ortida kafti bilan og'zini berkitib ich-ichidan o'ksinib yigladi.

Bola nochor ahvolda qoldi. U yana qaltiray boshladi. O'zini goh issiqqa, goh sovuqqa otardi. U turmoqchi, bobosi yoniga bormoqchi bo'ldi. Lekin qo'l-oyoqlari unga itoat qilmas, boshi zirqirab og'rirdi. Chol eshik orqasida yum-yum yig'lar, hovlida esa yana badmast O'razqul to'polon ko'tarardi, Bekey xola dod-faryod solib yig'lardi. Ikki tomonni ham Guljamol bilan buvi yalinib-yolvorib tinchitishdi.

Bola o'z xayol daryosiga cho'mgan edi.

U yana o'sha tezoqar daryo yoqasida. Ikkinchi sohilda, shag'al ustida esa xuddi o'sha bug'ular turibdi. Shunda bola iltijo qildi: "Shoxdor ona bug'u, Bekey xolaga shoxingda beshik olib kel.

Sendan o'tinib so'rayman, ularga beshik olib kel. Ularda ham farzand bo'lsin". O'zi bo'lsa suv yuzasidan Shoxdor ona bug'u tomon yugurgilab ketdi. U suv yuzasidan chopib borar ekan, qulab tushmasdi, shu bilan birga, sohilga ham yaqinlasholmasdi, xuddi bir joyda depsinib turib qolgandek edi. U hamma vaqt Shoxdor ona bug'uga yalinib-yolvorardi. "Sen shoxingda beshik olib kel. Shunday qilginki, bobomiz yig'lamasin, shunday qilginki, O'razqul amaki Bekey xolani urmasin, shunday qilginki, ularda farzand tug'ulsin. Men hammalarini sevaman, O'razqul amakini ham sevaman, sen unga faqat farzand ber. Ularga shoxingda beshik olib kel..."

Bolaga uzoqdan qo'ng'iroqcha jaranglaganday eshitildi. U tobora kuchliroq jaranglardi. Ona bug'u tog' bo'ylab yugurardi, u beshikni — qayindan yasalgan qo'ng'iroqchali bola beshigini bandidan shoxlarida ko'targancha keltirayotgan edi. Beshik qo'ng'iroqchasining jarangi hamma yoqqa tarala boshladi. Shoxdor ona bug'u juda shoshilayotgan edi. Qo'ng'iroqcha ovozi tobora yaqinlasha boshladi.

Bu nimaning ovozi? Qo'ng'iroqcha jarangiga motorning uzoqdan gurillagan ovozi jo'r bo'ldi. Qayerdadir yuk mashinasi kelardi. Mashinaning gurillashi tobora kuchayib, aniqroq eshitilardi, qo'ng'iroqchaning jarangi esa xuddi undan cho'chiganday uzuq-yuluq eshitila boshladi, ko'p o'tmay esa uni motorning gurillashi butunlay bosib ketdi.

Bola temirlarni sharaqlatib, hammayoqni larzaga solib hovliga og'ir mashina kelib to'xtaganini eshitdi. It hurigancha tashqariga otildi. Deraza oynasiga bir zum chiroq yorug'uning aksi tushib turdi-yu, shu zahotiyoq o'chdi. Ayni chog'da motorning ovozi ham jimib qoldi. Kabina eshigi taraqlab yopildi. Kelgan kishilar, aftidan, uchovlon bo'lsa kerak, o'zaro gaplashib, bola yotgan deraza yonidan o'tib ketishdi.

— Seydahmad keldi, — birdan Guljamolning quvonchli ovozi yangradi, uning eri tomon shoshilayotgani eshitilib turardi. — Biz bo'lsak kutaverib, toqatimiz toq boidi!

— Assalomu alaykum, — javob qilishdi unga notanish kishilar.

— Xo'sh, tinch o'tiribsizlarmi? — so'radi Seydahmad.

— Shukur. Nega muncha kech?

— Shunisiga ham shukur. Sovxozgacha yetib keldim, yo'lovchi mashinalarni kutaman-kutaman, qani kela qolsa. Hech bo'lmasa Jilisoygacha yetib olsam deyman. Bir mahal mana bular yog'och olib ketgani bizning tomonimizga kelishayotibdi, — deya hikoya qilardi Seydahmad. — Tog' oralig'i qorong'i. Yo'lni o'zing bilasan...

— O'razqul qani? Uydami? — qiziqib so'radi kelganlardan biri.

— Uyda, — ikkilanib dedi Guljamol. — Sal tobi qochibdi. Tashvishlanmanglar. Bizda tunab qolasiz, joy bo'lsa bor. Yuringlar.

Ular rozi bo'lishdi. Lekin bir necha qadam bosgach, to'xtab qolishdi.

— Assalom, oqsoqol. Assalomu alaykum, boybicha.

Kelganlar Mo'min bobo va kampir bilan salomlashishdi. Chol bilan kampir ham uyatga qolmaslik uchun ularni hovlida kutib olishdi. Balki O'razqul ham uyalar? Ishqilib, o'zini va boshqalarni uyatga qo'ymasin-da.

Bola biroz tinchlandi. Umuman, u o'zini yengil his eta boshladi. Boshi ham unchalik og'rimayotgan edi. Hatto o'rnidan turib, mashinani ko'zdan kechirmoqchi bo'ldi: u qanaqa, to'rt g'ildiraklimi yoki olti g'ildiraklimi? Yangimi, eskimi? Pritsepi qanaqa? O'tgan yozda ularning uyiga hatto harbiy yuk mashinasi ham kelgandi — g'ildiraklari baland, xuddi tumshug'u kesib olingandek edi. Yosh soldat shofyor bolani kabinaga o'tirg'izgan edi. Qanday yaxshi! Oltin rang pogonli harbiy kishi esa O'razqul bilan birga o'rmonga tushib ketishdi. Qanaqasi bu? Hech bunaqasi bo'lmagandi-ku.

— Sizlar josusni izlayapsizmi? — so'radi bola soldatdan. U jilmayib qo'ydi.

— Ha, josusni izlayapmiz.

— Biznikiga hali bironta ham josus kelgani yo'q, — dedi bola g'amgin.

Soldat kulib yubordi.

— Nimaga kerak u senga?

— Men uni izidan quvlab, tutib olardim.

— Obbo izquvar-e, hali yoshlik qilasan.

Oltin rangli pogonli harbiy kishi O'razqul bilan o'rmonni aylanib yurishganda, bola shofyor bilan gaplashib oldi.

— Men hamma mashinalarni, hamma shofyorlarni yaxshi ko‘raman, — dedi bola.

— Nima uchun? — qiziqib so‘radi shofyor.

— Mashinalar — yaxshi, kuchli va tez yuradi. Ulardan yoqimli benzin hidi keladi. Shofyorlar bo‘lsa yosh, ularning hammasi ham Shoxdor ona bug‘uning bolalari.

— Nima? Nima? — tushunmadi soldat. — Qanday Shoxdor ona?

— Sen hali bilmaysanmi?

— Yo‘q. Bunaqa g‘aroyibotni hech qachon eshitmaganman.

— Sen o‘zing kimsan?

— Men qarag‘andalik qozoqman. Shaxtyorlar maktabida o‘qiganman.

— Buni so‘rayotganim yo‘q, sen kimning farzandisan?

— Ota-onamni.

— Ular kimniki?

— Ular ham ota-onasining farzandlari.

— Ular-chi?

— Ey, og‘ayni, shu zaylda to‘xtovsiz savol berib, surishtiraverish mumkinmi, axir.

— Men bo‘lsam Shoxdor ona bug‘u farzandlarining farzandiman.

— Buni kim aytdi senga?

— Bobom.

— Harqalay, to‘g‘ri emas, — soldat ikkilanib, bosh chayqadi.

Bu katta boshli, shalpangquloq bolaning Shoxdor ona bug‘u avlodi ekanligi uni qiziqtirib qo‘ydi. Soldat o‘z avlodi qayerdan tarqalganini bilmasligi ma’lum bo‘lib qolganligidangina emas, hatto yetti pushtini bilmasligidan biroz xijolat ham tortdi. Soldat faqat o‘z otasini, bobosini va bobokalonini bilardi, xolos. Boshqalari-chi?

— Senga yetti ota-bobolarning nomlarini esda tutishni o‘rgatishmaganmi? — deb so‘radi bola.

— O‘rgatishmagan. Nimaga kerak bu? Men ular haqida hech nimani bilmasam ham, hamma qatori binoyidek yashayapman.

— Bobom, agar odamlar o‘z ota-bobolarini bilmasalar, ular aynib ketadi, deydi.

— Kim ayniydi? Odamlarmi?

— Ha.

— Nima uchun?

— Bobom aytadiki, unda hech kim yomon ishlardan hazar qilmaydi, chunki bolalar va bolalarning bolalari ham uni eslamaydi. Shuningdek, hech kim yaxshi ish ham qilmaydi. Chunki, baribir, bolalar uning yaxshi ishlari haqida eslamaydi-da.

— Bobong qiziq ekan-ku! — Soldat chinakam hayratda qoldi. — G'aroyib. Ammo u sening boshingni bo'lmag'ur narsalar bilan gangitib qo'yayotganini bilmasa kerak. Axir, sening boshing katta-ku... Quloqlaring ham shunchalik kattaki, xuddi bizning poligonimizdagi lokatorlarga o'xshaydi. Sen uning gaplarini tinglama. Kommunizmga boryapmiz, kosmosga uchyapmiz, u bo'lsa seni nimaga o'rgatyapti? Uni bizga, siyosiy mashg'ulotga olib borishsa bormi, bir zumda ma'lumotli qilib qo'yardik. Sen o'sib, o'qib-o'rganib olganingdan so'ng bobongdan voz kechib qo'ya qol. U nodon, madaniyatsiz kishi.

— Yo'q, men hech qachon bobomni tashlab ketmayman, — e'tiroz bildirdi bola. — U yaxshi.

— Hozircha shunday. Keyinroq tushunib olasan.

Hozir ovozlarga quloq solib turar ekan, bola o'sha harbiy mashinalarni esladi. U o'shanda soldatga nima uchun bu yerdagi shofyorlar, ayniqsa, u bilgan shofyorlar Shoxdor ona bug'uning farzandlari ekanligini yaxshilab tushuntirib berolmagan edi.

Bola unga to'g'risini aytdi. Uning so'zlarida hech qanday uydirma yo'q edi. O'tgan yili xuddi shunday kuz pallasida, ehtimol, sal kechroqmidi, pichan olib ketish uchun tog'ga sovxoz mashinalari kelgan edi. Ular qorovulxonaning yonidan emas, balki unga biroz yetmasdan Archadaraga olib boradigan yo'lga burilishdi so'ng yuqorilab borib, yozda o'rib qo'yilgan pichanlar tomon ketishdi. Qorovultog'dagi motorlarning mislsiz gurillashini eshitgan bola yo'lning ayrilishiga qarab chopib ketdi. Birdaniga shuncha mashina! Birining ketidan biri tizilishib ketgan. Butun bir kolonna. U mashinalardan o'n beshtachasini sanadi.

Havo aynib turibdi. Bugun-erta qor yog'ib qolish siyog'i bor. Unda "xayr, xashaklar, kelgusi yilgacha" deyaverish mumkin. Bu joylarda pichanni o'z vaqtida tashib olmasang, keyin dog'da qola-

san. O'tib kelolmaysan bu yerga. Aftidan, sovxozda turli xil ishlar ko'payib, vaqt ziq kelib qolganligi uchun o'rib tayyorlab qo'yilgan pichanni bir yo'la tashib keltirishga qaror qilingan edi.

Biroq bola buni bilmasdi. To'g'risini aytganda, uning nima ishi ham bor? U hovliqib, quvonganidan har bir mashinaning qarshisiga chiqdi, biroz kim o'zarga chopishdi so'ng boshqasini qarshi ola boshladi. Yengil yurib borayotgan yuk mashinalarining hammasi yap-yangi, kabinalari chiroyli, oynalari esa keng edi. Kabinada yosh yigitlar o'tirishibdi. Ularning hammasi bir xilda murtsiz, ayrim kabinalarda esa ikkitadan o'tirishibdi. Bu sherik bo'lib o'tirganlar pichanni yig'ish va bog'lash uchun borishayotgan edi. Ularning hammasi bolaga chiroyli, quvnoq, jasur bo'lib tuyuldi.

Umuman-ku, bola yanglishmagandi. Haqiqatda ham shunday edi. Mashinalar soz edi, ular Qorovultog'dagi shag'alli, zarang yo'ldan o'tgach, yelday uchib borardi. Bolalarning vaqti chog' edi — havo ham yomon emasdi, bu yerda yana qayoqdandir paydo bo'lib qolgan shalpangquloq, katta boshli tirmizak bola yoshlik sho'xliklarini ichiga sig'dirolmay quvonganidan har bir mashina qarshisida girdikapalak bo'lardi! Bola yana ko'proq sevinsin va sho'xlik qilsin uchun uning xatti-harakatlariga kulmasdan, hazil aralash qo'l silkib, po'pisa qilmasdan bo'larmidi...

Eng oxirida kelayotgan yuk mashinasi hatto to'xtadi ham, kabinadan pogonsiz, harbiy furajkasiz, ammo kepka kiyib olgan soldat kiyimidagi yosh shofyor yigit boshini chiqarib qaradi.

— Yaxshimisan, nima qilib yuribsan bu yerda, a? — Ochiq yuz bilan bolaga ko'z qisib qo'ydi u.

— O'zim, shunday, — bamaylixotir javob berdi bola.

— Sen Mo'min boboning nabirasi emasmisan?

— Ha.

— O'zim ham shunday deb o'ylagan edim. Men ham Bug'uboy avlodidanman. Bu borayotgan bolalarning hammasi Bug'uboy avlodidan. Pichanga boryapmiz. Endigi Bug'uboy avlodlari bir-birini bilishmaydi ham, tarqalishib ketgan... Bobongga salom ayt. Qulibekni, Cho'tboyning o'g'li Qulibekni ko'rdim deb aytgin. Qulibek armiyadan qaytib kelib, sovxozda shofyor bo'lib ishlayapti ekan, degin. Xayr, omon bo'l, — xayrlashish oldidan u bolaga qan-

daydir harbiy znachok sovg'a qildi. Juda g'alati. Ordenga o'xshab ketadi.

Mashina qoplon kabi bo'kirib sheriklari ortidan shamolday uchib ketdi. Nogahon bolada Bug'uboy avlodidan bo'lgan akasi — bu oq ko'ngil, mard yigit bilan birga ketish ishtiyoqi tug'ulib qoldi. Ammo yo'l huvullab qolgan bo'lib, u uyga qaytishga majbur bo'ldi. Qaytarkan, bobosiga uchrashuv haqidagi taassurotlarini gapirib berdi. Znachokni bo'lsa ko'kragiga taqib oldi.

O'sha kuni kechqurun osmon gumbazi ostidagi tizma tog'lardan qattiq shamol — San-Tosh shamoli tura boshladi. U bo'ronga aylandi. O'rmon yaproqlari quyundek osmonga uchib chiqib tobora ko'kka o'rlar, guvillagancha tog' cho'qqisida o'ynardi. Zum o'tmay havo shunday buzildiki, ko'z ochib bo'lmay qoldi. Birdan qor uchqunlay boshladi. Ana-mana deguncha yer yuzi oq choyshabga burkandi, o'rmonlar chayqaldi, daryo jo'sh urdi. Qor tushdi, u buralib-buralib yog'ardi.

Bir amallab mollarni haydashga, hovlidagi u-bu narsalarni yig'ishtirishga, iloji boricha uyga mo'l o'tin olib kelishga zo'rg'a ulgurishdi. Keyin esa uydan chiqmay qamalib olishdi. Bunday erta tushgan izg'irin sovuqda kim ham eshikka chiqadi deysiz.

— Buning kimga keragi bor? — hayratlanib tashvishlanardi Mo'min bobo o'choqqa o'tin qalarkan. U shamolning hushtak chalishiga hamon quloq tutar, deraza oldiga borib, tashqarini kuzatardi. Darcha ortida gir aylanib yog'ayotgan qor hash-pash deguncha uyulib qolgan edi.

— O'tir o'rningga! — ming'illadi buvi. — Birinchi marta shunday bo'lyaptimi? "Buning kimga keragi bor?" emish, — taqlid qilib masxaraladi kampir. — Qish qishligini qilishi kerak-da.

— Bir kunda-ya...

— Bo'lmasa-chi? Sendan so'rab o'tirarmidi? Vaqt-soati kelibdi, yog'adi-da.

O'choq mo'risi uvullay boshladi. Bola oldin bobosiga xo'jalik ishlarida yordam berib, sovuqqa qotdi, biroq o'tin tezda qizishib yonib ketgandan so'ng uy ichi isib qoldi. Hammayoqni dud aralash qarag'ay smolasining hidi qopladi. Isinib olgach, bolaning ham ko'ngli joyiga tushdi.

Keyin ovqatlanishdi. So‘ng uxlash uchun o‘ringa kirishdi. Hovlida esa qor bo‘ralar, shamol uvullardi.

“O‘rmonda balki juda qo‘rqinchlidir”, — o‘yladi bola oyna ortidagi guvullashga quloq solib, u banogoh qandaydir anglab olish qiyin bo‘lgan ovozlarni, shovqin-suronlarni eshitib, o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoldi. Kimdir birovni chaqirdi, kimdir unga javob qaytardi. Dastlab bolaga shunday tuyulayotganday bo‘ldi. Shunday paytda qorovulxonaga kim ham kelardi? Biroq Mo‘min bobo va kampir hushyor tortishdi.

— Odamlar, — dedi kampir.

— Ha, — ishonqiramay dedi chol. Keyin bezovtalana boshladi: — Bemahalda kim bo‘ldi? — u tezgina kiyina boshladi.

Kampir ham shoshib qoldi. Turib, lampa chiroqni yoqdi. Bola ham nimadandir cho‘chib, turib kiyindi. Bu orada odamlar uyga yaqinlashib kelishdi. G‘ovur-g‘uvur, oyoq tovushlari. Noma’lum odamlar qorni g‘archillatib bosib, ayvonga kelganlarida oyoqlarini qoqib, taqillata boshladilar.

— Oqsoqol, eshikni oching! Sovqotdik!

— Kimsizlar?

— O‘zingizniki.

Mo‘min eshikni ochdi. Qorda, izg‘irin shamolda sovqotgan kishilar uyga bostirib kirib kelishdi. Bular kunduzi Archadara tomonga pichan ortishga ketgan o‘sha yosh shofyorlar edi. Bola ularni darhol tanidi. Unga harbiy znachok taqdim qilgan Qulibek ham bor edi. Ular birovni qo‘ltig‘idan ushlab olib kirishdi. U ingrardi, oyog‘ini sudrab bosardi. Uyda birdan qiy-chuv ko‘tarildi.

— Astag‘firullo! Nima bo‘ldi sizlarga? — Mo‘min bobo bilan kampir baravar tashvishlanib so‘rashdi.

— Keyin gapirib beramiz! U yoqda yana bizdan yetti kishi kelyapti. Yo‘ldan adashishmasa bo‘lgani. Qani, bu yerga o‘tir-chi. Oyog‘i qayrilib ketdi, — oqsoq yigitni pechka yoniga o‘tqizarkan, tez gapirdi Qulibek.

— Qolgan odamlaringiz qayerda? — Shoshib qoldi Mo‘min bobo. — Men hozir borib, ularni boshlab kelaman. Sen esa yugur, — dedi u bolaga. — Seydahmadga ayt, tezlik bilan elektr fonarini olib kelsin.

Bola uydan otilib chiqdi va hovliqqanidan nafasi bo‘g‘ziga tiqilib qoldi. Umrining oxirigacha u bu dahshatli daqiqani esdan chiqarmadi. Qandaydir hurpaygan, basharasi sovuq, chinqirib dahshat soluvchi bahaybat maxluq uning tomog‘idan bo‘g‘ib olib siltay boshladi. Lekin bola o‘zini yo‘qotmadi. U dahshatli changaldan sitilib chiqdi va qo‘li bilan boshini to‘sib himoya qilgancha Seydahmadning uyiga yugurdi. Hammasi bo‘lib yigirma-o‘ttiz qadamlik yo‘l unga xuddi uzoqdek bo‘lib tuyuldi. Go‘yo jangchilarga ko‘maklashmoq uchun olis yerga shamoldek yelib borayotgandek edi. Uning qalbi mardlik va jasurlik ko‘rsatish ishtiyoqi bilan to‘lib-toshgan edi. U nazarida o‘zini qudratli va yengilmas kuchga ega ekandek his etdi, hatto Seydahmadning uyiga yetib borguncha ham shunday qahramonona ishlar qilishga ulgurdiki, qoyil qolmay iloj yo‘q. U tubsiz jarliklar orqali tog‘dan tog‘ga sakrab o‘tdi, qilich bilan dushman to‘dasini yakson qildi, daryoda cho‘kayotganni, o‘tda kuyayotganni xalos etdi, qizil bayrog‘i hilpirab turgan reaktiv qiruvchi samolyotda dara va qoyalar sari undan qochib borayotgan dahshatli qora maxluqni quvdi. Uning reaktiv qiruvchi samolyoti maxluq ortidan o‘qdek uchib o‘tardi. Bola pulemyotdan o‘q uzib, “fashistlarni qir!” deb qichqirardi. Hamma joyda Shoxdor ona bug‘u uni qo‘llab-quvvatladi. Bug‘u o‘z farzandi bilan faxrlanardi. Bola Seydahmadning uy eshigiga kelib yetganda, ona bug‘u unga: “Endi mening bolalarimni, yosh shofyorlarni qutqarib qol!” — dedi. “Men ularni qutqaraman, Shoxdor ona bug‘u, azbaroyi Xudo, qasam ichaman!”, — dedi bola ovoz chiqarib va eshikni qoqa boshladi.

— Tezroq, Seydahmad amaki, biznikilarni qutqarib qolaylik, yuring! — U bu so‘zlarni shunday ta’sirli qilib aytdiki, Seydahmad va Guljamol qo‘rquvdan joyida turgancha turib qolishdi.

— Kimni qutqarish kerak? Nima bo‘ldi?

— Bobom elektr fonari bilan tezda chopib kelsin, sovxozdan kelgan shofyorlar yo‘lda adashib qolishibdi deb aytgin, dedilar.

— Ahmoq, — so‘kib berdi uni Seydahmad. — Shunday desang bo‘lmaydimi? — U otlanish uchun yugurib ketdi.

Lekin bu holat bolani hech qancha ranjitmadi. Seydahmad uning bu yerga kelguncha qanchalik jasorat ko‘rsatganini, qa-

sam ichganini qayerdan bilsin. Bola shofyorlarning yettalovi ham Mo'min bobo bilan Seydahmad tomonidan qorovulxonaning yonidan tezda topilib uyga olib kelinganda ham unchalik ajablanmadi. Shunday uchrashuv sodir bo'lmasligi ham mumkin edi-ku! Xatarning oldi olinsa, u yengil ko'chishi mumkin... Umuman olganda, bu adashgan kishilar ham topildi. Seydahmad ularni uyiga olib ketdi. Hatto O'razqulnikida tunash uchun ham besh kishi yuborildi. — Uni ham uyg'otishga to'g'ri keldi. Boshqalari esa Mo'min boboning uyiga tiqilib qolishdi.

Qor bo'roni tog'da hali ham to'xtamagandi. Bola ayvonga yugurib chiqdi va daqiqa o'tmay o'ng va so'li qaysi, baland va pasti qaysi, tushuna olmay qoldi. Havoning qovog'i soliq, go'yo doira shaklida aylanayotgandek edi. Qor esa tizza bo'yi bo'lib qolgandi.

Mo'min bobo sovxoz shofyorlarining hammasi topilib, isinib olgach va sovuqdan, xavf-xatardan qutulib ko'ngillari tinchigach, voqea tushunarli bo'lsa ham yo'lda, qor bo'ronida qanday hodisa yuz berganini sekin-asta surishtira boshladi. Yigitlar hikoya qilib berishdi, chol-kampir esa xo'rsinib-xo'rsinib qo'yishardi.

— Bay, bay-ey, — deya sodir bo'lgan hodisadan hayratda qolishar va qo'llarini ko'ksiga qo'yib Xudoga shukronalar aytishardi.

— Bunchalik yengil kiyinmasalaring-a, bolalar, — o'pkaladi kampir issiq choydan quyarkan. — Toqqa shunday kiyim bilan kelish mumkinmi, axir. Bolasizlar-da, bola. O'zingizga zeb berasiz, shaharliklardek bo'lay deysiz. Agar yo'l topa olmay ertalabgacha qolib ketganlaringizda bormi, Xudo ko'rsatmasin? Naq muzlab qolardilaringiz.

— Kim bilsin bunday bo'lishini, — deb javob berdi Qulibek. — Issiq kiyinish nega kerak? Biron narsa bo'lsa ichkarida mashina isitib qo'yadi. Xuddi uyingdagidek o'tirib, barankani aylantiraver. Samolyotda-chi, mana bu tog'lar u yerdan tepachalardek ko'rinadi — bort tashqarisida qirq daraja sovuq bo'lsa, ichkarida odamlar ko'ylakchan yurishaveradi.

Bola po'stinga o'ralib shofyorlar o'rtasida yotardi. U Qulibekning yoniga tiqilib olib kattalarning suhbatini butun vujudi bilan tinglardi. Birdan bo'ron ko'tarilib, bu yigitlar ularning uyidan boshpana izlashga majbur qilganidan hatto u xursand bo'lganini

hech kim xayoliga ham keltirmadi. U bo‘ron uzoq kunlar, hech bo‘lmaganda uch kun davom etishini ich-ichidan juda istardi. Mayli, ular shu yerda yashayversinlar. Ular bilan vaqt o‘tkazish qanday yaxshi. Qiziqarli. Bobosi, aftidan, hammasini tanirkan. O‘zlarinigina emas, otalari va onalarini ham bilarkan.

— Mana, ko‘rdingmi, — bobo nabirasiga hatto biroz g‘ururlangandek dedi, — o‘z akalaringni, Bug‘uboy avlodlarini ko‘rding. Ularning kimligini bilib olasan. Qara, qanday ular! Ey, hozirgi yigitlar bo‘ychan bo‘lib o‘sishyapti-da. Xudoyim sizlarni o‘z panohida asrasin. Qirq ikkinchi yili qishda bizni Magnitogorskka qurilishga olib kelishgani esimda...

Bobo nabirasiga yaxshi tanish bo‘lgan tarixni hikoya qilishga tutinib, ularni mamlakatning turli burchaklaridan chaqirilgan mehnat armiyasini bo‘yga qarab uzayib ketgan safga tortishganida qirg‘izlarning deyarli hammasi past bo‘yli bo‘lganligi va safning oxiriga tushib qolganligi haqida so‘zlab berdi. Yo‘qlama o‘qib bo‘linganidan so‘ng papiros chekishga ruxsat berildi. Sarg‘ishdan kelgan davangirdek bir yigit kelib, baland ovozda:

— Bular qayerdan? Manjurlarmi yo? — dedi. Ularning orasida keksa o‘qituvchi ham bor edi. U shunday javob berdi:

— Biz qirg‘izlarmiz. Biz bu yerdan uncha uzoq bo‘lmagan joyda manjurlar bilan jang qilganimizda Magnitogorskdan nomnishon ham yo‘q edi. Bo‘yimiz esa xuddi senikidek edi. Urushni tamomlaganimizdan so‘ng yana o‘samiz...

Bobo o‘sha o‘tmish voqeani esga oldi. Jilmayib, qoniqish bilan yana bir bor o‘zining tungi mehmonlariga ko‘z tashladi.

— O‘sha o‘qituvchi to‘g‘ri aytgan ekan. Shaharda bo‘lganimda yoki ko‘chada kelayotib nazar tashlayman: hozirgi avlod ilgarigisiga o‘xshamay, bo‘ychan va ko‘rkam bo‘lib yetishmoqda.

Tushungan yigitlar sekin kulib qo‘yishdi — chol chaqchaqlashishni yaxshi ko‘radi.

— Ha, bo‘ychanmiz, bo‘ychan, — dedi ulardan biri.— Mashinani bo‘lsa pastlikka ag‘darib yubordik. Shuncha kishi bo‘la turib kuchimiz yetmadi...

— Xashak yuklangan bo‘lsa, buning ustiga yana shunday qor bo‘ronida uddasidan chiqib bo‘larmidi, — ularni oqlay boshladi

Mo‘min bobo. — Shunaqasi ham bo‘ladi. Xudo xohlasa, ertaga hammasi joyida bo‘ladi. Eng muhimi, shamol tinsin.

Yigitlar boboga yuqoridagi, Archayassi tog‘idagi pichanlarga mashinada qanday yetib borganlarini gapirib berishdi. U yerda uchta katta pichan g‘arami turardi. Uchala g‘aramni ham bir yo‘la yuklashga kirishdilar. Yuklaganda ham baland qilib, hatto tomdan ham baland qilib yuklashdi. Keyin yuqoridan arqonga osilib tushishga to‘g‘ri keldi. Shunday qilib, birin-ketin hamma mashinalarga pichan yuklandi. Kabina ko‘rinmas, faqat old oynalar, kapot va g‘ildiraklar ko‘rinib turardi. Kelarga kelindimi, yana ovora bo‘lib yurmasdan, hammasini birato‘la olib ketishmoqchi bo‘lishgandi. Ular hozir olib ketishmasa bu pichanlar kelgusi yilgacha qolib ketishini bilardilar. G‘ayrat bilan ishladilar. Kimning mashinasi tayyor bo‘lsa, chetga chiqarib qo‘yib boshqasiga yuklashga yordamlashar edilar. Ular qariyb hamma xashakni yuklashdi, biroq ikki aravachasi qoldi, xolos. Chekib olishdi, kim kimning ortidan haydashini kelishib olishdi va hammalari tizilib yo‘lga tushishdi. Mashinani sekin-asta haydashdi. Qorong‘ida tog‘dan sirg‘alib ketishlariga oz qoldi. Pichan yengil yuk bo‘lsa ham olib borish qiyin, ayniqsa, tor joylarda, burum yo‘llarda xavfli.

Ular borisharkan, oldinda nima kutayotganini xayollariga ham keltirishmasdi. Ular Archa tepaligidan tushib, dara bo‘ylab ketishardi. Daradan chiqishda esa kechga yaqin bo‘ronga duch kelishdi. Qor ura boshlagan edi.

— Shundan boshlab birpasda yelkalar uvib qoldi, — deya hikoya qila boshladi Qulibek. — Birdan qorong‘ilik bosib, shunaqangi shamol urib berdiki, naq bo‘lmasa qo‘lingdan barankani tortib olgudek edi. Ana-mana deguncha mashinani ag‘darib yuborayotgandek odamni vahima bosadi. Yana buning ustiga yo‘l shunaqa yomonki, hatto kunduz kuni ham yurish xavfli.

Bola nafasini ichiga yutib, chaqnoq ko‘zlarini Qulibekdan uzmay jimgina tinglardi. Hikoya qilinayotgan o‘sha shamol, o‘sha qor oyna ortida avjiga chiqmoqda edi. Ko‘pchilik shofyorlar va yuk tashuvchilar etiklarini ham yechmay polda yotib uxlashmoqda. Ular nimani boshidan kechirgan bo‘lsalar, buni qiltiriq bo‘yinli, katta boshli, shalpangquloq bu bola ham qayta boshidan kechirdi.

Bir necha minutdan so‘ng yo‘l ko‘rinmay qoldi. Mashinalar chetga chiqib ketmaslik uchun bir-birining izidan qolmay nuqul signal berardi. Mashina derazalarini va faralarini qor bosdi. “Tozalagichlar” esa oynadagi qorni tozalab ulgura olmasdi. Kabinadan bosh chiqarib haydashga to‘g‘ri keldi. Biroq bu ahvolda qancha ham yo‘l bosish mumkin? Qor bo‘lsa zaptiga olib yog‘ardi! G‘ildiraklar og‘irlashib, deyarli joyidan jilmasdi. Kolonna tikka tepalikka yetganda to‘xtadi. Motorlar o‘kirar — lekin foydasiz edi... Mashinalar tog‘ga chiqa olmay taqqa to‘xtab qoldi. Kabinadan sakrab tushishib, bir-birlariga ovoz qilganlaricha bir mashinadan ikkinchisiga chopib o‘tishib, kolonna boshida to‘planishdi. Nima qilish kerak? Gulxan yoqish mumkin emas. Kabinada o‘tirilaversa, qolgan yonilg‘i ham yoqib bitiriladi. Usiz ham sovxozgacha arang yetib borish mumkin. Kabina isitilmasa muzlab qolish hech gap emas. Yigitlar nima qilishlarini bilmay dovdirab qolishdi. Hamma narsaga qodir bo‘lgan texnika hozir ojiz. Nima qilish kerak? Kimdir mashinalardan birining xashagini ag‘darib, ichiga kirib yotishni taklif qildi. Biroq arqonni bo‘shatish bilanoq xashakdan bir tutam ham qolmasligi aniq edi: ko‘z ochib-yumguncha bo‘ron uchirib ketardi. Bu orada mashinalar qor uyumiga tobora chuqurroq kirib borar, g‘ildiraklar ostidagi qor ancha ko‘tarilib qolgan edi. Yigitlar o‘zlarini butunlay yo‘qotib qo‘yishdi, izg‘irin suyak-suyaklaridan o‘tib ketdi.

— Bir mahal esimga tushib qoldi, oqsoqol, — deb hikoya qilardi Qulibek Mo‘min boboga. — Biz yo‘lda Archadaraga ketayotib mana bu Bug‘uboy avlodidan bo‘lgan ukamizni uchratdik. — U bolani ko‘rsatdi va erkalab uning boshini siladi. — Yo‘lda chopib yurgan ekan. Men uni to‘xtatib salomlashdim. Gaplashdik. To‘g‘rimi? Nima, hali uxlaganing yo‘qmi? Obbo, azamat-e!

Bola jilmayib bosh irg‘adi. Uning qalbi quvonch va iftixordan gursillab urayotganini birov bilganda edi. Buni yigitlar ichida eng kuchlisi, eng botiri va eng chiroylisi — Qulibekning o‘zi gapirib berdi. Mana shunaqa bo‘lsa kishi.

Bobo ham o‘choqqa o‘tin tashlarkan, uni maqtab qo‘ydi:

— U shunaqa. Gap tinglashni yaxshi ko‘radi. Angrayib quloq solishini ko‘ryapsanmi?

— O‘sha daqiqada u qanday esimga tushib qoldi, o‘zim ham bilmayman, — davom etdi Qulibek. — Bolalarga deyarli baqirib gapiraman, ovozimni bo‘lsa shamol olib qochadi. Kelinglar, qorovulxonaga yetib olaylik. Bo‘lmasa, nobud bo‘lamiz deyman. Bolalar bo‘lsa qanday yetib boramiz, deb shundoqqina yuzimga kelib qichqirishadi. Piyoda borib bo‘lmaydi. Mashinani ham tashlab ketish mumkin emas. Men bo‘lsam kelinglar, mashinani itarib dovondan olib o‘tamiz, u yog‘i qiyalik deyman. San-Toshgacha yetib borsak bo‘lgani, u yog‘iga piyoda borish ham mumkin, o‘rmonchilarimizning uyi yaqin qoladi deyman. Bolalar buni ma’qul ko‘rishdi. Qani, boshla deyishdi. Ish shunday bo‘lgach... Birinchi mashinadan boshladik: “Usmonali, kabinaga chiq!” Boshqa hammamiz mashina ortidan yelka tirab itara boshladik. Dastlab ish yurishgandek bo‘ldi. Keyin darmonsizlanib qoldik. Orqaga chekinish ham mumkin emas. Biz mashinani emas, butun tog‘ni yuqoriga ko‘tarayotgandek sezardik o‘zimizni. Ortilgan yuk ham qanaqa deng — pichan g‘arami! Faqat kuchimning boricha: “Qani! Qani!” deb baqirganimni bilaman, lekin ovozimni o‘zim ham eshitmayman. Shamol, qor — hech narsani ko‘rib bo‘lmaydi. Mashina xuddi joni bordek ingrab nola qiladi. Mashina ham, o‘zimiz ham so‘nggi kuchni sarfladik. Go‘yo yurak yorilib parcha-parcha bo‘lib uchib ketadiganga o‘xshaydi. Bosh aylanadi.

— Bay, bay, bay, — achindi Mo‘min bobo. — Rosa qiynalibsizda. Shoxdor ona bug‘u o‘z farzandlarini panohida asrabdi. Falokatdan qutqaribdi. Bo‘lmasa, kim bilsin... Eshityapsanmi? — Tashqarida hamon bo‘ron quturadi, bo‘ralab qor yog‘yapti. Bolani uyqu bosa boshladi. U uxlamaslikka harakat qilsa ham, baribir ko‘zlari yumilib ketaverdi. Uyqu aralash ora-sira chol bilan Qulibekning suhbatini tinglar ekan, bola sodir bo‘lgan voqea bilan tasavvuridagi manzarani aralashtirib yubordi. Go‘yo o‘zini ham tog‘dagi bo‘ronga kelgan bu yosh yigitlarning orasida his qildi.

Uning ko‘z oldida oppoq qor bilan qoplangan tog‘ tomon yuqorilab ketgan yo‘l gavdalanardi. Qor bo‘roni yuzni achishtiradi, ko‘zga qadaladi. Ular tom bo‘yi pichan ortilgan ulkan avtomashinani yuqoriga qarab itarishardi. Ular dovon tomon arang ko‘tarilishadi. Mashina endi butunlay jilmay qoldi, tisarila bosh-

ladi, shunday qo'rqinchli, shunday qorong'i. Shamol etni junjitadi. Bola qo'rqqanidan g'ujanak bo'lib oldi, u mashinaning orqaga surilib, yanchib ketishidan cho'chirdi. Biroq shu payt qayoqdandir Shoxdor ona bug'u paydo bo'ldi. U shoxini mashinaga tirab, uni yuqoriga olib chiqishga yordam qildi. "Qani, qani, qani!"— deb qichqira boshladi bola. Mashina sekin-asta siljiy boshladi. Ular dovonga chiqib olishdi, so'ng pastga qarab mashinaning o'zi yurib keta boshladi. Ular shu zaylda ikkinchi mashinani, keyin uchinchisini, xullas, ko'pgina mashinalarni yuqoriga itarib chiqishdi. Har gal ham ularga Shoxdor ona bug'u yordam qildi. Uni hech kim ko'rmasdi. Hech kim u bilan yonma-yon turganini bilmasdi. Bola esa ko'rib, bilib turardi. U har gal ilojsiz qolgan paytda, kuch yetmasdan qo'rqinchli bo'lib qolgan chog'da Shoxdor ona bug'u chopib kelib shoxi bilan mashinani yuqoriga surib chiqarishga yordam berganini ko'rdi. "Qani, qani, qani!" — madad berardi bola. Har gal ham u Qulibekning yonida turdi. Keyin Qulibek unga: "Rulga o'tir", — dedi. Bola kabinaga chiqdi. Mashina silkinib guvillardi. Rul bo'lsa uning qo'lida yengilgina, o'z-o'zidan xuddi u yoshligida mashina qilib o'ynagan bochka halqachasi singari aylanardi. Bola xijolatdan aziyat chekardi, rul unga o'yinchoqdek bo'lib tuyulgandi. Bir mahal mashina yonboshga qarab og'a boshladi. U gumbirlab yiqildi va parchalanib ketdi. Bola qattiq yig'lab yubordi. Juda mulzam bo'ldi. Qulibekning ko'ziga qarashga uyalardi.

— Nima bo'ldi, a, senga nima bo'ldi? — Qulibek uni uyg'otdi.

Bola ko'zini ochdi. Ko'rganlarining hammasi tushida ekanligini anglab quvonib ketdi. Qulibek bo'lsa uni qo'lida ko'tarib, bag'riga bosdi.

— Tush ko'rdingmi? Qo'rqdingmi! Seni qara-yu, yana qahramon emish! — u bolaning shamolda qotib yorilib ketgan lablaridan o'pdi. — Kel, men seni o'rmingga yotqizib qo'yay, uxlash kerak.

U bolani kigiz solingan polga, uxlab yotishgan shofyorlar o'rtasiga yotqizdi va o'zi ham uning yoniga yotdi. Qulibek bolani o'ziga yaqinroq tortib, po'stinining bari bilan o'rab qo'ydi.

Ertalab bolani bobo uyg'otdi.

— Tura qol, — sekingina gapirdi chol. — Issiqroq kiyingin. Menga yordamlashasan. Tura qol.

Deraza ortida hali tong pardasi ko‘tarilganicha yo‘q. Uydagilar hali ag‘anashib, uxlab yotishardi.

— Ma, kigiz etikni kiyib ol, — dedi Mo‘min bobo. Bobodan yangi xashak hidi kelib turardi. Demak, u otlarga xashak solib kelgan. Bola kigiz etikni kiydi va ular tashqari chiqishdi. Qor binoyigina yoqqan edi. Shamol ham tinchigandi. Faqat ahyon-ahyonda achchiq yel esib turardi.

— Sovuq! — seskanib tushardi bola.

— Hechqisi yo‘q. Havo ochilayotganga o‘xshaydi, — ming‘irladi chol. — Buni qara-ya! Birinchisidayoq shunchalik qahriga olmasa. Ha, mayli, falokat yuz bermadi...

Ular qo‘yxonaga kirishdi. U yerda Mo‘min boboning beshta qo‘yi bor edi. Chol qorong‘ida ustunni paypaslab topib chiroqni ildi va yoqdi. Qo‘ylar burilib qaradi-da, bir burchakka borib qisildi.

— Buni ushla, meni yoritib turasan, — dedi chol bolaga chiroqni tutqazarkan. — Qora to‘qlini so‘yamiz. Uy to‘la mehmon. Ular turguncha go‘sht tayyor bo‘lishi kerak.

Bola bobosiga chiroqni tutib turdi. Shamol hali ham tirqishlardan hushtak chalar, havo sovuq, tund edi. Chol avvalo eshik oldiga bir quchoq toza pichan olib kelib tashladi. Bu joyga qora to‘qlini yetaklab keldi va uni yiqitib, oyoqlarini bog‘lashdan oldin cho‘qqayib o‘tirgancha xayol surib qoldi.

— Chiroqni qo‘y. Sen ham o‘tir, — dedi bolaga u. O‘zi bo‘lsa kaftlarini ochib shivirlay boshladi: — O, avlodning katta onasi, Shoxdor ona bug‘u, qora qo‘yni sen uchun qurbonlikka, senga so‘yayotirman. Xatarli damlarda bolalarimizning omon bo‘lishi, avlodimizni oq sut berib boqqaning, saxiy qalbing, onalik mehring uchun bu. Bizni dovonlarda, toshqin daryolarda, toyg‘oq so‘qmoqlarda yolg‘iz qo‘yma. Bizni o‘z yerimizda hech vaqt tashlab ketma, biz sening farzandlaringmiz. Omin!

U fotiha o‘qib, qo‘lini yuziga tortdi. Bola ham xuddi shunday qildi. So‘ng bobo to‘qlini yerga ag‘darib, uning oyoqlarini bog‘ladi va o‘zining qadimgi osiyocha pichog‘ini qinidan chiqardi. Bola esa uni chiroq bilan yoritib turardi.

Nihoyat havo tinchidi. Quyosh chok-chokidan sitilib suzib borayotgan bulutlar orasidan bir-ikki marta cho‘chigandek nigoh tash-

ladi. Tevarak-atrofda bo'ronli tundan qolgan qing'ir-qiyshiq qor uyumlari, yanchilgan butalar, qor bosib yoy shakliga kelgan yosh daraxtchalar, qulab yotgan eski daraxtlar. Daryo ortidagi o'rmon sukut saqlab, jimgina, ma'yuslanib turardi.

Daryoning o'zi ham pasayib ketganday sohillari qor bilan ko'pchib, unchalik shovqin solmay g'amgin oqardi.

Quyosh ham beqaror bo'lib qolgan edi — goh ko'rinadi, goh yashirinadi. Biroq hech nima bolani qayg'uga solib tashvishlantirmasdi. O'tgan tundagi tashvishlar unutilgan edi. Bo'ron ham esdan chiqarilgan edi, qor bo'lsa unga xalal bermas, hatto zavqli edi. U yoqdan bu yoqqa yugurib yurdi, oyoq ostidan qor parchalari otilib chiqardi. Bola shuning uchun ham xursand ediki, uyi to'la odam edi. Shuning uchun ham quvnoq ediki, yigitlar uyqudan turib, baland ovoz bilan gapirishar, hazillashib kulishardi. U yana shundan xursand ediki, o'zlari uchun pishirilgan qo'y go'shtini ishtaha bilan yeyishardi.

Bu orada quyosh ham olislarga musaffo nur tarqata boshlagandi. Bulutlar asta-sekin tarqalib, havo ham iliy boshladi. Bemahal yoqqan qor, ayniqsa, yo'l va so'qmoqlardagisi tezda erib keta boshladi.

To'g'ri, shofyorlar va yuk tashuvchilar ketish uchun hozirlik ko'rayotganlarida bola biroz hayajonlandi. Hammalari hovliga chiqishdi, mezbonlar bilan xayrlasharkanlar, uy-joy va non-tuz uchun minnatdorchilik bildirishdi. Ularni Mo'min bobo bilan Seydahmad otda kuzatib qo'yishdi. Muzlab qolgan motorlarni isitish uchun chol otga bir bog'lam o'tin, Seydahmad esa katta bakda suv ortib olgandi.

Hammalari hovlidan chiqa boshlashdi.

— Ota, men ham boraman, meni ham olib keting, — deya bola bobosi yoniga chopqillab bordi.

— Ko'ryapsan-ku, men o'tin ortib olganman, Seydahmad bo'lsa bak ortib olgan. Qaysi birimiz olamiz seni. Nima bor senga u yerda? Qorda yurib charchaysan.

Bola xafa bo'ldi. Qovog'i osildi. Shunda Qulibek unga:

— Yur, biz bilan, — dedi va bolani qo'lidan ushlab oldi, — qaytishda bobong bilan birga kelasan.

Ular Archadaradan qiyalab o'tishadigan yo'l tomon ketdilar. Hali xiylagina qor bor edi. Bu baquvvat yigitlar bilan birgama-birga qadam tashlab borish oson emasdi. Bola toliqa boshladi.

— Qani, yelkamga o'tir-chi, — taklif qildi Qulibek.

U bolani qo'lida azot ko'tarib, epchillik bilan yelkasiga mindirib oldi va uni xuddi har kuni ko'tarib odatlangandek yurib ketdi.

— Juda evini keltiribsan-ku, Qulibek, — dedi u bilan yonma-yon borayotgan shofyor.

— Umrim uka va singillarimni ko'tarib o'tgan, — maqtanib qo'ydi Qulibek. — To'ng'ichi edim-da. Biz oilada olti kishi bo'lib, onam ham, otam ham dalada bo'lishardi. Endi bo'lsa singlim bolalik bo'ldi. Armiyadan qaytdim, uylanmagan edim, ishga ham hali joylashganimcha yo'q edi. Singlim biznikiga kel, sen bolaga yaxshi qaraysan, deydi. Qo'ysang-chi, deyman, bo'ldi, endi o'zimnikini ko'tarib yuraman...

Ular shu zaylda turli-tuman narsalar to'g'risida gapirishib borishdi. Bola Qulibekning baquvvat yelkasida rohat qilib xotirjamgina borardi.

"Mening ham shunday akam bo'lsaydi, — orzu qilardi bola, — hech kimdan qo'rqmasdim. O'razqul Qulibekning oldida bobomga baqirib yoki qo'l tekkizib ko'rsin-chi. U O'razqulni darhol tinchitib qo'ygan bo'lardi".

Pichan ortilgan mashinalar yo'l ayrilishidan ikki kilometr yuqorida turardi. Qor bilan qoplangan bu mashinalar daladagi qishki g'aramlarga o'xshab ko'rinardi. Aftidan, ularni hech kim, hech qayerga qo'zg'ata olmaydigandek.

Mana, gulxanni ham yoqishdi. Suvni isitishdi. Motorni o't oldiruvchi ruchka bilan aylantira boshladilar, motorga jon kirdi, aksirib ishlab ketdi. Shundan keyin ish tezlashib ketdi. Navbatdagi har bir mashina shatakka olib yurg'izildi. O't olib qizdirilgan mashina kolonna ortidan borib tizila boshladi.

Hamma yuk mashinalari yurgizilgach, qo'shaloq shatakka olingancha kechasi xandaqqa tushib ketgan mashinani tortib chiqarishdi. Bor odamlarning hammasi uni yo'lga chiqarib olish uchun ko'maklashdi. Bola ham yordamlashdi. U kimnidir: "Sen nega oyoq ostida ivirsib yuribsan, qani qochib qolchi, bu yerdan", de-

yishini kutib, xavfsirab turdi. Lekin hech kim bunday demadi, uni hech kim quvlamadi. Balki Qulibek unga yordam berishga ruxsat etgani uchun shunday bo'lgandir. U bu yerda hammadan kuchlisi, uni hamma hurmat qiladi.

Shofyorlar yana bir bor xayrlashishdi. Mashinalar qo'zg'aldi. Dastlab asta-sekinlik bilan, keyin tezlashib ketdi. Qorga burkangan tog'lar orasidagi yo'ldan ular karvon bo'lib, tizilishib borardi. Shoxdor ona bug'u farzandlarining farzandlari ketishdi. Ular oldilarida, yo'lda ko'rinmasdan Shoxdor ona bug'u chopib borayotganini bilishmasdi. Bolaning tasavvurida xuddi shunday edi. U shiddat bilan uzun-uzun sakrab, kolonnani olg'a boshlab borardi. Ularni og'ir yo'ldan falokat va baxtsizliklardan qo'riqlardi. Har qanday qulashlardan, har qanday ko'chmalardan, bo'ron-u tumanlardan va qirg'iz xalqi o'zining ko'chmanchilik hayotida uzoq asrlar mobaynida boshidan kechirib kelgan har qanday boshqa falokatlardan qo'riqlardi. Mo'min bobo erta tongda qora to'qlini olib kelib unga qurbon qilganida Shoxdor ona bug'udan shularni so'ramaganmidi, axir?

Ketishdi. Bola ham xayolan ular bilan birga ketdi. U kabinada Qulibek bilan yonma-yon o'tirib borardi. "Qulibek aka, — dedi bola, — oldinda Shoxdor ona bug'u yugurib boryapti". — "Yo'g'-e?" "Rostim. Ana u!"

— Nimani o'ylab qolding, nega serrayib turibsan? — Mo'min bobo uni o'ziga kelishga majbur etdi. — Mingash, uyga ketish kerak. — U otdan engashib, bolaga cho'zildi va uni egarga ko'tarib oldi. — Sovqotdingmi?— dedi chol va po'stini bilan nabirasini yaxshiroq o'rab qo'ydi.

Bola o'sha kezlarda maktabga qatnamasdi.

Endi esa og'ir uyqudan asta-sekin uyg'onib, tashvish tortib o'ylardi: "Ertaga maktabga qanday boraman? Axir mening tobim qochdi-ku, mazam yo'q..." Keyin u unutdi. Go'yo unga muallima doskaga yozgan: "Ot. Ota. Taqa" so'zlarini o'z daftariga ko'chirib yozganday tuyuldi. "Ot. Ota. Taqa. Ot. Ota. Taqa". Birinchi sinf o'quvchisi shu so'zlarni yozib butun bir daftarni to'ldirdi. U nihoyat charchadi, ko'zlari jimirlashib, juda ham isib ketdi. Ustini

ochib tashladi va usti ochiq holda yotib sovqotdi, yana ko‘z o‘ngida turli narsalar namoyon bo‘ldi. Goh u baliq bo‘lib muzdek suvda suzardi. Oq kema sari borardi. Lekin unga hech yetolmasdi. Goho qor bo‘roniga duch kelardi. Tog‘ yo‘lining tikka tepaligiga kelib pichan ortgan avtomashinalar izg‘irinli qor quyunida taqqa to‘xtab qolardi. Mashinalar xuddi odam ingragani singari ingrashardi. Lekin ular joyidan qo‘zg‘alishmasdi. Parraklar haddan tashqari tezlik bilan aylanaverganidan laxcha cho‘g‘dek bo‘lib ketgan edi. Shoxdor ona bug‘u shoxlarini kuzovga tirab, pichan ortilgan mashinalarni yuqoriga g‘ildiratib chiqarardi. Bola butun kuch-quvvati bilan unga yordamlashardi. Issiq terga botib ketdi. Bir payt beda g‘arami bolalar beshigiga aylanib qoldi. Shoxdor ona bug‘u bolaga: “Tezroq yuguraylik, beshikni Bekey xola bilan O‘razqul amakiga eltib beraylik”, — derdi. Ular yugura boshladilar. Bola orqada qolib ketdi. Biroq oldinda — qorong‘ilikda beshik qo‘ng‘iroqchasi tinimsiz jaranglardi. Bola uning ohanrabo jarangi sari chopib borardi.

U ayvonda oyoq sharpasi eshitilib, eshik ochilganda uyg‘ondi. Mo‘min bobo va kampir biroz tinchlangandek bo‘lib qaytib kirishdi. Chet kishilarning qorovulxonaga kelishi, aftidan, O‘razqul bilan Bekey xolaning tinchlanishiga majbur etdi. Balki O‘razqul mast-alastlikdan charchab oxiri uxlab qolgandir. Hovlida shovqin-suron, so‘kish ovozlari eshitilmasdi.

Yarim tunga borib tog‘ tepasida oy ko‘rindi. U eng baland muzli cho‘qqilar tepasida xiragina gardish yasab muallaq turardi. Abadiy muzliklar bilan qoplangan tog‘ tun qorong‘isida notekis qirralari bilan g‘amgin yuksalib turardi. Atrofida esa pastki tog‘ tizmalari, qoyalar, qop-qora va jimjit o‘rmonzor osoyishtalik saqlab turardi. Eng quyida esa toshdan toshga urilib, shovullagancha daryo oqardi.

Derazadan oyning nursiz shu’lasi qiya tushib turardi. U bolaga xalal berayotgandi. Bola ag‘darilib, ko‘zini qisib oldi. Buvisidan pardani tushirib qo‘yishni so‘ramoqchi bo‘ldi. Lekin aytgisi kelmadi: buvisining bobosidan jahli chiqib turgan edi.

— Ahmoq, — pichirladi u to‘shakka kirarkan. — Odamlar bilan yashashni bilmaganingdan so‘ng jim tursang bo‘lmaydimi. Boshqalarni tinglasang bo‘lardi. Sen uning qo‘lidasan-ku. Mayda

pul bo‘lsa hamki, maosh o‘shandan oqib kelib turibdi-ku! Yana har bir oyda. Moyanasiz — sen kimsan? Qarib quyilmagan chol...

Chol javob bermadi. Buvi jim bo‘lib qoldi. Keyin kutilmaganda baland ovozda dedi:

— Agar kishini oylikdan mahrum qilishsa, u odam emas, hech kim emas.

Chol yana hech nima demadi.

Bola esa uxlay olmasdi. Boshi og‘rir, o‘ylari chalkashib ketgandi. Maktab haqida o‘ylab tashvishlanardi. U hali biron kun ham o‘qishni qoldirmagan edi, endi ertaga maktabiga — Jilisoyga borolmasa qanday bo‘lishini tasavvur qila olmasdi. Bola, bordi-yu, O‘razqul ishdan bobosini haydab yuborsa, u holda buvisi tinchlik bermasligi haqida o‘ylardi. Unda ularning ahvoli nima kechadi?

Odamlar nega shunday yashashadi? Nega birovlar qahr-g‘azabli, birovlar mo‘min-muloyim! Nega baxtli va baxtsizlar bor? Nega shundaylar borki, ulardan hamma cho‘chiydi, yana shundaylar borki, ulardan hech kim hayiqmaydi. Nega birovlarning bola-chaqasi bor, birovlarda yo‘q? Nega ayrim kishilar boshqalarga maosh bermaslikka haddi sig‘adi? Ehtimol, eng katta moyana oluvchilar eng yaxshi kishilardir. Mana, bobosi oz oladi, shuning uchun uni hamma ranjitadi. E, boboga ham ko‘proq moyana berishlari uchun nima qilish kerak ekan-a? Balki o‘shanda O‘razqul cholni hurmat qila boshlarmidi.

Bu o‘y-xayollardan bolaning boshi battar sirqirab og‘ridi. U yana kechga yaqin daryo sohilida ko‘rgan bug‘ularni esladi. Tunda ularning holi ne kechdiykin? Ular nuqul sovuqda, tog‘-toshlarda, qop-qorong‘i o‘rmonlarda yashaydi. Bu nihoyatda qo‘rqinchli-ku. Bo‘rilar hujum qilib qolsa nima bo‘ladi? Bekey xolaga sehrli beshikni shoxida kim olib keladi keyin?

U tashvish aralash uyquga ketdi va uxlayotib Shoxdor ona bug‘udan O‘razqul va Bekey xolaga qayindan yasalgan beshik olib kelishni yolvorib so‘radi: “Ular ham farzand ko‘rishsin, ular ham farzand ko‘rishsin”, deb iltijo qildi. U uzoqdan beshik qo‘ng‘iroq-chasining ovozini eshitdi. Shoxdor ona bug‘u shoxida sehrli beshikni ko‘tarib olgancha shoshib kelardi...

YETTINCHI BOB

Saharda bola qo'l sharpasidan uyg'ondi. Bobosining qo'llari sovuq, daladan kelgandi. Bola beixtiyor junjikdi.

— Yot, yotaver. — Bobo kuflab qo'llarini isitdi, uning peshonasini siladi, keyin kaftini uning ko'kragi-ga, qorniga qo'ydi. — Tobing qochgan shekilli, — achindi bobo. — Issig'ing bor. Men shunchaki yotibsan deb o'ylabman. Maktab vaqti ham bo'ldi.

— Men hozir, hozir turaman, — bola boshini ko'tardi, shu payt hamma narsa ko'z o'ngida gir aylanib ketdi va quloqlari g'uvulladi.

— Turishni xayolingga ham keltirma. — Bobo bolani yotqizdi. — Sen kasalni maktabga kim olib boradi? Qani, tilingni ko'rsat-chi.

Bola o'zinikini ma'qullashga urinib ko'rdi:

— Muallima urishadi. Darsni qoldirganni juda yomon ko'radi u...

— Urishmaydi. Men o'zim aytaman. Qani bo'l, tilingni ko'rsat.

Bobo diqqat bilan bolaning tili va tomog'ini ko'rdi. Tomir urishini uzoq kuzatdi: bobosining qora mehnatda qotib ketgan qattiq qo'llari bolaning issiq, terga botgan qo'llaridan tomir urishini arang tutib oldi. Chol nimagadir ishonch hosil qildi-da, tinchlantirgan ohangda dedi:

— Xudo mehribon. Ozgina shamollabsan, xolos. Sovuq o'tgan. Bugun to'shakda yotib tur, uyqungdan oldin men sening tovoning bilan ko'kragingga issiq dumba yog'i surtib qo'yaman. Terlaysan, Xudo xohlasa ertalabgacha otdek bo'lib ketasan.

Kechagi voqealarni va yana o'zini nimalar kutayotganini eslab, cholni g'am bosdi, nabirasining to'shagida o'tirib xo'rsindi va o'ylab qoldi.

— Xudo podsho, — shivirladi xo'rsinib turib. — Qachon tegdi senga bu kasal? Nega aytmay yurding? Kechqurun chog'i?

— Kechga yaqin. Daryoning sohilida bug'u ko'rganimda. Men siz tomonga chopdim. Shundan keyin sovqotib ketdim.

Chol nima uchundir aybdor ohangda dedi:

— Ha, mayli... Sen yot, men esa boray. U o'rnidan turdi, lekin bola uni to'xtatib:

— Bobo, o'sha Shoxdor ona bug'uning o'zi-a? Xuddi sutday oppoq, ko'zlari mana bunday, xuddi odamga o'xshab qaraydi...

— Tentakkina, — jilmaydi Mo'min chol. — Ha, sen aytgandek bo'la qolsin. Balki u o'sha karomatli ona bug'udir, — dedi u past ovoz bilan, — kim bilsin? Men o'ylaymanki...

Chol gapini tugata olmadi. Eshik oldida kampir paydo bo'ldi. U hovlidan shoshilib kirdi, nimanidir payqagan edi.

— Huv anuv yoqqa bor, chol, — ostonadan turib gapirdi kampir. Mo'min bobo shu zahoti birdan qalbi cho'kib, biron yeri lat yegandek, achinarli bir holga tushib qoldi.

— U yoqda odamlar yog'ochni daryodan mashina bilan chiqarmoqchi bo'lishyapti, — dedi kampir. — Sen albatta bor, nima buyurishsa qil... Voh, esim qursin, sut hali pishirilgani yo'q-ku, — kampir xatosini payqadi-da, plitaga o't yoqib, idish-tovoqni taraqlatishga tutindi.

Cholning qovog'i osildi. Unga qandaydir e'tiroz bildirgisi, nimanidir aytgisi kelardi. Lekin kampir og'iz ochirgani qo'ymadi.

— Nimaga endi turib qolding? — g'azabga mindi kampir. — Nimaga o'jarlik qilyapsan? Sen bilan menga kim qo'yibdi o'jarlikni, boshimga bitgan balo bo'lding-ku. Ularga qarshi turishga qanday holing bor? Ana O'razqulning oldiga qanaqa odamlar kelishdi. Mashinalariyam antiqa. Ortsanglar bo'ldi, o'nta yog'ochni tog'matog' olib keta oladi. O'razqul esa bizga qiyo boqmay qo'ydi. Men uni ko'ndirish uchun qanchalik harakat qilmadim, qanchalik o'zimni yerga urmadim. Qizingni ostonaga yo'latmadi. Pushtsiz qizing Seydahmadnikida o'tiribdi. Ko'zlari shishib ketgan. U ham seni miyasi achigan chol deb qarg'ayapti...

— Yetar endi, — chol chiday olmadi va eshikka yo'l olarkan, dedi: — qaynoq sut ber, bolagina kasal bo'lib qolibdi.

— Beraman, qaynoq sut beraman, bor, bora qol, Xudo xayringni bersin. — U cholni kuzatgandan keyin ham hamon javrardi: — Nimaga bunday qiliq chiqarib qoldi? Hech qachon, hech kimga gap qaytarmasdi, mo'min-qobil, xokisor edi, mana endi bo'lsa... Tag'in O'razqulning otiga minibdi-ya, yana chopganiga kuyaymi. Buning hammasi sening kasringga, — u bola tomonga o'qrayib qaradi. — Kim uchun baloga giriftor bo'lyapti o'zi...

Keyin bolaga u jizg'irilgan yog' bilan qaynoq sut olib keldi. Sut bolaning labini kuydirdi. Kampir esa uni zo'rlar, majbur qilardi:

— Ich, issiqroq ich, qo‘rqma. Shamollashni faqat issiq bilan haydaysan.

Bola kuyib borar, ko‘zlariga yosh qalqib chiqqandi. Kampir ham birdan shafqatliroq bo‘lib qoldi:

— Xo‘p, sovut, ozroq sovutgin... Menga endi shu yetmay turgan edi, kasalingni shunday paytga to‘g‘ri kelganini qara! — xo‘rsindi u.

Bolaning qachondan beri siygisi qistardi. U o‘rnidan turib butun badanida allaqanday g‘ayritabiiy, shirin horg‘inlik sezdi. Biroq kampir buni payqagan edi:

— Nima, yozilmoqchimisan?

— Ha, — tan oldi bola.

— To‘xtab tur, hozir. Kampir uyga tog‘ora olib keldi.

Bola o‘ng‘aysizlanib teskari o‘girilib jomga choptirdi, siydigining bunday sariq va qaynoqligiga ajablanardi.

Endi u o‘zini ancha yaxshi his qildi. Boshining og‘rig‘i ham kamaydi. Bola to‘shakda tinchgina yotar, buvisining xizmatidan minnatdor bo‘lib turib, xayoldan o‘tkazdi: ertaga ertalab sog‘ayib, albatta maktabga borishi kerak. U yana maktabida yaqinda o‘zlarining o‘rmonida paydo bo‘lgan uch bug‘u haqida qanday qilib hikoya qilib berishigacha o‘ylab qo‘ydi, ya’ni bug‘ularning oq urg‘ochisi — bu o‘sha Shoxdor ona bug‘u, uning kattagina va baquvvat bolasi ham bor, ular bilan ulkan shoxli bahaybat qo‘ng‘ir bug‘u ham birga, u juda kuchli bo‘lib, Shoxdor ona bug‘u va uning bolalarini bo‘rilardan qo‘riqlaydi. U yana shular bilan birga, agar bug‘ular shu yerda qolib, hech qayoqqa ketib qolmasa, unda Shoxdor ona bug‘u tezda O‘razqul amaki bilan Bekey xolaga sehrli beshik keltirib berishini ham hikoya qilishni ko‘ngliga tugib qo‘ygan edi.

* * *

Bug‘ular esa ertalab suv ichgani tushdi. Qisqa kuz quyoshi tog‘ tizmalarining yarmiga ko‘tarilganda ular yuqoridagi o‘rmondan chiqib keldi. Quyosh ko‘tarilgan sari, pastda tog‘lar orasi shuncha yorug‘ va iliq bo‘lib borardi. Tungi g‘avg‘odan so‘ng o‘rmon jonlangan, nur va bo‘yoqlar jilva qilar edi.

Bug‘ular daraxtlar orasidan o‘tib, oftobro‘y yalangliklarda isinib, shabnamli barglarni butog‘i bilan chimdib shoshmay kelardi.

Ular o‘sha tartibda: — oldinda erkak bug‘u, o‘rtada bug‘ucha va oxirida — ikki biqini do‘ppaygan Shoxdor ona bug‘u. Bug‘ular kecha O‘razqul Mo‘min bobo bilan la’nati qarag‘ay yog‘ochni daryoga olib tushgan o‘sha so‘qmoqdan kelishardi. Sudrash natijasida chimzor yuzasida qoldirgan bir tekisdagi taram-taram izlar tog‘li qora tuproqda hali ham boyagi-boyagidek turardi. Bu so‘qmoq kechuvga, yog‘och tashlab ketilgan joyga olib borardi.

Bug‘ular bu yer suv ichishga o‘ng‘ay bo‘lgani uchun shu joyga yo‘l soldi. O‘razqul, Seydahmad va yog‘ochga kelgan ikki kishi tros bilan daryodan yog‘ochni sudrab chiqish uchun mashinani qulayroq joyga haydab kelishni ko‘zdan kechirish uchun shu tomonga kelishardi. Mo‘min bobo boshini quyi solib, imirsilab orqaroqda kelardi. U kechagi janjaldan so‘ng nima bo‘lishini, o‘zini qanday tutishini, nima qilishini bilmasdi. O‘razqul uni ishga qo‘yadimi? Kechagidek haydab solmasmikin? Agar: “Senga nima bor bu yerda? Aytdim-ku, sen ishdan bo‘shatilgansan!” desa-chi. Odamlar oldida so‘kib, uyga jo‘natib yuborsa-chi? Shubhalar cholni iztirobga solar, u azobda, arang jon hovuchlab borardi. Orqadan kampir kuzatib kelardi. U go‘yo shunchaki qiziqsinayotgandek edi. Biroq aslida u cholga soqchilik qilib borardi. Mo‘min chaqqonni O‘razqul bilan yarashtirishga, O‘razqulning kechirishiga muyassar bo‘lishi kerak edi.

O‘razqul xo‘jayinchasiga gerdayib odimlardi. Hansirab, pishillab atrofga o‘qrayib nazar tashlardi. Ko‘p ichganidan boshi zirqirab og‘rib tursa ham, u o‘zida qasoskorona qoniqish sezardi. U qayrilib qaraganida Mo‘min boboning g‘izillab kelayotganini ko‘rdi, xuddi egasidan kaltak yegan sadoqatli itning o‘zginasi. “Hechqisi yo‘q, hali mening sovunimga kir yuvmabsan. Endi senga qiyo ham boqmayman. Sen men uchun yo‘qsan. Sen hali o‘zing oyog‘imga bosh urib kelasan, — ichi qoralik bilan quvondi O‘razqul o‘tgan kecha xotinini tepib ostonadan haydab chiqarganida xotini oyog‘i ostida qanday dahshatli ovoz bilan chinqirganini eslarkan. — Mayli. Mana bularni yog‘och bilan jo‘natay, men hali ularning kunini ko‘rsataman, mayli, menga desa bir-biri bilan g‘ajishib o‘lishsin. Endi qizi otasining ko‘zini o‘yadi. Vahshiylashib ketgan naq bo‘ri-ya”, — O‘razqul kelgan kishi bi-

lan oraliq masofada gaplasha bora turib, yo'l-yo'lakay shularni xayoldan o'tkazdi.

Bu odamni Ko'katoy deb atashardi. U qop-qora, baquvvat kishi bo'lib, ko'l bo'yidan edi, kolxozda hisobchilik qilardi. O'razqulning eski qadrdoni edi. Bundan o'n ikki yil avval Ko'katoy o'ziga uy qurgandi. O'razqul yog'ochdan yordam qildi. Taxta tildirishi uchun yo'g'on yog'ochlarni arzonga sotdi. Keyin bu odam katta o'g'lini uylantirdi, yoshlarga ham uy qurdi. Yana O'razqul uni yog'och bilan ta'minladi. Endi Ko'katoy kichik o'g'lini ayirgandi va yana qurilish uchun yog'ochga muhtoj bo'lib qoldi. Yana eski oshna — O'razqul kuniga yaradi. Hayot qanchalik og'ir-a. Birini qilasan — shu bilan, ha, endi tinch yashayman deb o'ylaysan. Hayot esa yana nimanidir o'ylab chiqaradi. Shuning uchun ham O'razqulga o'xshagan odamlarsiz qo'ling hech qayoqqa yetmaydi.

— Xudo xohlasa, tezda uy to'yiga taklif qilamiz. Boring, xursandchilik qilamiz, — dedi Ko'katoy O'razqulga.

U o'z-o'zidan mag'rurlanib, pishillagancha, papirosni burqsitardi.

— Rahmat. Aytilgan joydan qolmaymiz, aytmagan joyga bormaymiz. Chaqirsang, boraman-da. Senikida birinchi mehmon bo'lishim emas. Men hozir sen kech bo'lishini kutsang qalay bo'larkin, deb o'ylayapman, qorong'ida jo'nasang deyman-da! Eng muhimi, sovxoz ichidan bilintirmay o'tib ketish. Agar sezib qolishsa, ish chatoq...

— Bu-ku to'g'ri-ya, — ikkilandi Ko'katoy. — Biroq kechgacha ancha kutish kerak-da. Sekin ketaveramiz. Yo'l yoqasida postlar yo'q-ku, bizni tekshirib ko'rsa?.. Favqulodda, militsiyaga duch kelib qolinsa yoki yana boshqa birortasiga...

— Ha-ha, bunisi ham bor, — to'ng'illadi O'razqul, jig'ildon qaynashidan va bosh og'rig'idan aftini bujmaytirib. — Yuz yil ish bilan qatnaysan, yo'lda bitta ham itga duch kelmaysan, agar yuz yilda bir marta yog'och ortib o'tsang bas, qo'lga tushasan. Hamisha shunday bo'ladi...

Har kim o'zicha o'ylab, jim qoldi. Kecha yog'ochni daryoga tashlab ketishga to'g'ri kelgani O'razqulga qattiq alam qildi. Agar yog'och tayyor bo'lganidami, tundayoq ortib bo'lishardi-da, tong

saharda mashinani jo'natib yuborardi... Eh, kecha falokatni sotib oldi-ya. Buning hammasi qari jinni Mo'minning kasriga bo'ldi, g'alayon ko'tarmoqqa qaror qildi. Qaramlikdan, bo'ysunishdan qutulmoqchi bo'ldi. Xo'p, ko'ramiz! Hammasi ham mayli-ya, ammo bu niyatingga osonlikcha erisha olmaysan...

Odamlar daryoning qarama-qarshi qirg'og'iga kelishganda bug'ular suv ichardi. G'alati zot bu odamlar — hovliqma, g'ala-g'ovurli. O'z ishlari va suhbatlari bilan band bo'lib, qarshilarida — daryoning narigi yog'ida turgan jonivorlarni sezishmadi.

Bug'ular daryo bo'yidagi ertalabki shafaq rangli butalar orasida, top-toza mayda shag'alli qirg'oqda to'piqqacha suvga botib turardi. Ular shoshmasdan, to'xtab-to'xtab qultum-qultum suv ichardi. Suv muzdek edi. Quyosh esa tepadan tobora yoqimli qizitardi. Tashnalikni qondirib, bug'ular oftobdan huzur qilardi. Yo'lda shox-butoqlardan to'kilgan quyuq shabnam yelkalarida qurirdi. Bug'ular yelkasida yengil hovur ko'tariladi. Osoyishta va saxiy edi shu kun ertasi.

Odamlar esa shunda ham bug'ularni sezishmadi. Ulardan biri mashinaga qaytdi, boshqalari esa qirg'oqda qolishdi. Bug'ular quloqlarini qimirlatib, ahyon-ahyon ulargacha yetib kelgan ovozlarni hushyor tinglab turdi va qirg'oqning u yuzida pritsepli avtomashina paydo bo'lganida etlari junjikib, qotib qolishdi. Mashina guvullab hayqirardi. Bug'ular bezovtalanib ketishga chog'landi. Lekin mashina birdan to'xtab qoldi, guvullash ham bosildi. Jonivorlar sekinladi. Harholda ular sekin-sekin joylaridan qo'zg'alaverdi — odamlar narigi qirg'oqda baqirishib gaplashishar va shoshilinch ravishda harakat qilishardi.

Bug'ular mayda toshloqdagi so'qmoqchadan sekingina jo'nashdi, ularning yelkalari, shoxlari va harakatlari ham butalar orasidan ko'rinib turardi. Odamlar shunda ham ularni payqashmadi. Faqatgina bug'ular ochiq yalanglikdagi sel yuvib ketgan quruq qumni kesib o'tayotganida, binafsha rang qum ustida, oftobning ravshan nurida, odamlar ularni ko'rib, turli holatda og'iz ochguncha angrayib qolishdi.

— Qara, qara, nima u! — birinchi bo'lib qichqirdi Seydahmad. — Bug'ular! Qayoqdan kelib qoldi bu yerga?

— Nega qichqirasan, nega to‘polon ko‘tarasan? Qanaqasiga senga bug‘u bo‘ladi, kiyik-ku ular. Biz ularni kecha ham ko‘rgan edik, — beparvo gapirdi O‘razqul. — Qayoqdan keldi emish. Keldi-da, keladigan bo‘lib qoldi.

— Bay, bay, bay! — zavqlanib ketdi Ko‘katoy va zavqidan tomog‘ini bo‘g‘ib turgan ko‘ylak yoqasining tugmalarini bo‘shatdi. — Silliqligini qarang-a, — dedi u maftun bo‘lib, — semiribdi...

— Urg‘ochisini qarang, qanaqa! Qadam tashlashini ko‘ring, — dedi shofyor ko‘zlarini chaqchaytirib. — Voh Xudo, ikki yoshli urg‘ochi bolasi. Birinchi marta ko‘rishim.

— Erkagi-chi! Shoxlarini ko‘r! Qanday ko‘tarib yurganikin? Ular hech nimadan qo‘rqishmaydi. Qayoqdan kelib qoldi bular, O‘razqul? — To‘ng‘iz ko‘zlarini chaqnatib, nafs balosida surishtirishga tushdi Ko‘katoy.

— O‘rmondan chog‘i, — javob qildi O‘razqul viqor bilan, egalik obro‘sini his qilgan holda. — Dovonning orqasidan kelgan, narigi tomondan. Cho‘chimaydi. Chunki hurkitilmagan.

— Eh, miltiq bo‘lgandami hozir! — og‘ziga kelganini gapirdi Seydahmad. — O‘n pud go‘sht qilarmidi, a?

Shu damgacha qo‘rqib-pisib bir chekkada turgan Mo‘minning sabri chidamadi:

— Nima deyapsan, Seydahmad. Ularni ovlash taqiqlangan, — dedi sekingina.

O‘razqul qosh-qovog‘ini uyib, cholga ko‘z qirini tashlab qo‘ydi. “Mening oldimda ovozingni chiqaryapsan-mi!” — nafrat bilan xayoldan o‘tkazdi u. Uni so‘kkisi va bir urib o‘ldirib qo‘ya qolgisi keldi, lekin o‘zini tiydi. Harholda begona odamlar bor.

— Befoyda o‘rgatishning keragi yo‘q, — jahl bilan so‘z qotdi u Mo‘minga qaramay. — Ular yashaydigan joyda ovlash taqiqlangan. Bizda esa ular yashamaydi. Biz bo‘lsak ular uchun javob bermaymiz. Tushunarlimi?— U o‘zini yo‘qotib qo‘ygan cholga vajohat bilan qaradi.

— Tushunarli, — itoatkorona javob qildi Mo‘min va bosh eggancha chetga chiqdi. Kampir yana yashirincha uning qo‘liga turtdi.

— Jim bo‘lsang-chi, — ta’na bilan shivirladi u. Hamma qandaydir xijolatda qolganday yerga qarab turardi.

Yana so‘qmoq orqali jo‘nab ketayotgan jonivorlar orqasidan kuzatishga tushishdi. Bug‘ular qoyaga ketma-ket ko‘tarilib borardi. Oldinda qo‘ng‘ir erkak bug‘u o‘zining qudratli shoxlarini mag‘rur tutib borar, uning orqasidan shoxsiz bug‘ucha va bu namoyishga ergashib Shoxdor ona bug‘u borardi. Qirdan siljib tushgan tuproqning tiniq qo‘ynida bug‘ular ravshan va latif ko‘zga tashlanardi. Ularning har bir harakati, har bir qadami yaqqol ko‘rinib turardi.

— Eh, qanday go‘zallik! — shodligini ichiga sig‘dira olmadi shofyor. Bu soqqako‘z yosh yigit ko‘rinishdan juda yosh edi. — Afsus, fotoapparatni olvolganimda zo‘r ish bo‘lardi-ya.

— Xo‘p, mayli, go‘zalligini qo‘ya tur, — uning so‘zini bo‘ldi norozilik bilan O‘razqul. — Hech narsaga arzimaydi. Go‘zallikka qorning to‘yarmidi. Qani, bo‘l, mashinani orqasi bilan qirg‘oqqa hayda, to‘g‘ri suvga, yoni bilan albatta. Sen esa Seydahmad, oyog‘ingni yech, — o‘z hukmidan ichida lazzatlanardi u. — Sen ham, — shofyorga buyruq qildi u. — Bo‘linglar, yog‘ochni trosga bog‘langlar. Qani ildamroq. Hali ish ko‘p.

Seydahmad etikni yechishga tutindi. Etigi unga kichikroq edi.

— Nimaga qarab turibsan, yordamlash unga, — cholni sekingina turtib qo‘ydi kampir. — o‘zing ham yech etigingni, suvga tush, — g‘azabli pichirladi u.

Mo‘min bobo Seydahmadning etigini tortdi, o‘zinikini ham bir zumda yechib bo‘ldi. Shu paytda O‘razqul bilan Ko‘katoy mashinaga komanda berishardi:

— Bu yoqqa hayda, u yoqqa hayda.

— Chapga, ozroq chapga. Mana shunday.

— Yana ozgina.

Mashinaning ko‘nikilmagan hayqirig‘ini eshitib, bug‘ular so‘qmoqda qadamini tezlatdi. Olazarak nazar tashlab, jarlikdan sakrab o‘tdi va qarag‘aylar orasiga yashirindi.

— O, g‘oyib bo‘ldi! — xatosini birdan anglab qoldi Ko‘katoy. U shunday afsus bilan entikardiki, xuddi qo‘lidagi o‘ljasidan ayrilganday edi.

— Hechqisi yo‘q, hech qayoqqa ketmaydi ular! — uning xayolidagini topib va bundan xursand bo‘lib O‘razqul kerilib qo‘ydi. — Bugun kechgacha jo‘namaysan, mening mehmonim bo‘lasan. Xu-

doning o‘zi kam qilmasin. Izzat-hurmat bilan men seni mehmon qilaman. — U xaxolab turib oshnasining yelkasiga urib qo‘ydi. O‘razqul xushchaqchaq ham bo‘la olardi.

— Xo‘p, sen aytgancha bo‘la qolsin, sen mezbon, men mehmon, — ko‘na qoldi azamat Ko‘katoy, iljayarkan yo‘g‘on sariq tishlarini ko‘rsatib.

Mashina allaqachon orqa g‘ildiraklarining yarmigacha suvga botib qirg‘oqda turardi. Chuqurroq kirib borishga shofyorning yuragi dov bermadi. Endi trosni yog‘ochga olib borish qolgan edi. Agar tros kaltalik qilmasa, yog‘ochni suv ostidagi toshlarning asirligidan tortib olish unchalik qiyinchilik tug‘dirmasdi.

Tros po‘latdan — uzun va og‘ir. Uni suv ichidan yog‘ochga tortib borish kerak. Shofyor istamaygina etigini yecha boshladi, cho‘chinqirab suvga qarab qo‘ydi. U hali qat’iy qarorga kelolganicha yo‘q: suvga etik bilan tushishga arzirmikin yoki yaxshisi yechsamikin. “Yalangoyoq bo‘lganim ma’qul shekilli, — o‘yladi u. — Baribir suv qo‘njimdan oshib ketadi. Chuqurligi sal kam songa keladi. Keyin kun bo‘yi ho‘l etikda yurish osonmi?”. Lekin u shu bilan birga hozir daryoda suv qanchalik sovuq bo‘lishini ham o‘zicha tasavvur qildi. Bu holdan Mo‘min bobo foydalanib qoldi.

— Sen yechinma, o‘g‘lim, — otilib keldi uning oldiga. — Biz Seydahmad bilan o‘zimiz tushamiz.

— E, qo‘yavering, arzimaydi, oqsoqol, — qarshilik qildi uyalib ketgan shofyor.

— Sen mehmonsan, biz shu yerning odamimiz, sen rulga o‘tir, — ko‘ndirdi Mo‘min bobo uni.

Seydahmad bilan ikki kishi po‘lat trosni o‘ramdan bo‘shatib suvning ichiga ko‘tarib kirishganda Seydahmad dodlab, boloxonali qilib so‘kindi:

— Uh, uh, suv emas, muz!

O‘razqul bilan Ko‘katoy muruvvatli kulishib, uni g‘ayratlantirishdi:

— Chida, chida! Seni isitadigan narsa topamiz!

Mo‘min bobo esa churq etmasdi. U hatto muzday sovuqni sezmadi. Ko‘zga ko‘p tashlanmaslik uchun boshini yelkalari ichiga tortib, sirg‘anchiq suv osti toshlari ustidan yalangoyoq borar-

kan, Xudodan yolg'iz bir nimani so'rardi — ishqilib, O'razqul uni qaytarmasin, ishqilib, quvib yubormasin, ishqilib, odamlar oldida haqorat qilmasin, bu ahmoq baxti qaro cholni kechirsin.

O'razqul hech nima demadi. U Mo'minni odam o'rnida ko'rmaganidan go'yo uning g'ayratiga ham e'tibor qilmaganday edi. Qalbida esa tantanavor his sezar, axir har qanday bo'lmasin isyonkor cholni bo'ysundirdi-ku. Qandaydir ichi qoralik bilan kuldi O'razqul o'zicha, — emaklab, oyog'imga yiqilding-ku. Eh, kattaroq amaldor bo'lganimdami, bundan ham kattaroqlarning shoxini qayirib qo'yardim.

Shunaqalarni tiz cho'ktirib, tuproqda emaklattirib qo'ymasmidim. Menga hech bo'lmasa kolxoznimi yoki sovxoznimi berishsa ekan. Tartibga solib qo'ygan bo'lardim. Odamlarni izdan chiqarib yuborishdi. Endi esa o'zlari voh, raisni hurmat qilishmayotir, direktorni hurmat qilishmayotir deb shikoyat qilishadi. Qandaydir cho'pon ham boshliq bilan xuddi tengdek gaplashadi. Satqai amal ket, ahmoqlar! Ular bilan shunaqa muomala qilib o'tirish kerakmi? Zamonlar bo'lgan-ku, axir, boshlar uchib ketgan, hech kim churq etmagan. Aksincha, ko'proq yaxshi ko'rishgan, ko'proq kuylashgan. Mana bu xo'p zamon bo'lgan-da! Endi-chi? Yaramaslarning eng yaramasi hisoblangan mana shu chol ham dabdurustdan gap qaytarishni o'ylab topdi. "Xo'sh, xo'sh, emakla oyog'im ostida, emakla",— badxohlik bilan kuldi O'razqul, har zamon-har zamonda Mo'min chol tomonga qarab qo'yarkan.

U esa muzday suvda xayolga cho'mib, tomirlari tortishib, Seydahmad bilan birga trosni ko'tarib borarkan, O'razqul meni kechirgan ko'rinadi, deb mamnun bo'lardi. "Sen endi men qari cholni kechir, shunday bo'lib chiqqani uchun, — xayolan O'razqulga murojaat qilardi u. — Kecha chiday olmadim. Maktabga nabiram oldiga ot choptirib ketdim. Axir u yolg'iz, mana shuning uchun ham iching achiydi-da. Mana bugun esa u maktabga ham bormadi. Tobi qochibdi nimagadir. Esingdan chiqar, kechirgin. Axir sen ham menga begona emassan-ku. O'ylaysanki, men senga va qizimga baxtni ravo ko'rmaymanmi? Xudo bersa qani, nabiramning ingalaganini eshitsam — Xudo ursin, baxtimdan ko'zimga yosh kelardi. Faqat sen xafa qilma qizimni, kechir meni. Agar ishlash bo'lsa,

toki tanimda jonim bor ekan, ishlaganim bo'lsin. Hamma ishni qilaman. Sen faqat buyursang, bas..."

Kampir qirg'oqning bir burchida tikka turib, o'zining imo-ishoralari va butun harakatlari bilan cholga: "Harakat qilgin, chol! Ko'rdingmi, u seni kechirdi. Mening aytganimni qilaver, hammasi joyiga tushadi", — derdi.

* * *

Bola uxlardi. U bir martagina allaqayerdandir otilgan miltiq ovozidan uyg'onib ketdi va yana uyquga cho'mdi. Kechagi mashaqqatli uyqusizlik va bemorlikdan so'ng bugun u birmuncha tinch va miriqib uxladi. U uyquda ekan, isitma aralash badan qaqshog'i azobini tortmay, oyoqlarini erkin uzatib to'shakda yotib dam olishning naqadar rohat ekanligini his etdi. Agar buvisi bilan Bekey xola bo'lmaganda u shu uxlagancha uxlab yotaverardi. Ular ovoz chiqarmay gaplashishga harakat qilishsa-da, idish-tovoqlarning shaqir-shuquridan bola uyg'onib ketdi.

— Mana bu katta kosani ushlagin-da, ovqat olgin, — deb jonlanib gapirdi kampir narigi xonada. — Men esa chelak bilan elakni olib kelay. Voy belim, madorim qurib ketyapti. Ozmuncha ish qildikmi? Xudoga shukur, juda xursandman.

— Eh, buvijon, nimasini aytasiz, men ham shunchalik xursandmanki, kecha shundayam jonimdan to'yib ketgandim. Agar Guljamol bo'lmaganda o'zimni o'zim o'ldirardim, — dedi Bekey.

— U haqda uni-buni deb yurasan yana, — tinchitib qo'ydi kampir. — Qalampirni oldingmi? Ketdik. Sening tinchishing uchun Xudoning o'zi yordam qo'lini cho'zdi. Ketdik, ketdik.

Uydan chiqayotib bo'sag'ada Bekey xola kampirdan bola to'g'risida so'radi:

— U hamon uxlayaptimi?

— Mayli, uxlab tura qolsin, — javob berdi kampir.

— Sho'rva tayyor bo'lganda issiqqina keltirib beramiz.

Bola ortiq uxlay olmadi. Hovlidan oyoq tovushlari va odamlarning gaplashgani eshitilib turardi. Bekey xola kulib yubordi, Guljamol va kampir ham unga qo'shilib kuldi. Qandaydir notanish ovozlar quloqqa chalindi. "Ha, bular, hoynahoy kecha oqshom kel-

gan odamlar, — deb o'yladi bola. — Demak, ular hali ketishmabdi-da". Faqat bobosi Mo'mingina ko'rinmasdi, ovozi ham eshitilmasdi. U qayoqda ekan? Nima qilyapti ekan?

Bola tashqaridagi ovozlarga quloq solib, bobosini kutib yotdi. U bobosi bilan kechagi ko'rgan bug'u haqida juda gaplashgisi kelardi. Hademay qish kiradi. Ular uchun ham o'rmonda ko'proq yem-xashak hozirlash kerak. Yeb yayrasin. Ularni shunday o'rgatish kerakki, odamlardan hech qo'rqmaydigan, to'ppa-to'g'ri daryodan o'tib hovliga kelaveradigan bo'lsin. Bu yerda ham ularga shunday xo'rak berish kerakki, ular uchun bu juda tansiq bo'lsin. Qiziq, ular hammadan ko'ra nimani yaxshi ko'rishar ekan-a? Urg'ochi bug'u bolasini o'rgatib olsang-da, u doim orqangdan qolmay ergashib yursa. Qanday ajoyib bo'lardi. Sen bilan maktabga ham birga borib kelgan bo'larmidi?..

Bola bobosini kutardi, lekin undan darak yo'q. Bir vaqt Seydahmad kelib qoldi. U nimadandir juda mamnun. Og'zi qulog'ida edi. Seydahmad kallasini chayqab o'z-o'zicha iljayardi. U yaqinroq kelganda dimog'idan spirt hidi anqib ketdi. Bola O'razqulning' o'zboshimchaliklarini, bobosi va Bekey xolaning azob chekishlarini eslatuvchi bu badbo'y hidni juda yomon ko'rardi. Lekin Seydahmad ichganda aqliy jihatdan uncha hushyor bo'lmasa ham, juda saxiy, muloyim va kishi qalbiga ozor bermaydigan hazil-mutoyibalari bilan O'razquldan farq qilardi. Bunday vaqtlarda u bilan bobosi Mo'min o'rtasida taxminan shunday suhbat ketardi.

— Nega buncha tentaklarga o'xshab kulasan, Seydahmad? Kayfing taraqmi deyman?

— Oqsoqol, men sizni shunday sevamanki. Rostini aytsam, xuddi o'z otamdek.

— E-e, seni qara-yu, sening yoshingda... Boshqalar mashina haydab yuribdi. Sen bo'lsang gapingni uddalab gapira olmaysan. Agar men sening yoshingda bo'lganimdami, hech bo'lmaganda traktor haydagan bo'lardim.

— Oqsoqol, menga armiyada komandirimiz bu ishga layoqatsizligimni aytgan edi. Biroq piyodalar safida xizmat qildim. Piyoda askarsiz ish bitmaydi-ku axir...

— Piyoda askar emish! Piyoda askar emas, ishyoqmassan. Xotining bo'lsa... Xudo ham tengiga qo'shmas ekan. Senga o'xshaganning yuztasi bitta Guljamolga arzimaydi.

— Shuning uchun ham biz er va xotin bu yerda yuribmiz-da, oqsoqol.

— Ha, seni gapga qo'ysa... Ho'kizday kuching bor, aql esa... — Umidsiz qo'l siltab qo'ydi Mo'min bobo.

— Mu-u-u, — deb ma'raganday kulib qo'ydi Seydahmad.

Shundan keyin u hovlining o'rtasida turib olib, o'zining allaqanday eshitib olgan g'alati ashulasini kuylay boshladi:

Sariq-sariq tog'lardan,
Sariq otda men keldim.
Och eshiging, ey, sariq savdogar,
Biz ichamiz sariq vinodan.

Qo'ng'ir-qo'ng'ir tog'lardan,
Qo'ng'ir otda men keldim.
Och eshiging, ey, qo'ng'ir savdogar,
Biz ichamiz qo'ng'ir vinodan...

Shu tarzda davom etib ketaverardi, chunki u ba'zan tog'dan tuyada kelgan bo'lsa, ba'zan xo'rozda, sichqonda, toshbaqada, xullas, nimaiki jonivor bo'lsa, o'shalarda kelaverardi. Mast Seydahmad bolaga hushyorligiga qaraganda yoqimliroq ko'rinayotgandek edi. Shuning uchun ham Seydahmad shirakayf bo'lib kelganda bola ochiq ko'ngillik bilan iljayib qo'yardi. — E-ha! — xitob qildi Seydahmad ajablanib. — Seni kasal deyishgan edi-ku. Ha, sen umuman kasal bo'lmaysan. Sen hovlida nega o'ynamay qolding? Bunaqasi ketmaydi. — Seydahmad bolaning to'shagiga ag'anab yotdi. Uning qo'llaridan va ust-boshidan spirt va yangi so'yilgan xom go'shtning hidi anqib turardi. U bolani quchoqlab o'pa boshladi. Uning o'sib ketgan dag'al soqoli bolaning yuzlarini timdalab achitardi.

— Bo'ldi endi, Seydahmad amaki. — Iltimos qildi bola. — Bobom qani, ko'rmadingizmi?

— Bobong anavi yoqda, — Seydahmad qo'lini havoda noaniq aylantirdi. — Biz mana shu... Yog'ochni suvdan olib chiqdik. Va

biroz isib olish uchun ichdik. Hozir esa u go'sht pishirayotir. Tur o'rningdan. Kiyimlaringni kiy, birga ketamiz. Bu nimasi! Yaxshi emas. Biz hammamiz u yerda bo'lsag-u, sen bu yerda yolg'iz yotsang.

— Bobom turmagin degan, — dedi bola.

— Qo'ysang-chi bo'lmagan gapni. Yur, tomosha qilamiz. Bu har doim bo'lavermaydi-ku. Bugun katta ziyofat. Qozon ham moy, cho'mich ham moy! Tura qol, — Seydahmad mastlarga xos qo'pollik bilan bolani kiyinishga majbur etdi.

— Men o'zim, — deb e'tiroz bildirdi boshi aylanayotganini his etayotgan bola. Biroq shirakayf Seydahmad uning so'ziga quloq solmadi. Modomiki, bola yolg'iz uyga tashlab qo'yilgan ekan, Seydahmad o'zining unga qilayotgan yaxshiligidan juda mamnun edi, ayniqsa, bugun shunday kunki, tovoq ham moy, qoshiq ham...

Gandiraklab bola ham Seydahmad bilan birga uydan chiqdi. Tashqari shamol, havo bulut. Bulutlar osmonda tez-tez bir-biriga qo'shilishib ketdi. Bola ayvondan chiqquncha havo ikki bor keskin o'zgardi. Charaqlab turgan quyoshli havoni ko'ngilni g'ash qiluvchi qorong'ilik bosdi. Bola bundan boshi og'riyotganini sezdi. Shamol yuziga gulxanning tutunini olib kelib urardi. Ko'zlari achishdi. "Bugun kir yuvishayotgan bo'lsa kerak", — o'yladi bola, chunki kir yuvish kunlarida odatda shunday gulxan yoqilib, uchala uydagi katta qora qozonlarda suv isitilardi. Bunday qozonlarni bir kishi ko'tara olmaydi. Bekey xola bilan Guljamol ikkovlashib ko'tarishardi bu qozonlarni.

Bola bunday kir yuviladigan kunni yaxshi ko'rardi. Birinchidan, bunday kunlarda gulxan uydagi singari o'choqlarda emas, balki ochiq o'choqlarda yoqilib, uning atrofida o'ynash mumkin edi. Ikkinchidan, yuvilgan kiyimlarni ilish juda gashtli bo'lardi. Oq, ko'k, qizil matolarning arqonda osilib turishi hovliga zeb berib turardi. Bola arqonda osilib yotgan kiyimlarga bildirmasdan sekingina kelib yuzlarini tekkizib o'tishni yaxshi ko'rardi.

Bu gal hovlida hech qanday yuvilgan buyumlar ko'rinmadi. Ammo katta go'sht bo'laklari bilan liq to'ldirilgan qozon ostiga kuchli o't yoqilgan bo'lib, qaynayotgan qozondan quyuq bug' ko'tarilardi. Go'sht pishib qolgan edi: go'shtning dami va gulxan-

ning isi birga qo'shilishib, ishtahani qitiqlardi. Bekey xola bo'lsa, yangi qizil ko'ylak, yangi xrom etikda gulli shol ro'molni yelkasiga tashlab olgancha qozonga engashib, cho'mich bilan ko'piklarni olib tashlayotgan edi, Mo'min bobo esa uning yonida cho'kka tushgan holda o'choqdagi yonayotgan tarashalarni ag'darib qo'yardi.

— Ana, bobong, — dedi Seydahmad bolaga. — Ketdik.

O'zi bo'lsa:

Sariq-sariq tog'lardan,
Sariq otda men keldim, —

deb endigina xirgoyi qila boshlagan edi, sochi ustarada taqir olingan, yenglari shimarilgan va qo'lida bolta ushlagancha saroydan chiqib ketayotgan O'razqulga ko'zi tushdi.

— Sen qayoqda tentirab yuribsan? — dahshatli qichqirdi u Seydahmadga qarab. — Mehmon bu yerda o'tin yorsin, — u bosh irg'ab o'tin yorayotgan shofyorni ko'rsatdi, — sen bo'lsang qo'shiq aytib yur.

— E, hozir ana-mana deguncha, boplaymiz, — tinchlantirdi uni Seydahmad, shofyorga qarab yo'nalar ekan.— Qani, uka, men o'zim.

Bola esa o'choq boshida cho'kka tushib o'tirgan bobosi tomon yaqinlashdi. U orqa tomondan kelgan edi.

— Bobo, — dedi u. Bobosi uni eshitmadi.

— Bobo, — deb takrorladi bola va bobosining yelkasiga qo'lini tegizdi. Chol o'girilib qaradi, bola bobosi mast ekanligini sezmadi. U bobosining loaqal biron marta shirakayf bo'lganini ko'rmagan edi. To'g'ri, issiqko'llik biror cholning ma'rakasida hammasi — hatto ayollarga ham ichirishardi. Biroq bobosida bunday odat hali sodir bo'lmagan edi.

Chol bolaga qandaydir begonaday, g'ayritabiiy va yovvoyi qarash qildi. Uning yuzlari qizarib ketgandi, u nabirasini ko'rib yana ham qizarib ketdi. Qizillik nim pushti rangga kirdi va shu zahotiyoq boboning yuzlari oqara boshladi. Chol shoshilib o'rnidan turdi.

— Iye, senmi? — dedi u bo'g'iq ovoz bilan nabirasini bag'riga bosib. — Iye, senmi, — bundan boshqa biron so'z ayta olmadi. Undagi to'lqinlanish bolaga o'tgan edi.

— Tobingiz qochdimi, bobo? — tashvishlanib so‘radi bola.

— Yo‘q-yo‘q. O‘zim shunday, — ming‘illadi Mo‘min.— Sen bor, o‘ynab kel. Men bu yerda o‘t yoqayapman, bu hammadan...

U nabirasini deyarli itarib yuborib, go‘yo butun olamdan yuz o‘girganday, yana o‘choqqa qarab o‘girilib oldi. U tiz cho‘kkancha, go‘yo faqat o‘t bilan bandday biron yoqqa burilib qaramasdi. Chol nabirasining tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgancha, hovlida o‘tin yorayotgan Seydahmad tomon yo‘l olganini ham ko‘rmadi.

Bola bobosiga nima bo‘lganini, umuman, hovlida nima bo‘layotganini tushunmasdi. U saroyga yaqinlashgandagina yungi yerga qaratib yoyilgan teri ustida yangi so‘yilgan molning uyib qo‘yilgan go‘shtiga ko‘zi tushdi. Terining chekkalaridan hamon xira qon tomchilari sizib tushayotgan edi. Sal nariroqda it ichak-chavoqlarni irillagancha silkilab tortardi. Uyulgan go‘sht yonida allaqanday qoradan kelgan, barvasta notanish kishi to‘nkaga o‘xshab do‘ppayib o‘tirardi. U Ko‘katoy edi. U bilan O‘razqul ikkalasi pichoqni olvolib, go‘sht maydalashardi. Ular qismlarga ajratilgan yog‘ va go‘shtlarni yozib qo‘yilgan terining turli joylariga xotirjamlik bilan, shoshmasdan irg‘itib tashlamoqda edilar.

— Maza! Hidini aytmaysanmi! — dedi yo‘g‘on ovoz bilan haligi barvasta kishi, go‘sht hidlab ko‘rarkan.

— Ol, ol, o‘z ulushingga tashla, — saxiylarcha taklif etdi O‘razqul. — Buni sening kelishing sharafiga Xudo yetkazdi. Bu har doim bo‘lavermaydi. — O‘razqul bu orada pishillab, ishdan boshini ko‘tarib, taranglashgan qornini silab qo‘ydi, uning ko‘p yeb, ko‘p ichganligi bilinib turardi. Uning nafasi qisilib xirillab qoldi, erkin nafas olish uchun boshini birdan yuqori ko‘tardi. Uning sergo‘sht, sigirning yelinidek yaltiroq yuzidan o‘ziga bino qo‘yganligi va to‘qlik alomati sezilib turardi.

Bola devor tagidagi shoxli bug‘u kallasini ko‘rib esankirab qoldi, badani muzlab ketdi. Kesilgan kalla qop-qora qon tomchilarini oqizib, changda yumalab yotardi. Bu — yo‘lda yotgan egri-bugri daraxtni eslatardi. Kalla yonida tizzadan qirqilgan to‘rtta tuyoq yotardi. Bola bu dahshatli manzarani ko‘rib cho‘chib ketdi. U o‘z ko‘zlariga ishonmasdi. Uning oldida Shoxdor ona bug‘uning kallasi yotardi. U bu yerdan qochib ketishni istardi, lekin oyoqlari unga

itoat etmasdi. U kalla-pocha qilingan oq bug'uning qarshisida turardi. Kechagina Shoxdor ona bug'u bo'lib yurgan, unga oqko'ngillik bilan suqlanib qaragan, xayolan gapirishgan va shoxida qo'ng'iroqcha taqilgan sehrli beshik keltirishni iltijo qilib so'ragani o'sha bug'u edi. Nahotki bularning hammasi nogoh shaklsiz bir uyum go'shtga, shilingan teriga, kesilgan oyoqqa va uloqtirib tashlangan kallaga aylanib qolsa. Bolaning ketishi kerak edi, lekin u toshdek qotib, bu voqeaning qanday va nega sodir bo'lganini tushuna olmay turardi. Haligi go'sht bo'layotgan qora barvasta kishi uyulib turgan go'shtning ichidan buyrakni oldi-da, uni pichoqning uchiga sanchib bolaga uzatdi.

— Ma, bola, kabob qil, lazzatli bo'ladi, — dedi u. Bola qimirlamay turardi.

— Ol! — buyruq qildi O'razqul.

Bola beixtiyor qo'lini cho'zdi, so'ng muzdek qo'lida Shoxdor ona bug'uning hali ham issig'i ketmagan yumshoq buyragini g'ijimlagancha ushlab turdi. Shu payt O'razqul oq bug'uning kallasini shoxidan ushlab ko'tarib ko'rdi.

— Eh, og'irligini qarang-a, — u kallani tebratib, og'irligini salmoqlab ko'rdi, — bitta shoxining o'zi qancha keladi-ya. — U kallani g'o'laga ko'ndalang qilib qo'ydi va boltani olib shoxini ajratishga kirishdi.

— Mana, shox! — ishlab turib gapirardi u o'tkir boltani shoxlarining tubiga qadab. — Bu sening bobongga, — u bolaga qarab ko'z qisib qo'ydi. — O'lishi bilan bu shoxni uning qabriga qo'yamiz. Qani endi kim bizga u kishini hurmat qilmaysizlar, deb ayta olar ekan. Yana nima kerak! Bunday shox uchun hatto bugunoq o'lsang arziydi! — deya boltani mo'ljalga olarkan, O'razqul xaxolab kulardi.

Shoxni osonlikcha olib bo'lmaydi. Uni olish juda qiyin edi. Mast O'razqulning boltasi nishonga borib tegmasdi, bu esa battar jahlini chiqarardi. Kalla g'o'la ustidan dumalab tushdi. Shunda O'razqul uni yerdayoq chopa boshladi. Kalla sirg'alib chiqib ketaverdi. O'razqul bolta ko'targancha uning orqasidan chopib yurdi.

Bola seskanib ketdi, har gal ketmoqchi bo'lib beixtiyor tisarilsa-da, bu yerdan ketishga o'zini majbur etolmasdi. Juda yomon

tush ko'rib, uni allaqanday dahshatli bir kuch tutib turganday edi, u o'z joyida turganicha shu narsaga ajablanar ediki, kiprik qoqmay baqrayib turgan Shoxdor ona bug'uning ko'zlari boltadan o'zini olib qochmasdi. Qo'rquvdan qisilib yumilmasdi. Kalla allaqachon loy va tuproqqa belangan bo'lsa ham, ko'z qorachig'i musaffoligicha boqib turardi, aftidan, u o'zini oiimga mahkum etgan shu yorug' jahonga tilsiz, unsiz hayratda qolib, hamon boqib turgandek edi. Bola mast-alast O'razqul bilan ko'zi-ko'ziga tushib qolishdan cho'chirdi. Shox hamon bo'sh kelmasdi. O'razqul esa borgan sari tutaqib, boltaning goh tig'i bilan, goh orqasi bilan kallaning duch kelgan joyiga urardi.

— Bunaqada shoxni sindirib qo'yasan. Bu yoqqa ber,— yaqinlashdi Seydahmad.

— Nari tur! O'zim! Qo'lingdan kelmaydi, sindirib qo'yasan! — xirillab nafas olardi O'razqul boltani qulochkashlab urarkan.

— Xo'p, xo'p, o'zing bilasan, — Seydahmad tupurgancha uyi tomon odimlab ketdi. Uning orqasidan haligi qoradan kelgan barvasta kishi borardi. U qopda o'z ulushini olib ketayotgan edi.

O'razqul molxona orqasida mast-alast holda, qaysarlik bilan Shoxdor ona bug'uning kallasini tilkalashda davom etardi. Uning bu holati uzoq kutilgan qasosini endi bajo keltirgandek tuyulardi.

— Eh, yaramas! La'nati!.. — deb xuddi jonsiz kalla eshitayotganday etigining tovoni bilan uni tepib, jahl ustida og'iz ko'pirtirgancha so'kinardi. — Kimni ahmoq qilmoqchisan! — U boltani ushlagancha kallaning tepasiga qayta-qayta xezlanib kelardi. — Dabdala qilmasam otimni boshqa qo'yaman. Mana senga! Mana senga! — Shunday deb bolta bilan kallani urdi. Kalla chirsillab yorilib, mayda suyaklar har tomonga uchib ketardi.

Boltaning tig'i ko'zga ko'ndalang kelib tekkanda bola qichqirib yubordi. Ochilib qolgan ko'z chanog'idan qop-qora quyuq suyuqlik oqib tushdi. Ko'z so'ndi, barbod etildi...

— Men bundan zo'rroq kallalarni ham maydalay olaman! Bundan boshqa shoxlarni ham sug'urib ola bilaman! — deb jazavasi tutib bo'kirardi O'razqul gunohsiz kalladan nafratlangancha.

Nihoyat bu kallaning peshona suyaklarini ham maydalashga muvaffaq bo'ldi. U endi boltani tashlab kallani oyog'i ostiga olib,

shoxdan ikki qo‘llab ushlagancha vahshiyona kuch bilan buray boshladi va shoxlarni yulib oldi. Ular sug‘urib olingan ildiz singari qarsillardi. Bu shoxlar — bolaning iltimosiga ko‘ra, O‘razqul bilan Bekey xolaga sehrli beshik keltirishi lozim bo‘lgan o‘sha Shoxdor ona bug‘uning shoxlari edi...

Bolaning ko‘ngli behuzur bo‘ldi. U burildi va qo‘lidagi buyrakni tushirib yuborib, sekingina nari ketdi. U qulab tushayotgandek yoki bo‘lmasa odamlar ko‘zi oldida qayt qilib yuborayotgandek juda qo‘rqdi. U oqarib-gezarib manglaylari yopishqoq terga botgancha o‘choq yonidan o‘tib borardi. O‘choqda lovullab o‘t yonib, qozondan burqirab qaynoq bug‘ ko‘tarilardi. Baxtsiz Mo‘min bobo bo‘lsa hamon avvalgidek yuzini o‘tga tutib, hammasiga chap berib o‘tirardi.

Bola bobosini bezovta qilgisi kelmadi. U tezroq o‘ringa yetib borishni va to‘shakka boshi bilan burkanib yotishni istardi. Qani endi hech narsani ko‘rmasa, eshitmasa, unutsa.

Qarshisidan Bekey xola chiqib qoldi. U o‘ziga oro berib yasangan, biroq yuzida O‘razqulning kaltaklashi natijasida hosil bo‘lgan ko‘m-ko‘k qontalash izlar ko‘zga tashlanib turardi. Bemavrid quvonib, jonsaraklik bilan “katta go‘shtga” yugurib kelayotgan edi.

— Senga nima bo‘ldi? — U bolani to‘xtatdi.

— Boshim og‘riyapti.

— Boshginangdan aylanay, — dedi mehri toshib va ustma-ust o‘pa boshladi.

U ham mast edi. Undan ham la’nati aroq hidi anqib kelardi.

— Boshginasi og‘ribdi-da, — ming‘irladi u rahmdillik qilib. — Jigargo‘sham mening. Balki ovqatlanging kelayotgandir.

— Yo‘q, hech narsa yemayman. Yotgim kelyapti.

— Ketdik bo‘lmasa, o‘zim yotqizib qo‘yaman. Nima, sen yakka-yu yolg‘iz yotaverar ekansanmi. Axir hamma odam biznikida. Mehmonlar ham. Go‘sht ham tayyor bo‘lay deb qoldi, — dedi u va bolani o‘zi bilan birga olib ketdi. Bular yana o‘choq boshidan o‘tib ketayotganlarida yelin singari qizarib to‘lishib ketgan holda molxonadan chiqib kelayotgan O‘razqulga ko‘zlari tushdi. U Mo‘min bobo yoniga o‘zi kesgan bug‘u shoxlarini kekkaygancha uyib qo‘ydi. Chol sapchib tushdi.

O‘razqul unga qaramasdan suv to‘la paqirni boshi uzra ko‘tardi va orqaga egilgancha egniga to‘kib-sochib icha boshladi.

— Endi o‘lsang ham bo‘laveradi, — dedi u boshini paqirdan ko‘tarib, yana paqirga tiqarkan. Bola cholning g‘o‘ldirab gapirayotganini eshitdi:

— Rahmat, o‘g‘lim, rahmat. Endi o‘lsam ham armonim yo‘q. Men uchun shunchalik izzat-hurmat...

— Men uyga ketaman, — dedi o‘zini uncha yaxshi sezmayotgan bola.

Bekey xola ko‘nmadi.

— Bir o‘zing nima qilasan u yerda. — Bolani holi-joniga qo‘ymasdan uyiga olib ketdi va burchakdagi karavotga yotqizdi.

O‘razqulning uyida dasturxon muntazir edi. Har xil taomlar muhayyo edi. Bularning hammasi bilan kampir va Guljamol band edi. Uy bilan hovlidagi o‘choq orasida Bekey xola qatnagani-qatnagan. O‘razqul bilan barzangi Ko‘katoy go‘shtni kutib, gulli ko‘rpachada yostiqqa yonboshlagancha choydan mayda-mayda ichishib o‘tirishardi. Ular to‘satdan o‘zlariga bino qo‘yib, o‘zlarini to‘ra his etishardi. Seydahmad ularga piyolaning tagida choy quyib o‘tirardi.

Bola bo‘lsa bir burchakda ipsiz bog‘langanday, betoblik zarbiga bardosh berib jimgina yotardi. Uni yana qaltiroq bosdi. U turib ketishni istardi. Biroq karavotdan tushishi bilanoq qayt qilib yuborishdan qo‘rqardi, shuning uchun ham u titrab-qaqshagancha tishini-tishiga qo‘yib, qimir etmay yotardi. Ortiqcha qimirlashdan qo‘rqardi.

Shu orada xotinlar Seydahmadni hovlidan chaqirishdi. Katta sirlangan tovoqda tog‘ singari uyulib, bug‘lanib turgan go‘shtni ko‘targancha Seydahmad paydo bo‘ldi. U uzoq kutilgan bu taomni zo‘rg‘a ko‘tarib kelib, O‘razqul bilan Ko‘katoyning oldiga qo‘ydi. Xotinlar uning orqasidan yana turli xil ovqatlarni keltirishdi.

Hamma joy-joyiga o‘tirdi, pichoq va tarelkalar tayyorlandi. Shu orada Seydahmad stakanlarga aroq quydi.

— Aroqning raisi men bo‘laman, — deya shaqillay boshladi u burchakdagi shishalarga ishora qilib.

Hammadan keyin Mo‘min bobo keldi. Chol bugun har qachongidan ko‘ra g‘alati va ayanchli qiyofada ko‘rinardi. U biror

chetroq joyga borib omonatgina o‘tirmoqchi edi, lekin qora, barvasta Ko‘katoy himmat qilib uni o‘z yoniga taklif qildi.

— Bu yoqqa keling, oqsoqol.

— Rahmat. Biz mana bu yerga, o‘zimizniki-ku, axir,— e’tiroz bildirmoqchi bo‘ldi Mo‘min bobo.

— Harqalay siz oqsoqolimizsiz, — qattiq turib oldi Ko‘katoy va o‘zi bilan Seydahmadning o‘rtasiga o‘tqazdi. — Qani, ichamiz, oqsoqol, sizning shunday muvaffaqiyatlaringiz uchun. Birinchi so‘z sizga. Mo‘min bobo yo‘talib qo‘ydi.

— Mana shu uylarda tinchlik bo‘lsin, — dedi u qiynalib. — Qayerda tinchlik bo‘lsa, baxt ham o‘sha yerda, bolalarim.

— To‘g‘ri, to‘g‘ri! — deb hamma o‘z qadahini ko‘tardi.

— A, siz-chi! Yo‘q, bunaqasi ketmaydi! Kuyovingiz va qizingizga baxt tilasangiz-u, yana o‘zingiz ichmasangiz, — deb Ko‘katoy xijolat tortib o‘tirgan Mo‘min bobodan o‘pkaladi.

— Shularning baxti uchun bo‘ladigan bo‘lsa, — chol shoshib qoldi va hammani hayratda qoldirgancha salkam to‘la stakanni oxirigacha ko‘tarib yubordi va garang bo‘lib qolganday boshini chayqay boshladi.

— Obbo, shovvoz-ey!

— Bizning bobo unaqalardan emas.

— Qoyil, qoyilmiz cholingizga!

Hamma shodlanib kulardi, cholni maqtardi.

Uy isib dimiqib ketgan edi. Bola iztirob chekib yotardi, boshi aylanardi. U ko‘zini yumib yotguncha mast-alast kishilarning Shoxdor ona bug‘uning go‘shtini chapillab, pishillashib ovoz chiqarib yeyayotganliklarini, bir-birovlariga mazali go‘sht qismlarini uzatishib siylashayotganlarini, kir stakanlarning urishtirilayotganini, kemirib tozalangan suyaklarning tovoqqa qanday terib qo‘yilayotganini eshitib turardi.

— Bay-bay-bay, munchayam mazali-ya! — maqtardi Ko‘katoy labini chapillatib.

— Nima, biz ahmoqmizmi tog‘da yashab shunday go‘sht yeya olmasak, — dedi O‘razqul.

— To‘g‘ri-da, nega bo‘lmasa bu yerda yashayapmiz,— ma’qulladi Seydahmad.

Hamma Shoxdor ona bug'uning go'shtini maqtay ketdi. Kampir-u Bekey xoladan tortib, Guljamol-u Mo'min bobogacha — hamma-hammasi maqtashardi. Bolaga ham tarelkada go'sht va boshqa taomlardan kiritib berishdi. Lekin u rad etdi. Mast odamlar uning tobi qochganligini hisobga olib bezovta qilmadilar.

Bola tishini-tishiga qo'yib yotardi. U shunday yotganda ko'ngil behudligidan biroz qutulganday bo'ladi. Biroq Shoxdor ona bug'uni o'ldirgan bu odamlar bilan biron ish qilishga qodir emasligi uni hammadan ko'ra qiynayotgan edi. U bolalarga xos haqgo'ylik g'azabi va dilxastaligi bilan ulardan o'ch olishning turli yo'llarini — qanday bo'lmasin ularni jazolash, gunohini tushunishga majbur etish, qanday yovuz ishga qo'l urganliklarini ko'rsatib qo'yish yo'llarini o'ylardi. Biroq xayolan Qulibekni yordamga chaqirishdan bo'lak biror durustroq yo'l topolmadi. Ha, o'sha bo'ronli tunda soldatcha kamzul kiyib, yosh shofyorlar bilan birga pichan ortishga kelgan o'sha yigitni chaqirmoq kerak. U bolaning ko'rib yurgan odamlari ichida O'razqulga bas kela olishi va butun haqiqatni aytib solishi mumkin bo'lgan birdan bir kishi edi.

Bolaning chorlashi bo'yicha Qulibek mashinada g'izillab yetib keldi va avtomatni oldinga qarata qiya ushlagancha kabinadan sakrab tushdi: "Qani ular?" — Ular mana bu yoqda! Ular ikkalasi O'razqullarning uyi tomon yugurib ketishdi. Eshikni zarb bilan ochishdi. "Qo'zg'ala ko'rma! Qo'lingni ko'tar!" — bo'sag'adan turib dahshat bilan buyruq berdi Qulibek, avtomatni to'g'rilagancha. Hammaning kapalagi uchib ketdi. Hamma o'tirgan joyida dong qotib, og'izdagi go'shtlar bo'g'izlarida qoldi. Ko'p yeb qo'llari, yuzlari, og'izlari moyga botib, bo'kib qolgan mast-alast kishilarning esa umuman qimir etishga majollari qolmagan edi.

"Qani, o'rningdan turchi, murdor!" — Qulibek avtomatini O'razqulning chakkasiga tiradi. Qaltiroq bosgan O'razqul duduqlanganicha Qulibekning oyog'iga yiqildi. "Rahm qil, o'ldirmagin". Lekin Qulibek rahm qilmadi. "Chiq bu yoqqa, murdor! Endi tamom bo'lding!" — U O'razqulning chotiga zarb bilan tepib yubordi va o'rnidan turg'izib uydan chiqishga majbur etdi. Kayfi uchib sarosimaga tushib qolgan jamiki kishilar jimgina hovliga chiqishdi...

"Devorga borib tur! — buyruq berdi Qulibek O'razqulga. — Shoxdor ona bug'uni o'ldirganing uchun va uning beshik ko'tarib kelgan shoxlarini kesib olganing uchun senga o'lim!" O'razqul tuproqqa yiqilib tushdi. Emaklab ingragancha zorlana boshladi: "O'ldirma meni, mening hech kimim yo'q-ku axir. Olamda tanhoman. Na o'g'lim bor, na qizim..."

Undagi manmanlik, kibr-havo qayoqqa ketdi.

Ojiz, yaramas qo'rqoq. Bundaylarni o'ldirging ham kelmaydi.

"Mayli, o'ldirmaylik, — dedi bola Qulibekka. — Lekin bu yerdan abadiy ketsin, qorasi o'chsin. Bu yerda uning keragi yo'q. Yo'qolsin".

O'razqul o'rnidan turib shimini ko'tarib oldi va o'girilib qarashga yuragi dov bermay, lo'killagancha qochib qoldi. Uning xomsemiz yuzlari lorsillab, etigidan galife shimi osilib qolgan edi. Biroq Qulibek uni to'xtatdi: "To'xta! Senga aytadigan oxirgi so'zimiz bor. Senda hech qachon bola bo'lmaydi. Sen yovuz va yaramas odamsan. Seni bu yerda hech kim yoqtirmaydi. O'rmon ham, birorta daraxt ham, hatto bir dona giyoh ham seni sevmaydi. Sen fashistsan. Sen bu yerdan umrbod ket. Qani, tezroq bo'l!" O'razqul oldi-ketiga qaramay yugurardi. Qulibek uning orqasidan: "Shnel! Shnel", — deya xaxolab kular va yana vahima solish uchun avtomatidan havoga qarab o'q uzardi.

Bola o'zida yo'q shod edi. O'razqul ko'zdan g'oyib bo'lgach, Qulibek eshik oldida gunohkorlarcha turgan boshqa kishilarga qarab: "Shunday odam bilan qanday yashab keldilaring? Uyat emasmi sizlarga!" — dedi.

Bola o'zini yengil his qildi. Adolatli sud bajo keltirildi. U o'z xayollariga shunchalik berilib ketgan ediki, hatto qayerda yotganini ham, O'razqulning uyida nima munosabat bilan ichkilikbozlik qilayotganliklarini ham unutgan edi. Qahqahlab kulishlar uni bu orombaxsh holatdan yana o'ziga keltirdi. Bola ko'zini ochib yana quloq sola boshladi. Xonada Mo'min bobosi yo'q edi.

Qayoqqadir chiqib ketgan bo'lsa kerak. Xotinlar idish-tovoqlarni yig'ishtirishib, choy keltirishga hozirlik ko'rayotgan edilar. Seydahmad nimanidir baland ovoz bilan hikoya qilib berardi, o'tirganlar uning so'zlarini eshitib kulishardi.

— U yog'i nima bo'ldi?

— Davom et!

— Sen shoshilma, bu yoqqa qara, qani yana bir qaytarib ayt, — kulgidan ichagi uzilgan O'razqul yana so'ray boshladi, — sen unga javoban nima deding? Uni qanday qo'rqitding. Voy ichagim! Xa-xa-xa! — U hamon qornini ushlagancha qotib-qotib kulardi.

— Shunday qilib, — deya Seydahmad hikoyasini yana boshidan boshlashga jon deb rozi bo'ldi, — biz bug'ularga yaqinlashib borsak, o'rmon yoqasida uchtasi turgan ekan. Otlarni endigina daraxtga bog'lagan ham edik, chol hamrohim qo'limdan ushlab: "Biz bug'ularni otishimiz mumkin emas. Biz Bug'uboy avlodidanmiz. Shoxdor ona bug'uning farzandlarimiz!" dedi. O'zi bo'lsa bolalardek termilib turardi menga. Ko'zlari yalinib-yolvorib iltijo qilayotgandek boqardi. Mening esa o'lgiday kulgim qistardi. Lekin kulib yubormadim. Ha, kulmadim. Aksincha, bu haqiqatan ham shunday-ku: "Sen nima, turmaga tushging kelyaptimi?" — deyman. "Yo'q", — deydi u. "Bilasanmi, boylar zamonidagi hikoyalar kambag'al xalqni qo'rqitish uchun to'qilgan",— dedim. Shunda u tilga kirib: "Sen nima deyapsan o'zi",— dedi. Men bo'lsam: "Shuni aytyapmanki, sen bunaqa gaplaringni qo'y, aks holda qariligingga ham qaramay, tegishli joyga yozib yuboraman", — dedim.

— Xa-xa-xa, — deb o'tirganlarning hammasi kulib yuborishdi. Ayniqsa, O'razqul ularning ichida rohatlanib kulardi.

— Keyin biz sezdirmasdan ularga yaqin bordik. Agar ularning o'rnida boshqa hayvonlar bo'lgandami, allaqachon xabar topib ko'zdan g'oyib bo'lgan bo'lardi. Bu anqov bug'ular esa bizdan cho'chimayotganday qochmasdi. Cho'chimagani yana ham yaxshi deb o'ylayman, — hikoya qilardi Seydahmad. — Men miltiq bilan oldinda, chol keyinda boryapmiz. Shu ondayoq menda shubha tug'uldi. Umrimda chumchuq ham otgan emasdim. Hozir shunday bir holat yuzaga keldiki, agar tekkiza olmasam, o'rmonga qochadi-ketadi, keyin uning orqasidan yetib bo'psan, dovonning narigi yog'iga o'tib ketadi. Bunday tayyor o'ljani kim qo'ldan boy berishni istardi?

Bizning chol ovchi bo'lgan, vaqtida ayiqni ham qulatgan. Men unga miltiqni berib, mana chol, oting, dedim. U bo'lsa yo'q, ot-

mayman, o'zing ot, deydi. Men bo'lsam unga: Men axir mastman-ku, dedim. O'zim esa oyoqda turolmayotgandek tebranardim. U o'rmondan yog'och olib chiqqanimizda siz bilan ichganimizni ko'rgan edi. Shuning uchun ham men o'zimni ayyorlikka soldim.

— Xa-xa-xa.

— Men tekkizolmayman dedim, bug'ular ketib qoladi, keyin qaytib kelmaydi. Bizning esa quruq qaytib borishimiz yaxshi emas. O'zing bilasan. O'ylab ko'rgin. Nega bizni bu yoqqa yuborishdi? Indamaydi. Miltiqni ham olmaydi. Mayli, o'zingiz bilasiz, dedim-da, miltiqni tashlab ketmoqchi bo'ldim. U orqamdan ergashdi. "Baribir, O'razqul meni haydaydi — sovxozga borib ishlayveraman", deydi. Qariganda qayoqqa borasan, dedim? Yana lom-lim demadi. Men sekin xirgoyi qildim:

Sariq-sariq tog'lardan,
Sariq otda men keldim.
Och eshiging, ey, sariq savdogar...

— Xa-xa-xa...

— Meni haqiqatan ham mast deb o'yladi. Miltiqni qo'lga olib jo'nab qoldi. Men qaytdim. Biz bir-birimiz bilan tortishib yotar ekanmiz, bug'ular bu orada biroz nariroqqa yurdi. Ko'ryapsanmi, deyman unga, ketib qoldi, keyin ularga yetib bo'lmaydi. Ular hali hurkib qochmaguncha otib olish kerak. Chol qo'liga miltiqni oldi va ularning orqasidan pusib bora boshladi. U hamon: "Kechir meni, Shoxdor ona bug'u, kechir...", — deb o'z-o'zicha shivirlardi. Men esa o'z-o'zimcha: "Ehtiyot bo'l, tekkiza olmasang, sen ham o'sha bug'ular bilan birga boshing oqqan yoqqa qarab ket, boshqa qorangni ko'rsatma", — dedim.

— Xa-xa-xa...

Ichimlik hidi bilan dud hidining birga qo'shilib anqishi, uning ustiga qahqaha urib kulishlar bolaning isitmasini oshirib, yanada dimiqtirib yubordi. Og'riqning zo'ridan uning boshi tars yorilib ketayozdi. Nazarida kimdir uni tepayotganga, kimdir bolta bilan miyasini yorayotganga o'xshardi. Go'yo birov uning ko'zini mo'ljalga olayotganday chap berib boshini olib qochishga intilardi. Isitma natijasida holdan ketgan bola muzdek daryoda paydo bo'lib,

baliqqa aylanib qoldi. Quyrug'-u tanasi, suzgich qanotlari — hamma-hammasi baliqniki-yu, faqat og'riyotgan boshigina o'zicha qolgan edi. U qop-qorong'i muzdek suv ostida suzib borardi. Xayolida umrbod shunday baliq bo'lib qolishni va tog'ga hech qachon qaytmaslikni o'ylardi. "Qaytmayman endi,— deyardi u o'zicha. — Yaxshisi, baliq bo'laman, baliq bo'lib yashayman..."

Bola karavotdan tushib, sekin uydan chiqib ketganini hech kim payqamay qoldi. U zo'rg'a burchakka yetib borgan ham edi, birdan qayt qilib yubordi. U devorga suyangancha ingrab yig'lardi. O'pkasi to'lib yig'laganidan nafasi qisilib g'o'ldirardi:

— Yo'q, men, yaxshisi, baliq bo'laman. Bu yerdan suzib ketaman. Yaxshisi, baliq bo'laman.

O'razqulning uyi derazasidan esa mast kishilarning qahqahlab kulishlari-yu, qiyqiriq ovozlari eshitilardi. Bu yovvoyi qahqaha bolani garang qildi, uning qalbida chidab bo'lmas dard-alamlarni qo'zg'adi. Bu dahshatli qahqahani eshitish ko'nglini behuzur qilayotgandek tuyuldi. U biroz o'ziga kelish uchun hovliga chiqdi. Hovlida hech kim yo'q, huvullab yotardi... O'ti o'chib qolgan o'choq yonida ichkilikning zo'ridan o'lar holatda yotgan Mo'min boboga ko'zi tushdi. Chol tuproqda, o'sha Shoxdor ona bug'uning kesib tashlangan shoxlari yonida hushsiz yotardi. Bug'uning maydalangan kallasini it g'ajib yotgan edi. Bulardan boshqa biron kimsa yo'q.

Bola bobosining ustiga engashgancha uning yelkasidan tortqiladi.

— Bobo, yuring, uyga ketamiz, uyga, — dedi u. Chol javob bermadi, u hech nimani eshitmadi, boshini ham ko'tara olmadi. Ha, u nima ham deya olardi?

— Qani, turing, bobo, uyga ketamiz, — dedi bola.

Kim bilsin, u o'zining bolalik aqli bilan bobosining Shoxdor ona bug'u haqidagi ertagi uchun bu yerda ta'zirini yeb yotganini, o'z erki bilan unga qasd qilmaganligini, uning o'zi bu haqda bolaga hamma vaqt nasihat qilib kelganligini, — ota-bobolar udumiga, o'z vijdoni va vasiyatlariga zid borganligini, baxti qaro qizini deb, nabirasini deb shu ishga qo'l urganligini fahmlay oldimikin yoki anglab yetmadimikin?..

Chol og'ir ahvolga tushib, g'am-alam o'tida yonib, bolaning ovoziga javob qilmasdan, go'yo o'lik singari yuzini yerga qilib yotardi.

Bola bobosining yoniga cho'qqayib o'tirgancha uni qo'zg'atishga harakat qildi.

— Bobo, boshingizni ko'tarsangiz-chi, — dedi u. Bolaning yuzlari oqarib, bo'shashib ketgan edi, qo'llari, lablari qaltirardi. — Bobo, bu menman. Eshityapsiz-mi? — deyardi u. O'zimni juda yomon sezyapman, — deya yig'lardi u. — Boshim og'riyapti, juda qattiq og'riyapti.

Chol ingrab, qimirlay boshladi, biroq hamon o'ziga kelolmagan edi.

— Bobo, Qulibek keladimi? — so'radi bola birdan ko'zyoshi aralash. — Ayting, mashinasida Qulibek keladimi? — gap bilan alahsitmoqchi bo'ldi u cholni.

Bola bobosini yonbosh bilan ag'darilib yotishga majbur etdi va nogahon mast holda soqollarigacha loy va tuproqqa belanib, ayanchli holda yotgan cholning yuziga ko'zi tushib, seskanib ketdi. Bola shu daqiqada haligina O'razqul bolta bilan maydalab tashlagan oq bug'uning kallasini xayolidan o'tkazdi va qo'rquvdan o'zini chetga tortdi. Bobosidan nari ketar ekan, dedi:

— Men baliqqa aylanaman, eshityapsizmi, bobo, suzib ketyapman. Qulibek kelganda baliqqa aylanib qolganimni ayting.

Chol hech qanday javob qaytarmadi.

Bola yurishda davom etdi. Daryoga tushib, suv kecha boshladi...

Bolaning suvda baliq bo'lib suzib yurganidan hali hech kimning xabari yo'q edi. Hovlida mast kishilarning kuylagan qo'shiqlari eshitilardi:

O'rkach-o'rkach tog'lardan,
O'rkach tuyada men keldim.
Och eshiging, bukri savdogar,
Biz ichamiz, o'tkir vinodan...

... Sen suzib ketding. Qulibekning kelishini kutib turmading. Afsus, ming afsuski, Qulibekning kelishini kutib turmading. Nega

sen yo‘ldan chopib bora qolmading. Agar yo‘ldan uzoq muddat chopib borganingdami, albatta uni uchratarding. Qulibekning mashinasini uzoqdan tanigan bo‘larding. Qo‘lingni ko‘targaningda u shu zahotiyoq mashinasini to‘xtatgan bo‘lardi.

— Sen qayoqqa ketyapsan? — deb so‘rardi.

— Men sizni izlab ketayotgan edim! — deb javob bergan bo‘larding.

U shunda seni mashinasi kabinasiga olgan bo‘lardi. Ikkaloving birga ketgan bo‘lardilaring. Oldinda, yo‘lda esa hech kimga ko‘rinmasdan Shoxdor ona bug‘u yelday uchib borardi. Biroq sen uni ko‘ra olgan bo‘larding.

Ammo sen suvda suzib ketding.

* * *

Sen bu qo‘shiqni eshitmading. Sen o‘z ertagingdagi baliq kabi suzarding, bo‘talog‘im. Bilasanmi, sen hech qachon baliqqa aylanib qololmaysan va Issiqko‘lgacha suzib borolmaysan, oq kemani ham ko‘rolmaysan va unga: “Salom, oq kema, bu men!” — deb aytolmaysan.

Sen oqib ketding.

Endi shuni aytishim kerakki, sening go‘dak qalbing nimani noxush ko‘rgan bo‘lsa, hammasini rad etding. Mening ovunchim ham, quvonchim ham shunda-da. Sen bir chaqnab so‘ngan yashin kabi hayot kechirding. Chaqmoqlarni samo chaqadi. Samo esa abadiydir. Mening ovunchim ham, quvonchim ham shunda-da. Insondagi go‘daklik vijdoni xuddi urug‘dagi ilk kurtakning o‘zginasi, kurtaksiz urug‘ unib chiqmaydi. Biz olamga kelmasdan ilgariyoq, toki tug‘ulish va o‘lish bor ekan, haqiqat tantana qilib kelmoqda.

Bo‘talog‘im, sen bilan vidolashar ekanman, sening so‘zingni yana bir bor takrorlayman: “Salom, oq kema, bu men!”

SOHIL BO‘YLAB CHOPAYOTGAN OLAPAR[1]

Vladimir Sangiga bag‘ishlanadi

Rutubatli, izg‘irinli, qop-qorong‘i tun qo‘ynida hayhotdan yastanib yotgan Oxota dengizi sohillarida tabiatning ikki qudratli kuchi — quruqlik bilan dengiz o‘rtasida azaliy, tinimsiz kurash davom etadi: quruqlik dengizning asov to‘lqinlariga to‘sqinlik qilishga intiladi, dengiz esa quruqlikka hujum qilishda tinim bilmaydi.

Dengiz to‘lqinlari zulmat qo‘ynida guvillab, o‘kirib, shiddat bilan qoyalarga kelib urilib, parchalanib ketadi. Dengiz hamlalarini qaytaraverib tosh-metin bo‘lib ketgan qirg‘oq xo‘rsinib, uf tortadi.

Olam olam bo‘lib yaralganidan buyon, tun kundan tug‘ilgan, kun tundan tug‘ilgan zamonlardan buyon ahvol shu — ikki qudratli kuch o‘rtasidagi olishuv davom etadi: bundan buyon ham kun-u tun, tun-u kun, toki yer bilan suv bor ekan, ular abadulabad shunday kurashaveradi.

Kun-u tun, tun-u kun... Shunday kechalardan yana biri o‘tdi. Dengiz oviga jo‘nash arafasidagi kecha edi bu. Bola shu kecha uxlolmay chiqdi. Umrida birinchi marta uxlayolmadi, umrida birinchi marta tunni bedor o‘tkazdi. Qani endi, tezroq tong ota qolsa, dengizga, ovga chopqillab keta qolsa. U nerpa[2] terisi ustida yotarkan, ostidagi yer dengiz zarbalaridan bilinar-bilinmas titrayotganini sezar, ko‘rfazdagi to‘lqinlarning bir-biriga urilib, o‘kirayotganini elas-elas eshitar edi. U tun bo‘yi sergaklanib uxlay olmadi...

Qadim-qadimlarda ahvol butunlay boshqacha edi. O‘sha vaqtlarni endi tasavvur qilib bo‘lmaydi, qadimgi o‘rdak voqeasi haqida hozir hech kim hech narsa bilmaydi, bilish uyoqda tursin, hatto bu hodisani xayoliga ham keltirmaydi, mabodo o‘sha kadim zamon-

[1] Qissa Mahkam Mahmudov bilan hamkorlikda tarjima qilingan.

[2] Tyulenlar oilasiga mansub dengiz hayvoni.

larda Luvr degan o‘rdak bo‘lmaganida, olam allaqanday, boshqacha tarzda tuzilib, hozirgiday, quruqlik suvga, suv esa — quruqlikka qarshi turmagan bo‘lardi. Axir, olamning boshlanishida — azal-azallarda — tabiatda quruqlik uyoqda tursin, hatto gard ham yo‘q edi. Butun atrof suvdan, faqat suvdan iborat edi. Suv o‘z-o‘zidan qorong‘i tubsizliklardan, cheksiz girdoblardan paydo bo‘lgan, so‘ng atrofga tarqala boshlagan. Shundan boshlab, to‘lqinlar to‘lqinlarga urilib, tarafsiz olamning hamma taraflariga oqa boshlagan: suvning qayoqdan kelib, qayoqqa borishini hech kim bilmagan.

Luvr o‘rdak esa, ha, hozir ham har kuni tepamizdan g‘ag‘illab to‘dasi bilan uchib o‘tadigan o‘sha o‘rdak ilgari dunyoda yolg‘iz, yakka o‘zi yashardi. U samoda tanho uchib yurarkan, tuxum qo‘yishga ham tangaday joy topolmasdi. Chunki olamda suvdan boshqa hech bir narsa, uya qurish uchun hatto birorta xas ham yo‘q edi.

Luvr o‘rdak qo‘nadigan joy topolmay faryod chekar, chidolmayman, tuxumimni tubsiz girdobga tushirib yuboraman, deb yuragi shuvillardi. O‘rdak qayoqqa yo‘l olmasin, qay tarafga uchmasin, qanotlari ostida shovullab yotgan to‘lqinlarni ko‘rardi — chor-atrofni hadsiz-hududsiz, avvali-yu oxiri yo‘q mahobatli suv qoplab olgan edi. Uchaverib holdan toygan, majolsiz o‘rdak uya qurish uchun butun olamda biror parcha yer yo‘qligiga ishonch hosil qildi.

Shunda o‘rdak suv ustiga ko‘ndi-da, ko‘ksidagi patlardan tumshug‘i bilan yulib olib, o‘ziga uya kurdi. Xuddi mana shu suzib, qalqib yuruvchi uyadan yer paydo bo‘la boshladi. Bora-bora yer kengayib, asta-sekin uning ustida turli jonivorlar paydo bo‘ldi. Jonivorlar ichida inson hammasidan epchil, abjir chiqib qoldi. U qor ustida chang‘ida uchishni, qayiq yasab suvda suzishni o‘rganib oldi. Hayvonlarni, baliqlarni ovlashni o‘rgandi, shular bilan tirikchilik qilib, o‘z naslini ko‘paytira boshladi.

Butun olamni koplab olgan suv o‘rtasida quruqlikning paydo bo‘lishi qanday oqibatlarga olib kelishini Luvr o‘rdak bilmagan edi. Chunki yer paydo bo‘lgan vaqtdan boshlab, dengiz tinchini yo‘qotdi; mana endi o‘shandan beri dengiz — quruqlikka, quruqlik — dengizga karshi jang qiladi. Bular o‘rtasiga tushib qolgan insonga oson tutib bo‘lmaydi, u dengiz bilan yer o‘rtasida,

yer bilan dengiz o'rtasida azob chekadi. Odamlar ko'proq yerga bog'lanib qolganliklari uchun dengiz ularni xush ko'rmaydi...

Tong bo'zara boshladi. Yana bir tun o'tdi. Yana bir kun dunyoga keldi. Bo'zara boshlagan tong g'ira-shirasida dengiz bilan qirg'oqning quturib olishayotgani kiyik labidan uchgan hovurday elas-elas ko'zga chalinadi. Dengiz shunday nafas oladi. Dengiz va qirg'oqning kizg'in to'qnashuvlaridan hamisha pag'a-pag'a sovuq hovur ko'tarilib turadi. Yastanib yotgan sohil bo'ylab, hamma yerda o'jar to'lqinlarning shovqini eshitiladi.

To'lqinlar o'jarligini qo'ymaydi, o'rkach-o'rkach to'lqinlar qirg'oqning muzday yonbag'irlariga, suv yalab silliqlab yuborgan toshlar uyumiga jon-jahdi bilan, bor kuchi bilan hamla qiladi, keyin esa taqdirga tan berganday xo'rsinib, majolsizlanib, iziga qaytadi. Ortida o'tkinchi ko'piklar va chaykatilgan o't-o'lanlarning chirkin hidi qoladi.

Bahorda okean harakati bilan allaqayerlardan kelib qolgan muz parchalari goh-gohida o'rkach-o'rkach to'lqinlar kuchi bilan qirg'oqqa chiqib qoladi. Qum ustiga uloqtirib tashlangan bu bevosh muz parchalari darhol dengizning to'ng'ib kolgan ojiz zarralariga aylanadi. Keyin kelgan to'lqinlar tezda ortga qaytib, ularni ham o'z og'ushiga olganicha yana dengiz bag'riga eltadi.

Zulmat chekinib tong ota boshladi. Qirg'oq ohista ravshanlashdi, dengiz ohista yorisha boshladi.

Tungi shamol ko'zg'atgan oq yolli o'rkach-o'rkach to'lqinlar hamon qirg'oqqa talpinib, shovqin solib turgan bo'lsa-da, dengizning olisdagi teran joylari endi insofga kelganday tinchlanib, ko'rg'oshin singari xira ko'kish rang tortib, vazmin mavjlanib yotardi.

Dengiz ustidagi bulutlar qirg'oqdagi tepaliklar sari siljiy boshladi.

Dengizning xuddi o'sha qismida, Olapar ko'ltig'iga yaqin yerda dengiz tomon yarim orol shaklida qiyalab turtib chiqqan tepalik — qoya bo'lib, u olisdan qaraganda haqiqatan ham sohil bo'ylab chopib borayotgan kattakon olapar itni eslatardi.

Yonbag'irlarida u yer-bu yerda turli-tuman butalar o'sib, chakalakzorga aylanib ketgan va yozning eng issiq kunlarida ham boshi-

dan qori arimagan qismi shalpaygan kattakon quloqqa o'xshaydigan, "chotida" — soyada qolgan pastkam joyida ham oq qashqasi bo'lgan Olapar qoyasi dengiz tomondan qaraganda ham, o'rmondan qaraganda ham olis-olislardan ko'zga tashlanib turadi.

Mana shu Olapar ko'rfazidan erta tong payti quyosh ikki terak bo'yi ko'tarilganda bir nivx qayig'i dengizga tushdi. Qayiqda uch ovchi bilan bir bola bor edi. Yoshroq va norg'ulroq ikki yigit to'rt eshkakni eshib borishardi. Qayiq quyrug'ida yuzi qo'ng'ir tus olgan, ozg'in, kekirdagi turtib chiqqan, manglayi va ayniqsa bo'yinlarini taram-taram ajin bosgan, qo'llari ham yirik, suyakdor panja bo'g'inlari yong'oqday shishib chiqqan keksa ovchi tamaki trubkasini so'rganicha, rulni boshqarib borardi. Sochlariga oq oralagan, butunlay oq desayam bo'ladi. Qoraygan yuzida oqish qoshlari ko'zga aniq tashlanardi. Cholning yoshlanib, qizargan ko'zlari odatdagiday hamisha qisilgan — umr bo'yi quyosh nuri tushib ko'zni qamashtiruvchi suv yuziga qarayverib o'rganib qolgan, u ko'rfazda qayiqni go'yo ko'r-ko'rona haydayotganga o'xshardi. Qayiqning narigi tumshuqqinasida o'n bir-o'n ikki yoshlardagi qora ko'z bola sug'urday cho'nkayib o'tirib olgan: ahyon-ahyonda kattalarga qarab qo'yar, joni ichiga sig'masdan o'zini zo'rg'a tutib o'tirar, xo'mrayib o'tirgan qariyani koyitmaslik uchun hadeb tipirchilayverishdan o'zini tiyib turardi.

Bola qattiq hayajonda edi. Hayajondan burun kataklari kerilgan, yuzidagi bilinar-bilinmas sepkillar sirtiga tepib chiqardi. Onasi ham shunaqa, juda xursand bo'lib ketsa yuzidagi sepkillar bo'rtib turardi. Bolaning hayajonlanishiga sabab bor edi. Bugungi ov bolaga atalgan, bolaning dengiz bilan birinchi marta ellashuviga atalgan edi-da! Shuning uchun Kirisk sug'urga o'xshab dam uyoqqa, dam buyokka qiziqib qarardi. Bola umrida birinchi marta chinakam ovchilar bilan ochiq dengizga chiqishi, urug'lariga tegishli rostakam katta qayiqda, katta o'lja olish maqsadida chinakam katta ovga chiqishi edi. Bolaning o'rnidan turib ketgisi, eshkakchilarni tezroq eshinglar, deb qistagisi, o'zi qo'liga eshkak olgisi, kuchining boricha eshib, dengiz hayvonini ovlagisi, katta ov boshlanadigan orollarga tezroq yetgisi kelardi. Lekin bu go'daklarcha istaklar kattalarga kulgili tuyulishi mumkin edi.

Shundan hadiksirab, bola iloji boricha sir bermaslikka harakat qilardi. U baxtiyorligini sira yashirolmasdi — qoramag'iz tarang yonoqlari yal-yal yonardi, hammadan ham uning chaqnab porlab turgan ko'zlarida qalbidagi quvonch va g'urur sezilib turardi. Oldinda dengiz, katta ov kutardi uni!

O'rxon bobo bolaning dilidagini sezardi. U qisiq ko'zlari bilan dengiz ufqiga boqar ekan, shodligini yashirolmay toqatsizlanayotgan bolaning ruhiyatini ham sezib turardi. Cholning ko'zlarida mayinlik balqidi — eh, bolalik ekan-da. Biroq u kulimsirashdan o'zini tiyish uchun chala yongan tamaki trubkasini bosib-bosib so'ra boshladi. Miyig'idagi kulgini bolaga sezdirmasligi kerak. Ular oralarida qayiqda o'tirgan bolani ermak uchun olib ketayotganlari yo'q-ku, axir. U chinakam dengiz ovchisi bo'lishga chog'langan. Bola bu hunarni dengizda boshlab, kachonlardir ehtimol yana dengizda tutatar. Dengiz ovchisining qismati shu: zero dengiz ovidan mushkulroq va xavfliroq ish dunyoda bo'lmasa kerak. Bolalikdan o'rganish kerak bu hunarni. Shuning uchun ham eskilar "bola — boshdan, hunar yoshdan", deb bejiz aytishmagan. Yana deganlarki, "Yomon ovchi yo'ldoshin yo'ldan ozdirar". Shundan ayonki, erkak odam ro'zg'or tebratish uchun bolalikdan kasb o'rganishi kerak. Kiriskka ham hunar o'rganish vaqti keldi. Bolani o'zlari bilan birga dengizga olib chiqish, uni ovga o'rgatish vaqti yetdi.

Olapar qoyasidagi Ona baliq jamoasi yashaydigan butun qishloq aholisi bugungi ov safari Kirisk uchun, bo'lg'usi ovchi va ro'zg'or boshlig'i Kirisk uchun uyushtirilganini bilishardi. Azaldan shunday, erkak bo'lib tug'ilgan har bir odam yoshligidanoq dengiz bilan do'stlashuvi, og'a-ini tutinishi lozim, chunki dengiz uni bilib qo'ysin, odam ham dengizni do'st bilib hurmatlaydigan bo'lsin. Xuddi shuning uchun jamoa oqsoqoli O'rxon boboning o'zi bosh bo'lib, yana eng yaxshi ovchilardan ikkitasi — bolaning otasi Emrayin bilan tog'asi Milxunni yoniga olib, kattalarning kichiklar oldidagi, bu gal esa kichkintoy Kirisk oldidagi muqaddas, ezgu burchlarini bajarish uchun safarga chiqishdi. Bola shu kundan boshlab, umrining oxirigacha, quvonchli kunlarda ham, kulfatli kunlarda ham dengiz bilan do'st tutinishi kerak edi.

Kirisk hozir bola, og‘zidan ona suti ketmagan go‘dak bo‘lsa ham mayli, u kelgusida ishga yaraydimi, yo‘qmi, hozir gap bunda emas. Kim bilsin, ehtimol bir kun vaqt kelib yoshi ulug‘lar holdan toyib, keksayib qolganlarida, mana shu bola jamoaning kuniga yarar, uning tayanchi bo‘lib qolar. Shunday bo‘lishi kerak ham. Avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan azaliy hayot qonuni bu. Hayot shu asosga qurilgan.

Qayiqdagilar shularni o‘ylashar, ammo hech kim bu haqda churq etib og‘iz ochmasdi. Bunday fikrlar odamning dilidan kechadi-yu, tiliga kamdan kam ko‘chadi. Shuning uchun ham Olapar sohilida yashovchi Ona baliq — Suv parisi jamoasining odamlari Kiriskning birinchi ovga chiqishiga unchalik e’tibor berishgani yo‘q. Aksincha, qabiladoshlar bolaning katta ovchilar bilan dengizga chiqib ketayotganiga ahamiyat bermaganday ko‘rsatar edilar o‘zlarini. Go‘yo bu voqea e’tiborga arzimaydigan edi.

Bolani faqat onasi kuzatib ko‘ydi. U ham bo‘lajak safar to‘g‘risida churq etmadi, qo‘ltiqqa yetmasdanoq o‘g‘li bilan xayrlasharkan, “Endi o‘rmonga boraver!” dedi u aniq eshittirib, hech narsadan xabari yo‘qday. Ona dengizga emas, o‘rmon tomonga qarab qo‘shib qo‘ydi: “Ehtiyot bo‘l, olib kelgan o‘tinlaring quruq bo‘lsin, o‘zing o‘rmonda adashib qolmagin!” Ona bu so‘zlarni bolani kinrlar — jin-ajinalardan asrash uchun, yovuz ruhlarni chalg‘itish uchun aytdi. Ona Kiriskning otasi Emrayin to‘g‘risida ham og‘iz ochmadi. Go‘yo ovga ota-bola emas, tasodifiy odamlar birga borayotganday edi. Bu ham jinlarni chalg‘itish uchun; jinlar Emrayin bilan Kiriskning ota-bola ekanligini bilishmasin. Chunki otalar bilan bolalar birga ovga chiqishlarini jinlar yoqtirishmaydi. Agar bilib qolishsa, ota-boladan birortasini halok kilishlari mumkin. Ota yoki boladan birortasi o‘lsa, tirik qolgani vahimaga tushsin, qayg‘ursin, azob chekib, ikkinchi dengizga chiqmayman, boshqa o‘rmonga kirmayman, deb qasam ichsin, deyishadi. Kinrlar ana shunaqa yovuz, makkor bo‘lishadi, odamlarga ziyon etkazish uchun har doim payt poylab turishadi.

Kiriskning o‘zi yovuz kinrlardan qo‘rqmaydi-ya. Endi go‘dak emas, axir. Ammo onasi qo‘rqadi, qo‘rqqanda ham bolamga biron falokat yopishmasin, deb juda qo‘rqadi. Kirisk hali yosh, uni

halok etish jinlar uchun qiyin emas, deb o'ylaydi. Onaning aytganlarida ham jon bor-da! Eh, nimasini aytasan, bu la'nati kinrlar bolalarga ozmuncha azob keltirdimi — bolalar ulg'ayib, ovchi bo'lib yetishmasin, deb ularga turli kasalliklarni ilashtirishadi, ziyon-zahmat yetkazib, mayib-majruh qilib qo'yishadi. Bunday nogiron odamlarning kimga ham keragi bor? Shuning uchun odam ayniqsa go'daklikda kinrlardan o'zini asrashi kerak. Odam ulg'ayib, oyoqqa turib, o'zligini tanib olganidan keyin har qanaqa jin-pinlardan qo'rqmaydi. Bunday odamga jinlarning kuchi yetmaydi, ular bunday kuchli kishilardan hayiqishadi.

Ona-bola shunday xayrlashishdi. Ona bir lahza jim qoldi; bu sukunat zamirida onaning tashvishli iltijosi, umidlari yashiringan edi. Shundan so'ng u bir marta ham orqasiga o'girilmay qaytib ketdi. Dengiz tomonga biron marta ham qayrilib qaramadi, otasi to'g'risida ham churq etmadi, ota-bolaning qayoqqa borishidan zarracha xabari yo'qday edi. Qiziq, bir kun avval ularni safarga shaylagan, uch kunlik dengiz safariga oziq-ovqat tayyorlab bergan edi-ku. Endi bo'lsa xuddi ularni tanimayotganday ko'rsatardi o'zini. Bolasiga biror nima yopishmasin, jinlar biror narsani bilib qolmasin, deb qo'rqqanidan tashvishlarini yuzaga chiqarmasdi.

Shunday qilib, ona qo'ltiqqa yetmasdan xayrlashdi. Bola esa onasi tayinlaganday, butalar orasida ko'rinmas jinlardan izlarini yashirgan bo'lib, birpas aylandi va shundan so'nggina uzoqlashib ketgan kattalarga yetib olish uchun halloslab yugurib ketdi.

U birpasda kattalarga yetib oldi. Ular qo'llarida miltiq, har hil tugun, elkalarida to'rlarni ko'targancha bamaylixotir borishayotgandi. Oldinda jamoa oqsoqoli O'rxon bobo, keyinidan gavdali va daroz, keng yag'rinli sersoqol Emrayin, uning ketidan esa g'o'labirdan kelgan, dum-dumaloq va chayir Milxun chayqalib borardi. Ular ustlariga boshdan-oyoq sovuq va nam o'tkazmaydigan po'stinlarini kiyib olgan edilar. Kirisk ularga qaraganda bayramdagiday yasanib olgandi.

Onasi anchadan beri uni dengiz safariga shaylab, kiyim-kechak hozirlab yurgandi. To'rva hamda ustki kiyimlarining yenglari yaxshilab hoshiyalangan. Aslini aytganda, dengizda bunday hashamning hojati yo'q. Ammo ona onaligini qiladi-da.

— Eh-ha, biz seni endi qoldi, qo'lingdan yetaklagancha uyga olib ketishdi, deb o'ylabmiz, — masxaraomuz hayratlandi Milxun, bola unga yetib olganida.

— Nega endi? Men umrimda bunday!.. — ranjiganidan bo'g'ilib gapirdi Kirisk.

— Bo'ldi, bo'ldi, hazilni ham tushunmaysan, — deb tinchlantirdi uni Milxun. — Xafa bo'lma! Dengizda bir-birimiz bilan gapirishmasak kim bilan gapirishamiz. Yaxshisi, manovini olib yur, — deya bolaga vinchester[1]ini uzatdi. Bola bundan mamnun bo'lib, ular bilan birga shaxdam odimlab ketdi.

Qayiqlarga yuk ortish va qirg'oqdan siljish vaqti ham keldi. Shunday qilib ovchilar dengiz tomon suzib ketishdi. Biroq, agar ov baroridan kelib, boy o'lja bilan uylariga qaytib kelishsa, unda butunlay boshqacha bo'ladi. Ana o'shanda bolani qanday izzat-hurmat qilishganini ko'rasiz. Yosh ovchini kutib olish bayramga aylanadi, dengiz saxovati haqida qo'shiqlar aytiladi: dengizning xayol yetmas chuqurliklarida baliqlar va boshqa hayvonlar urchib ko'payadi, ular kuchli, jasur ovchilarga nasib etadi. Qo'shiqlarda qabila odamlarini dunyoga keltirgan Suv parisi madh etiladi. Nog'oralarni zarang daraxtidan yasalgan tayoqchalar bilan urib chalishadi. O'yin tushayotganlar ichida eng donosi — shomon, u Yer va Suv bilan suhbatlashadi. Yangi yosh ovchi Kirisk to'g'risida gaplashadi. Ha, shunday, shomon yosh ovchiga hamisha xayrixoh, mehribon bo'linglar, deb Yer, Suvga iltijo qiladi. Yerda va Suvda shu bola ulug' mergan bo'lib yetishsin, u doimo topgan o'ljalarini yoshu qariga odillik bilan ulashib berib tursin, deb duo qiladi. Dono shomon yana zikr tushib, Kirisk ulg'ayib, bola-chaqa ko'rsin, ulug' Suv parisi — Buyuk Ona baliq avlodi ko'paysin, hamisha avlodiga avlod qo'shilsin, deb duo-iltijo kiladi:

Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq?
Sening qaynoq pushtingdan — mangu hayot boshlangan.
Sening qaynoq pushtingdan — undik dengiz bo'yida.
Sening qaynoq bag'ringdir — ochunda eng go'zal joy.
Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq?

[1] Miltiq.

Xuddi nerpa boshiga o'xshaydi oppoq siynang,
Bizni boqdi dengizda xuddi shu oppoq siynang.
Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq?
Eng devkor, alp erkak suzib borar sen tomon.
Sening pushting, urug'ing gullab-yashnasin debon,
Yer yuzinda avloding unib-ko'paysin debon...[1]

Bayramda o'yin-kulgi, shovqin-suron bilan shunday qo'shiqlar kuylanadi. Ana shu bayramda Kirisk taqdirida yana bir muhim voqea yuz beradi. Jazava bilan raqsga tushayotgan shomon ovchi Kirisk taqdirini osmondagi yulduzlardan biriga topshiradi, bolaga "hamisha panoh bo'lgin", deydi. Axir, har bir ovchining o'ziga tegishli, o'z panohida saqlaydigan yulduzi bor-da. Kiriskning taqdiri qaysi yulduzga topshirilganligini hech kim, hech qachon bilmaydi. Buni faqat shomon-u o'sha noma'lum panohkor yulduz biladi. Boshqa hech kim bilmaydi. Osmon to'la yulduz bo'lsa...

Albatta, bu bayramda onasi bilan singlisi hammadan ko'ra ko'proq sevinishadi, hammadan ko'ra baland kuylab, hammadan ko'proq raqsga tushishadi. Otasi Emrayin esa hammaning oldida ota deb ataladi, u bundan quvonib, g'ururlanadi. Hozir esa u ota emas. Dengizda ota-bola degan gaplar bo'lmaydi, dengizda hamma birdek, yoshi ulug'ining aytganiga bo'ysunishi kerak. Yoshi ulug'ning aytgani aytgan, degani degan. Ota o'g'ilning ishiga aralashmaydi.. O'g'il ham otasiga shikoyat kilmaydi. Udum shunday.

Aytmoqchi, bayramda yana bir qizaloq — Muzluk rosa xursand bo'lsa kerak. Kirisk u bilan go'dakligidan birga o'ynab, birga o'sishgan. Endi ular kamdan-kam birga o'ynaydigan bo'lib qolishdi. Bundan buyog'iga umuman o'ynashmasa kerak: ovchiga o'yin qayoqda deysiz.

* * *

Qayiq to'lqinlar ustidan bilinar-bilinmas chayqalib, yengilgina suzib borardi. Olapar qo'ltig'i allaqachon ortda qoldi. Ular uzun burundan o'tib dengizga chiqishgach, to'lqinlar bu yerda ko'rfazdagiga qaraganda unchalik kuchli emasligini ko'rishdi. To'lqinlar bir me'yorda tebranib turardi. Bunday to'lqinlarda su-

[1] She'rlarni shoir Azim Suyun tarjima qilgan.

zish ancha oson bo'ladi. Bahaybat terak tanasidan o'yib yasalgan qayiq ravon, chaqqon suzardi. U to'g'ri to'lqinlarda ham, ko'ndalang to'lqinlarda ham rul izmidan chiqmay, bemalol borardi.

O'rxon chol o'chib bo'lgan trubkasini so'rganicha, qayiqning erkin suzib borayotganidan huzur qilar, ko'nglida muzday suvga to'sh urgancha olga borayotgan qayiq — go'yo cholning o'zi bo'lib tuyulardi; u o'zini eshkaklarning bir maromdagi harakati bilan, tirgakdan chiqayotgan g'iychillagan sadoga jo'r bo'lib poyonsiz dengizda suzib ketayotgan qayiq o'rnida ko'rardi; go'yo uning o'zi o'tkir tumshug'i bilan qarshidan kelayotgan to'lqinlarni yorib, suv zarbalari va zarblaridan yengil chayqalib suzayotganday edi. Qayiq bilan birday harakat qilish sezgisi g'alati xayollarga olib borardi cholni. Uning qayiqdan ko'ngli to'q, hatto juda mamnun edi, axir uni o'zi randalagan, o'zi o'yib yasagan; terakni birgalashib yiqishdi, bir odam uni eplayolmasdi, to'rt kishiga ham og'irlik qilardi bu ish. Lekin uyog'iga bir o'zi ishladi — xodani uch yoz kuritdi, yo'ndi, o'sha vaqtdayoq bilgan edi — umrida yasagan qayiqlari ichida eng yaxshisi shu bo'ladi. Chol shu haqda o'yladi-yu, beixtiyor ko'ngli g'ash tortdi: yopiray, ishqilib, bu oxirgisi bo'lmasin-da. Yana bir necha yil yashasaydi. Yana bir necha bor dengiz oviga chiqsaydi. Hozircha ko'z nuri, qalb ko'ri borligida yana bir juft qayiq yasasaydi.

Chol shularni o'ylar ekan, xayolan qayiq bilan gaplashardi. "Seni yaxshi ko'raman va senga ishonaman, inim, — derdi u qayiqqa. — Sen dengizning tilini bilasan, to'lqinlar fe'lini bilasan! Kuchli ekanliging ham shunda-da. Sen munosib qayiqsan, yasagan qayiqlarim ichida eng dilbarisan. Sen ulkan qayiqsan — ikkita laxtak, yana bir nerpa sig'adi senga. Sen bizga rizq-ro'z berasan. Shuning uchun seni hurmat qilaman. O'ljalarimizni arang ko'tarib kelayotganingni, hatto yuking og'irligidan suvga botay-botay deb qirg'oqqa qaytayotganingni ko'rib hammamiz seni qanchalar sevamiz. Shunda seni kutib olish uchun sohilga hamma yugurib chiqadi, mening qadrdon qayig'im, inim!

Agar men o'lib ketsam ham, sen uzoq yillar suzaver, o'ljaga boy suvlarda suzaver. Agar men o'lib ketsam, yosh va kuchli ovchilar bilan suzib yuraver. Agar men o'lib ketsam, ularga ham

menga xizmat qilganday xizmat qilaver. Ha, inim, tumshug'ingda boshini likillatib, joni ichiga sig'may o'tirgan anavi bola ham o'sib, voyaga yetguncha kutgin, sen bilan uzoq-yaqinlarga ovga boradigan bo'lgunicha kutgin. Bolaning g'ayratiga qara, qarshisida suv emas, yer bo'lganda hozir chopqillab borib, qanday ov qilishni ko'rsatardim, deb turibdi uning ko'zlari. Bugun bolaning birinchi marta biz bilan dengizga chiqishi. Axir bir kun chiqishi kerak edi ham. O'rgansin. Biz ketamiz. U qoladi. Uzoq yashaydi. Otasi Emrayinga o'xshasa durust odam bo'ladi. Qandaydir safsataboz bo'lmaydi. Emrayin hozirgi ovchilar ichida eng zo'ri. Zabardast yigit, ishiga puxta. Bir vaqtlar men ham shunday zabardast edim. Ayni kuchga to'lgan paytim edi. Ayollar meni yaxshi ko'rishardi, men bo'lsam umr bo'yi shunday bo'laveradi, deb o'ylabman. Lekin hamisha shunday bo'lavermasligini kech tushundim. Yoshlar esa buni tushunishni istashmaydi. Manavi Emrayin bilan Milxun ham qarilikni xayoliga keltirmasa kerak. Hay, mayli. Hali vaqt bor ularga. Eshkak eshishga kelganda ular boplashadi, zalvar bilan eshishadi. Milxun bilan Emrayin bir-biriga mos tushishgan. Ishonsa bo'ladigan, chidamli sheriklar. Qayiq o'z-o'zidan bemalol suzib ketayotganday tuyuladi. Aslida unday emas. Dengizda axir qo'l bilan yuriladi. E-he, hali oldinda qanchalab eshkak eshishga to'g'ri keladi. Xo'sh, bugun qosh qoraygunchа, Uchinchi siynaga yetib borish mumkin. Ertaga erta tongdan to qosh qoraygunchа suzib yana orqaga qaytamiz. Goh unisiga, goh bunisiga dam berish uchun navbat almashib, eshkak eshaman. Ammo-lekin eshkaklar bilan butun dengizni chayqaltirib chiqish hazilakam ish emas. O'lja bilan qaytsak, bayram qilamiz.

Eshityapsanmi, so'zlarimga tushunyapsanmi, inim? Sen bizni Uch siyna orollariga olib borasan, katta ov o'sha yerda bo'ladi. Hozir shu yoqqa qarab boryapmiz. O'sha yerdagi sohilda, qumloqlarda nerpani ko'ramiz. Hademay ular bolalashadi, orollarda to'da-to'da nerpa yig'iladi. So'zlarimga tushunyapsanmi, inim? Tushunasan, albatta. Sen bilan gaplasha boshlaganimda hali dengizni ko'rmaganding, ona qornida yotganday, o'rmondagi buyuk terakning kornida yotgan eding. Men seni daraxtning qornidan chiqardim, mana endi dengizda birga suzib yuribmiz.

Dunyodan ko‘z yumib ketganimda ham meni unutmagin, qadrdonim. Dengizlarda charx urib suzayotganingda meni ham esla...”

O‘rxon bobo qirg‘oqdagi belgi — Olapar qoyasidan dengiz tomonga qayiqni to‘g‘ri yo‘naltirar ekan, ko‘nglidan shu o‘ylar o‘tdi. Dengiz safariga chiqqanlarning hammasi Olapar qoyasining ajoyib xosiyati borligi to‘g‘risida gapirishadi. Havo ochiq kunlari qayiqlar dengiz qirg‘og‘idan qancha uzoqlashsa, Olapar ham shunchalik kattayib, go‘yo ortda qolib ketishni istamay ularning ketidan kelayotganday bo‘ladi. Qancha uzoqdan qarasang ham Olapar sira ko‘zdan yo‘qolmaydi. Qayiq uzoqlashgandan so‘ng ham ancha vaqtgacha ko‘rinib turadigan Olapar, suvning qaysidir muyulishida birdan ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Demak, Olapar uyga qaytib ketdi, qirg‘oq juda uzoq-uzoqlarda qolib ketdi desa bo‘ladi...

Ana shu vaqtda Olapar qaysi tomonda qolganligini, shamol qayoqdan esayotganligini, quyosh qoyaning qaysi tomonida ekanligini eslab qolish, eslab qolganda ham yaxshilab eslab qolish zarur, havo ochiq bo‘lsa, bulutlarga e’tibor berish va shundan so‘nggina dengiz safarini davom ettirish, orollargacha suzib borish kerak. Poyonsiz dengizda yo‘ldan adashmaslik uchun xayolan Olaparning qayerdaligini mo‘ljallab suzish kerak.

Ovchilar taxminan bir kunlik masofadagi orollarga yo‘l olishdi. Kimsasiz, huvillagan, kichik tosh orolchalar qirg‘oqsiz, hadsiz-hududsiz dengiz o‘rtasida uch qoramtir siynaday suvdan turtib chiqib turishardi. Shuning uchun orolchalarni Katta siyna, O‘rta siyna, Kichik siyna deb atashardi. Ulardan o‘tgandan so‘ng, agar yana olislab suzib ketishaversa, okeanga — ummon yo‘liga chiqib qolishar, bu ummonning had-hududini ham, nomini ham bilmas edilar. Mana shu mangu, buyuk, kimsasiz, noma’lum, sirli ummon olam yaralganidayoq o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgandi. O‘sha qadimgi Luvr o‘rdak in qurish uchun kaftday yer topolmay faryod chekib, charx urib, giryon-u sargardon bo‘lib yurgan vaqtlarda ham ummon bor edi. Ana shu orollarda, dengiz va ummon sarhadida mana shu bahor kunlari nerpalar bozori qiziydi. Ana shularni deb shu yoqqa otlanishgan, ana shularni deb shu yoqqa kelishayotgan edilar...

Bola dengizni ko‘rib, hayratlarga g‘arq bo‘ldi, dengiz Olapar yonbag‘irlarida o‘ynab yurganida tasavvur qilganiday emas ekan.

Qayiqda ko‘rfaz bo‘ylab suzib yurganlarida ham dengiz boshqacha ko‘rinardi. Bola ko‘rfazdan chiqishlari bilan qarshisidagi manzarani ko‘rib lol qoldi: dengiz birdan yoyilib, ko‘z ilg‘agan va ilg‘amagan samolargacha butun borliqni egallab, olamning yakka-yu yagona, poyonsiz bir butun mohiyatiga aylanganida hayratdan hang-u mang bo‘lib qoldi.

Ochiq dengiz Kiriskni esankiratib ko‘ydi. Bunaqa manzarani xayoliga ham keltirmagandi u. Atrofda qo‘rg‘oshin tusdagi vahimali chayqalib turgan suvdan boshqa narsa yo‘q, zumda paydo bo‘lib, zumda yo‘qoladigan tszkor to‘lqinlar, qora-ko‘kish tortgan dahshatli tubsizlig-u osmon-u falakda yengilgina suzib yurgan oppoq bulutlargina hukmron edi olamga. Olam boshdan oyoq dengizdan iborat edi, cheksiz dengizdan boshqa na qish, na yoz, na tepalik, na sayhonlik — hech narsa yo‘q edi.

Olamni u chekkasidan-bu chekkasigacha suv qoplab olgandi.

Qayiq esa avvalgiday to‘lqinlarga sho‘ng‘ib hamon suzib borardi. Haqiqiy, katta ovni kutib qayiqda ketayotgan bola o‘z quvonchi va o‘y-xayollari bilan band edi. Ammo u suv va suv yuzida ko‘rayotganlariga hozir unchalik e’tibor bermas, bayramda yurganday diqqatini yig‘olmas, butun vujudi, fikr-u zikri kutilayotgan o‘zgacha taassurotlar bilan to‘lib-toshgan edi. Boshqa vaqt bo‘lganda suv sathini har lahzada ming tusga — nimrang binafshadan qora-ko‘kishgacha, qora-ko‘kishdan to qayiq ko‘lankasidagi timqora ranggacha tovlanayotgan to‘lqinlarning tinimsiz jimirlashi bolaning diqqatini o‘ziga jalb etardi; to‘satdan qayiq yonida paydo bo‘lib qolgan, har narsaga qiziquvchan baliqlarni ko‘rib, ichiga sig‘may sevinardi, qayiqqa to‘qnashgan bir to‘da baliqlarning tarqalib qochish o‘rniga qo‘rqqanlaridan battar bir joyga to‘planishib, suvdan yuqoriga sakrayman, deb chalqancha yiqilib tushishlari kulgili bo‘lardi.

Bola bularning hammasiga unchalik e’tibor bermas, bular mayda-chuyda narsalar, eng kizig‘i oldinda, deb o‘ylardi. Orollarga tezroq yetib olsaydik, tezroq ish boshlasaydik, deb toqatsizlanardi.

Ammo ko‘p o‘tmay, bolaning ko‘ngli g‘ashlana boshladi, biroq u buni sezdirmasdi. Ularning qayig‘i yerdan uzoqlashganida, ayniqsa Olapar to‘satdan to‘lqin mavjlari ortida ko‘rinmay

qolganida bolaning ko‘ngli qandaydir xavf-xatarni ilg‘ay boshladi. Dengiz xatarli ekanligini, endi dengizga bog‘lanib qolishganligini, buyuk tabiat qudrati oldida o‘zlarining zarraday kichikligini va zarraday ojizligini payqay boshladi.

Bu uning uchun yangilik edi. Shunda u ilgari e’tibor bermaydigan Olaparning naqadar azizligini tushundi. Olapar qoyasi yonbag‘irlarida cho‘chimasdan huzur kilib chopqillab o‘ynab yurgan kezlari qayerda ekanligini o‘ylab o‘tirmasdi. Olaparning o‘z o‘rnida qanchalik kuch-qudratga ega ekanligini, qanchalik matonatli va saxiy ekanligini, hamisha o‘rnidan jilmay, dengizning har qanday hamlalariga bardosh berib turganligini endi tushundi.

Quruqlik bilan dengizning farqini bola endigina angladi. Odam yerda yurganida yer to‘g‘risida o‘ylamaydi ham. Dengizda bo‘lganingda esa mudom dengiz to‘g‘risida o‘ylaysan. Xayolingda boshqa narsa kezsa ham dengizni o‘ylayverasan. Shuni anglagach, bola hushyor tortdi. Dengiz doim meni o‘ylanglar, deb zo‘rlaydi. Mana shu zo‘rlik ostida qandaydir sirli, qaysar va hokim kuch bor edi...

Shunga qaramay, kattalar xotirjam edilar. Emrayin bilan Milxun hamon bir zaylda, go‘yo bir odamday, baravar qulochlab, baravariga eshkak surishar, to‘rtala eshkak suv yuziga birdaniga tushib tortilganda qayiq yengil va erkin suzardi. Ammo bunday tinimsiz harakat eshkakchilar uchun juda og‘ir ish edi. Eshkakchilar o‘girilib o‘tirishgani uchun bola ularning yuzlarini ko‘rmasa-da, harakatdan bo‘rtib chiqqan yelka va bilaklarini ko‘rib turardi. Ular ahyon-ahyonda bir-biriga so‘z qotib qo‘yishardi. To‘g‘ri, otasi gohida bolaga o‘girilib, “Qalay o‘tiribsan?” deganday, miyig‘ida jilmayib qo‘yardi.

Ular shu asnoda suzishda davom etardilar. Kattalar o‘zlariga ishonganlaridan xotirjam va tetik edilar. O‘rxon bobo-ku, pinagini buzmasdi. U hamon trubkasini so‘rgancha o‘tirgan joyida qayiqni boshqarib borardi. Shu zaylda har kim o‘z ishi bilan band bo‘lib, olg‘a siljishardi. To‘g‘ri, Kirisk bir-ikki marta, goh Milxun bilan, goh otasi bilan sherik bo‘lib eshkak eshishga urindi. Kattalar sen ham eshib ko‘r, deb unga eshkaklarni tutkazishardi. Axir, u ham mehnatga o‘rgansin-da. Garchi Kirisk ikkala ko‘li bilan yopishib, bor kuchi bilan eshsa-da, bari bir bu ish unga og‘irlik qildi, uning

uchun qayiq ham, eshkak ham zilday og'ir tuyuldi. Ammo hech kim Kiriskka eplayolmayapsan, deb o'pkalamasdi.

Olapar qoyasi to'satdan g'oyib bo'lganida, negadir, hammalari jonlanib kolishdi:

— Olapar uyga qaytib ketdi! — xitob qildi otasi.

— Ha, qaytib ketdi, — ta'kidladi Milxun.

— Yo'g'-e! To'g'ri, qaytib ketganga o'xshaydi, — o'sha tomonga qaradi O'rxon bobo. — Unday bo'lsa ishlar chakki emas. Hoy, Kirisk, — u bolaga quvlik bilan qarab qo'ydi,— Olaparni chaqirsang qaytib kelmasmikin?

Hamma kulib yubordi. Kirisk ham. So'ng u o'ylanib turib, baland ovoz bilan dedi:

— Unday bo'lsa orqaga suzishimiz kerak, ana shunda Olapar qaytib keladi!

— Ho, bilag'on ekansan! — xitob qildi O'rxon bobo jilmayib.

— Yaxshisi, ke, ish qilaylik. Yonimga o't. Dengizga hadeb qarayverma. Qaraganing bilan oxirigacha ko'rolmaysan bari bir.

Kirisk qayiq tumshug'idan turdi. Oyoq ostidagi narsalarni — bug'u terisiga o'ralgan ikkita vinchester, nayza, arqon o'rami, suvli bochka, oziq-ovqat solingan to'rva va yana qandaydir tugun va kiyim-kechaklarni bosib, qayiqning quyrug'iga o'tdi. Qayiq chetini ushlab eshkaklarning dastasi ustidan hatlagancha o'tar ekan, ovchilarning bo'yni-yu yelkalaridan chiqqan ter va tamaki hidini tuydi. Uyda otasining kiyimidan shunday o'tkir hid kelar, otasi ovga ketgan paytlarda esa oyisi uning eski charm kamzulini suyib hidlar, yuziga bosar edi.

Otasi o'g'lini bosh irg'ab, yelkasi bilan biqiniga salgina turtib erkalatgan bo'ldi, ammo eshkakni qo'lidan qo'ymadi. Ammo Kirisk otasining beixtiyor erkalatishiga erib ketmadi, qayrilib ham qaramadi. Ha-da, dengizda hamma birday. "Kemaga tushganning joni bir", deb bekorga aytmaganlar. Dengizda ota, bola degan gap bo'lmaydi. Dengizda faqat darg'aning gapi — gap. Uning buyrug'isiz qayiqda biror cho'pni u yerdan bu erga olib bo'lmaydi...

— O'tir, mana buyoqqa, — dedi O'rxon bobo unga joy ko'rsatib, uzun, sertomir qo'llarini bolaning yelkasiga qo'yar ekan. — Ozgina cho'chiding-a? Avvaliga xotirjam o'tirding, keyin esa...

Kirisk xijolat tortganday bo'ldi: demak, O'rxon bobo uning qay ahvolda o'tirganini sezganga o'xshaydi. Biroq shunga qaramay u e'tiroz bildirdi:

— Yo'g'ay, atkichx[1], sirayam cho'chiganim yo'q! Nimadan cho'chirdim!

— Har holda dengiz safariga birinchi chiqishing...

— Nima bo'pti, birinchi chiqsam? — Bo'sh kelmadi Kirisk. — Men hech narsadan ko'rqmayman.

— Bo'pti, bo'pti. Men esam, birinchi bor dengiz safariga chiqqanimda, bunga juda ko'p yillar bo'ldi, rostini aytsam, qo'rqib ketganman. Bir vaqt qarasam qirg'oq allaqachon ko'rinmay kolibdi, Olapar it ham allaqayoqqa qochib ketibdi. Qayoqqa qarasam to'lqin... O'shanda darrov uyga qaytib ketgim keldi. Ana, Emrayin bilan Milxundan ham so'rab ko'r-chi, birinchi marta dengizga chiqqanlarida qanday bo'lgan ekan?

Ular javob berish o'rniga tushunganday bosh irg'ab kulib qo'yishdi-yu, yana eshkakka zo'r berishdi.

— Men bo'lsam qo'rqmadim, — deb gapida turib oldi Kirisk.

— Demak, botir ekansan, — tinchitdi uni O'rxon bobo. — Qani endi aytgin-chi, Olapar qaysi tomonda qoldi?

Kirisk kutilmaganda bir zum o'ylab turdi-da, so'ng qo'li bilan ko'rsatdi:

— Hov anov yoqda!

— Rostdanmi? Negadir qo'ling sal qaltirayotipti-ya?

Qo'lining titrog'ini bosishga uringan bola sal o'ngroq tomonni ko'rsatib:

— Anov yoqda! — dedi.

— Mana endi to'g'ri aytding! — dedi O'rxon bobo. — Agar qayig'imizning tumshug'i manavi tomonga burilib turgan bo'lsa, Olapar shunda qaysi tomonda koladi?

— Anov yoqda!

— Agar shamol qayiqni buyoqqa burib yuborsa-chi?

— Anov yoqda!

— Agar chap tomonga qarab suzsak-chi?

— Unda mana bu tarafda bo'ladi.

[1] **Atkichx** — nivxcha "bobo" degani.

— Yaxshi, endi aytgin-chi, qanday aniqlayapsan, axir to‘rt tarafimiz faqat suvdan iborat bo‘lsa? — o‘smoqchilab so‘radi O‘rxon bobo. — Shuni aytib bera olasanmi?

— Meni boshqa ko‘zim ham bor, — javob berdi Kirisk.

— Qanaqa ko‘z u?

— Bilmadim. Qornimda bo‘lsa kerak. Ana shu qornimdagi ko‘zim yumuq tursayam ko‘raveradi.

— Qornida ko‘zi bor ekan! — kulib yubordi hamma.

— Aytganicha bor, — dedi uning gapini ma’kullab O‘rxon bobo. — Odamda shunaqa ko‘z ham bo‘ladi. Ammo u qorindamas, boshda bo‘ladi.

— Mening ko‘zim qornimda, — o‘zinikini ma’qullab turib oldi Kirisk, garchi bunday ko‘z qorinda emas, balki boshda bo‘lishiga ishonayotgan bo‘lsa ham.

Oradan sal o‘tib, chol yana Kiriskni sinovdan o‘tkaza boshladi, bolaning dengiz tomonlarini yaxshi bilishiga ishonch hosil qilgach, xotirjam bo‘lib o‘zicha g‘udurladi:

— Yaxshi, qorningdagi ko‘zlaring chakki emas ekan.

Maqtovdan ko‘ngli o‘sgan Kirisk o‘ziga o‘zi savollar berib, ularga o‘zi javob topishga harakat qildi. Dengiz biroz tinchlanib turgan paytda bu jumboqlarni yechish uncha qiyin emasdi. Kirisk qayerda bo‘lmasin, qayerda turmasin, sadoqatli va ulug‘vor Olapar qoyasini o‘ylagan vaqtda u har gal xotiridan o‘chmay, beixtiyor ko‘z o‘ngida paydo bo‘lar va bolani o‘ziga chorlayotganday qaysi tarafdaligini eslatib turardi. Hatto yonbag‘irlaridagi to‘qayzorlar, yuqoridagi qoyalar-u poyidagi qashqa korlargacha, hamisha tinim bilmay to‘lqin urib okkan tik jarliklarigacha go‘yo butun borlig‘i bilan xayoliga kelib turadi. Bola Olapar qoyasini ko‘z oldiga keltirar ekan, uning atrofidagi boshqa tepaliklarni ham o‘ylamasligi mumkin emas edi. Shuningdek, u beixtiyor o‘z uyini ham o‘ylay boshladi. Ko‘z oldiga qirg‘oqdagi tepaliklar orasidan kichik vodiy keldi, u yerdagi o‘rmon chetida, anhor bo‘yida joylashgan manzildagi kesilgan yog‘och uyumlari, kapponlar, itlar, tovuqlar, baliq qoqlanadigan ilgaklar, mo‘ridan chiqayotgan tutunlar, odamlarning g‘ala-g‘ovuri, oyisi va singlisi Psulk paydo bo‘ladi. Bola ularning shu damda nima qilishayotganini ham ravshan tasavvur etardi.

Oyisi, albatta Kiriskni, otasini, dengiz oviga chiqqanlarning hammasini ko'nglidan o'tkazyapti. Ha, hozir ham shubhasiz ular haqida o'ylayapti. O'ylayapti-yu, "Yovuz ruhlar fikrlarimni, qo'rqayotganimni bilib olishmasin", deb hadiksiraydi. Kiriskni yana kim ham o'ylardi, ehtimol Muzluk o'ylasa kerak. Shu damlarda Muzluk ularning uyiga, go'yo Psulk bilan o'ynagani kelgan bo'ladi. Agar u bilmasdan dengizga, ovga ketganlar to'g'risida gapirib qolsa, oyisi, "Sen nimalar deb vaysayapsan, ularni o'rmonga o'tin tergani ketganidan bexabarmisan", deb koyib berishi turgan gap. Qizaloq birdan xato qilganligini bilib, uyalib jim bo'lib qoladi. Kirisk: "U meni o'ylasa qanday yaxshi bo'lardi", deb orzu qilar, ammo o'zi uni deb qizning ta'na-dashnom eshitishini aslo istamasdi.

Qayiq esa hamon avvalgiday, to'lqinlarga sekin to'sh urib, yengil suzib borardi. Atrofda kuchsiz to'lqinlar quyosh nurida mavjlanib, dengiz yuzi ko'piklanib yotardi. Nivxlar choshgohgacha, hech bo'lmasa, kunbotishgacha birinchi orolga, eng yaqini, Kichik siynaga yetib olishni, ishlari o'ngidan kelsa, ovni boshlab yuborishni mo'ljallagan edilar. So'ng iloji bo'lsa qorong'i tushmasidan orollardan ikkinchisiga — O'rta siynaga yetib borib, tunab qolishmoqchiydi: u yerda qayiqni qo'yish uchun qulay joy bor edi. Ertasiga ertalab yana dengizga otlanishardi. Shu kunning o'zida ovlari baroridan kelib, uchta nerpani saranjomlashsa, hayallamay, tongdayoq orqaga qaytishlari mumkin edi. Nima bo'lsayam, kunning birinchi yarmida, quyosh ikki terak bo'yi ko'tarilgan paytdan kechikmay yo'lga chiqishsa tuzuk bo'ladi. Dengizdan qanchalik tez qaytilsa, shunchalik yaxshi bo'lishini hamma biladi.

O'rxon bobo shularni nazarda tutib, hamma ishlarning hisobkitobini olib qo'ygan edi. Uning yordamchilari Emrayin bilan Milxun ham Uch siyna orollariga birinchi borishlari emasdi. O'zlari ham ishning ko'zini bilishadi. Eng muhimi — havoning avzoyi yaxshi bo'lsa, shuningdek, hayvonlarni vaqtida topishsa bo'lgani. Qolgani ovchilarning o'ziga, har birining abjirligiga bog'liq.

O'rxon bobo dengiz safariga faqat tirikchilik uchungina chiqmasdi. To'g'ri, tirikchilik — tirikchilik, dengiz ne'matlarisiz yashab bo'lmaydi. Bundan tashqari, dengiz cholni har doim ohanraboday o'ziga tortar, poyonsizligi O'rxon boboning dilidagi muqaddas,

ezgu o'ylariga erk berardi. Ha, cholning dilida sir saqlaydigan, ezgu o'ylari bor edi. Quruqlikda ko'p narsalarni o'ylashga fursat topilmaydi, mayda-chuyda kundalik tashvishlar vaqtni oladi. Dengizda bu narsalarni o'ylash mumkin, dengizdagina O'rxon boboni buyuk o'ylaridan hech kim chalg'itolmasdi. Bu yerda u o'zini Dengizga va Osmonga yaqin sezardi.

Cheksiz kenglik qarshisida qayiqda o'tirgan odamning hech nimaga arzimasligini chol yaxshi tushunardi. Lekin inson o'ylari bilan Dengizga va Osmonga tenglasha oladi. Shu o'ylari bilan u tabiatning abadiy qudrati oldida o'zining mavjudligini isbotlaydi, shu bilan inson koinotning teranligi va yuksakligiga munosib bo'la oladi. Shuning uchun ham inson hayot ekan, u ruhan dengizday qudratli, ruhan osmonday cheksiz: chunki o'y-xayolotning cheki yo'q. Agar inson o'lsa, uning o'y-xayollarini boshqa bir inson davom ettiradi, u ham o'lsa, keyingisi va hokazo, bu hodisa cheksiz davom etaveradi... Shuni anglaganidan chol chidab bo'lmas achchiq qismatga chidash kerakligini his qilib, taskin topar edi.

U hayot bor yerda o'lim ham haqligiga ishonardi. O'zining ham vaqti soati kelib umri tugashini bilardi. O'lgandan keyin hammasi bir pul, lekin shunday bo'lsa-da, nima uchundir qalbining to'ridagi ezgu niyatlari, Suv parisi haqidagi g'aroyib tushlarining abadiyligiga, o'lganidan keyin ham yashashiga ishonardi. U ko'rgan tushlarimni boshqalarga qoldirishim mumkin emas, tushni birovlarga qoldirib bo'lmaydi, shuning uchun ham ular izsiz yo'qolib ketmasligi kerak deya o'ylardi... Ha, yo'qolib ketishi mumkin emas. Buyuk Suv parisi mangu yashaydi, demak, u haqdagi tushlar ham manguligicha qolishi kerak-ku.

Dengiz safarida chol mana shular to'g'risida juda ko'p o'ylardi. Shunday paytlarda u uzoq sukutga botar, o'zi bilan o'zi bo'lib, yo'ldoshlariga bir og'iz so'z kotmas edi. Dengizga boqib, kimga murojaat etayotganini o'zi ham bilmay faqat bir narsani — buyuk Suv parisi yashaydigan tushlarini asrashni iltijo qilardi. Axir odamning tushlari o'zi bilan narigi dunyoga ham birga ketishi, u tushlar egasi bilan abadiy birga bo'lishi mumkin emasmi? U bunga javob topa olmagach, iztirobda o'y surib, "Aslida shunday bo'ladi, tushlarimdan abadiy ayrilmayman", deb o'zini ishontirishga urinardi.

...Qachonlardir juda qadim zamonlarda, Olapar qoyasi sohilida uch aka-uka yashardi. To'ng'ichi — ildam, tepaliklarga yugurib chiqadigan, istagan yog'iga bir zumda yetib boradigan chaqqon yigit edi. U bir bug'uboqar odamning qiziga uylanibdi, hisobsiz bug'uga ega bo'libdi-da, tundra tomonlarga ko'chib ketibdi. Kenja o'g'il iztopar va mergan yigit bo'lib, u ham o'rmonchi odamlardan birining qiziga uylanibdi va tayga tomonlarga ko'chib ketib, ovchilik bilan kun kechira boshlabdi. O'rtancha o'g'il oqsoq bo'lib tug'ilgan ekan. Erta turib, kech yotsa ham ishi yurishmas, bug'ularni quvib yetolmas va o'rmonda biror hayvonni tutolmas ekan. Shuning uchun ham tevarak-atrofdagi odamlar unga qizini bermabdi. Akasi bilan ukasi ham uni tashlab ketishibdi. Moviy dengiz bo'yida oqsoq yigit yolg'iz o'zi kolibdi. Shu tariqa u mayda-chuyda baliq tutish bilan tirikchilik qila boshlabdi. Ammo bu bilan o'tgan kun o'zingizga ma'lum...

Bir kuni tolesiz yigit o'z qayig'ida dengizga qarmoq tashlab o'tirgan ekan, birdan qarmog'ining ipi yulqina boshlabdi, shunda u ovi baror kelishini his qilib quvonib ketibdi. Asta-sekin torta-torta baliqni qayig'iga yaqinlashtiripti.

Bir vaqt mo'jizaga ko'zi tushibdi! Qarmoqqa ilingan jonivor ayol qiyofasidagi baliq ekan! U jon-jahdi bilan suvni shaloplatib, har tomonga to'lg'anib, sapchib kochishga urinibdi. Suv parisining husni jamoli ta'rifga sig'mas emish. Badani sip-silliq, sutday oydin kechadagi soy toshlari singari kumushday tovlanadi, oppoq siynalarining qoramtir uchlari qarag'ay yong'og'iga o'xshab bo'rtib turar, ko'zlari yashil uchqun sochib porlardi. Yigit Suv parisini dengizdan ko'tarib chiqarib olgan paytda u ham yigitning bo'ynidan quchoqlagancha ikkalasi ham qayiqda yotib qolishibdi. Bunday baxtdan oqsoq yigitning boshi aylanib, esankirab qolibdi. Nazarida qayiq birdan osmonga sapchib ketgan emish. Shunda dengiz ham osmonga sapchib, osmon dengizning ustiga yopirilib tushganday bo'libdi. So'ng bo'rondan keyin bo'lganidek hammayoq birdaniga jimib qolibdi va Suv parisi shu zahotiyoq qayiqdan sakrab tushib suzib ketibdi. Yigit olg'a tashlangancha Suv parisini chaqirib, qayta qol deya yalinib-yolvoribdi. Lekin Suv parisi ovoz bermay, dengiz qa'rida g'oyib bo'libdi...

Kimsasiz dengiz bo‘yiga tashlab ketilgan bechora oqsoq yigitning boshiga ana shunday savdo tushgan ekan. Suv parisi o‘sha ketgancha qaytib kelmabdi. Oqsoq yigit esa shu kundan boshlab, Suv parisi hijronida telbanamo bo‘lib qolibdi. Shu kundan boshlab u kun-u tun sohilda ko‘z yosh to‘kib Suv parisini izlab yurar, atigi uzoqdan bo‘lsa ham bir ko‘rsam, deb yalinib-yolvorib so‘rar ekan.

Vaqt-vaqti bilan dengiz toshganda u suv bo‘yiga chiqib:

Qayda suzib yurasan, ey Buyuk Ona baliq!

— deb kuylar ekan. Suv qaytganda esa yana:

Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq!

— deb kuylarkan.

Oydin kechalarda kezar va kuylarkan:

Bu dengiz sog‘inchimdir,
Bu suvlar ko‘zim yoshi.

Qorong‘i kechalarda kezar va kuylarkan:

Yer esa — yolg‘iz boshim...
Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq!..

Suv toshganda kezar va kuylarkan, suv kaytganda kezar va kuylarkan... Shu orada qish ketib, izidan bahor ham o‘tibdi. Yoz kunlari baxtiqaro yigit sohilda maymoqlanib, giryon kezib yurar, tizzasigacha asov to‘lqinlarga botib, Suv parisi ko‘rinib qolarmikin, sado berarmikin, degan ilinjda dengizga uzoq-uzoq tikilar ekan. Ana shunday kunlardan birida yigit dengizning qirg‘oq yakinidagi sayoz joyida bola yig‘isiga o‘xshash ovozni eshitibdi. Bola emas, hozirgina tug‘ilgan norasida chirillab yig‘layotganday ovoz eshitilibdi. Yigit u yerga chopib boradi-yu, o‘z ko‘ziga o‘zi ishonmay qoladi — suvning sayoz yerida, to‘lqinlar ichida goh ko‘rinib, goh ko‘rinmay faryod chekib o‘tirgan qipyalang‘och chaqaloqqa ko‘zi tushadi

Go‘dak: “Mening otam kim? Qani mening otam?” — deb chirqirab yig‘larmish. Oqsoq yigit buni ko‘rib, hayratdan hang-mang

bo‘lib qolibdi. Chaqaloq esa uni ko‘rishi bilan: “Dadajon, men sizning o‘g‘lingizman! Meni bu yerdan olib keting!” debdi.

Qarang, qanday ajoyib-g‘aroyib voqealar yuz bermaydi deysiz! O‘sha odam o‘z bolasini bag‘riga bosib uyiga olib ketibdi.

Bola tez o‘sib, ulg‘ayibdi. Dengizga ovga chiqadigan bo‘libdi. Jasur va kuchli ovchi degan nom chiqaribdi. Tolei baland bo‘lib tug‘ilgan ekan: dengizga to‘r tashlasa — g‘ij-g‘ij baliq chiqar, yoydan o‘q otsa, dengiz hayvonining bo‘g‘zini teshib o‘tar ekan. Uning shuhrati uzoq-uzoqlarga, o‘rmonlaru tog‘lar ortiga ham taralibdi. O‘rmon qabilasidan bo‘lgan esli-hushli bir qizni barcha rasm-rusmlari bilan unga olib berishibdi. Farzandlar tug‘ilibdi.

Shunday qilib, Suv parisi — Ona baliq avlodi ko‘payib, dunyoga tarqalibdi. Bayramlarda aytiladigan qo‘shiq o‘shandan qolgan ekan:

Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq?
Sening qaynoq pushtingdan —
mangu hayot boshlangan,
Sening qaynoq pushtingdan — undik dengiz bo‘yida,
Sening qaynoq bag‘ringdir — ochunda eng go‘zal joy.
Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq?
Xuddi nerpa boshiga o‘xshaydi oppoq siynang,
Bizni boqdi dengizda xuddi shu oppoq siynang
Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq!
Eng devkor, alp erkak suzib borar sen tomon,
Sening pushting, urug‘ing gullab-yashnasin, debon,
Yer yuzinda avloding unib-ko‘paysin debon...

* * *

Qudratli kuch ta’sirida cheksiz bahribar — ummon tublaridan chiqib kelib, qirg‘oqlarni, maysalarni, qumtepalarni bosib, sehrli og‘ushiga olgan dahshatli suv ko‘tarilishi va qaytishidek mana shu tush ham o‘z-o‘zidan quyilib kelaverardi.

Har gal mana shu tushni ko‘rganida O‘rxon bobo uzoq vaqtgacha gangib yurardi. Tushining rostligiga u qattiq ishonardi. Biroq Suv parisi bilan ko‘rishganlarini biror jonzotga aytmasdi. Bunday

voqea tushida emas, o'ngida, shunday yashab yurgan paytda yuz berganida ham albatta hech kimga aytmagan bo'lardi.

Mana shu voqea cholning tushlariga tez-tez kirib turar, uni ham quvontirib, ham qayg'uga solib, ruhan azoblardi. Bu tushning ajoyib-g'aroyib xosiyati shunda ediki, u har gal O'rxon boboga o'zining mohiyati, ma'nolari va ishoralarining teranligi va aql bovar qilmas darajadagi turlanishlari bilan lol qoldirardi. Chol ko'rgan tushlarining hayot bilan allaqanday mavhum, sezilar-sezilmas sirli munosabati haqida o'y surardi.

Bu aloqaning sirli ekanligi va mavhum alomatlari odamni hamisha azobga solardi. O'rxon bobo beixtiyor shuni his etdiki, ko'ngli har qancha alg'ov-dalg'ov bo'lsa ham, u o'sha tushida ko'rganlarini yana va yana ko'rgisi kelaverar, doimo buyuk Suv parisi visol sog'inchi bilan yashardi.

O'rxon Suv parisi bilan dengizda uchrashardi. Uning paydo bo'lishini kutib, huvillab yotgan kimsasiz qumloq sohilda, botib borayotgan quyoshning so'nik nurlari shu'lasida uzoq vaqt kezib yurardi. Biroq qumdagi oyoq izlari ko'rinmasa ham quyosh botib ketgandan so'ng uning harakatsiz ko'lankalari ko'zga tashlanib turardi. Bu ko'lankalar qop-qora qorni eslatardi, yurakni o'rtovchi, g'ayriinsoniy sog'inch butun vujudini qamrab olgan O'rxon ana shu qop-qora qor ustida giryon kezardi. Vujudi ishq dardi, umid va istak dardi bilan to'lib-toshar, ammo yaydoq dengiz esa parvoyi falak sukut saklab turardi. Mana shu hayhotday yolg'izlik olamida na g'ir etgan shabada, na bir inson ovozi, na bir sharpa sezilardi. Chol esa dengizdan ko'z uzmay mo'jizani, parini orziqib kutardi.

Qirg'oqqa urilgan unsiz to'lqinlar yo'liga bodroqday oppoq ko'piklardan poyandoz solishini ko'rib yuragi g'am-g'ussaga to'lardi. Boshi uzra sassiz oqchorloqlar laylakkorday bezovta charx urib uchishardi. Mana shu gang va gung makonda o'zini qayoqqa sig'dirishni bilmay, ko'ngli ozayotganini sezar, hijronda vaqt o'tgan sari uning tiyiqsiz, ayovsiz sog'inchi tobora qalbini o'rtab, azob berib, kuchaygandan-kuchayib borar edi; hatto tushlarida ham Suv parisini ko'rmasa, ayol oldiga kelmasa yashayolmasligini, yolg'izlik sahrosida xarob bo'lishini his qilardi. Ana shunday paytlarda u ovozining boricha qichqirib, Suv parisini yo'qlab chaqirishga

kirishar, ammo u o‘z ovozini farqlay olmasdi, chunki bu g‘alati tushdagi hamma narsalarning ovozi o‘chgan va o‘zi ham ovozdan mahrum edi. Dengiz hamon sukut saqlardi. O‘rxon faqat o‘zining og‘ir-og‘ir, uzuq-yuluq harsillab nafas olishini, o‘z yuragining qinidan chiqib ketguday bezovta dukullashini, chakkalarining nihoyatda lo‘qillab, zirqirab aks sado berishini eshitardi, xolos. Mana shulargina uni ta’qib etardi.

Bu tovushlar uni asabiylashtirardi, u o‘zining yuragidan chiqqan ovozlardan qayoqqa qochib ketishini bilmay, g‘ashlanardi. Cho‘kayotgan odam qutulishga qanday jon-jahdi bilan intilsa, u ham Suv parisiga shu qadar ehtiros va telbalik bilan intilardi. O‘rxon faqat Suv parisigina baxt taqdim eta olishini bilar va u so‘nggi nafasigacha uni kutardi.

Nihoyat, Suv parisi shiddat bilan.to‘lqinlar orasidan chiqib yaltyult etgancha u tomonga qarab suzib kelayotganda birdan tilsiz dunyo soqovligidan qutulib, tilga kirar, olam shovqini ko‘chkiday bosib tushar, u olamning yana o‘z holatiga kelganini quvonib, qiyqirib qarshilar, yana borliqni qirg‘oqqa urilayotgan to‘lqinlarning shovullashi, shamolning guvillashi hamda boshi uzra charx urib uchayotgan oqchorloqlarning g‘ala-g‘ovuri bosib ketardi. U sevinganidan qiyqirib, o‘zini dengizga otar, tezsuzar nahangsimon allaqanday maxluqqa aylanib qolardi.

Suv parisi esa uning kelishini kutib, charx urib aylanar, o‘zini suv ustiga otib, talpinib, to‘lg‘anib, bir lahza havoda muallaq osilib qolardi. Shunday paytda u to‘satdan dengizga tushib qolgan haqiqiy xipcha bel ayolday aniq ko‘zga tashlanardi. O‘rxon Suv parisi yoniga suzib borar, so‘ng ikkalasi ummon sari yo‘l olishardi.

Endi ular birga suzishar, bir-birlariga tegib-tegmay, tobora shiddat bilan oldinga intilishardi! U xuddi mana shunday lahzalar nasib kilar degan umidda sarhushlik, sog‘inch azobida qovrilar edi.

Mana, nihoyat ular bir-birlarining visoliga noil bo‘lishdi. Ular aql bovar qilmas kuch va shiddat bilan tungi okeanning tub-tubidan chiquvchi ajoyib-g‘aroyib shu’la bilan jimirlayotgan ufqning tayinsiz hududi tomon intilishardi. Ular qarshilaridan tinim bilmay ko‘pirib kelayotgan o‘rkach-o‘rkach to‘lqinlarni gavdalari bilan yorib, goh balandga, goh pastga parvoz qilishdan cheksiz lazzat

olib o‘qday uchishardi. Ularning yonginasidagi oy esa shoshilayotgan to‘lqinlar tizmasidan ortda qolmay ko‘zgu shu’lasi yanglig‘ bir yerda turmasdan ikkalasining izidan mudom kuzatib borardi. Shu lahzalarda yolg‘iz oy bilan yolg‘iz ular — u bilan Suv parisi va cheksiz ummon kengligi hokim edi borliqqa. Olamda faqat ular-u faqat ummon bor edi! Mana shu lahzalarda ularning baxtiyorligi, shodonligi arshi a’loga yetmoqda edi. Bu erk lazzati, visol tantanasi lazzati edi...

Ular shiddat bilan tinim bilmay suzishar, olamda faqat o‘zlariga atalgan olis maskanga tezroq yetib borish, u manzilga tezroq yetib, qovushish ehtirosida sarkash suzishar, nihoyat, chaqinday birgina lahzada hayotning ibtidosi-yu intihosining butun lazzati-yu butun alam-achchig‘ini totish nasib etadigan manzilga tezroq etishish orzusida tinimsiz talpinishardi.

Shu asnoda ular tilaklariga tezroq etishish orzusida jon-jahdlari bilan tinim bilmay, to‘xtovsiz suzib borishardi.

Ular qanchalik tez suzishsa, bir-birovlariga yaqinlashish tuyg‘usi shunchalik alangalanib borardi. U charchash nimaligini bilmay, jonholatda suzar, urchish manziliga intilib, butun kuch-quvvatini, eng oxirgi, eng mayda tomchisigacha sarflaydigan losos balig‘iday holdan toyguncha suzar edi. U ishq yo‘lida o‘limdan ham tap tortmay suzar edi. Sirli Suv parisi esa to‘lqinlar uzra kamalak nurlari yanglig‘ suv zarralari buluti orasida silliq badani marvaridday tovlanib, O‘rxonni hayratga solgancha shiddat bilan olg‘a intilardi. Suv zarralarining zangori va oppoq quyuni orasidagi Suv parisining benihoya go‘zalligidan uning nafasi bo‘g‘ziga tiqilardi.

Ular sira so‘zlashmas, faqat cheksiz ummonda bir-birlarining suv ko‘piklari va zarralari ichida ko‘rinmay ketgan chehralaridan baxramand bo‘lish ishtiyoqida sabr-u toqatlari tugab, istaklari tobora alangalanib, taqdir ularga ravo ko‘rgan makon va zamonga qachon yetarkanmiz, deya tinimsiz suzishardi...

Ammo ular o‘sha makonga, o‘sha zamonga sira yetolmas edilar. U yerga yetib borishning vaqt-soati yo‘qqa o‘xshardi...

Ko‘pincha O‘rxonning tushlari nihoyasiga yetmas, to‘satdan uzilib kolar, bir zumda tumanday tarqab ketardi. Shunday paytlarda u garangsib, taajjubda kolardi. Bundan u chinakamiga xafa bo‘lar,

nimagadir koniqmaganidan, nimaningdir oxiriga yetolmaganidan uzok vaqt ko'ngli g'ash bo'lib yurardi. Goho oradan ko'p vaqtlar o'tgan bo'lsa ham o'sha voqeani yana bir boshdan eslar, bularning hammasi nimani anglatishini jiddiy o'ylab qolar, har qalay, bularning hammasida allaqanday ma'no borligini payqar, tushida ko'rganlariga chin dildan ishonardi, bu narsalar aslida oddiy tush emasligini his etar edi. Negaki, odatdagi tushlar ba'zan eslansa ham keyin butunlay unutilib ketardi.

Bunday o'ylar hakida u boshini kotirib o'tirmasdi, chunki tushga nimalar kirmaydi deysiz. Suv parisini esa O'rxon hech qachon unutolmas, uni hayotida ilgari uchratgan va hozir ham olamda bor mavjudot deb o'ylardi. Shuning uchun ham qariya har gal tushida Suv parisi bilan uchrashib, kutilmaganda ayrilib qolganidan chinakamiga xafa bo'lardi. Bu uchrashuv va ayriliqlarni u chindan ham yuz bergan voqealar deb bilardi.

Ayniqsa, tushi noxush nihoyalanganda u qattiq iztirob chekardi. U ana shu paytda tushining sirli nihoyasiga hech qanday izoh topolmay chukur g'am-anduh, qayg'u-hasratga cho'mardi.

Tushida ular orzudagi manzilga yetay-yetay deb qolishar, olisda qandaydir sohil ko'zga tashlanar edi. Bu — sevgi sohili edi, ikkalasi tezroq u yerga yetib, tezroq bir-birlari bilan qovushish uchun jon-jahdlari bilan intilar edilar. Ana shu sohilga endi yetay-yetay deb qolganlarida birdan suvi tizzadan keladigan sayoz qumloq chiqib qolar va safarlari shu yerda uzilib qolardi. O'rxon o'zini o'nglab olib yon-veriga qaraganda Suv parisi jonholatda makkor sayozlikdan qutulishga urinardi. Manglayidan sovuq ter quyilayotgan O'rxon unga yordam berishga oshiqardi. Ammo yonginasidagi pariga yetib borish uchun bir umr ketadiganday tuyular, yutib borayotgan botqoqlik singari suv tubidan oyoqlarini chiqazolmay, tizzalab emaklar, ammo uvishib qolgan oyoqlari go'yo birovnikidek unga itoat etmay arang sudralardi. Suv parisi yonginasida, go'yo qo'l uzatsa yetadigan joyda bo'lsa ham unga yetolmay iztirob chekardi, nafasi bo'g'ilib, entikib, suv tubidagi yopishqoq o't-o'lanlarga o'ralashib yiqilib tushardi.

Ammo go'zal Suv parisining sayozlikda shaloplab, o'zini uyoqdan-buyoqqa urib, nafasi bo'g'ilayotganligini ko'rish yanada azob

edi. Nihoyat, O'rxon bir amallab Suv parisi qoshiga yetib borib, uni ko'ksiga bosgancha boshi aylanib, gandiraklab, qirg'oq tomon yaqinlashar ekan, qizning yuragi parvozda urib tushirilgan yarador qushnikiday qinidan chiqay-chiqay deyayotganini aniq sezib turardi. U parini ko'ksiga qattiq bosganicha go'yo himoyaga muhtoj zaifa go'dakni ko'tarib ketayotganday avaylab, ardoqlab borayotganida unga mehri tovlanib, rahmi kelganidan qaynoq ko'z yoshlari tomog'iga tiqilib qolardi.

U Suv parisi oldida hayajon va nomusdan yig'lab yubormaslik uchun o'zini zo'rg'a tiyib turardi. U Suv parisiga jon-tani bilan berilib nafasini ichiga yutgancha oyoq uchida, ohista-ohista avaylab ko'tarib borar ekan, har lahza uni o'ylardi. Suv parisi esa ko'z yosh to'kib, unga erk berishni, yana dengizga qo'yib yuborishini so'rab yalinib-yolvorardi. Suv parisi nafasi bo'g'ilib, so'liy boshlar, O'rxonni keng dengizdan boshqa joyda seva olmasdi. Qizning unsiz yig'lab, dardli va iltijoli termilayotganini ko'rgan O'rxon ham bunga chidayolmasdi.

U ortiga qaytardi-da, sayozlikdan o'tib, asta-sekin dengizning odam botar-botmas yeriga yetganda qizni avaylagancha quchog'idan ohista bo'shatib yuborardi.

Suv parisi dengiz ostiga suzib ketar, u esa garangsib, yolg'iz o'zi qolardi. O'rxon uning ortidan tikilganicha ho'ngrab yig'layotganida uyg'onib ketardi.

Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq?
Bu dengiz sog'inchimdir,
Bu suvlar — ko'zim yoshi.
Yer esa — yolg'iz boshim.
Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq?..

U bu voqeani eslaganda qattiq azoblanardi, chindan ham Suv parisini ushlab kuchog'iga bosganday va yana uni o'z erkiga qo'yib yuborganday bo'lardi. Nega shunday bo'larkin-a? Axir odam tushida har qanday istagiga erisha qolsa bo'lmaydimi? Bu narsa kimga bog'liq, bu qanday hikmat, nimaga yo'ysa bo'ladi uni? Bu jumboqning siriga tushuna olmagan O'rxon oxiri ko'l siltab, Suv parisini unutishga, uni o'ylamaslikka harakat kilardi.

Biroq dengiz oviga chiqishi bilan O'rxon o'zi sezmagani holda yana Suv parisini, u bilan bog'liq hamma voqealarni o'ylay boshlardi. O'sha g'aroyib tushidagi voqealarni dengizda yana qayta boshdan kechirganday bo'lar, hushyor tortib ajablangancha: "Nega endi hadeb Suv parisini o'ylaganim o'ylagan, aslida bo'lmagan Suv parisini qarigan chog'imda menga kim qo'yibdi?" — deb o'zini o'zi koyirdi. O'ziga o'zi tanbeh berarkan, u nimagadir ishonardi: agar Suv parisi bo'lmaganida allaqachon jonidan bezgan bo'lardi, axir qaridi, quvvatdan qoldi, ko'zidan nur, yuzidan chiroyi ketdi, tishlari to'kildi. Ilgari qanday shuhrat topgan bo'lsa, endi hammasi yo'qolib, tugab boryapti, bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda, ammo hamon yuragida o'ti bor, dilidagi orzu-istaklari hamon avvalgiday, shuning uchun ham kishi mana shunday o'ylarga botadi, mana shunday tushlar ko'radi, chunki faqat tushlarida va xayollaridagina odam o'zini o'lmas va erkin his qiladi. Orzusida u osmonlarga chiqadi, dengiz tublariga tushadi. Inson shuning uchun ulug'ki, u so'nggi nafasigacha hayotda nimaiki bo'lsa — hammasini o'ylaydi. Lekin ajal bular bilan hisoblashib o'tirmaydi, inson qanday yashadi, orzu-xayollarida qanday yuksaldi, qanday tushlar ko'rdi, kim bo'ldi, aqli nimalarga yetdi, qanchalik yetdi — ajalning bu narsalar bilan ishi yo'q. Nega shunaqa? Nima uchun dunyo bunday qurilgan? Mayli, Suv parisi xayol, tush ham bo'lsin, biroq koshki mana shu g'aroyib tushdan narigi dunyodayam sira ayrilmasa...

Har qalay, nima bo'lsa ham, O'rxon Suv parisiga qanchalik ishonsa, dengiz uni tinglayotganiga ham shunchalik qat'iy ishonardi. Dengizga chiqsa bo'ldi: yozilib-yayrab dam olar, emin-erkin fikrlardi. U o'zining xayollariga g'arq bo'lganicha, "Suv parisi bilan xuddi shu yerda suzayotgan emasmidik?" — deya o'z-o'zidan so'rardi.

Shunday paytlarda u munshtugiga qaytadan tamaki to'lg'izar, tutunini buruqsatib, huzur qilar edi: "Qayerda o'sarkin bu g'aroyib ko'kat, — ajablanardi u. — O'zi achchiq bo'lsayam ko'ngilga taskin beradi... Savdogarlar aytishgan edi, Manchjuriyada o'sadi, deb. O'sha yerdan olib kelisharkan tamakini. Juda uzoq bo'lsa kerak bu Manchjuriya deganlari, ha, juda uzoq u yer. Bizning odamlardan birontasi ham hech qachon uyoqlarga bormagan...

Nahotki o‘sha yerlarda tamaki o‘rmondagi maysa singari o‘sib yotsa. Yopiray! Nimalar bo‘lmaydi deysiz bu dunyoda...”

* * *

Kun peshindan o‘tdi. Shu asnoda u goh birdan ufqning allaqayeridan kelib qolgan bulutlar orasiga kirib ketardi. Go‘yo xuddi o‘sha yoqda havoning avzoyi buzilganga o‘xshar edi. Quyosh bulut orasida yashiringan ana shunday paytda dengizning to‘satdan rangi o‘chib qorayib, borliq ko‘ngilni g‘ashlantiradigan zulmatga cho‘madi. Goho esa quyosh bulutlar orasidan chiqib, yana bahorgiday saxovat bilan nur sochadi, ana shu paytda dengizda lak-lak jonli shu’lalar suzilib ko‘zni qamashtiradi, odamning dili yana ravshan tortadi.

Kirisk dengizga xiyla o‘rganib, xatto biroz zerika boshlagan bo‘lishiga qaramay, dengiz yuzasining mahobatidan, poyonsizligidan hamon hayratda edi. Har kancha suzishsa ham suvning oxiri ko‘rinmaydi. Dengiz har qancha katta bo‘lsa ham bola qirg‘oqda yurganida undan bunchalik ajablanmasdi.

Kattalar esa hech nimadan ajablanishmaydi. Ular hamma narsaga odatlanib kolishgandi. Emrayin bilan Milxun hamon ilgarigiday, eshkaklarni suvga unchalik chuqur botirmay, ravon eshib borishardi. Ular tinim bilmas, nafas rostlab olish uchun ham biror zum O‘rxonni yordamga chaqirishmas, “Keyinroq, qaytishda, qayiq yukka to‘lganida yordamlashasiz, hozir esa qayiqni boshqarib boravering”, deyishardi. Kekirdagi bo‘rtib chiqqan, uzun-bo‘yin qari O‘rxon esa qayiq tumshug‘ida, o‘ljasini poylayotgan burgutday enkayganicha o‘tirardi. Ko‘pincha sukut saqlar, nimalarnidir o‘ylar edi.

Qayiq esa avvalgiday to‘lqinlarga to‘sh urib, yengil suzib borardi. To‘lqinlarning qarshiligi ham avvalgiday bir maromda edi. Shamol ham avvalgiday suv yuzalab esardi. Ular shu zaylda suzishardi...

— Atkichx! Atkichx! Ana orol! Kichik siyna! — shodlanib qichqirdi birdan Kirisk bobosining yengidan tortib.

— Qani orol? — ishonmay so‘radi O‘rxon kaftini peshonasiga qo‘yib, olislarga qararkan. Eshkakchilar ham ajablanib, bola ko‘rsatgan tomonga qarashdi.

— Orol uyoqda bo'lmasligi kerak, — g'udrandi chol, chunki bola ular kutmagan, butunlay boshqa tomonni ko'rsatayotgandi.

Bola yanglishmagandi, o'sha tomonda, olis-olislarda chindan ham dengizda qotib qolgan g'adir-budur qo'ng'ir-balchiqsimon yuza qimir etmay ko'rinib turardi. U xuddi suv o'rtasida turtib chiqqan xarsangga o'xshardi. O'rxon o'sha yoqqa uzoq boqib turdi-da:

— Yo'q, u orol emas, — dedi nihoyat qat'iy ishonch bilan. — Kichik siynaga yetish uchun hali to'g'riga, kunbotarga qarab suzish kerak. Sen aytayotganing esa butunlay boshqa tomonda. Orol ham emas, — davom etdi chol. — Yo'q, menimcha, bu — orol emas.

— Bu suvlarda bunaqa orol yo'q edi, bunaqa orolni sira ko'rmaganmiz, — dedi Milxun. — Kichik siyna chap tomonda bo'ladi, bu esa, bilmadim, nima ekan?

— O'sha narsa tuman yoki bulutmi bo'lmasin yana? — so'z qotdi Emrayin. — Yoki to'lqin o'rkachlarimi desam, qimirlamayapti-ku?

— Shuni aytaman-da, nimaykin? Tuman yo bulut bo'lishi mumkin, yana kim bilsin? Juda uzoqda. Lekin orol emas, — xulosa qildi O'rxon. — Mabodo tuman bo'lsa, yaxshilikka olib bormaydi.

— Hechqisi yo'q, faqat shamol o'zgarmasa bo'lgani, — eshkakka zo'r berarkan dilidagini aytdi Emrayin. — Bir joyda turibdi, qimirlamasdan. Lekin u tomonda bizning qiladigan ishimiz yo'q, nima bo'lsa bo'laversin...

Kirisk, avvaliga, topgan narsasining nimaligi aniqlanmaganidan xafa bo'ldi, ammo ko'p o'tmay bu voqeani esidan chiqardi.

Ovchilar esa yanglishmagan edilar. Tez orada chap tomonda suv yuziga chiqib turgan Qichik siyna orolchasi ko'rinib qoldi. Endi bunga shubha yo'q edi. Orolcha chindan ham siynaga — yelinga o'xshab suv yuziga turtib chiqkan, past-balandliklardan iborat quruqlik ekan.

Orolni ko'rib hamma sevinib ketdi, ayniqsa Kiriskning og'zi qulog'ida edi. Xuddi shu payt eng qiziq voqea yuz berdi.

— Mana, yetdik, — deb bolaning telpagini siypaladi O'rxon. — Olapar o'zi uyda qolsayam bizni shu ergacha boshlab keldi. Agar u izimizdan ergashganida cho'kib ketardi, to'g'rimi?

— Bo‘lmasam-chi! — tasdiqladi Kirisk cholning gapidagi hazil ohangini payqab.

— Olapar shuning uchun ham kerakki, u qirg‘oqda qolib, uyimizni qo‘riqlaydi. Shu bilan birga biz doim uni eslab, yo‘ldan adashmay, ov joyiga etib keldik. Qani, ayt-chi: Olapar bizga yana zarur bo‘ladimi, yo‘qmi?

— Yo‘q, endi kerakmas! — tag‘in ishonch bilan javob berdi Kirisk. — Endi qayoqqa suzish kerakligini o‘zimiz bilamiz.

— Sal o‘ylab ko‘rsang bo‘lardi! — koyiganday dedi O‘rxon. — Axir shunday ziyrak bola o‘ylamay gapiradimi?

Dengizdagi olis orolga etib olishganida Olaparning endi nima hojati borligiga Kiriskning sira aqli yetmasdi.

— Olaparimizning endi nima keragi bor?

— Nima keragi bor deysanmi? Uyga qanday qaytasan? Qayoqqa suzasan, qaysi tomonga? Kani, o‘ylab ko‘r-chi? Tushundingmi endi? Orolning qaysi tomoniga keldik, orol Olaparning qaysi tomonida turibdi — shuni bilsang, qayoqqa yo‘l olish va yana qaytib kelish mumkinligini bilasan.

Kirisk indamay rozi bo‘ldi-yu, biroq izzat-nafsi yo‘l qo‘ymadi shekilli, qizishib, cholni so‘roqqa tuta boshladi:

— Agar qorong‘i bo‘lsa-chi, a? Agar kechasi dengiz o‘rtasida qolsak, hech narsani ko‘rib bo‘lmasa-chi, a? Unda nima qilamiz?! A? Ana unda Olapar qay tomonda qolganini qayoqdan bilamiz, a?

— Nima qipti, o‘shanda ham bilsa bo‘ladi, — xotirjamgina javob berdi O‘rxon. — Buni osmondagi yulduzlardan bilsa bo‘ladi, yulduzlar odamlarni yanglishtirmaydi, hamisha to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishadi. Faqat o‘zing qaysi yulduz kayerda joylashganini bilsang bo‘ldi. Vaqti kelib buniyam bilib olasan. Sen Luvr o‘rdagi yulduzlar to‘pini bilasanmi?

— Bilardim shekilli, — ikkilanib javob berdi Kirisk, otasiga qarar ekan. Emrayin o‘g‘lining qiynalib qolganini sezdi.

— Sal-pal biladi, bir paytlar ko‘rsatgandim. Lekin hali yetarli emas. Hali tuzukroq o‘rganishi kerak...

Shu asnoda suzib ular orolga yaqinlashib qolishdi. Qirg‘oqdagi ba’zi xarsanglar va qoyalar ko‘zga chalingach, ular qaysi tomonda

tyulenlar makoni bor ekan, deya orolning atrofini aylanib o'ta boshlashdi. Kirisk diqqat bilan tikilar, tyulenlar to'dasini birinchi bo'lib ko'rishni xohlardi.

Biroq jonivorlarni ko'rganda tag'in baqirib yubormagin, deb uni ogohlantirib qo'yishdi. O'rxon oqsoqolning aytishicha, nerpalar — tyulenlar sohilga yaqin joydagi toshlar orasida yotisharkan — ular quyoshda toblanib, isinib olish uchun qurg'oqlikka emaklab chiqisharkan. Nerpalarning qayerda joylashganini ko'rib olib, so'ng ularni cho'chitib yubormaslik uchun qirg'oq sari ohista, sharpasiz yaqinlashish kerak ekan.

Ammo shuncha tikilsayam, Kirisk hech bir jonzotni ko'rolmadi. Orol qirg'oqlari kimsasiz, huvillab yotardi. Hammayoqda davr o'tishi bilan yemirilib ketgan, shakl-shamoyilsiz yovvoyi xarsanglar sochilib yotardi. Orol atrofini biqirlab qaynab-toshayotgan oppoq ko'pikli po'rtanalar halqaday o'rab olgandi. Bu oppoq halqa jimirlab, ustini muz qoplagan ayqash-uyqash toshlardan oshib o'tishga intilardi. Yo'q, Kirisk orolchada biron nimani ko'ra olmadi. Butun atrof faqat qoyatoshlardan iborat, biror jon zotidan asar yo'q edi.

Milxun jonivorlarni birinchi bo'lib payqab qoldi. Kirisk nerpalarning qayerga yashiringanligini bilib olish uchun uyoq-buyoqqa qaragunicha, qayiq uzoqlashib ketdi. Chunki qirg'oqdagi jonivorlar qayiqni ko'rib qolmasligi kerak edi.

Keksa O'rxon bolaning hech narsa ko'rmaganligini sezib:

— Biror narsani ko'roldingmi? — deb so'radi. Bola yolg'on aytishga ko'ngli bormadi.

— Yo'q, ko'rmadim, — tan oldi Kirisk.

— Yana yaqinroq haydanglar, — buyurdi O'rxon. — Har xil toshlar orasidagi nerpalarni ko'zing ilg'ab olsin. Aks holda sen ovchi bo'lolmaysan.

Qayiqchilar qaltis bo'lsayam yana boyagi joyga yaqinlashishdi. Nerpalardan bittasi ovchilarni payqab qolsa bo'lgani, hammasi o'zini dengizga otishi turgan gap edi. Xayriyatki, hayvonlar ovchilarni payqashmadi. Nerpalar tartibsiz, egri-bugri xarsangtoshlardan hosil bo'lgan tabiiy to'siq orqasida shundoqqina suvga yaqin joyda yotishardi.

— Huv, anavi singan tishga o‘xshagan katta toshni ko‘ryapsanmi? — so‘radi Milxun boladan, — o‘shandan sal narida qizg‘ish, muzlagan do‘nglik bor — shularning orasiga qaragin.

Kirisk diqqat bilan o‘sha tomonga tikildi. Bu orada Milxun bilan Emrayin jadal eshkak eshib, qayiqni o‘nglash bilan ovora edilar. Shu orada Kirisk dengiz hayvonlarining quyruqli katta gavdalarini ko‘rdi. Hayvonlarning kulrang, olachipor, sip-silliq va yaltiroq bo‘yinlari qimir etmasdi. Tajribasiz g‘o‘r odam olisdan ularni toshlar orasidan ajratib olishi mushkul edi.

Shu zahoti Kiriskni hayajon chulg‘ab oldi. Ana endi, chinakam dengiz hayvonlariga duch kelishdi! Ana endi chinakam ov boshlanadi!

Shundan so‘ng ovchilar qirg‘oqqa tusha boshlashdi, bolaning vujudi jur’at va zavq-shavqqa to‘lib-toshdi. Ha, u shu tobda jasur edi, chunki u hozir o‘zini kuchli va qudratli odamday his etardi. Zavq-shavqqa to‘lganining sababi — ovchilar mardona va abjirlik bilan harakat qilishardi: ular chaqqonlik bilan qayiqni qirg‘oqqa taqab kelishdi. Emrayin bilan O‘rxon bobo qirg‘oqqa to‘lqin urilayotgan notinch joyda eshkaklarni pastga tirab, qayiqni to‘g‘rilab turishdi, Milxun qirg‘oqqa, shag‘al ustiga sakrab tushdi-da, o‘ziga tashlangan arqonning uchini darhol yelkasiga ilib olib, qirg‘oqqa yaqinlashtirdi. Otasi ham shu zahoti miltiqlarni olib, qirg‘oqqa sakrab tushdi. Keyin bolaning o‘zi ham to‘g‘ri O‘rxon cholning yordamida qirg‘oqqa sakrab tushdi va to‘lqin urilganda oyog‘ini shalabbo qilgani uchun otasidan sal-pal koyish eshitdi.

O‘rxon bobo qayiqni to‘lqinlar xurujidan saqlash uchun suv bo‘yida qoldi. Emrayin, Milxun va Kirisk uchalovi esa tyulenlar yotgan joyga shoshilishdi. Ular qirg‘oq yoqalab, beixtiyor egilib, o‘zlarini panalab, to‘siqdan-to‘siqqa yugurib o‘tishar edi. Kirisk kattalardan orqada qolmay yugurar, yuragi qinidan chiqquday potirlar, shodlik va hayajondan joni ichiga sig‘may, boshi aylanib ketar edi.

Qani endi shu payt Kiriskni Suv parisi avlodidan bo‘lgan odamlar ko‘rishsa, uning hayvon oviga katta ovchilar bilan birga yugurib ketayotganiga shohid bo‘lishsa! Qani endi uni shu payt onasi ko‘rsa, bo‘lg‘usi ulug‘ ovchi bilan, urug‘larining rizq-ro‘z

keltiruvchisi bilan faxrlansa! Qani endi shu payt qadrdon Olapar sohilidan uzoqda, po'rtana quturayotgan noma'lum sohil bo'ylab haybatli qoyalar va xarsanglar orasidan tyulenlar makoniga yugurib borayotganini Muzluk ham ko'rsa!

Afsuski, endi Kirisk u bilan avvalgiday birga o'ynay olmaydi, endi Kirisk — ovchi. Miltiqlar faqat Emrayin va Milxunda bo'lsayam mayli, hechqisi yo'q: otasi, otish vaqti kelganda sengayam miltiq beramiz, deb aytgan edi-ku.

Shunday qilib, ular tyulenlar makoni tomon yaqinlashishdi, so'ng emaklab ketishdi, Kirisk ham emaklab ketdi. Qirrali toshlar va g'adir-budur muzliklar ustidan emaklab yurish qiyin edi, lekin Kirisk shunday qilmasa bo'lmasligini tushunardi. Ular og'ir nafas olib, terga botib, gohida pisib-berkinib, gohida bo'yinlarini cho'zib, atrofni ko'zdan kechirib borishardi. Nihoyat, otish vaqti kelganda, bir yerda o'rnashib olib, nafas yutib, qotib qolishdi.

Mana shu lahzalarni, bahorning mana shu bir kunini, poyonsiz dengiz o'rtasidagi mana shu huvillab yotgan tog'-toshli orolni va undagi allaqanday mo'jiza kuchi bilan choratrofga sochib tashlangan mana shu qora-qo'ng'ir, haybatli toshlarni, hali erishga ulgurmay yotgan mana shu yalang'och, kimsasiz yerni, uning yonginasidagi otishga shaylanib turishgan otasi bilan Milxunni, oldinda, dengizning shundoqqina yoqasida esa shamollar va po'rtanalardan yemirilib ketgan, ustini mayda giyoh qoplagan, qing'ir-qiyshiq qoyatoshlar orasida, hech narsadan xabarsiz, xotirjam yotgan tyulenlarning kichik bir podasini Kirisk umr bo'yi eslab qoladi. Bola, nazarida, odamlar uzra, tyulenlar uzra, orol va dengiz uzra go'yo birinchi o'q otilishini nafas yutib kutib turganday qotib qolgan, sal-pal xo'mraygan osmonni umr bo'yi eslab qoladi.

"Ishqilib nishonga tegsin-da!" — o'yladi u otasi bergan miltiqni yelkasiga tirab olar ekan.

Intizorlik bilan kutilgan shu kisqa lahzalarda u o'zini mashhur, jasur ovchiday his qilib, g'ururlanib ketdi. Ammo qachon quyosh mo'ralab, nurlari bilan bizni sal-pal ilitarkin, degan maqsadda, xarsanglar orasidagi sayhonlikda tor joyga tiqilib olishgan mana shu beso'naqay, xo'ppasemiz hayvonlarning jonli bo'yinlari va yag'rinlarini qimirlatib nihoyatda panohsiz, himoyasiz, ochiq

holda yotganligini ko‘rib hayratlandi. Ammo boladagi bu holat uzoqqa cho‘zilmadi. U o‘zining ovchi ekanligini, odamlar undan o‘lja kutayotganligini, tyulen go‘shti va moyi bo‘lmasa, odamlar och-yalang‘och qolishini esladi. Ayni vaqtda: “Birinchi bo‘lib otib, o‘zimni ko‘rsatishim zarur”, degan fikr miyasidan yalt etib o‘tdi. U dadillanib, otasi o‘rgatganiday, yirik, olachipor katta tyulenning chap qanoti ostini, to‘g‘risi, qanotining teparog‘i va chaprog‘ida joylashgan naq yuragini mo‘ljalga oldi. Shu payt tyulen biron falokatni his etganday bezovtalanib qoldi.

Holbuki, u ovchilarni ko‘rmagandi, shamol dengiz tomondan esgani uchun odamlarning hidini olmagan edi. Mo‘ljallashga nimadir, allaqanday ko‘lanka halal berayotganidan Kirisk sal-pal yoniga surilishi kerak bo‘lib qoldi. Juda ehtiyotkorlik bilan surilishi kerak edi. Aksiga olib, xuddi shu payt Kiriskning tirsagi ostidan bir tosh siljib ketib, boshqa toshlarga borib urildi-da, hammayoqni larzaga keltirdi. Olachipor katta tyulen uzoqdan g‘ingshiganday qisqa-qisqa ovoz chiqardi va butun tyulenlar podasi harakatga kelib, na’ra tortib, o‘kirishib, tezlik bilan birin-ketin o‘zlarini suvga tashlay boshlashdi.

Ammo shu payt ularning yo‘lini to‘sganday gumburlash eshitildi, podaning chetida borayotgan yirik tyulenni Milxun otib o‘ldirgan, shu bilan boshqa ovchilarni noqulay ahvoldan kutqazgan edi. Kirisk nima kilishini bilmay, gangib qoldi.

— Otsang-chi, tezroq! — buyurdi Emrayin.

Shu zahoti bolaning yelkasida qattiq og‘riq paydo bo‘ldi, kulog‘i tom bitdi. U mo‘ljalga tegizolmaganidan mulzam bo‘ldi. Axir uning aybi bilan ov barbod bo‘ldi-da. Lekin otasi uning qo‘liga o‘q tutqazib, shoshirdi:

— O‘qla, tezroq ot!

Ilgari oson ish bo‘lib ko‘ringan o‘qlash va otish (ilgari mashq qilgan vaqtlarida qoyillatardi) hozir juda mushkul bo‘lib qoldi. Miltiqni o‘qlagach, dastasi o‘rnidan jilmay turib oldi. Bu orada Milxun suvga tashlanayotgan tyulenlarga karata tizzalab turib yana ikki marta o‘q uzishga ulgurdi. Tyulenlarning bittasi yaralandi. Yarador hayvon suvning bo‘yida gir aylanib qoldi. Ovchilar o‘sha erga yugurib borishdi. Tyulenlar podasi yashirinib ulgurishgan, yarador

tyulen esa jon-jahdi bilan suv tomonga intilardi. Odamlar dengiz bo'yiga yugurib kelishganida tyulen suv yuzida qonli dog' qoldirib, kurakoyoq panjalarini lapanglatib ko'kish tortib turgan dengizning tubiga botib ketdi. Tiniq suvda tyulenning qo'rquvdan olaygan ko'zlari va bo'ynidan quyrug'iga qadar och gunafsha rangdagi umurtqa yo'li aniq ko'rinib turardi. Milxun o'qlangan miltig'ini pastga tushirdi, endi uni otish foydasiz edi.

— Qo'yaver, bari bir cho'kib ketadi — dedi unga Emrayin.

Kirisk esa hansiraganicha, o'zidan norozi bo'lib, xafa bo'lib turardi. U bugungi ovdan ko'p narsalarni kutgan edi, lekin bo'lmadi. Yana katta ovchi bo'larmish!

Bola jim bo'lib, shumshayib qoldi, unga shunchalik alam qilardiki, yig'lab yuborishdan o'zini arang tiyib turardi.

— Hechqisi yo'q, yanagi safar.ishing o'ngidan keladi, — deb yupatdi uni Milxun keyinroq, otib o'ldirilgan tyulenning ichak-chavoqlarini olib, nimtalashayotganida. — Mana endi O'rta siynaga boramiz, u yerda ham tyulen deganing tiqilib yotibdi.

— Juda shoshib qoldim-da, — deb so'z ochgan edi, otasi uning gapini bo'lib qo'ydi:

— O'zingni oqlayverma. Hech kim onasining qornidan ovchi bo'lib tushmagan. Omon bo'l, otishni bilsang, o'lja sendan qochib qutulolmaydi.

Kirisk jimib qoldi, lekin hech kim unga ta'na qilmayotganidan ko'ngli taskin topdi. Endi u: "Hech qachon otish vaqtida shoshib qolmayman, mo'ljalga olayotganimda endi hech narsani o'ylamayman, otam aytganiday, nafasimni chiqarmayman, ko'zim nishonda bo'ladi, ana shundan keyingina o'q uzaman!" — deb o'z-o'ziga so'z berdi.

Tyulenning tanasi kattagina, ancha og'ir va xuddi tirikday badani hali iliqqina edi. Hayvonning to'shini nimtalayotgan Milxun mamnunlik bilan qo'llarini ishqalab: "Ko'rdilaringmi, to'rt enli yog'i bor, zo'r!" — deb qo'ydi. Kirisk endi ko'ngli g'ashligini unutib, qiziqib amakisiga yordam bera boshladi. Emrayin esa bu orada qayiqni yaqinroq olib kelish uchun O'rxon bobo turgan tomonga ketdi. Biroq u ko'p o'tmay, tashvishlangancha tezda qaytib keldi:

— Vaqtimiz ziq, tezroq bo‘linglar! — u hamrohlarini shunday shoshirdi-da, osmonga qarab yana o‘zicha g‘udranib qo‘shib qo‘ydi: — Negadir havoning avzoyi menga yoqmayapti...

Ovchilar shosha-pisha o‘ljani nimtalab, jigari bilan yuragidan boshqa ichak-chavoqlarini tashlashdi-da, qolganini qayish bilan bog‘lab, qayiq tomon sudrab ketishdi. Kirisk ularning ortidan ikkala miltiqni olib yugurdi.

Qirg‘oqda, qayiq oldida ularni O‘rxon bobo kutib turardi. Chol o‘ljani ko‘rib sevinib ketdi.

— O, Kurng[1] egam, yetkizganingga shukur! Ovimizning boshlanishi chakki emas! — deya u o‘zining ov pichog‘ini artib, tayyor qildi. Ovdan keyin eng muhim udum — tyulenning xom jigarini shu yerning o‘zidayoq yeyish edi. O‘rxon bobo nimtalangan nerpa to‘shi oldida cho‘nqayib o‘tirib olib, jigarni bo‘la boshladi. Ovchilar oz-moz tuz sepilgan mayin jigar burdalarini huzur qilib chapillatib yamlab yutar edilar. Jigar juda mazali — muloyim, iliq, to‘yimli edi. U odamning tilini yog‘li sharbatga botirib, og‘izda erib ketardi. Kiriskning orzusi ushaldi — haqiqiy katta kishiday ovda xom jigar yedi!

— Yutaver, ko‘proq yut, — maslahat berardi bolaga O‘rxon bobo. — Tunda sovuq kuchayadi, junjikib qolasan. Shunday vaqtda odamni isitadigan eng yaxshi narsa jigar. Tag‘in u ming bir kasalga shifo bo‘ladi.

Rosa maza qilishdi. Taom juda soz bo‘ldi-yu, darrov chanqab qolishdi-da. Qayiqdagi kichik bochkada suv bor edi.

— Hozir go‘shtni nimtalashning hojati yo‘q, — dedi Emrayin hamma to‘yib bo‘lganida va yana tashvishlanib osmonga qarab qo‘ydi.

— Keyin nimtalasayam bo‘laveradi, — ma’qulladi O‘rxon bobo. — Choyni kechasi O‘rta siynaga borganimizda ilitib ichamiz. Hozircha sabr qilib yuklarni orta qolaylik.

Qayiqni jildirish oldidan ovchilar yerni ham to‘ydirishni unutmadilar. Tyulen yuragini mayda-mayda bo‘laklab yerga sochib, orol egasidan keyingi ovning ham baroridan kelishini tilashdi. Shu asnoda ular yana dengizga chiqishdi.

[1] **Kurng** — nivxlarning oliy tangrisi.

Kichik siyna ortda qoldi. Atrofini tund suvlar o‘rab olgan yolg‘iz orol huvillab qolgan, g‘aribona va ayanchli ko‘rinardi. O‘rta siynaga qarab yo‘l olishdi. Qosh qoraya boshladi. Eshkakchilar qorong‘i tushguncha O‘rta siynaga yetib olib, qayiqni panaroq joyga qo‘yib, tunab kolish maqsadida jon-jahdlari bilan harakat qilishardi. Kichik siyna go‘yo suvga cho‘kib ketganday ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, ammo O‘rta siyna hali-veri ko‘rinay demasdi. Yana borliqni suv qoplab oldi.

Ovchilar o‘lja payiga tushishganida dengiz sezilarli darajada o‘zgara boshlagan edi. To‘lqinlar qalinlashdi. Zichlashdi. Suvning mavji avvalgi yo‘nalishda bo‘lsa ham shamolning yo‘nalishi o‘zgargan edi. Qayiq endi avvalgidan ko‘ra kuchliroq silkinib chayqalmoqda edi. Ammo ovchilar havoning avzoyidan ko‘proq xavotirlanishardi. O‘zi nima bo‘lyapti? Odatda yilning bu faslida havo aynimas edi-ku! Allaqayoqlardan uchib kelgan g‘ubor oislardagi zulmatli o‘rmonlardan chiqqan yong‘in alangasining tutuniday, butun osmonni qoplab oldi. Tutun garchi osmonni o‘rab olgan va hech kimga hech qanday xalal bermayotgan bo‘lsa ham ovchilar g‘ashlanib qolishdi.

— Qayoqdan kelyapti bu balo? — o‘zicha g‘udrandi O‘rxon bobo atrofga noxush boqar ekan.

Endi ular hozir O‘rta siyna ko‘rinib qoladi, deb zo‘r berib eshkak eshar edilar — O‘rta siyna hammasidan ko‘ra qulay va tinch edi-da.

Bu orada havo biroz ochildi, hatto dengizning narigi chekkasidan quyosh mo‘ralab qoldi. Bu yorug‘lik aql bovar qilmas mo‘jizaga o‘xshar, go‘yo u olamning narigi chekkasidan chiqayotgandek edi. Bu quyoshga bemalol qarash mumkin edi, u ko‘zni qamashtirmasdi. Quyosh qontalash tusga kirib, asta-sekin qizarib, alvonlanib, xira ufqqa bota boshladi. Osmonning chiroyi ochilgach, yana dengiz yuziga shu’la yugurdi, yana osoyishtalik hukm sura boshladi.

Odamlar ham darrov xotirjam bo‘la qolishdi. Ular endi orolda tinch joy topib, orom olishni xayol qila boshladilar.

— Ozgina sabr qilsang, oldinda O‘rta siyna ko‘rinib qoladi,— dedi O‘rxon bobo yonida o‘tirgan Kiriskning yelkasiga qoqib.

Bola allaqachon chanqagan, ammo otasining taqiqlariga soddadillik bilan amal qilardi. Ovga chiqish oldidan otasi chuchuk suv

dengiz safarida hamisha kamchil bo‘lishini tushuntirgan edi. Safarda uydagiday istagan vaqtingda suv ichish mumkin emas. Hatto uchala orolda ham biror tomchi chuchuk suv yo‘q. Qayiqqa esa ortiqcha yuk ortib bo‘lmaydi. Hamma qachon suv ichsa, sen ham o‘shanda ichasan.

To‘satdan olisda quyosh ko‘rinib, olam yorishgan lahzalarda bola O‘rxon boboning ko‘ngli yumshaganligini sezdi.

— Atkichx! Suv ichgim kelyapti, judayam! — dedi u yigitlarday kulimsirab, otasiga qarab qo‘ydi.

— Shunday degin! — endi esiga tushganday miyig‘ida kuldi O‘rxon bobo. — Haligidaka qoyilmaqom jigardan keyin albatta odam chanqaydi-da! Turgan gap, chanqaydi! Axir, hammamizning suv ichgimiz kelyapti, to‘g‘rimi?

Emrayin bilan Milxun tasdiqlab, bosh irg‘ab qo‘yishdi. Kirisk sevinib ketdi, demak, bitta o‘zi emas, hammaning suv ichgisi kelayotgan ekan.

— Unday bo‘lsa suv bilan siylaymiz o‘zimizni, keyin bir chekib olsak ham bo‘ladi! — dedi O‘rxon bobo boshqaruvchi eshkakning dastasini o‘z holiga qo‘yib, so‘ng qayiqning tubidan kichik bochkani oldi, uni qulayroq joylashtirib, ichi chegalangan tunuka cho‘michga bochkaning og‘zidan sekin jildiratib suv quya boshladi. Suv muzdekkina, tiniq edi — Olapar qoyasining dengizga teskari tarafidagi buloqdan olingandi.

Bu o‘sha, o‘zlarining doimo ichib yurgan tip-tiniq, mazali va suyumli suvlaridan edi. Yozda chayqalgan suv o‘tlari hamda zax yerning hidi kelardi undan.

Kirisk cho‘michni tutib turardi. Bolaning tezroq suv ichgisi kelardi. Cho‘mich yarim bo‘lganida, O‘rxon bobo bochkaning teshigini po‘kak bilan yopdi va bolaga qarab:

— Ichaver! — dedi. — Keyin boshqalarniyam chanqog‘ini qondirasan. Chayqatib, to‘kvormagin tag‘in, — ogohlantirib qo‘ydi u.

Kirisk avvaliga yutoqib icha boshladi, so‘ng sekinlashdi va oxiri suvdan bo‘kkan yog‘och hidi kelayotganini sezdi.

— To‘ydingmi? — so‘radi O‘rxon bobo.

— To‘ydim.

— Ko‘zing aytib turibdi, to‘ymabsan. Mayli, aytganing bo‘lsin, senga yana ozroq quyib beray. Jigar degani juda kuchli narsa.

Yerdaligimizda chelaklab ichsang ham bo'laveradi, — dedi O'rxon bobo yana jildiratib cho'michga suv quyarkan.

Bola suvga qongandan keyin kattalarning bunday paytlarda aytadigan "Ko'nglim joyiga tushdi" degan gaplarining chin ekanligini his etdi.

O'rxon bobo eshkakchilarga ham chorakam bir cho'michdan suv quyib berdi. Suvli cho'michni qayiqchilarga Kirisk uzatib turdi. O'zi suvga to'ygani uchun bola boshqalarning ham suvga qonib olishini xohlardi. O'rxon bobo boshqalarga nima uchun chorakam bir cho'michdan suv berganligining sababini tushuntira ketdi.

— Sening hali jussang kichik, ularni ko'rdingmi, qanaqa? Bularni mehnatiyam og'ir. Eshkak eshgan odam ko'proq chanqaydi.

Emrayin bilan Milxun chindan ham cho'michni bir ko'tarishda bo'shatib qo'yishdi, ularga yana ozroqdan quyishga to'g'ri keldi. O'rxon oqsoqol kattalarga ta'na qildi:

— Bu deyman, og'aynilar, ja yuho bo'p ketmanglar. Daryo bo'yida o'tirganlaringiz yo'q-ku!

Emrayin bilan Milxun faqat jilmayib qo'yishdi. Go'yo, buni o'zimiz ham bilamiz, lekin nima qilaylik, axir suv ichgimiz kelib tursa, deyishayotganday edi.

Lekin O'rxon boboning o'zi ham o'z ulushini ichib bo'lib, miyig'ida kulib, bosh chayqadi:

— Eh-h, daryo bo'yida o'tirsak yaxshi bo'lardi. Xom jigar degani odamni rosa ko'tararkan...

So'ng chol munshtugini tamakiga to'ldirib, tutun buruqsatib, xuzur qilib cheka boshladi. Chol umrida oxirgi marta shunday huzur qilayotganini hali o'zi bilmasdi...

Falokatni birinchi bo'lib Kirisk payqadi!..

* * *

Shundan sal avval borliqqa ajoyib osoyishtalik cho'kkan, odamlar chanqog'ini bosib, ko'ngillari taskin topib, o'zlarini baxtiyor his etgan edilar.

Birinchi o'ljani qo'lga kiritishdi, ko'p o'tmay, orolda biroz orom olishib, azonda yana katta ovga chiqishadi. Ovdan so'ng, ivirsilab o'tirmay darhol uyga qaytishadi. Hamma ish ko'ngildagidek edi.

Qayiq hamon avvalgiday, to'lqinlarga to'sh urib bir maromda sekin suzib borardi. O'rxon bobo qayiq quyrug'ida tamakisini tutatganicha darg'alik qilib o'tirardi. Shu lahzalarda ehtimol Suv parisini o'ylayotgandir. Emrayin hamda Milxun asosiy ishlari — eshkak eshish bilan band, ular ortiqcha kuch sarflamay qayiqni bemalol, aniq va qoyillatib haydab borar edilar. Kirisk beixtiyor ularning ishiga mahliyo bo'lib qarab turardi. Shu lahzalarda u bolalarga xos allaqanday ichki sezgi bilan goh otasi, goh amakisiga qarab, ularning har biri to'g'risida ayricha o'y surardi. U Emrayin bilan Milxunni va O'rxon boboni butun vujudi bilan sevar, shu payt ular orasida ekanligidan g'ururlanardi.

Kirisk bu odamlarning boshqacha bo'lishini xayoliga ham keltirmasdi. Uning nazarida O'rxon bobo butun umr xuddi hozirgiday kekirdagi turtib chiqqan, uzun bo'yinli, qo'llari o'simlik ildizlariday sertomir, hamma narsani sezuvchi, ko'zlari mudom yoshlanib turgan chol bo'lganday edi. Uni boshqacha tasavvur qilish mumkinmi axir? Bunday maslahatgo'y, hammaning izzat-hurmatiga sazovor bo'lgan kishilarsiz ham yashash mumkin bo'larmikin?

Onasining aytishicha, Kirisk otasiga juda o'xshab ketarkan. Katta bo'lsa quyib qo'yganday Emrayinning o'zginasi bo'ladi-qoladi, deydi. Kiriskning ko'zlariyam otasiniki singari qo'yko'z, tishlariyam otasinikiday mustahkam, oldingi ikkita kurak tishi biroz turtib chiqqandi. Yana onasining aytishicha, katta bo'lsa Kiriskning ham otasinikiday qop-qora va dag'al qalin soqoli bo'larkan. Haytovur otasini Sersoqol Emrayin deb bekorga aytishmaydi. Kirisk go'daklik chog'larida, anhorda yalang'och cho'milib yurgan kezlarida onasi singlisining biqiniga turtib: "Kara, qara, xuddi otasining o'zi!" — derdi. Ikkalasi nimadandir xursand bo'lib, ichaklari uzilguday qotib-qotib kulishar, quvlik bilan shivirlashardi. Onasi: "Kirisk katta bo'lsa, unga xuddi o'zimga o'xshagani duch kelsa, o'sha kelin sira xafa bo'lmasdi, ko'ngli to'lardi, buni men bilib aytyapman", derdi u. "Qiziq, — o'ylardi Kirisk, — kim, nima uchun ko'ngli to'ladi? Kirisk otasiga tortgan bo'lsa, nima uchun unga tushgan xotinning ko'ngli to'ladi?"

Ana, hozir otasi qayiqning tumshuq tomonida o'tirib eshkak eshyapti. Soqoli qop-qora, tishlari oppoq. Jussador, keng yag'rinli,

xotirjam, sabr-toqatli. Boshqalarga o'xshab otasi biror marta unga baqirib, do'q-po'pisa qilganligini yoki aksincha, avaylab-ardoqlab, yupatganini eslayolmaydi. Chaqnab turgan ko'zlari haqiqatan ham tip-tiniq, qo'yning ko'ziga o'xshardi.

Keyingi bir juft eshkak Milxunning qo'lida; u Kiriskning amakivachchasi, otasidan ikki yosh kichik. Emrayinning ukasiga unchalik o'xshamaydi, negaki, soqoli yo'q. Ammo uchlari osilib tushgan mo'ylovi xuddi morjnikiga o'xshaydi. O'ziyam xuddi morjga o'xshaydi. Gapni do'ndiradi, bahslashishni yaxshi ko'radi, ko'ngliga o'tirmasa, tepalashishdan ham qaytmaydi. Janjallashganda birovga haqini o'tkazmaydi. Bir marta sayyoh savdogar bilan jiqqamusht bo'lib qolishgan edi, keyin butun urug'-aymog'i bilan kechirim so'rab, tovon to'lab yurishdi. Milxunning o'zi pakana bo'yli, miqtidan kelgan bo'lsa ham hech kimga so'z bermaydi, haqiqat bo'lsin, deydi. G'irt mast edi o'shanda. Bunaqa ishga suyagi yo'q. Ko'pchilik qatori Emrayin ham uni tinchitmoqchi bo'lib rosa qiynalgan. O'ziniyam ayiqday kuchi bor-da. Kirisk uni aki-Milxun[1] deydi. Otasi bilan ular juda inoq, ovga doim birga borishadi, hech qachon bir-birini dog'da qoldirishmagan, ikkalasi ham uddaburon ovchilar. Milxunning o'g'li hali juda kichik — endigina atak-chechak qilyapti. Milxunning undan kattaroq ikkita qizalog'i bor. Kirisk ularni doim himoya qilib yuradi, qani birortasi ularga tegib ko'rsin-chi! Kiriskning oyisi ham Milxunning qizaloqlariga jonini beradi. Ular tez-tez Psulk bilan o'ynagani kelishadi.

Biroq ovuldagi qizlar ichida eng chiroylisi — Muzluk! Faqat shunisi chatoqki, bo'yiga yetsa uni qo'shni qishloqa erga berib yuborisharkan. Uni uzoqqa bermay ko'ya qolishsa qanday yaxshi bo'lardi-ya!..

Sohilda yurgan chog'larida Kirisk bunaqa narsalarni xayoligayam keltirmasdi. Endi esa, qadrdon uyidan uzoqda maydachuyda narsalar ham unga juda muhim va ta'sirli tuyulardi.

Kirisk nogahon uyini eslab, sog'inganidan ko'ngli allaqanday bo'lib ketdi. Olapar qoyasining ortida, daryo atrofidagi vodiysida, dengiz yoqasidagi o'rmonda joylashgan qadimiy qishloqda ya-

[1] **Aki** — aka ma'nosida.

shovchi nivxlar — Suv parisi avlodlarining oldiga ketgisi kelib qoldi. Oyisini shunday sog'indiki, yuragi orziqib ketdi. Lekin ular hozir qadrdon sohildan, abadiy dengiz yoqalab o'z ishi bilan abadiy yugurib ketayotgan kadrdon Olapardan juda-juda uzoqda edilar. Xuddi shundayligiga ishonch hosil kilish uchun Kirisk beixtiyor orqasiga o'girilib, atrofga olazarak qaradi-yu, birdan kutilmagan manzaraga ko'zi tushib qoldi.

Dengiz ustini, ufqning deyarli yarmini ikkita tutash tilga o'xshagan quyuq tuman pardasi asta-sekin qoplab olayotgandi. U qoramtir suv yuzasiga yopirilib kelib, go'yo butun borliqni o'z og'ushiga olmoqchiday edi. Tirik mavjudotday, ulkan maxluqday olamdagi barcha narsalarni, odamlarni ham qayiq-payig'i bilan yutib yuborgudek yovuz niyat bilan yopirilib kelardi. Tuman boya Kirisk ko'rsatgan tomondan, dengiz o'rtasida noma'lum, xira narsa muallaq turib qolgan tomondan bosib kelardi. Endi u xamirday ko'pchib, hech qanday tap tortmasdan, shamol zo'ri bilan qayiq tomonga to'xtovsiz yaqinlashib kelardi.

— Qaranglar! Qaranglar! — qo'rqqanidan qichqirib yubordi Kirisk. Hamma sarosimaga tushib qoldi. Bir lahza o'z holiga qo'yilgan qayiq to'lqinlar orasida pista po'choqday chayqala boshladi. Shu zahoti qalin tuman ortidan qudratli to'lqinning odamni seskantiruvchi gumburlashi eshitildi. Dahshatli to'lqin quturib, ko'pirib-toshib kelardi.

— Qayiqni bur! — jon-jahdi bilan qichqirdi O'rxon. — Qayiqning tumshug'ini to'lqinga qarab bur!

Eshkakchilar qayiqni to'lqin qarshisiga arang burib ulgurishi bilan po'rtananing birinchi zarbi qayiqni ag'darib yuborishiga sal qoldi. Birinchi dahshatli po'rtana ortidan yana dengiz g'alayoni ko'tarildi va shu zahoti qalin tuman yetib keldi. Tobora yopirilib kelayotgan tumanning old qismi juda yaqin qolganda mana shu girdobli tirik zulmatning naqadar yovuz kuch bilan, naqadar mash'um niyat bilan bosib kelayotgani aniq ko'rinib turardi.

— Shamolning qaysi tomondan esayotganini eslab kolinglar! Shamolning yo'nalishini unutmanglar! — deya qichqirishga ulgurdi O'rxon.

Shu zahotiyoq ularni quyuq zulmat yutib ketdi. Tuman go'yo tog' ko'chkisiday dahshat bilan yopirilib, ularni cheksiz zulmat

girdobiga g'arq qilib yubordi. Shu lahzadayoq ular bir olamdan boshqa olamga tushib qolishdi.

Hamma narsa zulmat qa'riga cho'mib ketdi. Shu lahzadan boshlab na osmon, na dengiz, na qayiq qoldi. Ular endi hatto bir-birlarining basharalarini ham ko'risholmasdi. Shu lahzadan boshlab ular o'z tinchlarini yo'qotgan edilar — dengiz quturayotgan edi. Po'rtanalar qayiqni dam balandga, dam pastga irg'itar, dam yuqoriga, dam to'lqinlar orasida hosil bo'lgan suv o'ralariga uloqtirib tashlardi. Toshqin va chayqalishlardan ovchilarning kiyimlari shalabbo bo'lib, og'irlashib ketdi. Lekin, eng yomoni, quyuq tuman ichida qolgan odamlar atrofida nimalar borligini sezishmas va ko'rishmas, dengizda nimalar bo'layotganligini, nima chora ko'rish kerakligini bilmay garang edilar! Faqat bir narsa, u ham bo'lsa tavakkaliga suzish, qayiq ag'darilib ketmasligi uchun bir amallab ko'r-ko'rona harakat qilish qolgan edi, xolos. Endi qayiqni qandaydir mo'ljalga qarab haydash to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emasdi. To'lqinlar qayiqni xohlagan ko'yiga solib, istagan tomoniga eltib tashlashi mumkin edi.

Kirisk ilgarilari ham shunday voqealar bo'lganligini eshitgandi. Ilgarilari ham ovchilar dengizda falokatga uchrashgan. Ilgarilari ham ovga ketgan odamlar izsiz g'oyib bo'lishganda umumiy motam tutilgan. Ana shu motam paytida Olapar qoyasining yonbag'irlarida ayollar bilan bolalar bir necha kun gulxan yoqishardi — balki yo'qolganlar to'satdan topilib qolar, deb umid qilishardi. Ana shu vaqtlarda Kirisk ochiq dengizda halok bo'lish naqadar dahshatli, vahimali bo'lishini xayoliga ham keltirmagan edi. U, aksincha, kish faslining mehmonlari bo'lgan, butun olamni sutga chayqaganday oppoq va sokin qilib yuboradigan mana shu beozor tumanlarni yaxshi ko'rardi. Butun olam sehrlanganday oppok sukunatga cho'mib, bir tekis oqlikka o'ralgan ana shu paytlarda yer yuzidagi barcha narsalar havoga parvoz kilib, rang-ro'yi oqarib, arvohga aylanib serrayib kolganday tuyulardi. Ana shu paytlarda bolaning yuragi orziqib ketar, allaqanday afsonaviy manzaralarni ko'radiganday, bayon qilib bo'lmaydigan qo'rquv va hayajonga cho'mar, ana shu go'zal ertakka o'xshash harir tumanlar shu qadar dahshatli kuchga aylanishini tasavvur qilolmasdi. Quturgan dengiz ustidagi bulutning dam sirg'alib eshilib, dam

yoyilib va yana zichlashib qop-qora bo'lib buruqsab borishi ilonning harakatini eslatardi...

Qayiq eshkagini ikki qo'li bilan mahkam ushlab olgan Kirisk titrab-qaqshab, O'rxon boboning oyog'iga mahkam yopishib oldi.

— Sen meni ushlab ol! Qattiq ushlab ol! — deb qulog'i ostida qichqirdi O'rxon bobo va bolaga boshqa nima deyishini, qanday yordam qilishini bilmay jim qoldi.

Endi hech kim bolaning ahvolini yengillashtira olmasdi, chunki dahshatli ofat oldida hozir hamma ojiz edi. Hatto, Kirisk dod solib, ota, deb baqirib-chaqirib yig'laganida ham Emrayin joyidan jilmagan bo'lardi. Chunki otasi bilan Milxunning zo'r berib, to'lqinlarning ko'tarilishi va pasayishlarini chamalab qayiqni to'g'rilab turishlari tufayligina ular cho'kmayotgan edilar.

To'lqinlar esa hech narsani ilg'ab bo'lmaydigan tuman ichida qayiqni tobora jadallatib allaqayoqlarga surib ketayotgan edi. O'rxon bobo qayiq ag'darilib tushmasligi uchun bor kuchi bilan rulni to'g'rilashga harakat qilar, ammo dengiz borgan sari quturmoqda edi.

Chamasi, tun yarmidan og'di. Tuman ichida qay mahal bo'lganini bilish mushkul edi. Kech kirganini ular qorong'ilikning yanada quyuqlashganidan taxmin kilishlari mumkin edi. Oxiri ko'rinmagan, tinkani quritadigan bu tengsiz va tinimsiz olishuvda ular ko'p vaqtlarni boy bergan edilar. Shunga qaramay, nivxlar hamon umid uzishmagandi: ehtimol, to'satdan boshlangan suv ofati yana to'satdan tinib qolar, tuman to'satdan tarqalib ketar, ana shunda qayoqqa qarab suzish kerakligini bilib olarmiz, deb o'ylashardi. Bir mahal ularning umidi ushalganday bo'ldi. Dengiz po'rtanalari sal tinchidi, tebranishlar, chayqalishlar, suv sochqilari kamaydi. Lekin havoning avzoyi avvalgiday — zim-ziyo zulmatda hech narsani ko'rib bo'lmasdi. Birinchi bo'lib, O'rxon bobo dengiz shovqinini bosguday baqirib gapirdi:

— Men shu yerdaman! Kirisk ham men bilan birga! Eshityapsizlarmi?

— Eshityapmiz! Biz ham o'z o'rnimizdamiz! — xirillagancha javob berdi Emrayin.

— Shamolning yo'lini kim eslab qoldi? — ovoz berdi O'rxon bobo.

— Nima foydasi bor! — jahl bilan qichqirdi Milxun.

Chol jimib qoldi. Rostdan ham shamolning qayoqdan esayotganligini bilish foydasiz edi. Shamol ularni qayoqqa surib ketgan, mo'ljal kilish mumkin bo'lgan orollar hozir ularga yaqinmi yo uzoqmi? Buni chamalash ham qiyin edi. Ehtimol, ular Siynalardan juda-juda uzoqlashib ketishayotgandir? Balki endi ular Siynalarni sira-sira topib olishmas? O'rxon bobo holdan toydiruvchi zulmat va chayqalishlardan ezilib, jimib qoldi. Buyuk O'rxon chuqur o'ylarga botib, jimgina o'tirardi. Faqat bir narsa ularga taskin berardi — yaxshiki, taqdir taqozosi bilan ular qoyali orollarga urilib pachoqlanmay, chetlab o'tib ketishibdi. Biroq orollarsiz va yulduzlarsiz tun va tuman ichida hech qanaqa yo'lni aniqlab bo'lmasdi. O'rxon bobo biror narsa deyishga ojiz edi. Shunga qaramay, u oradan sal o'tgach yana qichqirdi:

— Tlangi-la[1] esayotgan edi! Qayig'imiz tumshug'ini po'rtanaga to'g'rilaganimizda Tlangi-la esayotgan edi!

Hech kim javob bermadi. Hamma o'z ishi bilan ovora edi. O'rxon yana jimib qoldi. Kirisk cholning oyog'iga yopishganicha titrab-qaqshab o'tirardi. Birozdan so'ng O'rxon eshkakchilarni ogohlantirdi:

— Kirisk ikkalamiz qayiqqa to'lgan suvni cho'mich bilan sepib tashlaymiz. Sizlar mahkam bo'linglar!

U Kirisk tomonga engashdi, qorong'ida paypaslab, bolaning eson-omon o'tirganini bilgach:

— Qo'rqma, Kirisk! Ke, qayiqdan suvni sepib tashlaymiz. Yo'qsa, ish chatoq bo'ladi. Bitta cho'michimiz bor, mana, topdim. Sen manovi kurakchani ol, har holda yaxshi bo'ladi. Ushladingmi? Kurakchani ol, deyapman... — dedi.

— Ha, atkichx, ushladim. Hali bu uzoqqa cho'ziladimi? Qo'rqib ketyapman.

— Men ham qo'rqyapman, — deb yubordi oqsoqol kutilmaganda. — Lekin biz erkaklarmiz, shuning uchun ham ishning og'iri bizning yelkamizda.

— Bunaqada cho'kib ketmaymizmi, atkichx?

— Cho'kib ketmaymiz. Agar cho'kib ketadigan bo'lsak, mayli, peshonada bori shu ekan. Ke, endi, bir qo'ling bilan meni ushlab turgin-da, ikkinchi qo'ling bilan suvni sepib tashlayver.

---

[1] **Tlangi-la** — dengizda janubi-sharqdan esadigan kuchli izg'irin shamol.

Yaxshisi, vaqtida O‘rxonning esiga tushib qolgan ekan, oz-moz nafasni rostlab olishgandan so‘ng qayiqdagi suvni sepib tashlashdi. Suv ozayishi bilan chol qayiqdagi buyumlar orasida yotgan kichkina bochkaga nazari tushdi va uni bolaga ko‘rsatdi. Kunduzi ham shu bochkadan suv ichishgan edilar.

— Kirisk, — dedi u qorong‘ida bolaning qo‘lidan ushlab. — Bu yerda kichkina suvli bochkamiz bor. Topdingmi? Esingda bo‘lsin, har qanday mushkul vaqtda ham shu bochkachadan ayrilma. Undan ajralganimizdan ko‘ra o‘lganimiz yaxshiroq. Tushundingmi? Shundan boshqa hech kimga ishonmay qo‘ya qol... Eshityapsanmi?

Yaxshiki, chol bu gapni bolaga aytib qo‘ydi, yaxshiki, bolani vaqtida ogohlantirib qo‘ydi. Tez, orada bu narsa juda-juda asqatib qoldi.

Ko‘p o‘tmay dengiz g‘alayoni avvalgidan ham battar vahshatli tus oldi. Go‘yo u tun va tuman ichida hech narsani ko‘ra olmay qolgan odamlarning nochorligidan foydalanib, qayta hujumga o‘tgan edi. Ilgari biroz bo‘shashgan bo‘lsa ham endi quturib, o‘chini olmoqchiga o‘xshardi. O‘rxon boboning qayig‘i to‘lqinlar zarbidan chirpirak bo‘lib, uyoqdan-buyoqqa borib kelardi. O‘rkachlangan to‘lqinlar qayiqni savalagani savalagan edi. O‘rxon tizzalab, emaklab cho‘michi bilan har qancha harakat qilsa-da, qayiq ichiga kelib tushayotgan suvni sepib tashlashga ulgurmasdi. Shu payt eshkakchilar birdan jon-jahdi bilan baqirib qolishdi:

— Tashlanglar hamma narsani! Cho‘kyapmiz! Tashlanglar!

Kirisk qo‘rqqanidan ho‘ngrab yig‘lab yubordi, ammo uning yig‘isini hech kim eshitmas, hech kim unga e’tibor bermas edi. Bola qayiqning quyruq tomoniga tiqilib, suvli bochkaga mahkam yopishib oldi-da, uni ostiga bosib yotaverdi. U shu alfozda g‘ujanak bo‘lib, bochkaga biqini bilan qapishib olgancha titrab-qaqshab yig‘lardi. U nima bo‘lsayam shu bochkani asrab qolish g‘oyat muhim ekanligini tushunardi. U qayiq bilan birga suvga cho‘kayotganlarini angladi. Lekin bari bir shu vaqtda ham O‘rxon oqsoqol tayinlagan ishni qildi, suvli bochkachani ehtiyot qila boshladi.

Yarmisigacha cho‘kib borayotgan qayiqni zudlik bilan qutqarish zarur edi. Milxun hamon aql bovar qilmas darajada eshkak eshib, uning ag‘darilmasligi chorasini ko‘rardi. O‘rxon bilan Emrayin esa qayiqda nimaiki bo‘lsa hammasini uloqtirish bilan band edilar.

Bundan boshqa chora qolmagan edi. Ikkala miltiq, garpun — nayza, arqon o'ramlari va boshqa narsalar, hatto O'rxon boboning tunuka choynagi ham dengizga uloqtirildi. Tyulen tanasini uloqtirish juda mushkul bo'ldi. Suvga bo'kib, og'irlashib, shilimshiq bo'lib kolgan tyulen tanasi sira qo'lga kirmasdi. Uni oyoq tagidan ko'tarib tashlash zarur edi. Mana shu hayvonni deb ular dengiz safariga chiqishgandi, endi esa xuddi shuni tashlab yuborish zarur bo'lib qoldi. Ular baqirganlaricha so'kinib, tor joyda tiqilishib, tyulen tanasini qayiqning chetiga surib kelishga muvaffaq bo'lishdi va nihoyat uni dengizga tashlab yuborishdi. Hatto mana shu kiyomat-qoyimda, dengiz quturib turganda ham tyulen tanasidan holi bo'lgan qayiq yengillashib, o'zini biroz o'nglab olgani sezildi. Ehtimol, xuddi shuning o'zi ularni suvga g'arq bo'lishdan saqlab qolgandir...

* * *

Birinchi bo'lib O'rxon bobo hushiga keldi. U huvillab yotgan bo'shlik orasida qayerga kelib qolganlarini, butun atrofni o'rab olib, bo'zrayib toshday qotib turgan bu ruhsiz narsalar nima ekanligini dabdurustdan anglayolmadi. Bu tuman edi.

Ha, okeanning hammayog'ini tanho o'zi o'rab, egallab olgan va harakatsiz qotib qolgan bu sukunat Buyuk tuman edi. Buyuk tuman o'zining buyuk qatag'on davrini kechirmoqda edi...

O'rxon boboning ko'zlari biroz ko'nikkach, qorong'ilikda qayiqning chetlarini, so'ng odamlarni ko'ra boshladi. Emrayin bilan Milxun o'z joylarida, eshkaklar oldida cho'zilib qolishgandi. Ular tungi olishuvda tinkalari qurib, holdan toyib, o'likday yotishardi. Ular go'yo jangda halok bo'lgan kishilarga o'xshar edilar, faqat o'qtin-o'qtin chiqayotgan xurrak tovushidangina ularning tirik ekanligini bilish mumkin edi. Kirisk bo'lsa cholning oyoq tarafida bochkaga yopishib, g'ujanak bo'lib yotardi. Bola uyqusida zax va sovuqdan qaltirardi. O'rxon bobo bolaga achinardi, ammo qo'lidan hech narsa kelmasdi.

Tungi qiyomat-qoyimdan gangib qolgan oqsoqol oppoq sochli boshini quyi solgancha qayiq quyrug'ida o'tirardi. Butun vujudi zirqirab og'rirdi. Uzun sertomir qo'llari qamchiday osilib turardi. O'rxon bobo umrida juda ko'p balo-qazolarni, falokatlarni ko'rgan, ammo u bunaqangi qiyomat-qoyim bilan birinchi marta to'qnash

kelishi edi. U hozir qayerda suzib yurishganini, bo‘ron ularni qayoqqa surib kelganini, yerdan qancha olislab ketishganligini, haliyam dengizda yurishibdimi yoki okeandami — sira tasavvur qilolmasdi. U hatto hozir qaysi vaqtligini ham bilolmasdi. Borliqni egallagan zim-ziyo tumanda kunduz bilan kechani ajratib bo‘lmasdi. Lekin har holda dengiz g‘alayoni ertalabga yaqin pasayishini hisobga olganda, hozir kunduzga o‘xshardi. Ehtimol, kun qiyomga kelgandir?

O‘rxon oqsoqol boshini quyi solishiga sabab bor edi. U mo‘jiza bilan tirik qolishganiga xursand bo‘lsa-da, bari bir ahvol chatoqligini his qilardi. Chunki qayiqda endi bir juft eshkak va ozrog‘i ichilgan bir bochkachadagi suvdan boshqa hech vaqo qolmagandi. Qayiqdagi hamma narsani tashlab yuborishgan. Hatto o‘tib ketayotgan savdogarlardan yuztacha mo‘ynaga ayirbosh qilib olingan miltiqlar ham endi yo‘q edi. Ularni oldinda nima kutayotgani ham noma’lum edi.

To‘g‘ri, eshkakchilar hushiga kelishlari bilan endi nima qilish kerakligini birgalashib o‘ylab ko‘rishadi. Lekin qay tarafga suzish kerakligini kim biladi deysiz? Bu asosiy masala. Undan keyin tunda, agar havo ochiq bo‘lsa, yulduzlarga qarab yo‘lni aniqlashga urinib ko‘rish kerak. Lekin qancha vaqt suzishga to‘g‘ri kelarkin? Qirg‘oqni topguncha kuchlari, vaqtlari yetarmikin? Manzilga yetguncha bardosh berisharmikin?

Tuman-chi, bu qanaqa tuman o‘zi? Dengiz ustida shu qadar qalin, shu qadar uzoq turib qolgan bu qanaqa tuman? Xuddi u bu yerda abadiy o‘rnashib olganga o‘xshaydi. Nahotki hammayoq shunday bo‘lsa?.. Nahotki butun olam shunday tuman orasida qolgan bo‘lsa?

Shu mahal oqsoqolning tamaki chekkisi, suv ichgisi keldi. Tamaki topiladi-yu, mayli, ho‘l bo‘lsayam, ammo munshtugi qayoqda qoldiykin? Suv-chi? Ovqat-chi? O‘rxon bu to‘g‘rida o‘ylashdan ham qo‘rqardi. Hozircha chidasa bo‘ladi, hozircha hech narsani o‘ylamasa bo‘ladi...

Dengiz suvi sokin jimirlar, hammayoq tinchib, huvillab qolgandi. Qayiq turgan joyida sal-pal chayqalib turardi. Suv uni hech qayoqqa surmas, o‘zi ham hech qayoqqa jilmasdi. Eshkaklar o‘z holiga tashlab qo‘yilgandi. Emrayin bilan Milxunning ahvoli ma’lum — ular shunchalik qattiq charchashgan ediki, eshkaklarni suvdan ko‘tarishgayam majollari kolmay, o‘likday dong qotish-

gandi. Qilt etgan shamol yo'q, butun borliq g'ira-shira qorong'ilikka cho'mgan, harakatdan to'xtab qolgandi. Dengiz harakatsiz, tuman harakatsiz, qayiq harakatsiz edi... qayoqqa shoshishni ham, qayoqqa suzishni ham bilishmasdi...

Oqsoqol g'amga botganicha bukchayib uxlab qoldi. Uni birdan Kiriskning ovozi uyg'otib yubordi.

— Atkichx, atkichx! — deb yulqiladi bola uni. — Suv ichgimiz kelyapti.

O'rxon bobo seskanib ketdi, uchala qabiladoshi oqsoqoldan izn so'rab turishganini sezdi, hozir eng mushkul ish — suvni avaylab ulashish kerakligini angladi... Tuman hamon qalin va harakatsiz edi. Dengiz hamon sukunat qo'ynida edi.

* * *

Tunning qolgan yarmini tuman ichida asta-sekin suzish bilan o'tkazishdi. Ne maqsadda va qayoqqa suzishayotganlarini o'zlari ham bilishmasdi.

Odamlar hushlariga kelib, qay ahvolga tushib qolganlarini anglashdi, endi bir joyda turib bo'lmasdi.

Shuning uchun ular suzishda davom etdilar. Ehtimol, yerga yaqinlashib, ehtimol, yerdan uzoqlashib borishayotgandir?

Haytovur bir yerda turmay suzyapmiz, harakat qilyapmiz-ku, deb o'ylashardi.

Butun umid havoning ochilib ketishida, tumanning tarqalishida edi. Ana shunda nima qilish kerakligi oydinlashardi.

Har holda tuman tarqab ketsa, kechasi osmonda yulduzlar ko'rinardi. Bor-yo'q umid faqat yulduzlarda bo'lib qoldi.

Yana bir narsadan umid bor edi — biror orolga duch kelib qolishsa yaxshi bo'lardi-ya. O'shanda mo'ljallab yo'l topish mumkin edi. Hozircha ular maqsadsiz suzishardi, qayoqqa suzishmasin, tumanga peshvoz borishardi.

Shunga qaramay, O'rxon oqsoqol qayiqni biroz sarishta qilib qo'yish kerakligini aytdi. Oyoq ostida suv shaloplamasligi uchun qayiqdagi suvni oxirgi tomchisigacha tozalashdi. Chol Kiriskni qayiqning quyruq tomoniga, o'zining yoniga o'tqazdi — shunday qilsa, bola tezroq isinib, qurinib olardi. U suvni hammaga teng taqsimladi. Birinchi gal hammaga salkam chorak cho'michdan suv

berdi. Bo'ronli kechadan so'ng aqalli bir marta to'yib suv ichib olish kerak edi. Ayni vaqtda O'rxon bobo ogohlantirib qo'ydi: bundan buyon faqat u aytgan paytda va qancha quysa, shuncha suv ichilishinigina uqtirdi. U shu so'zlarni aytarkan, gapining isboti uchun yarmi bo'shab qolgan bochkachani chayqatib qo'ydi.

Kutilmaganda bir narsa ularni juda xursand qilib yubordi. Suv ichish uchun bochkani olishayotganida uning tagida, qayiq quyrug'ining bir burchida qolib ketgan, qoq baliq solingan to'rvani ko'rib qolishdi. Tyulen teri to'rvani safar oldida Milxunning xotini qayiqqa solib qo'ygan edi. Oziq-ovqat solingan katta to'rvani boshqa narsalar bilan dengizga uloqtirishgan, kichkina to'rva esa Kirisk avaylab saqlab o'tirgan bochka tagida yashirinib qolib ketgan ekan. To'g'ri, kichkinagina to'rvaga sho'rtang dengiz suvi to'lib qolgan, o'zi tuzlangan baliq yana beshbattar tuzlanib qolganidan og'izga olib bo'lmasdi. Shunga qaramay, har holda bu oziq edi. Mabodo ichimlik chuchuk suv yetarli bo'lganida, mana shu sho'r baliq ham asqatib qolardi. Lekin hozircha sho'r baliqni hech kim yemadi, tashnalikni zo'raytiradi, deb qo'rqishdi...

Hamma bir narsani — tuman tarqalishini kutardi...

Hayhotday sukunat va sokin tuman ichida faqat eshkaklarning tirgaklari ma'yus g'iychillagani eshitilardi. Buyuk tuman ichida bu g'iychillash adashgan va horigan yo'lovchining: "Bu yer qayer? Bu yer qayer? Qayoqqa yuray?" — deb faryod solayotgan tovushini eslatardi. Hamma bir narsani — tuman tarqalishini kutardi...

* * *

Ammo tuman tarqamas, tarqalishni xayoliga ham keltirmasdi. Tuman qilt etmasdi. Go'yo quruqlikdan tashqari, yerga aloqasi bo'lmagan, rutubatli havodan nafas oluvchi aql bovar qilmaydigan allaqanday maxluq bu yorug' dunyoni — Yerni ham, Osmonni ham, Dengizni ham yutib yuborganday edi...

Tuman og'ushida yana kech kirdi. Kech kirganini faqat atrofda qorong'ilikning yanada quyuqlashganidan sezish mumkin edi. Osmonda birorta yulduz yo'q, osmonning o'zi ko'rinmasdi.

Maqsadsiz, shunchaki qayoqqadir suzish ma'nosiz edi.

Osmonda yulduz ko'rinib qolmasmikin, deya hamma orziqib kutar va umid qilardi. Soat sayin shuni kutishardi. Shamol turib

qolishini — mana shu uch qatla la'nati tumanni biror yoqqa haydab yubora oladigan shamol turib qolishini kutganidan mijja qoqishmasdi. Yulduzlarni to'sib turgan ko'kimtir gumbazning ochilishini so'rab osmon ruhiga iltijo kilishardi. Shamollar egasini — seryol, hurpaygan maxluqni uyg'ona qol, deb iltijo qilishardi.

Lekin hammasi behuda edi. Ularning iltijosiga hech kim quloq solmas, tuman ham tarqalay demasdi.

Kirisk ham yulduzlarning chiqishini kutardi. Ilgari uning uchun osmonda o'yinchoqday yaltirab turadigan yulduzlar hozir hammadan ham zarur edi. O'tgan kechasidan beri ko'rgan kulfatlari uni esankiratib, yuragini olib qo'ygandi. Axir bola qalbi nozik bo'ladi, uni bir umrga mayib va majruh qilib qo'yish mumkin. Ammo qayiqda birga bo'lgan uch erkak umumiy o'lim xavfini, safarning xatarli oqibatini, quturgan dengiz ofatini yengishdi-ku! Shuning o'zi bolaning dilida bu gal ham najot yo'li topiladi, degan umid uyg'otardi. Osmonda yulduzlar ko'rinsa bas, boshimizga tushgan azob-uqubatlardan qutulamiz, deb ishonardi bola.

Faqat bu tashvishlar tezroq tugasaydi, tezroq o'z joylariga, yerga, Olapar qoyasiga tezroq yetib borishsaydi. Tezroq, tezroq, tezroq... Axir suvsab, och qolishdi, nihoyatda chanqashdi, nihoyatda ochiqishdi, borgan sayin battar chanqashyapti, borgan sayin ochlikdan sillalari quriyapti. Onasining yoniga, qarindosh-urug'larining yoniga, uylariga, o'choqlari, jilg'alari, o'tloqlariga tezroq borish istagi kuchaygandan-kuchayardi...

Falokatga uchraganlar kechasi bilan jon hovuchlab, havoning ochilishini kutib chiqishdi. Biroq hech nima o'zgarmadi, tuman joyidan siljimadi, osmonga yulduz chiqmadi, dengiz uzra zulmat tarqamadi.

Ular kechasi bilan chanqab, suvsab chiqishdi, zaxlikdan, rutubatdan, sovuqdan junjikib turishsa ham, bari bir tashnaliklari kuchayib borardi. Kirisk faqat men qattiq chanqadim, deb o'ylashi mumkin edi, lekin kattalar ham tashnalik azobini tortayotgan edilar. Ammo bola hammadan ko'ra kattiq chanqayotgan edi. Xammadan ko'ra suv ichishni ko'proq xohlaganidan xijolatga tushib battar azoblanardi.

Oxiri Kiriskning sabr-bardoshi tugab, ozgina suv so'ragan edi, O'rxon oksoqol bermadi.

— Yo‘q, — dedi u qat’iy. — Hozir mumkin emas. Sabr qil.

O‘rxon bobo ularni sho‘r baliq qanchalik chanqatayotganligini bilsaydi: kechga yaqin Emrayin, Milxun va Kirisk ochlikdan sillalari qurib, sho‘r baliqni bo‘lib yeyishgan, chol esa o‘zini tiygan edi. Shuning uchun tashnalikdan uchalasining bag‘ri yonib ketayotgandi. Sho‘r baliq orqasidan suv ichvorishgan bo‘lsa ham, bari bir, sal o‘tmay tashnaliklari battar kuchaydi. Chol esa sho‘r baliqni og‘ziga ham olmadi, chidadi, suv ham ichmadi, suvni tejadi, biror tomchi og‘ziga olmadi. O‘sha kuni O‘rxon oksoqoldan boshqalar ikki mahal suv ichishdi. Kechqurun ichganlari juda oz — cho‘michga arang yuq bo‘lardi. Bochkachaning tagi esa tobora ko‘rinib borardi.

Odam chanqab, suv ichgisi kelib, hadeb shuni intiqib kutaversa, sabr-toqati battar tugab boraveradi.

Kechasi bilan shunday azob tortib chiqishdi... Tuni bilan dahshatli tuman tarqamadi. Dengiz ham qilt etmadi.

* * *

Ertalab ham jilla o‘zgarish bo‘lmadi. Kulrang, ko‘ng‘ir tusli tumanning bag‘ri salgina oqardi, ko‘zga tashlanib turgan masofa salgina kengaydi, xolos. Odamlarning yuz-ko‘zlari ko‘rinib qoldi. Qayiq atrofida bir necha chaqirimgacha simobday qilqillab turgan og‘ir, vazmin tuman kumush rangida tuslanib ko‘rinardi. Bunday ko‘lmak singari turib qolgan suvni Kirisk umri bino bo‘lib ko‘rmagandi.

Qilt etgan shabada, biron-bir o‘zgarish yo‘q edi.

Ammo shu kuni ertalab bola kattalarning afti angorini ko‘rib, hangu mang bo‘lib qoldi. Uchalasi ham shu kunlar ichida cho‘pday ozib, soqollari tikanday o‘sib, ko‘zlari kirtayib, o‘lish xavfi ostida qolishganday edi. Har qanday kiyinchiliklarga bardosh bera oladigan otasi ham juda o‘zgarib ketibdi. Faqat soqoli qolganga o‘xshaydi. Lablari ko‘karib, qorayib ketgan. U Kiriskka gapirmasa ham achinib boqardi. Ayniqsa, O‘rxon oqsoqol o‘zini oldirib qo‘ygandi. U yanada bukchaygan, ranglari yanada uniqqan, kekirdagi chiqqan bo‘yni yanada cho‘zilgan, ko‘zlari avvalgidan battarroq yoshlangan edi. Faqat ma’noli boqishlaridan uning avvalgi O‘rxon oqsoqol ekanligini bilib olish mumkin edi. Uning dono

nigohida faqat o‘zigagina ayon va o‘zigagina tushunarli bo‘lgan g‘oyat muhim ma’no bor edi.

Kunni eng mushkul ishdan — bir necha kultumdan suv ulashishdan boshlashdi. Suvni O‘rxon oqsoqolning o‘zi quydi. U bochkachani kultillatib turib, cho‘michga jildiratib, oz-ozdan quyar ekan, qo‘llari qaltirar edi. Cho‘michni birinchi Kiriskka uzatdi. Zo‘rg‘a chidab turgan bolaning cho‘mich chetiga tekkan tishlari takillab, suvni birpasda ichib qo‘ydi. Faqat bir zumgina tashnaligi qondi, xolos. Tomog‘ini namlashi bilan ichidagi o‘tga suv sepilganday bo‘ldi-yu, lekin cho‘michni qaytarib berishi bilan yana yurak-bag‘ri yonib, boshi aylana boshladi. Go‘yo ichidagi vahshiy hayvonning g‘azabini qo‘zg‘atganday bo‘ldi. Keyin Milxun, so‘ng Emrayin ichdi. Ularning suv ichishlariga qarab, bola dahshatga tushdi. Titragan qo‘llari bilan cho‘michni changallab, ichib bo‘lib qaytarishar ekan, O‘rxonning yuziga qarashmasdi. Go‘yo suvning kam qolganiga u aybdorday edi. Oqsoqol o‘ziga navbat kelganida, bir tomchiyam quymadi, indamay bochkachaning tiqinini yopib qo‘ydi. Bu holdan Kirisk hang-u mang bo‘lib qoldi. Agar bochkacha uning qo‘lida bo‘lganida edi, o‘ziga cho‘michni to‘ldirib quyib olgan bo‘lardi, ichib bo‘lib yana quyardi, yana, yana ichaverardi... to yiqilib qolmaguncha ichardi. Aqalli bir marta to‘yguncha ichsin. Keyin nima bo‘lsa bo‘lar. O‘rxon oqsoqol esa o‘ziga tegishli suvni ham ichmadi. Cho‘michning tagida qolgan ozgina suvdan ham bosh tortdi.

— Nega unday qilding, atkichx? Hamma qatori o‘zinggayam quy-da! — dedi chidab turolmagan Emrayin o‘zini zo‘rlab, xirillab gapirarkan. — Kechayam ichmading. Kemaga tushganning joni bir, o‘lsak hammamiz birga o‘lamiz!

— Hechqisi yo‘q, — parvo qilmadi O‘rxon bobo.

— Yo‘q, bunaqada bo‘lmaydi! — ovozini balandlatdi Emrayin va jahl bilan qo‘shib qo‘ydi: — Unday bo‘lsa men ham ichmayman!

— Ichadigan narsaning o‘zi yo‘q! Gapirishga ne hojat! — O‘rxon “yosh bolamisanlar”, deganday miyig‘ida kulib qo‘ydi. So‘ng boshini sarak-sarak qilib, bochkachaning tiqinini ochdi, bir-ikki qultum suv quyib bolaga uzatdi. — Mayli, o‘rnimga Kirisk icha qolsin.

Bola hayron bo‘lib qoldi. Hamma jim edi. O‘rxon buva esa cho‘michni bolaga uzatarkan:

— Ol, Kirisk, ichaver. O‘ylab o‘tirma! — dedi. Kirisk indamadi.

— Ichaver! — dedi Milxun.

— Ichaver, — dedi Emrayin.

— Ichaver, — dedi O‘rxon bobo.

Kirisk ikkilanib qoldi. Mana shu bir necha qultum suvni shartta ichgisi kelib, ichi yonib, o‘lar holga kelsayam indamadi.

— Yo‘q! — dedi u bag‘rini yondirayotgan tashnalik istagini arang yengib. — Yo‘q, atkichx, o‘zingiz ichavering, — shu tobda boshi aylanib, ko‘zi tinib ketdi.

Bu so‘zlardan O‘rxon boboning qo‘llari qaltiradi, chuqur xo‘rsindi. Nigohi mayinlashib, bolaga mehr bilan boqdi.

— Men umrimda juda ko‘p, oh, juda ko‘p suvlarni ichganman. Sen-chi, hali... ko‘p yashashing kerak, — u gapining oxirini ichiga yutdi. — Gaplarimni tushundingmi, Kirisk? Ichaver, ha, shunday bo‘lsin, sen ichishing kerak, mendan xavotir olma. Ma, ushla!

Bola bu gal ham bir necha qultum suvni yutib, bir zum tashnaligi qonganday, ichidagi hovuri bor oz so‘nganday, ahvoli sal yengillashganday bo‘ldi. Bu gal og‘zida suvning nordon ta’mi qoldi. Lekin hozir buning ahamiyati yo‘q, har qalay chuchuk suv-ku. Chuchuk suv esa tugab borardi.

— Endi nima qilamiz? — dedi O‘rxon oqsoqol qabiladoshlariga o‘girilib qarar ekan. — Suzaveramizmi?

Oraga uzoq jimlik cho‘kdi. Hammalari atrofga ko‘z tashlashdi. Lekin quyuq tumanda ikki chaqirimdan narini ko‘rib bo‘lmasdi.

— Qayoqqa suzamiz? — xo‘rsinib, jimlikni buzdi Emrayin.

— Qayoqqa deganing nimasi? — negadir kutilmaganda Milxunning jahli chikdi. — Suzaveramiz. Ha, bir joyda turib qolgandan ko‘ra suzganimiz yaxshi.

— Suzdik nima-yu, suzmadik nima! — uning so‘zini bo‘ldi Emrayin. — Bunaqa tumanda qayoqqa suzsang ham bari bir, foydasi yo‘q!

— Tupurdim tumaningga! — Battar xunobi oshdi Milxunning. — Sening tuman-pumaning bilan nima ishim bor? Tushundingmi? Suzsak suzaylik, bo‘lmasa manovi la’nati kayig‘ingning oyog‘ini osmondan keltirib, asfalasofilinga jo‘nataylik-da, so‘ng baliqlarga yem bo‘laylik! Tushundingmi, Soqol? Suzsak suzaylik! A, to‘g‘rimi?

Kirisk g‘alati bo‘lib ketdi. U Milxun amakisining yengiltakligidan xijolatga tushdi. Milxun bunaqa baqirmasligi kerak edi, haytovur u otasidan yosh edi. Unga bir balo bo‘lganga o‘xshaydi. Yoki bir qayiqdagi nivxlar deb atalgan to‘pga qandaydir darz ketdimi, nima balo? Hamma jim bo‘lib qoldi, hamma ezgin, hammaning ichini it tatalardi. Milxunning o‘ziyam indamay qoldi. Emrayin boshini quyi soldi. O‘rxon bobo esa chetga qaragancha o‘tirar, yuzi xuddi borliqni qurshab olgan tumanga o‘xshash sirli edi.

— O‘zingni bos, Milxun, — dedi nihoyat Emrayin. — Shunchaki gap kelganda aytdim-ko‘ydim-da. Bir joyda turgandan ko‘ra suzgan yaxshi, albatta. To‘g‘ri gapirding, qani ketdik...

Ular yana joylaridan qo‘zg‘alishdi. Yana tirgaklar g‘iychillab, yana eshkaklar suvni shaloplatib, ko‘tarilib tusha boshladi. Lekin odamlarning nazarida qayiq siljimayotganday, bir joyda turganday edi. Qayergacha suzishsa ham baribir butun atrofni quyuq tuman bosgan edi, go‘yo sehr-joduli doiraga tushib kolgan edilar. Xuddi shu narsa Milxunning yana xunobini chiqardi.

— Sening manovi tumaningga tupurdim, eshityapsanmi, ey Sersoqol Emrayin! — U darg‘azab bo‘lib javray ketdi. — Tezroq haydaylik qayiqni! Men shuni istayapman! Tezroq qimirla, hoy Soqol, uxlama, eshityapsanmi? Tupurdim tumaningga!

Milxun javrar ekan, eshkakni yanada keskinroq esha boshladi.

— Qani, bo‘l tez! Bo‘l tez, deyapman! — deya qistadi u.

Emrayin bu gal Milxunning jahlini chiqarmaslik uchun indamadi. Aksincha, uning ovsarona “o‘yiniga” qo‘shilganday tez eshkak esha boshladi. Qayiqning tezligi osha boshladi. U tuman ichida tavakkaliga goh u tomonga, goh bu tomonga jadal suzar, ammo qayoqqa borishayotganini hech kim bilmasdi. Milxun bilan Emrayin esa telbalarcha harakat kilib, jon achchig‘ida eshkak eshishar, go‘yo tumanni quvib yetib, cheksiz chegarasidan chiqib ketishga uringanday, shafqatsiz bir jazava bilan harakat kilishardi.

Eshkaklarning kuraklari qiyalab suv sachratib, tez-tez ko‘tarilib tushar, qayiq tashqarisida suv shovullardi; ovchilarning tuklari hurpaygan, ter bosgan yuzlari goh pastga, goh balandga ko‘tarilar, ular eshkakni suvdan olayotganda yiqilguday gavdalarini oldinga tashlashar, eshkakni suvga tirashgandan keyin zo‘r berib o‘zlarini orqaga tashlar edilar...

Ular h-ha, deb nafas olib, h-ha, deb nafas chikarishar edi; h-ha... H-a... H-ha... H-ha... H-ha... H-ha... H-ha...

Oldinda — tuman, orqada — tuman, butun borliqni tuman qoplagan edi.

— Xana, xana![1] — ko'zlari yonib, baqirib, hammani tezlashga undardi Milxun.

Avvaliga Kirisk harakat tezlashganidan quvonib ketdi, ammo keyin bu harakatlarning hammasi behuda ekanligini tushunib dahshatga tushdi. Bola tahlika ostida O'rxon oqsoqolga qaradi, nazarida hozir chol bu bema'ni poygani to'xtatishi kerak edi. Ammo oqsoqol o'ychan ko'zlarini atrofga tikkanicha, hamma narsaga parvoyi falak o'tirardi. Chol yig'layaptimi yoki ko'zlari o'zi yoshlanib turadimi, bilib bo'lmas, yuzi namlangan edi. Atrofida yuz berayotgan hodisalarni his qilmayotganday, qayiq tumshug'ida miq etmay o'tirardi.

Qayiq esa tuman qo'ynida qayoqqa borayotganini ham, nima uchun borayotganini ham bilmay, sarson-sargardon turardi.

— Xana, xana! — jonholatdagi baqiriq atrofga taralardi tuman ichida. — Xana, xana!

Uzoq vaqtgacha shu ahvol davom etdi. Ammo eshkakchilar holdan toyib, qayiq sekinlasha boshladi. Ular hansirashib, bo'g'riqib, eshkaklarni o'z holiga tashlab qo'yishdi. Milxun boshini ko'tarolmadi. Achchiq haqiqatni shu taxlit anglab yetishdi. Ular tumandan o'zib ketisholmadi, tuman chegarasidan chiqib ketisholmadi; hamma narsa avvalgiday: hamon ovchilar avvalgiday xavfli, omonat dengiz to'lqinlarida yurishibdi, hamon oldinda nima kutayotgani noaniq, hamon borliqni quyuq zulmat chulg'ab olgan. Faqat shiddat bilan ketayotgan qayiq yana allaqancha joygacha suzib bordi-da, oxiri bir yerda aylanib to'xtab qoldi...

Shunaqa oshiqib haydashning nima keragi bor edi? Bu bilan biron narsaga erishishdimi? Nima foyda ko'rishdi? Mabodo bir joyda turishganida nima bo'lardi? Albatta, hech narsa bo'lmasdi.

Qayiqdagi har bitta odam chamasi shular haqida o'ylar edi. Shu payt O'rxon oqsoqol tilga kirdi:

— Endi quloq solinglar, — dedi u vazminlik bilan, chamasi o'zini koyitmaslikka harakat kilib, chunki u ikki kundan beri hech

[1] **Xana** — qani, bo'l tezroq ma'nosida.

nima yemadi ham, ichmadi ham. — Ehtimol, bu tuman hali-beri tarqamas. Odatda, shunday yillar, shunday voqealar bo'lib turadi. Buni o'zlaringiz ham bilasiz, dengiz ustida tuman sakkiz kunlab, ba'zida o'n kunlab turib qoladi. Muddati kelmaguncha kasal tuzalmas, deganlariday tuman dengiz ustidan jilmay qoladi. Bu muddat qachon keladi, buni hech kim bilolmaydi. Agar bu tuman ham shuning singari tez orada tarqamaydiganlaridan bo'lsa, unda holimiz ne kechadi? Qoq baliq ham juda oz qoldi, suv bo'lmagandan keyin, uning kimga ham hojati bor. Suvimiz bo'lsa, mana! — chol shunday deb, bochkachani chayqatdi. Chamasi, bochkacha tagida bir, bir yarim hovuch suv qolgan edi, xolos.

Hech kimdan sado chiqmadi. Chol ham jimib qoldi. Uning nima demoqchi ekanligini hamma tushunib turardi: bundan buyog'iga kuniga faqat bir marta, o'shandayam cho'michning yuqini ichish kerak. Shunday qilganda iloji boricha uzoq chidash, tuman balosini yengish, unga bardosh berish mumkin, deb o'ylashardi. Havo ochilib, yulduzlar chiqib yo quyosh charaqlab ketsa, marra bizniki, deb o'ylashardi. Zora, baxtlari chopib, xavo ochilib ketsa, zora yergacha yetib olishsa!

Aslida ham shunday qilmasa bo'lmasdi. Boshqa ilojlari yo'q edi ham! Lekin aytishga oson — odam qachongacha chidashi mumkin? Goho uydagi gap ko'chaga to'g'ri kelmaydi, xayol boshqa, hayot boshqa deganday. Azobda qolgan barcha odamlar hoziroq suv ichishni, cho'mich yuqidamas, to'yib, qonib ichishni xohlar edilar.

Bu mudhish ahvoldan qutulish mushkulligini O'rxon bobo tushunardi va shuning uchun ham u boshqalardan ko'ra ko'proq iztirob chekardi. Chol hammaning ko'zi oldida qurib, so'lib borardi. Ichki bir dardning zo'rligidan qat-qat ajin bosgan yuzi qorayib, battar burishib borardi. Yoshlanib turgan ko'zlarida zo'riqish va sarosimalik alomatlari aks etardi — bunday iztiroblarga bardosh berish chol uchun juda og'ir edi. Lekin qurib qolgan daraxtni faqat tomiri zo'rg'a tutib turganday chol o'zini oxirigacha mardona tutardi. Ammo bu hol uzoq davom etishi mumkin emasdi. Odamlarning falokatdan qutulib qolishi uchun zarracha ahamiyatli bo'lgan gapni ham aytib qolish kerak edi.

— O'ylashimcha, — so'zida davom etdi O'rxon oqsoqol. — Har lahza diqqat bilan atrofga nazar tashlab, havodan ko'z uzmay

turish kerak — to‘satdan agukuk[1] o‘tib qolishi mumkin. Bunday tuman paytida dengiz ustidan faqat agukuk uchib o‘ta oladi. Mabodo, biz biror orol bilan yerning oralig‘ida kolgan bo‘lsak, qushning uchishidan yo‘lni bilib olishimiz mumkin. Qanday qush bo‘lsa ham dengiz ustidan faqat to‘g‘riga qarab uchadi. Agukuk ham xuddi shunday.

— Mabodo biz orol bilan yerning oralig‘ida bo‘lmasak-chi? — g‘amgin so‘radi Milxun, hamon boshini quyi solganicha.

— Unda yerni ko‘rolmaymiz, — dedi bosiqlik bilan O‘rxon bobo. Kirisk aniqlashga intildi. Nega endi agukuk dengiz tepasidan uchadi?

Bunaqa olis joydan uchish qushga zarur keptimi? Ammo undan avval xuddi shu fikrni Milxun aytib qoldi.

— Mabodo agukuk bizning tepamizdan uchib o‘tishni unutib, boshqa tomondan uchib o‘tishni xohlab kolgan bo‘lsa-chi, atkichx? Unda nima qilamiz? — dedi u ma’yuslanib, istehzo bilan.

— Unda yerni ko‘rolmaymiz, — dedi yana bamaylixotir O‘rxon bobo.

— Demak, ko‘rolmaymiz! — hayron bo‘lib g‘azablandi Milxun. — Unaqasigayam, bunaqasigayam ko‘rolmas ekanmiz-da! Unday bo‘lsa biz bu yerda nega o‘tiribmiz? — g‘azabi toshib jo‘ldiradi u va birdan qah-qah urib kulib yubordi, so‘ng yana dami ichiga tushib ketdi. Hammaning yuragi orqasiga tortib ketdi. Nima kilishni bilmay, sukut saqlar edilar.

Shu orada Milxunning boshiga bir fikr kelib qoldi. U kafti bilan eshkakning tagiga bir urib, tirgagidan chiqarib yubordi. Keyin nima uchundir qayiqning burniga chiqib, qaddini g‘oz tutib, eshkakni langar qilib turib oldi. Hech kim unga hech narsa demadi. U ham hech kimga e’tibor bermadi.

— Ey, qanjiq! — g‘azab bilan baqirdi u eshkakni ko‘targanicha tuman zulmati tomonga tahdid solib. — Ey, shamollar Shomoni! Eshityapsanmi? Agar sen qanjiq itning o‘ligi bo‘lmay, shamollarning egasi bo‘lsang, qani sening shamollaring! Yoki iningda o‘lib qoldingmi, qanjiq?! Yo seni har tarafdan ayg‘irlar o‘rab olgan bo‘lsa, qay biriga orqa o‘girishni bilmay qoldingmi? Yo ham-

[1] **Agukuk** — qutb boyqushi.

masiga bir-bir orqa o'girib, chaqishib qoldingmi? Shuning uchun ham shamol ko'tarishga qurbing yetmayaptimi? Yoki bo'lmasa biz bu yerda, o'raning ichiga tushib qolgandek tuman ichida, halokat ostida qolib ketganimizni bilmaysanmi, qanjiq? Yo oramizda yosh bola borligini bilmaysanmi? Bolaning suv ichgisi kelyapti, suv, tushunyapsanmi?! Senga aytyapman, oramizda yosh bola bor, u birinchi marta dengizga chiqqan! Sen-chi, sen bo'lsang bizlardan qasdingni olyapsan. Axir, bu nomardlik-ku! Agar sen tyulen tezagi bo'lmay, shamollar egasi bo'lsang, javob ber! Shamollaringni yubor! Eshityapsanmi?! Tumanlarni dumingga qistirib olib ket! Eshityapsanmi aytganlarimni? Bo'roningni yubor, qanjiq, eng dahshatli bo'roningni yubor! Tlangi-lani yubor, qanjiq, senga aytyapman! Mayli, bo'ron qayig'imizni ag'darsin, to'lqinlarga g'arq bo'lib ketaylik, iflos, qanjiq! Eshityapsanmi, senga aytyapman! Tuf senga, ablah! Paxmoq soqolingga tupurdim! Agar shamollarning egasi bo'lsang, bo'roningni yubor, bizni dengizga cho'ktir, agar shunday qilmasang, g'irt qanjiq ekansan! Men ham ayg'irman, yana bitta ayg'ir. Faqat men seni... istamayman, mana senga, mana senga, mana, mana, kesib ol, mana, kesib ol deyapman, ol!

Milxun shamollar Shomonini mana shunday shaloq so'zlar bilan so'ka boshladi. Allaqayoqlarga berkinib olgan Shomon o'zining qo'l ostidagi shamollarini qayoqlargadir berkitib tashlaganga o'xshardi. Milxun shu tarzda yana ancha mahalgacha tomog'i xirillab, holdan toyguncha shamollar xo'jasini ham tahqirlab, ham haqoratlab, yana yalinib qichqirardi.

So'ng u eshkakni zarb bilan dengizga uloqtirib yubordi, o'zining doimiy o'rniga kelib o'tirdi va yuzini qo'llari bilan to'sib, ho'ngrab, o'kirib yig'lab yubordi. Hamma chorasiz jim qotgan edi, Milxun bo'lsa hiqillab yig'lab, kenjatoylarining nomini aytib baqirardi. Erkak kishining yig'laganini ilgari ko'rmagan va qo'rquvdan titrab-qaqshab o'tirgan Kirisk esa ko'zlarida yosh O'rxon boboga murojaat qildi:

— Atkichx! O, atkichx!.. U nega bunday qiladi? Nega yig'layapti?

— Qo'rqma, — tasalli berdi chol bolaning qo'llarini mahkam qisib. — Hozir o'tib ketadi. Hozir bas qiladi. Sen buni o'ylama. Buning senga daxli yo'q. Hozir o'tib ketadi.

Chindan ham Milxun asta-sekin tinchib qoldi. Lekin hamon qo'llarini yuzidan olmas, hamon yelkalari silkinib, xo'rsinib-xo'rsinib qo'yardi. Emrayin qayiqni suvda qalqib yurgan eshkak tomon ohista yaqinlashtirdi, uni olib, yana joyiga, tirgagiga o'rnatib qo'ydi.

— O'zingni bos, uka, — dedi u Milxunni yupatib. — Gaping to'g'ri, tumanda azob tortgandan bo'ronda qolgan afzal. Lekin hali biroz sabr qilib turaylik. Balki havo ochilib ketar. Ilojimiz qancha...

Milxun javob bermadi, uning boshi tobora egilib borar, oldiga qarashga qo'rqadigan jinniday bukchayib olgandi.

Tuman esa hamon pinagini buzmas, okean uzra muallaq turib qolgan, olam dong qotib qolgan buyuk bir zulmat ichida yo'qolgan edi. Qilt etgan shamol, biron-bir o'zgarish yo'q edi. Milxun shamollar Shomoniga qanchalar yalinib-yolvorib, uni qanchalar qarg'ab, haqorat qilgan bo'lsa ham u parvo qilmas, go'yo ko'r va karday edi. Shamollar egasinint jahliyam chiqmas, qimir ham etmas, bo'ronniyam chaqirmas edi...

Emrayin bir joyda turib qolmaslik uchun o'zining oldidagi bir juft eshkakni eshib turar, qayiq sirpanganday, sezilar-sezilmas jilib borardi. O'rxon indamas, u o'z o'ylariga g'arq bo'lgandi, ehtimol, u yana, ehtimol, oxirgi marta o'zining Suv parisini o'ylayotgandir?

Qariyaning noxush o'ylarini Kirisk bo'lib yubordi.

— Atkichx, atkichx, agukuklar nega orollarga qarab uchishadi? — ohista so'radi u.

— Darvoqe, shuni aytish esimdan chiqibdi. Bunday qalin tuman tushgan vaqtlarda dengiz ustida faqat agukuklar ucha olishadi. U orollarga o'lja axtarib boradi, goho tyulenning jajji bolasini olib qochadi. Agukuklarning ko'zi shunaqangi o'tkirki, u tundayam, yarim kechadayam xuddi kunduzgiday ko'raveradi. Shuning uchun ham uni boyo'g'li deyishadi-da. Agukuk boyqushlarning eng kuchlisi va eng kattasi bo'ladi.

— Qaniydi meniyam ko'zim o'shanaqa bo'lsa, — lablari quruqshab shivirladi Kirisk. — Hozir, shu topda qaysi tarafga suzish kerakligini bilib olardim, keyin yerga tezda yetib olardik-da, rosa suv ichardik, ichaverardik... Meniyam shunaqangi ko'zim bo'lganidaydi...

— Eh, — xo'rsindi bobo, — har kimsaning faqat o'z ko'zi bor.

Yana oraga jimlik cho‘kdi. Ancha vaqtdan keyin O‘rxon oqsoqol haligi suhbatni davom ettirganday, bolaning yuziga qarab gapirdi:

— Hammadan ham senga qiyin bo‘ldi, to‘g‘rimi? Lekin sen sabr qil. Shu qiyinchilikka bardosh bersang, ulug‘ ovchi bo‘lasan. Sabr qil, qarog‘im, suvni o‘ylama, boshqa narsalarni o‘ylagin. Suvni o‘ylama.

Kirisk bu gapga ko‘nib, suvni o‘ylamaslikka tirishdi. Biroq foydasi bo‘lmadi. U harchand suvni o‘ylamaslikka urinsayam, battar tashnaligi kuchayib borardi. Ochlik ham qiynardi. Ochlikdan ko‘ngli ozib, ko‘zi tina boshladi. Ko‘ngli ozganidan, u ham Milxunga o‘xshab, dunyoni boshiga ko‘tarib baqirgisi kelardi.

Bu kun shu tariqa o‘tdi. Har lahza havo ochilishini kutishdi, olisdan to‘lqinlar shovqini eshitilib, shabada qo‘zg‘alib, tumanni olamning narigi chekkasiga haydab ketarmikin, yo‘limiz ochilarmikin, deb har doim umidvor bo‘lishdi. Ammo dengiz uzra odamni yutib yuborgudek jimjitlik, balo-qazoday sukunat hukmron edi. Har zamon, har lahza cheksiz tashnalik kuchayganidan odamlarning ko‘zlari tinib, boshlari aylana boshladi. Bu juda dahshatli edi: cheksiz okean o‘rtasida turib, bir tomchi suvga zor edilar.

Kech kirganda Milxunning ahvoli yana og‘irlashdi. U butunlay gapirmas, ko‘zlarida hech qanday ma’no yo‘q edi. Tomog‘ini ho‘llab olsin deb unga jindakkina suv quyib berishdi. Kiriskning cho‘michga karab mo‘ltirab turganini ko‘rib, O‘rxon bobo ungayam ozgina suv quyib berishdan o‘zini tiyolmadi. Keyin Emrayingayam quyishga to‘g‘ri keldi. O‘zi esa biror tomchi ichmadi. O‘rxon bobo ozgina suvi qolgan bochkachani o‘rindiq ostiga qo‘ygach, uzoq vaqtgacha qimir etmay o‘tirib qoldi. Bu safar uning boqishlari o‘tkir va tiniq, endi bu dunyoning ikir-chikirlariga aloqasi bo‘lmagan yuksak o‘ylarga sho‘ng‘iganicha o‘tirardi; hech qanaqa tashnalikni, hech qanaqa boshqa biror narsani sezmas, o‘ylamas edi. Go‘yo yolg‘iz lochin qoyada qo‘nib turganday, u qayiq oldida jim, vikor bilan o‘tirardi. U bundan buyon nima qilishini bilar, shuning uchun oxirgi lahzalarda, umrida qiladigan oxirgi ishi oldidan qolgan bor kuchini, irodasini jamlab olgandi. Avji shu tobda tamaki trubkasi yetishmasdi. Chol oxirgi marta Suv parisi to‘g‘risida o‘ylab, tamaki tutatmoqchi edi...

O'rxon o'zining kimligini bilar, so'nggi bo'sag'a oldida o'zining qanchalik kuch-quvvatga, qadr-qimmatga ega ekanligini yaxshi his qilardi. Faqat birgina narsa, u ham bo'lsa sovuqdan ko'karib ketgan Kiriskning keyingi kunlarda hadeb cholning pinjiga yopishib olib, uning himoyasiga, g'amxo'rligiga muhtojligi O'rxonning o'ylagan xayollarini amalga oshirishdan tiyib turardi. U bolaga ich-ichidan achinardi. Ammo xuddi faqat bola uchungina shunday qilishi zarur edi... O'rxon oqsoqol umrining juda uzoqqa cho'zilgan, g'am-g'ussaga to'lib-toshgan oxirgi ko'ngilsiz kuni shunday o'tdi...

Oqshom cho'kdi. Yana bir tun boshlandi.

Lekin bu tun ham ob-havo zarracha o'zgarmadi. Dengiz ustidagi tuman avvalgiday parvoyi falak, dong qotib qolgandi. Borliqni yana bo'g'iq oqshom zulmati bosdi. Ketidan aql bovar qilmaydigan darajada uzun, chidab bo'lmas darajada qorong'i, dahshatli tun boshlandi. Lekin qaniydi tun oralig'ida shamol tursa, mayli, bo'ron tursa, to'fon bo'lsa ham mayliydi, ishqilib, havo ochilib, osmonda yulduzlar ko'rina qolsa! Lekin tunda zarracha o'zgarish alomati, suvda birorta to'lqin, havoda birorta epkin yo'q edi — borliq cheksiz sukunatga, cheksiz zulmatga chulg'angan edi. Cheksiz zulmat qo'ynida adashib qolgan yolg'iz qayiq va undagi azob-uqubatdan, ochlikdan, tashnalikdan tinka-madori qurigan odamlar tuman ichida pista po'chog'iday bir joyda aylanishar, noma'lum qismat va umidsizlik changalidan chiqolmas edilar...

Kirisk qachon uxlab qolganini eslayolmadi. Ammo uyqu elitguncha chidab bo'lmas tashnalikdan ko'ngli ozib, uzoq azoblandi. Nazarida uni tirik o'lik ahvoliga solib qo'ygan tashnalik azoblarining so'ngi yo'q edi. Faqat suv bo'lsa bas — boshqa hech narsa kerak emas! Ochlik azobi borgan sari ich-ichiga singib, xiralashib, yo'qolib, sezilmay ketgandi, tashnalik azobi esa, aksincha, tobora yurak-bag'rini o'rtab, tobora kuchayib borardi. Tashnalik azobini hech narsa bilan yengib bo'lmasdi.

Kirisk go'daklik chog'larida bir marta og'ir kasal bo'lib, isitmadan kuyib-yonib yotganida ham shunaqa ahvolga tushgani, ichi yonib, suv so'ragani yodiga tushdi. Onasi qoshidan bir qadam ham jilmay, parvona bo'lib, yonib turgan peshonasiga ho'l latta bosib,

hech kimga bildirmay yig'lab olar va allanimalar deb shivirlar edi. Shamchiroqning g'ira-shira shu'lasida onasining tashvishli yuzi arang ko'rinardi. Otasi yo'q, u dengizga, ovga ketgandi. O'shanda Kirisk faqat suv ichishni va otasining tezroq kelishini xohlardi. Ammo ikkala istagi ham amalga oshmasdi. Otasi uzoqda edi, onasi bo'lsa suv ichirmasdi. Suv ichishing aslo mumkin emas, deyardi u. Onasi bolaning qaqragan lablariga ho'l latta bosar, ammo bu tashnalikni faqat bir lahzaga qondirardi, xolos. Sal o'tmay, yana tashnalik kuchayib, chidab bo'lmas qiynoqqa solardi.

Onasi yalinib-yolvorib, uni suv ichishdan tiyar edi. Tashnalikka chidasang, kasallik sendan qochadi, deb tushuntirardi.

— Chidab tur, jonim! — derdi u. — Ertalabgacha yaxshi bo'lib qolasan. Ichingda: "Ko'k sichqoncha, suv bergin", deb qaytaraver. Ana, o'zing ko'rasan yaxshi bo'lib qolganingni. So'ra, jonim, ko'k sichqondan suv so'ra, sichqon albatta yugurib keladi, albatta senga suv beradi... Faqat yaxshilab so'ra...

Shu kecha, bola tashnalik bilan olishib, duo o'qib chiqdi, ko'k sichqon yugurib kelishini, suv keltirishini kutdi. U tinmay shivirlab, ko'k sichqonga yalinib-yolvorardi: "Ko'k sichqon, suv bergin! Ko'k sichqon, suv bergin!" Butun tun alangayi otash bo'lib alahsirab chiqdi. Hamon: "Ko'k sichqoncha, suv bergin!" — deb yalinardi. Ko'k sichqon tezda kela qolmasdi. U ham: "Ko'k sichqoncha, suv bergin!"—deb yig'lab, yolvorishini qo'ymasdi. Nihoyat, ko'k sichqon yugurib keldi. Ko'k sichqon salqin o'rmonda jilg'a uzra choshgoh paytida g'ir-g'ir esadigan sarin yelday yoqimli va elas-elas ko'rinardi. Uni ko'rish qiyin, u tiniq osmonday ko'm-ko'k, kapalakday uchqur, tutqich bermas edi. Ko'k sichqon kapalakday uchib, yumshoq yungini bolaning yuziga, bo'yniga, badanlariga tegizib, xuzur baxsh etardi. Chamasi, ko'k sichqon Kiriskka suv berdi shekilli, u huzur qilib, uzoq vaqt, to'ygunicha ichaverdi; suv esa kelaverdi, kelaverdi, vaqirlab toshdi, uni boshigacha ko'mib yubordi... U ertasiga ertalab joni orom topib, garchi o'zini ancha oldirib qo'ygan bo'lsa ham ruhi ancha tetik bo'lib turdi. Shundan keyin bola suv beruvchi sichqonni, o'sha kechasi, jon talvasasida yotganda suv keltirib uni sog'aytirgan ko'k sichqonni uzoq vaqtgacha xotiridan chiqarmadi...

Mana, hozir ham, bola qayiqda tashnalikdan ichi kuyib-yonib borarkan, o'sha ko'k sichqonni esladi. Qaniydi o'sha ko'k sich-

qon yana paydo bo'lib qolsa! Shu zahoti bola yurakni zirkiratuvchi bir sog'inch va dard bilan onasini esladi, og'ir damlarda joniga ora kirib, tashnalikdan xalos etuvchi o'sha ko'k sichqonni yodiga solgan onasini esladi. U ahvoli og'irlashib, nafas ololmay qolgan paytida qoshida tonggacha o'tirib chiqqan onasini eslab o'kindi. O'sha paytda bola atrofida parvona bo'lib jon-u jahonini berishga tayyor turgan onasining qalbi qanchalar mehr-muhabbatga va dard-alamga to'lib-toshganligini aytmaysizmi. Hozir onasining ahvoli ne kechdiykin? Dengiz bo'yiga kelib, ularni kutayotgandir, yig'lab, bo'zlayotgandir?.. Dengiz esa bari bir unga hech narsa aytolmaydi. Hech kim unga yordam berolmaydi, hech kim dardini aritolmaydi. Faqat ayollar bilan bolalargina hanuzgacha Olapar qoyasining yonbag'irlarida gulxan yoqib, onasiga dalda berishayotgandir? Shoyad, to'satdan baxt kulib boqsa, shoyad dengizda dom-daraksiz ketganlar birdaniga qirg'oqda paydo bo'lib kolishsa, deb onasini yupatishayotgandir?

Bular esa qayiqda zim-ziyo zulmat ichida giryon kezishar, tungi tuman qo'ynidan xalos bo'lishga intilib, so'nggi umidlari ham asta-sekin tugab borardi. Yo'q, bu olishuvda kuchlar aslo teng emasdi — bir yoqda mangu zulmat, olam yaralganidan beri mavjud bo'lgan, Quyosh yaralishidan ham avval mavjud bo'lgan mangu zulmat: ikkinchi yoqda — shalog'i chiqqan qayiqda tuman qurshovida qolgan to'rt odam... Okean o'rtasida suvsiz; oziqsiz, yo'lchi yulduzlarsiz, zim-ziyo zulmatda qolgan to'rt odam...

Kirisk umri bino bo'lib bunaqa zim-ziyo zulmatni ko'rmagandi, tashnalik azobi shunchalik ayovsiz bo'lishini tasavvur qilmagandi. Hushini yo'qotib qo'ymaslik uchun u suv keltiruvchi ko'k sichqon to'g'risida, qachonlardir suv berib, shifo berib uni o'limdan qutqazib kolgan ko'k sichqon haqida o'ylay boshladi...

"Ko'k sichqoncha, suvingdan ber!" — onasi o'rgatgan mana shu ajoyib so'zni bola tinmay takrorlay boshladi: "Ko'k sichqon, suvingdan ber! Ko'k sichqoncha, suvingdan ber!" Garchi hech qanday mo'jiza yuz bermasa ham bola hadeb yalinib-yolvorib ko'k sichqonni chakiraverdi. Endi bu — bolaning umid-ishonchi va tashnalikka qarshi birdan-bir chorasi bo'lib qoldi...

Ko'k sichqoncha, suvingdan ber!

Kirisk hadeb shu so‘zlarni takrorlar ekan, tashnaligini o‘ylamaslikka urinib goh mudrar, goh uyg‘onib ketardi. Shu vaqt bola bexosdan O‘rxon bobo bilan Emrayinning uzuk-yuluq gaplarini eshitib, uyg‘onib ketdi. Ular nimanidir shivirlashib, uzoq muhokama qilishardi. Bola cholning biqiniga qapishib o‘tirgani uchun uning gaplarini aniqroq eshitardi. Otasining gaplari esa unchalik qulog‘iga chalinmasdi — u nariroqda, eshkaklari oldida o‘tirardi. O‘rxon bobo og‘ir nafas olib, tomog‘i xirillagancha zo‘rg‘a gapirar edi.

— Mening senga aql o‘rgatadigan joyim yo‘q, lekin o‘zing o‘ylab ko‘r, atkichx, — dedi qizg‘in shivirlab Emrayin, boshqalar eshitmasin deganday. — O‘zing aqlli odamsan-ku.

— O‘yladim, obdan o‘yladim, shuni ma’qul ko‘rdim, — javob berdi O‘rxon bobo, chamasi, o‘zining gapini ma’qullab.

Ular bir nafas jim qolishdi. So‘ng Emrayin gap boshladi:

— Kemaga tushganning joni bir, hammamizning taqdirimiz bir.

— Taqdir, taqdir, — alam bilan g‘o‘ldiradi O‘rxon bobo. — Taqdirdan qochib qutulib bo‘lmaydi, bilaman buni, — nafasi qisilib, xirillagancha gapirdi chol. — Shuning uchun ham uni taqdir deyishadi-da. Xohlaysanmi, xohlamaysanmi, taqdirning bu bilan ishi yo‘q. Oqibati shunday bo‘lgach, taqdir bilan bahslashishning nima keragi bor. Hech bo‘lmasa, birontamiz omon qolaylik. O‘zing o‘yla, birdan yo‘llar ochilib ketsa, yer ham ko‘rinib qolsa, manzilni ko‘zlab jon-jahding bilan borayotganingda, bir-ikki tomchi suv yetmagani uchun hamma halok bo‘lsa — alam qilmaydimi?

Emrayin bunga javoban nimadir dedi, yana jimib qolishdi. Kirisk uxlashga urinib, hadeb ko‘k sichqonini chaqiraverdi. Nazarida, u uxlab qolsa ko‘k sichqon keladiganday edi... Biroq uyqusi kelmadi... Ko‘k sichqoncha, suvingdan ber!

— Milxunning ahvoli qalay? — so‘radi O‘rxon bobo.

— Avvalgiday, hushsiz yotibdi, — javob berdi Emrayin.

— Yotipti degin, — biroz jimlikdan so‘ng yana davom etdi O‘rxon ota.— Hushiga kelgandan so‘ng — unga aytib qo‘yarsan...

— Yaxshi, atkichx, aytaman, — Emrayinning ovozi titrab chiqdi, buni bildirmaslik uchun zo‘r bilan yo‘talib ko‘ydi. — Aytganingday bo‘ladi, hamma gaplaringni yetkazaman.

— Uni juda hurmat qilishimni aytib qo‘y. U katta ovchi, ham yaxshi odam. Men uni hamma vaqt hurmat kilganman.

Yana jimib qolishdi.

Ko'k sichqoncha, suvingdan ber!

Keyin Emrayin nimadir dedi, Kirisk uning so'zini aniq eshita olmadi. O'rxon bobo unga javoban dedi:

— Yo'q, bari bir kutolmayman. Ko'rmayapsanmi, madorim kolmadi. Yaxshi it o'ligini ko'rsatmas, deganlar. Men anoyi odam emasman! Buni o'zim bilaman. Tushimda doim Suv parisini ko'rardim. Sening bunga aqling etmaydi... Men o'shaning makoniga ketishni xohlayman...

Ular yana allanimalar haqida gaplashishdi. Kirisk suv ruhi — ko'k sichqonni chaqira-chaqira uxlab qoldi: Ko'k sichqoncha, suvingdan ber!

Bolaning oxirgi eshitgani Emrayinning gapi bo'ldi. U O'rxon boboga yaqinroq surilib, bunday dedi:

— Esingdami, atkichx, bir yili savdogarlar bug'ular qo'shilgan chanalarda kelishib, boltalar va har xil buyumlarni mo'ynaga almashtirib ketishardi. Anovi barzangi, malla savdogar aytgandi, allaqaysi olis bir yurtda ulug' odam bor ekan, dengizda piyoda yurarkan. Shunday odamlar ham bor-a, bu dunyoda...

— Demak, o'sha odam juda ulug' odam ekan, ulug'larning ham ulug'i ekan,— javob berdi O'rxon bobo. — Bizning eng ulug' odamimiz esa — Suv parisi...

Kirisk uxlab qolgan, ammo uyqusidayam allaqanday uzuk-yuluq gaplar shuuriga yetib borardi:

— Shoshma, ota, biroz o'ylab ko'r...

— Bo'ldi. Endi yoshimni yashab bo'ldim... Yo'limdan qaytarma. Madorim qolmadi, chiday olmayman...

— Shunday qorong'ida-ya...

— Baribir emasmi?...

— Senga aytadigan gaplarim bor hali...

— Gap hech qachon tugamaydi. Bizlardan keyin ham tugamaydi.

— Shunday korong'ida-ya.

— Yo'limni to'sma. Ilojim yo'q, majolim quriyapti. Kuchim borida o'zim...

— Shunday zulmatda-ya...

— Sizlar bardosh qilinglar, bochkachaning tagida oz-moz suv qolgan...

Kimningdir katta, g'adir-budur va yapaloq kafti qaltiragancha bolaning boshini asta siypadi. Kirisk mudroq ichida bo'lsayam bu O'rxon boboning qo'li ekanligini sezdi. Bu iliq va og'ir kaft ancha vaqtgacha uning boshida turib qoldi, chol kafti bilan bolani baloqazolardan himoya qilmoqchiday, bolaning boshini so'nggi marta eslab qolmoqchiday edi.

* * *

Kirisk tushida dengiz yuzasidan odimlab ketayotgan emish. Yer bor deb o'ylagan tarafga borayotganmish, o'sha yerda miriqib suv ichaman, deb borayotganmish. Suv yuzida yiqilmay, cho'kmay odim otib ketayotganmish. Tevarak-atrofda g'aroyib va g'alati manzaralar bor edi. Qayoqqa qaramasin, ko'z etguncha tip-tiniq, yaraqlagan dengiz yastanib yotardi. Dengiz va dengiz suvidan boshqa hech vaqo yo'q edi. Faqat dengiz va faqat suv bor edi. Bola suv yuzida xuddi yer yuzida yurgandek yurib borardi. Quyosh nurlari tushgan hamma yerda, hamma tomonda to'lqinlar ravon edi. To'lqinlar qayerdan paydo bo'lib, qayoqqa ketayotganini bilib bo'lmasdi.

U dengiz ustidan yolg'iz o'zi yurib borardi. Dastlab unga O'rxon bobo, Emrayin va Milxunlarning oldiga tushib, qanday bo'lmasin tezroq suvi bor yerni topib va ularni ham chaqirish uchun zir yugurib yurganday tuyuldi. Ammo keyin bu yerda yolg'iz bir o'zi qolganligini fahmladi. U qichqirar, odamlarning otini aytib chaqirar, lekin hech kim ovoz bermasdi. Na biron jon, na biron tovush va na biron sharpa bor edi... Sheriklari qayoqqa g'oyib bo'lganini bilmasdi.

Bundan bola dahshatga tushdi. Ovozi chiqmay qoldi. Hech qayoqda, hech joyda yer ko'rinmasdi. U nafasi og'ziga tiqilib, holdan toygunicha dengiz ustidan yugurib ketdi. Ammo u hech qayoqqa jilolmay, bir joyning o'zida turib qolgandi. Toqatsizlanib, ichi yonib, nuqul suv ichgisi kelaverardi.

Shunda u tepasidan uchib o'tayotgan qushni ko'rib qoldi. Bu Luvr o'rdak edi. O'rdak qichqirib uya qurish uchun joy axtarib, dengiz uzra uchib yurardi. Ammo hech qayerda bir parcha quruq

yer topa olmasdi. Chor atrofda hadsiz-hududsiz to'lqinlar shovullardi. Luvr o'rdak zorlanib, nola qilar va betoqat bo'lardi.

— O'rdakjon! — dedi unga Kirisk. — Yer qayerda? Qaysi tomonda? Suv ichgim kelyapti!

— Olamda yerning o'zi yo'q, hech qayerda yo'q! — javob berdi Luvr o'rdak. — Atrofda to'lqinlar bor, xolos.

— Qolgan odamlar qayoqda? — bola g'oyib bo'lgan odamlarni so'radi.

— Odamlar yo'q, ularni izlab ovora bo'lmay qo'ya qol. Ular hech yerda yo'q! — deb javob qaytardi Luvr o'rdak.

Kiriskni ta'riflab bo'lmaydigan dahshatli yolg'izlik va qayg'u-alam tuyg'usi chulg'ab oldi. U bu joydan boshi oqqan tarafga qochib ketgisi kelar, biroq boradigan joyning o'zi yo'q edi, hamma tomonini faqat suv va to'lqinlar o'rab olgan edi. O'rdak qora nuqtaga aylanib, tobora uzoqlasha bordi.

— O'rdakjon, meni o'zing bilan olib ket, yolg'iz qoldirma! Suv ichgim kelyapti axir! — yolvorardi bola.

Ammo o'rdak ovoz bermasdi, u hali dunyoga kelmagan yerni qidira-qidira, butunlay ko'zdan g'oyib bo'ldi. Quyosh bo'lsa charaqlab, ko'zni qamashtirardi.

Kirisk ko'zlarida yosh bilan uyg'ondi, u hamon entikib yig'lar, najotsiz g'am-alam va qo'rquv uni yelkasidan bosib turardi. U yoshli ko'zlarini asta ochib, tush ko'rganligini fahmladi. Qayiq suvda ohista chayqalib turardi. Kulrang tus olib borayotgan g'ira-shira tuman borliqni burkab, qurshab olgandi.

Demak, tun o'tibdi, tong yaqinlashyapti. U qimirlab qo'ydi.

— Atkichx, suv ichgim kelyapti, men tush ko'rdim, — pichirladi u ko'lini O'rxon bobo tomon uzatib. Ammo qo'liga hech narsa ilinmadi. Qayiq quyrug'idagi O'rxonning joyi bo'm-bo'sh edi.

— Atkichx! — chakirdi Kirisk. Hech kim javob bermadi. Bola boshini ko'tarib tipirchiladi.

— Atkichx, atkichx, qayerdasan?

— Qichqirma! — bir surilib bolaga yaqinlashdi Emrayin. U o'g'lini quchoqlab, mahkam bag'riga bosdi. — Qichqirma, atkichxing yo'q endi! Chaqirma uni! U Suv parisi makoniga ketdi.

Ammo Kirisk quloq solmadi:

— Qani mening atkichxim? Qani? Qani mening atkichxim?

— Bo'ldi, yig'lama. Tinchlan, Kirisk, u endi yo'q, — ota bolasini ovutishga tutindi. — Sen faqat yig'lama. U o'g'lingga suv ber, deb menga tayinladi. Ozgina suvimiz bor hali. Yig'ini bas qilsang, suv beraman, ichib olasan. Yig'lamasang bo'lgani. Qarab turgin, hademay tuman tarqaladi, ana shunda ko'rasan...

Kirisk yulqinib, otasining quchog'idan otilib chiqishga talpinardi. Uning harakatlaridan qayiq chayqaldi. Emrayin nima qilishini bilmasdi.

— Mana, hozir bu yerdan ketamiz. Mana, qara, suzyapmiz. Ey, Milxun, tur o'rningdan, tur. Senga aytyapman! Qani ketdik!

Milxun eshkak esha boshladi. Qayiq suvda ohista sirpanganday suzib ketdi. Ular yorug' olamni hamon oppoq sutdek koplab olgan tuman uzra yana tayinsiz tarafga maqsadsiz suzib ketishdi. Yangi tunni ular shunday qarshi olishdi. Endi qayiqda uch kishi qoldi.

Ko'k sichqoncha, suvingdan ber!

Kirisk biroz o'ziga kelganidan so'ng Emrayin eshkaklar yoniga o'tib oldi, ular to'rt eshkak bilan yana o'sha tayinsiz tomonga maksadsiz suzib ketishdi. Endi qayiq to'rt eshkakning ta'sirida tezroq suza boshladi.

Kirisk bo'lsa, O'rxon boboning g'oyib bo'lganligidan larzaga tushib, kemaning kuyrug'ida g'aribona mung'ayib o'tirgancha hamon entikib-xo'rsinib yig'lar edi. Otasi bilan Milxun ham nihoyatda ezilib ketishgandi. Ular na o'zlariga, na Kiriskka biror ko'mak bera olishardi. O'ylab topganlari eshkak eshish bo'ldi. Ishqilib, qayiq yurib tursa bo'lgani. Oppoq tuman ichida ularning basharalari qorayib ko'rinardi. Hammalari daf qilib bo'lmaydigan shafqatsiz ofat — tashnalikka hamda ochlikka mahkum etilgandilar.

Ular jim, churq etmay borishardi. Gapirishga qo'rqishardi ham. Faqat birozdan so'ng Milxun eshkakni tashladi.

— Suvni bo'l! — dedi u Emrayinga g'amgin boqib.

Emrayin bochkachaga yopishib olib, har bir odamga cho'michning tubida bir necha qultumdan sirqitib suv quydi. Suvdan noxush qo'lansa hid kelar, ta'mi buzilgandi. Ammo shu ham juda oz qolibdi. Yana ko'pi bilan uch-to'rt marta ichishga yetardi, xolos. Hech kim suvga qonmadi, suv ichib hech kimning ruhi yengillashmadi ham.

Yana og‘ir, aqlni ozdiruvchi kutish onlari boshlandi: ob-havo o‘zgaradimi yoki yo‘qmi? Endi hech kimda hech qanday umid-baxsh taxminlar qolmagandi. Ular majolsizlanib, holdan toyib, beixtiyor loqayd bo‘lib qoldilar. Tahlikali tuman ichida qayiqda maqsadsiz aylanib, itoat bilan o‘z qismatlarini kutishardi. Taqdirga tan berishdan o‘zga chora qolmagandi. Tuman odamlarni ezib, irodalarini bo‘shashtirib qo‘yganidi. Faqat bir gal Milxun qattiq so‘kinib, nafrat to‘la titroq ovoz bilan g‘o‘ldiradi:

— Tuman chekinsa — o‘limimga ham rozi bo‘lardim! O‘zimni suvga tashlardim. Yorug‘ olamning bir chetini ko‘rsam bo‘ldiydi!

Emrayin indamadi, hatto o‘girilib ham qaramadi. Nima ham deya olardi? Endi u qayiqda qolganlarning yoshi ulug‘i edi-da. Indamay o‘tirishdan boshqa iloj qolmagandi. Qayoqqa ham suzishardi!

Vaqt o‘tib borardi. Qayiq o‘zidan o‘zi to‘xtab, goh muallaq turib qolar, goh yana joyidan qo‘zg‘alardi.

Soat o‘tgan sari o‘lim xavfi orta borardi — qonmagan tashnalik yoniga jon-tanni yemiruvchi shafqatsiz ochlik ham qo‘shildi. Darmonlari qurib, majolsizlanib borishardi. Kirisk ko‘zlari qisilib, kemaning quyrug‘ida yotardi. Boshi aylanib, ko‘ngli aynirdi, och qorinda og‘riq turib, nafas olishi mushkullashardi. Tobora tashnaligi oshib, judayam suv ichgisi kelaverdi.

Ko‘k sichqoncha, suv bergin!

Bola suvga qondiradigan ko‘k sichqonchani yalinib-yolvorib chaqirar ekan, endi hamma narsani unutishga urinar, Olaparning etagidagi uzoq-uzoqlarda qolgan va endi ertakka aylangan hayotini eslab, najot kutardi.

“Ko‘k sichqoncha, suv bergin!” — deb shivirlardi u boshi aylanib. O‘t-o‘langa chulg‘angan tepalikda o‘ynab, xuddi g‘o‘ladek pastga dumalab tushganlarida ham boshi shunday aylanishini ko‘z oldiga keltirdi. Eh, juda qiziq, ajoyib o‘yin edi-da. Bu o‘yinda Kirisk hammadan abjir va chidamli bo‘lib chiqardi. Tik tepalikka chopib chiqasan-da, u yerdan yonbag‘irlab pastga qo‘yib yuborilgan po‘stloqsiz g‘o‘ladek, aylanib dumalaysan. Qo‘llaringni ikki yoningga mahkam qapishtirib olasan. Joyingdan qo‘zg‘alish

uchun avval o'zingga o'zing ko'mak berasan. Bir, ikki, uch marta umbaloq oshganingdan so'ng uyog'iga yumalab ketaverasan, o'zingni to'xtatib qololmaysan. Maza qilganingdan rosa xaxolab kulasan, osmon esa goh u, goh bu chekkasi bilan to'ntariladi, bulutlar aylanib, ko'z o'ngingdan lip-lip o'tadi, daraxtlar aylanib ag'anaydi, hamma narsa oyog'i osmondan bo'lib ketadi, ko'kdagi quyoshning esa kulaverib ichagi uziladi. Bolalarning shovqini, qiyqiriqlarini aytmaysizmi! Pastga qarab shitob bilan yumalab tushaverasan, tushaverasan, shunda ortingdan yugurib kelayotgan bolalarning goh cho'ziq yuzlari, goh bukilgan oyoqlari ko'z oldingdan lip-lip o'taveradi, nihoyat, to'xtab kolasan. Eh! Shunda quloqlaring shang'illab ketadi. Shundan so'ng eng qiziq, eng nozik joyi keladi. Bir, ikki, uch deyilganda, o'rningdan sakrab turib olib, boshing gir-gir aylanishiga qaramay, yiqilib tushmasliging kerak. Odatda, birinchi marta hammayam yiqiladi. Ana kulgi-yu mana kulgi! Hamma kuladi, o'zing ham kulasan. Oyoqda mahkam turmoqchi bo'lasan-u oyog'ing ostidagi yer ag'darilib ketayotgandek bo'ladi. Kirisk esa yiqilmasdi. Oyoqda mustahkam turib olardi. Shunga intilardi. Axir, Muzluk doim shu yerda bo'lardi-da! Uning oldida bo'sh-bayov bolaga o'xshab yiqilishni o'ziga ep ko'rmasdi.

Ayniqsa, Muzluk bilan tepalikdan kimo'zarga dumalashganida rosa huzur qilishardi, rosa kulishardi. Qizlar ham tepadan dumalayverardi. Faqat ular qo'rqoq bo'lishadi, kokillari doim biror narsaga ilashib qoladi. Ammo bu hisob emas. Bunaqa quvnoq o'yinda albatta biror joying lat eyishi turgan gap.

Muzluk bilan ular pastga dumalaganlarida, Kirisk bildirmay tirsaklarini ataylab keng yozardi-da, undan o'zib ketmaslik uchun to'xtab qolardi. Ular atrofdagilarning qichqirishlari va xaxolab kulishlarini eshitib, bir vaqtning o'zida pastga dumalab tushishar va "uch", deb sanalgunicha baravar sakrab oyoqqa turib olishardi. Shunda Muzlukka oyoqda mahkam turib olishga yordam berish, qizni suyab qolish nechog'liq zavqli ekanligini hech kim fahmlamasdi. Ular bir-birlariga madad berib, beixtiyor quchoqlashib olishardi. Muzluk xursandligidan rosa kular, uning kulgidan cho'chchaygan lablari bolaning ham kulgusini qistatardi; Kirisk ushlab qolsin deb Muzluk hamisha shunday qilar, o'zini go'yo yiqilib ketayotgandek qilib ko'rsatar, Kirisk bo'lsa uni ushlab

qolib, quchoqlab, oyoqda mahkam turib olishiga ko'maklashardi. Ana shunda ular allaqanday sirli masrurlik va hurkak bir muhabbat onlarini boshdan kechirayotganliklarini hech kim bilmasdi. Qizchaning yupqa ko'ylakchasi ostida yuragi dukurlab urar, ularning badanlari dam-badam bir-birlariga tegib ketar va Kirisk kizning endigina tugilib kelayotgan va taranglashgan siynalariga qo'li tegib ketganini, shunda qizcha titrab, tezgina uning pinjiga kirib olganini, boshi aylanib ketganidan xumor ko'zlari sirli bir chaqnaganini sezib qolardi. Butun olam — yer va osmondagi jamiki narsalar — ular bilan birga qo'shilib aylanar, tinimsiz kulgi-yu baxtiyorliklariga, cheksiz quvonchga to'lar edi. Bu naqadar ajoyib saodat ekanligini hech kim xayoliga keltirmasdi!

Faqat bir gal buni o'zidan biroz kattaroq, yomon ko'rib yuradigan qabiladoshi sezib qoldi va u ahmoq boshi aylanganidan go'yo o'zini oyoqda tutib tura olmayotganday yopirilib kelib Muzlukka yopishmoqchi bo'ldi. Muzluk chap bergancha undan o'zini olib qochar, u bo'lsa boshi aylanib o'zini yiqilayotgan qilib ko'rsatib, qizning izidan yana yetib olar va uning ustiga o'zini tashlamoqchi bo'lardi. Kirisk u bilan mushtlashib qoldi. U bola gavdaliroq bo'lganidan bir necha bor Kiriskni urib yiqitdi. Lekin xar holda kurash durang bilan tugadi — Kirisk bo'sh kelmadi va qiz bolaning himoya qilishiga ham ruxsat bermadi. Lekin bu voqea boshqa takrorlanmadi...

Ular o'ynab-o'ynab, terga botib, qizib-yonib, ariqdan suv ichgani yugurib ketishardi. Naqadar masrur lahzalar edi!

Ko'k sichqoncha, suv bergin!
Oh, ko'k sichqoncha, suv bergin!

Anhor sal nariroqdan o'tardi. U o'rmondan oqib kelib, bolalar o'ynaydigan joydan chiqardi. Buloq suvi toshdan-toshga urilib oqib, moviy o'rmon salqinini o'zi bilan birga olib kelardi. Qalin o'sgan o't-o'lanlar sho'x jilg'a sohillarini ko'pchitib, bir-biriga yaqinlashtirib qo'yganday, eng yaqin va g'ovlab o'sgan o't-o'lanlarning egilib turgan shoxchalaridagi yaproqlari esa suv oqimida yulqinib turardi. Buloq suvi goh oftobda tovlanib, goh qovoq solib osilib turgan qirg'oq ostiga sho'ng'ib, goh o't-o'lanlarning va tol

chiviqlarining orasiga yashirinib, hech narsani pisand qilmay, dengiz tomon tinim bilmay shoshilardi.

Bolalar bir zumda anhorgacha chopib borib, zum o'tmay, o't-o'lanlarni ikki tomonga surib tashlab, o'zlarini suvga tashlashardi. Qo'llarini yuvib, hovuchlab ichishga sabrlari ham chidamay, boshlarini engashtirib, yuzlarini bilqillayotgan, mayin qitiqlayotgan suvga chayib, kiyiklar singari suv ichishardi. Eh, naqadar lazzatli damlar edi!

Ko'k sichqoncha, suv bergin!
Ko'k sichqoncha, suv bergin!
Oh, ko'k sichqoncha, suv bergin!..

Ular suvga engashib, ariq bo'yida yotishardi. Yelkalari bir-biriga tegib, sho'x oqimga tutib turgan qo'llari, go'yo bir odamnikiday yaqinlashib, qo'shilib ketardi. Ular lablari bilan suvni ilib olgancha ichishar, og'izlarida qultillatib o'ynab, mazza qilib, to'yib-to'yib ichishardi. Ular bu yerdan aslo ketgilari kelmas, boshlarini top-toza suvdan ko'targilari kelmasdi. Tezoqar suvda ular o'zlarining xira akslarini tomosha qilishar: bir-birovlarining suvdagi kulgili, g'alati basharalariga nazar tashlab kulishardi.

Ko'k sichqoncha, suv bergin!
Ko'k sichqoncha, suv bergin!
Ko'k sichqoncha, suv bergin!
Oh, ko'k sichqoncha, suv bergin!

Muzluk shu yotishda buloqdan boshini ko'tarmay, qisiq ko'zlarining qiri bilan qarar, Kirisk ham xuddi unga shu tarzda quvlik bilan jilmayardi. Muzluk o'zidan chetlatgan bo'lib, uni yelkasi bilan turtar, u ham bo'sh kelmasdi. Shunda Muzluk og'ziga suv to'latib olib, uning yuziga purkardi. Kirisk ham xuddi shunday qilardi: og'ziga yana ham ko'proq suv olib, bor kuchi bilan Muzlukning yuziga puflab separdi. Tiyiqsiz sho'xlik va yugur-yugurlar shunday boshlanib ketardi. Ular suvda quvishib, bir-birlarini istaganlaricha shalabbo qilib, qiyqirib, xaxolashib jilg'ani boshiga ko'targanlaricha uyoqdan-buyoqqa chopishardi...

Shu yurish-turishlarini eslar ekan, endi u davrlarning hech qachon qaytib kelmasligini anglab Kirisk azoblanardi. Nafas olishi tobora qiyinlashar, tez-tez qorni sanchib og'rirdi. U og'riqdan tirishib, unsiz yig'lar ekan, hamon:

Ko'k sichqoncha, suv bergin! — deb yolvorardi.

U shunday o'y-xayollar bilan o'zini chalg'itishga harakat qilardi. Atrofda hech narsa o'zgarmasdi. Oppoq tuman qatlami avvalgidek qilt etmay borliqni o'rab olgandi.

Ovchilar, har biri o'z o'rnida, qayiqda chalajon bo'lib, cho'zilib yotishardi. Ularni oldinda nima kutayotgani avvalgidek noma'lum edi. Shunda birdan qayiq kuchli chayqaldi va Kirisk otasining qo'rqinchli xitobini eshitdi:

— Milxun! Milxun! Nima qilyapsan? To'xta!

Kirisk boshini ko'tarib, hang-mang bo'lib qoldi. Milxun qayiqning chetidan engashib, dengiz suvini cho'michlab olib ichardi.

— Bas qil! — unga tashlandi Emrayin cho'michni tortib olmoqchi bo'lib. Lekin Milxun xezlanib, tahdid qildi:

— Yaqinlashma, Soqol! O'ldiraman!

U og'izga olib bo'lmaydigan bu achchiq namakob suvni ichar, ko'kragi va yenglari suvga botib, kiyimlari jiqqa ho'l bo'lib ketgan, tomog'iga tiqilib qolsayam o'zini zo'rlab, titroq qo'llari bilan cho'michdan og'zini olmay ichar edi. Yuzlarining tuklari hayvonlarnikiga o'xshab tikkayib ketgandi.

Keyin u ichib-ichib cho'michni qayiqning ostiga tashlab, chalqancha yotib oldi. U xirillab, bazo'r nafas olardi. U shu ahvolda yotar va hech kim unga hech qanday yordam bera olmasdi. Kirisk qo'rqib ketganidan g'ujanak bo'lib yotib oldi, tashnaligi battar ortib, qorni burab og'riy boshlaganini sezdi. Boshi quyi solingan Emrayin yana eshkakni qo'liga olib, tumanda qayiqni ohista allaqayoqqa jildirib ketdi. Uning boshqa iloji ham yo'q edi.

Milxun goh tinchib qolar, goh yana talvasaga tushib titrar, xirillar, chanqoqlik xurujidan tamom bo'layotgan edi. Biroq oradan ma'lum vaqt o'tgandan so'ng yana boshini ko'tardi:

— Yonyapman, ichim yonyapti! — deb u kiyimining yoqasini yirta boshladi.

— Ayt, nima qilaylik? Qanday yordam beraylik? Anavinda hali bor, — Emrayin bochkachaga imo qildi. — Ozgina quyib beraymi?

— Yo'q, — rad qildi Milxun. — Endi hojati yo'q. Tungacha sabr qilib, keyin rahmatli atkichximiz orqasidan... Ammo sabrim chidamadi. Mayli. Yaxshiki, boshqa nojo'ya ish qilib qo'ymadim. Suvning borini ichib qo'yganimdan nima foyda bor edi. Paymonam to'lganga o'xshaydi. Endi men ham ketaman. Bas, hammasi tamom. O'zim, kuchim borida...

Kimsasiz dengiz o'rtasida, na boshi, na oxiri tayinsiz, na qachon halok qilishi tayinsiz tuman ichida o'zini asta-sekin o'limga mahkum etgan odamning so'zlarini eshitish dahshatli edi. Emrayin do'sti va inisi Milxunni bir navi tinchlantirmoqchi, nimadir demoqchi bo'ldi-yu, ammo Milxun eshitishni istamas edi. U oshiqardi, o'z azoblariga bir yo'la chek qo'yishga intilardi.

— Sen, Emrayin, gapirib ovora bo'lma, bo'lar ish bo'ldi! — Milxun telbalardek g'udurladi: — O'zim, o'zim ketaman. Sizlar, ota-bola bilganingizni qilinglar. Shunisi tuzuk. Bu ishim uchun kechiringlar. Sizlar ota-bola, qolinglar, hali ozgina suv bor... Men hozir oshib o'taman. — Milxun shu so'zlarni aytib, o'rnidan turdi, qayiqning chekkasini ushlab engashdi. Gandiraklab, bor kuchini jamlar ekan, Milxun Emrayinga yer ostidan qarab dedi:

— Menga xalaqit berma, Soqol! Shunisi tuzuk. Menga xalaqit berma. Yaxshi qolinglar. Ehtimol, qirg'oqqa yetib olarsiz. Men esa hozir... Sen qayiqni darrov haydab ket. Darrov, tushundingmi? Kutib o'tirma. Yaqinlashsang — ag'darib yuboraman. Endi hayda. Soqol, tezroq hayda. Eshityapsanmi, yo'qsa, ag'darvoraman..

Emrayin uchun Milxunning do'qlari va yolvorishlariga bo'ysunishdan boshqa iloj qolmagandi. Qayiq sassiz tuman va sassiz suvni kesib, to'g'riga suzib ketdi. Kiriskning yuragi qaqshab, yig'lab yubordi:

— Aki-Milxun! Aki-Milxun! Unday qilma!

Xuddi shu daqiqada Milxun qayiqdan dadil o'zini tashladi. Qayiq qiyshayib qalqib ketdi va yana o'z holiga keldi.

— Nariroq! Nariroq ketinglar! — baqirdi Milxun muzdek suvda shaloplar ekan.

Tuman darhol uni ko'zdan yashirdi. Hammayoq jimib qoldi, keyin sukunatda suvga g'arq bo'layotgan odamning yangroq ovozi, so'nggi xitobi eshitildi. Shunda Emrayin o'zini tutolmadi.

— Milxun! Milxun! — xitob qildi u va ho'ngrab, qayiqni orqaga burdi. Ular darrov orqaga qaytishdi, ammo allaqachon Milxun g'oyib bo'lgandi. Suv yuzasi go'yo hech narsa yuz bermagandek bo'm-bo'sh va osoyishta edi. Odam cho'kkan joy qayerdaligini aniqlash mushkul edi.

Shundan keyin ular hech qayoqqa bormasdan, kuni bilan shu yerda qayiqda suzib borishardi. Ularning ikkalasi ham falokatdan qayg'-u hasratga to'lib yig'lashardi. Kirisk otasining yig'lashini umrida birinchi marta ko'rishi edi. Otasi sira bunday ahvolga tushmagandi.

— Ana endi yolg'iz o'zimiz qoldik, — pichirladi Emrayin, soqoliga tushgan ko'z yoshlarini artib, o'zini qo'yarga joy topmay, — Milxun, eh, qadrdonim Milxunim! — shivirlardi u hiqillab.

Kun tugab bormoqda edi. Ularga shunday tuyuldi. Agar qayerdadir quyosh bo'lsa, agar u osmon uzra, dengizlar, tumanlar uzra suzib yurgan bo'lsa, demak, hozir u o'z yotog'iga xotirjam bosh qo'yayotgan bo'lsa kerak. G'ira-shira qorong'ilik asta-sekin zulmatga aylanib borayotgan qalin tuman ichida esa dengizda bedarak yo'qolgan yolg'iz bir qayiq aylanib yurar, unda endi faqat ikki kishi — ota-yu bola qolgan edilar.

Bundan oldin, kech tushmasdan sal avval, Emrayin nihoyat suv ichish payti bo'ldi, degan qarorga kelgandi. Kirisk buni zoriqib kutayotganligi, o'zini tiyib, lom-mim demay, tashnalik va ochlikka nechog'liq bardosh berayotganligi sezilib turar edi. Milxunning halokatidan keyin suv ham eslaridan chiqqan edi. Lekin asta-sekin tashnalik yana kuchini ko'rsata boshladi, endi hozirgi tashnalikka boyagi unutilgan tashnalik ham qo'shilib ayovsiz azob berardi.

Emrayin biror tomchini ham behuda to'kib yubormaslik uchun juda ehtiyotlik bilan aynigan suvni avval Kiriskka sirqitib kuydi. Bola cho'michga yopishib, telbalardek bir zumda o'z ulushini yutib bo'ldi. Keyin Emrayin o'zi uchun suv quyarkan, endi suv bochkachaning tubidagina qolganligini ko'rdi. Otasining qo'lidagi bochkachaning egilishiga qarab, Kirisk ham buni fahmladi. Emrayin shunday bo'lishi lozimligini avvaldan bilgan bo'lsa ham

hayron qolib, rangi quv o'chdi. Endi Emrayin o'z ulushini ichishga shoshilmadi.

U qo'qqisdan miyasiga urgan fikrdan larzaga qelib, cho'michni ushlagancha o'ylanib qoldi. Chanqoqni bosish bu fikr oldida hech gap bo'lmay qoldi.

— Ma, ushlab tur, — bunday qilishga hojat bo'lmasa-da, u cho'michni o'g'liga uzatdi. Bola uchun suvli cho'michni qo'lda ushlab, uni ichishga botinolmaslik — ayni qiynoqning o'zi edi. Emrayin qo'llarini bo'shatib, tiqinini mahkam o'rnashtirdi-da, deyarli bo'sh bochkachani o'z joyiga qo'yib qo'ydi.

— Ich, — dedi u o'g'liga.

— Sen-chi? — hayron bo'ldi Kirisk.

— Men keyin ichaman. Hech narsani o'ylama, ichaver, — dedi xotirjamlik bilan otasi.

Kirisk darhol yana sassiq suvning bu qultumini ham yutdi. Chanqog'i unchalik bosilmagan bo'lsa-da, har holda biroz tetiklandi.

— Xo'sh, qalay bo'ldi? — so'radi otasi.

— Biroz tuzuk, — minnatdor bo'lib shivirladi bola.

— Sen qo'rqma. Esingda tut, odam og'ziga hatto bir tomchi suv olmasa ham ikki-uch kun yashay oladi. Qiyomat-qoyim bo'lsa ham qo'rqma.

— Sen shuning uchun ichmadingmi? — Kirisk uning gapini bo'ldi. Emrayin, bu savoldan o'zini yo'qotib ko'ydi. So'ng o'ylab turib, qisqa javob berdi:

— Ha...

— Odam ovqatsiz kancha yashay oladi? Biz kachondan beri ovqat emayapmiz-ku?

— Suv bo'lsa bo'lgani. Lekin sen buni o'ylama. Ke, yaxshisi, picha suzaylik. Ikkalamiz gaplashib olishimiz kerak.

Emrayin eshkaklarni g'ijirlatdi va ular go'yo turgan joylarida gaplasha olmaydigandek tuman ichida dengizda asta-sekin suzib ketishdi. Ota o'zini bosib olishi zarur edi. Shunday qilsa, fikrlarini bir joyga to'plashi, muhim suhbatga tayyorlanishi osonroq ko'chadiganga o'xshardi. Shuni o'ylashi bilanoq a'zoyi badani muzlab ketardi. U o'zi eshkak eshibgina kolmay, o'g'liga ham eshkak yoniga o'tirishni buyurdi. Qayoqqadir suzishning hojati yo'qligidan, bolaning o'tirishidan ham hojat yo'q edi. Bola zilday

va ancha katta bo'lgan dengiz eshkaklarini qiynalib eshar edi. U bitta eshkakni eplay olishi mumkin edi, ammo bir juft eshkakni aylantirish hali og'irlik qilardi. Ustiga-ustak, Emrayinning o'zi ham, bolasi ham ancha madordan qolgandi. Xuddi shuning uchun ham ota ishni tezlatishga majbur edi. Vaqt o'tib borar, vaqt tugab borardi.

Kirisk indamas, og'ir eshkaklarning birini bog'dan, birini tog'dan qilib aylantirar, ularga qaramasdi ham. Ammo Emrayin bunga e'tibor bermas, uni boshqa narsa qiynardi. O'g'liga, mana shu mushfiq go'daklarcha nimjon, himoyasiz jussaga razm solarkan, yuragi qonga to'lganini hozirgina his etdi. Boshqa iloji bo'lmasa-da, gap boshlashga ham jazm qilolmasdi...

Tuman borgan sari quyuqlashib borar edi. Emrayin og'ir o'yga botib, hamon qayiq haydar, uning chindan ham vaqt-soati yaqinlashib kolgan edi.

U o'ziga o'zi qancha dalda bermasin, tabiatan qanchalik baquvvat bo'lmasin, bari bir tashnalik hamda ochlik uning sillasini quritib, yemirib borardi. U ko'ngilsiz gapni aytish uchun o'g'lini tayyorlashga ulgurishi, kuchdan ketib qolmasdan, irodasi hali o'z qo'lida ekanligida bolasiga shu gapni tushuntirib qo'yishi zarur edi.

O'rxon hamda Milxunlardan so'ng u ham qayiqni tark etishga majbur ekanligini sezib o'tirardi. O'g'lining hayotini saqlab qololmagan taqdirda ham, har holda, umrini salga bo'lsayam uzaytirishi mumkin edi. Bochkacha tubidagi suv qanchaga yetsa, o'g'lining umrini shunchaga uzaytirishning birdan-bir iloji shu ekanligini Emrayin tushunardi.

Tuman shu bugun kechasimi yo ertaga tarqaladimi, taxmin qilolmas, mabodo ertami-kechmi ob-havo jo'nashib ketgan taqdirda ham o'g'lining holi ne kechadi, u dengizda yolg'iz o'zi qolib ketib, jon saqlab najot topa oladimi, yo'qmi — buni mutlaqo bilmasdi. Bu savolga javob yo'q edi. Agar dengizda havo ochilib ketgudek bo'lsa, oq tanli odamlarning katta qayig'i tasodifan uchrab qolarmikin, deb umid bog'lar edi. Ammo shunday bo'ladi, deb o'zini o'zi ishontirishga har qancha urinsa-da, bari bir bu — umuman, amalga oshmaydigan umid edi. Aytishlaricha, oq tanli kishilar qirg'oqlardan ancha olislardagi okean orqali suzib o'tishib, shu suvlarda ahyon-ahyonda paydo bo'lib qolisharkan. O'zlarining qandaydir ishlari bilan allaqanday olis yurtlardan yana allaqanday

olis yurtlarga suzib borishar ekan. Buni Emrayin bilardi. O'zi ular bilan hech qachon uchrashmagan bo'lsa-da, bu haqda bilimdon savdogarlardan eshitgandi. Ularning ba'zilari esa go'yoki oq tanlilarning tog'dek ulkan qayiqlarida suzishgan ham emishlar. Mo'jiza yuz berib, yo'llar to'qnashib, oq tanli odamlar okeandagi mo'jazgina o'yma qayiqni ko'rib qolsalar koshkiydi! Buning amalga oshishiga deyarli umid qilib bo'lmasdi. Biroq shunday bo'lsa-da, umidsiz shayton degandek, birgina shu fikr ularga tasalli berib turardi, xolos.

Emrayin o'g'lini tashlab ketishdan avval unga xuddi shu haqda gapirmoqchi edi. Kiriskni shu gapga ishontirish kerak, toki bola so'nggi nafasigacha, aql-hushdan ayrilmaguncha qayiqda qolsin. Agar suv tugab, ajali yetgudek bo'lsa, u qayiqda o'lsin, toki O'rxon oqsoqol, Milxun va endi shaylangan otasi kabi dengizga o'zini tashlashga majbur bo'lmasin. Boshqa yo'l qolmagandi. Shafqatsiz taqdirga tan berishdan boshqa iloji yo'q edi... Ammo o'n bir yashar bola quyuq tuman ichida, hadsiz-hududsiz dengizda butun olam bilan yuzma-yuz kolib, tashnalik va ochlikdan asta-sekin o'lib ketishini o'ylaganida Emrayinning yuragi orqasiga tortib ketardi. Mana shunisiga u aslo rozi bo'lolmas, hammadan ham shunisi ezib yuborardi. Shunda u: "O'g'limni yolg'iz qoldirib ketolmayman, u bilan birga o'lganim ma'qul", degan fikrga ham borganligini payqab qolardi...

Tez orada hamma yoqni yana zim-ziyo zulmat qopladi. Tumanli tunning qop-qora zulmati dengizni yana qamrab oldi. Kunduzi tuman ichida biror yoqqa suzishdan ma'ni chiqmaganidek, tunda suzish bundan ham bema'niroq ish edi. Qayiq bir joyda ohista chayqalib turardi. Havo o'zgarishidan darak beruvchi hech qanday alomat ko'rinmasdi. Hayhotday huvillagan dengizdan boshqa hech narsa yo'q edi. Ota-bola kechasi qayiqning tubida joylashib olib, bir-biriga mahkam yopishib yotishardi. Tashnalik va ochlikdan azob chekib, har biri endi nima bo'lishini o'ylardi...

Kirisk otasi bilan yonma-yon yotarkan, otasi shu kunlarda juda ozib, holdan toyganini, jussasi kichrayib, zaiflashib qolganligini sezdi. Faqat uning soqoli avvalgidek qattiq botardi.

Otasiga yopishib, unga achinib, ko'z yoshlarini tiyolmay hiqillab yotgan bola ilgari o'ziga ma'lum bo'lmagan azaliy farzand-

lik mehrini tuydi. U ana shu his-tuyg'ularni so'z bilan ifoda eta olmasdi — bular uning qalbiga, qon-qoniga, yurak tepishiga singib ketgandi. Avvallari Kirisk hamisha otasiga o'xshashligi bilan faxrlanar, unga taqlid kilar, otasidek bo'lishni ko'ngliga tugib qo'ygandi. Endi esa bola shuni anglab oldiki, otasi — uning o'zi, uning ibtidosi, o'zi esa otasining davomi ekan. Shu boisdan ham u azob chekar, otasiga xuddi o'ziga achingandek achinar edi. Shuning uchun ham u ko'k sichqonchani chaqirib, o'ziga ham otasiga suv keltirib berishini o'tinib so'rardi:

Ko'k sichqoncha, bizga suv bergin!
Ko'k sichqoncha, bizga suv bergin!

Chidab bo'lmaydigan darajadagi tashnalik azobi soat sari ortayotgan bo'lsa ham ota o'zi uchun suv tashvishini chekmasdi. Yurak-bag'ri yonib ichiga o't tushganday to'lg'anaverdi. Boshi g'uvillab, ko'zi tinib, endi u Milxunning so'nggi lahzalarda qanchalik azob chekkanini fahmladi. Biroq u bu haqda o'ylamasdi. Suvni o'ylashning, to'yib suv ichish istagining endi ma'nosi yo'q edi. Agar o'g'li bulmaganida, agar mana shu oxirgi zim-ziyo tunda pinjiga kirib olgan o'g'lini tashlab ketishga o'zini majbur etolganida edi, u allaqachon so'ngsiz uqubatlarga chek qo'ygan bo'lardi. Mayli, o'g'lining najot topishiga hech qanday umidi bo'lmasa-da, har holda o'g'lining omon qolishi yo'lidagi oxirgi chora deb, uning umri oz bo'lsa-da, uzaysin deb, o'ziyam sezmagan holda shunga intilardi, uning oxirgi umidi, istagi va a'moli shu edi. Xuddi shu maqsadda Emrayin qayiqni tezroq tark etishi zarur edi. Biroq yana o'g'lini deb bu ishga jazm etolmas, o'g'lini taqdir ixtiyoriga tashlab ketishga yuragi dov bermasdi. Imillash, ishni orqaga cho'zish esa undan ham xatarli edi. Negaki o'z-o'ziga dalda berishi uchun zarur bo'lgan so'nggi majoli ham qirqilib bormoqda edi.

Otasining umri tugab borardi...

Buni u o'g'liga qay yo'sinda, qanday so'zlar bilan tushuntirsa ekan? Sen tirik qolishing uchun tark etyapman seni, deb qanday ayta oladi?

— Ota! — birdan shivirladi Kirisk go'yo uning nimalarni o'ylab o'tirganini payqagandek va otasiga yana ham mahkamroq yopishib, ko'k sichqonchaga yolvordi:

Ko'k sichqoncha, bizga suv bergin!
Ko'k sichqoncha, bizga suv bergin!

Emrayin tishini-tishiga bosib, alamdan ingrab yubordi-yu, ammo hech narsa deya olmadi. U fikran o'g'li bilan vidolashar, vidolashgan sari so'nggi qadamga jazm etishga qiynalardi. Uning boshidan kechirgan butun hayoti bugungi kechaga muqaddima ekanligini Emrayin endi anglab yetgan edi.

Nazarida o'z umrini o'g'li orqali uzaytirish uchungina dunyoga kelgan va xuddi shu boisdan ham halok bo'layotgan edi. U o'g'li bilan unsiz vidolasharkan, shu haqda o'ylardi. Emrayin o'zi uchun shuni kashf etdiki, u so'nggi lahzalargacha umrini o'g'lida davom ettirish uchun yashapti.

Agar u ilgari bu haqda o'ylamagan ekan, demak, o'ylashga sabab ham bo'lmagandir.

Avvallari ham shu fikr yashin kabi miyasidan lip etib o'tib qolardi. Hozir shu fikr bilan bog'liq bir voqea yodiga tushdi va bu fikrning ma'nisiga endi tushundi. O'shanda rahmatli Milxun va boshqa qabiladoshlari bilan birga o'rmonda azim bir daraxtni kesishayotgan edilar. Daraxt qulay boshladi, xuddi shu payt u tasodifan ulkan daraxt ag'darilayotgan tomonda turgan edi. Azamat daraxt yon-veridagi jamiki narsalarni bosib-yanchib ag'darilayotgan edi. Shunda hamma baravariga baqirib yubordi:

— Qoch!

Emrayin kutilmaganda o'zini yo'qotib qo'ydi, ammo endi kech edi: naq osmon-u falakdan qasir-qusur etib shovullagancha yam-yashil o'rmonning bir bo'lagini yuqoridan uzib olib ag'anayotgan daraxt asta-sekin naq uning ustiga yopirilib tushayotganini ko'rdi. U shu damda ham faqat birgina narsa — farzandi Kiriskni o'ylardi. Bolasi o'sha kezlari hali norasida, peshonasiga bitgan yolg'iz farzandi edi. Qizi Psulk hali dunyoga kelmagan edi, u shu lahzada ham shubhasiz o'lim ostonasida faqat birgina narsani, o'zidan keyin olamda qoladigan farzandi Kirisk ekanini o'yladi. Boshqa narsalar to'g'risida o'ylashga ulgurmadi ham. Daraxt yaprog'i chang-to'zon ko'tarib uning yonginasida dahshat solib quladi. Shunda hamma yengil tortib, qiyqirib yubordi. Emrayinning hech yeri shikastlanmay omon qolgan edi.

Hozir Emrayin shu voqeani eslab, o'g'lining dunyoga kelishi tufayli ham o'zining shunday odam bo'lib yetishganini, hayotidagi eng ezgu va eng kuchli tuyg'u xuddi shu otalik tuyg'usi ekanligini angladi. Buning uchun u farzandlaridan va avvalo, Kiriskdan minnatdor edi. Emrayin Kiriskka xuddi shu haqda so'zlab bermoqchi edi, lekin o'g'lini bezovta qilgisi kelmadi. Busiz ham bolaning ahvoli og'ir edi...

Otasining umri oxirlab kolgan edi...

Ko'k sichqoncha, bizga suv bergin!..
Ko'k sichqoncha, bizga suv bergin!..

Otaning umri oxirlab qolgan edi.

Uning ko'zi qiymayotgan yana bir-ikki totli xotiralari qolgan edi, u bulardan umidini uzolmasdi. Garchi vaqt siquvga olayotgan bo'lsa-da, shularni yodiga tushirmasdan turib ajal quchog'iga o'zini tashlashi qiyin bo'ldi. Endi u doimo yodida saqlab yurgan xotiralari bilan vidolasharkan, qayiqni tark etish vaqti kelganligini unutmadi...

U xotiniga dastlabki kunlardanok mehr qo'ygandi. Ajablanarlisi shunda ediki, xotini uyda o'tirib o'ylagan narsalarni u ham dengizga chiqqan paytda o'ylagan bo'lardi. Ular birga yashayotgan dastlabki kunlardanoq shunday edi. U dengizga chiqqan vaqtida o'ylagan narsalarni xotini ham o'ylagan bo'lib chiqar, xotinining nima haqda o'ylaganini esa u ham bilardi... Olisdan bir-birlarining fikrlaridan bunday xabardorlikni ular sir tutishar, bu boshqalarga sir bo'lgan yaqinlik baxti edi. Kirisk hali tug'ilmagan, ammo gumonining dastlabki alomatlari ko'rinib qolgandi. Bu alomatlar tasdiqlanishi ham, tasdiqlanmasligi ham mumkin edi. Emrayin dengizdan qaytib kelgan zahotiyoq xotinidan:

— O'g'il bo'ladimi? — deb so'radi.

— Sekinroq, kinrlar eshitib kolishadi! — dedi qo'rqib ketgan xotini va shu zahotiyoq ko'zlari xushbaxtlikdan porladi. — Qayoqdan bila qolding?

— O'zing bugun shuni o'ylagansan. O'g'il bo'lishini judayam xohlaysan, to'g'rimi?

— O'zing-chi?

— Sen nimani o‘ylagan bo‘lsang, men ham shuni o‘ylashimni yaxshi bilasan-ku! Men ham xuddi shuni o‘ylovdim.

— Sen shuni o‘ylaganing uchun men ham shu hakda o‘ylaganman, o‘zing ham o‘g‘il bo‘lishini judayam xohlaysan-ku, to‘g‘rimi?...

Shunday bo‘ldi. O‘ylaganlari to‘g‘ri chiqdi... Kirisk hali tug‘ilmagandi, biroq xotinining oy-kuni yaqinlashib qolgan edi. Yakin-orada xotinining ko‘zi yorib qolishi mumkin edi. O‘sha kunlari xotini uning eskirib, ming yamoq bo‘lib ketgan charm sholvorini kiyib yurardi. “Sen ovga ketganingda, — derdi u, — erkak ruhi doim uyda bo‘lsin deb shunday qilyapman, yo‘qsa, yangi mehmon yaxshi o‘smay qoladi”. O‘sha kezlari eski charm sholvorini kiyib yurgan xotini uning ko‘ziga juda chiroyli va juda jozibali ko‘rinardi. Dunyoda eng chiroyli va eng jozibali ayol edi uning nazarida.

Ularni ota-ona qiladigan odam farzand edi-da. Farzandni o‘ylashib yurgan kunlari ajoyib, tashvishli hamda masrur kunlar edi!

Nihoyat Kirisk tug‘ildi...

Endi shu farzandi bilan, unga aloqador jamiki narsalar bilan vidolashuv payti keldi. Yana esladi: Kirisk katta bo‘lib qolganida, bir kuni onasining jahli chiqib, “Sen yo‘qligingda bunchalik qiynalmasdim”, dedi. Bola juda xafa bo‘lib ketdi.

Otasi dengizdan qaytib kelganida:

— Men tug‘ilmaganimda qayerdaydim? — deb so‘radi u xarxasha qilib. Rosa kulgi bo‘ldi... Er-xotin indashmasdi-yu, faqat ko‘zlari kulib turardi. Ayniqsa, Emrayin javob berolmaganidan, nima qilishni bilmay dovdirab kolganidan, bola yo‘qligida qayerda ekanligini tushuntirib berolmaganidan xotini mazza qilib kulardi.

Endi esa ota o‘g‘liga: xali olamga kelmaganingda sen menda, mening qonimda, belimda eding, shu qon belimdan onangga oqib o‘tdi va sen menga o‘xshash bo‘lib dunyoga kelding va hozir g‘oyib bo‘larkanman, senda qolaman, bolalaringning bolalarida qayta-qayta tug‘ilaman, deb aytib bergan bo‘larmidi...

Ha, u shunday degan bo‘lardi, o‘limi oldidan xuddi shuni aytib ketsa, baxtiyor bo‘lardi. Ammo endi hammasi tugayotgandi. Uning urug‘i dunyoda qolmayotgandi. Farzandining ko‘pi bilan yana bir-ikki kunlik (bundan ortiq emas) umri qolganligini ota yaxshi bilardi. Uning nazarida eng dahshatli falokat va eng dahshatli

baxtsizlik xuddi shunda edi — o‘g‘lini deb qayiqni tark etishida emas...

Emrayin pirovardida: “Umringning qolgan kunlari O‘rxon bobo va aki-Milxunlarni minnatdor bo‘lib yodga olib turgin”, deb o‘g‘liga tayinlagisi ham kelardi. Endi bu odamlar yo‘q, birorta odam ularni eslaydimi-yo‘qmi — ularga buning endi farqi yo‘q, ammo sen o‘zing uchun ularni dilingda saqlashing lozim. Hatto o‘lim oldidagi so‘nggi daqiqalarda ham o‘zing uchun ularni dilingda saqlashing kerak. O‘layotganingda ham yana shu odamlarni o‘zing uchun yodlab o‘lish kerak.

Ammo o‘ylab-o‘ylab, nihoyat, “bularga ehtimol, o‘g‘limning aqli yetar”, degan qarorga keldi...

* * *

Kirisk uyg‘onganida, o‘tgan tunlardagiga ko‘ra uncha sovqotmay uxlaganini sezdi. Ustiga otasining kamzuli yopib qo‘yilgandi. Bola ko‘zini ochib, boshini ko‘tardi — qayiqda otasi yo‘q edi. U qayiqni ko‘zdan kechirib, birdan seskanib tushdi-da, dahshat bilan o‘kirib yig‘lab yubordi, tumanli dengizning kimsasiz sahrosini alamli qayg‘uga to‘ldirdi. Uning umidsizlik va dard-alamga to‘la faryodi uzoq vaqtgacha tinmadi. U holdan toyguncha rosa yig‘ladi, keyin xirillab, qayiq tubiga yiqildi va boshini qayiq devoriga ura boshladi. Bu faryod uning otalar oldidagi qarzi, uning mehr-muhabbati, uning qayg‘usi va marsiyasi edi.

Bola qayiqning tubida boshini ko‘tarmay, ko‘zlarini ochmay yotardi. Endi uning uchun umidvor bo‘ladigan hech narsa qolmagan, o‘zini qo‘yarga ham joy topolmasdi. Atrofni avvalgidek g‘ira-shira tuman koplab olgan va faqat bu gal dengiz qayiqni turgan joyida uyoqdan-buyoqqa tebratib turardi.

Kirisk o‘zining uxlab qolganidan o‘kinib ho‘ngrab yig‘lardi, uxlab qolmaganida otasiga tish-tirnog‘n bilan yopishib olib, uni qo‘yib yubormagan bo‘lardi, ular birga o‘lib ketganlari, tashnalik va ochlik azobidan tezroq birga o‘lib ketganlari yaxshi bo‘lardi. Shunda u bu dahshatli cheksizlikda tanho o‘zi qolib ketmagan bo‘lardi. U kechasi qo‘qqisdan qayiq qattiq silkinib ketganini sezmay qolgani uchun, uyg‘onmagani, o‘rnidan sakrab turib, qichqirmagani uchun o‘kinib-o‘kinib yig‘lardi. Otasining dengizga

o‘zini tashlashiga yo‘l qo‘yarmidi? Undan ko‘ra, otasi bilan birga mana shu zim-ziyo girdobga o‘zini otsa bo‘lmasmidi!

Bola xo‘rsinib-xo‘rsinib yig‘lab, a’zoyi badani zir qaqshab, sekin-asta mudray boshladi. Og‘ir musibat qarshisida chekinib turgan tashnalik endi alamini olgandek yana yangi kuch bilan xuruj qila boshladi. U hatto tushida ham suvsizlikdan sillasi kurib, azob chekayotganini sezib yotardi. Tashnalik uni holdan toydirib azoblab, bo‘g‘ib tashlayotgan edi. Shunda u uyqusiraganicha bochkacha tomon sudralib borib, unga ko‘l uzatganda tiqinning bo‘shroq turganini va yonida cho‘mich ham borligini ko‘rib qoldi. U cho‘michga suv quyib, hech narsani o‘ylamasdan qimtingan lablarini ochib, qaqrab ketgan tomoqlariga tiqilguncha sipqara boshladi. Suvdan yana quyib, yana ichgisi keldi, biroq o‘ylanib turib, o‘zini tiya oldi. Suv oz-ozdan yana ikki marta ichishga yetardi, xolos...

Keyin u g‘amga botganicha, otasi uni nega indamay tashlab ketgani haqida o‘ylay boshladi. Otasi bilan birga cho‘kib ketish unga osonroq bo‘lardi. Endi yolg‘izlik va dahshat uning qo‘l-oyoqlarini bog‘lab, chirmab tashlagan qayiqdan o‘zini suvga otishga yuragi betlamaydi... Bari bir u kuchini yig‘ib olgach, o‘zini suvga tashlashga ahd kildi...

Kun yarimlab kolgan bo‘lsa kerak, ehtimol, peshindan oshgandir. Tumanning ochilib borayotgan tusiga qarab, Kirisk shunday xulosaga keldi. Demak, quyosh tikkaga kelgan bo‘lsa kerak. Biroq okean uzra muallaq turib qolgan Buyuk tuman qatlamini hali quyosh nurlari yorib o‘tolmasdi. Tuman siyraklashib, qurigan o‘tin tutuniga o‘xshab, ko‘kish rangga kirib bormoqda edi. Ammo bari bir yigirma-o‘ttiz chaqirim narida, atrofida chayqalib turgan qopqora suvdan boshqa hech vaqoni ko‘rib bo‘lmasdi.

Suzib boradigan joyning o‘zi yo‘q edi, eshkaklarni ishga solishga ham quvvati yetmasdi. U otasi hamda Milxunning qayiq yondoriga batartib o‘rnatib qo‘yilgan eshkaklariga ma’yus nazar soldi. Qayiq endi tumanda o‘z holicha, noma’lum yo‘nalishda harakat qilib qalqib turardi. Hamma tomondan bolani yolg‘izlik qurshab olgan, atrofda yurakni muzlatib yuboruvchi mudhish bir dahshat hukmron edi.

Kechga borib yana hadeb suv ichgisi kelaverdi. Uning ochlik va zaiflikdan boshi aylanardi. Qimirlagisi ham, atrofiga o‘girilib

qaragisi ham kelmasdi. Qayoqqa ham qarardi, nimani ham ko'rardi. Hatto bochkacha yoniga yetib olish ham malol kelardi. U tizzalari bilan sal emakladi-da, holdan toyib to'xtab qoldi. Kirisk hademay butunlay harakatsiz qolishiga ko'zi yetdi. U qo'lini yuziga yaqin olib keldi-yu, ko'rqib ketdi: qo'li burundiq bolasining qurigan terisidek ozib, kichrayib ketgandi.

Bu gal u keragidan ortiqroq suv ichdi. Endi bochkachaning eng tubidagina suv qolgandi, yana bir marta ichsa bo'ldi, tugaydi. Suvdan bir qultum ham qolmaydi. Lekin endi bari bir emasmi. Ammo yana suv ichgisi, qonib-qonib suv ichgisi kelardi. Ochlik azobiga ko'nikdi-yu, qornidagi og'riq bosilmadi, aksincha, tinchlik bermay sirqirab og'riy boshladi.

Bola necha bor hushidan ketib, necha bor o'ziga keldi. Qayiq o'z holicha, u yerdan-bu erga ko'chib, jonlanib kolgan oqimlarga ergashib, tumanda suza boshladi.

Bir payt u o'zini dengizga tashlashga jiddiy qaror kildi. Ammo madori yetmadi. Tizzalab turib, qayiqning chetiga osilib qoldi. Qo'llarini qayiqdan nariga cho'zdi, ammo o'z tanasini qayiqdan uloqtirishga qurbi yetmay, osilganicha qoldi. Keyin esa shunchalik toliqdiki, bochkada qolgan suvni ichishga ham urinmay qo'ya qoldi.

U qayiq ichida qapishib yotgancha suv beruvchi sichqonchasini chaqirib unsiz yig'lardi:

Ko'k sichqoncha, menga suv bergin!..

Biroq ko'k sichqondan darak yo'q, u bo'lsa battar suv ichgisi kelaverdi. Shunda yana ariqda yalang'och bo'lib cho'milishgan o'sha kezlar yodiga tushdi. O'shanda u yetti yoshlardan oshmagandi. O'sha yili yoz issiq keldi. O'rmon yoqasida rosa kun qizdirardi. Bolalar o'rmonda meva terishar, cho'milishardi. Onasi ham, singlisi ham cho'milishardi. Ular boladan unchalik uyalishmasdi. Ikkovlari yechinishdi, bug'doymag'iz sonlari bilan suvni to'lqinlatib, sachratib, kaftlarini siynalariga qo'ygancha buloqqa seskanib-seskanib tushishdi. Ular bir-biriga suv sepishib allaqanday baqirib-chaqirishardi. U esa ariq bo'ylab chopib, balandlikdan o'zini suvga tashlaganida ular, ayniqsa onasi rosa kulishgandi.

"Qara, qara, — derdi onasi singlisiga, — judayam o'xshaydi-ya, xuddi o'zi-ya!" Ular sho'x-shodon pichirlashib, xandon otib kulishib, yana allanimalar deyishardi... Adog'i yo'q jilg'a suvi shitob bilan oqardi, undan to'yib-to'yib ichish va istagancha cho'milish mumkin edi...

Ko'k sichqoncha, menga suv bergin!

U o'zini yana o'sha ariq bo'yida turgandek his qildi. Go'yo u yana saraton jaziramasida cho'milayotganmish. Mana, u qirg'oq bo'ylab yugurib keldi-da, oqimga o'zini tashladi, ammo oqimning salqinligini sezmadi. U suv emas, qandaydir bir noma'lum narsa, suv desang suvga o'xshamaydi, xuddi tumanning o'zi. U tumanda cho'milyapti. Bunaqa suvda eti jimirlashib ketyapti. Onasi bo'lsa kulmaydi, aksincha, yig'layapti, "Qara, kara, u judayam o'xshaydi unga", — deydi u kimgadir va yana yig'laydi, o'ksinib yig'laydi. Uning sho'rta'm ko'z yoshlari bolaning yuziga oqib tushayotir...

* * *

Tunda Kirisk to'lqinlarning chayqalishi va shovqinidan uyg'onib ketdi. Bola zaif chinqirib yubordi, u osmonga qarab, yulduzlarni ko'rdi! Shuncha kundan buyon birinchi marta yulduzlarni ko'rishi. Ular zim-ziyo osmonda, balandda, dengiz ustidan suzib o'tayotgan bulutlar orasida porlab turardi. Hatto bir necha bor bulutlar orasidan shitob bilan suzib o'tgan oyni ham ko'rdi.

Bola o'zini yo'qotib qo'ydi: yulduzlar, oy, shamol, to'lqinlar — hayot, jonlanish boshlandi. Garchand tuman pardasi hali shundoq turgan bo'lsa-da, qayiq shunday qalin tuman orasidan o'tganda hammayoq yana g'ira-shira zulmatga cho'ksa-da, bu hol uzoq davom etmadi. Buyuk tuman qo'zg'alib, junbushga kelib, shamol va to'lqinlardan chekinib, olamga tarqab, yoyilib borardi.

Bola ko'zlarida yosh bilan yulduzlarga boqardi. Eshkaklarni qo'lga olishga madori yetmasdi, yulduzlarga qarab yo'l topishni, qay tomonga qarab suzishni ham bilmasdi, qayerdaligini va kelajakda uni nima kutayotganini ham bilmasdi. Lekin u bari bir yugurik to'lqinlarning shovqinini eshitayotganidan, shamol turib, qayiq to'lqinlar uzra suzib borayotganidan xursand edi. U sevinch

va qayg‘udan, olam yorishganidan, dengiz jonlanib qolganidan yig‘lar, ichishga suvi va biron-bir yemishi bo‘lganda edi, ehtimol u yana hayotni sevib qolgan bo‘lardi. Ammo u endi o‘rnidan turolmasligini, kuni bitganini, hademay tashnalikdan o‘lib ketishini sezib turardi...

Qayiq bo‘lsa to‘lqinlar yuzalab tobora ildamroq suzib borardi. Qayiq rulsiz va eshkaklarsiz, oqim bo‘ylab suzib borardi. Dengiz uzra ufq arang ko‘rinar, tun qorong‘iligi asta-sekin chekinib, tuman to‘dalari borgan sari kamayib borardi. Shuningdek, yo‘l-yo‘lakay u yer-bu yerda to‘planib qolgan tuman to‘dalari ham siyraklasha boshladi. Endi avvalgiday sukunat hukm surmayotgan bo‘lsada, qorong‘ilik bolani zeriktira boshlagan edi. Endi tuman ichida qandaydir xayoliy mavjudotlar sassiz uchib yurganday tuyuldi unga. Ular paydo bo‘lib, yana shamolda izsiz yo‘qolar, tumanni chok-chokidan so‘kib, har tomonga tarqatib borardi.

Bulutlar orasida oy paydo bo‘lishi bilanoq dengiz yuzasi bir zum jimirlab, yarqirab ketar, so‘ng yana so‘nib, yana jonlanardi. Bola ohista nur sochayotgan yulduzlarga boqib, o‘ylay boshladi: “Ularning qay biri qo‘riqchi yulduz ekan? Qay biri atkichx O‘rxonning, qaysi biri aki-Milxunning, qaysi biri otam — Emrayinning yulduzi ekan? Sizlar mutlaqo ko‘rinmadingiz. Siz, yulduzlar ham, bizlarni tumanda ko‘rolmasdingiz. Endi yakka o‘zim qoldim, qayoqqa suzib borayotganimni ham bilmayman. Ammo endi men qo‘rqmayman, negaki osmonda hammalaringizni ko‘rib turibman. Faqat kimning yulduzi qayerdaligini bilmayman. Biroq bunday bo‘lishiga sizlar aybdor emassizlar. Axir, siz bizni dengizda ko‘rmagansiz. Buyuk tuman bizni yashirib turgan edi. Endi yolg‘iz o‘zimman. Ular bo‘lsa suzib ketib qolishdi. Uchovlari ham ketib qolishdi. Ular sizni judayam yaxshi ko‘rishardi. Sizni judayam kutishdi, qirg‘oqqa yo‘l topib borish uchun sizlarni ko‘rishga judayam mushtoq bo‘ldilar. Yulduzlar hech qachon aldamaydi deb atkichx O‘rxon aytardi, u menga yulduzlarga qarab yo‘l topishni o‘rgatmoqchi edi...

Biroq bunday bo‘lishiga sizlar aybdor emassizlar. Mening ham kunim bitay deb qoldi, suvim ham qolmadi, tinka-madorim qurib, qayoqqa suzib borayotganimni ham bilmayman... Mening ozgina, judayam ozgina suvim qoldi, men uni hozir ichaman, endi

chidolmayman, quvvatim qolmadi. Bugun qoq baliq solinadigan xaltamning bir bo'lagini chaynab ko'rdim. U tyulen terisidan tikilgan. Boshqa chidayolmayman, ko'nglim aynib, ichim ag'darto'ntar bo'lib ketyapti... Men hozir oxirgi suvni ichaman. Mabodo boshqa ko'rishish nasib bo'lmasa, yulduzlar, sizlarga bir gap aytay — atkichx O'rxon, aki-Milxun, otam Emrayin sizlarni juda yaxshi ko'rishardi. Mabodo ertalabgacha omon qolsam, keyin vidolashaman..."

Tez orada qayiq yana qalin tuman qatlami orasiga tushib qoldi. Yana hamma narsa ko'zdan g'oyib bo'lib qoldi. Biroq qayiq avvalgiday shamolning kuchi bilan ilgarilab borardi. Kirisk uchun endi hech narsaning ahamiyati yo'q edi. U butunlay aynib, sasib ketgan suvning so'ngi kultumini ichdi-yu, o'sha joyda, bo'm-bo'sh bochka yonida, qayiq kuyrug'ida, odatda O'rxon bobo o'tiradigan yerda yotib qoldi. U o'limga chog'langani uchun endi tumandan ham qo'rqmasdi. Faqat yulduzlar ko'rinmay qolgandi-da, ular bilan vidolashishga ehtimol ulgurolmasam kerak, deb afsuslanardi... Ahvoli yomonlashgandan-yomonlashib borardi.

U hushsizlanib, alahsirab yotar, oradan qancha vaqt o'tganini bilmasdi. Ehtimol tun yarimlab qolgandir, ehtimol, tong otib qolgandir? Bir nima deyish mushkul. Dengiz ustini shamolda uchgan tutun singari g'ira-shira tuman koplab olgan edi.

Peshonada bori bo'ladi. Bola shu payt qushning ovozini eshitishi ham, eshitmasligi ham mumkin edi. Lekin u eshitdi. Birdan boshi ustida nimadir vizillab, qanotlarini shapillatib tumanda qayiqning ustidan pastlab uchib o'tib ketganini sezib qoldi. Bola birdan sapchib tushdi va bir zumda bu — qush, qanotlarini keng yoyib uchayotgan katta kuchli bir qush ekanini ko'rishga ulguroldi.

— Agukuk! — qichqirdi u. — Agukuk! — u qutb boyqushi qayoqqa uchib borayotganini ko'rishga ulgurdi, shamolning qayoqqa esayotganini eslab qolishga ulgurdi. Shamol chapdan, gardanining so'l tarafidan, chap qulog'ining biroz orqarog'idan esardi!

— Agukuk! — qichqirdi u qush uchib ketgan tomonga qarab qayiqni burgancha.

Kirisk rul eshkagiga mahkam yopishib olib, zo'r berib tirishar, qolgan-qutgan kuchini arang jamlab, boshqa hech narsaga

e'tibor bermay faqat shamolning yo'nalishini va qushning uchib ketgan tomonini yodda tutardi. Qutb boyqushi qayerdan qayoqqa uchayotganligi noma'lum edi. Oroldan qit'agami yoki qit'adan birorta orolgami — bilib bo'lmasdi. Ammo Kirisk O'rxon boboning hikoyasini esdan chiqarmagandi — bu qush dengiz ustidan faqat to'g'riga qarab uchadi. Agukuk — tunda va tumanda uchadigan eng kuchli qush. Endi Kirisk shu qush izidan borayotgan edi.

Qayiq bo'lsa to'lqindan-to'lqinga oshib o'tardi. Shamol birday esmoqda edi. Tuman siyraklashib, tarqalib borar, osmonning chetlari biroz yorishib bormoqda edi. Oldinda shundoqqina to'g'risida esa lojuvard osmoni falakda yagona nurli bir yulduz balqib turardi. Kirisk yulduzning xuddi qayiq borayotgan tomonda turganligini payqadi. U yulduzni mo'ljalga olib, o'sha tarafga qarab borish lozimligini fahmladi, chunki agukuk xuddi shu tarafga qarab uchib ketgandi. Bola bu yulduzning nomini bilmasa ham endi u shu yulduzdan ko'zini uzmas va shamolning yo'nalishini, uning kuchi va epkinini bilib turardi.

"Shamol, esaver, ketib qolma. Noming nima, bilmayman, atkichx O'rxon bo'lganida nomingni aytib berardi. Ammo sen menga aka bo'l. Ketib qolma, shamol, o'zingni boshqa yoqqa olib qochma. Axir, sen qancha xohlasang, shuncha uzoq esaverasan-ku. Shamol, menga madad ber, ketib kolma. Men nomingni albatta bilib olaman, so'ng otingni aytib chaqiraman. Xohlasang, men seni O'rxon deb chaqirayin. Atkichxim — O'rxonning nomi bilan chaqirayin. Endi seni hamisha O'rxon shamol deb atayman. Sen ham meni tanib olasan..."

U hamroh shamolni ana shunday ardoqlab, to'g'ri yo'lga boshla, dilimga umid va ishonch ber, deb yalinib-yolvorardi. Ko'zlarini esa o'zi intilayotgan yo'lchi yulduzdan uzmasdi: "Seni yaxshi ko'raman, yulduzim, — derdi u yulduzga. — Sen juda baland va uzoqdasan. Sen oldindagi eng katta va go'zal yulduzsan. Yolvoraman, ketib kolma, bir joyda to'xtab tur, hech so'nma. Sen tarafga suzib ketyapman. Sen tomonga agukuk uchib o'tdi. U orol tomonga uchdimi yo qirg'oq tomonga uchdimi, bilmadim. Orolga uchgan bo'lsa ham mayli, orolda o'la qolay. Ketma, so'nib qolma, ey yulduz! Nomingni bilmayman, mendan xafa bo'lma! Nomingni

bilishga ulgurolmadim. Nomingni menga otam Emrayin aytib bera olardi. Agar xoxlasang, seni otamning nomi bilan atayman, seni Emrayin yulduzi deyman. Osmonda paydo bo'lganingda sen bilan salomlashib, nomingni shivirlab aytaman. Sen esa menga madad ber, Emrayin yulduzi, barvaqt ketib, so'nib qolma, bulut orasiga birdan yashirinib olma..."

U o'zining yo'lchi yulduziga shu so'zlar bilan murojaat qilardi. U yana to'lqinlarga yolvordi: "To'lqinlar, siz qayig'imni haydab boryapsiz, siz hozir qanday yaxshisiz. Men sizlarni aki-Milxun to'lqinlari, deb atayman. Siz agukuk uchgan tomonga ketyapsiz. Siz xohlagan tarafingizga yumalab keta olasiz-ku, axir. Aki-Milxun to'lqinlari, ketib kolmang, yo'ldan adashmang. Men eshkak eshib suzib ketar edim-ku-ya, lekin butunlay holdan toyganman-da. Ko'rib turibsiz-ku, siz qayoqqa xohlasangiz, o'sha yoqqa suzib ketyapman. Agar omon bo'lsam, hamisha yodimda tutaman: siz O'rxon shamoli esgan yoqqa, Emrayin yulduzi tomoniga suzyapsiz, aki-Milxunlar dengizda faqat yaxshilik kilishadi, deb hammaga aytaman! Menga madad bering, aki-milxunlar! Ketib qolmang, meni tashlab ketmang..."

* * *

Hamma yulduzlar orasida eng uzoq charaqlab turgani Emrayin yulduzi bo'ldi. Tongga yaqin u osmon-u falakda yolg'iz o'zi qoldi. Tongga yaqin u kuchli, sof bir nur bilan lovillab yonib turdi va subhidamning simobrang havosida asta-sekin so'nib, yana ancha vaqtgacha osmonda nafis, oppoq nurday bo'lib turdi.

Mana shu zaylda tong ham otdi. Keyin dengiz uzra oftob chiqdi. Kirisk ham quvonib, ham qo'rqib ketdi. Quyoshning chiqishidan quvonib ketgan bo'lsa, dengizning bepoyonligidan qo'rqib ketdi. Oftob nurlarida jivirlab, moviy tovlanayotgan dengiz deyarli qop-qora tusga kirib, cheksizligidan ko'z ilg'amas holga keldi. Bola rul eshkagiga jon-jahdi bilan yopishib olib, o'zi eslab qolgan tomonga, shamolning yo'nalishiga qarab suzishga harakat qilardi. Bu juda-juda mushkul edi...

U boshi aylanib, ko'zi tinib, hamma narsa chirpirak bo'lib ketganini eslay oldi, xolos...

Qayiq endi o'z holicha suzib borardi...

* * *

Bola esini yig'ib o'ziga kelganida, quyosh osmonning narigi chetiga siljib ketgan edi. Kirisk titroq qo'llarini olg'a cho'zib, suyanganicha qayiqning quyrug'idan bazo'r qo'zg'aldi, boshi aylanishi o'tib ketishini kutib, ko'zlarini yumganicha joyida qotib turdi. Keyin ko'zini ochdi.

Qayiq to'lqinlar osha suzib borardi. Dengiz yuzasidagi chayqalib turgan betinim suv tangachalari ko'z ilg'agan joygacha jimirlab turardi. Kirisk oldinga nazar tashlab, ko'zlarini uqaladi va hang-u mang bo'lib qoldi. Dengizning quyuq yashil o'rkachida qarshidan unga qarab Olapar chopib kelardi! Buyuk Olapar!

Dengiz chetida kulrang — zangori tusdagi qoya shundoqqina ko'zga tashlanib turardi. Ammo quloqlari-yu tepalarigacha oppoq bo'lib turadigan Olapar boshqa hamma qoyalardan ko'ra baland bo'lib, uning etagidagi mudom borib-kelib, chayqalib turadigan to'lqinlar ham aniq ko'rina boshladi. Havoda qirg'oq bo'ylab uchib yuradigan oqchorloqlarning tovushi xam quloqqa chalinardi. Eng avval bolani oqchorloqlar payqab kolishdi. Adashganlarga yo'l ko'rsatish uchun tepalikning eng yuqorisida tunda yoqilgan o'tning tutuni o'rlab turardi...

Sohil bo'ylab chopayotgan Olapar,
Yakka-yolg'iz qaytmoqdaman yoningga —
Bobojonim O'rxonsiz,
Otajonim Emrayinsiz,
Og'ajonim Milxunsiz,
Ular qayda qoldi, so'ragil mendan,
Faqat avval suv bergil, o, suv...

Bu Kiriskning o'zi to'qigan qo'shig'ining dastlabki satrlari edi. Bu endi uning umrining oxirigacha aytadigan qo'shiq bo'ladi...

* * *

... Dengiz to'lqinlari zulmat qo'ynida guvillab, o'kirib, shiddat bilan qoyalarga kelib urilib, parchalanib ketardi. Dengiz hamlalarini qaytaraverib, tosh-metin bo'lib ketgan qirg'oq xo'rsinib, uf tortardi.

Olam olam bo‘lib yaralgandan buyon, kun tundan tug‘ilgan, tun kundan tug‘ilgan zamonlardan buyon ahvol shu — ikki qudratli kuch o‘rtasidagi olishuv davom etadi: bundan buyon ham, kun-u tun, tun-u kun, toki yer bilan suv bor ekan, ular abadulabad shunday kurashaveradi...

Kun-u tun, tun-u kun...

* * *

... Shunday kechalardan yana biri o‘tdi...

Dengiz uzra O‘rxon shamoli shovqin solar, dengizda aki-Milxun to‘lqinlari suzib yurar va yorishib kelayotgan osmoni falakning bir chetida Emrayinning nurli yulduzi charaqlab turardi.

... Yana yangi bir kun boshlanmoqda edi...

Baytik qishlog‘i.
1976-yilning dekabri — 1977-yilning yanvari.

MUNDARIJA

Adib haqiqati *(Ahmadjon Meliboyev)* 3

Chingiz Aytmatov

qissalar

Erta qaytgan turnalar 11
Jamila 114
Sarvqomat dilbarim 171
Birinchi muallim 295
Somon yo'li 352
Oq kema 447
Sohil bo'ylab chopayotgan Olapar 577

Ch 60 Chingiz Aytmatov [Matn]: nasr/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Ahmadjon Meliboyev. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 672 b.
ISBN 978-9943-8571-2-4

UO‘K 821.512.154-3
KBK 84(5Qir)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

CHINGIZ AYTMATOV

85-jild

Adabiy-badiiy nashr


Tarjimon
Asil Rashidov

Muharrir *Anvar Zulpixarov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Gulchehra Gulyamova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 42,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 39,57.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 152-1/22. Buyurtma raqami № 22-368

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.



CHINGIZ AYTMATOV